

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

**Qo‘ldosh Ergashev
Hojiakbar Hamidov**

O‘ZBEKISTON TARIXI

*Oliy o‘quv yurtlari, litsey va kollej
talabalari uchun o‘quv qo‘llanma*

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent–2015

Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi huzuridagi O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi metodik markazi xulosasi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi qoshidagi “Gumanitar fanlar ta‘lim yo‘nalishi” bo‘yicha o‘quv-uslubiy komissiyasi tomonidan nashrga tavsiya etilgan (2013 yil 2 sentabr. 19-sonli bayonnoma).

Mas‘ul muharrir:

Q.Usmonov, tarix fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

B.V.Hasanov – tarix fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi

“Tarixchilar jamiyati” raisi,

X.To‘rayev – tarix fanlari doktori, professor;

K.Karimov – tarix fanlari doktori, professor.

© Q. Ergashev, H. Hamidov

© G‘afur G‘ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi,
2015

KIRISH

Buyuk ajdodlar vorisi bo'lmish O'zbekiston xalqi o'z mustaqilligining 23 yilligini eng ulug' va eng aziz bayram sifatida nishonladi. O'tgan bu davr o'zining mazmun-mohiyati, bunyodkorlik ko'lami va beqiyos ahamiyati bilan tarix sahifalariga zarhal harflar bilan bitilajak tom ma'nodagi buyuk evrilish bo'ldi. Tarixan qisqa, ammo asrlarga teng bu yillarda o'zbek xalqi milliy taraqqiyot yo'lidan qat'iyat va jasorat bilan qadam tashlab, barcha sinov-mashaqqatlarni yengib o'tdi va olamshumul yutuqlarga erishdi.

Tarixan qisqa davrda, avvalo, el-yurtimizning xohish-irodasi, kuch-qudrati, mashaqqatli va bunyodkorona mehnati evaziga jahon xaritasida yangi, o'z kuchi va salohiyatiga ega, bugun taraqqiyot yo'lidan barqaror sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan mustaqil suveren O'zbekiston davlatining paydo bo'lishi, shubhasiz, o'zbek xalqining tarixiy g'alabasidir. O'zbekistonning o'ziga xos va o'ziga mos taraqqiyot yo'li – o'zbek modelining mamlakat uchun hal qiluvchi bir paytda eng to'g'ri, eng oqilona yo'l sifatida tanlangani, yurtda yashayotgan har qaysi inson, har bir oila, butun jamiyat hayotida sinovdan o'tib, amalda har tomonlama o'zini oqlagani¹, bu yo'l tufayli ulkan natijalarni butun dunyo tan olayotgani, mamlakatning xalqaro maydonda obro'e'tibori ortib, o'ziga munosib o'rin egallayotgani² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining yigirma ikki hamda yigirma uch yillik bayramlariga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish to'g'risidagi qarorlarida ham alohida e'tirof etildi.

Istiqlolning 23 yillik bayramini mamlakatda **“Yagonasan, muqaddas Vatanim, sevgi va sadoqatim senga baxshida, go'zal O'zbekistonim!”** shiori ostida nishonlanishi shu Vatanda yashab faoliyat yuritayotgan barcha yurtdoshlarni buyuk kelajakka ishonchini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

¹ *Qarang:* O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 12-iyundagi “O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining yigirma ikki yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida”gi qarori. // “Xalq so'zi”, 2013-yil 14-iyun.

² *Qarang:* O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 1-iyuldagi “O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining yigirma uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida”gi qarori. // “Xalq so'zi”, 2014-yil 12-iyul.

Mustaqillik tufayli bugungi kunda jamiyatni yanada erkinlashtirish, aholining siyosiy faolligini oʻstirish, siyosiy madaniyatini yuksaltirish, har bir insonning hayotda oʻz oʻrnini topish masalalariga muhim eʼtibor qaratilmoqda. Yurtboshi aytganidek: “Har bir inson oʻz oʻrnini bilishi, oʻzini jamiyatning ajralmas qismi deb his etishi darkor”¹.

Bugun erishgan mustaqillikni mustahkamlash uchun yurt fuqarolari bir-biriga mehr-muhabbatli, vatanparvar, yurtparvar, kerak boʻlsa Vatan mustaqilligi yoʻlida jon fido qilishga tayyor boʻlishlari lozim. Bunday fazilatlarini butun xalq, yurt kelajagi – yoshlar ongiga singdirish va shakllantirishda Vatanimiz tarixining oʻrni va ahamiyati beqiyos. Chunki, oʻz xalqi, Vatani tarixini bilgan inson gʻururli, iftixorli va vatanparvar boʻladi. Yurtboshi aytganidek: “Inson oʻzligini anglagani, nasl-nasabini bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuygʻusi ildiz otib, yuksala boradi. Bu ildiz qancha chuqur boʻlsa, tugʻilib oʻsgan yurtga muhabbat ham shu qadar cheksiz boʻladi”².

Oʻzbek xalqi boy tarix va madaniyatga ega xalq. Bu yurt jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri. Bu tabarruk tuproq ne-ne allomalarni, fozil-u fuzalolarni, olim-u ulamolarni, davlat arboblari-yu sarkardalarni yetishtirib bergan. Oʻzining qadim tarixida ne-ne bosqinchilik urushlarining guvohi boʻlgan, ularga qarshi ozodlik kurashlarini olib borib, hamisha oʻzligini, gʻururi, tarixi, maʼnaviyati, qadriyatlarini va madaniy merosini saqlab qoldi. Biz mustaqillikka erishgan bugungi kunda ana shunday yurt, xalq bilan faxrlanishga haqlimiz.

Oʻzbekiston tarixi buyuk ajdodlarning bugungi vorislari – yoshlarga boy tarix, madaniyat, xalqning bosib oʻtgan ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, milliy qadriyatlar, anʼana va urf-odatlar haqida chuqur maʼlumot beribgina qolmay, jonajon Vatanning istiqloldan keyingi yillarda erishgan yutuqlari, amalga oshirilayotgan islohotlar, uning bosqichlari, strategik yoʻnalishlari, mustaqil davlatning olib borayotgan ichki va tashqi siyosati, bu boradagi vazifalar xususidagi bilimlarni yanada oshirib borishni ham oʻz oldiga maqsad qilib qoʻyadi. Bu fan talabalarni vatan tarixi, xalq oʻtmishi durdonalaridan boxabar qilish bilan birga, bugungi kun haqida ularga toʻliq maʼlumot beradi va kelajagi buyuk davlatning taraqqiyot yoʻliga boʻlgan ishonchlarini yanada mustahkamlaydi.

Vatani tarixini bilmoq va bu zalvorli manbaning uzoq-yaqin davrlariga doir sahifalarini varaqlamoq oʻzini maʼrifatli, shu yurtning jonkuyari deb bilgan har bir fuqaroning vijdon ishi hisoblanadi. Darhaqiqat, millat boʻlib shakllangan

¹ Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni–xalq, millatni–millat qilishga xizmat etsin. – T.: “Oʻzbekiston”, 1998. – 20-b.

² Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq eʼtiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. – T.: “Oʻzbekiston”, 2000. – 22-b.

xalq o'z o'tmishini, ota-bobosini, hovli-joyi va qishloq-qo'rg'onining tarixini mukammal bilishi shart. Aks holda Vatan tuyg'usi shunchaki havoyi tushuncha, vatanparvarlikka da'vat esa hoy-u havasdan nariga o'tmay qolaveradi.

Prezident I.A.Karimov 2013-yil 9-may kuni ommaviy axborot vositalari vakillariga bergan intervyusida tarix va uning ahamiyati haqida to'xtalib: "Hayotning o'zi bir haqiqatni takror va takror isbotlab bermoqda. Ya'ni tarixni bilmagan, tarixini unutgan, tarixdan xulosa chiqarmagan har qanday inson, har qanday xalq o'z yo'lidan adashishi, bir vaqtlar yo'l qo'ygan xatolarini takrorlashi mumkin"¹ ligini yana bir bor uqtirgan edi. Bugungi yoshlar ongiga yangi, xolisona yaratilgan tarixni singdirish orqali yurtning insoniyat sivilizatsiyasining dastlabki o'choqlaridan biri ekanligini, davlatchilik tarixi 3,5-4 ming yillarga borib taqalishini, ajdodlar qadim-qadimdan shu yurt sohiblari bo'lganligini, ular ne-ne bosqinchilar zulmiga bardosh berib, doimo ozodlikka intilib, kurashib yashaganliklarini; bu yurt ilm-fan o'chog'i sifatida dunyo tamaddunida o'z o'rniga ega bo'lish bilan birga jahon ilm-fan beshigini tebratgan, dunyoni lol qoldirgan allomalarni, Amir Temurdek buyuk sarkarda va davlat arboblarni yetkazib berganini, bu yurt chor Rossiyasi zulmini, turg'unlik va qatag'onlar davrini boshidan o'tkazgan, nohaq tuhmatlarga bardosh bergan, baxtli, saodatli kunlarni orzu qilib yashagan yurt farzandlarining Vatani ekanligini, o'zbek xalqining ildizi mustahkam bo'lganligi bois bu xalqning, bu yurtning kelajagi albatta buyuk bo'lishini yana bir bor ta'kidlamoq lozim.

O'zbek xalqining tarixi buyuk va bu buyuk tarixni haqqoniy ravishda, xolisona yoritish bugungi barcha tarixchi olimlarimizning vijdon ishidir. Bu borada oliy o'quv yurtlari nomutaxassis fakultetlarining bakalavr bosqichi talabalari uchun professor R.H.Murtazayeva tahriri ostida O'zMU professor-o'qituvchilarining (kirill alifbosida 2003-yil, lotin alifbosida 2005-yil), Toshkent Moliya instituti professor-o'qituvchilari Q.Usmonov, M.Sodiqov va S.Burhonovalarning (2006-yil) "O'zbekiston tarixi" darsliklari, R.Shamsutdinov va Sh.Karimovlarning 3 jilddan iborat "Vatan tarixi" (lotin alifbosida, 2010-yil) kitoblari talaba yoshlar uchun o'z tarixlarini o'rganishda muhim qo'llanma bo'lib xizmat qilmoqda va mazkur o'quv qo'llanma mualliflariga yuqorida nomlari zikr etilgan darsliklar asosiy yo'llanma bo'lganligini, ulardan tarixiy jarayonlarni yoritishda, shuningdek, o'quv qo'llanmaning yaratilishida, undagi qadimiy davrlarni, milliy davlatchilikning shakllanishi, o'zbek xalqining etnik shakllanishi jarayonlarini yoritishda taniqli tarixchi-

¹ Karimov I.A. Tinchlik va osoyishtalik – barcha yutuq va marralarimizning asosidir. // "Xalq so'zi", 2013-yil 10-may.

arxeolog olim, akademik A.Asqarovning “O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi” (2007-yil) nomli o‘quv qo‘llanmasi, mamlakat hududida mavjud bo‘lgan qadimiy davlatlar, ularda yuz bergan tarixiy jarayonlar, ularning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotini yoritib berishda tarixchi olim Azamat Ziyoning “O‘zbek davlatchiligi tarixi” (2000-yil) kitobidan va ilmiy xulosalaridan keng foydalanilganini ta’kidlash lozim.

Chor Rossiyasi bosqini va uning Turkistonda olib borgan mustamlakachilik siyosati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va Jamiyat qurilishi akademiyasi qoshidagi O‘zbekistonning yangi tarixi markazi va bir qator oliy o‘quv yurtlari tarixchi olimlari tomonidan yaratilgan “O‘zbekistonning yangi tarixi” (1-kitob), “Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida” (2000-yil) kitobida arxiv hujjatlari asosida batafsil yoritib berilganki, mazkur o‘quv qo‘llanmaning ushbu mavzularga tegishli IX bobini yozishda yuqoridagi kitoblarning materiallaridan ham foydalanildi.

Mustabid tuzumning O‘zbekistonda barchayo‘nalishlarda olib borgan faoliyati, ularning mustamlakachilik siyosatini yoritishda professor Q.Usmonov va dotsent M.Sodiqovlarning 2002-yilda nashr etgan “O‘zbekiston tarixi” (1917–1991-yillar) darsligi, shuningdek, ushbu o‘quv qo‘llanmaning “Muhim tarixiy sanalar” qismida ko‘hna tarixning bugungacha bo‘lgan yilnomasi ixcham tarzda bayon qilindi, olimlar Q.Rajabov, F.Husanov, I.Shoyardonov va B.Tojiboyevlar tomonidan yaratilgan “O‘zbekiston tarixining muhim sanalari” (2010-yil) va tarixchi olim M.B.Hasanova tuzgan “O‘zbekiston tarixi (jadval va chizmalarda)” kitoblari ham muhim yo‘llanma vazifasini o‘tadi.

Shu bois, ushbu o‘quv qo‘llanma mualliflari yuqorida nomlari zikr etilgan kitoblarni yaratgan olimlarga o‘z minnatdorchiliklarini bildiradi.

Bu darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar nashr etilgandan buyon yana bir necha zalvorli yillar o‘tganini va bu yillar ichida eng yangi tarix yanada to‘yinganini ta’kidlash lozim. Bu tarix jarayonlarini xolisona yoritmoq va bundan yosh avlodni bahramand etmoq ushbu o‘quv qo‘llanmaning yaratilishiga turtki bo‘ldi.

Avvalgi nashr etilgan darslik va o‘quv qo‘llanmalarga da’vo qilmagan holda, mazkur qo‘llanmada bir qator muhim o‘zgarish va qo‘shimchalar kiritilganligini aytib o‘tishni joiz deb bildik:

1. “O‘zbekiston tarixi” fanining yoshlar tarbiyasidagi o‘rni va ahamiyati beqiyos ekanligini nazarda tutgan holda, tarix fanini o‘qitishning tarbiyaviy jihatlarini kengroq yoritishga e’tibor qaratilarkan, fanning predmeti, nazariy-metodologik tamoyillari va ahamiyatini ochib berish uchun “Prezident I.A.Karimov tomonidan haqqoniy tarixni xolisona yoritish va o‘rganish tamoyillarining asoslab berilishi” bosh mavzu sifatida kiritilib, unda

I.A.Karimovning “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q”, “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarlarida ilgari surilgan g‘oya, fikr va mulohazalar muhim o‘rin egallaydi.

2. Avvalgi darslik va o‘quv qo‘llanmalarda “Avesto” kitobi va zardushtiylik ta’limoti fanning “O‘zbek davlatchiligining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari” mavzusiga kiritilib, bu manba va ta’limotning qadimiy davlatchiligiga oid g‘oya va fikrlari haqidagi ma’lumotlarga urg‘u berilar edi. Mazkur o‘quv qo‘llanmada esa “Avesto”ning yaratilishi, undagi ta’limotning qadimiy ajdodlar sivilizatsiyasining ma’lum bir bosqichi mahsuli ekanligini inobatga olib, I bobga alohida “Ajdodlar sivilizatsiyasida “Avesto” va zardushtiylik ta’limotining o‘rni” nomli mavzu kiritildi va uning mazmun-mohiyatini ochib berishga harakat qilindi.

3. Qo‘llanmaning “O‘zbek xalqining etnik shakllanishi” bobi olimlarning yangi ilmiy xulosalari asosida yozilib, unda “etnos” va “etnogenez” tushunchalariga alohida e’tibor qaratildi. Shuningdek, ajdodlar yaratgan yozuv, til hamda xalqning millat bo‘lib shakllanishi masalalari alohida mavzu sifatida tahlil qilib berildi.

4. Tarixning IX–XII asrlar uyg‘onish davri “IX–XII asrlarda o‘zbek davlatchiligi: siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot” bobiga kiritildi hamda allomalarning hayoti va faoliyati, ularning buyuk xizmatlarining bugungi yosh avlodlarga bo‘lgan sabog‘i masalalari I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida ilgari surilgan fikrlar va g‘oyalar asosida qayta ishlandi.

5. Amir Temur va temuriylar davlatchiligiga bag‘ishlangan bobda “Amir Temur shaxsi va uning buyukligi” nomli alohida mavzu kiritilib, unda Sohibqiron shaxsiga berilgan baho, uning boshqa hukmdorlardan farqli jihatlariga urg‘u berildi va bu buyuk zotning mustaqillik g‘ururi va faxriga aylanishining sabablari ko‘rsatib berildi.

6. O‘quv qo‘llanmaga “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” nomli alohida bob kiritilib. Prezident I.A.Karimovning shu nomdagi asarida berilgan aniq tarixiy dalillar, 1989–1991-yillar davomidagi tarixiy ma’lumotlar asosida o‘sha suronli davrni, yetilib qolgan muammo va ularning yechimini topishda davlat rahbarining jasurligi hamda arbob sifatidagi faoliyati ochib berilishi bilan birga. Yurtboshi ushbu asarining zaruriyati va ahamiyati nazariy jihatdan ko‘rsatib berildi.

7. Yuqorida ta’kidlanganidek, talabalar uchun mavjud bo‘lgan darsliklarda 2005-yilgacha bo‘lgan tarixiy jarayonlar qamrab olingan. Shu bois, qo‘llanmaning mustaqillikka oid boblarida 2000-yildan bugungacha bo‘lgan

tarixni mukammal yoritishga harakat qilindi. Chunki, barcha sohalarni, jumladan, jamiyatni ham modernizatsiyalash jarayonlarining boshlanishi aynan 2000-yillarga to'g'ri keladi.

Mamlakatda amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlarni e'tiborga olib, mustaqillik davriga oid boblarga "Modernizatsiya jarayonlarining chuqurlashuvi", "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mamlakat iqtisodiy o'sish sur'atlarining ta'minlanishi", "Istiqlol davrida mamlakatimizda qabul qilingan ijtimoiy dasturlar va milliy taraqqiyot", Prezident I.A.Karimovning 2010-yil 12-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" mavzusida qilgan ma'ruzasi asosida "Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda yangi bosqich" nomli mavzular kiritilib, ularning mazmun-mohiyati, tarixiy jarayonlari ochib berildi.

8. O'zbek xalqi 70 yildan ortiqroq mustamlaka davrini boshdan kechirgandan so'ng o'z mustaqilligiga erishdi. Fuqarolar, ayniqsa, yoshlar el-yurt nimalar hisobidan, qanday og'ir va mashaqqatli kunlar, sinovlarni boshdan kechirib, bugungi yutuq va marralarga erishganini xolisona baholab, ertangi yorug', hech kimdan kam bo'lmaydigan kelajakka ongli ravishda qadam qo'yishlari kerak, albatta. Ular demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishga yo'naltirilgan sa'y-harakatlarning ko'lami-yu mohiyatini anglash uchun mustabid tuzumdan bizga qanday meros qolganini bilishlari, ikki davrni qiyosiy o'rganish orqali saboq olishlari, xulosa chiqarishlari va mustaqillik qadriga yetishlari, uni mustahkamlashda o'z hissalarini qo'shishlari lozim.

Shu bois ham, o'quv qo'llanmadan mustabid tuzum va mustaqillik davri-ning tarixiy jarayonlariga keng o'rin ajratildi.

9. Mazkur o'quv qo'llanmaning yana bir muhim jihati, unda boblar so'ngidagi sinov savollari ilk bor "Mo'jizalar maydoni" o'yini shaklida, savol-javoblarini katakchalardan topish yo'nalishida berilmoqda. Bunday uslub aniq javobni topish uchun talabalarni mavzu mazmunini qayta-qayta o'qishga undaydi.

Albatta, mazkur o'quv qo'llanmaning salmog'i, jarayonlarning keng qamrovligini hisobga olsak, u juz'iy kamchiliklardan xoli emas. Shu bois mualliflar qo'llanmani nazariy va uslubiy saviyasini yanada oshirishga doir taklif-istaklarini bildirgan olim va amaliyotchilarga hamda o'quvchilar ommasiga oldindan o'z minnatdorchiligini bildiradi.

“O‘ZBEKISTON TARIXI” FANINING PREDMETI, UNI O‘RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK TAMOYILLARI, MANBALARI VA AHAMIYATI

Mavzu rejasi:

1. “O‘zbekiston tarixi” fanining predmeti.
2. “O‘zbekiston tarixi” fanini o‘rganishning nazariy-metodologik tamoyillari.
3. O‘zbekiston tarixini davrlashtirilishi va manbalari.
4. Barkamol avlodni shakllantirishda Vatan tarixining o‘rni.
5. Prezident I.A.Karimov tomonidan tarixni xolisona yoritish va o‘rganish tamoyillarining asoslab berilishi.

1. “O‘ZBEKISTON TARIXI” FANINING PREDMETI

Barcha fanlar singari “O‘zbekiston tarixi” fani ham o‘z predmetiga ega.

Tarix – aslida arabcha so‘z bo‘lib, “o‘tmish”, “o‘tgan voqealar haqida aniq hikoya qilish”ni anglatadi. U odamzodning eng qadimgi davridan bugungi kungacha kechgan hayotini, o‘tmishdagi tarixiy jarayonlarni, turmush tarzini, avloddan-avlodga meros sifatida rivojlanib, boyib borayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma‘naviy-madaniy, davlat qurilishi sohalaridagi tajribalarini, o‘z xalqiga bosh bo‘lib, ularga yetakchilik qilgan tarixiy shaxslar faoliyatini tartibga solib o‘rganuvchi va tasvirlovchi fandır.

Allomalar, ma‘rifatparvarlar va davlat arboblari tarixga quyidagicha ta‘rif beradilar:

Sitseron: “Tarix – bu davrning shohidi, haqiqatning shu‘lasi, xotiraning umrboqiyliqi, o‘tmishning elchisi, demakdir.

Tarix u davr g‘alvirlaridan o‘tgan sari yolg‘on-yashiqlarning yarmisidan forig‘ bo‘libgina qolmasdan, balki haqiqat mag‘ziga to‘yina boradi.

Tarixni qayta yozib ham, uni tuzatib ham bo‘lmaydi”.

Abdurauf Fitrat: “Tarix millatlarning o‘tmishi, taraqqiyoti hamda tanazulining sabablarini o‘rganaturg‘on ilmdir”.

Ibn Xaldun: “Tarix – bu shunday ilmlar sirasiga kiradiki, uni xalqlar va elatlar bir-birlaridan o‘rganib, tarqatishga harakat qiladilar, uni oddiy fuqarodan tortib barcha soha egalarigacha qiziqib o‘qiydilar, bu fanni tushunishda olimlar-u johillar tenglashishga baravar harakat qiladilar.

Tarix – bu tadqiqot, haqiqatni tiklash, jamiki narsalarning asosi va ibtido-sini aniqlash, hodisalar mohiyatini o‘rganishdir”.

Islom Karimov: “O‘zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi”.

“Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o‘rgatadi, irodasini mustahkamlaydi”.

“Inson uchun tarixdan judo bo‘lish, hayotdan judo bo‘lish demakdir”.

“Tarix – xalq ma‘naviyatining asosi”.

Tarix – ulug‘ murabbiy, tarix – ma‘naviy va ma‘rifiy qurollardan biridir. Tarix – millat tarbiyachisi, tarix – saboq berguvchidir.

“Tarixni bilmagan kishi har qadamda xatoga yo‘l qo‘yadi, o‘z tarixi bilan faxrlanmagan xalq esa o‘z kelajagini tasavvur qilolmaydi”.

Inson o‘z tarixini o‘rganish, bilish orqali kishilik jamiyatining rivojlanish qonuniyatlari, taraqqiyotining bosqichlari jarayonlarini, insonlarning inqirozli holatga tushish sabablari va bu holatdan chiqish yo‘lidagi tajribalarini tushu-nib oladi, o‘tmish saboqlaridan xulosa chiqaradi va kelajakda to‘g‘ri yo‘ldan borish lozimligini anglab yetadi. Shu jihatdan, tarix fani tarixiy jarayonlar-ning qonuniyatlari va an‘analarini tushunib yetishga, hozirgi zamonni to‘g‘ri anglashga, kelajakni asosli ravishda ko‘ra bilishga ko‘maklashuvchi ilm man-bayidir.

Tarix ko‘p qirrali, keng qamrovli fan bo‘lib, uni alohida mamlakatlar, xalq-lar, mintaqalar tarixi, jahon tarixi kabilarga bo‘lib o‘rganish ham mumkin.

Har bir mamlakat, har bir xalq o‘zining uzoq va betakror tarixiga ega. O‘zbekistonning, o‘zbek xalqining tarixi boy va sermazmun. Qadim zamon-lardayoq Turon, Turkiston deb e‘tirof etilgan O‘zbekiston turli tarixiy yozma va arxeologik manbalarga ko‘ra, Xitoy, Hindiston, Eron, Misr, Rim kabi qadi-miy va buyuk mamlakatlar qatori dunyoda mashhur hisoblanadi. O‘zbekiston jahon tarixining turli xalqlar, tamaddunlar tutashgan eng qaynoq chorrahalari-dan biri sifatida butun insoniyat tarixining shakllanishiga ma‘lum darajada ta‘sir etib bordi. Shu bilan birga ajdodlarimiz hayotida boshqa xalqlar sivilizatsiyasining ham ta‘siri bo‘ldi.

Xalqimizning davlatchilik tajribasi ham boy va qadimiy. O‘zbekiston hudu-dida dastlabki mustaqil davlat tuzilmalari bundan salkam 3000 yil muqaddam (mil.avv. 1 ming yillik boshlarida) paydo bo‘lib, o‘tgan ming yilliklar davo-mida takomillashib, dunyo davlatchiligi rivojiga munosib hissa qo‘shib keldi.

Vatanimiz tarixi faxrli va g‘ururli. Aynan shu tariximiz orqali buyuk bobo-larimiz – Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Abu Iso at-Termiziy, Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur

va boshqa yuzlab allomalarimizning jahon tamadduniga qoʻshgan buyuk his-salaridan faxr va gʻurur tuygʻusini tuyamiz.

“Oʻzbekiston tarixi” fanining predmeti xalqimizning qadimdan bugungi kunlarga qadar tarixiy yoʻlini, bu yoʻlda kechgan tarixiy jarayonlarni, ajdodlarimizning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va maʼnaviy hayotini xolisona oʻrganishdan, tushuntirishdan iborat. Shu jihatdan “Oʻzbekiston tarixi” fani quyidagi vazifalarni bajaradi:

– Ajdodlar hayoti bilan bogʻliq holda sodir boʻlgan voqealar rivojining mazmun-mohiyatini, sabab va oqibatlarini, asrlar davomida toʻplangan amaliy tajriba va saboqlarni;

– xalqning xalq, millat boʻlib shakllanish jarayonlarini, ajdodlarimiz qoldirgan boy maʼnaviy merosni, davlatlarning tashkil topishi va ularning ichki va tashqi siyosatini;

– xalqning mustaqil taraqqiyot yoʻliga kirishi, mustaqillik yillarida milliy huquqiy, demokratik davlatchilik qurilishi, demokratik-fuqarolik jamiyatini shakllantirish, erkin bozor iqtisodiyotiga oʻtish, jahon hamjamiyatiga qoʻshilish va oʻz oʻrnini topish borasidagi faoliyatini oʻrgatadi.

Shu bois, “Oʻzbekiston tarixi” fani xalqimiz uchun ijtimoiy, siyosiy, tarbiyaviy, maʼnaviy saboqlar majmuasidir. Bu fan barcha ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan bogʻliq holda oʻrganiladi. Tarixchi olimlarimiz Q.Usmonov va M.Sodiqovlar qayd etganidek, insoniyat hayotining maʼno-mazmuni va jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari haqida fikr yuritganda, falsafa, davlat qurilishi va jamiyatni boshqarish masalalariga politologiya, iqtisodiy hayotni yoritishda iqtisodiyot nazariyasi, xalqning turmush tarzi, tili va milliy mentalitetini tasvirlashda etnografiya, oʻzbek tili va adabiyoti, dinshunoslik fanlari yutuqlaridan foydalaniladi. Tarixshunoslik, manbashunoslik, arxeologiya, arxivshunoslik kabi maxsus fanlar tarix falsafasini chuqur anglab yetishga koʻmaklashadi.

2. “OʻZBEKISTON TARIXI” FANINI OʻRGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK TAMOYILLARI

Milliy istiqlol oʻzbek xalqining asriy orzusi, armoni edi. Bu yoʻlda minglab Vatan fidoyilari aziz jonlarini qurbon qildilar. Milliy mustaqillikning qoʻlga kiritilishi katta yutuq, uning qadriga yetish, mustahkamlash, asrab-avaylash mushkul vazifa. Har qanday mamlakatning qudrati, uning milliy mustaqilligi davlat chegaralarining daxlsizligi, oʻsha mamlakat fuqarolarining oʻz yurtiga mehr-muhabbat bilan tarbiya topgani, Vatan mustaqilligi va milliy istiqlol

uchun kurashda zarur bo'lsa jonini fido qilishga ham tayyor bo'lishdek oliy-janob fazilatlarga ega bo'lishlariga bog'liq. Bu fazilatlarni xalq, yurt kelajagi – yoshlar ongida qaror toptirish va shakllantirishda Vatan tarixini o'rganishning o'rni va imkoniyatlari cheksiz.

Mustaqillik sharofati bilan mamlakatimizda o'tmish voqeligi, tarix faniga bo'lgan munosabat davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Mustabid tuzum davrida soxtalashtirilgan o'tmish voqeligi xususida tarixiy adolat qaror topdi. tarixni ilmiy va xolisona o'rganish imkoniyati yuzaga kelib, ta'lim tizimiga "O'zbekiston tarixi" fani kiritildi.

Mustaqillik yillaridagi "O'zbekistonning yangi tarixi markazi" haqidagi, "O'zbekiston FA Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlar, "O'zbekiston tarixini yaratish konsepsiyasi"ning ishlab chiqilishi, Prezident I.Karimovning 1998-yil iyun oyidagi bir guruh tarixchilar bilan uchrashuvi, "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q", "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch", "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" kabi asarlari O'zbekiston tarixini zamonaviy tarzda o'rganishning nazariy-metodologik asoslarini shakllantirishga turtki bo'lib xizmat qildi.

E'tibor berish lozimki, tarixning yaratuvchisi va ijodkori bu – xalq. Bo'lib o'tgan tarixiy-madaniy jarayonlar, voqelik va hodisalar, islohotlarni xalqsiz va tarixiy shaxslarsiz tasavvur etish aslo mumkin emas. Tarix xalqning fikr-tafakkuri va dunyoqarashining hosilasi. Aynan shuning uchun ham – tarix ibrat maktabi bo'lib, o'tmishda yo'l qo'yilgan nuqsonlarni anglash va ulardan tegishli saboq chiqarish, hushyorlik va ogohlikni targ'ib etuvchi, buzg'unchi g'oyalarga qarshi turishga undovchi, milliy birlik, hamkorlik va bag'rikenglikka chaqiruvchi beqiyos ibrat maktabidir. Shuningdek, xalq xotirasi, o'tmish, ushbu o'tgan tarixiylikni o'quvchilarga haqiqiy yetkazish tarixni fan darajasiga ko'taradi. Tarixni fan sifatida o'qish, o'rganish, talqin etish va chuqur anglab yetish bevosita ilmiy tadqiqotlarning samarasi hisoblanadi. Faqat ilmiy tadqiqotlar orqaligina bo'lib o'tgan tarixiy-madaniy jarayonlarni holis tahlil qilish va mantiqiy talqin etish qiyosiy va tanqidiy solishtirish asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, tarixiy dunyoqarash asosida voqea-hodisalar, tarixiy jarayonlarga baho berish, tarix falsafasini anglab yetish imkoniyatlari kengayadi. Aynan shuning uchun ham tadqiqotlar natijalarini doimiy ravishda fanga joriy etib borish metodologik jihatdan ulkan ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik bizga barcha imkoniyatlar bilan birgalikda haqqoniy tarixni yoritish va o'rganish imkoniyatini ham berdi. Shu jihatdan tarixni yoritish va o'rganishda birinchi navbatda bilish nazariyasining **dialektik metodidan** foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Olam yagona va yaxlit, barcha hodisa-

voqealar umumiy va o‘zaro bog‘liqlikda. uzluksiz harakatda, ziddiyatli taraqqiyotda bo‘lishi dialektika tamoyillaridir. Dialektik metodologiya barcha mamlakat va xalq tarixini. shuningdek, O‘zbekiston tarixini jahon xalqlari tarixi bilan bog‘liq holda o‘rganishni talab etadi.

O‘zbekiston tarixi Markaziy Osiyo mamlakatlari tarixi bilan, qolaversa, bashariyat tarixi bilan chambarchas bog‘langan. Qadimdan bugungacha O‘zbekiston Markaziy Osiyo va qo‘shni mintaqadagi ko‘pgina davlatlar bilan yagona iqtisodiy va madaniy makonda bo‘lib keldi. Bu katta hududda yashovchi urug‘, qabila, qavm, elatlar etnik jihatdan doimo o‘zaro ta’sir va aloqada bo‘lgan, qo‘shilish, aralashish jarayonlarini boshdan kechirgan, ularning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy hayoti bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikda o‘tgan. Bu holatlar O‘zbekiston tarixini qo‘shni mamlakatlar tarixi bilan bog‘liq holda o‘rganishni taqozo etadi. Qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, turkman, tojik, fors, afg‘on, hind, arab va boshqa xalqlar tarixini qanchalik yaxshi bilsak, O‘zbekiston xalqlari tarixini shunchalik chuqur, har tomonlama o‘rganishga imkon yaratadi, ko‘maklashadi.

Tarixiy voqea-hodisalarni tahlil etish, yoritish va o‘rganishda **xolisona, haqqoniy, adolatli va ilmiy yondashuv** muhim metodologik qoida hisoblanadi. Xolislik qoidasi tarixiy voqea-hodisalarni o‘rganayotganda, ular bilan bog‘liq barcha jarayonlarning hech bir istisnosiz butun majmuani birga olib tekshirishni, aniq, haqqoniy dalillarga asoslanib ishlashni talab qiladi. Tarixiy hodisalarni bir butun holda o‘zaro aloqada va munosabatda tekshirish lozim.

“O‘zbekiston tarixi” darsligini yaratgan tarixchi Q.Usmonov, M.Sodiqov va S.Burhonovalar to‘g‘ri ta’kidlaganlaridek, “Tor doirada tug‘ilgan bir g‘oyani, uydirman oqlash lozim bo‘lsa, faktlar silsilasidan faqat ayrimlarini, mos keladiganlarinigina tanlab olish “tajribasi” sir emas... Bu usulda chiqarilgan xulosa yoki baho xolisona, haqqoniy bo‘lmay, u bir tomonlamalikka olib keladi”.

Istiqlolning bizga bergan imkoni, Yurtboshimizning tariximizga muhim e’tibori, tarixchi olimlarning sa’y-harakatlari bilan o‘zbek davlatchiligi, o‘zbek xalqining etnik shakllanishi jarayonlari, Amir Temur va temuriylar davri, XIX asr oxiri va XX asr boshlari hamda sovetlar davri tarixi haqqoniy va xolisona yoritildi.

Tarixiy voqea-hodisalarni o‘z davrining aniq tarixiy sharoitidan kelib chiqqan holda o‘rganish ham muhim ahamiyatga ega. Voqea-hodisalarni o‘rganishda tarixiy rivojlanish jarayoniga e’tibor qaratmoq zarur. Shu jihatdan tarixni yoritish va o‘rganishda tarixiylik metodologiyasi muhim o‘rin tutadi. Har bir voqea-hodisani boshqa voqea-hodisa bilan bog‘lab o‘rganilgandagina

mazkur voqea-hodisalarning umumiy tarixiy jarayonidagi oʻrni toʻgʻri aniqlash, belgilash mumkin boʻladi. Har bir voqea-hodisaga umumiy tarixiy jarayonning bir qismi, bir boʻlagi deb qaramoq zarur. Ularning qanday tarixiy sharoitda, muhitda paydo boʻlganligini, oʻz taraqqiyotida qanday asosiy bosqichlarni oʻtaganligini, keyinchalik u qanday boʻlib qolganligini bilish tarixiylik qoidasining asosiy talabidir.

Tarixiylik metodologiyasi xalqning oʻtmishini, hozirgi zamon va kelajagini yagona tabiiy tarixiy jarayon deb, oʻtmish hozirgi zamonni yaratdi, hozirgi zamon kelajakni yaratadi, degan taraqqiyot qonuni asosida qaraydi. Oʻtmishni, ajdodlarimiz tarixini qanchalik yaxshi bilsak, anglab yetsak, hozirgi zamonni, mustaqillik mazmun-mohiyati va ahamiyatini mukammal tushunamiz, kelajakni toʻgʻri tasavvur etamiz. Tarixiy jarayonni oʻrganishda ijtimoiy yondashuv tamoyiliga ham rioya qilmoq zarur boʻladi. Ijtimoiy yondashuv metodologiyasi tarixiy jarayonlarni aholi barcha tabaqalarining manfaatlarini hisobga olgan holda oʻrganishni taqozo etadi. Voqealarni alohida bir ijtimoiy tabaqa – kambagʻallar, yoʻqsillar yoki mulkdor, boylar manfaati nuqtayi nazaridan turib tahlil etish, yoritish bir tomonlama yondashuv boʻlib, u tarixni soxtalashtiradi, toʻgʻri xulosaga olib kelmaydi.

Mamlakat yurtboshisiz, boshliqsiz, davlat idora organlarisiz, boshqaruvchilarsiz, amaldorlarsiz boʻlmasligini isbot etishning hojati boʻlmasa kerak. Shunday ekan, barcha davlat arboblari, amaldorlarni yoppasiga qoralash toʻgʻri emas. Oʻzbekistonning koʻhna tarixi ham oʻtgan hukmdorlar, davlat arboblari orasida xalqparvar, maʼrifatparvar, adolat bilan siyosat yurgizganlari koʻp boʻlganligidan guvohlik beradi.

Ijtimoiy yondashuv tamoyili davlat arboblarning, siyosiy kuchlar, partiyalar, turli uyushmalar, ular yoʻlboshchilarining tarixiy taraqqiyot darajasiga koʻrsatgan ijobiy yoki salbiy taʼsirini, jamiyatda u yoki bu yoʻldan rivojlanishdagi rolini bilib olishda ham muhim ahamiyatga egadir. Oʻzbekiston tarixini oʻrganishda milliy qadriyatlar, xalq anʼana va urf-odatlarini, din tarixi, odamlarning diniy eʼtiqodlari, diniy taʼlimotlar va ularning asoschilari faoliyatini tahlil qilishda, yoritishda **vorisiylik** tamoyiliga amal qilish, ularga hurmatlash, eʼzozlash nuqtayi nazaridan yondashmoq kerak. Hayot xalqning necha ming yillar davomida yaratgan maʼnaviy madaniyatini, axloqiy mezonlarini ikkiga: ekspluatatorlik madaniyati va axloqi hamda ekspluatatsiya qilinuvchilar madaniyati va axloqiga boʻlish, va birinchisini qoralashdan iborat bolsheviklarcha yoʻriqnomaning naqadar zararli ekanligini koʻrsatdi. Maʼnaviy merosga bunday yondashuv maʼnaviy qashshoqlanishga,

milliy qadriyat va urf-odatlarining oyoq osti qilinishiga olib kelganligini ham unutmash kerak.

O'tmishning tarixiy jarayonlarini tahlil etish, yoritish va o'rganishda **Vatan manfaati nuqtayi nazaridan yondashish, milliy istiqlol g'oyasi tamoyillariga tayanib ish tutish** juda muhim hisoblanadi.

Vatan va xalq tarixini o'rganishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari, maqola va nutqlari, Farmon va qarorlari, istiqlol yillarida qabul qilingan Qonun va me'yoriy hujjatlar ham muhim nazariy-metodologik asos sifatida xizmat qiladi.

Tarixni o'rganishda yuqoridagi nazariy-metodologik qoidalar bilan bir qatorda dalillarni taqqoslash, mantiqiy-qiyosiy xulosalar chiqarish, davrlashtirish, sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish, statistik, matematik va boshqa usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

3. O'ZBEKISTON TARIXINI DAVRLASHTIRILISHI VA MANBALARI

O'zbekiston tarixini yoritish va o'rganishda uni to'g'ri davrlashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Uzoq davr mobaynida tarixni o'zlari bilganlaricha davrlashtirishlar tarixni yoritish va o'rganish borasida buzilishlarga olib keldi. Sobiq ittifoq davrida O'zbekiston tarixiga oid yozilgan adabiyotlar uchun marksizm-leninizm klassiklarining asarlari, hukmron partiya hujjatlari, davlat rahbarlarining ma'ruza, nutq, maqola va asarlari, Rossiya, Rim tarixchilari, adib va olimlari asarlari asosiy manba bo'lib xizmat qilgan edi. O'zbek alloma va mutafakkirlari: Beruniy, Xorazmiy, Ibn Sino, Forobiy, Ahmad Farg'oniy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg'ariy, Narshaxiy, Alisher Navoiy, Ulug'bek, Nizomiddin Shomiy, Sharafuddin Ali Yazdiy, Xondamir, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abulg'oziy, Muhammad Solih va boshqa juda ko'plab dunyoga mashhur allomalarning nodir asarlari va meroslari nafaqat e'tibordan chetda qoldirildi, hatto ularni yo'qotishga urinishlar ham bo'ldi.

Sobiq ittifoq tarkibidagi xalqlar tarixi, jumladan, yurtimiz va xalqimiz tarixi sinfiy kurash, inqilobiy harakatlarga asoslangan markscha qarashlarga mos holda davrlashtirildi. Shu bois, fanda ibtidoiy jamoa, quldorlik, feodalizm, kapitalizm, sotsializmga bo'lingan davrlar o'rin oldi.

1991-yilgacha tarixni davrlashtirish masalasida boshqa yondashuvlar ham mavjud edi. Arxeolog olimlar mehnat qurollari qanday materialdan yasalganligini asos qilib olib, insoniyat tarixini qadimgi tosh, o'rta tosh, yangi tosh, mis-tosh, bronza, temir davrlariga bo'lgan edilar. Xorij olimlaridan L.Morgan

va F.Engels tarixni uch davrga: yovvoyilik (tayyor tabiat mahsulotlarini o'zlashtirish), vahshiylik (chorvachilik va dehqonchilikning vujudga kelishi) va sivilizatsiya (sanoat rivojlanishi) davriga bo'lgan bo'lsalar, bunday davrlashtirish nomukammal ekanligini hayotning o'zi isbotladi va rad etdi.

Mustaqillik yillarida tarixga yangicha yondashuv, uni haqqoniy yaratish borasidagi vazifalar taniqli tarixchi olimlarni bu masalaga aniq mazmun va mohiyat kiritishiga imkon yaratdi. Taniqli tarixchilardan akademik A.Asqarov va E.Rtveladze tarixni davrlashtirish borasida bugungi kun nuqtayi nazari-dan kelib chiqib, yangi ijobiy fikrlarni oldinga surdilar. Masalan, akademik A.Asqarov jamiyat hayotida yuz beradigan tub ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, O'rta Osiyo tarixining rivojlanish darajasi va shu mintaqa tarixi taqozo etgan holatlardan kelib chiqib, O'zbekiston tarixini davrlashtirishdagi asosiy omil-larni izohlashga harakat qildi.

Nazarimizda har bir davr qaysi asr va yillarni o'z ichiga olishini aniq ko'rsatib va oltinchi davrni "O'zbekistonning eng yangi tarixi" davri deb nomlab, quyidagi tartibda berish maqsadga muvofiqdir.

№	Davrlarning nomlanishi	Davrlar asri va yillari
1	Ibtidoiy jamoa tuzumi davri	Mil.avv. I million – III ming yilliklar
2	Qadimgi davr: davlatchilikning shakllanishi va rivojlanishi davri	Mil.avv. I million – III ming yilliklar
3	O'rta asrlar davri	Milodiy V asr – XIX asr o'rtalari
4	Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davri	XIX asr II yarmi – 1917-yil
5	Mustabid sovet hokimiyati hukmronligi davri	1917 – 1991-yillar
6	O'zbekistonning eng yangi tarixi davri	1991-yildan bugungi kungacha

Oltinchi davrni "O'zbekistonning eng yangi tarixi" davri deb nomlanishining muhim sababi, O'zbekiston 1991-yil 31-avgustda mustaqillikka erishdi va o'zining eng yangi tarixini boshladi. Bu davrda o'zbek xalqi mustaqil taraqqiyot yo'lidan borib, qisqa fursatda asrlarga tatigulik yillar deb atalayotgan sharafli davrni bosib o'tdi va O'zbekiston jahon miqyosida o'z o'rnini topdi. Tarixiy jarayonlar, o'tmish xalqlar hayoti va faoliyati tarixining saqlanib, bugungacha yetib kelishida tarixiy manbalar muhim o'rin tutib, ular bizga o'tmish xabarchilari sifatida xizmat qiladi.

Tarixiy manbalar

Moddiy manbalar va arxeologik yodgorliklar	Mehnat qurollari Harbiy qurol-yarog'lar Tanga pullar Taqinchoqlar va zeb-ziynatlar Uy-joylar, qabrlar Uy-ro'zg'or buyumlari. devoriy tasvirlar Qal'alar, shaharlar va boshqalar
Yozma manbalar	Yozuv belgilari Toshga, teriga, qog'ozga yozilgan ma'lumotlar Xalqlar hayoti, yuz bergan voqea-hodisalar haqida yozilgan kitoblar Davlat boshliqlarining yozma shakldagi farmonlari Yer, qimmatbaho narsalarni in'om qilish, meros qoldirish, sotib olish bo'yicha rasmiylashtirilgan hujjatlar

Mil.avv. 1-ming yillik davridagi ajdodlar tarixini o'rganishda "Avesto" kitobi muhim yozma manba hisoblanadi. Unda o'sha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, dastlabki davlat tuzilmalarining shakllanish jarayonlari o'z ifodasini topgan.

Yurt va ajdodlar tarixiga oid ma'lumotlar Yunon va qadimiy Rim manbalarida, chunonchi, Gerodot, Polibiy, Arrian, Strabon, Kursiy Ruf va boshqalarning asarlarida ham uchraydi. Ularning yozib qoldirgan ma'lumotlari to'plab, tahlil etilgan.

O'zbekiston to'g'risida to'la tasavvur hosil qilish uchun O'zbekiston tarixi, Temuriylar tarixi davlat muzeylari, o'lkashunoslik va boshqa muzeylar, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Qarshi, Urganch, Toshkent va boshqa shaharlar, ulardagi tarixiy yodgorliklarni borib ko'rmoq lozim. Ulardagi ajdodlar qoldirgan moddiy va ma'naviy yodgorliklar bilan tanishib, o'zbek xalqining mehnati, aql-zakovatining azaldan yuksak bo'lganligini qalban his etamiz, bu yuksaklik bizga ham meros ekanligini tushunib yetamiz.

4. BARKAMOL AVLODNI SHAKLLANTIRISHDA VATAN TARIXINING O'RNI

O'zbek xalqi o'z mustaqilligini qo'lga kiritib, jahon hamjamiyatiga qo'shilib integratsiyalashuv jarayonlari kuchayayotgan ekan, tarixning komil insonni tarbiyalashdagi o'rni yanada beqiyoslik kasb etmoqda. Kelajagini o'ylagan har bir xalq o'z o'tmishini bilishi zarur. Ayniqsa, buyuk va boy tarixga ega O'zbekistonning bugungi xalqi bunday tarixdan saboq olishi yana ham muhim. Boshqa fanlardan farqli o'laroq, tarix saboq berguvchi fandır. Tarix o'tmish, bugun va kelajak o'rtasida ko'prik rolini o'tab, insonlarga o'zlikni anglatadi. Tarixga o'z natijasi va samarasi jihatidan asrlarga tatigulik 23 yildan ortiqroq mustaqillik davri tarixi ham qo'shilib, uning saboq berguvchi jihatlari yanada yuksaldi.

Bugun mustaqil taraqqiyot yo'lidagi islohotlar tobora chuqurlashib bormoqda. Bu jarayonda bot-bot e'tirof etilayotganidek, O'zbekistonda kuchli huquqiy demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyatini qurish ko'p jihatdan yoshlarning ma'naviy dunyosi va kasb mahoratiga bog'liq. Yoshlarda milliy g'oyani, yuksak ma'naviy fazilatlarni shakllantirishda, milliy ong va sog'lom g'ururni uyg'otishda, ularni Vatan, xalq va istiqlol taqdiri uchun faol kurashchi, komil inson qilib tarbiyalashda "O'zbekiston tarixi" fanining ahamiyati beqiyos.

Mustaqillik sharofati bilan Vatan tarixini o'rganish va o'qitishga bo'lgan munosabat tubdan o'zgarib, O'zbekiston tarixini yoritish va o'rganishning yagona konsepsiyasi yaratildi. Bu fan bo'yicha yangi o'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalar tayyorlanmoqda.

Tarixiy xotirasi bor, ayniqsa, o'z xalqi, mamlakati, davlati tarixini puxta bilgan fuqaro vatanparvar, fidoyi, elsevar, sadoqatli bo'ladi, ajdodlari ruhidan madad oladi, ona-Vatanni chuqurroq sevadi va qadriga ko'proq yetadi. Shu bois O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, yoshlarni tarix bilan qurollantirishimiz va yana bir bor qurollantirishimiz lozim¹. Tarix – ma'rifiy qurollardan, xalqning madaniy yetuk qilib tarbiyalash vositalaridan biri, chunki tarix tarbiyani to'g'ri yo'lga solib turadi. Tarixiy dalil ishonchli hujjat sifatida nishonga – kishining ongi va qalbiga aniq yetib boradi, uning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirib, mustahkamlaydi.

Bugungi kunda milliy istiqlol g'oyasini yaratish, uni kishilar ongiga singdirish hayotiy zarurat darajasiga ko'tarildi. Bu hayotiy ehtiyojda ham Vatan

¹ *Qarang: Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: "Sharq", 1998. – 25-b.*

tarixi muhim rol o'ynaydi. Shu jihatdan qaraganda, Vatan tarixini bilish yoshlarning umumiy saviyasi, siyosiy dunyoqarashining oshishiga, ularda mustaqil tafakkurni shakllanishiga xizmat qiladi.

O'z xalqi, Vatani tarixini bilgan inson g'ururli, iftixorli bo'ladi. Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, "Ma'naviyatini tiklashi, tug'ilib o'sgan yurtida o'zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko'tarib yurishi uchun insonga, albatta, tarixiy xotira kerak"¹. Agar inson o'z o'tmishini yaxshi bilsa, uni yo'ldan urish ham, har xil aqidalar ta'siriga tushirish ham mumkin emas. "Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi"². Yurtboshimizning 2012-yil 9-may kuni ommaviy axborot vositalari vakillariga bergan intervyusida 1990, 1998-yillardagi tarixiy xotira haqidagi fikrlarini to'ldirib, tarixiy xotira tushunchasiga har tomonlama ilmiy va hayotiy asosda: "Tarixiy xotira – bu umr mazmunini, avlodlar o'rtasidagi vorislik tuyg'usini, ularning bir-biriga daxldor ekanini, hayotning bamisoli uzviy halqalar kabi ketma-ket bog'lanishini anglash, tarixdan xulosa chiqarib, bugungi kun uchun to'g'ri yo'l tanlash, ota-bobolarimizning ruhi poklariga hurmat bilan qarash, milliy qadriyat va an'analarimizni toptashga yo'l qo'ymaslik, ularni ko'z qorachig'idek asrash demakdir".

Chindan ham, tarixiy xotira odamni beg'amlik va befarqlik tuyg'usidan uyg'otadi, uni g'afflat botqog'iga botib qolishiga yo'l qo'ymaydi.

Vatan mustaqilligi yo'lidagi kurash tarixidan so'z ketar ekan, bu yo'lda o'z yurtining ozodligi va xalqining baxt-saodati uchun hayot-mamot janglarida jonini qurbon qilgan ajdodlarning muqaddas nomlarini g'urur bilan tilga olib o'tish joiz. To'maris, Shiroq, Spitamen, Najmiddin Kubro, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Mahmud Torobiy, Amir Temur, Nomoz Primqulov, jadidchi ma'rifatchilar, sovet davrida qatag'on qilinganlar ozodlik uchun kurash olib bordilar va ularning nomlari kelgusi avlodlar xotirasida abadiy saqlanib qoldi.

"O'zbekiston tarixi" fani yosh avlodni Vatan mustaqilligi yo'lida har qanday qiyinchiliklardan cho'chimasdan kurashadigan, xalqqa, o'z Vatanga chin dildan xizmat qiladigan insonlar qilib tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, jonajon Vatan – O'zbekiston faqat o'zining sarkardalari va davlat arboblari bilangina emas, balki jahon madaniyatiga munosib hissa qo'shgan fozil-u fuzalolarni yetishtirib berganligi bilan ham dunyoga mashhurdir. Bu jihatlar ham tarix orqali insonlarda g'urur, ajdodlari bilan faxrlanish tuyg'usini uyg'otadi.

¹ O'sha manba, 8-b.

² O'sha manba, 9-b.

Mustaqillik davri tarixini yillar bilan emas, amalga oshirilgan yangilanish va islohotlar samarasi bilan o'lchash o'rinli. O'tgan yigirma uch yil davomida amalga oshirilgan ishlarga nazar tashlansa, ularning ko'lamidan ko'ngillar iftixorga to'lishi, shubhasiz. Mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirish, mudofaa qudratini o'stirish, milliy ma'naviyatni tiklash, davlatchilikni mustahkamlash – bularning barchasi tinimsiz kurashlar evaziga qo'lga kiritildi.

“O'zbekiston tarixi”ni o'qitishda tarixning o'zi ulug' murabbiyligi, mustaqillikning o'tgan davrida erishilgan natijalar endigi maqsad va vazifalarni belgilashda, o'tmishdan olingan saboqlar ko'p narsalarni oldindan ko'ra bilish va xatolarning oldini olish, g'animlarning hiyla-nayranglaridan ogoh bo'lish o'zbek xalqining o'z yo'lini belgilashida zamin bo'lishini talabalar ongiga singdirish shart.

Har qanday diplomli mutaxassisni ham ziyoli deb bo'lmaydi. Haqiqiy ziyoli bo'lish Vatan, xalq, jamiyat tarixini, ajdodlar o'tmishini ilmiy jihatdan bilishni taqozo qiladi. O'tmishda erishilgan yutuqlar va ularning ahamiyati, yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklarning kelib chiqish sabablari hamda oqibatlarini xolis tahlil qilish xalq taqdirida, mamlakat rivojida, tarix saboqlaridan tegishli xulosalar chiqarish, vatanparvar, taraqqiyparvar va xalqparvar ziyolilar avlodini tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston tarixi boy va rang-barang. Uning hududlari eng qadimgi davrlardan boshlab jahon tamadduni o'choqlaridan biri hisoblanib, bu yerda dunyo sivilizatsiyasidagi mahalliy xalqlarga xos tarixiy, madaniy jarayonlar bo'lib o'tgan. Mustaqil taraqqiyot yo'lining ijodkori va rahnamosi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o'zining 1998-yilda yozgan “Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q” asarida O'zbekiston tarixini yoritish va o'rganishning bugungi ahvoli va istiqbolini chuqur tahlil etib, bu yo'nalishda tarixchi olimlar oldiga qator vazifalarni qo'ydi. Ushbu vazifalardan eng muhimi, jamiyatimizni isloh qilish, yangilash jarayonini boshqaradigan va ta'minlaydigan, yangicha fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalash, eng muhimi, ular ongida Vatanga sadoqat hissini kuchaytirish, milliy istiqloq g'oyalarini yanada chuqurroq singdirish va teran anglatishdan iborat.

Shu tariqa, Vatan tarixi xalqqa, mamlakat kelajagi bo'lgan yosh avlodga quyidagi ezgulik xislatlarini kamol toptirishda xizmat qiladi:

Birinchidan, Vatan tarixi yosh avlod ongida g'oyaviy-siyosiy, nazariy-ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda, voqea-hodisalarga tarixiy nuqtayi nazardan yondashadigan har tomonlama yetuk, barkamol insonni tarbiyalaydi;

Ikkinchidan, Vatan tarixi fani mustaqil O'zbekiston yoshlari ongida milliy vijdonning uyg'onib shakllanishiga ko'maklashadi. Ular ajdodlarimiz taraqq-

qiyot yoʻlining tarixiy tajribasini oʻrgangandagina, ularda istiqloq tafakkuri, hozirgi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy turmushni oʻtmish bilan qiyoslash hamda kelajakka nazar solish malakasi shakllanadi, milliy jihatdan uygʻonadi. Milliy oʻzlikni anglamasdan, milliy tafakkurni shakllantirmasdan turib baynalmilalchilik haqidagi har qanday gʻoya va qarashlar mantiqsiz ekanligini anglaydi;

Uchinchidan, Vatan tarixi fani yoshlarni otashin vatanparvarlik anʼanalari ruhida tarbiyalaydi. Tarix fanining deyarli har bir mavzusi bu borada boy imkoniyatlarga egadir;

Toʻrtinchidan, Vatan tarixi yosh avlodni ulugʻ xalqning oliyanob milliy qadriyatleri va axloqiy fazilatleri, halollik va poklik, odillik va adolatlilik, insonparvarlik va rostgoʻylik, mehnatsevarlik va kamtarlik, iymon-eʼtiqodlilik ruhida tarbiyalaydi. Vatan va xalq oldidagi burchga sadoqatni qaror toptiradi;

Beshinchidan, Vatan tarixi fani yoshlarni baynalmilalchilik ruhida tarbiyalash quroli hamdir. Yoshlar bu fanni oʻqish, oʻrganish va mutolaa qilish jarayonida Oʻzbekiston jahon hamjamiyatining ajralmas tarkibiy qismi va bir boʻlagi ekanligini anglab yetadilar. Oʻzbekiston azaldan koʻp millatli mamlakat ekanligi, oʻzbek xalqi va buyuk allomalar, fan va madaniyat arboblari-rining jahon taraqqiyotiga qoʻshgan munosib hissasi bilan qonuniy suratda faxrlanadilar.

I.A.Karimov “Tarixiy xotirasiz kelajak yoʻq” nomli risolasida taʼkidlaganlaridek, “Biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi deb eʼlon qilganmiz. Komil inson deganda biz, avvalo ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan oʻzgalarga ibrat boʻladigan bilimli, maʼrifatli kishilarni tushunamiz. Ongli, bilimli kishini esa oldi-qochdi gaplar bilan aldab boʻlmaydi. U har bir narsani aql, mantiq tarozisiga solib koʻradi. Oʻz fikr-oʻyi, xulosasini mantiq asosida qurgan kishi yetuk odam boʻladi”.

Barchaga ayonki, maʼnaviy barkamol kishilar xalq taqdiri va farovonligi, Vatan taqdiri va uning ravnaqini oʻylaydi. Ular mutelikda, qaramlikda yashashni istamaydi. Shuningdek, insonning insonligi uning pok va halolligi, fidoyiligi bilan oʻlchanadi. Tarixga nazar tashlasak, ota-bobolar hamisha halol boʻlishga, fidoyilik koʻrsatishga daʼvat etib kelishgan, halol bilan haromni farqlash toʻgʻrisida nasihat qilishgan. Shuning uchun Turkiston hududida, xususan, Oʻzbekistonda uzoq oʻtmishdan boshlab, ayniqsa, taʼlim-tarbiya uchun moʻljallangan kitoblarda ilmi odob, husni odob yoʻnalishlariga alohida eʼtibor qaratilgan. Diniy yoʻnalishlarda esa bolalarni yoshligidan boshlab, barcha insoniy fazilatlar maʼnosini oʻzida mujassamlashtirgan hadislarni oʻqitish, oʻrgatish, yodlatishga harakat qilingan. Demak, shunday xulosa qilish mumkinki, tarix – bu buyuk ustoz, tarix – bu tarbiyachi, tarix – bu hayotiy saboqlar

yig'indisi. Tarixni o'rganish – bu beminnat o'qituvchiga shogird bo'lishdir. Shuning uchun ham yana bir bor ishonch bilan aytish mumkinki, barkamol insonning shakllanishida O'zbekiston tarixini bilishning ahamiyati, o'zni beqiyosdir.

5. PREZIDENT I.A.KARIMOV TOMONIDAN TARIXNI XOLISONA YORITISH VA O'RGANISH TAMOYILLARINING ASOSLAB BERILISHI

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq uni mustahkamlashning ulkan vazifalari qatorida milliy istiqlol mafkurasini yaratishdek dolzarb vazifa ham kun tartibiga qo'yildi. Chunki mavjud vaziyat endigina mustaqillikka erishgan xalqni ong-u tushunchasidagi hali ma'lum bir shubha, qo'rquvga o'xshash holatlardan, sobiq tuzum va hukmron mafkuraning asoratlaridan ozod etish, qolaversa, yangi, mustaqil davlatning o'ziga xos, xalqni to'g'ri yo'ldan istiqbolga boshlab boruvchi milliy istiqlol mafkurasini yaratishni taqozo etdi.

Albatta, milliy mafkuraning o'ziga xos teran ildizi, asoslari bo'lishi kerak. Bu o'rinda ishni avvalo yashab turgan mamlakatning, xalqning tarixini, ajdodlari bosib o'tgan sharaflari va mashaqqatli yo'l, ular yaratgan moddiy-ma'naviy merosni o'rganishdan, qolaversa, sho'rolar hukmronligi davrida tarixning soxtalashtirilgan, o'chirilgan tomonlarini haqqoniy, adolatli yoritib, xalq ongiga singdirishdan boshlash zarur edi. Shu bois ham O'zbekiston Prezidenti mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq tarixni, o'tmishni mukammal yoritish va o'rganishga alohida e'tibor qaratdi. Chunki, tarixni o'rganish va bu orqali xalq o'zligini anglash – milliy mafkuraning ajralmas, tarkibiy qismi edi. O'tmishni o'rganib o'zlikni anglash bilan bir qatorda, ajdodlar, ularning tarixdagi o'zni va kelajak avlodlar uchun bajarib ketgan oliyjanob ishlari, buyuk mutafakkirlarning iqtidori, ijodi jahon miqyosida dovrug' taratgani, ko'p ming yillik bosib o'tilgan davrlarda boshdan kechirilgan urush-u bosqinlar, qaramlik davrlari – bularning barchasi haqidagi ma'lumotlarni bilish o'zbek xalqi ongida, tushunchasida juda katta ijobiy o'zgarishlar yasashi muqarrar edi. Bu o'tmish kechinmalari milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'ularini vujudga keltirish bilan birga ayni damda milliy istiqlol mafkurasini haqidagi tushuncha-yu bilimlarni ham tezroq o'zlashtirishni osonlashtiradi. Shu bois ham davlat, ayniqsa, uning rahbari Vatan va xalqning asl tarixini haqqoniy yoritish va o'rganishga e'tibor qaratdi. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov 1998-yilning iyunida Respublikaning taniqli tarixchi olimlari bilan uchrashdi va bu uchrashuvda bildirgan fikr-mulohazalari tarixni yoritish va o'rganishning muhim tamo-

yillarini ishlab chiqishga asos bo'ldi va I.A.Karimovning bu uchrashuvdagi nutqi 1998-yilda "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" nomi bilan risola tarzida nashr etildi. Yurtboshi ta'kidlaganidek, o'zbek xalqining beqiyos ma'naviy boyligi, iftixori hisoblangan 20 mingdan ortiq qo'lyozma, 10 mingdan ortiq asarlar xazinalarda saqlanmoqda. Bu merosni davlat rahbari "... bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kam topiladi. Shuning uchun ham bu borada jahonning sanoqli mamlakatlarigina biz bilan bellasha olishi mumkin", deb baholagan edi.

Aynan shu yig'ilishda I.A.Karimov tarixning o'rni va bugungi kundagi ahamiyati haqida to'xtalib: **"O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi"** deb, tarixni o'rganishni davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi zarurligini asoslab bergan edi. Shuningdek, XX asr boshlarida ma'rifatchilik harakatini eslatib, bugungi kunda ham ma'rifatparvarlikning ahamiyati ortib borayotganligini, **"ma'rifat – jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch"** ekanligini, tarixchilar esa ana shunday kuch targ'ibotchisi bo'lishi lozimligini ta'kidlagan edi. Aynan shu joyda tarixning ma'naviyatda tutgan o'rni haqida: **"Ma'naviyatini tiklashi, tug'ilib o'sgan yurtida o'zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko'tarib yurishi uchun insonga, albatta, tarixiy xotira kerak"**, degan tavsifni berdi.

Prezident o'z risolasida har bir inson shu yurtda yashar ekan, ajdodlari kimlar ekanini, millatining ibtidosi qayerda ekanligini, uning oyoqqa turishi, tiklanishi, shakllanishi jaryoni qanday kechganini bilishni istashini ta'kidlab, **"Tarixiy xotirasi bor inson – irodali inson. Takror aytaman, irodali insondir."**

Kim bo'lishidan qat'i nazar, jamiyatning **har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo'ldan urish, har xil aqidalar ta'siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi"**, deydi.

Yana shu mazkur risolada sovet davrida yozilgan tarix haqida to'xtalib, bu tarixni shu tuzum mafkurasiga moslab soxtalashtirilganini, yurt, xalq tarixini imkon qadar bo'yoqlarga bo'yaganlarini, natijada xalqni o'z tarixidan judo qilishga harakat qilinganini **"Inson uchun tarixdan judo bo'lish – hayotdan judo bo'lish demakdir"**, deb aytadi va o'zbek davlatchiligi tarixiga to'xtalib, uzoq yillar davomida sovet tarixchilarining "o'zbek davlatchiligi 1924-yildan boshlangan" degan uydirmalarini ilmiy jihatdan fosh etib, eng mo'tabar, qadimgi qo'lyozma "Avesto" bundan salkam uch ming yil muqaddam ikki daryo oralig'ida umrguzaronlik qilgan qadimiy xalqning avlodlariga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosi ekanligini, ayni zamonda "Avesto" bu qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan guvoh-

lik beruvchi tarixiy hujjat ekanligini va uni hech kim inkor eta olmasligini ta'kidladi. Muallif bu ilmiy xulosalarni berish bilan o'zbek davlatchiligi tarixi bundan uch ming yil muqaddam boshlanganini bildirib, tarixchilarimizga bu borada tadqiqotlar orqali o'z ilmiy xulosalarini berish, o'zbek davlatchiligi-ning ilmiy nuqtayi nazardan asoslangan tarixini yaratish vazifasini yuklaydi.

“Hammamiz shu tuproqning suvini ichganmiz, non-tuzini yeganmiz. Hammamiz o'zimizni o'zbek sanaymiz. O'zbekligimizdan faxrlanamiz, g'ururlanamiz... Qadim ajdodlarimiz hayotining asosini o'troq madaniyat tashkil etganmi yo ko'chmanchimi? O'zbek xalqining shakllanishida qanday elatlarning ta'siri bo'lgan? Bilaman, bular og'ir savollar. Lekin ularga javob topishimiz zarur”, deydi I.A.Karimov. Aynan bu masala qo'yilib, o'zbek o'zini millat deb atar ekan, o'zbek ekanligi haqida aniq tushunchaga ega bo'lishini eslatib, tarixchi olimlar zimmasiga qat'iy vazifalar yuklatiladi.

Risolada televideniye, matbuot va ayrim kitoblarda o'zbek xalqi tarixini noxolis, noilmiy talqin etishlariga, va ayniqsa, “xun”larga vorislik haqidagi fikrlariga qarata: “Bosqinchiga voris bo'lish faxrli martaba emas, isnod-ku”, ...allaqanday atillalarga voris bo'lish bizga mutlaqo yarashmaydi.... Kimlargadir voris bo'lish kerak bo'lsa, biz Beruniylarga, Buxoriylarga, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Mirzo Boburlarga voris bo'lamiz. O'zbekning fe'l-atvori barchaga ayon ...O'zbek tom ma'noda bunyodkordir. Unga birovning yeri kerak emas. Mabodo qo'lga qurol olguday bo'lsa, faqat o'zini himoya qilish uchungina oladi”, deydi Yurtboshi va shu o'rinda o'zining “Tafakkur” jurnaliga bergan intervyusida Amir Temurning “Kuch – adolatda” degan fikrini rivojlantirib, “Kuch – bilim va tafakkurda” degan g'oyani o'rtaga qo'yadi va buyuk sohibqironning g'ayrat-shijoati, yuksak aql-zakovati, tadbirkorligi, el-parvarligi bilan o'zbek xalqiga hamisha ibrat namunasi bo'lib qolayotganligi, xalq u oliy zotdan hamisha ruhiy madad olishini eslatadi.

I.A.Karimov o'zbek xalqining etnik shakllanishi masalasini yoritish va o'rganishda Movarounnahrda ne-ne bosqinchilar kirib kelib, bir necha asrlar davomida yurtda o'zga sulolalar hukmronlik qilganini, biroq, baribir o'zbek xalqi muqim qolganini, buning asosiy sir-sinoati qadim-qadimdan o'zbek xalqining o'troq yashagani, ilm-ma'rifatga intilgani, buyuk madaniyatga ega bo'lgani, o'z urf-odatlarini muqaddas bilgani uchun o'zligini saqlab qolganini inobatga olgan holda bu masalani tadqiq etish lozimligini uqtirib: **“Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma'naviyati orqali bilamiz, tarixining tag-tomirigacha nazar tashlaymiz”**. deb xulosalaydi. Aynan shu joyda, bosqinchilar kelib siyosiy hokimiyatni qo'lga olib, barcha imkoniyatlardan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga zo'r berganliklarini aytadi, va lekin, shu

yerda asrlar davomida yashab kelayotgan mahalliy aholini, uning ko'p yillik madaniyatini yo'q qilolmagani va qilolmasligini ham asoslab beradi.

Birgina so'nggi 130 yillik mustamlakachilik davriga to'xtalar ekan, I.Karimov: "... ana shunday har tomonlama mudhish, chetdan qaraganda xalqimiz, uning madaniyati, milliy tafakkuri, urf-odatlar, turmush tarzi, hech bir mubolag'asiz aytish mumkinki, nasl-nasabi yo'q bo'lib ketishi kerak bo'lgan sharoitda baribir, qator yo'qotishlar bilan bo'lsa ham, millatimiz o'zligini saqlab qololdimi yo yo'qmi? Olimlarimiz shu savolga javob bersinlar", deb tarixchi olimlarga murojaat qiladi. Shu bilan birga bugungi kunda yuksak ma'naviyatli komil insonni shakllantirish va uning jamiyat rivojidadagi hissasi, ma'naviyat tushunchasi taraqqiyotimizning ustuvor sohasiga aylanganini e'tiborga olib, **"tarix – xalq ma'naviyatining asosi"** ekanligini ham asoslab, olimlar oldiga millatga uning asl tarixini ko'rsatib, isbotlab berishlari kerak, degan dolzarb vazifani qo'yadi.

Risolada buyuk ajdodlarning tarixda tutgan o'rni, bu borada sohibqiron Amir Temurning bunyodkor va davlatchilik asoslarini yaratganligi, Xo'ja Ahrori Valiyning Markaziy Osiyodagi xalqlarni birlashtirish, siyosatchilarning boshini qovushtirib, har xil to'qnashuvlarning oldini olishdagi xizmatlari ko'rsatilib, ular qoldirgan merosning buyukligi asoslab berilishi bilan birga, bosqinchi hukmdorlarda hech bir meros qolmagani ham ta'kidlanib: **"Modomiki, o'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur"**, degan xulosa beriladi va bu xulosalar asosida Fanlar Akademiyasi, Tarix instituti olimlari haqqoniy tarixni yoritish mezonlarini, uning poydevorini, asosini belgilab berishlari kerak, degan vazifa qo'yiladi.

Muallif tarix fani mahsuli – uning xulosalaridan o'z siyosatlarini oqlash, uni olg'a surish, targ'ib etish, uzviyligini ta'minlash, obro'sini ko'tarish uchun siyosatchilar foydalanishlarini bayon etib, **"Fan davlatga, xalqqa, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozimligini unutishga aslo haqqimiz yo'q"ligini**, o'zbek xalqining milliy tuyg'usini, milliy g'ururini uyg'otadigan tarixiy-ilmiy xulosalar kerakligi to'g'risida alohida to'xtalib o'tadi. Haqqoniy tarixni yoritish va o'rgatishda tarixchi mutaxassislar, olimlarning o'rni va roliga to'xtagan I.Karimov bunday kadrlarni tayyorlashni universitetlardan, ya'ni boshlang'ich nuqtasidan yaxshilash lozimligini, tarixga ixtisoslashgan maktablar ochish, buning uchun, avvalo, mukammal darsliklar yaratish, o'qituvchilarni o'zini qaytadan o'qitish kerakligini uqtiradi. Shuningdek, ular

orasida dovyurak, zamonaviy fikrlaydigan olimlar bo'lishini istab, tarixchi olim. akademik Yahyo Gulomovning jasurligi, adolatni hamma narsadan ustun qo'ygan vatanparvar inson bo'lganligini misol keltirib, "ana shunday odamlar hayoti bizga ibrat maktabi bo'lmog'i lozim"ligini ta'kidlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Tafakkur" jurnali muxbiri bilan qilgan suhbatida **"siyosatda ham, ijtimoiy hayotda ham, fanda ham vakuum – bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'yimaslik kerak. Ya'ni, agar o'z g'oyang bo'lmasa, sening yurtiingda chet g'oya kelib hukmronlik qiladi"**, degan fikrni aytib. mustaqil fikrlaydigan olimlar o'z davlati, xalqi, millati tarixini o'zlari tiklamasa, o'zlari yozmasalar, uni boshqalar boshqacha yozishlari, faqat yozishgina emas, o'sib kelayotgan avlodni. hatto, o'zbek olimlarini ham o'z yo'rig'lariga solishi mumkin, deb ogohlantiradi. O'zbek davlati, o'zbek xalqi tarixini yoritishda o'zga g'oya hukmronlik qilishiga yo'l qo'yimaslik uchun, **"haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa o'zlikni anglash mumkin emas"ligini.** buyuk davlat qurayotgan O'zbekistonning tarixiy asosi, qariyb 3000 yillik buyuk davlatchilik o'tmishi borligini uqtirib. quyidagi vazifalarni olg'a suradi:

– Avvalo, ko'p ming yillik boy o'tmishni tadqiq etishning yaxlit konsepsiyasini, ya'ni dasturini. ilmiy izlanishlarining uslubini ishlab chiqish;

– qo'yilayotgan vazifani amalga oshiradigan ilmiy muassasalar, ulardagi potensial kadrlar masalasini aniqlab olish;

– Fanlar Akademiyasiga qarashli Tarix, Sharqshunoslik, Arxeologiya institutlari, shu sohaga taalluqli ilmiy muassasalar tarkibini, ish faoliyatini o'zgartirish;

– Toshkent Davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) va boshqa o'quv dargohlaridagi tarix fakultetlarining darsliklar, ta'lim-tarbiya masalalaridagi kamchiliklarini aniqlab, ularning faoliyatini takomillashtirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish;

– kerak bo'lsa, ularda ishlayotgan olim va mutaxassislar faoliyatiga tanqidiy yondashib, kim shu ishga loyiq, noloyiqligini aniqlash va zarur bo'lsa, yangi guruhlar tuzib. ularga moddiy yordam berish;

– fanda o'zbekning tarixiy tomirlarini aniqlaydigan, milliy g'ururni yuk-saltiradigan yangi yo'nalishlar yaratish;

– bu borada, ya'ni O'zbekistonning uzoq o'tmishi, tarixiy tomirlari bo'yicha mustaqil fikrga, chuqur ilmiy asosga ega bo'lish.

Shu tariqa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 1998-yil o'zbek tarixchi olimlari bilan uchrashuvida so'zlagan nutqi va shu asosda nashr etilgan "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" risolasida o'zbek davlati, mil-

latining haqqoniy ilmiy tarixini yaratish vazifasi keng jamoatchilik uchun muhim va dolzarb masalaga aylandi.

XX asr oxiri, XXI asr boshlarida dunyodagi zoʻravon va tajovuzkor kuchlarning boshqa mamlakatlarni tobe qilishga intilishlari natijasida ularning eng buyuk boyliklari boʻlmish milliy qadriyatlari, tarixi va maʼnaviyatidan judo qilishga urinishlari kuchaymoqda. Bunday tahdidlar oʻz-oʻzidan mamlakat xavfsizligi, milliy manfaatlarini, sogʻlom avlod kelajagiga xavf solib, oqibatda jamiyat inqiroziga olib kelishi mumkin. Shu bois ham, Prezident I.A.Karimovning xalq tarixi uning maʼnaviyati asosi ekanligini inobatga olib, bunday maʼnaviy tahdidlarning oldini olish, bu borada amalga oshirilishi zarur boʻlgan vazifalar, bugungi murakkab globallashuv davrida xalq maʼnaviyatini asrash va yuksaltirish, ayniqsa, oʻsib kelayotgan yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli gʻoya va mafkuralar taʼsiridan saqlash va himoya qilish masalalarini yoritish maqsadida **“Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch”** nomli asari keng kitobxonlar ommasiga taqdim etildi.

Eʼtiborli tomoni shundaki, ushbu kitobda ham yurt va xalq tarixining komil inson tarbiyasidagi oʻrni va ahamiyatiga muhim eʼtibor qaratilgan. Shu sabab ham I.A.Karimov maʼnaviyatni asrash, yuksaltirish va uni turli tahdidlardan himoya qilish uchun nima qilish lozim degan savolga “...avvalambor shu yurtda yashayotgan har qaysi inson oʻzligini anglashi, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimiz, ulugʻ ajdodlarimizning merosini chuqurroq oʻzlashtirishi, bugungi tez oʻzgarayotgan hayot voqeligiga ongli qarab, mustaqil fikrlashi va diyorimizdagi barcha oʻzgarishlarga daxldorlik tuygʻusi bilan yashashi zarur”, deb javob beradi.

Shu oʻrinda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining yurt va xalq oldidagi buyuk xizmatlaridan biri – maʼnaviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlarning birinchilari sifatida maʼnaviy **meros, madaniy boyliklar, koʻhna tarixiy yodgorliklar** ekanligini asoslab berganini alohida taʼkidlash lozim. Prezident bu mezonlarni tahlil qilar ekan, tabarruk oʻzbek zaminida yetishib chiqqan olim-u ulamo, siyosatchi va sarkardalarning jahon sivilizatsiyasiga qoʻshgan bebaho ulushi va xizmatlarining beqiyosligi, ularning bu xizmatlari oʻzbek xalqi uchun gʻurur va iftixor bagʻishlashini koʻrsatib beradi.

Ajdodlar tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, kutubxonalar xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qoʻlyozmalar, tarixiy asarlar xalqning buyuk maʼnaviy boyligi ekanligini qayd etib: “Bunchalik katta merosga ega boʻlgan xalq dunyoda kamdan-kam topiladi”, deb eʼtirof etadi.

Asarda bebaho ma'naviy obida, yirik qadimiy manba "Avesto" haqida to'xtalib, bu noyob yodgorlikning necha ming yillar mobaynida og'ir sinovlardan o'tib, bugungi kungacha yetib kelganining o'zida katta ma'no borligi, bunday o'lmas osori-atiqalar bu ko'hna o'lkada, bugun biz yashab turgan tuproqda qadimdan buyuk madaniyat mavjud bo'lganidan guvohlik beradi, deb keltiriladi.

"Avesto"ning ma'no-mohiyatini belgilab bergan "Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" tamoyiliga I.Karimov: "Ana shunday fikrlar, ya'ni, ezgu niyat, so'z va ish birligini jamiyat hayotining ustuvor g'oyasi sifatida talqin etish bizning bugungi ma'naviy ideallarimiz bilan naqadar uzviy bog'liq, nechog'liq mustahkam hayotiy asosga ega ekani ayniqsa e'tiborlidir", deb baho berib, ko'hna tarixni ko'z o'ngidan o'tkazib tahlil qilar ekan, "...ota-bobolarimiz ruhiy olamining tomirlari aynan yuqorida zikr etilgan ma'naviy zaminda, tarixda ham, bugun ham barchaning havasini tortib kelayotgan oliyanob fazilatlar orasida shakllangan". degan xulosaga keladi. O'zbek zaminida yetishgan buyuk allomalar, tarixiy shaxslar hayotining tahlilida esa, ularning nafaqat dunyo miqyosida, balki shu xalq va yurt uchun qilgan xizmatlarini ham baholaydi. Jumladan, o'zbek tarixining yorqin, yuksalish davri asoschisi sohibqiron Amir Temurga: "...Tengsiz azm-u shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo'lgan bu mumtoz siymo buyuk saltanat barpo etib, davlatchilik borasida o'zidan ham amaliy, ham nazariy meros qoldirdi, ilm-u fan, madaniyat, bunyodkorlik, din va ma'naviyat rivojiga keng yo'l ochdi", deb baho beradi. Ayniqsa, Sohibqironning "Temur tuzuklari"ni o'ziga qanchalik ruhiy kuchquvvat berishidan iftixor hissini tuyib, bu kitobdagi so'zlar bugungi kunda ham ma'naviy jihatdan naqadar dolzarb ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi.

Asarda har bir xalq milliy qadriyatlarining o'z maqsad-muddolari, shu bilan birga, umumbashariy taraqqiyot yutuqlari asosida rivojlantirib, ma'naviy dunyosini yuksaltirib borishga intilar ekan, bu borada **tarixiy xotiraning** alohida ahamiyat kasb etishi qayd etiladi va muallif "... tarixiy xotira tuyg'usi to'laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yo'qotish va qurbonlari, quvonch va iztiroblari bilan xolis va haqqoniy o'rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo'ladi", deydi. Shuningdek, XVII asrdan XX asr boshlarigacha O'zbekistonda hukm surgan siyosiy parokandalik, jaholat va qoloqlik davri tarixi xususida to'xtalib: "XIX asrdagi chorizm istilosi ko'pgina sabablar bilan bir qatorda avvalambor o'sha paytda mavjud bo'lgan siyosiy boshboshdoqlik, hukmron kuchlarning uzoqni ko'rmasligi, ma'naviy zaifligi oqibatida ro'y berganini tarixiy misollar isbot-

lab turibdi. Bu achchiq haqiqat barchamizga, ayniqsa, bugun hayotga katta umid va ishonch bilan kirib kelayotgan yoshlarimizga doimo saboq bo'lishi lozimligini alohida ta'kidlab o'tadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" va "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarlari o'z tarixini xolisona va haqqoniy baholab, ma'naviy merosning boyishi va rivojlanishiga, shu asosda bugungi jahon ilm-u fani va madaniyatining yuksak cho'qqilarini egallashdek buyuk vazifaga har tomonlama munosib va qodir avlodni yetishtirishga dasturilamal bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Yurtboshi belgilab bergan vazifalar asosida yurt va xalq tarixini xolisona va haqqoniy tiklash, uni o'rganish borasida amalga oshirilgan ishlar xususida ushbu qo'llanmaning mustaqillik yillariga oid XV, XVI, XVII va XVIII boblarida o'qishingiz mumkin.

Tayanch so'z va iboralar:

Tarix. Fanning predmeti. Metodologik tamoyillar. Tarixni davrlashtirish. Tarixiy manbalar: moddiy va yozma manbalar. Barkamol avlod tarbiyasi. Vatan tarixining o'rni va ahamiyati. I.A.Karimovning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q", "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarlari. Haqqoniy tarixni yoritish va o'rganish.

Bilimingizni sinab ko'ring

1. Insonlarning o'z tarixini chuqur bilishi bilan ularning ongida qanday jarayon boshlanadi?

Katakchalarda yashiringan bu jarayon nomini toping.

			i			i
--	--	--	---	--	--	---

	n		l		
--	---	--	---	--	--

2. Tarix – xalq xotirasi, xalqning o'tmishi, avlodlar sevib, e'zozlab, o'rganib saboq oladigan qanday maktab?

--	--	--	--

m	a	k	t	a	b	i
---	---	---	---	---	---	---

3. Sobiq tuzum davrida har qanday tarixiy voqealarni yoritishga hukmron partiya mafkuraviyligi, partiyaviylik, sinfiylik nuqtayi nazaridan yondashilgan edi. Sovetlar tarixni o'qitish va o'rganish ishlarini qanday metodologiyaga

bo'ysundirgan edilar? Ularning bu metodologiyasi nomini katakchalardan toping.

	a					a
--	---	--	--	--	--	---

			i			a
--	--	--	---	--	--	---

4. Tarixni yoritish va o'rganishda olam yagona va yaxlit, barcha hodisa-voqealar umumiy va o'zaro bog'liqlikda, uzluksiz harakat hamda ziddiyatli taraqqiyotdiligini e'tirof etgan tamoyil muhim o'rin tutadi. Bu tamoyil fanda qanday nom bilan ataladi?

	i	a				i	
--	---	---	--	--	--	---	--

t	a	m	o	y	i	l
---	---	---	---	---	---	---

5. Tarixiy voqealarni alohida bir ijtimoiy tabaqa – kambag'allar yoki boy-lar manfaati nuqtayi nazaridan turib tahlil etish, yoritish bir tomonlama yon-dashuv bo'lib, u tarixni soxtalashtiradi. Shu bois. tarixiy jarayonlarni aholi barcha tabaqalarining manfaatlarini hisobga olgan holda o'rganishni taqozo etadi.

Bu taqozo etilayotgan tarixni yoritish va o'rganishning qanday nomdagi tamoyili hisoblanadi?

			i			i	
--	--	--	---	--	--	---	--

		d				b
--	--	---	--	--	--	---

6. Arxeologlar tomonidan topilgan qadimiy pul (tanga)lar tarixiy man-balarning qaysi biriga tegishli? Katakchalardan bu manba nomini toping.

--	--	--	--	--	--

m	a	n	b	a	l	a	r
---	---	---	---	---	---	---	---

7. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" nomli asarida inson ma'naviyatini tiklashi, o'z yurtida boshini ba-land ko'tarib yurishi uchun unga birinchi navbatda nima kerakligi ko'rsatib berilgan?

			i		i	
--	--	--	---	--	---	--

			i		
--	--	--	---	--	--

8. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida sohibqiron Amir Temur faoliyatiga baho berib, bu siymoning bir sohada o'zidan ham amaliy, ham nazariy meros qoldirganini yozadi. U yerda qaysi meros haqida gap borgan?

	a			a				k
--	---	--	--	---	--	--	--	---

b	o	r	a	s	i	d	a
---	---	---	---	---	---	---	---

I BOB. O‘ZBEKISTON INSONIYAT SIVILIZATSIYASINING ENG QADIMIY O‘CHOQLARIDAN BIRI

Mavzu rejasi:

1. O‘zbekiston hududi qadimdan insonlar yashab kelayotgan o‘lka. Paleolit davri. Antropogenez.
2. Insoniyatning mezolit, neolit, eneolit, bronza davrlaridagi hayot tarzi va manzilgohlari.
3. Mehnat taqsimotlari. Xususiy mulkning vujudga kelishi.
4. Insoniyat sivilizatsiyasida “Avesto” va zardushtiylik ta’limotining o‘rni.

1. O‘ZBEKISTON HUDUDI QADIMDAN INSONLAR YASHAB KELAYOTGAN O‘LKA. PALEOLIT DAVRI. ANTROPOGENEZ

Uzoq davrlar davomida arxeologlarning eng so‘nggi xulosalariga ko‘ra, eng qadimgi odamlar Afrikadan topilgan **Zinjantroplar** (3-3,5 mln yil avval), Indoneziyaning Yava orolidan topilgan **Petekantroplar** (1 mln – 600 –700 ming yil avval), Xitoydan topilgan **Sinantroplar** (500 – 600 ming yil avval) deb kelinar edi.

Ilmiy tadqiqotlarda tarixning eng qadimgi davri ikkita yirik davrga: **ibtidoiy to‘da** va **urug‘chilik jamoasiga** bo‘linadi. Urug‘chilik jamoasi o‘z navbatida ikki bosqichga: **matriarxat** (ona urug‘i) va **patriarxat** (ota urug‘i)ga ajratiladi. Arxeologik jihatdan esa eng qadimgi davr mehnat qurollarining tayyorlanishi va takomillashuviga qarab **paleolit, mezolit, neolit, eneolit, bronza va ilk temir** davrlariga bo‘linadi.

Paleolit (yunoncha, “palayos” – qadimgi, “litos” – tosh) – insoniyat tarixining eng qadimgi davri bo‘lib, uning boshlanish sanasi taxminan bundan 3 mln yil ilgarigi davr bilan belgilanadi. Bu davr asosan tosh qurollar davri edi. Insoniyat minglab yillar davomida yashash zaruriyati tufayli toshga ishlov berish texnikasini takomillashtirib, rivojlantirib borgan. turmush tarzi hamda yashash sharoitini yaxshilashga harakat qilgan. Paleolit davri arxeologik nuqtayi nazardan uch bosqichga: **ilk, o‘rta** va **so‘nggi** bosqichlarga bo‘lib o‘rganiladi. Ushbu bosqichlar arxeologik davrlashtirishga mansub, u faqat ibtidoiy jamiyatdagi qurollar yasash xomashyosiga, uni ishlash texnikasiga

qarab bo‘lingan. Shuning uchun ham bu davr ijtimoiy munosabatlar evolyutsiyasini bildirmaydi va belgilamaydi.

O‘tgan asrning 80-yillarida o‘zbek olimi, akademik O‘.Islomov boshchiligidagi arxeologlar Farg‘ona vodiysining Selung‘ur g‘oridan ilk paleolit davriga oid tosh qurollari va qadimgi odam jag‘, tish, yelka suyaklarini topib, bu yerda odamlar 1 mln yil avval (ilk paleolit davri) yashaganliklarini aniqladilar. Bu topilmalar “O‘rta Osiyoda qadimgi odamlar yashamagan, bu yerda neondertal odam turkumidagi (odamzodning ancha takomillashib, hayvon ovi bilan shug‘ullangan so‘nggi davrlariga mansub) odamlar eng qadimgi odamlar bo‘lgan”, degan qarashlarni inkor etdi. Ilk paleolit davrida qadimgi ajdodlar yashaganligini tasdiqlovchi arxeologik ashyolar Ko‘lbuloq (Toshkent viloyati), Qizilolmasoy va Toshsoy (Ohangaron) makonlaridan ham topildi. Bularning barchasi O‘zbekiston insoniyat sivilizatsiyasining eng qadimgi o‘choqlaridan biri ekanligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, **Ko‘lbuloq** makonidan (Shimoli-sharqiy O‘zbekiston, Toshkent viloyati) ham ko‘p qatlamli yodgorlik ochilgan bo‘lib, uning eng pastki qatlamlari ilk paleolit davriga oid. Shuningdek, Qizilolmasoy va Toshsoy (Ohangaron) makonlaridan ham ilk paleolit qatlamlari ochilgan hamda bu yerdan 100 dan ziyod chopper, nukleus, qirg‘ich va tarashlagich tosh qurollar topilgan.

Ko‘lbuloqda mustaqillik yillarida o‘zbek arxeologlarining chet ellik hamkasblari bilan qo‘shma ishlari natijasida paleolitning barcha bosqichlariga oid ko‘plab madaniy qatlamlar, xususan, ilk paleolitga oid 22 ta, o‘rta paleolitga oid 24 ta, so‘nggi paleolitga oid 3 ta madaniy qatlam aniqlandi. 2007-yilda qazishmalar qayta boshlanib Qizilolmasoyda tadqiqotlar davom ettirildi. Yangi tadqiqotlar natijasida topilgan moddiy madaniyat buyumlari qadimgi tosh davri industriyasining shakllanish va rivojlanish bosqichlariga yanada aniqlik kiritish imkoniyatini berdi. Bu davrda jamiyat iqtisodiy hayotining ijtimoiy tarkibi dastlab **matriarxat** urug‘ jamoalari an‘analari va so‘ng **patriarxat** urug‘ jamoalarining erkin dehqon jamoa a‘zolari – kashovar, ozodkor va guvakorlardan tashkil topgan. Mulkka egalik qilish dastlab (matriarxat davrida) ijtimoiy xarakterda, so‘ng (patriarxat davrida) erkin ishlab chiqarish jamoa a‘zolariga tegishli xususiy mulk shakllangan. Jamiyatning mafkuraviy asosini dastlab tabiat hodisalariga sig‘inish: totemistik, animistik, sehrgarlik, so‘ng esa buddaviylik, moniylik, nasroniylik va shamanizm tashkil etadi.

Eng qadimgi davrda odamlar asosan toshlardan, yirik hayvonlar suyaklaridan, hayvon va daraxt shoxlaridan mehnat quroli sifatida foydalanganlar. Shu bois, bu davr “Qadimgi tosh davri”, ya‘ni **paleolit** davri deb yuritiladi.

Paleolit uch: ilk paleolit, oʻrta paleolit, yuqori paleolit bosqichlaridan iborat.

Ilk paleolit davridan shu kungacha juda koʻp hollarda faqat tosh qurollar yetib kelgan. Bu davr – dastlabki mehnat quroli topilgan makon – Ashel nomi bilan atalib, fanda bu davr – “Ashel davri” deb beriladi.

Ilmiy xulosalarga koʻra, bu davr dunyo tarixida bundan 3-2,5 million yil burun boshlanib, mil.avv. 100 mingginchi yillargacha davom etgan. Bu davrda yer yuzida tabiiy oʻzgarishlar roʻy berib, Himolay, Tibet, Pomir va Tyan-Shan singari baland togʻlar qad koʻtargan. Davr oxirlarida havo sovib, togʻlarda yirik muzliklar vujudga kelgan. Tabiatdagi bunday oʻzgarishlar mintaqamizning ayrim joylarida ilk ajdodlarimizning makon topishiga imkon yaratgan.


Qadimgi tosh davri (paleolit)ning oʻrta bosqichi (bundan qariyb 100 – 40 ming yil avval) arxeologiya fanida **mustye** davri deb ataladi. Bu davrda iqlim sharoiti yomonlashib, muzlanish kuchaygan. Odamlar bu iqlimga moslashishga, himoyalanishga majbur boʻlgan. Bu davrda yangi mehnat qurollaridan qoʻl choʻqmori paydo boʻlgan va toʻda-toʻda boʻlib yurish bu davrda ham davom etgan. Bu davr odamlari yashagan madaniyat oʻchoqlari Oʻzbekistonning Surxondaryo (Teshiktosh), Samarqand (Omonqoʻton, Qoʻtirbuloq, Zirabuloq, Xoʻjamazgil), Toshkent (Obirahmat, Xoʻjakent, Koʻlbuloq), Navoiy (Uchtut) hududlarida topilgan. Insoniyat tarixi shajarasida bu davr va bu makonlarda yashagan odamlar fanga shartli “Neandertal odam” nomi bilan kiritildi.

Ilk paleolit davrida odamlar gʻorlarda yashashgan. Ashel davrining soʻngida odamlar olovdan foydalana boshlagan va ularning asosiy qurollari toshdan yasalgan choʻqmor boʻlgan. Paleolitning oʻrta bosqichida esa odamlar hayotida ovchilik muhim rol oʻynagan. Aynan shu davrda odamlarda diniy tasavvur shakllana boshlagan.

Yuqori paleolit bosqichiga kelib, ibtidoiy toʻda davrining vayronalarida kishilik jamiyatining dastlabki boʻgʻini – ibtidoiy jamoa tarkib topdi. “Ibtidoiy urugʻchilik jamoasi davri” tarixi ham urugʻ jamoalarining tashkil topishidan, yaʼni ona urugʻi jamoasi qaror topgan damlardan boshlandi. Aynan shu davrda odamzod nayzani ixtiro qildi. Bu davrda toshdan mehnat qurollari yasash uslubida, ibtidoiy xoʻjalik shakllarida, odamlarning turmush tarzida, ularning ijtimoiy munosabatlarida, odamlar dunyoqarashida, hatto ularning jismoniy tuzilishlarida ham jiddiy oʻzgarishlar yuz beradi. Bu davr odamida rosmana peshana va pastki jagʻ shakllanadi. Oyoq, qoʻl harakatlarida ham chaqqonlik paydo boʻlib, hozirgi zamon odamlariga xos jismoniy xususiyatlar vujudga keladi. Bunday har jihatdan mukammal odam fanda “homo sapiens” (ongli odam) deb ataladi.

Bu davrda jamiyatda “ibtidoiy to‘da” o‘rnini **Matriarxat** – ona urug‘i jamiyati, ya’ni “urug‘chilik jamoasi” egallagan. Ayollar jamiyatda yetakchi mavqega ega bo‘lganlar. Onalarga jamoa sardori, urug‘ni davom ettiruvchi iloh deb qarashgan. Jinslar o‘rtasida mehnat taqsimoti kelib chiqqan. Ayollar oziq-ovqatlarni saqlash, ovqat tayyorlash, oilani zarur yoqilg‘i bilan ta‘minlash, bola boqish va tarbiyalash ishlari bilan mashg‘ul bo‘lishgan. Erkaklar esa asosan ovchilik bilan shug‘ullanib, mehnat qurollari tayyorlagan. Bu davrda insonning biologik jihatdan takomillashib borishini ta‘minlagan – qarindosh-urug‘lar o‘rtasidagi nikoh taqiqlangan odat (ekzogamiya) rasm bo‘lgan.

***O‘rta Osiyoda ibtidoiy jamiyatning paleolit davri
va uning manzilgohlari***



Fanda insoniyatning paydo bo‘lishi juda murakkab masala bo‘lib, bu jarayon asosan arxeologik va antropologik ma‘lumotlar bo‘yicha o‘rganiladi. Ammo, insoniyat paydo bo‘lishining afsona, rivoyat, ilohiyot va koinot bilan bog‘liq nazariyalari ham mavjud. Misol uchun, yakka xudolikni targ‘ib etgan barcha diniy ta‘limotlarda insonning paydo bo‘lishi yoki yaratilishi ilohiyot bilan bog‘lanadi. Xususan, “Bibliya” ta‘limotiga ko‘ra, odamzod xudo tomonidan 7 ming yil ilgari “qizil loydan” yaratilgan. “Qur‘oni Karim”da esa odamning loydan yaratilib, Ollohning irodasi bilan unga jon ato etilgani ta‘kidlanadi. Zardushtiylik dinida ham shunga o‘xshash rivoyatlar mavjud. Insoniyatning ilk vakillari sifatida “Bibliya”da Adam va Eva, “Qur‘oni karim”da Odam ato va Momo havvo, zardushtiylikda esa Iyim nomlari keltiriladi. Bundan tashqari, Yevropa olimlarining insoniyat qandaydir kichik mavjudotlar (bakteriyalar)

dan paydo bo'lganligi yoki koinotdan tushgan odam qiyofasidagi jonzoqlar haqidagi nazariyalari ham mavjud.

Dunyoviy fanlar, xususan, tarix fani yuqoridagi g'oya va nazariyalarni, hatto hozirgi paytdagi gepotezalar – ko'rinmas odam yoki koinotdagi odamlar kabilarni inkor etmagan holda antropogenez jarayonini ilm-fan yutuqlarida erishilgan natijalarning dalillarga asoslanib o'rganadi. Tarix fanida insoniyat tabiatning bir qismi bo'lib, u yerdagi taraqqiyotning ma'lum bosqichida vujudga kelib, uzluksiz izlanish va mehnat tufayli takomillashib borganligi haqidagi xulosalar qolgan barcha nazariyalar hamda rivoyatlardan ustunlik qiladi. Fanda odamning paydo bo'lishi va rivojlanish jarayoni **antropogenez (yunoncha “antropos” – odam, “genezis” – rivojlanish)** deb ataladi.

2. INSONIYATNING MEZOLIT, NEOLIT, ENEOLIT, BRONZA DAVRLARIDAGI HAYOT TARZI VA MANZILGOHLARI

Insoniyat o'z tarixiy taraqqiyotida mil.avv. 12 ming yillikdan 7 ming yillikgacha mezolit (o'rta tosh) davrini bosib o'tgan. Bu davrda o'lkalar ham issiqlashib borgan. Yog'ingarchiliklar ko'p bo'lib, o'simliklar va hayvonot dunyosi hozirgi zamon qiyofasiga o'ta boshlagan. Bu davrda ovchilik hayot manbai hisoblangan. O'q-yoyning yaratilishi o'sha davrning muhim kashfiyoti bo'lgan. Ovchilik endi yangicha mazmun kasb etib, undan keladigan daromad manbai ko'paygan, qo'lga kiritilgan hayvonlarning iste'moldan ortiqchasi qo'lga o'rgatila boshlangan.

Bu davrning yana bir xususiyati ovchilik bilan termachilikning ham o'rni oshganligidir. Endi odamlar o'simliklarni ildizi bilan yemasdan, ularni saralab, shirin va mazali o'simliklarni iste'mol qilishni o'rgangan. Bu hol odam tanasining sifat jihatidan tozalanishi va kamol topishiga, inson aql-u tafakkurining o'sib rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Mezolit davrining mashhur yodgorliklaridan biri – Surxon vohasidagi **Machay** (Boysun) g'or makoni hisoblanadi. Dengiz sathidan 70 metrcha balandlikda joylashgan bu makonda qalinligi 40 sm dan 1 metr oralig'ida bo'lgan 2 ta madaniy qatlam bo'lib, ushbu qatlamlardan ko'plab suyak va asosan tosh qurollar topilgan. Suyak qurollar bigiz, igna, so'zan kabilardan iborat bo'lsa, tosh qurollar – pichoq, arrasimon qurollar, kesgichlar, ushatgich toshlar, nayza va o'q uchlari kabilardir. Bu qurollarning o'ziga xos belgilari mavjud bo'lsa ham Janubiy Qozog'iston va Yaqin Sharqdagi mezolit yodgorliklaridan topilgan tosh qurollariga o'xshab ketadi.

Machay makoni topilmalarining eng ahamiyatli tomoni shundaki, bu yerdan antropologik topilmalar – odam bosh suyaklari, tishi, jag‘i va boshqa a‘zo qoldiqlari topilgan bo‘lib, bu topilmalarni o‘rganish tadqiqotchilarga O‘rta Osiyoning janubidagi mezolit davri kishilarining yevropoid irqiga mansub ekanligini aniqlash imkonini berdi.

Odam suyaklaridan tashqari, Machayning madaniy qatlamlaridan bo‘ri, tulki, bars, mo‘ynali suvsar, quyon, jayra, olmaxon kabi hayvonlarning ham suyak qoldiqlari topilgan. Tadqiqotchilarning fikricha, bu yerda 20 turdan ziyod hayvon suyaklari mavjud bo‘lib, ularning aksariyati mayda, sindirilgan va olovda kuydirilgan. Demak, machaylik mezolit davri odamlari olovdan keng foydalangan hamda hayvon-u parranda go‘shini olovda pishirib yeganlar.

O‘zbekistonning janubidagi yana bir mezolit davri yodgorligi Ayritom makoni. Termizdan 18 km uzoqlikda joylashgan mazkur yodgorlikning ko‘p qavatli madaniy qatlamlaridan tosh parmalagichlar, nukleuslar, tosh uchrindilar, o‘q uchlari kabilar topilib o‘rganilgan.

Farg‘ona vodiysidan mezolit davriga oid **Obishir** g‘or-makonidan tosh qurollar, bigizlar, qirg‘ichlar, pichoq qadamalari topilgan. Shuningdek, topilmalar orasida yovvoyi hayvonlarning maydalangan va sindirilgan suyaklari, baliq tutishda ishlatiladigan qadoq toshlar ham bor. Topilgan ashyolarga asoslanib obishirliklar baliqchilik, ovchilik va termachilik bilan shug‘ullangan, deyish mumkin.

Keyingi 30–35 yil ichida Markaziy Farg‘ona hududlaridan Sho‘rko‘l, Achchiqko‘l, Yangiqadam, Bekobod, Zambar, Toypoqko‘l kabi 80 ga yaqin mezolit davri yodgorliklari aniqlandi. Ularning ko‘pchiligi ko‘l yoqalaridan topilgan va aftidan bu joylar mezolit davri kishilarining yashashlari uchun ko‘pgina qulayliklarga ega bo‘lgan. Bu yerlardan topilgan ko‘pgina qurol hamda tosh buyumlar o‘zining nisbatan nozikligi, ixchamligi bilan paleolit davri qurollaridan ajralib turadi. Markaziy Farg‘ona tog‘lari orasida yashagan mezolit davri qabilalarining turmush tarzi yovvoyi hayvonlarni ovlash va termachilik bilan bog‘liq bo‘lib, Markaziy Farg‘onadagi mezolit davri qabilalari xo‘jalik hayotida ovchilik, termachilik hamda baliqchilik ustunlik qilgan, qulay tabiiy-geografik sharoit mazkur hududlarda qadimgi odamlarning keng tarqalib yashashlari uchun imkoniyat yaratgan.

Markaziy Farg‘ona mezolit yodgorliklari ochiq makonlardir, ularda madaniy qatlamlar saqlangan. Ushbu makonlarda yashagan mezolit davri qabilalari ovchilik, baliqchilik va termachilik mashg‘ulotlari va turmush tarzi bilan kun kechirganlar. O‘rta Osiyoning Markaziy Farg‘ona mezolit davri quyidagi ikki bosqichga bo‘lib o‘rganiladi:

1. İlk mezolit – Ittak qal’a, Achchiqko‘l, Yangiqadam, Toypoqko‘l kabilar bo‘lib, ular mil.avv. IX–VIII ming yilliklar bilan sanaladi.

2. So‘nggi mezolit – Achchiqko‘l, Yangiqadam, Bekobod, Sho‘rko‘l, Madiyor, Zambar, Taypoqko‘l makonlari (ko‘plarining yuqori qatlamlari) bo‘lib, ular mil.avv. VII ming yillik bilan sanaladi.

Toshkentning g‘arbida. qadimgi Bo‘zsuv anhuri sohilidan Qo‘shilish mezolit makoni topilib, tadqiq etilgan. Ushbu makondan chaqmoqtoshdan ishlangan nukleuslar, mayda parrakchalar, uchrindilar, qirg‘ichlar, har xil shakldagi qurollar, tosh pichoqlar, silliqlangan tosh qurollar topilgan. Qo‘shilish makoni topilmalari mil.avv. XI–X ming yilliklariga oid sanalib, bu yerda yashagan qadimgi qabilalar ovchilik va termachilik bilan shug‘ullangan.

Xullas, mil.avv. XI–X ming yilliklariga kelib Kaspiy bo‘ylaridan Pomir tog‘larigacha, Kopetdog‘ etaklaridan Markaziy Qozog‘istongacha bo‘lgan keng hududlarda mezolit davri qabilalari yoyiladi. Ushbu hududlarning geografik sharoiti xilma-xil, mezolit davri makonlari past tekisliklar, daryo va soy bo‘ylari hamda tog‘ oldi hududlarida joylashgan. Bu davr qabilalari va urug‘lari ovchilik, baliqchilik hamda termachilik bilan kun kechirganlar.

Insoniyat o‘z taraqqiyoti tarixida yana bir davr – **neolit** (yangi tosh) davrini ham bosib o‘tganki. bu davrda mehnat qurollariga ishlov berishda silliqlash, pardozlash, arralash usullari ixtiro qilindi. Yangi mehnat qurollari: toshbolta, pona, toshtesha, iskanalar paydo bo‘ldi. Shu bois odamlarning oldingi davrlardagidek daydi hayot kechirishlariga zaruriyat qolmadi. Ular o‘troq hayot kechirishga o‘tdilar. Doimiy yerto‘lalar, kulbalar, loydan, guvaladan uylar qurish, qishloqlar barpo etish bu davrga xos jarayonlar hisoblanadi. Dehqonchilik kelib chiqdi va chorvachilik qaror topdi. Bu davr jamoalari hayotida yana bir yangilik – bo‘ljak hunarmandchilik xo‘jaligining muhim tarmog‘i hisoblangan sopol buyumlar ishlab chiqarishning kashf etilishi edi. Odamlar endi faqat hayvon terisidan yasalgan kiyim-kechaklarnigina emas, balki uning junidan hamda o‘simliklar tolasidan to‘qilgan matolardan kiyim-kechaklar tikib kiyadigan bo‘ldilar. Neolit davrida “ona urug‘i” hukmronligi o‘zining eng gullagan davrini boshdan kechirdi. Matriarxat urug‘ jamoasi-ning guruhli nikoh doirasida juft oila qurish vujudga keldi. Ayollar tug‘ilgan farzandlarining otalaridan o‘z urug‘ jamoasi manfaatiga ishlab berishni talab qiladigan bo‘ldilar. Ana shu tariqa ichkuyovlik mazmunidagi juft oilaning dastlabki ko‘rinishlari shakllandi.

Eng muhimi, bu davrda mahsulot ishlab chiqarishning xo‘jalik asoslari, dehqonchilik va chorvachilik paydo bo‘ldi. Bu voqelik, shubhasiz, ibtidoiy odamlarning ijtimoiy tuzumi, kundalik turmush tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy faoli-

yatining barcha sohalarida keskin, tub ilg'or o'zgarishlarga olib keldi. Aynan shuning uchun ham bu tarixiy jamiyatni ingliz arxeologi V.G.Chayld "neolit inqilobi" atamasi bilan fanga kiritdi.

Bu davrning tabiiy iqlim sharoiti, o'simlik va hayvonot dunyosi hozirgi zamonga nisbatan yaqinligi bilan izohlanadi. Jumladan, ilgari taraqqiyot bosqichlariga qaraganda yangi, tabiatan ma'qul hududlarni o'zlashtirish jarayoni tezlashib, odamlar nisbatan kengroq mintaqalarda yashay boshladilar. Hozirgi O'zbekiston hududlarida mezolitning oxiri va neolit davrida odamlar yashashi uchun qulay ekologik muhit mavjud bo'lib, bu davrda janubi-g'arbiy Ustyurt va Qizilqumning ichki hududlari Zarafshon va Amudaryo etaklari ibtidoiy jamoalar tomonidan deyarli o'zlashtirib bo'lingan edi.

Soha mutaxassislarining e'tirof etishicha, neolit davrida "Lavlakon namgarchiligi" deb ataluvchi tabiiy iqlim sharoitining vujudga kelganligi yangi mintaqalarni o'zlashtirish imkonini yaratdi. Shu tariqa, ibtidoiy jamoalar turli tabiiy, ekologik sharoitlarga tushib qolib, bu holat ular turmush tarzining moslashish zaruratini taqozo etgan va o'z navbatida bu jarayon turli neolit madaniyatlarining paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.

Neolit davri madaniyatiga oid manbalar Ashxobotdan 40 km uzoqlikdagi Chaqmoqli degan joydan, qumlar ostidan dehqon jamoalari qarorgohi topilgan. Chaqmoqtoshlar sochilib yotgan joy keng, taqir bo'lib, unda bahorgi yomg'irdan so'ng ko'lmak suvi to'plangan. Oydin kechada ko'lmak suvi qopqora bo'lib ko'ringanligi sababli turkman cho'ponlari bu joyni qorong'ilik bilan bog'lab nomlagan. Shu bois ham bu joy fan olamiga "Joytun madaniyati" nomi bilan kirgan.

Yangi tosh (neolit) davrida mehnat qurollarining takomillashuvi natijasida turmush tarzida tarixiy o'zgarishlar sodir bo'lib, insoniyat ovchilik va termachilikdan iborat o'zlashtiruvchi xo'jalikdan dehqonchilik va chorvachilikka asoslangan ishlab chiqarishga o'tadi. Bunday o'zgarish ba'zida neolit inqilobi deb ham yuritiladi. Ushbu davrning yana bir kashfiyoti – sopoldan idish yasash boshlangan. Sopoldan odam va hayvon haykalchalari ham yasalgan. Bu davrda mehnat qurollarining takomillashuvi (toshni silliqlash, pardozlash, arralash va parmalash usullari ixtiro etilgan) insonlarning bir joydan ikkinchi joyga ko'chib hayot kechirishiga zarurat qoldirmagan. Dehqonchilik xo'jaligi o'z navbatida hunarmandchilikning rivojlanishiga, uning zaminida esa dastlabki qishloqlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Tadqiqotlar natijalariga qaraganda, tosh va bronza davrlari o'rtasida **mis-tosh** (eneolit) davri bo'lganligi aniqlangan. Bu davr metall qurollarining barchasi bronzadan emas, sof misdan yasalganligi ma'lum. O'rta Osiyoda eneolit

davri nisbiy tarzda mil.avv. IV ming yillikning oxiri – III ming yillikning boshlarini o‘z ichiga olgan davrda mis o‘zining kimyoviy xossalari (tez eruvchanlik, egiluvchanlik) tufayli xo‘jalik hayotda ustunlik qila olmadi. Ishlab chiqarishda avvalgidek tosh qurollar asosiy o‘rinda bo‘lib qoldi. Shuning uchun ham bu davr mis-tosh asri deb yuritiladi.

Mezolit oxirida va neolit davrida terib-termachlab ovqat topishdan yovvoyi o‘simliklarni ekish va o‘tkazish yo‘li bilan madaniylashtirish orqali vujudga kelgan dehqonchilik eneolit zamonida yuqori xo‘jalik turiga aylanib bordi. Dehqonchilik bilan uy chorvachiligi ortiqcha mahsulot yetishtirishga va mol ayirboshlashni tartibga solishga asos bo‘ldi. O‘rta Osiyo hududlarida quyidagi yangi tarixiy-madaniy jarayonlar eneolit davri bilan bog‘liqdir:

1) Xo‘jalikning boshqa hamma turlariga qaraganda haydama dehqonchilikning ustunlik qila boshlashi;

2) toshdan ishlangan qurollar ko‘p bo‘lgan holda mis qurollarning paydo bo‘lishi;

3) katta-katta jamoalarning paxsadan va xom g‘ishtdan tiklangan katta-katta uylari;

4) kulolchilikda muhim texnika yutug‘i – xumdonlarning ishlatilishi;

5) o‘troqchilik xo‘jaligining rivojlanishi, jamoa birlashmalarining uylari va qurilishida xom g‘ishtning paydo bo‘lishi;

6) turli hayvonlarning loydan yasalgan va ona urug‘i tuzumi (matriarxat) ga xos haykalchalari;

7) rangdor sopol buyumlar, ya‘ni turli tasvirlar ishlangan sopol buyumlarining mavjudligi.

Eneolit davrida O‘rta Osiyo aholisining madaniyati bir bosqich yuqoriga ko‘tarildi. Lekin, bu hududlardagi qabilalarning madaniy va ijtimoiy taraqqiyoti bir xil darajada emas edi. Qadimgi qabilalar mis-tosh davriga o‘tgach, madaniy, xo‘jalik va ishlab chiqarish taraqqiyotining yangi bosqichi boshlandi. Yangi xo‘jalik turlari – dehqonchilik va chorvachilik avvalgidek, Turkmanistonning janubi-g‘arbidagi qulay geografik sharoitda rivojlanadi. Bu paytda quyi Zarafshon va Amudaryo havzalarida yashovchi qabilalar hali madaniy o‘simliklar o‘stirishga o‘tmagan edilar. O‘rta Osiyoning sharqiy qismidagi tog‘li hududlar aholisi xo‘jaligida qabilalarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishida katta farq va notekisliklar saqlanib qoladi.


Dasht va tog‘ hududlaridan topilgan xilma-xil moddiy manbalarni o‘rganish natijalari (sopol idishlar, tosh qurollar, hayvonlar va qush suyaklari) qabilalarning iqtisodiy hayotida qo‘shimcha xo‘jaliklar – ovchilik va baliqchilik asosiy manba bo‘lganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga dasht odamlari tarixida

chorvachilikning ilk bosqichi boshlanadi, deyish mumkin. Lekin, neolit davri an'analari o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Aholining asosiy qismi daryolarning irmoqlari sohilida va ko'llar atrofida yashagan. Tabiiy boyliklar eneolit davri odamlari uchun hayot manbai hisoblangan.

Ishlab chiqarishda bronzaning ishlatila boshlanishi bilan jamiyat taraqqiyotida bronza davri boshlangan. Bu davming o'rtalarida hozirgi O'zbekiston hududida devorlar bilan o'ralgan qishloqlar paydo bo'lgan. Bu esa O'zbekiston hududlarida qadimgi shaharlarning vujudga kela boshlash jarayoni edi.

Bu paytda qadimgi xo'jaliklar taraqqiy etib, ko'p oilali jamoalarning boyliklari ortib borgan, jamiyatda sinfiy tabaqalanish jarayoni boshlangan. Dehqonchilik va chorvachilik madaniyati hamda iqtisodiy rivojlanish zamidida erkaklar mavqeyi oshgan, matriarxat yemirilib, ota urug'i – patriarxat qaror topgan. Endi qarindoshchilik otaga qarab belgilangan. Aynan shu davrda jamoaning mol-mulklarini qo'riqlash ehtiyoji harbiy qabila ittifoqini vujudga kelishiga sabab bo'lgan.

Ibtidoiy jamiyatning mezolit, neolit, eneolit va bronza davrlari



Matriarxatda mulk ijtimoiy xarakterda, urug' jamoasini edi. Chunki jamoaning iqtisodiy asosini o'zlashtiruvchi xo'jalik tashkil etgan. Ibtidoiy ajdodlar dehqonchilik va chorvachilik hamda hunarmandchilikni kashf etishgach, jamoaning iqtisodiy asosini ishlab chiqaruvchi xo'jalik tashkil etadigan bo'ldi, xususiy mulkning kelib chiqishiga keng imkoniyatlar yaratildi. Endi onalarning jamoada tutgan mavqeyi sekin-asta pasayib, jamoaga otalar bosh bo'lib qoldi.

3. MEHNAT TAQSIMOTLARI. XUSUSIY MULKNING VUJUDGA KELISHI

Taraqqiyotning ma'lum bir davrida ikki jamoa urug'idan er-xotindan iborat juft oila shakllandi. Bu jamiyat hayotida sodir bo'lgan burilish nuqtasi edi. Chunki juft oilaning vujudga kelishi bilan jamoa mulkchiligiga asoslangan ibtidoiy urug'chilik jamoasi zaminiga zil ketdi. Oila manfaati bilan urug' jamoasi manfaati o'rtasida kelishmovchilik, ziddiyat paydo bo'ldi. Urug' jamoalaridan tashqari juft oilalar jamoasi tarkib topdi. Ularni o'zaro birlashtiradigan manfaat omili albatta ishlab chiqarish edi. Juft oilalar negizida ishlab chiqarish jamoalarining paydo bo'lishida asosiy omil – jamoa ixtiyorida ortiqcha mulkning hosil bo'lishi va jamoalararo mahsulot ayirboshlashning vujudga kelishi hal qiluvchi o'rin tutdi. Endi har bir oila o'zidagi ortiqcha mahsulot va buyumlarni qo'shni oiladagi o'zida yo'q mahsulot bilan almashish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu jarayon dastlab ikki urug' jamoalari o'rtasida olib borilgan bo'lsa, so'ngra bunga boshqa urug' jamoalari ham faol qatnasha boshladi. Juft oila mulki bilan jamoa mulki endi sig'isha olmay qoldi. Oilalar o'rtasida, urug'lar o'rtasida janjal, to'qnashuv, hatto urushlar kelib chiqdi. Natijada yengilgan oila va urug' jamoaning boyliklari g'oliblar qo'liga o'tdi. Yengilgan jamoa odamlari tobe qilinib, qullarga aylantirildi, g'oliblar mulkini qo'riqlash ehtiyoji vujudga keldi. Aynan shu davrdan boshlab urug'chilik jamoasi yemirilib, sinfiy tabaqalashish jarayoni boshlandi. Xuddi mana shu paytda jamoadagi ortiqcha daromad – xususiy mulk va uni ayirboshlash jarayoni bilan bog'liq bir bo'linish (taqsimot) sodir bo'ldi. Chunki jamoa a'zolari bir vaqtning o'zida ikki soha bilan shug'ullana olmas edi. Ular o'zlariga qulay va ma'qul sohani tanlab ola boshladi. Bu jarayon tufayli fanda birinchi mehnat taqsimoti deb nomlangan dehqonchilikdan chorvachilik ajralib chiqdi.

So'nggi tadqiqotlarga ko'ra, yerga, chorvaga va ishlab chiqarish vositalariga xususiy egalikning paydo bo'lishi kashovarlar, ozodkorlar va guvakorlar orasida mulkiy tabaqalanish yuz berishiga olib keldi. Bu jarayon, ayniqsa, erkin dehqon jamoalari – kashovarlar orasida antik davrning oxirlariga kelib jadal rivojlandi. Kashovarzlarning boyib ketgan qatlami badavlat dehqonzodalar tabaqasini tashkil etsa, ularning yer mulkidan ajralgan kambag'al qismi kadivarlar tabaqasiga aylandi. Kadivarlar dehqonzodalarga qaram korandalarga – ijarachilarga aylandi. Shunday holni hunarmand va savdogarlar orasida ham kuzatish mumkin edi.

Arxeologik materiallar tahliliga ko'ra, chorvadorlar jamoasida yirik mulk egaligining paydo bo'lishi bronza davridayoq yuz bergan ko'rinadi. Chunki

bronza davri chorvadorlari keng tarqalgan tumanlardan biri – janubiy O‘rol va shimoliy Qozog‘iston cho‘llarida o‘rganilgan Andronov madaniyatining Sintashta mozorqo‘rg‘onlaridan topilgan ashyoviy dalillar jamoa a‘zolarini badavlat chorvador, aslzoda harbiylarga, kambag‘al avom cho‘pon va xizmatkorlarga bo‘linishini taqozo etadi.

Jamiyat taraqqiyotidagi birinchi mehnat taqsimoti (chorvachilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishi) iqtisodiy va ijtimoiy asoslarning tezkorlik bilan rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Buni arxeologik tadqiqotlar ham isbotlaydi. Jumladan, Sopollitepadan 8 ta oilaning manzilgohlari topilgan. Ularni urug‘ jamoasi emas, ishlab chiqarish manfaatlari birlashtirgan. 8 ta katta oila tarkibida patriarxal tizim asosida qurilgan yuzdan ortiq juft oilalar uyushgan, har bir katta oila jamoasini boshqarish ishi ular orasidan saylangan oqsoqol ixtiyorida bo‘lgan. 8 ta katta oila jamoalari oqsoqollari Oqsoqollar Kengashiga birlashganlar. Oqsoqollar kengashining a‘zolari “Avesto”da **nmanapati** nomi bilan yuritilgan. **Nmana** – katta oila degani. Nmanapati – katta oila boshlig‘i ma‘nosini anglatadi. Demak, Sopollitepada 8 ta nmanadan tashkil topgan qabila jamoasi – **qishloq** faoliyat ko‘rsatgan. “Avesto”da qabila jamoasi – qishloq “Vis”, oliy kengash boshlig‘i, qabila oqsoqoli “Vispati” deb nomlangan.

Oqsoqollar kengashi (oliy kengash) katta kuchga ega bo‘lib, ularning qo‘lida dunyoviy va diniy hokimiyat birlashgan. Ularning buyruq va ko‘rsatmalari jamoa a‘zolari uchun qonun hisoblangan. Mulk jamoa oqsoqollari, harbiy boshliqlar, mo‘tabar shaxslar qo‘lida to‘planib borgan. Sinfy tabaqalanish ham kuchayib, jamiyatni boshqarish og‘irlashgan. Jamoa boyligini taqsimlash, jamoani boshqarishda demokratik tamoyillar buzilib, adolatsizlik kuchaygan. Bu tarixiy jarayonlar bronza davrining oxiri va ilk temir davri (mil.avv. 1 ming yillikning birinchi yarmiga to‘g‘ri keladi)da ro‘y berayotgan edi. Shu tariqa bu paytda ibtidoiy jamoa tuzumi o‘zining oxirgi bosqichini o‘tayotgan edi.

Patriarxatda mulk matriarxatning qator ijtimoiy huquqiy normalarini saqlagan holda, xususiy edi. Ammo jamiyat hali uzil-kesil sinflarga ajralmagan, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy asosini erkin jamoalar, mayda mulk egalari tashkil etardi.

Temir ibtidoiy jamoa tuzumini buzdi va xo‘jalik tabaqalanishini tezlashuviga omil bo‘ldi. Temir tufayli chorvachilik dehqonchilikdan uzil-kesil ajraldi, xususiy mulkchilikni mustahkamladi, jamiyatni sinflarga bo‘linishini tezlashtirdi va xo‘jalikda ikkinchi mehnat taqsimoti kelib chiqdi, endi hunarmandchilik dehqonchilikdan ajralib chiqdi.

Hunarmandchilik ixtisoslashuvining sodir bo‘lishi natijasida ilk shaharlarning belgilaridan biri sifatida keng miqyosda mol ayirboshlashning kuchayishiga sabab bo‘lgan bozor vujudga keldi.

Miloddan avvalgi 2 ming yillik o'rtalarida yaratilgan hindlarning "Mahobxarata" asarida O'rta osiyoliklarning Hindiston bilan olib borgan savdo aloqalari haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Unda: "Ostonada shoh Yud-xishxirani boshqa xalqlar qatori qo'llarida hadya sifatida jundan, ipakdan, daraxt tolasidan, paxtadan... olingan matolar, o'tkir tig'li uzun qilichlar, temir nayzalar... xushbo'y ichimliklar va minglab qimmatli toshlar keltirgan saklar, toharlar, qang'lar kutib turganlar", deb yozilgan.

4. INSONIYAT SIVILIZATSIYASIDA MUQADDAS "AVESTO" VA ZARDUSHTIYLIK TA'LIMOTINING O'RNI

G'arb tarixiy manbalarida keltirilishicha, mashhur islohotchilar va ma'rifatchilar davri eng zo'r va ajoyib Renessans (uyg'onish) deb nomlangan davrni antik Rim va Yunoniston madaniyati bilan bog'lanmasdan islohotchilik harakati O'rta Osiyoning buyuk farzandi Zardushtdan boshlangan deyilsa haqiqatga yaqinroq bo'lar edi. Chunki uning ta'limoti nafaqat insonparvarlik g'oyalarini birinchi bo'lib ilohiylashtirib, dunyoviy hayotni muqaddaslashtirgan, balki uning asosiy aqidalari keyingi jahon dinlari – xristianlik va islomning aqidaviy va ibodat qoidalariga ham zamin bo'lgan.

Zardusht obrazi "Tavrot", "Injil" va "Qur'oni karim"da kuylangan payg'ambarlar taqdiriga to'g'ri kelishi tasodif emas. U muayyan tarixiy davrda O'rta Osiyoda dastlabki ijtimoiy tabaqalanish va davlatlarning paydo bo'lishi va shakllanishi jarayonlarida yuzaga kelgan. Natijada mintaqada dastavval politeizm (ko'p xudolik) va keyinchalik monoteizm (yakka xudolik) g'oyalarining umumiy qonun-qoidaga solish zaruriyatini, mavjud diniy tasavvurlarning tanlanishi, tartibga solinishiga sabab bo'lgan. Bunday zarurat O'rta Osiyo sharoitida islohotchi sifatida Zardushtni birinchi payg'ambarlardan biri qilib tarix sahnasiga ko'targan edi.

Zardusht (Zaratushtra) – oq, oltin tuyalik ma'nosida berilgan, aslida uning nomi Magupta bo'lib, mil.avv. VIII asrning I choragida Quyi Amudaryo hududlarida yashagan Oriy qabilalar ittifoqiga qarashli Spitama urug'idan chiqqan Purishasp xonadonida tug'ilgan. Shu urug'ga tegishli Faroximning qizi Dug'dava uning onasi hisoblanadi. Yoshligida, otasi uni o'z davri-ning aqlli kishilaridan biri Barzin qurush (cho'pon)ga shogirdlikka beradi. 7 yoshdan 15 yoshgacha uning tarbiyasida bo'lib, Oriy qabilalarida keng tarqalgan, turli soha tangrilarini madh etuvchi yashtlarini yod oladi. Oriy qabilalari o'rtasidagi ziddiyatlarga ko'pincha ko'p xudolik sabab bo'lardi. Buni tushungan 23 yoshli Zardusht butun olamning qudratli hukmdori Axura Maz-

daga, ya'ni yakka xudoga itoat etish lozim degan qarorga kelib, bu g'oyani o'z urug'i va qabiladagilari orasida targ'ib qila boshlaydi. Lekin, odamlar ming yillab sig'inib kelgan ko'pxudolik o'mniga yakka xudoga sig'inishga o'tishi nihoyatda mushkul edi. Shu bois, Zardusht qabiladoshlari tomonidan badarg'a qilinadi. Bir necha yillar cho'l-u biyobon, tog'-u tosh, shahar-u qishloqlarni kezib, so'ng o'z yurtiga qaytib, qabiladoshi, lekin boshqa urug'dan chiqqan qizga uylanib, uch o'g'il va uch qiz ko'radi. Qizlari: Frini, Trini, Purichisto, o'g'illari: Istavatr, Uruvatr, Xurchitra ekanligi tarixiy manbalarda keltirilgan. Mustaqil Baxtar davlatining hukmdori Gushtasp saroyiga borgan Zardusht uchun o'z ta'limotini, maqsadlarini ro'yobga chiqarish osonroq keladi va bu diniy ta'limot tez orada butun mamlakatga va sekin-asta atrof mamlakatlarga yoyila boshlaydi.

Zardushtiylik ta'limoti ko'p adabiyotlarda turli nomlar bilan ataladi. Masalan, "Mazdaparastlik" – bunda ma'rifatchilar davri eng zo'r va ajo-yib Renessans (Uyg'onish) deb nomlangan davrni antik Rim va Yunoniston madaniyati asosan yagona tangri Axura Mazda (Mazda – aql, donishmandlik timsoli) nazarda tutilgan. "Avesto" ta'limoti shu dinning yozuvi, "Par-sizm" – Hindistonda Iskandar zamonidan shu kungacha bu dinga sig'inib keluvchi qavm nomidan olingan atama. Shuningdek, tarixiy, ilmiy adabiyot-larda bu ta'limot haqida Zardushtiylik, zaratushtrizm, otashparastlik atamalari ham qo'llaniladi.

Zardushtiylik ta'limoti Yevropada yunoncha "astron" (yulduz) so'zi bilan bog'liq zaroastrizm nomi bilan mashhur.

Bir qator olimlarning fikricha, Zardusht o'z ta'limotining targ'ibotini O'rta Osiyodayoq boshlagan, ammo o'z vatanida muvaffaqiyat qozonmagach, bu yerni tark etishga majbur bo'lgan.

Zardushtiylik dinining kitobi "Avesto" Eron hamda O'rta Osiyo xalqla-rining qadimiy madaniyati (e'tiqodi, tili, geografiyasi, adabiyoti). tarixini o'rganishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Tarixchi I.M.Dyakonovning yozishicha, Zardusht uzoq sargardonlikdan keyin Drangiyo (hozirgi Eron bi-lan Afg'oniston chegarasida) o'lkasiga borib, uning hokimi (kavi) Vishtaspa huzuridan panohtopgan. Mahalliy hokim unga yangi diniy ta'limotni targ'ib qilishga yordam bergan.

Zardushtiylikning eng muhim belgisi, uning dualistik xarakterga ega ekan-ligidir. Unda yorug'lik, ezgulik xudosi Axura Mazda (Ormuzd) va qorong'ulik, yovuzlik xudosi Angra Maynyu (Axriman) orasidagi doimiy kurash yotadi. Asli Zardusht dini O'rta Osiyo qabilalarining qadimiy xudolari obrazidan kelib chiqqan. Ikki xudo – Varuna va Mitra – ilk xudolarning boshida turgan.

Bu juftlikda jamoa va davlat yaratgan qonun-qoidalarni ifodalovchi obraz Varuna jamiyat axloqiy tartiblarini buzgan kishilarni jazolovchisi, Mitra esa insonlarga yaqin va u kishilar o'rtasidagi ahd-paymon, do'stlik xudosi sifatida tasvirlanadi. Mazkur diniy tasavvurlar o'rniida paydo bo'lgan Zardushtiylik Varuna obrazini Axura Mazda (donishmand xudo) sifatida ulug'laydi va uni butun ko'ino't-u jonli mavjudotni, ruhlarni, inson va jonivorlarni yaratgan yagona xudoga aylantiradi. Bu bunyodkor parvardigor insonga ezgulik va yovuzlikni, haqiqat bilan yolg'onni tanlash ixtiyorini bergan.

Zardushtiylik ta'limotining muhim jihati, unda ijtimoiy zulmga qarshi kurashish imkoniyati – ham ruh, ham inson o'z yo'lini tanlashi lozimligi bayon etilgan. Mazkur g'oya “Shohnoma”da ham o'z aksini topgan. Unda inson hayoti ko'rinishlarining mohirona tasvirlarida, kishilarning o'zlariga xos ezgulik va kamchiliklari, ijobiy va salbiy tomonlari ifodalangan. Ikkinchi asosiy g'oya – yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi azaliy va abadiy kurash g'oyasidir. Asarda zo'r mahorat bilan Axura Mazda boshchiligidagi yaxshilik kuchlarining Ahriman qo'l ostidagi yovuzlik lashkarlariga qarshi kurashi talqin etilgan. Bunda inson muammosi va mavqeyi uning ezgulik va yovuzlikka munosabati bilan o'lchangan. Zardusht ta'rificha, barcha kishilar ezgulik yo'li va yovuzlik yo'lini ixtiyoriy ravishda tanlashadi. Bu axloqni erkin tanlashda tarixiy burilish davri, bir turmush tartibidan boshqasiga o'tish uchun xarakterli bo'lgan shaxs ozodligi o'z aksini topgan. Zardusht inson mavqeyini ulug'lab, o'z nazdida haqiqat, ya'ni to'g'ri turmush tarzi tinch mehnatdan iborat, deb ta'kidlaydi. Uning fikricha, bu dunyoda ilohiy kuchlar marhamati va narigi dunyoda katta qurbonliklar sharofati bilan baxtga erishish mumkin emas. Tinch mehnat, boyliklarni jamg'arish va ularni muhofaza qiladigan tejamkorlik ham Zardusht yaratgan Arta (haqiqat tartib)ning mazmunini tashkil etadi.

Bu ta'limotda inson mavqeyi yuksaklikka ko'tarilgan. Inson hayoti uchun zarur bo'lgan ikkita: mehnat va tinchlik g'oyasi juda ulug'langan. Axura Mazda Ahriman va yovuz devlar ustidan g'alaba qozonadi, butun insoniyat birikib, yagona til o'rnatiladi, barcha odamlar farovon va tinch hayot kechiradilar. Ammo, jannatiy hayot o'rnatilishi – “ziyo saltanati”dan oldin qiyomat qoyim boshlanadi, butun jonzotlar erib turgan ma'dan ichidan o'tadilar. Gatalarda bunday deyiladi: “Qip-qizil olov va erib turgan ma'dan sinovidan o'tgach, Durj (yolg'on, tartibsizlik ruhi) tarafdorlari zulmat saltanatiga, Arta (haqiqat, tartibot ruhi) tarafdorlari esa ziyo saltanatiga tushadilar”. Unda jannat va do'zax tasavvuri quyidagicha ta'riflangan: “Kelajakda har kimning o'z evazi bor. Kim Aramati (tinchlik) bilan do'stlashsa, o'sha Axura Mazda va Arta saltanatiga tushadi”. Zardusht fikricha, o'lgandan so'ng kishining ruhi

“Chinvot” ko‘prigi ustidan o‘tishi kerak. Bu ko‘prik taqvodorlar uchun keng va ravon bo‘lsa, yovuzlar uchun qilday ingichka bo‘lib qoladi va oqibatda ular jahannamga qulab tushadilar.

Zardusht ta‘limoti o‘zidan oldin mavjud bo‘lgan otashparastlik e‘tiqodi taraqqiyotining yangi, yuqori bosqichini tashkil etadi. Otashparastlik dini zardushtiylik dinidan 10 – 15 asr oldin qabilalar uyushmasi e‘tiqodi sifatida vujudga kelgan va ko‘p xudolik dini (politeizm) sifatida shakllangan ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Jumladan, Quyosh xudosi Mitra – bosh xudo; yer, suv, hosildorlik xudosi esa Ardisvura – Anaxita va h.k. Zardusht ta‘limotining tarixiy ahamiyati ana shu ko‘p xudolikni yakka xudolik (monoteizm) tomon yo‘naltirganligi va o‘z ta‘limotini “Avesto” kitobi orqali tizimli bayon qilinganligidadir.

Bu dinning asosiy bosh asari “Avesto” Osiyo va qo‘shni mamlakatlarning deyarlik ming yillik tarixi va madaniyatini o‘rganishda eng muhim yozma manbalardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Zardusht diniga binoan, o‘liklarni yerga ko‘mish, suvga tashlash gunoh hisoblanib, o‘likning go‘sht va terisini yirtqich hayvon va qushlarga yedirib, suyaklarini maxsus sopol idish – ostadon (ossuariy)larga solib maxsus binolarda saqlaganlar. Shu joyda bunday ostadonlar saqlangan joylarning O‘rta Osiyo hududlaridan ko‘p miqdorda topilganini aytib o‘tish joyiz. Ana shu va boshqa dalillarga asoslanib, ko‘pgina olimlar Zardushtning vatani O‘rta Osiyo ekanligini tan oladilar.

Bu dinning yana bir o‘ziga xoslik jihati – undagi dafn marosimi hisoblanadi. Unga binoan, tobut va jasad bilan bog‘liq kishilar (o‘lik yuvg‘uchi) butun umr nopok hisoblanib, ular olov, suv, muqaddas buyumlardan 30 qadam, boshqa odamlardan uch qadam uzoqlikda bo‘lishi, ya‘ni yaqinlashmasligi shart bo‘lgan. Shunday qilib, tabaqalanish diniy jihatdan muqaddaslashtirilgan. Hatto, yotish-turish ham tabaqalarga qarab belgilangan. Masalan, xo‘rozning birinchi qichqirishi bilan dastlab olov mehrobi xizmatchilari, ikkinchi qichqirishida – dehqon, uchinchisida – boshqa odamlar uyg‘onishi zarur, deb belgilangan.

Abu Rayhon Beruniy o‘zining “O‘tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar” nomli asarida “Avesto” kitobi haqida: “Podshoh Doro ibn Doro xazinasida o‘n ikki ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashxonalarni vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o‘ldirgan vaqtda uni kuydirib yubordi. Shuning uchun “Avesto”ning beshdan uchi yo‘qolib ketdi. “Avesto” o‘ttiz nask (qism) edi. Majusiylar qo‘lida o‘n ikki nask chamasi qoldi”, deb ma‘lumot beradi.

“Avesto”ning saqlanib qolgan qismi 4 ta kitobni tashkil etadi:

1. “Vadovdat” – (Axura Mazda va payg‘ambar muloqotlari).
2. “Yasna” – (Zardusht xatlari (gatlari) hamda 72 ta bashoratlari).
3. “Vispart” – (olamni bilish haqidagi pand-nasihatlar).
4. “Bundaxash” (Yashta) – Axura Mazdani zolim kuchlarga qarshi kurashda ulug‘lovchi 22 ta qo‘shiq.

“Avesto” mil.avv. 250-yillarda arshaxiylar davrida yana tiklana boshlagan va yangi matnlar bilan to‘ldirilgan. Sosoniylar hukmronligi davrida (mil.avv. III-II asrlar) bu ish poyoniga yetkazilgan. “Avesto”ning uchta kitobi qadimgi tilda, to‘rtinchisi esa pahlaviy tilda tiklangan.

“Avesto”da otashparastlik vujudga kelgan yurt Ariyanem Voychax (oriylarning katta maskani) nomi bilan beriladi. Baqtriya o‘lkasi **Baxdi**, Amudaryo – o‘kuz nomlari bilan ataladi. Zardushtiylik axloqining asosi (asosiy tamoyillari)ni ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amal tashkil qiladi. Kitobda kelajakka ishonch bilan qarash targ‘ib etilib, ezgulik baribir bir kunmas, bir kun yovuzlik ustidan g‘alaba qozonadi, deyiladi va buning uchun kishilar iymon-e‘tiqodli bo‘lishlari zarurligi uqtiriladi. Iymon quyidagi uchta tayanchga asoslanadi: 1) fikr softligi; 2) so‘zning sobitligi; 3) amaldorlarning insoniyligi. “Avesto”da yer yuzidagi yovuzlikka barham berishning vositasi sifatida odamlarni mehnat qilib yaxshi yashash uchun ekin ekish zarurligi ham aytib o‘tiladi.

Kitobda ko‘rsatilishicha, zardushtiyalarda 15 yosh balog‘at yoshi hisoblangan. Bu yoshga to‘lgan bolalar zardushtiylikka e‘tiqod ramzi sifatida bellarida jun ipakdan to‘qilgan kamar taqib yurishi kerak bo‘lgan. Shundan so‘ng ularni ibodatxonalarda o‘tadigan marosimlarda qatnashishlariga ruxsat berilgan.

“Avesto”da dunyo 12 ming yillik tarixga ega deyilgan. Bu tarixning har biri 3 ming yildan davom etadigan 4 davrga bo‘lingan. Uchinchi davrda dunyoni suv bosgan. Bu hodisa o‘simlik, hayvonot va insonlarning butunlay qirilib ketishi xavfini tug‘dirgan. Shunda afsonaviy payg‘ambar Iyim ularning joniga oro kirgan. Insoniyat Iyim payg‘ambar podsholigi davrida baxt-saodat makonida kasallik va o‘lim ko‘rmay yashashgan. Hatto Axura Mazda unga oltin nayza va oltin qamchi sovg‘a qilgan. Yer odamlar yashashi uchun torlik qilib qolganda, podshoh nayzani yerga suqib xudodan uni kengaytirishni so‘ragan va bunga erishgan. Biroq, u qanchalik jasorat ko‘rsatmasin, o‘z ishlariga ortiqcha baho berib, mag‘rurlanib ketib, Axura Mazda man etgan qoramol go‘shini yeb qo‘yadi. Oqibatda u Axura Mazdaning qarg‘ishiga uchraydi. Shu davrdan boshlab odamzod abadiylikdan mahrum bo‘ladi. Odamlarning kasal bo‘lishi va o‘limi boshlanadi.

Ma‘lumki, har bir dinning o‘z muqaddas joylari bo‘lgan. Masalan, xristianlikda cherkov, islomda masjid va h.k. Shu singari zardushtiylikning ham

muqaddas joyi Otashkada nomi bilan atalgan. Mana shunday Otashkada Zardusht xudodan ilk marta vahiy qabul qilib olgan Xodarkat (To'rtko'ldan 22 km shimoli-sharqda, hozirgi Qo'yqirilgan qal'a o'rnida)da qurilgan. Ikkinchi shunday bino Baxdi (hozirgi Afg'onistondagi Balx hududida)da Zardushtning loyihasi asosida qurilgan. Zardusht bu binoni foydalanishga topshirish marosimida qatnashayotganida orqadan pichoq urib (Turon shohi Afrosiyobning o'g'li yoki nabirasi Arjaspning buyrug'i bilan lashkarboshi Bratar Vaxsh tomonidan) o'ldirilgan.

“Avesto”ning ma'lum qismini saqlab qolgan qavm hozirda Hindistonda istiqomat qilayotgan va bu ta'limotga to'hanuz e'tiqod qilib kelayotgan Pars qavmidir. “Avesto”ni o'rganishni va avestoshunoslikni boshlab bergan olim esa 1755–1761-yillarda ana shu Pars qavmi orasida yashab o'tgan fransuz olimi Anketil Dyuperron hisoblanadi.

“Avesto”ni ilmiy tahlil qilgan taniqli tarixchi olim M.Is'hoqovning ta'kidlashicha, bu kitobda yurt hokimi, urug' boshi va uy sohibi kabi tushunchalar davlatchilik asoslariga xizmat qiluvchi ibtido unsurlarning eng yuqori tuzilmasidan eng quyi bosqichigacha sanab o'tilgan. Uy sohibi katta patriarxal oila nmananing boshlig'i. Urug' boshlig'i atamasi ham bejizga ishlatilmagan, chunki aynan shu davrda O'rta Osiyo xalqlarining hayotida urug'chilik muhim o'rin tutgan.

Zardushtiylikda bosh g'oya – Axura Mazdaning yolg'iz yaratuvchilik funksiyasiga alohida e'tibor qaratilgan. Axura Mazda “Mitra, Ardivi Sura, Varaxran, Tio'triya va boshqa ko'plab yazat – ma'budalarni ham yaratgan zotman”, deya Zardushtga xabar bergan. Ma'budlarning turli sohalarga homiylik funksiyalari esa zardushtiylik shakllanish davridagi ijtimoiy tizimning va ilk davlatchilikning ma'naviy asoslanishiga xizmat qilgan.

M.Is'hoqov “Avesto” ma'lumotlari asosida quyidagilarni ta'kidlaydi: Zardushtiylikda ilohiyot tizimi oliy, o'rta va quyi qatlamlarga bo'linadi. Oliy qatlamning eng yuqorisi Axura Mazdaga tegishli. Uning esa bevosita irodasini ijro etuvchi olti maloikasi bor. Bular Vahumana, Arta Vahishta, Spenta Armaitiy, Xshasra Varya, Xaurvatat, Ameritatlar. Bu maloikalarning har biri o'z vazifasiga ega. Jumladan, Vahumana – ezgu niyat farishtasi. Arta Vahishta – ezgu niyat evaziga beriluvchi jannatiy haqiqat. Spenta Armaitiy – yer-zamin farishtasi. Xshasra Vayra – adolatli shahriyorlik, hokimiyat ramzi. Xaurvatat – mukammallik, butunlik va salomatlik farishtasi.

M.Is'hoqovning yozishicha, ushbu maloikalarning vazifalariga diqqat qilinlsa, ular jamiyatni boshqarish, boringki, ijtimoiy hayotni uyushtirish kabi muhim masalaga bevosita daxldor ekanini payqash mumkin. Zero, jamiyat-

ning farovonligi, tinch-osoyishtaligi birinchi galda ezgu niyat bilan bog‘liq. Chunki ezgu niyat hukmron bo‘lsa, yovuzlikka o‘rin qolmaydi. Ezgu niyat orqali jannatiy haqiqatga erishish mumkin. Biroq, jannatiy haqiqat muallaq holda emas, balki yer-zaminda inson uchun yaratiladi. Har uchala maloikaning vazifalari bir bo‘lsa, yer-zamindagi hayot ravnaq topadi, zavol ko‘rmaydi. Bu esa, o‘z navbatida zamin uzra ezgu yaralmishlarning va, albatta, inson avlodlarining ko‘payishiga olib keladi. Shunday ekan, insonda jamiyatni adolat bilan boshqarish ehtiyoji tug‘iladi va shahriyorlik maqomidagi malak siymo o‘z vazifasiga kirishadi. Yer-u zaminda ezgu niyat, jannatiy hayot barqaror bo‘lsa, adolat bilan boshqarilsa, bunday jamiyat bag‘ri butun, sog‘lom, ma‘naviy barqaror va abadiy o‘lmas jamiyat bo‘ladi¹. Zardushtiylikning ushbu g‘oyaviy tizimi ideal jamiyat va eng qadimgi utopik ideal davlat g‘oyasi deb qabul qilinishi mumkin.

“Avesto” (asosiy matn) bitiklarida ilgari surilgan g‘oyalar ajdodlar hayoti, turmush tarzi, urf-odatlarini, diniy e‘tiqodi va aqidalari bilan bir qatorda qadimgi tarix, falsafa, dinshunoslik, manbashunoslik, geografiya, etnografiya, tibbiyot sohalarini o‘rganishda, yoshlar dunyoqarashini o‘stirishda muhim ma‘naviy-ma‘rifiy qimmatga ega. Zardusht tomonidan yaratilgan bu izchil ta‘limot, avvalo o‘sha davrdagi davlat va jamiyatning siyosiy maqsadlarini aks ettiruvchi mukammal mafkura bo‘lib shakllanganligi allaqachon e‘tirof etilgan. Shu ma‘noda “Avesto” qadim ajdodlarning teran fikrlarini, ilk ilmiy xulosalarini bugungi avlodlarga yetkazuvchi, o‘tmish bilan kelajakni tutash-tiruvchi ko‘prikdir. O‘zlikni anglashda, buyuklikka, ertangi kunga teran nigoh va ishonch bilan boqishda “Avesto” beqiyos ma‘naviy va ruhiy ozuqa. Asarda ilgari surilgan g‘oyalar tarixning barcha davrlarida ham o‘z ahamiyatini saqlab qolgan holda doimo barqarorlikka, taraqqiyotga xizmat qilib kelgan. Bu yozuvlarning yana bir jahonshumul ahamiyati shundaki, unda insoniyatni ezgulik, yaxshilik yo‘lidan borib, qabohat, zulmatga qarshi ayovsiz kurashish kerakligi va bu kurashda ezgulikning g‘alaba qozonishi muqarrar ekanligi to‘g‘risidagi ishonch ruhini mustahkamlashda xizmat qiladi.

“Avesto” g‘oyalarining yana bir ahamiyatli jihati, jismoniy kuch-qudratga qarshi ezgu insonlarga xos bo‘lgan ma‘naviy barkamollikning yuqori o‘ringa qo‘yilganligidir.

¹ *Is‘hoqov M.* O‘zbek davlatchiligi tarixidan. Ta‘lim muammolari. №1, 2006. – 19-20-b.

Tayanch soʻz va iboralar:

Eng qadimgi odamlar: Zinjantrop, pitekantrop, sinantrop, fergantrop. Ibtidoiy toʻda. Urugʻchilik. Patriarxat va matriarxat. Paleolit, mezolit, neolit, eneolit va bronza davrlari. Ajdodlar manzilgohlari. Mehnat taqsimotlari. Sivilizatsiya. “Avesto” va zardushtiylik taʼlimoti.

Bilimingizni sinab koʻring

1. Afrikada yashagan qadimgi odamlarga zinjanthrop, Yava orolidan topilganlarga Pitekantrop, Xitoydan topilganlarga sinantrop deb nom qoʻyilgan ekan, qadimda Selengʻur gʻorida yashagan odamlar fanga qanday nom bilan kirgan? Katakchalardan bu nomni toping.

				a				o	
--	--	--	--	---	--	--	--	---	--

2. Ilk paleolit davrida odamlar gʻorlarda yashashgan. Ular asosan toshdan yasalgan choʻqmorlardan qurol sifatida foydalanishgan. Bu davrning oʻrta bosqichida ovchilik ham muhim oʻrin tutgan. Aynan shu davrda odamlarda bir tasavvur shakllana boshlagan. U qanday tasavvur edi?

		n		
--	--	---	--	--

t	a	s	a	v	v	u	r
---	---	---	---	---	---	---	---

3. Yuqori paleolit davriga kelib odamlar turmushida, dunyoqarashi va jismoniy tuzilishlarida jiddiy oʻzgarishlar yuz bergan. Bugungi odamlarga xos jismoniy xususiyatlar vujudga kelgan. Bunday mukammal odam fanga “homo sapiens” nomi bilan kiritilgan. Katakchalarda “homo sapiens”ning oʻzbek tilidagi nomi yashiringan. Uni toping.

		g		
--	--	---	--	--

o	d	a	m
---	---	---	---

4. Insoniyat taraqqiyotining maʼlum bir davrida ajdodlar oʻtroq hayot kechirishga oʻtdilar. Sopol buyumlar ishlab chiqarish kashf etildi. Bu davrda “ona urugʻi” hukmronligi oʻzining eng gullagan davrini boshdan kechirgan. Bu davrda odamlar hayvonlar terisidagina emas, ularning junidan hamda oʻsimliklar tolasidan toʻqilgan matolardan kiyimlar tikib kiyadigan boʻldilar.

Bu davr fanda qanday davr deb ataladi?

		o			
--	--	---	--	--	--

d	a	v	r	i
---	---	---	---	---

5. Jamiyat taraqqiyotidagi birinchi mehnat taqsimoti (chorvachilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishi) iqtisodiy va ijtimoiy asoslarning tezkorlik bilan rivojlanishiga sabab bo'lgan. Buni yurtimizning bir joyidan topilgan arxeologik tadqiqot (8 ta oila manzilgohlari) ham isbotlaydi. Xo'sh, bu manzilgohlar qayerdan topilgan edi?

	o		o								d	a	n
--	---	--	---	--	--	--	--	--	--	--	---	---	---

6. "Avesto" yaratilib, zardushtiylik ta'limoti yoyila boshlagan davrda mintaqada dastavval ko'pxudolik (politeizm) hukm surib, endi yangi yakkaxudolik g'oyalarini targ'ibot qilish kuchaya boshlagan. Xo'sh, ko'pxudolik fanda politeizm deb atalar ekan, yakkaxudolik ta'limoti qanday nom bilan atalgan?

	o		o			i	z	m
--	---	--	---	--	--	---	---	---

7. Zardushtiylikda ko'rsatilishicha, o'lgandan so'ng kishining ruhi bir ko'prik ustidan o'tishi kerak. Bu ko'prik taqvodorlar uchun keng va ravon bo'lsa, yovuzlar uchun qilday ingichka bo'lib qoladi va oqibatda ular jahannamga qulab tushadilar. "Avesto"da bu ko'prik qanday nomlanadi?

	i			o	
--	---	--	--	---	--

8. Xristianlikda cherkov, islomda masjidlar muqaddas joy hisoblangan. Zardushtiyalarda ham bunday muqaddas joylar bo'lgan. Ularda muqaddas olov saqlangan. Bunday muqaddas joy dastlab Xodarkat (To'rtko'l tumani)da, so'ng Balxda qurilgan.

Xo'sh, bu muqaddas joylar qanday nom bilan atalgan?

			sh			d		l	a	r
--	--	--	----	--	--	---	--	---	---	---

II BOB. O‘ZBEK DAVLATCHILIGINING SHAKLLANISHI VA DASTLABKI TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Mavzu rejasi:

1. Davlatchilik va davlatlarning vujudga kelishi xususidagi qarashlar.
2. O‘zbek davlatchiligining tarixiy ildizlari.
3. O‘zbekiston hududida ilk davlat uyushmalari.
4. Qadimgi ajdodlarning chet el bosqinlariga qarshi ozodlik kurashlari.
5. Salavkiylar hukmronligi. Yunon-Baqtriya, Parfiya, Davan, Qanxa (Qang‘) davlatlari va Kushon podsholigi.
6. Buyuk ipak yo‘li.

1. DAVLATCHILIK VA DAVLATLARNING VUJUDGA KELISHI XUSUSIDAGI QARASHLAR

O‘zbekiston istiqlolga erishgach, haqqoniy tarixni yaratish, millatning mafkuraviy negizini ochib beruvchi o‘zbek xalqining kelib chiqishi va uning davlatchiligi tarixiga alohida e‘tibor qaratish imkonini berdi. O‘zbek davlatchiligi tarixi va uning ildizlarini tadqiq etish tarix fanining yetakchi yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Sobiq ittifoqning parchalanishi natijasida ayrim yangi mustaqil davlatlar olimlarining turli noilmiy fikrlari ham o‘zbek davlatchiligi tarixini chuqur ilmiy tadqiq etishni va ularga haqiqatni ko‘rsatib berishni talab etdi. Gap shundaki, sobiq ittifoq parchalanib, qator mustaqil davlatlar tarkib topgach, ayrim davlatlarning tarixchi va siyosatshunoslari tarixni soxtalashtirib, o‘z xalqining tarixdagi o‘rni va jahon tamadduni tarixiga qo‘shgan “buyuk hissasi” haqida fikr yuritib, o‘tish chog‘ida o‘tmish tarixlari bir bo‘lgan, aslida 1924- yilda sobiq sovet hukumati Turkiston xalqlarini bo‘lib tashlash va o‘z hukmronligini abadul-abad saqlab qolishga qaratilgan milliy chegaralash siyosati ekanligini hisobga olmagan holda, uzoq, yaqin, bugungi kunda mustaqil qo‘shni davlat xalqlarini “kelgindi”, hatto “bosqinchi” kabi noilmiy ta’riflar beruvchi asarlar paydo bo‘la boshladi. Bularga amerikalik olim Olvord “Zamonaviy o‘zbeklar” (1990), tojikistonlik tarixnavis R.Masov “История топорного разделения”, (Душанбе, 1991); “Таджики” история под грифом “Совершенно секретно” (1995), “Таджики: вытеснение и ассимиляция ” (2003),

“Сорос” fondining sobiq Toshkent bo‘limi direktori A.Ilhomovning “Этнический атлас Узбекистана” kitobiga joylashtirilgan “Археология узбекской индентичности” risolasini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Chop etilgan bu kitoblar va Internet sahifalarida e‘lon qilingan asossiz maqolalar mualliflari o‘zbek xalqi XVI asr boshlarida, ya’ni Dashti qipchoq cho‘llarida yashovchi ko‘chmanchi turkiy qabilalarning O‘rta Osiyoga kirib kelishidan, o‘zbek davlatchiligi esa, 1924-yil O‘zbekiston SSR ning tashkil topishidan boshlandi, degan g‘ayriilmiy da‘volar bilan chiqdilar.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan asarlar ilmiy ahamiyatga ega emasligini O‘zR FA akademiklari A.Asqarov, K.Sh.Shoniyozov, B.Ahmedov, E.V.Rtveladze, professorlar R.X.Sulaymonov, A.Sagdullayev, M.M.Is‘hoqov T.Shirinov, Sh.Shaydullayev, B.Matboboyev, O‘.Mavlonov, B.Eshov va boshqa tadqiqotchilar tomonidan shu kunga qadar qo‘lga kiritilgan birlamchi materiallar asosida isbotlab berildi. Keyingi 30–40 yil ichida qo‘lga kiritilgan arxeologik, antropologik, etnografik, numizmatik, toponimik materiallar Markaziy Osiyo davlatchilik tarixi ildizlari va taraqqiyot bosqichlarini aniqlash uchun yetarli materiallarga ega bo‘ldi.

Tarixshunoslik fani va uning tadqiqotlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri yevrosentrizm nazariyasining hukmronligi sabab O‘rta Osiyo davlatchiligi tarixining eng qadimgi ildizlari mustamlaka davri tarixnavisligida maxsus o‘rganilmagan edi.

Bu borada tarixchi olim B.Qodirov ta’kidlaganidek, so‘nggi asrlarda siyosiy-iqtisodiy markazning sharqdan g‘arbga ko‘chishi, xalqaro munosabatlarda G‘arb davlatlari yevropalik bo‘lmagan xalqlar ustidan ustuvorligi, qaram mamlakat olimlarining metropoliya ijtimoiy-ilmiy qarashlari ta’sirida qolishlariga sabab bo‘lgan edi. Masalan, hindushunoslikda Angliya, turkistonshunoslikda Rossiya kabi davlatlarning yetakchi o‘rin olganligini bugun barcha ilm ahli inkor etmasligi ma’lum.

Qadimgi rus davlati IX asrda shakllanganligini nazarda tutsak, imperiyaning boshqa mustamlaka xalqlari davlatchilik tarixi undan qadimiyroq bo‘lmasligi kerak edi. Rossiya imperiyasi tarkibiga kirgan boshqa xalqlar oldida Rossiya tarixi, madaniyatining ustunligini ko‘rsatish to‘g‘ridan-to‘g‘ri ilmiy yo‘nalish qilib qo‘yilgan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov fan yo‘nalishini yuqorida turib bunday belgilab berish “...buyuk davlat-shovinizmi, boshqa millatlar va mamlakatlar bilan o‘zaro madaniyatli hamkorlik qilishga tayyor emaslikdan kelib chiqadi”¹, deb ogohlantirgan edi.

¹ Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: “O‘zbekiston”, 1997, 53-b.

Ta'kidlash joizki, sobiq sovetlar davrida davlat tushunchasiga sinfiylik nuqtayi nazaridan yondashilgan. Kommunizmga borib esa davlat yo'q bo'lib ketadi, degan tushunchalar o'z ifodasini topgan. Kommunistik mafkura bo'yicha davlat biron-bir xalqqa tegishli emas, balki millati va boshqa jihatlardan qat'i nazar ishchi va dehqonlarning, sinflarning manfaatlarini himoya qiluvchi siyosiy tashkilot, deb ta'rif berilgan. Ular "sotsialistik davlat sinfiy davlat bo'lib, ishchilar sinfi rahbarligidagi ishchi-dehqon davlatidir", bu asosida qurilgan davlat millat tushunchasi biron-bir mamlakatga tegishli emas, degan aqidaga asoslanganlar. Bundan maqsad, avlodlar xotirasidan davlat, davlatchilik tushunchasini o'chirishdan iborat bo'lgan.

Shu ma'noda, 1991-yil 31-avgustda I.A.Karimov rahnamoligida O'zbekistonning davlat mustaqilligiga erishganligi va uni butun dunyo e'tirof etganligi o'zbek davlatchiligi tushunchasining ham qayta tiklanishiga sabab bo'ldi.

Davlatchilik paydo bo'lishidagi ayrim nazariyalar va ularga qisqacha ta'rif

<p>Teologiya nazariyasi. Tarafdorlari: XIII asr Foma Akvinskiy, XIX asr Jozef Mestr, islom mafkurasi va katolik cherkovi.</p> <p>Bu nazariya davlatlar kelib chiqishini ilohiylik bilan bog'laydi. Qadimgi davridayoq paydo bo'lgan bu nazariya ilk davlatlarning diniy boshqaruv shakllarini (teokratik) qattiq turib himoya qiladi.</p>
<p>Patriarxal nazariya. Bu nazariya dastlab Aristotel asarlarida asoslanib, XIII asrda R.Filmer tomonidan rivojlantirildi.</p> <p>Bu nazariya tarafdorlari dastlabki davlat bevosita oiladan o'sib chiqqan deb hisoblaydi. Unga ko'ra davlat hokimiyati otaning oila a'zolari ustidan hokimligini belgilab beradi.</p>
<p>Patremornial nazariya. XIX asrda yashagan fransuz olimi A.Galler tomonidan ishlab chiqilgan.</p> <p>Bu nazariya tarafdorlari davlat yerga mulkchilik huquqidan kelib chiqqan (patrimomum) deb hisoblashadi. Ya'ni, hokimiyat, yerga egalik qilish huquqidan bevosita u yerda yashovchi odamlarga yoyiladi.</p>
<p>Shartnomaviy nazariya. XVII–XVIII asrlarda keng yoyilgan bu nazariya tarafdorlari A.Gorsiy, J.Lokk, T.Gobs, J.Russo, D.Didro, Sh.Monteskye kabilar edi.</p> <p>Bu nazariyaga ko'ra, davlat odamlar o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida ularning ongli ravishda birlashishidir. Odamlar shartnomaning kuchi bilan o'z erkinligi, o'z hokimiyatining bir qismini davlatga beradilar.</p>
<p>Zo'raonlik nazariyasi. Tarafdorlari: Ye.Dyuring, L.Gumilovich, K.Kautskiy. Bu nazariya tarafdorlari davlat cheksiz va himoyasiz qabilalarning kuchli va uyushgan qabilalar tomonidan bosib olinishi yo'li bilan zo'raonlik yoki kuch ishlatish yo'li bilan paydo bo'lgan, deb hisoblaydilar.</p>

Irrigatsiya nazariyasi. Nemis olimi K.Vittfogel tomonidan ishlab chiqilgan. Bu nazariyaga ko'ra, davlatlarning paydo bo'lishi, ularning birlamchi despotik shakllari sharqiy agrar viloyatlarda ulkan inshootlar qurilishi bilan bog'lanadi.

Psixologiya nazariyasi. Tarafdorlari: L.Petrajetskiy, Z.Freyd, G.Trad. Bu nazariya tarafdorlari davlatning paydo bo'lishini inson psixologiyasi, shaxsning jamoada yashashga ehtiyoji, obro'li kishilarni izlash, buyruq berish va itoat istagi bilan izohlaydilar.

Sinfli nazariya. Tarafdorlari: K.Marks, F.Engels, V.Lenin, G.Plexanov. Bu nazariyaga ko'ra, sinflar paydo bo'lishi va ular o'rtasida sinfli kurash keskinlashuvining yakunidir. Davlat bir sinfning boshqa sinf ustidan hukmronlik qurolidir.

Davlatlarni tiplarga ajratishda formatsion va sivilizatsion yondashuvlar mavjud.

Formatsion yondashuv – davlatlarni ijtimoiy, iqtisodiy darajasini, bazis va ustqurmasi, sinfli mohiyati, maqsadi, vazifalari hamda funksiyalari mezoniga ko'ra tiplarga ajratishdir.

Sivilizatsion yondashuv – davlatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi va funksiyalari bilan bir qatorda ko'proq ularning tarixiy-madaniy taraqqiyoti, an'anaviy, axloqiy va madaniy rivojlanish darajasiga qarab tiplarga ajratishdir. Ta'kidlash joizki, hozirgi kunda davlatchilik masalalari bilan shug'ullanayotgan tadqiqotchilarning aksariyati sivilizatsion yondashuvni qo'llab-quvvatlaydilar. A.S.Sagdullayev qadimgi boshqaruv tizimi quyidagi funksiyalar bilan bog'liq holda amalga oshirilganligini ta'kidlaydi: iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy-siyosiy va hududiy.


Davlatning jamiyat taraqqiyoti va uning siyosiy tizimida tutgan o'rni quyidagicha izohlanadi:

1. Ma'lum hududlardagi davlat va o'z hududi doirasida yashovchi tilidan, dinidan, millatidan qat'i nazar, barcha aholiga hokimiyat ta'siri o'tkazadigan yagona siyosiy tashkilot.

2. Davlat o'z ichida va tashqi aloqalarda yo'lga qo'yiladigan munosabatlarda boshqa ijtimoiy-siyosiy tashkilotlardan farq qilgan holda, oliy hokimiyatga, to'la suverenitetga ega.

3. Davlat jamiyat hayoti taraqqiyotining turli sohalari va yo'nalishlarini muvofiqlashtirib turadi.

Jamiyat taraqqiyotining sivilizatsion ko'rinishi



2. O‘ZBEK DAVLATCHILIGINING TARIXIY ILDIZLARI

O‘zbek davlatchiligining tarixi ildizlari bronza davriga borib taqaladi. Bu haqqoniy ma’lumotlar o‘zbek tarixchi-arxeologlari tomonidan to‘liq o‘z isbotini topdi.

Ayrim olimlarning fikricha, bu davr tarixiy jarayonlarda shunday ta’riflanadi: mil.avv. III ming yillikning oxirlari va II ming yillikning boshlariga kelganda qadimgi dehqonchilik madaniyati metropoliyalarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlar tufayli demografik portlash yuz beradi, ya’ni suv resurslari va ekinbop qoq yer maydonlarining taqsimlanib borishi tufayli metropoliya aholisining bir qismi o‘zlashtirish uchun yangi yerlar qidirib, yirikroq daryolar quyi havzalariga borib o‘rnashadilar. Ana shunday yangi dehqonchilik markazlari vodiysida va Qadimgi Baqtriyada bronza davrida shakllanadi. Chunki, O‘rta Osiyoning janubiy o‘lkalari (Marg‘iyona, Baqtriya) birinchidan, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlariga yaqin va chegaradosh edi; ikkinchidan, ulardagi tabiiy-geografik iqlim sharoiti bu o‘lkalarda qadimgi sug‘orma dehqonchilik madaniyatining ertaroq rivojlanishiga olib keldi.

Bu hududlarda sug‘orma dehqonchilik tajribasiga ega bobodehqonlar yangi yerlarni o‘zlashtirishda urug‘chilik jamoasi an’analarini ma’lum ko‘rinishda saqlagan holda, juft oila-oila bo‘lib, oilaviy o‘zlashtirgan yerga jamoaviy egalik qilishdan farqli o‘laroq, patriarxal juft oila, monogomik oila mulki sifatida xususiy egalik qila boshlaydi. Yirik daryolar quyi havzalarida, shunday tartibda tarkib topgan patriarxal juft oilalar sekin-asta katta patriarxal oilalar darajasiga, ya’ni “Avesto” tili bilan aytganda, **nmanalarga** (ya’ni, katta oilalarga) o‘sib chiqadi. Katta patriarxal oila jamoasi esa **patriarxlar**, ya’ni katta ota tomonidan boshqarilgan.

Katta patriarxal oila – nmana jamoa xo‘jaliklari “Avesto” jamiyatining “vis” ko‘rinishidagi qishloq jamoalari bo‘lib, ularni kadxudotlar, ya’ni vispatilar boshqargan. Vispatilar katta patriarxal jamoa boshliqlari orasidan qishloq jamoasi yig‘inida saylangan. O‘zbek davlatchiligining eng muhim bo‘g‘ini ana shu Vislar, ya’ni qishloq jamoalari bo‘lgan.

Vislarning iqtisodiy xo‘jalik asosini tashkil etishda tashabbuskor kashovarlar (tabaqaning nomi) orasidan jamoa a‘zolari o‘z oqsoqollarini saylab oladilar. Odatda, oqsoqol, jamoa sardori – kadxudot yuksak ijtimoiy-siyosiy mavqega ega usta mirishkor va omilkor dehqon yoki mohir hunarmand, shaxsiy axloqi va odobi, ma’naviy-axloqiy yuksakligi bilan o‘z jamoasi og‘ziga tushgan pir-u ustoz bo‘lib, bu sifatlarga o‘z vaqtida halol mehnati, turmush tajribasi tufayli erishgan jamoa a‘zolaridan bo‘lgan. O‘sha davr urug‘ jamoalari kunda-

lik hayot qonuniga aylangan sardorlikka talab aynan kadxudotdan, “Avesto” tili bilan aytganda, vispatidan, zantupatidan, dax’yupatidan shunday shaxsiy sifatlarga ega bo‘lishlikni talab qilar edi. Bu o‘zbek xalqi davlatchilik tarixining ilk bosqichlariga xos boshqaruv tizimining demokratiya prinsiplari edi. O‘rta Osiyo hududiy doirasida tashkil topgan Qadimgi Baqtriya podsholigi, Katta Xorazm, Qang‘ davlati, Davan podsholigi ana shu boshqaruv prinsiplari asosida tashkil topgan ilk davlatchilikning aynan o‘zginasi edi.

O‘zbekiston hududida ilk shaharlarning vujudga kelishi ham qadimgi davlatchilikning muhim omillaridan biri bo‘lgan. Shaharlar va davlatlarning paydo bo‘lish jarayoni uzviy bog‘liq holda kechgan.

Shaharlarning paydo bo‘lish omillari haqida tarixchi olim S. Qudratov barcha taniqli tarixchi va arxeolog olimlarning fikr-mulohazalari hamda ilmiy xulosalarini inobatga olgan holda quyidagilarni bildiradi¹:

Birinchi omil – aholining yuqori zichligini, uning bir yerda to‘planishiga imkon yaratadigan oziq-ovqat olish yo‘li, ya‘ni o‘troq dehqonchilikning paydo bo‘lishi. Aholi zichligi o‘troq dehqonchilik jamiyatlarida oldingi termachilik, ovchilik bilan shug‘ullangan davrga nisbatan 100 barobar oshadi.

Ikkinchi omil – hunarmandchilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishi. Buning natijasida ayrim aholi manzilgohlarida asosan maxsus ishlab chiqarish (hunarmandchilik) bilan shug‘ullanadigan aholi to‘plana boshlaydi. Bir so‘z bilan aytganda, hunarmandchilikning ajralish jarayoni shaharlarning paydo bo‘lish jarayoni bilan bir vaqtda boradi. Shahar va hunarmandchilik bir-birining yuksalishiga sharoit yaratgan. Ayniqsa, hunarmandchilikning metallurgiya va kulolchilik kabi tarmoqlarining yuksalishi, shaharlar shakllanishi jarayonini tezlashtiradi.

Ma‘lumki, sivilizatsiya kishilik jamiyati rivojining ma‘lum davrda paydo bo‘lib, sivilizatsiyaning yuzaga kelishi va rivojlanishida shahar yetakchi o‘rin tutadi. Sababi, aynan shaharlar sivilizatsiya paydo bo‘lishi va rivojlanishini ta‘minlagan barcha jarayonlar kechgan markaz rolini bajargan. Umuman, sivilizatsiya va ilk davlatlar paydo bo‘lish jarayoni ilk shaharlar tashkil topishi va rivojlanish jarayoni bilan birga kechgan.

O‘zbekiston hududida ilk shaharlarning tashkil topishi bilan ushbu hudud-da eng qadimgi sivilizatsiya qaror topadi. Bu qadimgi Sharq tipidagi mahalliy sivilizatsiya bo‘lib, eramizdan avvalgi III-II ming yilliklarda rivojlanishning ilk bosqichlarida bo‘lgan. Bu sivilizatsiya Mesopotamiya va qadimgi Hindistonning Harappa madaniyati bilan uzviy aloqada shakllangan va rivojlangan.

¹ Qudratov S. Markaziy Osiyo hududida ilk davlatlarning paydo bo‘lishi. Guliston, 1998, 16-17-betlar.

Ikki muhim sivilizatsiya oraliq'ida joylashgan hudud qadimgi sharq xalqlarini yagona tizimga birlashtiradi. Bu sivilizatsiya (mutaxassislar uni "Turon sivilizatsiyasi" ham deb atamoqdalar) hududimizning qadimgi xalqlari erishgan yutug'i bo'lib, u keyingi davrlardagi rivojlanishga asos bo'lib xizmat qilgan.

Ishlab chiqaruvchi xo'jalikning, ayniqsa, sug'orma dehqonchilikning yuk-salishi jamiyatda ijtimoiy va mulkiy tabaqalanish jarayonini yuzaga keltirishi, bu jarayon uzoq davom etib, uning natijasida davlatchilik tizimi shakllana boshlashi ham ayni haqiqatdir.

Ilk shaharlar joylashgan vohalarning siyosiy, iqtisodiy, diniy, harbiy markazi hisoblangan. Bu markazlarda shahar joylashgan vohani boshqargan ma'muriyat binosi (saroy), shu voha aholisi ma'naviy markazi hisoblangan ibodatxonalar ham bo'lgan. Bunday shaharlarda oziq-ovqat va qurol-yaroq omborlari bo'lgan. Ularning atrofida markazga bo'ysunuvchi bir nechta, ba'zan 10 tagacha qishloqlar joylashgan, ular birgalikda davlatchilikning ilk ko'rinishi shahar-davlatlarni tashkil qilgan.

Akademik A.Asqarovning ta'kidlashicha, shahar-davlatlar "vis" tipidagi qishloq jamoalaridan qator jihatlari bilan farq qilib, u hududiy jihatdan keng, shahar maydoni ikki qismdan, ya'ni hokim qasri-saroyi va uning xususiy xo'jaligi joylashgan kuhandiz (Arki A'lo) va ahli hunar uy-joy komplekslari, turli xil hunarmandchilik mahallalari hamda diniy markaz, ya'ni shahar ibodatxonasi joylashgan shahristondan iborat bo'lgan. Bunday aholisi zich punktlarda hunarmandchilik rivoj topib, uning ixtisoslashuvi jadal kechgan.

Bunday ilk shahar tarkibi, Jarqo'tonda yaxshi kuzatiladi. Ammo, o'zbek davlatchiligining ilk bosqichlarida dastlab jamoani boshqaruv tizimida diniy-ilohiy qudrat katta nufuzga ega bo'lganligi tufayli mahkamachilik ishlari shahar bosh ibodatxonasi qoshida mujassamlashgan. Shuning uchun ham ilk shaharlarning ibodatxonalari monumental xarakterda bo'lib, shaharning Bosh Otashgohi ibodatxona kompleksini tashkil etgan.

Arxeologik yodgorliklar va ularning davriy ketma-ketlikda tarkib topish jarayonlari tahlili O'rta Osiyo, jumladan, o'zbek davlatchiligining tarixiyildizlari bronza davriga borib taqalishini ko'rsatadi. Aynan shu davrda mulkchilikning yerga, chorvaga egalik qilishlikning xususiy shakli paydo bo'ladi. Yerga xususiy egalik qilish monogomik juft oilaning katta patriarxal oila darajasiga o'sib chiqishidan boshlanadi. Aynan shu sharoitda jamoa mulkchiligining ijtimoiy xarakteri yemirilib, uning o'rmini patriarxal xususiy mulkchilik egallaydi. Yerga va chorvaga xususiy egalik qilishlikning paydo bo'lishi davlatchilikning paydo bo'lishiga olib keladi. Davlatchilikning dastlabki, ilk kurtaklari katta patriarxal oilalardan boshlanib, ularning mujassamlashtirgan

qishloq jamoalari – vislar darajasidagi ko‘rinishi ilk davlatchilikning tarixiy ildizlarini tashkil etadi.

Kadxudotlar, ya’ni vispatilar davlatchilikning ilk kurtagi bo‘lsa, Avesto jamiyatining zantu bosqichida, vislardan tashkil topgan ilk shahar shahar-davlatchiligining asosini tashkil etgan.

Qadimiy o‘zbek davlatchiligi xususida qadimiy yozma manbalardan biri – “Avesto”da bir qator ma’lumotlar keltiriladi. Unda davlatchilikka xos ko‘plab ma’lumotlar o‘ziga xos tarzda matn osti ma’nolariga singdirilgan holda beriladi. Masalan, Yasht kitobidagi bir matnda o‘zaro yov bo‘lgan ikki tomon, ularning harbiy-tashkiliy tuzilmasi, Mitradan madad so‘rab turgan podshohlar to‘g‘risida ma’nolar singdirilgan bo‘lsa, ikkinchi lavhada Amudaryoning kuchli oqimi o‘tuvchi qadimiy hududlar tasvirlanadi:

Parut, Ishkata tomon,
Marvu Harayva tomon,
Sug‘ddagi Gava tomon
Jadal eltishin ko‘rar
Va yo Xvarazmi tomon.
Uni aldolmas uyda
Uyning begi, egasi.
Urug‘da urug‘ boshi,
Qabilada yo‘lboshchi,
Mamlakatda hukmdor.¹

3. O‘ZBEKISTONDA ILK DAVLAT UYUSHMALARI

O‘zbekiston hududida tashkil topgan dastlabki qadimiy davlatlar haqida arxeologik topilmalar, qadimiy yozma manbalar, “Avesto”, Beruniyning “Osor ul-boqiya” (“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”) asarlari, ko‘hna yozuvlar, yunon, xitoy manbalari xabar beradi. Ularda qadimgi ajdodlar mil. avv. 1 ming yillik boshlarida temirni kashf etishi, tog‘ jinslaridan foydalanishi, ulkan sun‘iy sug‘orish inshootlari barpo qilganliklari bayon etiladi. Bunday ishlarni faqat e’tiborli va nufuzli kuchga ega bo‘lgan davlat uyushmasigina amalga oshirishi mumkinligi barchaga ayon.

Qadimiy yozma manbalarda O‘zbekiston hududida quyidagi davlatlar bo‘lganligi tilga olinadi. Bular: Baqtriya – hozirgi Surxondaryo, Tojikistonning Amudaryoga yaqin yerlari va shimoliy Afg‘oniston hududlari. **Katta**

¹ “Avesto”. Yasht kitobi. Toshkent, 2001. – 49-b.

Xorazm – Amudaryoning quyi oqimidagi shimoliy yerlar, Murg‘ob vohasi va Parfiya hududlari. Biroz keyinroq esa Sug‘diyona – Zarafshon vohasi va Qashqa vohasi hududlari kirgan.

Qadimiy yozma manbalarda Amudaryo – **Oks**, Sirdaryo – **Yaksart**, Zarafshon – **Politimit** deb atalgan. Qadimda yashagan ajdodlarni yunonlar skiflar deb ataganlar. Ular to‘g‘risida yunon muarrixlari juda qimmatli ma‘lumotlar yozib qoldirgan. Jumladan, Pompey Trog ularni eng qadimiy xalqlar qatoriga qo‘shib, “qadimiylikda ular misrliklar bilan bahslashadilar”, deb yozgan. Bu xalqqa berilgan nom ularning turmushini sifatlovchi ma‘noni anglatgan. Bu qadimgi ajdodlar g‘arbda Dnepr daryosidan tortib sharqda Tyan-Shan tog‘larigacha cho‘zilgan dasht va sahrolarda yashaganlar.

Gerodot ular haqida: “...bug‘doy, piyoz, sarimsoq va mosh iste‘mol qilganlar. Ular bug‘doyni faqat o‘zlari uchungina ekib qolmasdan, balki savdosotiq uchun ham ekardilar”, deb yozadi. Bu ajdodlarning Massaget, Dax, Sak (shak), Debrik nomli qabilalari bo‘lgan.

O‘zbekiston hududida ahamoniylar bosqiniga qadar tashkil topgan davlat **Baqtriya** davlati edi. Bu haqda yunon muarrixlari yozib qoldirgan. Jumladan, olim va tabib Ktesiy Ossuriya podshosi Nin Belidning Baqtriyaga qarshi yurishi, talafotlari, poytaxt Baqtra shahri qamali, baqtriyaliklar jasorati, ahamoniylar podshosi Kir II ning Baqtriyaga yurishi, bu hududning egallanishi haqida ma‘lumotlar yozib qoldirgan. Gerodot ham Kirning Midiya podshosi **Krez** ustidan qozongan g‘alabasi haqida hikoya qilar ekan, endi Kir yo‘lida Vavilon, Baqtriya xalqi, saklar va misrliklar yotadi, deb qayd etadi.

Yunon mualliflarining bu fikrlarini Janubiy Baqtriyada Oltin-I va Oltin-10 hamda Baqtra shahri vayronalarida, Shimoliy Baqtriyada esa Kuchuktepa, Qiziltepa, Tallashkantepa, Bandixon-2 kabi yodgorliklarida olib borilgan arxeologik topilmalar ham tasdiqlaydi.

Baqtriya – bu geografik viloyat (makon), viloyat nomi esa Baqtr (Balxob) daryosi nomi bilan bog‘liq. Uning poytaxti Baqtr ham xuddi shunday bog‘liqlikda. Bu shahar oldin Zariaspa nomida bo‘lgan va keyin Baqtr nomini olgan.

Tarixdan ma‘lumki, Baqtriya Ossuriyaga qarshi urushda Midiya davlati bilan ittifoq bo‘lib, ossuriyaliklarga katta talafot yetkazadi. Ahamoniylar Baqtriyaga hujum qilib, dastlab uni egallay olmagan. Faqat baqtriyaliklar avval Ossuriyaga qarshi urushda ittifoq bo‘lgan Midiya davlati podshosi Astiagning Kirni o‘zining qonuniy merosxo‘ri sifatida tan olganligini eshitgach, unga qarshiliksiz taslim bo‘lgan.

Qadimgi davlat “**Katta Xorazm**” haqida xorazmshunos olim S.P.Tolstov, yevropalik olim V.Xenning, I.Gershevich va birinchi o‘zbek arxeolog olimi Ya.G‘.G‘ulomovlar qimmatli ma‘lumotlar qoldirganlar. Ularning ko‘pchiligi “Avesto”ga tayanib, Zardushtning vatani Ar‘yanem Vaychax (bu Xorazm) u Daitiya (bu Amudaryo) bo‘yida joylashgan deb yozadilar. “Avesto”da “Katta Xorazm”ga qarashli viloyatlar birma-bir sanab o‘tiladi. Bunga ko‘ra, Markaziy Osiyoning deyarli katta qismi bu davlat hududiga qarashli ekanligi isbotlanadi. Bu fikrni yunon muarrixlari ham tasdiqlaganlar. Gerodot bu katta davlat tarkibiga hozirgi Hirot va Marv viloyatlari ham kirganligini yozadi.

Katta Xorazm davlati inqirozi haqida ma‘lumotlar saqlanmagan. Bu davlatning janubiy viloyatlari **Midiya** davlati Xorazmdan ajralib ketganligi, katta qismini Eron ahamoniylari bosib olganligi, mil.avv. IV asrda katta Xorazmning Amudaryo quyi havzasidagi hududi Qadimgi Xorazm davlatiga kirganligi haqida ma‘lumotlar saqlangan.

“Qadimgi Xorazm” davlatida Farasman nomli bir tadbirkor, aqlli hukmdor podshoh bo‘lganligi haqida yozma manbalarda tilga olinadi. Yunon manbalariga qaraganda Iskandar Zulqarnayn Hindiqush tog‘lari osha Baqtriya va Sug‘diyona bostirib kirganda, bu tadbirkor shoh katta sovg‘a-salomlar bilan uning huzuriga o‘z qo‘shinlari bilan kelib, agar Iskandar navbatdagi bosqinga hozirlanayotgan bo‘lsa (Farasman Iskandarning Hindistonga yurishidan xabardor edi), unga yordam berajagini bildiradi. Bu bilan u Iskandar Zulqarnaynning Xorazm ustiga qo‘shin tortib borishidan saqlab qolgan edi. Xorazmshoh Farasmaning yunonlar bilan tuzgan ittifoqi strategik jihatdan amalga oshirilgan bir qadam bo‘lib, keyin u o‘zining vatanparvarlik niyatlarini amalga oshirgan. Jumladan, u Makedonskiyga qarshi ozodlik kurashiga boshchilik qilayotgan Spitamenga ham boshpana bergan edi.

Eng qadimiy o‘lkalardan yana biri **Sug‘diyona**dir. Bu o‘lka hozirgi Samarqand, Qashqadaryo, Navoiy, Buxoro viloyatlari hududida shakllangan. Mil.avv. VI–IV asrlarda Sug‘diyona aholisi ahamoniylarga katta o‘lpon to‘lab turgan. Sug‘d tili qadim va ilk o‘rta asrlarda jahon savdo tili sifatida katta nufuzga ega bo‘lgan.


Arxeologik ma‘lumotlar Sug‘diyona yashagan aholining yuksak dehqonchilik va chorvachilik madaniyatiga ega bo‘lganliklarini ko‘rsatadi. Bu yerda hunarmandchilik yuksak darajada bo‘lgan. Hatto ayrimlar sug‘d kulolchiligini yaqin-yaqingacha “Ahamoniylar sopoli” ham deb kelishgan. Ular sug‘dda kulolchilik mil.avv. IX–VII asrlardayoq rivoj topganligini bilishni xohlamas edilar.

Sug‘diyona poytaxti Smaraqansa (Afrosiyob) Sharq bilan G‘arbni savdo iqtisodiy jihatdan bog‘lagan, “Buyuk ipak yo‘li”da Sharq darvozasi hisoblan-


gan. Shahar nomi milodning IX asr o'rtalarida Samarqand deb atala boshlagan. Bunday nom olishi sug'd tili o'rnini fors tili egallashi bilan bog'liqdir.

Mil.avv. VIII – VII asrlarda O'rta Osiyo hududidagi dastlabki davlat birlashmalari

Dastlabki davlatchilik O'zbekistonda mil.avv. VII asrda rivojlana boshlagan. Davlat birlashmalari oldingi davrdagi (mil.avv. IX – VII asrlar) qabilalar ittifoqining harbiy demokratiya tamoyillari asosida tuzilgan



Aholi mashg'ulotlari



Dastlabki davlatchilikning rivojlanishi mahalliy aholining yuksak darajada rivojlangan qadimgi ziroatchilik madaniyatiga asoslangan edi

4. QADIMGI AJDODLARNING CHET EL BOSQINCHILARIGA QARSHI OZODLIK KURASHLARI

Qadimda hozirgi Eron hududlarida **Elamitlar**, forslar esa faqat Eronning janubida yashagan, soʻngra ular butun Eron hududini egallagan. Forslar “Avesto”da “**Azadlar**” nomi bilan tilga olinadi. Azadlar **ariylarni** tashkil etgan. Ariylar joylashgan yurt, keyinchalik Eron deb atalgan. Rivoyatlarga koʻra, shu yurtga qachonlardir koʻchib kelib, hukmronlikni qoʻlga kiritgan forslarning nufuzli oilalaridan biri **Ahamon** mil.avv. VII asrning boshlarida oʻz sulolasiga asos solgan. Uning oʻgʻli **Chishpish** mil.avv. VI asrda fors qabilalari ittifoqini tuzib, Eronda ahamoniylar (mil.avv. 558–329-yillar) sulolasiga asos soladi.

Ahamoniylar sulolasining shuhrati **Kir II** nomi bilan tarixga kirgan podshoh davrida kuchaydi. U Midiya, Elam, Vaviloniya podshohliklarini boʻysundirib, dunyoda birinchi saltanatga asos soldi. Manbalarda Kir II ning asl ismi Kurush boʻlganligi maʼlum. Davlat poytaxti avval Persepol, soʻngra Babil, Suza va Ekbatan shaharlari boʻlgan.

Kir II ahamoniylar sulolasi shuhratini kuchaytirgan, dunyoda birinchi saltanatga asos solgan va Oʻrta Osiyoga bostirib kirgan shohdir.

Kir II massagetlar ustiga mil.avv. 530-yilda 200 000 kishilik qoʻshin bilan bostirib kelgan. Bu paytda umr yoʻldoshi vafot etgan malika **Toʻmaris** (ayrim manbalarda Torniris) massagetlar podshosi edi. Uning jasorati haqidagi rivoyatlar bizgacha yetib kelgan. Toʻmaris Kir II ni magʻlub etib, uning boshini qon bilan toʻldirilgan meshga soladi. Gerodotning yozishicha, qadimda turonliklar, xususan, massagetlar quyoshga, yerga sajda qilganlar. Ular oʻz vatanlarini quyosh kabi muqaddas deb bilganlar. Toʻmaris barcha turonliklarning jasoratli onasi, vatanga sadoqatli ayol ramzi boʻlib qoldi.

Maʼlumki, Kir II ga qarshi Toʻmaris oʻz oʻgʻli Spargapisni qoʻshinga boshliq qilib yuborgan edi. Ammo oʻgʻil dushman hiylasiga uhib, mast holda uxlab qolib, asirga tushadi va u oʻldiriladi.



Ahamoniylardan Doru I davrida ularga qarshi erk va ozodlik uchun sak (shak)lar ham bosh koʻtargan. Buni Behustun yozuvlarida ham koʻrish mumkin. Yozuvlarda Doru I saklarni quvib Orol sohillarigacha borganligi, saklar hukmdori asir olinganligi, Skunxa ismli lashkarboshini saklarning oʻzi Doru I ga topshirganliklari qayd etiladi. Doroga qarshi saklarning ozodlik va erk uchun jasoratlari bitilgan jangnoma-rivoyat ham shu kunlarga yetib kelgan. Bu rivoyatni birinchi marta yunon tarixchisi Polien oʻzining “Harbiy hiylalar” nomli asarida keltirgan.

Rivoyatda sak qabilasidan chiqqan otboqar Shiroqning buyuk jasorati, tadbirkorligi, vatanparvarligi va erkparvarlik fazilatlarini hikoya qilinadi. Shiroq o'z qabilasi manfaatlarini himoya qilib, Doro lashkarlariga qarshi chiqadi va harbiy hiyla bilan yov qo'shinlarini chalg'itib, Qizilqumning dasht sahrosiga boshlab boradi. Suvsizlik va ochlikdan darmonsiz qolgan g'anim lashkarlari halokatga uchraydi. El-yurt vayrongarchilikdan saqlab qolinadi. Shiroqning o'zi dushman qo'lida halok bo'ladi, lekin mag'lub bo'lmaydi. Uning orqasida katta bir xalqning taqdiri yotar edi. Yunon tarixchisi Polien asarida bu jasorat kuylanib, unda Shiroq nomi Siyrak deb keltiriladi.


Eron ahamoniylariga qarshi kurashda sug'dliklar singari baqtriyaliklar ham faol qatnashib harakat qilgan. Hatto ahamoniy Artakserks I (mil.avv. 462 – 424-yillar) davrida baqtriyaliklarning ozodlik harakatlari tufayli biroz muddatga bo'lsa-da, qaramlik kishanini uloqtirib tashlashga erishgan. A.Makedonskiy bostirib kirganda baqtriyaliklar ahamoniy Doro III ning qarindoshi Bessning orqasidan ergashgan. Bunga sabab, mahalliy aholi o'z hududini yangi bosqindan saqlab qolish ilinjida bo'lganligidadir. Bess Artakserk nomi bilan o'zini Osiyo podshohi deb e'lon qilgan. Ammo, u subutsizlik va sotqinlik qilib qochgan.

Doro I mamlakatni satraplik (viloyatlar)larga bo'lib boshqargan. Viloyatlar tepasida satrap (hokim)lar turgan. Ular cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lib, bu mansabga faqat ahamoniylar oilasiga mansub forslar tayinlangan. Ularning faoliyatini doimo nazorat etib turish maqsadida maxsus amaldor-ayg'oqchilar qo'yilgan.

Markaziy Osiyo hududi Baqtriya va Marg'iyona bilan birga hisoblaganda 12 viloyatga bo'linib idora qilingan. Bu viloyatlar har yili Doroga 360 talant (soliq miqdori, 1 talant 34 kg ga teng bo'lgan) jarima to'lagan. Parfiya, Xorazm, Sug'd va Area birgalikda 16 viloyat (satraplik) dan iborat bo'lib, 300 talant, saklar va kaspiylar esa 15 viloyat bo'lib, ular har yili 250 talant jarima soliq to'lagan. Markaziy Osiyo xalqlari qariyb 200 yil (mil.avv. VI–IV asrlarda) Eron ahamoniylari hukmronligi ostida yashagan. Faqat mil.avv. IV asrga kelib, ahamoniylar markaziy hokimiyati kuchsizlangach, bizning ajdodlar o'z mustaqilligiga erishish imkoniyatiga ega bo'ldi. Xorazm birinchilardan o'z mustaqilligini qo'lga kiritdi. Baqtriya esa to yunonlar bosqiniga qadar ahamoniylar zulmi ostida edi.



Mil.avv. VI – IV asrlar madaniyati
Mashg'ulotlar



* *Satrapiya* – forscha "xshatra" – viloyat so'zidan kelib chiqqan. Viloyat boshlig'i – satrapga cheklanmagan hokimiyat berilgan bo'lib, u faqatgina shohga bo'ysunardi. Satraplar ahamoniylar sulolasi vakillari edilar.

Qadimda bosqinchilar qaysi yurtni egallagan bo'lsa, yurt va xalqni doimo talab kelgan. Bundan tashqari, tobe yurt va xalqlardan hukmdorlarga sovg'a-salomlar ham kelib turgan. Biroq, shunday bosqinchi hukmdorlar bo'lganki, ular bu talonchiliklarga qo'shimcha soliq tizimini ham o'ylab topganlar.

“Doro (uni)ni forslar savdogar deyişlariga sabab, – deb yozadi Gero-dot, – u birinchi bo'lib soliq tizimini joriy etganligidandir”.

Doro I tomonidan yozdirilgan Behustun yozuvi (Behustun qoyasi – uzunligi 22 metr, umumiy balandligi 7,8 metr, Shimoliy Eron, Kirmonshohdan 30 km masofada) bobil, elam va qadimgi eron tillarida yozilgan. Yozuvlarda ahamoniylar imperiyasini larzaga keltirgan qo'zg'olonlar: jumladan, Gaumata (522-yil), Frada (522-yil) qo'zg'olonlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shu bilan birgalikda yozuvlarda Qozog'iston va O'zbekiston hududlarida istiqomat qilib, xalq harakatiga rahbarlik qilgan sak qabilalarining yetakchisi Skunxa haqida ham ma'lumot berilgan.

O'zbekistonda hali Eron ahamoniylari hukmronligi tugamasdan Aleksandr Makedonskiy boshchiligida yunon-makedonlar bostirib kirdi. Aleksandr Makedonskiy (Iskandar Zulqarnayn) otasi Filipp II o'ldirilgach, mil.avv. 334-yilda Suriya, Shom yurti, Finikiya, Misr, Eronni egallab, buyuk saltanat barpo etgan. U mil.avv. 329- yilning bahorida Hindiqush tog'idan oshib, Markaziy Osiyo hududlariga bostirib kirdi. Ammo Iskandar Zulqarnayn O'rta Osiyo viloyatlarini osonlikcha qo'lga kiritishga olmadi.

Baqtriyaliklar, sug'diyonaliklar uch yil davomida yog'iyga qarshi ozodlik harakatini olib bordi. Bu ozodlik kurashlarida **Spitamén** jasorati ibratlidir. U kutilmagan joyda paydo bo'lib, makedoniyaliklarga ofat va talofot keltirar, uning vatanparvarligi shunchalik ustun ediki, Iskandar unga Sug'diyona hokimligini in'om etmoqchi bo'lganda ham, vatanfurushlikdan o'limni afzal ko'radi.

Spitaménning o'limi Kvint Kursiy Rufning “Aleksandr Makedonskiy tarixi” asarida xotinining xoinligi sabab qilib ko'rsatilsa, Arrianning yozishicha Spitamén o'limi u bilan ittifoqchilik qilgan skif-massagetlar xiyonati bilan bog'lanadi.


Spitaménning tarjimayi holi va shaxsi haqida hech qanday ma'lumot saqlanmagan. Uning qizi **Apamani** Iskandar o'z qo'mondonlaridan biri Salavkka xotinlikka olib bergan. Buni yunon muarrixlari Plutarx, Strabon va Arrianlar ham tasdiqlaydilar. Spitaménning qiziga uylangan Salavk avlodlari ota tomonidan yunon, ona tomonidan Spitamén avlodlaridan bo'lganligi tarixiy haqiqat.

Aleksandr Makedonskiyga qarshi kurashgan qahramonlar haqida so'z ketganda odatda Spitamén nomi ko'proq tilga olinadi. Vaholanki, yurt mus-

taqilligi uchun jon bergan qahramonlar, yo‘lboshchilar bir talay bo‘lgan. Masalan, Arrianning tasdiqlashicha, Baqtriya shimolidagi Paratikan (Boysuntog‘, Ko‘hitangtog‘ daralari) Spitamen qo‘zg‘oloni bostirilganidan keyin ham tinchimagan. Bu yerda ikkita qahramon – Katan va Avstan boshchiligida qo‘zg‘olon ko‘tarilgan. Ular bilan Aleksandr o‘rtasidagi jang shafqatsiz bo‘lgan. Yo‘lboshchi qahramonlarning biri halok bo‘lgan, ikkinchisi esa asir olinib, Aleksandr huzuriga jo‘natilgan. Mazkur voqea mil.avv. 327-yilda ro‘y bergan.

Iskandar Zulqarnayn Turon yurtini egallaganidan keyin ham erk va ozodlik kurashlari to‘xtamagan. Shu sababli Iskandar mahalliy xalq vakillari, birinchi navbatda, hukmdor oqsoqollar va rahbarlar bilan umumiy til topish, ularga yaqinlashish yo‘llarini izlay boshlaydi. U 327-yilda Nautakka yaqin bo‘lgan Sug‘d qal‘asini egallab, bu shahar hokimi Oksiart bilan yaqinlashadi. Natijada Baqtriya va Sug‘diyona tog‘lari orasidagi 4 ta qal‘a ham egallanadi. Iskandar Baqtriya zodagoni Oksiartning go‘zal qizi Raksana (Raxshona, Ravshanak) ga uylanadi va uni saltanat malikasi deb e‘lon qiladi. Oksiartning barcha gunohlarini kechirib, uni Baqtriya satrapi etib tayinlaydi.

Makedoniyalik Iskandarning mahalliy zodagonlar bilan yaqinlashish siyosati



Bu voqeani eshitgan Iskandarning yana bir raqibi Epak Xoriyen Iskandarga jangsiz taslim bo‘lib, o‘z qal‘asining hokimi bo‘lishga erishadi. Plutarx

Iskandarning yerli xalq urf-odatlari va madaniyatiga katta hurmat bilan qaraganligini alohida ta'kidlaydi. "Hatto, – deydi u, – vatanparvarlar (mahalliy aholini ular shunday nomlaganlar)ning milliy kiyimlarini kiyib yurishni o'ziga ma'qul ko'radi... Hatto, shoh makedon jangchilariga ham yerli xalqning urf-odatlarini o'rganishini ta'kidlaydi". Bunday holatlar yerli zodagonlarning aksariyatini Aleksandr tomoniga o'tib ketishiga, mahalliy xalqning rahbarsiz qolishiga olib keladi. Natijada Aleksandrning Baqtriya va Sug'diyona ustidan to'la hukmronlik o'rnatishiga imkoniyat yaratiladi. Shundan so'ng, Iskandar O'rta Osiyodagi ayrim viloyatlarni o'ziga bo'ysundirgach (mil.avv. 327-yilda), Hindistonga yurishi oldidan mahalliy aslzoda Oropiyani Sug'd podshosi etib tayinlaydi.

Ko'pchilik ellinizm deganda, yunon madaniyati rivojiningina nazarda tutib, Aleksandr xurujidan to "Rim madaniyati" bosqichiga (mil.avv. 30-yillar) o'tishgacha bo'lgan davrni ko'zda tutadi. XIX asrning birinchi yarmida tarixchi I.G.Droyzen ellinizm tushunchasini muomalaga kiritib, bunda u ellinlar (yunon-makedoniyaliklar) madaniyatining o'zlariga tobe mamlakatlar madaniyati bilan o'zaro uyg'unlashuvi natijasida vujudga kelgan madaniy holat va munosabatlarni nazarda tutgan.

Biroq, bir holatni alohida nazarda tutmoq kerakki, Aleksandr boshlab bergan "Yunonlar davri"dan bir necha yuz yil muqaddam (mil.avv. VII-VI asrlardan buyon) qadimgi yunonliklar madaniy hayotiga mintaqamiz madaniy-ma'naviy munosabatlarida asosiy o'rin tutgan Zardushtiylik ta'limotining ta'siri juda katta bo'lgan. Buni o'sha va undan keyinroq yashab o'tgan buyuk yunon olimlari ijodi va merosi misolida ham ko'rish mumkin. Masalan, Geraklitning (mil.avv. 544 – 475-yillar) hamma mavjudotning asosi deb olovni bilishi, dunyodagi barcha harakatlar qarama-qarshilik munosabatidagi kuchlar birligidandir, degan g'oyalari bu ta'limotdagi olovga sig'inish, hayotning ezgulik va yovuzlik aro doimiy kurashi, ziddiyat ostida kechishi kabi ta'limotlari ta'sirida shakllangani, shubhasizdir.

5. SALAVQIYLAR HUKMRONLIGI. YUNON-BAQTRIYA, PARFIYA, DAVAN, QANXA(QANG') DAVLATLARI VA KUSHON PODSHOLIGI

Mil.avv. 323-yilda Aleksandr Bobilda to'satdan vafot etdi. Uning vafot etishi bilanoq davlatdagi markazdan qochuvchi kuchlarning harakatlari faollashuvi natijasida Aleksandr tuzgan davlat parchalanib, uning o'rniga nisbatan barqarorroq davlat uyushmalari paydo bo'ladi. Ta'kidlash lozimki, Aleksandr

davlatining parchalanishi va uning xarobalarida yangi davlatlar tizimining paydo bo'lishi tinchlik yo'li bilan emas, balki Aleksandr Makedonskiyning yaqin sarkardalari – diadoxlar o'rtasidagi tinimsiz urushlar tufayli bo'lib o'tdi. Diadoxlar o'rtasida 40 yildan ziyodroq davom etgan jang-u jadallar natijasida Aleksandr mulklari bo'lib olinadi.

Bu paytda yunon va makedonlar O'rta Osiyoda hokimiyatni boshqaruvchi qatlamlarini tashkil etar edi. Aleksandr vafotiga qadar Baqtriya va Sug'diyona satrapi asli makedonlardan bo'lgan Filipp edi. Undan keyin esa bu hududlar asli Kipr orolidan bo'lgan yunon Stasanor qo'l ostiga o'tadi. Bu paytda ikki diadox – Yevmen va Antigon Aleksandr davlatining asosiy yerlarini qo'lga kiritish uchun o'zaro kurashayotgan edilar. Filipp o'z qo'shinlari bilan yordam bergani tufayli Antigon Aleksandr davlatining katta qismiga hukmronlik o'rnatishga muvaffaq bo'ldi. Ammo, uning bu hukmronligi uzoqqa cho'zilmadi.

Aleksandr Makedonskiy mulklariga egalik qilish shu bilan yakunlandiki, mil.avv. 306-yilda nisbatan kuchli diadoxlar – Antigon Birko'zli (Одноглазый), Demetriy Poliorekt, Ptolomey Lag, Lazimax, Salavka, Kassandrlar o'zlarini podsho deb e'lon qildilar hamda bu bilan Aleksandr davlati xarobalarida o'z davlatlarini barpo etishni ma'lum qildilar. Shu tariqa tarix sahnasida G'arb va Sharq an'analarini uyg'unlashtirgan ellinistik davlatlar paydo bo'ldi. Ana shunday yirik davlatlardan biri – Salavqiylar davlati edi.

O'zining eng gullab-yashnagan davrida bu davlat ilgari Aleksandr saltanatiga kirgan katta hududlarni egallab, g'arbda Egey dengizidan, Sharqda Hind subkontinentigacha cho'zilgan hamda Kichik Osiyoning janubiy qismini, Suriya, Shimoliy Mesopotamiya, Babil, Eron, O'rta Osiyoning janubiy viloyatlari va Afg'onistonning katta qismini o'z ichiga olgan edi. Bu ulkan davlatning asoschisi – dastavval Aleksandrning tansoqchisi, keyinroq yirik sarkardasi bo'lgan Salavka edi.

Mil.avv. 293-yilda Salavka I o'g'li Antiox I ni sharqiy satrapliklarga, ya'ni O'rta Osiyo viloyatlariga o'zining noibi etib tayinlaydi. Antiox I vayron etilgan qal'alarni tiklaydi, yirik va qalin devor (Marg'iyona devori) bunyod etadi, turli qo'zg'olonlarni bostiradi, atrofdagi o'troq va ko'chmanchilar ustiga harbiy yurishlar uyushtirib, O'rta Osiyodagi Salavqiylarga qarshi harakatlarni bostiradi.


O'rta Osiyo viloyatlari Salavqiylar davlati siyosiy tarixida yetakchi o'rinlardan birini egallagach, o'zining uzoq yillik hukmronligi davrida (mil. avv. 293–261-yy.) Antiox I g'arbiga qilgan ko'pgina yurishlari bilan shuhrat qozonib, o'z davlatining sharqiga, jumladan, O'rta Osiyo yerlariga kam

e'tibor qaratadi. Bu paytda O'rta Osiyo viloyatlarida iqtisodiy o'zgarishlar yuz berib, ancha tinch hayot boshlanadi, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, savdo-sotiq rivojlanadi. Salavqiylar davlati markazidan chetda bo'lishiga qaramay, O'rta Osiyo viloyatlari ularning eng muhim qismiga aylanadi. O'rta Osiyo harbiy-strategik va iqtisodiy ahamiyatga ega hudud, Salavqiylar bu hudud bo'ylab o'tgan savdo yo'llari bo'yida shahar va qishloqlar qurdirib, ularda hunarmandchilik, o'zaro tovar almashinuv va savdo-sotiqni rivojlantiradilar. Bu ishlar bejizga bo'lmaydi, albatta.

Salavka I va Antiox I (mil.avv. 281–261-yillar mustaqil) hukmronligi davrida Salavqiylar davlati siyosatining asosiy yo'nalishlari shakllanadi. Ular uchta mintaqada – Janubiy Suriya, Kichik Osiyo va Sharqda faol tashqi siyosat olib borishga majbur bo'lishadi. Janubiy Suriya va Kichik Osiyo uchun Ptolomeylar (Ptolomey Lag asos solgan O'rta yer dengizining sharqidagi davlat sulolasi) bilan tinimsiz urushlar bo'lib turgan. Chunki bu hududlarda muhim savdo yo'llari tugab, gullab-yashnagan port-shaharlar mavjud bo'lib, Kichik Osiyoning yunon shaharlari ham muhim ahamiyat kasb etardi.

O'rta Osiyo salavqiylar davlati tarkibida (mil.avv. 312 – 250-yillar)

Mil.avv. 323-yilda makedoniyalik Iskandar vafotidan so'ng, u hukmdorlik qilgan imperiya uch davlatga bo'linib ketadi:



Bu davlatlar Iskandarning eng yaqin lashkarboshilari tomonidan boshqarilgan

Ko'pchilik tadqiqotchilarning e'tirof etishicha, Yunon-Baqtriya davlatining Salavqiylardan ajralib chiqishi yunon zodagonlarining qo'zg'oloni xususiyatiga ega bo'lib, unga Baqtriya aholisi tomonidan qo'llab-quvvatlangan Diodot boshchilik qiladi. Tadqiqotchilar Yunon-Baqtriya davlati paydo bo'lgan turli sanalarni belgilaydilar (mil.avv. 256, 250, 248 va 246 – 145-yy.). Bu davlatning asosi Baqtriya bo'lib, ba'zi hukmdorlar davrida (Yevtidem, Demetriy, Yevkratid) Hindistonning shimoli-g'arbiy qismi, Amudaryo va Sirdaryo o'rtasidagi katta yerlar qo'shib olinadi.

Baqtriyaning Salavqiylar davlatidan ajralib chiqishi xususida rimlik tarixchilar Pompey Trog va Yustinda uzuq-yuluq ma'lumotlar saqlangan bo'lsa-da, bu haqda batafsil ma'lumotlar uchramaydi. Shunga qaramasdan, mavjud tangashunoslik, ayrim xo'jalik hujjatlari, san'at yodgorliklari, sug'orish inshootlari va imorat qoldiqlari bergan ma'lumotlar asosida bu davlatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot haqida ma'lum tasavvurlarga ega bo'lish mumkin. Ammo, Yunon-Baqtriya davlatining siyosiy tarixi ko'p hollarda qiyosiy solishtirish va taxminlarga asoslanadi. Bu davlat podsho tomonidan boshqarilgan bo'lib, tangashunoslik ma'lumotlari Diodot I, II, III, Yevtidem I, II, Demetriy, Geliokl, Platon kabi podsholari haqida xabar beradi. Salavqiylar kabi Yunon-Baqtriya podsholari ham davlatni satrapliklarga bo'lib idora etganlar.

Tadqiqotchilarning fikricha, Yunon-Baqtriya davlatining chegaralari doimiy mustahkam bo'lmasdan, harbiy-siyosiy vaziyatdan kelib chiqib o'zgarib turgan. Mil.avv. III asrning oxirlari O'rta Osiyo janubidagi harbiy-siyosiy vaziyat haqida Polibiy ma'lumot beradi. Uning yozishicha, Salavqiylar tomonidan Baqtriyada qamal qilingan Yevtidem ularning hukmdori Antiox III ga "chegarada ko'chmanchi qabilalar turganligi va ular chegaradan o'tadigan bo'lsa har ikkala tomonning ham ahvoli og'ir bo'lishi mumkinligini" bildirdi. Bu ko'chmanchilar mil.avv. III asrning oxirlarida Zarafshon daryosiga qadar deyarli butun Sug'dni egallagan bo'lib, bu hududlar Yunon-Baqtriya davlatining vaqtinchalik shimoliy chegarasi edi. Shuningdek, g'arbiy Hisor tog'lari ham shimoliy chegaralar bo'lgan bo'lishi mumkin.

Yunon-Baqtriya davlatining gullab-yashnagan davri mil.avv. III asrning ikkinchi yarmi va II asrning birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Janubiy hududlardagi o'sha davrga oid Jondavlattepa, Dalvarzin (pastki qatlamlar), Oyxonim, Qorabog'tepa kabi yodgorliklardan hokim saroylari, ibodatxonalar, turar-joy, mehnat va jangovar qurollar, turli hunarmandchilik buyumlari hamda ko'plab tanga pullarning topilishi bu hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotdagi rivojlanish jarayonlaridan dalolat beradi.

Yunon-Baqtriya podsholigi davlat tuzilishining muhim tomoni – qo'shin va uni tashkil etish bo'lgan. Avvalo, ta'kidlash lozimki, yunon-baqtriya qo'shinlarining katta qismini baqtriyaliklar va boshqa mahalliy aholi tashkil etgan. Qo'shinning asosiy harakatlantiruvchi kuchlari otliq-suvoriylar bo'lib, qo'shin tarkibida fillar harakat qilgan.

O'z vaqtida V.V.Grigoryev Baqtriyadagi yunon hokimiyati yagona monarxiya tomonidan emas, davlatlar uyushmasi (ittifoqi) tomonidan amalga oshirilgani, dastavval, nisbatan kuchlilar, ular orasidan "baqtriyaliklar", keyin esa "ularga tobe bo'lganlar" haqidagi konsepsiyani ilgari surgan edi. Hozirgi vaqt-

da ko'pchilik tadqiqotchilar Yunon-Baqtriya podsholari boshqargan hududlari Shimoliy Afg'oniston, Janubiy O'zbekiston va Hindiqushdan janubdagi ayrim viloyatlar bo'lganligini e'tirof etadilar. Bu hududlardagi markazlashgan davlatda Diodot I, keyin esa Yevtidem I (ya'ni, mil.avv. III asrning ikkinchi yarmi) davrlarida kuchli podsholik hokimiyati mavjud bo'lgan. Mil.avv. II asrning ikkinchi choragidan boshlab Yunon-Baqtriya podsholigining inqiroziga qadar davlatda mutlaq birlik va barqarorlik bo'lmagan.

So'nggi yillarda olib borilgan qazishmalar natijasida topilgan juda ko'plab arxeologik topilmalar Amudaryo o'rta oqimining o'ng va chap qirg'og'i aholisining mil.avv. III-II asrlardagi o'zaro aloqalaridan, bu yerlar Yunon-Baqtriya davlati tarkibiga kirganligidan dalolat beradi. E.V.Rtveladzening fikricha, mil.avv. 250–140/ 130-yillar davomida Yunon-Baqtriya davlati mustaqil davlat sifatida mavjud bo'lib, bu davrda Diodot, Yevtidem, Yevkratid, Geliokl kabi podsholar hokimiyatni boshqargan. Mil.avv. II asrning ikkinchi yarmiga kelib ko'chmanchilar zarbalari va o'zaro taxt uchun kurashlar natijasida Yunon-Baqtriya davlati inqirozga uchragan.

Mintaqaning janubiy Turkmaniston, shimoli-sharqiy Eronning bir qismi qadimda Parfiya nomi bilan atalgan. "Avesto"da bu o'lka Axura Mazdaning yaratgan 5-o'lkasi, ya'ni Nisaya deb nomlanadi. Bu Niso shahri ushbu davlatning dastlabki shahri bo'lganligidan ham dalolatdir.

Yunon tarixchilari bu davlat haqida yozib: "Ular (Parfiyanlar) hozirda butun Sharq uzra hukmdordirlar va ular (aslida) qachonlardir skiflar orasidan badarg'a qilinganlardandirlar, ularning nomi bunga ishora, zero, skiflar tilida (bu davlat nomi) badarg'a qilinganlarni anglatadi", deb yozishgan.

Mil.avv. 625 – 584-yillarda bu davlat midiyaliklar tomonidan bo'ysundirilgan. Midiyaning saklar bilan urushi natijasida Midiya qulagach, tabiiy ravishda bu davlat yana o'z mustaqilligini tiklaydi. Mil.avv. VI asrning II yarmida bu davlat Ahamoniylar qo'l ostiga o'tib, IV asrning 30-yillarida esa yunonlarga tobe bo'lib qoladi va bu jarayon mil.avv. III asr o'rtalarigacha davom etadi. Xususan, asli saklarning day qabilasidan bo'lgan, Tajan daryosi bo'ylarida yashovchi parna urug'i sardori Arshak Salavqiylarning bu hududidagi noibini ag'darib, hokimiyatni o'z qo'lga oladi. Shu tariqa davlat hokimiyati tepasiga arshakiylar siyosiy sulolasi chiqadi.

Farg'ona mintaqaning eng qadimiy madaniy o'choqlaridan hisoblanadi. Bu yerda taxminan mil.avv. 2-minginchii yillaridayoq dehqonchilik madaniyati o'ta taraqqiy eta boshlagan. Yerlik aholi haqida yunon manbalarida Sirdaryo (Yaksart)ning narigi tomonida (shimolida va yuqori oqimlarida) skiflar (saklar) yashaydilar, deb guvohlik berilgan. Pahlaviy yozuvida bitil-

gan “Bundaxshin”da **parikani, pariani, prakan va parkan** etnik-geografik atamalar uchraydi. Sugʻd manbalarida Fargʻona “**Fraganik**” shaklida yozilib, “togʻlar orasidagi vodiy, atrofi berk soylik” maʼnolarini bergan. Xitoylik elchi Chjan Sen esa bu oʻlkalarda safarda boʻlib (mil. avvalgi II asr 20-yillarida), oʻlka haqida maʼlumotlar yozib qoldirgan. Xitoyliklar Fargʻonani **Davan** (Ulugʻ Van) deb atagan. Qadimgi Fargʻona haqidagi mufassal maʼlumotlarni Xitoy manbalarida koʻproq uchratish mumkin. Buni akademik A.Asqarov¹ ham tasdiqlaydi.

Qadimgi Fargʻonaga nisbatan Xitoy manbalarida Davan davlati haqidagi maʼlumotlar oxirgi marta milodiy III asrda uchragan. 436-yilda imperator Vey elchisi Dun Vanning gʻarbiga safari munosabati bilan qadimgi Fargʻona “Polona” nomi bilan sobiq Davan oʻrnida ishlatilgan. Qadimgi Fargʻona yana bir Xitoy manbasi “Bey-shi”da (VII asr), “Boxan”, “Feyxan” nomlari bilan tilga olinadi. “Bey-shi”da Feyxanda “hukmdor taxti oltin qoʻchqor qiyofasida” ishlangan boʻlsa, boshqa bir Xitoy manbasi “Tan-shu”da (X asr) Qadimgi Fargʻonani “IV asrdan boshlab to hokimiyat tepasiga turklar kelguniga qadar bir sulola boshqargan” deyiladi. 630-yili Oʻrta Osiyo orqali Hindistonga safarga otlangan Xitoy elchisi Syuan Szan sobiq Davanda mamlakat yagona hukmdor tasarrufida emas, u yerda mayda mahalliy hukmdorlar koʻpligini taʼkidlaydi.

Taniqli tarixchi olim A.Ziyoning yozishicha, Fargʻona boshqaruv tizimida hukmdor, uning ikki yordamchisi (vaziri) va oqsoqollar kengashi muhim rolni oʻynagan. Yordamchilar asosan hukmdorlarning qarindoshlari orasidan tayinlangan boʻlsa, bu kengash mamlakat ijtimoiy-siyosiy va tashqi munosabatlarida faol ishtirok etish bilan bir qatorda oliy hukmdor faoliyati bilan bogʻliq tadbirlarda qatnashish qudratiga ham ega boʻlgan.

Urush ochish, yangi hukmdorni tayinlash, uni taxtdan mahrum etish kabi tadbirlarda oqsoqollar kengashi yetakchi oʻrinni egallagan. Masalan, xitoyliklar bilan urushda kengash sulh tuzish tarafdori boʻlgan va bunga erishgan ham. Xitoyliklar bosqini bilan bogʻliq voqealar sababchisi deb topilgan hukmdor Mugʻay kengash hukmi bilan qatl qilingan.


Fargʻonaning qoʻshni Xitoy bilan aloqalari turli koʻrinishlarda, goh ittifoq boʻlishga intilish, gohida harbiy harakatlarda namoyon boʻlgan. Xitoyliklarni Fargʻonaning argʻumoq otlari doimo qiziqtirgan va ularga ega boʻlishga intilishgan. Bu otlar hatto ikki oʻrtada urush chiqishiga sabab boʻlgan.

Xitoy elchisi Chi Lin kumush va oltindan yasalgan koʻplab ot haykalari bilan Fargʻonaga kelib, evaziga argʻumoq otlardan soʻraydi. Oqsoqollar

¹ Qarang: A.Asqarov. Oʻzbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. 34-35-b.

kengashi elchiga rad javobini bergach, u alamidan soʻkina boshlaydi va oltindan yasalgan otni uloqtirib chiqib ketadi. Aynan mana shu holat bahona boʻlib, mil.avv. 104-yili xitoyliklar Fargʻonaga qarshi urush boshlaydilar.

Davan davlati boshqaruv tizimi



Bu davlat ichki hayotiga kelsak, oʻsha davrlarda mulkiy tabaqalanish boshlanganini koʻrish mumkin. Qoradaryo havzasida olib borilgan arxeologik tadqiqotlarga koʻra, mazkur maskan antik va ilk oʻrta asrlar davrida bir necha mikrovohalardan tarkib topgan 11 ta irrigatsiya rayonlarini tashkil etgan. Ularda antik davrga oid (mil.avv. II-I asrlarda to milodiy III asrgacha) 247 ta yodgorlik (erkin dehqon xoʻjaliklarining qishloqlari) boʻlsa, ilk oʻrta asrlarga kelib (milodiy III–VII asrlar), ularning soni 166 taga tushib qolgan. Demak, qishloq jamoalari ichida mulkiy tabaqalanish jadal kechgan, mulk egalari – kashovarlarning bir qismi mulksiz kadivarlarga, ular hisobiga boyib borayotgan kashovarlarning badavlat qismi dehqonzodalar – mulkdor feodallarga aylana borgan.


Oʻzbekistonda mil.avv. II-I asrlarda Sirdaryo, Yettisuv choʻllari va Orol dengizi atroflariga xunn qabilalari koʻchib kelib, oʻtroq hayotga oʻta boshlagan. Ular asli Markaziy Osiyo choʻllarida koʻchib yurgan qabila ittifoqi edi. Bu turkigoʻy xunn qabilalari toʻgʻrisida maʼlumotlar Xitoy solnomalarida mil.avv. 1756-yildan boshlab tilga olinadi. Ular Oltoy, Markaziy Osiyodan

Gʻarbiy Yevropa yerlarigacha, janubda Kaspiy dengizi boʻylari hamda Shimoliy Kavkaz yerlarigacha boʻlgan hududlarga egalik qilar edilar. Bu saltanat hududi kattaligidan ikkiga: Gʻarbiy va Sharqiy Xunn saltanatiga boʻlinib idora etilgan. Shimoli-sharqdan Turonga koʻchib kelgan xunlar mahalliy aholi bilan aralashib ketgan, natijada Sirdaryoning oʻrta oqimida turkiy tilda soʻzlashuvchi etnik guruhlar qatlami koʻpaygan va ular tarixda Qanxa (Qangʻ, Qangʻuy) davlatiga birlashgan. Ana shu davrdan boshlab Markaziy Osiyoda turkiy tillar taʼsiri kuchayib borgan. Bunday jarayon Turk xoqonligi davrida (milodiy VI-VII asrlar) yanada kuchaygan. Bu davrga kelib Shimoliy Enasoy (Yenisey)dan to Sirdaryoning oʻrta oqimiga qadar choʻzilgan keng hududlarda yashayotgan aholining asosiy soʻzlashuv tili turkiy til boʻlgan.

Mil.avv. III asr oxiri va II asr boshlaridan milodiy V asrgacha faoliyat koʻrsatgan Qangʻa davlati tarixchi olim Karim Shoniyozovning bergan maʼlumotlariga qaraganda, sharqda Fargʻona vodiysi, shimoli-sharqda usunlar, shimoli-gʻarbda Sarsu daryosi va gʻarbda Sirdaryoning oʻrta oqimi bilan chegaradosh boʻlgan. Bu davlat hududida mil.avv. I va milodiy I-II asrlarda 120 000 oila yoki 600 000 kishi yashagan. Hududda yashovchi qadimgi eroniy tillarga yaqin tilda soʻzlashuvchi tub yerli xalqlar Janubiy Sibir, Oltoy, Sharqiy Turkiston va Yettisuv viloyatlarida yashovchi turkiy tilda soʻzlashuvchi xalqlar bilan oʻzaro yaqinlashgan. Oqibatda mil.avv. II-I asrlarda Sirdaryoning oʻrta oqimida turkiy tilda soʻzlashuvchi yangi etnos-xalq birligi vujudga kela boshlagan. Bu yangi xalq – etnos sekin-asta son jihatdan koʻpayib, oʻz davlati hududlarida ustun mavqeni egallab borgan. Oqibatda ular alohida Qangʻar elati nomi bilan shakllangan. Ana shu Qangʻar elati birligi asosida tashkil topgan Qanxa davlati yetti asr, yaʼni milodiy V asr oʻrtalarigacha yashagan.

Yuqorida aytib oʻtilgan Qanxa davlati va undagi Qangʻar elati haqidagi maʼlumotlar asosan Xitoy manbalarida berilgan. Jumladan, Xitoy tarixchisi Sima Syan bu elat haqida “ular urf-odatlari boʻyicha yuechjilarga oʻxshab ketadi”, deb yozgan. Xitoyning Gʻarbiy oʻlkalari noibi imperatorga yuborgan maʼlumotlarida, “Qangʻarlar iftixori zoʻr, qoʻpol xalq, bizning elchilarimiz oldida tiz choʻkib qulluq qilishga unamaydilar, biz tomonimizdan yuborilgan elchilarni usun elchilaridan ham pastga oʻtqazadilar. Ularning (usunlarning) knyaz va oqsoqollariga taomni bizning oqsoqollarimizga qaraganda oldinroq beradilar”, deb bu elatning magʻrurligini yozib qoldirgan. Bu elatdan iborat boʻlgan davlat Xitoy manbalarida Kanguy, Kangyuy nomlari bilan berilgan. Xitoy manbalarida Kanguy nomi mil.avv. II asrdan maʼlum. Ungacha Sirdaryoning oʻrta havzalarida, aynan Toshkent viloyatining janubigʻarbida kanki qabilalari yashaganligi haqida tarixiy manbalarda yetarlicha maʼlumotlar uchraydi.

Qanxa davlati boshqaruvi



Kanguy mil.avv. III asr o`rtalarida Yunon-Baqtriya davlatiga nisbatan opozitsiyada turgan siyosiy-harbiy kuch sifatida Sirdaryoning o`rta havzasida tashkil topadi va yozma manbalarga ko`ra, dastlab yuechji va xunnlarning ta`sirida bo`ladi. Mil.avv. II asrdan boshlab Kanguy jangovar turkiy etnik kuchlar hisobiga siyosiy va harbiy jihatdan qudratli davlatga aylanadi va Xitoyga nisbatan mustaqil siyosat yurita boshlaydi. Kanguy davlati Davan davlatining Xitoy bilan munosabatlarida ham muhim rol o`ynagan. Hatto milodiy I asrning 80-yillarida Xitoy davlati Farg`ona hududlariga hujum qilganda, kanguylar yordamga kelib, xitoyliklarni tang ahvolga solgan.


Xitoy tarixchisi Sima Syan (mil.avv. II asr) qang`liklarning ko`chmanchi bo`lganligini yozib qoldirgan. Shuning bilan birgalikda to`ng`ich Xan sulolasi tarixida (milodning boshlarida) ularning o`troq xalq bo`lganligiga ham ishora qilinadi. Chorva mollarning ko`pi podsho va uning yaqinlariniki bo`lgan. Shu bois, xoqon va uning yaqinlari bahor kelishi bilan yozgi qarorgohga ko`chganlar, chorvasi kam aholi esa vohadan ketmay dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug`ullangan.

Kanguy poytaxti Bityan kanguyarning azaldan yashab kelgan makoni bo`lsa-da, Kanguy hukmdori bu shaharda muqim yashamagan, uning yozgi qarorgohi ham bo`lgan, deyiladi. Mutaxassislar mana shu xabarga asoslanib, “Kanguy yarim ko`chmanchi, yarim o`troq xarakteridagi davlat va uning qa-


roroghi ham davlat xarakteridan kelib chiqib o'zgarib turgan", degan xulosa keladilar. "Avesto"dagi Qang'a bilan xitoycha Kanguy atamalarining o'xshashligini hisobga olganda, Kanguy qishki qaroghi Bityan Toshkent viloyatining Sirdaryo yaqinida joylashgan qadimgi Qangdiz shahar xarobasi bo'lib chiqadi. Kanguy davlatining asosi aynan mana shu joydan boshlangan.

Qovunchi tepaligi qazilmalaridan topilgan sopol idishlar Qang' davri (Qovunchi) madaniyatining namunalaridir. Sopol idishlarining aksariyatida hayvon boshining tasviri tushirilgan. Qang' madaniyati, savdo-iqtisodiy aloqalarining rivojlanishi va kengayishida bu davlat hududidan o'tgan "Buyuk ipak yo'li"ning ahamiyati katta bo'lgan.

Qanxa davlatining gullab-yashnashi



Qang'liklarning mashg'ulotlari:



Xitoy manbalariga ko'ra, mil.avv. I asrning II choragida hozirgi Sharqiy Turkistondagi Turfondan janubi-sharqiy hududlarda yashab kelgan yuechji qabilalari qo'shni xunlar tazyiqi ostida g'arbga tomon harakat qilgan. Ular


dastlab Sugʻdiyona hududiga, soʻngra Baqtriyaga oʻtadilar. Ular beshta: Xyumi, Shuanmi, Guyshuan (Kushon), Xeytun, Gaofu xonadon nomlari bilan yashagan va ularning har birining hukmdori – yabgʻusi boʻlgan.

Shunday qilib, taxminan mil.avv. 130-yili Baqtriyada yunonliklar taʼsiriga uzil-kesil chek qoʻyilgan.

Shu tariqa mil.avv. II-I asrlarga kelib mintaqaning Baqtriya qismida Tohariston nomi bilan ataluvchi siyosiy birlik yuzaga keldi. Bu siyosiy birlikning nomi yozma manbalarda dastlab milodiy 338-yildan boshlab uchrasa-da, mil. avv. II-I asrlarda Baqtriyani boshqargan siyosiy birlikning nomidir.

Qadimiy manbalarning deyarlik barchasida kushonlarning birinchi hukmdori Kioszyukyu (uning xitoycha atalishi) Kujula Kadfizdir (ayrim manbalarda Kudjula va Kudzula). U Baqtriyani egallagach, qoʻshni viloyatlar sari oʻtlanib, Sugʻdiyona, Margʻiyona, Hindistonning shimoli-gʻarbiy qismini ham egallaydi. Sakson yil umr koʻrib vafot etgach, oʻrniga oʻgʻli Yangaochjen (Kadfiz II) oʻtirib, Hindistonning Gang daryosi vodiysigacha boʻlgan yerlarni ham boʻysundiradi. Kadfiz II (Yangaochjen) tarixda Vima Kadfiz nomi bilan ham mashhur. Bu nom oʻsha davrda zarb etilgan tangalarda aks etgan.

Kanishka hukmronligi davri (milodiy 78 – 123- yillar) da Kushonlar davlatining gullab-yashnashi



Kushonlar davlati podsho Kanishka davrida eng qudratli saltanatga aylangan. Uning davrida Hindistonning janubiy qismlariga tahdid solingan.

Fargʻona, Sharqiy Turkiston boʻysundirilgan, Turkistonning asosiy qismlari bir siyosiy hokimiyat ostida birlashib, qudratli saltanat vujudga kelgan.

Kushonlar davrida harbiylar uzoqdan turib jang qilishda asqotadigan qoʻsh kamon quroli yaratilgan. Suyak yoki shox bilan qoplangan murakkab bu qurol keyinchalik, Uraloldi yerlari orqali Shotlandiyagacha, sharqda Eron, Hindiston va Xitoygacha tarqab ketgan.

Kushonlar davrida dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik ravnaq topgan. Ayniqsa, oynasozlik rivoji bu yurt dovrugʻini olamga taratgan. Baqtriya, Sugʻdiyona, Fargʻona bu sohada ulkan yutuqlarga erishgan. Baqtriyaliklar Xitoyga borib oynasozlikni koʻz-koʻz qilganlarida (togʻdan ashyo olib kelib odamlar oldida mahorat bilan yasaganlarida), uning tovlanishini koʻrgan Xitoy hukmdori lol qolib, bu yasalgan narsani xazinaga topshirishni buyurgan.

Bu davrda saltanatning kengligi turli xalqlar oʻrtasidagi madaniy aloqalarning rivojlanishiga sabab boʻlgan. Milodning boshlarida oʻlkaga Hindistondan **chaturanga** nomi bilan shaxmat oʻyini kirib kelgan. Ajdodlar eʼtiqodiga toʻxtaladigan boʻlsak, mintaqaning aksar qismida zardushtiylilik oʻz mavqeyini saqlab qolgan. Shu bilan birgalikda mintaqaga Hindistondan buddaparastlik taʼlimoti ham kirib kelgan. Bu taʼlimot bizning oʻlka orqali Xitoyga, soʻngra Tibet va Yaponiyaga yoyilgan. Manbalarga qaraganda, parfiyalik An Shi Gao degan kishi 148-yili Loyan shahriga borib, oʻz izdoshlari bilan birgalikda bu diniy taʼlimotni targʻib eta boshlagan ekan.

6. BUYUK IPAK YOʻLI

Uzoq yillar mobaynida Oʻrta Osiyoning qadimgi yoʻllari masalalari boʻyicha ilmiy izlanishlar olib borgan Oʻ.Mavlonovning tadqiqot xulosalariga koʻra, eneolit va bronza davrida Oʻrta Osiyoda ichki va tashqi iqtisodiy-madaniy aloqalarga xizmat qilgan yoʻllar tizimi shakllanadi. Mintaqadagi asosiy aloqa yoʻllari asosan togʻ dovonlari, daryo vodiylari, dasht va choʻllar orqali oʻtgan yoʻllardan keng foydalana boshlangan. Buning natijasida qadimgi ajdodlarning mintaqa tabiati va geografik holati hamda joylashuvi haqidagi, shu bilan birgalikda, qoʻshni oʻlkalar toʻgʻrisidagi tasavvurlari ham kengayib borgan. Bu amaliy bilimlar oʻz navbatida mahalliy, **mintaqaviy** va **transmintaqaviy** aloqa yoʻllari shakllanishiga asos boʻlgan.

Eng qadimgi yoʻllarning birinchi guruhiga mahalliy ahamiyatga ega yoʻllar kirgan boʻlib, ular avvalo, oʻtroq dehqonchilik markazlarini dehqonchilik qilinadigan yer maydonlari, ov qilinadigan hududlar, xomashyo zaxiralari mavjud boʻlgan joylar, suv manbalari va boshqalar bilan bogʻlashga; yagona madani-

yatga mansub makonlarning o'zaro aloqalarini ta'minlashga; chorvador qabilalar xo'jaligida muhim o'rin egallagan qishloq-yaylov-qishloq yo'nalishidagi harakatni boshqarishga xizmat qilgan.

Mintaqaviy ahamiyatga ega **ikkinchi guruh** yo'llari, avvalo, O'rta Osiyodagi eneolit va bronza davriga mansub turli madaniyatlarning o'zaro aloqalarini ta'minlashga xizmat qilgan. Mintaqaning ichki iqtisodiy-madaniy taraqqiyotida muhim o'rin tutgan ko'p tarmoqli bu yo'llar O'rta Osiyo o'troq vohalari o'zlashtirilishiga mos ravishda kengayib borgan. Mintaqaviy aloqa yo'llari bo'ylarida mahalliy qabila va xalqlar nazoratida bo'lgan turli inshootlar va tegishli infratuzilmalar shakllanib, ilk ulov va transport vositalaridan foydalanishga o'tilgan.

Eng qadimgi yo'llarning **uchinchi guruhi** transmintaqaviy ahamiyatga ega yo'llardir. O'rta Osiyoning turli hududlarida metall va nometall qazilma boyliklari hamda boshqa xomashyo zaxiralarining mavjudligi va Qadimgi Sharq mamlakatlarida ularga bo'lgan katta talab, ya'ni iqtisodiy omillar mintaqada tranzit ahamiyatga ega yo'llarning paydo bo'lishiga olib kelgan. O'rta Osiyoni Hindiston, Eron va Mesopotamiya orqali Old Osiyo, Misr, Sharqiy Turkiston va Xitoy hamda mintaqa shimolidagi dashtlar orqali Sibir va Ural-orti hududlari bilan bog'lovchi tranzit yo'llar – aloqa yo'llari tizimining eng muhim qismi bo'lib, bu yo'llar orqali olib borilgan iqtisodiy-madaniy aloqalar O'rta Osiyoda sivilizatsiya markazlarining paydo bo'lishi, avvalo, ilk shahar madaniyatining shakllanishi, keyinchalik, davlatchilik jarayonlari taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Mil.avv. I ming yillikning boshlariga kelib O'rta Osiyoda temir metallurgiyasining paydo bo'lishi va keng yoyila boshlashi mintaqadagi ko'pgina yirik daryo vohalarida sug'orma dehqonchilikning keng yoyilishi, yangi yerlarning o'zlashtirilishi, qadimgi shaharlarning paydo bo'lishi va ilk davlatlarga asos solinishi, bepayon dashtlarda va tog'oldi hududlarida ko'chmanchi chorvachilikning rivojlanishi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi boshqa o'zgarishlarda katta ahamiyat kasb etgan. Bu davrning **O'zbekiston tarixi uchun** eng muhim xususiyati shundaki, bu davrda O'rta Osiyo hududlarida bir nechta tarixiy-madaniy viloyatlar – Baqtriya, Xorazm, Marg'iyona, Sug'diyona, keyinroq, Farg'ona, Choch kabilar shakllanib, ularning ayrimlari (Baqtriya davlati, Qadimgi Xorazm) yirik davlat uyushmalariga birikkan.

Bu davrga kelib O'rta Osiyoning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy hayotida bo'lib o'tgan yangilik va o'zgarishlar qadimgi savdo-tranzit yo'llari tarmoqlarining kengayishi va aloqa yo'llarining yangi yo'nalishlari paydo bo'lishi uchun katta ahamiyat kasb etgan. Tor doiradagi hududlarni bog'lovchi

ichki aloqa yo‘llaridan tashqari, “**Dasht yo‘li**”, “**Oltin yo‘li**”, “**Shoh yo‘li**” kabilar mintaqadagi iqtisodiy va madaniy hayot taraqqiyotini ta‘minlagan edi.

Buyuk ipak yo‘li insoniyat tarixida birinchi marta Sharq va G‘arb dunyosini bir-biriga bog‘ladi. Bu yo‘l xalqaro, qit‘alararo savdo-sotiq yo‘li edi. Buyuk ipak yo‘li o‘tgan yo‘nalishda mavjud davlatlarda turlicha qonun-qoidalar hukmron bo‘lgan. Ta‘kidlash joizki, xalqaro savdo-sotiqning tashabbuskori ham xalq edi.

Eng avvalo “Buyuk ipak yo‘li” atamasi haqida fikr yuritsak. Mazkur atama savdo-sotiq boshlangan davrga qaraganda salkam 2000 yil yoshdir. Ipak yo‘lini atalish tarixi Paul Vilgelm fon Rixtgofen nomi bilan bog‘liq. Rixtgofen qadimgi qo‘lyozmalar asosidagi manbalarga tayanib, 1877-yilda o‘zining “Xitoy” nomli asarini yozadi. Mazkur asarda xalqaro savdo-sotiq yo‘li Xitoydan boshlangani haqida qiziqarli ma‘lumotlar keltirib, Xitoyning qadr-qimmatini, savdo-sotiqdagi mavqeyi beqiyosligi ko‘p bor tilga olingan. Shuning uchun muallif, ushbu yo‘lni “Buyuk ipak yo‘li” deb ataydi. Albatta, “Ipak yo‘li” atamasi Rixtgofen tadqiqotlarida yagona Xitoy ipagi olib o‘tilgan yo‘l sifatida qaralmaydi, aksincha, Sharq va G‘arb dunyosini bir-biriga bog‘lashda xitoyliklar ipagi yetakchi vosita bo‘lganligiga ishora qilinadi. Rixtgofen asarida mazkur yo‘l tufayli farg‘onaliklar Xitoydan ipak qurti boqishni, o‘z vaqtida xitoyliklar Farg‘onadan uzum, beda yetishtirishni o‘rganganliklarini ham ta‘kidlaydi.

O‘zbek olimlari Buyuk ipak yo‘li haqida yozar ekanlar, ilk bor savdo karvonlari Sharqdan G‘arbgacha qarab qachon yo‘lga chiqqanligi, yo‘lning tarmoq va yo‘nalishlari, masofasi haqida fikr yuritadilar.

Arxeolog olim A.R.Muhammadjonov Buyuk ipak yo‘li Uzoq Sharqdan O‘rta Osiyo va Eron orqali O‘rta yer dengizigacha cho‘zilganligini, bu yo‘l Xitoyning qadimiy poytaxti Chanan (Shanan) shahridan Italiyaning Venetsiyasigacha borib yetgan masofadagi yo‘l ekanligini, ilk bor savdo karvonlari mil.avv. II asrning ikkinchi yarmida Xitoydan G‘arbgacha qarab yo‘lga chiqqanligini ta‘kidlaydi. Iqtisodchi olim N.To‘xliyev karvon ilk bor yo‘lga chiqqan vaqtga aniqlik kiritib, savdo-sotiq mil.avv. 126-yilda boshlanganligini qayd qiladi.

Buyuk ipak yo‘lining umumiy masofasi haqidagi fikrlar ham turli-tuman. A.Muhammadjonov Buyuk ipak yo‘li 6 ming chaqirim (9 ming km) deb ma‘lumot bergan bo‘lsa, Pokistondagi Markaziy Osiyo va G‘arbiy Osiyoni o‘rganish instituti faxriy doktori, Karachi universiteti professori Ahmad Doni Hasan faqat Astraxandan (Rossiya) – Xoristgacha (Eron) bo‘lgan masofani 13 ming km yo‘l ekanligini ta‘kidlagan.

Buyuk ipak yo'li deganda uchta katta yo'l tushunilgan: Yoyloq (Shimol), Bo'stonliq (Markaz, asosiy yo'l) hamda Dengiz yo'li. Asosiy yo'l tarmoqlari esa quruqlikdan o'tgan. Masalan, Bo'stonliq yo'li Chanan Humul – Oqsu – Qoshg'ar – Farb – Shosh – Samarqand – Buxoro – Urganch – Ast-raxan, so'ngra esa Yevropaga o'tib, nuqul quruqlikdan iborat bo'lgan. Ushbu yo'llardan turli vaqtda o'tgan sayyoh va ayg'oqchilar ular haqida o'z xotiralarida yozib qoldirganlar. Ingliz ayg'oqchisi va sayyohi Jenkinson Ipak yo'li bo'ylab o'tgan yo'llardan yettitasi haqida ma'lumot bersa, hindistonlik kotib Moxan Lal va Byornslar Panjob – Qobul – Balx – Buxoro – Hirot o'rtasidagi yo'l tarmoqlarining 40 ta varianti haqida yozib qoldirgan. Angliyaning Hindistondagi vakili Mir Izzatulla ana shunday yo'llarning 22 variantini sanab o'tadi. Jenkinson savdo yo'llari orasidagi masofani kunlar bilan qayd qiladi va uning ta'kidlashicha, “Turkman cho'llaridan Urganchgacha – 10 kun, Urganchdan Buxorogacha – 15 kun, Buxorodan Koshg'argacha – 30 kun, Koshg'ardan Pekingacha – 30 kunlik yo'ldir”. Umuman turkman cho'llaridan Xitoy poytaxti Pekinga qadar 3 oyda yetib olish mumkin. Sharqiy Turkistondan G'arbiy Turkistonga o'tishda olti quruqlik va bitta suv yo'li bo'lganligi ma'lum. Quruqlik yo'l variantlariga Andijon – Koshg'ar (554 km), Pishpak – Koshg'ar (689 km), Pishpak – Olmaota – Koshg'ar – G'ulja (854 km), Saygan – Sarsumba (256 km), Simay – Chunguchak (640 km), Saygan – Chunguchaklar (256 km) kiritilib, har bir karvon o'zi uchun qulay yo'nalishlarni tanlagan. Bundan tashqari, Ili va Irtish daryolari orqali suv yo'li ham bo'lgan.

Aniq yo'l o'lchoviga ega bo'lgan savdogarlar yo'l variantlaridan qulay va yaqinlarini tanlay bilgan va bir manzildan ikkinchisiga qiynalmay yetib bor-ganlar. Qadimda eng ko'p o'lchov birligi sifatida “Farsah” atamasi ko'p ish-latilib, bu atama forschada “esdalik tosh” degan ma'noni bildirgan. Shuning uchun Turkiy xalqlarda “bir tosh”, “ikki tosh” tarzidagi o'lchov ishlatiladi. Bir tosh 6,5-7 km masofani tashkil etib, yo'lni shuncha masofasida tosh qo'yilgan. Bir kunlik bosib o'tish kerak bo'lgan yo'l 4-5 farsah taxminan (25 – 30 km) bo'lganligi ma'lum. “Yo'l” o'lchov birligi ham qo'llanilib, “Bir yo'l” taxmi-nan “360 quloch” bo'lgan, bir kunlik savdo bosib o'tgan masofa taxminan 70 – 80 yo'lga teng bo'lgan.

Sharqda o'lchov birliklaridan tashqari yevropacha o'lchov birliklari bo'lib, “miliya”, “chaqirim”, “kov”, “qog'och” kabilardan keng foydalanilganligi o'rta asr sayohatnomalarida ko'p qayd qilinadi.

Buyuk ipak yo'li orqali savdo-sotiq bilan shug'ullanuvchi savdogarlar madaniyatli, hisob-kitob ilmini chuqur egallagan, iqtisodiy bilimlardan xabar-dor, or-nomusli, o'zga xalqlar tili. urf-odatlarini bilan tanish bo'lgan. Chunki

o'sha paytlarda savdogar va elchi atamaları bir-biriga yaqin edi. Ya'ni savdogarlar elchilik vazifasini bajargan va savdo-sotiq bilan ham shug'ullangan. Savdogar taqdir taqozosi bilan o'zi borgan mamlakatlardan madaniyat yangiliklarini olib kelgan, u qimmatbaho qo'lyozma kitoblarni bir yurtdan ikkinchisiga olib borib turgan. Ular o'z molini olib borgan mamlakatlardagi narxnavo, ko'p yetishtiriladigan mahsulot turlari, umumiy iqtisodiy ahvol, bozor talab narsalar haqida yon daftarlariga yozib borganlar. Shuning uchun ham haqli suratda "iqtisodiy geografiya" fanining asoschisini savdogar deb ataydilar. Albatta, savdogar o'z mahsulotini qimmatroq sotish uchun ancha uzoqqa borishga ham rozi bo'lardi. Ular o'z yo'llarida uchragan turli xalqlarning turmush tarzi, urf-odati, an'analari, tili, kiyinishi, marosimlari haqida ham ma'lumot to'plaganlar. Shu bois bugungi kunning "Etnografiya" fani rivojida ham savdogarlarning o'rni beqiyosdir.

O'sha vaqtlarda savdogarlarni qaysidir xalqqa tegishligiga emas, balki "musulmon savdogarlari", "xitoylik savdogarlar", "nasroniy savdogarlar" kabi atamalar bilan atalgan. Savdogarlar birlashma va kompaniyalarga uyushib ish ko'rgan. Buni davlatlararo shartnomalarning barqaror bo'lmashligi, yo'llardagi xavf-xatarlar va karvonni qo'riqlash uchun qo'shin yollash kabi xarajatlarni qoplash kabilar taqozo qilgan.

Savdo karvonlarini taxminan uch guruhga bo'lish mumkin:

Birinci guruh: kichik savdo karvonlari, ularda 20 – 50 tuya, ot, xachir yoki yuk ortilgan ishchi hayvonlaridan foydalanilgan. Ikkinchi guruh: o'rtacha katalikdagi savdo karvonlarida 50 – 100, ba'zida 200 – 300 gacha yuk ortilgan ishchi hayvonlari, uchinchi guruh: uzoq masofalarga mo'ljallangan savdo karvonlarida 500 – 1000, hatto 3000 tuya yuk ortilgan noodatiy katta savdo karvonlari ham bo'lgan.


Har bir ishchi hayvoniga qancha miqdorda yuk ortilgani haqidagi ma'lumotlar juda kam uchraydi. Bu to'g'rida Jenkinson va tadqiqotchi N.Baykova asarlaridan ma'lumot olish mumkin. Jenkinson har bir otga 10 pud (160 kg) mahsulot ortilgani haqida yozadi. N.Baykova esa tuyaga o'rtacha 16 pud (266 kg), otga esa 10 pud (160 kg) yuk ortilib, birinchi joydan ikkinchi joyga olib borilganligini qayd etadi.

Buyuk ipak yo'li bo'ylab quruqlik orqali yuruvchi savdogarlar qaysi yo'ldan foydalanmasin, O'rta Osiyo, hozirgi O'zbekiston shaharlari hududidan o'tgan. Barcha yo'llar tutashgan nuqtada biz yashab turgan mintaqa joylashgan edi. Mo'g'ulistondan o'tgan yo'l esa Marv va Amul orqali Urganchdan o'tgan. Xorazmdan quyi Volgaga boradigan yo'l esa Xorazmshohlar yo'li deb atalgan. Xullas, O'rta Osiyo Janub va Shimol, Yaqin va O'rta Sharqqa o'tadigan yo'llar tutashgan joyda bo'lgan.

Buyuk ipak yo‘lini nazorat qilish II – VII asrlarda so‘g‘dliklar va turkiylarning qo‘lida bo‘lsa, VIII asr o‘rtalariga kelib “Ipak yo‘li”ning G‘arbiy qismi arablar nazoratiga o‘tdi. XIII asrda esa Ipak yo‘lining barcha tarmoqlari bo‘ylab nazorat mo‘g‘ullar qo‘lida edi. So‘ngra esa Amir Temur va temuriylar ipak yo‘li nazoratini o‘z qo‘llariga oldilar.

Buyuk ipak yo‘li orqali Xitoydan Markaziy Osiyoga ipak, choy, shoyi, qandil buyumlari olib kelingan. Manbalarning tasdiqlashicha, har yili O‘zbekistonga Xitoydan 1000 tuya ipak, 300 tuya ko‘k yoki qora choy, 50 tuyada qandil buyumlar olib kelingan. Markaziy Osiyodan Xitoyga qorako‘l teri, kishmish (mayiz), quritilgan meva, ot abzali, qurol-yarog‘ olib borib sotilgan. Xitoyga Markaziy Osiyodan olib borilgan samoviy otlar juda ham xaridorgir. ularning bahosi ipak bahosi singari juda yuqori bo‘lgan. VII asr boshida ularning bittasini bahosi 40 taxlam ipakka teng bo‘lganligi ta‘kidlanadi. IX asrning birinchi yarmida esa ularning 100 mingtasiga bir million taxlam ipak bergan.

Buyuk Ipak yo‘li orqali olib o‘tilgan mahsulotlar



Buyuk Ipak yo‘li orqali savdoda Hindistondan O‘zbekistonga doka, ziravor, mo‘miyo, yelim, inbar, inbar guli, kashmir sholi, fil va morj suyaklari keltirilgan. Kashmir sholilaridan buxoroliklar to‘shak sifatida foydalansa, yevropaliklar uylari devoriga osib qo‘ygan va bezak sifatida e‘zozlaganlar. Xitoyga pilik, jundan ishlangan har xil gazlamalar, gilam, polos, oyna, metall, zeb-u ziynat buyumlari Markaziy Osiyo orqali Yevropadan olib borilgan.

Savdogarlarning kunlik belgilangan masofani bosib o‘tgandan so‘ng o‘zi va ishchi hayvonlari dam oladigan qarorgohlari bo‘lgan. Bu qarorgoh karvonsaroy deb atalgan. Ularda oziq-ovqat, yonilg‘i, suv, yem-hashak jamlab qo‘yilgan. Karvonsaroylarda omborxonalar, do‘konlar bo‘lib, tongotargacha

savdo-sotiq qizigan. Ularda ish, madaniyat, iqtisodiyot kabilarga oid suhbatlar uyushtirilgan. Hukumatlarga tegishli va xususiy karvonsaroilar, har bir yurtdan kelgan savdo ahlining o'z karvonsaroilari bo'lgan. Markaziy Osiyoda eng katta "Doya xotin" karvonsaroyi bo'lib, u Haqoboddan 210 km uzoqdagi Chorjo'y temir yo'li stansiyasi o'rnida joylashgan. YUNESKO ekspeditsiyasi mazkur karvonsaroy XI-XII asrlarda qurilib, salkam besh asr xizmat qilganligini aniqlagan.

O'rta Osiyo Buyuk ipak yo'li orqali qizg'in savdo-sotiq bo'lgan paytlarda gullab-yashnadi. Iqtisodiyot, fan, madaniyat sohasida yuksak muvaffaqiyatlar qo'lga kiritildi. Quruqlik orqali savdo-sotiq qilish ahamiyati katta bo'lgan bu davrda mustahkam, qudratli davlatlar faoliyat yuritdi. Biroq, quruqlik orqali savdo-sotiq ahamiyatining pasayishi bilan taraqqiyot biroz sustlashdi.

Buyuk ipak yo'li xalqaro savdo-sotiq yo'li sifatida qachon o'z ahamiyatini yo'qotdi? Bu masalada hozircha uch xil qarash mavjud. Buyuk ipak yo'lining XVI asrdan boshlab o'z ahamiyatini yo'qotishining birinchi sababi – buyuk geografik kashfiyotlar tufayli Yevropadan Xitoy va Hindistonga qarab, arzon hamda qulay dengiz yo'lining ochilishi va rus podshosi Ivan Grozniy tomonidan Qozon va Astraxanning egallanishi natijasida Markaziy Osiyo yo'llari uzilib qoldi. Ikkinchi qarashda Xitoyda Chin sulolasi hukmronligi o'rnatilgandan so'ng Sharqiy Turkistondagi Yorkent (1465 – 1759) va Jung'or (1635 – 1755) xonliklari bosib olingandan so'ng Sharqiy Turkiston va G'arbiy Turkiston savdo aloqalariga putur yetganligi sabab qilib ko'rsatiladi. Uchinchi qarashda esa, Qizil va O'rta yer dengizlarini birlashtirgan Suvaysh kanalining ishga tushishi bilan (1869) Buyuk ipak yo'li orqali savdo-sotiq to'xtab qolganligi haqida fikr bildiriladi. Bu kanalning Yevropadan Sharqqa qulay savdo yo'lini ochganligi o'z-o'zidan ayon.

Yuqoridagi qarashlar qanchalik to'g'ri yoki munozarali bo'lmasin, Buyuk ipak yo'li orqali savdo-sotiq xalqaro iqtisodiy hamkorlikda tashabbus quruqlikdan dengizga o'tganda inqirozga yuz tutgan. Aslida Buyuk ipak yo'li savdosi yo'qolib ketdi, deb hisoblash ham noo'rindir. Bizningcha, an'anaviy savdo-sotiq davrlar o'zgarishiga qaramay u yoki bu ma'noda davom etib turgan. Ayniqsa, 1978-yilda Xitoy jamiyatida boshlangan qayta qurish Ipak yo'li ushbu yo'l o'tadigan hududlarda yashovchi xalqlar uchun zarurligini anglash jarayonini tezlashtirdi. O'tgan asrning 70-yillaridayoq Yaponiyada Buyuk Ipak yo'li yo'nalishlari bo'ylab yuruvchi 35 ming kishilik "yoshlar va xotin-qizlar karvonlari" tashkil etilgan edi. 1991-yil 18-apreldan 18-iyungacha "Buyuk ipak yo'li – muloqot yo'li" shiori ostida YUNESKO ekspeditsiyasi Markaziy Osiyo orqali uyushtirilgan edi. Ekpeditsiyada 60 ta sovet va xorijlik olimlar

ishtirok etgan. Ularga jurnalistlar, radio-televideniye xodimlari hamrohlik qilgan. Ekspeditsiya ishtirokchilari Astraxandan Xoristgacha (Eron) bo'lgan 13 ming km masofani bosib o'tdilar. Savdo yo'llari saqlangan, karvonsaroylar mavjud bo'lgan yo'llar deyarli yayov yurib chiqildi. Ekspeditsiya davomida kuzatuvchi bo'lib qatnashgan BMT vakili professor Dudu Diyen Markaziy Osiyoda Buyuk Ipak yo'lining asl variantlari va karvonsaroylar saqlanib qolganligiga guvoh bo'ldi.

Ekspeditsiya o'z faoliyatini yakunlab, 1991-yilning 16-iyulida Olmaota (Qozog'iston Respublikasi)da ilmiy simpozium uyushtirdi. Ushbu anjumanda Buyuk ipak yo'lini tiklashdagi vazifalar aniqlashtirib olindi. Kelajakda olimlar zimmasiga xorijlik mutaxassis olimlar bilan hamkorlikda to'rt tomlik "Buyuk ipak yo'li" tarixi bilan bog'liq asar yozish vazifasi yuklatildi. Ekpeditsiya davomida xorijlik olimlarga pokistonlik professor Ahmad Doni Hasan, sobiq ittifoq mutaxassislariga esa o'zbek olimi, akademik Ahmadali Asqarov rahbarlik qildi.

Bugungi kunda "Buyuk ipak yo'li"ning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bu yo'lni tiklash maqsadida mustaqil O'zbekiston davlati bilan bir qator mamlakatlar o'rtasida o'nlab shartnomalar tuzildi. Jizzax shahri yaqinida 50 gektarli mahobatli "Osiyo bozori" qurildi. Buyuk ipak yo'lini tiklashdek qutlug' ish yo'lida O'zbekiston – Turkiya – Eron davlatlari o'zaro iqtisodiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy hamkorligini ta'minlash uchun bir necha yo'l variantlarida ish olib borildi. O'zbekiston Markaziy Osiyodagi temir yo'llardan foydalanib, Krasnovodsk va Boku portlaridan Julfa bekatiga o'tish, undan Fors qo'ltig'iga, so'ngra Turkiya orqali Yevropaga chiqish yo'llari ustida, Afg'onistonga an'anaviy savdo yo'llaridan foydalanib, Peshovar (Pokiston) orqali Karachi portiga va undan Sharq bozoriga chiqish ustida ham samarali ish olib borilmoqda.

Mustaqillikning dastlabki yillarida davlat sa'y-harakati bilan mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikdagi davlatlar tomonidan 1996-yilning dekabrda 295 kilometrli Tajan – Saraxs temir yo'li qurilib ishga tushirildiki, natijada O'zbekistondan chetga olib chiqiladigan yuklar muddati ikki haftaga qisqardi.

Buyuk ipak yo'li an'alarini tiklash bilan bog'liq bir qator muammolar ham mavjud. Bular quyidagilar:

1. O'zbekiston Respublikasi qanchalik tabiiy boyliklarga boy, geopolitik jihatdan qulay bo'lmasin, dengiz davlati emas. Hozir xalqaro savdo-sotiqda savdoning 80 foizi dengiz savdosi salmog'iga to'g'ri keladi.

2. Respublikaning xorij bilan to'g'ridan-to'g'ri hamkorlik qilish imkoniyatlari qiyin. Chunki qo'shni Afg'onistonda salkam o'ttiz yildan ortiq davom etayotgan urush va uning asoratlari hanuzgacha to'xtagan emas.

Bu muammolarning bartaraf etilishi esa O‘zbekistonni rivojlangan davlatlar qatoriga chiqishi uchun keng istiqbollar ochib beradi.

Ma’lumki, O‘zbekiston ochiq osmon ostidagi muzey nomi bilan mashhur. Muammolar bartaraf etilgach, O‘zbekistonning ochiq osmon ostidagi muzey ekanligi yanada jaranglaydi.

1998-yil may oyida Bryusselda Yevropa Komissiyasi, Markaziy Osiyo hamda Kavkazorti mamlakatlari, shuningdek, Yevropa Ittifoqi davlatlarining vakillari uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Uchrashuvdan ko‘zda tutilgan maqsad – yangi mustaqil davlatlar – Markaziy Osiyo va Kavkazorti mamlakatlarning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi imkoniyatlarini ko‘rib chiqish edi. Bu masala, avvalo, transport va kommunikatsiya tizimini rivojlantirish bilan bog‘liq. Xususan, birgina O‘zbekiston misolida aytadigan bo‘lsak, Yevropaga chiqish uchun faqat Rossiya orqali o‘tishga to‘g‘ri kelar, bu esa juda qimmatga tushadi. Shu boisdan O‘zbekiston rahbari I.A.Karimov Vatan mustaqilligining dastlabki yillaridanoq O‘zbekistonni jahon bozoriga olib chiqadigan qulay va qisqa yo‘llar haqida qayg‘urdi. Dunyoning to‘rt burchagiga yetuvchi yo‘llarga ega bo‘lish nafaqat O‘zbekistonning, balki Markaziy Osiyo hamda Kavkazdagi boshqa mamlakatlarning ham mushtarak istagidir. Buning uchun ota-bobolardan meros qolgan qadimiy yo‘llar an’analarini tiklash zarur.

Bryussel uchrashuvida Yevropa va Osiyoni bir-biriga bog‘laydigan “Yevropa – Kavkaz – Osiyo” trans yo‘lagini barpo etish masalasi ko‘rib chiqildi va shu bo‘yicha Deklaratsiya qabul qilindi. Aytish mumkinki, ayni shu uchrashuv Buyuk Ipak yo‘li an’analarini tiklash borasidagi dastlabki qadam bo‘ldi. Yevropa va Osiyoni bog‘laydigan TRASEKA yo‘li dasturi ishlab chiqildi.

Tarixda Mashriqdan o‘tgan yo‘llar ko‘p bo‘lgan. Ular muayyan sabablarga ko‘ra turlicha nomlangan. Bronza davrini qo‘ya turaylikda, undan keyingi zamonlardagi “Lazurit yo‘li”. keyinroq “Shoh yo‘li” va “Buyuk Ipak yo‘li”... bugun esa – TRASEKA.

Qadimiy Buyuk Ipak yo‘lini tiklash maqsadida 1998-yil 8-sentabrda Boku shahrida xalqaro konferensiya chaqirilib, unda TRASEKA dasturini amalga oshirish masalalari muhokama etildi. Konferensiyada Prezident I.A.Karimov nutq so‘zladi. Mazkur anjumanda jahonning 32 mamlakati hamda BMT, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Jahon banki kabi o‘ndan ortiq nufuzli xalqaro tashkilotlardan vakillar ishtirok etdilar.

1996-yil Saraxsda Markaziy Osiyo bilan Eron temir yo‘l tarmoqlarining tutashtirilgani TRASEKA loyihasini amalga oshirishda dastlabki katta ishlardan biri bo‘lgan edi. Xuddi o‘sha, 1996-yil 13- may kuni O‘zbekiston, Ozarbayjon, Gruziya, Turkmaniston o‘rtasida o‘zaro erkin tranzit to‘g‘risidagi

shartnoma imzolandi. Buyog'i Yaponiyadan to Adriatika dengiziga qadar cho'zilgan ushbu qadim karvon yo'lining muhim bo'lagidan foydalanishni boshlagan respublikalarning sarf-xarajatlari kamayib, katta daromad ham ola boshladilar. Mazkur shartnoma kuchga kirgandan so'ng paxta tashishga ketadigan xarajatning 12 million dollari mamlakat xazinasiga qoladigan bo'ldi. Axir TRASEKA shimoliy yo'nalishga nisbatan naqd 2 ming kilometr qisqadir. Qolaversa, mintaqa iqlimi undan yil – o'n ikki oy to'xtovsiz foydalanish imkonini beradi. O'zbekiston paxtani Qozog'iston va Rossiya hududi orqali Ukraina portlariga yetkazish uchun tonnasiga 100 dollardan ziyod mablag' sarflasa, shu yuk TRASEKA orqali tashilganda esa ushbu ko'rsatkich 55 dollarni tashkil eta boshladi.

TRASEKA loyihasini amalga oshirish O'zbekistonni Yevropa va Osiyo transport tarmoqlariga tutashtiribgina qolmasdan, uning eksport imkoniyatlarini oshirdi, loyihada ishtirok etuvchi mamlakatlar bilan savdo aloqalarini yanada kengaytirdi. Dastlabki yillar ma'lumotlariga e'tibor qarataylik. 1996-yil Transkavkaz yo'lagi bo'yicha O'zbekistonga keltirilgan va olib chiqib ketilgan mahsulot hajmi salkam 140 ming tonnani tashkil etgan bo'lsa, 1997-yil bu ko'rsatkich 285 ming tonnaga yetdi. 1998-yilning sakkiz oyi ichida esa tashilgan yuk hajmi 240 ming tonnadan ziyod bo'ldi.

Hozirga qadar jahonning 50 ta mamlakati TRASEKA yo'lagi orqali o'z yuklarini manzillariga yetkazayotir. Mazkur loyihaga qo'shilishni istovchi mamlakatlar soni ham tobora oshib boryapti. O'zbekiston bugun TRASEKA dasturi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarda faol ishtirok etish bilan cheklanib qolmay, transport kommunikatsiyasi imkoniyatlarini kengaytirish borasida boshqa loyihalarni ham amalga oshirmoqda. O'zbekiston qo'shni Qirg'iziston hamda Xitoy bilan Toshkent – Andijon – O'sh – Irkeshtom yo'lini qurish va ta'mirlash bo'yicha yaqindan hamkorlik qilmoqda. Buyuk Ipak yo'lining bir qismi hisoblanmish bu yo'nalish Yevropa mamlakatlarini Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari va Tinch okeani bilan bog'laydi.

Boku anjumanida Yevropa – Kavkaz – Osiyo trans yo'lagini rivojlantirish bo'yicha xalqaro transport to'g'risidagi ko'p tomonlama bitim imzolandi. Mazkur hujjat xalqaro yuk va yo'lovchi tashishni rivojlantirish va boshqarish, transport sohasidagi huquqiy mezonlarni o'zaro muvofiqlashtirishni ko'zda tutadi. Shuningdek, anjumanda Boku Deklaratsiyasi hamda Buyuk Ipak yo'lini tiklashga bag'ishlangan xalqaro konferensiya bo'yicha yakuniy Komyunike ham qabul qilindi. TRASEKA loyihasiga a'zo davlatlar hududlarida o'zaro yo'lovchi va tovarlarni barcha turdagi transport vositalarida erkin aylanishi, yuklarning xavfsizligi va saqlanishi, transport sohasida bojxona ishlari ham-

da huquqiy me'yorlarni o'zaro uyg'unlashtirishni ko'zda tutuvchi mazkur hujjatlar trans-milliy yo'lakni barpo etish yo'lidagi harakatlarga yangi kuch berdi. Buyuk Ipak yo'lini qayta tiklash tobora global ahamiyat kasb etmoqda. Necha asrlar mamlakatlarning taraqqiyotiga xizmat qilgan Buyuk Ipak yo'li bugun yana qaytadan tug'ilmoqda. Bu yo'l mamlakatlar o'rtasidagi do'stlik, madaniyat, iqtisodiy ravnaq, bir so'z bilan aytganda, taraqqiyot yo'lidir.

Tayanch so'z va iboralar:

Davlatchilik. Shakllanishi va rivojlanishi. Qadimiy davlatchilikning tarixiy ildizlari. "Avesto"dagi ma'lumotlar. Ilk davlat uyushmalari. Eron ahamoniy-lari va ularga qarshi ozodlik kurashlari. To'maris. Shiroq. Yunon makedonlar. Spitamen. Salavqiylar. Yunon-Baqtriya, Parfiya, Davan, Qanxa, Kushon dav-latlari. Buyuk ipak yo'li.

Bilimingizni sinab ko'ring

1. Yunonlar qadimgi ajdodlar haqida juda ko'p ma'lumotlarni yozib qoldirganlar. Jumladan, Pompey Tron ularni eng qadimiy xalqlar qatoriga qo'shib "qadimiylikda ular misrliklar bilan bahslashadilar", deb yozgan. Yu-non muarrixlari qadimgi ajdodlarni umumiy bir nom bilan ataganlar. Ular bergan nom katakchalarda yashiringan. Bu nomni toping.

		i		l	a	r
--	--	---	--	---	---	---

2. Rivoyatlarda Xorazmning eng qadimiy siyosiy sulolalari sifatida bir su-lola tilga olinadi. Bu sulola boshlig'ining nabirasi Kovi Xisrav bobosi qotili-dan o'ch olib, Xorazmda bobosi nomi bilan ataluvchi birinchi siyosiy sulolaga asos soladi.

Katakchalardan Kovi Xisravning bobosi nomini topsangiz, sulola nomini ham topasiz.

		v			sh		
--	--	---	--	--	----	--	--

(bobosining nomi)

			v		sh			l	a	r
--	--	--	---	--	----	--	--	---	---	---

(sulola nomi)

3. Baqtriya – bu geografik viloyat (makon), viloyat nomi esa Baqtr (Balxob) daryosi nomi bilan bog'liq. Uning poytaxti Baqtr ham xuddi shun-day bog'liqlikda. Bu bosh shahar Baqtr nomini olganga qadar qanday nom bilan atalgan?

		r			s		
--	--	---	--	--	---	--	--

4. Ma'lumotlarga ko'ra mil.avv. VIII asr boshlarida Eronda **Ahamon** hokimiyat tepasiga kelib, Eronda ahamoniylar (mil.avv. 558 – 329-yy) sulolasiga asos soladi.

Ahamoniylar shuhrati Kir II nomi bilan tarixga kirgan shoh davrida kuchaygan. U Midiya, Elam, Vaviloniya podsholiklarini bo'ysundirib, dunyoda birinchi saltanatga asos soladi.

Katakchalardan Kir II ning haqiqiy ismini toping.

	u		u	
--	---	--	---	--

5. Ajdodlarimiz chet el bosqinchilariga qarshi ozodlik harakatini hech ham to'xtatmagan. Bu kurashlarda jasorat ko'rsatgan To'maris, Shiroq, Spitamenlarning qahramonliklari tarix sahifalariga muhurlangan.

Ulardan biri Shiroqning qahramonligi haqida yunon tarixchisi Polien yozib qoldirgan. Uning asarida Shiroq nomi biroz boshqacharoq tarzda yozilgan. Shiroq Polien asarida qanday nom bilan berilgan?

	i			a	
--	---	--	--	---	--

6. Aleksandr Makedonskiy (Spitamen mag'lubiyatidan so'ng) Spitamenning qizi Apamani o'z qo'mondonlaridan biriga xotinlikka olib bergan. Bu qo'mondon Aleksandr vafotidan so'ng, kurashlar bilan hokimiyat tepasiga chiqib, o'z nomidagi sulolaga asos solgan. Bu qo'mondon, Spitamen qiziga uylangan va hokimiyatni egallab, yangi sulolaga asos solgan kishi kim edi?

	a		a		
--	---	--	---	--	--

7. Mil.avv. III asr o'rtalaridan Yunon-Baqtriya, Davan, Qanxa (Kankuy, Kangyuy) davlatlari tashkil topgan. Bu davlatlar haqidagi ma'lumotlar Xitoy manbalarida ko'p uchraydi. Xitoyliklar farg'onaliklarning bir narsasini juda yaxshi ko'rishgan. Hatto, ular o'sha narsani so'rashganda farg'onaliklar bunga rozilik bermagan. Bu narsa xitoyliklarning Farg'onaga urush ochishiga sabab bo'lgan.

Bu narsa farg'onaliklarning nimasi edi?

	r			m		q
--	---	--	--	---	--	---

		l		r		i
--	--	---	--	---	--	---

8. Milliy davlatchilikda Kushon davlati ham muhim o‘rinni egallaydi. Bu davlat bir podsho davrida eng qudratli saltanatga aylandi va Farg‘ona, Sharqiy Turkiston, Hindistonning katta qismi ham egallandi. Shu tariqa kushonlar saltanati vujudga keldi.

Katakchalarda bu podshoning nomi yashiringan.

	a					a
--	---	--	--	--	--	---

9. Buyuk ipak yo‘li orqali hamkorlik boshlanganida Sharq va G‘arb dunyosi asosan to‘rtta imperiya qo‘lida bo‘lgan. Chunki bu davrda mana shu to‘rt imperiya yer yuzining asosiy qismini idora etar edi. Bu imperiyaning biri, Xitoy, ikkinchisi Parfiya, uchinchisi Rim bo‘lib, to‘rtinchi imperiya nomini katakchalardan toping.

			o	
--	--	--	---	--

10. Qadimgi savdo yo‘lini Buyuk ipak yo‘li deb atalishi tarixi nemis olimi Paul Vilgelm fon Rixtgofer nomi bilan bog‘liq. U 1877-yilda o‘z asarini yozib, unda qadimgi savdo yo‘lini Buyuk ipak yo‘li deb atagan, Sharq va G‘arb dunyosini bir-biriga bog‘lashda xitoyliklar ipagi yetakchi vosita bo‘lganligiga urg‘u bergan.

Qadimgi savdo yo‘liga birinchi bo‘lib Buyuk ipak yo‘li nomini bergan Rixtgoferning ushbu asari qanday nomlangan? Katakchalarda asar nomi yashiringan, uni toping.

			o	
--	--	--	---	--

III BOB. O‘ZBEK XALQINING ETNIK SHAKLLANISHI

Mavzu rejasi:

1. Xalqning etnogenezi va etnik tarixi.
2. O‘zbek xalqining shakllanishi va uning bosqichlari.
3. “O‘zbek” atamasi va uning keng yoyilishi.
4. O‘zbek xalqi yozuvlari va tili.
5. O‘zbek millati. Mustaqil O‘zbekistonda millatlararo hamjihatlikning ta’minlanishi.

1. XALQNING ETNOGENEZI VA ETNIK TARIXI

O‘zbek xalqining kelib chiqishi uzoq davrlar mobaynida ko‘pgina munozaralarga va munozaralar asosida turli xil talqinlarga sabab bo‘lib kelgan. Buning asosiy sababi bir yarim asrlik qaramlik davrida o‘z tarixini o‘zi yoza olmaganligidadir.

Erishgan istiqloq haqqoniy tarixni yaratish va u qanday bo‘lsa shunday o‘rganish imkoniyatini berdi. Tarixning kemtik joylarini to‘ldirib, uni haqqoniy tarixga aylantirishda Prezident I.A.Karimovning 1998-yil yozida respublikaning taniqli tarixchi olimlari bilan bo‘lgan uchrashuvi va tarixchi olimlar oldiga qo‘ygan vazifalari muhim ahamiyat kasb etgani haqida aytib o‘tgan edik.

Ma’lumki, O‘zbekiston O‘rta Osiyoning qadimdan o‘troq dehqonchilik, arxeologik va me’morchilik madaniyatlari rivoj topgan joy. Farg‘ona viloyati Sux tumanidagi Selung‘ur g‘oridan topilgan qadimgi tosh davriga oid topilmalar va Teshiktoshdan topilgan o‘rta paleolitga oid odamzod qoldiqlari Afrika va Old Osiyo hududlari kabi O‘zbekiston ham insoniyat sivilizatsiyasining qadimgi o‘choqlaridan biri ekanligini tasdiqladi. Mezolit davriga oid Machay g‘oridan topilgan yodgorliklar, neolit davriga oid ovchilik va baliqchilik madaniyatini o‘zida aks ettiruvchi Kaltaminor, Janubdagi ilk dehqonchilik madaniyatiga oid Joytun, Hisor tog‘ madaniyati, bronza davriga oid Zamonbob, Sopoli, Jarqo‘rg‘on, Sarazm, Suvyorgan, Chust madaniyatlari bu o‘lkada qadimgi ajdodlar xo‘jaligining jadallik bilan rivojlanganligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonning qadimgi aholisi haqidagi ma’lumotlar ilk bor Sharq va yunon-rim manbalarida uchraydi. Yunon tarixchilari asarlarida Yevrosiyo-

ning katta hududlarida yashovchi qabilalar umumiy “skiflar” nomi bilan tilga olinadi. Gerodot, ular haqida “bu xalq qadimiylikda misrliklardan qolishmaydi”, deydi. Pliniy esa, bu hududlarda 20 ga yaqin qabilalar yashashi haqida eslatadi. Yozma manbalarda skiflarning ikki yirik qabilasi haqida eslatiladi. Ularning biri sak qabilasi. Ahamoniylarning mixxat yozuvlarida saklar uch qismga (saka xaumvaraka, saka tigraxauda, saka tiay-tara darayya) bo‘lib ko‘rsatiladi. Skiflarning ikkinchi qabilasi massagetlarni esa mahalliy chorvador-harbiy qabilalar bo‘lganligini yozadilar.

Gerodot massagetlar qabilasi haqida: “Bug‘ doyni... (ular) ekmaydilar, chorvachilik va baliqchilik bilan (Araks daryosida baliq serob) shug‘ullanadilar hamda sut ichadilar... (ular) ichida ulug‘langan yagona xudo – bu Quyoshdir. Quyoshga ular otlarni qurbon qiladilar, chunki xudoga dunyodagi eng chaqqon-tezchopar jonliqni qurbon qilish lozim deb o‘ylaydilar”, deb yozib qoldiradi.


Shuni ta’kidlash lozimki, keyingi yillarda nashr etilgan darslik va qo‘llanmalarda ham xalqning shakllanishida etnogenez bosqichi, etnos jarayoni, o‘zbek xalqining shakllanish bosqichlarida bir qator mavhumliklar uchrab turibdi. Shu bois, ushbu mavzuda tarixchi olimlarning ilmiy izlanish va xulosalariga asoslanib bu mavhumliklarga biroz aniqlik kiritishga harakat qilamiz.

“O‘zbek” deb nomlangan xalqning kelib chiqish tarixini o‘rganishda bir qator tarixchi, arxeolog olimlar samarali ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bordilar. Bular orasida A.Asqarov. K.Shoniyozov¹ kabi akademik olimlarning mehnatlarini alohida qayd etmoq lozim. So‘nggi yillarda A.Asqarov o‘z ilmiy asar va maqolalarida o‘zbek xalqining kelib chiqishi xususida ilmiy xulosalar berdi. Bu ilmiy xulosalarga ko‘ra, har bir xalqning kelib chiqish tarixi ikki bosqichdan iborat. Birinchi bosqich – **etnogenez**, ikkinchi bosqich – **etnik tarix**. Xalq tarixining etnogenez qismi uning elat, xalq bo‘lib shakllanishiga qadar bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. U juda uzoq davom etadigan tarixiy va etno-madaniy jarayon. Uning ibtidosi qabila va qabila ittifoqidan boshlanadi. Qachonki, aynan o‘rganilayotgan xalqning etnogenezi yakunlangach, uning etnik tarixi boshlanadi. Etnik tarix ham juda uzoq davom etadigan tarixiy va etno-madaniy jarayon bo‘lib, u o‘z rivojining ma’lurn nuqtasiga yetgach, uning millat bo‘lib shakllanish jarayoni boshlanadi. Mana shu ilmiy-metodologik asosdan kelib chiqqan holda xalqlarning etnogenezi va etnik tarixi o‘rganiladi. Har bir xalq hozirda yashab turgan hududlari bilan azaldan bog‘liq. Dunyoda biror xalq yo‘qki, o‘zining etnogenez bosqichida mintaqa-

¹ Asqarov A. O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. T.: “Universitet”, 2007; Shoniyozov K. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni. T.: “Fan”, 2001.

dagi boshqa etnik birliklar bilan aralashmagan bo'lsa. Bundan o'zbek xalqi ham mustasno emas. Shunday ekan, Movarounnahr va qadimgi Xorazm hududlarida yashagan qadimiy qabila va elatlarning uzoq yillar davomida aralashuvi, qorishuvi jarayonida o'zbek elati xalq bo'lib shakllandi.

Etnogenez va etnik tarixni o'rganishda birinchi navbatda o'rganilayotgan xalq etnogenezining qachondan boshlanganligini aniqlab olmoq lozim. Chun-



O'zbek xalqi tarixiy ijodlari

Qadimgi xalqlar

- ko'chmanchi o'troq bo'lingan xorazmliklar, sogdiyalar, baqtriyaliklar
- yevropoid irqiga mansub bo'lgan
- sharqiy-eron tilida so'zlashgan

Bexiston qoyasidagi xalqlar



ki, etnos faqat kishilik taraqqiyotining ma’lum bir bosqichida paydo bo‘ladi. Etnogenezning boshlang‘ich nuqtasi esa etnosning qadim zamonlarda yashagan “ajdodlari”ga borib taqaladi. O‘zbek xalqining qadimgi ajdodlari Movarounnahr va qadimgi Xorazmning ikki til lahjalarida so‘zlovchi tub joyli o‘troq va chorvador aholisi bo‘lib, bu qabila va elatlarning birinchi bor bir-birlari bilan aralashish jarayoni o‘zbek etnogenezining boshlanishi, dastlabki nuqtasi hisoblanadi.

Sovet davrida to‘plangan arxeologik va antropologik materiallarni qayta ko‘rib chiqish, ular tahliliga xolislik asosida yangicha yondashish, mustaqillik bergan g‘oyaviy erkinlikdan foydalangan holda o‘tgan asrning 90-yillaridan boshlab, o‘zbek xalqi etnogenezining boshlang‘ich nuqtasi rosa ming yilga qadimiylashtirildi. O‘zbeklarning ikki xil tilda so‘zlashuvchi ilk ajdodlarining nafaqat iqtisodiy va madaniy, balki etnik jihatdan ham bir-birlariga yaqinlashish, aralashish, qorishish jarayoni so‘nggi bronza davridan boshlanadi, degan xulosaga kelindi. Olimlarning bunday o‘ta mas’uliyatli xulosaga kelishida Xitoy qadimiy yozma manbalari katta rol o‘ynadi.

2. O‘ZBEK XALQINING SHAKLLANISHI VA UNING BOSQICHLARI

Xitoy qadimiy yozma manbalari tahliliga ko‘ra. Shimoliy Xitoy hokimliklari “shi”larning xotiranomalarida “Shya” va “Shong” kichik podsholiklarining shimoliy va g‘arbiy chegaralarida mil.avv. III ming yillikning ikkinchi

yarmi va II ming yillik davomida “Xu” va “Di” nomlari ostida chorvador qabilalar yashagan. Aynan shu vaqtda arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, bu joylarda, ya‘ni Shimoliy Xitoy kichik podsholiklarining shimoliy va g‘arbiy chegaralarida andronova madaniyati qabilalari keng tarqalgan edi. Ular Xitoy “shi”lari aytganidek, chorvador qabilalar bo‘lib, Shimoliy Xitoy hokimliklariga tinchlik bermaganlar. Buyuk Xitoy devorining paydo bo‘lishi ham ana shu ko‘chmanchi chorvadorlarning shimoliy Xitoy kichik podsholiklarining ekinzorlarini tez-tez payhon qilaverganlaridan boshlab yuz bergan. Sharqiy Xan tarixchisi Chjeng Shyuan aytganidek, “xu” hozirgi “syunnu”, ya‘ni xunlar edi. Demak, chorvador “xu”lar turkigo‘y qabilalar bo‘lib, “xu”ning avlodlari “di”lar, “dingling”, “tingling”, “tele” va “turo”lar ham turkiy qabilalar hisoblanadi. Shunday qilib, o‘zbek etnogenezining boshlanishi mil.avv. II ming yillikning oxirlarida yuz berdi. Bu davrda esa O‘rta Osiyo hududlarida, jumladan, Movarounnahr va Qadimgi Xorazmda nafaqat eroniy tilli qabilalar, balki turkiy tilli qabilalar ham keng tarqalgan edi. Ularning moddiy madaniyat yodgorliklari O‘rta Osiyo hududlarining barcha mintaqalarida o‘rganilgan. Ularning Qadimgi Xorazm hududlarida istiqomat qilgan qabiladoshlari nafaqat chorvachilik bilan, balki mil.avv. II ming yillik oxirlarida o‘troqlashib, dehqonchilik bilan ham shug‘ullanganlar. Shu tariqa arxeologlarning o‘tkazgan tadqiqotlari o‘zbeklarning so‘nggi bronza davrida yashagan turkigo‘y ajdodlari ham o‘troqlasha boshlaganligidan guvohlik beradi.

Xalqning to‘liq shakllanishida uning etnosi bo‘lishi lozim. U kishilik taraqqiyoti ma‘lum bir bosqichining hosilasi. Xalq etnosi o‘zining shakllanish jarayonida, ya‘ni etnogenez bosqichida va undan keyin ham har xil tarixiy sabablarga ko‘ra, uning tarkibiga yangidan-yangi etnik qatlamlar qo‘shilib boradi. Bu tabiiy hol. Dunyoda hech bir xalq yo‘qki, u o‘z etnogenez jarayonining ilk bosqichlaridan to millat darajasiga ko‘tarilgunicha boshqa etnik qo‘shilmalarsiz rivojlangan bo‘lsa. Demak, yer yuzining barcha xalqlari kelib chiqishi jihatidan ko‘p etnik qatlamlidir. O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Darhaqiqat, o‘zbek xalqi etnogenezining ilk bosqichlaridan to xalq sifatida shakllanib bo‘lguniga qadar uning asosiy tarkibini tashkil etgan avtohton sug‘du-xorazmiy va qadimgi turkiy zabon etnik qatlamlardan tashqari o‘ziga turli davrlarda har xil miqdorda mahalliy va tevarak-atroflardan kelib qo‘shilgan etnik guruhlarini singdirib bordi.

Har bir xalqning etnik tarixini o‘rganish etnik birlikning shakllanish jarayonini ilk bosqichdan boshlashni taqozo etadi. Etnik birlikni paydo bo‘lishi, rivojlanishi va uning yuqorida zikr etilgan ijtimoiy etnosga aylanishi juda qadim zamonlardan boshlanib, to uning xalq bo‘lib shakllanishiga qadar davom

etadigan butun bir tarixiy jarayondir. Etnos tarixining muhim bosqichlaridan biri esa, uning uzil-kesil shakllanish jarayonini nihoyasiga yetishidir. Agar bu etnos shakllanishi nihoyasiga yetgan bo'lsa, unga keyinroq qo'shilgan etnik komponentlar shakllangan tarkibini o'zgartirib yubora olmaydi, balki uning tarkibida etnografik guruhlar sifatida uzoq vaqtlar yashab, ma'lum bir tarixiy voqelik ta'siridan so'ng bu etnos tarkibiga singib ketadi. Masalan, shunday holat o'zbek xalqi tarixida yuz bergan, ya'ni XI-XII asr birinchi yarmida uzil-kesil shakllangan o'zbek xalqi tarkibiga XIII asr birinchi yarmidagi mo'g'ul istilolari va XVI asr boshlarida O'rta Osiyoga shayboniylarning kirib kelishi munosabati bilan o'zbek xalqi tarkibining asosi o'zgarib qolmadi, aksincha, ular janubiy Sibir antropologik tipining timsoli sifatida Zarafshon vodiysi, Surxondaryo va Qashqadaryoning tog' oldi va cho'l mintaqalarida uzoq vaqt alohida etnografik guruhlar bo'lib yashayverdilar. Ularning badavlat, aslzoda tabaqasi shaharlarga o'rtnashib, O'rta Osiyo o'zbek xonliklarini boshqarsalar ham, ularning mahalliy tub joyli aholi tarkibiga singishi juda sekin kechdi.

O'zbek xalqi kelib chiqishi bo'yicha ikki xil tilda so'zlashuvchi qabila va elatlarning aralashishi va qorishuvidan tarkib topgan ekan, bu ikki tilda so'zlashuvchi jamoalarning etnik jihatdan dastlabki aralashuvi arxeologik va antropologik materiallarga ko'ra, so'nggi bronza davrida yuz berdi. Bu davr o'zbek xalqi etnogenezining birinchi bosqichidir.

So'nggi bronza davridan boshlangan assimilyatsiya jarayoni antik davriga kelib, o'zbek xalqiga xos iqtisodiy xo'jalik, etno-madaniy va antropologik tip birliklarini o'zida mujassamlashtiruvchi, o'troq hayotga moslashtirilgan turkiy hududiy maydon tarkib topdi, o'zbek xalqiga xos antropologik tipning makon va zamoni aniqlandi. Bu hududiy maydon Sirdaryoning o'rta havzasi bo'lib, milodiy I-II asrlarda mana shu hududda o'zbek xalqiga xos antropologik tip – "O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i tipi" shakllandi. Bu hududda turkiy va sug'diy tilli qabilalar ittifoqi asosida Qanxa (Qang') davlati tashkil topdi. Ushbu mintaqada iqtisodiy-xo'jalik va etno-madaniy hayotidan guvohlik beruvchi "Qavunchi madaniyati" vujudga keldi. "Qavunchi madaniyati"ni shakllanishida turkiy zabon xun qabilalari va qang'liklar katta rol o'ynaganlar. Bu o'zbek xalqi etnogenezining **ikkinchi bosqichi** bo'lib, bu bosqichda, ya'ni milodiy I-II asrlar davomida turkiygo'y **qang'ar** elati ham tashkil topdi.

O'zbek xalqi etnogenezining **uchinchi bosqichi** ilk o'rta asrlar davrini o'z ichiga oladi va bu davr kushonlar imperiyasi va Qang' davlatining inqirozi bilan boshlanadi. O'rta Osiyo hududlariga turkigo'y xiyoniylar, kidariylar, eftaliylar va Turk xoqonligi va ular bilan birga kirib kelgan qabilalar tarkibida qarluq, chig'il, tuxsiy, arg'un, turk, kaltatoy, musabozori kabi turkiy zabon qa-

bilalar ko'p edi. Ularning ko'pchiligi mahalliy tub joyli aholi bilan aralashib yashay boshladi, ularga xos an'anaviy hayot tarzi O'rta Osiyoning tog' oldi mintaqalarida yarim o'troq, yarim ko'chmanchilik bilan kun kechirayotgan turkiylarda davom etdi, badavlat chorvadorlar esa yangi yaylovlar qidirib keng dashtlarga qaytdilar. Ilk o'rta asrlarda turkiy qabilalarning bu zaminga kirib kelishining keti uzilmadi. O'zbek xalqi etnogenezining bu uchinchi bosqichi jarayonlarida deyarlik yuz yil hukmronlik qilgan Turk xoqonligi davlati ham muhim rol o'ynadi. Ular hukmronligi davrida o'lkaning turkiylar kirib kelmagan biror joyi qolmadi hisob.

Turk xoqonligi davrida O'rta Osiyoning Markaziy mintaqalarida, turkiy zabon aholidan tashqari, tub yerli aholining salmoqli qismi fors-eron tilli aholi bo'lib, ular turkiy tilli etnoslar bilan qisman aralashib ketganlar. Bunday o'zaro aralashuv Qang' davlati doirasida mavjud bo'lgan edi. Eftalit va turk xoqonliklari davrida ham ikki til turkumdagi aholining bir-birlari bilan singib ketishi davom etgan. Ana shu aralashuv natijasida ilk o'rta asrlarda o'zbek va tojik elatlari vujudga kelgan. Bu xalqlarning antropologik tipi fanda **Pomir-Farg'ona** tipi nomi bilan atalgan.

Movarounnahr yerlarini arablar egallagach, ular bu zaminga turkiy qabilalarning muntazam kirib kelishini to'xtatish yo'lini qidirdilar. VIII asr davomida bu zaminga oldinroq kelib o'rnashgan turkiylarning o'troqlashishi jadallashdi. Natijada, VIII asrda Movarounnahr hududlarida yaxlit turkiy etnik qatlam, jonli turkiy til muhiti vujudga keldi, mahalliy sug'diy zabon aholi orasida turkiylashish jarayoni jadallashdi. Bu davrda nafaqat shahar aholisi tarkibiga, balki qishloq aholisi ichiga ham o'zbeklarga xos tip – "O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i tipi" kirib bordi. IX-X asrlarda ham bu etnogenetik jarayon, ya'ni turkiylarning o'troq hayotga o'tishi jadal davom etadi va garchi siyosiy hokimiyat somoniylar qo'lida bo'lsa-da, Movarounnahr va Xorazmda turkiy etnik qatlam kuchli etnik asosga ega bo'ldi. Bu kuchli etnik asosni aksariyat ko'pchiligini o'troqlashgan turg'un turkiylar tashkil etardi. Bu davr o'zbek xalqi etnogenezining **to'rtinchi bosqichi** edi.

X–XII asrlarda Movarounnahr va Xorazmda siyosiy hokimiyat turkiy sulolalar qo'lga o'tishi munosabati bilan o'zbek xalqi etnogenezining yakunlovchi **beshinch** bosqichi boshlanib, mintaqada o'zbekka xos turkiy etnos qaror topadi, elatga xos barcha etnik omillar ro'yobga chiqadi. Umumturkiy til – Mahmud Koshg'ariy tili ichidan qarluq-chigil lahjalari asosida elatning jonli sifatida eski o'zbek tiliga asos solinadi. Shu tariqa, o'zbek elati xalq sifatida XI asr va XII asrning birinchi yarmida uzil-kesil shakllanadi. Bu jarayon o'sha davrdagi G'arbiy Qoraxoniylar davlati doirasida yuz beradi.

Qadimda Movarounnahr va unga tutash mintaqalarda turg'un yashovchi aholi so'g'diylar, xorazmiylar, turkiy zamon etnoslar o'z hududlarida qadimdan yashab, bo'lajak o'zbek elatining poydevorini tashkil qilganlar. O'rta Osiyoning o'troq voha aholisi sug'diylar, xorazmiylar, baqtriyaliklar, parkanlar, chochliklar nomi bilan yuritilgan. Ular yashagan vohalarni o'rab olgan dashtlarda esa chorvador ko'chmanchilar yashar edi. Ular Ahamoniylar bitiklarida saklar deb, yunon manbalarida skiflar deb yuritilgan. Asosiy xo'jaligi chorvachilik bo'lgan bu aholining yurti "Avesto"da Turon deb atalgan. Bularni o'zbeklarning qadimgi etnik qatlamiga oid deb tushunmoq kerak. Bu bronza davriga to'g'ri kelib, bu davrda Movarounnahrda birinchi bor turkiy zamon qabilalar kirib kelgan. Mazkur bosqichda zardushtiylik e'tiqodlari bo'yicha inson hayotining mohiyati HALOL va POKLIK bo'lgan, inson ezgu fikr, ezgu amal orqali yomonlik bilan kurashgan. Bu davrdagi ajdodlar yutug'i Sharq (Xitoy, Hindiston) va G'arb (Rum, Yunon) madaniyatiga ijobiy ta'sir qilgan. Keyin milodiy II-III asrlarda turkiy tilli etnoslarning iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti rivojlanib, milodiy IV-V asrlarda yangi Qang'ar elati shakllangan. "Avesto"da asosiy xo'jaligi chorvachilik bo'lgan bu kishilar **Turlar** nomi bilan atalgan.

Milodiy VI-VII asrlarda turk va sug'd tilli xalqlarning o'zaro yaqinlashish, aralashish jarayoni davom etgan. Natijada ikki qardosh o'zbek va tojik xalqlarining shakllanishiga iqtisodiy va etno-madaniy sharoitlar yaratilgan.

IX-X asrlarda o'zbek xalqi elat bo'lib shakllangan. Ma'lumki, o'zbek va tojik elatlari sak-massagetlar, baqtriyalar, yuechjilar-qang'arlar, xunlar, sug'diylardan tomir olgan. Lekin ularni har biriga xos tili, o'zligini anglashi kabi farqli xususiyatlari mavjud bo'lib, har bir elat ana shu xususiyatlari bilan bir-biridan farq qilgan.

XI asrda ham Movarounnahr va unga tutash mintaqalarda yashovchi aholi etnik, iqtisodiy va madaniy jihatdan bir-biri bilan yaqinlashib, qorishib boradi. Bu bosqichda islom dini ta'sirida ilm-fan, ma'rifat taraqqiy etgan. Imom Buxoriy, at-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro tariqatlari ravnaq topgan. Ahmad Farg'oniy, Al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi allomalar jahon ilm-fani, madaniyati taraqqiyotiga o'z hissalarini qo'shgan.

Bu allomalarning asarlarini G'arb mamlakatlarida tarqalishi Yevropa madaniyatiga ta'sir etib, Yevropa uyg'onishi – "Renessansi"ni vujudga keltirdi, ya'ni Yevropani ming yillik "uyqu"dan uyg'otdi. O'zbek xalqining shakllanish jarayonining yakunlovchi bosqichi XI asrning o'rtalaridan XII asrning o'rtalarigacha davom etib, elatga xos etnik belgilarning rivojlanishi me'yoriga yetadi.

3. “O‘ZBEK” ATAMASI VA UNING KENG YOYILISHI

“O‘zbek” atamasining tom ma‘nosi “o‘z” va “bek” so‘zlaridan iborat bo‘lib, “Asl bek” demakdir. Bu – o‘zbeklar XVI asr boshlarida Shayboniyxon boshchiligida Movarounnahrda kirib keldi va sulolaviy hukmronlikni temuriylardan tortib olib, bu o‘lkaga o‘zbek nomini olib kirdi va bu nom bugungi kundagi o‘zbek xalqi etnik nomiga aylandi.

Eng yangi etnografik tadqiqotlarga asoslanib, o‘zbekni quyidagicha ta’riflash mumkin: “O‘rta gavdali, bug‘doy rang, sochi qora va qizg‘ish-qo‘ng‘ir, soqoli qora, ko‘zi qora va ba’zida kulrang, burni kichkina va to‘g‘ri, lablari qalin, tishlari oq va sog‘lom, peshanasi to‘g‘ri, qosh usti kam bo‘rtib chiqqan, qoshlari yoysimon, iyagi yirik, yuzi serqirra, qulog‘i katta va ajralib turadi, oyoq-qo‘li mehnatda toblangan, gavdasi risoladagidek”.

O‘zbeklar boshqa millatlardan ochiq ko‘ngilliligi, mardligi, jiddiyiligi, vatanparvarligi, insonparvarligi, mehr-muruvvatliligi, mehmondo‘stligi, kechirimliligi, mehnatsevarligi, ona va ayollarni e‘zozlashi, otalarni hurmat qilishi, yaxshilik qilish kabi qadimiy an‘analarni saqlab qolishi bilan ham farqlanadi. Shu bilan birga o‘zbeklarning “oilaviy munosabatlarini asl namuna deb hisoblasa bo‘ladi”, deb yozib qoldirgan edi Xerman Vamberi.

Uzoq yillar davomida o‘zbek xalqiga berilgan nom – “O‘zbek” atamasini tushuntirishda g‘arazli fikrlar bildirilib kelindi va bu fikrlar darslik, qo‘llanma va boshqa tarixiy asarlarga ham kiritildi. Xalqni O‘zbekxon va Atilalar bilan bog‘lab, bizni mo‘g‘ullar va xunlar vorisiga chiqarib qo‘yishdi. Tarixga mehr qo‘ygan, uni haqiqiy va xolisona yaratishga rahnamolik qilgan yurtboshimizning: “Kimgadir voris bo‘lish kerak bo‘lsa, biz Beruniylarga, Buxoriylarga, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Mirzo Boburlarga voris bo‘lamiz”¹, degan fikrlari o‘zbek xalqining haqqoniy kelib chiqishi borasida yangicha, xolisona ilmiy konsepsiyaning yaratilishiga turtki bo‘ldi. Kimlarningdir bizga “o‘zbek nomini O‘zbekxondan olgansiz”, degan fikrlari asossiz bo‘lib chiqdi.

O‘zbekxon (asl ismi Sulton Muhammad) 1312–1342-yillarda Oltin O‘rda davlatini boshqargan hukmdor. Xon saylovi qurultoyida unga O‘zbekxon unvonini beriladi, ya’ni o‘zbeklarning xoni deb e’tirof etiladi. Bu dalil to uning xonlik taxtiga chiqquncha uni saylaganlar o‘zlarini o‘zbeklar deb hisoblaganliklarini bildiradi. Demak, mo‘g‘ullar Oltin O‘rda davlatini tashkil qilgunlaricha ham, Dashti qipchoq deb ataluvchi hududlarda yashovchi “o‘zbek ulusi” bo‘lgan.

¹ Karimov I. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q”. T.: “Sharq”, 1998, 16-b.

Yozuvchi Abduqahhor Ibrohimov o‘zbek atamasi xuddi turk so‘zining ma‘nodoshi bo‘lib, o‘ziga ishonuvchi, mustaqil fikrlovchi va ish tutuvchi, botir, mard, yovqur, chekinmas singari fazilatlarini anglatadi¹, deb yozadi.

O‘zbekxon va uning vorisi Jonibek Sulton (1342–1357) hukmdorlik qilgan davrlarda Oltin O‘rda davlatini Misr va boshqa arab mamlakatlari-ning tarixchilari “Mamlakati o‘zbek” deb, yunon, rum, fors tarixchilari esa “O‘zbekiya” deb o‘z asarlarida yozadilar. Mirzo Ulug‘bek esa “To‘rt ulus tarixi” asarida O‘zbekxonning hokimiyat tepasiga kelishini “O‘zbek ulusi unga berildi” deb yozadi. Uning fikricha, Oltin O‘rda davlati Sulton Muhammad – O‘zbekxongacha ham “O‘zbek ulusi” deb atalgan. O‘zbek atamasi Oltin O‘rda davlatida yashagan, islom dinini qabul qilgan Orlot, Bahrin, Burgut, Do‘rmon, Qitoy, Qorluq, Mojoy, Qipchoq, Qiyot, Qo‘ng‘irot, Mang‘it, Nayman, Nukuz, Tang‘ut, Qushchi, Ming kabi turkiy qabilalar uyushmasini, ya‘ni o‘zbek xalqi ma‘nosini va shu xalqqa tegishli mamlakatni bildirgan. XIII asrning ikkinchi yarmi, XIV asrda yashagan Sharq tarixchilari tomonidan bu xalq umumiy nom bilan o‘zbek deb atalgan. Mirzo Ulug‘bekka zamondosh mashhur tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy “Matlai sa‘dayn va majmai bahrayn” (“Ikki saodatli yulduzning chiqish va ikki dengizning qo‘shilish joyi”) asarining ikkinchi jildi birinchi qismida XV asrning birinchi choragida yuz bergan voqealarni bayon etganida “O‘zbek viloyati”, “O‘zbek mamlakatlari”, “O‘zbek ulusi” haqida to‘xtalib o‘tadi.

XX asr boshlarida yashab ijod etgan shoir Fitrat o‘zining “Abulfayzxon” nomli tragediyasida “O‘zbek o‘g‘lonlari botir bo‘lurlar”, deb yozgan edi.

Shu tariqa XVI asr boshida Dashti qipchoq o‘zbek davlati sardori Muhammad Shayboniyxonning O‘zbekistonni egallashi va shu davrdan boshlab o‘zbek urug‘lari vakillarining bu yerga kirib kelib, o‘troqlashishi bilan mahalliy xalqqa nisbatan ham o‘zbek nomi ishlatila boshlangan.

Tarixiy manbalarda o‘zbek urug‘lari haqida ham ma‘lumotlar keltirilgan. Ayrim manbalarda bu masalada 92 raqami ko‘rsatilsa, ayrimlarida urug‘lar soni 100 dan ortiq bo‘lganligi aytiladi.

Quyida biz ularning nomlarini keltirib o‘tamiz.

1. Ming	7. Arg‘in	13. Jit	19. Oymavut
2. Yuz	8. Burloq	14. Juyut	20. Ulati
3. Ungajit	9. Bo‘zloq	15. Saljovut	21. Chulegen
4. Qirq	10. Chemarchin	16. Tomo	22. Qishlik
5. Nayman	11. Bo‘zay	17. Mang‘it	23. Mechet
6. Qipchoq	12. Katay	18. Qangit	24. Kirderi

¹ Ibrohimov A. “Biz kim o‘zbeklar”. T.: “Sharq”, 2001, 48-b.

25. Ramadon	53. Qangli	81. Tumay
26. Juyrat	54. Uzje buluji	82. Kurlovut
27. Bo`zachi	55. Upulachi	83. Jilkash
28. Uysun	56. Gulun	84. Yugur
29. Tatar	57. Boyovut	85. Yobu, (Yobaku)
30. Tipov	58. Utarchi	86. Muytan
31. Shirin	59. Arlot	87. Mashor
32. Agir	60. Keroyit	88. O`g`uz
33. Bo`zan	61. Ungqut	89. Kujalik
34. Barlos	62. Kachat	90. Churan
35. Baxrin	63. Merkat	91. Churchunt
36. Mo`g`ul	64. Burqut	92. Qurama
37. Nukuz	65. Quralash	93. Elbek
38. Jaloyir	66. Qarlon	94. Tolmas
39. Ung	67. O`g`lon	95. Chig`atoy
40. Saroy	68. Turkman	96. Laqay
41. Qo`ng`irot	69. Kudey	97. Qushchi
42. Olchin	70. Do`rmon	98. G`onchi
43. Chichok	71. Tobin	99. Iyjon
44. Qalmoq	72. Mumun	100. Bijanak
45. Oyrat	73. Aday	101. Chimboy
46. Qarluq	74. To`qsoba	102. Duldoy
47. Turgovut	75. Qirg`iz	103. Tuboy
48. Qatag`on	76. Uyruji	104. Shunqorli
49. Kilechi	77. Jurga	105. Shodboqli
50. Kenagas	78. Batash	106. Uyg`ur
51. Buyrak	79. Kuygun	107. Echki
52. Qiyot	80. Sulduz	

Bu urug`lar orasida ayrim davrlardagi davlatchilikka asos solgan va boshqargan sulolalar ham bor. Masalan, buyuk sohibqiron Amir Temur barlos urug`i vakili bo`lgan bo`lsa, Qo`qon xonligini minglar, XIX asr boshlaridan Xiva xonligini qo`ng`irotlar, Buxoro amirligini esa mang`itlar boshqargan.

4. O`ZBEK XALQI YOZUVLARI VA TILI

O`zbeklar qadimdan o`z yozuv va tiliga ega bo`lgan. Akademik A.Asqarovning yozishicha, ular asosan arxeologik izlanishlar davomida turli yillarda topilgan mahalliy aholining xorazmiy, bohtariy, sug`diy, qadimgi turkiy va "noma'lum yozuv" deb atalmish noyob yozma yodgorliklari bo`lib, ular Parfiya davlatining poytaxti Eski Nisadan topilgan podsho arxivi,

Tuproqqal'adan topilgan qadimgi Xorazm podsholarining arxivi, Mug'qal'a qasridan topilgan sug'd hujjatlari, Baqtriya hududlaridan topilgan diniy, axloqiy-falsafiy mazmundagi ibodatxona hujjatlaridir. Bulardan tashqari, qadimgi Dunxuandan topilgan, samarqandliklarga tegishli oilaviy xatlar, Afrosiyobdan topilgan savdo qarz tilxati va elchilik nomalari, tangalardagi yozuvlar, bizga "noma'lum yozuv" sifatida yetib kelgan qadimgi turkiy yozuvlar hisoblanadi. Ular toshga, sopolga, charmga, yog'ochga, metallga, qog'ozga va boshqa buyumga bitilgan matnlar, shaxsiy maktublar, xo'jalik, huquqiy va diplomatik hujjatlar, diniy, axloqiy-falsafiy matn parchalari hamda ko'plab numizmatika materiallari, ya'ni tanga yozuvlari edi, ular qisqa va juda kam bo'lsa-da, O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi tarixi va madaniyatini o'rganish uchun qimmatli ma'lumotlarni beradi.

Yozuvlar besh ming yillik tarixga ega. Yozuv dastlab suratli yozuv sifatida Misrda paydo bo'ldi, ya'ni grammatik va semantik aniqlagich belgilari (determinativlar)dan iborat iyerogliflar yaratildi. So'ng qadimgi Shumerda so'z va bo'g'in ifoda etuvchi mixxat yozuv tizimi shakllandi. Shom (Suriya) o'lkalarida mil.avv. XIII-XII asrlargacha qo'llanib kelingan, bo'g'inlab o'qishga mo'ljallangan mixxat yozuvlar tajribasidan foydalanib, finikiyaliklar jahon ahamiyatiga molik yozuvni ixtiro qiladilar. Bu yozuv tarixda birinchi bo'lib, inson nutqi ayrim tovush birliklaridan iborat ekanligini, shu tovushlar birikmasidan so'zlar hosil bo'lishini anglatadi. Shunday qilib, finikiyaliklar alifboni ishlab chiqishdi. Ammo bu alifboda unli belgilar uchun maxsus harflar yo'q edi.

Ana shu yozuvdan miloddan taxminan 1000 yillar avv. Oromiy yozuvi ajralib chiqadi. Bu yozuv namunalari toshlarga bitilgan ahamoniy podsholarining (mil.avv. VI – IV asrlar) kitoblarida, Behistun qoyatosh bitiklarining mashhur "70 bandi"da o'z aksini topgan. Oromiy yozuvi va unga asoslangan boshqa yozuvlar alfaviti 22 ta harf-belgi asosida qurilgan.

O'rta Osiyoning qadimgi xalqlari oromiy alifbosi asosida o'z yozuvlarini kashf etganlar. Oromiy yozuvi asosida yaratgan yozuvlar qadimgi Xorazm, Parfiya, Bohtariy, Sug'd, Turkiy va "noma'lum yozuv" deb nomlangan yozuvlardir.

Qadimgi Xorazm yozuvi. Shimoliy Xorazmda "Katta Abuyir-qal'a" yodgorligidan xum qorniga yozilgan oromiy yozuvi nusxasi topilgan. Ushbu xum mil.avv. IV asrga oid. Xorazm tiliga moslab kashf etgan xorazmiy yozuvining namunasi mil.avv. IV asrning oxiri III asr boshlariga oid yodgorlik Qo'yqirilganqal'adan topilgan, u atigi bitta so'zdan, ya'ni sopol parchasiga yozilgan "ASPABAREK" so'zidan iborat bo'lib, otliq askar, sipohiy degan

ma'noni beradi. Xronologik jihatdan navbatdagi xorazmiy yozuvi milodiy I–VIII asrlar oralig'ida zarb etilgan qadimgi Xorazm tangalarida uchraydi.

Parfiya yozuvi. Parfiya davlatining poytaxti Mixrdatkirt qal'adan (Eski Niso) sopolakka yozilgan 2700 dan ko'proq parchalar topilgan. Ushbu yozuv parchalari asosan xo'jalik hujjatlaridan iborat. Parfiya yozuvi oromiy yozuvi asosida podsho Mixrdatkirt I davrida (mil.avv. II asr o'rtalarida) ishlab chiqilgan 22 ta harfdan iborat. Bu yozuv mil.avv. II-III asrlarda mamlakat bo'ylab keng tarqalgan.

Bohtariy yozuvi. Mil.avv. IV asr oxirigacha qadimgi Baqtriya hududlarida oromiy yozuvi ishlatib kelingan. Keyin Baqtriyada mahkama tili va yozuvi yunon tili bo'lgan. Taxminan mil.avv. III-II asrlar chegarasida oromiy yozuvi asosida bohtariy yozuvi ishlab chiqiladi. Oyxonim yodgorligida mil.avv. II asr birinchi yarmiga tegishli bohtar yozuvi topilgan. Qadimgi Baqtriyada o'sha asrlarda boxtar va yunon tili va yozuvi, braxma va kxorashta yozuvlari ham muomalada bo'lganligini tasdiqlovchi yozma va numizmatika materiallari topilgan.

Kushonlar davlat tepasiga kelgach, bohtar tili va yozuviga katta yo'l ochiladi. Kanishka davrida bohtariy tiliga davlat tili maqomi berilgach, bohtar tili va yozuvi barcha sohalarga kirib borib, yunon tili va yozuvini siqib chiqaradi. Budda dini ibodatxonalari peshtaxtalarida bohtar tili va yozuvida Kanishka va uning vorislarining farmonlari o'z aksini topadi.

Sug'd yozuvi. Mil.avv. III-II asrlarda oromiy yozuvi asosida shakllangan sug'd yozuvi o'lka madaniyati tarixida muhim rol o'ynadi. Bu yozuv ijtimoiy va madaniy hayotning barcha sohasida keng qo'llanilgan. Sug'd tili va yozuvi Sug'diyona hududlaridan tashqari, Farg'ona vodiysida, Toshkent vohasida va Yettisuvda keng yoyilgan. Era boshlaridan to XI asrning birinchi choragiga qadar yozilgan ko'plab noyob yozma yodgorliklar Sug'd yozuvi orqali bugungi kungacha yetib kelgan.

Sug'd yozuvi 22 ta harf-belgidan iborat. Sug'dda kumush tangalar zarb etilib bozorga chiqqach, sug'd savdogarlarining ishi yurishib, savdo karvonlari va savdogarlar Sharqning uzoq o'lkalariga kirib borgach, ular bilan birga, o'sha joylarga sug'd yozuvi ham kirib borgan. Bu fikrning dalili sifatida 1889-yilda Mo'g'ulistonda topilgan sug'd yozuvini ko'rsatish mumkin. Mo'g'ulistonda XI asrda hukmronlik qilgan uyg'ur xoqoni sharafiga qabr ustidagi plitaga yozuv sug'd yozuvi yodgorligi edi.

Sug'd yozuvi ko'p sohalarga kirib borgan. Masalan, Pahlavon Rustam to'g'risidagi xalq dostonida "Kalila va Dimna" to'g'risidagi ikki parcha sug'dcha bayon qilingan.

Qadimgi turkiy yozuv. Qadimda sugʻdiy, bohtariy va xorazmiy yozuvlari qatorida oromiy alifbosi asosida turkiy yozuv ham kashf etilgan. Hozirgi vaqtda Osiyo va Yevropaning turli mintaqalarida topilgan bu yozuvdagi yodgorliklar soni 300 ga yaqinlashib qoldi. Dastlab ular Yenisey va Oʻrxun daryolari havzalaridan topilib, belgilarning oʻziga xos runiysimon shakliga koʻra, “Oʻrxun-yenisey runiy yozuvi” deb atala boshladi. 38 ta harfdan iborat bu yozuv Janubiy Sibir, Markaziy Osiyoning turkiy zabon qabila va elatlari oʻrtasida keng tarqalgan. Runiy yozuvlarining kattagina qismi qoyalarga, qabrtoshlarga, toshdan yasalgan odam haykallariga oʻyib yozilgan. Bir qism xatlar esa metallardan ishlangan idishlarda, sopol, tanga, qogʻoz va yogʻochda uchraydi.

Sibir va Shimoliy Moʻgʻulistondan tashqari, runiy yozuvi yodgorliklari Sharqiy Yevropada, Sharqiy Turkiston va Oloyda, Oʻrta Osiyo va shimoli-sharqiy Qora dengiz havzalarida ham uchraydi. Tarixchi olim A.S.Omonjulovning doktorlik dissertatsiyasida taʼkidlanishicha, bu yozuvning paydo boʻlishi mil. avv. I ming yillikka toʻgʻri keladi.

“Nomaʼlum yozuv”. Bu yozuv haqidagi tegishli dastlabki maʼlumot 1954-yilda fransuz arxeologi A.Marik tomonidan bir idish parchasidagi yozuv tadqiqidan boshlandi. Bu birinchi “nomaʼlum yozuv” namunasi edi. 1966-yilda G.A.Pugachenkova ham Xolchayondan “nomaʼlum yozuv” lavhasini topadi. Bu yozuv ham oʻqilmay nomaʼlumligicha qolgan. 1967-yilda Dashti Navur (Afgʻoniston)da qoyaga yozilgan shunday yozuv namunasi topiladi. U eramizning I asriga tegishli boʻlib, uch tilda, yaʼni kharoshta, yunoncha grafika asosidagi bohtariycha va nomaʼlum tilda yozilgan edi.

Bu yozuv namunalari janubiy Oʻzbekistonning Xotinrabot, Qoratepa, Fayoztepa, Toʻqqiztepa, Kampirtepa, Shimoliy Afgʻonistonning Oyxonum yodgorligidan ham topilgan. Keyingi yillarda tadqiqotchilar bu yozuv eng qadimgi turkiy yozuv boʻlishi mumkin, degan farazlarni oʻrtaga tashlamoqdalar.

Endi xalqning tili haqida. Til xalqning maʼnaviy, koʻp asrlik hayotining eng toʻliq va eng haqqoniy yilnomasidir. Oʻz tiliga ega boʻlmagan birorta ham katta yoki kichik boʻlishidan qatʼi nazar ibtidoiy jamoa boʻlmagan. Taxminiy hisoblarga koʻra, dunyoda 1300 xalq va elat boʻlib, 3000 ga yaqin til bor.

Ayrim tillarda juda ozchilik (kamasinilar – 200, karagaslar – 600 kishi) gaplashsa, baʼzi tillar. aytaylik ingliz tilida bir necha davlat xalqlari – Amerika, Angliya, Kanada, ispan tilida esa Meksika, Kuba, Chili kabi 20 dan ortiq Lotin Amerika xalqlari gaplashadi. Demak, bir til ikki va undan ortiq millatga xizmat qilishi mumkin.

Yunon (Grek), Misr kabi mamlakatlarda yozuv mil.avv. paydo boʻlgan. Aynan oʻsha davrlarda oʻzbek yurtida sugʻd, xorazmiy yozuvlari ham rivoj

topgan. Keyinchalik O‘rxun-Yenisey yodnomalari (bular o‘zbek tilining mulki) V-VI asrlarda O‘rxun-Yenisey bo‘ylarida yuzaga kelganligi aniqlangan. Shu bilan birgalikda bir qator xalqlar o‘z yozuvlariga ega emas (ayrim Afrika elatlari, Sibir va Kavkazdagi ba‘zi elatlar XX asrning 20-yillaridagina o‘z yozuviga ega bo‘lganlar).

O‘zbek tili XI asrdan mustaqil til sifatida shakllana boshlagan va XIV asrda umumxalq adabiy tili vujudga kelgan (u davrda o‘zbek tili (turkiy) nomi bilan yuritilgan).

“O‘zbek tili mustaqil til sifatida shakllanguncha, ya’ni XI asrgacha ajdodlar qaysi tilda gaplashganlar?” degan savol tug‘ilishi tabiiy. Hozirgi turkiy tilda so‘zlashuvchi xalqlar va o‘zbeklar XI asrgacha qadimgi turkiy tilda gaplashgan. Masalan, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga yo‘llovchi bilim”) asari qadimgi turkiy tilda yozilgan.

Amir Temur va temuriylar davrida mamlakatning iqtisodiy va etno-madaniy taraqqiyoti rivojlandi, xalq farovonligi yaxshilandi. Ilm-fan va madaniy hayot taraqqiy etdi. Bugungi kunda o‘zbek millati deb atalgan xalq jahonga tanildi. Milliy mushtaraklik, o‘zlikni anglash, o‘zbekka xos milliy mentalitet asoslari qurildi. Adabiy til oldingi asrlarga nisbatan yanada rivojlandi. Bu adabiy til, tilshunoslikka doir adabiyotlarda “turkiy”, “chig‘atay” va “eski o‘zbek tili” deb nomlangan. Eski o‘zbek adabiy tili Alisher Navoiy davrida (XV asrning ikkinchi yarmida) eng yuqori nuqtaga ko‘tarildi. Alisher Navoiy davri adabiy tilining asosini Movarounnahr va uning tevarak-atrof mintaqalarida keng tarqalgan turkiy til tashkil qilgan edi. Ammo turkiy xalqlarning jonli tili ko‘p lahjali bo‘lib, adabiy tildan birmuncha farq qilgan. Adabiy til tarkibida forsiy va arabiy so‘zlar ko‘p uchraydi. Xalqning jonli tili uch lahja asosida qurilgan. Ular qarluq-chigil, qipchoq va o‘g‘uz dialektlaridir. Taniqli elshunos akademik K.Shoniyozovning yozishicha, Movarounnahr va Xorazmda o‘zbek adabiy va jonli tili tojik tili bilan yaqin aloqada rivojlandi. Chunki Movarounnahrning markaziy va janubiy shaharlarida tojik etnik muhiti anchagina edi. O‘qimishli o‘zbek va tojiklar har ikki tilda so‘zlasha olar va erkin yozardilar. Alisher Navoiy aytganidek, turkiylarning barchasi – yosh-u qari, xizmatchi va beklar sarti tilini tushunganlar.

O‘zbek adabiy tili tarixida quyidagi davrlar ajralib turadi:

- 1) Eng qadimiy turkiy til (VII asrgacha bo‘lgan davr);
- 2) Qadimgi turkiy til (VII asrdan XI asrgacha);
- 3) Eski turkiy til (XI asrdan XIII asrgacha);
- 4) Eski o‘zbek adabiy tili (XIV asrdan XIX asrgacha);
- 5) Yangi o‘zbek adabiy tili (XIX asrdan XX asr boshlarigacha);
- 6) Hozirgi o‘zbek adabiy tili.

To'rtinchi davrga xos eski o'zbek adabiy tilining rivojlanishida she'riyat sultoni Alisher Navoiyning hissasi katta. Bu til manbalarda "Chig'atoy tili" ham deb ataladi.

5. O'ZBEK MILLATI. MUSTAQIL O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO HAMJIHATLIKNING TA'MINLANISHI

O'zbeklar xalq bo'lib shakllanishiga qadar urug', qabila, elat kabi uyushuv bosqichlarini bosib o'tdi. Shu bois, bu haqda qisqa ma'lumot berib o'tishni lozim topdik.

Urug' – qadimgi davrlarda bir ota-onadan tarqalgan qon-qarindoshlarning uyushuvi natijasida shakllangan jamoa.

Qabila – qon-qarindosh, tildosh va dindosh bir necha urug'lar uyushmasi. Ular o'z hududiga, qabilaviy tiliga (shevasiga), kengashiga va harbiy boshlig'iga ega bo'lganligi bilan urug'dan farq qiladi.

Elat – elat atamasi qabilalar ittifoqini, til, hudud, iqtisodiy va madaniy birlikka ega bo'lgan kishilarni bildiradi. Elat xalq bo'lib shakllanishidan oldingi bosqichdir. Bundan tashqari, el, aymoq, aholi iboralari ham ishlatiladi.

El – qadimiy turkiy ibora bo'lib, bir joyning odamlari ma'nosini bildiradi. Masalan, Xorazm eli, qipchoq eli, Mang'it eli.

Aymoq – turkiy qabilalardan birining nomi shunday atalgan. Shuningdek, bu atama bir qancha qabila va urug'lar ittifoqi ma'nosini ham bergan.

Aholi – millatidan qat'i nazar, biror davlat, shahar yoki qishloqda yashaydigan umumiy odamlar jamoasiga aytiladi.

Ushbu bobning oldingi mavzularida xalq so'zi (iborasi)ning mazmunini oydinlashtirishga harakat qilindi. Biroq, xalq, uning millatga aylanishi masalalarini aniq bilib, tushunib olish kerak. Uzoq yillar davomida millat, xalq masalalarida fanda chalkashliklar davom etdi. Sovetlar davrida O'rta Osiyo xalqlari etnik atamalariga kam e'tibor berilib, xalq, millat atamalari farqlari oydinlashtirilmadi, faqat istiqlolgina bu masalalarga oydinlik kiritishga imkon yaratdi. O'zbek olimlari bu borada talaygina izlanishlarni amalga oshirib, xalq, millat tushunchalari, o'zbek millatining shakllanishi xususida ilmiy xulosalar berdilar. Bu borada tarixchi olim A.Asqarovning xizmatlarini alohida ta'kidlash lozim.

Olimning yozishicha¹, millat bilan xalq ta'rifi, unga qo'yilgan talablar, daf'atan bir-birlariga o'xshab ketadi. Ammo ular mohiyat jihatidan bir tushunchani anglatmaydi. Birinchidan, eski "izm-izm"lar hisobida aytganda, xalq – feodalizm jami-

¹. *Qarang: Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. 316–318-betlar.*

yatining, millat esa kapitalistik jamiyatning ijtimoiy mahsulidir; ikkinchidan, xalqni uyushtiruvchi etnik omillardan hududiy birlik chegaralari tarix taqozosiga ko'ra, o'zgaruvchan xususiyatga ega. Ammo millat davlat chegaralari qat'iy, daxlsiz, jahon jamoatchilik tashkilotlari tomonidan tan olingan va muhofazali bo'ladi; uchinchidan, xalq shakllangan paytda hammavaqt ham uning etnik nomi bo'lavermaydi. Chunki, odatda har qanday xalq tarixi uning nomiga nisbatan qadimiydir. Xalq millat darajasiga ko'tarilganda uning nomi bo'lishi shart; to'rtinchidan, xalqning siyosiy uyushmasi – davlat tarix taqozosiga ko'ra, hamma vaqt ham etnos nomi bilan atalavermaydi, ammo xalq millatga aylanganda, uning davlat nomi ham millat nomi bilan yuritilishi shart; beshinchidan, etnosning xalq darajasida o'zlikni anglash, milliy g'urur, Vatan fidoyisi bo'lish, o'z xalqidan faxrlanish hissi o'sha davr jamiyati tartib-qoidalariga ko'ra, ko'pchilikda bir xil, yuksak darajada bo'lmaydi. Ammo xalq millat darajasiga ko'tarilganda bu sifatlar yuksak darajada bo'ladi; oltinchidan, etnosning tili xalq darajasida hamma vaqt ham davlat tili maqomini olavermaydi, xalq millat darajasiga ko'tarilganda uning tili albatta davlat tili maqomini oladi (O'zbekistonda bu tarixiy voqea 1989-yil 21-oktabrda yuz berdi); yettinchidan, mentalitet etnosning xalq darajasida emas, balki millat darajasida shakllanadi va nihoyat, sakkizinchidan, millat uzil-kesil shakllanganda davlat jamiyat tomonidan boshqariladi, ya'ni davlat xalq xizmatchisi, barcha sohalarda millat talabi va xohish-irodasini bajaruvchi mexanizmga aylanadi.

Millatni til, hudud va etno-madaniy jihatdan birlashtiruvchi omil iqtisodiy negiz hisoblanadi. Millatning iqtisodiy-xo'jalik birligi asosida til va hudud hamda etno-madaniy birliklar shakllanib boradi. Millatning iqtisodiy va siyosiy birlashishi xalq og'zaki tilining (lahjalarining) yaqinlashishi asosida yagona milliy til – yozma adabiy tilning paydo bo'lishiga olib keladi. Lahjalar o'rnini milliy adabiy til egallaydi.

Hozirgi o'zbek adabiy tiliga davlat tili maqomining berilishi o'zbek millatining mustaqil hayot sari qo'ygan birinchi dadil qadami bo'ldi.

Shu tariqa o'zbek xalqi ham yuqorida ta'kid etilgan omillar va shartlarning to'liq yetilishi natijasida millat sifatida shakllandi.

XX asr 20-yillarida sovetlarning mustamlakachilikni mustahkamlash maqsadida O'rta Osiyo xalqlarini (milliy chegaralanish asosida) bo'lib yuborish tadbirlari ham, 70 yildan ortiqroq davrda mustamlakachilikka asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'naviy tadbirlari ham xalqning millat sifatida shakllanishiga to'sqinlik qilolmadi.

1991-yil 31-avgustda mustaqil O'zbekiston davlati o'zbek millatini uzil-kesil shakllanishining bosh omili sifatida jahon xaritasida paydo bo'ldi.

Mustaqillikning birinchi kunlaridanoq O‘zbekistonning ko‘p millatliliği inobatga olinib, millatlararo totuvlik va hamjihatlikni mustahkamlashga alohida e‘tibor qaratildi. Davlatning bu boradagi siyosati, asosiy yo‘nalishlari butun dunyoda e‘tirof etilgan umumbashariy qadriyatlar va tamoyillarga asoslangan holda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bayon etildi.

Mamlakatda millatlararo totuvlikni mustahkamlash milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasining asosiy vazifalaridan biriga aylandi. Milliy va umumbashariy qadriyatlar turli xalqlar istiqomat qiladigan mintaq va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilab beradigan muhim omilga aylanib, tinchlik va barqarorlikning kafolati bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekistonda millatlararo totuvlikning quyidagi tamoyillariga amal qilinmoqda:

- barcha millatlarning teng huquqliligi;
- millatlararo hamkorlik va hamjihatlikka tayanish;
- turli milliy madaniyatlar rivoji uchun yo‘l ochib berish;
- boshqa millat va elat vakillariga hurmat bilan qarash;
- milliy va umumbashariy qadriyatlarning o‘zaro uyg‘unligi va birligini ta‘minlash.

Mamlakatda mustaqillik yillarida kechgan va kechayotgan jarayonlar rivojida, islohotlar samarasida, o‘tgan 23 yildan ortiqroq davr davomida barcha sohalarida erishgan ulkan yutuqlarda davlatning millatlararo totuvlik va hamjihatlikni mustahkamlashga qaratilgan dono siyosati muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tayanch so‘z va iboralar:

Ikki tilli qabila va elatlar. Turkiy-eroniy til. Etnogenez. Etnos. Qadimgi ajdodlar. O‘zbek xalqining shakllanish bosqichlari. Qang‘ar elati. Turk xoqonligi. Turkigo‘y elatlarning kirib kelishi. Pomir-Farg‘ona antropologik tipi. Qoraxoniylar davri. Yakunlovchi bosqich. Xalqning shakllanishi. O‘zbek atamasi. O‘zbek urug‘lari. Sart atamasi. Turkiylashuv. Yozuvlar. Xalq tili. O‘zbek millati. Mustaqillik va millatlararo hamjihatlik.

Bilimingizni sinab ko‘ring

1. So‘nggi yillarda olimlarning ilmiy xulosalariga ko‘ra, har bir xalqning kelib chiqishi tarixi ikki bosqichdan iboratdir. Birinchi bosqich – etnogenez bo‘lsa, ikkinchi bosqich – uning bir nomdagi tarixidan iborat. Bu tarix shu xalqning etnogenezi yakunlangandan so‘ng boshlanadi va o‘z rivojining

ma'lum nuqtasiga yetgach, xalqning millat bo'lib shakllanish jarayoni boshlanadi.

Bu xalqning qanday nomdagi tarixi?

			i	
--	--	--	---	--

t	a	r	i	x	i
---	---	---	---	---	---

2. O'tgan asrning 90-yillaridan boshlab, olimlarning ilmiy izlanishlari natijasida o'zbek xalqi etnogenezining boshlang'ich nuqtasi rosa ming yilga qadimiylashtirildi. Ilmiy xulosalarga ko'ra, ilk ajdodlarning nafaqat iqtisodiy va madaniy, balki etnik jihatdan bir-birlariga yaqinlashish, aralashish, qorishish jarayoni qadimiy davrlarning biridan boshlanishi ko'rsatildi.

Bu qaysi qadimiy davr?

		o			
--	--	---	--	--	--

d	a	v	r	i
---	---	---	---	---

3. Dunyoda biror xalq yo'qki, o'zining etnogenez bosqichida mintaqadagi boshqa etnik birliklar bilan aralashmagan bo'lsa. Bundan o'zbek xalqi ham mustasno emas. Shunday ekan, Movarounnahr va qadimgi Xorazm hududlari azaliy vatani bo'lgan o'zbek xalqining ilk ajdodlari ikki tillik turkumidagi qabila va elatlar bo'lib, ularning uzoq yillar davomida aralashuvi, qorishuvi jarayonida o'zbek elati xalq bo'lib shakllandi. O'zbek xalqi qaysi (ikki xil) tillarda so'zlashuvchi ajdodlaridan, ya'ni etnik birliklardan tarkib topgan?

	u			i	
--	---	--	--	---	--

v	a
---	---

		o		i	
--	--	---	--	---	--

4. X–XII asrlarda Movarounnahr va Xorazmda siyosiy hokimiyat turkiy sulolalar qo'lga o'tishi munosabati bilan o'zbek xalqi etnogenezining yakunlovchi bosqichi boshlanib, elatga xos barcha etnik omillar ro'yobga chiqqan. Elatning jonli sifatida eski o'zbek tiliga asos solinib, o'zbek elati xalq sifatida XI asr va XII asrning birinchi yarmida uzil-kesil shakllangan. Bu jarayon o'sha davrdagi bir davlat doirasida yuz bergan.

Katakchalarda yashiringan o'sha davlat nomini toping.

	a			i	
--	---	--	--	---	--

	o			o		i		l	a	r
--	---	--	--	---	--	---	--	---	---	---

d	a	v	l	a	t	i
---	---	---	---	---	---	---

5. Mustaqillik o'zbek xalqiga o'zining haqqoniy tarixini yaratish imkonini berdi. Kimlarningdir "o'zbek nomini O'zbekxondan olgansiz", degan fikrlari asossiz bo'lib chiqdi. Hatto, Yurtboshi ham "biz O'zbekxondan emas,

O‘zbekxon bu nomni o‘zbeklardan olgandir”, deganida haq edi. O‘zbekxon 1312-yilda xon saylovi qurultoyida bu nom (unvon)ni olgan edi. O‘shanda O‘zbekxonning asl ismi nima edi?

	u			o	
--	---	--	--	---	--

	u				m		
--	---	--	--	--	---	--	--

6. O‘zbeklar turklikning o‘zagi yoki turklikning bosh bo‘g‘ini, desak xato bo‘lmaydi. Chunki, o‘zbek xalqining shakllanishida deyarli barcha turkiy qavmlar qatnashgan. Bu fikrning to‘g‘riligini qadim Turon markazi Turkiston bo‘lganligi, Turkiston markazi bugungi O‘zbekiston ekanligi ham ko‘rsatib turibdi.

Yana shuni ham aytish joizki, bu haqiqatni O‘zbekistonning qaysidir bir jihatdan egallagan o‘rni ham tasdiqlaydi.

Katakchalarda ana shu jihatning nomi yashiringan. Uni toping.

	u			o		i	
--	---	--	--	---	--	---	--

j	i	h	a	t	d	a	n
---	---	---	---	---	---	---	---

7. O‘zbek adabiy tili tarixida quyidagi davrlar ajralib turadi:

- a) eng qadimgi turkiy til (VII asrgacha);
- b) qadimgi turkiy til (VII–X asrlar);
- v) eski turkiy til (XI–XIII asrlar);
- g) eski o‘zbek adabiy tili (XIV–XVIII asrlar);
- d) yangi o‘zbek adabiy tili (XIX–XX asr boshi);
- e) hozirgi o‘zbek adabiy tili.

To‘rtinchi davrga xos eski o‘zbek adabiy tilining rivojida she‘riyat sultoni Alisher Navoiyning xizmati katta. Bu til manbalarda boshqa bir nom bilan ham ataladi. Bu nomni katakchalardan toping.

	i				o	
--	---	--	--	--	---	--

t	i	l	i
---	---	---	---

8. Xalq millat darajasiga ko‘tarilganda barchada o‘zlikni anglash, milliy g‘urur, vatanparvarlik, o‘z xalqidan faxrlanish hissi yuksak darajada bo‘ladi. Xalq millat darajasiga ko‘tarilganda uning tili albatta davlat tili maqomini oladi. Shuningdek, millatni til, hududiy va etno-madaniy jihatdan birlashtiruvchi bir omil bo‘lishi shart. Bu omilning nomi katakchalarda yashiringan.

	t			o		i	
--	---	--	--	---	--	---	--

n	e	g	i	z
---	---	---	---	---

IV BOB. ILK O‘RTA ASRLAR O‘ZBEK DAVLATCHILIGI: IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOT

Mavzu rejasi:

1. Ilk o‘rta asrlarda O‘rta Osiyo.
2. Eftaliylar davlati.
3. Turk xoqonligi hukmronligi davrida O‘rta Osiyo.
4. O‘zbekistonda arab xalifaligi hukmronligi davri.

1. ILK O‘RTA ASRLARDA O‘RTA OSIYO

Ilk o‘rta asrlar O‘rta Osiyo xalqlari hayotida boy dehqonlar mulk egaligining shakllanishi va mahalliy hokimliklar hukmronligi davri sifatida tavsiflanadi.

Tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, bu davrda mahalliy mulk egaligi, dehqonzodalarning paydo bo‘lishi va ular asosida qishloq hokimliklarining tarkib topish jarayoni jadal kechadi, feodal munosabatlar shakllanib boradi, yerga, ishlab chiqarish vositalariga egalik qilish uzil-kesil xususiylashadi, jamiyat ijtimoiy tarkibini **kashovarlar** – o‘rta va mayda mulk egalari, badavlat **dehqonzodalar** – katta mulk egalari va ularga qaram **kadivarlar** – ijarachi qo‘shchilar tashkil etadi, mahalliy hokimliklar timsolida davlat boshqaruv tizimi yaratiladi, jamiyat asosan Zardushtiylik va buddaviylik, qisman moniylik, nasroniylik va shamanizm mafkurasi asosida quriladi. Mulchilikning savdo va hunarmandchilikdagi tabaqaviy shakllari kuzatiladi. Jamiyatning ijtimoiy tarkibini katta mulkdorlar, o‘rta va mayda mulk egalari, ziroatchi kadivarlardan tashqari, mahalliy hokimliklarning mudofaa tayanchi – yollanma **choqarlar** va qisman qullar ham tashkil etadi.

O‘zbekistonning janubida Sherobod va Surxondaryo havzalarida, Sangardak va Xo‘jaipok etaklarida, shimoliy Toharistonda ilk o‘rta asrlarda Termizshohlar, Chag‘oniyon va Guftan (Sherobod vohasi) hokimliklari tashkil topdi. Bular orasida Chag‘oniyon yirik hokimlik bo‘lib, uning mahalliy sulolaviy hukmdorlari o‘z nomlaridan mis va kumush tangalarini zarb etish qudratiga ega edilar. Mahalliy hokimliklar nomidan zarb etilgan tangalar birinchi bor shimoliy Toharistonda, aniqrog‘i, Chag‘oniyonda milodiy V asrdan chiqa boshlagan. Bu mis tangalarning old tomonida mahalliy hukmdorning surati, orqa tomonida esa langarsimon tamg‘a chekilgan edi.

O'zbekistonning markaziy qismidagi Sug'diyonada esa uchta mustaqil yirik viloyat hokimliklari shakllangan. Panjakentdan to Karmanagacha bo'lgan tumanlar Markaziy Sug'dni tashkil etib, uning bosh shahri Samarqand hisoblangan. Zarafshon vohasining Karmanadan g'arbda joylashgan tumanlari G'arbiy Sug'dni tashkil etib, bosh shahri Buxoro bo'lgan. Qashqadaryo havzasida tarkib topgan tumanlar Janubiy Sug'd yerlarini tashkil etib, janubiy Sug'dning yuqori Qashqadaryo tumanlari – Kesh viloyati, quyi Qashqadaryo tumanlari esa Naxshob viloyati deb yuritilgan. Viloyat hokimliklari tepasida turgan hukmdorlar Buxoroda **xudotlar**, Samarqand va Qashqadaryoda **ixshidlar** deb atalgan. Ilk o'rta asrlarning dastlabki bosqichida har bir viloyat doirasida bir necha rustak xudodliklari, ixshid va ixrid hokimliklariga bo'lingan. Bu mahalliy hokimliklarning maydalari iqtisodiy va siyosiy qudratlilari tomonidan asta-sekin tinchlik va zo'rlik orqali, tarix taqozosiga ko'ra, o'z ta'sir doirasiga olinib, yiriklashib borgan. Masalan, G'arbiy Sug'dda Buxorxudodlardan tashqari, Vardanxudot, Varaxshaxudotlar bo'lgan.

III asr oxiri va IV asr boshlarida Ipak yo'li bilan bog'liq iqtisodiy yuksalishlar Sug'd hayotiga ta'sir etadi. Bu haqda birinchi bor Dunxuandan topilgan hujjat – “Sug'd eski yozuvlari” guvohlik beradi. Ilk o'rta asrlarda Sug'dning savdo shahri nomi bilan dong chiqargan Poykent shahrining iqtisodiy qudrati arab tarixchisi Tabariyni lol qoldirgan. Uning yozishicha, Poykentda arablar tomonidan shunchalar ko'p oltin va kumush idishlar talanganki, ularning ko'pligidan sanog'iga yeta olishmagan. Bunday yuksaklikning IV asrning oxirlarida butun Sug'dda kuzatish mumkin edi. V asrdan boshlab mustaqil Sug'd hokimliklari suratlari bitilgan tangalar zarb etila boshlaydi. VIII asrga kelib Sug'd mahalliy hokimliklarining kumush tangalari jahon savdosida o'z o'rniga ega edi. Sug'diyona shunday yuksakliklarga erishishiga qaramay, mamlakatda ilk o'rta asrlar davomida yagona podsholik (markaziy hokimiyat) bo'lmagan. Bunday hokimiyatning tarkib topishiga dastlab xiyoniylar va kidariylarning bu zaminga kirib kelishi xalaqit bergan ko'rinadi. Sug'diyona VI asr boshlaridan eftaliylar tarkibida, 563-yildan esa Turk xoqonligi qo'l ostiga o'tdi.

Sug'ddan sharqda Sirdaryo havzasida ilk o'rta asrlar davri Ustrushona viloyati joylashgan. Uning g'arbiy qismini O'zbekistonning Jizzax va Sirdaryo viloyatlari tashkil etadi, sharqiy qismi – Xo'jand viloyati esa hozirgi kunda Tojikiston tasarrufida. Ilk o'rta asrlar Ustrushonasi 18 ta tumandan tashkil topgan. Birinchi bor Ustrushona nomi ilk o'rta asr Xitoy manbalarida uchraydi. (Shuaydushana, Suduyshana, Sudushina). Bunga ko'ra, Ustrushona IV-V asrlardayoq mustaqil hokimlik sifatida tilga olinadi.

Ustrushonadan shimoli-sharqda. Sirdaryoning yuqori havzasida go‘zal Fragana (Farg‘ona vodiysi) joylashgan. Qadimgi Farg‘onadan shimolda joylashgan tarixiy-madaniy o‘lka Choch vohasi bo‘lib, bu o‘lkada ham ilk o‘rta asrlarda xuddi shunday tarixiy manzara kuzatiladi.

Saklar yetakchiligidagi antik davr Kanguy (Qang‘, Qanxa) davlati qabilalarining ijtimoiy-iqtisodiy va etno-madaniy ittifoqi asosida milodning boshlarida (taxminan II-III asrlarda) ikki tilda so‘zlashuvchi qang‘ar xalqi tashkil topadi. Ammo milodiy V asr o‘rtalarida Qang‘ davlatining yemirilishi bilan uning tarkibidagi elat va qabilalar tarqalib ketib, yangi siyosiy uyushmalar va etnik birliklar vujudga keladi.

Arxeologik tadqiqotlar tahliliga ko‘ra, mil.avv. II – milodiy V asrlarda Toshkent vohasida shahar madaniyati jadal rivojlanadi. Bu davrda vohada 13 joyda shahar hayotining gullab-yashnashi kuzatiladi. Ularning tarkib topishi Qovunchi madaniyatining rivojlanish bosqichlari bilan bog‘liq bo‘lib, etno-madaniyatda turkiy ta‘sir kuchli edi. Bu davr shaharlari Toshkent vohasining janubi-g‘arbiy qismini egallagan bo‘lib, ularning eng yiriklari Qanka, Kavardan, Kulota, Kindiktepa, Qovunchitepa, Banokat va boshqalar, ularda shahar hayoti nafaqat ilk o‘rta asrlarda, balki rivojlangan o‘rta asrlarda ham davom etadi. Toshkent vohasi dastlab eftaliylar davlati, so‘ng milodiy VI asrning 60-yillaridan Turk xoqonligi tarkibiga o‘tadi.

Toshkent (Choch) aholisining xo‘jalik mashg‘ulotlariga kelsak, ular ko‘p tarmoqliligi bilan xarakterlanadi. O‘troq aholining asosiy xo‘jaligi sug‘orma va lalmikor dehqonchilik hamda bog‘dorchilik, poliz ekinlari bo‘lgan. Chorvachilikning yaylov turi rivojlangan. Shaharlarda hunarmandchilik va uning turli tarmoqlari: kulolchilik, teri oshlash va undan egar-jabduq tayyorlash, kitob muqovalash, to‘qimachilikda jun gazmollar ishlab chiqarish rivojlangan. Hunarmandchilikning xarakteri va uning mahsulotlariga bo‘lgan katta talab Choch shaharlari orqali bir necha savdo karvon yo‘llarini vujudga keltirgan. Ayniqsa, karvon yo‘llarining Iloq shaharlari orqali o‘tgan tarmoqlari Choch iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu yo‘llar bo‘ylab yangi savdo markazlari (Chinachkat, Navkat) qad ko‘tardi.

Ilk o‘rta asrlarda Xorazm vohasining rivojlanishi ham o‘ziga xos xususiyatiga ega bo‘lib, mil. avv. III – I asrlarda Xorazmda siyosiy vaziyat barqarorlashib, yangi yerlarni obod qilish, shaharlarning ma‘lum darajada yiriklashib borishi, markazlashish boshlanadi. Mil. avv. I asr boshlaridan Xorazm mahalliy podshohlar surati tushirilgan o‘z pullarini zarb eta boshlaydi. Bu pullarda milodiy III asridan Xorazm podshohlarining nomlari ham uchray boshladi. Masalan, afrig‘iylar sulolasining ilk podshosi Arsamux I nomi, Xorazmda pod-

sholik qilgan Vazamar nomlari shular jumlasidan. Mil. avv. III asrda oromiy alifbosi negizida mustaqil xorazm yozuvi kashf etilgach, haykaltaroshlik, tasviriy san'at, musiqa ilmi rivojlanadi. Milodiy I-II asrlardan boshlab vohada maydoni kichikroq bo'lgan yangidan-yangi shaharlar qurilishi avj oladi.

Milodiy IV asrda O'rta Osiyoning shimoli-sharqidan turkiy qabilalarning to'xtovsiz kirib kelishi Xorazmda madaniy hayotning izdan chiqishiga sabab bo'ladi. Buning ustiga, kashovarzlilar orasida yuz berayotgan mulkiy tabaqlanish ham yirik shaharlar rivojiga ta'sir ko'rsatadi. Chunki kashovarzlardan ajralib chiqayotgan yangi mulk egalari – dehqonzodalar shahardan tashqaridagi mulkida qasrlar qurib, o'z dalasi tepasida yashashni afzal ko'rardi. Shuningdek, bu hayotiy zaruriyat dehqonzodalarning qal'a va qasrlari atrofidan sekin-asta gavjum hayot rivojlanadi. Natijada, antik davrning yirik imperiyalari – kushonlar va Qang' davlatining siyosiy inqirozi tezlashadi, ularning siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazi bo'lgan ko'pgina yirik shaharlari inqirozga yuz tutadi. Tuproqqal'a, Qizilqal'a, Ayoqqal'a-2, Burgutqal'a, To'qqal'a, Gaurqal'a, Hazorasp, Vayangan, Davkaskan kabi shaharlar tanazzulga uchraydi.

Milodiy IV asrdan boshlab sekin-asta qadimgi Xorazm tuprog'ida mayda va o'rtacha shaharlar qurilishi avj oladi. Ilk o'rta asrlar shaharsozlik madaniyatida antik davr shaharlari yaqin atroflariga kichik ko'lamdagi "ko'shk", "qo'rg'on"lar qurish keng tus oladi. Arab sayyohi Al-Maqsudiy Xorazmning 32 ta shahri va ulardagi qaynoq hayot haqida yozar ekan, Kat shahriga alohida e'tibor qaratib, Xorazmning 13 go'zal shahri ichida madaniy hayotning yuksakligi jihatidan Kat birinchi safda turishini ta'kidlaydi. "Hudud ul-olam" (X asr)da Kat Xorazmning bosh shahri, go'zal Turkiston darvozasi, Movarounnahr va Xazarlar muzofotining ombori, savdogarlar to'planadigan, boyligi katta shahar, deb ta'riflanadi.

Xulosa qilib aytganda, ilk o'rta asrlarda eftaliylar, Turk xoqonligi hukmronligigacha o'zbek yurti rivoji va xalq hayoti ana shunday o'ziga xos tarzda davom etayotgan edi.

2. EFTALIYLAR DAVLATI

Yuqorida ta'kidlanganidek, O'zbekiston hududida milodiy IV-V asrdan e'tiboran O'rta Osiyoda yangi yer egaligi munosabatlari qaror topa boshladi. Bu yerda dehqon yerga egalik qilib, jamoa boshlig'i hisoblangan. Ma'lum hududdagi jamoaga uyushgan erkin dehqonlar "**kashovarzlilar**" deb atalgan. Kashovarzlilar jamoa boshlig'i "dehqon"ga soliq to'lagan. Yer egasi bo'lib

olgan harbiy zodagonlar “dehqon” deb atalgan. Bu “dehqon” atamasi o’sha davrda qishloq xo’jayini ma’nosini anglatgan.

Kushon davlati inqirozga uchragach, ayrim vohalarda mustaqil mulklar paydo bo’ldi. Ularning o’z podsholari bor edi. Dehqonlar esa bu podsholarni qullar va qaram kishilardan tuzilgan, yaxshi ta’lim olgan harbiy drujinalar – choqarlari bilan quvvatlab turgan.

Tarixiy manbalarning ayrimlarida markazlashgan hokimiyatga intilgan kuchlarni mil. avv. I asr va milodiy IV asr o’rtalarida Yettisuvdan Orol dengizi bo’ylariga kelib qolgan xunlar bilan aralashib ketgan holda Xun qabilalaridan turkiy tilni qabul qilgan Orol bo’yi sak-massaget qabilalarining avlodlaridir, deyiladi. Ular turli tillarda, turlicha nomlarda talqin qilinadi: xitoyliklarda E-da yoki I-da, armanlarda Xittal va Tetal, arablarda Xeytal, yunonlarda Abdal va h.k.

Feofan Vizantiyskiyning ma’lumotlariga qaraganda, ularning shohi Vaxshunvor Eftalon deb nomlangan. Arman tarixchilari esa ularning nomi “**haft**” (yetti), ya’ni massagettlarning yettinchi qabilasi nomidan olingan, deb hisoblaydilar.

IV asming o’rtalarida kushon, eftaliy va xioniylar qabilalari birlashgan. Arman tarixchilari bu qabilani “Xonlar” deb nomlashgan bo’lsa, vizantiyalik tarixchilar esa **Xioniylar** nomi bilan atashgan.

Xioniylar qabilasi 356-yilda Eron sosoniylari podshosi **Shopur II** (309 – 379) tomonida turib Amida (Suriya) shahri qamalida qatnashgan. Keyin sosoniy podshoh **Varaxran V** (418 – 438) esa bularga qarshi kurash olib borgan. Xioniylarga qarshi kurash sosoniy podshoh **Yazdigard II** (438 – 457) davrida ham to’xtamagan. Sosoniylarning ikkinchi yurishi paytida (453 – 454) Yazdigard qo’shini xioniylar tomonidan tor-mor keltiriladi va shoh qatl etiladi.

V asr boshlarida massaget qabilalari ittifoqidan yana bir qabilaviy guruh – **Kidariylar** ajralib chiqadi. Ular ham bir necha bor sosoniylar Eroniga qarshi hujumlar uyushtirgan. Armmo 456-yilda ular yengilib, o’z podsholari **Kungas** boshchiligida Hindiqush orqali Kandahor (Peshovar)ga ketadilar va Shimoliy Hindistondagi Gupta podsholigini o’zlariga bo’ysundiradilar. (Ular bu yerda 75 yil hukmronlik qilganlar). Vizantiyalik va arman tarixchilari asarlarida Kidariylarni eftaliy, kushonlar bilan bir bo’lgan deb yozilgan. Bundan shunday xulosa chiqadiki, bu qabilalar o’rtasidagi farq etnik xarakterda bo’lmay, sulolaviy farqdir. Kidariylarning birinchi boshlig’i va podshosi **Kidar** bo’lgan.

Xitoylik mualliflar eftaliylarni turkiy tilli xalqlar (tukyuye) bilan bog’liq ravishda ta’riflab, ularning yuechji yoki uyg’ur qabilalariga tegishli ekanini yozib qoldirganlar. Vizantiyalik tarixchi Prokopi (VI asr), “ular xunlardandir,

tanalari oq”, deb yozgan. Pahlaviy yozuvida bitilgan “Bahman-Yasht”da esa “(Erondagi) podshohlik va oliy hokimiyat eroniy bo‘lmagan qulvachchalariga, ya’ni xion, turk, haftal, tibetliklar... qo‘liga o‘tdi”, deb yoziladi. Ko‘rinib turibdiki, ular deb atalayotgan va V-VI asrlarda hukmron bo‘lgan bu urug‘ to‘g‘ridan-to‘g‘ri turkiy shajaraga bog‘lanmoqda.

Buning ustiga xitoy manbalarida ular “Katta yuechji avlodidan, Daxya (Baqtriya) bu Tuhola (Tohariston) demakdir. Birinchi hukmdorning nomi Vaxshunvor Eftalon bo‘lib, uning avlodlari o‘z hukmdori nomini davlat nomiga aylantirib yuborgan. Urf-odatlari tukyuyelarnikiday (turklarnikiday)”, deb berilgan.

Ma’lumki, V asrning 2-choragidan boshlab hudud siyosiy maydoniga eftaliylar chiqib, ular to VI asrning 2-yarmiga qadar siyosiy hayotda yetakchilik qilgan. Manbalarda ularning hokimiyat tepasiga chiqishini kushonlar inqirozi va eron sosoniylari tahdidi bilan bog‘laydilar.


Eftaliylar Eron sosoniylari bilan bir necha bor to‘qnashganlar. Ular asir olgan sosoniylar hukmdori **Piroz** Vizantiya hukmdorining o‘rtaga tushishi tufayli ozod etilgan. U yana ikkinchi bor eftaliylarga harbiy yurish uyushtirib, yana asir olingan. Bu safar 30 xachir kumush dirham evaziga qo‘yib yuborilgan.

Eftaliylar sosoniylarga qarshi kurashib, uzoq vaqt ularni o‘lpon to‘lab turishga ham majbur etib, ularning ichki ishlariga aralashib turgan. Masalan, 496-yili taxtdan ag‘darilib qamoqqa tashlangan sosoniylarning hukmdori **Qubod** qochib, eftaliylar oldiga boradi. Eftaliylar yordamida 499-yilda yana Eron taxtiga o‘tiradi. Eftaliylar ana shu tariqa sosoniylarni o‘ziga qaram qilib olib, ular yordamida 502-yili Vizantiyaga qarshi urush ham boshlaydilar.

Eftaliylar qo‘li ostida tarbiyalangan Perozning o‘g‘li Qubod davrida xalq noroziligi kuchayib, qo‘zg‘olonlar boshlangan. Bu davrdagi barcha yerlarning jamoadan tortib olinib, “dehqon”lar mulkiga aylantirilishi, boyluk va hokimiyatning boylar qo‘lida to‘planishi, ayollar huquqining poymol qilinishi, **Mazdak** qo‘zg‘oloni nomini olgan yirik qo‘zg‘olon (harakat)ning boshlanishiga sabab bo‘lgan. Ular “Z” harfi bilan boshlanadigan to‘rt narsaning aholi o‘rtasida teng bo‘linishini talab qilganlar: 1) Zamin (yer); 2) Zar (oltin); 3) Zo‘rluk (kuch, hokimiyat); 4) Zan (xotin).

Eftaliylar bilan Eron o‘rtasida munosabatlar kuchayib, ular hatto birgalashib Vizantiyaga qarshi urushga ham kirgan. Bunday do‘stona munosabat Kovodning o‘g‘li Xusrav I Anushirvon davrida ham davom etdi. Ammo Turk xoqonligi paydo bo‘lgach, ular o‘rtasidagi do‘stona munosabatlar buzildi. Buning ustiga VI asrda eftaliylar xoqonlik ta’siriga tushib qolgan edi.


Eftaliylarning madaniy markazlari



Eftaliylar Eron, Vizantiya, Hindiston, Xitoy va boshqa davlatlar bilan keng ko'lamda savdo aloqalari olib borganlar, elchilik munosabatlarini o'rnatganlar.


Eftaliylarda sug'd tili keng qo'llanilganligi haqida ma'lumotlar bor. Bundan tashqari, buxor yozuvi, xorazmiy va eftaliy yozuvlari ham keng qo'llanilgan.

Til va yozuv



Bu davr xalq qo'shiqlari va eposlari Firdavsiyning "Shohnoma"sida tasvirlangan. Bu davlat ko'p xalqlarni siyosiy birlashtirganligi sababli aholi turli diniy g'oyalarga e'tiqod qilishda davom etgan.

Din tizimlari va madaniyat



Eftaliylar davri tarixiga oid ba'zi bir moddiy madaniyat yodgorliklari Xorazm viloyati hududidagi Firqal'a (Qiyot-Beruniy yaqinida), Buxoro viloyatida Poykandda saqlangan. Poykanddagi Bolaliktepa nomi bilan ataluvchi ibodatxona devorlarida qo'llarida qadahlar ushlab o'tirgan erkak va xotinlar qiyofalari rangli bo'yoqlarda chizib qoldirilgan. Bu ashyoviy dalillar o'zbek ajdodlarining naqadar tafakkur va ijod egalari bo'lganligini ko'rsatadi.

3. TURK XOQONLIGI HUKMRONLIGI DAVRIDA O'RTA OSIYO

Bir qator turkshunos olimlar (I.Bichurin, N.Gumilev va b.) eng qadimgi turkiyzabon xalq Xitoy solnomalarida mil. avv. 1756-yildan boshlab tilga olinganligini yozadi. Faqat bu xalqlar "turk" nomi bilan emas, balki "xun", "xunlar" deb atalgan. Turk so'zi milodiy V asrdan boshlab uchraydi. "Xunlar"ning mil. avv. 207-yildan milodiy 216-yilgacha (423-yil) hukmronlik qilgan Ulug' Xun saltanati sharqiy va g'arbiy qismga bo'linib idora qilingan. 374-yildan 469-yilgacha Yevropada Xunlar mavjud bo'lib, uning asoschisi Balamir (374 – 400) va bu saltanat tarixda **Attila xunlari** deb atalgan.

Tarixda xunlarning yana Oq xunlar saltanati ham bo'lib, uning tarkibiga Hindistonning yarmi, Afg'oniston va Turkistonning katta qismi kirgan. Bu saltanatning asoschisi **Kun xon** bo'lgan.

Turkiy xalqlar to'g'risidagi afsonalarning birida, g'arbiy dengiz sohilida yashagan turkiylarning ota-bobolari qo'shni qabilalar tomonidan qirib tashlanganda, o'n yoshli bola favqulodda tirik qolgani, uni urg'ochi bo'ri Turfon tog'lari tomon olib ketgani va unga xotin bo'lgani aytiladi. Bo'ri o'nta bola tug'adi. Turk bola va bo'ridan tug'ilgan bolalar Turfondagi ayollarga uylanadi va har bir boladan bir urug' kelib chiqadi. O'g'illardan birining ismi Ashin bo'lib, uning nomi hamma qabila nomini anglatadi. Uning merosxo'rlaridan biri qabila sardori Asan Shad bo'ri avlodlarini Turfondan Jujan (Oltoy) qabilalari yerlariga olib keladi, ular temir qazib olish bilan shug'ullanadi. Aynan ular Oltoyda Turk nomini oladi. Afsonaga ko'ra, Turk nomi Oltoy tog'ining eng qadimgi nomidir.

Ikkinchi afsonada esa turk qabilasining ajdodlari SO saltanati bilan bog'lanadi. Unda Oltoyning shimolida joylashgan qabilaning boshlig'i Amanbuning o'n oltita ukasi bo'lib, ularning biri Ichasin Ishid – "Bo'ri o'g'li" deb atalgan va u har doim o'z qabilasini qiyin ahvoldan saqlab kelgan. Uning o'g'illari bir qator hududlarda hukmronlik qila boshlaydi. G'arbiy Sayanga hukmronlik qilayotgan katta o'g'li Nudulu Shadning o'nta xotini bo'lib,

o'g'illari onasining qabilasi nomini oladilar. Eng kichik xotining o'g'li Ashin aka-ukalar o'rtasidagi musobaqada g'olib chiqib, taxtni egallaydi va Asan Shad nomini olib, urug' boshlig'i bo'ladi. Uning vafotidan so'ng o'g'li Tuu taxtga o'tiradi. Uning o'g'li Bumin esa Turk xoqonligiga asos soladi.

Oltoy tog' tizmasining janubiy qismi qadimda Oltin yish (Oltin vodi) deb nomlanib, tabiiy sharoiti, boyliklari jamiyat farovonligini ta'minlashda benazir hisoblangan. Ana shu sharoitda **Ashina** nomi bilan atalgan sulola yuksalgan va ularning siyosiy ta'siri kuchayib borgan. Birinchi hukmdor Bo'min bu sulolaning davlatiga asos solgan. Bo'min 552-yili Jo'jan xonligini tor-mor qilgan. Uning kichik o'g'li Mug'anxon (553 – 572) davrida ashinaliylar Koreya qo'ltig'idan g'arbiy dengizgacha, Xitoy devoridan shimoliy dengizgacha bo'lgan yerlarni ham bosib olgan. Ana shu tariqa VI asrning so'nggi choragida mintaqada Ashinaliylar sulolasi hukmronlik qilgan yirik va qudratli **Turk xoqonligi** davlati vujudga keladi.

Mo'g'anxon davri (553 – 572)da xoqonlik yanada yuksaladi. Davlat hududlari kattaligi va kengligi sabab xonlik ikkiga bo'lib boshqariladi. Mug'anxon amakisi **Istami** xoqonlikning g'arbiy qismini boshqarib, xoqonlik chegaralarini Amudaryogacha cho'zadi. Xoqonlik eftalitlar hududlarini ham egallagach, Eron bilan munosabatlar yomonlashadi. Eron shohi Xusrav xoqon Istaming birinchi elchisi Mani'ax olib kelgan ipak buyumlarini o'tga tashlatadi. Ikkinchi yuborilgan elchini esa zaharlab o'ldiradi. Eron bilan aloqalarni o'rnatish imkoniyati bo'lmagach, xoqonlik 568-569-yillarda Eronga qarshi Vizantiya bilan ittifoq tuzishga harakat qiladi va uning poytaxtiga o'z elchisi (sug'd savdogari Mani'ax) ni yuboradi.

Sharqiy Turk xoqonligi bilan Xitoy o'rtasidagi munosabatlar yaxshi bo'lmagan. Shu sababli harbiy yurishlar qilinib, xitoyliklar har yili 1000 bo'lak (taxlam) miqdorida ipak o'lpon to'lashga majbur etilgan. Keyinchalik Xitoyda hokimiyat tepasiga kelgan Suy dinastiyasi (589 – 617) Sharqiy xoqonlikni mag'lub etgan. Mag'lubiyatga uchragan turk beklari o'z urug'-aymoqlari bilan g'arbga tomon ko'chib, Buxoro vohasiga kelgan. Ularning qashshoqlashgan bir qismi mahalliy aholi bilan birlashib, turk shahzodasi **Abro'y** boshchiligida yer egalariga qarshi qo'zg'olon ko'tarib, Poykent shahrini egallaydi. Tarozi va Turkiston tomonga qochgan aslzodalar G'arbiy Turkiylar sultoni Qorachuridan yordam so'raydi. Qorachurin qo'shinlari 585-yilda qo'zg'olonni bostirib, ularni jazolaydi, Abro'yni esa qovog'ari to'ldirilgan qopga solib o'ldiradi.

G'arbiy Turk xoqonligi. Turk xoqonlari o'rtasidagi o'zaro kurashlar 20 yildan ziyodroq davom etib, 603-yilda davlatning ikkita: G'arbiy va

Sharqiy qismlarga boʻlinib ketishi bilan yakunlanadi. Sharqiy Turk xoqonligi Moʻgʻuliston hududlarini, Gʻarbiy Turk xoqonligi esa, Yettisuv, Chu vodiysi, Volga, Kubanning quyi qismi, Irtish, Ishim daryosi boʻyidagi yerlar, Oʻrta Osiyo va Sharqiy Turkistonning bir qismini oʻz ichiga olgan. Xoqonlar Shugey va Toʻn yabgʻu davrlarida Gʻarbiy Turk xoqonligi vaqtinchalik rivojlanish jarayonlarini boshdan kechiradi. Bu davrda xoqonlikning hududlari kengaydi, davlat boyidi va harbiy qabila zodagonlarining mavqeyi kuchayib, ular xoqonlar hokimiyatidagi harbiy muvaffaqiyatlarni taʼminlab turdi. Shagʻuy Gʻarbiy xoqonlikning sharqiy chegaralarini Oltoy qilib belgiladi va oʻz hokimiyatini Tarim havzasi va sharqiy Pomir oldigacha choʻzishga muvaffaq boʻldi. Toʻn yabgʻu (Toʻn Bahodir) xoqonlikning gʻarbiy hududlarida faol siyosat olib borib, xoqonlikning qishki qarorgohini Chu daryosi vohasidagi yirik savdo hunarmandchilik markazi boʻlgan Suyobga (hozirgi Toʻqmoq yaqinidagi Oqbeshim koʻhna shahri), yozgi qarorgohini esa Isfijob yaqinidagi Mingbuloqqa (hozirgi Turkiston shahri yaqinida) koʻchiradi. Toʻn yabgʻuning yangi yurishlari tufayli xoqonlik chegarasi Amudaryoning yuqori oqimlaridan Hindiqushgacha choʻziladi.

Toʻn yabgʻu hukmronligi davrida amalda mustaqil boʻlgan Oʻrta Osiyo davlatlari ustidan nisbatan qattiq siyosiy nazorat oʻrnatiladi. Chunki bu davlatlarning vassalligi faqat oʻlpon toʻlash bilan chegaralanar edi. Isfijobdan Toshkent vohasigacha, shimolda Janubiy Afgʻoniston va shimoli-gʻarbiy Pokistongacha boʻlgan hududlarga xoqon Toʻn yabgʻuning ishonchli va-killari – **tudunlar** yuborilib, ular soliqlar yigʻish va xoqon qarorgohiga yuboriladigan oʻlponlarni qattiq nazoratga oladi. Mahalliy hokimlarga ularni xoqonlik maʼmuriy boshqaruviga qoʻshilganlik ramzi sifatida turk unvonlari beriladi. Shu bilan birgalikda Toʻn yabgʻu nisbatan kuchli mahalliy hukmdorlar bilan shaxsiy munosabatlarini mustahkamlashga harakat qildi. Manbalarda Toʻn yabgʻuning Samarqand hokimiga oʻz qizini xotinlikka berganligi haqida maʼlumot bor. Xitoy manbasi Toʻn yabgʻu haqida maʼlumot berar ekan, shunday xabar beradi: “Gʻarb varvarlari hali hech qachon bunchalik qudratli boʻlgan emas”.

Oʻta yakkahokimlik xususiyatiga ega Toʻn yabgʻu boshqaruvi – talon-tarojchilik urushlari natijasida boyib ketgan qabila zodagonlari orasida norozilik harakatlarini kuchaytirib yubordi. Boshlanib ketgan oʻzaro kurashlarni bartaraf etishga harakat qilgan Toʻn yabgʻuning togʻasi Qoʻl Bahodir jiyanini oʻldirib, oʻzini Qoʻl Elbilga xoqon deb eʼlon qiladi. Ammo, qabila boshliqlarining ayrimlari boshqa daʼvogarlarini qoʻllab-quvvatlaganlari tufayli yana qabilalararo kurashlar boshlanib ketadi. 630 – 634-yillarga kelib xoqonlik

o'zining Sirdaryoning g'arbidagi O'rta Osiyo mulklaridan mahrum bo'ladi. G'arbiy turk xoqonligining asosi dulu va nushibi qabilalari o'rtasida o'zaro kurashlar avj olib ketadi.

634-yilda nushibi qabilasi tomonidan qo'llab-quvvatlangan Ishbara Elterish Sher xoqon hokimiyat tepasiga kelib, harbiy ma'muriy tartib – “o'n o'q eli” boshqaruvini qayta tiklashga harakat qiladi, qabila boshliqlarini o'ziga shaxsan tobe qilish maqsadida islohotlar o'tkazadi. Bundan tashqari, amaldagi nazoratni amalga oshirish maqsadida har bir mulkka xoqon urug'i a'zosi – **shodni** jo'natadi. Shodlar qabila zodagonlari bilan hech qanday aloqada bo'lmay, ularning markaziy hokimiyatga intilishini kuzatib borgan. Bu mahalliy hokimlarning siyosiy tashabbuslarini nihoyatda chegaralab qo'yar edi. Ammo, Ishbara Elterish Sher boshchiligidagi xoqonlik hokimiyatning harbiy-siyosiy layoqati qaram mulk va qabilalarni ushlab turishga qodir emas edi. 638-yilda dulu qabilasi o'zlariga jo'natilgan shodni xoqon deb e'lon qildilar. Shundan so'ng dulu va nushibi qabilalari o'rtasida bo'lib o'tgan og'ir va qonli kurashlar natijasida g'arbiy xoqonlik ikki qismga bo'linib ketadi. Shunday bo'lsa-da, xoqonlikdagi qabilalararo va sulolalararo urushlar 17 yil (640 – 657-y.y.) davom etdi.

Shunday qilib, VII asrning o'rtalarida G'arbiy turk xoqonligi zaiflashib bir necha qismlarga bo'linib ketdi. Vaziyatdan foydalangan Xitoyning Tan imperiyasi qo'shinlari 657 – 659-yillarda Yettisuvga bostirib kirib, bularga qarshi kurashlar uzoq yillar davom etdi. Faqatgina VII asrning oxirlariga kelib xoqonlik o'z mustaqilligini tiklashga muvaffaq bo'ldi va xitoyliklar vakili Xusrav Bo'rishod mamlakatdan haydab chiqarildi.

Xoqonlik davrida ajdodlar madaniyati yuksak taraqqiyot darajasida bo'lgan. Ularda sug'd, oromiy, xorazm yozuvi bilan bir vaqtda qadimiy turkiy xalqlarning “Turk-Run”, “O'rxun-Enasoy”, “Ko'k Turk” yozuvi nomalarda keng ishlatilgan. Savodxonlik kuchayib, 5 yoshga to'lgan bolalar ham yozish va hisob-kitobga o'rgatilgan.

Qadimgi turkiy xalqlar haqidagi bitiklar bizgacha yetib kelgan. Bu ularning tarixi uchun asosiy manba bo'lsa, undan keyin yozma adabiyotning ilk namunasi hamdir. Bu bitiktoshlarning aksariyati hukmdor **Bilga xoqon** davrida yaratilgan. Bu xoqon turkiylar tarixida adolatparvar, elparvar xoqon sifatida nom qozonib, turk xalqining vatani abadiy bo'lishi uchun kurashgan. Xoqonning ismi ham dono degan ma'noni anglatgan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ashinaliylar hukmronlik qilgan davlat hudud jihatdan katta bo'lganligi sababli ikki saltanatga (g'arbiy va sharqiy) bo'lib boshqarilgan. Ikki davlat ham o'z xoqoniga ega bo'lib, ularda xoqonni taxtga


o'tqazish marosimi quyidagicha kechgan: yirik amaldorlar taxt vorisini kigizga o'tqazib, quyosh harakati asosida, ya'ni sharqdan g'arbga tomon to'qqiz marta doira bo'ylab aylantirganlar. To'qqiz soni turkiylarda aziz hisoblangan. Har bir aylanishda marosimda ishtirok etuvchilar xoqonga ta'zim qilib, bu bilan o'z itoatkorliklarini anglatganlar. Shundan so'ng uni otga mindirib, bo'yi uzra ipak mato tashlab, qattiq siqqanlar-u darhol bo'shatib, undan necha yil hukmdor bo'lishi haqida so'raganlar. Bu bilan ular hukmdorning qat'iyatligi, irodasi va jismoniy imkoniyatlarini sinamoqchi bo'lganlar. Ammo marosimgacha bo'lajak hukmdor yuqori doiradagi ulus oqsoqollari guruhi tomonidan tayinlangan.

Qadimgi turkiy yozuvlar va Xitoy manbalarining guvohlik berishicha, hukmdorning eng yaqinlariga beriladigan **Shod va ixshid** degan unvonlari bo'lgan. Ular mazmunan bir-biriga yaqin mansab. Masalan, Qutluqxon (vafo-ti 693-yil) o'zini xon deb e'lon qilgach, ukalaridan Muchur va Tuzilbeklarga ana shu ikki unvonni bergan. Hududda Turk xoqonligi hukmronligi davrida boshqaruv asosan mahalliy siyosiy kuchlar orqali amalga oshirilgan. Biroq, markaz nazorati hech qachon susaymagan. O'lka, viloyatlar boshqaruvchilarining o'z unvonlari bo'lgan. Masalan, Kesh hokimi **ixrid**, Tohariston hukmdori **jabg'u**, Chag'aniyon hukmdori **chag'onxudot**, Sug'diyona hukmdorlari esa **ixshid** unvonlari bilan atalgan.

Turk xoqonligi hukmronligi davrida jamiyat hayotini idora etishda ma'lum bir huquqiy usullardan foydalanilgan. Xitoy tarixchilarining manbalarida Sug'diyona ibodatxonalarida muhofazatda doimo "Turkiy tuzuklar" turi-shi, biron bir jazoni belgilashda bu majmuani olib, unga asoslangan holda hukm chiqarilishi aytilgan. Bu haqda turkiy bitiklarda ham ma'lumot berilgan. Bu majmuada quyidagi jazo normalari belgilangan: eng og'ir jinoyat sodir qilinganda jinoyatchi butun urug'-aymog'i bilan qirib yuborilgan. Birovni o'ldirgani, erlik xotin bilan buzqlik qilgani, adashgan otni suiiste'mol qilgani uchun ham o'lim jazosi qo'llanilgan. Jinoyatchi biron kimsaning ko'ziga ziyon yetkazgan taqdirda ayblanuvchi jabrlanganga o'z qizini, qizi bo'lmasa, ayolining mol-mulkini berishi shart qilib qo'yilgan.

Yozma manbalar, devoriy suratlar VI-VII asrlarda o'lkada oldingi davrlardan davom etib kelayotgan an'anaviy musiqashunoslik, raqqoslik, teatrshunoslik kabi san'at sohalari rivojlanib borganini tasdiqlaydi. Raqqoslarning mahorati shu darajada yuksak bo'lganki, hatto xorijiy davlatlarda, masalan, Xitoy sa-roylarida ham ularni g'oyatda qadrlaganlar. Shu kabi o'lkaning qo'g'irchoq teatri san'ati xitoyliklarni lol qoldirib, shu san'at yo'nalishi Xitoyga o'zbek madaniyati namunasi sifatida kirib borgan.

Dehqonchilik




Metall qazib olish

Ruda konlari bor edi

- Farg'ona va So'g'dda oltin, mis, temir qazib olingan.
- Iloqda qo'rg'oshin, kumush qazib olingan.
- Shahrisabz hududida qizil, oq, kulrang va shaffof tuz qazib olingan.

Savdo



4. O'ZBEKISTONDA ARAB XALIFALIGI HUKMRONLIGI DAVRI

VI asrning oxiri va VII asr boshlarida, ya'ni islom dinining vujudga kelishi arafasida Somiy qavmiga mansub arab qabilalari o'rtasidagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyot darajasi bir xil emas edi. Yamanda rivojlangan quldorlik mavjud bo'lgan bir paytda, yarim orolning shimoliy qismida joylashgan shaharlarda endigina quldorlik munosabatlari kurtak otmoqda edi, sahrolarda ko'chmanchi chorvachilik bilan hayot kechirayotgan arab qabilalari esa hatto patriarxal urug'chilik tuzumining yemirilish bosqichida turardi.

Arabiston yarim orolining gʻarbiy qismi – Qizil dengiz sohillarida geografik qulay bir hududda joylashgan Hijoz tumanida bu davrda iqtisodiy taraqqiyot birmuncha ilgari lab ketgan edi. Karvon savdo yoʻllari bu hududni janubda Yaman orqali Habashiston va Hindiston, shimolda Shom yurti (Suriya) orqali Misr, Vizantiya va Sosoniylar Eroni bilan bogʻlar edi. Oʻz davrida katta iqtisodiy ahamiyatga ega Hijozning markazi Makka shahri boʻlib, bu yerda yoz va qish fasllarida katta karvonlar savdosi tashkil etilgan.

Savdo karvoni yoʻlida joylashgan Makkadan tashqari yana Yasrib (keyinchalik Madina), Toif, Haybar kabi shaharlar ham rivojlanib, ahamiyati oshib bordi va VI asrlarga kelib gavjum savdo markazlariga aylandi. Albatta bu davrda Makka shahri bilan biror–bir sohada boʻlsin raqobatlashadigan savdo markazi hali yoʻq edi. Arab qabilalari oʻrtasida Makkaning diniy yoʻnalishdagi oʻrni ham ancha yuqori boʻlgan.

Makkadagi Zam-zam qudugʻi qadim zamonlardan beri atrofdagi koʻchmanchi qabila va oʻtkinchi savdogarlar eʼtiborini qozongan. Rivoyatlarga qaraganda, Makkada qurilgan Kaʻba bora-bora arablarning muqaddas joyiga aylangani hisobga olinsa, Makkaning shuhrat qozonishi uchun omillar yetarli boʻlganini koʻrish mumkin.

Makka shahri arab qabilalarini birlashtirishda markaziy oʻrinni egallagan. Chunki V-VI asrlarda arab qabilalari ittifoqi mustahkam emas edi. Ular goh birlashar, goh tarqalib ketar, qabilalar oʻrtasida tez-tez nizolar kelib chiqar va shu asnoda urushlar boʻlib turardi. Negaki, har bir urugʻ-qabila turli dinlarga: xristianlik, otashparastlik kabilarga sigʻinar, ularning har birining oʻz xudosi, oʻz paygʻambari bor edi. Koʻpxudolik va koʻp paygʻambarlilik negizida tez-tez kelib chiqadigan va sodir boʻladigan urugʻ va qabilalar oʻrtasidagi urushlar xalq ommasining noroziligini kuchaytirib borar, arab qabilalari oʻrtasida boran sayin birlashishga intilish ishtiyoqi kuchayardi.

Arabiston yarim orolining ayrim tumanlarida boshqa diniy taʼlimotlarga sigʻinuvchilar koʻp boʻlgan. Orolning shimoliy qismida Shom yurti, Falastin, Mesopotamiyada yashaydigan arab qabilalarining baʼzilari xristian diniga eʼtiqod qilishgan. Yaman arablari oʻrtasida esa yahudiylik diniy taʼlimoti keng tarqalgan edi.

Islom dinida paygʻambar hisoblangan Muhammad alayhissalom 570-yil 20-aprelda Makka shahrida Quraysh qabilasining Hoshimiylar xonadonida dunyoga keladi. Hoshimiylar xonadoni Quraysh qabilasining nufuzli oilalaridan biri boʻlgan. Muhammad alayhissalomning bobosi Abdulmuttalib Makkadagi Kaʻba ibodatxonasi kalitining nigohboni (saqlovchisi) boʻlgan. Ota-onasidan juda erta ajralgan Muhammad alayhissalom dastlab bobosi,

soʻng amakilari Abu Tolib qoʻlida tarbiya oladi. Amakilarining maslahatiga koʻra badavlat savdogar ayol Xadicha binti Huvaylidning savdo ishlariga boshchilik qiladi va 25 yoshida unga uylanadi. Xadicha bu davrda 40 yoshda edi.

Muhammad alayhissalom bir necha yillar mobaynida diniy tafakkur va ibodat bilan muttasil shugʻullanib, taqvodorlik bilan hayot kechirgan. U har doim Makka yaqinidagi Xiro gʻoriga borib ibodat qilar, oziq-oqvat va suv olib ketib, gʻorda bir necha kunlar qolib, ibodat qilish odati boʻlgan. Diniy manbalarda taʼkidlanishicha, Muhammad alayhissalom paygʻambarlik faoliyatini 40 yoshda, yaʼni 610-yilda boshlagan. Vahiyning boshlanishi toʻgʻrisida “Sirat ur-Rasululloh” asarida keltirilgan rivoyatga qaraganda, Muhammad alayhissalom gʻorda tunab qolgan kechalaridan birida osmondan nido kelgan.

Muhammad alayhissalom hayotida birinchi roʻy bergan vahiy hodisasi-ning vaqti haqida ilk islom manbalaridagi maʼlumotlar Qurʼonning “Qadr” surasidagi maʼlumotga asoslangan. U “Laylat ul-qadr” kechasi deb ataladi. Tarixda bu kecha hijratdan 12 yil ilgari ramazon oyining 26-sidan 27-siga oʻtar kechasi – milodiy hisob bilan 610-yil 15 dan 16-avgustga oʻtar kechasiga toʻgʻri keladi. Dunyodagi barcha musulmonlar bu kechani toat-ibodat bilan oʻtkazadilar. Muhammad alayhissalom yakxaxudolikka asoslangan Islom dini gʻoyasini xalq oʻrtasida tashviq va targʻib qilishni boshlaganda juda katta qarshiliklarga va toʻsiqlarga duch kelgan. Uning targʻiboti asosida Islomni birinchilar qatorida qabul qilganlardan Xadicha, Abu Bakr, Ali, Zayd ibn-Xorisa, Abu ur-Rahmon ibn Avf, Zubayr ibn Avom, Amir Hamza, Usmon ibn Affon va boshqalardir. Muhammad alayhissalom taʼlimotiga qurayshlarning ummaviylar xonadoniga mansub boʻlgan va Makkada siyosiy hokimiyat tepasida turgan zodagonlar qattiq qarshilik koʻrsatganlar. Ikki oʻrtada ziddiyat gʻoyat darajada keskinlashgach, maʼlum davrlardan beri islom diniga sodiqlikda boʻlgan va Makka hukmronlari bilan raqobatlashib kelgan Yasribdagi Avs va Hazraj qabilalari bilan muzokaralar olib borgan Muhammad alayhissalom u yerga koʻchib boradi. Hijrat (arabcha koʻchish) deb atalgan mazkur voqea 622-yil 24-sentabrda (ayrim manbalarda 15 yoki 16-iyul deyiladi) yuz bergan. Makkadan Yasribga koʻchib borganlar Islom tarixida “Muhojirlar” (koʻchib kelganlar), islomni qabul qilgan yasribliklar esa “Ansorlar” (yordamchilar) deb nom oladi. Shu davrdan eʼtiboran Yasrib (Madina) shahri paygʻambar shahri nomi bilan ataladigan boʻladi.

623 – 630-yillarda Muhammad alayhissalom Makka shahri uchun bir necha bor oʻz raqiblariga qarshi urushlar olib bordi. Nihoyat 630-yilda Makkaga 10 ming kishilik qoʻshin bilan bosib borildi va Makka sardori Abu Sufyon

nochorlikdan taslim boʻlib, islom dinini qabul qildi. Uning oʻgʻli Muoviya Paygʻambarning noiblaridan biriga aylandi. 631-yilda Muhammad Arabistonning ayrim mintaqalarida paydo boʻlgan soxta paygʻambarlar ustiga yurishlar qilib, butun boshli Arabiston yarim orolini egallab, kuchli davlatga asos soladi. Bu davlat Yamandan Sino yarim oroligacha, Qizil dengiz sohillaridan Markaziy Qum sahrosigacha choʻzilgan yerlarni oʻz ichiga olar edi. 632-yil 25-yanvarda Muhammad alayhissalom Makkai Mukarramaga qilgan soʻnggi haj safaridan soʻng qattiq betob boʻlib qoladi va betobligida Kaʻba masjidiga imomlikni oʻtashni qaynatasi Abu Bakrga topshiradi (622-yilda Xadicha vafotidan soʻng Abu Bakrning qizi Oyshaga uylangan edi). Muhammad alayhissalom oʻlimi oldidan quyidagilarni aytgan ekan: “Dunyoda barcha insonlar barobardir. Nasab, rang yoki irq oʻz-oʻzicha insonni yaxshi yoki yomon etolmagay”.

Shuningdek, paygʻambar “Men sizga uch narsani meros qoldirdim... Shularni mahkam tutsangiz, hech qachon kam boʻlmaysiz”, deb ularni birmabir aytgan ekan. Bularning biri u kishining oilasi, ikkinchisi Qurʻoni karim, uchinchisi esa u kishining koʻrsatgan ibratlaridir.

Muhammad alayhissalom nasroniy yil hisobida 632-yil (hijriy yil hisobida 10-yili) 8-iyunda oʻz uyida vafot etadi. Paygʻambar vafotidan soʻng uning ishonchli noib yoki xalifalari davlatni boshqargan. Ana shu tariqa tarixda “arab xalifaligi” paydo boʻlgan. Islom musulmonlarida asosan ilk toʻrt xalifa alohida ahamiyatga ega. Bular – **Abu Bakr (632 – 634)**, **Umar (634 – 644)**, **Usmon (644 – 656)** va **Hazrat Ali (656 – 661)**. Soʻng xalifalik 661 – 750-yillarda ummaviylar sulolasiga oʻtgan. Bu sulolaga **Muoviya bin Abu Soʻfyon (661– 680)** asos solgan.

Ummaviylardan keyin xalifalik abbosiylar sulolasi (ular 750 – 1258-yillarda hukmronlik qilgan) qoʻliga oʻtdi. Bu sulolaning asoschisi Muhammad alayhissalomning amaki avlodlaridan Abul Abbos As-Saffoh (749 – 754) edi.

Muhammad alayhissalom ishining davomchilari boʻlgan xalifalar davrida islom gʻoyasi yangidan-yangi davlat va hududlarga – qisqa muddat ichida VII–VIII asrlarda Shimoliy Afrika, Shom yurti, Falastin, Iroq, Eron va Markaziy Osiyo hududlariga tarqaldi. IX–XV asrlarda esa islom Xitoy chegaralaridan Farangiston janubigacha, Hindiston yerlaridan Qizil Oʻrdagacha choʻzilgan hududlarni qamrab oldi.

VII asrning oʻrtalarida arablar sosoniylar Eronini istilo qilishni tugallab, Xurosonning gʻarbiy chekka qismini xalifa tayinlaydigan noib-amir boshchiligidagi noiblikka aylantirdilar. Shu asrning ikkinchi yarmida islomda roʻy bergan dastlabki ixtiloflar natijasida ikkita yoʻnalish paydo boʻldi. Birinchi

yoʻnalish **sunniylar** boʻlib, dunyodagi barcha musulmonlarning 90 foizini birlashtiradi. Sunniylar Qurʼon bilan birga Sunnaga (Qurʼondan keyin uni toʻldiruvchi hadislar manbayi, islom ilohiyoti va shariat asoslari) ham eʼtiqod qiladilar. Unda Muhammad alayhissalom bilan birga Abu Bakr, Umar, Usmon va Hazrat Alilar ham eʼtirof etiladi.

Ikkinchi **shia** yoʻnalishdagilar Eron va Iroqda tarqalgan boʻlib, doimo sunniylikka qarshi yoʻnalishdadir. Oʻn foizga yaqin musulmonlarni oʻz atrofiga uyushtirgan bu yoʻnalishdagilar Muhammad alayhissalomdan soʻng paygʻambar sifatida faqat Hazrati Alini va uning avlodlaridan boʻlgan oʻn ikki imomni tan oladilar, xolos.

Arab xalifaligi Movarounnahr chegaralarigacha boʻlgan hududlarni egalagach, endi asosiy eʼtiborni oʻzbeklar yurtiga qarata boshladi. Oʻlkaning goʻzal tabiiy iqlimi, behisob boyliklari azaldan barcha bosqinchilarni, shuningdek, endi arablarni ham diqqat-eʼtiborini oʻziga tortgan edi.

Arablar bosqini arafasida Movarounnahr hududida feodal tarqoqlik hukm surgan. Bu yerda 15 dan ortiq kichik-kichik davlatchalar boʻlib, ular oʻzaro urushlar olib borar edilar. Bu hol arablar tomonidan Markaziy Osiyo yerlarini bosib olishni yengillashtirdi.

Arab bosqini ikki bosqichda olib borildi. Birinchi bosqich 705-yilgacha boʻlgan davrni oʻz ichiga oladi. Bu davrda arablar Movarounnahr hududiga vaqti-vaqti bilan hujumlar uyushtirib turdilar, mamlakat boyliklarini taladilar, koʻplab odamlarni qul qilib oʻz yurtlariga olib ketdilar va oʻlkani bosib olish maqsadida harbiy maʼlumotlar toʻplash bilan shugʻullandilar.

Arablarning Oʻrta Osiyoga dastlabki yurishlari Ubaydulloh ibn Ziyod boshchiligida 651-yilda Marvni egallash bilan boshlandi. Ular Amudaryo (Jayhun) dan shimolda joylashgan yerlarga “Movarounnahr”, yaʼni, “daryoning ortidagi yerlar” deb nom berishadi. Narshaxiy va arab muallifi Yoqut bergan maʼlumotlarga koʻra, Muhammad paygʻambarning shaxsan oʻzi Movarounnahrni boʻysundirishni muqaddas deb hisoblagan va islomga eʼtiqod etuvchilarni bu muqaddas ishga daʼvat etgan.

652-yilda arablar Balx shahrini egallashga muvaffaq boʻldi. Oʻsha yili Amudaryodan oʻtib Movarounnahrda hujum qilish rejasi arablar uchun muvaffaqiyatsiz tugaydi. Ammo, Xuroson noibi Abdulloh ibn Amir 652-yilda Chagʻoniyonni egallashga muvaffaq boʻldi. Bu esa ilk bor Movarounnahr yerlarini egallash edi. 654-yilda Sugʻddagi Maymurgʻ qalʼasiga arablarning birinchi hujumi boʻladi. 657-yilda arablar Chagʻoniyonga qayta yurish qilib, eftalitlarga kuchli zarbalar beradi. Manbalarning maʼlumot berishicha, Movarounnahrda yurish qilishdagi harbiy-siyosiy tayyorgarlikdan biri, xalifalikning

Barsa va Kufv shaharlaridan 50 ming arab oilasi ko'chirib keltirilishi va Xurosonning turli shaharlariga garnizon sifatida joylashtirilishi bo'ldi.

666-yil (hijriy 46-yil)da arablar Ziyod ibn Abu Sufyon boshchiligida Movarounnahrqa yurish qilib Amudaryo bo'ylarigacha keladi va Marvni egallab katta boylik va o'ljalar bilan qaytib ketadi.

Arab xalifaligining dastlabki talonchilik urushlari ko'proq Buxoroga qarshi qaratilgan. 670-yilda Ubaydulloh Ziyod boshchiligidagi arablar Buxoroga qo'shin tortib kelib, Poykand va Romiton yerlarini egallaydi. Bu davrda Buxoro taxtini malika Xotun boshqarar edi. U Buxoro hukmdori bevaqt olamdan o'tgan Bidun Buxorxudotning bevasi bo'lib, o'g'li yosh bo'lganligi uchun davlatni o'zi boshqarmoqda edi. Xotun oqila va tadbirkor bo'lganligidan aholi qirg'in bo'lmasligi va mamlakatni vayronalikdan saqlab qolish maqsadlarini ko'zlab, Ubaydulloh bilan sulh bitimi tuzadi va arablarga har yili bir million dirham tovon to'lab turish majburiyatini oladi. Chunki kuchlar teng emas edi, yordamga chaqirilgan turk lashkarlari ham vaziyatni biror-bir darajada o'zgartira olmasdi. Arablar buxoroliklardan to'rt ming kishini asir qilib oldilar, juda ko'plab boylik-xazina, qurollar, kiyimlar, oltin, kumush narsalarini o'ljaga tushirdilar.

Markaziy Osiyoning boyliklari mol-dunyoga o'ch arab sahroyilarining tinchligi va farog'atini buzgan edi. Har ikki o'rtada shartnoma-bitim tuzilgan bo'lsa-da, Ubaydulloh o'rniga Xuroson amiri etib tayinlangan Sa'id ibn Usmon 56- (25-noyabr 675 – 13-noyabr 676) yili Buxoro ustiga qo'shin tortadi. U juda ko'p hiyla-nayranglar ishlatib Buxoro va unga yordamga kelgan So'g'diyona, Kesh, Nasaf qo'shinlarini tor-mor keltirdi. Buxoro podshosi Xotun ibn Usmonning talabi bilan uning huzuriga borishga majbur bo'ldi va juda ko'p o'lponlar to'lab, shahzoda va aslzodalardan 80 kishini garovga berdi.

Ko'pgina manbalarda o'sha davrda Buxoroda hukmronlik qilgan ayolning (Xotun) nomi yosh farzandi Tog'shodaning nomi bilan Tog'shodaning onasi deb beriladi.

Arablar Movarounnahr va uning poytaxti Samarqandga yurish qiladilar. Ular bu joylarni egallab juda ko'p boyliklarni qo'lga kiritib, samarqandliklardan 30 ming kishini asirlikka oldilar. Manbalarda Sa'id ibn Usmon bilan Movarounnahrqa kelgan ko'p ming kishilik arab qo'shinlari qatorida Muhammad payg'ambar avlodlaridan Qusam ibn Abbos bo'lgan (Tarixchi Abu Tohir Xojaning ma'lumotiga qaraganda, u ibn Abbos ibn Abdulmutallib ibn Hoshim al-Qarshi al-Hoshimiy, Muhammad payg'ambarning amakisi). Sa'id ibn Usmon Buxoro va Samarqanddan qo'lga olgan o'ljalarni payg'ambar avlodiga ko'rsatib: "Bu o'ljalardan har kishiga bir hissa, senga esa ming hissa beraman"

deganda, payg'ambar avlodi "shariat buyurganidan bir hissa ham ortig'ini olmayman". degan ekan. Uning taqdiri to'g'risida turlicha ma'lumotlar bor. Ba'zilar uni Samarqandda o'ldirilgan desa, yana ba'zi birovlar u Marvda vafot etgan deb isbotlashga harakat qiladi. Lekin nima bo'lganda ham Narshaxiyning "Buxoro tarixi"da yozilishicha, Samarqanddagi Shohizinda ziyoratgoh majmuasi shu Qusam ibn Abbos nomi bilan bog'liqdir.

704-yilda Qutayba ibn Muslimning Xuroson noibi qilib tayinlanishi va Xurosonning arab xalifaligi tomonidan to'liq bo'ysundirilishi bilan arab bosqinchilari tomonidan bu yurtni zabt etishning ikkinchi davri boshlanadi. Endi ular Markaziy Osiyoni batamom bosib olishga qaror qiladilar. Qutayba ibn Muslimning 705-yilda ushbu maqsad yo'lidagi Axorun va Shuman (Surxon va Kofirnixon oralig'idagi yerlar) hududlariga uyushtirgan birinchi yurishi muvaffaqiyatsiz yakunlanadi. Tarixchi Narshaxiyning ma'lumotiga qaraganda, Qutayba katta tayyorgarlikdan so'ng "sakson sakkizinchi yili (12-dekabr 706-y.) Jayhun daryosidan o'tadi.

Arablar birinchi hujum qilmoqchi bo'lgan Poykand shahri aholisi kuchli mudofaani tashkil etgani bois ham shahar "jez shahar" deb nomlangan. Arablar qattiq va shiddatli janglardan so'ng Poykandni egallab, ikki o'rtada sulh tuziladi. Qutayba shaharga amir qilib Varqo ibn Nasr Bohiliyni tayinlab, o'zi Buxoro tomon yurishni davom ettiradi. Amir bo'lib qolgan Varqo shahar xalqiga jabr va zulm o'tkazadi, axloqiy buzuc ishlar bilan shug'ullanadi. Bunga javoban shahar fuqarolari qo'zg'olon ko'taradi. Qutayba bu xabarni eshitib tezda orqasiga qaytadi va qo'zg'oloni shafqatsizlik bilan bostiradi. Uning buyrug'i bilan arab sahroyilari shaharni talab xarobaga aylantiradilar.

Qutayba 707-yilda Kesh va Naxshabni egallab, 708-yilda Vardan (hozirgi Vardonze) ustiga yurishga tayyorlanayotganda Turk xonlari ittifoqi qo'shinlariga duch keladi. Ammo u aldov yo'li bilan Sug'd podshosi Tarxunni o'z tomoniga og'diradi. Qutayba va Tarxun o'rtasida sulh tuziladi. O'rtada tuzilgan sulhga qaramasdan, o'zaro kelishuv asosida Samarqanddagi masjid qurilishini tezlashtirish bahonasida shaharga g'isht teruvchilar o'rniga 4000 qurollangan arab kiritiladi. Shahar talanib, aholi qirg'in qilinadi. Tarxun ham qatl etiladi. Sosoniylarning so'nggi vakili Yazdigardning qizi ham asir olinadi va u Xalifa Validga yuboriladi. Samarqandda qo'lga olingan oltin butlar va ularning jihozlari 50 ming misqolni tashkil etadi. Samarqandni egallashda 300 ta devorbuzar moslamalar ishlatilib, Samarqand batamom vayron etiladi. Nihoyat shaharning yangi hokimi G'o'rak bilan Qutayba o'rtasida sulh bitimi imzolaniib, bu bitimga ko'ra u arablarga yiliga 2 200 000 dirham tovon to'lashi kerak bo'ladi. Yana arablarga uch yuz ming sog'lom kishini qul o'rnida berish

sharti ham bor edi. Shartnomaga asosan shahar markazi arablarga bo'shatib beriladi. Qutayba u yerda (Afrosiyobda) masjid qurdiradi.

Narshaxiy bergan ma'lumotlarga qaraganda, arablar Samarqandni egalagach, Marvda biroz muddat dam olib, 709 (91)-yilda Iroq va Xurosondan olgan yordam kuchlari bilan Buxoro ustiga yurish boshlaydi. Bu Qutaybaning to'rtinchi marta Buxoro ustiga lashkar tortib kelishi edi. Buxoro aholisi har safar islom lashkari kelganda musulmon bo'lar, qaytib ketgach esa dindan chiqar edi. Bu paytda Xotun juda qarib qolgan, davlatni esa uning o'g'li Tag'shoda boshqarardi. Qutayba qattiq jangdan so'ng Buxoroni egallaydi. Tag'shoda Islom dinini qabul qilgach, Qutayba uni Buxoro taxtida hukmdor sifatida qoldiradi. Tag'shoda o'ttiz ikki yil Buxoroni boshqaradi va islom dinini qabul qilgandan keyin tug'ilgan farzandiga Qutaybaga bo'lgan hurmat-e'tiqodi ramzi sifatida Qutayba deb ism qo'yadi. Otasidan so'ng Buxoro taxtiga o'tirgan Qutayba Abu Muslim davrida dindan qaytadi. Shu bois Abu Muslim Qutayba ibn Tag'shodani o'ldiradi. Qutaybaning serdaromad va g'allakor yerlari uning birodari Bunyod ibn Tag'shodaga beriladi.

Qutayba ibn Muslim shimoli-sharq tomon g'olibona yurishlarini davom ettirib, 711–715-yillarda Toshkent, Ho'qand, Turkiston Chini (Sharqiy Turkiston)dan Koshg'argacha bo'lgan yerlarni egallaydi va Farg'ona orqali Marvga yo'l oladi. Bu davrda xalifa Valid vafot etgan, taxtga uning raqibi Sulaymon ibn Abdumalik o'tirgan edi.

Qutayba yangi xalifadan xavotirlanar va unga ishonmas edi. Shu bois yangi xalifaga qarshi isyon ko'tarib, isyonchi sifatida o'z askarlari tomonidan 715-yilda 47 yoshida o'ldiriladi.

Shu tariqa arablar o'zlariga nisbatan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan ancha ustun bo'lgan movarounnahrliklarni o'zlariga qaram qilib, mamlakatni mustamlakaga aylantirdi. Ularning bu ishni tez va oson amalga oshirganliklariga nimalar sabab bo'ldi?

Birinchidan, o'lka xalqlari o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy birlikning bo'lmaganligi va feodal tarqoqlikning mavjudligi. Arablar Movarounnahr yerlariga bostirib kelgan paytda o'lkada bir-biriga dushman bo'lgan 15 dan ortiq kichik-kichik mustaqil davlatlar bor edi. Bu holdan arablar ustalik bilan foydalandilar. Ikkinchidan, arablar ko'chmanchi turk qabilalari bilan mahalliy o'troq xalqlar o'rtasida mavjud qarama-qarshiliklardan ham foydalandilar. Uchinchidan, arablar Movarounnahr qadar juda ko'plab boshqa mamlakatlardan va aholi hududlarini bosib olgan, bu mamlakatlarning aholi kuchlari, moddiy boylik imkoniyatlari ham ularga qo'l keldi. To'rtinchidan, ular Movarounnahr qadar bostirib kirganlarida e'tiqod sohasida bu o'lka xalqlari birlashuviga

to'sqinlik qiladigan ko'pdinlilik holati hukm surar edi. Aynan shu holat ham bosqinchilar g'alabasini yengillashtirdi.

Arab istilochilari Movarounnahrda birinchi kundan boshlab qattiqqo'llik bilan arablashtirish siyosatini olib bordilar. Ushbu maqsad yo'lida ular ming-minglab arablarni Markaziy Osiyo hududlariga ko'chirib kelgan va eng yaxshi yerlarni ularga zo'rlik bilan berganlar. Jumladan, Qutayba Samarqand va Buxoroni egallagach, shahardagi uylarning yarmini arablarga bo'shatib berilishini talab qilgan va mahalliy xalq sig'inib kelgan, ma'naviy hayotida katta o'rin tutgan *Zardushtiylik*, *Buddizm* va boshqa dinlarni soxta, xurofiy, yolg'on g'oyalar deb atagan, xalqning ming-ming yillik ma'naviy boyligi, o'tmish tarixining yozma yodgorliklari – nodir asarlar-u kitoblarni gulxanda yondirishga farmon bergan.

Istilochilar ayni damda islom dinini qabul qilib musulmon bo'lgan mahalliy aholi vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlab, ularga imtiyozlar berdilar. Jumladan, islomni qabul qilganlar "juz'ya" va "xiroj" kabi soliqlardan ozod qilingan. Bu ikki soliqdan ozod qilish siyosatini xalifa Umar II ham qo'llagan va qonun ijrosini Xurosonga 717-yilda noiblikka tayinlangan Jarroh ibn Abdulladan talab qilgan.


Arab istilochilari yerli xalqni arablashtirish maqsadini ko'zlab islomni o'rganish, uni tashviq-targ'ib qilish bahonasida So'g'd, Xorazmiy, zardushtiylik kabi mahalliy xalq yozuvlarini yo'q qilib, adabiyot bilimdonlarini mamlakatdan quvg'in qildilar yoki qatl etdilar. Arab tili va arab alifbosi davlat tili darajasiga ko'tarilib, fan va adabiyot tili bo'lib qoldi. Arab tilining aholi keng qatlamlari orasiga yoyilishi va tarqalishiga to'sqinlik qiladigan hamma g'ovlar olib tashlandi, bu ishga zarracha bo'lsa-da qarshilik qiluvchilar shafqatsizlik bilan yo'q qilindi.

Buyuk alloma Beruniy bu haqda: "Qutayba Xorazm yozuvini yaxshi bilgan, ularning rivoyatlaridan xabardor bo'lib, xorazmliklarda mavjud fanlarni o'rgatgan kishilarni o'ldirdi va ularni har turli azob-uqubatlarga duchor qildi hamda bu rivoyatlar shunchalik yashirin bo'lib ketdiki (hatto xorazmliklarga), islom paydo bo'lganidan keyin nima bo'lganligini aniq bilib bo'lmay qoldi"¹, – deb yozib qoldirgan edi.

Arablar xalqni talash uchun ularni turli soliqlarni to'lashga majbur qildilar. "Juz'ya" jon boshiga solinadigan soliq bo'lib, musulmon bo'lmagan fuqarolardan asosan pul va natura shaklida undirilgan. "Xiroj" esa dehqonlar daromadidan undirilgan va bu daromadning 1/3 qismiga, hatto undan ortig'iga ham teng bo'lgan. "Zakot" dini islom bo'yicha gunohlardan "tozalanish" uchun mol-mulk va daromaddan berilgan sadaqa, xayr-ehson deb hisoblangan va

¹ Beruniy. Tanlangan asarlar. T., 1957. – 48-b.

shariatning besh asosiy talablaridan biri bo'lgan. "Zakot" odatda pul daromadlarining 1/40 ulushi (2,5) ga teng bo'lishi kerak edi. Yana "Ushr" (arabcha o'ndan bir) degan soliq ham bo'lgan. Bu soliq turi davlat foydasiga olinadigan soliq bo'lib, natura va pul shaklida asosan dehqonchilik mahsulotlaridan olingan. Arablar og'ir soliqlarni o'z vaqtida to'lay olmagan fuqarolarni haqoratlab va xo'rlab taxtachalarga "qarzdor" degan yozuvlar yozdirib, ularning bo'yniga osdirib qo'yar edilar.



720 – 722-yillarda arablarga qarshi Sug'diyonada ko'tarilgan qo'zg'olonga Samarqand hokimi G'o'rak va Panjikent hukmdori Divashtich boshchilik qilgan. Har safar bo'lganidek so'g'dliklarning ozodlik va erk uchun kurashlarini turklar qo'llab-quvvatlagan. Yettisuvdan, Turkash xoqon shahzoda Kursul boshchiligida katta qo'shinni yordam berish uchun Samarqandga yuborgan. So'g'dliklarning birlashgan kuchlari arablarga qarshi muvaffaqiyatli janglar qilib, bir necha sezilarli zarbalar ham bergan. Aynan shu paytda Xuroson noibi Said ibn Abdulaziz edi. U yumshoq tabiatli va ayni zamonda kiyim-kechakka o'ch bo'lganligidan unga "xuzayna" (uy bekasi ma'nosini anglatuvchi) laqab ham berilgan edi.

Arab xalifaligi Movarounnahrda ozodlik harakatlarini bostirish maqsadida o'zining shafqatsizligi bilan nom qozongan Said ibn Amr al-Haroshiy (721-yil)ni Xuroson noibi qilib tayinladi. U sug'dliklarni qamal qilib qirib tashladi. Divashtich esa qatl etildi.

Arab istilochilariga qarshi kurash bir daqiqa bo'lsa-da to'xtamadi va u mutasil davom etdi. 723-yilda Farg'ona podshosi bosh ko'tardi. Uni Shosh, Nasaf aholisi va turklar qo'llab-quvvatladilar. 725–729-yillar davomida arab xalifaligining soliq siyosatiga qarshi Samarqand, Buxoro va Xuttalonda qo'zg'olonlar bo'lib o'tdi. Yangi Xuroson noibi Ashros islomni qabul qilgan va qilmaganlardan ham bir xilda, avvalgidek soliq yig'averishni buyuradi. Bu tezda sug'd aholisining keskin noroziligiga sabab bo'lib, katta qo'zg'olonlarning boshlanishiga olib kelgan. Samarqandda boshlangan bu qo'zg'olonga yetti ming kishi qatnashgan. Qo'zg'olon kengayib Buxoroga tarqalgan. Samarqand va Buxorodagi qo'zg'olon qatnashchilari o'zlarini islom dinidan qaytganliklarini ochiq-oydin e'lon qilgan. Turklar qo'zg'olonchilarni qo'llab-quvvatlab, ularga yordam bergan. Qo'zg'olon hamma yerni qamrab olgan.

Ayniqsa, 728-yil arablar uchun juda og'ir bo'lganligi qayd etiladi. Qo'zg'olonchilar ularni juda ko'plab hududlardan haydab chiqargan. Faqat hukmdor G'o'rakning ikkiyuzlamalik va sotqinlik siyosati tufayli Dabusiya va Samarqand arablar qo'lida qolgan.

736-737-yillarda Tohariston va So'g'dda arablarga qarshi yana qo'zg'olon ko'tariladi. Natijada arablar juda og'ir ahvolga tushib qoladi va bu vaziyatdan qutulish maqsadida Xuroson va Movarounnahrning noiblari hamda amirlari bir necha marta o'zgartiriladi. Xususan, 738 – 748-yillarda hukmdorlik qilgan noib Nasr ibn Sayyor davrida ko'rilgan tadbirlar tufayli arab istilochilari o'lkada o'z mavqelarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ldi. U ma'lum bir muddat davomida mamlakatda nisbiy osoyishtalik o'rnata oldi. Sayyor bunga qanday erishdi? Avvalo u oqsuyak dehqonlar o'rtasidagi nizolardan foydalandi, ularning ko'pchiligini o'z tomoniga og'dirib oldi. Oqsuyak dehqonlar, lashkarboshilar imtiyozlarini saqlashga alohida e'tibor berdi, ular o'rtasida qon-qarindoshlik, urug'chilik aloqalarini o'rnatishni har taraflama qo'llab-quvvatladi. O'zi bu sohada namuna ko'rsatib Tag'shoda Buxorudotning qiziga uylandi va nihoyat u moliyaviy islohot ham o'tkazdi. Unga ko'ra, islom dinini qabul qilgan barcha kishilar juz'ya soliqlaridan ozod qilindi va barcha musulmonlar huquq jihatdan tenglashtirildi. Yer egasi esa qaysi e'tiqodda bo'lishidan qat'i nazar, xiroj solig'i to'lashi shart qilib qo'yildi.

Arablar bosib olgan hamma hududlarda, xususan, Xuroson va Movarounnahrda kuchayib ketgan mustamlakachilik zulmi xalq ommasining ummaviylar xalifaligiga nisbatan nafrat-u noroziligini kun sayin oshirib bordi. Ummaviylarni siyosiy hokimiyatdan ag'darib tashlashni o'z oldiga bosh vazifa qilib qo'ygan raqib guruhlar paydo bo'la boshladi. Ana shunday guruhlardan biri abbosiylar edilar. Bu sulolaga Muhammadning amakisi Abbosning evarasi Muhammad ibn Ali asos solgan. Abbosiylar ummaviylarni rasululloh avlodini qirib tashlashda ayblaydilar. Abbosiylik g'oyasi harakatini tashviq-targ'ib qilish maqsadida bu guruhning eng ishonchli, sodiq vakillari xalifalikning barcha hududlariga yuborildi. Ummaviylarga qarshi qo'poruvchilik harakati xalifa Marvon II (744 – 750) davrida g'oyatda kuchaydi.

Bu davrda ummaviylarga qarshi uyushtirilgan harakatga abbosiylarning e'tiborli va obro'li vakillaridan imom Ibrohim ibn Muhammad boshchilik qildi. Xuddi mana shu davrda Xurosondagi abbosiylar harakatiga boshchilik qilish uchun (746-yil) Abu Muslim (Abdurahmon ibn Asad) yuborilgan edi.

Abu Muslim Xurosonga kelgach o'zining qarorgohi qilib, Marv shahridan uch farsah g'arbda Xarkon kanali bo'yidagi mustahkamlangan Safizanj qishlog'ini tanladi. Abbosiylarni tamg'asi tim qora bo'yoq bo'lganligidan

u hamkorlari bilan birgalikda o'z kiyimlarini ana shu Safizanj qishlog'ida qora rangga bo'yab olib, o'z faoliyatini Xuroson aholisining yuqori tabaqa vakillariga murojaatdan boshladi. Uning qarorgohiga madadkor kuchlar oqib kela boshladi. Dinovariy bergan ma'lumotlarga qaraganda, qo'zg'olonchilar safi va geografik doirasi tobora kengayib bordi. Yetarli miqdorda kuch to'plaganligiga ishonch hosil qilgan Abu Muslim 747-yilda o'zining qora rangli libos kiygan qo'shinlarini ummaviylarga qarshi ochiq kurashga da'vat etdi. Aynan shu paytda Xuroson noibi Nasr ibn Sayyor bilan Marv boshlig'i Al-Kirmoniy o'rtasida nizo chiqib, ikki o'rtada urush boshlandi. Sayyor Kirmoniyni asir olib, qatl ettirdi.

Noib Nasr ibn Sayyor Kirmoniyni qatl ettirib katta xatoga yo'l qo'ydi. Kirmoniyning Azd qabilasi unga dushman bo'lib qoldi. O'g'li Ali ibn Junday Kirmoniy Abu Muslim tomonga o'tib Sayyorga qarshi kurash boshladi. Tahlikaga tushgan Nasr ibn Sayyor 748-yilda Marvni jangsiz tashlab, Nisho-purga chekindi. Ammo Abu Muslim boshchiligidagi qo'zg'olonchi kuchlar Nasrga hal qiluvchi zarbani berdilar. Bu mag'lubiyat ummaviylar hukmronligi taqdirini uzil-kesil hal qildi. Tez orada qo'zg'olonchilar Xurosonni egallab olib, 749-yilda Iroq va Jazoida ummaviylar qo'shinlariga bir necha bor qaqshatg'ich zarbalar berdilar. Shundan so'ng Abu Muslim lashkarlari poytaxt Damashqqa tomon yurish qildi va xalifa Marvon II ni taxtdan ag'dardi.

Shu tariqa xalifalik taxti abbosiylar qo'liga o'tdi. Ular 750 – 1258-yillar davomida xalifalik taxtini boshqardilar. Xalifalik taxtiga abbosiylardan birinchi bo'lib Muhammad payg'ambarning amaki avlodlaridan Abul Abbas as-Saffoh (794 – 754) o'tirdi.

Abbosiylarning hokimiyat tepasiga kelishida Abu Muslim so'zsiz sur'atda juda katta xizmatlar qildi. U o'z davrining yirik davlat arbobi va mashhur sarkardasi edi. Abu Muslim Xuroson va Movarounnahr xalqining ummaviylar zulmidan noroziligidan foydalanib, ularni o'z orqasidan ergashtira oldi va bir maqsad yo'lida birlashtirdi. Uning shaxsiy jasorati, sarkardalik qobiliyati, uning Xuroson va Movarounnahrda katta obro'-e'tiboridan qo'rqqan xalifa "Abu Muslim shuhratparast odam, u davlat to'ntarishi yasamoqchi" degan bahona bilan uni Iroqdan chiqarib yubordi, so'ng Xuroson va Movarounnahrda noib qilib jo'natildi. Biroq, shu narsani alohida qayd etish lozimki, Abu Muslim Xuroson va Movarounnahrda noib bo'lib turgan davrda mehnatkash xalq ommasining ahvolidan biror-bir ijobiy o'zgarish bo'lgani yo'q. Aksincha, xalq ommasi ikki tomonlama zulm ostida azob chekdi, soliqlar siyosati yanada kuchaytirildi.

Abbosiylar harakati va Abu Muslim qo'zg'olonlaridan biron manfaat ko'rmagan xalq yangi sulola hukmronligiga ham qarshi kurashni boshla-

di. 750-yilda Buxoroda qo'zg'olon ko'tarildi. Qo'zg'olonga asli arablardan bo'lgan Sharik ibn Shayx Almaxriy boshchilik qildi.

Buxorodagi bu qo'zg'olon boshlig'i shia mazhabida bo'lib, "payg'ambarimizning kuyovi – to'rtinchi xalifa Alining avlodlarigina xalifa bo'lishga haqlidir", degan g'oyani ilgari surgan. Qo'zg'olon Markaziy Osiyo hududlarining kattagina qismiga yoyilgan va unda 30 ming kishi qatnashgan. Hatto Buxoro amiri Abdujabbor ibn Shuayb va Xorazm xoni Abdumalik ibn Xuzayl kabi nufuzli kishilar ham bu qo'zg'olonga tarafdorlik qilganlar. Qo'zg'olonning asosiy kuchi so'g'd va arab mehnatkashlar ommasi edi. Dastlab Abu Muslim bu qo'zg'oloni bostirish uchun Ziyod ibn Solih boshchiligida 10 ming qo'shin yuborib uni bostira olmagan edi. Faqat Tag'shoda bu ishga bosh qo'shgach, qo'zg'olon bostiriladi. Shahar uch kun mobaynida yondiriladi. Ziyod ibn Solih qo'zg'olonchilardan qattiq o'ch oladi va ularni shafqatsizlarcha qirg'in qiladi.

Movarounnahrda arablarga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olon tufayli mamlakatda vujudga kelgan ichki ziddiyat va to'polonlardan foydalangan Xitoy davlatining qo'shinlari sarkarda Gao-Syan-Chji boshchiligida Markaziy Osiyo hududiga bostirib kiradilar. 751-yilda Talas vodiysida Xitoy qo'shinlari bilan Abu Muslim tomonidan yuborilgan lashkarlar o'rtasida dahshatli jang bo'ldi. Bu jang arablarning g'alabasi bilan yakunlanadi.

Abbosiy xalifalar Abu Muslimni taxtga birinchi da'vogar hisoblab, uni yo'qotish payiga tushdilar. Nihoyat, 755-yilda Xalifa Mansur (754 – 775) Makkaga yo'lga otlangan Abu Muslimni o'z saroyiga kirib o'tishini so'raydi. Qurolsiz va yolg'iz saroyga kirgan Abu Muslimni Mansur poyloqchilari qo'lga olib, uni o'ldiradilar. Bu dahshatli fojia Xuroson va Movarounnahrda abbosiylarga qarshi xalq harakatlarini yanada kuchli tus olishiga turtki bo'ladi. Ana shunday harakatlardan biri Abu Muslimning o'chini olish maqsadida 755-yilda Reyda Sunbod boshchiligida bo'lib o'tdi. Bu qo'zg'olon Tabariy ma'lumotlariga ko'ra, 70 kun davom etgan. Qo'zg'olon qattiqqo'llik bilan bostirilgan, qo'zg'olonchilardan olti mingga yaqin kishi o'ldirilgan. Qo'zg'olon rahbari Sunbod qo'lga olinib, qatl etilgan.

Sunbod qo'zg'oloni bilan bir vaqtning o'zida Movarounnahrda ham abbosiylarga qarshi harakat boshlangan. Bu qo'zg'olonning rahbari Abu Muslim harakatining otashin tarafdori Ishoq edi.

Movarounnahrda arablar hukmronligiga qarshi ko'tarilgan va bosqinchilarga katta talofot ko'rsatgan qo'zg'olon 776-yilda boshlangan **Muqanna** qo'zg'olonidir. Bu qo'zg'olon deyarli butun Markaziy Osiyo hududlariga tarqaldi. Muqanna ism emas, balki laqabdir. Bu so'z "niqobdor", "pardali" ma'nolarini anglatadi. Muqannaning asl ismi Hoshim ibn Hakim bo'lib,

uning ismi va shaxsi to'g'risida yozma manbalarda turlicha ma'lumotlar mavjud. Jumladan, Ya'qubiy uni Hakim al-A'var (bir ko'zli) Hoshim deb atalgan. Ibn Xallikan uning ismi Ota bo'lgan deydi. Narshaxiy esa "Hoshim ibn Hakimni Muqanna deyishlariga sabab, u juda xunuk, boshi kal va bir ko'zi ko'ri bo'lganidan hamisha boshi va yuziga ko'k parda tutib yurardi"¹, deb yozadi. Muqannaning ish faoliyati to'g'risida ham har xil rivoyatlar bor. Ba'zi birovlar uni qul bo'lgan desa, boshqa birovlar kir yuvish bilan shug'ullangan, yana ba'zi kimsalar esa kigizchilik bilan mashg'ul bo'lgan, deb rivoyat qiladilar. Narshaxiy Muqannani aqlli va o'qimishli bo'lganligini tan oladi. Darhaqiqat, u savodli va nihoyatda bilimdon bo'lgan. Muqanna Abu Muslim (750 – 755) qo'shinida kichik lashkarboshi edi va Abduljabbor Azdiy davrida (757 – 759) esa vazirlik darajasigacha ko'tarilgan.

Movarounnahrda Muqanna boshchiligidagi qo'zg'olon o'z qatnashchilarining liboslariga qarab tarixga "Oq kiyimlilar" nomi bilan ham kirgan.

Muqanna o'zini payg'ambar deb e'lon qilgan. Shu bois uni xalifa Mansur qamoqqa olib yangi qurilgan Bag'dod zindoniga tashlaydi. Narshaxiyning ma'lumotiga qaraganda, Muqanna ancha vaqt zindonda yotib, so'ng qochib Marvga keladi va 776-yilda xalifaga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonga rahbarlik qiladi.

Muqanna Marvdan turib Markaziy Osiyoning turli viloyat va shaharlariga o'zining ishonchli odamlarini jo'natadi. Ular joylarda Muqanna g'oyalarini targ'ib qiladilar.

Muqanna So'g'dda harakatning keng quloq yoyib rivojlanganligiga ishon-gach. qo'zg'olonga bevosita rahbarlik qilish maqsadida o'zining 36 muxlisi bilan Jayhun daryosining o'ng qirg'og'iga o'tib, Naxshab va u yerdan Kesh shahriga yetib boradi. Kesh shahri yaqinidagi tog' tepasida bino qilingan Som qal'asini o'zining mustahkam qarorgohiga aylantiradi. Tez orada butun Qash-qadaryo vohasi qo'zg'olonchilar tomoniga o'tadi.

"Oq kiyimlilar" harakati Zarafshon vohasiga ham yoyiladi. Samarqand bilan Buxoro qo'zg'olon markazlariga aylanadi. Hatto Buxorxudot Bunday ibn Tag'shoda islom dinidan qaytib. qo'zg'olonchi vatanparvarlar tomoniga o'tadi. Tez orada Iloq (Ohangaron) vodiysi, Shosh, Farg'ona ham qo'zg'olonchilarni yoqlab chiqadi. Turk xoqoni o'z og'asi Kil boshchiligida Muqanna qo'zg'oloniga xayrixoh bo'lib qo'shin yuboradi. Xullas, bu qo'zg'olonning dovrug'i Xurosongacha borib yetadi va abbosiy hukmdorlarini vahimaga soladi.

Qo'zg'olonidan dahshatga tushgan xalifa Abu Ja'far qo'zg'olonni bostirish uchun Jabroil va Uqaba boshchiligida o'n ming qo'shin yuboradi.

¹ *Narshaxiy*. Buxoro tarixi. – T.: "Kamalak", 1991. – 138-b.

Lekin Samarqand ostonalarida yengilgan arablar katta talofot ko'radilar. Qo'zg'olonchilar hujumni janubga tomon davom ettiradi va Termiz yaqinida qo'shimcha yordamga kelayotgan arab qo'shinlariga kutilmaganda hujum qilib, uni tor-mor keltiradi. Natijada Naxshab va Chag'oniyon vodiylari bata-mom qo'zg'olonchilar qo'liga o'tadi.

Qo'zg'olon markazlaridan yana biri Buxoro va uning atrof yerlari edi. Muqanna tarafdorlari bu yerda ham juda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Biroq, ular Buxoroni qo'lga kirita olmadilar. "Oq kiyimlilar" Buxoroga yaqin bo'lgan Narshax qishlog'ini o'zlarining mustahkam qo'rg'onlariga aylantirgan, bu qishloq hokimi (ayol kishi edi) ham qo'zg'olonchilar tomoniga o'tgan edi. Albatta, bu Buxoro uchun katta xavf ekanligini arablar yaxshi bilar edi. Shuning uchun 776-yil aprelida Samarqand noibi arab qo'mondoni (775-yilda Samarqandga noiblikka tayinlangan edi) Jabroil va Buxoro amiri Husayn ibn Maozning birlashgan kuchlari "oq kiyimlilar" qo'rg'oni Narshaxga hujum boshlaydi. Qo'zg'olonchilar mag'lubiyatga uchrab, ulardan 700 kishi o'ldiriladi. Qo'zg'olonchilar uchun bu mag'lubiyat eng katta yo'qotish edi. Ikki o'rtada sulh shartnomasi tuziladi. Ammo musulmon askarlari hali Buxoroga yetib kelishga ulgurmasdanoq Muqanna tarafdorlari yana qo'zg'olon ko'taradilar. Arablar Narshax qal'asini qamal qilishadi. Son jihatdan ustun bo'lgan arab qo'shinlari Narshax qo'rg'onining devori tagidan uzunasiga 50 gazli chuqur qazib, uni qulatgach qishloqqa bostirib kiradilar. Qattiq qirg'in bo'lib, qo'zg'olonchilar yengiladi. Arablar Narshax qishlog'ida isyonchilarni qonga botirgach, o'zlarining butun diqqat-e'tiborlarini qo'zg'olonning markazi Samarqand va Keshga qaratadilar. Chunki hali butun Movarounnahr Muqanna qo'li ostida edi. Qashqadaryo vohasidagi "oq kiyimlilar" kuchlariga Muqannaning o'zi, Samarqand va Zarafshon atrofidagi kuchlarga esa so'g'dlik So'g'diyon rahbarlik qildi.

Muqannaga qarshi kurashgan arablarning Jabroil ibn Yahyo va Maoz ibn Muslim boshchiligidagi birlashgan kuchlari ham ular ustidan sezilarli yutuqqa erisha olmagan. Faqat 777-778-yillar davomidagi urush harakatlari chog'ida buxorolik bir kishi tomonidan iste'dodli sarkarda Sug'diyonning o'ldirilishi "oq kiyimlilar" uchun juda katta yo'qotish bo'lgan. Shundan so'nggina arablar Samarqandni ishg'ol qilganlar.

Muqanna qo'zg'oloniga qarshi kurashning haddan tashqari cho'zilib ketganligi xalifa Mahdiyini juda tashvishga solayotgan edi. U qanday qilib bo'lmasin qo'zg'olonni tezroq bostirish uchun zarur choralar ko'radi.

"Oq kiyimlilar"ga qarshi arablarning kurashi yangi davrga kiradi. 780 – 783-yillarni o'z ichiga olgan bu kurash davrining bosh maqsadi "oq kiyim-

lilar” qo‘zg‘olonining rahbari Muqannani tor-mor keltirishdan iborat edi. Bu davrga kelib mahalliy oqsuyak va zodagon dehqonlar ozodlik va erk uchun olib borilgan kurash manfaatlariga xiyonat qilib, sotqinlarcha arablar tomoniga o‘tadilar. Kesh shahri va Muqanna qarorgohi mustahkam Som qal‘asi atrofida keskin va shiddatli janglar bo‘ladi. Qo‘zg‘olonchilarning so‘nggi tayanchi Som qal‘asi ham egallanadi.

Arablar tomonidan qo‘zg‘olonni bostirilishida xalifaning keskin choralar ko‘rib madad kuchlari yuborishi, mahalliy zodagonlarni o‘z tomoniga og‘dirib olishi bilan birgalikda arab qo‘mondonligi tarkibini o‘zgartirishi ham muhim sabablardan biri edi.

Xalifa Mahdiy arab qo‘shinlariga johil va shafqatsiz sarkarda Said Xoroshiyni qo‘mondon etib tayinlagan edi.

Shu tariqa qariyb o‘n yil davom etgan, arab xalifaligini larzaga solgan Muqanna qo‘zg‘oloni mag‘lubiyatga uchradi. Buning sabablari quyidagilar:

1. Kuchlar nisbatining, harbiy kuchlarning harbiy va moddiy ta‘minotining teng emasligi.

2. Qo‘zg‘olonchilarning turli tabaqaga mansubligi va ular o‘rtasida birlikning yo‘qligi.

3. Ular orasidagi vatanfurush kuchlarning bosqinchilar tomoniga o‘tganligi.

4. “Oq kiyimlilar” harakatida onglilik va dasturiy yo‘nalishning yetishmaganligi.

5. Qo‘zg‘olon rahbari Muqannaning qo‘zg‘olonga bevosita o‘zi rahbarlik qilolmaganligi, ko‘p vaqtini aysh-ishratda o‘tkazganligi va h.k.

“Oq kiyimlilar” qo‘zg‘oloni mag‘lubiyatga uchragan bo‘lsa-da, tarixda juda katta iz qoldirdi. Arab xalifaligining mustamlakachilik, bosqinchilik ildizlariga bolta urdi.

Qo‘zg‘olon saboqlari xalq ommasining kuchi birlikda ekanligini ko‘rsatdi.

Yozma tarixiy manbalarda, Muqannaning taqdiri turlicha talqin etiladi. Tarixchi Tabariyning yozishicha, Muqanna o‘z halokatining muqarrarligiga ko‘zi yetgach, zahar ichgan. Som qal‘asiga kirgan arablar uning jasadini topgan va boshini kesib o‘sha davrda Halabda turgan xalifa Mahdiyga olib borganlar. Narshaxiy bo‘lsa, afsonaga o‘xshashroq rivoyatni hikoya qiladi. Uning yozishicha, Muqanna o‘zini yonib turgan o‘tga tashlagan. Bu fikrni **Bar Yahudiy** (Abul Faroj) ham takrorlaydi. Muqannaning qachon vafot etganligi haqidagi fikrlar ham bir xil emas. Narshaxiyning o‘zi Muqannaning vafoti to‘g‘risida bir-birini inkor etuvchi ikkita yilni tilga oladi: 782 va 783-yillar.

Abu Rayhon Beruniy o‘zining “Xronologiya” asarida Muqannaning o‘limi xususida ikki xil rivoyat keltirgan. Ularning birida Muqanna o‘ldirilgan

deyilsa, ikkinchisida o'zini o'zi o'tga tashlab o'ldirgan, deyiladi. U Muqanna 785-yilda olamdan o'tgan deb yozadi.

Movarounnahrning Arab xalifaligi tomonidan egallanishi bilan bu yerda Islom diniga e'tiqod qilish boshlandi. Islom so'zi – arabcha “Xudoga o'zini topshirish”, “Itoat”, “Bo'ysunish” ma'nosini anglatadi. Shundan, bu dinga ishonuvchilar arabcha “muslim” (bo'yin eguvchi) deb ataladi. Qur'on – arabcha qiroat, o'quv, degan ma'noni anglatib, unda Islom shariatining asosiy manbalari o'z ifodasini topgan. Bu muqaddas kitobda Islom aqidalari, e'tiqod talablari, huquqiy va axloqiy normalari, cheklash va taqiqlari bayon etilgan. Islom an'anasida Qur'on Alloh tomonidan Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ga 23 yil davomida farishta Jabroil orqali vahiy qilingan (uqtirilgan), deb tasavvur qilinadi. Islomshunos olimlar bu muqaddas kitobning yozilish tarixini ilmiy asoslaganlar. Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) hayotlik chog'ida uning targ'ibotlari ma'lum tartibda yozib borilmagan, omma orasida faqat og'zaki tarqalgan, uning ba'zi targ'ibotlarigina turli ma'lumotlar va ashyolar (tosh, sopol, taxtakach, pergament va boshqalar)ga yozib kelingan. Muhammad alayhissalom vafotidan so'ng uning targ'ibotlarini xalifa Abu Bakr tartibga solib yozishni Muhammad alayhissalom hayotining so'nggi davrlarida unga kotiblik qilgan Zayd ibn Zobitga topshiradi. Ana shu tariqa 632-yilda birinchi marta Qur'onning to'la bo'lmagan xomaki birinchi matn nusxasi paydo bo'ladi.

Bu birinchi matn nusxasi o'zbek tilida “Sahifalar” ma'nosini beruvchi “Suhuf” nomi bilan ataladi. Xalifa Usmon davrida Qur'onning hozirgi nusxasini yozib tugallash muammosi hal qilinadi. U Zayd ibn Zobitga Qur'on matnlarini to'plagan ba'zi shaxslar bilan mavjud to'plamlarni taqqoslab yagona matn yaratishni topshiradi. Matn tayyor bo'lgach, 651-yilda Qur'on kitob shakliga keltiriladi. Bu tarixda “mushaf”, ko'pincha, “Usmon mushafi” nomi bilan yuritiladi. Xalifa bu to'plam tuzilib bo'lgach, undan farq qiluvchi to'plamlarning barchasini yo'q qilishga farmon beradi. “Usmon mushafi” muqaddas kitob sifatida rasmiy ravishda e'tirof etilgan.

Ushbu “Qur'on”ning bir nusxasi bizga ham yetib kelib, 1869-yilga qadar Samarqanddagi Xo'ja Ahror masjidida saqlangan. 1869-yil 24-oktabrda fon-Kaufman ko'rsatmasi bilan Peterburgga olib ketilgan.

Rus bosqini va sovetlar davrida islom dini va “Qur'oni karim” kitobi xalq ommasi uchun zararli, deb markscha-lenincha g'oyaga asoslangan “Din xalq uchun afyundir” degan shiori ishlab chiqildi. Aynan shu shior orqali bosqinchilar xalqni islom ta'limoti va uning muqaddas kitobidan uzoqda saqlashga harakat qildilar.

Oktabr to'ntarishidan keyin Butunrossiya musulmonlar jamiyatining raisi Usmon Tukumbayev muqaddas kitobni o'z egalariga qaytarishni so'rab, RSFSR Xalq Komissarlari soveti (XKS)ga murojaat qiladi. RSFSR XKS 1917-yil 9 (22)-dekabrda "Usmon Qur'oni"ni musulmonlar syezdiga qaytarib berish to'g'risida"gi hujjatni tasdiqlaydi.

"Usmon Qur'oni" shu yili katta tantana bilan Ufa shahriga keltiriladi. Lekin bu bilan Turkiston musulmonlari tinchimadilar. Toshkent, Ufa va Moskva o'rtasidagi bir qancha o'zaro bordi-keldi va yozishmalardan so'ng markaziy hukumatning 1923-yil 25-iyundagi qarori bilan ushbu Qur'on kitobi o'zining haqiqiy vorislari bo'lgan Turkiston musulmonlariga beriladi. U bir qancha vaqt Toshkentdagi masjidlardan birida saqlangan, so'ngra xavfsizlik maqsadlarini ko'zlab O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyiga topshirilgan. 1989-yil 14-mart kuni Toshkentda bo'lib o'tgan umumiy Musulmonlar to'rtinchi qurultoyida O'zbekiston hukumatining qarori bilan "Mushafi Usmon" musulmonlar ixtiyoriga qaytarib berilganligi e'lon qilindi. Hozirda bu muqaddas kitob Movarounnahr musulmonlari Diniy idorasi qoshidagi Muiy Muborak kutubxonasida saqlanmoqda.

"Qur'oni karim" kitobi 114 suradan iborat: har bir sura oyatlarga bo'lingan. Suralarning har biri nomlangan. U o'ttiz juz, ya'ni qismga bo'linadi. Buni odatda o'ttiz pora deyдилar. Qur'on nafaqat falsafiy, huquqiy yozma yodgorlik bo'lib qolmay, balki unda axloq-odob, ota-ona va qarindosh-urug'larga hurmat, halollik, poklik, to'g'rilik, yetim-yesir, kambag'al miskinlarga muruvvat, birovning haqini yemaslik, omonatga xiyonat qilmaslik, do'stlik, birodarlik kabi juda ko'p ijobiy g'oyalar o'zining mujassamini topgan. Qur'on poraxo'rlik, o'g'irlik, ichkilikbozlik, zino (fohishalik), yolg'onchilik, g'iybat, nohaq qon to'kish kabi juda ko'plab illatlarni qattiq qoralaydi. O'z vaqtida Qur'on O'rta Osiyoda feodal tarqoqlikka qarshi kurashda, markazlashgan feodal davlatlarning vujudga kelishida so'zsiz ijobiy o'rin tutgan. Bugungi kunda ham xalqning o'zini anglashida, milliy o'tmish qadriyatlarini tiklanishida va O'zbekistonning davlat mustaqilligini mustahkamlashda uning ahamiyati nihoyatda katta. Xususan, Qur'on yosh avlodning axloqiy-g'oyaviy dunyoqarashini shakllantirishda va oliyjanob insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashda bebaho o'rin tutadi.

Qur'on insoniyat taraqqiyotida muhim o'rin tutadigan ilmni ulug'laydi va shu bois unda ilm so'zi 750 marta takrorlanadi.

Tayanch soʻz va iboralar:

Feodal munosabatlar. Yerga egalik. Kadivarlar. Kashovarlar. Choqarlar. Termizshohlar. Chagʻoniyon. Sugʻdiyona. Ipak yoʻli. Sosoniylar. Kidariylar. Eftaliylar. Eftaliylar davlati. Turk xoqonligi. Istami va Bumin. Shad. Ixshid. Ixrid. Jabgʻu. Chagʻonxudot. Arab xalifaligi. Islom dini. Ubaydulloh Ziyod. Qutayba ibn Muslim. Abu Muslim. Islom dinining yoyilishi. Soliqlar. Gʻoʻrak. Divashtich. Muqanna. Oq kiyimlilar. Qurʻon.

Bilimingizni sinab koʻring

1. Milodiy V asrda Oʻzbekistonning markaziy qismi Soʻgʻdiyona uchta mustaqil (Markaziy Soʻgʻd, Gʻarbiy Soʻgʻd, Janubiy Soʻgʻd) viloyat hokimliklari shakllangan. Har bir viloyat bir necha tuman (...)ga boʻlingan. Bu tumanlar manbalarda qanday nom bilan berilgan? Tuman maʼnosini bergan soʻzni katakchalardan toping.

	u			a	
--	---	--	--	---	--

2. Milodiy V asr 2-choragidan boshlab siyosiy maydonga chiqqan eftaliylar Eron sosoniylari bilan koʻp urush olib borgan. Ular hatto sosoniylarning bir podshosini ikki urushda ikki marta asirga tushirgan. Birinchisida Vizantiya aralashuvi bilan asirlikdan qutulgan hukmdor, ikkinchi marta asir tushganda 30 xachir kumush dirham evaziga ozod etilgan. Katakchalarda ushbu sosoniy hukmdor nomi keltirilgan.

			o	
--	--	--	---	--

3. Eftaliylar davrida jamiyatda feodal munosabatlar boshlanishiga qaramay, ular hayotida ibtidoiy jamiyatning ayrim sarqitlari saqlangan. Eftaliylarning oliy tabaqa vakillari hayotida bir oilaviy odat ham hukm surgan. Bu qanday oilaviy odat edi?

	oʻ				i			i	l	i	k
--	----	--	--	--	---	--	--	---	---	---	---

4. Rivoyatlarda keltirilishicha, turkiylarning qadimgi ajdodlari Turfondan Jujan qabilasi yerlari – Oltoyga kelib qoladi va temir qazish ishlari bilan shugʻullanadi. Aynan ular Oltoyda turk nomini oladi. Afsonaga koʻra, turk nomi bir togʻning qadimiy nomi boʻlgan. Bu togʻning nomi katakchalarda keltirilgan.

			o	
--	--	--	---	--

t	o	f	i
---	---	---	---

5. Turk xoqonligi tarixida bir hukmdor adolatparvar, xalqparvar xoqon sifatida nom qozongan. U turk xalqining vatani abadiy bo'lishi uchun kurashgan. Shu bois, bu xoqonning ismi "dono" degan ma'noni ham anglatgan. Bu dono xoqon kim edi?

		l		
--	--	---	--	--

h	o	q	o	n
---	---	---	---	---

6. Xoqonlik davrida ajdodlar san'ati ancha yuksak bo'lgan. Raqqoslarning mahorati shu darajada kuchli bo'lganki, ularni hatto qo'shni davlatlarda, shu jumladan, Xitoyda ham g'oyatda qadrlashgan. O'lkaning bir san'at yo'nalishi xitoyliklarni lol qoldirib, bu san'at Xitoyga o'zbek madaniyati namunasi sifatida kirib borgan.

Xitoyga kirib borgan san'at yo'nalishining nomlanishini toping.

	o'		i			o	
--	----	--	---	--	--	---	--

				r	i
--	--	--	--	---	---

7. Payg'ambar Muhammad alayhissalom 622-yili 24-sentabrda Makkadan Yasrib (Madina)ga hijrat (ko'chib borish) qilgan. Islom tarixida ko'chib borganlar "muhojirlar" (ko'chib kelganlar) deyilib, u yerdagi islomni qabul qilganlar esa "ansorlar" deb nom olgan. Xo'sh, muhojirlar ko'chib kelganlarni anglatar ekan, ansorlar so'zi o'zbek tilida nimani anglatadi?

	r			m			l	a	r
--	---	--	--	---	--	--	---	---	---

8. Arablar Movarounnahr va uning poytaxti Samarqandga yurish qilganlarida qo'shin qatorida payg'ambar avlodlaridan ham bir kishi bo'lgan. Uning taqdiri to'g'risida turlicha ma'lumotlar bor. Ba'zilar uni Samarqandda o'ldirilgan desa, boshqalar u Marvda vafot etgan, deb hisoblaydi. Biroq, nima bo'lganda ham Narshaxiyning "Buxoro tarixi"da yozilishicha, Samarqanddagi Shohizinda ziyoratgoh majmuasi shu shaxs nomi bilan bog'liq. Bu shaxsning nomini katakchalardan toping.

	u		a	
--	---	--	---	--

i	b	n
---	---	---

			o	
--	--	--	---	--

9. Qutayba ibn Muslim Buxoroga to'rt marta yurish qilgan. To'rtinchi marta yurishi chog'ida arablar Buxoroni egallab, Buxoro hukmdorini islom dinini qabul qilishga majbur etadi. Shu sabab, uning o'zi hukmdor sifatida qoldiriladi. U hatto o'z merosxo'riga Qutayba deb ism qo'ygan. Bu o'g'il Qutayba Abu Muslim davrida dindan qaytadi. Shuning uchun Abu Muslim uni o'ldirtirgan.

Xo'sh, Qutayba ibn Muslim Buxoroni egallab, Buxoroga boshchi qilib qoldirgan bu hukmdor kim edi?

	o			o		
--	---	--	--	---	--	--

10. Arablar O'rta Osiyoni egallagach, islomni yoyish maqsadida turli yo'llardan foydalangan. Jumladan, islomni qabul qilganlar ikki turdagi soliqdan ozod qilingan bo'lsa, bosh tortganlardan esa bunday soliqlar qattiqqo'llik bilan undirib olingan.

Katakchalarda bu ikki soliqning nomlari yashiringan.

--	--	--	--	--

v	a
---	---

	i			
--	---	--	--	--

V BOB. IX–XII ASRLARDA O‘ZBEK DAVLATCHILIGI: SIYOSIY, IJTIMOIIY-IQTISODIY VA MADANIY HAYOT

Mavzu rejası:

1. Tohiriylar va Somoniylar davlati.
2. Qoraxoniylar va G‘aznaviylar davlati.
3. Saljuqiylar va Xorazmshohlar davlati.
4. IX – XII asrlarda O‘rta Osiyo xalqlari hayotida uyg‘onish (renessans) davri. Buyuk ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi.

1. TOHIRIYLAR VA SOMONIYLAR DAVLATI

IX asr boshlarida arab xalifaligi hududlarida yuz berayotgan ziddiyatli jarayonlar, siyosiy tangliklar, 806 – 810-yillarda bu hududda bo‘lib o‘tgan Rofe ibn Lays boshchiligidagi qo‘zg‘olon mazkur o‘lka xalqlari uchun arab xalifaligi tobeligidan qutulish, o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritish yo‘lida qulay imkoniyatlarni vujudga keltirdi. Shuningdek, mashhur xalifa Xorun ar-Rashid (786 – 809) vafoti bilan o‘g‘illari **Amin va Ma‘mun** o‘rtasida boshlangan taxt uchun kurash ham xalifalik hududlaridagi voqealar rivojiga ta‘sir ko‘rsatdi.

Ma‘munga xizmat qilgan xurosonlik Tohir ibn Husayn (Hirot viloyatining Bushang shahridan) qo‘shini Aminga qarshi kurashib, 813-yilda Bag‘dodni egallab, xalifalik taxtiga ko‘tariladi. Biroq, 819-yilga qadar Marvdan turib xalifalik hokimiyatini boshqaradi. Ma‘mun Marvdaligidayoq o‘z atrofiga xalifalik hududidagi olimlarni to‘play olgan edi. 819-yilda Bag‘dodga borgach, u yerda “Bayt ul-hikma” (Donishmandlar uyi)ga asos soladi. U yerdagi olimlarning aksariyati movarounnahrliklar edi.

Xalifalikda Tohir ibn Husayn katta hurmat-e‘tiborga loyiq nufuzli kishi bo‘lib qoldi. 821-yilda u Xurosonning noibi etib tayinlandi. Movarounnahr ham Xuroson noibligi tarkibiga kirar edi. Tohir o‘z qo‘l ostidagi keng viloyatlarni mustaqil davlatga aylantirish uchun ochiqdan-ochiq harakat qilib, noiblikka tayinlangan kunidan bir yil o‘tar-o‘tmas, jome‘ masjidida juma namozida o‘qiladigan xutbadan xalifa nomini chiqarib tashlashga buyruq berdi. Bu o‘sha davr uchun xalifaga qarshi ko‘tarilgan isyon bilan teng edi. Bu voqeadan ko‘p vaqt o‘tmay Tohir ibn Husayn to‘satdan (822-yilda) vafot etdi.

Tohirning o'limi haqida mish-mishlar tarqalgani uchun xalifa uning o'rniga navbatma-navbat o'g'illari Talxa ibn Tohir (822 – 830) va Abdulloh ibn Tohir (830 – 844)ni Xuroson noibi qilib qo'yadi. Shu bilan Xuroson va Movarounnahrda yangi Tohiriylar sulolasi hukmronligi boshlanadi.

Abdullohning noibliigi davrida (830 – 844) Xuroson xalifaga rasman qaram – vassal bo'lsa-da, amalda mustaqil davlatga aylanib, poytaxt Marvdan Nishopurga ko'chirildi.

Tohiriy hukmdorlar, ayniqsa, so'nggi hukmdorlar: Tohir ibn Abdulloh (844 – 862), Muhammad ibn Tohir (862 – 873) davrida oddiy xalq ahvoli ancha og'irlashadi. Ular haddan ziyod o'lpon va soliqlar to'lashga majbur etiladi. Jumladan, birgina 844-yilda ulardan olinadigan soliq miqdori 48 mln dirhamni tashkil etgan. Bu holatlar tohiriylarga qarshi xalq g'alayonlarini kuchayishiga sabab bo'lgan.

IX asrning 60-yillaridan e'tiboran Tohiriy hukmdorlariga qarshi xalq harakatlari yanada kuchaydi. Bu harakatlarga G'oziyalar boshchilik qildilar ("G'oziyalar" asosan ko'chmanchi qabilalar hujumini bartaraf qilish maqsadida kambag'al hunarmandlar va yersiz ziroatchilardan tashkil topgan qurolli qo'shin edi). Ularning harakatini aka-uka Yoqub va Amir inb Lays boshqardi. Ular dastlab Seyistonda hokimiyatni qo'lga olgach, 873-yilda Tohiriylarning qo'shinlariga katta zarba berib, Xuroson poytaxti Nishopurni egalladilar. Shu davrdan e'tiboran tohiriylar sulolasi barham topdi.

Hokimiyat Yoqub ibn Lays boshchiligidagi Safforiylar (misgarlar) sulolasi boshqaruviga o'tdi. Biroq, Yoqub ibn Lays davrida ham oddiy xalq ahvoli yaxshilanmadi, ular og'ir soliqlar to'lash, turli majburiyatlarni bajarishdan ozod etilmadi. Bularning barchasi safforiylar sulolasi hukmronligining halokatiga sabab bo'ldi.

Movarounnahrda Arab xalifaligi hukmronligidan so'ng dastlabki mustaqil davlat Somoniylar davlati hisoblanadi. Yuqorida aytilganidek, xalifa Ma'mun o'ziga sodiqlik bilan xizmat qilgan mahalliy hukmdorlarga bir qator huquqlar bergan edi. Bunday huquqlar balxlik mahalliy hukmdor Somonxudot (Somon qishlog'i oqsoqoli. Manbalarda bu qishloq Balx, Samarqand yoki Termiz atrofida joylashganligi haqida ma'lumotlar uchraydi) nabiralariga ham beriladi. Bu nabiralar: **Nuhga** Samarqandni, **Ahmadga** Farg'onani, **Yahyoga** Shosh va Ustrushonani boshqarish huquqlari berilgan edi.


IX asr o'rtalariga kelib **Ahmad** va uning katta o'g'li **Nasr Somoniylar** Movarounnahrning katta qismini birlashtirishga muvaffaq bo'ladi va Samarqandni poytaxt deb e'lon qiladi. **Nasr Somoniy** (856 – 888) davrida Movarounnahr mavqeyi ancha kuchaydi.

873-yilda Tohiriylar taxtdan agʻdarilgach, uning tarkibiga kirgan Buxoro ham Somoniylar tasarrufiga oʻtadi. Nasr ukasi Ismoilni Buxoroga noib etib tayinlaydi (874) va Movarounnahr toʻliq Somoniylar qoʻliga oʻtadi.

Keyinchalik ikki aka-uka oʻrtasidagi kelishmovchiliklar sababli 888-yilda urush kelib chiqib, bu urushda **Ismoil Somoniy** gʻolib chiqib, butun Movarounnahrni boshqarishni oʻz qoʻliga oladi.

Ana shu tariqa, Movarounnahrda davlat mustaqilligi qayta tiklanib, yuksalib boradi. Buxoro davlat poytaxtiga aylanadi.

Davlat boshqaruvi



Somoniy hukmdorlar orasida odobli va tadbirkor Ismoil Somoniyni taxtga oʻtirishi (892-yil) arab xalifasi Muaʼtazid (892 – 902)ga ham, Xuroson noibi Amir ibn Laysga ham yoqmagani. Buning isbotini xalifa Ismoilni Mova-

rounnahr taxtidan mahrum etib, Xuroson noibini Movarounnahr ustidan ham hukm yuritish huquqi bilan ta'minlagani haqidagi farmonidan ham bilib olish mumkin. Bu farmon Xuroson hokimini Ismoilga qarshi gij-gijlash bilan uni yo'qotishga qaratilgan bo'lsa, noibni bu urushda zaiflashishi inobatga olingan. Ammo xalifa rejasi amalga oshmadi. 900-yilda Balx atrofidagi jangda noib Ismoildan mag'lubiyatga uchradi va Xuroson yerlari Somoniylar tasarrufiga o'tdi.


Ismoil Somoniy markazlashgan boshqaruv tizimini joriy etdi. Bu tizim asosini oliy hukmdor dargohi (saroy) va devonlar (vazirliklar) majmui tashkil etgan. Oliy hukmdor amir unvoniga ega edi. Ismoil tashkil etgan devonlar: moliya ishlari, davlat rasmiy hujjatlarini ishlab chiqish, soqchilar boshlig'i, xat-xabarlar mutasaddisi, saroy ish boshqaruvchisi, davlat mulklari, muhtasib, vaqflar, qozilik ishlari kabi 9 ta devon birinchi bosh vazir devoni nazorati ostida ish olib borgan. Bosh vazir devoni butun ijroiya hokimiyatni ham amalga oshirgan. Somoniylar davrida bu devon boshlig'i lavozimiga zamonasining atoqli xonadon namoyandalari tayinlangan.

Zikr etilgan devonlarning joylarda ham bo'limlari bo'lgan. Ular markazdagi o'z devonlaridan tashqari mahalliy hokimlar (viloyat boshlig'i hokim, shahar boshlig'i esa rais deb atalgan)ga ham bo'ysunib, mahalliy boshqaruv idoralari bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatganlar. Bundan birgina xat-xabarlar mutasaddisi devoni mustasno hisoblanib, ularning markaziy bo'limlari faqat markazgagina hisobot bergan. Chunki ular mahalliy hokimlar, mansabdorlar ustidan ham pinhona nazorat olib borgan. Oliy hukmdor ular xabarlarini orqali joylardagi ahvoldan voqif bo'lib turgan va tegishli choralar ko'rgan.

Ismoil Somoniy o'z davrining yirik va aqlli davlat arboblardan edi. U yirik va markazlashgan davlat barpo qilishdan manfaatdor bo'lgan barcha oqsuyak amaldorlarni o'z atrofiga to'plab, ularning yordami bilan shunday bir qudratli markazlashgan davlat barpo qildiki, bu davlat o'sha vaqtda Sharqda shuhrat topdi. Ammo bir qarashda qudratli bo'lib ko'ringan bu davlatni ichdan yemirayotgan bir qator ijtimoiy ziddiyatlar bor ediki, buni hatto Ismoil Somoniy ham bartaraf eta olmadi. Bu markaziy hokimiyat bilan mahalliy hokimiyat o'rtasidagi qarama-qarshilik edi. Somoniylar har qancha urinsalar-da, Seyiston, G'uzg'on, G'azna, Isfijob, Xorazm, hozirgi Tojikistonning tog'li viloyatlari: Chag'oniyon va Rashtani o'zlariga batamom bo'ysundira olmadilar. Bu viloyatlarning hokimlari markaziy hokimiyatni rasman tan olsalar-da, amalda mustaqil siyosat yurgizardilar.

Somoniylar davrida qo'shinda, umuman harbiy sohada turkiylar yetakchi mavqeni egallagan. Qo'shindagi bu harbiylar turkiy g'ulomlar deb atalgan.

Ijtimoiy tuzum



Ismoilning o'g'li Ahmad hukmronligi (907 – 914) davrida arab tili yana davlat tiliga aylantirildi va bu tilni bilgan shaxslarning mansab-martabalari oshirildi. Albatta bu hol saroy amaldorlarining, birinchi navbatda, turklardan iborat harbiy oqsuyaklarning noroziligini oshirdi. Shu bois Ahmad turk g'ulomlari tomonidan o'ldirildi. Ahmad o'ldirilgach, taxtga uning sakkiz yoshli o'g'li Nasr II (914 – 943) o'tqazildi. Amaliy ishni esa vazir Abuabdu-ll Muhammad ibn Ahmad Jayxoniy olib bordi. Nasr II zamonida Karmatlar ta'limoti Xuroson va Movarounnahrda keng quloq yoydi. Ish shu darajaga borib yetdiki, Nasr II ning o'zi ham Karmat ta'limotini qabul qilgan.

Somoniylar hukmdorining karmatchilarga nisbatan samimiyligi musulmon ruhoniylari va turk lashkarboshilari noroziligiga sabab bo'ldi. Ular Nasr II ga qarshi fitna uyushtirdi va bu fitna fosh qilindi. Fitna fosh qilinsa-da, Nasr II o'zining o'g'li Nuh ibn Nasr foydasiga taxtdan voz kechishga majbur bo'ldi. Taxtga chiqqan o'g'il o'z otasini kishanlab, qal'aga qamab qo'yishga buyruq beradi.

Somoniylar davlati Nuh ibn Nasr (943 – 954) hukmronlik qilgan davrda har tomonlama og'ir ahvolga tushib qoldi. Davlat xazinasi batamom bo'shab qoldi, moliyaviy ahvol og'irlashdi. Hatto, soliq va o'lponlar ko'payib, soliqlarni muddatidan ilgari undirib olish odati chiqarildi. Har tomonlama iqtisodiy qiyin ahvolga tushib qolgan xalq Nuhga qarshi qo'zg'olon ko'tardi. Bunday

kurashlar Nuhning o'limi (954)dan so'ng o'g'li Abdumalik (954 – 961) davrida ham davom etdi. Somoniylar davlatida turk lashkarboshilarining ta'siri shu darajada kuchayib ketdiki, ular davlatni boshqarish ishlarini batamom o'z qo'llariga oldilar. Bu borada turk lashkarboshisi Ali Taginning roli va o'rni g'oyatda katta bo'ldi.

Abdumalik vafoti (961)dan so'ng somoniylar hukmronligining inqirozi boshlanadi. Qo'zg'olon ko'targan xalq Buxoro taxtini egallab talon-taroj qiladi, taxt uchun kurash kuchayadi. Bu kurashlar, ayniqsa, Amir Mansur ibn Nuh II (976–997-y.y.) hukmronligi davrida keskin tus oldi. Ichki nizolar oqibatida Nuh II Yettisuv qa Qashg'arda vujudga kelgan Qoraxoniylar davlatining Movarounnahrqa qilgan yurishlariga keskin qarshilik qilolmadi. Somoniylar davlatidagi beqarorlikdan foydalangan Qoraxon Xorun Bug'roxon 990-yilda G'arb tomon qo'shin tortdi va ikki yil davomida Somoniylarga qarashli bir qancha viloyatlarni bosib oldi. Shundan so'ng Somoniylar davlati o'zini tiklay olmadi. 13 – 15 yil davomida Somoniylar hukmdorlari asosan Qoraxoniylar va qisman Saljuqiylar bilan kurash olib borib, nahoyatda holdan toydilar. Somoniylarning so'nggi hukmdori Abu Ibrohim Muntasir 1005-yilda o'ldiriladi hamda Movarounnahr va Xurosondagi Somoniylarga tegishli bo'lgan hududlar Qoraxoniylar va G'aznaviylar tomonidan bo'lib olinadi.

Somoniylar davrida paxta, ipak, jundan turli xil matolar tayyorlab, yon-atrof aholining talabi qondirilib kelingan. Buxoroning Zandana, Samarqanddagi Vedar va Surxondaryodagi Darzangi to'qimachilarining mahsulotlari Iroq, Eron va Hindistonda ham ma'lum bo'lgan. Kulolchilik rivoji yurti dunyoga tanitgan. Samarqand, Binket va Marvda tayyorlangan idishlar bejirimligi va naqshlari bilan ajralib turgan. Bu davrda Samarqand qog'ozining ishlab chiqarilishi O'rta va Yaqin Sharqda, Yevropa mamlakatlari orasida birinchilikda turgan. X asr tarixchisi Istahriy "Bu mahsulotni dunyoning hech bir yerida uchratmaysiz", – deb yozgan edi.

Somoniylar davrida qudratli markazlashgan davlat barpo etilishi tufayli Xuroson va Movarounnahrda barqarorlik qaror topdi. Bu holat mamlakat iqtisodiy rivojiga ham yo'l ochib berdi. Dehqonchilik rivoj topib, bug'doyning turli navlari, arpa sholi bilan birgalikda paxta yetishtirishga ham muhim e'tibor qaratilgan. Bu o'lkada yetishtirilgan mevalar esa o'zining yuqori sifatlilikligi bilan butun Sharqda mashhur bo'lgan. Ko'plab quruq mevalar esa Yevropaning turli shaharlariga jo'natilgan. Somoniylar davrida Iloq (Shosh bilan Farg'ona oralig'ida joylashgan)dagi kumush-qo'rg'oshin koni "shoshkoni" nomi bilan mashhur bo'lgan.

Somoniylar davrida kuchli va mustaqil davlatning paydo bo'lishi dehqonchilik, hunarmandchilikning rivojlanishi, shaharlarning taraqqiyoti – o'z

navbatida ichki va tashqi savdoni yanada uzviylashuviga, taraqqiyotiga olib keldi. Avvalo, shahar-qishloqlar qo'shni ko'chmanchi xalqlar va boshqa davlatlar bilan aloqasi rivojlandi.

Yozma manbalarda qayd qilinishicha, bozorlar katta-kichik shaharlarda va hatto qishloqlarda bo'lgan. Ayniqsa, karvon yo'llari bo'yida joylashgan shaharlarda bir nechtadan bozorlar bo'lgan. Buxoro, Xo'jand, Nasaf, Kesh, Termiz, Hirot, Marv, Nishopur shaharlaridagi bozorlar katta va gavjum edi. Istaxriyning ma'lumot berishicha, Samarqandda Movarounnahrning bosh bozori joylashgan bo'lib, bu yerga ko'pgina shaharlardan savdogarlar kelgan. Movarounnahrda tayyorlangan mahsulotlarning katta qismi Samarqandga keltirilgan va undan keyin boshqa o'lkalarga tarqatilgan. Ichki va tashqi savdoda ayrim kichik shaharlarning o'rni ham muhim edi.

Bu borada Poykand shahri muhim ahamiyat kasb etgan. Manbalarda qayd etilishicha, bu shaharda Somoniylardan oldin ham savdogarlar Xorazm, Kaspiy bo'yidagi o'lkalar va Xitoy bilan oldi-sotdi ishlarni olib borishgan hamda shahar raislari savdogarlar uchun barcha sharoitlar yaratib berishga harakat qilganlar. Shaharda o'nlab karvonsaroilar mavjud bo'lib, ular bozorga yaqin joyda joylashgan. Savdo rastalari karvonsaroyning o'zida ham bo'lgan. Karvonsaroilar yo'llarda ham qurilgan.

Bozorlarda sotiladigan mahsulotlar avvalo, mahalliy aholining ehtiyojini qondirishga qaratilgan. Hunarmandlar o'z mollarini sotib, oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilgan, o'z navbatida hunarmandchilik mahsulotlariga dehqonlarning talabi katta edi. IX-X asrlarda O'rta Osiyoning iqtisodiy hayotida savdo-sotiq katta ahamiyatga ega bo'lib, bu borada ko'chmanchilar bilan chegaradosh shaharlarning ahamiyati yuqori edi. Ko'chmanchilar shaharlarga kelib dehqonchilik va hunarmandchilik mahsulotlarini harid qilgan, teri va boshqa chorvachilik mahsulotlarini sotgan.

O'rta Osiyolik savdogarlar o'z mollarini arab xalifaligi tarkibiga kirgan davlatlarga, Kavkazga, Hazar va Bulg'oriyaga, Xitoy va Hindistonga olib borib sotgan. O'rta Osiyodan Xitoy bilan O'rta yer dengizini birlashtiruvchi va Janubi-Sharqiy Yevropaga olib boruvchi karvon yo'llari o'tgan. Ayniqsa, O'rta yer dengizi bilan bog'lovchi karvon yo'li ancha gavjum bo'lgan. Bu yo'l Bag'dod, Hamadon, Nishopur, Marv, Amul, Buxoro, Nasaf, Kesh, Samarqand, Ustrushona, Choch, Bolasog'un orqali Xitoyga olib borgan. Xitoydan esa turli-tuman gazlamalar, guruch va kumush chiqarilgan. O'z navbatida Janubi-Sharqiy Yevropadan O'rta Osiyoga mo'yna, mis, teri, qoramol, qullar keltirilgan. Janubi-Sharqiy Yevropa bilan bo'lgan savdo aloqalarida xorazmlik savdogarlarning o'rni katta bo'lgan.

Somoniylar davrida yer mulkchiligi turlari

1. Mulki sultoni y – sultonga tegishli yerlar, undan tushgan soliqlar davlat xazinasiga yuborilganligi bois, davlat yerlari deb atalgan.
2. Mulklar – xususiy yerlar hukmron sulola aʼzolariga, turk lashkarlariga din peshvolariga, savdogar va h.k. ga tegishli boʻlgan.
3. Mulki xos – oliy martabali ruhoniylar va sayyidlarga qarashli yerlar.
4. Vaqf yerlari – doimiy yoki vaqtinchalik foydalanish uchun musulmon muassasalari – masjid, madrasa, maqbaralarga berilgan yerlar.
5. Jamoa yerlari.

2. QORAXONIYLAR VA GʻAZNAVIYLAR DAVLATI

VIII asrning 40-yillarida Movarounnahrning shimoli-sharqida qarluq turklari atrofiga oʻtroq, yarim oʻtroq va chorvador turkiy qabilalar birlashib, kuchli davlat uyushmasi – Qarluqlar davlati tashkil topgan edi.

Somoniylar bilan Qarluqlar davlati oʻrtasida maʼlum chegara belgilangan boʻlsa-da, hozirgi kundagidek aniq chegara boʻlmagan. Shu bois, turkiy qabilalarning Movarounnahr ga koʻchib kelib oʻrnashishi davom etib, tubjoy aholining turkiylashuvi yanada tezlashayotgan edi. Bunday jarayon Oʻrta Osiyo turkiy qavmlari hayotida IX asr oxirlariga kelib, avj nuqtasiga yetdi.

Bu jarayonlar oʻsha davr mahalliy aslzodalarining oliy hokimiyatga boʻysunmasdan, mustaqil siyosat yuritish uchun intilishlari bilan birga kechayotgan edi. Bunday feodal beboshliklarga barham berish uchun kuchli siyosiy hokimiyat kerak edi. Qarluq davlati ana shunday taqozo asosida vujudga kelib, Yettisuvdan qadimgi Fargʻonaning sharqigacha, undan Sirdaryoning oʻrta havzalarigacha boʻlgan hududlar uning taʼsir doirasiga kirdi.

X asrning ikkinchi yarmida bu hududda Qarluqlar davlatining davomi sifatida Qoraxoniylar sulolasi hokimiyat tepasiga keldi. Bu siyosiy kuch Yettisuv markazi Tangri togʻ hududida qadimdan yashab kelayotgan turkiy tilli qavmlar edi. Ular 1005-yildan boshlab Buxoro, Samarqand va Amudaryogacha boʻlgan hududlarni ham boshqara boshlaganlar. Qoraxoniylar sulolasi oʻz hukmdorlarini “buyuk”, “ulugʻ” maʼnosini beruvchi “qora” soʻzi bilan atagan va bu davlat yagʻmolarning ittifoqi asosida vujudga kelgan. Uning asoschisi Sotuq Abdulkarim Qoraxon edi.

Xon hokimiyati qisman madaniyatli qarluq yoki chigillar qabilasidan chiqmasdan, balki madaniy taraqqiyotda orqaroqda boʻlgan yagʻmolardan chiqqan. Buni Sotuq Abdulkarim Qoraxonning yagʻmolar urugʻidan boʻlganligidan

ham ko‘rish mumkin. “Majmuayi at-tavoriy” (“Tarixning qisqartma to‘plami”) asarining muallifi “yag‘molar podshoni bo‘g‘roxon deydilar”, deb aniq aytgan fikrlari yuqoridagi xulosalarni to‘la tasdiqlaydi. Markazi ikki shahar: Qashqar va Bolosog‘undan iborat yangi davlatning birinchi podshosi “bo‘g‘roxon” unvonini olganligi tavsiflidir. Bu xonning turkcha nomi bizgacha yetib kelmagan va biz uni “Bo‘g‘roxon” (qo‘sh o‘rkachli tuya) unvoni bilan yoki arabcha-turkcha Xorun ibn Satuq nomi bilan bilamiz. Lekin hujjatlarda faqat Bo‘g‘roxon deb keltirilgan.

Qoraxoniylar 990-yillardan e‘tiboran Movarounnahrda o‘z hokimiyatini o‘rnatish uchun astoydil harakat qiladi. 990-yilda ular Farg‘onani egallab, bu yerda o‘z tangasini zarb qilgan. Eng qudratli hukmdorlardan biri Hasan Xorun Bo‘g‘roxon Isfijob (Sayram)ni o‘ziga tobe qilib olgach, 992-yilda Buxoroga hujum boshlaydi. Xasan va Nasr Bo‘g‘roxonlar yetakchiligidagi qo‘shin (992 – 996 va 999-yillarda) Somoniylar qarshiligini yengib, Buxoroni egallaydi. Somoniylar sulolasining so‘nggi vakili Ismoil al-Muntasir (1000 – 1005) hukmronligi barham topadi.

Qoraxoniylar bepoyon katta davlatga asos soldi. Ularning mulklari g‘arbda Buxoro va Sirdaryoning quyi oqimidan, sharqda Yettisuv va Qashqargacha cho‘zilib ketgan edi. Qoraxoniy xonadonlari o‘rtasida 1016-yildayoq boshlanib ketgan urug‘chilik adovati tufayli 1041-yilda xonlik ikkiga bo‘linib ketdi. G‘arbiy xonlik tarkibiga Movarounnahr va Xo‘jandgacha bo‘lgan Farg‘onaning g‘arbiy qismi kirgan. Sharqiy xonlik tarkibiga Talas, Isfijob, Shosh, Farg‘onaning sharqiy qismi, Yettisuv va Koshg‘ar vohalari kirgan.

Qoraxoniylar davlati hududlari katta bo‘lganligi sabab, har bir yirik hudud yoki viloyat **elekxonlar** (mahalliy hukmdorlar) tomonidan nisbatan mustaqil holda boshqarilgan. Ular har yilgi xiroj va to‘lovlarni markaziy hokimiyat hukmdori – Tamg‘achxonga yuborib turgan.

Qoraxoniylarning Movarounnahrdagi hukmronligi murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyatda, turli sulolaviy urushlar, ziddiyatli jarayonlar girdobida kechgan. Ayniqsa, Samarqand, Buxoro, Balx va Termiz kabi shaharlar uchun saljuqiylar bilan bir necha bor urushlar sodir bo‘lgan.

Saljuqiylarning so‘nggi hukmdori Sulton Sanjar (1118 – 1157) qoraxoniylarning zaiflashuvidan foydalanib, Samarqand va uning atrofidagi yerlarni bosib olgan. Biroq, u yerlar ko‘p o‘tmay qoraxitoylar tasarrufiga o‘tgan.

1211-yilda Xorazmshoh Alouddin Muhammad davrida esa qoraxoniylarning Movarounnahrdagi hukmronligiga chek qo‘yilgan.

Qoraxoniylar Somoniylarga nisbatan davlat tuzilishi va boshqaruvining boshqacharoq shaklini joriy etishga harakat qildi. Ularda hokimiyat Somoniy-

larda bo'lgani kabi to'g'ridan-to'g'ri otadan o'g'ilga emas, balki akadan ukaga, keyin sulolaning navbatdagi avlodiga o'tgan. Ayrim olimlarning fikricha, Qoraxoniylarning butun urug'i hokimiyatning jamoaviy sohibi bo'lib, sulolaning har bir a'zosi o'zining kelib chiqishiga ko'ra, umumsulola mulkining bir qismiga da'vo qila olardi. Bu mulkning asosiy qismi sulolaning uch ulug' a'zosi – ulug' xoqon, kichik xoqon va elelxonga tegishli hisoblanardi. Ularning har qanday avlodiga o'z hissasi ajratib berilgan.

Qoraxoniylar davlatida boshqaruv tizimi ikki idora: dargoh va devonlardan iborat edi. Boshqalar singari bu davlatda ham markazdagi boshqaruv tizimiga e'tibor qaratilgan. Bunda dargoh bilan viloyatlar, fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirib turuvchi Xos Hojib mansabi faoliyati alohida o'rin tutgan. Oldingi davlat boshqaruvidan farqli o'laroq, bu davrda mazkur mansab egasi, asosan oliy hukmdor, viloyat boshliqlarining davlat va raiyat ishlari bo'yicha eng yaqin maslahatchilari hisoblangan.

Davlatda aholi to'rt toifa: boylar, o'rta hollar, chig'ay (kambag'al)lar va mulksiz (qora avom – budun)larga bo'lingan. Chorikorlar sifatida mulkdorlar yerlarida ishlagan yersiz va kam yerli dehqonlar – "akkorlar" o'troq dehqonlar ommasini tashkil etgan. Akkor yerni ijaraga olganda hosilning bir qismini davlatga, boshqa qismini yer egasiga berishi, qolganini o'zi olishi kerak edi.

Qoraxoniylar davrida aholi dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilik, ovchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullangan. Mamlakatda hunarmandchilik (kulolchilik, to'quvchilik, shishasozlik, temirchilik, zargarlik), shuningdek, ziroat va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlovchi sohalar rivoj topgan. Yurtda qimmatbaho toshlar, oltin, mis, temir qazib olish keng yo'lga qo'yilgan. Shaharlarda inshootlar pishiq g'ishtdan qurilgan.


Qoraxoniylar davlatida yer egaligi bir necha turlarga bo'lingan: 1. Sulton yerlari. Bu yerlar davlat xazinasiga tushadigan asosiy soliq tushumlari va iqto' taqsimoti fondining manbayi hisoblangan. 2. Vaqf yerlari.

Qoraxoniylar hukmronligi davrida islom dinining o'rni va ahamiyati oshdi, u davlat dini darajasiga ko'tarildi. Ruhoniylar o'zlarining davlat oldidagi xizmatlari evaziga katta-katta yerlar va mulklar olar edi. Bunday turli xildagi qo'zg'aluvchi va qo'zg'almas mulkni masjid-madrasalarga vasiyat qilib qoldirish tartibi keng tarqalgan. Bu vaqf yerlari deb atalgan.

Qoraxoniylar hukmdorlar aholidan doimo iqto' to'lovini olib turgan. Bunday to'lovlar bug'doy, paxta, uzum, quruq meva, mato, pul shaklida bo'lgan. Tashqi siyosatga jiddiylik bilan qarashgan. Mintaqada bir paytning o'zida bir necha davlatning faoliyat ko'rsatishi shuni talab qilgan. Tashqi siyosat bilan shug'ullanuvchi mansabdorlarga, xususan, elchilar oldiga juda katta

talablar qo'yilgan. Ular bilimli, o'quvli, yetuk, sheryurak, ko'zi to'q, uyat-andishali bo'lishlari kerak bo'lgan. Astronomiya, matematika, geodeziya bilimlarini mukammal bilishi, harbiy san'atda benazir bo'lish va hech qachon may ichmaslik, so'z, iboralarning to'g'ri va ko'chma ma'nolarini puxta bilish kabi talablar ham qo'yilgan. Shu bilan birga ularga yana narda va shaxmat o'yinlarini raqiblardan ustun darajada bilishlari shart bo'lgan.

Qoraxoniylar davlatining siyosiy tizimi



Qurilish ishlariga ham e'tibor berilgan. Buxoroda Minorai kalon, qator masjidlar, Jarqo'rg'on (Surxondaryo), Vobkentda minora, Samarqandda madrasalar bunyod etilgan. Savob ishlarini ham ko'plab amalga oshirganlar. Chunonchi, Qoraxoniylar hukmdori Ibrohim ibn Nasr Samarqandda bunyod

etilgan madrasa majmuasini ta'mirlash uchun uch mehmonxona, bir karvonsaroy, hammom, suv ayirgich, uzumzor, bir qancha ekin yerlari va boshqalardan keladigan daromadni taqdim (vaqf) qilib bergan. Ana shu hukmdor 1066-yil Samarqanddagi bir shifoxona ixtiyoriga butun imoratlari, rastalari bilan ikkita karvonsaroyini taqdim etgan. Bu karvonsaroylardan keladigan daromaddan kasallarning oziq-ovqati, dori-darmoni, tabiblar va boshqa xizmat ko'rsatuvchilarni tegishli maosh bilan ta'minlash yo'lida foydalanilgan.

Somoniylar davrida turkiy g'ulomlar hisoblangan lashkarboshilar katta mavqeni egallagan. Hatto, ular kezi kelganda davlat boshqaruvi masalalariga ham aralashgan.

961-yili somoniy hukmdor Abdumalik vafotidan so'ng vazirlar taxtga marhumning o'g'lini o'tqazdilar. Bunga lashkarboshi Alptegin (ayrim manbalarda Ali Tagin) qarshi chiqadi va munosabat keskinlashgach, Alptegin Buxoroni tark etadi. Somoniylar va Alptegin o'rtasidagi jangda Alptegin g'olib kelib, hozirgi Afg'oniston hududidagi G'azna viloyatida o'z hukmronligini o'rnatadi. Uning vafotidan so'ng (963-yil) bu yerda navbati bilan Amir Is'hoq ibn Alptegin, Amir Bilgategin, Amir Piri, Amir Sabuqteginlar hukmronlik qiladi. Bu davlatning mintaqa siyosiy markazlaridan biriga aylantirishda birinchi salmoqli qadamni Alptegin qo'ygan bo'lsa, asosiy hukmron sulolaga asos solgan Sabuqtegin (ayrim manbalarda Sabuqtagin) hisoblanadi. Chunki u faqat bu davlatni boshqaribgina qolmay, balki uni bir necha bor qoraxoniylardan saqlab qolgan va din-u davlat himoyachisi (Nosir ad-din va ad-davla) faxriy unvoni bilan mashhur bo'lgan. Bu davlatning ham rasman, ham amalda siyosiy kuch sifatida tan olinishi 996-yilga to'g'ri keladi.

Alptegin poydevor qo'ygan va Sabuqtegin tomonidan hukmron sulolaga asos solingan bu davlat tarixda G'aznaviylar nomi bilan qoldi. G'aznaviylar hukmdori Sabuqtegin 997-yilda vafot etgach, avvaliga taxtga biroz muddat uning o'g'li Ismoil va 998-yildan davlat va sulolaning qudrati-yu shuhratini oshirishga katta hissa qo'shgan boshqa farzandi – Mahmud (Mahmud G'aznaviy) chiqadi. Mahmudning hukmronligi davri (998 – 1030)da Xorazm, Xuroson, Seyiston, Kobul, G'azna, Shimoliy Hindiston kabi viloyatlar uning izmida bo'lgan. Aynan shu hukmdor davrida Xorazm egallangach, allomalarning ayrimlari G'azna poytaxtiga olib kelingan va u yerda ilmiy izlanishlar olib borishga majbur qilindi. Bu hukmdorga xalifa al-Qodir (991 – 1031) tomonidan "Yamin ud-davla" (davlatning o'ng qo'li) faxriy unvoni ham berildi.

Mahmud 1001-yilda o'z davlatining chegaralarini aniqlash maqsadida qoraxoniylar hukmdori Nasr bilan muzokaralar olib borib, shartnoma tuzdi. Asosiy chegara chizig'i qilib Amudaryo belgilandi. 1005-yilda so'nggi somoniy Ismoil Muntasir qatl etilgach, ilgari somoniylar davlati o'rnida ikkita

mustaqil davlat paydo bo'ldi: biri – Qashg'ardan Amudaryogacha cho'zilgan sharqiy Turkistonning bir qismini, Yettisuv, Shosh, Farg'ona va qadimgi So'g'd hududlarini o'z ichiga olgan Qoraxoniylar davlati, ikkinchisi – shimoliy Hindiston chegarasidan Kaspiy dengizining janubiy qirg'oqlarigacha cho'zilgan hozirgi Afg'oniston va shimoli-sharqiy Eron viloyatlarini o'z ichiga olgan G'aznaviylar davlati.

Mahmud G'aznaviyini Xorazm juda qiziqtirardi. Bu joy geografik jihatdan qulay, nihoyatda boy o'lka edi. Bundan tashqari, Xorazmda ikki davlat faoliyat yuritardi, ular 995-yilda birlashgan. Shu bois, Mahmud ustalik bilan ish olib borib, bu yerni egallashdan avval o'z singillarini Xorazm shohi Ali ibn Ma'mun va uning ukasiga turmushga berib, ular bilan quda-anda bo'lib olgan edi.


Qaltis siyosiy vaziyat, Xorazmshoh Ma'munning o'limidan foydalangan Mahmud G'aznaviy Xorazmga yurish qilib, 1017-yil 3-iyulda uning poytaxti Qiyotni egalladi va o'zining harbiy sarkardasi, asli turk Oltintoshni hokim qilib qo'ydi.

Mahmud G'aznaviy yosh xorazmshoh (o'n sakkiz yoshli Muhammad ibn Ali ibn Ma'mun) va uning barcha oilaviy sulolasi a'zolari hamda ulug' olim Beruniyini xorazm Ma'mun akademiyasi olimlari bilan birgalikda G'azna shahriga olib ketdi. Ana shu tariqa Xorazm mustaqilligiga barham berildi va Mahmud G'aznaviy diplomatik, harbiy jihatdan katta muvaffaqiyatga erishdi. Uning davrida bu davlatga qarashli hududlarda yirik inshootlar, masjid-u madrasalar, kutubxona-yu shifoxonalar barpo etildi. Biroq, aholining quyi tabaqasi nochor bo'lib, joriy etilgan turli xil soliq va majburiyatlar ularning tinkasini quritdi. Ayniqsa, 1011-yilda Xurosondagi ocharchilik minglab aholini nobud bo'lishiga olib keldi. Bularning barchasi saltanatni ich-ichidan yemirilishiga sabab bo'ldi.

Mahmud G'aznaviy vafoti (1030-yil)dan so'ng saltanat inqirozi davom etib, natijada saljuqiylarning Xurosonga egalik qilish harakati kuchaydi. Soliqlar, majburiyatlardan norozi aholi ularni qo'llab-quvvatlay boshladi.

Saljuqiylar 1035-yildagi Nisa yonidagi, 1038-yildagi g'aznaviylar bilan bo'lgan jangda Xurosonning katta qismini egallab, Nishopurni qo'lga kiritdi. 1040-yilda Mahmud G'aznaviyning o'g'li Mas'udni Marvdan sakson kilometr masofadagi Dandonikan degan joyda saljuqiylar hukmdori To'g'rulbek tormor keltirib, G'aznaviylarning oldingi mavqeyiga chek qo'ydi.

G'aznaviyalar davlat boshqaruvida mansablar va xizmatlar¹



¹ Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. – T.: "Sharq", 2001. – 113 – 123-betlar.

1041-yilda Mas'ud ukasi tomonidan qatl qilindi. Tez fursatda hokimiyatni egallagan Mavrud (Mas'udning o'g'li) ham kuch to'plab saljuqiylar bilan urishib, mag'lubiyatga uchradi. 1059-yilda saljuqiylar tomonidan G'aznaviylarning so'nggi tayanchi Balxning egallanishi bilan ular tarix sahnasidan tushdi.

G'aznaviy hukmdorlar "Amir" unvoniga ega bo'lib, bu davlatda ham boshqaruvda Hojib (mansab) xizmati alohida e'tiborli edi. Ular odatda qora chakmon va ikki uchli kuloh kiyib yurgan. Manbalarda bu mansab ulug' saroy navbatchisi, jomador so'zlari bilan birga ishlatilgan. Ular orasida ulug'i mamalakat va davlat hayotida alohida mavqega ega bo'lgan. Rasmiy marosimlarda hojib mansabdagilarning "ulug'" deb atalgani oliy hukmdorga eng yaqin joyni egallagan. Katta ahamiyat kasb etuvchi janglarda ulug' hojibga qo'shinning eng salmoqli, mas'uliyatli qismiga boshchilik qilish vazifasi yuklatilgan. Amir Mas'ud ulug' hojib Ali Qaribga yo'llagan bir maktubida unga "fozil (ulug'), birodar" deb murojaat qilgan.

G'aznaviylar, ayniqsa, Mahmud G'aznaviy davrida fan, madaniyatga e'tibor qaratilgan. Mahmudning o'zi ko'p tillarni bilgan, she'rlar bitgan. Faruhiy, Unsuriy, Manuchehriy, Utbiy, Gardiziy, Nosir Xusrav kabi mashhur shoir, tarixchi va olimlar uning homiyligida faoliyat ko'rsatgan. Abu Rayhon Beruniy o'zining mashhur asarlarini G'aznada yozgan. Mashhur madaniyat arbobi, shoir Firdavsiyning nomi ham G'aznaviylar bilan bog'liq. Bu daho shoir 30 yildan ortiq davrda yozgan mashhur "Shohnoma" asari (60 mingdan ziyod baytdan iborat)ni o'sha zamon tartib-qoidalariga ko'ra, Sulton Mahmud (Mahmud G'aznaviy)ga taqdim etadi. Hukmdor "Shohnoma"ni eronzamin xalqini ulug'lab, ularni Turonzaminga qarshi qo'yganligi turkiy nasab hukmdorga yoqmagan uchun uni qabul qilmagan edi.

3. SALJUQIYLAR VA XORAZMSHOHLAR DAVLATI

X asr o'rtalarida mintaqada ko'chmanchilik muhitida yashab kelgan turkiy qavmlardan biri – saljuqiylar siyosiy kurash maydoniga chiqdi. Ular turkiy o'g'iz qavmi tarkibida dastlab hozirgi Janubiy Qozog'iston hududiga to'g'ri keladigan yaylovlarda, Sirdaryoning o'rta oqimidagi yerlarda ko'chmanchi hayot kechirar edi. Ularning Movarounnahr siyosiy hayotiga faol aralashuvi, ayniqsa, somoniylarning qoraxoniylar bilan raqobati yillari kuchaygan. Shu jarayonda bu o'g'iz qavmlari Samarqand, Buxoro, Kesh viloyatlariga o'rtnasha boshlagan. Ular 1025-yildan boshlab Mahmud G'aznaviy roziligi bilan Xuroson yerlariga ham joylashgan. Yuqorida ta'kidlanganidek, keyinchalik ular

bilan g'aznaviylar o'rtasidagi ziddiyatlar keskinlashib, o'zaro urushlar kelib chiqqan. 1040-yilda Dandonikandagi jang tufayli g'aznaviylar mag'lub etilib, saljuqiylar sardori Xuroson hukmdori deb e'lon qilingan. Shu davrdan boshlab tarixda Saljuqiylar nomi bilan qudratli sulola va davlatning hukmronlik yillari boshlangan. Bu sulola va davlat g'olib o'g'izlarning bir paytlar qabila sardori bo'lgan Saljuq ibn Do'kakning nomi bilan bog'liq. Uning nabirasi To'g'rulbek (1038 – 1063) esa Saljuqiylar davlatining asoschisidir.

To'g'rulbek 1040-yilda Dandanakon jangida g'aznaviylarni tor-mor etgach, g'aznaviylar davlati mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan bir viloyatga aylanib qoldi.

G'aznaviylardan tortib olingan yerlarni To'g'rulbek saljuqiylar xonadonining a'zolariga udel sifatida taqsimlab berdi. Chag'ribek Davudga Marv va Xurosonning katta qismi, Muso Yobg'uga (To'g'rulbekning amakisi) Tus, Hirot va Seyiston viloyatlari berildi. To'g'rulbek o'ziga Eronning shimoliy va shimoli-g'arbiy viloyatlarining katta qismini oldi. U hujumni davom ettirib, Iroq Ajami (Fors Iroqi), Ozarbayjon, Kurdiston, Ko'histonni zabt etdi. 1055-yilda Bag'dodga kirib bordi va Bag'dod xalafasini o'z nomini xutbaga qo'shib o'qitishga majbur qildi. Saljuqiylar davlatining poytaxti qilib Ray shahri belgilandi.

1063-yilda To'g'rulbek vafot etgach, taxtga uning jiyani, Chag'ribek Dovudning o'g'li Alp Arslon (1063 – 1072) o'tirdi. Alp Arslon davrida davlat poytaxti hozirgi Marv shahriga ko'chiriladi. 1072-yilda Alp Arslon qoraxoniylarga qarshi yurish chog'ida (o'z chodirida mahalliy qal'alarning boshliqlaridan biri Yusuf al-Xorazmiy tomonidan) o'ldirildi.

Alp Arslon o'rniga taxtga vorislik qilgan Malikshoh (1072 – 1092) ko'p vaqt o'tkazmay Termiz va Balxni qoraxoniylardan qaytarib oldi. 1089-yilda katta lashkar bilan Amudaryodan o'tdi va Buxoro hamda Samarqand shaharlarini ham egalladi.

1092-yilda Malikshoh ham o'ldirildi. Saljuqiylar davlatida isyon va g'alayonlar boshlanib ketdi. Bu isyon-g'alayonlar 1118-yilda hokimiyat tepasiga Sulton Sanjar (1118 – 1157) kelgach tinchidi. Uning davrida saljuqiylar Movarounnahrda eng yuksak mavqega erishdilar. Biroq, Sulton Sanjarning o'zi ham 1141-yili qoraxitoylar bilan Katvon cho'lida (Samarqand yaqinida) bo'lgan jangda qaqshatqich zarbaga uchrab, o'zini o'nglab ololmadi va 1157-yilda vafot etdi. Shu tariqa saljuqiylar davlati ham barham topdi.

Saljuqiylar hukmronligi yillarida o'sha davrning ilg'or namoyandasi, mashhur siyosatshunos, davlat vaziri Nizomulmulk yashab ijod etgan. U na faqat davlat boshqaruviga, fan va madaniyatga ham homiylik qilgan. Ko'plab

madrasalar qurdirgan. Hatto, uning nomidagi madrasada olti ming nafar talaba ta'lim olganligi manbalarda yozilgan. U davlat boshqaruvi haqida: "podshoh ezilgan va adolat istovchilarni haftada ikki kun qabul qilib, ularni so'zini tinglar ekan, ovozi tarqaydi. Zolimlar bundan cho'chydilar, qo'llarini kalta qiladilar", deb o'zining "Siyosatnoma" asarida yozgan edi. Uning asl ismi Abu Ali al-Hasan ibn Ali ibn Isoqat-Tusiy (1018 – 1092) bo'lib, saljuqiy Alp Arslon va Malikshohning bosh vaziri edi. U 1092-yili Isfahondan Bag'dodga borayotganda shia oqimi ayg'oqchilari tomonidan o'ldirilgan. Bu davlat arbi tarixda Nizomulmulk ("mamlakatni tartibga soluvchi" ma'nosini beruvchi) nomi bilan mashhur.

Saljuqiylar davrida O'rta va Yaqin sharq, Sharqiy Yevropa, Hindiston, Xitoy kabi mamlakat va o'lkalar bilan savdo aloqalari kengaygan. Hatto, saljuqiy hukmdor Sulton Malikshoh Sharq va G'arb yo'nalishlararo savdoni yanada jonlantirish maqsadida Xuroson va Iroq savdogarlarini ba'zi bir savdo to'lovlaridan ozod etgan. Pul muomalasida mahalliy ahamiyat kasb etgan, tarkibida qo'shimcha metall aralashmasi bo'lgan rukniy asosiy rol ni o'ynagan. Ichki bozorda mis dirhamlar ham qo'llanilgan. Lekin sof oltindan zarb etilgan eng yuqori darajadagi pul **qizil dinor** muomalada bosh rol ni o'ynagan.

Saljuqiylar katta hududlarni egallaganliklari sababli Xitoy va Vizantiya bilan chegaradosh bo'lib, shuningdek, ular bilan raqobatda ham edi. Ayniqsa, Vizantiya saljuqiylarni ko'rolmas, imkon qadar ular payini qirqishga harakat qilardi. Bu borada ular, hatto Yevropada islomning kuchayib borishiga qarshi kurashish maqsadida "mafkuraviy kurash" boshlaganlar. Aynan shu mafkuraviy kurash yevropaliklarning "Salb yurishi"ni boshlanishiga sabab bo'ldi. Bu yurishning payini qirqishda saljuqiylarning tarixiy xizmatlarini unutmaslik lozim.

Mintaqada qoraxoniylar inqirozga yuz tutib, hududda feodal tarqoqlik boshlangan paytda Qoraxitoylar paydo bo'ldi. Ayrim ma'lumotda ularni tungus desalar, ayrimlarida turklashgan mo'g'ullar deyiladi. Ular XII asr boshlarida dastlab Chug'uchak, keyin Bolasog'un va butun Yettisuvni ishg'ol qildi. Ularning oliy hukmdori Gurxon deb atalgan.

Ular XII asr 30-yillarida Movarounnahrqa qarshi talonchilik yurishlarini boshlab, Shosh, Farg'onani egallab, Zarafshon hamda Qashqadaryo vohalariga ham kirib bordilar. 1138-yilda Samarqand xoni qoraxoniy Mahmudxonni yengib, o'lpon olib Yettisuvga qaytib ketdi. Yana 1141-yili Samarqand yaqinidagi Katvon degan joyda Mahmudxon va Sulton Sanjarlarning birlashgan kuchlarini yengib, Samarqand bilan Buxoroni egalladi. Ammo ular ko'chib kelmay, har yili o'lpon olib turdilar.

Xorazmshoh Muhammad (1200 – 1221) davrida Samarqand va Buxoro xorazmshohlar davlati tarkibiga kiritilgach, qoraxitoylarning Movarounnahrda boʻlgan daʼvolariga chek qoʻyildi.

Oʻzbek davlatchiligida Xorazmshohlar davlati muhim oʻrinni egallaydi. Ular davlatini IV–X asrlarda afrigʻiyalar, 995 – 1017-yillarda maʼmuniylar (Maʼmun I, Abu Hasan Ali Maʼmun II), 1017 – 1041-yillarda oltintoshiylar (Oltuntosh, Xorun, Xondon) sulolalari idora etgan. Ammo Xorazm davlatini mamlakatdan mintaqa darajasiga chiqargan, boshqaruvning saltanat darajasiga erishgan soʻnggi sulola Anushteginiylardir. Bu sulola nomi bobosining nomi bilan atalsa-da, Xorazmni saljuqiylardan mustaqil qilishga harakat boshlagan Otsiz (toʻliq ismi Malik Abu Muzaffar Alouddin Jaloliddin Otsiz) va Xorazmni mustaqil qila olgan uning oʻgʻli El Arslonlar haqiqiy sulolaning boshlovchilari hisoblanadi. Ularning bobosi Anushtegin saljuqiylar davrida (1077-yil), aniqrogʻi, Sulton Malikshoh tomonidan shihnalik (komendant maʼnosida) vazifasiga tayinlangan, oʻgʻli Qutbiddin Muhammad Xorazm valisi (hokimi) lavozimiga erishgan. Yuqorida zikr etilgan nabiralar esa Xorazmni qaram viloyatdan mustaqil davlatga aylantirgan. Anushteginiylar – Xorazmshohlar tarixida toʻrtinchi suloladir.

Xorazmshohlar davlati Alouddin Muhammad (1200 – 1220) hukmronligi davrida hududi kengayib, qudrati kuchaydi. 1203-yilda u qoraxoniylar yordamida Xurosonni egallab, soʻng Movarounnaxrni toʻliq egallashga kirishdi. 1206-yilda Buxoroda sadr (hokim) Muhammad ibn Abdulazizga qarshi koʻtarilgan qoʻzgʻolon sabab Movarounnaxrga yurish boshladi. Qoʻzgʻolon sadr tashkil etgan soliqlar, shafqatsizlarcha zulmlarga qaratilib, harakatning asosiy kuchlari hunarmandlar edi. Qoʻzgʻolonga qalqon yasovchi ustaning oʻgʻli Malik Sanjar boshchi edi. Xorazmshoh Sulton Muhammad Buxoroni egallab, Malik Sanjarni Urganchga olib ketdi.

Movarounnahr ahli Xorazmshohni qoraxitoylardan qutqaruvchi xaloskor sifatida tushungan edi. Xorazmshoh Movarounnahrni toʻliq egallash maqsadida qoraxitoylar vassali boʻlgan Samarqand hokimi (qoraxoniylar sulolasidan) Usmon bilan yaqinlashdi. Bu yaqinlashuvga norozi boʻlgan qoraxoniylar Samarqandga yurish boshladi. Biroq, nayman va qoraxitoylarning Yettisuvdagi yerlariga hujumi tufayli ular orqaga qaytishga majbur boʻldi. Vaziyatdan foydalangan Xorazmshoh Samarqandni egallab (Usmon uning vassaliga aylanadi), qoraxitoylarga qarshi yurish qildi va 1210-yil Talas vodiysida qoraxitoylarni tor-mor etdi. Xorazmshoh vassal Usmonni oʻziga kuyov qildi.

1212-yilda Xorazmshoh Samarqandda soliqlar va zulmga qarshi koʻtarilgan qoʻzgʻolonni bostirib, qoʻzgʻolonchilardan shafqatsizlarcha oʻch oldi va kuyov-

vi Usmonni ham o'ldirib, uning ukasi Qodirdan Farg'onani tortib oldi, O'zgan shahrini egallab, qoraxoniylar sulolasini butunlay tugatdi.

Shu tariqa Sulton Alouddin Muhammad O'rta Osiyoni to'liq egalladi va endi asosiy e'tiborni boshqa hududlarni egallashga qaratdi.

Qoraxitoylar tor-mor etilib, dovrug'i oshgach, Xorazmshoh o'ziga bino qo'yib, takabburligi tufayli o'zini "Iskandari Soniy", "Allohning yerdagi soyasi" deb atashlarini ham buyuradi.

Xorazmshohlar davlati 1217-yilga kelib Ozarbayjon, Eron, Xurosondan Hindistongacha bo'lgan hududlarni o'z hukmronligi ostiga birlashtirgan edi. Ulardan ota-bolalar Takash (1193 – 1200) va Alouddin Muhammad (1200 – 1221) lar xalifalik markazi Bag'dodni egallashni juda orzu qilgan. Takash 1200-yil yozida Bag'dodga harbiy yurish chog'ida yo'lda vafot etadi, o'g'li Alouddin Muhammad esa 1217-yil oxirida ob-havoning og'ir kelishi natijasida Bag'dodni bosib olish rejasini amalga oshira olmaydi.

Xorazmshohlar davlat boshqaruvi ikki tizimdan: dargoh va devonlar majmuasidan iborat bo'lgan. Dargohdagi **Ulug' hojib** mansabi egasi hatto vazirlar faoliyati ustidan ham nazorat qilgan. Davlatdagi **Tashtdor** lavozimidagi kishi sultonning sirdoshi hisoblangan va u bilan doimo birga bo'lib, faoliyat yuritgan. Shuningdek, saroyda **Qissador** (arz va shikoyatlarni yig'ib, sulton hukmiga havola etuvchi), **Jomador**, **Da'vatdor** (kotib), **Bayroqdor** (amiri a'zam), **Maliki havas** (xizmatkorlar boshlig'i) lavozimlari bo'lgan. Ijroiya ishlari vazirliklar tomonidan amalga oshirilib, Bosh vazir katta mavqega ega bo'lgan. Bundan tashqari, devonlar bo'lib, ular o'z vakolatlari doirasida ish yuritgan. Ularning davlat boshqaruvida ko'p holatlar saljuqiylarniki singari bo'lsa-da, boshqaruvda bir qator yangi mansablar ham uchraydi. Masalan, dargohdagi barcha xo'jalik xizmatlari faoliyatini boshqarish ustador lavozimi egasiga yuklatilgan. Sulton chaqirganda u birinchi hozir bo'ladigan shaxs hisoblangan, shuningdek, oliy farmon olgach, tegishli xizmatlarga buyruq bergan va uning gapini hech kim ikki qila olmagan; dargohning barcha masalalari bilan shug'ullangan, bosh xazina mablag'laridan iste'foda etgan holda nonvoyxona, oshxona, otxona, saroy xizmatchilarining xarajatlarini qoplab, ushbu mablag'dan maosh berish va boshqa xarajatlar uchun ham foydalangan.

Xorazmshohlarning deyarli barchasi ilm-fanga, madaniyatga muhim e'tibor qaratgan. Ular davrida ko'plab kutubxonalar, madrasalar qurilganligi, kuchli bilim egalarining, shoir va allomalarning yetishib chiqqanligi, Ma'mun akademiyasining faoliyat yuritganligi buning guvohidir. Qutbiddin Muhammad va Otsizlar davrida mashhur tibbiyot olimi Sayyid Ismoil Jurjoniy faoliyat ko'rsatib, bir qator qimmatli asarlar yaratgan. Ular orasida Qutbiddin Muham-

madga bag'ishlangan "Zahirai Xorazmshohiy" asari alohida o'rin tutadi. Bu asarning qimmatini shu qadar bo'lganki, Jolinus (Galen), Muhammad Zakariyo, Ibn Sino, Abu Sahl Masihiy asarlari bilan bir qatorda tibbiyot sohasidagi eng muhim asar va manbalardan biri sifatida qabul qilingan. O'n ikki jilddan iborat ushbu asar tibbiyotning barcha yo'nalishlari: tashrih, oddiy va murakkab dorilar haqidagi tadqiqotlarni o'z ichiga olgan bo'lib, asar arab hamda turk tillariga tarjima qilingan. Ismoil Jurjoniyni eng katta xizmatlaridan biri, u Ibn Sinodan keyin tibbiyot sohasidagi barcha yo'nalishlarni yangi tadqiqotlar asosida qaytadan bayon qilib chiqqan.

Boshqaruv tizimi



Xorazmshohlar davrida mashhur mutasavvuf olim va shoir Najmiddin Kubro yashagan. Tahsil olib yurgan yoshlik yillarida kim bilan bahs yoki munozara qilsa, doimo ustun kelgani uchun unga "buyuk g'olib" laqabi berilgan ekan. Borib-borib birinchi so'z buyuk (tamat) so'zi tushib qolib "g'olib" (Kubro) laqabi saqlanib qolgan. Shu bois hozirgi kunga uning nomiga ana shu "G'olib" so'zi qo'shilgan holda yetib kelgan. Mo'g'ullar 1221-yilda Urganchni qamal

qilganlarida mudofaachilar orasida ana shu “buyuk g‘olib”, mashhur shayx borligini eshitib, Chingizxon unga odam yuborib: “Men Xorazmni yer bilan yakson qilaman, zamona avliyosi ul zot u yerni tark etib bizga qo‘shilmoqlari lozim”, deb taklif qilganida. shayx unga shunday javob bergan ekan: “Mana yetmish yildirki, taqdirning achchiq-chuchugini Xorazm va uning xalqi bilan birga totib kelayapman. Falokat bo‘ sag‘ ada turgan bir vaqtda elimni tark etish insoniylik va oliyjanoblikdan bo‘lmaydi”. Shayx o‘z xalqi bilan birga qullikdan ko‘ra shahidlikni afzal bilib, dushmanga qarshi kurashda halok bo‘lgan.

Xorazmshohlar saltanati qanchalik qudratli va kuchli bo‘lishiga qaramay, u mo‘g‘ullardan mag‘lub bo‘ldi. Chunki, xalq chekayotgan azob, ularning bu zulmlarga qarshi ko‘targan qo‘zg‘olonlari (1206 –1027-yillar Buxorodagi, 1212-yilda Samarqanddagi) saltanatni ich-ichidan yemirayotgan edi. Tanaz-zulning yana bir sababi Sulton Muhammad davlatchiligida o‘ziga xos ikki hokimiyatning yuzaga kelishidadir. Uning onasi Turkon Xotun davlat ishlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri aralasha boshlaydi. Ayniqsa, doimo o‘z qavmi manfaati uchun harakat qilgan Turkon Xotunning valiahd tayinlashdagi aralashuvlari davlatga qimmatga tushadi. Chunki bu holat jasur va mard o‘g‘lon Jalolid-dinning valiahdlikka tayinlanishiga ham ta‘sir etgan. Bundan tashqari, ayrim manbalarda Chingizxonning qipchoq amaldorlaridan o‘z manfaati yo‘lida foydalanganligi haqida ham ma‘lumotlar bor.

4. IX–XII ASRLARDA O‘RTA OSIYO XALQLARI HAYOTIDA UYG‘ONISH (RENESSANS) DAVRI. BUYUK AJDODLARNING JAHON SIVILIZATSIYASIGA QO‘SHGAN HISSASI

IX–XII asrlarda O‘rta Osiyoda ilm-fan, madaniyat shunchalik darajada yuksaldiki, bu yuksalish nafaqat yurt taraqqiyotiga, hatto dunyo taraqqiyotiga ham o‘z ulushini qo‘sha oldi. Bu yuksalish davrini insoniyat uyg‘onish (renessans) deb tan olganligi bejiz emas, albatta. Ushbu yuksalishning sodir bo‘lishini aynan o‘sha davrda O‘rta Osiyoda qudratli markazlashgan davlatlar tashkil topib, o‘lkada tinchlik va osoyishtalik qaror topganligi, bu holatlar ilm-fan, madaniyat rivojiga imkon yaratganligi va bundan tashqari, o‘z davrida hukmdorlik qilgan amir va podshohlarning aksariyati ilmi va ma‘naviyatli bo‘lganligi, ularning o‘zlari ilm-fan, madaniyat rivojiga homiylik qilganligi bilan bog‘laydilar. Uyg‘onish sodir bo‘lishiga turtki bergan yana bir muhim omil islom ma‘naviyati hamdir.

Arab xalifaligi O`rta Osiyoni egallagach, arab tili davlat tili darajasiga ko`tarildi. Arab tilini, islom dini, “Qur`oni Karim”ni yaxshi egallagan va bilgan shaxslarning jamiyatdagi o`rni va nufuzi oshdi. Bu arab tiliga nisbatan hayotiy ehtiyojni kuchaytirdi. Hududda ham arab tilini yaxshi biladigan tolibi ilmlar borgan sari ko`payib bordi va ular xalifalikning markaziy shaharlariga borib o`qishni odat tusiga, an`anaga aylantirdilar.

O`rta Osiyoda uyg`onish sodir bo`lishiga turtki bergan islom ma`naviyati ta`siri tufayli Movarounnahr va Xorazmdan buyuk zotlar chiqdiki, ular dunyo ilm-fani rivojiga ham ulkan hissalarini qo`sha oldilar.

IX–XII asrlarda nafaqat ilm-fan, madaniyat, balki moddiy ishlab chiqarish ham rivoj topdi. Hunarmandchilik va savdo taraqqiy etdi. Ayniqsa, bu holatlar yurt rivojiga qadimdan o`z hissasini qo`shib kelgan “Buyuk Ipak yo`li”ning o`mi va ahamiyatini yanada oshirdi. Bu savdo yo`li tufayli yurtda obod va go`zal shaharlar soni ko`payib bordi. Buni shundan ham bilish mumkinki, Al-Muqaddasiyning yozishicha (985-yil yozgan), 830 – 833-yillarda Xorazmda 13 shahar mavjud bo`lgan bo`lsa, yarim yildan so`ng shaharlar soni 33 taga yetgan. Bular: Kos, Gardmon, Oyxon, Orzaxiva, Nuqfog`, Qardor, Mizdakxon, Jashira, Sadvor, Zardux, Borategin, Madminiya (Amudaryoning o`ng sohilida), Jurjoniya, Raxushmison, Madamisan, Xiva, Kardarankos, Xazorasp, Jigarband, Joz, Darg`on, Jit, Kichik Jurjoniya, ikkinchi Jit, Safdor, Nuzvor, Zamahshar, Ruzun, Vazirmand, Vaskaxankas, Andarosgon va h.k. Bu shaharlarda hunarmandchilik va savdo-sotiq rivoj topdi.

Bu davrda Xuroson va Movarounnahrning iqtisodi va madaniyati yuksaldi. Marv, Buxoro, Samarqand, Urganch shaharlari esa o`z zamonasining madaniy markazlari sifatida shuhrat qozondi. Ayrim hukmdorlarning o`zlari ilm-fan, madaniyatga homiylik qildi. Ko`plab madrasalar vujudga keldi. Amaldorlarning aksariyati o`zlarining yirik kutubxonalariga ega edilar.

Ko`plab o`rta osiyolik bilimli, arab tilini yaxshi bilgan yoshlar Bag`dod va boshqa musulmon shaharlariga ta`lim olish uchun borar edi. Ayniqsa, bu davrda Bag`dod shahri Sharqning ilm-ma`rifat markazi sifatida shuhrat qozondi. IX asrda bu shaharda “Bayt ul-hikma” – Sharqning fanlar akademiyasi ish boshlagan. Xuddi shunga monand X asr oxiri – XI asr boshida Xorazmda ham podshoh Abul Hasan ibn Ma`mun tomonidan 1004-yilda “Dor ul-hikma va maorif” (Majlisi ulamo) tashkil etildi. “Ma`mun akademiyasi” deb nom olgan bu donishmandlar uyida Abu Nasr ibn Iroq, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Sahl Masihiy, Al-Xo`jandiy, Abu Masur as-Solibiy kabi o`z davrining o`nlab buyuk olimlari ijodiy faoliyat ko`rsatdi. Ushbu dargohda ilmning barcha sohalarida tadqiqot va izlanishlar olib borilgan, ko`plab man-

balar to‘plangan, tarjimonlik ishlari bajarilgan, hind, yunon, arab olimlarining merosi o‘rganilgan.

Ko‘rinib turibdiki, X asr oxiri va XI boshlarida ilm-fan ravnaqi yo‘lida Xorazm vohasi alohida ajralib turibdi. Xorazm Ma‘mun akademiyasining tashkil etilishi va uning faoliyati ham buni tasdiqlaydi.

Somoniylar davlati qulagach, Xorazmni Afrig‘iylar sulolasi vakili Abu Abdulloh Muhammad boshqara boshlagan. Biroq, Xorazm ikkiga bo‘linib boshqarilayotgan edi. Shimoliy Xorazm poytaxti Gurganch bo‘lsa, Janubiy Xorazm poytaxti hozirgi Beruniy shahri o‘rnidagi Kot shahri edi. Ikkala shahar ham Markaziy Osiyodagi yirik savdo markazlaridan hisoblanardi.

992-yilda ikki o‘rtada boshlangan urush tufayli Shimoliy Xorazm hukmdori Ma‘mun ibn Ma‘mun g‘olib chiqadi, o‘zini Xorazmshoh deb e‘lon qilib, Gurganchni poytaxtga aylantiradi.

Buyuk alloma Beruniy ham Xorazmga qaytganda, dastlab Gurganchga emas, sobiq Janubiy Xorazm poytaxtiga keladi. Keyinchalik Ma‘mun akademiyasining ochilishi munosabati bilan Gurganchga kelib faoliyat boshlaydi.

Xorazm birlashtirilgach, davlat mustaqilligi, uning harbiy qudrati ham oshadi. Ma‘mun ibn Muhammad (992–997), Ali ibn Ma‘mun (997–1009) lar davrida Xurosonda yangi tashkil topgan G‘azna davlati, arab xalifaligi va Kiyev Rusi davlati ham uni tan oladi. Natijada Xorazm boshqa davlatlar siyosatiga faol ishtirok etadigan bo‘ladi. Hatto Kiyev Rusi davlatining Xorazmga o‘z vakillarini yuborganligi haqida ma‘lumotlar bor.

IX–XII asr uyg‘onish davrida Movarounnahrda juda ko‘plab buyuk zotlar yetishib chiqdi. Ular o‘z ilmi va iste‘dodi bilan o‘zbek xalqini dunyoga tanitdi. Ana shunday allomalardan biri Muhammad ibn Muso al-Xorazmiydir. U Marvdagi madrasada o‘qigan, arab, fors, hind va yunon tillarini egalagan. Arab xalifaligi taxtiga Xorun ar-Rashidning o‘g‘li Ma‘mun chiqqach (813-yil), bu alloma Bag‘dodda ijod qilishni boshlaydi va u yerda tashkil etilgan “Bayt ul-hikma”ning rahbarlaridan biri etib tayinlanadi. Bu holatni butun islom dunyosidagi olimlar tan olinishi, deb tushunmoq lozim.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy o‘z ijodiy, ilmiy ishlarida birinchi o‘ringa xalq manfaatlarini qo‘yadi. U geografiya, tarix ilmi va, ayniqsa, matematika, geometriya, astronomiya fanlari sohasida barakali ijod qilgan.

Buyuk allomaning ilmiy ijodi orasida “Al-Jabr va al-Muqobala” asari alohida o‘rin tutadi. O‘zining bu asarida alloma muhim e‘tiborni xalq manfaatlariga qaratib, shunday yozadi: “Men arifmetikaning sodda va murakkab masalalarini o‘z ichiga oluvchi “Al-Jabr va al-Muqobala” hisobi haqida qisqacha kitob yozdim.

Chunki u odamlarga meros taqsimlash, vasiyatnoma yozish, boylik bo‘lish va adliya ishlari, savdo-sotiq, kanal qazish, geometrik hisoblashlar, shuningdek, boshqa munosabatlarda juda ham zarur¹. Xorazmiy bu asari bilan matematika tarixida birinchi bo‘lib algebra faniga asos soldi. “Algebra” atamasining o‘zi ham ushbu kitobning qisqacha “aljabr” deb ataluvchi qisqartirilgan nomining aynan ifodasi hisoblanadi. Kitob lotin imlosi bilan tarjima qilinganda, G‘arbiy Yevropada “aljabr” so‘zi “Algebra” tarzida qabul qilingan.

“Al-Jabr va al-Muqobala” deb nomlangan bu asar o‘zbek tilida “To‘ldirish va qarama-qarshi qo‘yish” ma’nosini beradi.

Ilm-fan sohasida katta iz qoldirgan allomalardan yana biri – Ahmad al-Farg‘oniy (IX asr)dir. U ham al-Xorazmiydek Bag‘doddagi Ma‘mun akademiyasida ijod qilgan, o‘zining yirik asarlarini shu markazda yaratgan. Astronomiyaga oid “Astronomiya negizlari” deb nomlangan asarida astronomiyaga oid barcha ma‘lumot va bilimlarni tartibga keltiradi. Bu asar Yevropada Nikolay Kopernikka qadar astronomiya fanidan asosiy qo‘llanma bo‘lib keldi. Farg‘oniy, shuningdek, arab ilmiy atamashunosligining vujudga kelishiga ham asos solib berdi. Uning loyihasi, bevosita ishtiroki bilan Bag‘dod va Damashqda rasadxonalar barpo etildi. Ahmad Farg‘oniy xalifa Mutavakkil topshirig‘i bilan Misrdan oqib o‘tadigan Nil daryosining suv sathini o‘lchab turadigan qurilma – **nilometr** asbobini yaratib, aholini suv toshqinlaridan asrashda katta xizmat qildi.

Al-Farg‘oniyga arab dunyosida “hosib” (matematika sohasida tengi yo‘q) degan unvon, Yevropada esa unga Alfraganus nomi berilgan. Uyg‘onish davri allomalari qatoridan munosib o‘rin olgan mutafakkir – **Abu Nasr al-Forobiy** (873 – 950)dir. U matematika, tibbiyot, astronomiya, kimyo, mantiq, musiqa-shunoslik, falsafa sohalariga bag‘ishlangan 160 dan ortiq asar yaratgan, ayniqsa davlatchilik va siyosat sohasidagi ilmiy merosi bugungi kunda ham o‘z qimmatini yo‘qotgan emas. Forobiy yaratgan Sharq falsafasi maktabi o‘zida Yunon va Rim falsafasi yutuqlarini chuqur aks ettirganligi, uni yanada boyitganligi va yuksaklikka ko‘targanligi bilan ajralib turadi. Forobiy antik olimlardan Aristotel, Ptolomey, Afrodiziy, Evklid, Platon, Gippokrat asarlarining bir qanchasiga sharh yozganligi bilan ham o‘z nomini yanada ulug‘ladi. Shu boisdan ham ilm-fan rivojidadagi hissalar uchun u sharqda Arestoteldan keyin “Muallimi soniy” (ikkinchi muallim), Sharqda esa “Sharq Arastusi” deb tan olingan.

Uyg‘onish davrining buyuk qomusiy olimi, serqirra qobiliyat sohibi **Abu Rayhon Beruniy** (973 – 1048) ilmiy ijodi va kashfiyotlari bilan dunyo ilmi xazinasiga ulkan hissa qo‘shgan olim. Fanning deyarlik barcha sohalar bo‘yicha

¹ *Hamidov H.* O‘lis-yaqin yulduzlar. – T.: “Cho‘lpon” nashriyoti, 1990. – 14-bet.

ijod qilib, 150 ga yaqin asarlar yaratgan. 21 yoshida globus yasab, yerning shar shaklida ekanligini isbotlagan. Xristofor Kolumbdan 460 yil muqaddam okean ortida qit'a (bugungi Amerika) borligini bashorat qilgan. O'zining yirik "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida turli xalqlar: yunon, rumo, fors, so'g'd, xorazm, yahudiy, arab va boshqa xalqlarning kalendar tizimlarini bir-biriga taqqoslab, kelib chiqish tarixini tahlil qilib bergan. Shuningdek, asarda Turon xalqlarining urf-odatlarini, diniy e'tiqodlari, mazhablari, kundalik turmushlari haqida qimmatli ma'lumotlar bor.

Beruniy Xorazm Ma'mun akademiyasida samarali ijod qilgan. 1017-yilda Mahmud G'aznaviy uni G'azna shahriga olib ketgan. So'ngra bir necha yillar davomida Hindistonda yashab, 1030-yilda o'zining "Hindiston" nomli yirik asarini yaratgan.

IX–XII asrlarda tabobat va tibbiyot ilmi sohasida qator asarlar yaratgan qomusiy olim **Abu Ali ibn Sino** (980–1037)dir. U tibbiyot sohasidan tashqari, falsafa, mantiq, ruhshunoslik, adabiyotshunoslik, she'riyat, musiqa, geologiya, mineralogiya, fizika, matematika, astronomiya bo'yicha ham yuzlab asarlar yozgan. Qohiralik olim Shoxota Kanavotiy o'z asarida ibn Sinoning 276 ta asari qo'lyozmasi ro'yxatini beradi.

Butun Sharq tibbiyot ilmining shakllanishi va rivojida munosib hissasini qo'shgan ibn Sino o'zining "Tib qonunlari" asarida Movarounnahrda amaliy va nazariy tibbiyot natijalarini umumlashtirib, uni qo'shni Sharq mamlakatlari tibbiyot yutuqlari bilan boyitdi va butun bir tizimga keltirdi. U 800 ga yaqin dorini sinchiklab o'rganib, ulardan turli kasalliklarni davolashda foydalanган. U ishlatgan 396 xil o'simlikdan 165 tasi hozirgi zamon meditsinasida qo'llanilmoqda, 110 tasi sobiq ittifoq tabobat ilmiga kiritilgan. "Tib qonunlari" kitobi XVIII asr oxirlarigacha Yevropa bilim yurtlarining darsligi – birdan-bir tibbiyot qo'llanmasi sifatida tan olingan.

Bu davrda **Mahmud Koshg'ariy** (X-XI) ijodi va u qoldirgan meros alohida ahamiyatga ega. Olim qalamiga mansub "Devoni lug'atit turk" asari Rum (kichik Osiyo)dan Xitoygacha bo'lgan hududlarda yashovchi turkiy xalqlar tarixi, jo'g'rofiyasi, etnogenezi, urf-odatlarini, turmush tarzi to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beradi. Koshg'ariy yetuk tilshunos olim sifatida turkiy tildarga oid juda ko'plab so'z birikmalari, iboralar, talaffuz qoidalarini asoslab berishga muvaffaq bo'lgan. Shu bois bu asar lug'atgina emas, mukammal ishlangan grammatik qo'llanma hamdir. Asar she'riy uslubda yozilgan bo'lib, ularda ezgulik, mehnatsevarlik, qahramonlik, g'animg'larga nafrat tuyg'ulari ifodalangan. Eng muhimi, bu asar islom ta'limoti hukmronligi boshlanguncha bo'lgan turkiy tildagi she'riyatning janrlari, shakli, badiiyati, ta'sir vosi-

talari, ularning yuksakligi, badiiy jarangining yuqoriligi to‘g‘risida aniq tasavvur beradi.

Qoraxoniylar hukmronligi davrida yirik adib va siyosatshunos **Yusuf Xos Hojib** ham barakali ijod qilib, o‘zining mashhur “Qutadg‘u bilig” (Saodatga eltuvchi bilim) asari bilan keyingi davr uchun katta ma‘naviy meros qoldirdi. U o‘sha davrning yirik ilm egasi bo‘lganligi sababli ham davlat mahkamasidagi yuksak lavozimlardan birini egallab, Xos Hojib nomini olgan. Allomaning “Qutadg‘u bilik” asarida 6407 bayt orqali markazlashgan feodal davlatni idora etish yo‘llari, siyosati hamda xalqlarning urf-odatlarini, ahloq va qonun-qoidalari ifoda etilgan. Asarda sog‘liqni saqlash, dorishunoslik va umuman tabobatga oid baytlar ham ko‘plab uchraydi.

Yusuf Xos Hojib asarida jamiyatning to‘rt ustuni belgilab berilgan. To‘rt ustun asosidagi jamiyat baxt-saodatini ta‘minlashda ilm birinchi o‘ringa qo‘yilib: “O‘quv qayda bo‘lsa, ulug‘lik bo‘lar, bilim qayda bo‘lsa, buyuklik bo‘lar”, deb yozilgan. Alloma ishlab chiqqan jamiyatning to‘rt ustuni: Davlat, Adolat, Aql-zakovat va Qanoatdir.

Yuksalish davrida yuqorida nomlari zikr etilgan allomalar bilan bir vaqtda Abu Abdulloh Xorazmiy (X asr), Abu Bakr Muhammad Narshaxiy (X asr), Abdulfazl Bayhaqiy (995 – 1077), Abulqosim Mahmud az-Zamaxshariy (1075 – 1145), Abu Bakr Robi‘ ibn Ahmad al-Buxoriy (983-yil vafoti), Abu Sahl Sahihiy Jurjoni (970 – 1010), Abu Abdulloh an-Notiliy as-Samarqandiy (X-XI asrlar), Abul Xayr ibn al-Hammor (942 – 1030), Ibn Jazla (1100-yil vafoti), Zayniddin Abu Ibrohim al-Jurjoni (1136-yil vafoti), Badriddin ibn Muhammad as-Samarqandiy (1194-yil vafoti), Abu Mansur Muhammad Daqiqiy (942 – 1020-yillar), Sobir Termiziy (XI-XII asrlar), Amir Muizziy (XII asr), Nizomiy Aruziy Samarqandiy (XII asr), Azraqiy (XI-XII asrlar), Abu Bakr Rubobiy (IX-X asrlar), Abu Nasr (X asr), Alibergan Tanburiy (X asr) kabi olim-u fuzalolar, shoir-u adiblar, san‘atkorlar ham ijod cho‘qqisiga ko‘tarilganlar.

Yuqorida nomlari zikr etilgan allomalar bilan bir davrda ijod qilgan yana bir mutafakkir Abu Mansur al-Qumriy. U Abu Ali ibn Sinoning tabobat bo‘yicha ustozini, o‘z davrining tengi yo‘q tabibi bo‘lgan, Somoniylar hukmdorlari, xususan, amir Mansur ibn Nuh davrida tibbiy yordam kerak bo‘lganda haramga bemalol kirish huquqiga ega bo‘lgan.

Saljuqiylar davrida ham ilm-u ma‘rifatga jiddiy e‘tibor ko‘plab olim-u fuzalolarning yetishib chiqishiga sabab bo‘lgan. Ular orasidan Umar Xayyomni xalq ko‘proq shoir sifatida biladi. Vaholanki, u yetuk yulduzshunos va riyoziyotchi olim edi. Uning ishtirokida rasadxona loyihasi chizilib, bir yil ichida bar-

po etilgan. 1097-yili u Sulton Malikshoh topshirig‘iga ko‘ra taqvim (kalendar) yaratgan. Uning aniqligi Grigoriy kalendaridan ham yuqori bo‘lishiga qaramay, amalda joriy qilinmasdan qolib ketgan. Bundan tashqari, matematika tarixida sonlardan butun musbat ildiz topishning umumiy qoidasini birinchi bo‘lib isbotlab bergan ham aynan Umar Xayyomdir.

IX–XII asrlarda O‘rta Osiyodan yetishib chiqqan allomalar islom ilmi va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shdi. Ulardan biri – **Imom Ismoil al-Buxoriy** (810 – 870), yoshligidan islom ilmiga qiziqib, buxorolik muhaddislar Muhammad al-Poykandiy, Abdulloh al-Masnadiylardan hadis ilmini chuqur o‘rgangan va hadislarni yod olgan. 16 yoshida onasi va akasi bilan safarga otlanib, Balx, Basra, Kufa, Bag‘dod, Xums, Damashq, Makka va Madina shaharlarida bo‘lgan. u yerlardagi hadischi olimlardan ilm olgan. Al-Buxoriy islom ilmiga oid 20 ga yaqin katta hajmdagi asarlar yozgan. Uning asarlarining diqqat markazida dinning inson uchun tarbiyaviy ahamiyati, uning ma‘naviy yuksalishi, tozaligi, donoligi, yaxshi-yomonni bir-biridan ajrata olish kabi xislatlar turadi.

Olimning “Ishonarli to‘plam” asari hadisshunoslikda eng yuqori pog‘onada turadi. U hayoti davomida 600 ming hadis to‘plab, ulardan 7275 tasini o‘zining ana shu 4 jildlik kitobiga kiritdi. Asar Misr va boshqa ko‘p mamlakatlarda nashr etilgan. O‘zbekistonda esa 1991-1992-yillarda o‘zbek tiliga tarjima qilinib chop etildi.

Islom olamida hadischilik bobida katta mavqega ega bo‘lgan allomalardan yana biri Abu Iso Muhammad at-Termiziy (824 – 894)dir. U 26 yoshidan boshlab Samarqand, Buxoro, Hijoz, Iroq, Nishopur shaharlaridagi mashhur olimlardan ta‘lim olgan. Uning buyuk hadischi olim bo‘lib yetishishida al-Buxoriyning xizmatlari buyuk. At-Termiziydan “Kitobi al-Jom‘e as-Sahih”, “Kitob ul-ilm”, “Kitobi at-tamoyili an-Nabaviy”. “Kitobi az-zuhl”. “Kitobi ismi val xuna” kabi asarlar meros bo‘lib qolgan. Uning to‘plagan hadislarida tarbiya, axloq-odob, ota-ona va farzand haq-huquqi, burchlari, halollik, poklik kabi umuminsoniy qadriyatlar muhim o‘rin egallagan. Buyuk hadisshunos at-Termiziy Surxondaryoda Termiz yaqinidagi Bug‘ qishlog‘ida tug‘ilgan.

Islom olamining yetuk allomasi **Imom Moturudiy** Imom Buxoriy vafot etgan yili (mil. 870- yil) tavallud topgan. “Bu voqea zamirida shaxsan menga ilohiy bog‘liqlik, Ollahning buyuk marhamati bordek, barnisoli Imom Moturudiy Buxoriyning nurli qalamini olib, ul zotning xayrli ishlarini davom ettirishga bel bog‘lagandek tuyuladi”¹, deb yozgan edi O‘zbekiston Prezidenti I.A.Karimov o‘zining “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch” asarida.

¹ Karimov I.A. “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch”. – T.: “Ma‘naviyat”, 2008. – 39-b.

Imom Moturudiy asos solgan Moturudiya maktabi, unda ilgari surilgan g'oyalar islom dinining asosini to'g'rilik, ezgulik va insoniylikdan iborat deb biladigan jamiki mo'min-musulmonlarning qarash-u intilishlari bilan hamohang bo'lganligi uchun ham Sharq mamlakatlarida katta shuhrat topdi. Bu buyuk zot tahlakali va xatarli bir davrda, o'z hayotini xavf ostiga qo'yib, avlodlarga ibrat bo'ladigan ma'naviy jasorat namunasini ko'rsatdi va islom olamida "Musulmonlarning e'tiqodini tuzatuvchi" degan yuksak nomga sazovor bo'ldi.

Islom ma'naviyatining yuksalishida muhim hissa qo'shgan avliyo allomalardan biri – **Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni** (1103 – 1179) hisoblanadi. Manbalarda ko'rsatilishicha, G'ijduvoni Hazrati Xizr alayhissalom, Yusuf Hamadoni, Imom Sadridin, Niyoz Xorazmiy kabi ulug'lardan ta'lim va tahsil olgan. Uning ulug' ustozlari Yusuf Hamadoni piyoda 37 marta haj qilganligi, umri davomida "Qur'oni Karim"ni ming marotaba xatm qilganligi haqida ma'lumotlar mavjud. G'ijduvoniya Xoja Ahmad Siddiq, Xoja Avliyoi Kabir, Xoja Sulaymon Karmani, Xoja ar-Revvari kabi xalifalari ham bo'lgan.

Allomaning "Risoi Sohibiya", "Risoi Shayxshuyux hazrat Xoja Abu Yusuf Hamadoni", "Maqomati Xoja Yusuf Hamadoni" kabi asarlari islom dunyosida mashhur. Alloma deydiki: "Ey farzand! Ilm o'rgan, unga amal qil. Taqvoli bo'!"

Islom olami G'ijduvoniya sohib karomatli avliyo sifatida tan olib, unga "Xo'jai jahon" degan yuksak nom bergan va u shu nom bilan mashhurdir.

Butun dunyoga ma'lum va mashhur alloma **Bahouddin Naqshband** "Diling Ollohda, qo'ling mehnatda bo'lsin" degan aqidasi bilan islom olamida mashhur. Ota-bobolar bu ulug' avliyoga chin dildan ixlos qo'yib, uni "Bahouddin Balogardon" deb e'zozlashgan. Yana bir alloma **Burhoniddin Marg'inoni ibn Abu Bakr ar-Rishtoni** (1197-yil vafoti) ham islom olamidagi yorqin siymodir. U islom huquqlari ilmiga oid "Ilmg kirishuvchi uchun dastlabki asos", "Mazhabning yoyilishi", "Ziyoda qilish", "Haj marosimlari", "Farzlar haqida kitob", "Fiqh sohalari bo'yicha qo'llanma" kabi asarlar muallifi. Allomaning "Hidoya" (to'g'ri yo'l) asari bugungi kunda ham ahamiyatli bo'lib, 57 ta kitobdan iborat shariat qonunlari jamlamasi hisoblanadi.

Shuningdek, **Ahmad Yassavi** (1105 – 1165), **Najmiddin Kubro** (1145 – 1221) kabi tariqat namoyandalari o'zlarining "Yassaviya", "Kubraviya" tariqatlariga asos solgan. Ahmad Yassaviydan yetib kelgan yagona meros – "Devoni hikmat"idir. Najmiddin Kubroning she'r va risolalarida birodarlik asosiy o'rinda turgan.

Ahmad Yassaviyning shogirdi va uning tariqatining davomchisi **Sulaymon Boqirg'oni** (1186-yil vafoti) ham din va tasavvuf, ishq va axloqdan sa-

boq beruvchi asarlar yozgan va bu asarlar butun Turkiston hududlarida sevib o‘qilgan. Uning “Boqirg‘on kitob” nomli yirik asari bizgacha yetib kelgan. Alloma turkiy xalqlar orasida “Hakim ota” laqabi bilan ham ma’lum-u mashhur.

Shu tariqa IX–XII asrlar uyg‘onish davrida O‘rta Osiyodan shunday buyuk zotlar yetishib chiqdilarki, ular nafaqat tarixda, ayni vaqtda bashariyatning bugungi taraqqiyot sahifalarida mangu o‘chmas iz qoldirdilar.

O‘zbekiston Prezidenti I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida o‘tgan buyuk ajdodlar xizmatlariga baho berib: “Bunday ulug‘ zotlarning hayot yo‘li va qoldirgan merosini to‘liq tasvirlash emas, balki ularning eng buyuk namoyandalari timsolida ma’rifat, ilm-u fan, madaniyat, din kabi sohalarning barchasini o‘zida uyg‘unlashtirgan xalqimizning ma’naviy olami naqadar boy va rang-barang ekanini isbotlab berishdan iboratdir”¹, deydi va mazkur asarda buyuk ajdodlar qoldirgan bu noyob va bebaho boyligni har tomonlama chuqur o‘rganib, uning ma’no-mazmunini farzandlarga yetkazish barcha uchun ham qarz, ham farz bo‘lishi shart, deb hisoblaydi va shu yurtda yashayotgan vatanparvar insonlar bu vazifani o‘z zimmalariga olmasalar, chetdan biron kelib bu ishni qilib bermasligini alohida ta’kidlaydi.

Tayanch so‘z va iboralar:

Arab xalifaligi. Ma’mun. Tohiriylar. Somon Xudot. Safforiylar. Ismoil Somoniy. Devonlar. Barqarorlik. Qoraxoniylar. Sharqiy va G‘arbiy Qoraxoniylar davlati. Yerga egalik. G‘aznaviylar davlati. Mahmud G‘aznaviy. Saljuqiylar davlati. Nizomulmulk. Qoraxitoylar. Xorazmshohlar. Anushteginiylar. Xorazmshoh Alouddin Muhammad. Boshqaruv tizimi. Uyg‘onish (renessans). Xorazm Ma’mun akademiyasi. Buyuk allomalar.

Bilimingizni sinab ko‘ring

1. Arab xalifaligi taxtini egallashda xalifa Ma’munga xurosonlik Tohir ibn Husayn va Somon Xudotlar katta yordam berdilar. Ma’mun taxtga o‘tirgach, Tohir ibn Husayn Xuroson noibi etib tayinlandi. Tohir shu kundan boshlab Xuroson mustaqilligi uchun harakat boshlab, bunga erishadi ham. Tohir vafotidan so‘ng noiblik hokimiyati tepasiga farzandlari chiqdi. Ular ham mustaqil siyosat yurgizdi. Natijada Xuroson va Movarounnahrda yangi sulola hukmronligi boshlanadi. Bu sulola tarixga qanday nom bilan kirgan?

¹ Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – T.: “Ma’naviyat”, 2008. – 44-b.

			i		i		l	a	r
--	--	--	---	--	---	--	---	---	---

2. Xurosondagi taxtni Safforiylar egallashi bilan Somoniylar uchun Movarounnahrni mastaqil boshqarish imkoniyatini yaratdilar. Aka-uka Somoniylar o'rtasidagi kurashlarda Ismoil Somoniy g'olib chiqdi va davlat amiriga aylandi. U boshqaruvda o'nta devon tashkil etib, bu devonlar tizimi xizmatidan foydalandi. 1-devon "Xo'jai buzrug", qolgan 9 ta devon ustidan nazoratni ta'minlab turgan. Bu devon o'zbek tilida qanday nom bilan ataladi?

	o	
--	---	--

			i	
--	--	--	---	--

d	e	v	o	n	i
---	---	---	---	---	---

3. Somoniylar davrida harbiy sohada turkiylar yetakchi o'rinni egallagan. Ular hatto, ayrim somoniy hukmdorlarga ham qarshi chiqa olganlar. Masalan, Ismoil Somoniy o'g'li Ahmad ular tomonidan o'ldirilgan. Nasr II ga qarshi fitna uyushtirilgan. Turkiy sarkardalardan Alp Tegin somoniy podshoh bilan kelisha olmay G'azna viloyatida o'z hukmronligini o'rnatgan.

Somoniylar davrida harbiy soha vakillari nomini katakchalardan toping.

t	u	r	k	i	y
---	---	---	---	---	---

		l			l	a	r
--	--	---	--	--	---	---	---

4. Qoraxoniylar davlatining birinchi hukmdori turkiy yag'mo urug'idan bo'lgan Sotuq Abdulkarim Qoraxon. Yag'mo podsholarini "Bug'roxon" deganlar. Shu bois, Sotuq Abdulkarim ham "Bug'roxon" nomini olgan. Bu xonning turkcha nomi bizgacha yetib kelmagan va biz uni "Bug'roxon" unvoni bilan yoki arabcha-turkcha Xorun ibn Sotuq nomi bilan bilamiz.

Katakchalarda "Bug'ro" so'zining ma'nosini yashiringan.

	o'	
--	----	--

		k			l	i
--	--	---	--	--	---	---

	u	
--	---	--

5. G'aznaviylar davlati tizimida amir bosh o'rinda turgan. Boshqaruvda bir mansab tizimi ham muhim o'rin tutgan. Bu mansabdagilar odatda qora chakmon va ikki uchli kuloh kiyib yurgan. Manbalarda bu mansab ulug' saroy navbatchisi, jomador so'zlari bilan birga ishlatilgan. Ular marosimda oliy hukmdorga eng yaqin joyni egallagan. Bu mansab egasining qanday nom bilan atalishini katakchalardan toping.

	o		i	
--	---	--	---	--

6. Saljuqiylar davrida siyosatshunos, davlat vaziri yashab o'tgan. Manbalarda uning nomidagi madrasada olti mingga yaqin talaba tahsil olganligi yoziladi. Uning asl ismi Abu Ali al-Hasan ibn Ishaq al-Tusiy bo'lib, undan bir mashhur asar va o'zidan "mamlakatni tartibga soluvchi" ma'nosini beruvchi mashhur nom qolgan. Katakchalarda o'sha insonning mashhur nomi va asarining nomi yashiringan.

			o		u					l	
--	--	--	---	--	---	--	--	--	--	---	--

(vazirning nomi)

	i			a			o		
--	---	--	--	---	--	--	---	--	--

(asarning nomi)

7. Anushteginiylar davrida Ozarbayjon, Eron, Xurosondan Hindistongacha bo'lgan hududlar tobe qilingan edi. Takash va o'g'li Alouddin Muhammadlar bir joyni qo'lga kiritishni juda ham orzu qilgan. Takash 1200-yili o'sha joyga yurishi chog'ida yo'lda vafot etgan, o'g'li Alouddin esa 1217-yili ob-havoning noqulay kelishi natijasida o'sha joyni egallash rejasini amalga oshira olmagan. Ikki xorazmshoh egallashni orzu qilgan joyning nomini katakchalardan toping.

	a		d		
--	---	--	---	--	--

8. "Ma'mun akademiyasi" Marvda tashkil etilib, Bag'dodda ish boshlagan va u "Bayt ul-hikma" deb nomlangan. "Xorazm Ma'mun akademiyasi" esa "Dorul-hikma val maorif" nomi bilan faoliyat yuritgan. Ba'zi manbalarda bu so'zning bugungi o'zbek tiliga yaqinroq ma'nosi ham ishlatilgan. Katakchalarda shu so'zning o'zbekcha ma'nodagi nomi yashiringan. Bu nomni toping.

	a			i		i
--	---	--	--	---	--	---

	l			m	
--	---	--	--	---	--

9. Al-Xorazmiy "Al-jabr va al-muqobala" asari bilan matematika tarixida birinchi bo'lib algebra faniga asos soldi. Bu kitob lotin imlosi bilan tarjima qilinganda G'arbiy Yevropada "aljabr" – "Algebra" tarzida qabul qilingan.

Xo'sh, "Al-jabr va al-muqobala" deb nomlangan asar o'zbek tilida qanday nomlanadi?

		l		i		i	
--	--	---	--	---	--	---	--

v	a
---	---

	a			m	
--	---	--	--	---	--

		r		
--	--	---	--	--

	o'		i	
--	----	--	---	--

10. Yusuf Xos Hojib mashhur “Qutadg‘u bilig” asarida jamiyatning to‘rt ustunini belgilab bergan. Bu ustunlarning uchtasi – Davlat, Adolat, Aql-zakovat. Katakchalardan to‘rtinchi ustunning nomini toping.

	a			a	
--	---	--	--	---	--

VI BOB. MO‘G‘ULLAR ISTILOSINI VA ZULMIGA QARSHI KURASH. JALOLIDDIN MANGUBERDI

Mavzu rejasi:

1. Chingizxon (Temuchin) boshliq mo‘g‘ul davlatining tashkil topishi. Chingizxon va Xorazmshoh munosabatlari.
2. Mo‘g‘ul istilochilarining Turonzaminga harbiy yurishlari.
3. Jaloliddin Manguberdi – otashin vatanparvar kurashchi va xalqning jasur o‘g‘loni.
4. Chig‘atoy ulusining tashkil etilishi, uning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti.

1. CHINGIZXON (TEMUCHIN) BOSHLIQ MO‘G‘UL DAVLATINING TASHKIL TOPISHI. CHINGIZXON VA XORAZMSHOH MUNOSABATLARI

O‘zbek xalqi o‘z tarixida mudhish voqealarning ham guvohi bo‘lgan. Bunday voqealardan biri mo‘g‘ullar istilosi va zulmidir. Bu davrni ikki ko‘rinishda ifodalash mumkin.

Birinci davrni O‘rta Osiyodagi buyuk yuksalish (IX–XII asrlar)ning to‘xtatilishi deb qaralsa, ikkinchi davrni yuksalish davom etayotgan yurtda hukmronlik qilayotgan hukmdorlarning ham siyosiy, ham harbiy xatolari tufayli sodir bo‘lgan tarixiy jarayonlar deb ifodalash mumkin. Nima bo‘lganda ham bu xatolar tufayli xalq bir yarim asrlik mudhish davrni o‘z boshidan kechirdi. Ushbu davr ofatlari, vayronalik oqibatlarini bilish tarixiy jarayonlarni haqqoniy va chuqur o‘rganish, saboq olish va to‘g‘ri xulosa chiqarishni taqozo etadi.

XII asr oxirlarida Mo‘g‘uliston hududida yashovchi turli qabila va urug‘lar o‘rtasida siyosiy kurashlar avj olgan davr edi. Ularda, ayniqsa, urug‘-aymoqchilik munosabatlari kuchli bo‘lib, asosan ko‘chmanchi chorvachilik, ovchilik va mol ayirboshlash bilan kun kechirar edi. Ularning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot darajasi ham ancha past bo‘lgan.

XIII asr boshlariga kelib bir-biriga raqib mo‘g‘ullar, tatarlar, naymanlar, keroyitlar, merkitlar va boshqa qabilalar o‘rtasidagi sinfiy hamda siyosiy kurashlar natijasida ko‘chmanchi feodal oqsuyaklar manfaatini himoya qiladi-

gan davlatning vujudga kelish jarayoni kuchaymoqda edi. Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi” kitobida mo‘g‘ul sho‘basi 9 nafar: dastlabkisi Mo‘g‘ulxon, oxirgisi Elixondir. Tatarlar esa 8 sho‘baga bo‘lingan deb yoziladi.

1155-yilda bir necha qabilalar boshlig‘i Yesugay (Yasug‘oy) bahodir va Ulun xotun oilasida o‘g‘il farzand tug‘iladi. Ulug‘bekning yozishicha, Yasug‘oy bahodir o‘z atrofidagi ulug‘ a‘yonlar bilan kengashib, o‘g‘lining ismini Temuchin deb qo‘ydi. Bunga sabab o‘sha vaqtlarda tatar qabilalarining qudratli podshohining ismi ham Temuchin edi. Go‘dak ulg‘ayganda, Temuchindek qudratli shoh bo‘lsin, deb niyat qilingan, albatta.

Abulg‘oziy Bahodirxon (Xiva xoni, tarixnavis olim) o‘zining “Shajarayi turk” kitobida: “Temuchin Mo‘g‘ul yurtining Yilun Yildiq degan joyida tug‘ildi. Tug‘ilganda bir qo‘li yumuq edi. Enaga xotin ochdi va unda bir pora uyushgan qon ko‘rdi. Tashqariga chiqib yoshi ulug‘larga aytganda, ulardan biri bu o‘g‘lon podshoh bo‘lur, yer yuzining barchasini olur, ko‘p ellarni qatl va viloyatlarni vayron qilur, deb bashorat qildi”, deb yozadi.

Temuchin otadan 13 yoshida yetim qolganda, otasiga tobe ko‘pgina qabilalar ularni tashlab ketdi va shu bois u keyinchalik murakkab hamda xavfli sharoitlarni boshidan kechirdi. O‘zaro qabilaviy janglarda faol qatnashgan Temuchin o‘z atrofiga 13 ming kishilik lashkar to‘play oldi va keyinchalik ularning soni ortib bordi. Tez orada u nayman, tatar, ung‘ut, uyg‘ur, keroyit qabilalarini o‘ziga bo‘ysundirishga erishib, 1205-yilda Mo‘g‘uliston hududidagi eng qudratli hukmdorga aylandi.

Chingizxon hukmronligi davri boshlarida 13 ming atrofidagi o‘tov yoki oilaga ega bo‘lgan bo‘lsa, umrining oxirlarida turli tillarda so‘zlovchi, turli dinlarga mansub 720 ta xalq unga tobe edi. Uning o‘g‘il va nabiralari hozirgi Xitoy, Hindistonning bir qismi, Quriya, butun O‘rta Osiyo, hozirgi Rossiyaning hamda Janubiy Osiyoning Hinddan Furotgacha bo‘lgan deyarli barcha qismiga hukmronlik qilishgan.

1206-yilda Onon daryosi bo‘yida maxsus chaqirtirilgan qurultoyda Temuchin butun Mo‘g‘ulistonning xoqoni deb e‘lon qilindi va unga Chingizxon (kuchli, baquvvat ma‘nosida) laqab berildi. Chingizxon shu tariqa Manjuriyadan to Irtishgacha, Baykaldan Tangg‘utgacha bo‘lgan hududlarda ko‘chib yuruvchi ko‘p sonli qabilalarining yagona hukmdoriga aylandi. Davlatning diniy, siyosiy, ijtimoiy faoliyatining barcha qirralari 1206-yildagi o‘sha yirik yig‘inda qabul qilingan “Yasoq” qonunlari to‘plamida mustahkamlandi.

Ko‘pgina tarixiy kitoblarda “mo‘g‘ul tatarlari” so‘zi uchraydi. Aslida mo‘g‘ullarni “mo‘g‘ul tatarlari” deb atash yevropaliklarning atamasi. Mo‘g‘ul degan nom etnik ma‘nodan ko‘ra ko‘proq, siyosiy ma‘noga ega. Ularning

o'zlari bu yerda eng ko'p sonni tashkil etgan va mo'tabar hisoblangan tatar qabilasi nomi bilan "tatar" deb ataganlar.

Qurultoy tomonidan qabul qilingan "Yasoq" hujjati (mo'g'ullar davlatining asosiy qonunlari majmuasi) ulug' xon hokimiyatini mustahkamlaydi. "Yasoq" mo'g'ul jamiyatidagi mulkiy tengsizlikning ifodasi sifatida ko'zga yaqqol tashlanib, yangi paydo bo'lgan hukmron tabaqa – tarxonlarga katta imtiyozlar berilishini ko'zda tutardi.

Chingizxon ulug' xoqon deb e'lon qilingan birinchi kundanoq o'zining eng yaqin kishilaridan 95 nafarini bahodur-mingboshilar etib tayinladi va bir necha ming kishiga tarxonlik yorliqlarini berdi. U ayni paytda 10 ta hokimiyat lavozimini ta'sis etadi va 150 kishidan iborat gvardiya hamda mingta "dov-yurak" jangchilaridan iborat shaxsiy drujina tuzadi. Keyinchalik, bu drujinadagilar soni 10 ming kishiga yetdi. Butun mamlakatda kuchli temir intizom, qattiqqo'l tartib o'rnatilib, jangovar harbiy safarbarlik ishlari ommaviy ravishda olib borildiki, bu Chingizxonning xorijiy ellarni zabt etishdan iborat o'z oldiga qo'ygan agressiv maqsadlarini tez orada amalga oshirishga imkon yaratdi.

O'z ustakorligi, makkorligi bilan nom chiqargan Temuchin (1155 – 1227) nafaqat mo'g'ullarning ko'p sonli urug'-qabilalarini, balki shu bilan birga yonma-yon, qo'shni bo'lgan ko'plab turkiy elatlar, chunonchi, jaloyirlar, oyratlar, keraitlar, qoraxitoylar, qirg'izlar, uyg'urlar, qorluqlar va boshqalarni ham birin-ketin bo'ysundirib, kuchli ko'chmanchi davlatga asos soldi. Bu davlat harbiylashgan tizimga asoslanganligi bilan ajralib turardi. Qo'shinlarga: o'n jangchiga bir boshliq – o'n boshi, ming boshi va tumanboshilar boshchilik qilardi. Tuman deganda o'n minglik qo'shingina emas, balki shu qo'shin safini to'ldirish kerak bo'lgan butun bir tuman, ya'ni besh-o'n ming o'tovli yoki 50 mingga yaqin aholini jamlagan hudud nazarda tutilgan. Har bir shunday tuman tepasiga tayin qilingan tumanboshi faqat o'n ming jangchining qo'mondoni bo'libgina qolmay, ayni paytda o'z tasarrufidagi minglab fuqarolarning taqdirini hal etuvchi mutlaq hokim hisoblangan. Mazkur tumandagi barcha sudlov, jinoiy javobgarlik va fuqarolik ishlari ham to'laligicha uning tasarrufiga berilgan.

Temuchin oliy hokimiyat muruvvatlarini o'zining o'g'illari va eng yaqin kishilariga topshiradi. Jumladan, uning yaqin safdoshlaridan: Subutoy, Jebe; farzandlari Jo'chi, Chig'atoy, O'qtoy, To'lilar birinchi bo'lib tuman sohiblari bo'lganlar.

1207-1208-yillarda mo'g'ullar tomonidan Enasoy (Yenisey) havzasi, Yettisuv viloyatining shimoliy qismi bosib olinib, u yerdagi uyg'urlar

to'liq bo'ysundirildi. 1210-yilda Chingizxon Xitoyning shimoli-sharqidagi Tong'ut mamlakatiga hujum qilib, katta o'lja va ko'plab odamlarni qul qilib, Mo'g'ulistonga olib ketdi. 1211–1215-yillar davomida esa avval Xitoyga hujum qilib, qudratli Szin armiyasiga qattiq zarbalar berdi, so'ngra Pekin shahrini ishg'ol qildi. Szin sulolasi ag'darilib, Shimoliy Xitoy mo'g'ullar davlatiga qo'shib olindi. Mo'g'ulistonda qudratli davlatni tashkil qilgan Chingizxon o'z e'tiborini endi O'rta Osiyo tomonga qarata boshladi.

Mo'g'ullar kuchayib borayotgan bir paytda Xorazmshohlar davlatida ichki ziddiyatlar yanada kuchayib borayotgan edi. Yuqorida ta'kidlanganidek, ikkinchi hokimiyat hisoblangan Xorazmshoh onasi Turkon xotun o'z mavqeyini ko'tarishga yanada harakat qilayotgandi. U hattoki, ayrim masalalarni hal etishda birinchi bo'lgan. sultonning ba'zi buyruq va farmonlarini inkor etgan, o'z nomidan farmonlar chiqarib, istagan masalalarini hal qilish qudratiga ega bo'lgan. Shoh esa hech vaqt unga e'tiroz bildira olmagan, chunki bir tomondan ona hurmati bo'lsa, ikkinchi tomondan Turkon xotunning tarafdorlari, uning urug'idan chiqqan qipchoq amirlari ko'pchilikni tashkil qilardi. Zamonadoshlarining ta'rificha, bu ayol "Xudovandi jahon", ya'ni "Jahon hokimasi" deb nom olgan. U o'zining tug'rosi (muhri)ga ham ega edi.

Turkon xotun hatto, moliya masalalariga ham faol aralashib, buyruqlar bera olgan. Shuningdek, taxt merosxo'rini ham o'zi belgilagan. Turkon xotunning talabi va maslahati bilan hukmdor taxt vorisi qilib o'ta qobiliyatli, o'tyurak, mohir sarkarda, Sulton Muhammadning turkman xotini Oychechakdan tug'ilgan katta o'g'il Jaloliddin emas, balki qipchoq xotinidan tug'ilgan O'zloqshoh tayinlandi. Bunday holatlar, shubhasiz, davlatni ichdan bo'shashtirishga, ichki ziddiyatlarni kuchaytirishga, inqirozni tezlashishiga ham sabab bo'lgan edi.

Mo'g'ullar istilosi arafasida mamlakatning tushkunlikka va tang ahvolga kelishiga yana bir sabab, oddiy xalqning iqtisodiy ahvoli nihoyatda og'irligida edi. Xalq doimiy soliqlardan tashqari, uch martadan ortiqcha, maxsus soliqlar to'lashga majbur edi. 1206-yilda Samarqandda va Buxoroda oddiy xalqning ko'targan qo'zg'olonlari Xorazmshoh tomonidan shafqatsizlarcha bostirildi. Bu esa shohga nisbatan xalq noroziligini yanada oshirdi.

Katta saltanat hukmdori Sulton Muhammad 1217-yilning kuzida juda katta qo'shin bilan (turli manbalarda turlicha ma'lumotlar: birida 600 ming, birida 400 ming askar) o'zining azaliy dushmani Bag'dod xalifaligiga qarshi otlandi. Xuddi shu yili kuz erta tushganligi bois qish qattiq kelib, qalin qor yog'di. Uch kun davom etgan qor bo'ronida qo'shinning ko'p qismi qirildi va Xorazmshoh o'z maqsadidan voz kechib, orqaga qaytishga majbur bo'ldi. Qaytishda esa Parcham ko'chmanchi qabilalari va Hakkar qabilasidagi kurdlar

ularga hujum uyushtirib, qo‘shinning asosiy ilg‘or qismini tor-mor qildi. Bu yo‘qotishlar ham shohning obro‘sigga putur yetkazdi. Shuningdek, Xorazmshohning 1216-yilda diniy arbob shayx Majiddin al-Bag‘dodiyni qatl ettirishi, Bag‘dod xalifasi ustiga yurishi diniy ulamolarning ham undan butunlay ixlosini qoldirgan edi. Shunday qilib, mo‘g‘ullar istilosi arafasida Xorazmshoh Sulton Muhammadning davlat tizimida ham, aholi tabaqalari orasida ham hech bir suyanadigan tayanchi qolmadi. Abulg‘oziy “Shajarayi turk” kitobida Xorazmshoh davlatidagi bu noxush holatlarini “Sulton Muhammad davlatining qaytishi” deb baholagan edi.

Chingizxon va Sulton Muhammad davlat elchilari savdo karvonlari saflarida bir-biriga borib, ayni vaqtda turli ma‘lumotlar to‘plab, ayg‘oqchilik vazifasini ham bajara boshladi. Sulton Muhammad dastlab Bahouddin Roziy boshchiligidagi o‘z elchilarini Chingizxon huzuriga yuboradi. Pekinda elchlarni qabul qilgan Chingizxon ularni iliq kutib olib, ularga o‘zaro totuvlik, do‘stlikni, ikki mamlakatga tegishli hududlarda savdogarlarning erkin qatnovi tarafdori ekanligini bildiradi.

1218-yil bahorida Chingizxon ham qimmatbaho mollar, shohga sovg‘alar orilgan karvonni o‘zining eng sodiq odami, asli xorazmlik savdogar Mahmud Yalavoch boshchiligida Xorazmshoh huzuriga yuboradi. Elchilar Xorazmshohga Chingizxonning noma va sovg‘alarini topshiradi. Bu nomasida Chingizxon qudratli Xorazmshoh bilan yaxshi qo‘shnichilik, do‘stlik, tinchlik haqida shartnoma tuzish niyatida ekanligini va uni eng yaxshi farzandlaridan biri sifatida hurmat qilishini bildirgan edi.

Xorazmshoh tunda Mahmud Yalavoch bilan alohida suhbatlashib, Chingizxon, uning davlati, harbiy qudrati haqida talaygina savollar beradi. Xorazmshoh unga Chingizxon saroyida o‘zining josusi bo‘lishini taklif etganda, Yalavoch qo‘rqqanidan rozi bo‘ladi. Shundan keyin Xorazmshoh Chingizxon bilan shartnoma tuzishga roziligini bildirib, ularga javob berib yuboradi. Mahmud Yalavoch shoh bilan qilgan suhbatni, uning savol-taklifini Chingizxonga batafsil yetkazadi.

Xitoy g‘alabasidan so‘ng Chingizxon o‘z nigohini G‘arbga, o‘zining madaniyati, boyligi, buyukligi bilan shuhrat qozongan Xorazmshohlar davlatiga qaratadi. Bu asnoda mo‘g‘ullar davlati bilan Xorazmshohlar saltanati o‘rtasida Qoraxitoylar davlati xarobalari ustida Xo‘tan, Yorkent, Qoshg‘ar, Yettisuv va Farg‘ona viloyatlarida qaror topgan Kuchluk davlati Chingizxonga ortiqcha kuch bo‘lib ko‘rinmas edi. U Yettisuv viloyatlarini deyarli talofotsiz qo‘lga kiritib, Kuchluk davlatiga xotima beradi.

Shunday qilib, XII asrning boshida Gubi sahrosining sharqiy chegarasidan Tyan-Shan tizmasining g'arbiy etaklarigacha bo'lgan viloyatlar mo'g'ullar davlati hukmronligi ostida birlashtiriladi. Talaygina shaharlar, dehqonchilik vohalari va jangari ko'chmanchi chorvador aholi bu davlatning tasarrufiga o'tadi. Endilikda Mo'g'ullar davlatining g'arbiy hududlari shavkat va qudrat bobida Chingizxonga teng raqib, keyinchalik uning layoqatli dushmaniga aylangan Sulton Muhammad Xorazmshoh saltanatining chegarasiga bevosita tutashib ketgan edi.

O'zaro totuvlik va do'stlik qaror topib, ikki mamlakat hududida savdogarlarning erkin qatnoviga xohish bildirilgach, bunga javoban Chingizxon Sulton Muhammadga o'z minnatdorchiligini izhor etish va ikki buyuk qo'shni davlat o'rtasida shartnoma tuzish uchun 1218-yilning o'zidayoq, Xorazmga juda katta savdo va elchilar karvonini otlantirdi. Karvon ko'p miqdorda oltin, kumush buyumlar, Xitoy ipak matolari, suvsar va qunduz mo'ynalari va boshqa xil qimmatbaho mollar ortilgan 500 tuyadan hamda 450 musulmon savdogarlaridan tashkil topgan edi. Umarxo'ja, O'troriy, Hammol Meroqiy, Faxruddin Dizaqiy Buxoriy, Aminuddin Haraviy kabi savdogarlar karvonning sarboni va o'rda elchilari edi. Bu ulkan savdo karvoni mamlakat poytaxti Urganch shahri tomon borar ekan, ular yo'lda chegara shahar O'trorda ushlab qolinadi. Shahar noibi Inolchiqxon (Inalxon, fors taxallusi G'oyirxon) farmoniga binoan karvon talanib, savdogarlarning hammasi o'ldiriladi. Faqat bir nafar tuyakashgina o'limdan qutulib qoladi. U Chingizxon qarorgohiga zo'rg'a yetib borib, karvonning halokatidan xabar beradi. Bu voqea tarixda "O'tror fojiasi" nomi bilan qolgan.

Chingizxon Xorazm ma'murlaridan hisoblangan O'tror noibining xiyonatidan nihoyatda darg'azab bo'lsa-da, o'zini bosib, Ibn Kafroj Bug'roni ikki ishonchli mulozim kuzatuvchilari bilan Xorazmshoh huzuriga elchi qilib yuboradi va Sulton Muhammaddan aybdorlarni jazolashni, Inolchiqxonni uning ixtiyoriga jo'natishni talab qiladi. Xorazmshoh bu talabga javoban elchini o'ldirishni, u bilan birga kelgan ikki mulozimining soqol-mo'ylovini qirqib, sharmanda qilib qaytarib yuborishni buyuradi. Bu voqealar ikki katta davlat o'rtasida savdo aloqalari, elchilik munosabatlari tamomila uzilganini anglatar edi. Shunday qilib, bu ikki buyuk davlatning harbiy to'qnashuvi muqarrar bo'lib qoladi.

Chingizxon Xorazm davlatidan Mo'g'ulistonga qatnaydigan bir guruh yirik savdogarlar: Mahmud Yalavoch, Hasan Hoji, Yusuf O'troriylardan iborat o'z josuslik mahkamasini tashkil qilib, ular xizmatidan foydalanib kelar edi. Shu boisdan ham u va uning o'rdasi Xorazmshohlar davlatida kechayotgan barcha

ziddiyatli voqealardan xabardor edi. Chingizxon barcha vositalarni ishga so-larkan, shuhratparast Sulton Muhammadni tinchlantirib, amalda Movaroun-nahr ustiga yurishga puxta hozirlik ko'ra boshlaydi.

2. MO'G'UL ISTILOCHILARINING TURON ZAMINGA HARBIY YURISHLARI

O'tror shahridagi elchi va savdogarlar fojiasi ikki o'rtada urush bo'lishini muqarrar qilib qo'ydi. O'tror fojiasi xususida turli ma'lumotlar mavjud. Ta-rixchi Nasaviyning yozishicha, karvon O'tror shahriga yetib kelganida shahar hokimi, Turkon xotunning amakivachchasi Inolchiqxon undagi qimmatbaho mollarni ko'rib, ochko'zligi avj oladi va niyati buzilib, Xorazmshohga "kar-vondagilar o'zlarini josusdek tutayaptilar", deb shoshilinch xabar yuboradi. Xorazmshoh hokimga karvonni mamlakat ichkarisiga kiritmay, to'xtatib tu-rish haqida buyruq yuboradi. Lekin Turkon Xotun himoyasiga ishongan Inol-chiq katta fojiaga qo'l uradi, ya'ni uning buyrug'i bilan karvon qo'lga olinadi, savdogarlar va boshqa kishilar qatl etilib, karvondagi mollar musodara qilina-di. Tasodif tufayli tirik qolgan bir tuyakash Chingizxon huzuriga yetib borib, fojia haqida unga xabar berishga muvaffaq bo'ladi.

Arab tarixchisi Ibn al-Asrning yozishicha, Inolchiqxon katta karvonni O'troga yetib kelganligi haqida Xorazmshohga xabar beradi. Xorazmshoh karvondagi barcha savdogar va xizmatchilarni o'ldirishni va boyliklarni sa-royga yuborishni buyuradi.

Xorazmshoh albatta, O'tror fojiasi aybdorlarini Chingizxonga topshirish talablarini bajara olmasligi aniq edi. Chunki bir tomondan, Inolchiq Turkon Xotunni amakivachchasi bo'lsa, ikkinchi tomondan, qipchoq sarkardalari bi-lan qarindosh edi. Tabiiyki, ular bu ishga, ya'ni Inolchiqni hibsga olib, Chin-gizxonga yuborilishiga yo'l qo'ymasdilar. Shu sabab Chingizxon bilan muno-sabatlar yanada keskinlashdi. Shuni ta'kidlash joizki, Xorazmshohning o'g'li Jaloliddin Manguberdi otasiga elchilarga nisbatan xushmuomalada bo'lishni, O'tror fojiasining asosiy aybdori Inolchiqni Chingizxon huzuriga jo'natishni maslahat beradi. U Sirdaryo bo'ylaridan to Suriyagacha cho'zilgan katta davlatdagi musulmonlarning qoni to'kilgandan ko'ra, bitta odamning qoni to'kilishini afzal bilgan edi. Biroq, shoh Jaloliddinning dono maslahatini ino-batga olmaydi. Jaloliddin bo'lajak dahshatli urushni, qirg'inni avvaldan ko'ra bilgan edi.

So'nggi elchining o'ldirilishi Chingizxonning sabr kosasini to'ldirdi va uning uchun Xorazmshohlar davlati ustiga harbiy yurish qilishga undagan

oxirgi bahona bo'ldi. Har ikkala tomon endi bo'lg'usi urushga tayyorgarlik ko'ra boshladi. 1219-yil sentabr oyida mo'g'ullar o'zlarining birinchi zarbasini Xorazm davlatining chegara shahri O'troga qaratdi. Shahar hokimi Inolchiqxon bo'lib, Chingizxonning u bilan alohida hisob-kitobi bor edi.

Shaharni 80 ming kishilik qo'shin himoya qilishi lozim edi. Shaharning yaxshi mustahkamlanganligi va uzoq mudofaaga tayyorlanganligini sezgan Chingizxon qo'shinining bir qismini o'z o'g'illari Chig'atoy va O'qtoy boshchiligida O'tror qamaliga qoldirib, qolgan qo'shinni uch qismga bo'lib, bir qismini katta o'g'li Jo'chi boshchiligida O'trordan shimolda joylashgan Jand va Borchig'lig'kend qal'alarini egallashga, ikkinchi qismini Uloq no'yon boshchiligida Binokat va Xo'jand shaharlarini egallashga jo'natdi. O'g'li To'lixon va mashhur sarkardalari Jebe no'yon va Subutoy Bahodir boshchiligidagi qo'shinlari bilan o'zi Movarounnahr (Buxoro tomon) yo'l oldi.

Chingizxonning Turon zaminga, xususan, Xorazmshohlar davlatiga qarshi harbiy harakatlari qat'iy tus oldi. Bu hujum arafasida Sulton Muhammad ko'zga ko'ringan davlat arboblari, boobro' amirlar, yirik sarkardalar ishtirokida harbiy kengash o'tkazdi. Kun tartibiga bitta masala, ya'ni yaqinlashib kelayotgan xavfli, nihoyatda makkor dushmanga qarshi qanday chora ko'rish masalasi edi. Turli fikr-mulohazalar tinglandi. Shuni aytish kerakki, ushbu kengashda qabul qilingan qaror va choralar Xorazmshohlar saltanati taqdirini hal etdi.

Harbiy kengashda yagona to'g'ri taklifni (ko'pchilik nomidan) Shahobiddin al-Xivaqiy kiritdi. U 400 ming kishilik Xorazm qo'shinini Sirdaryoning narigi tomoniga to'plash, uzoq yo'ldan charchab kelgan mo'g'ul qo'shiniga dam olgani qo'yamay, hujum qilib tor-mor etishni taklif qildi. Kengash ishtirokchisi shahzoda Jaloliddin Manguberdi mo'g'ul qo'shinini Movarounnahr qirib kelishiga yo'l qo'yish, keyinchalik mahalliy sharoitni bilganlikdan foydalanib, unga to'rt tomondan hujum qilib, tor-mor etish taklifini o'rta tashladi.


Ba'zilar esa, ko'p sonli Xorazm qo'shinini qal'alarga bo'lib tashlash va har bir qal'aning mudofaasini tashkil etishni o'sha qal'a himoyachilariga topshirish taklifini kiritdi. Bu taklif Xorazm davlati uchun kuchli va makkor dushman bilan yakkama-yakka kurashishda halokatli taklif edi. Ming afsuski, Xorazmshohga ushbu taklif ma'qul keldi. Tarixchi Nasaviyning yozishicha, Xorazmshoh o'zining ko'p sonli qudratli qo'shinini qal'alarga bo'lib yuborib, tuzatib bo'lmaydigan katta xatoga yo'l qo'yadi. Hatto, yevropalik tarixchi olimlar ham o'z asarlarida Xorazmshoh Muhammadni Chingizxonga qarshi kurashda noto'g'ri taktika qo'llab, o'z mamalakatini halokatga olib borganlikda ayblaydilar. Sulton Muhammadning qabul qilgan qat'iy qarori bilan

amalga oshirilgan himoya natijasida mo'g'ullar bo'linib-bo'linib ketgan harbiy qismlarni osongina birin-ketin tor-mor qilib, qisqa fursatda Movarounnahrni egallashlariga qulay imkoniyat tug'ilgan edi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, mo'g'ul istilochilari juda katta kuch va shijoat bilan O'tronni egallashga oshiqdilar. Lekin, shahar mudofaachilari mo'g'ullarning quturib qilgan hujumlariga qaramay, ularni qattiq turib qaytarmoqda edilar. Manbalarga ko'ra, O'tror qamali besh oydan ortiqroq davom etgan va uning himoyasida 80 mingdan ziyod askar ishtirok etgan. Qamal paytida mo'g'ullarga ham katta talafot yetkazilgan.

Inolchiq sarkardalaridan Qoracha Hojib qarshilik ko'rsatish befoyda deb, mo'g'ullarga taslim bo'lishni taklif qiladi. Inolchiqdan rad javobini olgach, u o'z qo'shini bilan shahardan chiqib mo'g'ullarga taslim bo'ladi.

Chingizxonning Movarounnahrda yurishlari 1219-yil (200 ming lashkar)



Nihoyat, boshqa himoyachilar ham dushmanga taslim bo'ladi va mo'g'ullar shaharga bostirib kirib, juda qattiq vahshiyliklar qiladi. Himoyachilar qirib tashlanadi. Hokim Inolchiq esa, tezda qo'lga olinib, uning ko'zi va qulog'iga qo'rg'oshinni eritib quyadilar. Mo'g'ullar sotqin Qoracha Hojibni o'z hukmdoriga sodiq bo'lmagan – bizga ham sodiq bo'lmaydi, deb qatl etdilar. Shunday qilib, O'tror shahrining mudofaasi Xorazmshohning subutsizligi va loqaydligi tufayli fojia bilan tugaydi. Bu vaqtda Jo'chi boshliq mo'g'ul qo'shini Sirdaryoning quyi qismida joylashgan Sig'noq shahrini yetti kunlik qamaldan so'ng ishgo'ld qildi. Dushman shahar himoyachilaridan qattiq o'ch oldi.

1219-yil 21-aprel kuni Jom shahri mo'g'ullar tomonidan jangsiz egallandi. Istilochilar shahar aholisini shahardan tashqariga haydab chiqarib, 9 kun ushlab turdilar va shaharni taladilar. Bu yo'qotish va talofotlarning asosiy sababchisi Sulton Muhammadning yo'l qo'ygan taktik xatosi ekanligini yana bir bor eslatib o'tish joiz deb bildik. Ana shu jiddiy xatolar natijasida tez orada

Sirdaryoning yuqori oqimida joylashgan Binokat shahri uch kunlik mudo- faadan so'ng mo'g'ullarga taslim bo'ldi.

Xo'jand shahriga endigina hokim etib tayinlangan jasur sarkarda Temur Malik taqdiriga esa dushmanning katta kuchiga qarshi kurashish yozilgan edi. Jon-jahdi bilan Xo'jandni himoya qilgan Temur Malik kuchlar nisbatidagi katta farqni yaxshi tushunib, 72 ta qayiq tayyorlatdi. Qayiqlari hamda odam- lari bilan ko'p qurbonlar berib, daryo oqimi bo'ylab suzib, ming mashaqqat bilan Urganchga yetib keldi. Xo'jand ham dushman tomonidan egallandi.

Temur Malik Xorazmda urushga qurbi yetadigan kattagina qo'shin to'plab, mo'g'ullarga qarshi kurash olib boradi. Hatto Sirdaryoning quyi oqimlaridagi Yangikent shahrini mo'g'ullardan tortib olishga ham erishadi. U keyinchalik Jaloliddin Manguberdi bilan birlashdi.

1220-yil fevralida Chingizxon katta kuch bilan qadim Buxoroni qamal qildi. Yirik ilm-fan markazi bo'lgan Buxoro shahri himoyachilarining qattiq qarshi- liklari ham foyda bermadi. Qisqa fursatda bu tarixiy shahar ham mo'g'ullar qo'liga o'tdi.

Chingizxon mart oyida Sharqning sayqal shahri, Markaziy Osiyoning qadimiy va yirik markazlaridan biri Samarqandga yurish boshladi. Qattiq va shiddatli hujumlar natijasida shahar qozisi va shayxulislom mudofaani to'xtatib, taslim bo'lishga qaror qilib, Chingizxonga o'z vakillarini yubordi- lar. Shunga qaramay, shahar egallangandan so'ng mo'g'ullar ommaviy qirg'in o'tkazdilar. Samarqand ham taslim bo'layotganini eshitgan Sulton Muham- mad Amudaryodan o'tib, Eron hududlariga – Tabaristonga qochadi. Kaspiy dengizning janubidagi kimsasiz orol (Ashurada oroli)da jon saqlashga majbur bo'ldi va bu yerda kasallanib vafot etdi.

Manbalarga ko'ra, Xorazmshoh o'limi oldidan saltanatni faqat Jaloliddin- gina saqlab qolishi mumkinligiga ko'zi yetgach, uning beliga qilich taqadi. Jaloliddinni taxt vorisi va valiahd deb e'lon qilingani hamda qolgan farzand- larining uning izmidan chiqmasligi haqidagi barcha vasiyatlarini yozma ra- vishda Jaloliddinga beradi. Afsuski, bu ishlar ancha ilgariroq bo'lishi kerak edi.

Xorazmshohning o'g'illari Uzloqshoh, Oqshoh va Jaloliddin Xorazm- ga qaytib kelib shohning vafoti va Jaloliddinni taxt vorisi etib tayinlangani haqidagi xabarni yetkazadi. Lekin saroydagi ko'pgina lashkarboshilar bunga norozilik bildiradi. Ular Uzloqshoh bilan birgalikda Jaloliddinga qarshi ig'vo va bo'htonlar qila boshlaydi. Nihoyat, Jaloliddinga qarshi uyushtirilgan fitna ham fosh etiladi. Bunday sharoitda taxtni boshqara olmasligiga ko'zi yetgan Jaloliddin, ukasi Uzloqshoh foydasiga taxtdan voz kechadi.

1220-yil kuzida mo'g'ullar qattiq hujumlar bilan Termiz shahrini egallab, uni talon-taroj qildi. Endi Chingizxon xorazmshohlarning markazi, tayanchi bo'lgan Urganch shahrini egallashga bel bog'ladi. 50 ming mo'g'ul qo'shini Urganchni qamal qildi. Shahar aholisi mudofaaga yaxshi tayyorgarlik ko'rib, mo'g'ullarga qattiq qarshilik ko'rsatdilar. Urganchga mo'g'ullar bostirib kelayotganini eshitgan Xorazmshohning o'g'illari Uzloqshoh va Oqshohlar shaharni tashlab qochgan edilar. Lekin, ular uzoqqa bora olmadi va Niso (hozirgi Ashxobod) shahri yaqinida mo'g'ullar bilan bo'lgan jangda halok bo'ldilar. Shaharni himoya qilish esa, qo'rqqoq va amalparast, o'zini sulton deb e'lon qilgan Xumortegin degan kimsaga tekkan edi.

Urganchliklar dushmanning harbiy kuchi va texnikasining ustunligiga qaramay, o'z ona shahri mudofaasiga g'oyat baland ruh bilan kirishadi. Ular qamaldan, devorni teshib qulatadigan qurollardan, manjaniq va palaxmonlardan qo'rqmaydi, lekin shahar hukmronligini o'z qo'liga olgan amir Xumortegin Urganch darvozalarini ochib berib, o'z tarafdorlari bilan mo'g'ullarga taslim bo'lgach, dushman shahar darvozalaridan bostirib kiradi. Mo'g'ullar Urganchga bostirib kirganda erksevar Urganch aholisi bunday og'ir va tang damlarda ham dushmanga qarshi shiddatli janglarni davom ettiraveradi.

Poytaxt ichida olib borilgan ko'cha janglarida, buyuk alloma Shayx Najmiddin Kubro nomi bilan shuhrat topgan 76 yoshli Ahmad ibn Umar Abul Janob o'z do'st-u shogirdlari va behisob murid-u izdoshlari bilan ishtirok etadi. Uning iltijo bilan "Yo Vatan, yo sharofatli o'lim" deb aytgan xitobi rahnamoligida har mahalla, ko'cha, guzar-u rasta, masjid-u madrasa va har bir xonadon janggohga aylanadi. Mudofaachilar qarddon shaharning har bir qarich yerini mardonavor himoya qilib, mardlik va fidokorlik ko'rsatadi.

Uzoq davom etgan ko'cha janglarida minglab dushman askarlari o'ldiriladi. Mo'g'ullar shu paytgacha Movarounnahrning hech bir shahrida bunchalik qurbon bermagan edilar. Bu qonli kurash, manbalarda qayd etilishicha, besh oy davom etgan. Hatto Chingizxon Najmiddin Kubroga axli a'yonlari, yor-u do'stlari bilan shahar tashqarisiga chiqib jon saqlashni taklif etganda, shayx bu taklifni rad etadi. Oqibatda, son jihatidan teng bo'lmagan dushman bilan olib borilgan shiddatli jangda og'ir yaralangan Najmiddin Kubro o'lim oldida bayroq tutgan mo'g'ul sarboziga tashlanib, uning parchimini jon-jahdi bilan tutgan holda qahramonlarcha shahid bo'ladi. Shubhasiz, harbiy kuchda va intizomda ustun bo'lgan mo'g'ullarga qarshi kurashgan urganchliklarning g'alaba qozonishi mushkul edi. Ilojsizlikdan holi tang bo'lib, taslim bo'lgan Urganch bosqinchilar tomonidan talon-taroj etiladi. Juvayniyning yozishicha, 100 ming nafar hunarmand asirga olinib, qolganlari qirib tashlanadi. Shaharning bosh to'g'oni buzib yuboriladi va Urganchni suv bosib, vayron bo'ladi.

Mo'g'ullar istilosidan so'ng mamlakat hududini tasvirlash nihoyatda og'ir. Bu hududlarda gullab-yashnayotgan shahar va qishloqlar bamisoli kultepaga aylandi, hayot butunlay izdan chiqdi. Bir paytlar aholisi gavjum bo'lgan guzarlar, bozorlar va savdo yo'llari bo'm-bo'sh bo'lib qoldi. Mo'g'ullar bosqini o'lka xalqlarining moddiy va ma'naviy taraqqiyotini bir necha yuz yillar orqaga surib yubordi. Yozma manbalar, nodir va bebaho kitoblar yondirildi, oyoq osti qilindi. Ular xalqning turli sohadagi arboblari, olim-u donolarini, ulug' kishilarining ko'pchiligini qirib tashladilar. Umuman, taraqqiyotga shu qadar katta zarba berildiki, uni XIV asrning deyarli yarmiga qadar ham tiklash juda mashaqqatli kechdi.

3. JALOLIDDIN MANGUBERDI – OTASHIN VATANPARVAR KURASHCHI VA XALQNING JASUR O'G'LONI

Fitna uyasiga aylangan poytaxtdagi saroydan ketgan Jaloliddin Niso ostonasida 300 dan ortiq qo'shini bilan uning yo'lini to'sib turgan 700 dan ortiq mo'g'ul qo'shinini yengadi. G'aznaga kelib, yangi kuch to'play boshlab, mo'g'ullar ustidan bir necha bor zafar quchadi. Qandahor shahrini qamal qilayotgan mo'g'ullarni shiddatli janglardan so'ng tor-mor qiladi. G'aznada uning qo'shiniga har tomondan harbiy kuchlar qo'shila boshlaydi.

Xalaj qabilasi harbiy boshlig'i Sayfiddin Ag'roq, Balx hokimi A'zam Malik, Afg'on lashkarining sardori Muzaffar Malik va qarluqlar yo'lbo'shchisi Al-Hasan qo'shinlari Jaloliddinga kelib qo'shildi. U Valiyon qal'asini qamal qilayotgan mo'g'ul qo'shinlarini ham yakson qilgach, bu g'alaba xabari Chingizxonga yetib boradi va bundan bezovtalangan xon o'zining eng sinalgan sarkardasi Shiki Xutuxu no'yon boshchiligidagi 45 ming kishilik qo'shinini Jaloliddinga qarshi yuboradi.

Ikki yirik qo'shin Afg'onistonning Parvona dashti yaqinida to'qnashadi. Ushbu jangda Sulton Jaloliddin o'zining harbiy dahosini yana bir bor namoyon etadi. Jang shafqatsiz, beomon bo'ladi. Jangda Jaloliddin qo'shinlari kuchli va makkor mo'g'ul qo'shinlarini tor-mor qiladi. Parvonadagi jang mo'g'ullarning birinchi katta mag'lubiyati edi. Shunday qilib, Chingizxon ro'baro'sidagi raqibi uning o'ziga munosib ekanligini his etadi va u endi qat'iy, hal qiluvchi jangga hozirlik ko'rishning vaqti kelganligini sezadi.

Jaloliddinning Parvonadagi ulkan g'alabasining eng e'tiborli tomonlaridan biri shunda ediki, bir qancha shahar aholisi bu g'alabadan xabar topadi, undan ruhlanib, mo'g'ullarga qarshi isyon ko'taradi, ularning noiblarini o'ldiradi. Ayni vaqtda Parvona g'alabasi Jaloliddinga katta tashvishlar keltirishini u

xayoliga ham keltirmagandi. Bu jangda qo‘lga tushgan o‘ljalarni bo‘lib olish chog‘ida Jaloliddin lashkarboshilari o‘rtasida o‘ljaga olingan zotdor bir arab otni talashib qattiq nizo chiqadi. Jaloliddin ularni murosaga keltira olmaydi. Nizo tufayli lashkarboshilar Sayfiddin Ag‘roq, Aminlar har biri 20 mingdan ortiq lashkar bilan arazlab ketib qoladi (afsuski, keyinchalik mo‘g‘ullar ularning barchasini alohida-alohida yengib, qirib tashlashadi). Bu mudhish holatdan Jaloliddinning harbiy kuchi keskin zaiflashib, oz qo‘shin bilan Hindistonga o‘tib ketish uchun tayyorgarlik ko‘ra boshlaydi. Lekin Sind daryosi bo‘yida kemalar tayyorlanayotgan paytda unga qarshi shaxsan o‘zi astoydil otlangan Chingizxon yetib keladi. Kuchlar nisbati Chingizxon foydasiga keskin farq qilar edi. Mag‘lub bo‘lishiga aqli yetgan Jaloliddin dushman qo‘liga asir olinib, haqoratlanmasligi uchun onasi, xotin va qizlarini o‘zlarining xohishi-irodasi bilan daryoga cho‘ktirishga farmon beradi. Lekin, uning 8-9 yoshli o‘g‘lini asir olib, Chingizxon huzuriga olib kelganlarida, xoqon uning yuragini sug‘urib olib, itga tashlashni buyuradi. Buyruq ijro etiladi.

Niso viloyatidagi qal‘alardan birining sohibi mashhur tarixchi Shahobiddin an-Nasaviy 1224-yildan 1231-yilgacha, ya‘ni Jaloliddinning vafotigacha uning eng ishonchli mulozimlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. U doimo Jaloliddinning yonida bo‘lgan va ko‘rgan-bilganlarini yozib borgan. Uning yozishi-cha, bu ikki yirik sarkarda qo‘shinlari o‘rtasidagi hayot-mamot uchun bo‘lgan tarixiy, uch kunlik jang 1221-yil 25-noyabr kuni ro‘y beradi. Tarixchi Juvayniy esa bu voqeani shunday ta‘riflaydi: “Shu kuni tongda Sulton Jaloliddin suv va olov o‘rtasida qoldi. Bir tarafda pishqirib oqayotgan Sind daryosi, orqada esa otashdek kuydiruvchi mo‘g‘ul lashkari. Shunday murakkab sharoitda Sulton o‘zini yo‘qotmadi va dushman bilan olishuv yo‘lini tanladi”. Bu tengsiz jangda Jaloliddin bor shijoat, mahorat va quvvatini ko‘rsatib, hatto mo‘g‘ul lashkarlarini lol qoldiradi. Lekin Chingizxon qo‘shini soat sayin ko‘payib borardi. Oxirgi marta katta urinish bilan qo‘shinini biroz chekinishga majbur qilib, jilovni orqaga burgan Jaloliddin sovutini yechib, otga qamchi uradi. Qirg‘oqdan turib 10 gaz yoki undan ortiqroq balandlik masofadan daryoga sakraydi. Dovyurak arslon misoli daryoni kechib, narigi sohilga chiqadi. Chingizxon bu holatni ko‘rib, otini daryo qirg‘og‘iga yeldirib keladi va o‘g‘illariga yuzlanib: “Mard otaning o‘g‘li shunday bo‘lmog‘i lozim! Suv va olovning ikki girdobidan qutulib, najot sohiliga yetdimi, undan beaded ishlar va behisob tahlikalar tug‘ilajak”, deydi.

Sind daryosidan kechib o‘tgach, Jaloliddin omon qolgan jangchilarni to‘plab, Shimoliy Hindiston hududidagi bir qancha davlat hukmdorlari bilan munosabat o‘rnatishga harakat qilishni diliga tugib qo‘yadi. Lekin juda

holdan toygan, kam sonli qo'shin Jaloliddin boshchiligida hali o'ziga kelishga ulgurmay, hind rojalaridan biri, Shatra viloyati podshosi qo'shinining og'ir ahvolidan foydalanib, ularga ming otlig va 5 ming piyoda askarlari bilan hujum qiladi. Jaloliddin tangriga tavakkal qilib qo'shinini jon-jahdi bilan urushga otlantiradi va benihoya jasorat tufayligina hind qo'shinini tor-mor qiladi. Jaloliddin o'z qo'shini ahvolini ancha yaxshilab, asta-sekin ular sonini ko'paytirib boradi. Hatto o'z nomidan tanga zarb qildirib, barcha viloyatlarda namozda uning nomini xutbaga qo'shib o'qiladigan bo'ladi.

Jaloliddin Hindistonda turli jang va fitnalarni boshdan kechirib, uch yil-u yetti oy hukmronlik qiladi. Bu yerda u katta davlat barpo etarkan, unga tevarak-atrofdan yangi-yangi kuchlar kelib qo'shiladi. U o'z davlat chegaralarini kengaytirib, katta kuch to'plab, so'ng mo'g'ullar bilan hisob-kitob qilishni qalbining to'riga tugib qo'ygan edi. Shu maqsadda harbiy yurish qilib, Iroqqa lashkar tortadi. Iroq va Eronning obro'li amaldorlari u tomonga o'tadi. Misr va Suriya hukmdorlari ham unga tobeliklarini bildirib, elchi yuboradi. 1226-yilgacha Ozarbayjon va Gurjistonni jang bilan egallab, 1227-yil 5-sentabrda Jaloliddin Isfahon yaqinida Eronni mo'g'ullardan himoya qiladi va ular ustidan katta g'alabani qo'lga kiritadi.

Jaloliddinning bu yutuqlari, uning kuch-qudrati, obro'-e'tiborining oshib borishi xalifa an-Nosirni bezovta qila boshlaydi va u qanday bo'lmasin Sul-tonni yo'q qilish payiga tushadi. Shu o'rinda ushbu holatni alohida ta'kidlash kerakki, o'zini musulmon dunyosining homiysi deb hisoblagan xalifa an-Nosir musulmonlar boshiga ne-ne kulfatlar, vayronagarchiliklar solayotgan mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kuchlarni birlashtirish, mo'g'ullarga yagona qarshi tura oladigan sheryurak Jaloliddinni qo'llab-quvvatlash o'rniga, o'z shaxsiy xohishini yuqori qo'yib, Jaloliddinni yo'q qilishga va boshqa musulmon hukmdorlarni unga qarshi qo'yishga harakat qilib, bu xiyonatli harakatlari bilan mo'g'ullarning musulmonlar ustidan hukmronlik o'rnatishiga o'z hissasini qo'shadi. U shu maqsadda Ozarbayjon hukmdori, Pirshohning tog'asi Ig'omni Jaloliddinga qarshi chiqishga ko'ndiradi.

Ig'om o'zining 50 ming qo'shini bilan Ozarbayjonga yo'l olgan Jaloliddinga peshvoz yurib, Hamadonda to'qnashadi. Bu jangda ham Jaloliddin o'zining jasorati, mohir sarkardaligini namoyish etib, oz sonli qo'shini bilan raqibini tor-mor qilishga erishadi. Ig'om esa Jaloliddindan shafqat so'rab, taslim bo'ladi va uning qo'shini Jaloliddin qo'shinlari tarkibiga kiritiladi.

Ming afsuski, Jaloliddin Xorazmshohlar davlati hududida unga qarshi bo'lgan ana shunday ichki raqiblar bilan kurashishga ko'p vaqt va kuch ajratishga majbur bo'ladi. Vaholanki, bu ishlarning barchasi istilochi mo'g'ullarga qarshi qaratilishi lozim edi.

Jaloliddin endi Xorazmshohlarning azaliy dushmani xalifalikning poytaxti Bag‘dodga yurish qilishga qaror qiladi. Lekin, bu yurishdan avval u mo‘g‘ullarga qarshi kurashda yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi iltimosnomani o‘z elchisi Aloviddin an-Nasaviy orqali xalifa an-Nosirga jo‘natadi. Lekin, xalifa bu iltimosni javobsiz qoldiradi. Aksincha, Jaloliddinga qarshi 20 ming kishilik qo‘shin jo‘natadi. Jaloliddin Bag‘dod tomon yurishni davom ettirib, G‘ut degan joyda xalifaning Qo‘shtemur boshchiligidagi 20 ming kishilik qo‘shini bilan to‘qnashadi va bu jangda Bag‘dod qo‘shinlari yengiladi. Qo‘shtemur o‘ldiriladi. Endi Bag‘dodga yo‘l ochiladi. Arab tarixchisi Sibr ibn al-Javziyning yozishicha, Jaloliddinning xalifalikka yurishini yana bir sababi shu ediki, mo‘g‘ullarning Xorazmshohlar davlatiga bostirib kirishida, avvalo Bag‘dod xalifalarini asosiy sababchi deb bilganligidadir. Chunki, xalifa Chingizxonga yashirin maktublar yuborib, ularga mo‘g‘ul hukmdorini Xorazm davlati ustiga yurish qilishga da‘vat etgan edi. Bu fikrlar muallif Ziyo Bunyotovning “Xorazmshoh–Anushteginlar davlati” asarida ham ta’kidlangan.

Qo‘shtemur qo‘shini yengilganini eshitgan xalifa Bag‘dodda mudofaa ishlarini shoshilinch boshlab yuboradi va bu ishga 1 million dinor mablag‘ ajratadi. Xorazmshoh o‘z qo‘shini bilan Bag‘dod yaqiniga kelib, 12 kun turib, yana orqaga Ozarbayjon tomonga qaytib ketadi. Sultonning bu xatti-harakatining sababi hanuzgacha noma‘lum. Bundan shunday bir mantiqiy xulosa chiqarish mumkinki, Jaloliddin barcha musulmon hukmdorlari qatori islom dini va uning aqidalarini hurmat qilganligi tufayli musulmonlarning g‘oyaviy markazi – Bag‘dodga hujum qilib, bu muqaddas shaharni vayron qilishni istamagan bo‘lishi mumkin. Lekin, bu yurish orqasida qancha ulkan ovoragarchiliklar bo‘lganligini tasavvur qilish qiyin emas. Mo‘g‘ullar esa, 1258-yili Bag‘dodni bosib olib, uni vayron qildilar, taladilar. Xorazmshohlar davlatiga dushmanlik qilgan xalifalar taqdiri ana shunday tugadi.

1227-yili Chingizxon vafot etishi munosabati bilan chingiziylar biroz muddat o‘z ichki ishlari bilan ovora bo‘lib qoladi. Ularning ayrim rahbarlari esa hatto bundan buyon Jaloliddin bilan yaxshi munosabatda bo‘lishga ham harakat qiladi.

1227-yil 5-sentabrda Isfahon yaqinida Jaloliddin qo‘shinlari bilan mo‘g‘ullar o‘rtasida qattiq jang bo‘ldi. Unda ukasi G‘iyosiddin Pirshoh ham akasi tomonida turib jangga qatnashdi. Lekin, jangning hal qiluvchi paytida qo‘shinning o‘ng qanotida turib urushayotgan Pirshoh Jaloliddinga xiyonat qilib, o‘z qo‘shini bilan jang maydonini tashlab ketadi. Garchand jangda Jaloliddin g‘alaba qozongan bo‘lsa-da, ukasining xiyonati unga berilgan katta ichki zarba edi. Bunday holatlar Jaloliddin qo‘shinida ro‘y berib turardi. Shuning uchun u ba‘zan o‘zining yaqin kishilariga ham ishona olmasdi.

1229-yil avgust oyida Suriyadagi Van ko'li atrofida joylashgan Hilot qal'asi uchinchi marta Jaloliddin tomonidan qamal qilindi. Bu qal'a Xorazmshoh raqiblaridan ayyubiylarning katta tayanchi edi. Jaloliddin qattiq jang bilan Hilotni egallaydi. Manbalarda yozilishicha, Hilot qamali va uning ishg'ol etilishi Jaloliddinning harbiy muvaffaqiyatlarining so'nggisi bo'lib, butun hayoti va faoliyatidagi burilish nuqtasi edi.

Hilot, Jazira, Mayafariqan o'lkalari hukmdori Malik al-Ashraf Jaloliddinni Hilot qamalidan so'ng Jaziraga yurish qilishi mumkinligini o'ylab, avvalroq unga maktub yo'llaydi. Maktubda unga yaxshi qo'shnicilik, do'stona munosabatlarni taklif qiladi. Biroq, ichki hissiyotlarga berilgan sulton Jaloliddin masalani tinch yo'l bilan hal qilish o'rniga, harbiy kuch yo'llaydi. Bu ish sarkardaning yana bir jiddiy xatosi edi. Hech zarurati bo'lmagan bu qamal har ikkala tomon uchun nihoyatda og'ir kechadi. Salkam yarim yil davom etgan jangdan so'ng ochlikdan darmoni qurigan Hilot mudofachilari 1230-yil 14-aprelda taslim bo'ladi.

1230-yilda Jaloliddin Hilot qal'asini qamal qilayotgan paytda singlisi Xonsultondan (uni mo'g'ullar asir qilib olgan va Chingizxonning katta o'g'li Jo'chi unga uylangan va undan farzandi ham bor edi) bir noma oladi. Singlisi nomada Jaloliddinga, uning qudratidan, mol-mulkidan, imkoniyatlaridan xoqonning xabari borligini, xoqon u bilan chegara masalalarida kelishib olib, tinch-totuv yashashga ahd qilganligini bildiradi. Shuningdek, agar mo'g'ullarga qarshi turishga kuchi yetsa, ularga qarshi kurashib, o'ch olishi yoki ular sulh istab turganda, ular bilan yarashishni maslahat beradi. Lekin, Jaloliddin singlisining bu xatini javobsiz qoldiradi va Xorazmshohlar davlatini qayta tiklash mumkin bo'lgan ushbu imkoniyatga e'tiborsizlik bilan qaraydi.

Huddi shu vaqtda Kichik Osiyodagi Ani viloyatining Ko'n'yo sultoni Oloviddin Qayqubod o'z ixtiyori bilan Jaloliddinga kelib qo'shilgan bo'lsa-da, Jaloliddinning ba'zi xatolari tufayli ular o'rtasiga sovuqchilik tushadi. Qayqubod Jaloliddinga qarshi fitna tayyorlaydi. Ushbu fitnaga Qayqubod Shom, Shimoliy Mesopotamiya kabi davlatlar, qator shahar hukmdorlarini ham jalb etishga erishadi. Lekin, Jaloliddin bu harakatlarga unchalik e'tibor qilmaydi. Aynan shu davrlarga kelganda u fe'l-atvorida qandaydir tushunib bo'lmaydigan loqaydlik, mo'g'ul qo'shinlariga qarshi harakatda sustkashlik holatlari ro'y berayotgan edi.

Fitnachilarning juda katta birlashgan qo'shinlari bilan Jaloliddin qo'shinlari o'rtasida 1230-yil avgustida tarixiy to'qnashuv bo'lib o'tadi. Jaloliddin qo'shinlari katta talofot ko'rib, Ozarbayjon hududlariga chekinadi. Uning mag'lubiyati haqida Ozarbayjondagi Ismoililar hukmdori Oloviddin Mu-

hammad III mo'g'ullarga yashirin maktub yo'llaydi. Maqsad – Jaloliddinni mo'g'ullar qo'li bilan yo'q qilish edi. Mo'g'ullar bu imkoniyatdan foydalanib, Jaloliddinga qarshi maxsus katta qo'shin jo'natadi. Shu vaqtdan boshlab Jaloliddindan omad yuz o'giradi, hatto unga o'z a'yonlari va yaqinlarining e'tibori ham pasaya boshlaydi. Eng ishonchli bosh vaziri Sharof al-Mulkning ham unga munosabati o'zgarib, unga qarshi fitna uyushtirishga jur'at etadi. Jaloliddin bundan xabar topib, bosh vazirini qatl ettiradi. Omad yuz o'girgan, tushkunlikka tushgan Jaloliddinning so'nggi paytlarda ichkilik va maishatga berilgan holatlari ko'p bo'lardi.

Jaloliddinning mo'g'ullarga qarshi chiqishi uchun ularga bas keladigan qo'shini, ming afsuski, endi yo'q edi. Shuning uchun ham yordam so'rab barcha qo'shni musulmon hukmdorlarga murojaat qiladi. Baxtga qarshi bunday paytlarda qo'shni mamlakat hukmdorlari ham yordam qo'lini cho'zmaydi va oqibatda uni yolg'iz qoldiradilar.

Jaloliddin o'zining bor odamlari bilan Kichik Osiyodan o'tib, Isfahonga keladi. Uni ta'qib qilib yurgan mo'g'ullar jasur sarkardaning qarorgohiga, navbatdagi ziyofatdan so'ng qattiq uyquda yotganida hujum qiladilar. Jaloliddin eng yaqin amiri Urxonning yordamida mo'jiza tufayligina qochib jon saqlaydi. U mo'g'ullar ta'qibidan qochib, Mayafariqan yaqinidagi Ayn-ad-dar qishlog'iga yetib kelganida kurd qaroqchilari qo'lga tushadi. Ularning boshlig'i uni uyga qamab, soqchi tayinlab ketadi. Soqchining qarshiligiga qaramay, boshqa bir kurd o'lgan inisining xuni evaziga qurolsiz Jaloliddinga nayza sanchib o'ldiradi. Shuncha yillar suronli, tengsiz janglarda beqiyos jasorat ko'rsatib, ulardan omon chiqqan tengi yo'q bahodir Jaloliddinning hayot yo'li shu tariqa tugaydi. Bu voqea 1231-yil 17–20 avgust o'rtalarida sodir bo'lgan edi.

Jaloliddin Manguberdi Xorazmshohlar saltanatini qayta tiklash va uning kushandasi mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurash yo'lida faol harakat qildi. Lekin ming afsuski, buning iloji bo'lmadi. O'sha davr feodal jamiyatiga xos ichki ziddiyatlar, tashqi siyosatdagi ma'lum xatoliklar uning maqsadlarini amalga oshishiga to'sqinlik qildi.

Jaloliddin yurt ozodligi yo'lida jon fido etdi, mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashda ularga qaqshatqich zarbalar berib, mo'g'ul hukmdorlariga tahlika solib, ularga qarshi tura oldi. Uning nomi tarix zarvaraqlarida jasur sarkarda sifatida hamisha qayd etilishi uning matonatiga berilgan bahodir, albatta. Yuqorida keltirilgan sabablar esa, uning fojiali halok bo'lishiga olib keldi.

Sulton Jaloliddin xizmatiga o'z hayotini bag'ishlagan, uning yonida so'nggi yetti yil mobaynida doimiy hamrohi bo'lgan, sulton vafotidan keyin uning ha-

yot yo'lini tasvirlab asar yozgan alloma Shahobiddin an-Nasaviy edi. Buyuk sarkardaga xos dovyuraklik, adolatlilik, kamtarinlik fazilatlarini haqqoniy qalamga olgan alloma Jaloliddinning vafotidan keyin olti yil o'tgach, o'z hukmdori to'g'risida ajoyib tarixiy asar yaratadi. Bu "Siyrat as-Sulton Jaloliddin Mankburni" ("Sulton Jaloliddin Manguberding hayot yo'li") asari bo'lib, XIII asrda arab tilidan fors tiliga tarjima qilingan. Ruscha tarjimasida Bokuda nashr etilgan. Aynan shu asar asosida Z.M.Bunyotovning "Anushtegin – Xorazmshohlar davlati" asari dunyoga kelgan. An-Nasaviy Jaloliddinning o'sha davrdagi ichki kechinmalarini shunday tasvirlaydi: "...yomg'ir maydalab urib yog'moqda. Sovuq. Yoqimsiz shamol esmoqda. Sulton o'z qo'shini bilan Hilot jangidan (1230) qaytmoqda. Oyning mo'ralashidan ko'zim sultonga tushib qoldi. Sultonning ko'zlaridan tinmay yoshlar oqar, u bir nimalarni pichirlar edi. Diqqat bilan quloq soldim. Shunday so'zlarni eshitdim: Ey yaratgan Alloh! Nega meni oddiy cho'pon yoki dehqon qilib yaratmasdan, sulton qilib yaratding. Ne gunohim uchun menga tinchlik bermaysan. Ne qilmishlarim uchun meni buncha quvg'inlikka duchor qilgansan. Na turmushimda, na yurishimda halovat bor". Shahobiddin an-Nasaviyning ta'rificha, u (Jaloliddin) qora mag'izdan kelgan, burni oldida qora xoli bor, o'rta bo'yli, turkiy zabon edi. Fors tilida ham bemalol so'zlasha olardi. U dovyuraklikda tengi yo'q, sherlarning sheri, jasur suvoriy edi. U kamtarin, jiddiy odam bo'lib, hech qachon baqirmas, so'kinmas, atrofdagilar oldida o'zini yaxshi tutar, sipo edi. U ko'p gapirmas, xoxolab kulmas, ahyon-ahyonda jilmayar edi. U adolatni hurmat qilar, o'z fuqarolariga nisbatan adolatli bo'lishga intilardi. Jaloliddin o'z xalqining ahvolini yengillashtirishni yaxshi ko'rardi. Biroq, u yashagan to's-to'palon, murakkab davr unga bunday xayrli, savob ishni amalga oshirish imkonini bermadi. U hukmronlik qilgan davrdagi suronli voqealar uni zo'rlik ishlatishga majbur etib, fe'l-atvorini ham ma'lum darajada o'zgartirdi".¹

Darhaqiqat, sulton Jaloliddin og'ir, eng murakkab sharoitlarda ham qat'iy tura oluvchi, eng qiyin sinovlardan qo'rqmaydigan betakror fazilat egasi edi. Lekin, shuni unutmaslik kerakki, Jaloliddin ham o'z davrining, o'z sinfining vakili edi.

Shu narsa aniqki, o'sha davrda Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi mo'g'ullarga qarshi kurashda musulmonlarning suyangan tog'i edi. Biroq, uning davlati musulmon hukmdorlari o'rtasidagi ichki ziddiyatlar tufayli zavol topdi. Uning bemahal halokati tufayli esa, islom dunyosi boshiga mo'g'ul bosqinchilari tomonidan yangi-yangi kulfatlar yog'ildi. Nima bo'lganda ham,

¹ *Shahobiddin an-Nasaviy. Жизнеописание Султана Джалалиддин Манкбурно.* – Baku: "Elm", 1973, – s. 296.

Jaloliddin goh zafar quchdi, goh mag'lubiyat alamini tortdi. Biroq, kuchli dushman oldida bosh egmadi, mag'lub bo'lmadi.

Jaloliddinning el-ulus, Vatan ozodligi va mustaqilligi yo'lidagi fidoyiligi, mislsiz jasorati manguликka daxldordir. Istiqlol nashidasini surayotgan mustaqil O'zbekistonda ulug' ajdodlar ruhining e'zozlanayotgani, jumladan, Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yillik yubileyining munosib nishonlanishi bejiz emas. Zero, ana shu aziz va muqaddas Vatan oldidagi xizmatlarining, bugun biz erishgan istiqloлgacha ham buyuk ajdodlarning xalq, yurt ozodligiga qo'shgan hissasining tan olinganidir.


4. CHIG'ATOY ULUSINING TASHKIL ETILISHI, UNING SIYOSIY, IJTIMOY-IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI

Chingizxon o'z hukmronligining so'nggi davrlariga kelib qo'lga kiritgan barcha hududlarni avlodlari o'rtasida taqsim qiladi. Chunonchi, Irtish daryosining narigi tomonidan to "mo'g'ullar otining tuyog'i yetgan joygacha" bo'lgan yerlar, Sirdaryoning quyi oqimi va Xorazmning shimoli-g'arbiy qismlari to'ng'ich o'g'li Jo'chiga, Koshg'ar, Yettisuv va Movarounnahr yerlari ikkinchi o'g'li Chig'atoyga berildi. Keyinroq Baroqxon (1266 – 1271) davrida Chig'atoylar hukmronligi hozirgi Shimoliy Afg'on hududlarigacha cho'zildi. Chig'atoy o'rdasi (kushi) Ili daryosi bo'yida edi. Uchinchi o'g'il O'gedey (O'qtoy)ga esa g'arbiy Mo'g'uliston va unga tutash o'lkalar ajratildi. Kenja o'g'il Tuliga ota ulusi Xanqa-Mo'g'uliston, ya'ni shimoliy Mo'g'uliston meros qilib berildi. Keyinchalik Chingizxonning jahongirlik yurishlarini davom ettirib, Sharqiy Yevropaning katta qismini bosib olib, Oltin O'rdaga asos solgan uning nabirasi Botuxon hukmronligi davrida (1227–1255) Movarounnahrning qator hududlari, chunonchi, Xorazm shimoli, Sirdaryo quyi etaklari ham uning ta'sirida bo'lgan.

Chig'atoy avlodlaridan Olg'uy (1261–1266), Baroqxon (1266–1271) davrlariga kelibgina Chig'atoy ulusi (Movarounnahr yerlari) Oltin O'rda ta'siridan xoli bo'lishga muvaffaq bo'ladi. Shunday qilib, Chingizxon avlodlari o'rtasidagi merosiy bo'linish natijasida Movarounnahr asosan Chig'atoy ulusi va uning vorislariga o'tib, u Chig'atoy ulusi nomi bilan atala boshladi. Mo'g'ul hukmdorlari Movarounnahr o'lkasini boshqarishga kirishar ekanlar, ular qanday qilib bo'lmasin, uning xalqini yanada itoatga keltirish, bu yerdan mo'g'ul zodagonlari uchun ko'proq soliq va o'lponlar undirish, qo'shimcha majburiyatlar yuklash harakatida bo'ldilar. Bu borada mo'g'ullar bu yerlik juda ko'plab sotqin, xoin kimsalar: Mahmud Yalavoch, Badriddin Amid,

Hasan Hoji, Ali xo‘ja, Yusuf O‘troriy, Qutbiddin Habash kabi amirlar xizmatidan ustomonlik bilan foydalandilar. Bu hudud ular tomonidan mahalliy yirik savdogar, diplomat, sotqinlik evaziga mo‘g‘ullar ishonchini qozongan Mahmud Yalavoch tasarrufiga berilgani ham tasodifiy emas. Yalavoch xoqon nomidan raiyatni boshqaradi. Uning qarorgohi (poytaxti) Xo‘jand edi.

Chig‘atoy davlatining boshqaruv tizimi



Harbiy hokimiyat, aholini ro‘yxatdan o‘tkazish, soliq yig‘ish ishlari dorug‘achi va tang‘ochi deb ataluvchi mo‘g‘ul amaldorlari qo‘lida edi. Mo‘g‘ul bosqoqlari ixtiyoridagi ko‘p sonli jangchilar Mahmud izmiga bo‘ysundirilgan. Aholidan markaziy hokimiyat xazinasi uchun quyidagi soliq-lar undirilgan:

1. **Qalon** yoki yer solig‘i. Dehqon yerning sharoitiga va sifatiga qarab hosil-ning o‘ndan birini to‘lagan. Oliy mansabdorlar bu soliqdan ozod bo‘lganlar.
2. **Qopchur** va **Shulen** solig‘i. Ko‘chmanchi aholidan qopchur solig‘i bo‘yicha har 100 bosh qora moldan bittasi olingan. Shulen solig‘i bo‘yicha har bir mayda moldan bir qo‘y, ming otdan bir biya olingan.
3. **Targ‘u** solig‘i hunarmandlar va savdogarlardan olinib, ishlab chiqarish-dan yoki molning o‘ttizdan bir qismi hajmida belgilangan.
4. **Tuz** solig‘i.
5. **Jun** va **kumush** solig‘i.

Bundan tashqari, aholi turli-tuman to‘lovlar berishga majbur etilgan. Masalan, aholi savdo yo‘llarida bekatlar-yomlar uchun go‘sh-t, un, guruch berishga hamda yomlar uchun ot-ulov berishga ham majbur etilgan. Bosib olingan mamlakat hunarmandlari “din tugun” deb atalgan maxsus o‘lpon to‘lab tur-ganlar.

Mo'g'ullarning Movarounnahr hududini istilo etib, talon-taroj qilishi, so'ngra mahalliy aholini haddan ziyod soliq, o'lpon va to'lovlar yo'li bilan zulm-asoratga duchor etishi, pirovard oqibatda xalqning ko'tarilishiga, o'z erki, mustaqilligi uchun kurashiga sabab bo'ldi. 1238-yilda Buxoro yaqinidagi Torob qishlog'ida boshlangan oddiy elaksoz, hunarmand Mahmud Torobiy boshchiligidagi xalq qo'zg'oloni shu tariqa yuz bergan edi.

Kelgindi mo'g'ul zodagonlarining mahalliy yuqori tabaqa vakillari bilan til biriktirib, bechorahol xalqni talab, boyluk orttirayotganligi, shohona aysh-u ishrat ko'rayotganligi, oddiy fuqaroning turmushi tobora nochorlashib borayotganligi Mahmud Torobiy va uning maslakdoshlarini g'azabga keltirdi. Ular qo'lga qurol olib mo'g'ullar zulmini ag'darib tashlash uchun kurashga otlandi. Mahmud Torobiy tevaragiga ming-minglab alamzada oddiy mehnat kishilari to'planishdi.

Buxoro atrofidagi qishloqlar aholisi bilan ko'payib borgan qo'zg'olonchilar Buxoroga kelib, mo'g'ul amaldorlarini, shuningdek, mahalliy zodagonlar, sadrlarni yengib, shaharni egallaydilar. Buxoro sadrlari Mahmud Torobiy hokimiyatini tan olib, uni xalifa deb e'lon qilishga majbur bo'ladilar.

Mahmud Torobiy Buxoroni egallagach, hukmron kuchlar hokimiyatini cheklab, oddiy xalq manfaatlarini ko'zlaydigan bir qator tadbirlar o'tkazadi. Shu boisdan ham Torobiy shaxsini kamsitishga uringan tarixchi Juvayniy bu xususda shunday yozadi: "Amaldorlar va mo'tabar zotlarning katta qismini u haqorat qildi, kamsitdi, ayrimlarini o'ldirdi, qolganlari qochishdi. Oddiy fuqaro va daydilarga esa hurmat-izzat ko'rsatdi". Qo'zg'olonchilar zarbidan Karmanaga qochgan mo'g'ul bosqoqlari va amirlari qo'zg'olonni bostirish uchun yangidan katta kuch to'plab, Buxoroga yurish boshlaydilar.

Katta kuchga aylangan qo'zg'olonchilarning qo'li baland kelib, 10 mingdan ziyod mo'g'ul askarlari qirib tashlanadi. Mo'g'ullar yana Karmanaga chekinishga majbur bo'ladi. Biroq, hal qiluvchi olishuvda qo'zg'olon rahnamolari – Mahmud Torobiy va Shamsiddin Mahbubiylar halok bo'lib, bu esa qo'zg'olonchilarning amalda yakkalanib qolishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham tez orada qo'zg'olonga qarshi yuborilgan Eldiz No'yon va Jikan Qurchi boshchiligidagi mo'g'ul qo'shinlari uni tor-mor etadi. 20 mingdan ziyod qo'zg'olonchilar halok bo'ladi.

Bu xalq qo'zg'oloni mag'lub etilsa-da, u Movarounnahr erksevar xalqining ozodlik va mustaqillik yo'lidagi mardonavor kurashi, qat'iyatini to'la namoyon etdi. Ayni chog'da Torobiy qo'zg'oloni mo'g'ul hukmdorlari uchun mahalliy xalq bilan munosabatlarini qayta ko'rib chiqish, boshqacha siyosiy va taktik yo'llarni qo'llashlari uchun muhim saboq berdi. Mahalliy xalq orasida ancha obro'sizlanib

qolgan Mahmud Yalavochning mo'g'ul hukmdorlari tomonidan Movarounnahrda olinib, Pekinga hokim etib tayinlanishi, uning o'rnini katta o'g'li Ma'sudbekka berilishi ham qo'zg'olonning muhim saboqlaridandir.

Darhaqiqat, Ma'sudbekning Movarounnahrda hukmronlik davri (1238–1289)ni ko'zdan kechirilsa, bu shaxsning otasidan keskin farqli o'laroq g'oyatda ustakorlik, ehtiyotkorlik bilan ish yuritganligini, diplomatik sohalarda epcillik bilan siyosat olib borganini ko'rish mumkin. Gap shundaki, Ma'sudbek bir tomondan, hukmron mo'g'ul xonlari, aslzodalar bilan umumiy til topishga harakat qilib, ularning manfaatlari, qiziqishlariga mos keladigan siyosat yurgizgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, Movarounnahr hududlarining iqtisodiy yuksalishi, savdo-sotiqning jonlanishi, siyosiy barqarorlikni ta'minlash bobida katta say-harakatlar qildi. Bu esa o'lkada kattagina muhim ijobiy o'zgarishlarning yuzaga kelishida yaqqol namoyon bo'ldi. U mo'g'ul xonlari o'rtasidagi toj-u taxt, hukmronlik uchun yuz bergan o'zaro ixtiloflardan ustalik bilan foydalandi. Ayniqsa, o'lkada savdo-sotiqni jonlantirish, iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirishga intildi. U o'zining nufuzli ta'siri bilan mo'g'ullar ulug' xoqonlari – Guyukxon (1246 –1249), Manguxon (1251–1259) hamda Chig'atoy xonlaridan Olg'uxon (1261–1266) singari hukmdorlarni Movarounnahrda nisbatan tinchlik va osoyishtalik o'rnatishga ko'ndira bildi.

Ma'sudbekning bevosita tashabbusi bilan 1271-yilda o'tkazilgan pul islohoti muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bir xil vazn va o'lchovdagi kumush tangalar zarb etildi. Bu tangalar qayerda zarb etilishidan qat'i nazar umumdavlat muomalasiga kiritildi. Pul islohoti savdo-sotiq va xo'jalik ishlarida ijobiy voqea bo'ldi. Bu tadbirning muhim tomoni shundaki, kumush tangalar zarb etish erkin bo'lib, xohlagan shaxs o'z kumush buyumini zarbxonaga olib kelib, o'zi istaganicha sof kumush tangaga aylantirishi mumkin edi.

Ma'sudbek davrida mo'g'ullar istilosi paytida xonavayron bo'lgan Buxoro, Samarqand, Xo'jand, Toshkent, Termiz singari shaharlar ancha gavjumlashdi, yangidan savdo-sotiq, hunarmandchilik rivojlana bordi. O'sha davr me'morchiligi, shaharsozligi talablariga javob beradigan bir qator yangi shaharlar bunyod etildi. Qarshi, Isfara, Kubo (hozirgi Quva) shaharlari ham o'sha zamonning shaharlari sirasiga kiradi.

Movarounnahr hududlarida yuz bergan bu xildagi ijobiy o'zgarishlarda Chig'atoy ulusi xoni tashabbusi bilan mo'g'ul no'yonlari va shahzodalarning 1269-yilda Talas vodiysida bo'lib o'tgan qurultoy va undagi tarixiy kelishuvning roli va ta'siri katta bo'ldi. Mazkur qurultoy barcha mo'g'ul xonlari, aslzodalar qayerda yashashlaridan qat'i nazar mahalliy aholi hayoti, turmush tarziga aralashmaslik, belgilab qo'yilgan soliq to'lovlari bilan qanoatlanish, ekin maydonla-

rini payhon qilmaslik majburiyatini yukladi. Ularni Movarounnahr yerlariga ko'chib, asta-sekin o'troq hayotga o'tishga da'vat etdi.

XIII asrning ikkinchi yarmiga kelib mo'g'ullarning mahalliy aholiga, ularning turli ijtimoiy qatlamlariga nisbatan munosabatlari ham asta-sekin o'zgarib bordi. Dastavval, mo'g'ullarning hukmron doiralari yerlik aholining yirik mulkdorlari, ruhoniylari, savdo-sotiq. hunarmand tabaqalari bilan umumiy til topib bordi. Bu hol shaharlar hayotining tiklanishi, gavjulanishida, savdo-sotiq ishlarining rivojlanishi, hunarmandchilik turlarining ko'payib borishida, zirotchilik tarmoqlarining o'sishi, karvon yo'llarining izga tushishida yorqin ko'zga tashlanadi. Ayni paytda bir mahallar islom arkonlarini oyoq osti qilgan, din peshvolarini tahqirlab, xo'rlagan mo'g'ul xonlari, amaldorlari tarixiy vaziyat taqozosi bilan endilikda o'z qarashlarini o'zgartirib, musulmon ruhoniylariga xayrxohlik va hurmat bilan munosabatda bo'la boshladilar.

XIV asrning birinchi choragiga kelib, Chig'atoy ulusida islom rasmiy davlat dini maqomiga ega bo'ldi. Mo'g'ul ulug'larining islomga munosabatining o'zgarishi, asta-sekin uni qabul etishi ularning mahalliy aholi bilan yaqinlashuvi va shu hududda chuqur ildiz otib borishlarida o'z ifodasini topdi.

Shuningdek, mo'g'ul qabilalari, elatlari bilan birga XIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab ko'plab turkiy urug', qavmlar ham Movarounnahr ga kelib o'r'nasha boshladi. Jumladan, jaloyirlar Ohangaron vodiysida, arlotlar Afg'oniston shimolida, qavchinlar Tojikiston janubida, turkiylashgan mo'g'ullar urug'i – so'fiylar Xorazmda joylashib, chuqur tomir otib bordi. Bu esa turkiy til va uning shevalari ta'sirining ortib borishida ham ko'rindi.

XIV asrdan boshlab Chig'atoy ulusida mo'g'ul xonlari boshqaruvida ham muhim o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan, Duvaxon (1282–1306) davrida katta vakolatga ega bo'lgan Ma'sudbek singari yurt hukmdorlari sa'y-harakatlari bilan shaharsozlik rivojlanganligi, savdo-sotiq ahli katta naftopganligi, qishloq xo'jaligi biroz yuksalganligi ko'zga tashlanadi. Kebekxon (1318–1326) esa, mo'g'ul hukmdorlari orasida birinchi bo'lib o'z qarorgohini Movarounnahr ga ko'chirdi. Qashqadaryo vohasidagi Nasaf shahridan uncha uzoq bo'lmagan joyda uning buyrug'i bilan saroy (mo'g'ulcha ma'nosi "qarshi") bunyod etilib, o'sha yerning poytaxtga aylantirilishi o'sha davrning muhim voqealaridan biri bo'ldi.

Kebekxonning muhim xizmatlaridan yana biri – uning pul va ma'muriy-hududiy sohalarda o'tkazgan islohotlaridir. Xususan, 1321-yilda o'tkazilgan pul islohotida Xulagiylar ulusi va Oltin O'rdadagi amaldagi pul tizimi hisobga olingan edi. Og'irligi 8 grammdan ortiq bo'lgan kumush tanga bir dinor deyilgan va u 8 dirhamga, ya'ni 8 ta mayda tangachaga teng bo'lib, bu yangi pul birligi "kepaki" nomini olgan. Bir dinor kepakining vazni ikki misqolga, bir dirham kepaki 1/4 misqolga teng bo'lgan.

Islohotning dastlabki yillarida Kebek nomi bilan mashhur tangalar ko'plab hajmlarda Samarqand va Buxoroda zarb qilinib, muomalaga chiqarilgan. Bu ikki xil qimmatga ega kumush tangalar keyinchalik boshqa hukmdorlar tomonidan ham zarb etilgan. Masalan, Tarmashirin davrida (1326 – 1334), O'trorda ko'plab kumush tangalar chiqaradigan zarbxona muntazam ishlab turgan. Kebekxonning pul islohoti tashqi va ichki savdo rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratib berishga xizmat qilgan.

Ma'muriy islohotga ko'ra, Movarounnahr hududlari tumanlar (mo'g'ullar tartib qilgan 10 ming askar beradigan, aholisi 40 – 50 ming nafardan iborat, hozirgi tumanlarga qiyos etsa bo'ladigan)ga bo'linadi. Jumladan, Samarqand viloyatida 7 ta, Farg'ona viloyatida 9 ta tuman tarkib topgan. Kebekxonning o'lkada tinchlik, osoyishtalik va totuvlik o'rnatish borasidagi siyosatini Tarmashirin izchil davom ettirib, uning shaxsan o'zi islom dinini qabul qilgan va uni davlatning rasmiy dini darajasiga ko'targan.

Kebekxon yo'nalishida siyosat yurgizgan mo'g'ul xonlarining yana bir vakili Qozonxon (1334 – 1346) ham Movarounnahr hududlari birligini saqlash, tubjoy aholi mafaatlari himoya qilish uchun mahalliy mo'g'ul va turk amirlari, no'yonlarining olib borayotgan bir yoqlama kurashlarini bartaraf etishga intildi. O'zi uchun qarorgoh sifatida Qarshi bilan Buxoro oralig'ida (hozirgi Muborak tumani hududida)gi mashhur Zanjirsaroy qal'asini qurdirdi. Biroq, markazdan qochuvchi kuchlarning, dastavval, ko'chmanchi mo'g'ul amirlarining kuchayib borayotgan ta'siri va fitnasi oqibatida 1346-yilda Qozonxon qatl etiladi. Shundan so'ng hokimiyat tepasiga kelgan amir Qozog'on (1347–1358) o'tmishdoshlaridan farqli o'laroq, ko'chmanchi mo'g'ul zodagonlari manfaatlarini yoqlab siyosat yurgizadi. Uning o'zi bir joyda muqim yashamadan, ko'p vaqtini talonchilik yurishlarida o'tkazar edi. Buning oqibatida uning davrida mahalliy aholi tub mafaatlari bilan mo'g'ul hukmdorlari mafaatlari tobora zid bo'lib bordi.

Bu esa, Movarounnahrda yana siyosiy vaziyatning keskinlashuvi, hokimiyatga intiluvchi kuchlarning faol harakatga kelishiga sabab bo'ldi va ushbu kurashlarning avj olib borishi oqibatida Qozog'on ham halok bo'ldi. XIV asrning 40 – 60 yillariga kelib Movarounnahrning hududiy parchalanishi, markazdan qochuvchi kuchlarning besamar urushlari kuchayib, ayrim mo'g'ul xonlari nomigagina hukmdor bo'lib, amalda ayrim ta'sirli sulolaviy kuchlar qo'lida qo'g'irchoq bo'lib bordi. Bular shak-shubhasiz, o'lka hayotining har jihatdan tushkunlik va tanazzul girdobiga g'arq etdi. XIV asrning 40-yillarida Chig'atoy ulusi ikki qismga: Yettisuv, Farg'onaning sharqiy qismi, Sharqiy Turkistondan iborat Mo'g'ulistonga va g'arbiy ulus, ya'ni Movarounnahrda bo'linib ketdi.

Aksincha, bu yurtning magʻrur va erksevar kishilari, bir tomondan muqaddas Vatan tuygʻusini dillariga mustahkam joylab, ozodlik va mustaqillik yoʻlida jonbozlik bilan kurash olib borgan boʻlsalar. ikkinchi tomondan esa, ular asriy xalq anʼanalari, udumlariga sodiq qolib, yaratuvchanlik ishlari bilan mashgʻul boʻldilar. Zero, oʻlmas xalq dahosi yangi-yangi salohiyatli ijodkorlar avlodini yetishtira bordi. Shu boisdan ham sahroyi moʻgʻullar xarobazorga aylantirgan kultepalar oʻrnida yangidan koʻrkam shaharlar, meʼmorchilik obidalari qad rostlab, hayot yangidan izga tushib bordi. Mahalliy xalq orasidan yetishib chiqqan ajoyib meʼmorlar, naqqosh-u hunarmandlar saʼy-harakati, mahorati bilan betakror moddiy madaniyat namunalari yaratilib, bundan oʻlka hayoti oʻzgacha fayz-u manzara kasb etib bordi.

Koʻhna Urganchda qad koʻtargan, balandligi 62 metrli ulugʻvor minora XIII asr meʼmorchiligining noyob yodgorligi boʻlsa, Samarqanddagi Shohizinda majmui, Buxorodagi Bayonqulixon, Koʻhna Urganchdagi Najmiddin Kubro, Toʻrabek xonim, Muhammad Bashar maqbaralari, Xoʻjanddagi Tuvaxon maqbarasi va shu singarilar XIV asrning nodir meʼmoriy yodgorliklari sirasiga kiradi. Xalq amaliy sanʼati, jumladan, kulolchilik namunalari, sirli naqshinkor sopol idishlar, shu jumladan, koʻzachalar, chinni buyumlar, uy-roʻzgʻor ashyolari, binolar peshtoqiga bitilgan, sanʼat darajasidagi nastaliq bitiklari – bular Oʻrta Osiyo moddiy madaniyatining XIII-XIV asrlarda ham rivojlanishda davom etganligidan dalolat beradi. Bu davrda ilm-fanda, ayniqsa, tarixshunoslik rivojida ham muayyan yutuqlar qoʻlga kiritildi. Tarixshunos Juvayniyning “Tarixi jahongoʻshaiy” (“Jahon fotihi tarixi”), Rashiddinning “Jome at-tavorix” (“Tarixlarning jamlanishi”) asarlari moʻgʻullar istilosi va hukmronligi davrini chuqur oʻrganishda qimmatli manba hisoblanadi.

Shuningdek, oʻlkada badiiy adabiyot sohasi rivoji ham toʻxtab qolmadi. Jaloliddin Rumiy, Muslihiddin Saʼdiy, Xusrav Dehlaviy, Nosiriddin Rabgʻuziy, Pahlavon Mahmud, Xorazmiy, Qutb, Sayfi Saroiy singari xalq orasidan chiqqan mumtoz adabiyot namoyandalari umrboqiy, oʻlmas asarlar yaratdilar. Jumladan, XIII asrning ikkinchi yarmi hamda XIV asrning birinchi yarmida yashab, ijod etgan daho shoir Pahlavon Mahmud ijodi bu jihatdan ibratlidir. Uning tugʻilgan yili nomaʼlum boʻlib, vafot etgan yili manbalarida 1322-yil deb koʻrsatilgan. U hunarmand oilasida dunyoga kelib, oʻzi ham poʻstindoʻzlik bilan shugʻullangan, oʻz zamonasining ilgʻor, maʼrifatparvar kishilaridan boʻlgan. Uning nomi bilan zikr qilingan barcha tazkiralarda gʻazal, ruboiy janrlarida samarali ijod qilgan shoir sifatida tilga olinadi. Mahmudni elga mashhur, avlodlar ehtiromiga sazovor qilgan narsa, eng avvalo uning otashnafas ruboiylari hisoblanadi.

Umuman, Pahlavon Mahmud she'riyatida keng ma'nodagi hayotiy voqealar, insoniy kechinmalar, chuqur axloqiy, falsafiy qarashlar ifodalan-ganki, bu hol shoirning o'z davri ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga faol munosabatda bo'lganligidan dalolat beradi. XIII asr oxiri XIV asr birinchi chora-gida Turkistonda kechgan adabiy jarayonni Burhoniddin o'g'li Nosiriddin Rabg'uziy ijodisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ayniqsa, uning qalamiga mansub "Qissai Rabg'uziy" asari adib nomini asrlar osha sarbaland etib kelmoqda. Bu asar ilk o'zbek nasrining dastlabki namunasi sifatida ham qimmatlidir. Rabg'uziy asaridagi dunyoviy ruh bilan sug'orilgan ko'plab she'riy parchalar g'azalchilik janrining keyingi rivoji uchun ayricha ahamiyat kasb etadi. XIV asr turkiy (eski o'zbek) adabiyotining yirik namoyandalari – Xorazmiyning "Muhabbatnoma", Qutbning "Xusrav va Shirin", Sayfi Saroiyning "Suxayl va Guldursun", "Sinbadnoma", "Gulistoni big-turkiy" she'riy asarlari – doston-lari ham o'sha davr ma'naviy madaniyatining bebaho durdonalari hisoblanadi.

XIII-XIV asrlarda Movarounnahr hududida mo'g'ullar hukmronligi bi-lan bog'liq tarzda qanday ziddiyatli, murakkab jarayonlarni o'z boshidan kechirmasin, uning ko'hna madaniyati, urf-odatini an'anaviy ravishda o'zicha yo'l topib, rivojlanishda davom etdi. Xalq dahosi, ijodkorligi, uning salohiyat-li namoyandalarining sa'y-harakatlari, tashabbuslari ila sayqal topib, yangi-yangi qirralar kashf etib bordi.

Mo'g'ullar istilosi va ularning hukmronligi davrida xalq o'zligini, yurt o'z bebaho ma'naviyatini saqlab qola oldi. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov istilochilar hukmronligi davrida xalq o'zligini saqlagani va rivojlanish davom etganligi sir-sinoati nimada ekanligini izohlab: "Qadim-qadim zamonlardan o'troq yashagani, ilm-ma'rifatga intilgani, buyuk madaniyatga ega bo'lgani, o'z urf-odatlarini muqaddas bilgani uchun"¹, – deb haqqoniy javob berganligi harn bejiz emas, albatta.

Tayanch so'z va iboralar:

Temuchin. Mo'g'ul davlati. Onon daryosi bo'yidagi qurultoy. Chingiz-xonning harbiy yurishlari. Xorazmshohlar davlatidagi ichki vaziyat. Turkon Xotun. Chingizxon va Alouddin Muhammad o'rtasidagi elchilik munosabat-lari. O'tror fojiasi. Chingizxonning Movarounnahri bosib olish yo'nalishlari. Xo'jand qamali. Temur Malik. Buxoro va Samarqandning egallanishi. Ur-ganch himoyasi. Jaloliddin Manguberdi jasorati. Chig'atoy ulusi. Boshqaruv tizimi. Soliqlar. Mahmud Yalavoch. Mahmud Torobiy. Ma'sudbek boshqa-

¹ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. –T.: "Sharq", 1998. – 17-b.

ruvi. XIV asr mo'g'ullar boshqaruvidagi o'zgarishlar. Siyosiy vaziyatning keskinlashuvi.

Bilimingizni sinab ko'ring

1. Xiva xoni, tarixnavis Abulg'oziy Temuchin haqida shunday ma'lumot beradi: "U tug'ilganda bir qo'li yumuq edi. Enaga xotin uni ochdi va unda bir pora narsani ko'rdi va tashqariga chiqib yoshi ulug'larga aytganda, ulardan biri bu o'g'lon podshoh bo'lur, yer yuzining barchasini olur, ko'p ellarni qatl va viloyatlarni vayron qilur. deb bashorat qildi".

Xo'sh, mushti yopiq holda tug'ilgan Timuchinning qo'li ochilganda kaf-tida nima bor edi?

	o	
--	---	--

2. Xorazmshoh va Chingizxon o'rtasidagi yaxshi qo'shnichilik kelishuvi amalga oshgach, Chingizxon Pekindan Xorazmshohlar davlatiga Umar Hoji al-O'troriy, al-Jamol, al-Marog'iy, Faxriddin al-Buxoriy boshchiligidagi 450 ta musulmon savdogarlaridan iborat katta karvon jo'natadi. O'tror shahri ho-kimi, Turkon xotuning amakivachchasi Inolchiqxon qimmatbaho mollarni ko'rib, savdogarlarni qatl etadi va mollar musodara qilinadi.

Chegara shaharda elchi va savdogarlarning o'ldirilishi voqeasi tarixda qanday nom bilan qolgan?

			o	
--	--	--	---	--

	o			a		
--	---	--	--	---	--	--

3. Mo'g'ullar bilan Jaloliddin o'rtasidagi birinchi katta jang 1221-yilning 31-avgusti (hijriy 618-yil sunbula oyining yettinchi kuni) da boshlanib, ikki kun davom etdi. Bu jangda Chingizxon o'zining ishongan, shu paytgacha yengilmay kelgan Shiki Xutuxu boshchiligidagi lashkarlarni qo'ygan edi.

Jangning ikkinchi kunida dushman qo'shini qurshab olinadi. Lashkarboshi Shiki Xutuxu bu holni ko'rib, askarlarning tirik qolgan qismi bilan qochadi. Ikki o'rtadagi mana shu dahshatli jang Afg'onistonning mashhur bir joyi osto-nasida bo'lib o'tadi. Bu joyning nomini toping.

		r		o	
--	--	---	--	---	--

4. Jangdan so'ng qo'shin boshliqlari o'rtasida o'zaro nizolar boshlandi. Mo'g'ullardan tushgan son-sanoqsiz o'ljalar orasida yaxshi bir narsa ikki qa-bila boshliqlari o'rtasida janjal chiqardi. Balx hokimi A'zam Malik va Xalach

qabilasi boshlig‘i Sayfiddin Ag‘roq o‘rtasidagi bu kelishmovchilik, ularning Jaloliddinni tashlab ikki tomonga ketishlariga sabab bo‘ladi.

Xo‘sh, ikki qabila boshlig‘ining kelishmovchiligiga sabab bo‘lgan o‘lja nima edi?

a		a		
---	--	---	--	--

	u			o	
--	---	--	--	---	--

5. 1230-yilda Jaloliddin Hilot qal‘asini qamal qilayotgan paytda singlisidan noma oladi. Singlisi nomada xoqon (Chingizxon o‘g‘li) Jaloliddin bilan kelishib, tinch-totuv yashashga ahd qilganligini, agar Jaloliddinning kuchi yetarli bo‘lsa, ularga qarshi kurashib o‘ch olishi yoki ular sulh istab turganda, ular bilan yarashishni maslahat beradi. Jaloliddin esa bu xatni javobsiz qoldirib, Xorazmshohlar davlatini qayta tiklash imkoniyatiga e‘tiborsizlik qiladi.

Katakchalarda Jaloliddinga noma yo‘llagan singlisi va uning eri – xoqonning nomi yashiringan. Ularni toping.

			s			o	
--	--	--	---	--	--	---	--

(singlisining nomi)

	o‘		
--	----	--	--

(xoqonning nomi)

6. Chingizxon asos solgan saltanatni uluslarga bo‘lib boshqarishni joriy qilgan edi. Bir qator yurtlar katta o‘g‘ilga berildi. Chingizxonning ikkinchi o‘g‘li hukmronligidagi Yettisuv, Koshg‘ar va Movarounnahrni o‘z ichiga olgan yana bir ulus ham tashkil etilgan edi. Bu o‘lkadagi hukmronlik uzoq vaqtlargacha aynan shu ikkinchi o‘g‘il (vafoti 1242-yil) avlodlari qo‘lida bo‘ldi.

Yettisuv, Koshg‘ar, Movarounnahrni o‘z ichiga olgan va Chingizxonning ikkinchi o‘g‘li nomi bilan bog‘liq bu ulus qanday nom bilan atalgan?

					o			u	l	u	s	i
--	--	--	--	--	---	--	--	---	---	---	---	---

7. Mo‘g‘ullar asosan tegishli soliqlarni qo‘lga kiritish bilan kifoyalaniib, boshqaruv ishini mahalliy namoyandalar ixtiyoriga topshirib qo‘ygan edilar. O‘zlari esa, asosiy vaqtni madaniy viloyatlardan tashqarida, biyobonlardagi qarorgohlarida o‘tkazib kelgan edilar. Biroq, Chig‘atoy xonlaridan biri Tuva-xonning o‘g‘li bu an‘anani buzgan edi.

O‘zlarining biyobonlarida yashash an‘anasini buzib, asosiy aholi orasida saroy qurdirib yashashni boshlagan bu xon ma‘muriy va pul islohotlarini ham o‘tkazgan. Aynan shu xonning nomi katakchalarda yashiringan. Uning nomini toping.

	e		e		x	o	n
--	---	--	---	--	---	---	---

8. 1340 – 1370-yillarda Movarounnahrda bir jarayon boshlangan ediki, mo‘g‘ullar mahalliy hukmdorlar ustidan umuman nazorat qila olmay qoldilar. Bu davrda Chig‘atoy ulusining g‘arbida asosan turk-mo‘g‘ul qabila boshliqlari hukmron bo‘lib, ular markaziy xoqonga bo‘ysunmay qoldi. Kesh va uning viloyatida Hoji Barlos, Xo‘jand viloyatida Boyazid Jaloyir, Balx viloyatida 1358-yili ovda o‘ldirilgan turk amiri Qozog‘onning nabirasi amir Husayn, Xuttalonda Kayxusrav hukmron edi. Xullas, XIV asrning 50-yillari oxirlarida Movarounnahrda hukm surayotgan bu jarayon tufayli xalq ommasini aziyat chekayotgan edi. Eng muhim vazifa bu jarayonni tugatish, yurt va xalqni ozod qilib, uni birlashtirish vazifasi turar edi. Bu qanday jarayon edi?

	e			a	
--	---	--	--	---	--

	a			o		l	i	k
--	---	--	--	---	--	---	---	---

VII BOB. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA O‘ZBEK DAVLATCHILIGI. IJTIMOY-SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOT

Mavzu rejasi:

1. Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishi. Markazlashgan davlatning tuzilishi va uning takomillashuvi.
2. Amir Temurning harbiy yurishlari.
3. Amir Temur davlatining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.
4. Amir Temur vafotidan so‘ng temuriylar davlatidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat.
5. Amir Temur va temuriylar davri madaniyati.
6. “Temur tuzuklari”. Amir Temur shaxsi va uning buyukligi.

1. AMIR TEMURNING HOKIMIYAT TEPASIGA KELISHI. MARKAZLASHGAN DAVLATNING TUZILISHI VA UNING TAKOMILLASHUVI

Mo‘g‘ullar hukmronligi davrida xalq azob chekdi, xo‘rlandi, talandi. Chig‘atoy xonlari bilan mahalliy aholi, zodagonlar o‘rtasida ziddiyat tobora keskinlashdi. Bu ziddiyatlar natijasida Chig‘atoy ulusi bo‘linib ketdi va bu bo‘lingan davlatlar o‘rtasida o‘zaro kurash avj olib, mo‘g‘ul xonlarining Movarounnahrda hujumlari ko‘paydi. Bunday vaziyat mamlakatdan, xalq orasidan kuchli, bilimli, irodali, vatanparvar, elparvar bir shaxsning chiqishini, bu shaxs yurtni ozod etib, uni birlashtirib, xalqni taraqqiyot sari yetaklovchilik rolini bajarishini taqozo etayotgan edi.

XX asrning 60-yillari oxirida O‘zbekistonning taniqli faylasuf olimi Ibrohim Mo‘minov “Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni” nomli risola yozib, Temurning shu yurtga va xalq uchun qilgan xizmatlariga yuksak baho bergan edi. Buning uchun o‘sha davrdagi hukmron hukumat muallifning keyingi hayotiga ham, chop etilgan risolaning tarqalishiga ham ma‘lum to‘siqlar qo‘ygani rost.

“Chig‘atoy ulusining zulmi, mayda feodal beklarning vahshiyona ezishi, mo‘g‘ul xonlari, Oltin O‘rda beklarining Movarounnahrda to‘xtovsiz bosqinchilik yurishlaridan azob chekkan, xonavayron bo‘lgan, 150 yil mobaynida

chet el hukmronligidan tinkasi qurigan mamlakatning mustaqillikka erishish talabi edi. Bu tarixiy zaruriyat Temurda, uning lashkarboshiligida ravshan ko‘rinadi”, deb yozgan edi Ibrohim Mo‘minov.

Amir Temur 1336-yil 9-aprelda (hijriy 736, sha‘bon oyining 25-kunida) Keshga qarashli Xo‘ja Ilg‘or (hozirgi Yakkabog‘ tumani markazidan 2-3 km uzoqlikda, Toshkent – Kitob poyezdi o‘tadigan temir yo‘l yaqinida) qishlog‘ida barlos beklaridan Amir Tarag‘ay ibn Barqal oilasida dunyoga keldi. Onasi Takina Mohbegim – Buxoro shariat qonunlari sharhlovchisining qizi bo‘lgan.

Amir Temur shaxsiyati shakllanishi va kamolot darajasiga yetib borishida uning otasi Tarag‘ay Bahodir, birinchi ustozlari va ma‘naviy murshidlari asosiy rol o‘ynaganlar. Manbalarda ta‘kidlanishicha, uning birinchi o‘qituvchisi Mulla Alibek va undan keyingi birinchi ustoz Shayx Shamsiddinlar bo‘lgan. Temur ulardan boshlang‘ich ilm, ayni holda harbiy fanlar va taktikalarni o‘rganish bilan shug‘ullanib, o‘z oliy iste‘dodi bilan o‘qituvchi va ustozini hayratda qoldirgan hamda “Qur‘oni Karim”ni hizf etgan.

Kunlardan bir kun Temurning birinchi ustoz Shayx Shamsiddin Tarag‘ay Bahodir (Temurning otasi) bilan bir guruh shahar olim va ruhoniylarini chaqirib, ular huzurida Temurdan imtihon oladi. Temur barcha savollarga javob qaytarib, uchta suradan so‘ralgan oyatlarni yoddan “Tajvid” (Qur‘on oyatlarini to‘g‘ri o‘qish qoidalari)ga muvofiq o‘qib hammani qoyil qoldiradi. Ana shu manbalarga ko‘ra, ular Temurga “Hofiz ul-Qur‘on” nomini beradi va ustozini uni iste‘dodlariga teng keladigan boshqa bir ustozga topshirishni tavsiya etadi.

Bu tavsiyadan so‘ng Tarag‘ay Bahodir o‘g‘li Temurni mashhur mudarris Abdulla Qutb madrasasiga yuboradi. U mudarris orif va olim kishi bo‘lib, shahar a‘yonlarining farzandlari undan dars olar edi. Temur bu yerda fiqh va huquq ilmini chuqur egallab, asosiy fanlar boshlang‘ich usullarini o‘zlashtirib oladi. Mudarris Abdulla Qutb maktub bilan Temurni Samarqandga mashhur so‘fi va orif Shamsiddin Kulolga taqdim etadi. Kulol uning ilmi va iste‘dodidan xabar topib, o‘z qo‘lini Temur boshiga qo‘yib, yuziga diqqat bilan qarab majlis ahliga “Men ushbu yigitning manglayida ulug‘ nur ko‘raman. U boshqa hech kim yetishmagan yuksak maqomga yetib boradi. Sizlar o‘zlaringiz uning olamgirligi va yetti iqlim podshohi bo‘lganining guvohi bo‘lursizlar”, deb bashorat qilgan ekan.

Yosh Temur zamonasining barcha fanlariga qiziqib, o‘z murshidi rahbarligida turli tariqatlar ta‘limoti bilan oshno bo‘ladi, ma‘naviyat ummoniga sho‘ng‘iydi. Qur‘on oyatlarining tub mohiyatiga yetib borishga urinadi. Unda oyatlarni avvaldan oxiriga qarab va oxiridan avvaiga qarab o‘qish ajoyib malakasi borligi ko‘rinadi. U mashhur orif Shayx Mahmud Shabistariyning

“Gulshani roz” nomli kitobini qunt bilan o‘qib, uning irfoniy g‘oyalaridan g‘oyat ta’sirlanadi. Hokimiyatga erishib, Ozarbayjonni tasarruf qilgach, Mahmud Shabistariy vatani – Shabistar aholisini ardoqlab, ularning har biriga besh misqoldan, hammasi bo‘lib 18500 (o‘n sakkiz ming besh yuz) misqol oltin bag‘ishlaydi.

Amir Temur yoshligidanoq harbiy o‘yinlarni yaxshi ko‘rgan. Bunga o‘zining tengqurlarini ham jalb qilgan. 16-17 yoshligida qilichbozlik, nay-zabozlik va, ayniqsa, ov bilan astoydil qiziqadi. 20 yoshida chavandozlik bilan shug‘ullangan va tengqurlarini ikki guruhga bo‘lib, jang mashqlarini bajargan, ularga mahorat bilan rahbarlik qilgan. Amir Temur jiddiy fikrlashga odatlangan edi. Bu haqda u shunday eslaydi: “Men 10 yoshimda o‘zimda favqulodda hukmronlik va ulug‘lik alomatlarini his qildim. O‘z oldimga keluvchi har bir kishini sezilarli darajada g‘urur va layoqat bilan qabul qildim”.

Bundan tashqari, u Movarounnahr feodallarining o‘zaro urushlarida qatnashib, asta-sekin atrofiga yaxshi qurollangan otliq askarlardan kichik lashkar to‘play boshlagan. Mamlakatda hali Chig‘atoy avlodlari hukmronligi davom etayotgan XIV asrning 60-yillarida u siyosat maydoniga kirib keldi. 1346-yili Chig‘atoy xoni Qozonxon amir Qozog‘on tomonidan o‘ldiriladi, 1358-yilda amir Qozog‘on ham o‘ldiriladi, natijada ulus 10 ga yaqin bekliklarga bo‘linib ketadi. Xorazmda so‘fiylar, Qashqadaryoda barloslar. Ohangaron vodiysida jaloyirlar, Buxoroda sadrlar. Termiz atrofida sayyidlar hukmronligi boshlandi va ularning beklari o‘rtasida o‘zaro urush, janjallar ko‘payib boradi. Buning ustiga yurtdagi ahvol mana shunday bir paytda mo‘g‘ullar Movarounnahr-dagi mavqelarini qayta tiklashga harakat boshlagan edi. 1360-yilda Tug‘luq Temur (Chig‘atoy nabirasi, Duvoxonning o‘g‘li, Eminxo‘janing farzandi) ning, 1365-yilda Tug‘luq Temur o‘g‘li Ilyosxo‘janing Movarounnahr-ga katta qo‘shin bilan yurishlari bunga misol bo‘ladi. Mana shunday yurishlarda Amir Temur vaziyatga qarab ish tutgan.

1362-yilda Amir Temur hayotida bir voqea ro‘y berib, Seyistonda bo‘lgan jangda uning tanasiga bir umrlik jarohat muhrlandi. Amir Temur aynan shu jangda o‘ng qo‘lining tirsagidan va o‘ng oyog‘iga kamon o‘qi tegishidan qattiq jarohatlandi. U Tug‘luq Temur xizmatiga kirib, zimdan o‘z maqsadlari izmidan borgan bo‘lsa, Ilyosxo‘ja bilan ochiq jang maydonida uchrashgan. Tug‘luq Temur Amir Temurning sadoqatli xizmatlarini baholab, uni Movarounnahr boshqaruvchisi qilib qo‘ygan bo‘lsa, Ilyosxo‘ja uni butunlay yo‘q qilishni maqsad qilgan edi. Shu bois, Amir Temur Ilyosxo‘ja kuchlariga qarshi kurash boshlaydi. Balxda turib Termiz va uning atroflarida mo‘g‘ullarning talonchilik qilayotganini eshitgach, yiqqan qo‘shini dushman qo‘shinidan

10 barobar kam bo'lishiga qaramay, Ilyosxo'ja yuborgan qo'shinga qarshi urush ochadi. Bu urush 1363-yilda Jayhun daryosining chap sohilidagi Qunduz shahri yonida bo'lib o'tadi. Bu jangda Amir Temur kam qo'shin bilan dushman qo'shinini mag'lubiyatga uchratib, o'zining buyuk sarkardalik mahoratini ko'rsatadi.

Amir Temur mo'g'ullarga qarshi kurashda Balx hokimi Amir Husayn (asli chingiziylardan) bilan do'stlashadi va u bilan birga yurt birligi va ozodligini tiklashga kirishadi. 1365-yilning bahorida Chinoz bilan Toshkent o'rtasida, Chirchiq daryosi bo'yida Amir Temur va Amir Husayn qo'shinlari mo'g'ul xoni Ilyosxo'jaga qarshi jang qiladi. Jangda Ilyosxo'ja g'olib chiqadi. Bu jang tarixga "Loy jangi" nomi bilan kirgan.

Amir Temur "Loy jangi" mag'lubiyatidan keyin Samarqandga keladi, undan so'ng Keshga boradi, so'ngra Amudaryo orqali Balxga o'tadi. Samarqand shahri aholisi Ilyosxo'janing bosqinchilik harakatini bartaraf etishga kirishadi. Shahar aholisiga bir guruh madrasalar tolibi ilmlari boshchilik qiladi. Xalq ommasining mo'g'ul talonchilariga, mahalliy yer egalarning haddan ortiq jabr-zulmlariga qarshi kuchli noroziligi bu yerda Sarbadorlar harakati deb atalgan qudratli ozodlik harakatining boshlanishiga olib keladi. Asli bu harakat 1337-yilda Xurosonda boshlanib, ular mo'g'ullarga bo'ysunib yashagandan ko'ra dorga osilib o'lishni afzal ko'rgan edilar. Harakat nomi (sar-ba-dor) ham forsiy tilda "Boshini dorga tikkanlar" ma'nosini berar edi. Samarqanddagi harakat rahbarlari tolibi ilm vakili Mavlonozoda, jun tituvchilar oqsoqoli Abu Bakr Kalaviy va mohir mergan Xo'rdaki Buxoriylar edi. Ularning da'vati bilan madrasa talabalari, yoshlar, hunarmandlar, dehqonlar va o'rta yer egalari ham Samarqand himoyasida ishtirok etadi. Samarqand himoyachilari mo'g'ullardan ustun kelib, dushman shahardan tashqariga chekinadi. Ular endi Samarqandni qamal qiladi. Ammo ularning lashkarlari safida "Ot o'lati" yuqumli kasalligi tarqaladi. Shundan so'ng Ilyosxo'ja dastlab Samarqandni, so'ngra butun Movarounnahrni tashlab, yurtiga qaytib ketishga majbur bo'ladi.

Samarqandda sarbadorlar g'alaba qilgan paytda Amir Temur Keshda, Husayn esa Amudaryo bo'ylarida edi. Amir Temur sarbadorlar g'alabasi haqida Husaynga xabar bergach, ular yana birlashib, 1366-yil bahorida Samarqand yaqinidagi Konigilda sarbadorlar rahbarlari bilan uchrashadi. O'rtada kelishmovchilik bo'lib, sarbadorlar rahbarlari qatl qilinadi. Amir Temur iltimosi bilan sarbadorlar rahbarlaridan biri Mavlonozoda omon qoladi. Movarounnahrda hukmronlik amir Husayn qo'liga o'tadi.

XIV asr 60-yillarining oxirida Temur va Husayn o'rtasidagi munosabatlar keskinlashgach, Husayn o'ziga qarashli Balx shahrini mustahkamlaydi,

istehkomlar qurishga kirishib, shahar devorini tiklab, qurol-yarog‘ni ko‘paytira boshlaydi. Temur bu harakatlarning o‘ziga qarshi qaratilganini yaxshi anglab, Husaynni bu yo‘ldan qaytarishga qancha harakat qilmasin, foydasi bo‘lmaydi. Amir Temur 1370-yilning bahorida Husayn o‘rnashib olgan Balxga qo‘shin tortib boradi va uni mahv etadi. U Chingizxon avlodidan bo‘lgan Qozonxonning qizi, Amir Husaynning bevasi Saroymulkxonim (Bibixonim)ni o‘z nikohiga olib, “Ko‘ragon” (xon kuyovi) nomini oladi.

1370-yilda Amir Temur hokimiyatni qo‘lga kiritgach, o‘sha davr qoidalariga ko‘ra Chingizxon avlodiga mansub Suyurg‘atmishni Movarounnahrning xoni qilib qo‘ydi va o‘zi Movarounnahrning yakka hukmdori sifatidagi faoliyatini boshladi. Shuningdek, qo‘shin sarkardalarining qurultoyi ham Amir Temurni Movarounnahrning yagona hukmdori, deb e‘lon qiladi. Amir Temur dastlabki kunlardan oq mamlakatdagi qabila va guruhlarining manfaatlarini to‘laligicha inobatga oldi. Bu xususda Ibn Arabshoh shunday yozadi: “Arablarda qancha bo‘lsa, turklarda ham qariyb shuncha qabila va guruhlar bordir. O‘sha vaqtlardan har qaysisi bir qabilaga mansub bo‘lib, o‘z fikr chirog‘i bilan u qabila uylarini yorituvchi pilik misoli edi. Ulardan birining qabilasi orlot, ikkinchisi jaloyir, uchinchisiniki qovunchi, to‘rtinchisiniki barlos deb atalardi. Temur to‘rtinchi qabila o‘g‘loni edi”.

AMIR TEMUR KO‘RAGON
1370-yilda Amir Temur Husaynni mag‘lub etib, uning haramidagi Saroymulkxonimni (sobiq mo‘g‘ul xonlaridan biri Qozonxonning qizi) o‘z nikohiga oladi va shu davrdan boshlab uning nomiga “ko‘ragon” (Xonning kuyovi) so‘zi qo‘shib aytila boshlaydi. Amir Temur nikohida bir necha xotinlar bo‘lsa-da, uning hayoti va faoliyatida Saroymulkxonim muhim rol o‘ynagan. Uning xizmatlari va saroydagi hurmatlari evaziga uni Bibi (katta) xonim deb ataganlar.

SOHIBQIRON AMIR TEMUR
Buyuk davlat arbobi va sarkarda Amir Temurni Makedonskiy, Muhammad payg‘ambar qatori Sohibqiron deb nomlaydilar. Ikki sayyora – Zuhal va Mushtariylarning bir-biriga yaqinlashuvi (qiron) jarayonida dunyoga kelgan farzandlargina bunday nomga sazovor bo‘ladi. Sohib (egasi), qiron (ikki sayyoraning yaqinlashgan jarayoni). Bunday qiron jarayoni har 800 yilda ro‘y bergan deb ta‘riflanadi.

Bundan shu narsa yaqqol ko‘rinib turibdiki, Amir Temur o‘z hukmronligining dastlabki kunlaridanoq, har bir qabila manfaatini chetda qoldirmadi va bu udumlarni mansablarni tayinlashda ham qo‘lladi.

U hokimiyat tepasiga chiqqach, Samarqand shahrini poytaxt qilib tanladi, uni mustahkam devorlar bilan o‘rab, shahrison va saroylar qurdira boshladi.

Uning oldida Movarounnahr hududlarini birlashtirish va yagona markazlashgan qudratli davlat tuzish vazifasi turar edi. Amir Temur uchun Amudaryo va Sirdaryo oralig'i yerlarini, Farg'ona va Shosh (Toshkent) viloyatlarini o'ziga qaratish va birlashtirish uncha qiyinchilik talab qilmadi.

Buyuk Amir Xorazmni Movarounnahrning tarkibiy qismi deb hisoblardi. Ammo bu hududni Oq O'rda, Oltin O'rda qo'llab-quvvatlayotganligi ishni ancha murakkablashtirayotgan edi. Temur markazlashgan davlat tuzish maqsadida Xorazmni ham birlashtirish harakatini boshladi.

Shimoliy Xorazm hokimiyati tepasida Qo'ng'iro't so'filari turar, janubiy qismi esa Chig'atoy ulusiga bo'ysundirilgan edi, ammo Qo'ng'iro't so'filari janubiy qismni ham egallaydi. Amir Temur o'z tasarrufiga olish uchun bir necha marta Xorazmga yurish qildi. 1388-yilda bo'lgan so'nggi yurish natijasida Xorazmda Sulaymon So'fiy hukmronligi ag'darilib, o'lka Amir Temur davlati tarkibiga uzil-kesil qo'shib olindi. Shu tariqa, Amir Temurning O'rta Osiyoda markazlashgan davlat tuzish maqsadi amalga oshdi.

2. AMIR TEMURNING HARBIY YURISHLARI

Amir Temurning XIV asr 70-yillari o'rtalaridagi Oq O'rda xoni O'rusxon va uning o'g'li Temurmalik, keyinchalik To'xtamish bilan bo'lgan janglari, Oltin O'rdaning tor-mor etilishi davlatning markazlashgan holda mustahkamlanishiga imkon yaratdi. Amir Temur mohir sarkarda sifatida qattiq intizomga bo'ysungan qo'shin tuzdi va unga katta e'tibor berib, ular nizomni qat'iy bajarishi, jangda ayovsiz va dovyurak bo'lishi, dushmanga adolatli bo'lishi lozim deb hisobladi. Ibn Arabshohning yozishicha, Temur askarlari orasida taqvodor, saxovatli, xudojo'y kishilar ko'p bo'lgan. Ular bechoralarga xayr-uhson ko'rsatish, boshiga og'ir tashvish tushganda yordam qo'lini cho'zish, asirlarga yumshoq muomalada bo'lishga odatlangan.

Qo'shinda Amir Xo'ja Sayfiddin, Amir Sulaymon Xash, Amir Oqbug'a, Amir Soribug'a, Amir Birandiq, Shayx Ali Bahodir, Temur Tosh, Baratxo'ja, Amir Dovud Barlos, Amir Muayyad, Arlot kabi qo'mondonlar xizmat qilgan. Ayrim yurishlarda Sohibqironning o'g'illari va nabiralari ham qo'shinga qo'mondonlik qilgan.

1380 – 1382-yillarda Amir Temur Xuroson yerlarini bo'ysundirib, Hirot, Astrobod, Domg'on, Semnon va Mazandaranlarni qo'lga kiritdi. U birinchi yirik harbiy yurishlarini Eron, Armaniston, Gurjiston va Iroqqa qaratdi. Eronning janubi – Isfahonda hukmronlik qilib turgan Muzaaffariylar sulolasi, Iroq va Ozarbayjonda hukmronlik qilayotgan Elxoniyalar taslim bo'lib, Armaniston va Gurjiston ham egallandi.

1398-yilning mayida Afg'onistonga, so'ng Hindistonga yurish boshlandi. Avgust oyida Kobul shahri, 15-dekabrda esa Dehli egallandi.

1381-yilda Amir Temur Hirotda yurish qilganida kurdlar sulolasi vakili hukmdor G'iyosiddin Pir Ali Temurga qattiq qarshilik ko'rsatmagan. 1383-yilda Hirotda qo'zg'olon ko'tarilib, Pir Ali sulolasi tugatilib, sarbadorlar vakili Ali Muayyad hokimiyatni egallagan. Lekin u ham hududlarni Amir Temurga ixtiyoriy ravishda topshirgan.

Sohibqiron o'z saltanati hududlarida tinchlik va osoyishtalik o'rnatish, bu hududlarni kengaytirish va mustahkamlash maqsadida urushlar olib bordi. Uning Oltin O'rda xoni To'xtamishga qarshi bir necha marta (1389, 1391, 1394-1395-yillarda) olib borgan jung-u jadallari ham eng avvalo, yurt osoyishtaligi, uning hududiy yaxlitligini ta'minlash maqsadiga yo'naltirilgan edi.

1395-yilda Terek daryosi sohilida To'xtamishning mag'lubiyati va Temurning g'alabasi Oltin O'rdaga berilgan so'nggi zarba edi. Garchi Temur Markaziy Osiyo manfaatlarini ko'zlagan hamda Moskva knyazlari bilan aloqa bog'lamagan holda Oltin O'rdaga qarshi kurash olib borgan bo'lsa-da, bu kurash natijasida u O'rta Osiyoni asrabgina qolmay, balki xolisona ravishda Rossiyani mo'g'ullardan ozod qilib, rus xalqi uchun ham juda katta xizmat qildi.

Amir Temur Misr va Suriya sultoni Barsuqning vafoti haqidagi xabarni eshitgach, 1399-yilning oktabrida Misr sari yo'l oldi. Barsuq taxtiga o'tirgan yosh sulton Faraj Sohibqiron qo'shinlariga bas kelolmadi. 1400-yilda Suriya va Misr ham egallandi. Bu paytda Turkiya sultoni Boyazid butun Yevropaga xavf solayotgan, hatto 1396-yilda Yevropaning birlashgan 60 ming kishilik armiyasi ustidan g'alaba ham qozongan edi. Yevropa davlat boshliqlari turklarga bas kela oladigan qudratli kuch deb, faqat Amir Temurni tanlagan edi. Shu bois bu davlatlar Amir Temur davlati bilan harbiy, siyosiy va savdo munosabatlarini o'rnatishga intilib, muntazam ravishda o'z elchilarini yuborib turdi. Ular bu borada katta va'dalar ham berdilar. Amir Temur bu va'dalarga e'tibor bermagan holda Boyazidga do'stona maktub yo'llab, o'zining raqibi Qora Yusufni qaytarib yuborishni so'raganda, Boyaziddan haqoratimiz javob oladi. Bu haqoratlar ikki o'rtada urush boshlanishiga sabab bo'ladi. 1402-yilning mayida Anqara yaqinidagi jangda Amir Temur 200000 kishilik qo'shini bilan Boyazid qo'shini ustidan g'alaba qozonib, Boyazidni esa asir oladi.

Amir Temurning beg'araz va odil jahongir ekanligini yana shu joyda ham ko'rish mumkinki, u to'liq g'alabaga erishgan bo'lsa-da, Boyazid o'rniga uning o'g'lini sulton qilib qo'yadi. U Boyazidni yengish bilan Yevropani vayronlik va zulmdan saqlab qoladi. Bu g'alaba Sohibqironni yana bir buyuk, ulug'langan "Yevropa xaloskori" nom bilan atalishiga sabab bo'ldi.

Amir Temur 1404-yilda muhim mavqega ega bo'lgan Xitoyga 200 ming jangovar qo'shin bilan yurish boshladi. Ammo u 1405-yilning 18-fevralida aynan shu jangovar yurish chog'ida O'tror shahri saroyida kasallanib vafot etadi.

Amir Temur o'zining uch yillik (1386 –1388), besh yillik (1392–1396), yetti yillik (1398 –1404) yurishlari davomida Ozarbayjonda jaloyirlar, Sabzavorda sarbadorlar, Hirotida kurdlar davlatini tugatib, Eron va Xurosonni, Hindiston, Suriya va Misr yerlarini egallaydi.

U o'z faoliyati davomida ko'p janglar qildi va bu janglar natijasida Qora, Egay va O'rta Yer dengizlaridan to Hindistonning g'arbi, Mo'g'uliston, Xitoygacha, Urol tog'lari, Moskva ostonalari va Dnepr bo'ylarigacha bo'lgan hududni zabt eta oldi. O'z harbiy yurishlari natijasida 27 mamlakatni o'ziga bo'ysundirdi. Fosih Xavofiy o'zining “Mujmal-i-osixiy” kitobida: “1370- yildan to 1404-yilga qadar qariyb 30 marta qo'shin tortgan Amir Temurning hamma vaqt qo'li baland keldi”, – deb yozdi.

Shu tariqa Amir Temur buyuk saltanatga asos solib, feodal tarqoqlikka, tinimsiz davom etayotgan urush-janjallarga barham berdi va nihoyat shu saltanatda osoyishtalik o'rnatdi.

Uning mustaqil markazlashgan davlat harbiy doktorinasining ishlab chiqqanligi buyuk sarkardaligidan dalolatdir. Buyuk sarkardaning harbiy san'at sirlarini, harbiy saboqlarini mustaqil O'zbekistonda va hatto boshqa yirik mamlakatlarda o'rganilishi ayni haqiqat.

3. AMIR TEMUR DAVLATINING SIYOSIY, IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI

Amir Temur markazlashgan davlat tashkil etib, o'z davlati asoslarini adolat bilan mustahkamladi va “Kuch – adolatda” (Rosti – rusti) shioriga doimo amal qilib, hokimiyatni mustahkamlashda islom diniga tayandi, mamlakat aholisini 12 toifaga bo'lib, ularning har biriga nisbatan o'ziga xos siyosat yurizdi. Davlatga maxsus xizmat qilganlarga “Suyurg'ol” sifatida yer-suv va mol-mulk berdi, alohida xizmatlar uchun “Tarxon” yorliqlarini joriy etdi. Bu yorliqlarga ega bo'lganlar turli soliqlardan ozod etildi. Amir Temur o'z davlatida oliy hukmdor bo'lsa-da, o'zini hech qachon podshoh yoki sulton deb atamay, umrbod amir unvonini saqlab qoldi.

Amir Temur davlat ishlarini yuritishda quyidagi 4 narsaga: Kengash, mashvarat-u maslahat, tadbirkorlik va ehtiyotkorlik (hushyorlik) va qat'iy qarorga doimo amal qildi. Vazirlarni tanlash ishiga g'oyat jiddiy qarab, ularni 4 sifatga ega bo'lishlariga ahamiyat berdi. Bu sifatlar toza nasllilik, aql-farosatlilik,

sipox-u raiyat ahvolidan xabardorlik, sabr-chidamlilik va tinchliksevarlikdir. Mamlakat aholisini esa 12 tabaqaga bo'lib, ularning har biriga nisbatan o'ziga xos siyosat yurgizdi va o'zining ulkan tashkilotchilik qobiliyatini namoyon etdi.

Amir Temur davlati

Davlatning ijtimoiy asosi 12 toifaga bo'lingan	Davlat taqdirini 3 narsa hal qiladi	Davlatni 7 ta vazir boshqargan
1. Sayyidlar. 2. Ishbilarmonlar. 3. Xudojo'y-darveshlar. 4. Harbiylar. 5. Sipoh va raiyat. 6. Maxsus ishonchli kishilar. 7. Vazirlar. 8. Hakim, tabib, munajjim, muhandislar. 9. Hadischi olimlar. 10. Hunarmandlar va san'atkorlar. 11. So'fiylar. 12. Savdogar va sayyohlar.	1. Podshoh. 2. Xazina. 3. Askar. Temur davlati markaziy hukumat va to'rt ulusdan iborat bo'lgan (har o'g'ilga bir ulus).	Bosh vazir. Vaziri sipoh (harbiy ishlar vaziri). Egasiz mulkni taqsimlash ishlari vaziri. Moliya vaziri. Chegaralarni nazorat qiluvchi 1-vazir. Chegara ishlari 2-vaziri. Chegara ishlari 3-vaziri.

Amir Temur o'z davlatida qonun ustuvorligini ta'minlashga harakat qildi, shu bois sud, adliya tizimini yaratdi. Uning davlatida bugungi oliy sud funksiyasini bajaradigan a'lam lavozimi bo'lgan. Bu lavozimga fiqh (musulmon qonunshunosligi) va boshqa ilmlardan keng ma'lumotga ega bo'lgan kishilardan qo'yilgan va u qozilarning faoliyatini ham nazorat qilib turgan. Qozi qabul qilgan qaror yoki ajrim faqat uning tasdig'idan o'tgandan keyingina kuchga kirgan.

Amir Temur davrida sud "ehtisob" tizimi keng ko'lamda rivojlanib, bu tizim butun mamlakat bo'yicha jinoyat sodir bo'lishining oldini olib, fuqarolar huquqini himoyalab turgan. Narx-navoni nazorat etish, ekologiyani asrash, yo'llar va ko'priklar xavfsizligi, oziq-ovqat va suvlar pokizaligini saqlash, mamlakat bo'yicha g'ayridinlar va xorijiy musofirlarga tazyiq o'tkazish, shaharlarda qishloq aholisiga noto'g'ri munosabatda bo'lishning oldini olish, hatto, hayvonlarni himoya qilib, kemalar xavfsizligini ta'minlash aynan shu tizim xodimlari vazifasiga kirgan.

Sud tizimi xodimi **muhtasib** hozirgi Ombudsman vazifasini kengroq ko'lamda bajarib, to'g'ridan-to'g'ri davlat rahbari tomonidan tayinlangan. U

davrda bunday xodim vazifasi bugungi Ombudsman vazifasiga nisbatan jiddiyroq va nihoyatda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan.

Amerikalik mashhur huquqshunos olimning ta'kidlashicha, sud-huquq instituti Shvetsiya qiroli tomonidan islom shariati tamoyilidan ko'chirib olinib, parlamentda Ombudsman tizimiga aylantirilgan.

Sohibqiron Amir Temur davlati nafaqat kuch-qudrati bilan, hatto iqtisodiy taraqqiyoti bilan ham mashhur edi. Bu davrda yerga egalikning besh ko'rinishi mavjud bo'lgan: 1. Suyurg'ol yerlar. Katta hajmdagi bu yerlar davlat tomonidan ajratib berilib, bir avloddan ikkinchisiga o'tgan. Suyurg'ol egasi soliqlardan ozod qilingan. 2. Tarxon yerlar. Bu yerlar xususiy mulk bo'lib, odamlarga alohida hizmatlari uchun berilgan. 3. Ushr yerlar. Sayyid va xo'jalarga mansub yerlar. 4. Vaqf yerlar. Masjid, madrasa, xonaqoh, mozorlarga tegishli yerlar. 5. Askarlarga, ularning boshliqlariga berilgan yerlar.

Amir Temur yirik Yevropa davlatlari bilan aloqalar o'rnatib, xalqaro savdo aloqalarini rivojlantirdi. Markaziy Osiyo orqali o'tadigan Ipak yo'lida karvonlarning xavfsizligini ta'minladi. Sohibqiron to'plagan mol-dunyoni, olinadigan boj soliqlarni xayrli maqsadlar uchun sarfladi. Soliq tizimi ishlab chiqilib, soliq olish qoidasi islom ta'limotiga mos edi. Raiyatdan mol-xiroj yig'ishda ularni og'ir ahvolga solishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo'yishdan saqlanilgan. Hosil yig'ib olinmasdan avval soliq to'lash qat'iy man etilgan. Biror fuqaro agar tashlandiq yerni ishlab, uni sug'orib, ekin eksa, birinchi yil u soliqlardan ozod qilingan. Ikkinchi yil esa u o'zi istaganicha soliq to'lagan. Uchinchi yildagina umumiy qoidalarga asosan soliq to'lagan.

Amir Temur kambag'al dehqonlarga va kasodga uchragan savdogarlarga ularni o'zlarini tiklab olgunlariga qadar xazinadan moddiy yordam berilishini talab qilgan. Eng muhimi, bu davrda hech bir shahar va qishloqlarda odamlardan jon boshidan olinadigan "sarshumor" va har bir xonadondan olinadigan "xona shumor" soliqlari olinmagan.

Sohibqiron 1365-1366-yilning qishida Qarshi shahrining atrofini, 1370-yili Samarqandni devor bilan o'rab, qo'rg'on bunyod ettirgan. 1380-yili Shahrisabzda Oqsaroy qurishga kirishib, shahar atrofini devor bilan o'radi. Bu misollar shundan dalolat beradiki, devor va qo'rg'onlar bekorga barpo bo'lmagan. Ular chegara vazifasini o'tab, do'st-dushmandan, bordi-keldidan, ichkari va tashqari, degan so'zlar ma'nolariga monedir. Ma'lumki, Amir Temur saltanatining chegarasi harbiy yurishlar vaqtida beqaror edi, lekin shunday bo'lishiga qaramay uning yurtidan biror bir narsa tashqariga so'roqsiz olib chiqib ketilmagan.

Bu davrda ulufa (oziq-ovqat, maosh va soliq turi) berish quyidagicha edi. Amirlar, mingboshilar, yuzboshilar, o'nboshilar va sipohiylarga quyidagi tartibda maosh berilgan: oddiy sipohiyga o'z vazifasini o'rinlatib bajarishi sharti bilan maoshi mingan otining bahosiga teng bo'lgan. Bahodirlarning maoshi ikki ot bahosidan to'rt otgacha tayin qilingan. O'nboshilar maoshi qo'l ostidagi oddiy sipohiylardan o'n barobar ortiq bo'lgan. Yuzboshilar maoshi o'nboshilarga qaraganda ikki barobar, mingboshilarniki esa yuzboshilarnikidan uch barobar ziyoda bo'lgan.

Shuning bilan birga manbalarda chorpilchor (urush) vaqtida xatoga yo'l qo'ygan sipohiylarning maoshidan o'ndan biri kamaytirilgan, deb yoziladi.

4. AMIR TEMUR VAFOTIDAN SO'NG TEMURIYLAR DAVLATIDAGI IJTIMOY-SIYOSIY VAZIYAT

Amir Temur vafotidan so'ng Temuriy shahzodalarning toj-u taxt uchun kurashlari boshlandi. "Zafarnoma" muallifi Sharofiddin Ali Yazdiyning yozishicha, Sohibqiron vafot etganda undan 2 o'g'il, 1 qiz, 29 nabira va 5 chevare, jami 36 ta shahzoda (qizdan tashqari) qolgan edi. Bundan tashqari, uning yana bir nabirasi bo'lib, qizi Og'a Begimning o'g'li Sulton Husayn Mirzo (1380 – 1407) edi.

Valiahd Pirmuhammad Kobul va Shimoliy Hind mulklari egasi edi. Toj-u taxt uchun kurash boshlangan bir paytda ko'pchilik taxt egasi sifatida Pirmuhammadni emas, Shohrux Mirzoni loyiq deb hisoblar edi. Mana shunday bir vaziyatda Mironshoh Mirzoning o'g'li, Toshkent, Sayram, Turkiston hokimi Xalil Sulton (1384 – 1409) 1405-yilning 18-martida Samarqandni egalab, o'zini Movarounnahr hukmdori deb e'lon qiladi. Biroq, qisqa fursatda uning va xotini Shodimulkxonimning nojoiz faoliyatlari tufayli noroziliklar kuchayadi. Farg'ona hokimi Amir Xudaydod unga qarshi isyon ko'taradi. Bu isyon tufayli Turkiston, Sayram va O'tror mustaqil bo'lib oladi.

Xalil Sulton Movarounnahrda o'z holicha ish tutib, temuriy zodagonlar va amirlarni kamsitib, musulmon ulamolarni, xususan, Naqshbandiya tariqati namoyandalarini tahqirlay boshlaydi. Uning, ayniqsa, bu tariqatning mashhur shayxi Muhammad Porsoni tahqirlashi muxolif kuchlarning unga nisbatan nafratini kuchaytirib yuboradi.

Taxt uchun kurashlar natijasida Amir Temur saltanati Xuroson (Shohrux), Balx va Hind yerlari (Pirmuhammad), G'arbiy Eron, Ozarbayjon, Iroq (Mironshoh, Umar Mirzo, Abu Bakr), Turkiston, O'tror, Sayram (Amir Berdibek), Farg'ona (Amir Xudaydod) yerlariga bo'linib ketdi.

1407-yil 22-fevralda valiahd Pirmuhammad o'z vaziri Pirali Toz tomonidan o'ldirigan bo'lsa, 1408-yil 22-aprelda Mironshoh Qora Yusuf tomonidan Ozarbayjon va Iroq uchun bo'lgan jangda o'ldirildi (shu vaqtdan boshlab bu ikki hududlar ham saltanat tarkibidan chiqib ketadi). 1409-yil boshida Samarqand yaqinidagi Sheroz qishlog'idagi jangda Amir Xudaydod Xalil Sultonni mag'lub etib, uni asir oladi.

1409-yil aprelda Shohrux qo'shinlari Amir Xudaydod qo'shinlarini yengib, Xalil Sultonni asrlikdan ozod qilgach, 1409-yilda Shohrux Mirzo (1405 – 1409-yillar Xuroson hokimi) butun temuriylar davlati (1409 –1447) ning oliy hukmdori sifatida e'tirof etiladi.

Movarounnahr yerlarining boshqaruvi esa Ulug'bek (1409 –1449)ga topshirildi. U 15 yoshli o'smir bo'lganligi sababli, unga Amir Shohmalik otaliq qilib tayinlandi va boshqaruv ishlarini olib bora boshladi.

Shohrux va Ulug'beklar mamlakat hududini kengaytirish va markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun harakat qildilar. Shohrux 1413-yilda Eronni egalladi, Ulug'bek esa Oltin O'rdadan Xorazmni, 1414-1415-yillarda o'z amakivachchasi amirzoda Ahmaddan Farg'onani tortib oldi. 1425-yil erta bahorida Issiqko'l tomonga yurish qilib, u yerda isyon ko'targan mahalliy muxolifatchi kuchlarni bartaraf etib, mamlakatning sharqiy chegaralarini ancha mustahkamlashga erishdi. U o'z saltanati chegaralarini mustahkamlash uchun Baroqxonni Dashti Qipchoq hokimiyati tepasiga chiqib olishiga yordam berdi. U hukmdor keyin Oltin O'rda yerlarini ham egallab, Ulug'bek yordamini yoddan chiqaradi. Baroqxon Ulug'bekka tegishli Sirdaryo bo'ylaridagi O'tror, Sabron, Sig'noq yerlarni talab, bu yerlar xususida o'z da'vosi bilan chiqadi. Ulug'bek bu hukmdorga qarshi 1427-yilda Dashti Qipchoqqa yurish qiladi, ammo mag'lubiyatga uchraydi.

Shohrux Mirzoning keksayishi va sog'lig'ining yomonlashuvi bilan tojtaxt uchun kurashlar kuchayib boradi. Aynan shu davrlarda Ulug'bek onasi Gavharshodbegimning (1379 – 1457) harakatlari ham faollashadi. Uning bir nabirasi Alouddavlani qanday bo'lmasin taxtga o'tkazish uchun qilgan makrhiylasi shahzodalar o'rtasidagi adovatlarni yanada kuchaytirib, taxt uchun kurashlar boshlanadi, shahzodalardan Sulton Abu Said Mirzo (1424 – 1469) Xurosonni bosib oladi. Malika Gavharshodbegim 80 yoshga yaqinlashib qolgan bo'lsa-da, Xuroson masalasida yana aralashib, nabirasi Sulton Ibrohim Mirzoni (1440 – 1460) hukmdor Sulton Abu Saidga qarshi isyon ko'tarishga undaydi. Bundan xabar topgan Abu Said malikani o'limga hukm qiladi va u 1457-yilda chopib tashlanadi.

1447-yilning 12-martida Shohrux Mirzo Ray viloyatida kasallanib vafot etadi. Oliy hukmdorlik yagona voris Ulug‘bekka o‘tishi lozim edi. Lekin ukasi Bo‘ysunqur Mirzoning o‘g‘illari Alouddavla va Abulqosim Boburlar Ulug‘bekka qarshi harbiy harakat boshlaydi. Ulug‘bekning yana bir ukasi Muhammad Jo‘kinging o‘g‘li Abu Bakr esa Balx, Shibirg‘on, Qunduz va Bag‘lonni bosib oladi.

Alouddavla Ulug‘bek o‘g‘li Abdullatifni asirga olib, uni Hirotidagi Ixtiyoriddin qal‘asiga qamab qo‘yadi. Ulug‘bek muzokaralar yo‘li bilan bu muammolarni yechib, o‘g‘lini ozod qiladi va uni Balxga hokim qilib tayinlaydi.

1448-yilning bahorida Ulug‘bek va Abdullatif birlashib, Hirot yaqinidagi Tarnob degan joyda Alouddavlani tor-mor etadilar. Hirot shahri jangsiz egallanadi. Ammo bu g‘alaba ko‘proq Abdullatif emas, uning ukasi Abdullaziz nomi bilan bog‘lanadi. Bunday holat Abdullatifda otasi va ukasiga nisbatan yashirin nafrat uyg‘otadi. Bu g‘alaba natijasida Abdullatif Hirot taxtiga o‘tiradi. Mol-dunyoga o‘ch, shuhratparast Abdullatifning otasiga qarshi harakatlarini kuchayishiga Ulug‘bekning davlat poytaxti Samarqandga Hirotidan Shohruxga tegishli xazinaning olib ketilishi ham muhim sababga aylanadi.

1449-yilda Abdullatif Balxda “tamg‘a” solig‘ini undirishni bekor qiladi. Bu voqea Ulug‘bek va Abdullatif munosabatlarining yanada keskinlashuviga sabab bo‘ladi. Chunki bu soliq davlat daromadining asosiy qismini tashkil etar edi. Ota va bola o‘rtasida urush boshlanib, o‘g‘il Termiz, Shahrisabzni egallab, Samarqand yaqinidagi Damashq qishlog‘ida otasini mag‘lub etadi. Bu holat otaning Samarqandga boshqa kirolmasligiga, o‘g‘liga asir tushib, hajga otlanishiga, o‘g‘li ishtirokidagi dushmanlar yollagan jallod Abbos tomonidan qatl etilishiga (1449-yil 27-oktabrda) olib keldi.

Biroq, padarkush Abdullatif taxtni uzoq boshqara olmadi. 1450-yilning 8-mayida u harn o‘ldiriladi. Samarqand taxtiga bir yildan ko‘proq Mirzo Abdullo, so‘ngra 1451–1469-yillarda Sulton Abu Saidlar o‘tiradi. Xurosonda Abulqosim Bobur vafot etgach, Abu Said davrida temuriylar davlatining ikki qismi birlashtiriladi. 1469-yilda sulton Abu Said Oqquyunlo‘ turkmanlar tomonidan jangda o‘ldirilgach, 1469-yili 24-martda Hirotni Umarshayx Mirzo evarasi shahzoda Sulton Husayn (1438 – 1506) egallaydi. Samarqand taxti esa Sulton Abu Said o‘g‘illari Sulton Ahmad (1469 – 1494), Sulton Mahmud (1494 – 1495), Boysug‘ur (1495 – 1497), Bobur (1497 – 1498) hamda Mahmudning o‘g‘li Sulton Ali Mirzo (1498 – 1500)lar tomonidan boshqariladi. Samarqand taxtidagi temuriy shahzodalar uquvsizligi, aysh-ishrati tufayli Movarounnahrda o‘zaro tarqoqlik kuchaygan bo‘lsa, Xurosonda Husayn Boyqaro (Alisher Navoiy yordamida) davrida iqtisodiy va madaniy hayot ancha yuksaladi.

Movarounnahrda tarqoqlik kuchayganda ruhoniylar, soʻfiylar taʼsiri ham kuchayadi. Bu davrda mashhur din arbobi Xoʻja Ubaydulloh Ahror (1404 – 1490)ning mamlakat tinchligini saqlash, el osoyishtaligini taʼminlash borasidagi vatanparvarlik faoliyati keng quloq yozadi.

Movarounnahrda noittifoqlik, oʻzaro kurashlar yurt dushmanlari ishtahasini ochadi. 1499-yildan boshlab Oʻrta Osiyoga Muhammad Shayboniyxon (1451 – 1510)ning istilochilik harakatlari boshlanadi. Bobur Mirzoning Samarqand taxti uchun qilgan harakatlari natija bermaydi. Shayboniyxonga qarshi yoʻlga chiqqan Xuroson hukmdori Sulton Husayn 1506-yilda vafot etadi. Taxt uchun kurashlarda uning hokimiyati ikki shahzodaga – Badiuzzamon Mirzo va Muzaffar Mirzolarga oʻtadi. Shu bois Shayboniyxon 1507-yilda Hiroti osongina egallaydi.

Shu tariqa, deyarli bir yarim asr davom etgan shon-shavkatli temuriylar saltanati oʻz poyoniga yetadi. Sulolaning soʻnggi, zabardast vakili Zahiriddin Muhammad Bobur Panipat jangida (1526-yil 21-aprel) Shimoliy Hindistonni egallab, u yerda deyarli uch asr hukmronlik qilgan boburiylar sulolasiga asos soladi va temuriylar shon-shuhratini tiklashga muvaffaq boʻladi.

5. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA MADANIYAT

Maʼlumki, IX–XII asrlarda Markaziy Osiyoda kechgan buyuk uygʻonish davri kashfiyotlari, ilm-fan, madaniyat sohasidagi koʻtarinkilik keyingi asrlar, jumladan, Amir Temur zamoni madaniyati, davlatchiligi rivojlanishiga, Movarounnahrda yagona va qudratli davlat barpo etilishi hamda bu yerda tinchlik-osoyishtalikning taʼminlanishi ilm-fan va madaniyat ravnaqi uchun muhim omillar edi. Lekin, bulardan tashqari, Temur davlati madaniyatining shiddati va keng doirada yuksalishi mazmunini ishonchli Naqshbandiya tariqati tashkil etgan, ijtimoiy-maʼnaviy gʻoya eng muhim omillardan biri boʻlib xizmat qilgan. Bu gʻoya Sohibqiron davlati siyosatining asosi va davlat faoliyati ana shu gʻoya asosida olib borilgan.

Amir Temur va temuriylar davrida oʻlkada fan va madaniyat barq urib oʻsdi, rivojlandi va kamol topdi. Bu sohada Movarounnahr XIV-XV asrlarda jahon sivilizatsiyasining eng oldingi qatorlaridan joy oldi. Temur va temuriylar davri jahon fani va madaniyatining Mirzo Ulugʻbek, Alisher Navoiy, Bobur, Abdurahmon Jomiy, Xoja Ahror, Behzod, Xondamir kabi ulugʻ vakillarini yetishtirib berdi. Mirzo Ulugʻbek, Jaloliddin Ahmad Xorazmiy, Mavlono Termiziy, Mansur ibn Muhammad Buxoriy, Shayx Zayniddin Xofiy, Said Sharif Jurjoniy, Gʻiyosiddin Jamshid Koshiy, Ali Qushchi, Muhammad Havo-

fiy, Qozizoda Rumiyy kabi allomalar jahon ilm-faniga o‘zlarining munosib his-salarini qo‘shdilar. Bu davrda shoir va mutafakkir Alisher Navoiy ijod etdi va turkiy dunyoni yaqqalam qildi. Uning homiyligida tarixchi Xondamir, xattot Sul-ton Ali, rassom Behzod va boshqalar kamolga yetdilar.

Amir Temur va temuriylar davrida hukmdorlarning o‘zlarini ilm, fan va madaniyatga intilishi, bu sohaga shaxsan homiylik qilishlari XIV-XV asrlarda yurtda jahon tan olgan ikkinchi uyg‘onish (renessans)ning yuz berishiga olib keldi.

Amir Temur Samarqandda takrorlanmas me‘moriy-madaniy obidalar qurdirdi. U qurdirgan Jome masjidi Samarqanddagi eng hashamatli va go‘zal obidalardan va u boshqa binolardan o‘ymakor marmardan yasalgan 480 pil-lapoya-ustunlari, darvozaband ulkan ravoqi, masjid binosining bahaybat gum-bazi, peshtoqining salobati va quyosh nurida turli rang ko‘rinishda toblanib turuvchi maftunkor, jimjimador go‘zal bezaklari bilan o‘zgacha bir tarzda ajralib turadi. Dunyoning turli burchaklaridan tinimsiz Samarqandga oqib kelayotgan sayohatchilarni Jome masjidining me‘moriy mahorati va san‘ati asrlar o‘tsa-da hamon o‘ziga maftun etib kelmoqda.

Amir Temur mashhur Shohizinda qabristonini ham o‘zining o‘tkir zehni va ziyrak e‘tiboridan chetda qoldirmadi (“Shohizinda” – “tirik shoh” ma‘nosini beradi). Bu ansambl Afrosiyobning janubida, qabristondagi maqbaralardan iborat.

Sohibqironning hayotligi chog‘ida qurilgan maqbaralardan biri Turkon Og‘a maqbarasidir. Turkon Og‘a Amir Temurning opasi edi. Maqbara esa 1370-1371-yillarda vafot etgan Turkon Og‘aning qizi uchun qurilgan. 1383-yilda Turkon Og‘aning o‘zi ham vafot etadi va shu yerga dafn etiladi. Bu obidaning ustalari samarqandlik Shamsiddin va Badriddin, buxorolik Zaynid-din va Shamsiddinlar bo‘lgan. 1376-yilda Amir Temurning sarkardalaridan biri amir Husaynning onasi Tug‘li Tekin, 1385-yilda Amir Temurning sing-lisi Shirinbeka Og‘a maqbaralari qurilgan. “Shohizinda” ansamblida Amir Temurning xotinlari tomonidan qurilgan maqbara va boshqa binolar ham kattagina o‘rinni egallaydi.

Manbalarda ta‘kidlanishicha, Shohizindadagi eng qadimiy maqbaralardan birida Muhammad payg‘ambarga qarindosh (jiyan) Qusam ibn Abbosning ham xoki qo‘yilgan ekan.

Amir Temur davrida qurilgan va dovrug‘i olamni tutgan tarixiy obidalar-dan yana biri – “Go‘ri Amir” maqbarasi. Bu muhtasham binoning qurilish tarixi bor. Amir Temur nabirasi Muhammad Sul-tonni (Jahongirning o‘g‘li) juda sevardi. Muhammad Sul-ton 1403-yilda 19 yoshida jangda fojiali halok bo‘ladi. Uni Samarqandga olib kelib dafn marosimi o‘tkazadilar. Amir Temur

1404-yil kuzida safardan qaytgach, nabirasi Muhammad Sulton xotirasi uchun maqbara qurishga farmon beradi. Ushbu farmonda maqbarani 10 kun davomida qurib tugallashga buyruq berilgan. Haqiqatan maqbara 10 kunda batamom qurib bitkaziladi.

Maqbara devorlaridagi rang-barang koshinlar orasida uni qurgan usta Muhammad ibn Mahmud Isfahoniyni nomi ham yozilgan. 1405-yilda Amir Temur kasallanib vafot etgach, uning o'zi ham shu yerga nevarasining yoniga dafn etiladi va maqbara Go'ri Amir maqbarasi deb nom oladi. Shundan so'ng ushbu obida temuriylar sulolasining xilxonasiga aylanadi. Unda Muhammad Sulton Mirzo, Amir Temurdan tashqari Sohibqironning o'g'illari Umarshayx, Shohrux va Mironshoh, nabirasi Mirzo Ulug'bekning ham sag'analari qo'yilgan.

E'tiborlisi shundaki, bu sag'analar orasida Amir Temurning pir-u ustozlari Sayid Barakaning xoki ham qo'yilgan bo'lib, Sohibqiron o'z jasadini pir-u ustozlari oyog'i uchiga qo'yishni vasiyat qilgan ekan. Vasiyat bajo keltirilgan.

Amir Temur va ayrim temuriy shahzodalar davrida Samarqand, Shahrisabz, Buxoro, Hirot kabi shaharlar obod bo'ldi. Temurning Samarqandni yer yuzining sayqaliga aylantirish orzusi ushaldi. Ko'pgina masjid-u madrasalar, maktablar qurilib, shahar ko'rkiga-ko'rk qo'shdi. Ayniqsa, Temur va Ulug'bek davrida bu shaharda barpo etilgan bog'lar shaharning ko'rkamligini yanada oshirdi.

Amir Temur barpo ettirgan o'ndan ortiq go'zal bog'lar orasida "Bog'i Dilkusho" boshqa bog'larga nisbatan go'zalligi bilan ajralib turgan. Bu bog' 1397-yilda Samarqand yaqinidagi Konigil vohasida barpo etilgan.

1404-yilning sentabrida Temurning qabulida bo'lgan ispaniyalik elchi Klavixo bu bog'da favvoradan suv otilib turganligini, bog'ga kiriladigan keng darvoza yuksak va oltin, boshqa qimmatbaho toshlar bilan bezatilganini, ustiga taxtiravon o'rnatilgan oltita fil borligini yozib qoldirgan.

O'ndan ortiq bog'lar ichida bu bog' Amir Temurning mayliga javob berganligi, uning bu bog'da doimo yayraganligi sababli bog'ning nomi ham shunga moslashtirilgan.

Temuriylar davri ilm-fani va madaniyatini yuksalishiga ulkan hissa qo'shgan olim va davlat arbobi Mirzo Ulug'bekdir. Uning avlodlarga qoldirgan ilmiy merosining eng asosiysi "Zij"i bo'lib, bu asar "Ziji Ulug'bek", "Ziji jadidi Ko'ragoniy" nomlari bilan ham mashhur. Ulug'bek "Zij"i o'zining tarkibiga ko'ra, VII – XI asrlarda boshlangan astronomik an'anani davom ettirgan bo'lsa-da, uning ilmiy saviyasi ilgarigi "Zij"lardan ancha yuqori turadi.

"Zij"ning birinchi maqolasi eralar va kalendarlar masalalariga bag'ishlangan, ikkinchi maqolada matematika va sferik astronomiya muammolari ustida

soʻz boradi. Uchinchi maqola asosan astronomiya masalalariga bagʻishlangan. Bunda quyosh, oy va besh sayyoraning harakati tavsifi haqida soʻz boradi. Asarning oxirgi toʻrtinchi maqolasi asosan ilm-u nujumga bagʻishlangan. Ulugʻbek ishlab chiqqan astronomik jadvalda falak al-burj tekisligining xatti istivoga ogʻmaligi 23 daraja, 30 daqiqa, 17 soniyaga teng boʻlib, hozirgi hisob boʻyicha u 23 daraja, 30 daqiqa, 49 soniyani tashkil etadi. Tafovut 32 soniyaga teng. Oʻsha davrdagi boshqa astronomik jadvallarning birontasida bunday aniqlik boʻlmagan. Ulugʻbek turklarning avlod-ajdodlari, moʻgʻul qabilalari va Chingizxon vafotidan keyin tashkil topgan uluslar haqida “Tarixi arbaʼ ulus” (Toʻrt ulus tarixi) nomli asar ham yozib qoldirgan.

Mirzo Ulugʻbek tomonidan qurdirilgan rasadxona (1424 – 1429-yillarda) dunyo miqyosida osmon ilmi rivojiga muhim hissa qoʻshdi. Rasadxona silindr shaklida, uch oshyonali qilib qurilgan edi. Olimlar va xizmatchilar uchun rasadxona tevarak-atrofida katta-kichik hujralar ham qurildi. Rasadxonaning boy kutubxonasi boʻlib, unda qariyb 150 ming kitob saqlangan. Rasadxonaga Ulugʻbekning shaxsan oʻzi, u yoʻq paytda Qozizoda Rumi, Gʻiyosiddin Jamshid va Ali Qushchilar boshchilik qildilar.

Ulugʻbek rasadxonasi nafaqat sharqda, hatto Gʻarbda ham akademiya sifatida tan olingan. Hukmdorning Samarqandda qurdirgan madrasasi ham oʻsha davr ilm-fani, maʼrifati rivojiga beqiyos hissa boʻlib qoʻshildi. Madrasada ilohiyot ilmlari (Qurʼon, hadis, tafsir)dan tashqari, riyoziyot (matematika), handasa (geometriya), ilmi hayʼat (astronomiya), tibbiyot, tarix, jugʻrofiya, ilm-u aruz (poeziya) singari dunyoviy ilmlar ham oʻqitilgan.

Madrasada oʻquv mashgʻulotlarining boshlanishi 1420-yillarga toʻgʻri keladi. Vosifiyning bergan maʼlumotlariga qaraganda, madrasa bitishi yaqin qolganda bu yerga Ulugʻbek tashrif buyurgan. Qurilishda mehnat qilayotganlar undan kim madrasaga mudarris etib tayinlanishini soʻrganlarida, savolga javoban Ulugʻbek mudarrislikka barcha ilmlardan xabardor kishini topajakligini aytgan. Shunda oddiy xizmatkorlar qatorida gʻishtar orasida eski kiyimlarda oʻtirgan Mavlono Muhammad Xavofiy bu lavozimga men munosibman, deb oʻzini tanishtiradi. Ulugʻbek uni imtihon qiladi. Uning javoblaridan toʻla qoniqish hosil qilgan Ulugʻbek uni hammomga olib borib yuvintirish va kiyintirishga farmon beradi. Madrasa ochilishidagi birinchi maʼruzani oʻqishni ham unga topshiradi. U oʻqigan maʼruza mohiyati shu qadar ilmiy va murakkab boʻlganki, uni 90 olimdan faqat Mirzo Ulugʻbek bilan Qozizoda Rumi tushungan, xolos.

Temuriylar davrida oʻzbek xalqining buyuk shoiri va mutafakkiri Mir Alisher Navoiy yashab ijod etdi. U butun hayoti va faoliyatini insonning baxt-saodati uchun kurashga, xalqning osoyishtaligiga, feodal urushlarning oldini olishga, obodonchilik ishlariga, ilm-fan, sarʼat, adabiyotning taraqq

qiyotiga bag'ishladi. O'zbek adabiy tili va mumtoz adabiyotini yangi taraqqiyot pog'onasiga olib chiqdi. Alisher Navoiy o'zbek va fors-tojik tillarida go'zal she'rlar bitib, ikki til egasi sifatida shuhrat qozonadi. O'zbek tilidagi she'rlariga "navo" – kuy so'zidan olib, "Navoiy", fors tilidagi she'rlariga "fano" – vaqtincha, o'tkinchi so'zlaridan olib "Foniy" taxalluslarini qo'lladi.

Alisher Navoiyning Samarqandga kelishi uning bilimi va ijodiy kamolotida muhim bosqich bo'ldi. Bu yerda u mashhur olim Fazlulloh Abulaysiy madrasasida tahsil oladi.

Xuroson taxtiga Husayn Boyqaro (yoshlikdagi do'sti) taxtga chiqishi bilan (1469) Navoiy Samarqanddan Hirotga qaytadi va u yerda ijod bilan birgalikda davlat arbobi sifatida faoliyat yuritadi.

U yaratgan "Xamsa" nafaqat o'zbek mumtoz adabiyotida, hatto jahon adabiyotining eng buyuk durdona-obidalaridan biri bo'ldi. "Xamsa" "Hayrat ul-abror" (Yaxshi kishilarning hayratlanishi), "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab' ai sayyor" (Yetti sayyora) va "Saddi Iskandariy" (Iskandar devori) dostonlarini o'z ichiga olgan.

Alisher Navoiy adabiyot va san'at taraqqiyotiga homiylik qilish bilan birga, ilm-fan rivojiga, ayniqsa, tarixga muhim e'tibor qaratdi. Ko'pgina tarixchilar buyuk Navoiyning mulohazali maslahatlaridan foydalanishgan. Ma'lumki, o'sha davr taniqli tarixchisi Mirxond (1433 – 1498) o'zining "Ravzat us-safo" asarini Navoiy maslahati bilan yozgan. Maslahat bo'yicha bu tarixchi bir-biri bilan o'zaro izchil bog'langan 7 mustaqil kitob yozishi, kitobda cho'ziq jumalar, taxmin va farazlarga yo'l qo'ymasligi uqtirilgan.

Kitob yozishda Mirxondga har tomonlama yordam berilib, uning ixtiyoriga Xolosiya xonaqosidagi eng yaxshi binolardan birini ajratib berishgan. Navoiy unga o'z shaxsiy qiroatxonasidagi kitoblardan foydalanishga ruxsat berib, moddiy tomondan ko'maklashib turgan. 1474-yilda boshlangan bu ish afsuski Mirxondning bevaqt o'limi tufayli yakunlanmay qolgan. Mo'ljalidagi yetti kitobdan 6 tasi yozib tugatilgan, xolos.

Mirxond ta'sirida uning nevarasi Xondamir ham o'sha davming yetuk tarixchisi bo'lib yetishgan va u ham Navoiy homiyligida kamolotga yetgan. Uning asl ism-sharifi: G'iyosiddin Muhammad ibn xoja Xumomuddin Muhammad ibn xoja Jaloluddin Muhammad ibn xoja Burhonuddindir. U Navoiy xizmatida (kutubxonasida) ishlagan. Keyin Badi'uzzamon kotibi, keyin Bobur xizmatida, keyin Badi'uzzamon o'g'li Muhammadzamonning kotibi va so'ngra Humoyun xizmatida bo'lgan.

Xondamir 1535-yilda vafot etgan. Uning vasiyatiga ko'ra, jasi Dehlidagi buyuk shoir Xusrav Dehlaviy qabri yoniga dafn etilgan. Bu buyuk tarixchining "Habib us-siyar" nomli tarixiy asari mavjud.

O‘zbekiston Prezidenti I.A.Karimov buyuk Navoiyga baho berib: “Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g‘ururi, sha‘n-u sharafini dunyoga tarannum qilgan o‘lmas so‘z san‘atkoridir... agar bu ulug‘ zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir”¹, deb yozgan.

Prezident har bir kishining ona tiliga muhabbati, uning boy va buyukligini anglash tuyg‘usi har bir insonning ongi shuuriga va yuragiga buyuk Navoiy asarlari bilan kirib kelishini ko‘rsatib: “Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko‘p bahramand etsak, milliy ma‘naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarini kamol toptirishda shunchalik qudratli ma‘rifiy qurolga ega bo‘lamiz”², – deb ta‘kidlagan edi.

Temuriylar davri madaniyati yuksalishida shoir va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Boburning hissasi ham beqiyos. U 1511-yilning kuzida Eron shohi Ismoil Safaviyning harbiy yordami bilan Samarqandni yana qayta egallaydi, ammo hukmronligi uzoq davom etmaydi. 1512-yilning bahorida yana shayboniylardan mag‘lub bo‘ladi va qariyb ikki yil mobaynida Hisor viloyatida kun kechirib, 1515-yili yana Kobulga qaytadi. 1514 –1526-yillar davomida besh marta Hindistonga yurish qilib (1526), oxiri uni egallaydi. U Hindistonda tuzgan Buyuk boburiylar imperiyasi XIX asrning o‘rtalarigacha faoliyat yuritadi. Bobur Mirzo va uning avlodlari yaratgan me‘moriy obidalar bugungacha o‘z ko‘rkini saqlab turibdi.

Bizgacha Boburning 100 dan ortiq g‘azali va 200 ga yaqin ruboiylari yetib kelgan, ularda ishq-muhabbat, go‘zallik va shodlik kuylanadi.

U Hindistonni mahv etgan bo‘lsa-da, Hindistonni o‘zidan oldin mahv etgan Iskandar Zulqarnayn, Mahmud G‘aznaviy kabi xalqning boyligini talab, olib ketmadi, aksincha, Hindistonda qolib butun hayotini shu davlatni gullab-yashnashiga, Agra va Dehli kabi shaharlarni jahonning eng ajoyib shaharlari darajasiga ko‘tarish ishiga bel bog‘lagan shoh edi. Hindistonda ko‘plab bog‘lar yaratdi. Aytishlariga ko‘ra, xushbo‘y atirgulni Hindistonga birinchi bo‘lib Bobur keltirgan ekan. U bobosi Temur singari Hindistonga dunyoning ko‘plab olimlari, shoirlar, rassomlar, quruvchi va naqqoshlarni to‘play oldi. Natijada boburiylar davrida jahonda tengi yo‘q, Tojmahal maqbarasi va boshqa ko‘plab inshootlar qad ko‘tardi.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. –T.: 2008. – 47-b.

² O‘sha kitob. – 48-b.

Bobur farzandlaridan uchtasi Humoyun, Komron va kenja qizi Gulbadan ota izidan borib, shoir va shoira bo'lganlar.

6. “TEMUR TUZUKLARI”. AMIR TEMUR SHAXSI VA UNING BUYUKLIGI

Rus olimi D.Logofet Temur davridagi tuzumga quyidagicha baho berib: “Yevropada Konstitutsiya haqida tushunchaga ham ega bo'lishmagan bir davrda ana shu Temur davlatida Konstitutsion qonunlar majmuasi mavjud bo'lgan va amal qilgan”, deb yozgan edi. Olim Temur davlatidagi “Konstitutsion qonunlar majmuasi” deganda “Temur tuzuklari”ni nazarda tutgan edi.

Sohibqiron Amir Temur tomonidan yozib qoldirilgan “Temur tuzuklari”ning bir qo'lyozma nusxasi Yaman hokimi Ja'far podshoh tomonidan milliy kutubxonada saqlangan. Bu asarning fors tiliga tarjimasini Mir Abu Tolib Hasaniy at-Turbatiy amalga oshirgan. Tuzuklarning ana shu nusxasi XIX asrning oxirlarida rus tiliga tarjima qilingan va bugungi kungacha yetib kelgan. Asar butun dunyoga mashhur bo'lib, ko'p tillarga tarjima qilingan. Uning forscha tarjimasini ingliz mayori, professor Uayt tomonidan 1783-yilda Oksfordda chop etilgan. Ushbu nashrning forscha matni hech o'zgarishsiz Kalkutta va Bombay shaharlarida, 1963-yilda Eronda nashr etilgan. Asar 1787-yilda fransuz sharqshunosi L. Lyangle tomonidan fransuz tiliga ham tarjima qilinib nashr etilgan. “Temur tuzuklari” ikki bo'lim va 56 banddan iboratdir. Kitobda bo'limlar maqola nomi bilan atalgan.

“Tuzuklar”ning birinchi bo'limida Temurning davlatni barpo etish va mustahkamlash, qo'shnlarni tashkil etish yuzasidan tuzuklari bayon etilgan. Ikkinchi bo'limida esa, Amir Temur tomonidan o'tkazilgan 13 kengash tafsilotlari va ularda Sohibqironning amalga oshirgan tadbirlari bayon etilgan. Shuningdek, bu bo'limda Amir Temur nomidan aytilgan va uning toj-u taxt vorislariga atalgan o'ziga xos vasiyat va pand-u nasihatlari ham berilgan.

“...Davlat agar din-u oyin asosida qurilmas ekan, to'ra tuzukka bog'lanmas ekan, – deb yozadi Amir Temur, – unday saltanatning shukuhi, qudrati va tartibi yo'qoladi. Bunday saltanat yalang'och odamga o'xshaydi, uni ko'rgan kimsa nazarini olib qochadi. Yoxud kas-u nokas tap tortmay kirib chiqadigan tomsiz, eshigi-to'sig'i yo'q uyga o'xshaydi.

Shuning uchun ham o'z saltanatim binosini dini islom, to'ra va tuzuk asosida mustahkamladim”.

Amir Temur yana davom etib: “Har mamlakatning yaxshi kishilariga men ham yaxshilik qildim, nafi yomonlar, buzuqlar va axloqsiz odamlarni mamlakatdan quvib chiqardim”¹, – deb yozadi.

¹ Temur tuzuklari. – 55-b.

Oliyjanob axloqiy fazilatlarni Amir Temur hazratlari ulug‘labgina qolmagan, balki bu fazilatlarning bajarilishini davlat hududida yashayotgan fuqarolardan, hatto o‘z oila a‘zolari tomonidan ham so‘zsiz bajarilishini talab qilgan.

“Temur tuzuklari”da ishlab chiqilgan ayrim tamoyillarga e‘tibor qaratamiz:

Birinchidan, “men o‘z saltanatim binosini dini islom va tuzuk asosida mustahkamladim”.

Ikkinchidan, hayotda davlat ishlarini boshqarishda odillik, adolat va haqiqatning ustuvorligini ta‘minlash uchun kurashdim. Oddiy xalq manfaatlarini himoya qilish, jabrdiydalarga madadkor bo‘lish, ig‘vogar va tuhmatchilarga ishonmaslikka amal qildim... Adolat va insof bilan tangrining bandalarini o‘zimdanda rozi qildim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm qilib, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim... Fuqaro va qo‘l ostimdagilarga rahmdillik qildim, sipohlarga in‘omlar ulashdim. Zolimlardan mazlumlar haqqini oldim... Buzuqi va og‘zi shaloq g‘iybatchi odamlarni majlisimga yo‘latmadim, so‘zlariga amal qilmadim. Biror kimsaga tuhmat-u g‘iybat qilsalar, quloq solmadim.

Uchinchidan, davlatni boshqarish, idora qilish ishlarini halol, nasl-nasabli, asil, vijdonli, aql-farosatli, xushmuomalali, sabr-toqatli kishilarga topshirdim. Amir Temur “Davlat arboblari bag‘ri keng, og‘ir, vazmin, odamlarga nisbatan kek saqlamaydigan, kechirimli va g‘oyatda xushaxloqlilik fazilatlariga ega bo‘lishi kerak”, – deb hisoblar va bu fazilatlarni juda-juda qadrlar edi: “Hech kimdan o‘ch olish payida bo‘lmadim. Tuzimni totib menga yomonlik qilganlarni parvardigori olamga topshirdim”, degandi u.

To‘rtinchidan, yuksak insoniy, axloqiy fazilatlarni ulug‘lash, noinsoniy, noaxloqiy va tubanlik ko‘rinishlariga qarshi shafqatsiz kurash. Amir Temur yozadiki, “...hozirgi damgacha o‘tgan sultonlarning qonunlarini va turish-turmushlarini donolardan so‘rab-surishtirdim. Har qaysilarining yo‘l-yo‘riqlari, turish-turmushlari, qilish-qilmishlarini, aytgan gaplarini xotiramda saqladim va yaxshi axloqlari, ma‘qul sifatlaridan namuna olib, unga amal qildim”.

“Temur tuzuklari”dagi pand-u nasihatlar Temuriy shahzodalarga bag‘ishlab yozilgan bo‘lsa-da, bu tuzuklardagi davlat tutish ishlaridan sharq hukmdorlari, jumladan: Shoh Jahon, Buxoro amiri Abdullahadxon va Qo‘qon xoni Muhammad Alixon davlat ishlarini boshqarishda keng foydalanganlar.

Sovetlar davrida Amir Temur va temuriylar davri qisqa qilib tarixda saqlangan bo‘lsa-da, bu davrning buyuk sardori Amir Temur bosqinchi, jallod, kallakesar shaxs sifatida tarixda gavdalantirildi. Bu davr tarixi ham boshqa davrlar tarixi singari bo‘yoqlar bilan bo‘yalib, butunlay boshqacha qiyofa-

ga kiritildi va o‘zbek xalqi tarixi soxtalashtirildi. Hatto, shu darajaga borib yetildiki, tarixdagi boshqa hukmdorlar qilgan xunrezliklarning ayrimlari Amir Temur nomi bilan bog‘landi. Ular bu buyuk shaxsning xalq, yurt va nihoyat jahon xalqlariga qilgan ulkan xizmatlarini berkitishgacha borib yetishdi.

Chunki ular bu xalq bir paytlari o‘z yurtining dunyo miqyosida alohida o‘ringa ega bo‘lganligini, shu yurt, shu xalqdan yetishib chiqqan buyuk davlat arbobi, mohir sarkarda jahon ahlini lol qoldirganini, xorij davlat hukmdorlarining ko‘pchiligi o‘zlariga qaratilgan xavfdan xalos bo‘lish uchun bu sarkardan yordam so‘raganlarini va eng muhimi, bu xalq o‘z o‘tmishining buyuk ekanligini bilishlarini hech ham xohlamas edilar.

Ular o‘tmishda buyuk qudratli davlat tuzib, dunyoni titratgan, dunyo sivilizatsiyasiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib, jahonda bir emas, ikki marta uyg‘onish sodir etgan xalq hech qachon kimlarningdir zug‘umi, zulmi ostida yashashni istamasliklarini bilar edilar. Shu bois ham ular Amir Temurni jalold, kallakesar, bosqinchi sifatida gavdalantirib, tarix sahifalarini o‘zgartirgan edilar.

O‘zbekistonning mustaqillikka erishuvi boy va qiziqarli tarixni haqqoniy va xolisona qayta tiklash imkoniyatini ham berdi. Biz nafaqat Amir Temur va temuriylar davri tarixini qayta tikladik, balki Amir Temur nomini oqlab, poklab, istiqlolning faxri, g‘ururi sifatida qabul qildik.

O‘zbekiston Prezidentining: “...davlatchiligimiz asoslarini yaratib ketgan Temur bobomiz g‘ayrat-shijoati, yuksak aql-zakovati, tadbirkorligi, elparvarligi bilan bizga harnisha ibrat namunasi bo‘lib qolg‘usidir. Biz u zoti oliydan hamisha ruhiy madad olamiz”¹, – deb g‘urur bilan aytgan so‘zlari ham buyuk Sohobqironning bugungi istiqlol uchun qanchalik qimmatligini ko‘rsatadi.

Istiqlolning dastlabki yillari Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlashdan boshlanganligini, 1996-yilni “Amir Temur yili” deb e‘lon qilinganligi, bu to‘y nafaqat respublikada, hatto jahon miqyosida, YUNESKONing Parijdagi qarorgohida o‘tkazilishi ham Amir Temurning buyuk shaxs bo‘lganligini anglatadi. Bu zotning buyuk shaxs bo‘lganligini nafaqat o‘zbek xalqi, balki jahon ahli ham to‘liq bilishi lozim edi. Shu bois ham Amir Temur yubileyi Parijda o‘tkazilib, Prezident I.A.Karimov: “YUNESKONing Parijdagi qarorgohida Amir Temur bobomizning to‘ylarini o‘tkazishdan maqsad nima edi? Komil bu insonning, eng avvalo, buyuk davlat asoschisi, buyuk bunyodkor, ijodkor shaxs bo‘lganini, fan, madaniyatga homiylik qilib, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shganini olam ahliga bildirish edi”, – deb bejiz ta’kidlamagan edi.

¹ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – 15-b.

Amir Temurni o'z ko'zi bilan ko'rgan Ibn Arabshoh uni shunday tasvirlaydi: "Temur baland qadli, uzun bo'yli, tik qomatli, go'yo u qadimiy pahlavonlar avlodidan bo'lib, keng peshonali, katta boshli, g'oyatda kuchli va salobatli, ajoyib bo'lalik, rangi oq-u qizil yuzli, lekin dog'siz, ... qo'l-oyoqlari baquvvat, yelkari keng, barmoqlari yo'g'on, qaddi-qomati kamolga yetgan, yo'g'on ovoqli edi. U o'limdan qo'rqmas, hazil-mazax va yolg'onni yoqtirmas edi".¹

Amir Temur jahon tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk inson. Temur shaxsi mashhurligining boisi, negizi nimada? Ko'p tarixiy dalillar guvohlik beradiki, u xudojo'y, odil va orif oilada dunyoga kelib, yoshligidanoq yaxshi tarbiya ko'rgan. U tirishqoq, o'tkir zehni, e'tiqodi mustahkam, mehnatdan qochmaydigan bo'lib o'sgan. Hayot so'qmoqlarini barvaqt anglagan, voqealarni chuqurtahlil qila biigan va tegishli xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega bo'lgan. Sohibqiron davlat ishlarini maslahat-u mashvarat bilan olib borgan. Shu bilan birga u mustaqil fikrga ega bo'lgan mulohazakor siymo edi. U saltanat ishlari xususida fikr yuritar ekan, qudrat kuchda emas, adolatdadir, degan xulosaning teran ma'nosini anglagan. Katta iste'dod va salohiyat sohibi Temur jamiyat taraqqiyoti mazmunini, uning obyektiv qonunlarini va bu qonunlarni harakatga keltirish mexanizmini yaxshi anglagan buyuk davlat arbobi va mo'hir siyosatchi bo'lgan shaxs. Bunga ishonchli asos uning tuzuklaridir. Temur odamlar kayfiyatini, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqroq ko'ra bilgan qobiliyatli siymo. Xullas, Sohibqiron o'z faoliyatida iymon-e'tiqodga, aniq qonun-qoidalarga tayanib qattiqqo'llik bilan saltanatni idora qilishga intilgan siyosiy arbob.

Tarixni xalq yaratadi. Albatta, bu fikrda chuqur mazmun bor. Shu bilan birga, ma'lumki, jamiyatda katta burilishlar, jiddiy o'zgarishlar odatda yirik siymolar faoliyati, ularning zo'r tashkilotchilik qobiliyatiga bog'liq. Bu shaxsning xalq ommasini o'z g'oyalari atrofida birlashtirishi, ularni buyuk maqsadlar sari safarbar qila bilishi katta o'rin egallaydi. Amir Temur shunday rahnamolik xislatlariga ega bo'lgan dono hukmdor edi. Shu boisdan ham unga katta zafarlar yor bo'ldi.

Amir Temur butun umri davomida islomga qattiq e'tiqod qo'ydi. Bunday e'tiqodga ega inson hech qachon birovlarga shafqatsizlik qilmaydi. Ularning pand-nasihatlarini ham insonlarni ezgulikka chorlaydi.

Amir Temur o'zining "Tarjimai hol" asarida yozishicha, hayoti davomida quyidagi 12 nasihatga to'la rioya qilgan va ularni dasturulamal deb bilgan. Buni o'limi oldidan farzandlariga qilgan quyidagi nasihati ham tasdiqlaydi. "O'g'illarim, millatning rohati va saodatini saqlamoq uchun qoldirayotgan na-

¹ *Ibn Arabshoh*. Amir Temur tarixi. – T.: "Mehnat", 1992, 2-kitob. – 65-b.

sihat va tuzuklami yaxshi o‘qing, aslo unutmang va tatbiq eting. Aks holda o‘zaro nizolar vujudga kelgay, raiyat boshiga tashvish va nadomatlar ortib, mamlakat obodonligi barham topgay...”

Yuqorida zikr etilgan 12 nasihat matni quyidagilardan iborat:

1. Bunday sifatlarning eng avvali deb, men beg‘arazlikni hisobladim. Ham-maga ham men bir xil jiddiy va odil qarardim, hech kimni bir-biridan farq qil-masdim, boyni kambag‘aldan ustun qo‘ymas edim.

2. Men har doim din aqidalariga qat‘iy rioya qilardim va tangri taoloning amri bilan ulug‘langan shaxslarga hurmat bilan qarardim.

3. Men kambag‘allarga ko‘p ehson qildim: har bir mojaro va muammoni diqqat bilan tekshirdim va uni mumkin qadar yaxshi hal qilishga butun jah-dimni sarfladim.

4. Butun harakatimni umumiy foydaga qaratdim. Bunda birovga besabab ozor yetkazmadim va mendan yordam so‘rab kelganlarni ko‘kragidan itar-madim. Qur‘ondagi parvardigorning amri bandalar uchun vojibdir, degan ma‘nodagi barcha oyatlarni o‘zimga farz bilib, uqib oldim va umr bo‘yi bar-cha yumushlarimda ularga amal qildim.

5. Diniy masalalar bilan bog‘liq ishlarni men kundalik va dunyoviy ishlar-dan doimo yuqori qo‘yib keldim.

6. Men barcha so‘zlarimda haqiqatgo‘ylikka amal qildim: bu dunyo va u dunyo haqida eshitganlarimdagi haqiqatni yolg‘ondan ajrata bildim... har bir ishda adolat saqlashga va to‘g‘ri yo‘l tutishga umr bo‘yi harakat qildim.

7. Men hech qachon bajara olmaydigan va‘dani bermaganman. Bergan va‘damni to‘liq bajarayotib, hech bir kimsaga nohaqlik bilan ziyon yetkazmadim.

8. Men o‘zimni Ollohning yerdagi eng birinchi itoatkor bandasi, deb bildim va uning yoki payg‘ambarning amrisiz biror ishga qo‘l urmadim. Parvardi-gorning amrisiz yerda yashayotgan xalqlarning birortasiga ziyon yetkazmadim. Oliy martabadagilarga ham, fuqaroga ham birdek xayriyat qilishga intildim. Men hech qachon birovning mulkiga ega bo‘lishga intilmadim va shuningdek, hech qachon ko‘proq boylik orttirishga harakat qilmadim. Men hech qachon birovga hasad bilan qaramadim.

9. Men dinga har doim birdek qaradim. Tangrining amrini va payg‘ambar hadislarida aytganlarini to‘la ado etishga intildim. Men barcha qilmishlarimda shariat yo‘sinlariga butkul amal qildim va nopok ishlardan butun vujudim bi-lan o‘zimni tiydim. Payg‘ambarni va uning maslakdoshlarini o‘zimning yago-na va eng yaxshi do‘stlarim deb bildim.

10. Men islom bayrog'ini baralla ko'tardim va iymon tarqatishni o'z buyukligimning qudrati deb bildim. Men iymon bilan qudrat bir onadan tug'ilgan deb eshitganman. Shuning uchun mustahkam iymonga tayangan qudrat buyuk bo'ladur.

11. Men doimo sayyidlarga ehtirom bilan qarardim, ulamo va shayxlarni e'zozlardim. Bu kishilar, har doim mening majlisimda ishtirok etardilar. Ularning din masalalari yuzasidan aytganlarini men diqqat bilan tinglab olardim va aniq bajarardim. Shuning uchun menga nisbatan xalqning mehri baland edi va hamma mendan minnatdor edi.

12. Men o'zimning ikromiyatim va rahmdilligim tufayli kishilarning eng past tabaqalarining ham, hatto gadoylarning ham rahmatiga sazovor bo'ldim. Men butun jahdim bilan bu tabaqadagi kishilarning ahvolini osonlashtirishga harakat qildim.

Eshitganmanki, podshohlarning shuhrati ularning o'z fuqarolariga rahmdilligidadir. Eshitganmanki, xudo biror kimsani ulug'lash bilan rahmat ato etgan bo'ladi. Tangrining bunday rahmatiga erishgan kishi esa odil va rahmdil bo'lishi kerak. Men saltanat taxtiga o'tirishim bilan shu qoidalarga doimo amal qildim va bu sihatlarni o'zlashtirib oldim, – deb ta'kidlangan edi ushbu nasihatlarda.

Buyuk Sohibqironning boshqa hukmdorlardan farqli jihati shunda ediki, u harbiy yurishlarida ham vayronagarchiliklarga yo'l qo'ymaslikka harakat qilgan, hatto o'z qo'l ostiga o'tgan hududlarda bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgan. Urushlar tufayli ishdan chiqqan xalq xo'jaligini tiklashni, vayronagarchilikka chek qo'yishni, xalq chekkan aziyatlarni davolashni, garchand u g'olib kelgan bo'lsa-da, o'zining muqaddas burchi deb tushungan va unga to'laligicha amal qilgan. Hazrat Sohibqironning "Qay bir joydan bir g'isht olsam, o'rniga o'n g'isht qo'yirdim, bir daraxt kestirsam, o'rniga o'nta ko'chat ektirdim", – degan so'zlari bejiz aytilmagan, albatta.

Amir Temur Xurosonga yurish chog'ida (1381-yil) Murg'ob vodiysida to'xtab, qo'shirlarga ushbu daryodan ariqlar chiqarishni buyuradi. Qazilgan 16 ta ariq shu atrofdagi xalqlarga obi-hayot olib keladi. Rumaga yurish oldidan (1401) Qorabog'da qishlab turgan chog'ida esa, bir oyga yaqin muddat ichida Aras (Araks) daryosidan suv oladigan ariq qazdiradi. Barlos nomli bu ariq 80 km uzunlikda bo'lib, unda kemalar qatnovi ham yo'lga qo'yilgan.

1403-yilda mo'g'ullar istilosi davrida vayron etilgan Boylakon shahrini ham qayta tiklaydi. Hatto urush tufayli vayronaga aylangan, sharqning, islom dunyosining markazlaridan biri Bag'dod shahrini qayta tiklab, bir yil ichida shahar avvalgi qiyofasiga keltirilgan edi. O'z harbiy faoliyatida zo'ravonlik

qilish, boshqa mamlakatlarni bosib olish, odamlarga berahmlilik bilan ular boshida qamchi o'ynatish maqsadini qo'ygan emas. Uning harbiy siyosati davlatni boshqarishning boshqa sohalari singari asosan adolatga va bunyodkorlikka qaratilgan edi.

Ba'zi mamlakatlarda adolat poymol etilgan, hukmdorning xalqqa jabr-zulmi kuchaygan hollar ham Amir Temurni shu mamlakat hukmdorlariga qarshi yurish boshlashiga majbur etgan. Bunday qilish, o'sha mamlakatlarda adolat o'rnatib, xalq manfaatiga yo'l ochishlik uning amal qilgan g'oyasi hisoblangan. Bu xususda "Tuzuklar"da quyidagilarni o'qiymiz: "Biror mamlakatda jabr-zulm va fisq-u fasod kuchayib ketarkan, asl podshohlar adolat o'rnatish, fisq-u fasodni, zulmni yo'qotish niyatida ana shunday mamlakatga hujum boshlashi lozim. Tangri taolo shu niyatning sharofati bilan mamlakatni zolimning qo'lidan tortib olib, odil (podshoh)ga topshiradi".

Amir Temur o'z rejalarini amalga oshirish uchun urushlarsiz, qon to'kishlarsiz harakat tarafdori edi. Besabab biror yurtga qilich ko'tarib bormagan, imkon qadar munosabatlarni diplomatik yo'llar bilan hal etishga harakat qilgan. Munosabatlarni tinch yo'l bilan, diplomatiya usuli bilan hal etishni istamagan raqibga qarshi urush qilishga majbur bo'lgan. Bu xususda hazrat Sohibqiron hayotidagi harbiy yurishlarining sabablarini quyidagi ayrim misollar orqali ham bilib olish mumkin.

Amir Temur Misr hukmdori az-Zohir Sayfiddin Barquq (1390 – 1399) bilan diplomatik aloqalar o'rnatish borasida bir necha bor yozishmalar qilgan. Mana shunday bir sharoitda Ozarbayjon hukmdori Qora Yusuf (1389 – 1420) Amir Temur tomonidan Arzirun (Turkiyaning shimoli-sharqida joylashgan) shahri yaqinidagi Avnik qal'asiga hukmdor qilib qo'yilgan Otlamish qovchinni jangda asir olib, uni Misr sultoni saroyiga jo'natib yuboradi. Temur Barquqqa uni qaytarish borasida 20 dan ortiq xat yuboradi. Xatlarga qo'rslik bilan javoblar qaytaribgina qolmay, balki Temurning elchilari jazoga tortiladi. Buning ustiga Barquq Temur dushmani To'xtamish bilan ittifoq ham tuzadi. Bu xabarlar Temurni bu davlatga qarshi urush ochishiga majbur etadi.

Amir Temurning Turkiya sultoni Boyazid Yildirim (1389 – 1402) bilan to'qnashuvi ham ana shunday sabablar tufayli sodir bo'ldi. Iroqi arab hokimi va Ozarbayjon hukmdori Qora Yusuf Amir Temurdan yengilgach, qochib borib, Usmoniyilar saroyidan panohtopdilar. Amir Temur va Boyazid o'rtasida elchilar qatnab, maktublar almashindi. Maktublarda Amir Temur Iroqi arab va Ozarbayjon hukmdorlarini qaroqchilik va yo'lto'sarlikda ayblab, ularni tutib berish yoki mamlakatdan badarg'a etishni Boyaziddan talab qilgan. Boyazid esa bu talabni kamsitiv sifatida qabul qilib, Temurga o'ta qo'rs ohangda ja-

vob yoʻllagan. Bundan tashqari, Toʻxtamish bilan ham ittifoq tuzgan. Bu holatlar ikki oʻrtada urushni keltirib chiqargan va 1402-yilda Anqara jangi bilan yakunlangan.

Sohibqironning Hindistonga yurishi ham Hind hukmdorlarining mamlakat aholisiga va musulmonlarga nisbatan gʻayriqonuniy siyosatiga, ularning talonchiligi va Temur davlatiga xavfini yoʻqotish sababli edi. Bu haqda Sohibqironning Sherozda hukmdor boʻlib turgan nabirasi Pirmuhammadga yozgan xatidan ham bilish mumkin. Bu xatda ushbu sabab haqida shunday yoziladi: “...Bizning ulugʻ xotiramizga yetkazilgan xabarlarga qaraganda marhum sulton Feruzshoh ...vafot etgach, zarharit koʻllari Dehli va Islom diyoriga taalluqli boshqa joylarni uning farzandlariga bermasdan, gʻoratgarlik va talon-tarojni oʻzlariga shior qilib, tojirlarning kelishib-ketishi eshiklarini berkitib, qaroqchilikni chunon avj oldiribdilarki, xarobgarchilik qilish imkoni boʻlgan biror daqiqani bekor oʻtkazmas ekanlar”.

Amir Temurning buyuk davlat arbobi ekanligi yana shunda koʻrinadiki, u oʻz saltanatiga qoʻshib olgan mamlakatlarni idora etish uchun tayinlanadigan kishilarga qoʻyiladigan talablar tizimini ham ishlab chiqqan edi. Bunday rahbarlar Sohibqiron talabiga koʻra quyidagi fazilatlariga ega boʻlishlari lozim boʻlgan:

1. Oliyjanob tabiatli va ruhiy holatining koʻtarinkiligi.
2. Nozik aql va ziyraklik.
3. Yuksak malaka hamda xalq va qoʻshinlarga murojaat qila bilish.
4. Sabr-toqat va odamlar bilan murosaga kelmoq.

Bu qoida va talablar hokimiyatni idora etishda va uni mustahkamlashda muhim oʻrinni egallagan.

Amir Temurning davlat yuritish ishlarini oʻta pishiqligini uning “Barcha ishlarimning toʻqqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini esa qilich bilan bajo keltirdim”, deb aytgan ibratomuz soʻzlaridan ham bilib olish mumkin.

Amir Temur oʻz hayoti va faoliyati davomida shunday buyuk xizmatlar qildiki, uni dunyo xalqlari bugungacha yodda saqlaydilar. Uning Oʻrta Osiyo tarixi va jahon tarixidagi oʻrni va roli beqiyosdir.

AMIR TEMURNING BUYUK XIZMATLARI

Amir Temurning O'rtasiyoda tutgan o'rni va roli	Amir Temurning jahon tarixida tutgan o'rni va roli
<p>1. Amir Temur tarix sahnasiga chiqib, O'rtasiyoda bir yarim asrlik mo'g'ullar zulmiga chek qo'ydi.</p> <p>2. U 1370 – 1388-yillarda O'rtasiyoni birlashtirib, markazlashgan qudratli davlat tuzdi. Uning davrida o'zbek davlatchiligi o'zining yuksalgan pallasini boshdan kechirdi.</p> <p>3. U o'zining donoligi, buyuk davlat arbobi va sarkardaligi bilan jahonni lol qoldirib, xalq va yurt nomini dunyoga tanitdi.</p> <p>4. Uning shaxsan o'zi ilm-fan va madaniyatga homiylik qilib, ilm-fan va madaniyat rivojiga, O'rtasiyoda 2-uyg'onish (renessans) ro'y berishiga imkon yaratdi.</p>	<p>1. Amir Temur qayerni egallasa, u yerda bunyodkorlik ishlarini olib bordi.</p> <p>2. 1395-yilda Oltin O'rdani tor-mor etish bilan Rossiyani mo'g'ullar zulmidan ozod etdi.</p> <p>3. 1402-yilda Turkiya sultoni Boyazidni tor-mor qilib, Yevropa xalqlarini bosqinchilik va talonchilikdan xalos etdi.</p> <p>4. Buyuk ipak yo'li savdosi rivojiga va qator mamlakatlar bilan diplomatik aloqalar o'rnatishga o'z hissasini qo'shish bilan jahon taraqqiyoti rivojiga ham xizmat qila oldi.</p>

Buyuk Sohibqironning xizmatlari va buyukligi haqida ko'pgina davlat arboblari, yozuvchi, olim-u fuzalolar ham o'z fikrlarini bayon etganlar. Quyida ularning ayrimlarini keltirishni lozim topdik:

“Amir Temur shaxsini idrok etish – tarixni idrok etish demakdir.

Amir Temurni ulug'lash – tarix qa'riga chuqur ildiz otgan tomirlarimizga, madaniyatimizga, qudratimizga asoslanib, buyuk kelajagimizga ishonchimizni mustahkamlash demakdir”.

“Amir Temur avvalo qudratli davlat qurgan. Davlat qudratli bo'lmasa, betakror ma'naviy meros ham, obidalar ham, tarixiy yodgorliklar ham bo'lmasdi. O'zbekistonning bugungi ozodligini mustahkamlash davrida Amir Temur biz uchun buyuk davlat asoschisi sifatida qadrlidir. U davlat poydevorini qurgan, davlatning huquqiy asoslarini barpo etgan. Uning davlatchilik borasidagi fikrlari nafaqat o'z davri, balki kelgusi avlodlar uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Amir Temur o'z davlatini aql-zakovat va huquqiy asos bilan idora etgan. Uning “Davlat ishlarining to'qqiz ulushini kengash, tadbir va

mashvart, qolgan bir ulushini qilich bilan amalga oshirdim”, degan soʻzlari buning yorqin dalilidir”.

“Siyosatda maslahat, mulohazakorlik, oʻylab ish qilish qurol kuchidan oʻn barobar foydaliroqdir”, degan dono soʻzlar Amir Temurga mansubdir. Bu soʻzlar hozirgi tilda nizoli masalalarni siyosiy muloqot, ogohlantiruvchi diplomatiya yoʻli bilan hal qilishni bildiradi.

Amir Temurning tarixiy xizmati yana shundan iboratki, uning harakatlari tufayli Osiyo va Yevropa davlatlari tarixda birinchi marta yagona-jugʻrofiy-siyosiy makonda ekanliklarini his etdi”.

“Buyuk strateg, mohir siyosatchi, eskirgan ijtimoiy munosabatlarning qatʼiy islohotchisi, savdo-sotiq, hunarmandchilik va madaniyatning homiysi boʻlgan Amir Temur “Qonunlar va urf-odatlarga asoslangan” davlatni barpo etdi”.

Islom Karimov

“Yevropa na Iskandarda, na Atilada va na Moskoviya zafarini quchgan yangi fotih Napoleon-da adolatli qonunlar asosiga qurilgan bunday boshqaruvni bunyod etgan emas”.

Alfons de Lomartin

“...uning adolati-yu siyosati oʻrnatilgan kunlarda Movarounnahrning eng chekka joylaridagina emas, balki Xoʻtan chegarasidan Dehli va Kanboyit atrofigacha, Bobil Abvobdan to Misr va Ruma hududigacha boʻlgan yerlardan savdogarlar u yerda tursin, bolalar-u, beva xotinlar ham ipakli matolar, oltin-kumush va eng zarur tijorat mollari keltirardilar va olib ketardilar. Hech bir kimsa ularning bir doniga ham koʻz olaytira olmaydi va bir dirhamiga ham ziyon yetkazmaydi. Bu cheksiz neʼmat va poyonsiz marhamatlar Amir Sohibqironning siyosati va adolati natijasidandir”.

Nizomiddin Shomiy

Maʼnaviy ildizlarimizning bir boʻlagi Amir Temur va temuriylar maʼnaviyati hisoblanadi. Bu maʼnaviy manba insoniyat tarixida tengi yoʻq markazlashgan davlatchilikka, qonunchilikka asos solganligi sababli ham ahamiyatli.

Temur va ayrim temuriy shahzodalar (Shohrux, Ulugʻbek, Bobur)ning adolat uchun kurashi nafaqat yurtga osoyishtalik va tinchlik keltirdi, balki shu

yurtning iqtisodiy va ma'naviy rivojiga imkon ham yaratdi. Bunday imkon yurt va xalq nomini ikkinchi bor dunyo miqyosida tarannum etdi.

O'zbek xalqi Sohibqironning "Kuch – adolatda" shiori barcha davrlar uchun bo'lganidek, bugungi kunda ham jaranglab turuvchi shiorga aylanganligini shohidi bo'lib turibdi.

Prezident I.A.Karimov: "...davlatchiligimiz asoslarini yaratib ketgan Temur bobomiz g'ayrat-shijoati, yuksak aql-zakovati, tadbirkorligi, elparvarligi bilan bizga hamisha ibrat namunasi bo'lib qolg'usidir. Biz u zoti oliydan hamisha ruhiy madad olamiz"¹, – deb g'urur bilan ta'kidlagan edi. Shuningdek, Amir Temurning "Kuch – adolatda" shioriga bugungi kun taraqqiyoti nuqtayi nazaridan qo'shimcha qilib, "Kuch – bilim va tafakkurda" shiorini ilgari surdi. Bu shiorlar bugungi milliy davlatchilik rivojida ham adolat, bilim, tafakkur muhim omil bo'lib xizmat qilishi lozimligini ko'rsatib turibdi.

Tayanch so'z va iboralar:

XIV asr birinchi yarmidagi vaziyat. Yurtni mustaqil qilish zarurati. Amir Temur yoshligi. Siyosat maydoniga chiqishi. Tug'luq Temur. Ilyosxo'ja. Amir Husayn. Loy jangi. Sarbadorlar. Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishi. O'rta Osiyoni birlashtirish. Markazlashgan davlat. "Kuch – adolatda" shiori. Iqtisodiyot. Soliq tizimi. Harbiy yurishlar. Temur vafoti. Temuriylar davlatida ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Shohrux. Mirzo Ulug'bek. Madaniyat. Moddiy madaniyat. Fan. Me'moriy-madaniy obidalar. Ulug'bek ilmiy merosi. Alisher Navoiy. Zahiriddin Muhammad Bobur. "Temur tuzuklari". Amir Temur shaxsi va uning buyukligi.

Bilimingizni sinab ko'ring

1. Amir Temur yoshligidanoq barcha fanlarga qiziqqan, o'z ustozlari boshchiligida turli tariqatlar ta'limoti bilan oshno bo'lib, ma'naviyat ummoniga sho'ng'igan. U mashhur orif Shayx Mahmud Shabistariyning kitobini qunt bilan o'qib, uning irfoniy g'oyalaridan g'oyat ta'sirlanadi.

Temurni g'oyatda ta'sirlantirgan kitobning nomini toping.

				a		
--	--	--	--	---	--	--

	o	
--	---	--

¹ Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: 1998. – 15-b.

2. Samarqanddagi sarbadorlar g'alabasidan so'ng Amir Temur va Amir Husaynlar Samarqand yaqinidagi joyda sarbadorlar rahbarlari bilan uchrashadilar. Bu joyning nomini toping.

			i		i	
--	--	--	---	--	---	--

3. Amir Temur Xorazmni Movarounnahrning tarkibiy qismi deb hisoblardi. Biroq, bu hududni Oq O'rda va Oltin O'rda qo'llab-quvvatlar edi. Amir Temur markazlashgan davlat tuzish maqsadida Xorazmni ham birlashtirishga kirishdi. Bu paytda Xorazm hokimiyati tepasida turgan hukmron sulola Temurga bo'ysunishni istamay, o'rtada bir necha marta urushlar sodir bo'ldi.

Bu paytda Xorazmda kimlar hukmronlik qilayotgan edi?

		n			r		
--	--	---	--	--	---	--	--

	o'			l	a	r	i
--	----	--	--	---	---	---	---

4. Amir Temur davlatida bugungi oliy sud funksiyasini bajaradigan bir lavozim bo'lgan. Bu lavozimga fiqh va boshqa ilmlardan keng ma'lumotga ega bo'lgan kishilardan qo'yilgan. U qozilarning faoliyatini ham nazorat qilib turgan. Qozi qabul qilgan qaror yoki ajrim faqat uning tasdig'idan so'ng kuchga kirgan. Bu lavozim qanday nom bilan atalgan?

		l		
--	--	---	--	--

5. Amir Temur Turkiya sultonini mag'lub etib, o'rniga uni o'g'lini Turkiya sultoni etib tayinlaydi. Amir Temur Boyazidni yengish bilan Yevropani vayronalik va zulmdan saqlab qoldi. Bu g'alaba sohibqironning yana bir buyuk, ulug'langan nom bilan atalishiga sabab bo'ldi. Yevropa xalqlari Amir Temurni qanday nom bilan ulug'laganlar?

			o		
--	--	--	---	--	--

		l				o		
--	--	---	--	--	--	---	--	--

6. Ba'zi mamlakatlarda adolat poymol etilgan, hukmdorning xalqqa jabr-zulmi kuchaygan hollar ham Amir Temurning shu mamlakatlar hukmdorlariga qarshi yurish boshlashiga majbur etgan.

Bu zotning zarurat asosida qilgan harbiy yurishlari ham ulkan bir savob ishning, adolat o'rnatish, iskanjaga olingan xalqqa ozodlik berish bilan birgalikda elni nima qilishining taqozosi bilan amalga oshirilgan?

				u	
--	--	--	--	---	--

q	i	l	i	sh
---	---	---	---	----

7. Rus olimi D.Logofet Temur davri tizimiga baho berib: “Yevropada konstitutsiya haqida tushunchaga ega bo‘lishmagan bir davrda ana shu Temur davlatida konstitutsion qonunlar majmuasi mavjud bo‘lgan va amal qilgan”, deb yozgan edi. D.Logofet Temur davlatidagi “konstitutsion qonunlar majmuasi” deganda nimani nazarda tutgan edi?

			i	
--	--	--	---	--

			i			a			n	i
--	--	--	---	--	--	---	--	--	---	---

8. Ulug‘bek otasi Shohrux Mirzo sog‘lig‘ining yomonlashuvi bilan taxt uchun kurashlar boshlanadi. Bu kurashlarda Ulug‘bekning onasi Gavharshodbegim muhim rol o‘ynab, nabiralarni bir-biriga qarshi gij-gijlaydi. U Xuroson taxti uchun nabirasi Sulton Ibrohim Mirzoni hukmdor Sulton Abu Saidga qarshi isyon ko‘tarishga undaydi. Bundan xabar topgan Abu Said malikani o‘ldirishni buyuradi. 1457-yilda Gavharshodbegim Sulton Abu Saidning farmoni bilan qanday o‘lim topgan?

	o		i	
--	---	--	---	--

	a			a		g	a	n
--	---	--	--	---	--	---	---	---

9. Amir Temur barpo ettirgan o‘ndan ortiq bog‘lar orasida bir bog‘ boshqa bog‘larga nisbatan go‘zalligi bilan ajralib turgan. Bu bog‘ 1397-yili Samarqand yaqinidagi Konigil vohasida barpo etilgan.

Bu bog‘ Sohirqironning mayliga javob berganligi, uning bu bog‘da doimo yayraganligi sababli bog‘ning nomi ham shunga moslab qo‘yilgan. Bu bog‘ning nomini toping.

			i	
--	--	--	---	--

	i			u		
--	---	--	--	---	--	--

10. Mirzo Ulug‘bekning Samarqandda qurdirgan rasadxonasi dunyo miqyosida akademiya sifatida tan olingan. Shuningdek, Ulug‘bekning Samarqandda qurdirgan madrasasi 1420-yillarda ish boshlab, o‘sha davr ilm-fani, ma‘rifati rivojiga beqiyos hissa qo‘shdi.

Ulug‘bek madrasa mudarrisligiga ilmi odam izlaganda, madrasa qurilishida qatnashayotgan bir kishi “mudarrislikka men munosibman” degan edi. U imtihon qilinib, haqiqatda bu lavozimga loyiqligi aniqlanadi.

Ulug‘bek madrasasiga birinchi mudarris etib tayinlangan bu olim kim edi?

	a			n	
--	---	--	--	---	--

	u					a	
--	---	--	--	--	--	---	--

			o		i	
--	--	--	---	--	---	--

VIII BOB. O‘ZBEKISTON HUDUDLARINING XONLIKLARGA BO‘LINIB KETISHI, UNING SABABLARI VA OQIBATLARI

Mavzu rejası:

1. Shayboniylar va Ashtarxoniylar hukmronligi davrida Movarounnahr.
2. Shayboniylar va Ashtarxoniylar hukmronligi davrida boshqaruv tizimi. Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot.
3. Xiva xonligi.
4. Qo‘qon xonligi.
5. Buxoro amirligi.
6. Xonliklar va amirlikdagi boshqaruv tizimi. Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot.

1. SHAYBONIYLAR VA ASHTARXONIYLAR HUKMRONLIGI DAVRIDA MOVAROUNNAHR

Ma‘lumki, XIV asr boshlariga kelib, 1236-yilda Botuxon tomonidan asos solingan Oltin O‘rda davlati ikki qismga bo‘linib ketdi va uning sharqiy qismida Oq O‘rda davlati tashkil topdi. Ayrim tarixiy manbalarda bu hududlar “O‘zbeklar mamlakati” deb ham eslatiladi. XV asrning o‘rtalariga kelib Sharqiy Dashti Qipchoq hududlarida Jo‘jixonning beshinchi o‘g‘li Shaybon urug‘idan bo‘lgan Abulxayrxon ko‘chmanchi o‘zbeklar davlatiga asos soldi va Movarounnahrdagi o‘zaro kurashlardan foydalanib Sirdaryoning o‘rta oqimidagi bir qancha shaharlarni, Xorazmning bir qismini bosib olishga erishdi.

Manbalarning (Mulla Shodi, “Fathnoma”) ma‘lumot berishicha, 864-hijriy (1459-1460) yilda Abulxayrxonning katta o‘g‘li Shohbudoq Sulton vafot etadi. Undan qolgan sakkiz yoshli Muhammad va besh yoshli Mahmud uyg‘ur Boyshayx ko‘kaldosh tarbiyasiga beriladi. Shohbudoqning katta o‘g‘li Muhammad Shohbaxt keyinchalik Shayboniylar davlatiga asos solgan va u iste‘dodli shoir va sarkarda, zamonasining o‘qimishli kishilaridan bo‘lgan.

XV asrning so‘nggi choragiga kelib temuriy shahzodalar o‘rtasidagi toj-taxt uchun o‘zaro kurashlar avj olib, ko‘pgina mulk va viloyatlar, xususan, Farg‘ona, Hisor, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xorazm o‘zlarini mustaqil hisoblab, ko‘p hollarda bir-birlari bilan kurash olib borar edi. Shuning uchun ham Movarounnahrdagi temuriylar saltanati amalda mustaqil boshqariladigan

kichik-kichik viloyatlarga bo‘linib ketdi, Shayboniyxon esa bunday vaziyatdan ustalik bilan foydalanishga harakat qildi.

Temuriylar o‘rtasidagi sulolaviy urushlar, keyinroq esa Shayboniyxon qo‘shinlarini qo‘llab-quvvatlashda Toshkent mulki zodagonlari katta rol o‘ynadi. 1485-yilda Toshkent hokimiyatini mashhur diniy arbob Xoja Ahror yordamida Yunusxon egallagan bo‘lsa, uning vafotidan so‘ng o‘g‘li Mahmudxon (1487–1503) Toshkent taxtiga o‘tirdi. Mahmudxon temuriylarga qarshi kurashda Shayboniyxon ittifoqini umid qilgan bo‘lsa-da, niyatiga yeta olmadi. 1494-yilda Samarqand hukmdori Sulton Ali Mirzo vafot etgach, temuriylar o‘rtasidagi nizolar yanada kuchayib ketdi. Bundan foydalangan Shayboniyxon 1497 va 1499-yillarda Samarqandga hujum uyushtirib, ikki marta qamal qildi.

1500-yilda Andijon hukmdori Bobur Mirzo Samarqandga yurish qildi, ammo Shayboniyxon undan oldinroq harakat qilib, shaharni qamal qildi va shahar hokimi Sulton Ali bilan kelishib, uni egalladi. Boburning Samarqandni egallash borasidagi harakatlari zoye ketdi. Bunga qadar Shayboniyxon Buxoroni ham qo‘lga kiritgan edi. Shundan so‘ng Shayboniyxon 1503-yilning bahorida asosiy qo‘shinlari bilan Toshkent hokimi Mahmudxon va Farg‘ona hokimi Ahmadxonlarga qarshi yurish qilib, Toshkent viloyatidagi Shohruxiya va boshqa ko‘pgina qal‘alarni bosib olishga erishdi. Farg‘onadagi Arxian qal‘asi yonida bo‘lgan shafqatsiz jangda Mahmudxon halok bo‘ldi va Toshkentda qoldirilgan o‘g‘li Muhammad Sulton Shayboniyxon qo‘shinlari yaqinlashishi bilan Toshkentdan qochib ketdi.

Toshkentga mustahkam o‘rnashib olgan Shayboniyxon qo‘shinlarining katta qismi uning ukasi Mahmud Sulton boshchiligida Xorazmga yurish boshladi. Kat va Buldumsoz qal‘alarini egallab, bu hududlardagi bir qism aholini majburan Buxoroga ko‘chirishga buyruq beradi. 1505-yilda o‘n oylik qamaldan so‘ng ko‘chmanchi o‘zbeklar Urganch shahrini egallaydilar.

Shayboniyxonning o‘zi katta qo‘shin bilan 1504-yilda Hisor viloyatiga yurish qildi. Bu paytdagi Hisor viloyatining hokimi Xusravshoh ancha katta harbiy kuchga ega bo‘lsa-da, dushmanga jiddiy qarshilik ko‘rsata olmadi. Buning natijasida Hisor viloyati barcha tog‘li tumanlari bilan birga Shayboniyxon ixtiyoriga o‘tdi va Qunduz, Tolqon, Badaxshon hamda Balx ishg‘ol etildi.

Shayboniyxonning markazlashgan davlat tuzish yo‘lidagi asosiy raqiblaridan biri Dashti Qipchoqdagi qozoq sultonlari edi. XVI asrning boshlarida qozoq sultonlari uning janubga qilgan harbiy yurishlaridan foydalanib Movarounnahrda bir necha marta bosqinchilik urushlari uyushtirib, Buxoro va Samarqandni talon-taroj qiladi, aholini asir qilib olib ketadi. 1509-yilda Shayboniyxon qozoq sultonlari Jonish Sulton, Burunduqxon va Qosim Sultonlarga qattiq zarbalar berib,

buning natijasida Sig' noq Yassi, Savron shaharlarini qayta qo'lga kiritadi hamda Turkistondagi Xo'ja Ahmad Yassaviy maqbarasini ta'mirlashga buyruq beradi. U 1509-yilning yozida Marvni egallaydi, natijada Dashti Qipchoq, Xorazm, Movarounnahr va Xurosonning katta qismi uning qo'l ostida birlashtiriladi. Marv shahrini egallagach, Eronning ichki viloyatlariga yurish qiladi hamda Mashhad va Tus shaharlarini egallab, ulardagi muqaddas joylarni ziyorat qiladi, ba'zi me'moriy inshootlarni ta'mirlashga buyruq beradi, so'ng Shoh Ismoil asos solgan Safaviylar davlatiga xavf sola boshlaydi.

1510-yilda Erondan orqaga qaytgan Shayboniyxon uning izidan katta kuch bilan yetib kelgan Eron shohi Ismoil Safaviy qo'shinlari bilan jangga kirishadi. Marv yaqinida bo'lib o'tgan bu jangda Shayboniyxonning kam sonli qo'shinlari¹ mag'lubiyatga uchraydi hamda zamondoshlari tomonidan "Xalifa ur-Rahmon va Imom az-Zamon" deb ulug'langan Muhammad Shohbaxt Shayboniyxon bu jangda halok bo'ladi.

Marv yaqinidagi g'alabadan so'ng Shoh Ismoil Shayboniylarga qarshi kurashda temuriy shahzoda Zahiriddin Bobur bilan ittifoqchilikni taklif etdi. Undan tashqari, Shayboniyxon o'limidan keyinroq o'zbek sultonlari orasida boshlangan kelishmovchiliklar davlatni zaiflashuviga olib keldi hamda shayboniylar keyingi janglarda mag'lubiyatga uchray boshladilar. Natijada Xuroson va Xorazm boy berildi. Bobur 1511-yilda Shoh Ismoil qo'shinlari yordamida shayboniylar qo'l ostidagi Hisor, Ko'lob, Qunduz, Badaxshon va Qarshi yerlarini egallab, Samarqandni ham uchinchi marta qo'lga kiritdi. Movarounnahrni butunlay qo'lga kiritish niyatida bo'lgan Boburga Safaviylarning tajribali sarkardasi Najmiddin Soniy boshchiligidagi 12 ming qo'shin kelib qo'shildi.

Boburning ittifoqchilari, shia mazhabidagi eroniy qizilboshlilarning² talon-tarojlari (ayniqsa, Samarqand va Qarshi shaharlarida) tufayli mahalliy aholi Boburni qo'llab-quvvatlamadi. Bobur va eroniylarning birlashgan qo'shinlari bilan Shayboniylar o'rtasidagi hal qiluvchi jang 1512-yilning noyabrida G'ijduvon yaqinida bo'lib o'tdi. Mazkur jangda Shayboniyxonning jiyani, Sulton Mahmudning o'g'li Ubaydulla Sulton tomonidan ittifoqchilar qo'shini tor-mor etildi. Bu mag'lubiyatdan so'ng Bobur Movarounnahrdan butunlay

¹ Ibn Ruzbehonning ma'lumotlariga ko'ra, Shayboniyxon 1509-yilda qo'shinlarining asosiy qismini orqaga qaytarib yuborgan. Bu bilan u Movarounnahrdagi siyosiy barqarorlikni saqlash hamda qozoq sultonlarining yangi bosqinlarini oldini olishni ko'zlagan bo'lishi ehtimoldan holi emas.

² Safaviylarning asosiy tayanch kuchi bo'lgan turk ko'chmanchilari XV asrning 2-yarmida "qizilboshlilar" deb atalgan. Bu harbiy ko'chmanchilar shia imomlari sharafi-ga boshlariga 12 ta qizil chiziqli salla o'rab yurganlar.

chiqib ketdi va Qobul hamda uning atroflarida o'z hukmronligini to'la mustahkamladi. 1526-yilning boshida Bobur Hindistonga yurish boshladi va u yerdagi Ibrohim Lo'diyning qo'shinlaridan ustun kelib, yangi saltanat – Boburiylar saltanatiga asos soldi. Bu saltanat Hindistonda 332-yil (1526 –1858) hukmronlik qildi.

Muhammad Shayboniyxonning vafotidan so'ng davlatdagi markaziy hokimiyat anchagina zaiflashdi. Beklar (amirlar) va sultonlarning ko'pchiligi Shayboniyxondan keyingi bir nechta xonlarga nomigagina bo'ysundilar. Shayboniyxonning jiyani Sulton Mahmudning o'g'li Kuchkunchixon (1510–1530) taxtga o'tirdi. Aynan uning davrida sultonlarning mustaqilligi kuchaya borib, ular orasida Buxoro mulki hukmdori Ubaydulla Sultonning obro'yi ancha baland edi. Kuchkunchixonidan keyingi hukmdor Abu Sa'id (1530–1533)ning qisqa hukmronligi davrida Movarounnahr va Xurosonda markaziy hokimiyat zaiflashdi, amir va sultonlar o'rtasidagi nizolar yanada kuchaydi. Bu paytda Xorazm mustaqil davlat bo'lib ajralib chiqdi va Turkiston yerlari parchalana boshladi.

O'zaro urushlarga birmuncha barham berishga erishgan Ubaydullo Sulton 1512-yilda Buxoro hukmdori bo'lgan bo'lsa, 1533-yildan butun markazlashgan o'zbek davlatining oliy hukmdori etib saylandi. Ubaydullaxon poytaxtni Samarqanddan Buxoroga ko'chirdi. O'sha paytda Samarqand hukmdori Abdulla Sulton ham Ubaydullaxon hokimiyatini tan olishga majbur bo'ldi.

XVI asrning 40-yillariga kelib yirik zodagonlar va sulolalar o'rtasida Movarounnahrning poytaxt shaharlari va mulklari uchun o'zaro kurashlar yana avj oldi. Hukmdor xonadoni vakillari o'rtasida, ayniqsa, Buxoro va Samarqand uchun kurash kuchaydi. Bu davrda Samarqandda Abdulatifxon (1541–1552), Buxoroda esa Abdulazizxon (1540–1550) hukmronlik qilib, har ikkalasi ham o'zini rasmiy xon deb hisoblar edi.

O'zaro hamda sulolaviy kurashlar davom etayotgan bir sharoitda Shayboniyxonning nabirasi Muhammad Yorsulton bir necha oy taxtni boshqarganidan so'ng, amaldagi hokimiyat Baroqxon (Navro'z Ahmadxon 1551–1556) qo'lga o'tdi. Toshkent va Sirdaryo bo'yidagi shaharlar hukmdori Navro'z Ahmadxon Buxoroda o'z hokimiyatini tan oldirish uchun Samarqand va Movarounnahrning boshqa shaharlariga bir necha marta yurishlar qilib turdi. 1556-yilda u vafot etgach, Balx hukmdori Pirmuhammadxon (1556–1561) Buxoro taxtiga o'tiradi. Shunga qaramasdan, 1556-yilda Axsi va Andijon mulki hukmdorlari Buxoroni egallashga harakat qilib ko'rdilar. Ammo, o'sha paytda juda katta nufuzga ega bo'lgan jo'ybor shayxi Xo'ja Islom tomonidan qo'llab-quvvatlangan shayboniy Iskandar Sultonning o'g'li Abdulla Sulton

bunga yo‘l qo‘ymadi. Pirmuhammadxon Balxda qolib taxtni boshqarayotgan, uning nomiga xutba o‘qitilib, tangalar zarb etilayotgan bo‘lsa-da, 1557-yildan Buxroda Abdulla Sulton hukmronlik qila boshlaydi.

Mustaqil mulklar va yirik zodagonlarning o‘zaro urushlaridan ularning o‘zlariga qarshi foydalangan Abdullaxon II asta-sekinlik bilan Movarounnahr va Xuroson yerlarini o‘z hokimiyati ostiga birlashtira boshladi. Uning bu harakatlarini jo‘ybor shayxlari Xo‘ja Ismoil hamda uning o‘g‘li Xo‘ja Sa‘dlar faol qo‘llab-quvvatlab turdi. 1561-yilda Abdullaxon II Pirmuhammad aloqalarni uzdi va otasi Iskandar Sultonni (1561–1583) xon deb e‘lon qildi. Iskandar Sulton nomigagina xon bo‘lib, mamlakatni boshqaruv ishlariga deyarli aralashmas, hokimiyat amalda Abdullaxon II qo‘lida edi. 1583-yilda Iskandar Sulton vafot etgach, Abdullaxon II rasmiy xon deb e‘lon etildi.

Shayboniy hukmdorlari orasida Abdullaxon II o‘zining qat‘iyatligi, yaxshi siyosati va sarkardalik qobiliyati bilan ajralib turadi. U markazlashgan shayboniylar davlatini tiklash maqsadida bebosh va o‘zlarini mustaqil hisoblaydigan amirlar, sultonlar, mulklar hukmdorlari bilan tinimsiz kurash olib borishga majbur bo‘ldi. Tinimsiz urushlar natijasida 1573-yilda Farg‘ona, 1574-yilda Shahrisabz, Qarshi, Hisor viloyatlari, 1578-yilda Samarqand, 1582-yilda Toshkent, Shohruxiya, Sayram, Ohangaron, 1583-yilda Balx, 1584-yilda Badaxshon, 1588-yilda Hirot va uning atroflari, 1595-yilda Xorazm Abdullaxon II hokimiyati ostiga birlashtirildi. Tinimsiz urushlardan charchagan joylardagi mahalliy aholi ko‘p hollarda Abdullaxon II ning markazlashtirish siyosatini qo‘llab-quvvatlar edi.

Abdullaxon II ning uzoq yillik olib borilgan urushlardan so‘ng butun Movarounnahr, Hisor, Xurosonning katta qismi, Xorazm va Turkistonni qo‘lga kiritib, Shayboniyxon tuzgan davlatni qayta tiklashga erishdi. Ammo, hududiy jihatdan juda katta bo‘lgan bu davlat siyosiy jihatdan o‘ta mustahkam emas edi. Bu davlatning kuch-qudrati hokimiyat tepasida turgan hukmdorning shaxsiy fazilatlariga suyanar hamda unda mustahkam davlatchilik tizimi yaratilmagan edi. Aynan shuning uchun ham 1598-yilda Abdullaxon II vafot etgach, oradan qisqa muddat o‘tib qiyinchiliklar va jangu jadallar natijasida tiklangan bu davlat inqirozga yuz tutdi, hokimiyat tepasiga boshqa sulola vakillari – Ashtarxoniyalar keldi.

XV asrning boshlarida Oltin O‘rda (Jo‘chi ulusi) zaiflashib, parchalinish xavfi kuchayadi. Natijada XV asrning 30-yillarida Volgabo‘yi yerlarida Astraxon xonligi yuzaga keladi. Ashtarxon “Astraxan”ning o‘zbek tiliga moslanganidir. Ashtarxon aslida “Hoji Tarxon” so‘zidan olingan. Tarxon turkiy tilli xalqlar hayotida imtiyozli unvonlardan hisoblanib, mashhur Hazar xoqonligi (VII–X) davridanoq qo‘llanilgan.

Qanday qilib turkiy tilli xalqlarga tegishli yerlardan Hoji Tarxon Ast-raxanga aylangan? 1552-yili Rossiya Qozonni bosib olgandan so'ng, 1554-yili Ashtarxon xonligiga qarshi yurib, g'olib bo'ladi va taxtga mahalliy su-lolalik Darveshalini o'tqazadi. Maqsad uni qaramlikda tutib, xonlikni o'z ta'siridan chiqarmaslik edi. Ammo ko'p o'tmay bu hukmdor ham Moskvaga bo'ysunishdan bosh tortgach, 1556-yili ruslar katta qo'shin bilan yana bostirib kelib, xonlikni butunlay yo'q qilib, bu yerlarni Rossiya mulki deb e'lon qiladi-lar. Aynan shu yillarda bu bosqindan so'ng Yormuhammadxon farzandlari va ahli ayoli bilan Movarounnahrqa qochib keladi.

Shayboniy hukmdorlar Yormuhammad va uning oilasini hurmat bilan kutib oladi va ularga izzat ko'rsatadi. Abdullaxon II ning otasi Iskandar sulton Yormuhammad bilan yaqin munosabatda bo'ladi, Yormuhammadning o'g'li Jonibekka qizi Zuhrabonuni turmushga berib, o'zaro aloqalarni qarindosh-lik iplari bilan mustahkamlaydi. Mazkur nikohdan keyinchalik Dinmuham-mad, Boqimuhammad va Valimuhammadlar tug'iladi. Xullas, Yormuhammad va uning avlodlari shayboniylar xonadonining eng yaqinlari va tayanchlari-dan biriga aylanib, oliy hukmdorga xizmat qila boshlaydi. Ularning ham mavqelari oshib, oxiri yuqorida aytilganidek, mamlakatdagi e'tiborli vilo-yat – Samarqandni boshqarishga erishadi. Hatto, Boqimuhammad oliy taxtni shayboniylardan tortib olishga ham muvaffaq bo'ladi. Shu bilan mamlakatda ashtarxoniyalar sulolasining bir yarim asrlik hukmronlik faoliyati boshlanadi.

Boqimuhammadxon (1601–1605) mamlakat siyosiy yaxlitligini ta'min-lashga muhim e'tibor qaratdi. Chunki shayboniy Pirmuhammadxon davrida zaiflashib qolgan markaziy hokimiyat sulolalar almashuvi natijasida yanada kuchsizlanib, Marv, Xorazm, Balxdagi siyosiy kuchlarning boshboshdoqligi boshlangan edi. Chunonchi, Abdullaxon II ning sa'y-harakatlari bilan Buxoro ixtiyoriga kiritilgan Xorazm uning o'limidan so'ng turkmanlar yordamida yana itoatsizlik yo'liga o'tadi. Manbalarda yozilishicha, mahalliy sulola va-kili Hojimuhammadxon (1558–1602) tez orada Amudaryodan Ashtarxon va Manqishloqqacha bo'lgan hududda o'z hukmini o'rnatishga erishadi. Boqi-muhammadxon bunga befarq qarab turolmasdi. Ammo Buxoro va Xorazm o'rtasidagi nizo oqsoqollar aralashuvi natijasida tinchlik bilan hal etiladi. Endi Boqimuhammad Hisor yurishi bahonasida Balx tomon yurish (1602) uyushti-radi va Balx bilan birga Anxud, Shibirg'on, Chechaktu, Maymana, Faryob-Murg'ob daryosigacha bo'lgan yerlarni hamda Bag'lon, Badaxshon, Hisorni ham Buxoroga bo'ysundiradi. O'zining ukasi Valimuhammadxonni valiahd deb e'lon qilib, uni Balxga hukmdor etib tayinlaydi.

Boqimuhammad Balxga yurish qilganida unga qarshi bo'lgan ayrim sul-tonlar Eronga shoh Abbos I (1587–1629) huzuriga qochadi. Ular eronliklar

yordamida yana Balxga (1603) yuradi va ular yana yengiladi. Boqimuhammad 1605-yilda vafot etadi, taxtga valiahd Valimuhammad (1605–1611) o‘tiradi. 1606-yilda Balxdan qochgan sultonlar yana Balxga (eronliklar yordamida) hujum qiladilar va yana mag‘lub bo‘ladilar. Eron shohi Abbos I endi ishni diplomatiya yo‘li bilan hal etishga kirishadi. Chunonchi, u Valimuhammadxon qarorgohiga elchi yuborib, o‘zaro qo‘shnichilik va do‘stlikni taklif qiladi. Valimuhammadxon rozi bo‘lib, o‘zi ham Eronga elchilar yuboradi. Bundan, Xuroson uchun ko‘p mashaqqat chekkan va qon to‘kkan bir qator yirik buxorolik amaldorlar Valimuhammadxonning mazkur siyosatidan norozi bo‘la boshlaydi. Chunki, elchilik almashuvlari natijasida Xurosonda tiklangan Buxoro mavqeyi osongina qo‘ldan chiqib boshlagan edi. Bu holat buxorolik amirlarni Valimuhammadxonga nisbatan beixlos qilib qo‘yadi. Xon esa norozi amaldorlarni bir qanchasini jazolaydi. Qolganlari esa endi ochiqdan-ochiq qarama-qarshilikka borib Valimuhammadxonning jiyani, Samarqand hokimi bo‘lib turgan Imomqulixonni oliy taxtga o‘tqazish harakatiga tushadi. Bu harakatlar 1608-yili boshlangan bo‘lsa, nihoyasida Valimuhammadxonning Eronga shoh Abbos oldiga qochishi bilan tugaydi. Buxoro taxtiga Imomqulixon chiqadi. Valimuhammadxon 1611-yili shoh Abbos bergan yordam natijasida Buxoro taxtini qayta egallashga erishadi, ammo 1611-yil oktabrda Imomqulixon bilan Samarqand atrofidagi navbatdagi to‘qnashuvda halok bo‘ladi. Shunday qilib, mamlakat taxtiga Imomqulixon (1611–1642) o‘tiradi.

Imomqulixon davrida mamlakatda imkon qadar osoyishtalik hukm surdi. Uning davrida faqat Toshkent va Andijonga xavf solib turgan qozoq va qalmaqavmlarining xurujlari qaytarib turildi. Mamlakat tashqi ahvolidan bir oz yaxshilanishi ichki hayotning ham yaxshilanishiga sabab bo‘ldi.

Imomqulixon so‘nggi yillarda ko‘zi ojiz bo‘lib qolgani sabab ukasi Nodirmuhammadni Balxdan chaqirtirib taxtni unga topshirdi. Boshda buxorolik bir qator amirlar, amaldorlar xonning ushbu qaroridan norozi ham bo‘ldi. Buni sezgan Nodirmuhammadxon taxtga chiqqanidan so‘ng ishni yirik amir va amaldorlarga kattadan-katta sovg‘a-salom ulashishdan boshlaydi. Ularning ko‘nglini olarnan deb, o‘sha zamon tarixchisi mubolag‘asi bilan aytganda, bor topgan-tutganini sarf qilib yuboradi. Bundan tashqari, mamlakat viloyatlarini taqsimlashga ham kirishadi. Mulk taqsimoti, amir-u amaldorlarni siylash kabi ishlar bilan bir qatorda Eron, Hindiston hukmdorlari, qozoq va qoraqalpoq qavmlari boshliqlariga elchilar yuborib, do‘stlik va qo‘shnichilik rishtalarini mustahkamlash niyatida ekanini bildiradi. Ayni shu paytda Nodirmuhammadxonga Xorazmdan ham xushxabar keladi. U yerda 1623–1643-yillarda Asfandiyorxon hukmron bo‘lib, bu xon o‘limi oldidan o‘g‘illariga Buxoro

hokimiyati (ashtarxoniyalar)ni tan olishni vasiyat qilgan edi. Farzandlar bu vasiyatga amal qilib, xonlik poytaxtida Nodirmuhammadxon nomidan xutba o'qitib, Buxoro hokimiyatini tan oladi. Ular Nodirmuhammadxondan o'z noibini yuborishini ham iltimos qiladi. Iltimos bajariladi.

Dastlabki yillarda amirlar bilan kelishish yo'lini tutgan Nodirmuhammadxon endi o'zini mustahkamlab, amirlarni cheklash yo'liga o'tadi. Ayniqsa, uning o'sha davrning eng qudratli siyosiy arbobi Yalangto'shbiy bilan teskariligi unga qarshi harakatlarga sabab bo'ladi.

Nodirmuhammadxonning to'ng'ich o'g'li Abdulazizni, ya'ni otadan so'ng xonlikka da'vogar birinchi shaxsni, odatga ko'ra Balxga emas, Samarqandga tayinlashi ham uning yana bir xatosi edi. Balxga esa avval boshqa farzandi – Subhonqul sultonni tayinlab, lekin tez orada unga Yalangto'shbiydan tortib olingan Kahmerdni beradi. Balx mahalliy hukmdorsiz qoladi. Maqsad Nodirmuhammadxon Balxdagi hokimiyatni ham Buxoro bilan qo'shgan holda o'z ixtiyorida mujassamlashtirmoqchi bo'lgan bo'lishi mumkin. Bularning barchasi unga qarshi fitna uyushtirilishiga olib keladi va fitnachilar poytaxtdan yiroqda, Balxga tayinlanmaganidan norozi bo'lib yurgan Abdulaziz sultonni xon deb e'lon qiladi. Nodirmuhammadxon bundan xabar topib Balxga qochishga majbur bo'ladi.

Shunday qilib, 1645-yildan boshlab mamlakatda ikki hukmdorlik boshlanadi. Buxoroda Abdulazizxon, Balxda esa Nodirmuhammadxon. Balxni boshqargan Nodirmuhammadxon oliy taxtni qaytarib olish ilinjida ko'ziga hech narsa ko'rinmay, Boburiylardan yordam so'rab murojaat qiladi. Ular esa paytdan foydalanib, qo'shin tortib ikki yil davomida (1646-1647) Balx va Badaxshonda hukmronlik qiladi. Aldangan Nodirmuhammadxon Eronga yuzlanadi. Balx va Badaxshonda hukmronlik qilgan Boburiylar 1647-yilning oktabridagina bu yerlarni tark etgan va Nodirmuhammadxon yana Balxni egallagan.

Buxorodagi hukmdor Abdulazizxon Balxni poytaxt ixtiyoriga olishga bir necha bor (1655–1657) harakat qilgan, biroq, u yerdagi ukasi Subhonquli sulton ham bo'sh kelmay, 1681-yilgacha Balx mustaqilligini saqlab kelgan.


Bu kurashlardan charchagan Abdulazizxon 1681-yili taxtni ukasi va valiahd Subhonquli sultonga topshirib, hajga jo'naydi. Subhonqulixon (1681–1702) mamlakatni nisbatan uzoq boshqargan bo'lsa-da, mazkur yigirma yil davomida u ham Balx masalasi bilan shug'ullanishga majbur bo'lgan. Balxga bir necha marotaba o'z o'g'illarini tayinlagan va bir necha marotaba fitnalar tufayli shahzodalar qurbon bo'lgan. Bu holat markaziy hokimiyatning Balxdagi mavqeyi nihoyatda zaiflashib ketganini va mahalliy siyosiy kuchlarning,

xususan, yirik amirlarning nufuzi oshib borganini ko'rsatadi. Buni 1688 –1697-yillar davomida Balx hukumatining yirik amirlaridan Mahmudbiy ixtiyorida bo'lganligi ham isbotlaydi.

Buning ustiga, mamlakat g'arbida ham notinchlik hukm surgan. Chunonchi, xorazmlik Anushaxon (1664–1686) ashtarxoniyar hududlariga hujumlar uyushtirib, talon-tarojlik qilish bilan shug'ullangan. Masalan, 1684-yilning yozida hatto Samarqandni egallashga erishib, bu yerda o'z nomidan xutba ham o'qitgan va faqat kelasi yil kech kuzidagina Subhonqulixon uni bartaraf eta olgan.

Mamlakatdagi ichki ziddiyatlar keyingi ashtarxoniy hukmdor Ubaydullaxon (1702–1711) davrida yana kuchaygan. Yirik amir va mahalliy hokimlar mavqeyi esa tobora oshib borgan. Xullas, 1711-yili Ubaydullaxon ham suiqasd qurboni bo'ladi. Bunday ahvol amaldagi so'nggi ashtarxoniy hukmdor Abulfayzxon (1711–1747) zamonida ham davom etadi. Yana o'sha Abulfayzxonning boshboshdoqlik, mahalliy kuchlar va nufuzli amirlarning o'z manfaati yo'lida intilishlarini bartaraf etishga kuchi yetmaydi. Bu jarayon shu darajada chuqurlashib ketadiki, hatto 1736-yili Eronda hukmronlik qila boshlagan yangi Afshoriylar sulolasi (1736 –1748) namoyandasi shahzoda Rizoquli mamlakatga bostirib kirganda, ular vaqtincha birlashgan bo'lsalar-da, dushman chekinishi bilan yana eski holatlariga qaytadilar.

Umuman bu davrda mamlakatning ichki va tashqi ziddiyatlari, aholi turmush sharoitining og'irligi, to'lov va majburiyatlarning ko'pligi xalq kun kechirishini qiyin ahvolga solib qo'ygan. Bu holatlar albatta, xalqning hokimiyatga qarshi bosh ko'tarishlariga sabab bo'lgan.



Eron afshoriylar sulolasining yana bir hukmdori – Nodirshoh 1740-yili Movarounnahrda bostirib kelib, ashtarxoniyarlarga so'nggi zarbani beradi. Gar-

chi bu shoh Abulfayzni o'z o'miga xonlik kursisida qoldirgan bo'lsa-da, amalda hokimiyat boshqa bir mahalliy sulola – mang'itlar namoyandalari Muhammad Hakimbiy va uning o'g'li Muhammad Rahim ixtiyoriga o'tadi. Xuddi shu Muhammad Rahim buyrug'i bilan 1747-yili Abulfayzxon qatl qilinib, marhumning o'g'li Abdulmo'minsulton xon deb e'lon qilinadi. Ammo amaldagi hokimiyat Muhammad Rahim ixtiyorida qolaveradi. Bir yil o'tib, Muhammad Rahim bu qo'g'irchoq xonni ham o'ldirtirib, o'rniga nabirasi Ubaydulla sultonni o'tqazadi va tez orada uni ham yo'q qiladi. Shu tariqa ashtarxoniylar sulolasi faoliyati uzil-kesil barham topib, hokimiyat Muhammad Rahim qo'liga o'tadi.

2. SHAYBONIYLAR VA ASHTARXONIYLAR HUKMRONLIGI DAVRIDA BOSHQARUV TIZIMI. IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY HAYOT

Shayboniylar davlati boshqaruvi oldingi faoliyat yuritgan davlatlar boshqaruvidan bir oz farq qilgan bo'lsa, ashtarxoniylar esa shayboniylardagi ko'pgina boshqaruv lavozimlarini o'zlashtirganlar. Ularda dargoh va uning atrofidagi xizmatlar mavqeyi kuchli bo'lib, ijroiya hokimiyatidagi devonlar faoliyati bir oz chegaralangan. Shayboniylar hukmronliklari yillarida ham eng oliy davlat idorasi **dargoh** hisoblangan. Uning tepasida tabiiy ravishda oliy hukmdor – xon turgan. Oliy hukmdorlik otadan bolaga emas, balki suloladagi eng ulug' yoshdagi namoyandaga o'tishi tartibi dastlabki shayboniylar davrida saqlangan bo'lsa-da, asosan XVI asrning 40-yillaridan boshlab sulola ichidagi oilaviy an'ana ustun chiqa boshlagan. Abdullaxon II davriga kelib esa, bu holat aniq bir shaklga tushgan (bu yerda rasmiy hokimiyatni Iskandarxondan o'g'li Abdullaxonga va Abdullaxondan o'g'li Abdulmo'minga o'tgani nazarda tutilmoqda). Shunga qaramay, shayboniylar sulolasidagi davomiylik masalasi so'nggi paytgacha muayyan shaklga ega bo'la olmagan.

Shayboniylarda, ayniqsa, Abdullaxon II davrida valiahdga Balx viloyatini sovg'a qilish udum tusiga kirgan. Bu udum keyingi ashtarxoniylar sulolasi hukmronligida ham davom etgan.

Oliy davlat idorasi – Dargohdagi xondan keyin turuvchi **naqib** lavozimi bo'lib, u tarjimada sardor, boshliq, yetakchi ma'nosini anglatgan. U xonning eng yaqin va ishonchli kishilaridan hisoblangan. Rasmiy qabul marosimlarida uning oliy hukmdordan chap tomondan birinchi bo'lib joy olishi ham bu mansabning dargohda tutgan yuksak maqomini bildirgan. Xonning farmon, yorliqlarida naqibning nomi birinchi bo'lib zikr etilgan. U davlatning ichki va

tashqi siyosati hamda harbiy masalalarda oliy hukmdorning birinchi maslahatchisi sifatida qaralgan. Masalan, 1570-yili Buxoroda yana bir bor o'z hokimiyatini tiklarkan, buxoroliklar tomonidan o'rtaga solingan mashhur Qosim shayx Azizon (vafoti 1578-yil) bilan muzokaraga Abdullaxon II o'z naqibini yuborgan. Harbiy yurishlarni uyushtirish, davom ettirish, dushman harbiy imkoniyatlarini o'rganish yumushlarini ham xon unga yuklagan, uning maslahati bilan qaror qabul qilingan. Shuningdek, ularga mas'uliyatli elchilik vazifalari ham yuklatilgan. Siyosat va mafkura jilovini dargoh doirasida tutib turish, mafkuraviy hayot tizginini butunlay tariqatlar ixtiyorida mujassamlashishining oldini olish maqsadida naqib lavozimiga asosan payg'ambar avlodlari hisoblanmish sayyidlar xonadoniga mansub kishilar tayinlangan.

Saroyda **otaliq** lavozimi ham bo'lib, bu lavozim markaziy hokimiyatning joylardagi, ya'ni viloyat (mulk)lardagi siyosatini belgilashda katta ahamiyat kasb etgan. Zero, oliy hukmdor viloyatlarni sulola namoyandalari – shahzodalararo taqsimlab berar ekan, ularga ota o'rnini bosuvchi, ya'ni o'z nazoratchisini, ishongan shaxsini otaliq qilib tayinlagan. Ayniqsa, balog'at yoshiga yetmagan shahzodalar viloyatlarga tayinlangan hollarda, ular to'ulg'ayib mustaqil faoliyat ko'rsatish darajasiga yetgunliklariga qadar, davlat ishlarini boshqarishdek og'ir yuk otaliq mansabdagilar zimmasiga yuklatilgan. Amalda ular butun bir viloyat taqdirini, uning markaz bilan munosabatlari qanday bo'lishini ham hal etib kelganlar.

Hukmdor chiqargan hukmlar, yorliqlar va boshqa rasmiy hujjatlarni o'z egalariga, ijrochilarga yetkazuvchi **parvonachi** lavozimi bo'lgan. Dargohdagi tushgan arzlarni qabul qilish, javobini berish hamda mamlakatdagi ijtimoiy adolat tartiblariga rioya qilishning nazorati dodxoh zimmasiga yuklatilgan. Shuningdek, **dodxoh** elchilarni qabul qilish, elchilik yumushlarini tashkil etish va hatto elchi sifatida boshqa mamlakatlarga borib kelish vazifasini ham bajarar edi.

Dargohda **ko'kaldosh** lavozimiga oliy hukmdorga va rasmiy sulolaga eng yaqin kishilar qo'yilgan. Odatda bu mansabga hukmron sulolaning biron vakili bilan bir onani emganlar qo'yilgan. Demak, u dargohning eng ishonchli kishilaridan hisoblanib, unga topshiriladigan vazifalar ham shu qadar nozik va mas'uliyatli bo'lgan. Bir so'z bilan aytganda, mazkur maqom vazifasi mamlakatda oliy hukmdor olib borayotgan siyosat daxlsizligi, unga kishilarning munosabatlari bilan bog'liq yumushlardan iborat edi. Masalan, Abdullaxon II va Abdulmo'min o'rtasidagi qarama-qarshilikni bartaraf etishda, Abdulmo'min harakatlari va maqsadlarini oldindan bilib, xonga to'g'ri ma'lumot berishda shu mansabdagi Qulbobo asosiy o'rinni egallagan. Xuddi shuning uchun ham

Abdulmo‘min taxtga chiqqandan so‘ng Qulbobodan qutulish uchun uni qatl ettirgan.

Sud ishlari tizimiga **bosh qozi** yetakchilik qilgan bo‘lsa, harbiylar hayotida yuz beradigan huquqiy masalalarni **askar qozisi** hal qilgan. Harbiy qozi ham, mahalliy qozilar ham bosh qoziga bo‘ysungan. Mamlakatdagi axloqiy normalarga rioya qilish, ayniqsa, amaldorlar, hatto din peshvolari orasidagi shu masalaga munosabat nechog‘ligini bilib borish ishi bilan **muhtasib** (rais) shug‘ullangan. Dargoh faoliyatida katta mavqega ega **Shayxulislom** lavozimi davlat va jamiyat mafkuraviy hayotidagi o‘rni favqulodda katta bo‘lgan. Abdullaxon II ni taxt uchun kurashda qo‘llab-quvvatlagan hoja Islom ham ana shunday yuksak maqomda edi. Din peshvolari va muassasalari nafaqat ijtimoiy hayotda, balki iqtisodiy munosabatlarda ham o‘z mavqelarini yo‘qotmagan. Shu sababdan ham vaqf mulklari bilan shug‘ullanuvchi maxsus xizmatlar joriy etilgan bo‘lib, ularni mamlakat miqyosida **bosh sadr**, joylarda esa sadrlar boshqarganlar.

Ashtarxoniylar davri boshqaruv tizimida ham hokimiyat tepasida dargoh turgan. Shayboniylar davridagi ko‘pgina lavozimlar bu davrda ham saqlangan. Lavozimlar orasida **otaliq** mansabining mavqeyi kuchayib borgan. Chunonchi, bu mansab XVI asrda asosan joylardagi boshqaruv tizimi bilan bog‘liq bo‘lsa, ashtarxoniylar zamonida, ayniqsa, Abdulazizxondan boshlab, uning markazdagi mavqeyi kuchayib boradi. Masalan, Abdulazizxon Buxoro taxtiga chiqqach, poytaxtdagi bu vazifani Yalangto‘shbiyga, ya‘ni o‘sha paytdagi eng zabardast amirga taklif qilgan. Ootaliq mavqeyi Subhonqulixon davrida ham baland bo‘lib, eng muhim harbiy ishlar (masalan, xivaliklarning Buxoroga tahdidini qaytarish, Xuroson yurishi) unga yuklatilgan. Bunday holat Ubaydullaxonning dastlabki hukmronlik yillari ham saqlanib qolgan.

“Ubaydullanoma” asarida XVIII asr boshlaridagi ootaliq vazifasining mohiyatiga “umdat al-umaro”, ya‘ni amirlar tabaqasining tayanchi, deb ta‘rif beriladi. Demak, bu lavozimdagilar o‘z davrida mamlakatdagi amirlar sinfining yetakchisi, ularning ishonchini qozonganlaridir.

Ashtarxoniylardan Ubaydullaxon va Abulfayzxon davrida qushbegining ham mavqeyi kuchli bo‘lgan. Aniqrog‘i, shu mansabdagi shaxsning mavqeyi ko‘tarilishi bilan u egallab turgan lavozim ahamiyati ham yuksalgan. Chunonchi, To‘raquli qushbegiboshi mansabga tayinlash va unvon berish, xon yorlig‘isiz shaxsan yozma ko‘rsatmalar tarqatish, oliy qabullarda o‘z xohishiga ko‘ra ishtirok etish kabi imtiyozlarga ega bo‘lgan.

Saroyda yana bir mansab – **saroy qutvoli** bo‘lib, u mamlakatda davlat xazinasi hisobiga amalga oshirilgan qurilish, obodonchilik ishlariga javobgar

sanalgan. Masalan, 1709-yili Ubaydullaxon bu lavozimda turgan Xoja Boltuga poytaxt atrofida chorbogʻ barpo etishni buyuradi. Xoja Boltu ishga kirishib, muhandislar, meʼmorlar, ustalar, mardikorlar, hasharchilarni jalb qilib, katta chorbogʻ va uning oʻrtasida ajoyib va hashamatli saroy ham qurilishiga boshchilik qiladi. Mablagʻni esa oliy hukmdor beradi.

Shayboniylar davrida iqtisodiyotda dehqonchilikka muhim eʼtibor berilib, sugʻorish ishlari rivojlantirilgan. Zarafshon, Chirchiq, Sirdaryo, Amudaryo, Vaxsh, Murgʻob daryolari imkoniyatlaridan keng foydalanilgan. Muhammad Shayboniyxon 1502-yili Zarafshon daryosining Oqdaryo va Qoradaryoga ayrilishi yerida koʻprik – suv ayirgichini qurdirgan. Abdullaxon II davrida esa sugʻorish ishlari yanada kengaygan. Bu davrda Zarafshon daryosida Karmana koʻprigi (Puli Karmana) – suv ayirgichi, Nurota togʻlaridagi Oqjob suv ombori, Zarafshon suvini taqsimlovchi Mehtar Qosim, Chahorminor, Jondor koʻprik suv ayirgichlari va yana bir necha oʻnlab kanallar bunyod etilgan.

Shayboniylar davrida mulkiy munosabatlarda deyarli oʻzgarishlar boʻlmagan. Taʼkidlash joizki, Dashti qipchoqdan kelgan oʻzbeklar yangi yer egaligi munosabatlarini olib kelmadilar, balki temuriylar davrida shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy tizimni qabul qilib, unga moslashdilar.

Yerga egaligining mulki sultoniy (davlat yerlari), mulki xolis (xususiy yerlar), vaqf (diniy mahkamalarga qarashli yerlar) va qishloq jamoalari egalik qiladigan yerlari kabi asosiy turlari boʻlib, ular suyurgʻol, tanho, jogʻir koʻrinishda boʻlgan. Davlat oldidagi xizmatlari uchun harbiy-maʼmuriy amaldorlarga va yirik din arboblari beriladigan bunday yerlarda yersiz dehqonlar ishlab, ular davlatga ham, amaldorlarga ham soliq toʻlab turganlar. Shuningdek, bu davrda davlat oldidagi xizmati uchun amaldorlarga inʼom qilingan **“iqto”** yer turi boʻlgan.

Shayboniylar davrida 40 dan ortiq soliq turlari boʻlib, xiroj va zakotdan tashqari, tagjoy, juzʼya, ixrojat, togʻar, ulufa, qoʻnalgʻa, begar, madadi lashkar, boj, tuhfa nomlari bilan atalgan soliq turlari va yasoq deb ataluvchi majburiyatlar boʻlgan. Soliq toʻlovchi aholi fuqaro (raiyat) deb atalgan.

Bu davrda ham tikuvchilik (paxta, ipak matolar), kulolchilik, temirchilik, qurolsozlik, zargarlik, duradgorlik, qogʻoz, qurilish ashyolari ishlab chiqarish kabi qator sohalar faoliyat koʻrsatib, ichki va tashqi bozorda sotiladigan turli turdagi mahsulotlar tayyorlangan. Bu mahsulotlar (ipak, jun, ip gazlamalar, pilla, gilam, quruq mevalar, shirinliklar, qorakoʻl va boshqalar) bilan savdogarlar Eron, Hindiston, arab oʻlkalari, Xitoy va XVI asrning 50-yillaridan boshlab Rossiya kabi oʻlkalarga qatnaganlar.

Shayboniylar XVI asr oʻrtalarigacha yuqorida nomlari keltirilgan oʻlkalar bilan (Rossiyadan tashqari) birgalikda Astraxan, Noʻgʻay va Qozon xonlari bi-

lan ham savdo aloqalarini olib borgan. Bu xonliklar XVI asr 50-yillarida Rossiya tomonidan bosib olingach, endi Rossiya bilan savdo aloqalari o'rnatilgan.

Shayboniylar me'morchilik ishlarida ham o'zlaridan qator yodgorliklar qoldirgan, turli maqsadga mo'ljallangan qurilish ishlarini amalga oshirishgan. Bu borada nafaqat sulola namoyandalari, balki o'z davri-ning ko'zga ko'ringan va katta moddiy imkoniyatga ega kishilari ham chetda qolmagan. Chunonchi, Samarqanddagi Muhammad Shayboniyxon qurdirgan Xoniya, Abu Sa'id, Qulbobo Ko'kaldosh nomi bilan bog'liq madrasalar; Buxoroda shahar devorining ta'mirlanishi, Mir Arab, Abdullaxon, Modarixon (Abdullaxon onasiga atalgan), Gavkushon, Jo'ybor, Fathulla qushbegi, Muhammadxoja Porso, Marokan, Qulbobo Ko'kaldosh (Ko'kaldosh) madrasalari, Kalon, Hoja Zayniddin, Baland, Abdullaxon, Chor Bakr (xonaqosi bilan) masjidlari, Toshkentda Ko'kaldosh madrasasi, Qaffoli Shoshiy maqbarasi, Baroqxon madrasasi; Turkistonda (Yassi) Muhammad Shayboniyxon masjidi; Karmanada Qosim shayx masjidi; Balxda qal'a devorining ta'miri (uzunligi taxminan 14 km), Abdullaxon, Qulbobo Ko'kaldosh (Ko'kaldosh) madrasalari, Hirotidagi Ko'kaldosh madrasalari; turli shaharlarda qurilgan ko'plab karvonsaroylar, hammomlar, bozorlar va boshqa qator qurilish, ta'mirlash ishlari shular jumlasidandir. Manbalarda yozilishicha, birgina Abdullaxon II davrida mintaqada 1001 ta rabot va sardobalar (usti berk suv ombori) qurilgan ekan.

Shayboniylarning aksariyati o'qimishli bo'lganligi sababli ilm-fan va madaniyatga e'tibor berilgan. Chunonchi, Muhammad Shayboniyxon, Kuchkunchixon, Ubaydullaxon, Rustam Sulton, Abdulazizxon, Javonmardali Sulton kabi shayboniylar turkiy va forsiyda she'rlar bitgan, diniy va dunyoviy ilmlarda yetarli salohiyatga ega bo'lgan. Muhammad Shayboniyxon yoshligida ta'limni Buxoro madrasasida olgan. Ubaydullaxon musiqa ilmiga katta rag'bati bo'lgan, musiqiy asboblarni chalgan, nozik husnixat egasi bo'lgan. Abdullatifxonning tarix, ilmi nujum borasida salohiyati juda yuqori edi. Abdullaxon II diniy ilmlardan ko'plab ta'lim olgan. Abdulazizxon va Abdullaxon II ga tegishli kutubxonalar o'z zamonasining eng yirik kitob xazinalari hisoblangan, ularda qo'lyozma asarlarni ko'chirish, ta'mirlash, ularga bezaklar ishlash bilan ham shug'ullanilgan. Tarix ilmi ko'p rivoj topgan. Bu davrda "Tavorixi guzida", "Nusratnoma", Mulla Shodiyning "Fathnoma", Abulloh Nasrullohiyning "Zubdat al-asor", Fazlulloh Ro'zbehonning "Mehmonnomayi Buxoro", Zayniddin Vosifiyning "Badoye al-vaqoe", Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" nomli tarixiy asarlari yaratilgan.

Bu davr tarixini o'rganishda Binoiy va Muhammad Solihlar tomonidan yozib qoldirilgan "Shayboniynoma" nomi bilan ataluvchi ikki tarixiy asar ham muhim o'rin tutadi.

Ashtarxoniyalar davri ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ham shayboniylar kabi sun'iy sug'orishga e'tibor qaratilgan. 1614-1615-yillari Imomqulixon buyrug'i bilan Qashqadaryodan Qarshi cho'liga kanal chiqarilib, natijada bir qator qishloqlar va qarovsiz yerlar obod bo'lgan. 1633-1634-yillari Qo'shqo'rg'onda ham uning buyrug'i bilan kanal qazilgan.

Dehqonchilikning barcha sohalari (g'allachilik, paxtachilik, polizchilik, pillachilik, bog'dorchilik) o'z rivoj yo'lidan borgan. O'sha paytlarda bug'doyning yigirma xili bo'lganligi haqida manbalarda yoziladi.

Hunarmandchilikda ham ilgarigidek an'anaviy yo'nalishlar: to'quvchilik, temirchilik, qurolsozlik, duradgorlik, zargarlik, kulolchilik kabilar mavjud bo'lgan. Tayyor mahsulotlar (ipak, ipak kiyimlar, ip gazlama, qog'oz, taqinchoqlar, quruq mevalar, qimmatbaho toshlar) ichki va tashqi bozorda sotilgan. Biroq, mazkur sohalardagi rivoj siyosiy beqarorlik yillari ancha susaygan. Masalan, Ubaydullaxon davrida markaz mavqeyining susayishi, dargohdagi tartibning izdan chiqishi natijasida davlat xazinasi ancha bo'shab qolgan. Uni qoplash niyatida pul islohoti o'tkazilgan. Ammo natija teskari bo'lib chiqqan. Do'kondoru shirkatlar ishini to'xtatib savdo qilmay qo'yadi. Xalq noroziligi boshlanadi. Ammo xon qattiq turib orqaga qaytmagan.

Madaniy hayotda hukmron sulola namoyandalari, siyosiy va harbiy arbob bilan birga o'z davrlarining yetuk ilm egalari ham bo'lgan. Ularning barchasi turkiydan tashqari fors va arab tillarini bilgan, shu tillarda xat yozgan, dunyoviy va diniy ilmlardan chuqur bilimlarga ega bo'lgan. Imomqulixon, Nodirmuhammadxon, Subhonqulixonlar she'rlar yozgan. Masalan, Subhonqulixon "Nishoniy" taxallusi bilan ijod qilgan.

Ashtarxoniy hukmdorlardan biri – Abdulazizxon "Aziziy" taxallusi bilan she'rlar yozgan. Bu xon nasx va nasta'liq xatlarida yozishni, maktub va insho mashqini zamonasining eng kuchli allomalaridan o'rgangan. Keyinchalik taxtga chiqqanda, Hindiston, Eron va Rumba xoh turkiy, xoh forsiyda bo'lsin, noma bitilarkan, ularni o'zi tahrir qilib, yoqmasa boshqatdan shaxsan o'zi yozar ekan.

Bu davrda ilm-fan, san'at, me'morchilikda qilingan ishlar haqida ma'lumotlar qolgan. Hukmdorlar tomonidan qurdirilgan Buxoroda Abdulazizxon, Ubaydullaxon madrasalari, Boqimuhammadxon, Ubaydullaxon masjidlari, Subhonqulixon Registonda qurdirgan hovuz va Buxorodagi kasalxona (Dor ush-shifo), Balxda Nodirmuhammadxon, Subhonqulixon madrasalari, Balx arkidagi imoratlar, jome masjidi, hazrati Ali mozoridagi gumbaz hamda

Imomqulixon Madinada qurdirgan chorbogʻ, Nur togʻidagi hovuz, Makkada Kaʼbaga kiraverishdagi darvozalardan biri ostonasi uchun ishlatilgan oltin va kumush yogʻoch zinalar haqida maʼlumotlar tarix sahifalaridan oʻrin olgan. Bunday savobli ishlarni amiru amaldorlar ham bajarishgan. Chunonchi, XVII asrda Xivada Arabmuhammadxon, Hojamberdi, Shergʻozixon madrasalari, Buxoroda Poyandabiy otaliq masjidi, Shodimbek, Nazr devonbegi madrasalari, Bozori gusfand madrasasi, Samarqandda Yalangtoʻshbiy qurdirgan Sherdor, Tillakoriy madrasalari qurilish, meʼmorchilik ishlariga eʼtibor qaratilganligini bildiradi.

Samarqandda Yalangtoʻshbiy qurdirgan madrasalar bugungi kunda ham shaharning Registon maydonida koʻrk berib turibdi.

XVII asrda ijod qilgan olim-u fozillar, shoirlar, tarixchilar ham kam boʻlmagan. Chunonchi, 1692-yili Muhammad Badi Samarqandiy tomonidan bitilgan tazkirada shu asrda yashagan 165 ta ijodkorning nomi tilga olinadi. Tarixiy manbalarda ham bunga doir guvohliklar bor. Soqiy, Yusuf Qorabogʻiy, Turobiy, Nahliy, Muhammad Balxiy, Turdiy, Sayido Nasafiy, Qosimxoja Samarqandiy, Fitrat, Mulham, Soʻfi Olloyor, Mashrab shular jumlasidandir.

Ashtarxoniyalar hukmronligi yillari tarixnavislik borasida “Musaxxir al-bilod”, Abulgʻozi Bahodirxonning “Shajarayi turk”, xoja Samandar Termiziyning “Dastur al-muluk”, Muhammad Yusuf Munshiyning “Muqimxon tarixi”, Mir Muhammad Amin Buxoriyning “Ubaydullaxon tarixi”, Abdurahmon Tolening “Abulfayzxon tarixi” kabi asarlari xuddi mana shu davrda yozilgan.

Bu davrda tibbiyot ilmi, ayniqsa, Subhonqulixon davrida rivoj topgan. Zero, xonning oʻzi bu sohaga katta ragʻbat bilan qaragan. Yuqorida tilga olingan “Dor ush-shifo”ning ochilishi bekor boʻlmagan, albatta. Bu maskanda kishilarni davolash bilan birga tadqiqot ishlari ham yuritilgan. Diqqatga sazovori shundaki, xonning oʻzi ham bu tadbirlarda qatnashib “Ixyo at-tibbi Subhoniyy” asarini tayyorlagan. Sakkiz bobdan iborat bu risolada turli kasalliklarga qarshi dori-darmonlar xususida soʻz boradi.

Shayboniyalar davrida tashqi siyosiy aloqalar ancha murakkab boʻlgan. Bu eng avvalo, Eronda safaviylar va Shimoliy Hindistonda boburiylar (temuriylar) hokimiyatining oʻrnatilishi bilan bogʻliq. Bir soʻz bilan aytganda, Turkiston, Eron, Shimoliy Hindistondan iborat ulkan hududda bir vaqtda oʻziga yarasha qudratga ega uch siyosiy kuch: shayboniyalar, safaviylar va boburiylar faoliyat yurgizgan. Ularning Xuroson hududi boʻyicha manfaatlari doimo toʻqnash kelgan. Bu hudud esa siyosiy-harbiy va iqtisodiy-savdo jihatlaridan muhim ahamiyat kasb etgan. Shu bois ushbu hudud Turkiston, Eron, Hindiston yoʻnalishlaridagi darvoza rolini oʻynagan.

Boburiylar va safaviylar ham turkiy harbiy-siyosiy kuchga suyanishgan. Ammo ulardan farqli o'laroq, safaviylar shia mazhabini rasmiy davlat mafkurasi darajasiga ko'tarishgan. Bu holat "darvoza hudud" – Xuroson uchun kurashga mafkuraviy tus berish imkonini tug'dirgan edi. Bunday "mafkuraviy kurash"da boburiylar asosan chetda turganlari holda shayboniylar va safaviylar qarama-qarshiligi nihoyatda avjiga chiqqan. Butun XVI asr yuzasidan xulosa qilinganda, "darvoza hudud"ni nazorat qilishda Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon va Abdullaxon II davrida shayboniylar ustun turgan. Qolgan paytlarda esa safaviylar tashabbusni qo'lga olishga erishgan. Shayboniylar Safaviylarga qarshi kurashga boburiylarni ham jalb qilishga ko'p uringanlar. Ikki tomon o'rtasida elchilar ayirboshlangani, ular keltirgan nomalar haqida manbalarda ma'lumotlar mavjud.

Keyingi yillarda shayboniylar va boburiylar o'rtasidagi munosabatlar asosan boburiylar nazoratida bo'lib, shayboniylar intilib kelgan Badaxshon viloyati masalasi bilan bog'liq bo'lgan. Chunonchi, Humoyun va Komron o'rtasidagi kelishmovchiliklar avjiga chiqqan XVI asrning 40-yillarida Komron Balxdagi shayboniylar yordamida Badaxshonda o'z mavqeyini mustahkamlashga harakat qiladi. Bu hol o'z o'rnida Humoyunning shayboniylarga nisbatan keskin choralar qo'llashiga sabab bo'ladi. Natijada u 1549-yili Balxga qo'shin bilan kirib boradi.

Shayboniylarning shimoliy yo'nalishdagi tashqi siyosatlarida Sibir xonligi ularni juda qiziqtirgan. Bu xonlikda, avval uning g'arbida, islom dini ning taqalishida ham shayboniylarning, ular tashkil qilgan tadbirlarning roli beqiyos bo'lgan. Chunonchi, 1574-yili Kuchumxon Abdullaxon II nomiga yozgan xatida, biz tomonlarda kishilarni iymon yo'lidan boshlovchi aziz-avliyolar yo'qdir. Sayyidu shayxlardan yuborsangiz, mazmunida o'z iltimosini bildiradi. Abdullaxon II bu iltimosni qondirib, u yerga shayxu sayyidlardan bir guruhini yubortiradi. Umuman olganda shu vaqtlardan boshlab Sibirga movarounahrliliklar (buxoroliklar) soni ortib boradi. Ularning ma'lum qismi o'sha yerlarda o'mashib ham qolgan.

Shayboniylarning Sibir xonligi hududlari bilan yaqin aloqalari Rossiya davlatining g'ashiga tegib, u yerlarni egallashga harakat qiladi. Bu xonlik yerlarini egallashda kazak otryadi boshlig'i Ermakning xizmatlari katta. Kuchumxon bilan Ermak o'rtasida 1581 va 1583-yillarda to'qnashuvlar ham bo'lib o'tgan.

Ashtarxoniylar davridagi tashqi siyosatda faollik uncha ko'zga tashlanmaydi. Bu davrda ular ko'proq Balx uchun eronliklar bilan to'qnash kelgan. Chunki, eronliklar Eronga qochib borgan Valimuhammadxon, Nodirmuhammadxonlardan foydalanishga, ishlari yurishmagan paytlarida Buxoro bilan

elchilik aloqalarini o'rnatishga harakat qilgan. Lekin baribir ular taqdirini eronliklar (1740-yil turkmanlarning afshor qavmidan bo'lmish Nodirshoh boshchiligida) hal qilgan. Bu ham yetmaganidek, Nodirshoh buyrug'i bilan Samarqanddan Amir Temur qabri ustidagi yashm (nefrit) toshi va Bibixonim masjidining ikki tabaqali, yetti xil metall qorishmasidan tayyorlangan darvozasi Mashhadga olib ketiladi. Ammo noma'lum sababga ko'ra Nodirshoh ularni ko'radi-yu, yana Samarqandga qaytarishni buyuradi.

Taniqli tarixchi olim Azamat Ziyoning bergan ma'lumotlariga ko'ra, mazkur yurishda ishtirok etgan kurd sardorlaridan biri Samarqandda Amir Temur qabri ustiga qo'yilgan, Shohruxning o'g'li Boysung'ur tomonidan ko'chirilgan Qur'on nusxasini ham olib ketgan. Mazkur Qur'on nusxasi oddiy bo'lmay, nihoyatda nafislik bilan ko'chirilgan va bezatilganidan tashqari, hajmi, ya'ni, sahifasining kattaligi taxminan yarim metrga bir metrdir. Kurdlar avvaliga uning har sahifasini yirtib olishgan, keyinchalik bir qismi imom maqbarasiga berilgan ekan.

Yana shuni eslatib o'tish lozimki, Buxoro taslim bo'lganda Nodirshohga taqdim qilingan sovg'alar orasida Amir Temurga tegishli zirhning ichidan ko'krak va orqaga qo'yiladigan to'rt temir pora (choroyina) bilan birgalikda yana sohibqironning qilichi ham bor ekan.

Ashtarxoniylar va boburiylar o'rtasida yaxshi qo'shnichilik munosabatlari o'rnatilgan. Usmoniylar (Turkiya) bilan munosabatlar uncha mustahkam bo'lmagan. Usmoniylar ko'proq eronliklarga qarshi ashtarxoniylardan foydalanishga harakat qilganlar. Ularning Rossiya bilan munosabatlarida murakkabliklar bo'lgan. Savdoning rivojidan manfaatdor sulola hukmdorlari Rossiya davlati bilan elchilik aloqalari olib borib, o'z savdogarlariga qulay sharoit yaratishga intilishgan. Buxoro xoni Rossiya (Pyotr I) bilan aloqalarni yaxshilash uchun sobiq Orenburg gornizoni kaprali, keyinchalik Buxorada general unvonidan ham baland to'pchiboshi lavozimida xizmat qilayotgan Andrey Rolikovni Rossiyaga elchi qilib yuboradi. U asli asirlikka tushib Xivada qul qilib sotilgan edi. Keyin Buxoroda shahzoda Abulfayz uni o'z xizmatiga olib, armiyada katta unvonlar bergan. Bu harbiy boshliq va elchining nomi tarixga uning hayotiy kechinmalari ifodalangan "Xonquli to'pchiboshi" nomi bilan kirgan.

Bu davrda Rossiya hukumati esa savdo munosabatlarini o'z savdogarlari manfaatida tashkil qilishga harakat qilib, turkistonlik savdogarlarga Rossiyada erkin savdo faoliyati yuritishlarini taqiqlagan edi. Shuningdek, Rossiyadan Turkistonga metall va undan ishlangan mahsulotlarni olib ketishga ham yo'l berilmasdi. Bunday xatti-harakatlardan maqsad aniq: bir tomondan, yangi bosib olingan Volga, Ural bo'ylari, g'arbiy Sibir yerlaridagi mahalliy turkiy tilli

aholi bilan turkistonliklarning iloji boricha kamroq muloqotda bo'lishini, mahalliy aholining Moskvaga qarshi kayfiyatini kuchaytirmaslikni ta'minlash, ikkinchi tomondan, harbiy sohada katta ahamiyat kasb etgan metall va undan tayyorlangan qurollarning xonlikka yetib borishining oldini olish bo'lgan. Buning ustiga Pyotr I davridan boshlab mintaqaga nisbatan dastlabki harbiy ekspeditsiyalar ham uyushtira boshlandi. Ulardan maqsad mamlakatni puxta o'rganish, quruqlik va suv yo'llarini aniqlash, ichki iqtisodiy-savdo imkoniyatlarni tahlil qilish, iloji bo'lsa mahalliy hukmdorlarni Rossiya panohiga o'tishga ko'ndirish, evaziga harbiy yordam va'da etish kabi tadbirlarni amalga oshirish edi.

Rus podshosi Pyotr I ekspeditsiyalari barbod bo'lgan bo'lsa-da, bu harakatlar Rossiyaning Turkistonga nisbatan boshlangan bosqinchilik siyosatining ibtidosi edi.

Xulosa qilib aytganda, qanchalik katta iqtisodiy, madaniy, ma'naviy shart-sharoit, imkoniyatlar bo'lmasin, markaziy hokimiyat zaiflashuvi, siyosiy boshboshdoqlik mamlakat qudratining zaiflashuviga olib keldi.

Nodirmuhammadxon davrida boshlangan siyosiy beqarorlik taxminan yuz yil o'tib sulola inqirozi va davlatning uchga bo'linishi bilan tugadi. Shuningdek, davlat boshqaruvi tizimida shayboniylar davrida boshlangan "orqaga qaytish" jarayoni kuchayib borib, ashtarxoniylar zamonida devonlar tizimi deyarli barbod bo'ldi. Butun hokimiyat dargohda mujassamlashib qoldi. Agar dargoh va devonlar tizimi mavjudligi sharoitida markaz viloyatlarni dargoh – mahalliy hokimliklar tizimidan tashqari devonlarning mahalliy bo'limlari orqali ham boshqarish imkoniga ega, bo'lib, bu hol markaz e'tiborini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etgan bo'lsa, endi esa joylardagi butun hokimiyat mahalliy kuchlar qo'lida mujassamlashgandi. Shuning uchun ham viloyatlarning boshboshdoqlik kayfiyati bu vaqtda nihoyatda kuchaydi.

Bu vaqtda ilm-fan, texnika taraqqiyotida, harbiy sohada ilgari lab borayotgan Yevropa davlatlari bilan aloqalar o'rnatish, jahon siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-madaniy davrasiga kirish, buning orqasida dunyo miqyosida fikrlash, siyosat yuritish an'anasi ikki sulola siyosatchilarida ham, davlat arboblari ham bo'lmagan. Shuning uchun ajdodlar gidravlika, mashina, mexanizmlar, eng zamonaviy harbiy qurollardan bexabar qolavergan.

Bir so'z bilan aytganda, sulolalar hukmdorlari zamonaning eng ilg'or yutuqlaridan milliy manfaat yo'lida foydalanish o'rniga, sulolaviy manfaatlar qarama-qarshiligining asoratidan chiqqan olmagan.

3. XIVA XONLIGI

Tarixdan ma'lumki, Xorazm aksariyat hollarda o'z mustaqilligini saqlab, o'z siyosatini yuritishga intilib kelgan. Ular temuriylar davlati parchalanishi bilan bu yo'lni tutdilar. Temuriylardan hukmronlikni tortib olgan Muhammad Shayboniyxon davrida Xorazm yana Shayboniylar ta'siriga olindi. Aniqrog'i, Muhammad Shayboniyxon 1505-yili Xorazmga harbiy yurish uyushtirib uni egalladi. Ammo 1510-yili Marv atrofida uni yenggan Ismoil safaviy Xorazmni egallaydi.

Ismoilshoh bu hududning Vazir, Urganch va Xiva shaharlarini boshqarish uchun 3 ta dorug'a (hokim) tayinlaydi. Biroq, ko'p o'tmay Xorazmda Ismoilshoh hukmronligiga qarshi Vazir shahri qozisi Umar qori va Sayid Xisamiddinlar boshchiligida harakat boshlanadi. Ular Shaybon avlodidan bo'lgan Berka sultonning o'g'li Elbarsxonga murojaat qilib, xon bo'lishni taklif qiladi. Elbarsxon 1511-yilda qo'shin bilan kelib Vazir shahrini egallab, 1511-1512-yillarda Urganch, Xiva, Xazoraspmni Ismoilshoh qo'shinlaridan tozalab, Xorazm mustaqilligini ta'minlaydi. Natijada 1512-yili Dashti qipchoqlik, asli shayboniylar vakili Elbarsxonga Xorazm hokimiyati topshirilib, Xiva xonligiga asos solinadi.

Xiva xonligining asoschisi Elbarsxon Muhammad Shayboniyxon bilan amakivachcha bo'lsa-da, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki oila farzandlari edi. Buning ustiga Shayboniyxon o'z vaqtida, hali Dashti qipchoqdaligida bu bo'lajak Xiva xonining otasini o'ldirgan edi.

Shu tariqa Samarqand va Buxoro Muhammad Shayboniy oilasi vakillari, Xorazm esa Burka sulton oilasi vakillari hukmronligi ostiga o'tgan edi.

1505–1770-yillar orasida Xorazmni asosan shayboniylar sulolasi namoyandalari boshqarishgan. 1770-yili esa Xorazmda amaliy hokimiyat qo'ng'iroq sulolasidan bo'lmish Muhammad Amin inoq qo'liga o'tadi, shu tariqa mazkur viloyatda yangi sulola – qo'ng'iroqlar hukmronligi boshlanadi.

Abulg'oziy Bahodirxon, Munis qoldirgan ma'lumotlarga ko'ra, 1511–1770-yillarda Xorazmda hukmronlik qilgan shayboniylar soni qirqdan ortiq bo'lgan.

Elbarsxon davridayoq (1511–taxminan 1516) Xiva xonligining siyosiy geografiyasi shakllanib bo'lgan. Zero, bupaytda xonlik g'arbda Kaspiy dengizi, shimolda Oro'l dengizi havzasi, janubda Atrek daryosi va Saraxs atroflarigacha bo'lgan hududni o'z ichiga olgan edi. XVI asr oxiri – XVII asr boshlarida Amudaryo o'zanining o'zgarishi munosabati bilan Urganchning mavqeyi pasayadi, aholisi qulayroq joyga ko'chib borib joylashadi va bu yerda yangi Ur-

ganch shahri paydo bo'ldi. Bu orada Xiva shahrining mavqeyi ko'tariladi. Arabmuhammadxon (1602–1623) davrida Xivaning mavqeyi yanada kuchayib, xonlikning rasmiy poytaxtiga aylanadi. Shunga ko'ra, zamonaviy tarixshunoslikda xonlikni Xiva xonligi deyish odat tusiga kirgan.

Xorazmda Arabmuhammadxon davrida ham tinchlik bo'lmadi. Tashqaridan Ural kazaklari, qozoqlar va qalmiqlar aholi tinchligini buzgan bo'lsa, ichkarida darvesh shayxlari ta'siri kuchaydi. Xonning o'g'illari Habash va Elbarslar ham otasiga qarshi chiqishdilar. Ular otasining ko'ziga mil tortirib, so'ngra qatl ettirdilar. Taxtga chiqqan aka-ukalar ko'p o'tmay o'z ukalari Asfandiyor (1623–1643) tomonidan taxtdan tushirildilar. Asfandiyor davrida ham keskinlik yumshamadi. Uning taxtga chiqishiga yordam bergan turkmanlar ta'siri xonlikda kuchaydi. Orolbo'yi o'zbeklari unga bo'ysunmay qo'ydi. 1643-yilda Asfandiyor vafot etgach, uning tarixda xon, olim, ijodkor nomi bilan kirgan ukasi Abulg'oziy Bahodirxon (1643–1663) Xiva xonligi taxtiga ko'tarildi.

U xonlik davrida Habash va Elbarslar bilan taxt uchun kurashda yengilib, Buxoroga qochdi va Imomqulixon saroyida yashadi. Akasi Asfandiyor Xivada xon bo'lgach, yana Xorazmga qaytdi va Urganchga hokim qilib tayinlandi. 1627-yili Asfandiyorga qarshi chiqib yengildi va Turkistonga qochib, qozoq xonlaridan Ishimxon huzurida panoh topdi. 1628-yili qozoq xoni Tursunxon uni Toshkentga olib ketdi va 1630-yil yarmigacha Toshkentda yashadi. Xiva turkmanlari taklifi bilan Xorazmga qaytgach, olti oy o'tar-o'tmas Asfandiyor uni Niso va Darunga bosqinchilik uyushtirganlikda ayblab hibsga olib, Eronga, shoh Safi' I (1629–1642) huzuriga omonat (O'rta asr an'analariga ko'ra, tobelikni qabul qilgan hukmdor g'olib hukmdorning saroyiga farzandlaridan birini garov tariqasida yuborgan) sifatida berib yubordi.

U o'shanda Isfahondagi Taborak qal'asiga qamab qo'yildi va shu tarzda Eronda 10 yil atrofida kun kechirdi. 1639-yili qamoqdan qochib, 1642-yildagina qiynalib o'z yurtiga yetib keldi. Asfandiyor vafot etgach, Orol o'zbeklari uni xon qilib ko'tardilar. Uning xonlik davrida turkmanlar ustiga va Buxoroning ayrim viloyatlariga qarshi talon-taroj urushlari ham olib borildi.

1663-yili taxtni o'g'li Anushaga (1663–1686) qoldirib, o'zi ilmiy ish bilan shug'ullana boshladi va 1664-yilda vafot etdi. Abulg'ozixon o'zining ikki yirik "Shajarai turk", "Shajarai tarokima" tarixiy asarlari bilan tarixda katta iz qoldirdi.

Anushaxon davrida ham Buxoro va Xiva o'rtasidagi urushlar davom etdi. 1685-yilda G'ijduvon yaqinidagi jangda Buxoro xonligi g'olib kelib, Xivada Buxoro ta'siri kuchaydi. Ashtarxoniy Subhonqulixon fitna uyushtirib, Anu-

shaxon o'g'li Ernakni taxtga chiqishiga yordam berdi. Ammo u hokimiyatni uzoq saqlab qola olmadi. Subhonqulixon Xivadagi tarafdorlari yordamida taxtga Shohniyoz (1688–1702) ni o'tqazib, amalda Xivani vassal davlatga aylantirdi. U esa ko'p o'tmay o'z homiysidan yuz o'girib, Rossiyaning yordamiga tayana boshladi.

Arabmuhammad (1702–1714), Sherg'ozixon (1714–1728)lar davrida xonlikda siyosiy nizolar kuchaydi. Bu davrda rus harbiy ekspeditsiyasi samarasiz yakunlandi.

1728–1740-yillarda xonlik taxtini Elbarsxon boshqarib, ichki nizolarni bostirdi, qo'shni hududlarga bosqinchilik yurishlar qildi. 1740-yilda Eron shohi Nodirshoh Xorazmni bo'ysundirdi.

1747-yili Xorazmda eroniylar hukmronligi tugatilgach, shu yili qozoq sultoni G'oyib ibn Botir (1747–1757) taxtga o'tqazildi. 1757-1758-yillarida uning ukasi Abdullaxon hokimiyatni boshqardi. 1758-yilda Buxoro hukmdori Muhammad Rahim o'z odami Temur G'ozixon (1758–1763)ni taxtga o'tqazishi bilan Xiva xonligida qo'ng'irotlar urug'ning mavqeyi oshdi.

Xiva xonligi Xuroson, Buxoro xonligi yerlariga doimoyurishlar qilib turgan. O'z o'rnida Buxoro xonligi ham Xorazmni o'ziga bo'ysundirishga ko'p marta harakat qilgan. Chunonchi, Ubaydullaxon va Abdullaxon II davrlarida xivalik shayboniylar buxorolik suloladoshlariga bo'ysunishga majbur bo'lishgan. Ammo Abdullaxon II o'limidan so'ng o'sha paytdagi Xiva xoni Hojimuhammadxon (1558–1602) yana mustaqil siyosat yurgizish imkoniga ega bo'lgan. XVII asrga kelib esa Xiva va Buxoro xonliklari o'rtasidagi munosabatlarda bir oz o'zgarish yuz berdi. Ya'ni shu asrdan boshlab Buxoro xonligi boshqaruvini qo'lga olgan yangi sulola – ashtarxoniylar namoyandasi Nodirmuhammadxon davrida Xivada uning nomidan xutba o'qilgani, 1678-yili keyingi Subhonqulixonning Xivaga o'z noibi Shohniyoz eshikog'oboshini yuborgani hisobga olinmasa, xivaliklardan Abulg'oziy Bahodirxon va Anushaxon davrlarida Buxoro xonligi ichkarisiga muttasil harbiy yurishlar uyushtirilib turilgan. Xususan, Abulg'oziy Bahodirxonning o'zi olti marta shunday yurishni amalga oshirgan bo'lsa, o'g'li Anushaxon 1684-yili hatto Samarqandni egallab, bu yerda o'z nomidan xutba o'qitgan. Lekin shunga qaramay, Buxoro keyinchalik ham Xivaga nisbatan olib borgan siyosatidan voz kechmagan.

Aynan shu paytda Muhammad Amin inoq Buxoro xoni yordamida Xivada hokimiyat tepasiga chiqqan edi. 1770-yildan boshlab Xivada yangi sulola – qo'ng'irotlar siyosiy faoliyati boshlanadi. Muhammad Amin inoq va uning o'g'li Avaz (1790–1804)lar davrida xonlik boshlig'i sifatida soxta xonlar ham saqlangan. 1804-yilda Eltuzarxon taxtni egallab, bu soxta xonlarni yo'q qilgan.

Keyingi hukmdor Muhammad Rahimxon I (1806–1825) xonlikni ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatlardan mustahkamlashga uringan bo'lsa, uning davomchisi Olloqulixon (1825–1842) asosiy e'tiborni Buxoro bilan Xuroson munosabatlariga qaratgan. Xuroson uchun kurashni asosan XVII asrdan boshlab xivaliklar olib borgan. Buxoro siyosiy kuchlari bu borada nisbatan ancha sust siyosat yurgizib, ko'proq Qo'qon va Xiva xonliklariga qarshi kurash bilan band bo'lgan. Xivaliklar Xurosonga Olloqulixon boshchiligida olti marta, Muhammad Amin II (1845–1855) davrida esa o'ndan ortiq marotaba yurish qilingan. Ammo bu hudud ishqida bo'lgan qo'ng'irotlar bostirib kelayotgan Rossiya xavfiga boshqa xonliklar kabi qandaydir bir beparvolik bilan qarashgan. Mana shu befarqlik natijasi o'laroq, Muhammad Rahimxon II (1865 – 1910) davrida Rossiyaning 1873-yilgi bosqinidan so'ng, eng avvalo, Xorazm ahli va tabiiy ravishda qo'ng'irotlar sulolasi begonalarga qaramlik holatiga tushib qoladi. Qachonlardir bobolari soxta xonlarni taxtga o'tqazib, amaliy hokimiyatni qo'lda tutgan bo'lsa, endi qo'ng'irotlardan Muhammad Rahim II va sulolaning so'nggi namoyandasi Asfandiyor (1910–1918) Rossiya imperiyasi ixtiyoridagi qo'g'irchoq xonlarga aylangan.

4. QO'QON XONLIGI

Ashtarxoniylar hukmronligining so'nggi yillarida markaziy hokimiyatning kuchsizlanishi, viloyat amaldorlarining o'zboshimchaligi tufayli tarqoqlik sodir bo'la boshladi. XVIII asr boshlarida Chust yaqinidagi Chodak qishlog'ida yashovchi xo'jalar jamoasining mavqeyi Farg'onada kuchayib, ular 1709-yilda o'z yer-mulklarini mustaqil deb e'lon qiladi va vodiya hokimiyatni qo'lga olishga kirishadi. Bir guruh harbiy zodagonlar Rishtonda qo'zg'olon ko'tarib, Farg'ona hokimi Xo'ja Ashirqulni o'ldirishadi. Bu holat oxir-oqibat 1709-yilda Farg'ona vodiysida hokimiyat tepasiga minglardan bo'lmish Shohruhbiyning chiqishiga sabab bo'ladi.

Shohruhbiy (1709–1721), so'ng esa uning vorislari Abdurahim (1721–1733), Abdulkarim (1733–1750)lar davrida minglar siyosiy mavqeyi mustahkamlanib, Qo'qon xonligi yuzaga kelishiga sharoit yaratgan. Minglar nafaqat vodiya oyoqqa turib olgan, balki Buxoro xonligiga qarashli Xo'jand (1725), O'ratepa (1726), Samarqand (1729)ga ham harbiy yurish uyushtirib, vaqtincha bo'lsa-da muvaffaqiyatlarga erishgan. Shu bilan birga minglar sulolasida ichki ziddiyatlar ham kuchli bo'lgan. Chunonchi, Abdulkarimdan so'ng taxtga chiqqan Abdurahmon atigi to'qqiz oygina xonlik qilgach, taxtdan tushirilib o'rniga Erdona o'tqaziladi. Bir yil o'tib esa (1752) tilga olingan Abdura-

him o'g'li Bobobek taxtga da'vogarlik qilib niyatiga erishsa-da, 1753-yilgi O'ratepa yurishida Beshariqda amirlar tomonidan o'ldirilib, xonlik kursisiga yana Erdona chiqadi. U Qo'qon xonligini ichki tomondan mustahkamlashga ko'p uringan hukmdor hisoblanadi, shuningdek, Farg'ona vodiysining o'ziga xos darvozasi hisoblanmish Xo'jand shahrini xonlik ixtiyoriga kiritishga obdon harakat qiladi, ammo buxorolik kuchlar bunga yo'l qo'ymaydi.

Erdona zamonida xonlik qudrati ancha yuqori ko'tarilib, vodiya qisman tinchlik va osoyishtalikka erishilgan. U Qo'qon xonligining sharqida joylashgan O'sh, O'zgand kabi yerlarini ham bo'ysundirishga erishib, 1758 – 1759-yillarda Xitoyning hukmron sulolasi sinlar (1664–1911) tomonidan zabt etilgan Sharqiy Turkistonda ham o'z siyosatini yurgizishga urinadi, u yerga harbiy yurishlar uyushtirib turadi. Shu davr oalig'ida, Farg'ona viloyatida mustahkam o'rnashib olgan minglar bu davrga kelib g'arbda Buxoro amirligi, sharqda esa Xitoy bilan kurashda bo'sh kelmagan. Shunday siyosatni keyingi hukmdor Norbo'ta (1763–1798) ham davom ettirgan.

Qo'qon xonligining mavqeyi, ayniqsa, Olimxon (1798–1810) davrida yuksaladi. Avvalo Olimxon xonlik maqomini qabul qilgani bilan mashhur. Minglarning undan keyingi namoyandalari ham xon maqomida bo'lgan. Shu sababdan ham 1709–1876-yillari markazi Farg'ona vodiysida hisoblangan va minglar nomi bilan bog'liq bu siyosiy birlikni Qo'qon xonligi deyish odat tusiga kirgan.

1805-yili Olimxon Xo'jandni egallab, Farg'ona vodiysi uchun strategik ahamiyat kasb etgan mazkur chegarani uzil-kesil xonlik tarkibiga kiritadi. 1809-yili esa XVIII asr oxirlaridan boshlab mustaqil bo'lib olgan va shayx Xovand Tohur (hozirda Shayxontohur nomila mashhur, XIV asrning ko'zga ko'ringan din peshvolaridan) avlodlaridan Yunusxo'ja (1784–1803) yetakchilik qilayotgan Toshkent viloyatini ham Qo'qonga bo'ysundirishga erishgach, Sayram va Chimkent tomonlarga qarab siljish imkoni tug'iladi. Shu tariqa u Turkiston va Avliyootagacha bo'lgan yerlarda harbiy yurishlar uyushtiradi.

Mazkur yo'nalishda yanada ilgarilab borgan hukmdor Umarxon (1810–1822) dir. U Sirdaryodan irmoq olgan Yangidaryo hududlarigacha kirib borib, 1813–1815-yillarda Sirdaryoning o'ng qirg'og'ida Oqmasjid qal'asiga asos soladi. Uning davrida, 1814-yili Qoratog'ning shimolida Cho'loqko'rg'on, Oloyda Qizilqo'rg'on, 1821-yili Talas daryosi bo'yida Avliyoota (hozirgi Jambul), Ulug'qo'rg'on, Darovutqo'rg'on kabi qal'alar ham bunyod etilgan.

Shu bilan birga Umarxon Buxoro amirligiga nisbatan ham faol siyosat yuritishga harakat qilib, 1821-yili Miyonqoldagi xitoy-qipchoqlar isyonidan foydalanган holda Samarqandga yurish qilib, yetti kun davomida uni qamalda tutgan.

Uning o'g'li Muhammadalixon (1822–1842) davrida 1826 va 1830-yillarda Sharqiy Turkistonga yurish qilinib, u yerda xitoylik sinlar hokimiyatini ag'darishga harakat qilingan. Garchi mazkur reja amalga oshmagan bo'lsa-da, Xitoy bilan bitimga ko'ra, qo'qonliklar Sharqiy Turkistonda bir qator iqtisodiy va savdo imtiyozlariga ega bo'lganlar. Qo'qon xonligining mavqeyi oshib borayotganini Buxoro amirligi ham seza boshlayotgan, ular o'rtasida O'ratepa uchun kurash hamon davom etayotgan edi.

1837-yili Qo'qon xonligi tomonidan Qorategin va Darvozning egallanishi bilan xonlik mavqeyi yana ham oshadi. Biroq, so'nggi yillarda Muhammadalixon davlat ishlarida kaltabinlikka yo'l qo'ya boshlaydi. Bir qator nufuzli arboblarni tazyiq ostiga oladi, ijtimoiy hayotda axloqan shariat talablariga tamomila zid noloyiqliklarga qo'l uradi. Natijada, amaldorlar undan norozi bo'lib, undan qutilish payiga tushadilar va Buxoro amiri Nasrulloqa murojaat etishadi. Paytdan foydalangan amir Nasrullo 1842-yili lashkar tortib kelib Qo'qonni qo'lga oladi. Shundan so'ng u Qo'qonda o'z noibini (ayrim manbalarda Rahim parvonachi, ayrimlarida esa Ibrohim Hayyol deb beriladi) qoldirib, qo'qonliklarning butun qurol-yarog'ini olib Buxoroga jo'naydi. Ammo yuqorida aytilganidek, Buxoro noibining noo'rin xatti-harakatlari tufayli mahalliy aholi orasida norozilik yuzaga keladi va bu holat Qo'qonda yana minglar sulolasi namoyandalari, aniqrog'i, Sheralixon hukmronligining o'rnatilishiga sharoit yaratadi. Sheralixon tez orada Buxoro lashkarining 1840–1842-yillardagi Qo'qon xonligiga nisbatan siyosati natijasida qo'ldan ketgan Xo'jand va Toshkent kabilarni yana xonlik doirasiga qaytarib oladi.

Uning taxtga chiqishi Qulon urug'ilik ko'chmanchi qipchoqlar boshlig'i Musulmonqul mingboshining (1794–1852) xonlikda katta mavqega ega bo'lishiga olib keladi. 1844-yili Musulmonqul Andijon va Namanganni o'z hukmi ostida birlashtirib, Qo'qonga tahdid sola boshlaydi. Subutsizlik qilgan Sheralixon ham Qo'qonni, ham hokimiyatni qo'ldan beradi. Garchi u taxtda qoldirilgan bo'lsa-da, amaldagi hukumat endi Musulmonqul mingboshi va uning tarafdorlari ixtiyoriga o'tgan edi. Eng muhim lavozimlarga o'z kishilarini tayinlagan Musulmonqul siyosati tabiiy ravishda mahalliy doiralarga xush kelmagan. Garchi, 1844-yili ular Sheralixonni o'ldirib, o'rniga Olimxonning o'g'li Murodni xon qilib ko'tarib, bu bilan vaziyatni o'zgartirmoqchi bo'lsalar-da, Musulmonqul ustalik bilan, ya'ni avvaliga xonni tan olib, so'ng esa o'ldirib, Qo'qon hukmdori sifatida Sheralixonning o'n uch-o'n to'rt yashar o'g'li Xudoyorxonni xon deb (1845) e'lon qiladi. Shu tariqa, Musulmonqul taxtga yosh bolani o'tqazib, boshqaruv ishlarini o'z qo'lida saqlab qoladi. Bunday holatlar xonlikda katta nufuzga ega mahalliy amaldorlar noroziligiga olib keladi.

Bundan tashqari, shayxulislom Zokirxoja Namangoniy, uning o'g'li Sulaymonxoja Holmuhammad rais, Hojamquli a'lam kabilarning Musulmonqul tomonidan qatl qilinishi vaziyatni yanada keskinlashtiradi. Shuningdek, qipchoq siyosiy guruhлари orasida vujudga kelgan qarama-qarshiliklar ham Musulmonqul mavqeyining bo'shashiga sabab bo'ladi. Chunonchi, mazkur qarama-qarshilik natijasida 1846-yili Musulmonqul vazifasidan chetlashtirilgan. Ammo bir oz o'tib, u yana xonlikdagi eng asosiy kuchga aylandi. 1848, 1849-yillardagi yana ikki bor dargohdan chetlashtirilganiga qaramay, har gal hokimiyatni qo'lga olishga muvaffaq bo'lavergan. Oxiri 1852-yili yuqorida ko'rsatilgan sabablar hamda umuman qipchoqlarning ko'chmanchi, yarim ko'chmanchi holatidan shaharlarga o'rnavishda mahalliy o'troq aholiga o'tkazgan zulmlari bir bo'lib, toshkentlik va farg'onalik mahalliy siyosiy kuchlar birlashadi va Musulmonqulni barcha imtiyozlaridan mahrum qilib, qatl ettirilishiga erishadilar.

Musulmonqulga qarshi bu harakat 1852-yilining oktabrida xonlikda qipchoqlar qirg'inining sodir bo'lishiga sabab bo'ladi. Biroq, endi Xudoyorxon uchun xonlik ishini sulola va dargoh manfaati nuqtayi nazaridan yurgizish imkonini yuzaga kelganday bo'lib tuyulsa-da, yana mahalliy beklarning isyoni (masalan, Toshkent, O'ratepa), eng muhimi, shimoldan Rossiya imperiyasi bosqini bilan bog'liq voqealar Qo'qon xonligining bundan buyongi taqdirini hal qilib qo'ygan edi. Shu bois, bundan buyongi davrda aka-ukalar – Xudoyor va Malla o'rtasida kurash natijasida 1858–1862-yillarda Mallaxon taxtga o'tirdi va 1862-yili Xudoyorxon yana taxtga chiqdi, 1863–1865-yillarda Sa'idxon hukmronlik qildi (aslida yana bir qipchoq namoyandasi Alimqul hokimiyati). 1865–1875-yillari esa Xudoyorxon yana so'nggi bor xonlikni qo'lga oldi. Shu yillar orasida Rossiya tomonidan birin-ketin Qo'qon xonligi yerlarining, aslida, mamlakatning bir qismining bosib olinishi ham boshlangan edi.

Bularning barchasi 1876-yili Rossiya tomonidan Qo'qon xonligining tugatilishiga olib keldi.

5. BUXORO AMIRLIGI

1747-yili Buxoro otalig'i Muhammad Rahim tomonidan ashtarxoniylar sulolasi hukmronligiga chek qo'yilgan bo'lsa-da, yana bir yarim yilcha ulardan Abulfayzxon, Abdulmo'min va Ubaydullalar soxta xon sifatida e'tirof etilib turgan edi. Amalda hokimiyat mang'it urug'i vakili Muhammad Rahim (1747–1758) qo'lida bo'lib, u amir maqomida mamlakatni boshqarayotgan edi.

Muhammad Rahim g'ayratli va qattiqqo'l siyosatchi sifatida ashtarxoniylar davrida zaiflashib qolgan markaz mavqeyini tiklashga urinib, Samarqand,

Miyonqol, Qarshi, Gʻuzor, Shahrisabz, Karmana, Chorjoʻy va Karkilarni yana Buxoro izmiga qaytara oldi. Ammo uning oʻlimidan soʻng vaziyat yana keskinlashib, keyingi mangʻit namoyandasi, Muhammad Rahimning amakisi Doniyol (1758–1785) davrida yana mahalliychilik kuchayib, Nurota, Karmana, Gʻuzor, Oʻratepa, Boysun, Sherobod, Hisor beklari boshboshdoqlik yoʻliga oʻta boshlaydi. Garchi katta qiyinchilik bilan Doniyol ularni yana Buxoro hokimiyatini tan oldirishga erishsa-da, bu masala uzil-kesil hal boʻlgan emasdi. Masalan, Shahrisabz bekligidagi siyosiy kuchlar hali ham oʻz mustaqilligini saqlab qolib, ular Buxoroga xavf tugʻdirayotgan edi.

Amir Shohmurod (1785–1800) davrida markaziy hokimiyatni mustahkamlashga qatʻiy bel bogʻlandi. Bu amir soxta xonlik anʼanalariga chek qoʻydi va amir unvoni bilan boshqaruvga kirishdi. U oʻz faoliyatida ommaga suyanib ish tutdi va, eng avvalo, shariat tartiblariga qatʻiy rioya qilish, harom bilan halolni ajratishda qattiq turish siyosatini keng tadbqiq etishdan tolmasdi. Oʻzi ham nihoyatda kamtarin hayot kechirishga harakat qildi. Manbalarda yozilishicha, uning oʻzi uchun kundalik xarajati bir tangadan oshmagan ekan, yeb-ichishi va kiyinishi ham oddiy boʻlgan. Biron-bir amaldorning uyiga ziyofatga bormas, hech kimdan sovgʻa olmas, oʻz sharafiga turli dabdabali tadbirlar uyushtirishiga yoʻl qoʻymas ekan. Bularning bari, albatta, keng omma orasida tarqalib, xalq oldida Shohmurodning obroʻ-eʻtibori oshib boravergan. Buning ustiga otasi Doniyol zamonida joriy etilgan turli oliq-soliqlarni bekor qilib, jamiyat orasida yana koʻp shuhrat topgan. Unga nisbatan xalqning mehri shunchalik baland boʻlganki, xalq uni “begunoh amir” deb atagan.

U 1789-1790-yillari Marvda ham oʻz hokimiyatini oʻrnatib, marvliklardan bir necha oʻn ming kishini Buxoro va Samarqandga koʻchirtirdi. Undan farqli oʻlaroq, vorisi amir Haydar (1800–1826) hukmronlik yillari mamlakatda notinchlik hukm suradi. Yaʼni markaz va viloyatlar hamda kechagina viloyat maqomida boʻlgan, lekin endilikda alohida siyosiy birlik – xonlikka aylangan Xiva va Qoʻqon bilan qarama-qarshiliklar avjiga chiqadi. Miyonqol, Shahrisabz, Karki, Marvdagi mahalliy kuchlar yana oʻzboshimchalik qila boshlashgan. Chunonchi, Marvni boshqarib turgan Dinnosir (amirning ukasi) Xiva xoni Eltuzar (1804–1806) koʻmagiga ishonib bosh koʻtaradi. Amir Haydar uchun bu nihoyatda xavfli holat edi. Chunki bu shunchaki bir viloyatning markazga boʻyin egmasligi emas, balki rasmiy sulola namoyandasining, mintaqadagi raqiblardan – xivaliklar bilan til biriktirib, oliy taxtga qarshi harakati edi. Shuning uchun ham amir Haydar unga qarshi lashkar tortadi. Dinnosir bas kelolmay Mashhadga qochadi.

Amir Haydar Marvni egallagach, mahalliy aholining bir qismini Zarafshon vohasiga koʻchirtiradi va bu yerga turkmanlarni oʻrnatiradi.

Buxorodagi ichki ziddiyatlardan Xiva xonligi doimo foydalanishga uringan. Chunonchi, Dinnosirga yordam berish bahonasida Buxoro amirligi hududiga kirib borgan Eltuzarxondan soʻng 1821–1825-yillari amir Haydar Miyonqolda xitoy-qipchoqlar isyonini bostirish bilan xivaliklar Chorjoʻy va Marvga harbiy yurish uyushtiradilar. Ular hatto Marvni ham zabt etishgan. Bungacha ham amirlikning sharqiy qismida ancha yoʻqotishlar va oʻzgarishlar boʻlgan. Masalan, Qoʻqon hukmdorlari 1805-yili Xoʻjandni, 1809-yili Toshkentni, 1816-yili Turkiston (Yassi)ni bosib olib. Oʻratepa (1806–1813), Jizzax (1806) va Samarqand (1821)ga tahdid solgan. Amir Haydar oʻlimidan soʻng taxtga oʻtirgan oʻgʻillari – amir Husayn ikki yarim oy, keyin esa amir Umar toʻrt oygina hukmronlik qilgan, xolos. Ulardan soʻng amirlik kursisini amir Nasrulla (1826–1860) egallaydi va shariat tartiblarini mustahkamlab, otasi amir Haydar davrida beboshlik qilgan barcha viloyatlarni, aniqrogʻi, ulardagi siyosiy kuchlarni poytaxt izmiga qaytardi.

Nasrulla Xiva va Qoʻqonni yana Buxoro atrofida birlashtirishga koʻp uringan amir hisoblanadi. Ilgari qoʻldan ketgan Marvni poytaxtga boʻysundirish uchun xivaliklar bilan koʻp kurashadi va 1843-yili maqsadiga erishadi. Ammo xivaliklar ham boʻsh kelmay, 1855-yili yana bir bor Marvni ishgʻol qiladilar. Xivaliklar bu bilan cheklanmay, Chorjoʻyga ham doimo tahdid solib turganlar.

Amir Nasrulla ham oʻz oʻrnida Xiva xonligiga qarashli Xazorasp tumaniga yurish uyushtiradi. U Qoʻqon xonligi bilan ham ancha sovuq siyosatda boʻlgan. 1840–1842-yillar davomida katta urinishlar natijasida Xoʻjand, Toshkent, Qoʻqon kabilarni Buxoroga buysundirishga erishadi. Bir qaraganda, mazkur voqealar natijasida mamlakatning birlamchi birlashuvi uchun qayta imkon tugʻilganday boʻlsa-da, amir Nasrullaning bir xatosi tufayli moʻljal roʻyobga chiqmay qolgan. Oʻsha zamon voqealari guvohi, tarixchi Muhammad Hakimxonning yozishicha, amir Nasrulla oʻylamasdan Qoʻqonga Ibrohim parvonachi mangʻitni tayinlab oʻzi Buxoroga qaytib ketgan. Ibrohim parvonachi esa kechagina urushdan chiqqan mahalliy aholiga nisbatan soliqlar borasida zulm oʻtkaza boshlagan. Natijada ikki oy oʻtib-oʻtmay asli minglardan boʻlmish, qirq besh yil davomida togʻlik yerlarda, qirgʻizlar orasida yashagan xon avlodi Sherali vaziyatdan xabar topib, tezda lashkar yigʻib keladi va Buxoro noibini agʻdaradi. Garchi amir Nasrulla ham qoʻshin tortib kelib, Qoʻqonni yana bir bor egallashga harakat qilgan boʻlsa-da, biroq uddasidan chiqolmaydi. Shu tariqa Buxoro va Qoʻqonni birlashtirish imkoni qoʻldan ketadi.

Buxoro amirligi aholisi Nasrullo oʻgʻli amir Muzaffar (1860–1885) davrida qiyin hayotni boshdan kechirdi. U oʻz faoliyatini otasi zamonida mansabda boʻlgan amaldorlarni boʻshatish va mol-mulklarini musodara qilishdan, amir

Nasrulla tomonidan o'z vaqtida Karmanaga surgun qilingan kishilarni yana poytaxtga qaytarib yuqori lavozimlarga tayinlashdan boshladi. Garchi shu tariqa o'z mavqeyini mustahkamlashga uringan bo'lsa-da, aslida bu bilan kishi bilmas davlat va sulola qudratiga katta zarba bergandi. Buning ustiga u Hisor va Qo'qonga qilgan harbiy yurishlaridan (1863–1865) mag'rurlanib, o'zidan boshqani tan olmay qo'ydi, shariat hukmlarini ijro etishda o'zboshimchalik qilish yo'liga o'tdi. Shuningdek, uning davrida lashkar ham zaiflashdi, otasi davrida harbiy yurishlarda pishgan sarkardalarni qatl ettirib, o'rinlariga uquvsiz va oddiy kishilarni tayinladi. Bularning barchasi Rossiya imperiyasi bosqini jarayonida o'z mahsulini berdi. Amir tayinlagan sarkardalar qochdi, askarlar esa ularga xizmat qilishni or bilib tarqab ketdi. Natijada, 1868-yildan boshlab amirlik Rossiyaga qaramlikni o'z bo'yniga olishga majbur bo'ldi. Amir Muzaffar va uning vorislari Abdulahad (1885–1910) va Sayid Olimxon (1910–1920)lar to 1920-yil (sovet hukumati tomonidan Buxoro amirligining tugatilishi)gacha Rossiya imperiyasi izmidagi hukmdorlar bo'lib qoldilar.

6. XONLIKLAR VA AMIRLIKDAGI BOSHQARUV TIZIMI. IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY HAYOT

Xonliklar davridagi boshqaruv tizimi masalasiga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, Xiva va Qo'qon xonliklarida boshqaruvning xonlik, Buxoroda esa amirlik tizimi joriy etilgan. Xonliklarda eng oliy davlat maqomi xon, amirlikda amir hisoblangan.

Bu davrda markaziy boshqaruv to'laligicha **dargohda**, ijroiya vazifalari to'g'ridan-to'g'ri saroydagi u yoki bu lavozimda yoki biron-bir yirik arbob faoliyatida mujassamlashgan. Masalan, ashtarxoniy Ubaydullaxon zamonida mamlakatdagi eng nufuzli davlat maqomiga aylangan **qushbegi** Buxoro amirligida mang'itlar davrida amirdan keyingi ikkinchi shaxsga aylangan. Bosh vazir o'rnidagi qushbegi mamlakat boshqaruvi, moliya, soliq, xazina, poytaxtdagi ahvol bilan bog'liq eng muhim masalalarni nazorat qilgan. Shuningdek, unga barcha viloyatlar bo'ysungan.

Muhimligi jihatidan keyingi vazifa moliya vaziri (**devonbegi**) hisoblanib, uni odatda quyi qushbegi deb atashgan. Sababi, qushbegi – bosh vazir arkda faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, moliya ishlari, asosan zakot bilan mashg'ul qushbegi idorasi arkdan pastda joylashgan. Shuning uchun ham xalq orasida bosh vazir bosh qushbegi, moliya vaziri esa quyi qushbegi deyilgan.

Mang'itlar davrida shayboniylar, ayniqsa, ashtarxoniy zamonida katta mavqe kasb etib kelgan **otaliq** lavozimi xizmati endi asosan Samarqand va

Buxoro, ya'ni amirlikning markaziy qismini sug'orish ishlari, suv taqsimoti bilan bog'liq tadbirlarga bosh-qosh bo'lgan.

Shuningdek, amirlikda **parvonachi** (oliy hukmdor yorliqlarini amaldorlar, umuman tegishli kishilarga yetkazuvchi; unga shuningdek arab millatiga mansub aholi bilan shug'ullanish ham yuklatilgan), **dodxoh** (jabrlanuvchilar arzini amirga yetkazish va javobini olib berishga mas'ul, ba'zan oliy hukmdor ruxsati bilan o'zi ham da'vogarlarning talablarini qondirish mumkin bo'lgan) kabi ilgarigi asrlardayoq joriy bo'lgan vazifalar bor edi. Ammo mazkur davlat lavozimlarining mavqeyi endi ko'proq shu mansabdagi shaxs nufuzi bilan o'lchanadigan bo'lib qolgandi. Xuddi shunga o'xshash holatni inoq mansabida ham ko'rish mumkin. U o'z lavozimiga ko'ra, oliy hukmdor buyruqlarini hukumatdagi oddiy xizmatchilarga yetkazish, demak, buyruqni amalga oshirishni tashkil qilish va umuman hali davlat mansabini egallamagan, lekin hokimiyat xizmatida bo'lganlar bilan shug'ullangan.

Inoq lavozimining bosh (katta) va kichiklari ham bo'lgan. Yuqorida zikr etilgan vazifalar katta (bosh) inoqqa tegishli. Kichik inoqlar esa chet el elchilari tomonidan taqdim qilingan hujjatlar, normalarni qabul qilgan. Aynan unda oliy hukmdor muhri ham saqlangan.

Amirlikdagi muhim davlat mansablaridan biri **to'qsobo** bo'lgan. Asl ma'nosiga ko'ra, tug', ya'ni oliy hukmdor – davlat bayroqdori hisoblansa-da, u oliy marosimlarda ishonchli shaxs sifatida hukmdor oldiga taom tortish kabi mas'uliyatli tadbirlarni ham bajargan. Shu bilan birga unga biron-bir tuman ham biriktirib qo'yilgan. Ammo XIX asrga kelib esa mazkur lavozim egasi xuddi dodxoh kabi harbiy vakil darajasiga ko'tarilgan. Harbiy ishlar bo'yicha eng yuqori darajada esa harbiy vazir turgan. Uni ko'proq lashkar to'pchiboshisi nomi bilan ataganlar. Buxoro garnizoni boshlig'i lashkar boshlig'i sanalib, amalda harbiy vazir vazifasini o'tagan.

Harbiy vazirning lashkar to'pchiboshisi deb atalishi qo'shin va undagi o'sha davr eng zamonaviy qurollari bilan bog'langan.

Shuningdek, boshqaruvda ko'kaldosh (mamlakat miqyosida xavfsizlik xizmati boshlig'i), **bosh xoja** (haram xodimlari boshlig'i), **mehtar**, **qutvol** (qurilish ishlariga mas'ul), bakovulboshi, kichik urog' (oliy hukmdor va amaldorlarning xizmatidagilarni nazorat qilib turuvchi xodim), **eshikog'aboshi**, **miroxur**, **qo'rchiboshi** (qurol-aslahaga mas'ul), **qorovulbegi** (shahar, yo'llar posboni), **udaychi** (urush paytida harbiylarni turiga qarab taqsimlovchi), **shig'ovul** (elchilar qabulini uyushtiruvchi) kabi qator lavozim va xizmatlar ham bo'lganki, ular o'zlarining to'g'ridan-to'g'ri vazifalaridan tashqari, amirlik siyosiy hayotida tutgan shaxsiy mavqelari bilan ham qadrlanganlar.

Shunga ko'ra, o'z-o'zidan ular egallab turgan lavozimning qadr-qimmatini ham oshgan. Masalan, 1842-yili Qo'qonni bo'ysundirgach, amir Nasrulla bu yerga noib sifatida parvonachi unvonidagi o'z kishisini tayinlagani ma'lum.

Boshqa xonliklar singari amirlikda ham mafkuraviy munosabatlarda eng oliy daraja hisoblangan **shayxulislom** mansabi bo'lgan, u hatto jamiyat ma'naviy hayotida muhim o'rin egallab, hukmdor turish-turmushiga ta'sir ham etgan. Bu lavozimga hatto **qozi kalon** ham bo'ysungan. Oliy qoziga o'z o'rnida quyi tabaqa qozilari, jumladan, askar qozisi ham hisob berib turgan. Qozi kalonning vakolatiga quyidagilar kirgan: umuman sud ishlari, ijtimoiy adolat bilan bog'liq masalalar, xususan, bozor, ko'cha-kuylardagi ahvol, mad-rasalardagi ta'lim, vaqf ishlari, yo'qolgan vaqf hujjatlarini tiklash, yetim va bevalar haq-huquqini himoya qilish, karvonsaroylardagi tartib va hokazo. Amir Shohmurod davrida qozilik tizimida qator o'zgarishlar qilingan. Chunonchi, oliy mahkama ta'sis etilib, uning ishida 40 nafar faqih (qonunshunos) faoliyat ko'rsatgan. Sud jarayonida ayblanuvchi ham, jabrlanuvchi ham albatta ishtirok etishi kerak bo'lgan. Biron-bir tomon egallab turgan yuqori lavozimi orqasida javobgarlik, guvohlikdan bosh tortolmagan. Shuningdek, mazkur tizimda **muftiy** (rivoyat va fatvo bilan ta'minlovchi), **ra'is** (muhtasib), **sadr** (vaqf mulklari hisob-kitobi va nazorati bilan shug'ullanuvchi) kabi xizmatlar ham faoliyat ko'rsatgan.

Bugungi kunda biz oliy qozi, qozi kalon deb istefoda etsak-da, o'z davrida bu lavozimdagi Qozi ul-quzzot nomi bilan aytilgan.

Bir davlatdan ajralib chiqqan xonliklardagi boshqaruv tizimi ham amirlikdagiga ancha o'xshash bo'lgan. Xiva xonligidagi inoq vazifasi shayboniylar hukmronligining so'nggi davrlarida katta mavqega ega edi. Masalan, Xivada Muhammad Amin inoq 1770-yili hatto hokimiyatni qo'lga kiritishga erishgan. Ammo XIX asr birinchi yarmida esa Xiva xonligida xondan keyingi muhim lavozim **qushbegi** bo'lgan. Keyinchalik esa devonbegi mavqeyi xonlikda oliy hukmdordan keyin ikkinchi hisoblangan. U nafaqat boshqaruv, oliq-soliq, moliya ishlari, harbiy masalalar, chunonchi, harbiy yurishlarga bosh bo'lish, askarlarga nafaqa va mukofot tayinlash, dushman bilan muzokara olib borish, sulh tuzish kabilarga ham daxldor bo'lgan. Xiva xonligi boshqaruvida **dorug'a, qutvol, to'qsabo, shig'ovul, yasovulboshi, mingboshi, yuzboshi, soloq, sardor, munshiy** kabi vazifalar ham muhim o'rinlarni egallagan.

Qo'qon xonligida **qushbegi, devonbegi, otaliq, parvonachi, dodxoh** kabi mansablarning mavqeyi baland hisoblangan holda, harbiy lavozim egalarining, ayniqsa, harbiy sohadagi mingboshi lavozimining roli nihoyatda yuqori edi. Ayrim holatlarda qushbegi, parvonachi lavozimidagilarga ham bunday unvon berilgan.

Bu borada mingboshi unvondagi Musulmonqulning hatto hokimiyatni qo'lg'a olib, butun xonlik ishlarini yurgizgani haqida to'xtab o'tgan edik.

Ikki xonlik va amirlik hududlari va aholisi tarkibida o'zaro urushlar, vayronagarchilik va ocharchiliklar natijasida o'zgarishlar bo'lib turgan. Biroq, aholi ahvoli qanchalik og'ir bo'lmasin, oila boqish, kun ko'rish uchun mashaqqatli mehnatga ham, soliq va majburiyatlarga ham chidashga majbur edi.

Xonliklar va amirlik hududi hamda aholisi

Xiva xonligi	Qo'qon xonligi	Buxoro xonligi (amirligi)
Hududi hozirgi Xorazm viloyati, Qoraqalpog'iston va Turkmanistonning shimoliy tumanlari	Hududi Farg'ona vodiysi. XVIII asr oxirlarida o'z mulklarini Toshkent, O'ratepa, Xo'jand va ularga qarashli hududlar hisobiga kengaytirdi	Hududi Zarafshon daryosi vohasi, keyinchalik Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari
Aholining asosiy qismi: turli o'zbek qabilalari (qadimgi Xorazm aholisi avlodlari), ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi turkman, qoraqalpoq, qozoq va h.	Aholisi asosan o'zbek, tojik, qozoq va qirg'izlardan iborat bo'lgan	Aholisi o'troq (ko'p sonli o'zbek qabilalarining avlodlari va tojiklar). Ko'chmanchi (mahalliy turk qabilalari – Xitoy qipchoqlari, markitlar, turkmanlar va qozoqlar)

Xonliklar davrida siyosiy munosabatlar qanchalik murakkab bo'lmasin, iqtisodiy sohada sun'iy sug'orish ishlariga e'tibor susaymagan. Buxoro amirligida Shohmurod, Haydar hukmronligi yillarida ko'p suv inshootlari qurilgan.

Xiva xonligida esa sun'iy sug'orish borasida oldingi asrlarga nisbatan ko'p ish qilingani yaqqol ko'rinadi. Albatta, bunda eng avvalo xonlar va yirik amaldorlar tashabbus ko'rsatgan. Arabmuhammadxon Tuk qal'asidan Kuygun tomon qazitgan kanal, Abdulg'oziy Bahodirxon nomi bilan bog'liq g'ozibod kanalining ta'mir etilishi, Anushaxon zamonida qurilgan Shohobod (uzunligi 143 km, eni 30 metr, chuqurligi 3,5 metr), O'rmish (uzunligi 96 km, eni 17,5 metr) kanallari, Ali Sulton qurdirgan Toshli yormish kanali hamda Mang'itarna (XVII). Yangiyop va Qorako'z (XIX), Shohmurod (1846), Rahmonberdiboy, Toshsaqo (1828), Ko'hna Urganch-Xonyop (1831), Qoraqalpoq, Xonobod

(1847), Sipohiy, Muhammad Amin (1850) kabi sun'iy sug'orish inshootlari va XIX asrning 50-yillarida bunyod etilgan Kaltaminor kanali shular jumlasidandir.

Qo'qon xonligida Erdona, Norbo'ta hukmronlik qilgan davrlarda So'x daryosidan chiqarilgan kanallar, Olimxon buyrug'i bilan qazdirilgan oltita kanal (ariq) va natijada hozirda mashhur Oltiariqqa asos solinib, bu yerlarning obodonlashishi, Umarxon davrida Sirdaryodan chiqarilgan O'zgardan boshlanib Andijon va Marg'ilon oralig'idagi Shahrixonqacha boradigan kanal, Norin daryosidan boshlanadigan Yangiariq kanali (1819), Xon va Zarbak kanallari (1803), Muhammadalixon zamonida Ilamishmozordan boshlanuvchi uzunligi 30 km dan oshiq kanal, Xudoyorxon zamonidagi Chinobod (1855), Ulug'nahr (1869-1870) kabi kanallarning bunyod etilishi mazkur vodiya ham sun'iy sug'orish ishlariga e'tibor berilganini bildiradi.

Sug'orish ishlarining bunday yo'lga qo'yilishi o'lkada dehqonchilik bilan birga bog'dorchilik rivojiga ham imkon yaratgan. Bu soha rivojini yana shundan bilsa bo'ladiki, 1840-yili Buxoro amirligida faqat olingan umumiy daromad 99 mln tillani tashkil qilgan. Qo'qondagi bu sohaning bir bo'g'inida turli rang va turdagi o'n ikki ming kaptar bo'lgan ekan.

Hunarmandchilikka ham e'tibor berilgan, bu borada to'qimachilik, tikuvchilik, ko'ncilik, konchilik, misgarlik, zargarlik, yog'ochsozlik, temirchilik, kulolchilik, qog'oz ishlab chiqarish kabilarni ko'rsatish mumkin. Mallaxon davrida Qo'qonda to'p ishlab chiqaruvchi "artilleriya" korxonasi qurilgan.

Qurilish ishlariga ham e'tibor susaymagan. Buxoro shahrining o'zida XIX asr o'rtalarida, ya'ni Rossiya bosqinidan oldin, 38 karvonsaroy, 9 savdo timi, 16 hammom, 45 bozor bo'lgani ma'lum. Shuningdek, 200 dan ortiq masjid, 100 dan ortiq madrasa mavjudligi ham manbalarda yozilgan. Ular orasida Tur-sunjon (1796-1797), Xalifa Niyozqul (1807), Xalifa Xudoydod majmuasidagi madrasalar diqqatga sazovordir.

Madrasalar orasida 1795-yilda qurilgan va amirlik bilan Rossiya, Turkiya o'rtasidagi munosabatlar rivojiga hissa qo'shgan elchi Ernazar nomi bilan atalgan madrasa ham bor.

Xiva xonligida ham qurilish ishlari davom etgan. Xonlikda Arabmuhammadxon (1616), Hojamberdibiy (1688), Sherg'ozixon (1719-1728), Muhammad Amin inoq (1765), Qutli Murod inoq (1809), Olloqulixon (1832-1835), Arabmuhammadxon (1870), Musato'ra (1841), Saidboy (1842), Amirto'ra (1870), Muhammad Rahimxon (1871), Muhammadmurod devonbegi, Otajon to'ra, Qadam yasovulboshi, Ibrohimxoja, Yusuf yasovulboshi, Husayn Muhammadboy, Do'st Olim, Qozi Muhammad Salim, Islomxoja, Asfandiyorxon

madrasalari, Saidboy (1842), Oqmasjid (1875) masjidlari, Ko'hn Ark, Toshhovli, Nurullaboy saroylari, Juma, Saidboy (1842), Ko'kminor (1852-1853), Islomxoja (1908) minoralari qad ko'targan. Shuningdek, xonlikda 1835-yili Pahlavon Mahmud nomi bilan maqbara ham bunyod etilgan.

Farg'ona vodiysida esa 1740-yili Eski O'rda o'rnida Qo'qon shahriga asos solinishi natijasida qurilish ishlari ancha tezlashgan. Xonlik hududida Mir (1798), Norbo'ta, Xonmirza, Yodgor (1830), Hazrati Sohib (1861), Xudoyorxon (1850, 1870-yillari Qo'qonda, 1873-yili Namanganda, 1874-1875-yili Shohobodda, Chustda), Hakimoyim (1869), Sulton Murodxon (1871), Ma'rufxonto'ra (Namangan va Asakada), Olimbek (O'shda), Nasriddinbek (Andijonda), Toshkentda XIX asrda qurilgan Muyi Muborak, Eshonqul dodxoh, Yunusxon, Abdulqosim madrasalari qurib bitkazilgan. Toshkent shahrida XIX asrda qurilgan bu madrasalar orasida yana bir madrasa ham qurilganki, u yuqori Beglarbegi nomi bilan mashhurdir.

O'tgan sulolalar kabi mang'itlar, qo'ng'irotlar, minglardan chiqqan namoyandalar ham o'z davri va doiralarning o'qimishli shaxslari bo'lgan. Masalan, Qo'qon xoni Umarxon "Amiriy", malika Mohlaroyim "Nodira", "Komila", "Maknuna", Xiva xoni Muhammad Rahimxon II "Feruz", uning akasi Otajon To'ra Murod "Murodiy" taxallusida she'rlar bitgan. Abulg'oziy Bahodirxon "Shajarayi turk", "Shajarayi tarokima" kabi o'zbek tilida asarlar yozgan. Fazliy, Mushrif, G'oziy, Afsus, Sodiq, Xijolat, Hoziq, Xotif, Mahmur, Gulxaniy kabi etuk qalam sohiblari Farg'ona vodiysida yashab ijod qilgan. Shuningdek "Afzal at-tavorix", "Tarixi Umarxon", "Risolayi askariya", "Muntaxab at-tavorix", "Tarixi Shohruxiy", "Tarixi jahonnamoy", "Xulosat al-axbor", "Tasnifi g'arib" kabi boshqa ko'plab tarixiy asarlar ham xuddi shu davrda Qo'qon xonligi doirasida yaratilgan.

O'sha davrdagi tarixiy asarlar orasida Toshkentning yangi tarixiga bag'ishlangan "Tarixi jadidai Toshkand" kitobi ham yozilgan.

Buxoro amirligida ham tarix yozishlik harakati to'xtamagan. Bu yerda "Tuhfat al-xoniy", "Tarixi amir Haydar", "Fathnomayi sultoniyy", "Mang'itlar xonodoni saltanati qisqacha tarixi", "O'zbek podshohlari zikri", "Tarixi salotini mang'itiya, o'zbakiya va ashtarxoniya" kabi asarlar yaratilgan.

Xiva ham tarixiy asarlar bitish borasida o'ziga xos markazga aylangan. Zikr qilingan "Shajarayi turk", "Shajarayi tarokima", Munisning "Firdavs al-iqbol", Ogahiyning "Riyozi ad-davla", "Zubdat at-tavorix", "Iqboli Feruziy", Bayoniyning "Shajarayi Xorazmshohiy", "Xorazm tarixi", "Jome al-voqeoti sultoniyy", "Gulshan ad-davlat", "Iqboli Feruziy" asarlarining yozilganligi eng katta dalildir. Xivalik tarixchilar Mirxond, Xondamir, Yazdiy, Vosifiy, Rashi-

diddin, Binoiy, Sa'diy, Nizomiy, Xisraviy, Nosiriy, Darvish Ahmad, Mas'udiy asarlarini arab va fors tillaridan o'zbekchaga o'giranlar.

Xiva olimlari va tarixchilari o'z asarlarini yangi o'zbek tilida yozib, tarixshunoslikka katta hissa qo'shganlar. Xiva xonligida doston kuylovchilar – “baxshilar” ko'p bo'lgan. Bu xonlik hududida turkmanlar, qoraqalpoqlar ham yashashgan. Ularda ham “baxshilar” bo'lgan. Ular o'z baxshilarini jirlovchilar deb atagan.

Xonlikda ayol ashulachilar ham bo'lgan. Ularning ko'pi faqat ashula aytish bilan cheklanmay, san'atning boshqa turlaridan ham xabardor bo'lishgan. Bunday ayollar xonlikda xalfalar nomi bilan atalgan. Ularning bu nomi arabchadan olingan bo'lib, ergashmoq, o'rnini bosmoq ma'nolarini bildirgan.

Xullas, xonliklar davrida ajdodlar sun'iy sug'orish ishlari, qurilish, dehqonchilik, hunarmandchilik, fan va madaniyat, savdo, tashqi aloqalar (Eron, Afg'oniston, Hindiston, Xitoy, Rossiya va boshqalar) masalalarida to'xtab qolmaslik harakatlarini qilgan. Undan oldingi o'tmish madaniyatini nazarda tutsak, kelayotgan fan va texnika asrida (XX) taraqqiyotning oldingi saflarida turishlari uchun ularning potensial imkoniyatlari bor edi. Ammo davlat siyosatida, yakkahukmdorlik asosida qurilgan ijtimoiy-siyosiy tizimdagi yetakchi kuchlar – xon-u amirlar, bek-u amaldorlar faoliyatida ana shu zamonaviy taraqqiyot asoslarining inkor etilishi, ulardan milliy manfaat yo'lida foydalana bilmaslik, o'z tor doiralari o'ralashib qolishlik, dunyo miqyosida fikrlashning yo'qligi pirovardida qimmatga tushdi.

Xonliklar davrida hududiy parchalanganlik, harbiy jihatdan qoloqlik bilan birga siyosiy jihatdan tarqoqlik XIX asrning 60–70-yillarida yurtning Rossiya bosqinchilari tomonidan zabt etilishiga olib keldi.

Bu davrda xonliklar va hatto bekliliklar o'rtasida kelishmovchiliklar, o'zaro nizo va urushlar xalq ahvolini og'irlashtirdi. Hukmdor va amaldorlarning o'zboshimchaligi xalqlar o'rtasida nizolarga ham sabab bo'ldi. Birgina misol. 1858-yili mart oyida Toshkent hokimi Mirzo Ahmad 300 nafar askari bilan Avliyootaga kelib, qozoq biylarini yig'adi. Ulardan faqat qo'ylardan emas, balki tuyalar, otlar va boshqa qoramollar uchun ham soliq to'lashni talab etadi. Bunga qarshi qozoq xalqi norozilik bildiradi. Shundan so'ng hokim zulmni yanada kuchaytirib, endi yangi turmushga chiqqan kelinlardan ham 1 tildan soliq undirishni talab etadi. Aynan ruslar bosqini davridagi bu holat ham Turkiston xalqlari o'rtasidagi nizoni yanada kuchaytirgan edi.

Xonliklar davri yurt va xalq tarixining katta tarixiy saboq bo'ladigan davridir. Bu davrni jamiyat borlig'i va taraqqiyotini belgilab beruvchi davlatchilik asoslarining nihoyatda zaiflashib borganligidan, oqibatda millat va davlat qaramlik ahvoriga tushib qolganidan kelib chiqqan holda o'rganish va bilish muhimdir.

Bu davrda asrlar davomida bir butun boʻlgan xalqning, mamlakatning uchga boʻlinishi, urushlar, ichki nizo va feodal boshboshdoqliklar yurtni xonavayron qildi. Aholi xonlar, beklar, amaldorlar zoʻrovonligi, gʻayriqonuniy soliq va jarimalardan azob chekdi. Ularning turmush darajasi pasaydi. Xon va saroy aʼyonlari taraqqiyotga xalaqit berayotgan ishlab chiqarish munosabatlarini himoya qildi, eski yerga egalik munosabatlari oʻzgarmadi, yerlarning unumdorligini oshirish haqida qaygʻurilmadi.

Yevropada pul investitsiyaga ishlatilayotgan bir paytda, xonliklarda oltinlar xon va amaldorlar qoʻlida toʻplanib boraverdi. Tijorat ishlari, tovar-pul munosabatlari imkon darajasida rivojlanmadi. Davlat daromadlari xarajatlarni oqlay olmadi. Xonliklar jahon bozorida ajralib qoldi. Hatto ichkarida ham yagona bozor yoʻq edi.

Yurtda xalqlar koʻchib yura boshladi, etnik nizolar kuchaydi. Eng muhim saboq shundaki, asrlar davomida bu hududda yashayotgan aholida “Yagona xalq”, “Yagona vatan” tuygʻusi yoʻqoldi. Bunday tuygʻularning yoʻqolishi oʻzgalarga qaram boʻlib qolishning bosh sababi edi.

Prezident I.A.Karimov oʻzining “Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch” nomli asarida xonliklar davridagi nizo va adovatlar, oʻz qobigʻiga va eski aqidalarga oʻralashib yashash natijasida bir vaqtlar buyuk madaniyat va taraqqiyotni boshidan kechirgan elning, yurtning bu paytga kelib qanday ahvolga tushib qolganini tasavvur qilinadigan boʻlsa, koʻp narsa ayon boʻlishini qayd etadi. Tarixning bunday murakkab va hal qiluvchi burilish pallasida har bir millat va elat oʻz ahilligi va birdamliligini saqlab, milliy manfaatlari yoʻlida qatʼiy turmasa, masʼuliyat va hushyorligini yoʻqotadigan boʻlsa, oqibatda eng katta tengsiz boyligi – mustaqilligi va ozodligidan judo boʻlishi mumkin, deb ogohlantiradi.

Yurtboshi oʻz asarida xonliklar davridagi siyosiy boshboshdoqlik, hukmron kuchlarning maʼnaviy zaifligi tufayli chorizm istilosiga olib kelganligini taʼkidlab, bu achchiq haqiqat barchaga, ayniqsa, bugun hayotga katta umid va ishonch bilan kirib kelayotgan yoshlarga doimo saboq boʻlishi lozimligini uqtiradi¹.

Tayanch soʻz va iboralar:

Dashti Qipchoq. Muhammad Shayboniyxon. Samarqand uchun kurashlar. Shayboniylar davlati. Ubaydulla Sulton. Buxoro xonligi. Abdullaxon II. Ashtarxoniylar davlati. Xalq ahvoli. Boshqaruv tizimi. Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot. Xiva xonligi. Qoʻngʻirotlar hukmronligi. Qoʻqon xonligi.

¹ Karimov I.A. Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch. – 51-52-betlar.

Shohruxbiy. Musulmonqul. Xudoyorxon. Buxoro amirligi. Muhammad Rahim. Xonliklar boshqaruv tizimi. Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot. Xonliklarga bo'linish oqibatlarī.

Bilimingizni sinab ko'ring

1. XI asr o'rtalaridan boshlab Balxash ko'li va Sirdaryoning quyi oqimlaridan Dnepr daryosining quyi oqimlarigacha bo'lgan hududlar manbalarda bir xil nom bilan aytilgan. Bu hududda yashagan aholi esa ko'chmanchi o'zbeklar nomi bilan atalgan. 1236-yilda bu yerda Botuxon Oltin O'rda davlatini tuzgan. So'ng bu hududda Abulxayrxon va Muhammad Shayboniyxonlar ham o'z davlatlariga asos solganlar.

Bu hudud manbalarda qanday nom bilan ataladi?

				i
--	--	--	--	---

	i			o	
--	---	--	--	---	--

2. Muhammad Shayboniyxon 1501-yilda Samarqandni, 1503-yilda Toshkentni, 1504-yilda Hisorni, 1505-yilda Urganchni, 1507-yilda Hirotni, 1509-yilda Marvni o'ziga bo'ysundiradi. Mashhad va Tus shaharlarini ham egallab, bir hududga va undagi davlatga xavf tug'diradi. Bu hududdagi davlat bilan urishib mag'lub bo'ladi. Shayboniyxon asir olinib o'ldiriladi.

Shayboniyxon xavf tug'dirgan hudud va undagi davlat qanday nomlangan va Shayboniyxon bilan urishgan hukmdor kim edi?

		o	
--	--	---	--

(hudud nomi)

			a		i		l	a	r
--	--	--	---	--	---	--	---	---	---

(davlat nomi)

	o	
--	---	--

			o		
--	--	--	---	--	--

(hukmdorning nomi)

3. Abdullaxon II 1552-yili hokimiyatni mustahkamlash niyatida hozirgi Qarag'anda viloyatining g'arbida, Sariqsuv daryosining shimolida joylashgan toqqacha yetib boradi. U tog' tepasida Amir Temur qurdirgan minora va yozib qoldirilgan bitikni ko'rib, o'zi ham minora qurdirib bitik yozib qoldiradi.

1391-yilda Amir Temur, 1552-yilda Abdullaxon II lar qurdirgan minoralar va yozib qoldirgan bitiklar qaysi tog'da edi?

		u		t	o	g'
--	--	---	--	---	---	----

4. Ashtarxoniy Boqimuhammad. Valimuhammad, Imomquli, Nodirmuhammad, Abdulaziz. Subhonqulilar Balx masalasida juda ko'p ziddiyatlarga duch kelgan. 1645-yildan boshlab mamlakatda qo'sh hokimiyatchilik ham hukm surgan. Balxdagi Nodirmuhammad Buxorodagi oliy taxtni qaytarib olish uchun bir qo'shni davlatdagi hukmron suloladan yordam so'ragan. Ular esa vaziyatdan foydalanib qo'shin tortib kelgan va ikki yil davomida (1646-1647) Balx va Badaxshonda hukmronlik qilganlar.

Katakchalarda ikki yil ashtarxoniylerden Balx va Badaxshonni tortib olib hukmronlik qilgan sulolaning nomi yashiringan. Uni toping.

			u		i				
--	--	--	---	--	---	--	--	--	--

5. Shayboniyler davlatida dargohda xondan keyingi o'rinda turuvchi bir lavozim bo'lib, u tarjimada sardor, boshliq, yetakchi ma'nolarini anglatgan. U xonning eng yaqin va ishonchli kishilaridan hisoblangan. Xonning farmon, yorliqlarida ham uning nomi birinchi bo'lib zikr etilgan. U davlatning ichki va tashqi siyosati hamda harbiy masalalarda oliy hukmdorning birinchi maslahatchisi sifatida qaralgan. Bu lavozimga asosan payg'ambar avlodlari hisoblanmish sayyidlar xonadoniga mansub kishilar tayinlangan.

Bu lavozim qanday nomlangan?

	a		i	
--	---	--	---	--

6. Ashtarxoniy hukmdorlardan birining davrida tibbiyot ilmi ancha rivoj topgan. Xoning o'zi ham bu ilmga homiylik qilgan. Buxoroda "Dor ush-shifo"(kasalxona) tashkil etilgan. Bu maskanda davolash ishlari bilan birga tadqiqot ishlari ham olib borilgan. Xonning o'zi ham bu tadqiqot ishlarida qatnashib "Ixyo at-tibbi Subhoniy" asarini yaratgan.

Katakchalarda yashiringan Buxoroda "Dor ush-shifo" ochib, unda tadqiqot ishlari olib borgan va sakkiz bobli asar yozib qoldirgan xoning nomini toping.

			h			Q				x	o	
--	--	--	---	--	--	---	--	--	--	---	---	--

7. Xiva xonligida Habash va Elbarslar otasiga qarshi chiqib, ota ko'ziga mil torttirib, qatl ettiradilar. Bu aka-ukalar ikki yil o'tmay o'z ukalari Asfandiyor tomonidan taxtdan tushiriladi. 1643-yilda Asfandiyor vafot etgach, tarixda

xon. olim, ijodkor nomi bilan qolgan ukasi taxtga ko'tariladi. Bu ijodkor xon kim edi?

		u			o				x	o	n
--	--	---	--	--	---	--	--	--	---	---	---

8. Qo'qon xonligi hududlari Umarxon davrida ancha kengaygan. U 1805-yil Xo'jandni, 1809-yil Toshkent viloyatini xonlik ixtiyoriga oladi. Sayram, Turkiston va Avliyootagacha bo'lgan yerlarga yurishlar uyushtiradi. Sirdaryo-dan irmoq olgan Yangidaryo hududlarigacha borib, 1813–1815-yillarda Sirdaryoning o'ng qirg'og'ida Oqmachit qal'asiga asos soladi.

Umarxon asos solgan bu qal'a bugungi kunda qanday nomlanadi va u qaysi davlat hududida joylashgan?

	i		i	
--	---	--	---	--

			a
--	--	--	---

(qal'aning bugungi nomi)

			o		i			o		d	a
--	--	--	---	--	---	--	--	---	--	---	---

(joylashgan hudud nomi)

9. Buxoro amirligida hukmdor bo'lgan amir Shohmurod o'zining yaxshi xislatlari bilan xalq dilidan joy olgan. O'zi ham nihoyatda kamtarin hayot kechirishga harakat qilgan. Manbalarda yozilishicha, uning o'zi uchun kundalik xarajatlari bir tangadan oshmagan ekan. U shuningdek, otasi davrida joriy qilingan oliq-soliqlarni ham bekor qilgan.

Unga xalq mehri shunchalik baland bo'lganki, hatto unga bir ijobiy taxallus ham berishgan. Bu qanday taxallus edi?

	e		u			
--	---	--	---	--	--	--

a	m	i	r
---	---	---	---

IX BOB. TURKISTONNING ROSSIYA IMPERIYASI TOMONIDAN BOSIB OLINISHI. TURKISTON XALQLARINING MUSTAMLAKACHILIK ZULMIGA QARSHI MILLIY-OZODLIK HARAKATLARI. JADIDCHILIK

Mavzu rejasi:

1. Rossiya imperiyasi tomonidan Turkistonning bosib olinishi.
2. Mustamlakacha idora usuli. Mustamlakachilikning siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-madaniy yo'nalishlari.
3. Mustamlakachilik zulmiga qarshi Turkiston xalqlarining milliy ozodlik harakatlari.
4. Turkistonda jadidchilik harakati.

1. ROSSIYA IMPERIYASI TOMONIDAN TURKISTONNING BOSIB OLINISHI

XIX asrning II yarmi va XX asr boshlari dunyo miqyosida yirik davlatlarning mustamlakalarni ko'paytirish harakatining kuchayishi bilan tavsiflanadi. Boshqa yirik mustamlakachi davlatlar qatorida Rossiya ham bo'lib, o'z mustamlakalarini ko'p bo'lishiga qaramay, O'rta Osiyoni qanday bo'lmasin egalashni bosh maqsad qilib qo'ygan edi.

Bu maqsad, uni amalga oshirishda chor Rossiyasining bosqinchilik harakatlari, vahshiyliklar, bosqinchilarning bu yerda amalga oshirgan mustamlakachilik siyosati mohiyati, Turkiston xalqlarining milliy ozodlik harakatlari masalalari arxiv hujjatlari asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilish akademiyasi, O'zbekistonning yangi tarixi markazi va boshqa oliy o'quv yurtlari olimlari tomonidan tayyorlangan "Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida"¹ nomli 1-kitobda keng yoritilib, bu davr tarixiy jarayonlari ilmiy tahlil etilgan.

Tarixdan ma'lumki, chor Rossiyasi XVIII asr boshlaridan boshlab bu yurt orzusida bo'lgan. Keyingi davrlarda, to bosqinchilik harakatlarini boshlagunlarigacha ham ular ana shu orzu bilan yashaganlar.

Shu jihatdan, chor Rossiyasining O'rta Osiyoni bosib olish harakatlarini uch davrga bo'lish mumkin.

¹ Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. – T.: "Sharq", 2000.

Birinchi davr: Chor Rossiyasining Oʻrta Osiyoni bosib olish harakatlari XVIII asr boshlaridan boshlanadi. Birinchi intilish buyuk davlatchilik nuqtayi nazaridan turib Oʻrta Osiyoning boyliklariga koʻz olaytirgan Pyotr I zamonida, 1714 – 1717-yillarida boshlangan edi. Shu maqsadda 1714-yili Preobrajinskiy polkining poruchigi knyaz Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy boshchiligida yuborilgan ekspeditsiya Kaspiy dengizining sharqiy qirgʻoqlarini oʻrganib, Krasnovodsk qoʻltigʻida istehkom qurishi, Xiva xonligiga yetib borib xonni rus fuqaroligiga oʻtishga undashi, undan Buxoroga oʻtib Amirni ham Rossiya panohiga oʻtishga koʻndirishi kerak edi. Amalda ekspeditsiya Krasnovodsk qoʻltigʻida 3 ta istehkom qurdi. Rus askarlarining koʻpchiligini bezgak kasalligi bilan qirilib ketishi natijasida ekspeditsiya 1716-yili Astraxanga qaytib ketishga majbur boʻldi.

Kapitan Ivan Buxgolts boshchiligidagi ikkinchi ekspeditsiya 3727 piyoda, 617 ta otliq, 2000 kazak askarlar, 230 dengizchi va 22 ta toʻp bilan 1715-yilning boshida Tabolskdan yoʻlga chiqib, Irtish daryosi boʻylab suzib bordi va Yalishov koʻli yonida qalʼa qurdi. Ekspeditsiyaning janubga yurishiga qalʼmiqlarning hujumi yoʻl qoʻymadi va ular qaytishda 1716-yili Omsk qalʼasini qurib qoldirdi.

1717-yilda poruchik Bekovich-Cherkasskiy boshchiligida yangi tuzilgan ekspeditsiya Orol dengizining Gʻarbiy sohili boʻylab Amudaryo orqali Xivaga yetib, Shergʻozixon bilan muzokaralar olib boradi. Shergʻozixon hiyla ishlatib ekspeditsiya aʼzolarini qirib tashlaydi. Bekovich-Cherkasskiyning boshini esa Xivaning gavjum bozori darvozasining tepasiga osib qoʻyadi. Qurilgan qalʼalarni esa turkmanlar buzib tashlashadi. Shunday qilib, Pyotr I ning qabih niyatlari amalga oshmaydi.

Bu vaqt, yaʼni XVIII asrning birinchi choragida, koʻchmanchi qozoqlar Yoyiq daryosi va Kaspiy dengizidan Xiva xonligi chegarasigacha boʻlgan ulkan hududda, Katta, Oʻrta va Kichik juzlarga boʻlingan holda, istiqomat qilardi. Qozoq sultonlari oʻrtasidagi oʻzaro urushlar ularni tobora zaiflashtirayotgan edi. Shu hududda yashagan qolmiqlar ham tez-tez qozoqlar ustiga yurish qilib, qonli toʻqnashuvlar boʻlib turar edi. 1723-yildagi ocharchilik qozoqlarga qimmatga tushdi. Ular nochor ahvolda tashqaridan yordam kutdilar.

Kichik juz oqsoqoli Abdulxayrxon 1730-yilda Rossiya davlatiga murojaat qilib, oʻz juzini Rossiya panohiga olinishini soʻradi va 1732-yilda Kichik juz Rossiya imperiyasi himoyasiga oʻtdi. Abdulxayrxon choʻl orqali Oʻrta Osiyoga oʻtadigan va u yerdan qaytadigan rus savdo karvonlarini talonchilik hujumlaridan himoya qilishni oʻz zimmasiga oldi. Keyinroq 1739-1740-yillarda Oʻrta juz, 1747-yilda Katta juz ham Rossiya tobeligiga olindi. Kichik, Oʻrta

va Katta juzlar Rossiya tobeligiga o'tishi bilan rus davlatining O'rta Osiyo tomon harakat qilishi uchun imkoniyat vujudga keldi.

Ikkinchi davr: Chor Rossiyasining keyingi podshohlari to XIX asrning II yarmigacha asosan o'zining elchilarini, josus-sayohatchilarini yuborish orqali O'rta Osiyoning tabiatini, boyliglarini, harbiy, iqtisodiy imkoniyatlarini o'rganishga kirishadi. Birgina Nikolay I (1825–1855) va Aleksandr II podsholigi (1855–1881) davrida Qozog'iston hududlarida 103 ga yaqin harbiy qal'alar, tayanch punktlari qurildi.

1840-yilning noyabrida Orenburg gubernatori general mayor V.A.Perovskiy 2 ta zambarak, 40 ta arava, besh ming tuyadan iborat harbiy qism bilan Xivaga qarshi yurish boshlaydi. Biroq, cho'ldagi qattiq sovuqlar, kiyim-kechak, suv yetishmasligi natijasida kasallik ko'payadi va bu yurish ham natijasiz tugaydi. Bundan buyon Rossiya xonliklar bilan josuslik yo'lida diplomatik va savdo aloqalarini kuchaytirishga harakat qila boshlaydi.

Bu davrda yirik mustamlakachi davlat Angliya ham O'rta Osiyo uchun zimdan harakat boshlagan edi.

1764-yili Hindistondan Fransiyaning siqib chiqarilib, uning Angliya mustamlakasiga aylantirilishi natijasida Buyuk Britaniya "nigohini" O'rta Osiyoga qaratishi Rossiyani tashvishga solib qo'ydi va ikki imperiya o'rtasida o'zaro raqobat kuchaydi. Inglizlar josuslik maqsadlarida 1824-yili Markfordni, 1831-yili A.Byornsni Buxoroga yuborib, ular O'rta Osiyo to'g'risida ma'lumotlar to'play boshladi. 1838–1842-yillardagi Ingliz-Afg'on urushlarida Angliya mag'lubiyatga uchrasa-da, Osiyo bozorini qo'lga kiritish maqsadidan voz kechmagan edi.

Angliya hukumati 1841-1842-yillarda o'z maqsadlarini ko'zlab Rossiyaning O'rta Osiyoni istilo qilishining oldini olish maqsadlarida Stoddart va Kannolini xonliklarga maxsus missiya bilan yubordi. Xonliklarning harbiy kuchlarini birlashtirishga Qo'qon va Xiva xonlari (Sherali va Olloqullixon) rozi bo'lishdi. Buxoro amiri Nasrulloxon esa ingliz elchilarini qatl ettirdi.

Chor Rossiyasining O'rta Osiyoni tezroq egallashdan asosiy maqsadlari nimalardan iborat edi?

1. Bu davrda Rossiya G'arbiy Yevropa mamlakatlari va AQSh dan iqtisodiy jihatdan orqada qolayotgan edi: 1860-yili Rossiya Fransiyadan 7,2 barobar, Germaniyadan 9 barobar, Angliyadan 18 barobar kam sanoat mahsuloti ishlab chiqarardi. Shu sababli rus tovarlari Yevropa bozorida raqobatga bardosh bera olmas edi.

2. 1856–1857-yillardagi Qrim urushida Rossiyaning mag'lubiyatga uchrashi natijasida Bolqondagi "orzusi" amalga oshmaganligi O'rta Osiyoning

ahamiyatini yanada oshirdi. Ikkinchi tomondan, urushda Angliyaning Turkiya tomonidan turib Rossiyaga qarshi urushganligi uchun O'rta Osiyoni bosib olish orqali unga "diplomatiya tarsakisini" bermoqchi bo'ldi.

3. 1861-1862-yillardagi fuqarolar urushi natijasida Amerika paxtasining Yevropa va Rossiyaga kelmay qolishi Rossiya yengil to'qimachilik sanoatini qiyin ahvolga solib qo'ydi. Natijada Rossiyaning tajovuzkorlik harakati tezlashdi.

Rossiya tomonidan O'rta Osiyoga qarshi boshlangan faol harbiy harakatlar natijasida bosib olishning **uchinchi davri** boshlandi.

Rossiya imperiyasi dastavval mustaqil Qo'qon xonligi hududlarini bosib olish uchun urush harakatlarini boshlab yubordi. 1852-yilda Blaramberg otryadi Qo'qon xonligining Sirdaryo sohilidagi Oqmachit qal'asiga hujum qilib, uni egalay olmadi. 1853-yilda ikkinchi marta general Perovskiy boshchiligidagi 67 ta to'p, 2500 kishilik qo'shin bilan qal'aga hujum qilindi. Qal'ani salkam bir yarim oy himoya qildilar. Qal'a olingan 28-iyul kuni faqat 74 kishi asir olingan bo'lib, ular qurol ushlashga madori qolmagan yarador mudofaachilar edi. Bu jangda rus qo'shinlaridan 19 kishi o'lgan va 66 kishi yarador bo'lgan edi.

1859-yili imperator Aleksandr II ishtirokida saroy kengashi o'tkazilib, unda Qo'qon xonligini tugatish va bu maqsadni amalga oshirishda shafqatsiz urush olib borish taktikasini qo'llash kelishib olindi. 1860-yil 4-iyunda Avliyoota, 12-iyunda Turkiston, 4-sentabrda Pishpek shahri bosib olindi. Navbat Qo'qon xonligining muhim strategik qal'asi Chimkentga kelgan edi. Chorizm armiyasining birlashgan kuchlariga polkovnik Chernyayev, shahar himoyachilariga Qo'qon qo'shinlarining qo'mondoni Alimqul boshchilik qildi. 1864-yil 22-iyul kuni shahar rus qo'shinlari tomonidan o'rab olindi. O'rtada bo'lib o'tgan jangda Alimqul rus qo'shiniga zarba berib, ularni mag'lubiyat alamini tatib ko'rishga majbur qildi. Chernyayevga yordamchilarning kelishi ham vaziyatni o'zgartira olmadi. Sotqinlarga pulning ayamay sarflanishi, shaharning to'plardan ayovsiz o'qqa tutilishi natijasida shahar vayronaga aylantirildi. Shahar 22-sentabr kuni shturm bilan olindi. Himoyachilardan 12.000 kishi halok bo'ldi.

Rossiya hukumati hali Toshkentni egallashga vaqt bor, deb hisoblashiga qaramay, tavakkalchi Chernyayev boshchiligidagi rus qo'shinlari Toshkentni bosib olish uchun yo'lga chiqdi. Toshkent yonidagi jangda polkovnik Chernyayev mag'lub bo'lib, qaytib ketishga majbur bo'ldi.

Bosqinchilar 1865-yilning aprel oyida 12 ta to'p va 1950 askardan iborat qo'shin bilan ikkinchi marta Toshkent tomon yurdilar. Ularga alamzada, yurt xoini Abdurahmonbek yordam berdi. Uning maslahatiga muvofiq Toshkentni

suv bilan ta'minlab turuvchi Kaykovus kanalining boshida joylashgan Niyozbek qal'asi jang bilan egallandi va anhor to'sib qo'yilib, Toshkent shahri suvsiz qoldirildi. Chernyayev hal qiluvchi harakatni janubdan, Temur darvoza tarafdin boshladi. Birinchi to'qnashuv 1865-yilning 9-mayida bo'lib o'tdi. Bosqinchilarga qarshi qo'mondon Alimqul boshchiligidagi qo'shin qarshi chiqib, ularning yo'lini to'sib, og'ir jang boshlandi. Shu jangda Alimqul og'ir yarador bo'lib, halok bo'ldi. Amir lashkarboshiligi vazifasini Xudoyorxonning qarindoshi – Sulton Sayidxon o'z zimmasiga oldi. Chernyayev 15-mayga o'tar kechasi shaharga hujum uyushtirdi. Shaharda 16-maydan boshlab ko'cha janglari davom etdi. Nihoyat toshkentlik oqsoqollar vaziyatni o'nqlab bo'lmasligini nazarda tutib, Chernyayev bilan 17 iyunda muzokaralar boshlashga majbur bo'ldilar. Shu kuni o't ochish to'xtatildi.

Turkiston viloyatining harbiy gubernatori qilib tayinlangan general Chernyayev 1866-yil yanvar oyida Buxoro amirligiga qarshi urush boshladi. 1866-yil may oyida Buxoro amiri Muzaffar qo'shini bilan rus qo'shini o'rtasida Jizzax bilan O'ratepani birlashtiruvchi Yerjar tepaligi yonida jang bo'lib, shaxsiy xusumatlar ustunligi natijasida amir qo'shinlari mag'lubiyatga uchraydi. Bu g'alabadan ruhlangan ruslar 17-may kuni Xo'jand ostonalarida paydo bo'ladi. Shahar mudofaasida 5 ming kishi shahid bo'ldi. Bosqinchilar 2-oktabrda O'ratepaga hujum boshladi. 30 ming shahar mudofaachilarining yarmi halok bo'ldi.

Istilochilar endi Jizzaxni egallashni maqsad qilib, 1866-yil 11-oktabrda shahar qurshovga olindi. Shahar ahli 5 kunlik mudofaadan so'ng shaharni qo'ldan berishga majbur bo'ldi. Mudofaachilardan 6 ming kishi o'ldirilgan, 2 ming kishi asir olingan. Shu joyda xalqning "birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar" deb atalgan maqolini keltirish joizdir. Rus bosqini boshlanganda, xonliklarning birlashib bosqinchilarga qarshi kurashi g'alaba keltirishi muqarrar edi. Biroq unday bo'lmadi. Xonliklar bir-birlarini himoya qilmadi. Ular hatto dushmanlik yo'liga o'tdi. Qo'qon xoni Xudoyorxon o'z homiysi Buxoro amiriga nisbatan xoinona ish tutib, yordam o'rniga Jizzaxni egallagan general Romanovskiye tabrik telegrammasi ham yubordi.

Amir Muzaffar ruslar bilan urushga tayyor emasligini bila turib, rus qo'shinlarining yo'lini to'sish uchun 30 ming kishilik lashkarini Olloyor Devonbegi qo'mondonligida jangovar marrani egallashni buyuradi. O'zi esa qolgan lashkarlar bilan 1866-yilning aprel oyi oxirlarida yo'lga chiqib, O'ratepa yaqinidagi Rog'un qishlog'ida to'xtaydi. Bu yerda u o'z lashkarboshisi Olloyor Devonbegining husni-jamolda tengi yo'q qizini o'z huzuriga keltirishni buyuradi. Yurt taqdiri uchun hayot-mamot jangi oldida ham amir

o'zining huzur-halovatini o'ylaydi va haramiga keltirilgan 10 yoshli qiz o'z lashkarboshisining farzandi ekanligini ham unutib, ishratga berildi.

Olloyor Devonbegining sarbozi Parchayuz Abdurahmondan yozib olingan esdalikda aytilishicha, o'sha tongda bu qizning so'yilgan murdasini topishgan. Ko'p o'tmay, sevimli qizining mudhish o'limi haqidagi xabar jangovar marra-ni egallab turgan Olloyor qarindoshlari – To'xtamish va Fozil Dodxohlarning amirga qarshi adovatini uyg'otadi. Qo'shni O'ratepada ham norozilik kayfiyati kuchayadi. Bulardan bexabar amir esa O'ratepa bilan Jizzaxni birlashtiruvchi karvon yo'li yoqasidagi katta bir tepalikda o'z qarorgohini o'rnatadi. General Romanovskiy boshliq rus qo'shinlari Yerjarda ko'rinishi bilan Olloyor va uning qarindoshlari To'xtamishbek va Fozil Dodxoh boshchiligidagi qo'shin jang qilmay, Xovos tomon chekinadilar. Bu ish bilan ular begunoh halok etilgan qizchaning o'limi uchun amirdan o'ch oldik, deb o'ylaydilar. Shaxsiy xusumat yurt manfaatidan ustun kelib, 30.000 kishilik lashkar jang maydonini ruslarga bo'shatib beradi. Natijada, ruslar amir ixtiyoridagi qo'shinni bir hamla bilan to'zga'tib yuboradi. Amir Muzaffar jang maydonini sharmandalarcha tashlab qochadi. Aynan shu jang bo'lib o'tgan va amirning qochishiga majbur bo'lgan bu tepa tarixga "Amir-qochdi" tepa nomi bilan kiradi.

Rossiya hukumati yangidan bosib olingan yerlarni boshqarish va bu harakatlarni yana davomini muvofiqlashtirish uchun 1867-yilning 11-iyulida Turkiston general-gubernatorligini ta'sis etib, unga general-gubernator etib fon Kaufman tayinlandi. Bu general-gubernator mustaqil urush e'lon qilish, sulh tuzish va boshqa ko'plab vakolatlarga ega edi. U ham Chernyayev kabi o'lkadagi xunrezliklarni niqoblash maqsadida nayrangbozlik qilib, bir guruh tub yerli aholi vakillarini o'z hukumati bilan kelishgan holda Peterburgga yuborishga qaror qildi. Shu maqsadda u yerlik ayrim sotqinlarni topib Peterburgga jo'natdi. Ular 59 kishi imzo chekib, muhr bosgan Turkiston aholisining rus davlati tobeligiga olinganligidan baxtiyorligini, o'lkaning imperatorga abadiy sodiqligini izhor etuvchi maktubni podshoga topshirgan. Bu sotqinlar aslida Vatan va xalq irodasini ifodalashga ma'naviy huquqlari yo'q edi.

Shu tariqa, podsho ma'murlari Turkiston general-gubernatorligi tarkibidagi aholi go'yo "o'z ixtiyori va xohishi" bilan rus davlati fuqoroligiga o'tganligini jahonga namoyish qilishga urindi. Bu davrda Samarqand shahri aholisi shahar hokimi Sherali inoq zulmidan ezilayotgan edi va ular bu hokimni almashtirishni so'rab amirga murojaat ham qilgan edi. Ammo amir uni almashtirish o'rniga, Sherali inoqqa yana ham ishonch bildira boshladi. Bundan g'azablangan shahar oqsoqollari achchiq ustida rus gubernatoriga maktub yo'llab, ularni o'z panohiga olishni so'raydi. Bu esa Kaufmanga juda qo'l keladi. U Turkiston

harbiy okrugi qo'shinlariga "Samarqand va Buxoro qo'shin to'plab go'yo ruslar bunyod etgan tinchlikni buzmoqda" degan mazmundagi soxta murojaatnoma yo'llaydi. Fon Kaufman urush boshlab Yangiqo'rg'onni egallagach, 1868-yil 1-may kuni Cho'ponota tepaligida Samarqand uchun hal qiluvchi jang bo'ladi. 2-may kuni shaharning ayrim sotqinlari kuzatuvda Kaufman shaharga kirib boradi. Buxoro amiri uchun Samarqandning qo'ldan ketishi og'ir musibat edi. U qo'shin to'plab Zirabuloqda ruslar bilan yana jang qiladi. Bu jangda ham ruslar Usmon To'qsabo xiyonati tufayli g'alaba qiladi.

Buxoro amiri Muzaffar el-yurti bosqinchilardan ozod qilishdan ko'ra o'z manfaatini ko'proq o'ylar edi. Bu borada ko'plab manbalar guvohlik beradi. Hatto o'z qo'l ostidagi ayrim bekliliklar bosqinchilarga qarshi kurashayotganlarida, Amir Muzaffar bosqinchilarga yordam qo'lini cho'zgan paytlari ham bo'lgan.

Uning o'z istagini amalga oshirish, qanday bo'lmasin taxtni qo'ldan bermaslik, bu borada hatto o'z yaqinlarini ham ayamaslik ishlarida uning qo'shinida xizmat qilayotgan ayyor, keskir, bir ishni boshlaganda maqsadiga erishmay qo'ymaydigan Mo'minbek To'qsobo doimo yordam berib kelgan. Amir Muzaffardagi xusumat, o'z manfaatini el-yurt manfaatidan ustun qo'yish xislatlari ko'p janglarda mag'lubiyat alamini chekishgagina emas, balki g'alaba uchun, ozodlik uchun kurashayotgan boshqalarning, hatto yurt ozodligi uchun kurashib, g'alaba arafasida turgan eng yaqin kishilarining ishiga ham xalaqit beradi.

Bosqinchilarga qarshi janubiy hokimliklar amir Muzaffarning o'g'li Abdumalik To'ra boshchiligida birlashgan edi. Amir esa o'g'lining kuchayishidan, ozodlik kurashida uning obro'yi oshib borishidan va uni taxtni egallab olishidan qo'rqib, bu harakat qatnashchilari orasiga rahna solishga kirishadi.

1868-yil iyun oyi boshida Kattaqo'rg'on ham egallangach, Zirabuloq jangidan so'ng 1868-yil 23-iyunda amiming elchilari Samarqandda turgan Fon Kaufman huzuriga kelib sharmandali sulhga qo'l qo'ydi. Sulhga binoan Samarqand, Kattaqo'rg'on va Zarafshon daryosining yuqori qismi Rossiyaga berilishi, amirlik 500 ming rubl tovon to'lashi shart qilib qo'yildi. Amir chet davlatlar bilan diplomatik aloqalar qilish huquqidan mahrum bo'lib, chor Rossiyasiga tobe bo'lib qoldi. Rus savdogarlariga amirlikda erkin savdo qilish huquqi berildi. Keyinroq esa Rossiya podshosi Buxoro amiri Said Muzaffarxon (1860–1885)ga general-adyutanti yuksak harbiy unvonini, Buxoro amirlari Abdulahad (1885–1910) va Sayid Olimxonga harbiy general unvonlarini berdi.

Chor Rossiyasi hukumati Buxoro amirligining bosib olingan hududlari o'rniga Samarqand viloyatini tashkil etib, Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritdi.

Chor Rossiyasi Buxoro amirligiga qarashli katta hududlarni o'ziga tobe qilgach, o'zining istilochilik nazarini Xiva xonligiga qaratdi. Urush uchun bahona Orol bo'yida turkmanlar va qozoqlar tomonidan qo'lga tushirilgan 21 ta rus fuqarolarining Xiva xoni Muhammad Rahimxon II tomonidan ozod qilib yuborilmaganligi bo'ldi. Xiva xonligini bosib olish uchun jami 12 mingdan ortiq soldat va ofitserlar, 56 ta to'p-zambaraklar ajratildi.

Odam qirilgan degan joyda Muhammadmurod devonbegi boshchiligidagi Xiva lashkarlari bilan Fon Kaufman qo'shinlari o'rtasida urush bo'lib, Kaufman Xiva lashkarlarining hujumini artilleriya yordamida qaytardi va ularni chekinishga majbur qildi. General oziq-ovqat va yem-xashak zaxirasini yerli xalqni talash hisobiga to'ldirdi. Bosqinchilar Qo'ng'iro't va Mang'it hamda ularning atrofidagi ovullarni qirg'in qildilar va taladilar.

Muhammad Rahimxon Xivani himoya qila olmasligiga ko'zi yetgach, Izmiqsho'rdagi turkman ovuliga borib yashirindi. Xonning yashiringanidan foydalangan Otajon To'ra o'zini xon deb e'lon qildi va Fon Kaufmandan Xiva shahrini vayron etmaslikni so'radi. Gubernator uni nazar-pisand qilmay Muhammad Rahimxonni topishni talab qildi va muzokaralarni faqat u bilan olib borish mumkinligini bildirdi. Bosqinchilar saroydagi noyob boyliklarni talab, kumushdan qilingan xon taxtini Peterburgga yubordilar. Shu tariqa 1873-yil 29-may kuni Xiva shahri ham egallandi.

Gandimiyon bog'ida 1873-yil 12-avgustda tuzilgan, 18 moddadan iborat sulhga binoan xonlik Rossiyaning vasalliga aylanishi, 2 mln 20 ming rubl kontributsiya to'lashi, Amudaryoning o'ng sohilidagi yerlar Rossiyaga berilishi, xonlik hududida rus savdogorlari va sanoatchilari erkin savdo qilishi va korxonalar qurish huquqiga ega bo'lishlari kerak edi. O'ta og'ir bo'lsa ham ana shunday sulh imzolandi. Bu sulh tuzilgan va imzolangan bog'ning nomi bilan tarixga "Gandimiyon sulhi" bo'lib kirdi.

1873-yilning avgustida Xiva xonligi va shu yilning sentabrida Buxoro amirligi bilan imzolangan sulhlarga ko'ra, Xiva xonligi va Buxoro amirligi Rossiyaning protektorati, ya'ni vassali (yarim mustamlakasi) deb e'lon qilindi. Xonlik va amirlikning chet ellar bilan mustaqil munosabatda bo'lishlari taqiqlab qo'yildi.

Buxoro amirligi va Xiva xonligi yarim mustamlakaga aylantirilib, ularga faqat tashqi aloqalar yuritish taqiqlangan bo'lsa-da, rus hukumati bu davlatlarning ichki ishlarini nazorat qilib turishdan to'xtamadi. Xiva xonligida o'rnashgan rus savdogarlari axloqiy qoidalarga ham amal qilmagan. Shu bois xon Muhammad Rahim (Feruz) 1904-yilda rus hukumatining Amudaryo bo'limiga (bu bo'lim Xivaning ichki siyosatini nazorat etish maqsadida tu-

zilgan edi) murojaat qilgan. Keyinchalik Asfandiyorxon davrida ham (191) savdogarlar ogohlantirilib, ularga nisbatan spirtli ichimliklar savdosini taqiqlaydigan alohida hujjat ham qabul qilinadi.

Chor Rossiyasi Xiva xonligining ichki ishlariga aralashib, go'yo xonlik taraqqiyoti uchun jon kuydirayotgandek Asfandiyorxonni xonlikda bir qator islohotlar o'tkazishga undaydi. Podsho ma'muriyatining islohotlar haqidagi hujjatining 12-moddasida o'zlarini madaniyatli qilib, xonlikda varvarlik odati bo'lgan mahbuslarni qatl qilishning "sirtmoqqa solish" jazosini bekor qilishni taklif qiladi. Vaholanki, Rossiyaning o'zida jazo bundan battar edi. Jazoga mahkum soldat qip yalang'och qilinib, qo'shin safi orasidan o'tkazilgan. Mahbusni har bir soldat temir xivchin bilan savalar, soldat saf oxiriga bormasdan jon berar edi. Bu jazo "Shpitspruten" jazosi deb atalardi.

Bu paytda Qo'qon xonligining vodiy qismi xonlik sifatida faoliyat yuritayotgan, bu qismlarni egallash uchun ruslarga bir bahona kerak edi.

Vodiydagi harakatlar aynan ruslar uchun bahona bo'ldi. 1872-yilda bir guruh norozi feodallar Xudoyorxonning qarindoshlaridan bo'lgan Po'latbekni taxtga o'tqazmoqchi bo'ladi. U rad etgach, fitnachilarning roziligi bilan Po'latbek ismini olgan Isxoq mulla qo'zg'olonni boshida turadi. 1873-yilda unga Abdurahmon oftobachi (Qo'qonning sobiq hukmdori, Musulmonqulning o'g'li), bundan tashqari, Xudoyorxonning to'ng'ich o'g'li Nasriddinxon (Andijon hokimi) va akasi Murodbek (Marg'ilon hokimi) kelib qo'shiladi. Qo'zg'olonni bostirishga ojizligini payqagan Xudoyor "pushtipanoh imperator hazrati oliylari"ning qudratiga suyanadi va Kaufmanga do'stona murojaat qilib, iloji boricha tezlik bilan Qo'qonga "o'ris qo'shin va zambaraklarini yuborish"ni so'raydi. Xalqni, yurtni sotganligi uchun Xudoyorxon va uning yaqinlariga qarshi g'azovot urushi e'lon qilinadi.

Xudoyorxon 1875-yil 2-iyul kuni o'z oilasi bilan Toshkentga qochib kelgach, 28-avgustda Kaufman Qo'qonga g'olib sifatida kirib boradi. Xudoyorning o'g'li Nasriddinbek Qo'qon a'yonlari bilan birgalikda Kaufmandan kechirim so'raydi va u bilan bitim tuzadi. Bu bitimga ko'ra, Qo'qon xoni o'zini Rossiyaning vassali deb tan oladi. Xudoyorning sharmandali qochishi haqidagi xabar qaytadan qo'zg'olonga sabab bo'ldi. Bu gal qo'zg'olon markazi Andijon edi. Qo'zg'olonchilar Po'latxon nomi bilan yurgan Isxoq mullani xon deb e'lon qiladi. 1875-yil noyabrda general Skobelyev qo'zg'olonchilarni tor-mor qilib, 1876-yil 9-yanvarda Andijonga kirib boradi. Po'latxon qolgan kuchlari bilan Uchqo'rg'on qal'asiga chekinadi. 1876-yilning 27 dan 28-yanvarga o'tar kechasi Skobelyev tomonidan yuborilgan otryad Uchqo'rg'onni egallab, barcha himoyachilar o'ldiriladi. Po'latxon bu yerdan qochib ulguradi, ammo ko'p o'tmay Marg'ilonda qo'lga tushib jazolanadi.

Kaufman bir amallab xalq harakatini bostirgach, Qo‘qon xonligini mustaqillikdan mahrum qilishga ahd qildi. 1876-yilning 19-fevralida Qo‘qon xonligi xonlik sifatida bekor qilinib, uning o‘rniga Farg‘ona harbiy viloyati tuziladi. General Skobelyev unga harbiy gubernator qilib tayinlanadi.

Qo‘qon xoni Xudoyorxon xalq g‘azovotidan qochib Xo‘jandga keladi va u yerda 10 kun yashaydi. 1875-yil avgustda uni Turkiston general-gubernatori Toshkentga chaqirtiradi. Qo‘qonda Xudoyorxon o‘rniga otasi davrida Andijon bekligini boshqargan Nasriddinbek xon qilib ko‘tarilgan edi.

Xudoyorxon 70 kishilik ahli ayoli, 500 ga yaqin hamrohlari, 40 arava xazina bilan Toshkentga, Fon Kaufman huzuriga panoz izlab keladi. Kaufman 40 arava boylikni musodara qilib, Xudoyorxonning o‘zini muloyim takalluf bilan Orenburgga borib yashashga majbur qiladi. Bu takalluf surgun bilan barobar edi.

1877-yil 12-noyabrda Xudoyorxon surgundan qochib, o‘z huquqlarini qayta tiklash maqsadida Kobulga va Bombeyga boradi. So‘ngra Bag‘dodga o‘tib, u yerda uzoq vaqt yashaydi. Ma‘lumotlarda ko‘ra, u bir tanishi orqali yana Bombeyga kelgan va bu yerda shahar boshlig‘i homiyligida Angliya hukumati bilan bog‘langan. Biroq, foyda bo‘lmagach, haj safariga otlangan. Makkadan qaytishda o‘pka kasalligiga chalinib, taxminan 1882-yilning yoz oylarida Hirot shahri yaqinidagi Koruh qishlog‘ida vafot etgan. Shu tariqa, Qo‘qon xonligining sobiq hukmdori, uch marta taxtdan haydalib, uch marta taxtni qayta egallagan Xudoyorxon Muhammad Saidxon 51 yoshida sarson-sargardonlikda olamdan o‘tadi.

2. MUSTAMLAKACHA IDORA USULI. MUSTAMLAKACHILIKNING SIYOSIY, IQTISODIY, MA’NAVIY-MADANIY YO‘NALISHLARI

O‘rta Osiyo istilosidan so‘ng, Rossiya Pyotr I vasiyatini bajarib, jahonning eng yirik imperiyalaridan biriga aylandi va o‘z mustamlakachilik hududi jihatidan Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniyani orqada qoldirib ketdi. Turkiston general-gubernatorligining o‘zi kengligi jihatidan Fransiya, Germaniya va Avstro-Vengriya imperiyalari maydoniga teng bo‘ldi.

1867-yilda Turkiston general-gubernatorligi tuzilib, o‘lkada mutlaq hokimiyat general-gubernator qo‘lida to‘plandi. Toshkent shahri Turkiston general-gubernatorligining ma‘muriy markazi sifatida tanlandi. O‘sha davrda Toshkent shahrida 80 mingcha aholi yashab, uning hududida 270 ta mahalla, 310 ta masjid, 17 ta madrasa, 11 ta hammom, 15 ta do‘konli saroylar joylashgan edi. Shaharning sharqiy qismidagi mahalliy aholi ko‘chirilib, mahkamalar, Rossiyadan kelganlar uchun uy-joylar qurdirildi va bu qism yangi shahar deb ataldi.


Turkiston ma'muriyati imperiyaning boshqa o'lkalari boshqaruvidan o'zining keskin harbiylashganligi bilan alohida ajralib turardi. Kaufman hukmronligi davrida Turkiston general-gubernatorlik boshqaruvi uning jilovlanmagan istibdodi asosida amalga oshirilgan.

1868-yil 6-avgustda Turkiston viloyatini boshqarish uchun "Muvaqqat nizom" e'lon qilingan edi. Shu yili Turkiston aholisi turmushi va umumiy ahvolini o'rganish uchun "Dasht komissiyasi" ham tuzilgan edi.

Turkiston general-gubernatori etib tayinlangan general-leytenant M.G. Chernyayev (1882–1884) taklifi bilan 1882-yil 8-mayda imperatorning "Turkiston general-gubernatorligini taftish qilish to'g'risida"gi farmoni e'lon qilindi.

Mustamlakachilik boshqaruvini qat'iylashtirish maqsadida 1886-yil 12-iyunda "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida" nizom ham qabul qilindi. Bu Nizom bo'yicha o'lkaning viloyatlarga bo'linishi aholining etnografik, maishiy va iqtisodiy shart-sharoitlarini o'rganish asosida emas, balki o'lkani bosib olish jarayoni bilan bog'liq holda amalga oshirildi. Asosiy maqsad jahon tan olgan Amir Temur saltanati vorislarini tobe qullarga aylantirish, xalqlarni asta-sekin ruslashtirish jarayoniga tortib, ko'hna Turon zaminni imperiyaning chekka guberniyalaridan biriga aylantirish edi.

Turkiston general-gubernatorligi boshqaruvi



Rus hukmron doiralari harbiy mirshablik tartiblarini o'lkada qo'llashlari zarurligini quyidagicha izohlagan edilar: "Turkiston tuzem aholisi hali juda quyi aqliy taraqqiyot bosqichidadir. Ular huquq ma'muriyati, qonun nimeligini bilishmaydi. Jamiyat qonuni tomonidan beriladigan huquqdan foy-

dalanishni bilmaydi, bu huquq uning zarariga xizmat qiladi”. Ana shunday kalondimog‘lik va mensimaslik nuqtayi nazaridan kelib chiqilgan holda Turkiston general-gubernatorligi boshqaruvi tizimi yuzaga kelgan edi. O‘lka idorasi markaziy, viloyat, tuman (uyezd), jabha (uchastka), qishloq va shahar boshqaruvi shaklida tashkil topdi.

Markaziy hukumat boshlig‘i general-gubernator bo‘lsa, viloyat boshlig‘i harbiy gubernator edi.

Chor Rossiyasi hukumatining ma‘muriy siyosati o‘lkani iqtisodiy jihatdan sustlash, ma‘naviy-ruhiy ezish bilan omuxta ravishda olib borilib, uning mazmun-mohiyati o‘lka xalqlarini ruslashtirishga qaratilgan edi. Bu siyosat tig‘i imperiya vasiyligidagi Buxoro amirligi va Xiva xonligiga ham qaratildi. Bu siyosatni Buxoroda “Rossiya imperatori siyosiy Agentligi” (1885–1917), Xivada esa “Amudaryo bo‘limi” (1873–1917) olib bordi.

Yangi yerlarning zabt etilishi rus sanoat-savdo vakillarini ham jonlantirib yubordi. Puldor odamlardan Turkiston gubernatorligi nomiga paxta maydonlarini kengaytirish, paxta zavodlarini ochishga ruxsat so‘rab yozilgan arizalar birin-ketin tusha boshladi. Rossiyada “Paxta vasvasasi” avjiga chiqdi.

1886-yilgi Nizom o‘lkaga rus aholisini ko‘chirib keltirish yo‘li bilan ruslashtirish harakatini qonunan mustahkamladi. Turkistonga rus erkaklarini ko‘chirib keltirish avj oldi. Ko‘chirib keltirilgan ruslar uchun 1875 – 1890-yillar ichida 19 ta, 1891 – 1892-yillar (ayniqsa, mana shu ikki yilda Rossiyada ocharchilik natijasida o‘lkaga ko‘chib kelganlar ikki barobar ko‘paygan)da 25 ta, 1906 – 1913-yillarda 116 ta rus posyolkalari barpo etilgan.


1889-yil 13-iyulda yana bir qonun qabul qilinib, ko‘chib kelgan ruslarga imtiyozlar va moddiy yordam berishlar belgilandi. Turkistonni ruslashtirish siyosatida keskin burilish 1892-yilda boshlandi. Xuddi shu yili Rossiyadan o‘zboshimcha ko‘chib kelgan minglab “kelgindilar”ga ma‘muriyat nazorati bilan kelganlar qatori ularga berilgan huquqlardan foydalanishlari mumkinligi joriy qilindi. Mustamlaka o‘lkaga ruslarni ko‘chirish masalasi bilan shug‘ullanuvchi “Ko‘chirib keltirish boshqarmasi” ham tuzildi. Turkistonda esa 1906-yilda “Sirdaryo ko‘chiruvchilik rayoni” tashkil etilib, mahalliy aholi yerlarini erkak (mujiklari) uchun tortib olib berish rejası tus oldi.

Bu jarayonlarning barchasi ruslarning ko‘chirish, ruslashtirish siyosatidan tashqari, yana agrar siyosatning amalga oshirilishi edi. Bu siyosatning tugal maqsadi esa “ikkinchi rus Turkistoni”ni yaratish edi.

Chor hukumati O‘rta Osiyoda paxta yakkahokimligini avj oldirdi. Rus bosqinchilari paxtadan million-million so‘mlab foyda ko‘ra boshladi. XIX asr oxirlarida, hatto Toshkent shahri atrofida ruslarga qarashli paxtazorlar 4000

desyatina yerni tashkil etib, bu maydon barcha maydonning 20 % ini tashkil etardi. Farg'ona vodiysida ruslar egallagan paxta maydonlari 500 desyatina yerni tashkil etdi. Hatto o'lkani bosib olishda jonbozlik ko'rsatgan general Abramovning Samarqandda shaxsiy paxta maydoni ham bor edi.

O'lkaning ma'muriy-hududiy tuzilishi



1889-yil Paxta yakkahokimligini o'rnatish maqsadida Turkistonda Rossiyaga yuboriladigan paxtadan butunlay boj olinmaydigan bo'ldi. 1879-yilda esa boj yig'imi har pud paxtadan 40 – 50 tiyin miqdorida belgilandi. Soliq olishda ham rus dehqonlariga imtiyozlar berildi.

Paxta bilan bogʻliq barcha ishlar qoʻl mehnati bilan bajarilar va bu ishlarda mardikor va chorikorlarning mehnatidan foydalanilar edi.

Chor Rossiyasi tomonidan qurilgan temir yoʻllar uzoq yillar davomida tarixchi olimlar tomonidan “oʻlkaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega edi”, deb yozishdi. Aslida temir yoʻllarning qurulishi oʻzbek xalqni yanada asoratga solishga, boyliklarini shafqatsizlik bilan talashga moʻljallangan edi. 1881 – 1886-yillarda Mixaylovskiy koʻrfazidan Chorjoʻygacha temir yoʻl qurildi. 1888-yilda bu yoʻl uzaytirilib Samarqandgacha, 1894-yilda esa Krasnovodskgacha yetkazildi. Shunday qilib, rejadagi bu temir yoʻl 1899-yili qurilib boʻlindi. Uning umumiy masofasi (Krasnovodskdan Toshkent shahrigacha) 1778 chaqirimni tashkil etardi.

Bu temir yoʻl qurilayotganda va qurib bitkazilgach Zakaspiy (Kaspiyorti) nomi bilan atalgan edi. Keyinroq Oʻrta Osiyo temir yoʻli nomini oldi.

Temir yoʻllar oʻtkazilganligi Oʻrta Osiyodan paxta va boshqa mahsulotlarni arzon-garov narxlarda chor Rossiyasining barcha joylariga olib borish uchun qulay imkoniyat yaratdi. Masalan, 1880-yilda Oʻrta Osiyodan Rossiya-ga 300 ming pud paxta olib chiqilgan boʻlsa, 1900-yilda 5 mln 846 ming 609 pud paxta olib chiqib ketilgan. Shu vaqt ichida pilla 4,8, meva 157, guruch 336 barobar koʻp olib chiqib ketilgan.

Turkiston oʻlkasining markazga toʻlaydigan soliqlari ham oshib bordi. Agar XIX asr oxirida yer soligʻi 4 mln rublni tashkil qilgan boʻlsa, 1914-yilga kelib, u 75 % ga koʻpaydi. Rossiyaning Turkistondan oladigan daromadi 300 % ga oshdi va 1916-yilga kelib 38,329 ming rublni tashkil qildi.

Rossiya qisqa muddatda oʻz sanoati uchun xomashyo manbayiga ega boʻldi. Agar 1885-yilda paxta maydoni 41,4 ming tanobni tashkil qilgan boʻlsa, 1915-yilga kelib u 541,9 ming tanobga yetdi, yaʼni 13 barobarga oʻsdi. Turkiston moʻmay daromad manbayi sifatida ham chor Rossiyasining xazinasini boyitib borayotgan edi. Bu daromadlar 1867–1896-yillarda 4 barobar koʻpaydi, aholidan olinadigan soliqlar 1889–1893-yillarda 40 % ga oshdi. 1869–1896-yillarda imperiya xazinasini oʻlkadan 158 mln rubl daromad oldi.

Bu maʼlumotlar Turkistonning chor Rossiyasi uchun xomashyo manbayiga aylanganligini koʻrsatar edi. Turkiston oʻlkasi ham Rossiyadagi kapitalistik munosabatlarga jalb etilib, bu yerda ham markaz manfaatlariga mos kelgan kapitalistik munosabatlar rivojlana boshladi. Oʻlkaning birgina Fargʻona viloyatida XX asr boshida 157 ta paxta tozalash zavodi boʻlib, ular mahalliy rus va chet el kapitalistlariga qarashli edi. Turkistonning Samarqand, Sirdaryo va Fargʻona kabi uch viloyatida 1867–1900-yillar mobaynida 170 sanoat korxonasi ochilgan boʻlsa, 10 yil davomida (1900–1910) yana 220 ta, 4 yil ichida (1910–1914) esa 180 korxonasi ishga tushirilgan.

Rus hukumati Turkistonda keng sanoat tarmog'ini rivojlantirib, bu yerda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishni istamas edi. Shu bois yuqoridagi sanoat korxonalari mahsulotlarni dastlabki ishlov berishga mo'ljallangan edi.

Rus mustamlakachilari o'zlarining ma'naviy-madaniy siyosatida o'lkadagi maktab-madrasalarni ham xavfli deb hisobladi. Ular ruslashtirishni aynan shu sohadan boshlashga kirishishdi. 1880-yil fevralidagi imperiya Davlat kengashining qarori bilan "ruslar va tuzemetslarning bolalarini birgalikda tarbiyalashni" amalga oshirish boshlandi. Fon Kaufman izdoshi N.O.Rozenbax (1884–1889) ibtidoiy turdagi boshlang'ich rus-tuzem maktablari tarmog'ini yaratish loyihasini ishlab chiqdi. 1884-yilda Toshkentda birinchi rus-tuzem maktabi ochilib, ularning soni XIX asr oxirida 100 dan oshib ketdi. Bunday maktablarda o'quv kuni ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismda ikki soatlik mashg'ulotni rus o'qituvchisi (o'quv-yozuv, hisob bo'yicha), ikkinchi qismida esa o'zbek muallimi olib borgan.

Turkiston maorifi rahbarlaridan biri V.P.Nalivkin (1857–1918) "ruslarning o'zbek tilini bilishlari zarur" degan g'oyani ham ko'tarib chiqqan. U 1886-yilda rus zobitlari uchun o'zbek tilini o'rganuvchi kurslarni ham ochgan. Shaharlarda ochilgan bilim yurtlari ruslashtirishga xizmat qilgan. Ular o'z internatlari bilan "rus-tuzem" maktablaridan ajralib turgan. Internatda mahalliy bolalarning rus tengdoshlari bilan yashab, rus tilini yaxshi o'zlashtirishlari mustamlakachilarga foyda bergan. Ular o'z siyosati bilan mahalliy xalqni idora qilish kelajagini yoshlar orasidan tarbiyalanadigan sodiq qullarni tarbiyalamoqchi bo'ldi va shu niyatda yoshlarning imperiya markaziy shaharlariga sayohatlarini ham uyushtirishdi. Bu bilan ular "mana shunday imperiya panohida sizlarga hech kim tegmaydi" deb ko'rsatmoqchi bo'ldilar. Ammo rus amaldorlariga ruschani yaxshi bilgan va xalq ko'zini ochib ularni g'aflat uyqusidan o'yg'otadigan mahalliy ziyolilar kerak emas edi.

Chorizm mahalliy xalq urf-odatlarini, islom dinini ham toptashdan toymadi. "Qur'on"ning ayrim muhim joylarini chiqarib tashlashga, juma namozidagi xutbada podsho nomini qo'shib o'qishlariga majbur qildi. Yusuf Hamadoniy, Abduxoliq G'ijduvoni, Ahmad Yassaviy, Ubaydulla Xo'ja Ahror Valiy, So'fi Olloyor va boshqa ko'pgina allomalarning jahon fani va madaniyatiga qo'shgan hissalarini inkor etdi. O'lkada islom dinining jahonshumul umuminsoniy mavqeyini sindirish uchun rus pravoslav ibodatxonalari tarmog'ini kengaytirdilar. Ayniqsa, rus siyosatining 1903-yilda chiqargan farmoni o'lka aholisining islomga bo'lgan e'tiqodlarini cheklashda muhim rol o'ynagan. Bu farmonga asosan aholi uchun islom qoidalari bo'yicha haj safari qilish man etilgan edi.

3. MUSTAMLAKACHILIK ZULMIGA QARSHI TURKISTON XALQLARINING MILLIY-OZODLIK HARAKATLARI

Chor Rossiyasining O'rta Osiyo xalqlariga nisbatan yuritgan mustamlakachilik, ulug' davlatchilik va shovinistik siyosati, qonuniy, tabiiy suratda mahalliy aholini o'z milliy ozodligi, erkin va insoniy haq-huquqlarini himoya qilish uchun muqaddas jangga, kurashga otlantirdi. Chunki rus hukumati o'lkada ruslashtirish, ulug' davlatchilikka asoslangan siyosat yuritibgina qolmay, bosqinchilikning dastlabki damlaridanoq Turkistonni Rossiyaning xomashyo bazasiga aylantirishga kirishdi va shu asosda mahalliy aholiga o'zining cheksiz zulmini o'tkaza boshladi.

Chorizmga qarshi qo'zg'olonlar O'rta Osiyo va Qozog'istonning barcha hududlarida ro'y bera boshladi.

Jumladan:

– 1868-yilda Samarqand mudofaasi va Buxoro amirligining Buxoro shahri hamda Shahrisabz bekliliklarida chorizm zulmiga qarshi siyosiy harakatlar bo'lib o'tdi.

– 1870-yilda Mang'ishloqda qirg'izlar isyon ko'tardi.

– 1871-yilda Sirdaryo viloyatidagi chiqishlarga eshon Eshmuhammad boshchilik qildi.

– 1871-yilda Farg'onada ham yirik qo'zg'olon ko'tarilib, unga Yetimxon boshchilik qilgan edi.

Arxiv hujjatlariga ko'ra, 1887 – 1898-yillarda, ya'ni 11-yil davomida Farg'ona, Samarqand, Sirdaryoda mustamlakachilarning idoralariga 668 marta, 1899-yildan 1917- yilgacha bo'lgan davrlarda esa Farg'ona, Samarqand, Hazarbo'yi, Sirdaryo, Yettisuv viloyatlarida chorizm idoralariga to'rt yarim mingdan ortiq qo'zg'olonchilar hujumi uyushtirildi. Bu raqamlardan ham yaqqol ko'rinib turibdiki, chor hukumatining mahalliy xalqlar ustidan olib borgan siyosati dastlabki vaqtlardan oq xalqning sabr kosasini to'ldirgan.

Farg'ona vodiysida 1871 – 1872-yillarda hokimiyat uchun boshlangan kurash 1874 – 1876-yillarda keng ko'lamdagi xalq harakatiga aylanib ketdi. Qo'zg'olonga Marg'ilon uezdidan chiqqan qirg'iz yigiti mullo Isxoq boshchilik qilib, o'ziga Xudoyorxonning Samarqandga quvg'in qilingan qarindoshi Po'latxon nomini oldi va shu bois bu qo'zg'olon tarixga Po'latxon qo'zg'oloni bo'lib kirdi. Qo'zg'olonning asosiy maqsadi Xudoyorxonni taxtdan ag'darish edi. Lekin bu harakat keyinchalik keng tus olib, umuman zulmga, xususan, chorizm istibdodiga qarshi kurashga turtki bo'ldi va butun Farg'ona vodiysini qamrab oldi. Natijada: Po'latxon hatto Qo'qon taxtiga o'tirishga ham muvaffaq bo'ldi.

sar bo'ldi. Xonlikdagi bu siyosiy voqealar Turkiston general-gubernatori Fon Kaufmanni xavotirga soldi, podsho Aleksandr II dan Qo'qon xonligi mustaqilligini tugatishga ruxsat oldi va natijada qo'zg'olon shafqatsizlarcha bostirildi.

1876-yil martda Farg'ona vodiysidagi bu qo'zg'olon bostirilib, qo'zg'olon boshlig'i qatl etilgandan so'ng vodiya ozodlik kurashini bir qirg'iz ayoli Qurbonjon dodxoh davom ettirdi. Bu jasoratli ayol o'z o'g'illari bilan birgalikda mustamlakachilarga qarshi kurash olib bordi. Uning eri xon Mallaxonni taxtdan tushirib, o'rniga Shomurodni taxtga o'tkazishda ishtirok etgan Olimbek bo'lib, u 1863-yilda go'zal kanizakning sharobga solgan zahari tufayli hayotdan ko'z yumadi. Tul qolgan Qurbonjon dodxoh yurtiga qaytib "Oloy malikasi" nomi bilan dovrug' tarqatadi.

Unga Turkiston general-gubernatorlari tan berib, u bilan hisoblashgan. Buxoro amiri va Qo'qon xoni unga sarkarda unvonini beradi. Malika sarkarda ruslar O'rta Osiyoni bosib olganda ham Oloy havzasi mustaqilligini saqlab, idora etadi.

Goh Qo'qonda, goh Andijonda bo'lib o'tgan xalq harakatlaridan birining rahbari Darveshxon To'ra edi. Uning maqsadi ham chorizmga qarshi umum-xalq harakatini ko'tarish edi. Lekin bu harakat ham chor qo'shinlari tomonidan bostirildi.

1892-yilda Turkistonda vabo kasalligi paydo bo'ldi. Rus hukumatining vakillari mahalliy aholiga nisbatan o'z millatlariga farqli munosabatda bo'ldi. Masalan, 1892-yil Toshkentning yangi shahar ruslar yashaydigan qismida 417 kishi, eski shaharida 1462 kishi vabo bilan og'rigan. 417 ta yevropaliklardan 200 kishi sog'aygan, 1462 mahalliy xalqdan esa 22 kishi sog'aygan. Shu munosabat bilan shahar aholisi qo'zg'olon ko'tarib, chor idoralariga hujumlar uyushtirishdi. Lekin qurolli qo'shin qo'zg'olonni shafqatsizlarcha bostirdi. Hozirgi anhor suviga yuzga yaqin qo'zg'olonchilar cho'ktirildi. 8 kishi o'lim jazosiga va 3 kishi surgunga hukm qilindi.

"Vabo" – qo'zg'olonning boshlanish sababi bilan bog'liq bo'lgan nomdir. Ammo tarixda bu qo'zg'olon o'z voqealari jarayoni bilan bog'liq holda "Toshotar voqeasi" deb ham ataladi.

1898-yilda Andijonning Mingtepa qishlog'idan Muhammad Ali xalfa rahbarligidagi qo'zg'olon butun Farg'ona vodiysiga yoyildi. Bu qo'zg'olon tarixga Dukchi Eshon nomi bilan kirdi. Qo'zg'olonchilar Andijon shahridagi harbiy bo'limga hujum uyushtirib, 22 askarni o'ldiradi va 18 tasi esa yarador qilinadi. Bu qo'zg'olon ta'sirida Jizzax, Kattaqo'rg'on, Buxoro, Samarqand shaharlarida xalq g'alayonlari ko'tarildi. Lekin Andijon qo'zg'oloni ham chor qo'shinlari tomonidan yovuzlarcha bostirilib, qo'zg'olon qatnash-

chilaridan 362 kishi Sibirga surgun qilinadi. Muhammad Ali xalfa esa 5 ta yordamchisi bilan dorga osiladi. Bu qo'zg'olonlar avvalo o'zaro birikmagan tarqoq, ularning dastur va rejalari aniq-teran ishlab chiqilmagan edi. Qurol-yarog' masalasi ham hal qilinmagan va kuchlar nisbati teng emas edi. Shu bois bu qo'zg'olonlar va 1899-yilda bo'lib o'tgan Sirdaryo viloyatidagi xalq harakatlari ham qisqa muddatli kurashlardan so'ng mag'lubiyatga uchradi. Bu qo'zg'olonlar bostirilsa-da, uzoq vaqtlar mustamlakachilarni qo'rquvda saqlab turgan.

Ular va mahalliy boylarning zulmi, yerlarning Rossiyadan ko'chirib keltirilganlarga bo'lib berilishi dehqonlar harakatini ham kuchaytirdi. 1905 – 1906-yillardagi dehqonlar harakati o'ziga xos xarakterga ega edi. 1905-yil Andijon va Marg'ilonda, 1906-yilda Andijonda, Toshkent uyezdida dehqonlarning chiqishlari ro'y berdi. Dehqonlar ommasining siyosiy faoliyati tobora o'sib bordi. Buning isbotini mashhur qo'zg'olon rahbari Nomoz Pirimqulov boshchiligidagi harakat faoliyatida ham ko'rish mumkin. Bu harakat asosan Samarqand, Jizzax, Kattaqo'rg'on uyezdlarida va Buxoro amirligiga qarashli Xatirchi, Kitob bekliklarida keng tarqaldi. Nomozning har bir saf-doshi alohida-alohida otryadlarga bosh bo'lib mustaqil ravishda Nomoz nomi bilan harakat qilardi. Nomoz boshchiligidagi harakat uch yil davom etdi. Xalq Nomoz harakatini doimo qo'llab-quvvatlab turdi. Chunki u boylardan tortib olingan o'ljalarning barchasini kambag'allarga bo'lib berar edi.

Nomozning boshi uchun hukumat katta mukofot va'da qildi. Lekin uni hech kim tutib bermadi. Nomoz Pirimqulov harakati shafqatsizlarcha bostirilgan bo'lsa ham, uning jasorati, harakati, olib borgan kurashi tarixda yorqin iz qoldirdi. Xalq Nomoz haqida afsonalar, she'rlar to'qidi. Uning nomini abadiylashtirdi. Nomoz Pirimqulov Nomoz Botir nomi bilan tarixga kirdi.

1905 – 1907-yillardagi rus inqilobi Turkistonga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Bu yerda bolsheviklar tashkil etgan to'qnashuv davomida Morozov rahbarligida Toshkent inqilobiy qo'mitasi tuzilib, uning o'lkadagi mavqeyi juda katta bo'ldi. Hatto Turkiston general-gubernatori vazifasini bajaruvchi Saxarov ham Petrogradga telegramma yuborish uchun bu qo'mitadan ruxsat so'rashga majbur bo'lgan. O'sha davrda odamlar mana shu, juda ta'sirli qo'mitani vaqtli hukumat ham deb atashgan.

Rossiyada ro'y berayotgan siyosiy voqealar albatta Turkistonga ta'sir etmay qolmasdi. 1900 – 1903-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi, 1905–1907-yillardagi rus inqilobi, 1907 – 1910-yillardagi reaksiya davri voqealari va boshqalar Turkiston xalqlarining iqtisodiy hayotiga ham ta'sir ko'rsatdi. Turkistonga surgun qilingan rus muhojirlari va "inqilobchi"lari o'lkaga siyosiy g'oyalar tar-

qata boshladi. Ularning tashabbusi bilan chorizmga qarshi sotsial-demokratik to'garaklar, tashkilotlar tuzildi.

Toshkent, Samarqand, Qo'qonda Karnyushin, Morozov, Xudashlar boshchiligida tuzilgan siyosiy to'garaklar a'zolari uyushtirgan siyosiy chiqishlar ro'y berardi. Bu chiqishlarga asosan Rossiyadan ko'chib kelganlar hamda sanoat korxonalarini va temir yo'l qurilishida ishlayotgan rus ishchilari qatnashardi. Bu harakatlarda o'lkadagi o'zbek, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman millati vakillari ham qisman qatnashmoqda edi.

Bu davrda Turkiston bilan birgalikda Buxoro va Xivada ham demokratik harakatlar boshlanib, ularga o'zlarini "Yosh buxoroliklar", "Yosh xivaliklar" deb atayotgan ilg'or ziyolilar rahbarlik qilardi.

Turkistonda kuchayib borayotgan ziddiyatlar, ayniqsa, birinchi jahon urushi davriga kelib keskinlashdi. Chunki urushda qatnashayotgan Rossiyaning barcha og'irliklari Turkiston xalqlari zimmasiga ham tushar edi. Xalqning iqtisodiy ahvoli tobora yomonlashib bordi. Hamma narsa front uchun olib ketilardi. 1914 – 1916-yillar raqamlariga e'tibor berilsa, Turkistondan Rossiyaga shu yillarda 41 mln pud paxta, 3 mln pud paxta yog'i, 200 ming pud sovun, 300 ming pud go'sht, 474 ming pud baliq, 70 ming ot, 12 yarim ming tuya, 270 arava, 1344 ta o'tov, juda ko'p miqdorda quruq meva va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari olib ketildi. Bulaming bari Turkiston xalqlarining rizq-nasibasi edi. Buning ustiga 1916-yil 26-iyunda Nikolay II ning front orqasida ishlash uchun Turkiston erkaklaridan mardikorlikka olish haqidagi farmonining e'lon qilinishi (unga ko'ra Turkiston aholisidan 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan erkaklardan 250 ming kishi front orqasiga yuborilishi lozim edi) xalq noroziligini kuchaytirdi. O'lkaning hamma joyida xalq qo'zg'olonlari boshlanib, ularda xotin-qizlar faol qatnashdi. O'lkaning barcha joylarida boshlangan bu harakatlarga Chor Rossiyasi boshlig'ining yuqorida zikr etilgan farmoni sabab bo'lgan edi.

1916-yilda Chor Rossiyasi boshlig'ining farmoniga qarshi o'lkaning hamma joylarida qo'zg'olonlar bo'lib o'tdi. Biroq, bu qo'zg'olonlarning eng yirigi 1916-yilgi Jizzax qo'zg'oloni edi.

Jizzax xalqi bu adolatsizlikka qarshi o'limga tik borib kurash olib bordi. Bu qo'zg'olon haqiqiy ozodlik urushi bo'lib, unga Nazirxo'ja eshon va Abdu-rahmon jivachilar rahbarlik qildi. 11-12-iyulda Yom, Zomin, Yangiqo'rg'on qishloqlarida olomon bosh ko'tardi. Qo'zg'olon, ayniqsa, Jizzax shahrida kuchli tus oldi. Xalq qo'liga nayza, bolta, pichoq, qilich, qisman to'pponchalar olib shahar va uning atrofidagi harbiy qismlar va ma'muriy idoralarga hujum boshladi. Jizzaxda chor hukumati qo'zg'olonchilarga qarshi 14 batalyon, 3300

qo‘shin, 42 to‘p va 68 ta pulemyot yubordi. Natijada Jizzax qo‘zg‘oloni nihoyatda shafqatsiz ravishda bostirildi.

Qo‘zg‘olon qatnashchilari ustidan 148 ta jinoiy ish qo‘zg‘atildi. 3000 kishi sudga tortildi. 22 kishi o‘limga, 104 kishi surgunga va 281 kishi qamoq jazosiga hukm qilindi. Lekin, shunga qaramasdan, podsho farmonida ko‘rsatilgan 250 ming kishi emas. sal kam uning yarmiga teng keladigan odamlar Turkistondan mardikorlikka o‘lib ketildi. Chor qo‘shinlari ko‘plab shahar va qishloqlarni yakson qildi. Shahar aholisi jazirama cho‘lga haydaldi. Ayollar, bolalar va keksalar qattiq azob chekdi.

Jizzax qo‘zg‘olonining aks sadosi Rossiya imperatorligini ham dahshatga solib, hatto Peterburgdagi Davlat Dumasida ham muhokama etildi.

4. TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATI

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida siyosiy, madaniy, iqtisodiy jihatdan inqiroz holatiga tushib qolgan, qaramlik tufayli rivojlanishi past darajada bo‘lgan o‘lkada Turkiston ziyolilari chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmidan qutulish, o‘z milliy davlatchiligini tuzish, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga yo‘l ochish, xalqqa ziyo tarqatish choralarini ko‘rdi. Bu borada jadidchilik harakati muhim rol o‘ynadi.

Jadidchilik Rossiyaga qaram musulmon xalqlari orasida dastlab Qrimda, XIX asrning 80-yillarida paydo bo‘ldi. Uning asoschisi diniy-dunyoviy ilmlarni chuqur egallagan Ismoilbek Gaspirali (Gaspirinskiy, 1851–1914) edi. Ismoilbek 1884-yilda jadid maktabi tashkil etib, 40 kunda 12 bolaning savodini chiqardi. Uning o‘qitish usuli “usuli savtiya”, ya’ni “yangi usul” nomi bilan shuhrat qozondi. “Jadid” arabcha so‘z bo‘lib, “yangi” degan ma’noni bildiradi. Ismoilbek g‘oyalarni qabul qilgan yangilik tarafdorlari – “jadidlar”, uning g‘oyalari esa “jadidchilik” nomini oldi. U darslik yaratdi, o‘zining “Tarjimon” ro‘znomasini (1883–1914) tashkil etib, jadidchilikni turkiy xalqlar orasida keng targ‘ib qildi. Bu gazeta Toshkent va boshqa shaharlarga ham tez yoyildi.

Jadidchilik rus mustamlakachiligiga qarshi milliy demokratik harakat bo‘lib, Turkistondagi qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashayotgan xalqlarni ma‘rifatlashtirish, jamiyat hayotida ijtimoiy va madaniy islohotlar o‘tkazish, pirovardida milliy mustaqillik g‘oyalarni hayotga tatbiq etish maqsadini o‘z oldiga qo‘ygan edi.

Turkistonda jadidchilik g‘oyalari XIX asrning 90-yillaridan yoyila boshladi va XX asrning 20-yillari oxirlarigacha o‘lka ijtimoiy-siyosiy hayotiga sin-

gib bordi. Bugungi kunda respublika tarixchi olimlari jadidchilik harakatida quyidagi uch bosqichni farqlaydilar:

- 1) XIX asr oxirlaridan – 1915-yilgacha – ma’rifatchilik;
- 2) 1915-yildan – 1918-yil fevraligacha – muxtoriyatchilik;
- 3) 1918-yil fevralidan – 20-yillar oxirlarigacha – sovetlar tuzumi davridagi faoliyati.

Ismoilbek Gaspirali 1893-yilda Toshkent, Samarqand va Buxoroda bo‘lib, amir Abdulahadni jadid maktabi ochishga ko‘ndiradi va yangi ochilgan maktabga “Muzaffariya” nomi beriladi. 1898-yilda To‘qmoqda (Qirg‘iziston) ham shunday maktab ochiladi. 1899-yilda Andijonda Shamsuddin domla, 1901-yilda Qo‘qonda Salohiddin domla, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov va Samarqandda Abduqodir Shakuriylar birinchi bo‘lib jadid maktablarini ochadilar. Jadidchilik harakatining yirik namoyandalari o‘z maktablari uchun darsliklar yaratgan. Xususan, Saidrasul Aziziy “Ustozi avval” (1903), Abdulla Avloniy “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim” (1912) darsliklarini yaratdi.

Yangi usuldagi maktablar uchun “Adibi avval” nomli darslik 1907-yilda Toshkent jadidlarining otasi Munavvarqori tomonidan yaratilgan.

Jadidlarning xalq ma’rifati uchun kurash dasturi uch asosiy yo‘nalishdan iborat edi:

1. Yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish.
2. Umidli, iqtidorli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish.
3. Turli ma’rifiy jamiyatlar tuzish hamda ziyolilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan gazetalarni chop etish.

Shu dasturni amalga oshirish borasida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho‘lpon va boshqa ziyolilar jonbozlik ko‘rsatishdi. Yangicha o‘qitish musulmon bolalariga qisqa vaqt ichida dunyoviy, diniy ta’lim berish dasturi asosida olib borildi. Bu dasturga ko‘ra, maktablarda o‘qitish tizimi ikki bosqichdan iborat bo‘lgan. Birinchi bosqich ibtidoiy qism deb atalib, uning tahsil muddati 4 yil. Birinchi bosqichni tugatgan shogird eski maktabda 10 yil o‘qigandan ko‘ra yaxshiroq savod chiqargan.

Ikkinchi bosqichni tugatgan shogirdlar arabcha, forscha, ruscha va turkiy tilda bemalol so‘zlasha olgan.

1905–1907-yillardagi Rossiyadagi inqilobiy harakatlar Turkistondagi jadidlarning ma’rifatchilik faoliyatini jadallashtirdi. Ular yurtning iqtidorli yoshlarini chet ellarga o‘qishga yuborishga muhim e’tibor qaratishdi. O‘ziga to‘q, badavlat kishilar jadidchilarning bu tashabbusini quvvatlab, mablag‘ bilan ta’minlashga ko‘maklashdi. Shu tariqa bir qator yoshlar Germaniya, Tur-

kiya, Misr va Rossiyaning markaziy shaharlariga o'qishga yuborildi. Joylarda jadidchilarning bu tashabbuslariga ko'maklashuvchi hayriya jamg'armalari ham faoliyat yurita boshladi. 1909-yilda Munavvarqori tuzgan "Jamiyati xayriya", 1910-yili Buxoroda Mudarris Xoji Rafiy tuzgan "Bolalar tarbiyasi" nomli xayriya jamg'armalari shular jumlasidan edi.

Turkiston jadidlarining ma'rifatchilik faoliyatlari faqatgina maktablarda emas, balki jonli matbuotchilik faoliyatida, jumladan, ro'znomalarning ko'plab vujudga kelishida ham ko'rindi. Chunonchi, 1906-yilda Ismoil Obidovning muharrirligida "Xurshid", 1907–1908-yillarda Abdulla Avloniy muharrirligidagi "Osiyo" ro'znomalari chop etildi. Lekin tez orada chor ma'muriyati ashaddiy shovinizist N.P.Ostroumov bildirishnomasiga asoslanib bu ro'znomalar chiqishini man etdi.

O'zbek ziyolilari yetakchilaridan biri Asadullaxo'ja o'g'li Ubaydullaxo'ja 1913-yilda "Taraqqiyparvar" nomli ziyolilar firqasini tuzib, 1914-yildan uning "Sadoi Turkiston". "Sadoi Farg'ona" gazetolari ham chiqa boshlaydi. Shuningdek, ma'rifatchilikning yangi to'lqinida 1913 – 1915-yillarda "Samarqand", "Buxoroi sharif", "Turon", 1917-yilda esa "El bayrog'i", "Kengash", "Hurriyat", "Ulug' Turkiston" gazetolari kabi ommaviy axborot vositalari hamda jadidlarning "Oyna" jurnali paydo bo'ldi. Bu gazeta-jurnal sahifalarida e'lon qilingan maqolalar xalq ommasini mustamlakachilikka qarshi qo'zg'alishga chorladi.

Jadidlar o'z milliy teatriga ham asos soldi. 1913-yilda Munavvarqori Abdurashidxonov rahnamoligida musulmon drama san'ati havaskorlari jamiyati – "Turon" guruhi tuzildi. 1914-yil 27-fevralda Toshkentda o'zbek milliy teatri ochilib, unda M.Behbudiyning "Padarkush" pyesasi namoyish etildi.

Jadidlar matbuotida ham, sahna asarlarida ham xalq ommasini milliy va diniy birlikka, jipslashishga, xalqning ijtimoiy ongini ko'tarishga muhim e'tibor qaratilgan edi.

Turkistonda jadidchilik harakati rivojida Mahmudxo'ja Behbudiyning xizmati beqiyos. "Turkiston jadidlarining otasi" deb nom olgan Behbudiy 1874-yil Samarqand viloyati Baxshitepa qishlog'ida tug'ilgan. Tog'asi muf-tiy mulla Odildan arab tili va boshqa ilmlarni o'rganib, Istanbul va Qohira shaharlaridan yangi usul maktablari, yuqori va quyi bilim yurtlari, yangi arab, turk adabiyoti va matbuoti tajribalarini o'rganib qaytadi. 1903 – 1904-yillarda Peterburg, Moskva, Qozon, Orenburgda yangi usul maktablari, ta'lim-tarbiya tizimi va Boqchasaroyda I.Gaspiralining "Tarjimon" gazetasi bilan tanishadi va Samarqandda yangi usul maktablari ochadi; o'zbek, tojik tilida yangi qo'llanmalar yaratadi; "Samarqand" gazetasi va "Oyna" jurnalini chiqa-

ra boshlaydi. 1912-yilda o‘zining “Padarkush” asarini yozib, 2 yillik qiyinchiliklardan so‘ng 1913-yilda uni nashr ettiradi va sahnalashtiradi.

Turkistonning ma’rifati, taraqqiyoti va istiqboli uchun kurashgan alloma Buxoro amirining zindonida ham yotadi va amir tomonidan qatl ettiriladi.

Jadidlarga podsho ma’uriyati, mahalliy hukmdor va ruhoniylar qanchalik qarshilik ko‘rsatmasin, ular o‘z g‘oyalaridan qaytmay, faqat chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmiga, ruhoniylarning panturkizm, panislomizm g‘oyalariga qarshi kurash olib borishdi. Aynan shu jarayonlarda ular ma’naviy-ma’rifiy islohotlar o‘tkazish harakatlaridan siyosiy qarshilik ko‘rsatish darajasiga ko‘tarilishgacha borib etdilar.

Tayanch so‘z va iboralar:

Chor Rossiyasi. O‘rta Osiyoni bosib olish harakatlari. Harbiy ekspeditsiyalar. Rossiya mustamlakachiligi. Alimqul. Chernyayev. Buxoro amirligiga qarshi urush. Turkiston general-gubernatorligi. Samarqandning egalani. Xiva xonligi. Gandimiyon sulhi. Xudoyorxon. Kaufman. Skobelyev. Qo‘qon xonligining tugatilishi. Boshqaruv uslubi. Temir yo‘llar qurilishi. 1886-yilgi “Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risida”gi nizom. “Ruslashtirish”. Ko‘chirish siyosati. Milliy ozodlik harakatlari. “Vabo”, Dukchi Eshon qo‘zg‘oloni. Turkistonda jadidchilik harakati.

Bilimingizni sinab ko‘ring

1. Qozog‘iston hududidagi Kichik Juz oqsoqoli Abulxayrxon 1730-yilda Rus podshosiga murojaat etib, o‘z juzini Rossiya panohiga olishni so‘radi va 1732-yilda ular Rossiya imperiyasi himoyasiga o‘tdi. 1739-1740-yillarda O‘rta Juz, 1747-yilda Katta Juz ham Rossiya tobeligiga olindi. Kichik, O‘rta va Katta Juzlar Rossiya tobeligiga o‘tishi bilan rus davlatining bir hudud tomon harakat qilishi uchun imkoniyat vujudga keldi.

Bu hududning nomini toping.

		t	
--	--	---	--

		i	
--	--	---	--

2. Chor Rossiyasi Qo‘qon xonligini egallash harakatini boshlab, 1852-yilda xonlikning Sirdaryo bo‘yidagi bir qal‘aga hujum qiladi va uni egallay olmaydi. 1853-yildagi ikkinchi hujumda ham qal‘a qattiq himoya qilinadi. Qal‘a egallangan 28-iyul kuni faqat 74 kishi asir olingan bo‘lib, ular qurol ushlashga madori qolmagan yaradorlar edi.

Ruslar egallagan bu qal'aning nomini toping.

		m			i	
--	--	---	--	--	---	--

3. Rus bosqini boshlanganda, xonliklarning birlashib bosqinchilarga qarshi kurashi g'alaba keltirishi muqarrar edi. Biroq, unday bo'lmadi. Xonliklar bir-birini himoya qilmadi. Ular hatto, dushmanlik yo'liga o'tdi. Qo'qon xoni Xudoyorxon o'z homiysi Buxoro amiriga nisbatan xoinona ish tutib, yordam o'rniga Jizzaxni egallagan general Romanovskiye ga telegramma ham yubordi. Bu qanday telegramma edi?

				i	
--	--	--	--	---	--

t	e	l	e	g	r	a	m	m	a	s	i
---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---

4. Chor Rossiyasi Turkistonni egallagach, ruslashtirish siyosatini boshladi. 1886-yilgi Nizom o'lkaga rus aholisini ko'chirib keltirish yo'li bilan ruslashtirish harakatini qonunan mustahkamladi. O'lkada ko'chirib keltirilgan ruslar uchun yashash joylari barpo etildi. Barpo etilgan bu yashash joylari qanday nomlangan?

--	--	--

				l				l	a	r	i
--	--	--	--	---	--	--	--	---	---	---	---

5. 1881-yilda Mixaylovskiy ko'rfazidan boshlangan temir yo'l 1888-yil Samarqandgacha, 1894-yilda Krasnovodskgacha yetkazildi. Bu temir yo'l keyinchalik O'rta Osiyo temir yo'li nomini oldi. Xo'sh, ushbu temir yo'l dastlab qanday nomlangan?

			a				
--	--	--	---	--	--	--	--

(rus tilidagi nomi)

	a			i	
--	---	--	--	---	--

				i
--	--	--	--	---

(o'zbek tilidagi nomi)

6. Chor Rossiya hukumatining 1903-yilda chiqargan farmoni o'lka aholisining islomga bo'lgan e'tiqodini cheklashda qaratildi. Bu farmonga asosan aholi uchun islom qoidalari bo'yicha bir narsani qilish man etildi. Farmon bo'yicha nimani qilish man etildi?

	a	
--	---	--

	a		a		
--	---	--	---	--	--

7. 1892-yilda vabo kasalligi tarqalishi, mustamlakachilarning mahalliy millatni kamsitish siyosati natijasida Toshkentda qo'zg'olon boshlandi. Qo'zg'olonchilar shahardagi rus mahkamalarini toshbo'ron qildilar.

Aslida "Vabo" nomini olgan bu qo'zg'olon o'z voqealari jarayoni bilan tarixda qanday nomlangan?

		sh			a	
--	--	----	--	--	---	--

			y			i
--	--	--	---	--	--	---

8. Turkiston jadidlarining yirik namoyandalari jadid maktablari uchun darsliklar yaratgan. Yangi usuldagi maktablar uchun darslik 1907-yilda Toshkent jadidlarining yetakchisi Munavvarqori tomonidan ham yaratilgan. Katakchalarda yashiringan Munavvarqori yaratgan darslikning nomini toping.

		i		
--	--	---	--	--

			a	
--	--	--	---	--

X BOB. TURKISTONDA SOVET HOKIMIYATINING O‘RNATILISHI VA UNGA QARSHI QUROLLI HARAKAT

Mavzu rejası:

1. 1917-yil fevral inqilobi va uning Turkiston o‘lkasiga ta’siri. O‘lka siyosiy partiyalari.
2. Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o‘rnatilishi, uning shovinistik siyosati.
3. Turkiston muxtoriyati va uning faoliyati.
4. Turkistonda mustabid sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat.
5. Xorazm va Buxorodagi demokratik harakatlar. Xiva xonligi va Buxoro amirligining tugatilishi.

1. 1917-YIL FEVRAL INQILOBI VA UNING TURKISTON O‘LKASIGA TA’SIRI. O‘LKA SIYOSIY PARTIYALARI

1917-yil 27-fevralda Rossiyada Nikolay II taxtdan ag‘darildi. Xalqning hukumatga qarshi chiqishlari uning taxtdan ketishiga sabab bo‘ldi. Natijada Rossiya siyosiy ahvolidagi nihoyatda kam uchraydigan hol – ikki hokimiyatchilik yuzaga keldi. Ularning biri – burjuaziya vakillaridan iborat Muvaqqat hukumat, ikkinchisi – Ishchi-askar, dehqon deputatlari sovetlari edi.

1917-yilda Rossiyada o‘z maqsadlari va keng aholi ijtimoiy tabaqalari-ning manfaatlari uchun kurash olib borayotgan 50 dan ziyod siyosiy partiyalar va oqimlar mavjud edi. Bu partiyalar orasida bolshevik, menshevik, kadet va yeserlarning xalq o‘rtasidagi ta’siri ustun bo‘lib, ularning ta’siri Turkistonda ham kuchayib borayotgan edi. Toshkentdagi partiya tashkilotlari rahnamoligida 1917-yil 2-martda temir yo‘l ustaxonalari ishchilari miting o‘tkazib, uning qatnashchilari ishchi deputatlari Sovetini saylash to‘g‘risida qaror qabul qildi. 3 mart kuni esa zavodlar, ustaxonalar, demokratik guruhlarning saylangan vakillaridan Toshkent Soveti, 5-martda esa Toshkent harbiy garnizoni qismlarida 2-3-mart kunlari saylangan askarlar vakillaridan soldat deputatlari Soveti ham tuzildi. Ushbu Sovetlar a‘zolari orasida mahalliy aholi vakillaridan biror kishi ham yo‘q edi. Bu toshkentlik mahalliy aholiga nisbatan ishonchsizlik, milliy kamsitish bo‘lib, eng muhimi, Rossiyadagi fevral burjua inqilobi shiorlaridagi tenglik tamoyili buzilgan edi.

Nima bo'lganda ham Rossiyadagi va uning ta'sirida Turkistonda kechayotgan jarayonlar o'lkada mustaqillik uchun kurashning avj olishiga turtki berib, unda jadidlarning hissasi katta bo'ldi. Ular o'z milliy davlatchiligini tiklash uchun mahalliy aholiga rahbarlik qilishdi. Ular tashkil etgan "Turon" jamiyatining siyosiy faoliyati kuchayib, jamiyat tashabbusi bilan 6, 9, 13-mart kunlari xalq yig'inlari o'tkazildi, mahalliy hokimiyat boshqaruvi masalalari ko'rib chiqildi va demokratik ruhdagi qarorlar qabul qilindi.

1917-yilning mart oyi o'rtalaridan Turkistonda yangi siyosiy partiyalar tuzilib, joylarda "Butun hokimiyat Sovetlarga" degan shior ostida namoyishlar o'tkazildi, odamlar "Endi xalq Sovetlar orqali o'z taqdiri va kelajagini hal eta oladi", deb o'ylay boshladi.

Millat ziyolilari aynan shu maqsadda 1917-yil 14-martda (ayrim manbalarda 15-mart) Toshkentda. Munavvarqori hovlisida idora majlisi o'tkazib, "Sho'roi Islomiya" (Musulmonlar Sho'rosi) tashkilotini tuzdilar. Abduvohid Qori o'g'li Abdurauf Qori – rais, Munavvarqori – muovin, Kattaxo'ja Boboxo'ja o'g'li – sarkotib, Mulla Rizo Oxund Yo'ldoshhoji o'g'li – xazina-dor etib saylandi.

April oyining boshlarida o'lkaning boshqa joylarida ham "Sho'roi Islomiya" tashkilotlari tuzildi. Ularning asosiy vazifasi – kelajakda Rossiyada tashkil qilinadigan Federativ-demokratik Respublika doirasida Turkiston Muxtor respublikasini tashkil etish edi. "Sho'roi Islomiya" tashkiloti "Najot", "Sho'roi Islom", "Kengash", "Hurriyat", "El bayrog'i" va "Ravnaq ul-islom" singari nashrlarida o'zining ijtimoiy-siyosiy qarashlari hamda qarorlarini keng omma orasida targ'ib qildi.

"Sho'roi Islomiya" ta'sirida faoliyat yuritgan jadidlarning bir qismi "**Qadimchilar**" deb nomlandi, ular 1917-yil iyunida "Sho'roi Islomiya" tarafdorlari bilan aloqani uzib, Sherali Lapin, Abdumalik hoji Nabiyevlar boshchiligida "Sho'roi Ulamo" tashkilotini tuzishdi. Bunday bo'lishining sababi Turkistonning milliy mustaqillikka erishish yo'lidagi ikki xil qarama-qarshi qarashlar edi.

Jadidlarning ilg'or namoyandalari Rossiyada yuzaga kelgan qulay inqilobiy shart-sharoitlardan foydalanib, Turkiston mustaqilligini siyosiy vositalar orqali, behuda qon to'kishlarsiz. bosqichma-bosqich qo'lga kiritish yo'lini tanlagan bo'lsalar (ular o'z oldilariga Rossiya Federatsiyasi tarkibida Turkiston muxtoriyatini tuzish maqsadini qo'ygan edilar), "Qadimchilar" o'lka mustaqilligiga hukmron mustamlakachilarga qarshi faqat qurolli kurash yo'li bilan erishish yo'lini yoqlab chiqdilar.

Bunday ajralishdan o'lkada faoliyat yuritayotgan boshqa siyosiy kuchlar o'z maqsadlari yo'lida foydalandilar. O'lkada demokratik harakatlarning

kuchayishida, turli qatlam va tabaqalarning istiqloq uchun kurash bayrog‘i ostida birlashishida Umumturkiston musulmonlari qurultoyi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

1917-yilning 16–23-aprel kunlari Toshkentda “Sho‘roi Islomiya” tashabbusi bilan Umumturkiston musulmonlarining birinchi qurultoyi bo‘lib o‘tdi. Qurultoyda Muvaqqat hukumatga munosabat, ta‘sis majlisi chaqirish, mahalliy fuqarolarning boshqaruv idorasi, urushga munosabat, mardikorlik, Umumrossiya musulmonlari qurultoyiga vakillar saylash va hokazo masalalar muhokama etildi.

Qurultoyda Rossiya tarkibida milliy-hududiy-federativ demokratik respublika tashkil etish haqida qaror qabul qilindi. Qurultoy Turkiston o‘lka musulmonlarining Markaziy sho‘rosini tuzdi. Unga Mustafo Cho‘qayev – rais, Zaki Validiy To‘g‘on – kotib, Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Ubaydullaxo‘ja Asadulla Xo‘jayev, Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov, Islom Shoahmedov va boshqalar rayosat a‘zolari etib saylandi.

Joylarda Markaziy sho‘roning sho‘balari ham tuzildi, Toshkent sho‘basini M.Abdurashidxonov, Samarqand sho‘basini M.Behbudiy, Farg‘ona sho‘basini Nosirjon To‘ra Kamolxon To‘ra o‘g‘li boshqarayotgan edi. Shu tariqa Turkistonda Rossiya Muvaqqat hukumatining Turkiston qo‘mitasi, ishchi-askar deputatlari soveti, Turkiston o‘lka musulmonlari sho‘rosining markaziy organi bo‘lgan Markaziy sho‘rolardan iborat uchta hokimiyat faoliyat ko‘rsatayotgan edi.

1917-yilning 1-2-may kunlari Moskvada Butunrossiya musulmonlarining I qurultoyi bo‘lib, unda Turkiston vakillari ham ishtirok etdi. Qurultoyda musulmonlar manfaatini himoya qiluvchi davlat qurilishi shaklan milliy-hududiy, federatsiya asosidagi demokratik respublika bo‘lishi ta‘kidlandi. Qurultoyda Butunrossiya musulmonlari sho‘rosi, uning Ijroiya Qo‘mitasi ta‘sis etilib, unga vakillardan U.Asadulla Xo‘jayev va I.Shoahmedovlar a‘zo etib saylandi.

1917-yil 21–31-iyul kunlari Qozon shahrida bo‘lib o‘tgan Butunrossiya musulmonlarining II qurultoyi ham musulmonlarning mustaqillik uchun kurash harakatlarini qo‘llab-quvvatladi va bu harakatlarni muvofiqlashtirish maqsadida Butunrossiya harbiy Sho‘rosini ta‘sis etish haqida qaror qabul qilindi. 15-iyulda Toshkent shahar musulmon ishchi vakillari Soveti tuzilib, unga 32 kishi, 8 kishidan iborat Ijroiya qo‘mita va uning boshlig‘i qilib Salohiddin Muftizoda saylandi.

Andijon, Qo‘qon, Samarqandda ham bunday sovetlar tuzildi, ularning hay‘atlariga asosan yerli xalq vakillari saylanib, 1917-yilning yozida Toshkentning eski shaharida 12 ta kasaba sovetlari tuzildi va Sultonxo‘ja Qosim Xo‘jayev rais etib tayinlandi.

Turkistondagi bunday shiddatli voqealar ta'sirida o'lkaning joylardagi jadidlar oqimi faoliyatida ham o'zgarishlar sodir bo'ldi. Masalan, Buxoro jadidlarida ajralish yuz berib, ular safidan "Yosh buxoroliklar" ajralib chiqdi. Bu tashkilot 1917-yilning 9-aprelida Buxoroda namoyish uyushtirdi. Ammo dushman kuchlar bu tashkilot a'zolarini yo'q qilishga kirishdi. Ta'qiblar natijasida bu tashkilot a'zolari yangi Buxoroga ko'chdi va shu yerda ular safida yana ajralish ro'y berdi. Tashkilotning o'ng va so'l qanotlari paydo bo'ldi. O'nglar M.Mansurov boshchiligida amir bilan muzokaralar orqali kelishish yo'lidan bordi. So'llar esa (Fitrat, F.Xo'jayev, M.Saidjonov va b.) viloyatlarda partizanlik chiqishlarini tashkil etish yo'li bilan qurolli qo'zg'olon tayyorlash imkoniyati bor, deb hisobladilar.

Xorazm jadidlari ham "Yosh xivaliklar" tashkilotini tuzib, o'z harakatlari ni faollashtirdi. Ular xon hokimiyatiga qarshi ochiq kurash yo'liga o'tib, inqilobiy kayfiyatdagi askarlar bilan aloqa o'rnatdi. Ularning talabi bilan 1917-yil aprelda xonning "Bayonnomasi" e'lon qilindi. Unda mamlakatda parlament boshqaruvi joriy etilishi, bu parlament davlat oliy hokimiyati sifatida umum-xalq ovozi berilishi yo'li bilan shakllantirilishi e'lon qilindi. Bu saylovlarga "Yosh xivaliklar" faol qatnashib, o'z deputatlarini ham sayladilar.

"Yosh xivaliklar"ning bo'linib ketgan o'ng qanoti (Islomxo'ja boshliq) xonga qarshi suiqasd qilish yo'lini tanladi. Bundan xon xabar topib, 1917-yil iyunda ular majlisini tarqatib yubordi va rahbarlarini qamoqqa oldi. Shu bois, endi "Yosh xivaliklar" tashkiloti ochiq faoliyat ko'rsatolmay qoldi. Tashkilotning Bobo'xun Salimov yetakchiligidagi so'l qanoti yashirin ish usuliga o'tdi.

2. TURKISTONDA MUSTABID SOVET HOKIMIYATINING O'RNATILISHI, UNING SHOVINISTIK SIYOSATI

1917-yilning yoz oylarida o'lkada demokratik harakatlar kuchayib, bu o'lka musulmonlarining faollashuviga turtki berdi. 17–20-sentabr kunlari Toshkentda Umumturkiston musulmonlarining II qurultoyi bo'lib o'tdi. 500 nafar vakil ishtirok etgan bu qurultoyda 12 kishidan iborat Turkiston o'lka qo'mitasi va 24 kishidan iborat "Mahkamai Shariya" (parlament) tashkil etilib, "Sho'roi Islomiya", "Sho'roi Ulamo", "Turon", "Ittihod" kabi tashkilotlarni birlashtirib, yagona "Ittifoqi Muslimin" ("Musulmonlar Ittifoqi") partiyasini tuzish g'oyasi ilgari surildi va qurultoyda M.Behbudiy nutq so'zlab, o'lkaning o'z ichki ishlarini mustaqil hal etishga qodir bo'lgan Turkistonning mahalliy va milliy muxtoriyatini tuzish g'oyasini ilgari surdi.

Rossiya poytaxti Petrogradda 25-oktabrda (yangi hisob bilan 7-noyabr) davlat toʻntarishi sodir boʻlib, muvaqqat hukumat agʻdarildi, hukumat aʻzolari qamoqqa olindi. V.I.Lenin boshchiligidagi bolsheviklar hokimiyatni zoʻravonlik bilan egallab olishdi. Bu haqdagi xabar oʻlkaga yetib kelgach, 1917-yil 28-oktabrda Toshkentda ham bolsheviklar rahbarligida qurolli qoʻzgʻolon boshlandi. Qoʻzgʻolon markazi temir yoʻl ustaxonalarida joylashgan boʻlib, bolshevik V.S.Lyapin rahbarligida inqilobiy qoʻmita tuzilgan edi. Qoʻzgʻolonchilar 31-oktabr kuni shahar markazini, bosh pochtaxonani, bankni egallashib, 1-noyabrda bosh harbiy qalʼa (Tuproqqalʼa) ham ishgʻol qilindi, Muvaqqat hukumatning Turkiston qoʻmitasi agʻdarildi va Toshkentda Sovet hokimiyati oʻrnatildi.

Turkiston oʻlkasining boshqa shaharlarida ham hokimiyat birin-ketin bolsheviklashgan Sovetlar qoʻliga oʻta boshladi. Oktabr toʻntarishidan keyin Rossiyadagidek, Turkistonda ham inqilobiy aqidalarga, birinchi navbatda sinfiylik tamoyillariga amal qilindi. Ishchi-dehqonlar sovet hokimiyatining tayanch kuchi, aholining boshqa qatlamlari esa reaksiyon va ekspluatator guruhlar deb eʼlon qilindi.

Bolshevik (sovetlar)larning birinchi siyosati Turkistonda yevropalik aholining hukmronligini mustahkamlashga qaratilib, eski mustamlakachilikni yangi, zamonaviylashgan tamoyillari asosida davom ettirishga harakat qilindi. Mahalliy millatlar siyosiy jarayonlarga aralastirilmadi. Bu esa oʻlka xalqlarining yangi hukumatga boʻlgan ishonchsizligini yanada kuchaytirdi. Hatto yevropalik aholining demokratik qatlamlari bolsheviklarning bu siyosatiga qarshi chiqishdi.

1917-yil 2-noyabrda yangi hukumat masalasida yigʻilish boʻlib, unga mahalliy musulmon shoʻrolari vakillarini hal qiluvchi emas, maslahat ovozi bilan qatnashishlariga ruxsat berildi. Oʻlka musulmonlari mahalliy shoʻrolari bu munosabatlarga norozilik bildirib, 5-noyabrda oʻz qurultoylariga yigʻildilar va chaqirilmogʻchi boʻlgan Turkiston ishchi va soldat deputatlari Sovetlarining III syezdiga hal qiluvchi ovoz bilan qatnashmogʻchi ekanliklarini bildirdilar. 15–22-noyabrda boʻlib oʻtgan syezd delegatlari bu noroziliklarni inobatga olmay, Turkiston Sovet hukumati – Xalq Komissarlari Sovetini (15 nafar Xalq Komissari saylandi) tuzdi. Ularning orasida birona ham mahalliy millat vakillari yoʻq edi. Barcha komissarlar, hatto hukumat raisi Kolesov ham oʻzga millat vakili edi.

1917-yilning 22-noyabrda markaziy, 30-noyabrda esa mahalliy matbuotda bolsheviklar rahbarining “Rossiya va sharqning barcha musulmon mehnatkashlariga” degan murojaatnomasi eʼlon qilindi. Unda Rossiyadagi

barcha xalqlar (shu jumladan, Turkiston xalqlari ham) to alohida davlat bo‘lib ajralib chiqqunga qadar o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqiga ega ekanligi ta’kidlangan edi. Biroq, Turkistondagi hukumat bunga amal qilmay, mahalliy sharoitni va mahalliy xalqlar talabini inobatga olmadi.

Rus inqilobchilari mahalliy xalqlarni mensimaslik siyosatini davom ettirdi. Hatto, Turkiston Sovet hukumati Xalq Komissarlaridan biri – Uspenskiy o‘lka Sovetlarining IV qurultoyida so‘zga chiqib: “O‘rtoq musulmonlar, shuni bilingki, biz sizlarning katta og‘alarimgiz. Siz kichiksiz va tushunarliki, bizga bo‘ysunishingiz kerak!” deb dag‘dag‘a ham qilgan edi.

Turkistonda sovet hokimiyati bilan sovet boshqaruv tizimi o‘rnatilib, jazo organlari tashkil etildi. Turkiston XKS ning 1917-yil 28-noyabrdagi qarori bilan o‘lkada qizil gvardiya bo‘linmalari, Butunrossiya Favqulodda Komissiya (cheka) organlari va inqilobiy tribunallar tuzildi. Ular sovet rejimi va bolsheviklarga qarshi ko‘tarilgan harakat va chiqishlarni bostirishda faol ishtirok eta boshladi.

1917-yil oxirida “Sho‘roi Islomiya” va boshqa demokratik tashkilotlar tarqatib yuborildi va, shu tariqa, zo‘ravonlik, shovinistik siyosatga asoslangan sovet rejimi o‘lkada yangicha mustamlakachilik siyosatini davom ettirdi.

3. TURKISTON MUXTORIYATI VA UNING FAOLİYATI

Sovetlarning o‘lkadagi yangicha mustamlakachilik siyosati mahalliy yetakchilarning 1915-yildan to shu kungacha orzu qilib kelgan muxtoriyatchilik g‘oyalarini amalga oshirishlariga undadi. 1917-yilning sentabrida Toshkentda “Sho‘roi Ulamo” tashkilotining tashabbusi bilan o‘tkazilgan qurultoyda bu g‘oya asosida o‘lkaning muxtor hukumatini ta’sis etish haqida qaror qabul qilingan edi. Qarorda Turkiston xalqlarining o‘z ixtiyorlari bilan ish ko‘rishga haqli bo‘lishi, moliya, adliya, boshqaruvda va boshqa sohalarda mustaqillik bo‘lishi hamda matbuot erkinligining ta’minlanishi singari muhim masalalar o‘z ifodasini topgan.

Turkiston musulmon yetakchilarining o‘z g‘oyalarini amalga oshirishlari uchun bolsheviklar rahbarining yuqorida zikr etilgan murojaatnomasi ham turtki bo‘lgan edi. “Sho‘roi Islomiya”, “Sho‘roi Ulamo” va “Alash O‘rda” partiyalari va musulmon harbiylari Soveti tashkilotlari, shuningdek, o‘lkaning yahudiylari jamiyati vakillari Turkiston Sovet hukumatining hukumat masalasida mahalliy xalq vakillariga munosabatidan norozi bo‘lib, o‘z g‘oyalarini amalga oshirish maqsadida 1917-yilning 26-noyabrida Qo‘qon shahrida o‘lka musulmonlarining favqulodda IV qurultoyini chaqirdi. Unda o‘lkaning

besh viloyatidan 200 dan ortiq vakillar ishtirok etdi. Aynan shu qurultoyda yurtning millatparvar rahnamolari o'z g'oyalarini amalga oshirib, mahalliy xalq irodasini ifodalovchi Turkiston Muxtor hukumatini tuzdilar. Qurultoyda yangi hukumatning 12 kishidan iborat Muvaqqat Kengashi ham tuzildi. Hukumatning Bosh vaziri etib "Alash O'rda" partiyasi yetakchisi Muhammadjon Tinishpayev saylandi. Yana 7 kishi bosh vazir o'rinbosari va vazirlar etib saylangan bo'lsa, qolgan 4 o'ringa yevropalik aholi orasidan vakil saylash belgilab qo'yildi.

Qo'qondagi qurultoyda Turkiston muxtoriyati tuzilgach, "Hurriyat" gazetasining bir sonida Fitratning "Muxtoriyat" maqolasi e'lon qilindi. Bu maqolasida muallif: "Qurultoy o'z ishini qildi. Qolganlari butun millatning vazifasidir. Muxtoriyatni saqlamoq uchun kuch lozim. Muxtoriyatni bajarmoq uchun aqcha kerakdir. Bularni millat hozir qilsun", – deb xitob qildi.

Turkiston muxtoriyati boshqaruv kengashida 54 o'rindan 18, ya'ni uchdan bir o'rin o'lkadagi yevropalik millatlar tashkiloti vakillariga ajratildi. Shu tarzda muxtoriyat a'zolari demokratik va umummanfaat asosida saylangan edi.

Muxtoriyatda rus oq gvardiyachilari (ular Rossiyada eski tuzum tarafdorlari – harbiylar bo'lib, birinchi kundanoq Sovet hukumatiga qarshi kurash boshlagan edilar), kapitalistlar, pomeshchiklarga ham o'rin berildi. Chunki bu yangi hukumat ixtiyorida yaxshi qurollangan va uyushtirilgan qizil armiyaga qarshi kurasha oladigan harbiy kuch va mablag' yo'q edi.

Qurultoy Turkiston Milliy majlisi (parlamenti)ni ham tuzdi. Unga "Sho'roi Ulamo" tashkiloti rahbari Sherali Lapin rais etib saylandi. Milliy majlis tarkibiga Muvaqqat Kengash a'zolari bilan birgalikda T.Norbo'tabekov, S.Sharifxo'jayev, Nosirxonto'ra o'g'li, S.Yusupov, O.Umarov kabi yurtparvar ziyolilar ham kiritildi.

Turkiston muxtoriyatini o'lka ahli qo'llab-quvvatlay boshladi. Bu haqda 1917-yil dekabrda Toshkentda ikki marta o'tkazilgan umumxalq yig'ini ham dalolat beradi. Beklar begi madrasasidagi yig'inda Munavvarqori, Mulla Odil mufti, Said G'anixon, Sherali Lapin, Pirmuhammad A'lam va 15 nafar ishchi hamda hunarmandlar nutq so'zladi. Bu yig'inda 13-dekabr Hayit kuni namoyish o'tkazishga kelishib olindi. Shu kuni Qizil armiya tomonidan bu namoyishchilarga qarshi qurol ishlatildi.

1917-yil 25-dekabrda Qo'qonda o'lka musulmon ishchi-askar va dehqonlarining I favqulodda qurultoyi chiqarilib, barchani muxtoriyatni qo'llab-quvvatlashga chaqirdi. Qurultoy qatnashchilari so'nggi ish kuni – 27-dekabrda bolsheviklar rahbariga telegramma yo'llab, unda Turkiston muxtoriyatini e'tirof etish, Toshkentdagi Xalq Komissarlari Sovetiga hokimiyatni

Turkiston muxtoriyati Muvaqqat Kengashiga topshirish to'g'risida farmoyish berish so'raldi.

Turkiston muxtoriyati tarafdorlarining kundan-kunga ko'payishi bolsheviklar va ularning hukumatiga xavf sola boshladi. 1918-yil 19 – 26-yanvarda bo'lib o'tgan Turkiston o'lka sovetlarining IV syezdi Turkiston muxtoriyati hukumatini, uning a'zolarini qonundan tashqari holatda deb hisobladi, hukumat a'zolarini qamoqqa olishga qaror qildi. Aynan shu davrda muxtoriyat ichida ham nizolar, qarama-qarshiliklar kuchli edi. Bu nizolar tufayli ko'p o'tmasdan hukumat boshlig'i lavozimini Mustaf Cho'qay egalladi. 1918-yilning 18- fevralida esa "Sho'roi Ulamo" tashabbusi bilan muxtoriyatda to'ntarish qilinib, M.Cho'qay hukumati ag'darildi. Uning o'rniga Qo'qon mirshablari boshlig'i Kichik Ergash chiqdi. 1918-yil 18-fevraldan 19-fevralga o'tar kechasi Muxtoriyatni tugatish uchun Qizil armiyaning Qo'qon shahriga keng ko'lamdagi hujumi boshlandi. Qonli voqealar bilan Turkiston muxtoriyati 22-fevralda tugatildi. Bolsheviklar (Sovet) hukumatini tugatish uchun qizil armiyadan tashqari, arman dashnoqlari qo'shinidan ham foydalandi. Bu alohida qo'shin qizil armiya kabi xunrezliklar bilan shug'ullandi. Qo'qon shahri aholisi katta qurbonlar berdi. Dashnoqlar "mahalliy aholi bizning otlarni xashak bilan ta'minlashdan bosh tortdi" deb, Farg'ona shahri yaqinidagi Yormazor qishlog'ining 200 kishisini otib tashlagan.

Sovet hukumatining qizil armiyasi vakillari tomonidan amalga oshirilgan xunrezliklar ham Rossiya mustamlakachiligi davrlaridagidan qolishmagan. Podsho mustamlakachiligi davrida o'lkaning deyarli barcha joylarida mustamlakachilikka mos ishlar joriy qilingan. Skobelyev shahri markazidan oqib o'tadigan Marg'ilonsoy atrofida qator islovatxonalar joylashib, bu yerda yevropalik va musulmon fohishalari saqlangan. Ularni "Soybo'yi qizlari" deb atashgan.

Bu holat mustabid sovet tuzumi o'rnatilgandan keyin ham davom etdi. Milliy yetakchilardan biri – Turor Risqulov Turkiston Markaziy Ijroiya Qo'mitasi (MIQ) raisi A.Kazakovga mahalliy aholi nafsoniyatiga tegayotgan ishlar haqida xat yo'llab: Andijonda armanlar qishloqlardan juda ko'plab sart qizlarini olib kelib, ularni o'z xususiy buyumiga aylantirgani aniqlandi. Dashnoqlar o'qni tejab qolish maqsadida gunohsiz musulmonlarni ayovsiz chopishgan, ayollarni nomusini toptab, g'azab bilan: "Agar Olloh qudratli bo'lsa, senga najot bersin", deyishgan. Xuddi ana shu paytda "Skobelyevda butun-butun tashkilotlar va ijroiya qo'mitalar ichkilikbozlik bilan shug'ullanishgan". deb yozgan edi.

Qizil armiya Qo'qondagi Muxtor hukumatni yo'q qilish uchun qilgan hujumi natijasida shaharning uchdan bir qismi yakson qilindi. Aholi o'rtasida

ko‘p qurbonlar bo‘ldi. O‘sha davrdagi “Ulug‘ Turkiston” gazetasida yozilishi-cha, “Qo‘qon o‘liklar shahri”ga aylantirildi. O‘qqa tutilgan, talangan, tahqir qilingan aholi sovet hokimiyatini tan olishga majbur bo‘ldi.

“Turkiston Muxtoriyati” o‘lka xalqlari ozodlik harakatining qudratli, haqiqiy ramziga, erkinlik va mustaqillik uchun kurash ramziga aylandi. Muxtoriyatchilarning sovet hokimiyati tomonidan tor-mor etilishi bilan bog‘liq voqealar tarixda “Qo‘qon fojeasi” nomi bilan qoldi.

Sovet davlati o‘z qo‘ygan maqsadi yo‘lidan borib, Rossiyada, shu jumlada, Turkistonda ham sotsialistik qayta qurish ishlarini boshladi. Birinchi navbatda “Yer to‘g‘risida”gi dekret asosida yerga bo‘lgan xususiy mulkchilikni yo‘qotish uchun yer qo‘mitalari tuzildi. Biroq, dehqonlar sovetlarning bu harakatlarini norozilik bilan qarshi oldi. Shunday bo‘lsa-da, yangi hukumat qarshiliklarga qaramay, o‘lkadagi ko‘plab yirik mulklar, xususiy yerlarni musodara qildi va davlat tusarrufiga oldi.

Bolsheviklar o‘lkani kelajakda mustaqil, suveren davlat bo‘lib ajralib ketmasligini oldini olish maqsadida Turkiston hududida o‘ziga xos sovet muxtor (avtonom) respublikasi tuzishga kirishdi. 1918-yilning 20-aprelidan 1-mayigacha Toshkentda bo‘lib o‘tgan Turkiston sovetlarining V qurultoyida Turkiston avtonom sovet sotsialistik respublikasi (TASSR) tuzilib, u RSFSR tarkibiga kiritildi. Shuningdek, qurultoyda TASSR ning Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi (MIQ) va Xalq Komissarlari Soveti (XKS) ham saylandi. MIQ raisi etib bolshevik R.A.Kobozyev, XKS rahbari etib, F.I.Kolesov saylandi. MIQ ning 36 ta a‘zolaridan 9 tasi, XKS ning 16 ta komissarlaridan 3 tasigina mahalliy millat vakillari edi, xolos. Bunday yondashuvlar ham sovetlar yuritgan shovinistik siyosatning bir ko‘rinishi edi.

Bolsheviklar o‘lkada ham boshqaruvning yakka partiya hukmronligini yo‘lga qo‘yish maqsadida Turkiston Kommunistik partiyasini tuzishga kirishdi. 1918-iyunda Turkiston Kompartiyasi (2000 nafar bolsheviklardan iborat) tuzildi. 1919-yil martida esa ushbu partiya huzurida Turor Risqulov rahbarligida O‘lka musulmonlar byurosi (Musbyuro) ham tashkil etildi. Musbyuroning organi – “Ishtirokiyun” gazetasi chop etila boshlandi. Shuni ta‘kidlash lozimki, sovetlarning shovinistik siyosatini fosh etishda “Ishtirokiyun” gazetasining xizmatlari katta bo‘ldi.

Sovetlar o‘lkani RSFSRning ajralmas, tarkibiy qismi ekanligini, o‘lka xalqlarining barcha hayotiy masalalari ularning mas‘ulligida ekanligini qonuniylashtirish maqsadida, 1918-yil oktabrda bo‘lib o‘tgan O‘lka sovetlarining IV qurultoyida TASSR Konstitutsiyasini ham qabul qildi.

Shovinstik siyosat natijasida o'lkada sodir bo'layotgan keskinliklarga na-faqat mahalliy xalq va uning vakillari, hatto yevropa millatiga mansub va-killarni ham, ulardan chiqqan ayrim rahbarlarning ham noroziligiga sabab bo'layotgan edi. Buni 1919-yil 19–21-yanvarda sodir bo'lgan isyondan (14 nafar Turkiston xalq komissarlarining otib o'ldirilishi) ham ko'rish mumkin edi. Sovetlar vaziyatni zudlik bilan o'zgartirib, boshqaruv tizimini mustahkam-lab olgan bo'lsalar-da, bir oz yon bosishga majbur bo'ldi. Ular endi, rahbarlik lavozimlariga mahalliy millat vakillarini jalb eta boshlashdi.

Sovet hukumati o'lkani o'ziga to'liq qaram qilish, o'lkada markaz ta'sirini yanada kuchaytirish uchun 1919-yilning kuzida Toshkentga katta vakolatlarga ega bo'lgan Sh.Eliava rahbarligidagi Turkkomissiyani ham yubordi. Bu ko-missiya o'lkada sovet tuzumini yanada chuqurroq singdirish, yakka partiya hukmronligini kuchaytirish, barcha ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy tad-birlarni bolsheviklarcha zo'rvonlik asosida tashkil etish ishlariga bosh-qosh bo'ldi. Bu komissiya katta favqulodda vakolatlarga ega bo'lganligi sabab, o'sha davrlarda mahalliy xalq orasidan chiqqan, partiya va davlat qurilishi ishlarida katta tajriba to'plagan T.Risqulov, N.To'raqulov, A.Rahimboboyev, N.Xo'jayev, Q.Otaboyev, A.Ikromov, S.Segizboyev kabilarni ham o'z izmiga yurishga majbur etgan edi.

Shu tariqa, o'sha kezlarda O'rta Osiyoda to'rt hokimiyat: Turkkomissiya, TASSR, Buxoro amirligi va Xiva xonligi hukmronlik faoliyatini surayotgan edi.

4. TURKISTONDA MUSTABID SOVET HOKIMIYATIGA QARSHI QUROLLI HARAKAT

Qo'qondagi "Turkiston muxtoriyati" sovet hukumati tomonidan yo'q qilingandan so'ng, Turkistonda ijtimoiy-siyosiy vaziyat nihoyat darajada keskinlashib, iqtisodiy tanglik, oziq-ovqat tanqisligi kuchaydi. 1918-yilning bahorida Farg'ona vodiysining qishloqlarida turkistonliklar bilan qizil armiya qo'shinlari o'rtasida to'qnashuvlar boshlandi. Bu qurolli harakat 30-yillarning o'rtalarigacha davom etgan sovet hukumatiga qarshi qurolli harakat, yangi tuzumga qarshi milliy ozodlik harakati edi.

Mahalliy aholiga qarshi shafqatsiz jazo choralarining avj oldirilishi, xalq o'rtasida zo'rlik bilan "sotsialistik" siyosatni amalga oshirish natijasida mas-jid-madrasalarning yopib qo'yilishi, oziq-ovqat taqsimotini zo'rlik bilan joriy etib, erkin savdoning taqiqlab qo'yilishi va yana Marg'ilonda sovet hokimiya-ti vakillari tomonidan "Qur'on"ning yondirilishi bu qurolli harakatning bosh-lanishi uchun muhim sabablar edi.

Ozodlik va mustaqillik uchun jangga kirganlar “Turkiston – turkistonliklar Vatanidir!”, “Turkiston ozodligi uchun!”, “Turkistonni faqat turkistonliklarning o‘zi bosqinchilardan xalos etadi!”, “Din uchun kurashda shahid bo‘laylik yoki zafar qozonaylik!”, “Boyligimizni din va Vatan yo‘lida qurbon qilaylik!” kabi shiorlarni ko‘tardilar.

Sovet tuzumiga qarshi qurolli harakatning asosiy harakatlantiruvchi kuchi dehqonlar, chorikorlar, mardikorlar, hunarmand va kosiblar bo‘lib, ulardan tashqari badavlat oilalar vakillari, savdogarlar, islom dini arboblari va ba‘zi boylar ham qo‘shilgan edi. O‘lka xalqlarining milliy ozodlik kurashiga shu kurashda xalq ichidan yetishib chiqqan qo‘mondonlar (qo‘rboshilar) rahbarlik qildi. 1918-yilning fevralida Qo‘qonga yaqin Bachqir qishlog‘ida qo‘rboshilar qurultoyi bo‘lib, unda 40 ga yaqin qo‘rboshi ishtirok etdi. Qurultoyda sobiq Qo‘qon shahri militsiyasi boshlig‘i va muxtoriyatda ham yuqori lavozimni egallagan kichik Ergash musulmon lashkarlarining bosh qo‘mondoni etib saylandi.

Qo‘qon yaqinidagi (Bachqirda) jangda (1918-yil 27-fevral) kichik Ergash halok bo‘ldi. Uning o‘rnini Bachqir qishlog‘ilik katta Ergash (uni mulla Ergash ham deyishgan) egalladi. 1918-yilning yozida harakat safiga Marg‘ilon shahrida militsiya boshlig‘i bo‘lib ishlagan Muhammad Aminbek Ahmadbek o‘g‘li (1892 – 1920) kelib qo‘shiladi. U avvaldan Rossiya mustamlakachiligiga qarshi o‘z harakatlari bilan nom qozongan bo‘lib, 14 yil surgunda bo‘lgan. Surgundan qaytgach, Sovet hukumati Marg‘ilon shahar militsiyasi boshlig‘i bo‘lgan. Lekin Sovet tuzumining zo‘ravonlik siyosati va xunrezliklarini ko‘rgach, qurolli harakat qatnashchilari safiga kelib qo‘shildi, o‘z oldiga sovet hokimiyatini ag‘darish va Farg‘ona muxtoriyatini tiklash vazifasini qo‘ydi. Muhammad Aminbek bu harakatdagi faoliyati bilan bosh qo‘mondonlik darajasigacha erishdi va tarixga Madaminbek nomi bilan muhrlandi.

1918-yilning o‘rtalariga kelib Farg‘ona vodiysida 15 mingdan ortiq yigitlarni birlashtirgan 100 ga yaqin qo‘rboshilar o‘z guruhleri bilan sovet tuzumiga qarshi harakat qilayotgan edi. Bu harakatdagi ayrim rahbarlarning maqsad va istaklariga, ayrimlarining diniy shariat asosidagi milliy davlat barpo etish g‘oyalariga qaramay, harakatning bosh maqsadi Turkiston mustaqilligi bo‘lib qolaverdi.

Farg‘ona, Samarqand, Buxoro, Xorazmdagi harakat rahbarlari bu harakatni birlashtirishga, jipslashtirishga harakat qilsalar-da, buni uddasidan chiqa olmadilar. Bu borada izchil kurashgan Madaminbek va Anvar Poshsholar hayoti fojia bilan tugadi.

Goh g‘oliblik, goh mag‘lublik bilan 30-yillarning o‘rtalarigacha davom etgan bu harakat bir necha bosqichlarni bosib o‘tdi. Uning dastlabki ikki

bosqichining o'zi 1918-yil fevraldan 1919-yil oxirlarigacha, 1919-yil oxiridan 1920-yil oxirigacha bo'lgan davrlarni o'z ichiga oladi. Keyingi, 30-yillar o'rtalarigacha bo'lgan davr qurolli harakatning keyingi bosqichidir. Qurolli harakatlarga 100 dan ortiq qo'rboshilar rahnamolik qildi. Faqat Farg'ona vodiysidagi harakatlarga Ergash. Madaminbeklardan tashqari, Xolxo'ja, Mahkamxo'ja, Mo'ydinbek, Shermuhammadbek, Qobil, Islom polvon va yana o'nlab qo'rboshilar rahbarlik qilayotgan edi. Shermuhammadbek asli mirob bo'lib, uni Madaminbek harakat rahbarligiga qo'shdi. Shermuhammadbek qo'rboshi sifatida tarixga bir ko'zi ko'rmasligi tufayli Ko'rshermat nomi bilan ham kirgan.

Qurolli harakatning bunchalik keng tus olishi Turkiston bolsheviklarini, markazdagi hukumatni xavotirga sola boshladi. Hatto ular xalqni chalg'itish maqsadida harakat qatnashchilarini "bosmachilar" deb atay boshlashdi. O'lkadagi bu harakatni bostirishga o'z hissasini qo'shgan bolshevik rahbarlaridan biri – Frunze bu harakatga baho berib: "Bosmachilik – oddiy qaroqchilar emas. Shunda ularni tez yo'q qilish mumkin bo'lardi", deb e'tirof etgan edi.

Madaminbek dehqonlar armiyasi boshlig'i Monstrov bilan birgalikda kurashish to'g'risida shartnoma imzolaydi. U o'zining shtab boshlig'i (sobiq Kornilovning ukasi) orqali admiral Kolchak bilan ham aloqa o'rnatdi. Kolchak Madaminbekka polkovnik unvonini bergan. Madaminbekning kurashi davomida uning yonida Sovet hukumatining sobiq komissarlaridan biri, birozdan so'ng ularga qarshi isyonga bosh bo'lgan general Osipov maslahatchi bo'lib, u qaltis daqiqalarda bek hayotini bir necha marotaba saqlab qoldi. Osipov keyinchalik Buxoro amiri xizmatiga ham o'tib ishladi.

Qurolli harakatlarning kengayishi Farg'ona viloyatini jangovar harakatlardan maydoniga aylantirdi. Sovet hukumati vaziyatning bunday avj olishidan cho'chib, 1919-yilning 10-fevralida Turkiston Respublikasi Inqilobiy harbiy kengashi Farg'onaga qo'shinlar yuborishga qaror qildi. "Farg'onadagi aksilinqilobiy harakatga qarshi kurash yuzasidan favqulodda komissiya" tuzildi va ularga cheklanmagan vakolatlar berildi. Lekin mustaqillik uchun boshlangan kurashni endi harbiy kuch bilan to'xtatib qo'yish mumkin emas edi. 1919-yilning bahorida deyarli butun Farg'ona vodiysi istiqloqlar nazorati ostiga o'tdi.

Sovet hukumati ayyorlik yo'lini tanlab, 1919-yil 7-may kuni ozodlik uchun kurash qatnashchilariga Sovet davlatini insonparvar davlat qilib ko'rsatmoqchidek, umumiy avf e'lon qildi. Bu harakat shunchalik kengayib bordiki, hatto qizil armiyada xizmat qilgan rus qo'shinlari, jumladan, K.Monstrov boshchiligidagi rus krestyanlari (dehqonlari) armiyasi ham ozodlik harakatchilariga qo'shib, ular bilan birga Sovet hokimiyatiga qarshi jang qildilar.

1919-yil 1-sentabrda Jalolobodda Madaminbek bilan Dehqonlar armiyasi qo'mondoni K.Monstrovlarining kuchlarni birlashtirish va Sovet hukumatiga qarshi birgalashib harakat qilish haqidagi shartnomaga asosan birlashgan kuchlar 1919-yil 7-sentabrda O'sh shahrini jang bilan egalladi. Ular 10-sentabrda Andijonni qamal qildi. Biroq, qizil armiyaga madad yetib keldi, istiqlochlilar katta talafotlar bilan Xitoy chegarasiga chekindi. 1919-yil 22-oktabr kuni Pomirning Irkishtom ovulida yig'ilish bo'lib, unda "Farg'ona Muvaqqat muxtor hukumati" tuzildi. Hukumat boshlig'i va bosh qo'mondon etib Madaminbek va uning o'rinbosari Monstrov saylandi.

1919-yil oktabr oyi oxirida vodiydagi 50 ga yaqin otryadlarni Madaminbek, Xolxo'ja, Ergash va Shermuhammadbek boshchiligidagi 4 ta yirik Birlashmaga birlashtirishga qaror qilindi. Biroq, 1919-yil sentabrda markazdan Turk-komissiyaning kelishi, ularning Farg'ona vodiysi ahli o'rtasida olib borgan tashviqotlari, 1920-yil mart oyida Turkiston Markaziy Ijroiya Qo'mitasining "Yerlarni mehnatkash dehqonlarga qaytarish to'g'risida"gi dekreti qurolli harakatning borishiga ta'sir eta boshladi. Buning ustiga o'lkaga yangi qizil armiya qismlari keltirila boshlandi.

1920-yil yanvar-fevralida Ergash qo'shinlari va Monstrovning dehqonlar armiyasi tor-mor etildi. Harakat qatnashchilari orasida sovetlar tomoniga o'tish jarayoni avj oldi. Madaminbek ham jangda yengilib, Oloy vodiysiga chiqib ketishga urindi, lekin bu urinish chippakka chiqdi. U qolgan kuchlarni saqlab qolish uchun Turkiston diviziyasi qo'mondonligi bilan 1920-yil 6-martda bitim imzolashga majbur bo'ldi. Aynan shu paytda Madaminbek eng to'g'ri yo'lni tutgan edi.

Buto'g'ri yo'lni boshqa qo'rboshilar xoinlik deb tushundi va Madaminbekni yo'q qilish payiga tushishdi. Omon qolgan harakat qatnashchilari Oloy vodiysida to'planib Shermuhammadbek boshchiligida harakat qila boshladi. Shermuhammadbek va Xolxo'jalar o'zlarining sovetlar tomoniga o'tish bahonalari bilan Madaminbekni o'z qarorgohlariga chaqirishdi. Shu yerda Shermuhammad topshirig'i bilan Madaminbek o'ldirildi.

Farg'ona vodiysidagi butun qo'rboshilar 1920-yil may oyining boshida Oltiariq tumanidagi G'oyibota qishlog'ida qurultoyga yig'ilib (yig'ilishda tinch aholi ham ishtirok etgan), Shermuhammadbek boshchiligida Turkiston – turk mustaqil islom respublikasi (Turkiston muvaqqat hukumati)ni tuzdilar. Shermuhammadbek vodiydagi kurashchilarning oliy bosh qo'mondoni etib saylandi. Oziq-ovqat to'plash va otlar yig'ish uchun maxsus guruh tuzilib, guruh faoliyati esa mahalliy xalq noroziligiga sabab bo'ldi.

Bu davrda Farg'onaga Turkiston fronti qo'mondoni M.V.Frunzening kelishi bilan istiqlolchilarga qarshi kurash taktikasi keskin o'zgardi. Turkiston fronti Inqilobiy harbiy kengashi bu ozodlik harakatini qonundan tashqari deb e'lon qildi. Istiqlolchilar otryadlari birin-ketin tor-mor etila boshlandi. Biroq, tugatilgan otryadlar o'rniga yangilari paydo bo'ldi. Muhiddin, Omon polvon, Rahmonqul, Islomqul, Eshmat boyvachcha, Isroil. Soli maxsum, Otaqo'zi, Yormat maxsum, Boyaston, Aliyor, Ahmad polvon kabi ko'pgina qo'rboshilar otryadi kurashga qo'shilishdi. Farg'onada ularning soni 1923-yilda 350–400 atrofida edi. Biroq, qo'rboshilar bu davrga kelib turli sabablarga ko'ra bir-birlari bilan chiqishmas va kelishib ish ko'ra olmas edilar.

Sovet tuzumiga qarshi qurolli harakat 1920-yildan boshlab Buxoro va Xorazmda ham keng tus oldi. Bu harakat mavjud ikki kuchga: sovetlarga va xonlik, amirlik o'rniga hokimiyatni egallagan yosh buxoroliklar hamda yosh xivaliklarga qarshi qaratilgani bilan xarakterlanadi.

Buxorodagi qurolli harakatda Ibrohimbek (1889–1932) muhim o'rin tutadi. U Buxoroni qizil askarlardan tozalab, amirlik tuzumini qayta tiklash va hokimiyatni yana Sayyid Olimxon (1881–1944) qo'liga olib berish uchun kurashdi, 1921-yil sentabrda bo'lib o'tgan Buxoro qo'rboshilari qurultoyida "Islom lashkarboshisi" unvonini olib, Buxorodagi barcha qurolli kuchlarning Oliy bosh qo'mondoni etib saylandi. Ibrohimbek Buxoro sharqidagi ayrim hududlardan qizil armiyani haydab, u yerlarda o'zining boshqaruvini o'rnatdi. Uni mahalliy aholining "laqay" qavmi qo'llab-quvvatladi. Shu bois ham, uni ayrim manbalarda Ibrohim laqay deb nomlashadi.

Buxorodagi qurolli harakat rahbarlaridan yana biri – Mulla Abdulqahhor-dir. U qo'l ostidagi O'rmon polvon, Hayit Amin, Oston Qoravulbegi, Hamro polvon kabi 20 ta qo'rboshi va jangchilari bilan 1922-yilning martida Buxoro shahrining bir qismini egallab, bir necha soat o'z qo'l ostida ushlab ham turdi. 1924-yilning yozi va kuzidagi janglardan so'nggina bu qo'rboshi qo'shinlariga qizil armiya tomonidan zarba berildi. 1924-yil oxiridagi to'qnashuvlarning birida esa Mulla Abdulqahhor halok bo'ldi.

Shuningdek, Buxorodagi qurolli harakatlarga Anvar Poshsho, Davlatmandbek, Jabborbeklar ham rahbarlik qildi. Ularni Buxoro jadidlari va yosh buxoroliklardan: Usmonxo'ja Po'latXo'jayev (Buxoro MIQning birinchi raisi), Abdulhamid Oripov (harbiy ishlar noziri), Ali Rizo Afandi (Buxoro respublikasi militsiyasi va cheka boshlig'i)lar ham qo'llab-quvvatlab turdilar.

1920-yil bahoridan Xorazmda sovetlarning talonchiligi va zo'rvonligiga qarshi qurolli harakat boshlandi. Bu yerdagi qurolli kurashga turkmanlarning yovmut urug'i boshlig'i Qurbon Mamed Sardor – Junaidxon (1857–1938) rah-

barlik qildi. O'zbek dehqonlari va hunarmandlari guruhlariga esa Madraimboy, Sa'dulla bola, Shokir bola, Mavlonbek va boshqalar sardorlik qilishdi.

Junaidxonga 1921-yilda Qo'ng'irotdagi, 1923-yildagi Pitnak, Hazorasp, Bog'ot, Xonqa tumanlaridagi xalq qo'zg'olonlari ham foyda berdi. Hatto u, 1924-yil yanvarida Xiva shahrini qamal qilishga kirishdi. Sovet hukumati Xorazm respublikasida harbiy holat joriy etib, bu masalani RKP(b) MQ O'rta Osiyo byurosi yig'ilishida (1924-yil 6-yanvar) ham muhokama qildi. Xorazmga qo'shimcha harbiy kuchlar jo'natilib, qizil armiya muxolifatchilarga qarshi hujumga o'tdi. 1924-yil mart-aprel oylarida Junaidxon kuchlari tor-mor etildi.

Farg'ona vodiysida ham, Buxoro va Xorazmda ham sovet hukumati-ga qarshi qurolli harakatlar goh kengayib, goh sekinlashib, 30-yillarning o'rtalarigacha davom etdi. Sovet hukumatiga qarshi mustaqillik uchun boshlangan bu harakatni bostirish uchun yana ko'p yillar kerak bo'ldi. O'lkada keng avj olgan bu harakat qatnashchilaridan ayovsiz o'ch olindi. Uzoq yillar davom etgan bu qurolli harakatni tugatishda va ulardan ayovsiz o'ch olishda sovetlarning aynan bu harakatni qonundan tashqari deb e'lon qilishi muhim rol o'ynadi.

Qo'rboshilarning maqsadlari turlichaligi, ko'p hollarda ularning jipslashib, birlashib harakat qilmaganligi, sovet tuzumining ustakorona, ayyorona ish tutishlari yurt mustaqilligi uchun olib borilgan bu harakatni mag'lubiyatga olib keldi. Biroq, bu harakat sovetlarning shu paytgacha olib borgan zo'ravonlik siyosatini bir oz yumshatishga majbur etdi.

5. XORAZM VA BUXORODAGI DEMOKRATIK HARAKATLAR. XIVA XONLIGI VA BUXORO AMIRLIGINING TUGATILISHI

Turkistonda mustabid sovet tuzumi o'rnatilib, bolsheviklar rahbarligida 1918-yilda Turkiston Avtonom respublikasi tuzilgan paytda O'rta Osiyoda sobiq chor Rossiyasining ikki vassali – Xiva xonligi va Buxoro amirligi ham alohida davlat sifatida faoliyat ko'rsatayotgan edi. Xonlik va amirlikda ham sovetlarga qarshi adovat kuchayib, ular jadallik bilan o'z qurolli kuchlarining jangovar salohiyatini oshirdi. Zo'rayib borayotgan ochlik, oziq-ovqat mahsulotlari narxining haddan tashqari ko'tarilishi, harbiy zulm xonliklarning ichki siyosiy hayotida beqarorlikni yuzaga keltirdi. Turkiston bolsheviklari va sovet hukumati xonliklarning ichki ishlariga qo'pol suratda aralasha boshladi.

Rossiyadagi 1917-yil fevral voqealari ta'sirida Xiva xonligi va Buxoro amirligida ichki demokratik harakatlar ham kuchaydi. Jumladan, Xorazm-

da “Yosh xivaliklar” Konstitutsion monarxiya tuzish, xonning vakolatlarini cheklash, iqtisodiyot, madaniyat va ta’lim sohalarida islohotlar qilish yuzasidan manifest ishlab chiqilib, xon esa uni tasdiqladi.

Xonlikdagi bunday vaziyatdan qo’rqqan Asfandiyorxon 1917-yilning 5-aprelida bu manifestni imzolashga majbur bo’ldi. Xivada Konstitutsion monarxiya tuzumi o’rnatilib, ruhoniylar va savdo-sanoat ahli vakillaridan iborat Majlis va Nozirlar Kengashi tuzildi. Majlis raisi qilib Boboovxon Salimov, Nozirlar kengashi raisi etib Matmurodovlar saylandi. Biroq, xon manifest talablarini bajarmay, Rossiyaning Xivadagi vakili yordamida Matmurodov boshliq yosh xivaliklarni qamoqqa olib, bu partiya faoliyatini qonunga xilof deb e’lon qildi. Qamalmay qolgan yosh xivaliklar esa xonlik hududini tark etishdi.

Rossiyadagi 1917-yil oktabr to’ntarishi ta’sirida xonlikdagi qarshilik harakatlari yanada kuchaya boshladi. Demokratik kuchlar, aholining kambag’al qatlami faollashdi.

Xiva xoni Asfandiyorxon xonlikda vaziyat keskinlashgach, ichki kurashlar va sovet hukumatining aralashuvi natijasida mamlakatdagi vaziyatni boshqara olmay, o’zining kuchli raqibi, ancha ta’sirli kuchga ega bo’lgan turkmanlarning sardori – Junaidxonni 1918-yilning yanvarida Xivaga chaqirib, uni o’z qo’shinlarining bosh qo’mondoni (sardori karim) etib tayinlaydi. Aynan ana shu Junaidxon tez orada xon Asfandiyorxonni qatl ettirib, o’rniga irodasiz tog’asi Said Abdulloni xon qilib ko’tardi.

Junaidxonning harbiy zulmidan xalq norozi bo’lib, ularning ko’pi qo’shni Turkistonga qochib o’tdi. Bularning barchasi Turkistondagi sovet hukumatiga qo’l keldi. 1919-yil 9-aprel kuni Xivaga yaqin Taxta degan joyda RSFSR bilan Xiva xonligi o’rtasida yarash to’g’risida shartnoma imzolangan edi. 1919-yilning yozidan boshlab Sovet Turkistoni bilan Buxoro va Xiva o’rtasidagi munosabatlar yanada keskinlashdi. Amir Sayyid Olimxon bilan Junaidxon sovetlarga qarshi harbiy-siyosiy ittifoq tuzdi. Junaidxonga raqiblik qilayotgan eng yirik turkman qabilalari boshliqlarining vakillari – Qo’shmamedxon bilan G’ulommalikxonlar To’rtko’lda tuzilgan Xiva inqilobiy markaziga kommunistlar va yosh buxoroliklar bilan birgalikda kirdi. Bu markaz xonni ag’darib, hokimiyatni qo’lga olishni o’ziga maqsad qilib qo’ygan edi. Bunday vaziyatlardan foydalangan Sovet hukumati Xiva xonligini bo’ysundirish uchun harakatlarni boshlab yubordi. 1919-yil dekabr oxirlarida sovet qo’shinlari kirib kelishi natijasida Junaidxon otryadlari G’azobod va Taxta tomon chekindi. 1920-yilning 20-yanvar kuni Junaidxonning bosh qarorgohi – Taxta qizil armiya tomonidan ishg’ol qilindi. 2-fevralda esa qo’shinlar poytaxt Xivani

egalladi. Shunday qilib, Yosh xivaliklar va turkman urug‘ boshliqlarining bir qismi Sovet qurolli kuchlarining yordamida monarxiya tartibotini ag‘darishga muvaffaq bo‘lib, hokimiyatni o‘z qo‘llariga oldi. 1920-yil 2-fevralda Said Abdulla taxtdan voz kechdi, butun hokimiyat Muvaqqat inqilobiy qo‘mitaga topshirildi. Inqilobiy qo‘mita raisi etib yosh xivaliklar rahbari D.Sultonmurodov saylandi. “Yosh xivaliklar” ishlab chiqqan yangi manifest e‘lon qilindi.

Manifestda nazarda tutilgan tadbirlar	<ul style="list-style-type: none"> – Xon va uning hukumati tomonidan mamlakatni mutlaq boshqaruviga butkul barham berish; – kambag‘allar hayotini yaxshilash yo‘lida yirik zamindorlar yerlaridan foydalanish; – bolalarni bepul o‘qitish uchun xonlikning hamma joyida maktablar ochish; – shaharlar va aholi manzilgohlarida bepul shifoxonalar va sog‘lomlashtirish muassasalarini ochish; – Xiva xoni va beklari tomonidan kambag‘al aholidan tortib olingan yerlar, mulk va boshqa narsalarni qaytarib berish; – majburiy mehnatga jalb qilish (begor)ni butunlay yo‘q qilish.
--	---

1920-yilning 27–30-aprel kunlaridagi Butunxorazm qurultoyida Xiva xonligi tugatilganligi va Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (XXSR) tuzilganligi e‘lon qilindi. Qurultoyda XXSR Muvaqqat Konstitutsiyasi ham qabul qilindi. Shuningdek, unda 15 kishidan iborat hukumat – Xalq Nozirlar kengashi tuzilib, uning raisi etib Yosh xivaliklar rahbarlaridan biri – Polvonniyoz Yusupov saylandi.

1920-yil iyunida Xorazm kommunistik partiyasi ham tuzildi.

Sovet hukumati XXSR ichki ishlariga aralashib, 1920-yil sentabrda XXSR bilan ittifoq shartnomasini imzoladi. Bundan maqsad bu yerdagi siyosatni o‘z manfaatlariga moslash edi. Sovet hukumati yo‘lidan yurmagan hukumat rahbarlari esa uch marta (1921-yil mart, sentabr, noyabrda) o‘zgartirildi.

Butunxorazm Sovetlarining 1923-yil oktabrida bo‘lib o‘tgan IV qurultoyida XXSR ni Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasi (XSSR) deb e‘lon qilindi va respublikaning yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Unda bu respublikaning endi sotsialistik taraqqiyot yo‘lidan borishi ta’kidlanib, yerga bo‘lgan xususiy mulkchilik bekor qilindi va umumxalq mulkiga aylantirildi. Ana shu tariqa Xorazm xalqlarining xohish-istagiga zid ravishda boshqaruv sovetlar qo‘liga o‘tdi.

Buxorodagi voqealar ham Xiva xonligidek tarzda rivojlanib bordi. Bu yerdagi demokratik harakatlar tepasida “Yosh buxoroliklar” turar edi. Abduvohid Burhonov, Fayzulla Xo‘jayev, Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy,

Muhitdin Mansurov, Po‘latxo‘ja Usmonxo‘jayevlar Yosh buxoroliklarning yetakchilari sanalardi. Ular manifest ishlab chiqib, mamlakatda konstitutsion monarxiya tuzumini o‘rnatish, ijtimoiy-siyosiy erkinliklar joriy etish, maorif ishlarini yaxshilashga alohida e‘tibor qaratilgan edi.

Manifest 1917-yil 7-aprelda ba‘zi yon berishlar bilan e‘lon qilindi.

Manifestda berilgan va‘dalar	<ul style="list-style-type: none"> – Soliqlarni tartibga solish; – turli ijtimoiy tabaqalar vakillaridan iborat Majlis tashkil qilish; – maorif, tibbiyot, sud tizimlarini yaxshilash; – ma‘muriy boshqarish ishlarini takomillashtirish.
-------------------------------------	---

Biroq, amirlik hukmron doiralari bunga juda qattiq qarshilik qildi. Ular katta ko‘chalarda qirg‘inlar uyushtirdi. Ko‘plab islohotchilar yashirindi va shaharni tark etdi. Bu holatlar sovetlarning Buxoro ichki ishlariga ochiq aralashuviga bahona bo‘ldi.

1918-yilning 2-martida qizil armiya qo‘shinlari Turkistondagi sovet hukumati raisi F.I.Kolesov boshchiligida Kogon temir yo‘li yoqalab Buxoroga qarshi ochiq intervensiya uyushtirdi. Buxoro xalqi o‘z Vatanini himoya qilib, bu intervensiyani qaytardi. Biroq, aynan bu voqea amirning barcha demokratik kuchlardan o‘ch olishiga sabab bo‘ldi. “Yosh buxoroliklar” quvg‘in qilindi, 1,5 ming nafarga yaqin kishi halok bo‘ldi. Qizillarning intervensiyasi natijasida amirning qonli o‘ch olishiga sabab bo‘lgan bu voqea tarixga “Kolesov voqeasi” nomi bilan kirdi.

Sovetlar qanday bo‘lmasin amirlikni yo‘q qilish, bu yerda o‘z hukmronligini o‘rnatish maqsadida amirlikda sun‘iy inqilob tashkil etishga bel bog‘ladi. 1918-yil sentabrda Toshkentda Buxoro muhojirlari tomonidan Buxoro kompartiyasi va uning Markaziy Qo‘mitasi (A.Yoqubov – rais, M.Qulmuhammedov – o‘rinbosari) tuzildi. 1920-yilning yanvarida Toshkentda F.Xo‘jayev boshchiligida Yosh buxorolik inqilobchilar partiyasining Turkiston Markaziy byurosi tashkil etilib, Turkkommissiya va RSFSR hukumati tomonidan e‘tirof etildi.

“Yosh buxoroliklar” partiyasi dasturi va 1920-yil iyundan chiqa boshlagan “Uchqun” gazetasi sahifalarida Buxoroda amirlikni tugatish, xalq manfaatini ko‘zlab bir qator demokratik o‘zgarishlar qilish g‘oyalari ilgari surilgan edi.

Sovet hukumati amirlikka qarshi kurash ichdan, mahalliy kuchlar tomonidan boshlanishini rejalashtirgan edi.

Buxoro amirligini M.V.Frunze “sovet tanasidagi jarohat” deb atagan edi. 1920-yil 10-avgust kuni RKP(b) Markaziy Komitetining Siyosiy Byurosi Turkiston frontining Inqilobiy Harbiy Kengashi uchun Buxoro masalasi yu-

zasidan maxsus direktivalar qabul qildi. Tayyorgarlik RKP(b) Markaziy Komiteti tomonidan ishlab chiqilgan reja bo'yicha olib borildi. Buxoro amirini ag'darish uchun buxoroliklarning yordam so'ragan murojaati kerak edi. Buxoro Kommunistik partiyasining Chorjo'ya ish olib borayotgan IV syezdi 1920-yil 16-avgustdayoq Buxoro amirligida inqilobiy vaziyat etilganligini e'tirof etib, asriy feodal zulm hamda amir istibdodidan xalos etish uchun yordam so'rab Turkkomissiyaga murojaat etdi.

1920-yil 29-avgust kuni eski Chorjo'ya Buxoro kommunistlari ko'ngilli otryadining chiqishi tashkil etildi. Beshim Sardor boshchiligidagi kuchlar Sovet hukumatidan "yordam so'rab" murojaat qildi. Turkfront qo'shinlari bu vaqtga kelib safarbarlikka tayyor holatda turardi. M.V.Frunze Turkfront qo'shinlariga "Qo'zg'olon ko'targan Buxoro mehnatkashlariga yordam ko'rsatish to'g'risida" buyruq berdi. Ular Buxoro ostonasida Buxoro qo'shinlarining shiddatli qarshiligiga duch keldi. Avgust oyining oxirlarida Frunze qo'shimcha madad to'g'risida front shtabiga murojaat qilishga majbur bo'ldi.

Buxoro shafqatsiz ravishda o'qqa tutildi. Shahar havodan bombardimon qilindi. Amir, o'zi yozganidek, "vayronagarchilik yanada zo'rayib, odamlarning yana halok bo'lishiga yo'l qo'ymaslik" uchun o'z qo'shinlari bilan Buxorodan chiqib ketdi. 1920-yil 2-sentabrda Turkfront qo'shinlari va buxoroliklarning ko'ngilli qismlari Buxoroga kirib borishdi va amirlik¹ ag'darildi.

1920-yil 14-sentabrda Abduqodir Muhiddinov raisligida Umumbuxoro inqilob qo'mitasi tuzildi. Hukumat – Xalq Nozirlari Soveti tuzilib, unga rais etib Fayzulla Xo'jayev tayinlandi.

1920-yil 6-oktabr kunlari bo'lib o'tgan Xalq vakillarining I Butunbuxoro qurultoyi Buxoroni hokimiyat ishchi va dehqonlar qo'lida bo'lgan Xalq Sovet Respublikasi (BXSRS) deb e'lon qildi.

1921-yil 4-martda Moskvada BXSRS bilan RSFSR o'rtasida Ittifoq shartnomasi va iqtisodiy bitim imzolandi. Natijada sovetlar uchun Buxoro ichki ishlariga bemalol aralashish, u yerda sotsialistik tartiblarni yanada kuchaytirish uchun keng imkoniyatlar ochildi. Shu maqsadlarda hatto 1922-yil may,

¹ Taxminan Italiya davlati hududiga teng bo'lgan Buxoro amirligining so'nggi hukmdori Sayyid Olimxon 1896-yilda Peterburgdan qaytib ikki yilcha otasi Abdulahadxon bilan yurdi. So'ngra 12 yil Nasaf viloyati hukmdori bo'ldi. Keyin ikki yil Karmana viloyati hukmdori sifatida ishlab, 1911-yili Buxoro amirligi taxtiga chiqdi. 1920-yilda Buxoroni tashlab chiqqach, Afg'onistonda panoj topdi va 1944-yili Kobulda vafot etdi. Qabri Kobul shahri tevarigidagi "Shahidoni Islom" (Islom shahidlari) qabristonida joylashgan.

Amir Olimxon Buxoroni tashlab chiqayotib, o'rniga yaqin kishisi Mulla Ibrohimbekni amir qilib qoldirdi. U 1925-yilgacha amir nomi bilan sovetlarga qarshi kurashib, 1925-yili Kobulga borib amir Olimxon bilan birga yashadi.

1923-yil iyun oylarida RKP(b) MQning Buxoro ishlari haqidagi qarorlari ham qabul qilindi. Buxoro xalqi tub milliy manfaatlarini ko'zlagan, vatanparvar, inqilobiy harakatlarning faol ishtirokchilari – A.Fitrat, M.Aminov, Otaxo'jayev, Yoqubzoda va boshqalar respublika hukumati tarkibidan chiqarildi.

1921-yil sentabrda qabul qilingan BXSRning Konstitutsiyasi ham RSFSR Konstitutsiyasi asosida tuzilgan edi.

1923-yil martida O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi tuzilib, unga BXSR ning jalb qilinishi ham uning iqtisodiy mustaqilligini asta-sekin sovetlar tizimiga o'tishiga sabab bo'ldi. 1924-yil sentabrda bo'lib o'tgan V Butunbuxoro qurultoyida BXSR Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasi (BSSR) deb e'lon qilindi. 1924-yildagi milliy davlat chegaralanishi natijasida esa Buxoro davlat sifatida tugatilib, O'zSSR tarkibiga kiritildi.

Mana shu tariqa bolsheviklar rahbarligidagi sovetlar o'z maqsadlarini amalga oshira borib, O'rta Osiyoda mustaqil faoliyat ko'rsatayotgan Xiva xonligi va Buxoro amirligida ham o'z mustabid tuzumini o'rnatdi.

Tayanch so'z va iboralar:

Fevral burjua inqilobi. Ishchi-soldat, deputatlari sovetlari. Turkistonda tuzilgan sovetlar. "Butun hokimiyat sovetlarga" shiori. "Sho'roi islomiy". "Sho'roi Ulamo". "Turon jamiyati". "Yosh buxoroliklar". "Yosh xivaliklar". Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o'rnatilishi. "Turkiston muxtor hukumati". "Qo'qon fojeasi". Sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat. Qo'rboshilar. Turkkomissiya. Xorazm va Buxorodagi demokratik harakatlar. Xiva xonligi va Buxoro amirligining tugatilishi. XXSR va BXSR.

Bilimingizni sinab ko'ring

1. 1917-yil 3-martda Toshkent Soveti, 5-martda esa Soldat deputatlari soveti tuzildi. Biroq, bu sovetlar a'zolari orasida mahalliy aholi vakillari yo'q edi. Bu mahalliy aholiga nisbatan ishonchsizlik, milliy kamsitish bo'lib, eng muhimi, rus burjua inqilobi shiorlaridagi bir tamoyil buzilgan edi. Bu buzilgan tamoyil nomini toping.

			g			
--	--	--	---	--	--	--

t	a	m	o	y	i	l	i
---	---	---	---	---	---	---	---

2. 1917-yilning mart-aprel oylarida Nizomiddin Xo'jayev "Turon" jamiyati va undagi g'oyalarni bir oz demokratlashtirib, "Turon" jamiyatini tashkilotga aylantirdi.

Bu tashkilot nima deb nomlangan edi?

--	--	--	--

	y		y						
--	---	--	---	--	--	--	--	--	--

p	a	r	t	i	y	s	i
---	---	---	---	---	---	---	---

3. 1917-yil Rossiyadagi “Oktabr to‘ntarishi” ta‘sirida Toshkentda ham 28-oktabrda qurolli qo‘zg‘olon boshlandi. 1-noyabr kuni bosh harbiy qal‘a ishg‘ol qilinib, muavaqqat hukumatning Turkiston qo‘mitasi ag‘darildi va Toshkentda sovet hokimiyati o‘rnatildi.

1917-yilning 2-noyabrda yangi hukumat tuzish masalasida yig‘ilish bo‘lib, unga mahalliy musulmon soveti (sho‘rosi) vakillarini hal qiluvchi ovoz bilan emas, boshqacha ovoz bilan qatnashishga ruxsat berildi. Bu boshqacha ovoz bilan qatnashish nomini toping.

					h		
--	--	--	--	--	---	--	--

o	v	o	z	i
---	---	---	---	---

b	i	l	a	n
---	---	---	---	---

4. 1917-yil 26-noyabrda Qo‘qonda o‘tkazilgan O‘lka musulmonlari IV qurultoyida Turkiston muxtor hukumati tuzilgach, “Hurriyat” gazetasida “Muxtoriyat” maqolasi e‘lon qilindi. Ushbu maqola muallifining ismini toping.

				a	
--	--	--	--	---	--

5. “Turkiston Muxtoriyati” o‘lka xalqlari ozodlik harakatining qudratli, haqiqiy – erkinlik va mustaqillik uchun kurash ramziga aylandi. Ularning sovet hokimiyati tomonidan tor-mor etilishi bilan bog‘liq voqealar tarixda shunday bir nom bilan qoldi.

U qanday nomlangan edi?

--	--	--	--	--

--	--	--	--	--	--	--	--

6. Marg‘ilon shahar militsiya boshlig‘i bo‘lib ishlagan Muhammad Aminbek Ahmadbek o‘g‘li sovet tuzumining zo‘ravonligi va xunrezliklariga qarshi kurashdi va tarixda o‘zga bir nom bilan qoldi.

Bu nomni toping.

							b	e	k
--	--	--	--	--	--	--	---	---	---

7. Madaminbekning yonida sovet hukumatining komissarlaridan biri, birozdan so'ng ularga qarshi isyonga bosh bo'lgan general maslahatchilik qilgan. Ushbu generalning nomini toping.

		i			v
--	--	---	--	--	---

8. 1920-yilda Farg'onaga Turkiston fronti qo'mondoni M.V.Frunzening kelishi bilan sovetlarning istiqlochlilarga qarshi kurash taktikasi keskin o'zgardi va harakat qatnashchilaridan ayovsiz o'ch olindi.

Uzoq yillar davom etgan bu harakatni tugatishda va ulardan ayovsiz o'ch olishda sovetlarning aynan bu harakatni qonun bilan bog'lab, shunday bir jayron bilan bog'lashdidi.

Sovetlar tomonidan bu harakatga qanday nom berishdi?

			u			a	
--	--	--	---	--	--	---	--

	a			a		
--	---	--	--	---	--	--

9. Xiva xoni Asfandiyorxon xonlikdagi vaziyatni boshqara olmay, o'zining kuchli raqibi, ta'sirli kuchga ega bo'lgan turkmanlar sardorini Xivaga chaqirib, uni o'z qo'shinlarining bosh qo'mondoni etib tayinlaydi. Bu sardor tez orada Asfandiyorxonni qatl ettirib, o'rniga irodasiz tog'asi Said Abdulloni xon qilib ko'tardi.

Ushbu turkman sardorining nomini toping.

			a			x	o	h
--	--	--	---	--	--	---	---	---

10. Sovetlar Buxoro amirligini ag'darish uchun buxoroliklarning yordam so'rab qilgan murojaati kerak edi. Shu bois, Buxoro kompartiyasining 1920-yil-16-avgustda Chorjo'yda o'tayotgan IV syezdi amirlikda inqilobiy vaziyat yetilayotganini e'tirof etib, buxoroliklar Turkistondagi "ikkinchi hukumat" deb ataluvchi komissiyadan yordam so'rashdi.

Bu komissiyaning nomini toping.

			k		o		i			i	
--	--	--	---	--	---	--	---	--	--	---	--

XI BOB. XX ASRNING 20 – 30-YILLARIDA SOVET HOKIMIYATI- NING O‘ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRGAN SIYOSIY, IJTIMOIY VA IQTISODIY TADBIRLARI, ULARNING MUSTAMLAKACHILIK MOHIYATI

Mavzu rejasi:

1. O‘rta Osiyoda o‘tkazilgan milliy-davlat chegaralanishi. O‘zbekiston SSRning tuzilishi.
2. Sovetlarning O‘zbekistonda yuritgan iqtisodiy siyosati, uning mustamlakachilik mohiyati.
3. O‘zbekistonda yer-suv islohoti. Sovetlarning sanoatlashtirish va jamoalashtirish siyosati, ularning oqibatlari.
4. Yurt va xalq dardi uchun kurashgan milliy yetakchilar.

1. O‘RTA OSIYODA O‘TKAZILGAN MILLIY-DAVLAT CHEGARALANISHI. O‘ZBEKISTON SSRNING TUZILISHI

O‘lkada yangi tuzilgan hukumat (TASSR)ning maqsad va vazifalari rasman hujjatlashtirilgan bo‘lsa-da, u amalda mahalliy xalqlarning huquqiy manfaatlariga emas, asosan hukmron tuzumning o‘lkadagi ta‘sirini mustahkamlashga xizmat qilar edi. Turkistondagi bu vaziyat yerli aholining milliy qiziqishlari, haq-huquqlarini himoya qilishdan ko‘ra, sovet hokimiyatining ildizini mustahkamlashni, Turkistonni yanada sovetlar hukmronligi ta‘siriga olishni ko‘zda tutardi. Shuning uchun ham, chuqur sinfiylik tamoyillarga asoslangan o‘ziga xos davlat boshqaruvida hokimiyat funksiyalari butunlay sovetlar va ularning organlari ixtiyoriga berib qo‘yilgan edi. Aslida bular tarkibi asosan yevropalik millat vakillaridan tashkil topgan ishchi-askar va dehqon deputatlari sovetlari bo‘lib, musulmon-dehqon deputatlari sovetlari esa ularga bo‘ysunuvchi maqomda e‘tirof etildi.

RSFSR va TASSR Konstitutsiyalari talabi bo‘yicha, “mehnatsiz daromad” hisobiga yashaydigan shaxslar, din peshvolari, rohiblar, xususiy savdogarlar, tijoratchilar, tadbirkorlar va hokazolar saylash va saylanish huquqidan butunlay mahrum etildilar.

Xalq orasidan yetishib chiqqan T.Risqulov, N.To‘raqulov, N.Xo‘jayev, A.Rahimboyev, Q.Otaboyev, S.Tursunxo‘jayev, S.Segizboyev, O.Bobojonov,

A.Ikromov kabi mahalliy kommunistlar partiya va sovet boshqaruvi ishlariga jalb qilingan bo'lsalar-da, ularning xatti-harakatlari o'lkadagi Turkkomissiya nazorati ostida edi. Biroq, ular qanday rahbarlik lavozimlarda va murakkab sharoitlarda ish yuritmasin, o'z imkoniyatlari darajasida o'z xalqi, millati manfaatlarini ko'zlab, uning orzu-armonlarini ro'yobga chiqarish uchun doimiy kurashdilar.

Milliy yetakchilar 1920-yil 17-yanvarda bo'lib o'tgan Turkiston kompartiyasi o'lka qo'mitasi. Musulmonlar byurosi va Turkkomissiyaning qo'shma majlisida Turkiston ASSRni Turk Respublikasi, Turkiston Kompartiyasini Turk Kompartiyasi, deb o'zgartirishni taklif qildi. T.Risqulov, N.Xo'jayev va boshqalar tarkibida tuzilgan delegatsiya Moskvaga borib, Sovet hukumati Turkkomissiyani tugatish, Turkistonga o'z qurolli kuchlariga ega bo'lish huquqini berish, Sharq mamlakatlari bilan aloqa o'rnatishda Turkiston hukumatiga mustaqillik berish kabi talablarni qo'yishdi. Bu masalalar Turkiston kompartiyasining V o'lka, musulmon kommunistlarning III o'lka konferensiyalarida ham ma'qullandi. Ammo Sovet hukumati rahbarlari bu takliflarni inobatga olmadi va, shu boisdan, Turkkomissiya yig'ilishida takliflar rad etildi.

“Markaz”ning va uning Turkistondagi vakolatli organi – Turkkomissiyaning bunday xatti-harakatlaridan norozi bo'lgan vatanparvar kuchlar bu qarorga qo'shilmasliklarini hamda Turkiston kompartiyasi qo'mitasi va Turkiston Markaziy Ijroiya Qo'mitasi tarkibidan chiqishlarini bildirdi. Bu paytda Xorazm va Buxoro xalq respublikalari ham mustaqil yo'ldan borishga intildi. Ammo, RSFSR bilan tuzilgan shartnomalar ularning ham oyoq-qo'lini bog'lab qo'ygan edi. Bunday vaziyatdan foydalangan Turkkomissiya Turkiston kompartiyasi o'lka qo'mitasini tarqatib, Sovet tuzumi tarafdorlari (mahalliy millat vakillari)dan iborat Muvaqqat Markazqo'mini tuzdi.

Ana shunday sharoitda V.I.Lenin boshchiligidagi Markaziy hukumat va Turkistondagi Turkkomissiya Turkiston masalasida o'lkani bo'lib tashlash yo'lini tanladi va buni amalga oshirishga kirishdi.

Bu davrda Turkiston, Buxoro va Xorazmda garchi tili, dini, qadriyatleri, hatto urf-odatleri o'xshash bo'lgan turkiy xalqlar asosiy ko'pchilikni tashkil etsa-da, har uchchala respublika ham aholi tarkibiga ko'ra ko'p millatli edi. O'zbeklar Turkiston ASSR da 51,4 % ni, BXR da 50,1. XXR da 61,1 % ni tashkil etardi. Bu yerdagi barcha millatlar bir-birlari bilan inoq bo'lib, qonqardosh bo'lib ketgan edi. Sovet hukumati va hukmron partiya o'lka xalqlarining mana shunday mustahkam birligiga atayin raxna solishga urindi va o'z manfaati yo'lida zo'r berib Turkistonni milliy o'ziga xoslik, til birligi asosida bo'lib tashlashga harakat qildi.

Bu masalada RKP(b) Markazqo‘mining Ya.E.Rudzutak boshliq tashkiliy qo‘mitasi tuzildi. Qo‘mita komissiyasi 1924-yil 11-mayda o‘lka hududida SSSR tarkibiga kiruvchi O‘zbekiston SSR va Turkmaniston SSR ni tuzishni, O‘zbekiston tarkibida Tojikiston muxtor viloyatini barpo etishni, Turkistonning qozoqlar yashaydigan tumanlarini Qozog‘iston ASSR tarkibiga berishni zurur deb topdi. Komissiya xulosasida O‘rta Osiyoda yana Qoraqirg‘iz muxtor viloyatini tuzib, RSFSR tarkibiga kiritish ham taklif etildi.

O‘rta Osiyoda milliy davlat chegaralanishi o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mitaning Rudzutak boshliq komissiyasi xulosasi “markaz”dagi sovet va partiya organlarida muhokama etildi. 1924-yil 9–11-oktabrda bo‘lib o‘tgan RKP(b) Markazqo‘mi Siyosiy Byurosi yig‘ilishida bu masala uzil-kesil hal etildi. 27-oktabrda esa SSSR sovetlarining II sessiyasi O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish to‘g‘risidagi qarorini qabul qildi.

O‘rta Osiyo hududi parchalanib, sobiq Turkiston, Buxoro va Xorazm respublikalari o‘rnida O‘zbekiston SSR va Turkmaniston SSR, O‘zSSR tarkibida Tojikiston ASSR tashkil etildi. Turkistonning qozoqlar yashaydigan qismi Qozog‘iston ASSR tarkibiga kiritildi.

Sovet davlati va hukmron partiyaning O‘rta Osiyoni bo‘lib tashlashdan maqsadi – mustamlakachilarga xos “Bo‘lib tashla, hukmronlik qil” tamoyilini amalga oshirish edi.

Nihoyatmarkazning xohish-irodasi amalga oshib, yagona Turkiston xalqlari turli xonadonlarga bo‘lib yuborildi. Milliy sovet respublikalari tashkil etilganligiga katta siyosiy tus berildi. O‘zbekiston SSRni tashkil etish tantanalarida SSSR Markaziy Ijroiya qo‘mitasi Prezidiumi raisi M.Kalinin ishtirok etdi. Uning xursandligini Moskvaqaga qaytib borgach, kutib oluvchilar oldida aytgan so‘zlaridan ham bilib olish mumkin. “O‘rtoqlar, bog‘-u bo‘stonga o‘ralgan, noz-ne‘matga to‘lgan O‘zbekistondan partiyamiz sizlar uchun, butun rus xalqi uchun oliy joylar tayyorladi. Birinchi sizlarni shu bilan tabriklayman”, – deb viqor bilan gapirgan edi.

O‘zbekiston SSR tashkil etilgach, Samarqand shahri uning poytaxti deb e‘lon qilindi. (1930-yilda poytaxt Toshkent shahriga ko‘chirilgan). Respublika hukumat idoralari tashkil etish jarayonida hokimiyat F.Xo‘jayev boshliq Inqilobiy qo‘mita va V.I.Ivanov hamda A.Ikromovlar rahbarligida O‘zkompartiya tashkiliy Byurosi qo‘liga berildi.

1925-yil 8-fevralda Buxoroda O‘zbekiston Kompartiyasining 1-qurultoyi chaqirilib, O‘zbekiston Kompartiyasi tuzilganligi e‘lon qilindi. V.I.Ivanov va Akmal Ikromovlar O‘zkompartiya Markazqo‘mining mas‘ul kotiblari etib saylandi. 13 – 17-fevral kunlari O‘zbekiston sovetlarining 1-ta‘sis qurultoyi ham

chaqirilib, unda davlat hokimiyatining oliy organi – O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi tuzilib, Yo‘ldosh Oxunboboyev rais, S.Qosimxo‘jayev, N.Lutfullayev va J.Obidovalar uning o‘rinbosarlari etib saylandi. Shuningdek, qurultoy F.Xo‘jayev raisligidagi respublika hukumati – O‘zSSR Xalq Komissarlari Kengashini ham tasdiqladi.

Qurultoyda O‘zSSR tuzilganligini va uning SSSR tarkibiga kirganligini e‘lon qilgan bayonot qabul qilindi.

Milliy-hududiy chegaralanish natijasida Qozog‘iston ASSR tarkibida Qoraqalpog‘iston (avtonom) muxtor viloyati tashkil etildi. 1925-yil 12–19-fevralda To‘rtko‘l shahrida bo‘lib o‘tgan Qoraqalpog‘iston avtonom viloyati sovetlarining 1-qurultoyi “Qoraqalpog‘iston avtonom viloyati tashkil topganligi to‘g‘risida Deklaratsiya” qabul qildi. Avtonom viloyat ijroiya qo‘mitasining raisi etib A.Qudaboyev saylandi. Bu paytda viloyat aholisi qoraqapoqlar – 38,5%, o‘zbeklar – 28,7%, qozoqlar – 28,6% dan iborat edi. Bu viloyatda ham ovul va qishloqlarni sovetlashtirishga, kommunist va komsomollar safini kengaytirishga, ularni faollashtirishga muhim e‘tibor qaratildi. 1930-yilda Qoraqalpog‘iston muxtor viloyati RSFSR tarkibiga kiritildi. 1932-yilning 20-martida esa SSSR MIQ rayosati “Qoraqalpog‘iston avtonom viloyatini Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasiga aylantirish va uni RSFSR tarkibiga kirishi to‘g‘risida” qaror qabul qildi. 1932-yil may oyidagi QQASSR Sovetlarining 1-ta‘sis qurultoyi QQASSR MIQ raisi etib Koptleu Nurmammedov, Xalq Komissarlari Kengashi raisi etib Qosim Avezovlarni sayladi. 1936-yilda qabul qilingan SSSR Konstitutsiyasi asosida QQASSR ning hududiy yaqinligi yagona tarixga egaligi inobatga olinib, O‘zbekiston SSR tarkibiga kirishi ko‘zda tutildi. SSSR Konstitutsiyasi asosida 1937-yil 12-fevralda O‘zSSR ning, 6 martda QQASSR ning yangi Konstitutsiyalari ham e‘lon qilindi.

Milliy chegaralanish jarayonida o‘lkada mavjud partiya, komsomol va xo‘jalik tashkilotlarida ham bir qator tashkiliy o‘zgarishlar amalga oshirildi, Turkiston, Buxoro, Xorazmdagi partiya, komsomol, kasaba uyushmalari qayta tashkil etildi.

1925-yil may oyida O‘zbekiston SSR SSSR tarkibiga kiritildi. SSSR Konstitutsiyasi, uning asosiy qonun-qoidalari O‘zbekiston SSR hududida bevosita ishlaydigan bo‘ldi. 1927-yilda qabul qilingan O‘zbekiston SSR ning birinchi va 1937-yilda qabul qilingan ikkinchi Konstitutsiyasi ham amalda SSSR Konstitutsiyasining ko‘chirma nusxasi edi.

O‘zbekiston amalda Markazga tobe va qaram o‘lka bo‘lib, qog‘ozda esa nomigagina suveren respublika bo‘lib qolgan edi.

2. SOVETLARNING O‘ZBEKISTONDA YURITGAN IQTISODIY SIYOSATI, UNING MUSTAMLAKACHILIK MOHIYATI

O‘zbekistonda mustabid sovet hokimiyati o‘rnatilgach, o‘lkada ijtimoiy ahvol juda og‘ir bo‘ldi. Turkiston hududida avvaldan o‘zbeklar, tojiklar, qozoqlar, qirg‘izlar, turkmanlar, qoraqalpoqlar, ruslar va boshqa millatlar yashar edi. Aholining ijtimoiy qatlami dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar, ziyolilar, yollanma ishchi-mardikorlar, ruhoniylar, rus krestyanlari, aravakashlar, mahkama xodimlaridan iborat bo‘lib, Sovetlar amalga oshirgan iqtisodiy tadbirlar xalqning ijtimoiy turmushiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishiga qaramay, ular o‘z xo‘jaligidagi faoliyatni baholi qudrat davom ettirayotgandi. O‘zbekiston aholisining beshdan bir qismi shaharlar, uyezdlar, volostlar, beklklar va tuman mavzellarida hamda ishchi posyolkalarida yashardi. Lekin, aholi barcha qatlamining ijtimoiy ahvoli ancha og‘ir bo‘lib, hatto oziq-ovqat va zarur buyumlarni topishga ham imkon qolmagandi. Masalan, to‘qimachilik matolari, oddiy kalish va hatto gugurt savdoda yo‘q edi. Bu davrdagi qahatchilik ham aholiga og‘ir oqibatlar keltirdi.

Moddiy ahvolning og‘irligi o‘qituvchi, tibbiyot xodimlari, idora xizmatchilari, shuningdek, ayrim ishchi guruhlarning ish tashlash xavfini tug‘dirdi. Turar-joy yetishmasligi ko‘plab ishchi oilalarining ko‘chishiga sabab bo‘lib, bir qator viloyatlarda aholi soni kamayishiga olib keldi. Xususan, Farg‘ona viloyati aholisining soni 1917–1920-yillar orasida to‘rt dan bir qismga kamaydi. 1920-yillar o‘rtasiga kelib Farg‘ona va Samarqand viloyatlarida dehqon xo‘jaliklari soni 613506 tadan 372000 taga qisqardi. Ushbu raqamlarga Sirdaryo viloyatini qo‘shib hisoblaganda, ushbu uch viloyat hududida aholi soni 3 mln emas, 2 mln 76 ming kishini tashkil etdi.

Buning ustiga butun Rossiya hududini qamrab olgan ochlik tufayli Turkistonga oqib keluvchilar soni ko‘paydi. 1920-yilning o‘zida ochlik tufayli Turkistonga Rossiyadan 60 mingdan ziyod kishi kirib keldi.

Aynan shu davrda bolsheviklar hukumati o‘lkada hamma narsani, jumladan, mulk turlarini, ishlab chiqarish tarmoqlarini davlat tasarrufiga olish ishlarini boshlab yuborgan edi. Bu borada ular yerli xalqlar xohish-irodasini ham, o‘lkadagi shart-sharoitni ham hisobga olmadilar. Turkiston sanoatining butun-butun tarmoqlarini davlat ixtiyoriga olish boshlandi. 1918-yilning dastlabki oylarida bu yerdagi sanoatning yetakchi tarmoqlari – paxta tozalash, yog‘moy zavodlari, bosmaxonalar, banklar, temir yo‘llar, ko‘mir va neft konlari va shu singarilar davlat tasarrufiga o‘tdi. Ularning soni 330 ga yetardi.

Shuningdek, yer to'g'risidagi dekret asosida yer mulklarini musodara qilish va so'ngra davlat mulkiga aylantirish siyosati jarayonining o'tkazilishi ham joylarda keskin noroziliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Sovet hokimiyati milliyLashtirish bilan kifoyalanib qolmay, ular ustidan qat'iy ishchi nazoratini ham o'rnatdi. 1920-yil oxirlariga kelib Turkistonda 1075-ta sanoat korxonasi (ularning ko'plari mayda korxonalar edi) zo'rlik bilan davlat tasarrufiga olindi. Natijada, davlat korxonalari barcha ishchilarning 90 foizini va o'lka sanoatida band bo'lgan mexanik dvigatellarning 80 foizini qamrab oldi. Yalpi sanoat mahsulotining deyarli 3/4 qismi davlat sektori ulushiga to'g'ri kelardi. O'lka ishlab chiqarishining o'ziga xos muhim an'anaviy tarmog'i bo'lgan hunarmandchilik va uning turlari ham bolsheviklar nigohidan chetda qolmadi. Ular ham ma'muriy uslular bilan birlashtirilib, hunarmandchilik artellariga aylantirildi. 1920-yil oxirlariga kelganda Turkistonda 800 taga yaqin shunday hunarmandchilik artellari faoliyat yuritish huquqidan mahrum etilgan bo'lib, ular turli davlat va harbiy tashkilotlarning buyurtmalarini bajarardilar.

Aynan shu davrda hukumat umumiy mehnat majburiyatni joriy etdiki, unga ko'ra 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan erkak va ayollar majburiy mehnatga jalb qilindilar. O'lkada yangi Sovet hukumati o'rnatilsa-da, mustamlakachilik mohiyati eskicha qolaverdi. Sovetlar xomashyo bazasi sifatida o'lkani talashni davom ettirdi. Masalan, 1920-yilda o'lkadan Rossiyaga 6730 vagon paxta, 1000 vagon jun, 3 ming juft poyafzal, 100 ming ko'rpa-to'shak, 202 ming bosh kiyim, 324 ming ko'ylak, 11,5 ming kalta po'stin, 6,4 ming egar, ko'plab miqdorda meva-sabzovot, vino, baliq va boshqa mahsulotlar olib ketildi. Shu yilning faqat fevralidan avgustigacha Turkiston temir yo'llarida 10000 vagonga yaqin turli harbiy va xalq xo'jaligi ahamiyatiga molik yuklar tashib ketildi.

Sovet davlatining ahvoli Rossiyadagi fuqarolar urushi va Turkistondagi sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat tufayli yanada og'irlashdi. Shu bois hukumat bu og'ir sharoitda Harbiy kommunizm siyosatini tutdi. Unda oziq-ovqat razvyorstkasi tartibi joriy etilib, aholining bor-budi tortib olindi. Buning ustiga savdo, bozor munosabatlariga yo'l berilmay, mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyat yanada murakkablashdi. Dehqonlar oziq-ovqat razvyorstkasi tartibi va uning siyosatidan norozi bo'la boshlashdi. Buning ustiga o'lkada sanoat izdan chiqqan, tarnsport va aloqa vositalari ishlamas, ekin maydonlari payhon bo'lib ketgan edi. Ishsizlik, ochlik, qashshoqlik hukm surardi. Shu bois ham, iqtisodiy siyosatning davr talabiga javob bera oladigan yangicha yo'nalishini ishlab chiqish hayotiy zaruriyatga aylandi.

Bu vazifalar 1921-yil mart oyida bo'lib o'tgan RKP(b) X syezdi belgilab bergan yangi iqtisodiy siyosat (YAIS)da o'z ifodasini topdi. Bu siyosatning

muhim bo'g'inlari oziq-ovqat razvyorstkasini oziq-ovqat solig'i bilan almashtirish, savdo-sotiqni erkinlashtirish, sanoatda, xizmat ko'rsatish va mayda hunarmandchilik sohalarida xususiy tadbirkorlikka yo'l berish, bozorni tartibga solish mexanizmlaridan foydalanish, ijraga olish va yollanma mehnatning cheklanishini bekor qilishdan iborat bo'ldi.

Yangi iqtisodiy siyosat (YAIS) shahar bilan qishloq o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni, qurilmoqchi bo'lgan "Sotsialistik" tuzumning tayanch negizi – ishchi-dehqon o'rtasidagi ittifoqni mustahkamlashga, iqtisodiy aloqalarni yaxshilashga xizmat qilishi lozim edi. Bu siyosatning tartibi – oziq-ovqat solig'i talabiga ko'ra, ekish mavsumi oldidan yakka dehqon xo'jaligi bilan davlat o'rtasida mahsulot yetkazib berish majburiyati to'g'risida alohida-alohida shartnoma tuziladigan bo'ldi. Bu shartnoma yil oxirigacha, ya'ni hosil olingunga qadar o'zgarmasdi. Bu esa dehqonlarni yerdan ko'proq hosil olish uchun astoydil mehnat qilishga undardi. Xullas, YAIS dehqonning o'z mehnatidan manfaatdor bo'lishini ta'minlardi. Endilikda dehqonning ortiqcha g'allasi tortib olinmaydigan bo'ldi, unga o'zi yetishtirgan oshiqcha mahsulotni bozorda erkin sotish huquqi berildi.

Yangi iqtisodiy siyosatni Turkistonda amalga oshirishning o'ziga xos qator muammolari bor edi. Birinchidan, Turkiston chekka, asosan qishloq xo'jaligi o'lkasi edi. Demak, bu yerda zamonaviy qishloq xo'jaligi va sanoatni yangidan barpo etish kerak. Ikkinchidan, o'lkada milliy ishchilar sinfini shakllantirish zarur edi. Uchinchidan, Turkiston ko'p millatli o'lka bo'lib, yangi iqtisodiy siyosatga o'tishda yerli xalqlarning qadriyatlari, an'analari, urf-odatlari xususiyatlarini hisobga olish kerak bo'lardi. To'rtinchidan, xalqlarning o'z milliy davlatchiligini hal qilishiga sharoit yaratish lozim edi. Ammo RKP(b) va sovet hukumati Turkistonda yangi iqtisodiy siyosatni joriy etishda o'z manfaatlaridan kelib chiqib ish yuritdi.

1921-yil 20-aprelda Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi oziq-ovqat, yem-xashak va xomashyo razvyorstkasini mahsulot solig'i bilan almashtirish to'g'risida qaror qabul qildi. Unda 1921-1922-yillar uchun soliq miqdori belgilandi. Biroq, bu siyosatni o'lkada amalga oshirishda mahalliy dehqonlar kamsitildi. Markaziy tumanlarda oziq-ovqat solig'i yil oxirida yig'ib olingan hosil miqdoriga qarab olingan bo'lsa, bu yerda soliq ekilgan yerning har desyatinasidan olinadigan bo'ldi. Buning ustiga o'lkada qoramol va mayda mollardan ham oziq-ovqat solig'i olinishi joriy etildi.

Sovet hukumati YAIS bahonasida o'lkada o'zi uchun zarur bo'lgan paxta, qand lavlagi, tamaki va boshqa texnik ekinlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratdi. Yordam ko'rsatish bahonasida 300.000 dan ortiq ishchi-dehqon oilalari

Rossiya markaziy rayonlaridan Turkistonga keltirilib joylashtirildi. Buning ustiga, o'lkada ahvol og'ir bo'lishiga qaramasdan, 1921-yil kuzida bu yerdan Moskva va boshqa shaharlarga 300 ming puddan ko'proq g'alla olib ketildi. Shunga qaramay, o'lka mehnatkashlari fidokorona mehnat qildi. Ularning, bir oz bo'lsa-da hayotga ishonchi uyg'ona boshladi. Chunki, sovet hokimiyati cheklangan holda bo'lsa-da, o'lkada xususiy mulkchilik va xususiy tadbirkorlikka erkinlik bergan edi.

Yangi iqtisodiy siyosat asosida sanoatni xo'jalik hisobiga o'tkazish jarayoni amalga oshirib borildi. Bu esa sanoat korxonalari ishlab chiqarishining bir oz bo'lsa-da jonlanishiga olib keldi. Mayda va o'rta sanoat korxonalari, yirik kooperativ tashkilotlar, ularning birlashmalari tadbirkorlarga ijaraga berildi, o'lkada yangi sanoat korxonalari: Xilkovo sement zavodi, Farg'ona pillakashlik fabrikasi, Qizilqiya, Xilkovo temir yo'l shoxobchalari qurib ishga tushirildi. Ayniqsa, Markaz to'qimachilik sanoatining paxtaga bo'lgan ehtiyojining ortib borishi natijasida o'lkada paxtachilik va u bilan bevosita bog'liq paxta tozalash korxonalari tez suratda o'sib bordi.

YAISni amalga oshirishdagi qiyinchiliklarga qaramay, bu yerda ham boshqa hududlar singari ishlab chiqarish tijorat sohalarida o'ziga xos o'zgarishlar yuz bera boshladi. 1921–1928-yillarda faqat Toshkentda 86 korxonalar, 2386 do'kon, shuningdek, bozorlar, karvonsaroylar, hammomlar, tomoshaxonalar davlat tasarrufiga olinib, qisqa vaqt ichida ishga tushirildi. Shirkatlar, birjalar tiklandi, yarmarkalar uyushtirila boshlandi. 1922-yilda pul islohoti o'tkazilib, oltin hisobidagi chervonlar, kumush va mis tangalar chiqarildi. Transport, sanoat tiklana boshlandi. Oziq-ovqat solig'i dehqon xo'jaliklarini qisman bo'lsa-da o'sishiga yo'l ochdi. Qishloq xo'jaligiga moddiy yordam ko'rsatish maqsadida yagona oziq-ovqat solig'iga, keyinroq natural shakldan pul bilan to'lashga o'tildi. 1923-yilda Toshkentda qishloq xo'jalik banki ta'asis etildi. Turkistonda irrigatsiyani tiklash uchun 1922-1923 xo'jalik yilida 5 mln 850 ming olti so'm, kelgusi yilda esa 4 mln 800 ming va 1924-1925 xo'jalik yilida 6,5 mln so'mga yaqin mablag' ajratildi.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi, xususan, paxtachilikni tiklash va uni rivojlantirish uchun shirkatchilik uyushmalari (kooperatsiya) shakllari tashkil qilindi. Qishloqda chorvachilik va boshqa sohalar ham tiklanib, ocharchilik asta-sekin chekina boshladi. Ayni vaqtda, davlat do'konlarida gazmol, kiyim, kerosin va boshqa mollar narxi juda yuqori bo'lib, ularni oddiy aholi sotib ololmas edi. Bu qimmatchiliklar ba'zan aholi orasida norozilik harakatini keltirib chiqarar, hukumat esa tezda choralar ko'rishga majbur bo'lar edi.

Paxta ekiladigan maydonlar ko'paytirildi. Ularning miqdori 1924-yilda 1921-yilga nisbatan 3 barobarga oshdi. Ishlab turgan sanoat korxonalari soni 144 taga yetdi. Birgina paxta tozalash sanoatida yalpi mahsulot ishlab chiqarish 1923-yildagi 23,9 mln so'mlikdan 1924-yilda 57,8 mln so'mga yetdi. Yangi iqtisodiy siyosat asosida Turkiston sanoati tiklanib, sezilarli darajada rivojlandi. Biroq, partiya va sovet hukumati yangi iqtisodiy siyosat Turkistonda sinfiy kurashning keskinlashuviga olib kelmoqda, mahalliy boylar, milliy burjuaziya qoldiqlari, yirik savdogarlar, musulmon ruhoniylari va boshqa ekspluatator unsurlar jonlanmoqda, deb ularga qarshi mafkuraviy tashviqot-targ'ibot ishlarini kuchaytirib yubordi. Bu esa asta-sekinlik bilan o'lkada yangi iqtisodiy siyosat yo'lidan chekinishga olib keldi. Dehqonga berilgan imtiyozlar qaytarib olindi. Ular qishloq xo'jalik artellariga birlashtirildi. Sanoatni davlat tasarrufiga olish jarayoni avj oldirildi.

20-yillarning oxirlariga kelib sovet davlatining, shu jumladan, O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-madaniy hayotida ma'muriy-buyruqbozlik boshqaruv tizimining kuchayishi natijasida YAIS o'z mazmun-mohiyatini tobora yo'qota bordi.

3. O'ZBEKISTONDA YER-SUV ISLOHOTI. SOVETLARNING SANOATLASHTIRISH VA JAMOALASHTIRISH SIYOSATI VA ULARNING OQIBATLARI

O'zbekiston aholisi qadim-qadimdan oq yer-suv bilan bog'langandi. Shu bois, xalq uchun yer-suv masalasi bosh masala bo'lib qolayotgan edi. Chunki mahalliy xalq, bolsheviklarning "Yer – dehqonlarga" degan va'dalaridan katta umid qilayotgan edi. Buning ustiga yangi hukumat o'zining birinchi kunidan oq e'lon qilgan "Yer to'g'risida"gi Dekretida (bu Dekret 1917-yil 25-oktabrida qabul qilingan) butun mamlakatda kambag'al, batrak, yersiz dehqonlarni yer bilan ta'minlash, yirik yer-mulklarni musodara qilish va undan so'ng davlat mulkiga aylantirish vazifalari e'lon qilindi.

Sovet hukumati ko'p sonli dehqon aholini o'z tomoniga qaratib olishni ko'zlab bu hujjatni qabul qilgan bo'lsa-da, undan o'z siyosatlariga mo'ljallangan maqsadni ko'zlagandi. Ularning yer-suv islohoti masalasida tutgan siyosatining pirovard maqsadi yirik xususiy yer-mulklarni musodara qilish, milliy lashtirish orqali ularni tugatib, jamoalar ixtiyoriga bera borib, asta-sekinlik bilan yirik jamoalashgan sotsialistik xo'jalikni qaror toptirish edi. Aynan shu maqsadda 1920-yil sentabrda Turkiston Sovetlarining XI syezdi chaqirilib, syezd yer-suv islohoti masalasidagi vazifalarni belgilab

berdi. Bunga ko'ra, aholining boy qismi qo'lidagi katta yerlarni musodara qilish, yevropalik kelgindi aholi bilan yerli xalq o'rtasida yer-suv masalasida vujudga kelgan tengsizlik munosabatlariga barham berish, mehnatkash aholini sovetlar tevaragiga jipslashtirish zarur deb topildi. Yer ishlari xalq komissarligi rejasiga ko'ra, tortib olingan yerlar kam yerli va yersiz mahalliy batrak va dehqonlarga bo'lib berilishi lozim edi. Bu jarayon kelgindi va mahalliy boy xo'jaliklarga ma'muriy choralar, tazyiq o'tkazish yo'li bilan olib borildi. Bu xil tadbirlarga batrak-dehqonlar ommasi ham keng jalb etildi.

Sovet hukumati bu vazifalarni amalga oshirish maqsadida qishloq va ovullar mahalliy aholisining yersiz, kambag'al qismini birlashtiruvchi "Qo'shchi" uyushmalarini tuza boshladi. Bu uyushmalar bolsheviklarning qishloq ahli orasidagi tayanchiga aylanib, yer-suv islohotini o'tkazishda partiya va davlatga katta yordam berdi. Birgina 1921-yil davomida Turkiston ASSR hududida tuzilgan "Qo'shchi" uyushmalari 160 ming kishini birlashtirgan edi. 1921-yilning dekabrda Toshkentda o'tkazilgan bu uyushmalarning birinchi respublika qurultoyi qarorida "Qo'shchi" uyushmalari mehnatkashlar ommasini sovetlar yordamida xo'jalik qurilishiga tortish vositasidir", – deb alohida uqtirildi.

Turkistonda 1921-1922-yillar davomida yer-suv islohotining birinchi bosqichi yirik yer-suv egalariga qarshi keskin kurash shiori ostida o'tkazildi. Masalan, Samarqand viloyatida 350 ta katta yer egalaridan 13 ming desyatina yerlar tortib olindi. Respublika bo'yicha boy va o'ziga to'q aholidan 1,7 mln desyatina yer tortib olinib, uning 117 ming desyatini yersizlarga va kambag'allarga berildi, qolgan katta qismi asosida "Qo'shchi" uyushmalari tuzildi. Bu sovet hokimiyatining kambag'allarni o'z tomoniga og'dirib olishga qaratilgan harakati bo'lib, o'rta hol dehqon xo'jaliklari saqlab qolindi. Biroq, hali ham yersiz dehqonlar qishloq aholisining ma'lum qismini tashkil etar edi. 1925-yil boshida Farg'ona viloyatida umuman yersiz dehqonlar 3,4 foizni, 3 desyatina gacha yeri bor xo'jaliklar 83,1 foizni tashkil etardi. Samarqand viloyatida bu ko'rsatkich mos ravishda 2,1 va 51,5 foizga teng bo'lib, Toshkent viloyatida esa yersiz dehqonlar 12,5 foizni tashkil etardi.

O'zbekistonning asosiy paxtakor viloyat va tumanlarida yerning katta qismi yangi iqtisodiy siyosat asosida xo'jalik yuritayotgan o'rtahol dehqonlar qo'lida to'plangan edi. Ular respublikada yetishtirilayotgan paxta, g'alla va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarining asosiy qismini yetkazib berar edi.

O'zSSR Yer ishlari xalq komissari Inomjon Xidiraliev va boshqa mas'ul xodimlarning e'tirozlariga qaramay, 1925-yil dekabrda O'zSSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi (MIQ)ning Favqulodda sessiyasi chaqirilib, unda "Yer va suvni milliy lashtirish to'g'risida"gi dekret qabul qilindi. Dekretga binoan quyidagi tarzda yerlar batamom musodara qilinishi kerak edi:

– qayerda turishidan qat’i nazar Farg‘ona vohasida 40 desyatinadan, Toshkent va Samarqand vohalarida 50 desyatinadan ortiq sug‘oriladigan yeri bo‘lgan mulk egalari jami jonli va jonsiz mulki bilan;

– qishloq va ovullarda yashamagan, o‘zlari va oila a‘zolaridan birortasi ham yerda ishlamaydigan shaxslarga qarashli yerlar, boshqa mol-mulki bilan;

– vaqf yerlari, xo‘jayinlari noma‘lum yerlar musodara qilinadigan bo‘ldi.

Yer-suv islohotining bu bosqichida ham qishloqda asosiy kuch bo‘lgan o‘rtahol dehqon bilan aloqani mustahkamlash shiori ostida o‘tdi. Farg‘ona vohasida 7 desyatina, Toshkent va Samarqand vohalarida 10 desyatinagacha yeri bor o‘rtahol dehqonlar mulki saqlanib qoladigan bo‘ldi. Natijada o‘rtahol dehqonlar boy va quloqlardan ajratib olinib, kambag‘al dehqonlarga yaqinlashtirildi.

O‘zSSR MIQ favqulodda sessiyasi qaroriga asosan Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm vohalarida islohot boshlandi. 1929-yilda islohot Qoraqalpog‘istonda ham o‘tkazildi. Katta yer egalarning oshiqcha yerlari musodara qilindi. O‘zbekistonda jami 1492 ta o‘ziga to‘q xo‘jaliklar tugatildi. 27992 ta badavlat mulkdorlarning ortiqcha yerlari tortib olindi. Respublikada yer fondiga tortib olingan yerlarning 10 foizigina kam yerlilarga berildi. Qishloqda kooperativlarga birlashtirish kuchayib, 1929-yilda jamoa xo‘jaligi hisoblangan kooperatsiyalarga uyushgan dehqon xo‘jaliklarining respublikadagi salmog‘i 81 % ga yetdi. Bu jarayon, afsuski, oddiy mehnatkashlar manfaatiga zid holda olib borildi. Jumladan, shunday hollar ham sodir bo‘ldiki, unda o‘rta dehqonlar, kustarlar, hunarmandlar, hatto qishloq kambag‘allari ham quloq dehqonlar qatoriga qo‘shib quvg‘in yoxud surgun qilindi, mol-mulklari musodara etildi.

Hukmron partiya va sovet hukumati yer-suv islohotini o‘z siyosati maqsadlarini ko‘zlab amalga oshirgan bo‘lsalar-da, o‘zlari xohlamagan holda o‘lka qishloq ahli uchun bir qator ijobiy jihatlarga imkon berib qo‘ydi. Eng muhimi, yurtning ko‘plab kambag‘al, qishloq xo‘jaligi aholisi yer-suv islohotidan bahra olib, o‘z xo‘jalik hayotini bir qadar tiklab olishga, uni emin-erkin yuritish imkoniga ega bo‘ldi. Biroq, kambag‘alning bu ijobiy holati uzoqqa bormadi. 20-yillar oxirida boshlangan jamoalashtirish jarayoni ularning hayot tarziga asoratli ta‘sir ko‘rsatdi.

Hukmron partiya va sovet davlati, 20-yillar o‘rtalaridan boshlab, o‘z rahbari ishlab chiqqan reja asosida mamlakatni sanoatlashtirish (industriyalashtirish) ishiga muhim e‘tibor qaratdi. VKP(b) ning XIV syezdi (1925-yil dekabr) o‘z qarorlarida bu boradagi vazifalarni belgilab berdi. O‘lkada zarur yetarli shart-sharoitlar, moddiy yoki moliyaviy imkoniyatlar, resurslar bor-yo‘qligini inobatga olmasdan, sanoatlashtirish O‘zbekistonda ham zudlik bilan amalga oshirishga kirishildi.

Sovetlar bu o'lkada ko'plab sanoat korxonalari va tarmoqlarini yaratish yo'li bilan uning bitmas-tuganmas boy tabiiy va mineral resurslarini ishga solish, arzon mahalliy ishchi kuchidan foydalanishni ko'zlardilar. Ularning rejasida sanoatlashtirish O'zbekistonda sotsializm qurish yo'lida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilishi kerak edi.

Respublikada sanoatlashtirish jarayoni katta miqdordagi moliyaviy resurslar, pul mablag'lari, texnika jihozlari, ilmiy-texnika salohiyati, ko'plab yuqori ma'lumotli muhandis-texnik xodimlar, malakali ishchi kadrlarni talab etar edi. O'zbekiston bunday imkoniyatga ega emas edi. Shuning uchun ham bu mintaqada sanoatlashtirish jarayonining tashabbuskori va tashkilotchisi bevosita hukmron Markaz va Kommunistik partiya bo'ldi. Chunki ular O'zbekistonning xomashyo resurslarini to'la ishga solish, bu hududda qizil sovet imperiyasining mavqeyini mustahkamlash, uni yangi mustamlakachilik tizginiga yanada kiritib olishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ygandi. Bu o'rinda shuni aytish joizki, Ittifoq hukumatining sanoatlashtirish rejasida O'zbekistonda zamonaviy yirik industrial tarmoqlarni ernas, balki ko'proq xomashyoni (ayniqsa paxta mahsulotini) qayta ishlaydigan sanoat korxonalarini, tog'-kon sanoatini rivojlantirishga asosiy urg'u berilgandi. Bundan asosiy maqsad, O'zbekiston Markaz uchun ko'proq xomashyo mahsulotlarni yetkazib berishga ixtisoslashtirishi kerak edi.

O'zbekistonni sanoatlashtirishda muhim e'tibor paxtachilik va u bilan bog'liq tarmoqlarni rivojlantirishga qaratildi. Sanoatlashtirish davrida respublikada 17 ta paxta tozalash zavodlari barpo etildi. Shuningdek, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Marg'ilon va Shahrisabzda pillakashlik fabrikalari, Farg'ona (1930) va Toshkent (1936–1939) to'qimachilik, Chirchiq elektrokimyo (1937) kombinatlari, Toshkent mashinasozlik zavodi, bir necha konserva, g'isht pishirish va urug' yetishtirish korxonalari qurildi. Umuman, statistik ma'lumotlarga qaraganda, O'zbekistonda birinchi besh yillik (1928–1932)da 289 ta va ikkinchi besh yillik (1933–1937) davrida 189 ta katta va kichik sanoat korxonalari qurilib ishga tushirilgan. Ularning mahsulot ishlab chiqarish hajmi va salmog'i yil sayin ortib borgan. 1925–1940-yillar davomida respublikada qurilgan GESlar soni 49 taga yetdi. Toshkent-Angren temir yo'li, Toshkent-Termiz katta o'zbek halqa avtomobil yo'li qurildi.

Aynan shu davrda respublikada ikkita yirik: Chirchiq va Yangiyo'l sanoat shaharlari barpo etildi.

Respublika sanoati qurilishida ko'pgina muammo va nuqsonlar bor edi. Sobiq ittifoqning O'zbekistonga nisbatan mustamlakacha qarashi, yuqoridan tazyiq o'tkazishi, boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik usullari respublika

sanoati tarmoqlarida salbiy asorat qoldirdi. Bu noxush holatlar tufayli respublika markazning rangli va nodir metallar, oltingugurt, ozokrit, volfram, molibden, paxta tolasi, xom ipak bilan ta'minlovchi mintaqasiga aylantirildi. Markaz amri bilan respublikaning xomashyo, tabiiy resurslari ayovsiz ekspluatatsiya qilingani holda uning o'ziga xos iqtisodiy manfaatdorligi hech qanday nazar-pisand qilinmasdi. O'zbekistonda qurilgan sanoat korxonalarining asosiy qismi uning bevosita tasarrufida bo'lmay, ular to'lig'icha Ittifoq ixtiyoriga bo'ysunardi. Masalan, 1928-yilda O'zbekistondagi mavjud korxonalarining 81,7 foizi Ittifoqqa tegishli, 14,5 foizi respublika va 3,8 foizi mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa, 30-yillarning o'rtalariga kelib Ittifoq tasarrufida bo'lgan korxonalar 90 foizni tashkil qilgan.

Eng achinarligi, industriyalashtirishning butun og'irligi mehnatkash xalqning zimmasiga yuk bo'lib tushayotgan edi.

Sanoat tarmog'idagi ishchilarning o'rtacha oylik ish haqi 1932-yilda taxminan 105 so'mni tashkil etardi. Keksalik va nogironlik nafaqalarining o'rtacha miqdori 33 so'mdan kamroq edi. Ko'pgina tabaqalar, diniy muassasa va tashkilotlar xizmatchilari, yakka tartibda ish bilan shug'ullanuvchilar **pensiya va nafaqa** olishdan mahrum edilar. Oziq-ovqat muammosi bilan birgalikda turar-joy muammosi ham keskin bo'lib qolaverdi. Hayotning barcha yo'nalishlari ustidan davlat to'la nazorat olib boradigan, partiya apparati esa har bir ishga aralashib, o'z hukmini o'tkazadigan bo'lib bordi. Hayot tajribasi moddiy boyliklarni bir tekis taqsimlash, ishlab chiqarish vositalarini umumlashtirish noto'g'ri ekanligini to'liq isbotlab berdi. Ishlab chiqarish samaradorligining pasayishi o'z-o'zidan mehnatga to'lanadigan haq miqdorini pasayishiga, mehnat va turmush sharoitini o'rtachadan past darajaga tushishiga sabab bo'ldi.

Respublikada 30-yillar oxiri va 40-yillar boshlarida oziq-ovqat iste'moli 1924–1928-yillarga nisbatan 10–15 foizga kamaydi. Mehnat qonunlarining keskinligi, ishchilarni ishlab chiqarishga, dehqonlarni kolxozlarga zo'rlab birlashtirilishi, ishga kechikkanlarga jinoiy jazo qo'llanishi, bularning barchasi totalitar tuzum natijalari bo'lib, O'zbekiston xalqlari hayotiga ham katta salbiy ta'sir ko'rsatayotgan edi.

Lekin, shunga qaramay O'zbekiston aholisi, jumladan, turli soha vakillari, muhandislar, ishchilar, texniklar sanoat korxonalarida, ishlab chiqarishda avvalo o'z moddiy-maishiy hayotini yaxshilash uchun, qolaversa, o'z yurti, vatani uchun bor imkoniyati bilan astoydil mehnat qildi. Biroq, moddiy boylik yaratuvchi xalq o'z mehnati natijalaridan kutilgan darajada manfaat ko'rolmadi.

O'zbekistonga sanoatlashtirish bahonasida RSFSR hududidan bu yerga ko'plab odamlar oqimi kirib keldi. 1926–1940-yillar oralig'ida respublika aholisi yangi kelganlar hisobiga 750 ming kishiga yoki 10 % dan ortiqroqqa ko'paydi. Bu ishlar xo'jalik mulohazalari bilan emas, ko'proq siyosiy mulohazalar taqozosi bilan amalga oshirildi. Yerlik aholidan malakali ishchilar tayyorlashga, ularni ish bilan ta'minlashga ataylab e'tibor qaratilmadi.

Shunday qilib, sanoatlashtirish yillarida partiya va sovet hukumatining so'zi bilan amaliy ishi o'rtasida yakdillik va uyg'unlik bo'lmadi. Xalq ommasining o'n yillar davomida to'kkan peshona teri, amalga oshirgan tinimsiz mehnati, chekkan zahmati, fidokorligi unga yengillik, baxt-u farovonlik keltirmadi.

Hukmron partiya va sovet davlatining qishloqda o'tkazgan jamoalashtirish (kollektivlashtirish) siyosati ham butun mamlakatda bo'lganidek, O'zbekistonda ham katta fojealarni keltirib chiqardi. Bu boradagi vazifalar VKP(b) ning XV syezdi (1927-yil dekabr) tomonidan belgilab berildi.

Mahalliy hududlarning o'ziga xos xususiyatlari, milliy jihatlari, turmush tarzi ko'rinishlari ham inobatga olinmadi. O'zbekistonda 20-yillarda o'tkazilgan yersuv islohoti davrida badavlat dehqonlarning yerlari, ruhoniylarga tegishli yerlar davlat tomonidan tortib olingan edi. Yer bilan birga hamma ot-ulov va asbob-uskunalar musodara qilindi. Umuman. 1925 – 1929-yillar ichida boylar, yirik savdogarlar va ruhoniylarning 45 mingga yaqin yakka xo'jaliklari batamom tugatildi. Natijada qishloq aholisi kambag'allar toifasi islohotdan oldin barcha dehqonlarning 76 foizini tashkil etgan bo'lsa, islohotdan so'ng ularning soni 39 foizgacha qisqardi. Ularning xo'jalik turmushi yaxshilanib, o'sib borganligi bois o'rtahol dehqonlar salmog'i 17 foizdan 52 foizga ko'tarildi. Shu tariqa, bu islohot davomida respublikada jamoa xo'jaliklari – kolxozlar tashkil etildi.

Jamoalashtirish siyosatiga respublikadagi partiya, sovet, xo'jalik, yoshlar, xotin-qizlar va boshqa jamoat tashkilotlari jalb etildi. Markaz buyrug'ining joylarda birinchi bo'lib bajarilishini ta'minlash qoidasi bu siyosatda ham to'liq amal qilindi. O'zbekistonda dehqonlarni zudlik bilan kolxozlarga majburan kiritish 1929-yilning ikkinchi yarmi va 1930-yil boshlarida avj oldirildi. O'zbekiston partiya va hukumatining 1930-yil 17-fevraldagi "Jamoalashtirish va quloq xo'jaliklarini tugatish to'g'risida"gi qarori esa bu majburiy jarayonni yanada tezlashtirdi. Qarorda respublikaning 17 ta tumanida yoppasiga jamoalashtirish belgilangan edi. Ko'p joylarda quloqlarni tugatish shiori ostida o'rtahol, hattoki, kambag'al dehqon xo'jaliklariga nisbatan ham zulm o'tkazildi. 1929-yil oktabriga qadar respublikadagi dehqon xo'jaliklarining 3,4 foizi kolxozlarga kirgan bo'lsa, 1930-yil martiga kelib dehqon xo'jaliklarining 47 foizi kolxozlashtirildi.

Jamoalashtirish ishidagi ma'muriy buyruqbozlik uslubi, joylardagi real shart-sharoitlar bilan hisoblashmaslik, milliy hududlarning o'ziga xos xususiyatlari, aholisining milliy an'analari, udumlarini, madaniy-ma'naviy saviyasini e'tiborga olmaslik, ularni pisand qilmaslik oxir-oqibatda respublikada ommaviy norozilik harakatlarining boshlanishiga sabab bo'ldi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, norozilik harakatlari kengayib bordi. Ma'lumotlarda qayd etilishicha, bunday ommaviy norozilik harakatlari shu davrda respublika bo'yicha 240 marta sodir bo'lgan. Eng achinarligi shuki, ko'plab oddiy dehqon xo'jaliklari arzimagan sabablar bilan yoxud birgina jamoa xo'jaligiga kirishga rag'bat bildirmaganligi vajidan bor-budidan mahrum etilib, uy-joyi, mol-mulki tortib olinib, quloq qilinuvchilar ro'yxatiga tirkab yuborilavergan. O'zbekistonda shartli ravishda quloq xo'jaligiga kiritish mumkin bo'lgan xo'jaliklarning salmog'i aslini olganda umumiy dehqon xo'jaliklarining 5 foizidan kamrog'ini tashkil etgan. Ayni paytda dehqon xo'jaliklarini majburiy quloq qilish, boshqa joylarga surgun qilish ishlari avj oldirildi. O'zbekistondan Ukraina, Sibir va Shimoliy Kavkazga 3871 quloq oilasi surgun etildi. 1933-yilda surgun qilingan quloq xo'jaliklari soni 5500 taga yetdi.

Shu tariqa quloq qilish siyosati oqibatida son-sanoqsiz dehqon xo'jaliklari bor-yo'q haq-huquqlaridan mahrum etilib, qarindosh urug'lari bilan Sibir, Ukraina va Qozog'istonning cho'llari, qamishzor, to'qayzor yerlariga badarg'a qilindi. Ularning aksariyati bu yerlarning shart-sharoitlariga dosh berolmay turli kasalliklariga chalilib, muhtojlik azobiga dosh berolmay bevaqt hayotdan ko'z yumdilar.

Keksalarning eslashicha, taniqli tarixchi olim R.Shamsuddinovning maqola va kitoblarida ta'kidlanishicha, "quloq" deb surgun qilinganlarning ko'plari o'lganlaridan so'ng, o'zga yurtlarda kafansiz, diniy rasm-rusumlarsiz ko'mib tashlanganlar.

Sovet hukumatining bunday zo'ravonlik siyosatini oldindan sezgan ming-minglab qishloq oilalari yurtni tark etib, uzoq begona yurtlarga bosh olib ketishga ham majbur bo'ldi.

Hukmron partiyaning 1930-yil 5-yanvardagi qarorida O'zbekistonda jamoalashtirishni 1933-yil boshlariga qadar tugallash mo'ljallangan edi. Biroq, mahalliy rahbarlar uni bu muddatdan ham avval bajarish uchun harakatni boshladi. Agar 1930-yil iyunida respublikada 6124 ta kolxoz tuzilgan, ularga jalb qilinganlar dehqon xo'jaliklarining 27,1 foizini tashkil etgan bo'lsa, shu yilning oxiriga borib 37 foizga, 1931-yil dekabrda esa 68,2 foizga yetdi.

Ma'muriy tazyiq, oshkora zo'ravonlik, iqtisodiy terror usullari va shu kabi ta'sir choralarining uzluksiz qo'llanilishi orqasida kolxoz qurilishi sezilarli

sur'atlarda rivojlantirib borildi. 1932-yil oxiriga kelib umuman O'zbekistonda jamoalashtirilgan xo'jaliklar barcha dehqon xo'jaliklarining 81,7 foizini birlashtirgan edi. 800 ming dehqon xo'jaliklari negizida 9734 ta kolxoz va 94 ta sovxoz tashkil etilgandi. Bu davrga kelib O'zbekistonning asosan paxta ekiladigan tumanlarida jamoalashtirish tugallandi. Aynan, paxta maydonlari 1929- yildagi 530 ming gektardan 1932-yilga kelib 928 ming gektarga ko'paydi.

Hukmron partiya 1930-yil 5-yanvar qarorida quloqlarni sinf sifatida tugatish siyosatini tutgan edi. Jamoalashtirish jarayonida bu siyosat uzil-kesil amalga oshirildi.

Respublikada jamoalashtirish tuzilgan xo'jaliklarga moddiy-texnik baza hisoblangan mashina-traktor stansiyalari (MTS)ni tashkil etish bilan birga olib borildi. O'zbekistonda birinchi MTS Andijon okrugining Asaka tumanida tuzildi. MTSlarning yirik dehqon xo'jaliklariga foydasi kattaligi sababli ularning soni ko'payib bordi. 1931-yilda ularning soni 48 ta bo'lgan bo'lsa, 1937-yilga kelib 163 taga, 1941-yilda esa 189 taga yetdi.

MTSlar jamoa yerlarini sof haq evaziga ishlab berar, bu haqning miqdori esa yuqoridan, davlat organlari tomonidan belgilanardi. Buning ustiga MTSlarning vujudga kelishi va xizmat ko'rsata boshlashi bilan qishloqda shartli ravishda bo'lsa-da, "ikkita xo'jayin" – kolxozlar va MTS lar qaror topdi. Garchand har ikkalasining asosiy jilovi davlat qo'lida bo'lsa-da, ularning biri texnika uchun va ikkinchisi qishloq xo'jaligi sohasining qolgan boshqa ishlari uchun mas'ul hisoblanardi.

Ammo ekinlar hosildorligi, chorvachilik mahsuldorligi uchun mas'uliyatni jamoa a'zolari ham, MTS xodimlari ham o'z zimmalariga olmadi. Natijada ishlab chiqarishni tashkil etish va texnika xizmatidan foydalanishda xo'jasizlik holati kelib chiqdi.

Urushgacha bo'lgan davrda respublikada Darg'om, Narpay, Savay, Dalvarzin, Log'on, Katta Farg'ona kanallari, Kattaqo'rg'on suv ombori kabi ko'plab suv inshootlari qurildi. Chirchiq-Ohangaron vodiylarida, Zarafshon daryosi havzasida, shuningdek, Qashqadaryo va Surxondaryoda irrigatsiya tarmoqlari ancha yaxshilandi. 1929–1933-yillarda bu sohaga 234,9 mln rubl sarflandi.

Sanoatlashtirish, qishloq xo'jaligini jamoalashtirishning barcha og'irliklariga, qatag'onlikning mudhish xunrezliklariga qaramay, o'zbek xalqi fidoiylik bilan mehnat qildi. Xalq 1939-yilning 1-avgustidan o'zbek xalqiga xos bo'lgan hashar usulida 1,5 oy (45 kun) ichida Katta Farg'ona kanalini barpo etdiki, uni bunyod etish uchun podsho hukmronligi davrida 6–8 yil, sovet davrida esa 6–8 oy kerak bo'lar edi. 160 ming kolxozchi (ularning 70 mingdan ortig'i yoshlar) bunyod etgan bu kanal 270 kilometr uzunlikda edi.

20-yillar oxirida yangi iqtisodiy siyosat bekor qilingach, mamlakat taraqqiyotini besh yilliklar orqali amalga oshirishga kirishildi. Hukmron partiya rahbarligida hamma narsa besh yillik rejalarini bajarish ishiga safarbar etildi. Aynan, yakka hokimlik ostida sodir bo'lgan o'zgarishlarga qonuniylik tusini berish, sotsializm muvaffaqiyatini maqtab ko'klarga ko'tarish uchun shu o'zgarishlarni mamlakatning asosiy qonunida mustahkamlab qo'yadigan konstitutsiya qabul qilishni zurur deb topdi. 1936-yil noyabrda sobiq ittifoq sovetlarining VIII syezdida SSSRning yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Uning asosida 1937-yil fevralida respublika sovetlarining favqulodda VI qurultoyida O'zbekiston Konstitutsiyasi ham qabul qilindi. Bu konstitutsiyada ham O'zbekistonning boshqa respublikalar qatori suveren huquqi e'lon qilingan bo'lsa-da, u hamma narsaga qodir "markaz"ga qaramligicha qolaverdi.

4. YURT VA XALQ DARDI UCHUN KURASHGAN MILLIY YETAKCHILAR

O'zbekistonning 20–30-yillardagi ijtimoiy-siyosiy hayotiga nazar tashlansa, sovet hukumatining milliy manfaatlarni hisobga olmaslik siyosati natijasida 20-yillardan boshlab o'lka mahalliy aholisi orasida o'z-o'zini anglashning o'sganligini ko'rish mumkin. Markazning milliy manfaatlarni hisobga olmaslik siyosatidan mahalliy aholining noroziligi kuchaydi. Hokimiyat pog'onalaridagi milliy rahbar kadrlar, mustabid tuzumga, uning siyosatiga ochiqdan-ochiq qarshi fikr bildirib, mahalliy aholini manfaatlarini himoya qildi.

Hukmron partiya dastlab mahalliy aholi vakillarini hokimiyat boshqaruviga aralastirmaslikka harakat qilgan edi. Biroq, ular shovinistik va mustamlakacha siyosatga qarshi chiquvchi mahalliy yetakchilarning harakatlaridan cho'chib, o'lkadagi mavqelarini saqlab qolish maqsadida mahalliy yetakchilarning ayrimlarini partiya va hukumat boshqaruv ishlariga jalb etdi. Ularning safida Nazir To'raqulov (Turkiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasi, keyinroq RKP(b) MQning Turkiston byurosi a'zosi) bor edi. Turkiston kompartiyasi (TKP)ga boshchilik qilib turgan N.To'raqulov norozilik belgisi sifatida Turk-kommissiya va Turkbyuro safidan chiqish haqida ariza ham beradi. Markaz unga tazyiq o'tkazib, "xatolarini tuzatish" imkonini berganda ham, u o'z qarashlarida mustahkam turdi.

1939-yilda qatag'on qilingan N.To'raqulov nafaqat siyosiy arbob, balki u yirik tilshunos olim ham edi.

Milliy yetakchilardan biri – davlat va jamoat arbobi Qayg'usiz Otaboyev (1887–1937)dir. U markazning shovinistik siyosatini, sovet hukumatining

Turkkomissiya safida yuborgan vakillarining o'lkada qo'llayotgan usullarini, ularni o'lka shart-sharoitini tushunmasdan turib, uni boshqarishga da'vogarlik qilayotganliklarini TKP Sovetlarining X qurultoyi minbaridan turib tanqid qilgan edi. U birinchi bo'lib 1918-yil bahorida boshlangan sovet hukumati-ga qarshi qurolli harakatni "harbiy yo'l bilan yo'q qilib bo'lmaydigan xalq qo'zg'oloni", deb baholagandi. U A.Rahimboyev, A.Sherg'oziyevlar bilan birgalikda Samarqand viloyatida sovetlarga qarshi kurashayotgan bu harakat rahbari Bahrombek bilan teng asosda tinchlik shartnomasi imzolagani uchun lavozimidan bo'shatildi va 1937-yilda nohaq qatag'on qilinib, otib tashlandi.

Millatparvar yetakchilardan yana biri – Inomjon Xidiraliyev (1891–1928). U 1922-yilning oxirida Butunrossiya MIQga xat bilan murojaat qilib, "mahalliy aholining barcha qatlamlarini sovet ishlariga jalb qilishga, bu ishlarni aholining milliy turmush tarziga moslashtirgan holda amalga oshirishga, Turkistonda ish yuritishni mahalliy aholi tiliga o'tkazishga" e'tiborni qaratgan edi. I.Xidiraliyev sovet boshqaruvidan so'ng ham hokimiyat tepasida yevropa millatiga mansub kishilarning turishi mahalliy aholida chorizm mustamlakachilik siyosati hali ham davom etmoqda, degan xulosani keltirib chiqarmoqda, chunki bu kishilar mahalliy millat xususiyatiga mos mafkuraviy kurashlarni tushunmaydilar, deb ochiq norozilik bildirgan edi.

Bu harakatlar Markazning I.Xidiraliyevga nisbatan salbiy qarashlarini kuchaytirib, uning hayoti 1928-yilda fojeali tugagan bo'lsa-da, Markaz 1923-yilda uning "ish yuritishni tub millat tiliga o'tkazish" talabini bajarishga majbur bo'ldi.

Sovetlar hukmronligi davrida 20–30-yillaridagi milliy yetakchilardan yana biri Abdulla Rahimboyev (1896–1938) edi. U hokimiyat ishlariga jalb qilinishi bilanoq mustabid tuzum siyosatiga qarshi dadil chiqishlar qildi. RSFSR Sovetlarning IX qurultoyi (1921-yil dekabr) minbaridan turib, "Turkistondagi sovetlarning jazolash siyosati har qanday chegaralardan o'tib tushdi. Farg'ona viloyatidagi jazo otryadlari esa mutlaqo muxtor holatda. hech kim bilan, partiya organlari bilan ham hisoblashmasdan, turli shubhali shaxslarni xizmatga olib harakat qilmoqdalar", deb RSFSR hukumatiga ochiqdan-ochiq bayonot berdi. Sovet hukumati bunday chiqishlarni yoqtirmas edi, albatta. Shu bois, 1922-yilda A.Rahimboyev TASSR MIQ raisi lavozimidan chetlashtirildi. Sovetlar unga "o'z xatolarini tuzatish" imkonini bergach, RKP(b) MQ O'rta Osiyo byurosi (Sredazbyuro) a'zosi hamda TKP MQning mas'ul kotibi sifatida milliy-hududiy chegaralanishni tazyiqsiz o'tkazish tarafdori bo'ldi.

Albatta bularning barchasi uni 1938-yilda qatag'on bo'lishigacha olib keldi. Nima bo'lishidan qat'i nazar sovetlarning qat'iy, majburiy chegaralanish o'tkazishiga qarshi o'z uslubini taklif etishi, uning katta mardligi edi.

Milliy yetakchi Fayzulla Xo‘jayev 1921-yildan boshlab Buxoro kompartiyasining “Markaz” guruhiga boshchilik qildi. Turkkommissiya a‘zolaridan biri Peters 1921-yilning 21-martida bolsheviklar rahbariga yozgan xatida u kishi haqida: “Eng kuchli guruh aholi o‘rtasida keng ildiz otgan, so‘zsiz ...uning guruhidir ...uning o‘zi esa boy savdogar oilasidan chiqqan bo‘lsa-da, Rossiyada uzoq yillar bo‘lganligi, Buxoro revolyutsiyasi bilan yaqindan aloqasi tufayli inqilobning haqiqiy dohiysiga aylangan. U boshqalarga qaraganda ancha toza va ishonchlidir... Xalq nomidan gapirish huquqiga ega bo‘lgan yagona qobiliyatli guruh... uning guruhidir. Nima bo‘lishidan qat‘i nazar uni Anvar Poshshoga qarshi qo‘yish kerak”, deb tushuntirish bergan edi.

F.Xo‘jayev amirlikka qarshi kurashib, keyinchalik sovet hukumatining ishonchi bilan davlat rahbari darajasiga ko‘tarilgach, qaysi tuzumga xizmat qilishidan qat‘i nazar doimo xalq va yurt manfaati uchun kurashdi. 12-13 yoshidayoq zamonaning demokratik, inqilobiy fikrdagi kishilari bilan yaqin aloqada bo‘lib, rus va yevropa madaniyatidan xabardor edi. 1917-yilning fevralidan keyin amir ta‘qibiga uchrab, bolsheviklar orasida bo‘l F.Xo‘jayev ataman Dutov armiyasi qo‘liga tushib, dala sudi qarori bilan o‘limga hukm etildi va ozod qilindi. U amirning buyrug‘i bilan ham sirdan o‘limga hukm etilgan edi va uning kallasi uchun katta pul mukofoti e‘lon qilindi.

Bu milliy yetakchi amir va dala sudi hukmlariga qaramay Olim Churayev ism-sharifi bilan yashirincha Samara, Qozon shaharlari orqali Moskvaga yetib borgan edi. 1920-yili inqilobchi Yosh buxoroliklar Turkiston Markaziy byurosi raisi, 1920 – 1924-yillarda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi Nozirlar Kengashining raisi, 1924 – 1937-yillarda O‘zSSR hukumati raisi lavozimlarida ishlagan.

U 1937-yilda Moskvada qammoqa olinib, 1938-yilda otilgan. F.Xo‘jayev sovet hukumatining o‘lkada amalga oshirayotgan siyosatidan qoniqmaganligini bir necha tanqidiy chiqishlarida bildirgan. 1924-yildagi milliy-hududiy chegaralanishga ham qarshi o‘z fikrlarini bayon etgan. O‘zining “Buxoro inqilobi tarixiga doir” nomli asarida jadidchilikka xolisona baho bergan. F.Xo‘jayev hali Buxoro XSRda ishlab turganida, RSFSR hukumati nomidan V.Quybishev unga ishonch yorligi topshirganda, asosiy talab “Buxoro davlatiga hurmat va Buxoroning mustaqilligiga hurmatni butun Rossiya fuqarolariga singdirishdan iboratdir”, deb bayonot bergan edi.

Aynan shu davrda u Buxoro Kompartiyasini Kominternga asosiy tashkilot sifatida a‘zo bo‘lishiga harakat qilib, Kominternning 1921-yil 4-apreldagi yig‘ilishida delegatsiya rahbari sifatida ma‘ruza qilgan edi. Biroq, bu ish amalga oshmadi. Buxoro Kompartiyasi Kominternga asosiy tashkilot sifatida emas, hamdard tashkilot sifatida qabul qilindi.

Tayanch soʻz va iboralar:

Mustabid tuzumning oʻlkada taʼsirini mustahkamlash. RSFSR va TASSR konstitutsiyalari. Mahalliy yetakchilar. Turkkomissiya nazorati. Milliy-davlat chegaralanishi. OʻzSSRning tuzilishi. Oʻzkompartiya. Iqtisodiy siyosat va uning mustamlakachilik mohiyati. Milliy lashtirish. Ishchi nazorati. Harbiy kommunizm va yangi iqtisodiy siyosat. Maʼmuriy buyruqbozlik. Yer-suv islohoti. Jamoalashtirish. Quloqlashtirish. Sanoatlashtirish siyosatlari va ularning oqibatlari. Milliy yetakchilar.

Bilimingizni sinab koʻring

1. 1918-yilda qabul qilingan RSFSR konstitutsiyasi talabi boʻyicha “mehnatsiz daromad” hisobiga yashaydigan shaxslar, dindorlar, xususiy savdogarlar, tijoratchilar, tadbirkorlar va hokazolar saylash va saylanish huquqidan butunlay mahrum etilgan.

Bu ularning qanday huquqi edi?

	a			a					h	u	q	u	q	i
--	---	--	--	---	--	--	--	--	---	---	---	---	---	---

2. Hukmron partiya va sovetlar davlatining Oʻrta Osiyoni boʻlib tashlashdan maqsadi – mustamlakachilarga xos tamoyilni amalga oshirish edi. Bu tamoyilni katakchalardan toping.

			i							l	
--	--	--	---	--	--	--	--	--	--	---	--

			m					i				
--	--	--	---	--	--	--	--	---	--	--	--	--

3. Qoraqalpogʻiston muxtor viloyatga aylantirilib, Qozogʻiston ASSR tarkibiga kiritilgan edi. Mamlakat xalq xoʻjaligida ittifoqdosh respublikalar oʻrtasidagi mehnat taqsimotida Qoraqalpogʻistonga oliy sifatli paxta va baliq yetishtirish bilan birgalikda chorvachilik rivoji uchun muhim boʻlgan yana bir ekinni yetishtirib berish vazifasi yuklatilgan edi.

Oʻsha ekinning nomini toping.

	e				u	r	u	gʻ	i
--	---	--	--	--	---	---	---	----	---

4. Bolsheviklar o'lka ishlab chiqarishining o'ziga xos muhim tarmog'i – hunarmandchilik va uning turlarini ham o'z nigohlaridan chetda qoldirmadilar. Ular ham ma'muriy usullar bilan birlashtirilib, hunarmandchilik artellariga aylantirildi.

Aynan shu davrda hukumat bir majburiyatni joriy etdiki, unga ko'ra 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan erkak va ayollar ana shu majburiyatga jalb qilindilar. Joriy etilgan majburiyat nomini toping.

	a			u		i				e			a	
--	---	--	--	---	--	---	--	--	--	---	--	--	---	--

m	a	j	b	u	r	i	y	a	t	i
---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---

5. Sovet hukumati mehnatkash xalqni sovetlar tevaragiga jipslashtirish maqsadida yersiz dehqonlarga yer berish uchun mahalliy boy xo'jalik yerlarini ma'muriy choralar va tazyiq o'tkazish yo'li bilan tortib oldi.

Bu vazifalarni amalga oshirish maqsadida qishloq va ovullar mahalliy aholisining yersiz, kambag'al qismini birlashtiruvchi uyushmalarni tuza boshladi. Sovetlarning bu uyushmalari nomini toping.

«		o'			i	»
---	--	----	--	--	---	---

6. Sanoatlashtirish jarayonida respublikada 17 ta paxta tozalash zavodlari barpo etildi. Aynan shu davrda respublikada ikkita yirik sanoat shaharlari barpo etildi. Bu shaharlarning nomini toping.

				i			v	a
--	--	--	--	---	--	--	---	---

			i			
--	--	--	---	--	--	--

7. Quloq qilish siyosati oqibatida son-sanoqsiz dehqon xo'jaliklari bor-yo'g'i, haq-huquqlaridan mahrum etilib, qarindosh urug'lari bilan Sibir, Ukraina va Qozog'istonning cho'llari, qamishzor, to'qayzor yerlariga badarg'a qilindi. Ularning aksariyati bu yerlarning shart-sharoitlariga dosh berolmay turli kasalliklarga chalinib, azob-uqubatga dosh berolmay bevaqt hayotdan ko'z yumdilar. Bu qanday azob-uqubat edi?

		h				l	i	k		a	z	o	b	i
--	--	---	--	--	--	---	---	---	--	---	---	---	---	---

8. Jamoalashtirish natijasida tuzilgan xo'jaliklarga moddiy-texnik baza zarur edi. Shu bois, sovet davlati ana shunday moddiy-texnik bazani yaratish uchun turli stansiyalarni tashkil etdi. Bu stansiyalarning to'liq va qisqartma nomlarini katakchalardan toping.

--	--	--

(qisqartma nomi)

					a	-			a				
--	--	--	--	--	---	---	--	--	---	--	--	--	--

s	t	a	n	s	i	ya	l	a	r	i
---	---	---	---	---	---	----	---	---	---	---

(to'liq nomi)

XII BOB. XX ASR 20–30-YILLARIDA O‘ZBEKISTONNING SOVETLARGA MA’NAVIY-MADANIY QARAMLIGI VA UNING OQIBATLARI. SIYOSIY QATAG‘ONCHILIK

Mavzu rejası:

1. XX asr 20–30-yillarida Sovetlar tomonidan O‘zbekistonda amalga oshirilgan ma’naviy-ma’rifiy va madaniy tadbirlar, unga hukmron kommunistik mafkura ta’siri.
2. Adabiyot, san’at va fan. Mafkuraviy tazyiqlar.
3. 20–30-yillarda mustabid sovet tuzumining O‘zbekistondagi qatag‘onchilik siyosati va uning asoratli oqibatlari.

1. XX ASR 20–30-YILLARIDA SOVETLAR TOMONIDAN O‘ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRILGAN MA’NAVIY-MA’RIFIY VA MADANIY TADBIRLAR, UNGA HUKMRON KOMMUNISTIK MAFKURA TA’SIRI

1917-yilgi oktabr to‘ntarishi natijasida vujudga kelgan murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyat Turkistondagi ma’naviy-madaniy hayotni tubdan o‘zgartirdi. Bolsheviklarning amalga oshira boshlagan “madaniy inqilob”i madaniyat va uning jabhalari: ilm-fan, san’at, maorif, oliy ta’lim sohalarini ham o‘z izmiga soldi.

Rossiyada o‘rnatilgan “proletariat diktaturasi” kuchlaridan foydalanib Turkistonda chor imperiyasi davridagi ta’lim tizimini yo‘q qilishga kirishildi. Bir vaqtning o‘zida an’anaviy (diniy bilimlar asosida o‘qitiladigan) maktablarga nisbatan ma’muriy hamda iqtisodiy choralar ko‘rildi. Turkiston musulmonlariga o‘zining mafkuraviy ta’sirini kengaytirish maqsadida sovet maktablari tarmog‘ini tashkil etishga alohida e’tibor qaratilib, mustabid davlat muqobil o‘quv maskanlari faoliyatining barcha imkoniyatlarini cheklab qo‘ydi. Ayniqsa, 1927-yil iyunida bo‘lib o‘tgan O‘zkompartiya MQ VI plenumining dinga qarshi qarorlari O‘zbekistondagi an’anaviy maktablarga katta zarba berdi.

Mamlakatda VKP(b) XV syezdi (1927) qarorlari asosida boshlangan jamoalashtirish tufayli vaqf mulklarining tugatilishi bilan an’anaviy maktablar iqtisodiy asosdan mahrum bo‘ldi.

Sovetlar o‘lka aholisini ruslashtirish siyosatini davom ettirib, ularga bolsheviklar g‘oyasini singdirishga harakat qilib, eski maktab-madrasa, jadid maktablarini yo‘q qilish bilan birga mahalliy aholi farzandlarining bi-

lim olishiga jiddiy e'tibor berishmagan bo'lsa-da, sovet o'quv maskanlarini o'qituvchi kadrlar hamda kerakli mablag' bilan ta'minlash imkoniyatlarini topa olishdi. Chunonchi, sho'ro ta'lim tizimiga mos o'qituvchi kadrlarning miqdoriy o'sishini ta'minlash keng yo'lga qo'yilib, 1917-yilning o'zidayoq Toshkent, Andijon, Samarqand. Qo'qonda dastlabki o'qituvchilar tayyorlaydigan qisqa muddatli kurslar tashkil etildi. 20-yillarning boshlariga kelib, shunday kurslar orqali 3 ming mahalliy millat va 802 ta yevropalik o'qituvchi tayyorlandi.

Mana shunday sharoitda mahalliy ziyolilar zamonaviy milliy ta'lim tizimini yaratish, dunyoviy bilimlardan dars bera oladigan o'qituvchilar tayyorlash zaruriyatidan kelib chiqib, aynan shu maqsadda yurtda milliy universitetni tashkil etish ishiga kirishdi. Bu bilim dargohini tashkil etish uchun Munavvarqori Abdurashidxonov boshchiligida guruh tuzildi. 1918-yil 9-aprelda esa Munavvarqori hovlisida bu ilm dargohini 9 kishidan iborat tashkiliy hay'ati ta'sis etilib, bilim dargohi 1918-yilning 12-mayida Toshkentning eski shaharida tantanali ochildi. Uning 13 ta maktabi 14 may kuni, eng oxirgisi esa 17-iyunda tarkib topdi. Ulardan 4 tasi ayollar maktabi edi.

1918-yilning 31-mayida esa bu bilim dargohining oliy ta'lim beradigan – Musulmon Dorilmuallimini ham tashkil etildi. Lekin sovetlar siyosiy va ijtimoiy muhitning murakkabligi, Rossiyadagi siyosiy voqealarni ro'kach qilib, 5 yillik o'qishga mo'ljallangan dorilmuallimini faqat 4 oylik musulmon o'qituvchilari kurslari bilan chegaralab qo'ydi. O'quv dargohida mashg'ulotlar 1918-yilning 1-iyunida boshlanib, Abdurauf Fitrat, Ibrohim Ismoil, Burhon Habib, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Rahimboyev, Abdurahmon Ismoilzoda, Haydar Shavqiy, Anna Poroykova, Vladimir Sergeyevlar bu ilm dargohi o'qituvchilari edi. Institut mudiri qilib Ibrohim Ismoilov va kotib Abdulla Rahimboyev tayinlandi.

Turkistonda birinchi bo'lib ochilgan bu bilim dargohi Musulmon xalq dorilfununi, deb nom oldi. Biroq, dorilfununning moddiy ta'minoti uncha yetarli emas, milliy ziyolilar musulmon o'qituvchilari tayyorlaydigan kurslar o'rniga oliy ta'lim beradigan institut tashkil etishga harakat qildi. Ammo ularning talablari e'tiborga olinmadi. Buning ustiga dorilmualliminda 1918-yil 15-avgustdan 1-sentabrgacha o'qishlar to'xtatib qo'yildi va shu yilning kuzida dorilmuallimin yopildi.

Musulmon Xalq Dorilfununi qisqa faoliyat ko'rsatgan bo'lsa-da, Turkiston musulmonlarining savodini chiqarish, ilm-ma'rifatli qilish, oliy malakali milliy ziyolilar yetishtirish kabi ijobiy va himmatli, o'sha davr uchun nihoyatda muhim ishlarni amalga oshirishga, yurtida maorif sohasini rivojlantirishga erishdi.

Shuni ham aytib o'tish joizki, 1918-yilning 21-aprelida rus ziyolilari tomonidan Toshkentda Turkiston xalq universiteti ham ochilgan edi. Uning birinchi rektori V.Popov bo'ldi. Musulmon Xalq Dorilfununi faoliyati sho'ro hukumati tomonidan to'xtatilgach, faqat rus tilini bilgan mahalliy millat vakillari mana shu dargohda oliy tahsil olishlari mumkin bo'lib qoldi.

1920-yil 7-sentabrda RSFSR Xalq Komissarlari sovetining rusiyzabon millatlar ehtiyojlari uchun Toshkentda "Turkiston Davlat universitetini tashkil qilish to'g'risida"gi dekretiga asosan Turkiston Davlat universiteti tashkil etildi. 1920-yilda universitetga o'qishga qabul qilingan 2671 talabadan bor-yo'g'i 7 nafari o'zbek millati farzandlari edi. Sovet hukumatining mahalliy millat yoshlariga oliy ta'lim berishni istamayotganligini ko'rgan bir qator jadid yetakchilari, o'sha davrning fidoiy rahbarlari xalqning ilmga chanqoq o'g'il-qizlarini Germaniya, Turkiya singari rivojlangan mamlakatlarga o'qishga yuborishga kirishdi. 1920–1922-yillarda O'zbekistondan 300 ga yaqin yoshlar chet elga o'qishga yuborildi. 1927-yilgacha xorijda o'qiyotgan barcha yoshlar sovet hukumati tomonidan chaqirib olindi va ularning deyarli barchasi yo'q qilindi. Ularga "imperialistik mamlakatlarning ayg'oqchilari" degan ayb qo'yilgan edi.

Milliy ziyolilar XX asr boshlaridayoq o'z harakat dasturlarida: "Yurtimizda ayollar erkaklar bilan teng huquqli bo'lishi lozim", degan masalani qo'ygan edi. Masalan, 1917-yilda "Sho'roi Islomiya" tashkiloti ham o'z dasturida ayollarga saylovlarda qatnashish huquqini berdi. Jadid rahbarlar: M.Behbudiy, A.Fitrat, F.Xo'jayev, A.Cho'lpon, A.Avloniylar ham bu masalaga ijobiy yondashgan edilar.

20-yillarda respublika, viloyat, tuman va quyi tashkilotlarda tuzilgan xotin-qizlar bo'limlari bu sohada bir oz to'g'ri ishlarni ham amalga oshira boshlagan edi. Ma'lum miqdorda ijobiy natija va yutuqlarga erishildi. Ammo bu holat mustabid tuzumni qoniqtirmasdi. Jarayonlarni sun'iy ravishda tezlashtirish choralari ko'rib, 1926-yilda O'rta Osiyo miqyosida xotin-qizlar bo'limlari ishtirokida katta kengash o'tkazildi va unda ayollar masalasidagi harakatni jadallashtirish, uni majburiy o'tkazish vazifasi yuklandi. Ayollarni ozodlikka chiqarishning eng muhim vositasi ularning paranjisiga qarshi kurash, deb topildi. O'sha paytda bu tadbirni ko'p sonli ayollar quvonch bilan qo'llab-quvvatladi. 1927-yil 8-mart kuni O'zbekistonda minglab xotin-qizlar o'zlarining paranjilarini tashladi va yoqdi.

Sovetlarning Sharq ayollarini "ozod" qilish, ularning siyosiy faolligini oshirish hamda yangi hayot qurilishiga jalb etish borasidagi "Hujum" kompaniyasi shu tariqa boshlab yuborildi. Bu harakatning yana bir maqsadi ko'p xotinlilik, balog'atga yetmagan qizlarni turmushga berish va qalin pulini yo'q qilish edi. Biroq, sovetlar o'zlari shiddatli tus bergan ushbu "Hujum"

harakatini asriy an'analarni hisobga olmagan qarorlar, ko'rsatmalar asosida olib bordi, ko'p hollarda zo'rlik ishlatildi. Qaysi viloyat, qaysi tumanda, shahar va qishloqlarda qancha xotin-qizlar paranjisini tashlaganligi haqidagi ma'lumotlar muntazam talab qilina bordi.

Bu harakatda beboshlik boshlanib, ko'chalarda ayollarning paranjisini tortib olishar, bir joyga yig'ib yoqib yuborishardi. Ayollar asosan to'qimachilik sanoatiga jalb etilib, ish bilan ta'minlanib, ular ijtimoiy hamda ijodiy ishlarga ham jalb qilindi.

Sovetlar tashkil etgan bu kompaniya eski turmush tarziga hujum qilish edi. Bu harakat 1927-yilda o'zining eng yuqori cho'qqisiga ko'tarildi va tarixda "Hujum harakati" nomi bilan qoldi. Paranj tashlashda ixtiyoriylik va ehtiyotkorlik, milliy urf-odatlarni hurmat qilish o'rniga zo'ravonlik, majburlash, qo'rqitish, jazolash usullari ham ustuvorlik qildi. Hatto, bu nozik masalada musobaqalar tashkil qilindi. Sud organlariga ayollarning ajralish haqidagi arizalari tusha boshladi. 1927-yilning bahoriga kelib 100 ming ayol paraji tashladi, 5 ming ayol savodsizlikni tugatish kurslariga jalb etildi. 5202 ayol viloyat, shahar, tuman sudlariga maslahatchi qilib saylandi. Ammo sovetlarning bu masalada amalga oshirgan zo'ravonlik, shoshma-shosharlik siyosati minglab ayollarning begunoh qurbon bo'lishlariga olib keldi. Rasmiy hujjatlarga ko'ra "Hujum" kompaniyasi yillarida (1927-1928) O'zbekistonning 2,5 mingdan ortiq faol xotin-qizlari, qishloq, tuman kengashlari a'zolari, xotin-qizlar klublari va kutubxonalar mudirlari o'ldirilgan. Birgina 1928-yilda ayollarga qarshi noqonuniy ish tutgan 671 kishi qamoqqa olinib, har xil muddatga hukm qilingan, 7 kishi otilgan. Sovet hukumati paraji tashlagan ayollarga nisbatan qilingan jinoyatlarni ko'proq ruhoniylardan ko'rdi. Bu esa bolsheviklar bilan dindorlar o'rtasidagi kurashni avj oldirdi.

Shiddat bilan ayollarni ozodlikka chiqarish, ularni mavqeyini ko'tarish va erkaklar bilan teng huquqli qilish shiori ostida o'tkazilgan bu harakat o'lkada ko'p to'qnashuv, qurbonlarga olib keldi. Masalan, 1928-yil 8-martda O'zbek davlat konsert-etnografiya guruhi ishtirokchisi To'paxon sahnaning o'zida o'ldirildi, bir yildan so'ng esa Nurxon ismli aktrisa halok bo'ldi.

Shubhasiz, "Hujum" Sharq ayollariga birmuncha erkinliklar, huquqlar berdi. Lekin ushbu harakat bosqichma-bosqich, zo'ravonlik usullarini ishlatmasdan, o'ta noziklik bilan keng xalq omma ongini ushbu jarayonga tayyorlab amalga oshirilganda, 20-yillar 2-yarmida norasmiy nikohlar, ajralishlar, yolg'iz onalar, demografik jihatdan ayollarning erkaklarga nisbatan ko'pligi sababli jamiyatda oila qurish huquqidan mahrum bo'lgan "ortiqcha" ayollar ko'payib ketmas edi.

Hukmron partiya xalqning milliy, madaniy-ma'naviy merosini inkor etish siyosatini ham amalga oshirishga kirishdi. Ular mahalliy xalqni dinidan, madaniyatidan, o'ziga xos huquqidan ajratib, yangicha sovet qolipiga majburan solishni maqsad qildi. VIII asrdan boshlab nafaqat diniy kitoblar, balki fanning barcha sohalarida o'n uch asr mobaynida yaratilgan yozma madaniyat yodgorliklari, o'lka aholisi amal qilib kelgan huquq manbalari arab yozuvida yaratilgan edi.

Sovetlar O'zbekiston kommunistlarining III qurultoyi (1927-yil noyabr)da qabul qilingan qaror asosida arab yozuvining mavqeni pasaytirishga harakat qilib, 1929-yilda arab yozuvini lotin grafikasiga, 1940-yilda esa lotin grafikasini kirill grafikasi bilan almashtirdi. Bu holatlar O'zbekiston aholisi bilim darajasining o'sishiga, o'zbek tilining rivojiga salbiy ta'sir etdi, savodsizlar sonining sun'iy o'sishiga olib keldi.

Sovet hokimiyati 1920-yil 17-sentabrida TASSR Maorif xalq komissarligining aholi orasida savodsizlikni tugatish to'g'risidagi dekreti o'zlariga xos savodli kishilarni shakllantirish maqsadida "savodsizlikni tugatish" kampaniyasini avj oldirdi. Dekret asosida, 8 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan barcha fuqarolar o'qish va yozishni o'rganishlari shart qilib qo'yildi. TASSR Maorif xalq komissarligi huzurida esa savodsizlikni tugatish bilan shug'ullanuvchi favqulodda komissiya ta'sis etildi. "Savodsizlikni tugatish" (likbez) maktab va kurslari tarmog'ini yaratish borasida bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, 1920-yilning oxiriga kelib, "likbez"larning soni bir mingdan oshib ketdi. Ularni bitirganlar esa 70 mingta edi. Ushbu maktablar uchun o'qituvchilar tayyorlashga katta e'tibor qaratilib, qisqa muddatda mahalliy millatga mansub 2000 ta o'qituvchi tayyorlandi.

Sovetlar savodsizlikni tugatish borasida qilayotgan ishlarini ko'klarga ko'tarib 1924-yilda "Bitsin savodsizlik" nomli jamiyat ham tuzdiki, bu jamiyat dastlab 35 ta maktab ochib, 10200 kishini savodini chiqardi. Jamiyat faoliyati bilan 1937-yilda respublikada savodsizlik tugatildi, deb e'lon qilindi. O'sha paytda ham kam savodli kishilar 2 mln dan ziyod bo'lib, sovetlar idrokidagi umumiy savodxonlik bor-yo'g'i 67,8 % ga yetgan edi.

2. ADABIYOT, SAN'AT VA FAN. MAFKURAVIY TAZYIQLAR

Sovetlar o'lka xalqlari ongida itoatkorlik, qulchilik mafkurasini qaror top-tirish maqsadida adabiyotni sinfiylik, partiyaviylik va sotsialistik realizm, deb atalmish qolip asosida rivojlanishga majbur etdi. Adabiyotda ana shunday dastur asosida ishlashni yo'lga qo'yish uchun 1928-yilda "Qizil qalam" jamiyati

ta'sis etildi. Bu jamiyat o'z atrofiga sovetlar tomonida bo'lgan ijodkorlarni jalb etdi. 1930-yilda "Qizil qalam" jamiyati tugatilib, o'rniga "O'zbekiston Proletar yozuvchilari uyushmasi" tashkil etildi. Bu davrdagi yurtparvar, millatparvar yozuvchilar, jadidchi ijodkorlar milliy istiqlol manfaatlariga xizmat qilish, millatning dunyoqarashi, siyosiy madaniyati, ongini shakllantirish uchun kurashni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ydi va shu yo'lda mardonavor faoliyat ko'rsatishdi. Milliy ziyolilar o'z asarlari va tuzgan guruhlarida xalq dili, ruhiyati va intilishlarini ifoda etar edi. Ayrim tuzilgan guruhlar hatto milliy birlik va mustaqillik g'oyasi borasida ham faoliyat yuritardi. Aynan shunday guruh "Chig'atoy gurungi" bo'lib, 1919-yili Fitrat tomonidan tuzilgan edi.

20-yillarda xalq orasidan ko'pgina zabardast ijodkor siymolar yetishib chiqib, ular mustabid tuzumning madaniy-ma'naviy qaramligi siyosatiga qarshi va mahalliy xalq savodxonligini milliy xususiyatlar, qadriyatlar asosida oshirish borasida ish olib bordi.

Ulardan biri – buyuk san'atkor, adib, siyosiy arbob **Abdurauf Fitrat** (1886–1938) edi. Fitrat Buxoro xalq respublikasida mas'ul vazifalarni ado etib, sovet hukumati belgilagan yo'ldan emas, o'z yo'lidan borishga harakat qildi. Bu esa, Moskvaga ma'qul kelmadi va uni tuhmatlar bilan barcha lavozimlaridan ozod etishdi. "Turkning nomusi, e'tibori, imoni, vijdoni zolimlarning oyoqlari ostida qoldi. Turkning yurti ulog'i, o'chog'i, Turoni yot qo'llarga tushdi", deb yozgan edi shoir.

Fitrat matbuot bilan birga, butun umr maorif sohasida ham jonbozlik ko'rsatdi. Hatto Turkiyada o'qib yurgan kezlari yurtdoshlarining o'qishiga ko'mak berish maqsadida "Buxoro ta'limi maorif jamiyati"ni tashkil etishda tashabbus ko'rsatdi. 1921-yilning bahoridan Buxoroda maorif ishlarini tashkil etish hay'atiga rahbarlik qildi. Uning tashabbusi va tashkilotchiligi bilan Buxoro respublikasida turkiy til davlat tili, deb e'lon qilindi.

20–30-yillar zabardast siymosi **Abdulla Qodiriy** (1894–1938) o'zining noyob iste'dodi, jasorati bilan milliy adabiyot rivojida tub burilish yasadi. "O'tgan kunlar", "Mehrobdan chayon" roman qahramonlari qismati ifodasi orqali jamiyat hayoti, axloqini, rus bosqini arafasidagi xalqning ahvoli, kayfiyatini teran tadqiq qildi. Buyuk tarixga, qudratli davlatchilik, madaniy, ma'naviy an'analarga ega Turkiston o'lkasining tanazzulga yuz tutish, rus imperiyasining mustamlakasiga aylanish sabablarini ochib berdi. Shu bois ham uning asarlarini o'qish taqiqlandi. Romanlari va hikoyalarida haqiqatni yozganligi uchun qatag'on qurboniga aylandi.

O'zbek xalqining milliy ongini uyg'otishga, uning yangicha ma'naviyatini shakllantirishga hissa qo'shgan iste'dod egasi **Cho'lpon** (1897–1938) 20-yil-

larda bolsheviklar olib borgan siyosatga nisbatan muxolifatga o'tgani va bu qarashlarini yashirmay she'rlarida oshkora kuylagani tufayli, sovet hokimiyati tomonidan, uni millatchiga chiqarib qo'yishdi. Qo'yilgan aybnomalarni isbotlash uchun asosiy dalil sifatida "Buzilgan o'lkaga" she'rini keltirdilar. Chindan ham bu she'rda sovet voqeligini madh etish yo'q. Bu tom ma'noda vatanparvarlik tuyg'usi bilan sug'orilgan she'r. She'rda ulug' o'lka boshiga tushgan fojealar, haqsizliklarga, adolatsizlikka qarshi, ona yurtning erki va ozodligi uchun kurashga undovchi misralar bor.

Cho'lpon o'zining "Kecha va kunduz" romanida Turkistonning zulmga, jaholatga, adolatsizlik va haqsizlikka to'la hayotini ochib bergan edi.

Sovetlar tuzumi davrida O'zbekistonda milliy san'at ham o'ziga xos yo'nalishda rivojlanib bordi. 1918-yilda Hamza Farg'onada "O'lka Sayyor" siyosiy guruhini tashkil etdi. M.Qori-Yoqubov, Y.Egamberdiyev, H.Islomov, M.Kuznetsovalar shu teatr qaldirg'ochlari bo'ldi. O'sha yili Mannon Uyg'ur Toshkentda "Turon" jamiyati qoshida teatr tuzdi. Bu guruh keyinchalik O'lka Davlat namuna teatriga aylandi. Shu yillarda M.Qori-Yoqubov tomonidan birinchi bo'lib o'zbek xalq musiqa ansambli tashkil etildi. 1926-yilda esa yuzaga kelgan birinchi O'zbek Davlat konsert-etnografik ansambliga atoqli o'zbek xonanda, aktyor, sozandalari jalb etilib, 1929-yilda uning negizida Samarqandda O'zbek Davlat musiqali teatri tashkil topdi.

1936-yilda respublika san'ati hayotida O'zbek davlat filarmoniyasining tashkil etilishi bilan ijrochilik san'atining ma'lum darajada tizimlanishiga asos solindi.

Sovetlar o'lkada fan rivojiga e'tibor qaratmasalar-da, 20 – 30-yillarda O'zbekistonda bir qator ilmiy muassasalar tashkil topdi. Turkiston Xalq universiteti qoshida bir qancha ilmiy-tadqiqot institutlari faoliyat ko'rsata boshladi. Dastlab, tuproqshunoslik va geobotanika, biologiya, zoologiya, pedagogika va psixologiya, fizika-matematika, ekologiya ilmiy-tadqiqot institutlari ishlab turgan bo'lsa, 20-yillar oxiri 30-yillar boshida Tropik tibbiyot instituti, Tibbiy parazitologiya va gelmintologiya ilmiy-tadqiqot instituti, suv xo'jaligi tajriba-tadqiqot instituti va boshqa ilmiy muassasalar tashkil qilindi.

30-yillarda respublika hamda mintaqada ilm-fan ravnaqiga munosib hissa qo'shgan T.Qori-Niyoziy, T.Sarimsoqov, S.Sirojiddinov, O.Sodiqov, N.Dolimov, T.Zohidov, U.Oripov, S.Umarov kabi olimlar yetishib chiqdi.

Ilmiy-tadqiqot muassasalari tarmog'i va ilmiy kadrlar sonining jadal o'sishi, olimlar oldiga yangi vazifalarning qo'yilishi, ilmiy-tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish va ularni muvofiqlashtirib turish ishlarini takomillashtirishni taqozo qildi. 1932-yilda Fan qo'mitasi ta'sis etilib, 1940-yilda uning negizida

SSSR Fanlar Akademiyasining O'zbekiston filiali tashkil etildi. Bu filial (O'zFAN) respublikaning ilmiy-tadqiqot markaziga aylandi. Uning tarkibiga geologiya, botanika, kimyo, suv xo'jaligi muammolari, tarix, til va adabiyot institutlari, tuproqshunoslik, zoologiya, fizika va matematika sektorlari, Toshkent astronomiya observatoriyasi; iqtisodiy tadqiqotlar va kartografiya byurosi kiritildi.

1943-yilda O'zFAN asosida O'zbekiston Fanlar akademiyasi (O'zFA) tashkil etilib, uning birinchi prezidentligiga o'zbek matematika atamashunosligi asoschisi, zamonaviy o'zbek matematik tafakkurining shakllanishi va rivojiga bebaho hissa qo'shgan. "Asosiy matematik analiz kursi" nomli asari bilan Beruniy mukofotiga sazovor bo'lgan, O'zbekiston xalqlarining madaniy hayoti tarixiga oid ilmiy ishlar, o'zbek matematika va astronomiya ilmlari tarixi, xususan, Ulug'bekning astronomiya maktabiga oid asarlar yozgan olim, akademik Toshmuhammad Niyozovich Qori Niyoziy saylandi.

Shu tariqa sovetlar adabiyot, san'at, fan rivojida o'z manfaatlarini o'ylagan bo'lsalar-da, bu yo'nalishdagi ishlar ular xohlamagan holda yurt rivojiga qisman bo'lsa-da xizmat qila boshlayotgan edi.

3. 20–30-YILLARDA MUSTABID SOVET TUZUMINING O'ZBEKISTONDAGI QATAG'ONCHILIK SIYOSATI VA UNING ASORATLI OQIBATLARI

Sovetlar davrida hukmron partiya va hukumat tomonidan respublikalardagi barcha ishlar mustamlakachilikka xos tarzda amalga oshirilgan bo'lsa-da, o'tkazilgan tadbirlarning ayrimlari ularning o'zlari kutmagan holda respublikalar, shu jumladan O'zbekiston uchun ham qisman o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Ammo ularning qatag'onlik siyosati, bu siyosat tufayli respublikada amalga oshirgan xunrezliklarini hech qachon oqlab bo'lmaydi.

Sovet tuzumining bunday fojeali siyosati qay tarzda boshlandi va undan kutilgan maqsad nima edi?

O'tgan asrning 20-yillari oxirida sobiq ittifoq, jumladan, respublikada yangi jamiyatga xos xususiyatlar oshkora namoyon bo'lib, ko'proq ommani g'oyaviy jihatdan bo'sundirishga xizmat qiladigan yo'llardan foydalanish boshlandi. Iqtisodiyot, siyosat, madaniyat partiya va davlat nomenklaturasi iskanjasiga tushib qoldi. Hukmron partiyaning tor doirada qabul qilgan qarorlari butun mamlakat uchun majburiy edi. Qisman e'lon qilingan demokratik jarayonlar, ijodiy bahs-munozaralar, kelishuv yo'llarini qidirishlar amalda to'xtatilgan edi. Hukmron partiya organlarisiz bironta qaror ham qabul qilish

mumkin bo'lmay qoldi. Aynan mana shunday holatlar sobiq ittifoq boshqaruvida ma'muriy buyruqbozlik tizimining paydo bo'lganligini anglatar edi.

Aynan shu yillardan boshlab mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayoti hukmron partiya tazyiqi ostida amalga oshirila boshlandi. Ommaga partiya ta'sirini kuchaytirish maqsadida korxonalarda partiya tashkilotlari va sex bo'g'inlari, birlashmalarda partiya guruhleri, kolxozlarda boshlang'ich partiya tashkilotlari tuzildi. Insonlarning butun hayoti, ularning o'y-fikrlari asta-sekin hamma narsani unutishga majbur qiladigan yangi jamiyat qurish g'oyasini amalga oshirishga qaratildi.

Bu yillarda mustabid tuzumga qarshi fikr bildirgan shaxslar ta'qib qilinayotgan edi. O'lkadagi hukmron bolsheviklar "18 lar guruhi", "inog'omovchilik", "qosimovchilik" kabi siyosiy ishlarni to'qib chiqardilar. 1925-yil 19-noyabrda Samarqandda bo'lib o'tgan O'zbekiston KP(b) MQning plenumi to'rt kun davomida respublikada yuqori mas'uliyatli lavozimlarni egallab turgan 18 shaxsning o'z lavozimlaridan ketishi haqidagi arizalarini muhokama qiladi. Ular xususiy mulkni yo'qotish o'rniga o'tkazilgan yer-suv islohoti usullariga rahbarlarni tanlashning sinfiy nuqtayi nazaridan amalga oshirilayotganligiga qarshi norozilik bildirib ariza bergan edi. Ular orasida I.Xidiraliyev, M.Saidjonov, R.Rafiqov kabi rahbarlar bor edi.

"18 lar bayonoti" O'z KP(b) MQ II qurultoyida ham yana muhokama etilib, bu bayonot O'zKP(b) MQga qarshi yo'naltirilgan fraksiya va guruhbozlik, partiya saflarini buzishga qaratilgan ariza deb baholandi. Shundan so'ng "18 lar bayonoti" hamma joylarda keng muhokamaga qo'yilib, bu bayonot yangi hayotga qarshi bo'lgan va mayda burjuaziyaga yon beruvchi bayonot, deb soxtalashtirildi.

"18 lar guruhi" ning 8 a'zosi RKP(b) MQ O'rta Osiyo byurosi (Sredazbyuro) yig'ilishida tazyiq ostida o'z "xato"larini tan olib, imzolaridan voz kechgan edi.

Partiyaning II qurultoyidan keyin bo'lib o'tgan plenum partiya oldida o'z "aybi"ga iqror bo'lmaganlarni egallab turgan lavozimlaridan chetlashtirishga qaror qildi. Xususan, R.Rafiqov ichki ishlar xalq komissarligidan, M.Saidjanov Zarafshon viloyat ijroiya qo'mitasi kotibligidan, I.Xidiraliyev O'zbekiston yer ishlari xalq komissari vazifasidan ozod etiladilar.

Yer-suv islohotini o'tkazish davrida "18 lar guruhi" ushbu jarayon va MQga qarshi faoliyat yuritishda ayblanishgan bo'lsa, oradan ikki yil o'tgach esa, O'rta Osiyo byurosining plenumida (1927-yil oktabr) ularga yer-suv islohoti hamda ayollarning ozodlikka chiqishiga qarshi bo'lgan, savdogar va hunarmandlardan olinadigan soliqlarni kamaytirish, davlat apparatini milliy-lashtirish tarafdori bo'lgan, degan soxta aybnomalar bilan birga boy va quloqlarning manfaatini himoya qilgan, degan soxta ayb ham qo'yildi.

1929-yilda hukmron partiya o'z saflarida "tozalash" jarayonini o'tkazdi, bu jarayon tufayli minglab sodiq kommunistlar aybsiz jazoga tortildi. 1926 – 1931-yillarda milliy rahbar va ziyolilarni qatag'on qilish uchun "Inog'omovchilik" degan uydirmani ham o'ylab topishdi. Bu uydirma o'sha davrda O'zSSR Maorif Xalq Komissari lavozimida ishlayotgan Rahim Inog'omov (1902 – 1938) nomi bilan bog'landi. R.Inog'omov va uning tarafdorlari xalq ta'limi va madaniyatini proletarlashtirishga qarshi chiqib, VKP(b) MQ O'rta Osiyo byurosi faoliyatini tugatish talabini ko'tarib chiqdilar.

Maxsus uyushtirilgan viloyat plenumlarida "Inog'omovchilik" qoralanib, u bilan ayovsiz kurash olib borishga da'vat etiladi. Hatto "Inog'omovchilik"ni partiya saflaridagi burjuaziya agenturasi deb baholashadi.

Rahim Inog'omovga shu kabi asossiz "aybnomalar" qo'yilgandan so'ng, uni Qashqadaryo viloyatining eng chekka qishloqlarining biriga ishga yuborishadi. Quvg'in va ta'qiblar ta'sirida u matbuot orqali tavba-tazarru mazmunidagi "ochiq xat"i bilan chiqadi.

"Inog'omovchilik" haqida 1918-yilda "Turkiston muxtoriyati"ga rahbarlik qilgan va keyin xorijga ketishga majbur bo'lgan Mustafo Cho'qayev "R.Inog'omov boshliq guruh o'zbeklarga o'z-o'zini boshqarish huquqini berish, Turkiston ustidan O'rta Osiyo byurosi nazoratini bekor qilinishini talab qilgan", deb haqqoniy baho bergan edi. Oxir-oqibatda R.Inog'omov qatag'on etildi.

Shuningdek, 1929-1930-yillarda milliy an'anaviy sud va huquq sohasidagi qadriyatlarni saqlab qolishga harakat qilgan huquqshunos mutaxassis vatanparvarlarni o'z siyosatlariga bo'ysundirish yo'lida "Qosimovchilik" degan uydirmani ham o'ylab topishdi. 1929-yilda O'zSSR Oliy sudining raisi Sa'dulla Qosimovning (qosimovchilik) ishini ko'rib chiqish boshlandi.

S.Qosimov, B.Sharipov, sudyalari M.Mirzokirov, I.Xo'jayev, sud idorasi xodimi Spiridonov ustidan 1930-yilning martidan boshlangan sud jarayoni natijalari oldindan tayyorlangan yolg'onga aylantirilgan edi. Davlat va jamoat ayblovchilari S.Qosimov va maslakdoshlarining haqiqiy jinoiy ishlarini isbot qila olmadilar. Biroq, ularning Munavvarqori Abdurashidxonov tomonidan tashkil etilgan "Turk odami markaziyati" partiyasi bilan aloqalari, S.Qosimovning Sulton Segizboyev va advokat Ubaydulla Xo'jayev (AsadullaXo'jayev), Yaponiyadagi Turkiston milliy qo'mitasining muxtor vakili (aslida bunday qo'mita bo'lmagan) Hasanxon Qori-Karimov bilan do'stona munosabatda bo'lganligi va boshqalar bir necha marotaba esga olindi.

S.Qosimov va uning tarafdorlari "bosmachi"larni qo'llab-quvvatlash, islom dinini himoya qilish bilan birgalikda yana "aksilinqilobchi millatchi tash-

kilotlar” bilan aloqa bog‘laganlikda ham ayblandilar. Haqiqatda, S.Qosimov va B.Sharipovlar o‘z xizmat vazifalarini bajarish jarayonida tub millat manfaatlarini imkoniyat doirasida himoya qilgan edilar. Shu bois ham S.Qosimov tergov va sud jarayonida SSSR Oliy sudi tomonidan O‘zbekistonning suverenlik huquqi va milliy manfaatlari poymol qilinayotganligini ochib tashlashdan cho‘chimadi.

Davlat ayblovchisi Katanyan o‘zining nutqida: “Spiridonov rus chorizmi tarafdori bo‘lsa, Qosimov turk chorizmi uchun kurashgan, Alimov bosmachilarning do‘sti, xususiy mulkchilik himoyachisidir. Shuning uchun ular eng oliy jazo – otuvga loyiqdirlar”, degan edi.

1930-yilning 22-iyunida hukm e‘lon qilinadi. Ularning hammasi yot sinf manfaatlarini himoya qilganliklarida, Sharipov esa bosmachilarga faol yordam berganlikda ayblanadi. Qosimov va uning 3 tarafdori otib tashlanadi. 20-yillar ikkinchi yarmi, 30-yillar boshlarida bo‘layotgan bu jarayonlarning asl mohiyati ko‘zga ko‘ringan mahalliy arboblarni tugatishga qaratilgan edi.

1932-yili O‘zbekiston SSR Oliy sudi prokurori Shamsutdin Badriddinov nomi bilan bog‘liq “Badriddinovchilik” ishi ham qo‘zg‘atildi. Sh.Badriddinovni “Milliy ittihad” tashkiloti (Munavvarqori Abdurashidxonov tuzgan, 1929-yilda tashkilot a‘zolari qatag‘on qilingan) va bosmachilar bilan aloqa bog‘laganlikda aybladilar. U va uning 5 tarafdori ustidan sud jarayoni 1932-yil 5-may – 15-iyunda Toshkentda bo‘lib o‘tadi. Ana shu sudda fosh etuvchi nutq bilan so‘zga chiqqan Olimov ismli guvoh vatanparvar ijodkor Cho‘lpon nomini ham g‘ayrli niyatda tilga oladi va bu uning 1937-yilda qamoqqa olinishga sabab bo‘ladi. Cho‘lpon o‘z oldiga “sovet hokimiyatini qurol bilan ag‘darib tashlash va O‘zbekiston muzofotida burjua davlatini barpo etish maqsadini qo‘ygan, aksilinqilobiy millatchilik ruhidagi she‘rlarni yozgan, xorijiy razvedka organlarining ayg‘oqchilari Shohid Eson Musayev, Fitrat va G‘ozi Olim Yunusov bilan doimiy aloqada bo‘lgan”, degan soxta aybnomalar asosida sovetlarning jazo organlari tomonidan 1938-yil 4-oktabrda qatl etiladi.

Yuqorida ta’kidlaganidek, 20-yillar oxirida qishloq xo‘jaligini zudlik bilan kollektivlashtirishga kirishildi. Sanoat va savdoda davlat sektori tobora qattiq monopolist, ya’ni yakka hokim bo‘lib bordi. O‘zbekistonda ham sanoatda umumiy lashtirish jarayoni boshlandi. Mayda sanoatdagi xususiy sektorning ulushi to‘xtovsiz qisqaraverdi va 20-yillarning oxiriga kelib deyarli barham topdi.

Boshqaruvning ma‘muriy buyruqbozlik tizimini ta‘minlashda iqtisodiyotni rivojlantirishning rejalar asosidagi usullari muhim rolni o‘ynay boshladi. Ular iqtisodiyotga rahbarlik qilishni davlat tomonidan ishlab chiqiladigan xalq xo‘jaligi rejaları asosida mumkin qadar ko‘proq markazlashtirishni

mustahkamlab berdi. Bu holatlar, ayniqsa, mamlakatda besh yilliklar rejalariga o‘tilishi sovet hokimiyatining dastlabki yillarida joriy etilgan NEP siyosatining 20-yillar oxiriga kelib barham topishiga olib keldi.

30-yillarda mamlakatda amalga oshirilayotgan barcha ishlar, yutuqlar, muvaffaqiyatlar bir kishi (Stalin)ning nomi bilan bog‘lanib qoldi. Bu nomni yanada ulug‘lashda “soxta shiorlar”, “soxta tashabbuskorliklar”, “soxta qahramonliklar” ham muhim rol o‘ynadi. Buyuk orzu-niyatlar bilan “yangi jamiyat” qurmoqchi bo‘lgan oddiy xalq esa mamlakatda bo‘layotgan siyosiy jarayonlar mohiyatini anglab yeta olmas edi. Chunki yuqorida aytilgan bir kishi yasagan siyosiy apparat, uning g‘oyaviy yo‘nalishi, barcha qilinayotgan ishlar oddiy xalq uchun, mehnatkashlar manfaati uchun qilinayotgandek tasavvur hosil qilar edi. Hatto, odamlar u kishisiz o‘z hayotlarini tasavvur qilolmaslik darajasiga ham tushib qolgan edi.

Ana shu tariqa boshqarishning ma‘muriy-buyruqbozlik uslubi, yakka hukmronlik jamiyatda o‘zboshimchalik va g‘ayriqonuniylikka asoslangan “Shaxsga sig‘inish”ni paydo qildi. 20 – 30-yillarda respublika hayoti markazning qattiq nazorati ostida o‘tar edi. Partiyaning yo‘l-yo‘riqlaridan bir oz bo‘lsa-da chetga chiqish siyosiy, aksilinqilobiy harakat deb baholanardi. Mamlakatda boshlangan qatag‘onchilik siyosatining bosh maqsadi – zo‘raki o‘rnatilgan tuzumga qarshi bo‘lganlardan o‘ch olish, Stalin siyosatidan norozi bo‘lganlar va undan aql-bilim jihatdan ustun turganlarni yo‘q qilish hamda yangicha ko‘rinishda davom etayotgan mustamlakachilik siyosatini mustahkamlashdan iborat edi.

1930-yilning fevralidan boshlab O‘zbekiston qishloq xo‘jaligidagi “Quloq” xo‘jaliklarini tugatish kompaniyasi boshlandi. Bu kompaniya, xuddi boshqa respublikalardagidek, qonunlar va inson huquqlarini qo‘pol ravishda buzish hollari bilan birgalikda davom etib bordi. Birgina Mirzacho‘l tumani (Toshkent okrugi)ning o‘zida 75 ta ana shunday xo‘jalik tugatildi. 1930–1933-yillarda respublikada tugatilgan bunday xo‘jaliklar soni 5,5 mingga yetdi. O‘zbekistondan 3871 quloq oilasi asosan Ukraina va Sibirga surgun qilindi. Bu jazolangan va ko‘chirilganlarga “Quloq” degan ayb qo‘yildi.

1934-yildan sovet hokimiyatining ommaviy qatag‘onchiligi boshlandi. 1934-yildan 1938-yilgacha O‘zbekistonda 40 mingdan ziyod kishi jazoga tortilgan edi. O‘zbekiston NKVDsining ichki qamoqxonasi va boshqa joylardagi qamoqxonalarda mahbuslar shafqatsiz jismoniy jazolarga mahkum etilardi. Eng mardonavor kishilar ham ahvolning ilojsizligini ko‘rib va o‘z yaqinlarining taqdirlaridan xavotir olib, qilmagan jinoyatlarini tan olishga majbur bo‘lar edilar. O‘z xalqini o‘ylagani, kuylagani, ularning tashvishi, hasrati va

muammolari uchun kurashgani sabab bir necha o'n minglab yurtparvarlar qatag'on qurboni bo'ldi. Ularning hammasiga xalq ongini chalg'itish uchun "xalq dushmani" degan ayb qo'yildi.

1937-yil dekabr – 1938-yil yanvarida O'zSSR XKS va O'zKP (b) MQning "O'zSSR Xalq Maorifi Komissarligi tizimida ziyonchilik oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori asosida maktablar, pedagogik bilim yurtlari va institutlarida o'qituvchi kadrlar va talabalarni "tozalash" ishlari boshlanib ketdi.

Xalq ta'limi tizimidagi maorifparvar ziyolilarga qarshi qo'yilgan aybda "Xalq dushmanlari, chet el josuslari" – A.Ikromov, F.Xo'jayev va boshqalar o'zlarining Maorif komissarligidagi "odamlari" – Usmonov, Ro'ziyev, Sorokin, Kojuxovlar orqali xalq maorifiga katta ziyon yetkizishgan... "Ular turli choralar bilan o'zbek xalqini sotsialistik madaniyatning ilg'or vakili – buyuk rus xalqidan ajratmoqchi bo'ldilar, yoshlarni millatchilik bilan zaharlashga harakat qildilar. Ular bir tomondan, o'zbek maktablarida Lenin va Stalin asarlarini o'rganishga imkon beruvchi rus tili o'qitilishiga qarshilik ko'rsatib, ikkinchi tomondan "marksizm-leninizm" ta'limotga oid asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilinishiga to'sqinlik qildilar", deb yozilgan edi.

1936-yili respublikaning maorif sohasiga K.Sorokin komissar (vazir) etib tayinlangan edi. U bu ishda 15 oygina ishladi. 1937-yilning 29-sentabrda uni hibsga olishdi. So'ngra uning rafiqasi (Gulsum Abdurahmonova)ga ham hibsga olish to'g'risidagi orderinni ko'rsatishdi. Biroq, uni o'sha vaqtda homilador ekanligi qutqarib qoldi. Undan, uyni bo'shatib qo'yish talab etilgach, ikki yosh go'dagi bilan qaynanasining kichik bir uyiga ko'chib o'tdi. U sovet, partiya va davlat rahbarlariga erining aybsiz ekanligini bir necha bor yozdi. Eri hibsga olingandan uch oy keyin otib tashlanganidan bexabar Gulsum opa har oyda erining qamoqxonada kun kechirishi uchun NKVD kassasiga 60 so'mdan pul to'lab turdi. U "dohiy" adolatni tiklaydi, deb kutdi. Hatto, o'zining 1938-yili yanvarda tug'ilgan qiziga Stalinning qizi sharafiga Svetlana deb nom ham qo'ygan edi.

20–30-yillarda qatag'on qilinib, "xalq dushmani" degan soxta ayblar bilan otishga hukm qilinganlarning oila a'zolari, qarindoshlari va hatto ular bilan nimadir sabab bo'lib uchrashganlar yoki ularning biror yaxshiligini ko'rganlar ham jazolanganlar.

Shuningdek, bir iste'dod sohibi o'z mehnati evaziga keyinchalik "xalq dushmani" deb otishga hukm qilingan davlat arbobi F.Xo'jayevdan fotoapparat sovg'asini qabul qilib olgan. Ana shu sovg'a keyinchalik uni "F.Xo'jayevning dumi" deb, "xalq dushmani" sifatida otishga hukm qilinishiga sabab bo'lgan.

30-yillar qatag'on davrida respublika dindorlarining asosiy qismi konsentration lagerlarga jo'natildi. Masjidlar berkitilib, ularning aksariyati otxonalar, omborxonalariga aylantirildi. Hatto shunday holatlarga ham duch kelindiki. respublikadagi ko'plab xonadonlarda vaqti-vaqti bilan o'tkazilgan tintuv paytida arab yozuvida chop etilgan biror kitob topilguday bo'lsa, uning nomi, mazmunini surishtirib ham o'tirmasdan, o'sha xonadon sohibiga "jamiyatga yot unsur shaxs" degan la'nat tamg'asi bosilib, uni qamoq yoki surgun jazosiga mahkum etilgan. Masalan, xorazmlik ilmi, yaxshi fazilatlar bilan elda hurmat qozongan, ayollarni o'qitib, savodli qilgan mo'tabar onaxon B.Ismoilovani 80 yoshida diniy kitob o'qishda ayblab qamaganlar va momo qamoqda og'ir ahvolda vafot etgan. Holbuki, o'sha kuni momo go'zal insoniy fazilatlar ta'rifidan hikoya qiladigan, dinga hech qanday aloqasi yo'q bo'lgan o'zining sevimli "Axloq ul-Muhsinin" kitobini o'qib turgan ekan.

Qatag'onchilik siyosati respublika, viloyatlar, tumanlar rahbarlarini birinchi navbatda o'z girdobiga oldi. Ularning hammasi yurt, xalq manfaati uchun kurashganlar edi. Ularning orasida eski tuzumga qarshi kurashgan, yangi tuzumda chorasiz qolgan bolsheviklar uni noiloj davlat arbobi darajasiga ko'targan Fayzulla Xo'jayev ham bor edi. U O'rta Osiyoni bosib olinishi, qo'shib olinishi masalasini ham tarixchi olim sifatida birinchilardan bo'lib to'g'ri tahlil etgan edi. U o'sha davridayoq "Chor hukumati va kapitalistlar O'rta Osiyoda talovchilik siyosatiga amal qilib keldilar. Rus kapitalizmi mahalliy boylar va sudxo'rlar bilan birlashib, mehnatkashlar ommasini ochiqdan-ochiq taladilar", – deb ochiq yoza olgandi.

Qatag'onchilik siyosati tufayli istiqloq va erk kuychilari, o'zbek xalqining mashhur shoir-yozuvchilari: Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir va boshqalar istibdodning begunoh qurboniga aylandi. 1938-yil 4-oktabrda Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriylar otib tashlangan bo'lsa, 1944-yilda Usmon Nosir sovet tuzumining qurboni bo'ldi.

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, respublika NKVD si "uchlik"lari tomonidan 1937–39-yillarda 41 mingdan ziyod kishi qamoqqa olinib, ulardan 6 ming 920 tasi otib tashlangan edi.

Millatning ilg'or taraqqiyparvar ziyolilari qatag'on qilinishi oqibatida xalq ularning noyob asarlarini o'qishdan uzoq vaqt mahrum bo'ldi.

Qatag'onchilik siyosati hatto ikkinchi jahon urushi yillarida ham davom etdi. Bu davrdagi siyosat tufayli aholisidan "bosqinchilar yordam olishi mumkin" degan gumon bilan Volgabo'yi nemislar avtonom respublikasi tugatildi. Uning 300 mingdan ortiqroq aholisi yashab turgan joylaridan mahrum etilib, Sibir va Qozog'iston viloyatlariga ko'chirib yuborildi.

1943-yil oxirlari – 1944-yil boshlarida Volganing quyi oqimi va Kaspiy dengizi qirg'oqlarida yashovchi qalmiqlar, Shimoliy Kavkazda yashovchi qorachoylar, chechenlar, ingushlar va bolqarlar, 1944-yil iyunida qrim tatarlari, greklar, keyinroq mesxeti turklari o'z vatanlaridan Sibir va O'rta Osiyoga badarg'a qilingan edi. Ko'chirish yashirin holatda va shoshilinch ravishda amalga oshirildi. Bu katta kulfatlarga, ko'pchilik odamlar, bolalarning yo'lda qirilib ketishiga olib keldi. Bu xalqlar adolatsiz jazolanayotgan bir paytda ularning farzandlari, yorbirodarlari fashistlarga qarshi jang qilmoqda va yurtdoshlari boshiga tushgan kulfatdan bexabar edilar. Ko'chirilganlar asosan O'rta Osiyo va Sibirning aholisi kam bo'lgan tumanlariga guruh-guruh qilib taqsimlandi.

Stalincha bu siyosat tufayli ko'plab xalqlarning milliy davlatchiligi buzildi, respublikalar va muxtor viloyatlarning haq-huquqlari poymol, butun-butun xalqlarning milliy madaniyati, qadriyatlari va an'analari oyoq osti qilindi. Bunday "milliy siyosat" markaz tomonidan butun vositalar bilan tashviqot qilinayotgan sovet ittifoqidagi xalqlar o'rtasida buzilmas do'stlik to'g'risidagi g'oyaga soya, qora dog' bo'lib tushdi. Bunday zo'ravonlikning zararli oqibatlari boshqa respublikalarda hanuzgacha davom etmoqda. Ayniqsa, bu oqibatlari millatlar o'rtasidagi nizo va fojealarda ko'rinmoqda.

Tayanch so'z va iboralar:

Bolsheviklarning "madaniy inqilob" tadbiri. Musulmon xalq dorilfununi. Xotin-qizlar teng huquqliligi. "Hujum" harakati. Dindorlarga qarshi kurash. "Kurashchan xudosislar" uyushmasi. Lotin, kirill alifbolari. "Bitsin savodsizlik" jamiyati. Adabiyot va san'at. "Chig'atoy gurungi". 30-yillarda ilm-fan. O'zFA. Sovet hokimiyatining qatag'onlik siyosati. Ma'muriy-buyruqbozlik boshqaruvi. "18 lar guruhi". "Inog'omovchilik". "Qosimovchilik". Shaxsga sig'inish. Ommaviy qatag'onchilik va oqibatlari.

Bilimingizni sinab ko'ring

1. Xotin-qizlar masalasida ham xuddi shunday yo'l tutdilar. Sovetlar 1926-yilda O'rta Osiyo miqyosida xotin-qizlar bo'limlari ishtirokida kengash o'tkazib, ayollar masalasidagi tadbirni majburiy o'tkazish yo'lini tutdilar. 1927-yil 8-martda o'tkazilgan bu tadbirda minglab xotin-qizlarning paranjilari majburan olovga uloqtirildi. Bu tadbir tarixga qanday nom bilan kirgan?

«			j		»	h	a	r	a	k	a	t	i
---	--	--	---	--	---	---	---	---	---	---	---	---	---

2. Sovetlar o'lkada arab yozuvining mavqeyini pasaytirishga harakat qilib, 1929-yili arab yozuvini boshqa bir grafikaga, 1940-yilda esa bu grafikani yana boshqa bir grafika bilan almashtirdilar. Bu holat aholi bilim darajasiga, o'zbek tili rivojiga salbiy ta'sir etib, savodsizlar sonining sun'iy ko'tarilishiga olib keldi.

O'zbekistonda arab yozuvini qaysi grafikaga, bu yangi grafikani yana qaysi grafika bilan almashtirildi?

(1929-y. o'tilgan grafika)						(1940-y. o'tilgan grafika)						

3. Sovetlar adabiyotni sinfiylik, partiyaviylik va sotsialistik realizm qolipiga solib, 1928-yilda "Qizil qalam" jamiyatini tuzdi. 1930-yilda bu jamiyat tugatilib, o'rniga "O'zbekiston proletar yozuvchilari uyushmasi"ni tashkil etdilar. Millat ziyolilari esa xalq dili, ruhiyati va intilishlarini ifoda etadigan guruhlar tuzib, ularning ayrimlari hatto, milliy birlik va mustaqillik g'oyasi borasida ham faoliyat yuritardi. 1919-yilda Fitrat tomonidan tuzilgan guruh ana shunday guruhlardan edi.

Fitrat tomonidan tuzilgan guruh nomini toping.

«				a				u		u			»
---	--	--	--	---	--	--	--	---	--	---	--	--	---

4. XX asr 20-yillarida xalqning milliy ongini uyg'otishda, uning yangicha ma'naviyatini shakllantirishda shoirning hissasi beqiyos bo'ldi. Shunday shoirlardan biri "Buzilgan o'lkaga" nomli she'ri, unda o'lka boshiga tushgan fojialar, haqsizlik, adolatsizliklarga qarshi, ona yurtning erki va ozodligi uchun kurashga chorlovchi misralari uchun qatag'on qilindi.

Bu vatanparvar shoirning nomini toping.

--	--	--	--	--	--

5. 1943-yilda tashkil etilgan O'zbekiston Fanlar Akademiyasining birinchi prezidenti nomi katakchalardan yashiringan. Uni toping.

									i	
--	--	--	--	--	--	--	--	--	---	--

6. 1929-yilda hukmron partiya o'z saflarini tozalash uchun bir jarayonni tashkil etishgan. Bu jarayon natijasida minglab kishilar aybsiz bo'lsa-da, jazoga tortilgan.

Katakchalarda 1929-yilda partiya saflarida o'tkazilgan jarayon nomi yashiringan, uni toping.

			a		a			j	a	r	a	y	o	n	i
--	--	--	---	--	---	--	--	---	---	---	---	---	---	---	---

7. 1934 – 1938-yillarda o‘z xalqini o‘ylagani, kuylagani, ularning tashvishi va muammolari uchun kurashgani sabab bir necha o‘n minglab yurtdoshlar qatag‘on qurboni bo‘ldi. Xalq ongini chalg‘itish uchun ularning bariga bir ayb qo‘yildi. Bu qanday ayb edi?

			l						m						i
--	--	--	---	--	--	--	--	--	---	--	--	--	--	--	---

XIII BOB. IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEK XALQINING FASHIZM USTIDAN QOZONILGAN G‘ALABAGA QO‘SHGAN HISSASI

Mavzu rejası:

1. O‘zbekistonning urush girdobiga tortilishi. Respublika kuch-qudrati va iqtisodiy salohiyatining mudofaa manfaatlariga bo‘ysundirilishi.
2. Urush yillarida O‘zbekiston sanoati va qishloq xo‘jaligi.
3. Urush yillarida fan va madaniyat.
4. O‘zbekistonlik jangchilarning fashizmni tor-mor etishdagi jasoratlari.

1. O‘ZBEKISTONNING URUSH GIRDOBIGA TORTILISHI. RESPUBLIKA KUCH-QUDRATI VA IQTISODIY SALOHIYATINING MUDOFAA MANFAATLARIGA BO‘YSUNDIRILISHI

Mohiyatan bo‘lingan dunyoni qayta bo‘lib olish maqsadida boshlangan ikkinchi jahon urushi Germaniya va uning ittifoqchilari tomonidan bosqinchilik va talonchilik urushi bo‘lib tarix sahifasiga yozildi. Tez fursatda bu urush dunyoning 60 dan ortiq mamlakatini, yer yuzi aholisining qariyb 80 foizini o‘z domiga tortdi.

Urush 1939-yil 1 sentabrda fashistlar Germaniyasining Polshaga urush e‘lon qilishi bilan boshlandi va shu yili 3-sentabrda Angliya, Fransiya o‘z ittifoqchisi Polshani yoqlab urushga kirdi va shu tariqa bu urush jahon urushi tusini oldi. Fashistlar Germaniyasining bosqinchilik rejasida SSSRni egallash qat’iy qilib qo‘yilgan bo‘lsa-da, ular vaziyatdan yutib, Yevropani bo‘ysundirish maqsadida 1939-yil avgustida sobiq ittifoq bilan 10 yil muddatga urushmaslik to‘g‘risida shartnoma imzoladi. Shartnomaga qo‘shimcha maxfiy hujjat ham imzolangan bo‘lib, unga asosan Germaniya Boltiq bo‘yining (Litva, Latviya, Estoniya) ittifoq ta’siriga o‘tishini tan olgan edi. Fashistlar Yevropada o‘z maqsadlariga erishgach, hujum qilmaslik to‘g‘risidagi shartnomani buzib, 1940-yil 18-dekabrda tasdiqlangan yashin tezligida urush qilish (“Barbarossa”) rejasiga muvofiq, 1941-yilning 22-iyunida urush e‘lon qilmay sovet ittifoqi hududiga bostirib kirdi. Butun ittifoq xalqi uchun bo‘lganidek, uning tarkibidagi O‘zbekiston va o‘zbek xalqi uchun ham urush boshlangan edi.

1941-yil 23-iyunda hukmron VKP(b) MQ Siyosiy byurosi partiya va sovet organlarini urush sharoitiga moslab qayta qurish to'g'risida qaror qabul qildi va 29-iyunda dastur ishlab chiqilib, partiya va sovet tashkilotlariga yuborildi. 1941-yil 30-iyunda esa Stalin rahbarligida Davlat Mudofaa Qo'mitasi (DMQ) tuzildi va mamlakat hayotini to'liq boshqarishni qo'lga oldi. Uning qarorlari, ko'rsatmalarini bajarish hamma tashkilotlar uchun majburiy edi. Oliy Bosh Qo'mondonlik stavkasi tuzildi va Stalin SSSR qurolli kuchlari Oliy Bosh Qo'mondoni va Mudofaa xalq komissari etib tayinlandi. Hayotning barcha sohalari harbiy izga solinib, mamlakat harbiy lagerga aylantirildi. Sovet davlati aynan shu kunlarda front ortini mustahkamlash, korxonalarining yanada unumli ishlashlarini ta'minlash maqsadida "Hamma narsa front uchun!", "Hamma narsa g'alaba uchun!" degan muhim chaqiriq shiorlarini maydonga tashladi.

Sobiq ittifoq tarkibidagi barcha respublikalar, muxtor (avtonom) viloyatlar, milliy okruglar urush girdobiga tortildi. O'zbekistonliklar frontga safarbar etilib, urushning dastlabki oyidayoq respublikaning 32 mingdan ortiq ishchi, xizmatchi, kolxozchi va yoshlari o'zlarini frontga jo'natishlarini so'rab arizalar berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, 1941-yilda respublika aholisi 6,5 mln kishini, ularning yarmini esa bolalar va keksalar tashkil etgan bo'lsa, yaroqli odamlarning 50–60 foizi, aniqrog'i, 1.433.230 kishi urushga safarbar etildi¹.

Butun ittifoqda bo'lganidek, respublikaning butun kuch-qudrati, iqtisodiy salohiyati mudofaa manfaatlariga bo'ysundirilib, sanoat harbiy izga ko'chirildi. 1941-yil oxirida O'zbekistonning 300 zavod va fabrikasi front uchun ishlay boshladi va 280 ta yangi sanoat korxonalari qurib ishga tushirildi.

Respublikada 1941-yil noyabridan 1942-yil martigacha 14 ta milliy qo'shinlar birlashmasi tuzilib frontga jo'natildi. Milliy qo'shilma askarlari va zobitlarini tayyorlashda respublikada tuzilgan zaxiradagi 24-o'qchi diviziya katta rol o'ynadi. Uning tarkibida 178 o'zbek o'g'loni faol xizmat qildi. Bu diviziya urush yillarida 390 mingdan ziyod jangovar kuchlar tayyorlab frontga jo'natdi. Bu davrda yoshlardan front uchun zarur kasb egalari tayyorlanib, urushga safarbar qilindi. Urush davrida xalqning qahramonona mehnati tufayli respublikada sanoat mahsulotining umumiy hajmi 7 barobarga ko'paydi. Qishloq mehnatkashlari esa urush yillarida 4 mln 806 ming tonna paxta, 1 mln. 282 ming tonna don, 54,1 ming tonna pilla, 48 ming tonna kartoshka va

¹ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. – T.: "O'zbekiston", 1996. – 80-b.

sabzavotlar, 57,8 ming tonna meva va uzum. 159 ming tonna go'sht, 36 ming tonna quruq meva va boshqa ko'plab dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari yetkazib berdi.

Qizil armiyaning yirik qurol-aslaha bazasiga aylangan O'zbekiston 1941–1945- yillarda frontga 17 ming aviamotor, 3 mln donaga yaqin aviabomba, ko'plab portlagichlar, snaryadlar, granatalar va yana 2 ming dona samolyot ham yetkazib berdi.

Urush yillarida Yo'ldosh Oxunboboyev boshchiligidagi O'zbekiston delegatsiyasining frontga zarur narsalarni yetkazganligi, har bir viloyatda urushayotgan jangchilar uchun issiq kiyimlar jo'natish harakatining keng yoyilganligi ham respublika mehnatkashlarining fashizmni tor-mor etishdagi muhim ulushi edi.

Xalq mudofaa fondi uchun o'z jamg'armalaridan 650 mln so'm pul berdi, 4,2 mlrd so'mlik davlat zayomlarini sotib oldi. Umuman o'zbek xalqi urush yillarida front ehtiyojlari uchun yig'ib berilgan jami pul mablag'lari 5 mlrd so'mni tashkil etdi. Aynan bu mablag'larga "Sovet O'zbekistoni", "O'zbekiston 20 yilligi", "O'zbekiston komsomoli", "O'zbekiston kolxozchisi" kabi tank va samolyot bo'linmalari tashkil etildi.

Urush bo'layotgan va dushman yaqinlashib kelayotgan hududlardan muhim sanoat korxonalarini, kolxoz, sovxoz va MTSlarning mulklarini, madaniy boyliklar va o'quv maskanlarini Sharqqa, jumladan, O'zbekistonga zudlik bilan ko'chirib keltirish, joylashtirish ishlari boshlanib ketdi. Kishilik tarixida ko'lami jihatidan bunday katta voqea birinchi marta sodir bo'ldi. O'zbekistonga 100 ga yaqin sanoat korxonasi, jumladan, 48 ta mashinasozlik, metall ishlash, kimyo va boshqa harbiy texnika va mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yirik zavodlarning asbob-uskunalari ko'chirilib keltirildi. Ular ishchi kuchi, xomashyo, uskunalar bilan ta'minlandi va front uchun mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Ko'chirib keltirilgan korxonalar shoshilinch bo'shatib berilgan va yangi qurilgan binolarga joylashtirildi.

O'zbek xalqi o'zining bag'rikengligi, mehmondo'stligi va bolajon xalqligini ham namoyish qildi. Urush yillarida xalq front ichkarisida va urush harakatlari kuchli bo'lgan Ukraina, Belorussiya va RSFSRning g'arbiy viloyatlaridan ota-onasiz va qarovsiz qolgan jami 1 mln nafar yosh bolalar, qariyalar va ishchilarni qabul qildi va ularga mehr ko'rsatdi. Toshkent shahri xotin-qizlarining tashabbusi bilan respublikada yetim bolalarni farzandlikka olish harakati keng tus oldi. Hatto, respublika rahbarlaridan Usmon Yusupov va Yo'ldosh Oxunboboyevlar oilasi ham yetim bolalarni o'z tarbiyasiga oldi.

Urush davrining og'ir sharoitiga qaramay toshkentlik temirchi Shoahmad Shomahmudov umr yo'ldoshi Bahri aya bilan 14 nafar (Kattaqo'rg'onlik Samadovlar oilasi esa 13 nafar) yetim qolgan va Toshkentga olib kelingan bolalarni farzandlikka olib, voyaga yetkazdilar.

Respublikaga janglarda yarador bo'lgan askar va zobitlar ham keltirilar edi. Bu borada ham o'zbek xalqi o'z mehr-saxovatini ko'rsatdi. O'zbekiston sog'lomlashtirish markazlaridan biriga aylandi. 1941-yil 1-oktabrgacha O'zbekiston sog'liqni saqlash xalq komissarligi tizimida 14950 o'ringa ega 47 ta gospital barpo etildi va zarur uskunalar bilan jihozlandi. Ayni paytda Moskvadan, Kalinin, Rostov va boshqa viloyatlardan 15900 o'ringa ega 48 gospital ko'chirib keltirilib, joylashtirildi va ishga tushirildi.

Viloyat, shahar, tuman idora organlari gospitaldagilardan xabar olib turdi, gospitallarga xo'jaliklar tashkil etish va ish yuritish uchun yer maydonlari ajratib berildi. Agar 1941-yilda shu maqsadda 385,5 gektar yer ajratilgan bo'lsa, 1943-yilga kelib ajratilgan yerlar maydoni 656 gektarni tashkil etdi. 1942-yilda 1513 mehnat jamoalari, shu jumladan, 750 korxonalar, kolxoz va sovxozlar gospitallarni otaliqqa olib, ularni yoqilg'i, oziq-ovqat va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlab turdi. O'zbekistonlik 18482 nafar donorlar yaradorlarni oyoqqa turg'izish uchun qon berishdi.

Urush yillarida O'zbekistondagi gospitallarga 164382 yarador va bemorlar joylashtirildi, ularning 87 foizi, 143101 kishi davolanib chiqdi. O'zbekistonliklar davolanib sog'ayganlarga sovg'a-salomlar berish bilan birgalikda doimo ularga chiroyli bir xaltacha tikib berishni ham kanda qilmaganlar.

Shu tariqa, O'zbekiston hukumati va o'zbek xalqi urushning dastlabki kunlaridanoq fashizmga qarshi kurashda bor imkoniyati darajasida o'z hissasini qo'sha boshladi.

2. URUSH YILLARIDA O'ZBEKISTON SANOATI VA QISHLOQ XO'JALIGI

Urush tufayli O'zbekistondagi sanoat tarmoqlarining yo'nalishi ham, sanoat xodimlarining ishi ham tubdan o'zgardi. Korxonalarda yangi mehnat tartibi joriy qilinib, ish kuni uzaytirildi, ishdan keyin qolib ishlash joriy etildi, mehnat ta'tillari, darn olish kunlari bekor qilindi. Barcha sanoat korxonalari harbiy izga solinib, minomyot va avtomatlar, samolyot va tanklar uchun ehtiyot qismlar va boshqa harbiy qurollar ishlab chiqara boshladi. 1941-yil dekabrighacha Toshkent shahridagi 137 sanoat korxonasining 64 tasi qurol-

yarog‘, front uchun zarur mahsulotlar ishlab chiqarishga kirishdi. Ularning eng yiriklari Chkalov nomli 84-aviatsiya zavodi, Moskva kabel zavodi, Xarkov elektrostanoq zavodi, ko‘tarma kranlar zavodi, Rostovdan keltirilgan “Красный Аксай”, Sulsik nasos zavodi, vagon-remont zavodi, “Красный путь” zavodi, Kiyev “Транссигнал” zavodi, “Кинап” zavodi va boshqalar edi.

Korxonalarda ishlayotganlarni asosan keksalar, yoshlar va xotin-qizlar tashkil etar edi. Urushning bir yarim yili mobaynida O‘zbekiston sanoatida ayollarning salmog‘i 29 % dan oshib, 1943-yilda 63,5 % ni tashkil qilar edi.

Respublika sanoat korxonalarini quvvatlarining kengayishi, ko‘chirib keltirilgan zavodlarning ishga tushishi birinchi navbatda elektr energiya va yoqilg‘i ishlab chiqarishni keskin oshirishni talab qildi. 1942-yil 18-noyabrda VKP(b) MQ va SSSR Xalq Komissarlar Soveti “O‘zbekiston SSR da beshta gidroelektrostansiya qurilishi to‘g‘risida” qaror qabul qilib, yana metallurgiya zavodi qurish, ko‘mir va neft qazib olishni ko‘paytirish tadbirlari belgilandi va bu ishlarga 1 mlrd so‘m ajratildi.

Urush yillarida Bo‘zsuv daryosi o‘zanlarida Tovoqsoy, Oqqovoq, Salar, Quyibo‘zsuv, Oqtepa, Qibray GESlari, Samarqand viloyatida Taligulyan GESi, 30 ga yaqin kichik kolxoz GESlari, shaharlar va yirik korxonalar yonida kichik GESlar qurilib ishga tushirildi. O‘zbekistonda elektr energiyasi ishlab chiqarish qariyb 2,5 baravarga, ya‘ni 1940-yildagi 482 mln kilovatt soatdan 1945-yilda 1187 mln kilovatt-soatga ko‘paydi.

Urush yillarida (1943) O‘zbekistonda eng yirik gidroelektrostansiyalardan biri – Farhod GESi barpo etildi. U umumxalq qurilishiga aylanib, 10 oylik fidokorona mehnat natijasida Sirdaryo jilovlandi.

Urush yillarida yoqilg‘i sanoati rivojiga ham muhim e‘tibor qaratildi. “Ангренугол” ko‘mir konida yana uchta shaxta va ochiq usulda ko‘mir qazib olinadigan karyer bunyod etildi. O‘zbekiston va Qirg‘iziston chegarasida Qizilqiya ko‘mir koni foydalanishga topshirilib, o‘ta issiqlik quvvatiga ega bo‘lgan qo‘ng‘ir ko‘mir qazib olindi. 1940-yilda atigi 3,4 ming tonna ko‘mir qazib olingan bo‘lsa, 1945-yilda bu ko‘rsatkich 103 ming tonnaga yetdi. Natijada respublikada sanoatning yangi tarmog‘i – ko‘mir sanoati barpo qilindi.

Urush yillarida Chuqurlangar, Tolmozor, Nayman, Shahrixon, Xo‘jaobod, Janubiy Olamushuk va boshqa yangi neft konlari ishga tushirildi. Neft tozalash zavodi, uning chiqindisi – ozakrit ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Urush yillarida respublikada neft ishlab chiqarish 4 marta ko‘paydi va 1945-yilda 478 ming tonnadan ortdi.

Energetika va yoqilg‘i sanoatining o‘sishi mashinasozlik sanoatining rivojlanishiga qulay baza yaratdi. G‘arbdan ko‘chirib keltirilgan zavodlar bazasida

16 ta stanoksozlik, to‘qimachilik va mashinasozlik korxonalari tashkil etildi. Bularning barchasi metallga bo‘lgan talabni kuchaytirdi. Shu bois O‘zbekiston Xalq Komissarlari Soveti 1942-yil 17- iyunda Bekobodda metallurgiya zavodi qurishga qaror qildi. 30 mingdan ko‘proq kishilarning fidokorona mehnati bilan qurilgan bu zavod 1944-yil 5-martdan boshlab metall mahsulotlarini bera boshladi.

Mamlakat, jumladan, respublika uchun og‘ir yillarda geologik-qidiruv ishlari ham davom etdi. Langar, Ingichka, Qo‘ytosh, G‘ortepa, Olmaliq rangli metall konlari, Oqtosh boksit konini o‘zlashtirish ishlari boshlanib ketdi. Ulardan qazib olingan volfram, molibden, mis, alyumin va boshqa mahsulotlarni qayta ishlash korxonalari qurildi.

Kimyo sanoati rivojlandi. Chirchiq elektrokimyo kombinatining ikkinchi navbati muhim kimyo mahsuloti – ammiak ishlab chiqara boshladi. 1943-yilda Quvasoy kimyo zavodi, Qo‘qon superfosfat zavodi, Farg‘ona gidroliz zavodi qurilib ishga tushirildi. Kimyo sanoati mahsulotlari salmog‘i 1940-yilga nisbatan 1945-yilda 6,1 baravarga ko‘paydi.

Urush yillarida qurilish materiallari sanoati, to‘qimachilik va poyabzal sanoati, oziq-ovqat sanoati, mahalliy sanoat tarmoqlarini rivojlantirish tadbirlari amalga oshirildi. Faqat 1943-yilda 12 ta yog‘, 3 ta paxta tozalash, 4 ta qand va 4 ta konserva zavodlari qurilib ishga tushirildi. Umuman urush yillarida O‘zbekistonda 280 ta yangi sanoat korxonalari qurilib ishga tushirildi. Bu korxonalarining rivoji ularni malakali ishchilar bilan ta‘minlanganligiga bog‘liq edi.

Ishga yaroqli kishilar urushga safarbar etilgani bois ishlayotgan va yangi qurilgan sanoat korxonalariga keksalar, ayollar, chaqiriq yoshga yetmagan o‘smirlar va qizlar jalb etilib, ularga hunar o‘rgatildi. Respublikada 100 mingdan ko‘proq malakali ishchilar tayyorlandi. Faqat hunar va temir yo‘l bilim yurtlari, fabrika-zavod ta‘lim maktablari 57 mingdan ziyod yosh ishchi kadrlarni tayyorlab berdi. Korxonalar zimmasiga yuklangan katta topshiriqlar kishilardan jismoniy zo‘riqish, hatto holdan toyguncha ishlashni talab qilardi. O‘zbekistonliklar g‘alaba uchun har qanday og‘irlikni, qiyinchiliklarni yengib o‘tib, respublikani qizil armiyaning qurol-aslahaxonasiga aylantirdilar. Sanoatning yangi tarmoqlari – aviatsiya, stanoksozlik, og‘ir mashinasozlik, qora hamda rangli metallurgiya va boshqa tarmoqlari vujudga keldi. 1940-yilda yalpi sanoat mahsulotida og‘ir sanoatning hisyasi 13,9 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 1945-yilda 47,5 foizga yetdi.

Urush yillarida Bekobod sanoat shahri vujudga kelib, Yangiyo‘l, Chirchiq kabi yosh shaharlar yanada rivoj topdi. Poytaxt Toshkent shahri esa sobiq itifoqning sanoat markazlaridan biriga aylangan edi.

Urush yillarida transport ishiga muhim e'tibor qaratilib, temir yo'llar ham harbiy holatga o'tkazildi. 1943-yil 25-yanvarda "Toshkent temir yo'li ishi to'g'risida" maxsus qaror qabul qilindi. Toshkent temir yo'l transportchilari ko'chirib keltirilayotgan korxonalarining asbob-uskunalarini va millionlab kishilarni G'arbdan Sharqqa, jangovar texnika va qurol-yaroqlarni Sharqdan G'arbga o'z vaqtida to'xtovsiz o'tkazib turish topshirig'ini bajardi. Faqat 1941 – 1942-yillarda O'zbekiston temir yo'lchilari 2700 tarkibidagi yo'lovchi poyezdlarini, ko'chirilgan korxonalarining asbob-uskunalari ortilgan 17.600 ta vagonni o'z manziliga, o'q-dorilar, yoqilg'i, oziq-ovqat, kiyim-kechaklar ortilgan minglab vagonlarni frontga yetkazishdi.

O'zbekistonda yangi temir yo'llar qurilishi jadal olib borildi. 1941–1945-yillarda temir yo'l liniyalari 2 baravar uzaydi. Boysun-Otquloq-Turangli, Toshkent-tovar stansiyasi temir yo'llari qurilib ishga tushirildi. Aynan shu yillarda Toshkent viloyatidagi ko'mir havzasi bilan bog'langan Toshkent – Angrenugol temir yo'li ham ishga tushdi.

Urush yillarida mavjud aloqa, telefon, telegraf ishlari harbiy holatga moslashtirilib, Toshkent – Samarqand – Ashxobod, Toshkent – Samarqand – Boku, Toshkent – Samarqand – Krasnovodsk telefon liniyasi, ikkita Toshkent – Samarqand – Buxoro telefon aloqa yo'llari qurildi. 1943-yilda qurib ishga tushirilgan 500 kilometrlik telefon yo'li Toshkentni Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston bilan bog'ladi. Yirik korxonalarining o'zida ham 50 – 100 o'rinli telefon stansiyalari qurilib, natijada xo'jaliklarga rahbarlik qilish, ularga o'z vaqtida ko'maklashish ishlari yaxshilandi.

Bu davrda respublika qishloq ahli og'ir sinovlardan o'tdi. Qishloq xo'jaligi paxta yetishtirishga yo'naltirilganiga qaramay sanoatni xomashyo bilan, aholi va armiyani oziq-ovqat, kiyim-kechak bilan ta'minlashdek og'ir vazifani ham o'z zimmalariga olishdi. Qishloq ahlining aksariyati frontga ketganligi sababli qishloq xo'jaligi ishlarida asosan qishloq keksalari, yoshlari, xotinqizlari mehnat qildi. Buning ustiga mamlakat g'arbiy hududidan keladigan texnika asboblari ham endi kelmas edi. Respublika qishloq xo'jaligidagi traktorlar, avtomobillar, otlarning bir qismi front ehtiyoji uchun olib ketilgan edi. Urush sababli qishloq xo'jaligining barcha bo'g'inlarida qat'iy ish tartibi belgilandi. Eng kam miqdordagi majburiy mehnat kunlari 1,5 baravarga oshirildi, o'smirlar uchun ham 12 yoshdan boshlab mehnat kunlari belgilandi va ularni bajarish majburiy qilib qo'yildi.

Respublika dehqonchiligining strukturasi keskin o'zgardi. Paxtachilikni asosiy tarmoq sifatida saqlab qolgan holda don, qand, lavlagi, kanop, pilla, sabzavot, poliz mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish tadbirlari ko'rildi. Don

ekiladigan, sugʻoriladigan yer maydonlari kengaytirildi. Natijada don mahsulotlari yetishtirish koʻpayib, 1941-yilgi 4,8 mln sentner oʻrniga 1943-yilda 5,3 mln sentner olindi, respublika ehtiyojlari qondirildi.

Urush yillarida mehnatkashlar chorvachilik, jun, qorakoʻl teri yetishtirish, pillachilik jabhalarida fidokorona mehnat qildilar. Goʻsht, yogʻ, sut, kartoshka, sabzavot va poliz mahsulotlari, meva tayyorlashda koʻrsatilgan gʻayratshijoat tufayli mustahkam oziq-ovqat bazasi yaratildi.

Bu davrda ham paxtachilik qishloq xoʻjaligining muhim sohasi boʻlib qoldi. Paxtakorlar jonbozlik bilan ishlaganlariga qaramay, 1942-1943-yillarda paxta tayyorlash rejasi bajarilmay qoldi. Davlatga 1 ming tonna paxta kam topshirildi. Bunga paxta ekiladigan maydonlarning kamayishi, mexanizatsiya vositalarining yetishmasligi, mineral oʻgʻitlar, yoqilgʻining kamayganligi, aksariyat qishloq erkaklarining frontdaligi uchun ishchi kuchining yetishmovchiligi eng muhim sabab edi.

Boshqaruvdagi maʼmuriy-buyruqbozlik uslubi asosida Oʻzbekistondan paxta talab qilinay, ular hatto 1944-yil 6-martda “Oʻzbekiston KP(b) MQ ning ishi toʻgʻrisida” qaror ham qabul qilib, paxta rejasi bajarilmaganligining obyektiv sabablarini tan olmadi. Respublika partiya tashkiloti MQning X plenumi (1944-yil aprel) yuqoridan koʻrsatilgan tanqidlar asosida tadbirlar ishlab chiqdi. Donli ekin yetishtirishga oʻtib olgan xoʻjaliklarning anchagina qismi paxtachilikka qaytarildi. Kolxozchilar uchun eng kam miqdordagi majburiy mehnat kunlari soni yana oshirildi. Ittifoq hukumati Oʻzbekiston paxtakorlari uchun 2300 yangi traktor, 300 yuk avtomobili, 375 ming tonna mineral oʻgʻit va boshqa qishloq xoʻjalik uskunalari ajratdi. 1944-yilgi paxta tayyorlash rejasi bajarildi, davlatga 1943-yilga nisbatan 325 ming tonna koʻp paxta topshirildi, 1945-yilda ham paxta tayyorlash rejasi uddalandi.

Urush yillarida respublika paxtakorlari davlatga 4 mln 806 ming tonna paxta xomashyosi yetkazib berdi. Sanoat korxonalarini kolxozlarni otaliqqa olib, ularga qishloq xoʻjalik texnikalari, ehtiyot qismlar bilan yordamlashdi. Shaharliklar qishloq xoʻjalik mahsulotlarini yigʻishtirib olishda faol qatnashishdi. Kolxozchi dehqonlar esa sanoat sohasidagi umumxalq qurilishlarida faol ishtirok etdilar. Oʻzbekiston ishchi va dehqonlari jipslashib, fidokorona ishlab, fashistlar ustidan qozonilgan gʻalabaga salmoqli hissa qoʻshdilar. Aynan ana shu fidokorona mehnat tufayli respublikadan 160 mingga yaqin kishi front orqasidagi fidokorona mehnati uchun “Shuhrat” medali bilan taqdirlandi.

Urush boshqa respublikalar singari Oʻzbekiston aholisining ham turmush darajasini ogʻirlashtirib, oziq-ovqat tanqisligi vujudga keldi. Shaharlarda oziq-ovqatlarni, sanoat mollarni kartochna asosida taqsimlash joriy etildi. Ishchi-

xizmatchilarga kuniga 400 – 500 grammdan, oila a'zolariga esa 300 grammdan non berish belgilandi. Amalda esa aholi belgilangan me'yorlardan ham kam non olardi. Go'sht, yog', baliq, makaron, yormalar ham me'yorlangan tartibda taqsimlanar, ko'p hollarda kartochkada ko'rsatilgan miqdorda berilmasdi.

Qishloq aholisi ishlagan mehnat kunlari uchun deyarli haq ololmasdi. Ularga oziq-ovqat mollari matlubot kooperatsiyasi do'konlarida davlatga topshirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari miqdoriga qarab qat'iy me'yorlangan miqdorda taqsimlanardi.

Ana shu tariqa urush yillarida xalq zahmatlar chekib fidoyilik ko'rsatdi.

Prezident I.A.Karimov bu davrdagi ana shu holatni "Mamlakat ichkarisida urush yillarida mehnat qilgan yuz minglab vatandoshlarimiz chekkan zahmatlarni, keksa-yu yosh akalarimiz, opa-singillarimiz qish qahratonida diydirab, saraton olovida yonib, o'zi yemasdan, o'zi kiymasdan topgan nasibasini frontga jo'natganini, azob-uqubatlar chekib, fidoyilik ko'rsatganini esdan chiqarib bo'ladimi?!"¹ – deb bejiz xotirlamagan edi.

3. URUSH YILLARIDA FAN VA MADANIYAT

Urush boshlanishi bilan respublika ilm-fan ham front uchun xizmatga moslashtirildi. O'zbekistondagi SSSR FAning filial 75 ta ilmiy muassasalar, barcha olimlar respublika xo'jalik hayotini harbiy izga solish bilan aloqador muammolarni hal etishga jalb qilindi. 1941-yil 29-noyabrda O'zbekiston Ilmiy muhandis-texnika jamiyati tuzildi.

G'arbiy hududlardagi yirik ilmiy muassasalar: SSSR FAning tarix, iqtisodiyot va huquq, jahon xo'jaligi va jahon siyosati, sharqshunoslik, jahon adabiyoti, moddiy madaniyat, tuproqshunoslik, seysmologiya institutlari, bir qancha muzey va kutubxonalar, akademiyaning 375 nafar yirik olim va xodimlari O'zbekistonga ko'chirib keltirildi. Olimlar o'zlarining asosiy e'tiborini mudofaa sanoati uchun zarur bo'lgan tabiiy resurslarni izlab topish va ulardan foydalanishni tashkil etishga qaratdilar.

Bu davrda geolog olim Habib Abdullayev rahbarligidagi tadqiqotlar natijasida qalay, volfram, molibden, o'tga chidamli minerallar, nodir metallar va boshqa turdagi xomashyo konlari topilib o'zlashtirildi.

Kimyogar olimlar neftning suvini ketkazish, oltingugurtdan tozalash, ko'mirni kokslash, paxta chiqindilaridan xalq xo'jaligida foydalanishning, etil spirti, soda, kislota olishning yangi samarali usullarini yaratdi. Dori-dar-

¹ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. – T.: "O'zbekiston", 1996. – 80-b.

monlar tayyorlash borasidagi tadqiqotlar natijasida Toshkentda farmatsevtika zavodi qurilib ishga tushirildi.

Butunittifoq paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti paxtaning yangi navlarini yetishtirish sohasida samarali izlanishlar olib bordi. Seleksionerlar S.S.Kanash va A.I.Avtonomov boshchiligida paxtaning vilt kasalligini yuqtirmaydigan yangi navini yaratdilar. S.S.Kanash yaratgan "C-460", L.V.Rumshevich yaratgan "Ф-108" yuqori hosilli navlar, shuningdek, boshqa uzun tolali navlar paxtachilikning rivojida ulkan hissa bo'ldi. O'zbekistonda ekilib kelingan amerika paxta navlarini yangi navlar bilan almashtirish 1944-yilda tugallandi.

Aynan urush yillarida respublika olimlari Samarqandda joylashtirilgan Timiryazov nomidagi qishloq xo'jaligi akademiyasi xodimlari bilan hamkorlikda paxta, g'alla va qand lavlagi yetishtirishda almashlab ekish usulini joriy etib, O'zbekiston sharoitida bu ekinlardan mo'l hosil olishga ko'maklashdilar.

Urush yillarida gumanitar fanlar ham rivojlanishda davom etdi. Yirik tarixchi, arxeolog, huquqshunos, sharqshunos, adabiyotshunos olimlar o'zbekistonlik hamkasblari bilan O'zbekiston xalqlari tarixi, madaniyati va adabiyotining muhim masalalarini ishlab chiqdi. V.S.Struve, V.A.Shishkin, Ye.E.Bertels, I.K.Dodonov, V.Yu.Zohidov, X.Sh.Inoyatov, A.Yu.Yakubovskiy, M.Ye.Masson, S.P.Tolstov, Ya.G.G'ulomov va boshqalar O'zbekistonning eng qadimgi va o'rta asrlar tarixi, moddiy madaniyati va ma'naviyati, O'rta Osiyo xalqlarining etnogenezi bo'yicha qator asarlar tayyorladi. Ikki jildlik "O'zbekiston xalqlari tarixi"ni tayyorlashga kirishildi. Yozuvchi Aleksey Tolstoy rahbarligida rus va o'zbek olimlari birgalikda "O'zbek adabiyoti tarixi" asarini yaratdilar. Ayniqsa, 1943-yil 4-noyabrda O'zbekistonda Fanlar akademiyasining ochilishi bilan ilm-fanning yanada taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor yaratildi. Akademiya ochilishi bilan til, adabiyot va tarix institutlari bazasida Tarix va arxeologiya, Til va adabiyot, Sharqshunoslik, Iqtisodiyot, Matematika va mexanika, Tuproqshunoslik, Fizika-texnika institutlari va laboratoriyalar ham tashkil etildi.

Urush davrida bu ilmiy tashkilotning uch faxriy, 15 ta haqiqiy, 20 ta muxbir a'zosi va 1265 ta ilmiy xodimi, shu jumladan, 54 ta fan doktori va 172 ta fan nomzodi ilmiy-tadqiqot ishlari olib bordilar. Ular orasida fizika-matematika fanlari doktorlari T.A.Sarimsoqov va V.I.Romanovskiy, geolog olim H.M.Abdullayev, fizik olim S.U.Umarov, faylasuf I.Mo'minov, adib S.Ayniy, yozuvchi Oybek, shoir G'.G'ulom va boshqalar bor edi.

1944-yilda O'zFA Prezidiumida aspirantura tashkil etildi va o'sha yili 60 kishi, shu jumladan, 41 nafar o'zbek vakili qabul qilindi. 1944-yilda Akademiya institutlarida 2 ta doktorlik, 17 ta nomzodlik dissertatsiyalari yoqlandi.

Umuman urush yillarida o'zbekistonlik olimlar mingdan ortiq ilmiy-tadqiqot ishlarini bajargan bo'lsa, ularning aksariyati xalq xo'jaligi va mudofaa ahamiyatiga molik edi.

Respublika xalq ta'limi, jumladan, oliy ta'lim tizimi ham og'ir sinovlardan o'tdi. Aksariyat professor-o'qituvchilar va talabalar frontga ketganligi sababli yaqin, turdosh institutlar birlashtirildi, ayrim fakultet va kafedralar yopildi. Samarqand kooperativ instituti bilan Toshkent moliya-iqtisodiyot instituti, Toshkent va Samarqand tibbiyot institutlari, o'zbek va O'rta Osiyo davlat universitetlari birlashtirildi. Ularning bo'shagan binolariga harbiy muassasa va gospitallar joylashtirildi. Moskva, Leningrad, Kiyev, Xarkov, Voronej, Odessa va boshqa shaharlardan 1941–1943-yillarda ko'chirib keltirilgan 35 ta oliy o'quv yurti va 7 ta harbiy akademiya qabul qilib olindi, ularning ba'zilari o'zaro yoki O'zbekiston Oliy o'quv yurtlari bilan birlashtirildi. O'z professor-o'qituvchilari bilan ko'chirib keltirilgan oliy o'quv yurtlarining faoliyati respublikada oliy ta'limni yanada rivojlantirishga ijobiy ta'sir etdi. Moskvalik va leningradlik olimlar talabalarga yangi kurslar bo'yicha ma'ruzalar o'qib, mahalliy millat vakillaridan ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashga ko'maklashdilar.

1943-1944-yillarda birlashtirilgan va yopilgan institutlar qayta tiklana boshladi. Yopilgan Chimboy va Urganch pedagogika, Namangan va Marg'ilon o'qituvchilar, Toshkent teatr san'at institutlari ochildi. Yirik oliy o'quv yurtlarida doktorantura va aspiranturaga qabul kengaytirildi. 1945-yil oliy o'quv yurtlari soni 1940-yilga nisbatan 3 taga ko'payib, 33 tani tashkil etdi, talabalar soni esa 19,1 mingdan 21,2 ming kishiga ortdi. Urush yillarida hammasi bo'lib 10 mingdan ko'proq oliy malakali va 3,7 mingga yaqin o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislar tayyorlandi.

Xalq ta'limida ham jiddiy qiyinchiliklar bo'ldi. Ko'plab maktablar, binolar, gospitallar, yotoqxonalar harbiy o'quv yurtlariga berilib, maktablar birlashtirildi, ko'p smenali o'qish joriy etildi. Erkaklar urushga ketganligi uchun o'qituvchilar yetishmas edi. Qisqa muddatli kurslar orqali boshlang'ich sinf o'qituvchilari tayyorlashga kirishildi. Ishlayotgan o'qituvchilarni moddiy-ma'naviy ahvolini yaxshilashga harakat qilindi. Urush davom etayotgan bo'lsa-da, 1944-yilda o'qituvchilarning harbiy xizmatdan bo'shatilishi maktablardagi muammolarning bir qator yechimini topishiga yordam berdi. Ko'chirib keltirilgan muassasalar o'z joylariga qaytgach, o'quvchilar bo'shatilgan o'z maktablari bag'riga qaytib, o'qishlarini davom ettirdilar.

1940/41-o'quv yilida 5504 ta umumta'lim maktablarida 1368,9 ming o'quvchi o'qigan bo'lsa, 1945/46-o'quv yilida 4976 ta umumta'lim maktab-

larida 989,2 ming bola ta'lim oldi. Ta'lim-tarbiya sifatini yaxshilash maqsadida o'quvchilar bilimni baholashning besh balli tartibi, boshlang'ich va yetti yillik maktablarni tamomlovchilar uchun bitiruv imtihonlari, o'rta maktabni tamomlovchilar uchun yetuklik attestati – guvohnomasi uchun imtihonlar topshirish majburiyati joriy etildi. Bundan tashqari, maktab o'quv dasturlarini a'lo o'zlashtirgan va a'lo xulqli o'quvchilarni munosib taqdirlash maqsadida ularni oltin va kumush medallar bilan mukofotlash ham maktab ta'lim-tarbiya sifatini yaxshilashga xizmat qila boshladi.

Bu suronli yillarda o'zbek adabiyoti rivojlanishda davom etdi. Yozuvchi va shoirlar xalqni mardlik va fidokorlikka chaqirib, porloq g'alabaga muhim hissa qo'shdilar. O'zbekistonga vaqtincha ko'chirib keltirilgan rus, ukrain, belarus, moldavan va boshqa yozuvchi-shoirlar ham respublika hayotida faol qatnashdi. Hamid Olimjon, Uyg'un, Sobir Abdulla, Nikolay Pogodinlar birgalikda "O'zbekiston qilichi" musiqali dramasini yaratdi.

Urushyillarida yaratilgan Oybekning "Navoiy" va "Qutlug' qon" romanlari, Abdulla Qahhorning "Oltin yulduz" qissasi, "Xotinlar" asari jamoatchilikning yuksak bahosiga sazovor bo'ldi. She'riyatda ulkan yuksalish bo'ldi. Hamid Olimjonning "Qo'lingga qurol ol", "Sharqdan g'arbga ketayotgan do'stga" "Jangchi Tursun" va "Roksanani ko'z yoshlari", G'afur G'ulomning "Sen yetim emassan", "Men yahudiyman", "Bizni ko'chada ham bayram bo'lajak", Uyg'unning "Qasam", "Bir qadam ham ortga chekinmasin" va "Maktub", Maqsud Shayxzodaning "Ona kuzatmoqda" va "Kapitan Gastello" she'rlari, Sharof Rashidovning "Qahrim" she'rlar to'plami, Sulton Jo'raning "Pulemyotchi ovozi", "Nayzamiz" she'rlari fashizm kirdikorlarini fosh etib, g'alaba qozonishga ishonchni kuylab, xalqning jangovar ruhini ko'tardi.

Xalqni front uchun, g'alaba uchun safarbar etishda respublika ommaviy axborot vositalari muhim omil bo'lib xizmat qildi. O'sha damlarda O'zbekistonda 200 ga yaqin gazeta (124 tasi o'zbek tilida), 52 ta jurnal (19 tasi o'zbek tilida) nashr etildi. Gazetalarning bir gallik adadi 900 ming (600 ming nusxasi o'zbek tilida) chiqardi. O'zbekistonning bir guruh yozuvchi-jurnalistlari sovet armiyasi siyosiy boshqarmalari ixtiyoriga yuborilgan edi.

O'zbek tilida 14 ta front va 12 ta diviziya gazetasi nashr etildi. "Front haqiqati" "Qizil askar haqiqati" "Qizil armiya", "Vatan sharafiga uchun", "Dushmanga qarshi olg'a" kabi gazetalar nashr etilgan.

Urush yillarida radio xodimlarining, madaniy-ma'rifiy muassasalarining xizmatlari katta bo'ldi. 754 ta kino ustanovka, 11 ta muzey, 360 ta qiroatxona, 1044 ta klub, 433 ta kutubxona, 2800 ta qizil choyxona ommalashgan orasida siyosiy, madaniy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni olib borish markazi sifatida xizmat

qildi. Umuman urush davrida faoliyat ko'rsatgan ommaviy axborot vositalari, madaniyat o'choqlarining bosh maqsadi xalqni hukmron g'oya va uning siyosati yo'nalishida tarbiyalashga qaratilgan edi.

Respublikada teatr san'ati rivojlanishda davom etdi. Toshkentda va Andijonda yangi teatr ochildi, respublikada hammasi bo'lib 36 ta teatr ishlab turdi. Shuningdek, ko'chirib kelingan 14 ta teatr ham faollik ko'rsatdi. Teatrlarda urush mavzusiga bag'ishlangan, "Davron ota", "Sherali" "O'zbekiston qilichi" musiqali dramalari, "Ulug'bek" va "Mahmud Torobiy" operalari, mardlik va jasorat mavzularida yozilgan Komil Yashinning "Bosqinchilarga o'lim", M.Shayxzodaning "Jaloliddin" pyesalari ko'rsatildi. Respublika teatr jamoalari 1942–1944-yillarda 203 ta yangi asarni sahnalashtirdi va 187568 marta spektakl va konsertlar namoyish etildi.

Xalqning ashula va musiqa sohasidagi ijodi shuhrat qozondi. To'xtasin Jalilov va Yunus Rajabiy xalq musiqa san'atining an'alariga tayanib, yorqin xalqchil asarlar yaratib, M.Ashrafiy, T.Sodiqov, M.Burhonovlar musiqa madaniyatini yuksak darajaga ko'tardi.

Kinoijodkorlar ham vaqtincha ko'chib kelgan kinematograflar bilan hamkorlikda "Ikki jangchi", "217-raqamli odam", "Vatanga sovg'a", "Nasriddin Buxoroda" kabi kinofilmlarni yaratishdi.

Respublika rassomlari g'ayrat bilan ijod qildi. L.Abdullayevning "Qizil Armiyaga kuzatuv" va "Mukofot bilan tabriklash", O'.Tansiqboyevning "Otliqlar hujumi" va "Partizan qiz", Ch.Ahmarovning "O'zbekiston – frontga", V.Ye.Kaydalovning "Fashist gazandasi yo'q qilindi" va "Dushmanga qaqshatqich zarba" asarlari O'zbekiston badiiy xazinasidan mustahkam o'rin egalladi.

San'atkorlardan tuzilgan 30 dan ortiq konsert brigadalari frontdagi jangovar harbiy qismlarning askar va zobitlari uchun 400 dan ko'proq konsert berdi, respublika hududida joylashgan harbiy qismlarda 15 mingta, gospitallarda 10 mingta konsert uyushtirdi. Ishchilar, paxtakorlar huzurida doimo xizmatda bo'lishdi. Bu tadbirlarda faol qatnashgan atoqli san'atkorlar: Halima Nosirova, Tamaraxonim, Lutfixonim Sarimsoqova, Abbos Bakirov, Kommuna Ismoilova va boshqalar xalq hurmatiga sazovor bo'ldilar.

Shu tariqa, rassomlarning asarlari, san'atkorlarning chiqishlari ommani g'alaba uchun kurashga safarbar qilib, xalqni ma'naviy jihatdan ruhini ko'tarib bordi.

4. O‘ZBEKISTONLIK JANGCHILARNING FASHIZMNI TOR-MOR ETISHDAGI JASORATLARI

Urushda o‘zbekistonlik jangchilarning ko‘rsatgan qahramonona jasoratlari xalq tarixiga mangu bo‘lib bitildi. Urushning birinchi kunlaridayoq G‘arbiy chegaralar va, ayniqsa, Brest qal‘asi himoyasida Doniyor Abdullayev, Boboxalil Kashanov, Ahmad Aliyev, Uzoq O‘tayev va boshqalar ishtirok etdilar. G‘arbiy chegaralardagi dastlabki janglarda toshkentlik Zokir Karimov jasorat ko‘rsatib, Qrim va Kavkazda dushman bilan olishdi, mardligi va jasorati uchun I va II darajali “Shuhrat” va boshqa ordenlar hamda “Jasorati uchun” medali bilan taqdirlandi.

O‘zbekistonlik jangchilar Smolensk, Kiyev, Odessa, Sevastopol va boshqa shaharlar mudofaasida qatnashdi. Odessa himoyasida qatnashgan Omon Umarov dushmanning qurol-aslaha ortilgan 40 ta avtomobildan iborat kolonnasiga qarshi hujumda jasorat ko‘rsatib, bir o‘zi dushmanning 3 avtomashinasini safdan chiqardi va 9 nemis askarini yer tishlatdi. Uning kichik harbiy bo‘limi Odessa yonida qurilgan dushman aerodromiga hujum qilib, dushmanning 16 ta samolyot va 30 ta avtomashinasini yondirib yubordi.

Moskva ostonalarida bo‘lgan janglarda ham o‘zbekistonlik jangchilar sabot-matonat, yuksak harbiy mahorat ko‘rsatishdi. General I.V.Panfilov (u uzoq yillar Toshkentda xizmat qilib, Almati shahrida diviziya tuzgan edi) diviziyasi Moskva uchun bo‘lgan janglarda qatnashdi. Diviziyaning 28 kishidan iborat 4-o‘qchi rotasining Dubosekovo razyezdida dushmanning bir rotasini qaytardi, 32 tankini majag‘lab tashladi. Diviziya jang maydonida dushmanning 114 tankini, 26 ming askar va zobitini, 5 ta samolyot va boshqa ko‘plab texnikasini yo‘q qildi, harakatdagi jangovar texnikasining ancha qismini qo‘lga kiritdi. Janglarda vzvod komandiri Ikrom Xalilov, Zarif Ibrohimov, Mamadali Madaminov, Abdulla Tog‘ayev, jarroh G‘ulom Abdurahimov va boshqalar jasorat ko‘rsatdilar. O‘zbekistonda tuzilgan 21 va 44-otliq askarlar diviziyasi, 258-o‘qchi diviziya askarlari Moskva ostonalaridagi janglarda 9000 dan ko‘proq dushman askar va zobitlarni yer tishlatib, 137 ta aholi yashaydigan manzilgohlarni ozod etdi, birinchilardan bo‘lib Upa daryosiga chiqib olib, ko‘plab jangovar texnikani qo‘lga tushirdi. Bu diviziya Moskva yaqinidagi Kaluga shahrini ozod etishda ko‘rsatgan matonati uchun gvardiyachi diviziya unvoniga sazovor bo‘ldi.

Moskva uchun bo‘lgan janglarda o‘zbek qizi Zebo G‘aniyevaning jasorati tillarda doston bo‘ldi. Bu qiz Moskvadagi teatr san‘ati institutida o‘qir edi. Urush boshlangach, u o‘z yurti Andijonga qaytib kelishni emas, front-

da jang qilishni afzal ko'rdi. Tez orada mohir mergan va razvedkachi bo'lib yetishdi. Uning harbiy qismi Moskva-Volga kanali bo'ylab joylashgan edi. Bu mergan qiz 1942-yil 25-may kuni gacha 23 ta fashistni yer tishlatdi, 16 marta razvedkaga borib dushman to'g'risida qimmatli ma'lumotlar olib keldi. 1943-yil avgustda Demyanskda bo'lgan jangda u og'ir yarador bo'ldi, 33 marta jarrohlik operatsiyasiga bardosh berib o'limni yengib o'tdi. Mergan qiz jasorati uchun orden va medallar bilan mukofotlandi. U urushdan keyin ham tinib-tinchimadi, tirishqoqlik bilan o'qidi. Bokuda institutni tamomlab, Moskva jahon adabiyoti institutida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi.

Moskva himoyachilariga ko'maklashishda ham O'zbekiston hukumati birinchilardan bo'ldi. 1941-yil dekabrda O'zSSR Oliy Kengashi raisi Yo'ldosh Oxunboboyev boshchiligidagi O'zbekiston delegatsiyasi Moskvaga bordi. Delegatsiya a'zolari Moskva ostonalarida jang qilayotgan G'arbiy front jangchilari, zobitlar va qo'mondonlari bilan uchrashdi, suhbatlashdi. 1942-yil 1-yanvar – yangi yil kunini birga kutib olishdi, ularga O'zbekistondan olib borilgan 29 vagon meva, 9 ming kalta po'stin, 20 ming juft kigiz etik, 100 ming juft issiq qo'lqop va boshqalarni sovg'a qildilar.

Moskva ostonalarida o'zbekistonlik merganlar Isxoqov 354 fashistni, Abubekov 229, Yusupov 132, Madaminov 123 fashist askar va zobitlarini yer tishlatdi. 1753 nafar o'zbekistonlik jangchilar "Moskva mudofaasi uchun" medali bilan mukofotlandi.

O'zbekistonlik jangchilar 1942-yilda Qrim, Donbass, Don, Kuban, Shimoliy Kavkazda bo'lgan og'ir janglarda qatnashib, o'z vazifalarini bajar-dilar. O'zbekistonda uzoq yillar xizmat qilgan general Petrov Sevastopol uchun bo'lgan 8 oylik mudofaa janglarining boshliqlaridan biri edi. U Shimoliy Kavkaz fronti, keyinroq 4-Ukraina frontiga qo'mondonlik qilib, Berlin operatsiyasida qatnashdi. Urushdan keyin Toshkentga qaytib kelib Turkiston harbiy okrugi qo'shinlariga qo'mondonlik qildi.

Stalingrad uchun bo'lgan janglarda o'zlarini mardonavor tutgan o'zbekistonliklar 62 va 64-armiyalar safida turib qahramonlarcha jang qildilar. Samarqand va Farg'onada tuzilgan 90 va 94-o'qchi brigadalar ham yetib kelib jangga kirdi. General Mullajon Uzoqov komissari bo'lgan 21-otliq askarlar diviziyasi jangchilari ham jasorat ko'rsatdi. Volga bo'ylarida dahshatli janglar bo'layotgan paytda o'zbekistonlik jangchilar o'zbek xalqining ularga yozgan xatini oldi. Xatda: "Farzandlarimiz, erlarimiz va aka-ukalarimiz, fashistlarni oldinga yorib o'tmoqchi bo'lgan hamma joyda to'xtatib qolingiz, ularning olg'a qarab bir qadam ham siljishiga yo'l bermang, ularni... yer bilan yakson qiling, yodingizda bo'lsinki, agar siz hozir bir qadam orqaga chekinsangiz,

bu narsa mamlakat uchun, O‘zbekistonimiz uchun g‘oyat og‘ir musibatlar keltirishi mumkin”, – deyilgan edi. Jangchilar bu xatni jangovar topshiriq o‘rnida qabul qildilar.

Stalingradda jang qilayotgan namanganlik zobit Mamasoli Jabborov 1942-yil noyabrida o‘zining motoo‘qchilar rotasi bilan chekinib borayotgan dushmanning ikkita polkiga shiddatli hujum qilib, 400 ta soldat va zobitni qirib tashladi, 230 tasini asirga tushirdi va anchagina qurol-aslahani o‘lja oldi. 117 fashistni yer tishlatgan Buxoro viloyatidan borgan mergan yigit Hayit Xo‘jamatov 5 ta jangda o‘z pulemyoti bilan dushmanning 300 dan ortiq askar va zobitini yer tishlatdi. Qorako‘l tumanilik jangchi Hayitov, Toshkent pedagogika instituti talabasi Yelena Stempkovskayalar jasorati Stalingrad jangi solnomasidan munosib o‘rin egalladi. Shahar himoyasida qatnashgan o‘zbek jangchilaridan 2738 kishi hukumatning alohida “Stalingrad mudofaasi uchun” medali bilan muko fotlandi.

1943-yil yozida Kursk yonida bo‘lgan qattiq janglarda O‘zbekistonda tuzilgan 62 va 69-o‘qchi diviziyalar, 162-O‘rta Osiyo-Novgorod-Shimol diviziya askar va zobitlari alohida jasorat ko‘rsatishdi. O‘zbekistonliklar, shuningdek, 5 va 15-o‘qchi diviziyalar hamda 5 va 62-gvardiyachi o‘qchi diviziya tarkibida ham jang qildilar.

“Opєл” diviziyasi faxriy nomini olgan 5-o‘qchi diviziya tarkibida farg‘onalik Ahmadjon Shukurov ham bor edi. Bu diviziyaga Zolotaryovka qishlog‘ini dushmandan tortib olish topshirig‘i berildi. Zolotaryovka uchun bo‘lgan qattiq janglarda Ahmadjon jasorat ko‘rsatdi. Dushmanning 110 ta askar va zobitini yer tishlatdi va 15 tasini asir oldi. Ahmadjon ko‘rsatgan jasorati uchun unga Qahramon unvoni berilishi bilan birga, ular ozod qilgan Zolotaryovka qishlog‘i qahramon yigit nomi bilan “Shukurovka” deb ataladigan bo‘ldi.

Bu janglarda jasorat ko‘rsatgan o‘zbek jangchilari anchagina. Kursk janglarida Ziyamat Husanov bir o‘zi 80 ta fashistga qarshi jang qilib, 60 tadan ortig‘ini qirib tashladi, patronlari tugagach, qaltis paytda o‘zini ham, dushmanlarni ham portlatib yubordi. Muqaddam Ashrapova ismli o‘zbek qizi shifokor-jarroh namunali xizmati uchun 1-gvardiyachi armiya jangchilarining mehr va hurmatiga sazovor bo‘ldi. Pragagacha bo‘lgan jangovar yo‘lni bosib o‘tdi. Ko‘rsatgan jangovar jasoratlari uchun orden va bir necha medallar bilan taqdirlandi. Muqaddamxon urushdan keyin Toshkent Tibbiyot institutida ishlab, tibbiyot fanlari doktori, professor darajasiga erishdi, o‘z hayotini fanga va tibbiyot xodimlarini tayyorlashga baxshida etdi.

Kurskdagi g‘alabadan so‘ng Dneprni kechib o‘tish boshlandi. Dneprni birinchi bo‘lib kechib o‘tganlar orasida G‘ijduvon tumanidagi Navzakaron

qishlog'idan chiqqan starshina Vali Nabiyeu, andijonlik Qambarali Do'smatov, qoraqalpoq Xudoybergan Shoniyozov, shofirkonlik Xalloy Aminov, romitanlik Sharif Ergashev, buxorolik T.A.Tixonov va boshqalar bor edi. Toshkent viloyatida tuzilgan 441-o'qchi diviziyaning leytenant Ozerov boshliq otryadi daryoni kechib o'tib, Dnepr va Soji daryolarning burilish joyidagi g'arbiy sohilning kichik bir istehkomini egalladi. Fashistlar o'q yog'dirib, ularni yo'q qilib tashlashga intildilar. Tirik qolgan 10 tacha jangchi rota komandiri Jo'raxon Usmonov yetakchiligida madad yetib kelguncha ikki kecha-kunduz davomida marrani egallab turdi.

Dneprni kechib o'tishda, uning o'ng qirg'og'idagi istehkomlarni egallashda ko'rsatgan jasorati uchun jami, 2348 jangchiga, jumladan, 26 nafar o'zbek yigitlariga Qahramon unvoni berildi.

Kurskdagi g'alaba va dushmanning Dneprdan uloqtirib tashlanishi natijasida jahon urushining borishida tub burilish yasaldi, harbiy strategik tashabbus dushmandan batamom tortib olindi. Stalingraddagi g'alaba Gitler Germaniyasining yengilishi muqarrarligini ko'rsatgan bo'lsa, Kursk va Dneprdagi g'alaba nemis-fashist qo'shinlarini halokatga mahkum etdi.

O'zbekistonlik jangchilar Leningrad qamalini yo'q qilish, Ukraina, Belarussiya, Moldaviya va Boltiq bo'yi respublikalarini dushmandan ozod qilish uchun bo'lgan janglarda ham qahramonlik namunalarini ko'rsatdilar.

1944-yil kuziga kelib sobiq ittifoq chegaralari tiklanib, mamlakat dushmandan tozalangan edi.

O'zbek o'g'lonlari nafaqat harakatdagi qismlarda, balki partizanlik harakatlari ham fashizmga qarshi kurash olib bordilar. Ular Belarussiya o'rmonlarida, Yugoslaviya, Slovakiya va boshqa bir qator hududlarda partizan otryadlari safida jang qilishdi. Urushning dushman ustunlik qilgan dastlabki davrida butun-butun harbiy qismlar dushman qurshovida qolib ketdi, ko'plab askar va zobitlar noilojlikdan asirga tushib qoldi. Asirlarning soni 5 mln kishidan ortiqroq bo'lib, ular orasida o'zbekistonliklar ham bor edi. Asirga olinganlar orasida komissarlar, kommunistlar birinchilar qatorida surshtirib o'tirilmasdan otib tashlanar, qolganlari harbiy lagerga tashlanardi, ularga qattiq azob berilar, sovuqda och-yalang'och saqlanar edi. Dushman bosib olgan shahar va tumanlar aholisi ham Germaniyaga haydab ketildi. Ba'zi joylarda mehnatga layoqatli bo'lgan fuqarolarni o'z ixtiyori bilan Germaniyaga ishga yollab olib ketishga ham urindilar.

Germaniyaga olib ketilgan sovet fuqarolari soni 4 mln dan ortiq edi. Harbiy asirlar, haydab ketilgan fuqarolar Osvensium, Mautxauzen, Buxenvald va boshqa o'nlab o'lim lagerlarida saqlandi, xo'rlandi va ko'plari o'ldirildi.

Fashistlar dastlabki paytlarda asirlarni ortiqcha yuk deb o'ldirar edi. Urush ular o'ylaganchalik bo'lmagach, harbiy asirlardan ishchi kuchi sifatida foydalandilar.

Dushman qamalidan chiqib olganlar, asirlikdan qochib qutulganlar partizanlarga qo'shib nemis-fashistlarga qarshi mardonavor janglar olib bordi. Gomel atrofidagi "Temir yo'l, urushi"da ishtirok etgan Jonibek Otaboyev, Bryansk atrofida dushmanga to'satdan zarba bergan I.Musayev, A.Hakimov, I.Qosimov va boshqalarning nomlari urush solnomasidan o'chmas o'rin oldi. Ukrainada dushmanga qiron keltirgan S.A.Kovpak, A.N.Soburov, A.F.Fedorov, M.I.Naumovlarning partizan qo'shinlari saflarida yuzlab o'zbekistonlik qasoskorlar ham qatnashdi. Ular dushman qismlariga to'satdan hujum qilar, ko'priklar va temir yo'llarni portlatib dushmanni sarosimaga solardi.

"Chekist" partizan otryadining razvedkachisi, qo'rqmas partizan Mamadali Topiboldiyevning nomi Belarussiyada mashhur bo'ldi. U dushmanning 67 askar va zobitini yo'q qilib, 180 tasini asirga oldi. Dovrug'i butun partizanlar o'lkasiga yoyilganligi va ko'rsatgan jasorati uchun Qahramon unvoniga sazovor bo'ldi. Bu qahramonning jasorati uchun Belarussiyaning Pisarevo qishlog'i "Topiboldiyevka" nomi bilan atala boshladi.

O'zbekistonlik jangchilar Yevropa xalqlarini ozod etishda faol qatnashdi. 57-gvardiyachi diviziyaning qo'mondoni general Sobir Rahimov Polshada shonli xotira qoldirdi. Uning diviziyasi Kavkazdan Sharqiy Prussiyagacha bo'lgan masofani qattiq janglar bilan bosib o'tdi. Ko'rsatgan harbiy mahorati uchun ko'p martalab hukumat orden va medallari bilan taqdirlandi. 1943-yil martida unga general-mayor unvoni berildi.

1943-yil mayidan 1944-yil aprelegacha bo'lgan muddatda u Moskvadagi Oliy harbiy akademiyada ta'lim oldi. Akademiyani tamomlab, avval Belorussiyani ozod etishda, so'ngra Polshaning Grudzyandz, Gnev, Starograd, Dzyaddovo shaharlarini ozod etish uchun bo'lgan janglarda sarkardalarga xos harbiy san'atini namoyish etdi. 1945-yil 26-martda Gdansk shahrini ozod etish uchun bo'lgan jangda u halok bo'ldi. Unga o'limidan so'ng qahramon unvoni berildi. Polsha xalqi o'zbek xalqi kabi uning nomini e'zozlab kelmoqda. Gdansk shahridagi ko'chalar, maktablarga uning nomi ham berilgan.

O'zbekistonlik jangchilar Yevropa mamlakatlarida avj olgan fashizmga qarshilik ko'rsatish harakatida faol qatnashdi. Ular dushmanning maxsus lagerlaridan qochib Chexoslovakiya, Polsha, Yugoslaviya, Gretsiya, Fransiya yadagi qarshilik harakatiga qo'shib jang qilishdi. Samarqandlik G.G.Bulatov otryadi Polshada o'nlab ko'priklarni, temir yo'llarni portlatdi, dushmanning harbiy qismlari va jangovar texnikasi ortilgan eshelonlarni ag'dardi. 1944-

yil o'rtalarida Slovakiyada fashistlarga qarshi ko'tarilgan milliy qo'zg'olonda o'zbekistonliklardan partizan otryadi komandiri V.F.Melnikov, R.Allamov, A.Narzullayev, R.Hamroyevlar ishtirok etdi. Yugoslaviyada ko'rsatgan jasorati uchun farg'onalik Uksanboy Xolmatov 3 marta Yugoslaviyaning mukofotlariga sazovor bo'ldi. Italiyada andijonlik Turg'un Qo'chqorov va Ahmad Mamajonovlar Garibaldiyachi partizanlar otryadiga qo'shib dushman qurol-aslaha omborxonalarini portlatishda, yo'llarda dushman kolonnalarini yo'q qilishda, ko'priklar va eshelonlarni portlatishda faol qatnashdilar.

Fransiyadagi partizanlik harakatlarida samarqandlik A.Rahmatov, S.Shomurodov, toshkentlik R.Rahimov, N.Amirovlar faol ishtirok etdi. Fransiyaning janubini ozod etishdagi jasoratlari uchun qo'qonlik Hoshim Ismoilov, toshkentlik Tojiboy Ziyayevlar fransuzlarning "Janna d'Ark" Krest ordeni bilan mukofotlandi.

Fashistlar asirlar o'rtasida milliy nizolar chiqarish, Sovet hokimiyatiga qarshi kayfiyatdagi ayrim musulmon etnik guruhlaridan foydalanish kabi makkorlik yo'lini o'ylab topishdi. Ular harbiy asirlardan "Rus ozodlik armiyasi", "Volga-Ural legioni" va "Turkiston legioni" kabi harbiy qo'shilmalar tuzib, asirlarni ochlik va o'lim bilan qo'rqitib, ularni legionga majburan kiritdilar. Ko'pgina chet el manbalarida ularning soni 1 mln kishiga yetganligi ko'rsatiladi. Bunga Stalinning asirlikka tushib qolganlarni vatan xoinlari deb e'lon qilganligi ham o'z ta'sirini ko'rsatgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Haqiqatan ham, ko'pgina harbiy askarlar bunday legionlarga majburan kiritilgan edi. Ular yashirin guruhlar tuzib partizanlar bilan aloqa bog'lash yo'lini qidirganlar. Masalan, 1944-yil yanvarida gitlerchilar "Turkiston legioni" otryadini Chernogoriyada yugoslaviyalik partizanlarga qarshi jangga soladi. Otryadlarning birida 28 nafar o'zbek yigitlari – S.Fayziyev, A.Ahmedov, Z.Husanov va boshqalar bor edi. Zobit S.Fayziyev mahalliy aholi bilan aloqa bog'laydi va uning ko'rsatmasi bilan legionchilar fashist komandirlarini otib tashlab, qurol-aslahalari bilan toqqa, partizanlar tomoniga yuradi. 1944-yil 25- may kuni 28 nafar o'zbekistonlik legionchilar Yugoslaviyada harakat qilayotgan bolgar askarlari bataloniga qo'shib ketadi.

Yugoslaviyalik partizanlar bilan fashizmga qarshi jang qilgan, butun urush davomida bir qator jasoratlar ko'rsatgan toshkentlik, yangiyo'llik Ziyamat Husanovning jasorati haqida alohida to'xtash lozim. U 1941-yilda Smolenskda yarador bo'ladi, tuzalib safga qaytgach, 1943-yil 5-iyulda 228-o'qchi polki safida qahramonlarcha jang qiladi va yana og'ir yaralanadi. Quroldoshlari uni halok bo'ldi deb hisoblashadi va uyiga bu haqda xabar yo'llashadi. Ammo jangchi o'lmay qoladi, dushman uni og'ir yarador holda asirga oladi, keyin

“Turkiston legioni”ga kiritadi. Ammo u o‘rtoqlari bilan partizanlar tomoniga o‘tadi. Priyepol shahrida fashistlarga qarshi mardona jang qilib, yana og‘ir yarador bo‘ladi. Bir mahalliy ayol jangchini o‘ziga keltiradi va Italiyadagi harbiy kasalxonaga joylashtirishadi. U to‘rt marta operatsiyani boshidan kechiradi, sog‘aygach o‘z yurtiga qaytadi. U keyinroq Qahramon unvoniga sazovor bo‘lganidan xabar topadi.

Mustabid sovet tuzumining xalqqa nisbatan ishonchsizligi va gumonsirashi natijasida omon qolib, yurtga qaytgan sobiq asirlar taqdiri ham og‘ir kechdi. Ular ishga joylashish va uyli-joyli bo‘lishda qiynaldi. Ayrimlari yana sobiq tuzum yaratgan lagerlarga jo‘natildi. Urush o‘zining so‘nggi pallasiga kirdi. Berlin uchun qattiq janglar bo‘ldi. Urush Qahramonlari Botir va Tojiali Boboyevlar, Solih Umarov “Shuhrat” ordenining to‘liq kavalerlari Abdulla To‘qmoqov va Said Niyazovlar Berlinni zabt etishda qahramonlarcha jang qildilar. Berlinni olganligi uchun medali bilan o‘zbekistonlik jangchilardan 1706 kishi taqdirlandi. Fashistlar Germaniyasi tor-mor etildi. Germaniya ustidan g‘alaba qozonilganligi uchun medali bilan 109208 o‘zbekistonlik jangchi taqdirlandi.

Biroq, hali ikkinchi jahon urushi tugamagan edi. Fashistlarga ittifoq bo‘lib bir necha yillar davomida SSSR ga xavf solib turgan Yaponiya bilan hisob-kitob qilish kerak edi. Shu bois, Sovet davlati 1945-yil avgustida Yaponiya bilan urushga kirishdi.

O‘zbek jangchilari 22, 79, 275, 388, 221-diviziya va boshqa harbiy qismlar tarkibida Yaponiya armiyasiga qarshi jang qildilar. Seysin port shahrini egalashda 335-o‘qchi diviziyasi batalyoni tarkibida leytenant Fozil Karimov, razvedkachi Vali Sulaymonovlar alohida jasorat ko‘rsatdi. Dushman sohiliga tushirilgan desantchilar orasida pulemyotchi Nishon Bozorov chaqqonlik bilan jang qilib, dushmanning 10 askari va 2 zobitini yer tishlatadi va jangovar medal bilan mukofotlanadi. Shuningdek, leytenant A.A.Karimov, o‘qchi vzvod komandiri kichik leytenant U.Doniyorov, pulemyotchilar qismi komandiri S.Qo‘chqorov va boshqalar ham dushmanga qaqshatqich zarba beradi. Bu urushda Yaponiyaning bir millionlik Kvantun armiyasi tor-mor etilib, Shimoli-Sharqiy Xitoy, Koreya, sobiq ittifoqning Janubiy Saxalin, Kurill orollari yerlari ozod qilinadi.

Urush yillarida o‘zbekistonlik mard jangchilardan 1753 kishi “Moskva mudofaasi uchun”, 2733 jangchi “Stalingrad mudofaasi uchun”, shuningdek, 5931 kishi Varshavani, 6846 kishi Pragani, 804 kishi Belgradni, 2430 kishi Budapeshtni, 2000 kishi Venani, 1706 kishi Berlinni olganligi uchun medallari bilan taqdirlangan. 109208 jangchiga Germaniya ustidan qozonilgan g‘alaba uchun medali topshirilgan.

O‘zbek xalqining 120 ming nafar o‘g‘il-qizlari jang maydonlarida afsonaviy qahramonlik namunalari uchun sobiq ittifoq orden va medallari bilan taqdirlanganligi, 300 nafari Qahramon bo‘lganligi g‘alabaga qo‘shilgan ulkan hissaga berilgan baho edi.

Fashizm ustidan qozonilgan g‘alaba sobiq ittifoq xalqlariga nihoyatda qimmatga tushdi. Yetkazilgan umumiy moddiy zarar o‘sha davr bahosi bo‘yicha taxminan 2 trillion 600 mlrd rublni tashkil etdi. Tabiiyki, bu zararining ma‘lum bir qismi O‘zbekistonga ham tegishli edi. O‘zbek xalqi o‘zgalar baxtini o‘z baxtim, ozodligim deb, begona Vatanni o‘z Vatanim deb, mardona jang qildi, minglab qurbonlar berdi. 1939–1945-yillarda urush frontlariga O‘zbekistondan safarbar qilingan 1433230 kishidan 263005 kishi halok bo‘ldi, 132670 kishi nogiron bo‘lib qaytdi.

O‘zbekiston Prezidenti I.A.Karimov bu haqda: “Ikkinchi jahon urushiga qanday qaralmasin, bu urush qaysi g‘oya ostida va kimning izmi bilan olib borilgan bo‘lmasin, o‘z vatani, el-yurtining yorug‘ kelajagi, beg‘ubor osmoni uchun jang maydonlarida halok bo‘lganlarni, o‘z umrlarini bevaqt xazon qilgan insonlarni doimo yodda saqlaymiz”¹, – deb alohida ta’kidladi.

Hech kim va hech narsa unutilmaydi.

O‘zbekiston Prezidenti Farmoniga asosan 1999-yildan e‘tiboran 9-may “Xotira va qadrlash kuni” deb e‘lon qilindi. Respublikada urushda va urush jarohati oqibatida halok bo‘lganlar xotirasini abadiylashtirish maqsadida poytaxt markazida alohida “Xotira maydoni”, motamsaro ona yodgorlik majmuasi barpo etildi va ko‘p jilddan iborat “Xotira kitobi” nashr etildi.

O‘tganlar xotirasini o‘z yodida saqlab, e‘zozlab yashash xalqning muqaddas fazilati bo‘lib qoldi. Prezident I.A. Karimov har yili 9-may kuni ommaviy axborot vositalari vakillariga bergan intervyularida bu fazilatning qon-qonimiz va suyak-suyagimizga singib ketganini alohida qayd etadi.

Yurtboshining “Jahon tarixida dahshatli iz qoldirgan, sobiq Sovet Ittifoqida yashagan 27 million odamning umriga zomin bo‘lgan, xalqimizga qancha azob-uqubatlar, yo‘qotishlar olib kelgan, qancha ayollarning beva-bechora, qancha bolalarning yetim bo‘lib qolishiga sabab bo‘lgan bu yovuz ofatning hayotimizda qoldirgan izi, asorati, vaqt o‘tsa-da, davrlar o‘tsa-da, hech qachon eskirmaydi”, degan so‘zlari ayni haqiqatdir.

Davlat rahbari o‘z so‘zida g‘oyat muhim mavzuga, ya‘ni mudhish va ayovsiz urushning takrorlanmasligi uchun uning ildizlari yana unib chiqishining oldini olish hozirgi vaqtda eng dolzarb, eng muhim muammo bo‘lib qolayotganiga jiddiy e‘tibor qaratadi.

¹ Karimov I.A. “Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir”. T.3. – T.: “O‘zbekiston”, 1996. – 81-b.

“Dunyoning ko‘pgina mintaqalaridagi qarama-qarshilik, qurolli to‘qnashuvlar, qonli fojialar, yon-atrofimizdagi notinch ahvol, avvalo, Afg‘onistonda 30 yildan ziyod vaqt mobaynida davom etayotgan tahlikali vaziyat Vatanimizni har qanday balo-qazolardan asrash uchun doimo sezgir va ogoh bo‘lib yashashimizni talab qiladi”, degan fikrlar, tabiiyki, o‘z oilasining, farzandlarining ertangi kuni haqida o‘ylaydigan hech bir o‘zbekni befarq qoldirmaydi.

Prezident I.A.Karimov 2013-yil 9-may kuni ommaviy axborot vositalari vakillariga bergan intervyusida ham yana bir bor Afg‘onistondagi mavjud voqelikka e‘tibor qaratib, ushbu muammoning naqadar jiddiyligi va uning yechimi bo‘yicha qanday amaliy harakat va chora-tadbirlar zarurligi xususida so‘z yuritdi. Yurtboshi “afg‘on mojarosini bartaraf etishning yagona yo‘li – siyosiy yo‘l bo‘lib, qanchalar qiyin bo‘lmasin, qarama-qarshi kuchlarni muzokaralar orqali o‘zaro kelishuvga olib kelish ekani tobora o‘z tasdig‘ini topayotganligini” alohida ta’kidladi.

Bugun bunday shiddatli zamonda loqayd va beparvo bo‘lmasdan, yurtda, mintaqada, Yer yuzida sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga daxldor bo‘lib, boshqalarning dardini o‘ziga yaqin olib yashash g‘oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ana shu intrevyulardagi “Ey odamzod, ko‘zingni och, atrofga bir qara, kechagi tarixdan xulosa, saboq chiqar! Bunday balo-qazolarga qarshi o‘z vaqtida chora ko‘rish, kerak bo‘lsa, butun imkoniyatlarni ularga qarshi ishlatish, turli mamlakatlar, turli millat va elatlarning bir-biriga qarama-qarshi turib emas, balki o‘zaro yelkadosh bo‘lib, til topishib, turli ofatlarni tomiri bilan yo‘q qilishni bugun zamonning o‘zi talab etmoqda. Buning yakka-yu yagona yo‘li shu. Buni bugun tushunib, anglab olmasak, ertaga kech bo‘ladi” degan, bamisoli qalb nidosi kabi yangragan da’vatkor so‘zlar hammani yon-atrofga sergak nazar tashlab, ma’naviy jihatdan doimo uyg‘oq bo‘lib yashashga undaydi.

Tayanch so‘z va iboralar:

Ikkinchi jahon urushining boshlanishi. Fashistlar Germaniyasining sobiq SSSR ga hujumi. Respublika kuch-qudrati, iqtisodiy salohiyatining mudofaa manfaatlariga bo‘ysundirilishi. O‘zbek xalqining bag‘rikengligi. Sanoat va qishloq xo‘jaligi. Paxta yakkahokimligi. Fan va madaniyat. O‘zbekiston jangchilarining jasoratlari. Partizanlik harakatidagi qahramonliklar. Nemis-fashist qo‘shinlari va Yaponiyaning tor-mor etilishi. O‘zbekistonda urush qatnashchilariga ehtirom. Xotira va qadrlash kuni.

Bilimingizni sinab ko'ring

1. Urush davrida respublikaga yarador jangchilar keltirilib, ularga 1941-yilning 1-oktabrigacha 47 ta gospital barpo etilgan bo'lsa, ittifoq shaharlaridan 48 ta gospital ko'chirib keltirildi. O'zbekistonliklar sog'ayganlarga sovg'a-salomlar berish bilan birga, ularga chiroyli bir narsa tikib berishgan. O'sha narsaning katakchalarda yashiringan nomini toping.

			t			a
--	--	--	---	--	--	---

2. O'zbekiston XKS 1942-yil 17-mayda respublikaning bir joyida metallurgiya zavodi qurishga qaror qildi. 30 mingdan ko'proq kishining fido-korona mehnati bilan qurilgan bu zavod 1944-yil 5-martdan boshlab metall mahsulotlarini chiqara boshladi. Bu zavod qayerda qurilgan edi?

			o			
--	--	--	---	--	--	--

3. Urush davrida O'zbekiston qishloq xo'jaligida yangi mahsulot yetishtirish yo'lga qo'yilib, Samarqand, Farg'ona, Toshkent va Qashqadaryo viloyatlari bu mahsulotni yetishtirishga ixtisoslashtirildi. Bu mahsulotni qayta ishlash uchun Zirabuloq, Qo'qon va Yangiyo'lda zavodlar qurildi.

Yangi yetishtirilgan mahsulot nomini toping.

			l		g	
--	--	--	---	--	---	--

4. Urush davom etayotgan bo'lsa-da, 1944-yilda ma'lum bir toifadagi kishilarning harbiy xizmatdan qaytarilishi ta'lim sohasidagi muammolarning yechimini topishida zo'r omil bo'ldi. 1944-yilda harbiy xizmatdan kimlar bo'shatilgan edi?

						ch		l	a	r
--	--	--	--	--	--	----	--	---	---	---

5. Urush yillarida 5-o'qchi diviziya tarkibida jang qilayotgan farg'onalik Ahmadjon ismli yigit Zolotaryovka qishlog'ini ozod qilishda faol qatnashdi. Unga jasorati uchun Qahramon unvonini berilishi bilan birga, Zolotaryovka qishlog'i uning familiyasi bilan aytiladigan bo'ldi.

Ahadjonning familiyasini topsangiz, savolga javob bergan bo'lasiz.

A	h	m	a	d	j	o	n	
			u		o	v		
			u		o	v	k	a

6. O'zbekistonlik jangchilar Yevropa mamlakatlarida avj olgan fashizmga qarshilik ko'rsatish harakatlarida ham faol ishtirok etdilar. Fransiyaning janubini ozod etishdagi jasoratlari uchun qo'qonlik Hoshim Ismoilov, toshkentlik Tojiboy Ziyayevlar fransuzlarning inglizlarga qarshi ozodlik harakatiga boshchilik qilgan qahramon ayol nomidagi orden bilan mukofotlandi. Qahramon fransuz ayoli nomini topsangiz, orden nomini ham topasiz.

				a		D		r	
--	--	--	--	---	--	---	--	---	--

7. O'zbekistonda 9-may "Xotira va qadrlash kuni" deb nomlandi va Toshkent shahrida alohida maydon, "Motamsaro ona" yodgorlik majmuasi barpo etildi, ko'p jildli kitob nashr etildi.

Katakchalarda maydon va nashr etilgan ko'pjildli kitobning nomi yashiringan, uni toping.

			i		a
--	--	--	---	--	---

XIV BOB. XX ASRNING 50–80-YILLARIDA O‘ZBEKISTONNING IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY-MA’NAVIY HAYOTI

Mavzu rejası:

1. Urushdan keyingi yillarda O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli.
2. XX asrning 50–80-yillarida respublikaning ma’naviy-madaniy hayoti va mafkuraviy tazyiqlar.
3. Sovet tuzumi qatag‘onchilik siyosatining 50-va 80-yillardagi yangi to‘lqini.

1. URUSHDAN KEYINGI YILLARDA O‘ZBEKISTONNING IJTIMOIY-IQTISODIY AHVOLI

Sovet davlatining mustamlakachilikka asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy siyosati urushdan keyin ham davom etib, O‘zbekiston o‘z xalqi hukmron partiya belgilab bergan besh yillik rejalarini bajarishga kirishdi. Iqtisodiyot oldiga qo‘yilgan eng muhim vazifalar O‘zbekiston SSR Oliy Kengashining 1946-yil avgustida chaqirilgan VIII sessiyasida qabul qilingan 1946–1950-yillarga mo‘ljallangan rejada belgilandi. Bunga ko‘ra, xalq xo‘jaligining barcha sohalariga 3 mlrd 900 ming so‘m kapital mablag‘ ajratildi. Sanoatni rivojlantirish ishlari respublika iqtisodiyotining yetakchi sohasi paxtachilikni rivojlantirishga qaratildi. Bu besh yillikda O‘zbekistonda elektr energiyasi ishlab chiqarishga e‘tibor berilib, natijada 5 yilda 8 ta yirik va o‘rta hajmdagi elektrostansiyalar, shu jumladan, 300 ming kv soat kuchga ega Farhod elektr stansiyasi ishga tushirildi. Bu stansiya sobiq ittifoqda uchinchi o‘rinni egallab, urushgacha O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan elektr quvvatiga teng quvvat beradigan bo‘ldi.

Urushgacha “kazarma sotsializmi” va urush azoblarini boshdan kechirgan o‘zbek xalqi iqtisodni tiklash va rivojlantirishda ham hormay-tolmay mehnat qildi. Besh yilda sanoat mahsulotining yalpi hajmi 71 foizga ko‘paydi, bu urushdan oldingi darajadan 1,9 barobar ko‘p. Sanoatning xalq xo‘jaligidagi salmog‘i 47,7 foizni tashkil qildi. Shu yillarda Farhod, Oqqovoq-2, Bo‘zsuv-2 elektrostansiyalari, jami 150 ta yangi sanoat korxonalari ishga tushirildi.

O‘zbekistonning kelajakdagi taraqqiyoti rejalari Ittifoq markazida ishlab chiqarilib, aksariyat hollarda mahalliy sharoit, ijtimoiy ahvol hisobga olin-

masdan iqtisodni bir tomonlama, ya'ni o'lkani xomashyo bazasi sifatida saqlab qolishga qaratildi va O'zbekistonning barcha tarmoqlari paxtachilikni rivojlantirishga bo'ysundirildi. Sobiq hukumatning 1946-yil 2-fevraldagi O'zbekistonda paxtachilikni tiklash va rivojlantirishga oid qarori esa respublikada paxta yakkahokimligi siyosatini kuchaytirish uchun asos bo'ldi.

O'zbekistonda iqtisodiyotni tiklashda, ayniqsa, paxtachilikda muammolar ko'p edi. 1947–1948-yillarda paxta tayyorlashning davlat rejasi bajarilmadi. 1949-yildan boshlab ahvol birmuncha o'zgardi. 1950-yili 2 mln 222 ming tonna paxta yetkazib berildi, hosildorlik gektaridan 20,7 sentnerga yetdi. 1950-yildan paxtaning xarid narxi oshirilib, 1 tonnasiga 2200 so'm, ya'ni avvalgidan ikki baravar ko'p haq to'landi. Lekin dehqonchilikning boshqa sohalarida ekin maydonining qisqartirilgani oqibatida g'alla va sabzavot tayyorlashda urushdan oldingi darajaga yetmadi.

Ijtimoiy masalalarga e'tibor qaratilsa-da, narx-navo yuqori, oziq-ovqat mahsulotlari 1950-yilda 1940-yilga nisbatan deyarli ikki barobar qimmat edi. Ijtimoiy muammolarni yechish maqsadida ish haqi oshirildi, pul islohoti o'tkazildi, ish soati qisqartirildi, iste'mol mahsulotlari narxi arzonlashtirildi. Eng muhimi, urush davrida odamlarning yashashi bilan bog'liq yo'lga qo'yilgan kartochka tizimi bekor qilindi.

Qishloq aholisining moddiy ahvoli og'ir edi. Ishchilarning oylik daromadi 64 rubl bo'lgan bir paytda, ularniki o'rtacha 20 rublni tashkil etar edi. Vaholanki, urushdan keyingi xo'jalikni tiklash va rivojlantirishning asosiy og'irligi qishloq mehnatkashlari zimmasiga tushdi. O'zining bog' va mevalari bilan mashhur bo'lgan O'zbekiston aholisi haddan tashqari ko'p olinadigan soliq tufayli bog'laridan voz kechdi. Chorvadorlar shu sababga ko'ra mol boqib foyda ko'rmadi. Ahvol shu darajaga yetdiki, aholining shaxsiy mollari soliq hisobiga davlat va jamoa xo'jaliklari foydasiga olindi. Sotishdan bosh tortganlar jinoiy javobgarlikka tortildi. Oqibatda shaxsiy xo'jaliklarda chorva mollarining soni keskin kamaydi.

50-yillardan boshlab qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish orqali paxta va g'alla yetishtirishni ko'paytirishga kirishildi. Uch yil (1953–1955) ichida respublikada 130 ming gektar yangi yerlar ochildi. Birgina Mirzacho'ning o'zida 1956-yilga kelib 200 ming gektar yer o'zlashtirildi. 1960-yili O'zbekistonda sug'oriladigan yer maydoni 2.571 ming gektarga yetdi.

Paxtachilikni rivojlantirish uchun mineral o'g'itlardan foydalanishga katta e'tibor qaratilib, respublikada 1951-yilda 0,9 mln tonna mineral o'g'it ishlatilgan bo'lsa, 1980-yilda uning miqdori 5 mln tonnadan oshib ketdi. G'o'za barglarini to'kish va zararkunandalarga qarshi kurashda zaharli ximikatlar (butifos,

merkaptafos va b.) dan foydalanildi. Dunyo bo'yicha pestitsidlar har bir kishiga 300 gr dan, AQSH da 800 gr dan to'g'ri kelgan bo'lsa, 1989-yil respublikaning paxta ekiladigan hududlarida har bir kishiga 25 – 45 kg ni tashkil etib, o'ta zaharli bu ximikatlar respublikaning aholisi sog'ligiga zarar yetkazdi.

O'zbekistonda paxta yakkahokimligi siyosati tufayli yildan-yilga paxta yetishtirish ko'payib bordi. Paxta xomashyosi yetishtirish 1946–1985-yillarda 5,5 baravar ko'paydi, paxta ekiladigan maydonlar 1 mln ga dan ortdi. 1966 – 1986-yillar mobaynida O'zbekiston qishloq xo'jaligiga 45 mlrd rubl mablag' ajratilgan bo'lib, shundan 17,1 mlrd rubli sug'orish tarmoqlariga sarflandi. Shu davrda 1,5 mln ga yer o'zlashtirildi. O'zlashtirilgan yerlarda yangi sovxozlar 160 tani tashkil etgan bo'lsa, 20 yil davomida bu yerlarda 10,4 mln tonna paxta xomashyosi yetishtirildi.

Qishloq xo'jaligining ekstensiv yo'ldan rivojlantirilishi, totalitar rejimning sug'orish texnologiyasiga qo'pol aralashuvi og'ir ekologik oqibatga olib keldi. Suv zaxirasini o'ylamay yangi yerlarning o'zlashtirilishi dunyodagi eng katta ko'llardan biri – Orol dengizining qurishiga sabab bo'ldi.

Respublikadagi paxta yakkahokimligi siyosati, ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan sovetcha iqtisodiyot Orol atrofida favqulodda halokatli ekologik xatarni keltirib chiqardi. Dengizning qurishi 60–70-yillarda yiliga 18 sm, 1971–1980-yillarda 53 sm, 1981–1985-yillarda 78 sm, 1985-yilga kelib esa 87 sm ga yetdi. 1961-yildan 1991-yilgacha dengiz hajmi 3 baravar qisqardi, o'z qirg'og'ida 75 – 80, ba'zi joylarda 100 km ga chekindi. 1980-yillarning boshida Orol dengiziga suv kelishi deyarli butunlay to'xtab, nodir suv makoni quriy boshladi. Natijada tuz va qumdan iborat 2 mln gektar maydon ochilib qoldi.

60-yillarga kelib aholining jon boshiga – go'sht 29 kg, sut 150 litr, tuxum 78 dona. qand-shakar 21,2 kg, kartoshka 28, sabzavot va poliz mahsulotlari 66 kilogrammdan to'g'ri keldi. Bu miqdor umumittifoq darajasidan ancha past edi. Qishloq aholisining iste'mol darajasi bu o'rta hisobdan ko'ra yanada achinarli edi. Buning ustiga tomorqaga nisbatan noto'g'ri siyosat olib borildi. 50-yillarning boshlarida respublika rahbarlarining tashabbusi bilan sug'oriladigan yerlar tomorqa hajmi 25 sotixdan 13 sotixga tushirildi. Bu ko'rsatkich ayrim joylarda, hatto 6–8 sotixgacha kamayib ketdi. Bu holatlar O'zbekiston qishloq aholisining turmush darajasini yanada og'irlashtirdi.

Ishlab chiqarishdagi tarqoqlik ham iqtisodning kompleks rivojiga to'siq bo'ldi. 1953-yili respublika ixtiyoridagi korxonalar jami sanoat mahsulotlarining 31 % ini ishlab chiqargan bo'lsa, ittifoqqa bo'ysungan korxonalariga 69 % to'g'ri keldi. Faqatgina 1955-yilning oxirida O'zK partiya rahbari lavozimiga N.A.Muhiddinovning saylanishi va uning tashabbusi bilan Markaz ixtiyoridagi

yuzlab sanoat korxonalari respublika qaramogʻiga oʻtkazildi. Bundan tashqari, 1959 – 65-yillarda 450 dan ziyod sanoat korxonalari va sexlar ishga tushirildi.

1958 – 1960-yillarda Jarqoq-Buxoro-Samarqand-Toshkent magistral gaz quvuri qurilishi bilan respublika sanoat korxonalari, shahar va ayrim qishloqlarni gazlashtirish boshlandi. 1960-yilda 447 mln kubometr hajmda tabiiy gaz olingan boʻlsa, 1970-yilga kelib bu miqdor 32 mlrd kubometrni tashkil qildi. Oʻzbekiston tabiiy gazini markaz koʻrsatmasi asosida Qozogʻiston, Tojikiston, sobiq ittifoqning Yevropa qismi, Ural, Boltiqboʻyi respublikalari va boshqa mintaqalarga uzluksiz joʻnatish boshlandi. Respublika aholisining tabiiy gazga muhtojligi kuchayib turgan bir paytda Oʻzbekiston tabiiy gazini olib ketish boshlangan edi.

Bu yillarda Ohangaron, Olmaliq havzasi va Zarafshon tizmasi togʻ konlari oʻzlashtirilib, rangli metallurgiya sanoati rivojlana boshladi. Uran konlari ittifoq ixtiyoriga oʻtkazilgan edi. 1948-yil yanvaridan Oʻrta Osiyodagi uran qidirish tashkilotlari yagona – Krasnogorskiy ekspeditsiyasiga birlashdi. 1951-yil ana shu “10-korxonona” deb nom olgan tashkilot bazasida Krasnoyarsk ekspeditsiyasi tuzilib, ittifoq geologiya vazirligiga boʻysundirildi. Qizilqumda 50 – 60-yillarda jami 27 kompleks uran konlari ochildi. Navoiy, Uchquduq, Zarafshon, Zafarobod, Nurobod shaharlarida bir necha yuz kilometrni tashkil etgan temir yoʻl, avtomobil yoʻllari qurildi.

Amudaryoning chap qirgʻoqlari boʻylab 400 km masofada Chorjoʻy-Urganch temir yoʻli qurildi. Endi Ashxobod, Samarqand, Dushanbe, Toshkent shaharlaridan tovar yoʻlovchi poyezdlari Rossiya orqali Yevropa shaharlariga yoʻl oladigan boʻldi.

Bir necha oʻn yilliklar davomida Oʻzbekistonda mahalliy yoshlardan ishchi kadrlar tayyorlash oʻrniga, Rossiya va Ukrainadan tayyor kadrlar keltirish siyosati olib borildi. Oʻzbekiston iqtisodiyotining ahvoli boshqaruv usullarini oʻzgartirishni, yangi sharoitga moslashtirishni talab qilsa ham, Oʻzkompartiya, uning qoʻmitalari, urush davrining ish tajribasini davom ettirib, markazda va joylarda hokimiyatni oʻz qoʻlida mahkam ushlab, maʼmuriy buyruqbozlik tizimini yanada kuchaytirdi.

Urushdan keyingi yillari partiya va hukumat rahbarligiga nazariy jihatdan yetilmagan, ish tajribasi yetarli boʻlmagan xodimlar keldi. Davlatni boshqaruv tizimida mahalliy xalq vakillari faqat 47 foizni tashkil qildi. Partiyaga qabul qilishga yuzaki, toʻralarcha yondashuv natijasida qabul qilinganlarning koʻpchiligini ishchi va dehqonlar tashkil qilib, ilgʻor ziyolilar, malakali mutaxassislar rahbarlik ishlaridan chetlashtirildi. Oʻzbekiston SSR Oliy va mahalliy kengashlariga saylovlar yuzakilashib, oldindan tuzilgan roʻyxat va reja asosida deputatlikka nomzodlar koʻrsatildi.

Ayniqsa, Ittifoq Oliy Kengashiga saylangan deputatlar rus tilini bilmaganligi sababli sessiya majlislarida respublika manfaatlarini himoya qiladigan darajada emas edi. Partiya va jamoat tashkilotlarining anjumanlariga delegat qilib saylanganlarning aksariyati o'z vazifalarini tushunmaydigan loqaydlar edi. Buning ustiga Oliy Kengash deputatlarining katta qismini partiya, ma'muriy xo'jalik va jamoat xo'jaligi rahbarlari tashkil etib, ular har chaqirida qayta saylanaverardi.

Partiya, sovet xodimlarining savodxonlik darajasini ko'tarishga qanchalik urinishmasin, deputatlar orasida o'rta va to'liqsiz o'rta ma'lumotlilar soni salmoqli ediki, bu respublika Oliy Kengashi faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ba'zi deputatlar o'rta ma'lumot bilan Oliy kengashning doimiy qo'mitalari a'zosi ham bo'ldi. O'zbekistonda 30-yillarning ikkinchi yarmidan 1959-yilgacha sovetlarga markazdan kelgan rahbar partiya va sovet xodimlarini saylash urf bo'ldi. Bu odat 70-yillarda yana qaytadan yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston xalqaro miqyosda ham dunyo xalqlari bilan tinchlik va hamkorlikni o'rnatishda o'z hissasini qo'shib bordi. Uning xorijiy mamlakatlar bilan savdo va madaniy aloqalari kengaydi. 1958-yili O'zbekiston dunyoning 32 mamlakati bilan savdo, madaniy aloqalar qilgan bo'lsa, 1970-yil 76 mamlakat bilan savdo aloqalarini o'rnatdi.

Andijon mashinasozlik zavodining mahsulotlari 44 mamlakatga, Toshkent kabel zavodining mahsuloti 27, Chirchiq elektroximkombinati 20, Samarqanddagi "Kinap" zavodi 30 mamlakatga o'z mahsulotini chiqardi. Ko'p yillar davomida paxta tashqi bozorga chiqarilgan asosiy mahsulot bo'lib, 1953-yildan boshlab O'zbekiston paxtasi Amerika Qo'shma Shtatlari, Meksika, Suriya kabi paxta yetishtiruvchi mamlakatlarning raqobatini yengib, yirik davlatlar bozoriga chiqdi va jami 35 davlatning bozorini egalladi.

Chetga mahsulot chiqarishda O'zbekiston ittifoq miqyosida RSFSR va Ukrainadan keyingi uchinchi o'rinda turdi. Qorako'l teri va paxta tolasidan boshlab mashinasozlik mahsulotlarining 250 turi to'rt qit'aning deyarli hamma mamlakatlariga chiqarildi. Biroq, bu mahsulotlar O'zbekiston nomi bilan emas, ittifoqda ishlangan tamg'a bilan dunyoga tanilayotgan edi.

O'zbekistonning minglab mutaxassislari mustaqillikka erishgan mamlakatlarda iqtisodiyotini rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shdilar. Respublika Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi mamlakatlari uchun minglab oliy va o'rta ma'lumotli mutaxassislar ham tayyorlab berdi. Hamyurtlar Misrdagi Asuan va Xeluan suv inshootlari, Afg'onistondagi Jalolobod kanali va Kubadagi sanoat qurilishlarida ishtirok etdi.

O'zbekiston xalqaro birodarlashgan shaharlar uyushmasiga a'zo bo'lib, poytaxt Toshkent Pokistonning Karachi, Liviyaning Tripoli, Hindistonning Patlala, AQSHning Sietl, Marokashning Marokash, Yugoslaviyaning Skople shaharlari bilan birodarlashdi. Toshkentda xalqaro yig'inlar, uchrashuvlar, ilmiy kengashlar, ilmiy sessiyalar, yozuvchilar anjumanlari o'tkazish an'anaga aylandi.

O'zbekiston chet davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarni kengaytirish, uni samarali olib borish uchun barcha imkoniyatlarga ega bo'lsa ham bu imkoniyatdan to'la foydalana olmasdi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida O'zbekistonning davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan mustaqil aloqalar o'rnatishi yozib qo'yilgan bo'lsa-da, amalda bu aloqalar, munosabatlar faqat qog'ozda yozilgan edi. Bularning hammasi markazda rejalashtirilib, markazning ssenariyasi asosida amalga oshirilardi.

2. XX ASRNING 50 – 80-YILLARIDA RESPUBLIKANING MA'NAVIY-MADANIY HAYOTI VA MAFKURAVIY TAZYIQLAR

Ikkinchi jahon urushi tugab, xalq ahvoli og'ir davrda ham sovetlar respublikalarni ma'naviy-madaniy qaramlikda saqlash siyosatini yangi kuch bilan davom ettirdi. Bu borada hukmron partiya mafkurasi muhim rolni o'ynadi. Madaniy-ma'rifiy muassasalardan ommaga kommunistik g'oyani singdirishda, g'oyaviy ta'sir o'tkazishda keng foydalanish uchun ularning sonini ko'paytirishga harakat qilindi. 1960-yillarda respublikada 2.977 klub bo'lsa, 1970-yilda ularning soni 3.441 taga yetdi. Shu yillari kutubxonalar soni tegishli ravishda 3.418 tadan 5.822 taga, muzeylar soni 14 tadan 26 taga, kinoqurilmalar soni 2.178 tadan 3.988 taga oshdi. Lekin ularning ko'pchiligi statistik hisobotlarda oshirib ko'rsatilgan bo'lib, aslida o'zlarining bevosita funksiyalarini samarali bajarish uchun hayotiy imkoniyatga ega emas edi.

1969-yilda Rossiyada aholining 10 ming nafariga 14 klub muassasasi to'g'ri kelgan bo'lsa, Belorusiyada 11 ta, O'zbekistonda esa atigi 4 ta edi. Madaniy-ma'rifiy muassasalarga davlat tomonidan ajratilgan mablag' aholi jon boshiga Estoniyada – 21.3 so'mni, Armanistonda – 17.9, RSFSRda – 9.7 so'mni tashkil qilsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 4,5 so'm edi. Respublika kutubxonalarining kitob fondi 1950 – 1970-yillarda o'n barobarga ko'paygan bo'lsa-da, bu kitoblarning aksariyati hukmron g'oyaning asosi – marksizm-leninizm ta'limotiga oid asarlarni tashkil etardi.

Sovet hukumati ta'lim tizimini yaxshilash borasida ko'plab qarorlar qabul qilgan bo'lsa-da, ammo ular to'liq bajarilmas, shu bois, bu sohada ham ahvol

og'ir edi. Maktablar urushdan keyin ham darsliklar bilan to'liq ta'minlanmadi. Ularning moddiy-texnika bazasi esa nochor edi. Maorifni rivojlantirishda sovet tuzumining mahalliy millatlarga past nazar bilan qarash xususida pinhona siyosati ham davom etayotganligini arxiv ma'lumotlar tasdiqlaydi.

1946-47-o'quv yilida respublikada 4483 maktab bo'lib, 212.000 o'quvchi o'qigan bo'lsa, 1965-66-o'quv yilida maktablar 9716 ga, o'quvchilar 2.476.000 kishiga yetdi. 1985-yilda oliy o'quv yurtlari soni 42 tani tashkil etdi. Undagi talabalar soni 21.190 dan 168.800 ga ko'paydi. Bu miqdor "mahalliy millat yigit-qizlari bilim uchun emas, diplom uchun qiziqsin", degan aqidaga asoslanganligini ko'rsatadi. Biroq, O'zbekiston yoshlari murakkab sharoitlarga qaramay ilmga intildilar. Ularning ilmga chanqoqliklari sovetlar qo'ygan har qanday sun'iy to'siqlarni yengib o'ta boshladi.

To'g'ri, sovet hukumati 70 – 80-yillarda ta'lim dargohlari va bu dargohlarda tahsil olayotgan yoshlar sonining ko'payishiga yo'l ochib boshladi. Bu holatni quyidagi raqamlardan ham ko'rish mumkin: 1987-88-o'quv yilida 8111 umumta'lim maktablarida ta'lim olayotgan o'quvchilar soni 4 million 406,3 ming kishini tashkil etayotgan edi. 1988-yilda o'rta maxsus ta'lim o'quv yurtlari soni 248 taga yetib, ulardagi o'quvchilar soni o'z navbatida 292.0 ming kishiga etgan edi. 1987-88-o'quv yilida respublikaning 43 oliy o'quv yurtida 300.3 ming talaba ta'lim olayotgan edi.

Hunar-texnika bilim yurtlari tarmoqlari ham kengayib, pedagog kadrlarni tayyorlashda birmuncha ijobiy ishlar qilingan edi. Biroq, ta'lim-tarbiyadagi asosiy e'tibor mustamlakachilik manfaatlariga bo'ysundirilib, milliy manfaatlar esa ikkinchi o'ringa surib qo'yildi. O'rta maxsus va oliy ta'lim uchun yetarli mablag' ajratilmadi, "Qoldiq tamoyili" asosida ta'lim tarmoqlari moddiy texnika bazasi nochor bo'lib qolaverdi. Bu esa o'z navbatida butun ta'lim-tarbiya jarayonini davr talabi asosida yuqori saviyada tashkil qilish imkonini bermadi. Ta'lim-tarbiyaning barcha jarayonlari "markaz" tomonidan boshqarildi.

Bu yillarda barcha ta'lim-tarbiya maskanlarida o'qituvchilarning obro'e'tibori tushib, ularning mehnatiga to'lanadigan haq ham jiddiy kamayib bordi. Maktab o'quvchilari, o'rta hunar, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarining talabalari har yili bir necha oylab o'qish hisobiga majburiy holda qishloq xo'jaligi yumushlariga safarbar qilinardilar. ,

Urushdan keyingi yillarda O'zbekistonda ilm-fan rivojlanishda davom etdi. Respublika fan nomzodlari va doktorlari tayyorlash bo'yicha sobiq ittifoqda oldingi qatorlarga chiqdi. 1950-yil O'zbekistonda 1760 fan nomzodi 180 fan doktorlari faoliyat yuritayotgan edi. 1965-yilda esa, fan nomzodlarining soni 4000 va fan doktori 324 taga yetdi. 50 – 60-yillari respublika

Fanlar akademiyasining olimlari, ayniqsa, matematika-mexanika, tibbiyot, energetika, qishloq xo‘jaligi sohalarida ishlar olib bordi. Travmatologiya va ortopediya, energetika, matematika, onkologiya va radiologiya, O‘rta Osiyo qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash va elektrlashtirish, kibernetika va boshqa bir qancha institutlar shu yillarda ishga tushirildi. Aynan shu davrda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi qoshida Falsafa va huquq instituti tashkil etilib, Sharqshunoslik institutining faoliyati kengaytirildi.

O‘zbek olimlari ittifoqdosh respublikalar orasida birinchilardan bo‘lib ilmiy sohada atom quvvatlaridan foydalanish bo‘yicha tadqiqotni amalga oshirdi. Dastlabki paytda atom quvvati Toshkent va Samarqand Davlat universitetlari laboratoriyalarida, Fanlar akademiyasining Fizika-texnika institutida, Politexnika va meditsina institutlarida ishlatildi. Lekin texnika bazasi yetarli bo‘lmaganlikdan atom quvvatidan foydalanish doirasi tor edi. 1956-yil boshlarida Toshkentdan 30 km yiroqda Yadro ilmiy-tadqiqot instituti uchun shaharcha qurilib, 1958-yili ishga tushirildi. Uning birinchi direktori etib yirik fizik olim, akademik Ubay Oripov tayinlandi.

1951–1954-yillari respublikada yana bir yirik ilmiy markaz – ittifoqda yagona tabiiy sharoitda o‘sadigan Toshkent botanika bog‘i yaratildi.

1956-yil 5-noyabrda O‘rta Osiyoda birinchi Toshkent telemarkazining ishga tushirilishi o‘zbek xalqi hayotida muhim voqea bo‘ldi. Bunday telemarkazlar 1962 va 1964-yillarda Urganch va Nukusda ham ish boshladi.

Tabiiy fanlar sohasida o‘zlarining ilmiy yutuqlari bilan dunyoga tanilgan o‘zbek olimlaridan matematiklar – T.N.Qori-Niyoziy, T.A.Sarimsoqov, S.X.Sirojiddinov, fiziklar – U.O.Oripov, S.A.Azimov, ximiklar – O.S.Sodiqov, S.Yu.Yunusov, M.I.Nabiyev, geologlar – H.M.Abdullayev, I.H.Hamroboyev, G.A.Mavlonov, biologlar – A.M.Muzaffarov, K.Z.Zokirov, T.Z.Zohidov, texnika sohasida – M.T.O‘razboyev, X.A.Rahmatullin, X.Fayziyev, jamiyatshunoslik fani sohasida – I.M.Mo‘minov, H.Sulaymonov, Ya.G‘.G‘ulomovlar ijod qildi. Bu davrda o‘zbek ziyolilarining safi kengayib, ularning soni 125 mingdan oshdi. 1956-yilning oxirlarida respublika ziyolilarining birinchi qurultoyi bo‘lib o‘tdi.

Sobiq tuzumning so‘nggi yigirma yilligida O‘zbekiston fani rivojida yana bir qator siljishlar yuz berdi. Fan rivoji uchun sarflangan mablag‘lar miqdori oshib, xodimlar ko‘paydi. 1970-yilda respublikada fanga 30.1 million rubl sarflangan bo‘lsa, 1987-yilda 67.2 million rubl sarflandi. Ilmiy xodimlar soni 1960-yilda 10 ming 309 kishini tashkil etgan bo‘lsa, 1987-yilda ularning soni 39.106 kishiga yetdi.

Biroq, fanda ham bir qancha kamchilik va nuqsonlar mavjud edi. Eng avvalo, o‘zbek tilining fan sifatidagi mavqeyi pasayib bordi. Barcha dissertatsiya va

boshqa ilmiy-tadqiqot ishlari faqat rus tilida yozilar, millat vakillari o'zlarining ilmiy salohiyatlarini o'z ona tilida ko'rsatishi, ifodalashi imkoniyatidan mahrum edi. Shunga qaramasdan xalq orasidan fanning turli sohalarida o'zining fundamental asarlari, qo'lga kiritgan yutuqlari bilan jahonga tanilgan olimlar yetishib chiqdi. Ijtimoiy-gumanitar fanlar rivojlanib, bu borada olimlardan Ya.G'.G'ulomov, B.Ahmedov, R.N.Nabiyev, V.Zohidov, Sh.Shomuhamedov, R.Aminova, N.A.Dehqonxo'jayeva, E.Yusupov, A.Asqarov, O'.Islomov, A.Muhammadjonov, A.Ahmedov, K.Shoniyozov va boshqalar fan rivojiga salmoqli hissa qo'shdilar. Bu olimlar orasida mashhur faylasuf olim Ibrohim Mo'minov ham bor ediki, u mavjud tuzum to'siqlaridan qo'rqmasdan buyuk sarkarda Amir Temurning O'rta Osiyo xalqi uchun qilgan xizmatlarini ro'yi-rost ochib bergan edi.

Hukmron partiya mafkurasi tazyiqi kuchayishiga qaramasdan, adabiyot va san'at sohasida yirik asarlar yaratildi. G'.G'ulom, Uyg'un, Zulfiya, Mirtemir, T.To'la, M.Boboyev, Mirmuhsin va boshqalarning tinchlik mavzusiga bag'ishlangan she'rlari bosilib chiqdi. Oybekning "Oltin vodiyan shabadalar", Parda Tursunning "O'qituvchi", Asqad Muxtorning "Opa-singillar" romanlari, Abdulla Qahhorning "Shohi so'zana", "Og'riq tishlar", B.Rahmonovning "Yurak sirlari" dramalari katta shuhrat qozondi. 50-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab siyosiy qatag'onlardan ozod bo'lgan ijodkorlarning asarlari yuz ko'ra boshladi. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani, Mirtemirning "Surat" dostoni, Shayxzodaning "Toshkentnoma"si nashrdan chiqdi.

60-yillardan adabiyotda yangi avlod paydo bo'ldi. Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, O'lmas Umarbekov, Husniddin Sharipov, Ozod Sharafitdinovlar bilan izma-iz yangi ijodiy tafakkurga ega bo'lgan iste'dodli ijodkorlar Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Shukur Xolmirzayev, Ne'mat Aminov, O'tkir Hoshimov, Muhammad Ali, Jamol Kamol, Omon Matjon, Rauf Parpi kabi yosh adabiyotchilar maydonga chiqdi. Ammo 50 – 80-yillarda ahyon-ahyonda ozodlikka intiluvchi fikrlar paydo bo'lsa, darhol tanqidlar va ma'muriy jazolar to'sig'i qo'yilib, ijodkorning birinchi navbatda ijod erkinligi bo'g'ilar edi.

Urushdan keyingi tazyiq va cheklashlarga qaramay respublika san'atida, xususan, teatr va raqs san'atida oldinga siljishlar yuz berdi. 1947-yili Toshkentda xoreografiya bilim yurti ochildi. 1957-yili mashhur raqqosa M.Turg'unboyeva tomonidan "Bahor" o'zbek xalq raqs ansambli, 1958-yili G.Rahimova rahbarligida Xorazm ashula va raqs ansambllari tuzildi. Bu jamoalar o'zbek sahna raqslarini boyitdi. Respublikada teatr san'atining rivojlanishida Samarqand davlat ashula va balet teatrining (1964-yil), Toshkentda "Yosh gvardiya" (1990-yildan Abror Hidoyatov nomidagi) O'zbek drama teatrining ochilishi katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Musiqa va teatr sohasidagi bu o'zgarishlar bir tomonlama bo'lib, jahon san'ati darajasiga tezroq yetib olish uchun o'zbek milliy madaniyatidan uzoq bo'lgan opera, balet, simfonik musiqaga asosiy e'tibor berilib, milliy drama teatrlari e'tibordan chetda qoldi.

Sovet adabiyoti va san'atining "shaklan milliy, mazmunan sotsialistik" degan shior ostida rivojlanishi baynalmilallashtirishga qaratilgan bo'lib, badiiy asarlarda milliylikni yo'qotish maqsad qilindi.

60 – 80-yillar o'zbek san'ati rivojlanishi yillari bo'ldi. O'zbek yozuvchilari teatr va musiqa ijodkorlari bilan hamkorlikda samarali ijod qildi. H.Nosirova, Tamaraxonim, M.Turg'unboyeva, O.Xo'jayev, R.Hamroyev, L.Sarimsoqova, Sh.Burhonov, N.Rahimov, R.Pirmuhammedov, Z.Muhammadjonov, S.Xo'jayevlar o'zbek teatr va musiqa san'tini yuksaklikka ko'tardi. Qo'shiqchilik sohasida K.Otaniyozov, M.Uzoqov, J.Sultonov, F.Umarov, T.Qodirov, K.Baratov, F.Rahmatova, Saodat Qobulova, Oyimxon Shomuratova, Habiba Oxunova, Berta Davidova, Kommuna Ismoilova kabi o'nlab yirik san'atkorlar nafaqat o'lkada, balki xorij mamlakatlariga ham o'zbek san'atini targ'ib etishda tinimsiz ijod qildi va o'ziga xos qo'shiqchilik maktabini yaratdi.

1965 – 75-yillar davomida 100 dan ziyod teatr san'ati xodimlari Yevropa va Osiyoning 40 dan ortiq mamlakatlarida ijodiy safarda bo'ldi. Birgina "Bahor" xalq raqs ansambli 1978-yilning o'zida Italiyaning 15 ta shahrida, Malta orolida, Fransiyaning 14 ta shahrida konsertlar berdi. 1984-yilda ansambl dunyoning 8 ta davlati: Iordaniya, Peru, Gretsiya, Avstraliya, Portugaliya, Yangi Zelandiya, Niderlandiya, Efiopiyada bo'lib o'tgan dekalarda muvaffaqiyatli qatnashdi.

Haykaltaroshlik, rassomchilik sohalarida Bahodir Jalolov, Javlon Umarbekov, Alisher Mirzayev, Damir Ro'ziboyev kabilar samarali ijod qildi.

Umuman, bu yillarda O'zbekiston san'atining barcha turi o'ziga xos rivojga, yuksalishga, qolaversa, dunyoning ko'pgina hududlariga tanilishga erishdi. Biroq, barcha soha yo'nalishlari kabi san'at ham hukmron mafkura nazorati va tazyiqi ostida bo'ldi. Bu holat har doim ham ijodda milliy ruh, milliy madaniyat, milliy san'atni namoyish etilishiga, erkin ijodiy faoliyatni yuritishga imkon beravermas edi.

50 – 80-yillarda O'zbekiston sanoat va qishloq xo'jaligi, madaniyati va fan rivojlanishida ma'lum natijalarga erishdi. Lekin bu rivojlanish ziddiyatlar bilan to'la bo'ldi, demokratiyalashtirish yo'lida olib borilgan tadbirlar yetarli natijalarni bermadi. Ma'muriy buyruqbozlik tizimi kuchayib borayotgan O'zbekistonda xalqning turmushi, aholiga ko'rsatiladigan maishiy xizmat jihatidan respublika sobiq ittifoqda oxirgi o'rinlarda edi. Ta'lim-tarbiya va

sogʻliqni saqlash sohasidagi balandparvoz koʻrsatkichlar sotsialistik tuzumning tashviqot-targʻiboti uchun foydalanildi. Bularning barchasi jamiyatni inqiroz tomonga yoʻl tutishini kuchaytirib borayotgan edi.

3. SOVET TUZUMI QATAGʻONLIK SIYOSATINING 50 VA 80-YILLARDAGI YANGI TOʻLQINI

Fashizmga qarshi urush tamom boʻlgandan keyin, oradan koʻp oʻtmay butun sobiq ittifoq boʻylab navbatdagi yalpi terror toʻlqini boshlandi. Sobiq hukmron partiya aholiga fashizm mafkurasi taʼsiri boʻlganligini va buning oqibatida matbuot, sanʼat va adabiyotda gʻoyasizlik, siyosatdan uzoqlashish, hayotiy haqiqatni buzib koʻrsatish, umidsizlik, kelajakka ishonchsizlik paydo boʻlganligini roʻkach qilib, 40-yillar adabiyot va sanʼat namoyandalari faoliyatini tazyiq ostiga oldi. Bu borada bir qator qarorlar ham qabul qilindi. Bu qarorlar butun mamlakatda, shu jumladan, Oʻzbekistonda ham ziyolilarga qarshi kurashni boshlanishiga sabab boʻldi. 1949-yilning martida Oʻzbekiston kommunistlarining X syezdi chaqirilib, uning qarorlarida jamiyatda sotsialistik mafkuraning tazyiqini, respublika mehnatkashlarini kommunistik ruhda tarbiyalash usullarini kuchaytirish, milliy va diniy qadriyatlarga, diniy xurofotga qarshi kurashish vazifalari qoʻyildi.

1949-yil 25-iyunda Oʻzkompartiya Markazqoʻmining “Oʻzbekiston Sovet yozuvchilar soyuzining ishi toʻgʻrisida”gi qarori qabul qilinib, unda koʻpgina yozuvchilar, olimlar, partiya va davlat arboblari, madaniyat xodimlari millatchilikda ayblandi. Oybek, Abdulla Qahhor, Mamarasul Boboyev, Mirtemir, Shayxzoda kabi oʻzbek yozuvchilari badnom qilindi. 1951-yili avgustda bir guruh atoqli ijodkor ziyolilar “millatchilar”, deb matbuotda nohaq tanqid qilindi, “buzgʻunchilikda” ayblandi. Keyinchalik yozuvchilardan Shayxzoda, Shukrullo, Shuhrat, Said Ahmad va boshqalar uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etildi. Yuqorida taʼkidlangan qarorlar taʼsirida respublikada nashr etilayotgan, xalq sevib oʻqiyotgan “Sharq yulduzi” jurnali ham qattiq tanqid ostiga olindi va uning Oybek boshchiligidagi xodimlarining koʻpchiligi “millatchi” aybi bilan qamoq jazosiga hukm qilindi.

1951-yilning 8-aprelidagi Oʻzkompartiya Markazqoʻmining “Oʻzbekiston SSRda musiqa sanʼatining ahvoli va uni yanada rivojlantirishning tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarorida esa buyuk shoir Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” dostonlari, “Tohir va Zuhra”, “Alpomish” xalq dostonlarining afsonaviy folklor sujetlariga asoslangan opera, balet va musiqali drama spektakllarini yaratish va sahnalarda koʻrsatish “zararli” ish deb baho-

landi. Qarorda “O‘zbekistonning musiqa san’ati hayotdan orqada qolmoqda, o‘zbek xalqini kommunistik ruhda tarbiyalash maqsad va vazifalariga to‘lato‘kis xizmat qilmayotir”, deb ta’kidlanishi bunday asarlarni sahnalashtirishda ishtirok etgan ijodkorlarning ta’qib ostiga olinishiga sabab bo‘ldi.

Respublikada 50-yillar qatag‘onining kuchayishida O‘zkompartiya Markazqo‘mining 1952-yil 21-22-fevralida bo‘lib o‘tgan plenumi va uning qabul qilgan qarorlari ham mudhish rol o‘ynadi. Plenumda O‘zkompartiya MQ birinchi kotibi A.Niyozovning “Respublikada ideologiya ishlarining ahvoli va uni yaxshilash choralari haqida”gi ma’ruzasida adabiyot, madaniyat, san’at va fan xodimlaridan bir qanchasi keskin tanqid qilindi. Plenumda, shuningdek, jamiyatshunos olimlarga ham nohaq ayblar qo‘yildi. Jumladan, faylasuf V.Zohidov “Burjua millatchisi”, iqtisodiyotchi A.Aminov “burjua millatchilari bilan aloqa qiluvchi”lar sifatida ayblandi. Ayblanuvchilar orasida “panturkizmni targ‘ib etuvchi” aybi bilan qoralangan tarixchi olim Boboxo‘jayev ham bor edi.

50-yillarning boshlarida yana 60 tacha eng ko‘zga ko‘ringan qobiliyatli olim va yozuvchi, san’at arboblarning ro‘yxati tuzilib, ularni ham millatchi, aksilinqilobchi va hokazo yorliqlar ostida jinoiy jazoga tortishga urindilar. Bu ofatlardan qutulish juda qimmatga tushdi. Lekin adolat, garchi tezda bo‘lmasada, har qalay tiklangan edi. O‘zbekiston ilm-fani, madaniyatining asossiz qatag‘on qilingan ko‘pgina arboblari 1956- yilda batamom oqlandi. 40-yillarning oxirida surgunga yuborilganlarning hammasi ozod qilindi. Yo‘qotish ro‘yxatiga qo‘shilgan, xalqning faxri bo‘lgan oltmish nafar ziyolilar ustidan tayyorlangan hukm bekor qilindi. Zulmlarga qarshi adolat o‘rnatilgan bo‘lsada, stalinizm vujudga keltirgan totalitar tuzum bedodligi va beshafqatligi xalqlarning orzu-umidlarini chilparchin qildi, suveren huquqlari – milliy mustaqilligini zavol toptirdi. O‘zbekiston oyoq-qo‘li kishanlanib, markaz deb atalmish zo‘ravon hokimiyat iskanjasiga tushib qoldi.

Bu qilingan ishlarning barchasi xalqning til-zabonini qisqartirishga va uning tarixini ko‘zdan yiroqlashtirishga qaratildi.

O‘tgan asr 80-yillarida O‘zbekistonda mustabid tuzum qatag‘onining yangi to‘lqini boshlandi. Sovet tuzumining qariyb 70 yillik hukmronlik davrida to‘planib qolgan muammolar yuzaga chiqib, endi kuch bilan sobiq ittifoqni saqlab qolish mumkin bo‘lmay qolgandi. Hukmron partiya markazqo‘mining 1985-yil (aprel) Plenumi mamlakatda vujudga kelgan vaziyatni tahlil qilib, sovet jamiyatini qayta qurish va yangilash zarurligi borasida ko‘rsatmalar berdi. Plenum ijtimoiy hayotni demokratlashtirish, oshkoralikni joriy qilish, milliy siyosatni o‘zgartirish, umuman jamiyat hayotining barcha sohalarini

chuqur isloh qilish yoʻlini eʼlon qildi. Oʻzbekistonda ham ijtimoiy-siyosiy hayotni demokratiyalashtirish, oshkoralik, fikrlar xilma-xilligi uchun imkoniyatlar vujudga keldi. Biroq, Oʻzbekistonning sobiq partiya va hukumat rahbarlari (I.B.Usmonxoʻjayev, Qodirov, R.Nishonov, R.Abdullayeva) sovetlarning koʻzboʻyamachilik, “ulugʻ millatchilik” va shovinistik siyosati mohiyatini anglab yeta olmadi va oʻta noʻnoqlik qildi.

Sobiq respublika rahbarlari hatto shu darajaga borib yetdilarki, ular Markazdan respublika tashkilotlari rahbarligiga kadrlar yuborishni ham iltimos qildilar. Vaziyat mohiyatini tushunmasdan, noʻnoqlik qilgan respublika rahbarlari iltimosi bilan markazdan yuborilganlar tarixda “kadrlar desanti” nomi bilan qoldi.

1983-yilning oxirida respublikada juda ogʻir vaziyat vujudga kelgan edi. Birinchidan, jinoyatchilikka qarshi kurashish niqobi ostida sobiq markazdan ketma-ket turli tergov guruhlarini tashlandi, respublikadagi rahbarlik lavozimlariga sobiq ittifoqning har xil joylaridan kadrlar kela boshladi. Oʻzbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining ikkinchi kotibligiga Anishchev, Ministrlar Soveti raisining birinchi oʻrinbosari Ogarkov, Oliy Sovet Prezidiumi raisining oʻrinbosari etib Romanovskiy, Respublika prokurori etib Buturlin, uning oʻrinbosari Gaydanov, tergov boshliqligiga Laptev, Ichki ishlar vazirligiga Didorenkolar tayinlandi. Toshkent shahri partiya rahbari etib Satin qoʻyildi. Barcha viloyatlarda ham ahvol shunday boʻlib, ular respublikadagi hukmronlikni toʻla qoʻlga olgan edilar.

Sobiq ittifoq prokuraturasi xodimlari, ashaddiy shovinistlar Gdlyan va Ivanovlar rahbarligidagi tergovchilar guruhi Oʻzbekistonga kelib, “yeng shimarib” ishga kirishdi. “Desantchilar”dan tergovchi Gdlyan va Ivanovlar guruhi Oʻzbekistonda cheklanmagan vakolatlariga ega edilar. Ular boshchiligidagi tergovchilar Markazning qoʻllab-quvvatlashi bilan Oʻzbekistondagi soxta topilgan ishlarni “Oʻzbek ishi”, “paxta ishi” deb atab, “Oʻzbek mafiyasi” degan soxta uydirmalarni ham toʻqib chiqardilar. Bundan maqsad oʻzbek xalqini, Oʻzbekistonni nafaqat ittifoqda, qolaversa, dunyoda badnom qilish, jazolash va shu yoʻl bilan boshqa ittifoqchi respublikalarni choʻchitib qoʻyish edi. Afsuski, Oʻzbekistonning oʻsha vaqtdagi rahbarlari buni koʻra-bila turib lom-mim demadi, aksincha, ularga koʻmaklashdi. Buning oqibati esa ularning oʻzlari uchun ham halokatli boʻldi. Jurnallarda, radio-televideniya muntazam xabarlar bosilib, millat shanini badnom va sharmanda qilishga urinishdi.

1983-yilning aprelida Buxoro viloyati rahbarlari ustidan jinoyat ishi qoʻzgʻatilgan edi. 1983–1988-yillarda Oʻzbekiston boʻyicha jinoyat ish yuzasidan

qamalganlarning 600 tasi rahbar xodimlar edi. Ularning 60 foizi kolxoz raislari, savxoz direktorlari, 45 foizi yetuk qishloq xo‘jaligi mutaxassislarini tashkil qilardi. Bu jarayonda mas‘ul, KPSS MQ nomenklaturasidagi 172, O‘zkompartiya MQ nomenklaturasidagi 1813 nafar xodim javobgarlikka tortildi. Ularning 70 foizi viloyat, shahar, tuman partiya qo‘mitalarining kotiblaridir.

Qamalganlarning 5000 dan ortig‘i javobgarlikka tortildi. O‘sha paytda respublikadagi qamoqxonalarda joy qolmagani sababli sudlanganlarning mingdan ortig‘i jazoni o‘tash uchun Sibir qamoqxonalariga jo‘natildi. Aybsiz odamlarni, ularning oila a‘zolarini qamoqqa olish, jismoniy va ruhiy qiynoqqa solish avj oldi. Hibsga olinganlar tergov usullariga dosh berolmay o‘z jonlariga qasd qilishgacha borib yetdilar.

O‘zbekistonda inson huquqlari behad toptalayotganligi haqida Moskvaga minglab xatlar jo‘natildi. Afsuski, bu xatlar tekshirilmadi va ularga javob ham olinmadi. Aksincha, Gdlyan va uning gumashtalari ketma-ket unvonlar bilan rag‘batlantirilib turildi.

Ana shu tariqa desantchilar o‘zbek xalqini ko‘zbo‘yamachilikda, poraxo‘rlikda, qo‘shib yozishlarda, boqimandalikda ayblab, partiya va davlat rahbarlaridan tortib oddiy dehqonlargacha ta‘qib ostiga oldi. Ular o‘zlari o‘ylab topgan soxta ayblari natijasida respublikaning 25 mingga yaqin fuqarolari qiynoqlarga solindi, sudsiz, tergovsiz qamaldi. Ularning orasida keksalar, homilador ayollar, nogironlar ham bor edi. Aybsiz kishilarga jismoniy kuch ishlatib, qo‘rqitish yo‘li bilan ayblar qo‘yildi. Oddiy mehnatkashlardan katta miqdorda pul, o‘z rahbarlari to‘g‘risida noto‘g‘ri ko‘rsatmalar berish talab qilindi.

Bu davrda ijtimoiy va xo‘jalik vazifalarini ma‘muriy-buyruqbozlik bilan hal etish mumkin bo‘lmay qoldi. Iqtisodiy o‘sish esa yildan-yilga kamayib boraverdi. Respublika xalq xo‘jaligida umumiy ijtimoiy mehnat unumdorligining pasayishi hisobiga mo‘ljaldagidan 4,3 foiz yoki 850,4 million so‘mga kam milliy daromad olindi. 1989-yilda O‘zbekistondagi har bir kishiga sobiq ittifoqdagi o‘rtacha darajadan bir yarim baravardan kam kapital mablag‘ to‘g‘ri keldi.

Shu davrga kelib respublika xalq xo‘jaligida ko‘plab muammolar to‘planib qoldi. Sovet tuzumining navbatdagi islohoti ham yo‘l qo‘yilgan xatolar tufayli barbod bo‘ldi. Ushbu muammolardan xalq e‘tiborini chalg‘itish uchun ko‘p yillar davomida yig‘ilib qolgan milliy noroziliklardan foydalanishga harakat qilindi. O‘sha davrda respublikada milliy ongning o‘sishi, o‘zlikni anglash darajasining kuchayishi yana ko‘plab muammolarning yechimini kun tartibiga qo‘ydi. Ammo sobiq respublika rahbarlari bu muammolarni yechish uchun qilinayotgan harakatlarni “jamiyatga qarshi” harakat, deb tushundilar.

Millat va xalq manfaatlarini o‘z dilida his etgan respublikaning I.Karimov boshchiligidagi yangi rahbariyati bu muammolarni o‘z vaqtida anglab, uning to‘g‘ri va oqilona yechimini topishga harakat qila boshladi.

Tayanch so‘z va iboralar:

1946–1950-yillar besh yilligi. Elektr energiya ishlab chiqarish. Paxta yak-hahokimligi. Ijtimoiy masalalar. Qo‘riq va bo‘z yerlar. Orol fojiasi. Aholi turmush darajasi. Mahalliy ishchi kadrlari muammosi. Ma‘muriy buyruqbozlik. Madaniy-ma‘naviy sohadagi mafkuraviy tazyiqlar. Ta‘lim muammolari. Fan. Rus tili mavqeyining ko‘tarilishi. Adabiyot va san‘atdagi cheklanishlar. 50–80-yillardagi qatag‘onchilik. “O‘zbek ishi”. O‘zbek xalqining o‘zligini anglash darajasining o‘sib borishi.

Bilimingizni sinab ko‘ring

1. Urushdan keyingi yillarda sobiq ittifoqning majburiyati bilan qishloq aholisi o‘z bog‘laridan voz kechdi. Aholining shaxsiy mollari davlat va jamoa xo‘jaliklari foydasiga olindi. Oqibatda shaxsiy xo‘jaliklarda chorva mollari-ning soni keskin kamaydi.

Qishloq mehnatkashlari zimmasiga yuklangan majburiyat qanday nomlangan?

		i					i		
m	a	j	b	u	r	i	y	t	i

2. Qishloq xo‘jaligining ekstensiv yo‘ldan rivojlantirilishi, totalitar tu-zumning sug‘orish texnologiyasiga qo‘pol aralashuvi og‘ir ekologik oqibatga olib keldi. Suv zaxirasini o‘ylamay yangi yerlarning o‘zlashtirilishi dunyodagi eng katta ko‘l (dengiz)lardan birining qurishiga olib keldi.

Bu ko‘l(dengiz)ning nomini toping.

				f	o	j	i	a	s	i
--	--	--	--	---	---	---	---	---	---	---

3. Urushdan keyingi yillarda bo‘lib o‘tgan saylovlarda saylovchilarning qariyb 100 foizi kommunistlarga “yakkillik” bilan ovoz berar edi. Shu bois, doimo saylangan sovetlar faoliyatida mazmun va mohiyatdan uzoq, amalda emas, ko‘proq yozishda ma‘nolarini beruvchi ikki noxush holat kuchaydi.

Katakchalarda ikki ma‘noni anglatuvchi kuchaygan ikki holatning nomlanishi yashiringan. Ularni toping.

							l	i	k		v	a
--	--	--	--	--	--	--	---	---	---	--	---	---

								l	i	k
--	--	--	--	--	--	--	--	---	---	---

4. Ikkinchi jahon urushidan keyin O'zbekiston Fanlar akademiyasi qoshida Falsafa va huquq instituti tashkil etilib, tillar bilan bog'liq yana bir institut faoliyati kengaytirildi.

Ushbu institut nomini toping.

	a				u				l		
--	---	--	--	--	---	--	--	--	---	--	--

i	n	s	t	i	t	u	t	i
---	---	---	---	---	---	---	---	---

5. Urushdan keyingi yillarda respublika adabiyoti va san'atining bir shior ostida rivojlanishi badiiy asarlarda milliylikni yo'qotishga qaratilgan edi.

Bu shior qanday nomlangan edi?

	a			a			i			i	
--	---	--	--	---	--	--	---	--	--	---	--

	a						a	
--	---	--	--	--	--	--	---	--

			i			i			i	
--	--	--	---	--	--	---	--	--	---	--

6. 1949-yil 25-iyunda O'zkompartiya Markazqo'mining "O'zbekiston sovet yozuvchilar soyuzining ishi to'g'risida"gi qarori asosida ko'pgina yozuvchi-shoirilar, olimlar, madaniyat xodimlari millatchilikda ayblandi. Bu qarorda respublikada nashr etilayotgan, xalq sevib o'qiyotgan jurnal ham qattiq tanqid ostiga olinib, uning rahbari va xodimlarining ko'pchiligi "millatchi" aybi bilan qamoq jazosiga hukm qilindi.

Bu jurnal va uning rahbari nomini katakchalardan toping.

«		a		q
---	--	---	--	---

		d			i	»
--	--	---	--	--	---	---

(jurnal nomi)

O	y	b	e	k
---	---	---	---	---

(rahbari)

7. Gdlyan va Ivanovlar boshchiligidagi tergovchilar Markazning qo'llab-quvvatlashi bilan O'zbekistondagi soxta topilgan ishlarni "O'zbek ishi", "Paxta ishi" deb atab, soxta uydirmalarni ham to'qib chiqardi.

Katakchalardan o'sha soxta uydirmalarning nomi yashiringan, uni toping.

«				y	
---	--	--	--	---	--

			i			i		»
--	--	--	---	--	--	---	--	---

XV BOB. O‘ZBEKISTON MUSTAQILLIKKA ERISHISH OSTONASIDA

Mavzu rejasi:

1. Tinchlik va barqarorlikka raxna solinishi, uni saqlash yo‘lidagi fidoyilik.
2. O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, ularni bartaraf etish hamda xalq turmush darajasini ko‘tarish choralarining ko‘rilishi.
3. O‘zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini ta‘minlash va bozor munosabatlariga o‘tish masalalarining hal etilishi.
4. Mustaqillik sari dadil qadamlar.
5. Prezident I.A.Karimovning O‘zbekiston mustaqillik ostonasidagi davr tarixini yoritib berishdagi muhim xizmati.

1. TINCHLIK VA BARQARORLIKKA RAXNA SOLINISHI, UNI SAQLASH YO‘LIDAGI FIDOYILIK

Ma‘lumki, XX asrning 80-yillari oxirlariga kelib sobiq ittifoqda iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy inqiroz jarayonlari kuchayib, betartiblik avj olib ketdi. O‘z navbatida necha yillar davomida hal etilmagan, xalqning sabr kosasini to‘ldirgan muammolar oxir-oqibatda ijtimoiy larzalarga, milliy nizolarga sabab bo‘ldi. Bunday salbiy holatlar, afsuski, O‘zbekistonni ham chetlab o‘tmadi. 1989-yilning may oyi oxirlari, iyunning boshlari butun Farg‘ona viloyati janjal-to‘polonlar alangasi ichida qoldi. Dastlab 23-may kuni boshlangan fojia ikki kundan keyin Toshloq tumaniga, undan so‘ng Marg‘ilon va Qo‘qon shaharlariga tarqaldi.

Qadimdan o‘zining bag‘rikenglik, mehmondo‘stlik, mehr-shafqatlilik fazilatlari bilan shuhrat qozongan xalq hech qachon birovga nisbatan adovatda bo‘lmagan, qo‘l ko‘tarmagan. Biroq, sobiq ittifoqdagi buzg‘unchi kuchlar ta‘sirida ana shunday favqulodda kutilmagan fojia sodir etildi va begunoh insonlar qurbon bo‘ldi, mingga yaqin kishi jarohatlandi, sakkiz yuzdan ortiq uyga o‘t qo‘yildi, davlat va jamoat idoralarining binolariga ziyon yetkazildi. Ommaviy chiqish va to‘polonlarda o‘ttiz mingga yaqin odam ishtirok etib, yetkazilgan ziyon bir necha million so‘mdan ortib ketdi.

Keyinchalik aniq tarixiy dalillar asosida ma‘lum bo‘ldiki, ana shu tartibsizliklarga, xalq va yurt manfaatlariga mutlaqo zid harakatlarga milliy ki-

yimlarni kiyib olgan, aslida boshqa millatlarga mansub, maxsus tayyorgarlik bilan koʻchaga chiqarilgan kishilar tashkilotchilik qilishgan, ular tinch aholini qoʻzgʻab, janjal chiqarishga daʼvat etgan. Ular mesxeti turklari va boshqa millat vakillariga qarshi igʻvo va boʻhton gaplarni tarqatib, olomonni gʻalayonga keltirishga uringan va baʼzi holatlarda bunday yovuz niyatlarini amalga oshirishga erishganlar ham.

Sobiq ittifoqning markaziy matbuoti jahondagi koʻpgina OAVlari bor haqiqatni aytib, jahon ahlini ogoh etish, bunday toʻpolonlarning oldini olish oʻrniga, bamisoli olovga yogʻ sepgandek, Fargʻona voqealarini bir yoqlama yoritishga harakat qilar edi. Asosiy aybdorlar bir chetda qolib, ular jabr koʻrgan, qancha-qancha qurbonlar bergan jabrdiyda xalq shaʼniga malomat yogʻdirishga urinardi. Xuddi “paxta ishi”da boʻlgani kabi, bu safar ham xalq yoʻq joydan aybdor boʻlib qolayotgan edi.

Hukmron partiya va sovet hukumati rahbarlari boʻlayotgan bu jarayonlardan manfaatdordek, fojia ildizlarini soʻrab-surishtirishni oʻylamas edi. Ular ana shunday betayin pozitsiyasi bilan Oʻzbekistonda beqaror vaziyatni vujudga keltirish, oxir-oqibatda butun Oʻrta Osiyoda fuqarolar urushini, qonli fojialarni avj oldirishni koʻzlab yurgan, qizil imperiyani qanday qilib boʻlsa-da saqlab qolishga intilayotgan Markazdagi yovuz kuchlarga yoʻl ochib berayotgan edi.

Fargʻona fojialari zamirida shovinizmga aloqador sabablar ham bor edi. Bu voqealar, aytish mumkinki, 1986-yili Qozogʻiston poytaxti Olmaotada amalga oshirilgan “Metel” operatsiyasining davomi edi. Albatta, ssenariylar shakli, tashkiliy uslubi jihatidan ular har xil boʻlishi mumkin. Biroq, maqsad bitta: mavjud siyosiy tuzumni turli algʻov-dalgʻovlar, toʻs-toʻpolonlar, milliy respublikalardagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni chigallashtirish orqali saqlab qolishga harakat edi. Ayniqsa, “rashidovchilik”, “oʻzbeklar ishi”, “paxta ishi” kabi siyosiy kampaniyalar bilan gangitilgan respublikaning oʻsha paytdagi rahbarlari iltimoslariga koʻra, Rossiyadan yuzlab chalasavod rahbarlar “desanti” Oʻzbekistonga tashlandi. “Desantchi”lar siyosati fosh boʻla boshlagach, xalqni millatchilikda ayblash kerak boʻlib qoldi. Yarim yillik tayyorgarlikdan soʻng, 45 yil davomida sobiq ittifoq hukumatidan Mesxetiyaga qaytarishni talab qilaverib charchagan, may oyida nima qilib boʻlsa ham ketishni rejalashtirgan turklarning faollashuvidan, xuddi shu oyda ishsizlik jonlariga tegib, namoyishlarga hozirlanayotgan Fargʻona yoshlarining soddaligidan foydalanildi. Natijada mesxeti turklari Rossiyaning kimsasiz boʻlib yotgan qishloqlariga koʻchirildi. Boshqacha qilib aytganda, ular yangi sharoitda yangicha surgunga giriftor etildi.

Fargʻonaning mahalliy aholisi esa ijtimoiy-siyosiy talablari uchun Qoʻqonda oʻqqa tutildi. Bu ikki harakatda ham “ruslarga qarshi kayfiyat bor”, degan sunʼiy daʼvolar oʻylab topildi.

Dunyodagi xalqlar va millatlarning ozodlik yoʻlidagi kurashlar tarixi shundan dalolat beradiki, jamiyat hayotidagi tub burilishlar davrida ijtimoiy-siyosiy vaziyatning oʻzi buyuk yoʻlboshchilarni maydonga chiqaradi. Hindiston tarixida Maxatma Gandi, Amerika Qoʻshma Shtatlari tarixida Jorj Vashington, Fransiya tarixida Sharl de-Goll, Turkiya tarixida Mustafo Kamol Otaturk ana shunday tarixiy missiyani oʻz zimmasiga olib, ona xalqining milliy ozodlik kurashiga boshchilik qilgani tarixdan maʼlum.

Oʻzbekiston tarixida ham ana shunday ulugʻ yoʻlboshchilar tarixiy vaziyat taqozosi bilan maydonga chiqib, xalqni yovuz bosqinchilar zulmidan ozod etgan, uning shaʼni va gʻururi, insoniy huquqlarini qayta tiklagan. Bu haqda gapirganda, Sohibqiron Amir Temur oʻn toʻrtinchi asrda Turkiston zaminini moʻgʻullar zulmidan ozod etib, ana shunday buyuk missiyani ado etganini hamisha gʻurur-iftixor bilan esga olish mumkin. XX asrning 90-yillariga kelib esa Prezident Islom Karimov ana shunday oʻta ogʻir va masʼuliyatli vazifani oʻz zimmasiga ola bildi. Buni “Oʻzbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” kitobidagi har bir nutq va maʼruza, tarixiy hujjat tasdiqlaydi.

Kitobdagi birinchi hujjat – 1989-yil 24-iyunda, respublika rahbari sifatida ish boshlaganining ikkinchi kuni Oʻzbekiston Ministrlar Sovetida boʻlib oʻtgan Fargʻona vodiysi viloyatlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish masalalariga bagʻishlangan kengashda soʻzlagan nutqidayoq Islom Karimovdagi haqiqiy yoʻlboshchilarga xos fazilatlar yorqin namoyon boʻldi. Avvalo, yangi rahbar boshqalar kabi yonib turgan oʻtkir masalalarga, respublikadagi oʻta tang ahvolga beparvo qarolmadi. Chunki uning qalbi, yuragi xalq dardi bilan, Oʻzbekiston dardi bilan yonardi. Uning respublikaning yangi rahbari sifatida aytgan quyidagi soʻzlari shunchaki soʻz emas, balki qatʼiy talab boʻlib yangradi. U faqat va faqat respublika manfaatini, mavjud ahvolni ijobiy tomonga oʻzgartirishni rahbar faoliyatidagi bosh mezon deb bildi va boshqalardan ham shuni talab qildi: **“Ishga boʻlgan, oʻzimizga topshirilgan vazifaga nisbatan munosabatni, dunyoqarashimizni va umuman, masʼuliyatimizni oʻzgartira olsakgina ishlarimiz yoʻlga tushib ketadi. Aks holda, vaziyatni izdan chiqarishga intiladigan kuchlar yoʻmeni chetga surib qoʻyadi yoki juda koʻp rahbarlarni oʻzgartirishga toʻgʻri keladi”**¹.

¹ Karimov I.A. “Oʻzbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”. – T.: “Oʻzbekiston”, 2011. – 33-b.

Islom Karimov ulkan jasorat bilan, haqiqiy holatga real ko‘z bilan qarab, shiddatli kurash maydoniga mardona bel bog‘lab chiqdi. U Farg‘ona voqealariga keng nazar bilan qaradi, ya‘ni bu voqealar, ularning negizidagi sabablar faqat bitta viloyatga xos emas, bunday fojialar O‘zbekistonning xohlagan joyida yuz berishi mumkin, deb hisobladi. Chunki ularni yuzaga chiqargan sabablar, muammolar O‘zbekistonning boshqa joylarida ham keskin bo‘lib turganini aniq dalillar bilan isbotlab berdi.

Shu maqsadda, kechagina respublika rahbari etib saylangan Islom Karimov ishga kirishgan kunning ertasigayoq, ya‘ni 24-iyun kuni O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetida katta majlis o‘tkazildi va unda nutq so‘zlaydi. O‘zining keskin tanqidiy va amaliy ruhi bilan ajralib turadigan mazkur nutqda respublika rahbari O‘zbekistonda vujudga kelgan o‘ta murakkab ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat va uning sabablarini chuqur tahlil qilib, achchiq va haqqoniy bir xulosaga keladi.

1989-yilning 25-iyunida I. Karimov janjal-to‘polonlar alangasi ichida qolib ketgan Farg‘onaga yo‘l oladi. Lovillab yonayotgan uylar, tahlika va sarosimaga tushgan shahar va qishloqlar, qahr-g‘azabga to‘lgan kishilarning ichiga bir o‘zi hech qanday qo‘riqchilarsiz kirib borib, ular bilan chin dildan, hech narsani yashirmasdan ochiq gaplashdi. Bu insonlarning shu vaqtga qadar hech kim eshitmagan oh-u nolalarini tinglab, o‘zining yurakdan chiqqan samimiy va haqqoniy so‘zlari bilan, bamisoli ularning qalbidagi jarohatlariga malham qo‘ygandek bo‘ldi, ko‘ngillarda so‘ngan umid uchqunlarini uyg‘otdi. Tartib-intizomni tiklash, qon to‘kilishining oldini olish bo‘yicha butun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olib, aniq chora-tadbirlar ko‘rdi. Voqea sabablarini qidirdi. Masala mohiyatini ochiq-oydin ko‘rsatib, jumladan, “ana shu fojيانing aybdorlarini himoya qilishga urinishlar ham asossizdir. Kim bo‘lishidan, qaysi millatga mansubligidan qat’i nazar, vahshiylik va odam o‘ldirishda, o‘t qo‘yish va to‘s-to‘polon chiqarishda aybdor bo‘lgan shaxslar jazoga tortilishi zarur va jazoga tortiladilar, toki o‘zbek xalqining pok nomiga dog‘ tushirilishiga yo‘l qo‘yilmasin”¹, dedi u.

Respublika rahbarining bunday qat’iyati asossiz ta’na va bo‘htonlardan ezilgan, turli tahdidlar oqibatida tahlikaga tushgan xalqning ruhini ko‘tardi. Islom Karimov qonli voqealar haqidagi haqqoniy fikrlari bilan xalq sha’niga otilgan malomat toshlari butunlay bo‘hton ekanligini isbotladi. Ayni paytda vahshiylik qilgan, odam o‘ldirgan, tartibsizliklarni keltirib chiqargan, uylarga o‘t qo‘ygan, transport vositalarini yoqib yuborgan kimsalar o‘zbek millatiga mansub emasligini, ularning hammasi ataylab tashkil etilganini markazdagi minbarlardan turib jasurlik bilan ayta oldi.

¹ O‘sha manba. – 53-b.

Agar o'sha yillar tarixiga e'tibor beriladigan bo'lsa, Farg'ona voqealari haqida shov-shuv ko'targanlar, shunday qonli fojia hisobidan obro' topish, o'zining g'arazli manfaatlariga erishishga, xalqni badnom qilishga uringan kimsalar ko'p bo'lgan. Islom Karimov bu borada kuyib-yonib, asl haqiqatni katta dard va jasorat bilan bayon qilib, fojia oqibatlarini bartaraf etishning amaliy yechimlarini ishlab chiqdi va izchil amalga oshirdi. Jumladan, Yurtboshi Toshkentda va Moskvada bo'lib o'tgan katta anjumanlarda, shuningdek, matbuotdagi chiqishlarida bu masalada qat'iy pozitsiyada turib, quyidagi fikrlarni alohida ta'kidlaydi: **“O‘zbek xalqining vijdoni pok. Farg‘ona voqealari o‘zbek xalqining irodasi bilan sodir bo‘lmadi. Bu voqealarga tuturuqsiz va g‘arazli maqsadlarni ko‘zlab, kim qanday bo‘yoq bermasin, tarix, albatta, o‘zining adolatli hukmini chiqaradi. Baynalmilalchilik, mehmondo‘stlik, yaxshilik, qalb saxovati hamisha o‘zbek xalqiga xos fazilat bo‘lib keldi. Xalqimiz hech qachon boshqa xalqlarga nisbatan dushmanlik kayfiyatida bo‘lmagan. Bu qadimiy va hozirgi tariximizdan olingan ko‘pgina misollar bilan isbot qilingan”**¹. Bunday haqqoniy va haroratli so'zlar el-yurtning dardiga darmon bo'lib, uning tuhmat va malomatlardan egilgan ruhini ko'tardi.

Yurtboshi o'sha davridayoq Farg'ona voqealarining tub sabablarini quyidagi masalalar bilan bog'liqligini asoslab berdi va bu sabablar uning asarida ham aniq ifodalangan. Bular:

1. Farg'ona vodiysida yashayotgan aholining og'ir ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli.
2. Odamlarning ta'minoti, daromadi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli haddan tashqari pastligi tufayli bunday holat O'zbekistonning boshqa joylarida ham sodir bo'lishi mumkinligi.
3. Ishsizlik, ish o'rinlarining kamligi, ya'ni ortiqcha ishchi kuchining ko'payib borishi.
4. Yoshlar va ularni ishga joylashtirish masalasi jiddiy o'ylab ko'rilmagani kabi sabablar.

Mustaqillik arafasida talonchilik, bosqinchilik, garovga olish, ta'magirlik, o'g'irlik, tovlamachilik, odam o'ldirish bilan bog'liq jinoyatlar Namanganda ham avj oladi. 1990- yilning o'n oyida viloyatda 3189 ta jinoyat yuz bergan bo'lsa, 1991-yilning may oyiga (besh oy ichida) kelib bu ko'rsatkich 3213 tani tashkil etadi. O'ziga to'q oilalarning bolalarini o'g'irlab ketib, evaziga katta pul so'rash holatlari kuchayadi.

O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgandan keyin ham tinchlik va barqarorlikka raxna soluvchilar topildi. 1991-yilning 9-dekabrida Namangan shah-

¹ O'sha manba. – 52-53-betlar.

rida bir guruh qo‘poruvchi kuchlar viloyat ijroiya qo‘mitasi binosini egallab olib, O‘zbekistonni islom davlatiga aylantirishni da‘vo qilib, respublika rahbari bilan uchrashuvni talab qilishadi. Islom Karimov prezidentlikka nomzod sifatida ertasi kuni tongda Namanganga yetib keladi va ongi aqidaparastlik g‘oyalari bilan zaharlangan, jazavaga tushib, qora kuchga aylangan johil olomon orasiga soqchi va hamrohlarsiz, bir o‘zi hech ikkilanmasdan, shijoat va shiddat bilan kirib boradi. Bu o‘ta keskin, dramatik holat video tasmasida tasodifan muhrlanib qolgan. Ana shu jasoratga to‘la, har qanday odamni ham hayajonga soladigan tarixiy lahzalar “Mustaqillik arafasida yoki sho‘rolarning so‘nggi talvasasi” filmida aks ettirilgan. Shiddat bilan kirib kelgan respublika rahbarini ko‘rishgach, aqidaparastlar biroz dovdirab qolishadi. Yurtboshi vazminlik bilan so‘z boshlaydi va ularning barcha da‘volarini aniq faktlar bilan rad etadi.

Bu harakat a‘zolari 1991-yilning dekabrda Namanganda viloyat ijroiya qo‘mitasi binosini egallab olib, hukumat vakillariga quyidagi talablarni ilgari suradi:

Dunyoviy tuzumdan voz kechish va O‘zbekistonni islomiy davlat deb e‘lon qilish.

Dunyoviy qonunlarni bekor qilish va mamlakatda shariat arkonlarini joriy etish.

Dunyoviy maktablarni yopish va o‘g‘il bolalar hamda qiz bolalar alohida o‘qitiladigan maktablar ochish.

Islomiy kfiyinishga o‘tish, ayollarning hijobda yurishlarini joriy etish.

Namangandagi sobiq siyosiy ta‘lim muassasalari binolarini islom radikalari ixtiyoriga berish va hokazolar.

Ular jami 15 ta talab asosida hokimiyatni miyasi diniy radikalizm bilan zaharlangan kuchlarning qo‘liga berishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan edi. Hokimiyatning ularga berilishi, ularning nazarida jihod qilinishi lozim bo‘lgan barcha insonlarning – o‘zga dindagilarni, o‘zgacha fikrlovchilarni, dunyoviy taraqqiyot tarafdorlarining, qisqasi, ko‘ngillariga yoqmaganlarning istisnosiz tarzda qirib tashlanishiga olib kelgan bo‘lur edi.

Shuni aytish kerakki, Islom Karimovning qat‘iyati va jasorati binoni boshiga ko‘tarib baqir-chaqir qilib yotgan minglab eng ashaddiy ekstremistlarni ham sarosimaga solib qo‘yadi. Mamlakat rahbari hayajonga berilmasdan, ular talab qilayotgan yo‘l qonunga mutlaqo zid ekani va hech qachon yaxshilikka olib kelmasligini uqtiradi, o‘zining salobati va irodasi bilan guvillab yotgan olomonning shashtini so‘ndirishga, behuda qon to‘kilishining oldini olishga muvaffaq bo‘ladi.

Terroristik usullarni keng qo'llagan, mamlakat hayotini izdan chiqarish va shu orqali davlatni kuchsizlantirish yo'lini tanlagan radikallar 1992-yil bahorida o'zlarining yovuz basharasini yana bir bor namoyish qilib, rasmiy hokimiyatning bir necha vakillarini garovga olishadi. Keyinchalik Tojikiston va Afg'oniston hududidagi harbiy harakatlarda ishtirok etgan bu kuchlar mazkur mamlakatlardagi harbiy lagerlarda tayyorgarlikdan o'tib, O'zbekiston hududida ham bir qator terroristik jinoyatlarni sodir etdi.

Yuqorida zikr etilganidek, dunyodagi bebaho boylik bo'lgan tinchlik va osoyishtalikni saqlash, uni ko'z qorachig'idek asrash masalasi mamlakat rahbari I. Karimovning faoliyatida doimo eng muhim, eng ustuvor yo'nalish bo'lib kelmoqda. Buni har xil buzg'unchi kuchlar, diniy va dunyoviy niqobdagi radikal oqimlar bosh ko'targan o'sha notinch davrda, uning chuqur iztirob bilan o'rtanib, 1992-yil 4-yanvar kuni Oliy Kengashning 9-sessiyasi minbaridan turib xalqqa qilgan murojaatidagi ushbu so'zlar yaqqol tasdiqlaydi:

“Aziz do'stlar! Nima kerak bo'lsa, ayting, hammasini qilib beramiz. Lekin, aziz onalar, opa-singillar, otaxonlar, do'stlar, ukajonlar, men Prezident bo'lsam ham sizdan tiz cho'kib so'rayman, iltimos qilaman: shu masalada yordam qiling!

Axir, Qur'oni karim ham do'stlikka, birodarlikka chaqiradi, nizo chiqarishni qoralaydi.

Janjal chiqqan yurtning xudosi ham undan yuz o'girar ekan. Shu sabab baraka ham, rizq-ro'z ham nasiya bo'lib qolarkan!”¹.

Islom Karimovning vaziyatga real baho berish, nostandart qarorlar qabul qilish borasidagi qobiliyati, xalqning azm-u shijoati, qat'iy irodasi, bag'rikengligi, bunyodkorlik kuchiga bo'lgan cheksiz ishonchi uning har bir nutq va ma'ruzasida aniq-ravshan sezilib turadi. Ular bilan tanishganda, bir paytning o'zida chuqur tahliliy va xarizmatik² qobiliyatga ega bo'lgan mana shunday shaxslargina tarix taqozo etganda butun mas'uliyat va javobgarlikning zalvorli yukini o'z zimmasiga olishga qodir bo'lishi, har tomonlama teran o'ylab, uzoqni ko'zlab ish ko'rgan holda, davlat va jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan strategik qarorlar qabul qila olishiga amin bo'lish mumkin.

¹ O'sha manba. – 20-21-betlar.

² “Xarizmatik” so'zi “misli ko'rilmagan xususiyatlarga ega bo'lish” degan ma'noni bildiradi.

2. O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-IQTISODIY MUAMMOLAR, ULARNI BARTARAF ETISH HAMDA XALQ TURMUSH DARAJASINI KO‘TARISH CHORALARINING KO‘RILISHI

O‘zbekistonning mustaqillikka erishish arafasi (1989 – 1991)dagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni aniq tasavvur etish uchun O‘zbekiston Prezidentining “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” asariga yana bir marta murojaat qilish maqsadga muvofiqdir.

“Biz respublikamizda 1500 ta yirik ishlab chiqarish birlashmasi va korxonasi ishlab turgani haqida, revolutsiyadan avval bir yil davomida hosil qilingan miqdordagi elektr energiya hozir to‘rt kunda ishlab chiqarilayotgani haqida hamisha faxrlanib gapirar edik. Biz gaz qazib olish sohasida mamlakatda to‘rtinchi o‘rinda turibmiz. Qishloq xo‘jaligimiz mamlakatdagi paxtaning uchdan ikki qismini, qorako‘l terining uchdan bir qismidan ko‘prog‘ini, pillaning 60 foizdan ziyodini, ko‘p miqdordagi kanop, meva, uzum, sabzavot va poliz mahsulotlarini yetishtirib bermoqda.

Ming kishi hisobiga to‘g‘ri keladigan talabalar soni jihatidan O‘zbekiston ko‘pgina rivojlangan mamlakatlardan oldinda turibdi.

Bu xulosalar mo‘tabar minbarlardan turib, dissertatsiyalarda, reportlarda va ma‘lumotnomalarda ko‘p takrorlangan. Xo‘sh, bu gaplarning zamirida qanday ma‘no bor? Iqtisodiyotimiz biryoqlama tarzda, faqat xomashyo yetishtiradigan holga tushib qolganini va kompleks rivojlanish yo‘liga, aholi ehtiyojlarini qondirishga o‘tkazilmaganini qayd etishga to‘g‘ri keladi. Sanoatda tayyor mahsulotning ulushi bor-yo‘g‘i 50 foizni tashkil etadi, qishloq xo‘jaligi mahsulotining 80 foizdan ko‘prog‘i mutlaqo qayta ishlanmasdan, respublika tashqarisiga chiqarilmoqda. Respublikadan olib ketilayotgan mahsulotning uchdan ikki qismi xomashyo, materiallar va chala tayyor materiallar ekanligining o‘zi ijtimoiy ishlab chiqarish tuzilishidagi chuqur nomutanosiblikdan darak beradi.

Respublikaga keltirilayotgan tovarlarning 60 foizi esa mashinalar, asbob-uskunalar, yengil sanoat va oziq-ovqat sanoati mahsulotlaridir.

G‘alati bir vaziyat vujudga kelmoqda. Respublika juda qimmatli xomashyo – paxta, nitron, kaprolaktam ishlab chiqarayotgan bir paytda ularni qayta ishlashdagi sayozlik, texnologiya zanjiri nihoyasiga yetkazilmagani oqibatida ayni shu xomashyodan ishlab chiqariladigan gazlama, sun‘iy tola va tayyor mahsulotlarni chetdan keltirishga majbur bo‘lmoqda”¹.

¹ O‘sha manba. – 169-170-betlar.

Yoki quyidagi misol ham e'tiborga molik: **“Statistikaning ko‘rsatishicha, bugungi kunda O‘zbekistonda aholi jon boshiga hisoblaganda daromadi 75 so‘mdan oshmaydigan 8 million 800 mingga yaqin kishi yashab turibdi, bu esa aholining 45 foizini tashkil etadi. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko‘ra, hozirgi paytda kun kechirish uchun kamida 85 so‘m zarurligini e‘tiborga oladigan bo‘lsak, ana shunda odamlar qanday qiyinchilik bilan, uchma-uch yashab kelayotganiga o‘zingiz baho berishingiz mumkin.**

...Respublikadagi sotsial ahvol, odamlarning sotsial ta‘minoti va ularni ijtimoiy himoya qilish mutlaqo qoniqarsiz. Qishloq aholisining atigi 5 foizi kanalizatsiya va vodoprovod bilan, salkam 50 foizi ichimlik suvi bilan, 17 foizi tabiiy gaz bilan ta‘minlanganini normal ahvol, deb hisoblash mumkin emas”¹, – deb ta‘kidlaydi I.A.Karimov.

Sobiq mustabid tuzum davridagi paxta yakkahokimligi, mustamlaka tuzumiga xos, biryoqlama rivojlangan iqtisodiyotning halokatli oqibatlari avvalo odamlarning turmush tarzida, eng yomoni, ularning jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad darajasining o‘ta pastligida, tomorqa yerlarining keskin kamayib borishida, millatning salomatligi, uning genofondiga salbiy ta‘sirlarning kuchayishida, bolalar va onalar o‘limining avj olishida, o‘lkaning ekologik nochor holatida va boshqa ko‘plab masalalarda yaqqol namoyon bo‘lgan edi.

Bu ijtimoiy muammolarning asl ildizlari, salbiy oqibatlari ochib berilgan keng ko‘lamli tadqiqotlar eski tuzum davrida hech qayerda, hech qaysi ilmiy muassasada olib borilmagan va olib borilishi mumkin ham emasdi. Boriyu ana shunday tadqiqotlar amalga oshirilsa, ularning asosida chiqariladigan xulosalar muqarrar ravishda Sovet ittifoqi degan ulkan imperiyaning tomiriga bolta urish, deb baholanar edi. Chunki bunday fakt va raqamlar sobiq ittifoq hududida temir devorlar orasida yashagan xalqlarning naqadar huquqsiz, ularning hayoti esa qanday nochor bo‘lganini yaqqol isbotlab, bu tuzumning asl qiyofasini fosh etib qo‘ygan bo‘lard. Binobarin, bunday mavzuda ilmiy ish olib borgan odam so‘zsiz-so‘roqsiz xalq dushmani deb e‘lon qilinardi.

Shuning uchun ham boshqa respublikalar qatori O‘zbekistonning ham haqiqiy iqtisodiy-ijtimoiy ahvolidan dalolat beradigan real fakt va raqamlar biror-bir nashrda chop etilmas, aksincha, jamoatchilikdan sir tutilar edi.

Prezident I.A.Karimov o‘sha davrdagi faoliyatida O‘zbekistonning hayotiga daxldor bo‘lgan har bir masalaga kompleks yondashadi, ularning yagona to‘g‘ri va muqarrar yechimi – bu mustaqillik va faqat mustaqillik, degan mantiqiy xulosaga keladi. Bunday dadil fikrni sobiq ittifoqning katta-katta minbarlaridan turib bayon etishdan cho‘chib ham, tortinib ham o‘tirmaydi. Jumladan,

¹ O‘sha manba. – 47–49-betlar.

biz uchun mustabid tuzumning butun davri davomida eng og'riqli masala bo'lib kelgan paxta xomashyosi yetishtirish va xalq o'zining mashaqqatli mehnati uchun munosib haq olishi, munosib turmush sharoitiga ega bo'lishi haqidagi talab muallifning Moskvada chop etiladigan "Рабочая трибуна" gazetasiga bergan intervyusida quyidagicha bayon etiladi:

"Paxta tolasi belgilab qo'yilgan past narxlarda O'zbekistondan tashqariga jo'natildi va hamon jo'natilmoqda. Buning evaziga nima berilmoqda? Paxta yetishtirishda mehnatning 84 foizi bizning zim-mamizga tushmoqda va uni qayta ishlashdan keladigan daromadning atigi 16 foizi bizga tegmoqda. Paxtani olayotgan boshqa respublikalarda nisbat aksincha bo'lmoqda. Masalan, aytaylik, Rossiyada to'qilgan va tikilgan tayyor ko'ylak g'oyat katta foyda keltirmoqda. Mehnati – bizga, puli – boshqalarga. Mamlakatning "paxta sexi" bo'lish, mana, nimani anglatadi"¹.

O'sha davrdagi O'zbekistondagi muammolar ijtimoiy keskinlikning kuchayishiga olib keldi.

1) Respublikada demografik vaziyatning murakkabligi. Statistik ma'lumotlar tahlili aholi ro'yxatga olingan davr oralig'ida, ya'ni 1979 – 1989-yillar davomida respublikada jami aholi soni 15379,4 ming kishidan 19810,0 ming kishiga yoki 28,8 foizga ko'payganini ko'rsatadi. Bu davrda aholining o'rtacha yillik o'sish sur'ati 2,8 foizni tashkil qilgan. 1991-yilga kelib mamlakatda aholi soni 20,7 million kishidan ortib, 1990-yilga nisbatan 386,0 ming kishiga o'sgan.


Bu esa O'zbekistonda aholining o'sish sur'atlari Ittifoq sur'atlariga qaraganda uch barobardan ziyod yuqori bo'lganini ko'rsatadi. Biroq, aholining bunday o'sishi uzoq yillar davomida sanoat va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida ish joylarini ko'paytirish hamda aholining hayot ta'minoti uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bilan mustahkamlab borilmadi. Bu esa odamlar turmush sharoitining yomonlashuvi, ishsizlar sonining ko'payishi, ijtimoiy mehnat unumdorligi va aholi daromadlarining kamayishi, pirovard natijada xalq farovonligining pasayishiga olib keldi;

2) respublika iqtisodiyotining biryoqlama, haddan tashqari nomaqbul ixtisoslashtirilishi natijasida qishloq xo'jaligi bilan bir qatorda sanoatda ham asosan xomashyoni birlamchi qayta ishlash tarmoqlari ustunlik qilib, tayyor mahsulot, avvalo xalq iste'moli mollari ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning ulushi juda past edi. Qishloq xo'jaligi xomashyosining talaygina hajmi (paxta tolasi, xom ipak va boshqa ko'pgina xomashyo mahsulotlari) respublikadan olib

¹ O'sha manba. – 353-354-betlar.

ketilgan bir vaqtda aholining iste'mol tovarlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun 8-9 milliard so'mlikka yaqin tayyor mahsulot chetdan olib kelingan. O'zbekistonda aholini ish bilan ta'minlash imkonini beruvchi elektronika, asbobsozlik, radiotexnika, murakkab ro'zg'or texnikasi ishlab chiqarish kabi va boshqa ko'pgina ilg'or tarmoqlar qoniqarli rivojlantirilmadi. Aksincha, respublikada suv ko'p sarflanadigan va zararli ishlab chiqarishlar asossiz ravishda rivojlantirildi;

O'zbekistonda aholi sonining o'sish dinamikasi
(ming kishi hisobida)



3) ishlab chiqaruvchi kuchlar va avvalo sanoat obyektlari asosan stixiyali ravishda, aniqrog'i, har xil o'zboshimchalik, buyruqbozlik bilan qabul qilingan qarorlar asosida, ko'pincha ilm-fan vakillari, bilimli va obro'li mutaxassislarining tavsiyalari mutlaqo e'tiborga olinmay joylashtirildi. Bu esa respublika iqtisodiyoti hamda aholi punktlarining ekologiyasiga g'oyat katta ziyon yetkazib, aholining hayot ta'minotiga, odamlarning yashashi va uyg'un kamol topishi uchun zarur sharoitlarni yaratishga salbiy ta'sir o'tkazdi;

4) respublikadagi ijtimoiy ahvolning, odamlarning ijtimoiy ta'minoti va ularni ijtimoiy himoya qilishning mutlaqo qoniqarsizligi. Ayniqsa, qishloq aholisining kanalizatsiya va vodoprovod bilan ta'minlanishi atigi 5 foizni, ichimlik suvi bilan ta'minlanishi salkam 50 foizni, tabiiy gaz bilan ta'minlanishi 17 foizni tashkil etar edi. Aholini uy-joy, sog'liqni saqlash, madaniyat, maishiy xizmat obyektlari, maktablar, bolalar bog'chalari va hokozalar bilan ta'minlash ishlarida siljishlar sezilmadi. Vaholanki, aholining ko'pchilik qismi qishloq joylarida istiqomat qilar edi.

O'zbekiston sobiq ittifoq tarkibida uzoq yillar davomida hukm surgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimi ta'sirida faqat xomashyo yetkazib berishga asoslangan, qoloq va mo'rt iqtisodiyotga ega bo'lib, bu holat respublika aholisi daromadlari va turmush darajasiga keskin ta'sir ko'rsatdi.

Bu davrda respublika barcha asosiy iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar bo'yicha Ittifoqdagi o'rtacha darajadan ham ancha orqada bo'lib, mamlakatda oxirgi o'rinlardan biriga tushib qoldi. Jumladan, aholi jon boshiga yalpi ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha ittifoqdosh respublikalar orasida 12-o'rinni, daromad darajasi, asosiy turdagi mahsulotlarni iste'mol qilish jihatidan eng oxirgi o'rinlardan birini egallab keldi. Aholi jon boshiga milliy daromad ishlab chiqarish bo'yicha Ittifoqdagi o'rtacha darajadan 2 barobar, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish bo'yicha 2,5 barobar, sanoatdagi mehnat unumdorligi jihatidan 2,5 barobar, qishloq xo'jaligidagi mehnat unumdorligi jihatidan esa 2 barobar, aholining o'rta hisobda go'sht mahsulotlari, tuxum, sut va sut mahsulotlari iste'moli bo'yicha 2 barobar orqada qolgan.

O'zbekiston hududida aholi sonining o'sish dinamikasi
(ming kishi hisobida)¹

Ko'rsatkichlar	Yillar			1991-yilda 1989-yilga nisbatan o'zgarishi	
	1989	1990	1991	+, -	%
Respublika bo'yicha	19810,0	20322,0	20708,0	898,0	104,3
Shu jumladan:					
Shaharda	8089,3	8341,3	8405,5	316,2	103,9
Qishloq joylarda	11720,7	11980,7	12302,5	581,8	105,0
Qishloq aholisining ulushi, foizda	59,2	59,0	59,4	0,2	-

Ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning pasayishi o'z navbatida aholining turmush darajasiga ham ta'sir ko'rsatib, yashash sharoitlarining og'irlashuviga sabab bo'ldi. O'sha davrda kun kechirish uchun oyiga o'rta hisobda kamida 85 so'm zarur bo'lgani holda, 75 so'mdan kamroq yalpi daromad oladigan aholining ulushi Ittifoq bo'yicha 12 foizdan sal ko'proq bo'lsa, O'zbekistonda 45 foizga yetgan, ya'ni 8 million 800 ming kishini tashkil etgan. Bir millionga yaqin kishi ijtimoiy ishlab chiqarishda o'zining qo'lidan keladigan ishni topa olmagan, ya'ni ishsiz bo'lgan.

Bu masalalar yechimida ham davlat rahbarining nazariy va amaliy jihatdan keng bilimga egaligi muhim rol o'ynadi. I.A.Karimov o'sha davrda vujudga kelgan ahvoldan chiqish yo'li sifatida quyidagilarni belgilab berdi:

¹ Демографический ежегодник СССР 1990. – М.: Финансы и статистика, 1990. – С. 39; Население Республики Узбекистан 2001. Статистический сборник. – Т.; 2002. – С. 34-35.

– ishlarning ahvoriga xolis baho berish, respublikadagi vaziyatni sog'lomlashtirishning aniq-puxta dasturini ishlab chiqish;

– hayotning barcha sohalarida qat'iy tartib va intizom o'rnatish, rahbar kadrlarni joy-joyiga to'g'ri qo'yish, ularga nisbatan talabchanlikni oshirish.


Respublikadagi vaziyatni chinakamiga o'nglash, xalqning hayotga qarashini, bugungi va ertangi kunga ishonchini mustahkamlash uchun, avvalo, ularning iqtisodiy, moddiy ahvolini yaxshilash zaruratini chuqur anglagan Prezident o'sha davrda aholi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan juda katta bir masalani – odamlarga tomorqa yer berish masalasini kun tartibiga qo'ydi. Ushbu masalaning naqadar muhim ahamiyat kasb etishini quyidagi holatlar orqali ham tasavvur qilish mumkin edi: Chunki bu davrda:

– respublika qishloqlarida yeri yo'q oilalar soni – 240 ming nafar;

– uy-joy qurilishi va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun kengaytirishga muhtoj hovlilar soni – 1,8 milliondan ko'proq;

– faqat Toshkent shahrida yer uchastkasi olish uchun navbatda turgan oilalar soni – 92 ming nafardan iborat edi.

Sobiq Ittifoq tarkibida O'zbekistonning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari darajasi



Buning ustiga, shahar, tuman markazlari va shahar tipidagi posyolkalarda yer yo'qligi sababli mehnatkashlarning yakka tartibda uy-joy qurishga, jamoa ravishda bog'dorchilik qilish va polizchilik bilan shug'ullanishga imkoni yo'q edi.

Yurtboshi asarida ko'rsatilishicha, birgina Toshkent shahrining Oktabr, Sobir Rahimov, Kirov rayonlarida 600 ming kishi yashab turgan xonadonlar

urushdan avval qurilgan bo‘lib, shu qadar puturdan ketib qolgan ediki, ularni ta‘mirlashning ham iloji bo‘lmagan (2 million kvadrat metrga yaqin maydon-da mana shunday uylar bo‘lgan). Bu xonadonlarda markaziy isitish tizimi, vodoprovod, gaz va kanalizatsiya bo‘lmagan, ikki-uch xonada bir necha oila yashab turgan, kishi boshiga 2-3 kvadrat metr turar-joy to‘g‘ri kelgan. Agar Toshkentda o‘rta hisobda kishi boshiga 14,2 kvadrat metr turar-joy to‘g‘ri kelsa, uning eski shahar qismida bu raqam ikki barobar kam bo‘lgan. Qariyb 7 ming oila shunday yashaganki, har bir oila a‘zosiga salkam 5 metrdan kamroq maydon to‘g‘ri kelgan. Bu – eng oddiy hayot ta‘minoti shartlariga ham yaqinlashmas edi.

1989-yil 17-avgustda **“Qishloqda yashovchi har bir oilani tomorqa bilan ta‘minlash, ularga yakka tartibda uy-joy qurish uchun barcha shartsharoitlarni yaratib berish haqida”** qaror qabul qilindi. Qarorda qishloqda yashovchi har bir kishiga o‘rtacha 25 sotixdan yer ajratib berish va tomorqa maydonlarini qariyb 4,5 barobar ko‘paytirish ko‘zda tutilgan edi.

Bu boradagi amaliy ishlar natijasida 1989-1990-yillarda bir yarim milliondan ko‘proq oilaga qo‘shimcha yer ajratildi, 700 ming oilaga yangi tomorqa yerlari berildi. Bu murakkab masalaga ana shunday oqilona yondashuv tufayli O‘zbekiston bo‘yicha ming-minglab odamlar uy-joyli, ishli bo‘ldi, bozorlarda mahsulotko‘payib, narx-navo arzonlashdi, eng muhimi, ijtimoiy keskinlikning oldini olishga erishildi.

Bundan tashqari, yuz minglab gektar sug‘oriladigan yer texnik ekinlar oborotidan chiqarildi, paxta yetishtirish rejasi 700 ming tonnaga kamaytirildi. Bu – paxta yakkahokimligini bartaraf etish yo‘lidagi dastlabki, ammo o‘ta muhim amaliy qadam edi.

Prezident qishloq joylarda aholi uchun tomorqa yerlar ajratishni kengaytirish masalasiga ancha keng qarab, ushbu tadbir orqali ko‘plab muhim masalalarni hal etishni, jumladan, oziq-ovqat dasturini bajarishni ko‘zda tutgan edi.

Qaror uy-joy dasturini hal etishga yordam berdi. Yakka tartibda uy-joy qurish o‘z salmog‘iga ko‘ra uy-joy dasturida 60 foizdan ko‘proqni tashkil etib, o‘sha davrda bu ko‘rsatkich 89-90 foiz atrofida bajarilgan. Aholiga yer uchastkalari, pul ssudalari va zarur qurilish materiallari ajratib berish mazkur jarayonni ancha tezlashtirdi.

Mazkur qaror ishsizlik muammosini hal etishda ham qo‘l keldi. Masalan, Farg‘ona viloyatidagi mavjud 149 ta jamoa va davlat xo‘jaligining har birida aholi bilan shartnoma asosida uy-joy quruvchi 50 – 60 kishilik qurilish brigadasining tuzilishi evaziga 7,5 ming kishini ish bilan ta‘minlash imkoniyati tug‘ildi. Xorazm viloyati xo‘jaliklarida g‘isht, duradgorlik buyumlari va boshqa narsalar

tayyorlaydigan yordamchi korxonalarining bunyod etilishi qurilish materiallari taqchilligini bartaraf etish bilan birga uch yil mobaynida ishlab chiqarishga qo‘shimcha tarzda 2,5 ming kishini jalb etish imkonini berdi. Bu odamlarni ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etishning to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘li edi.

Prezident qishloq joylarida istiqomat qilayotgan aholining turmush darajasi nisbatan pastligi, yashash sharoitining og‘irligi, oziq-ovqat mahsulotlari ta‘minotidagi qiyinchiliklarni hisobga olgan holda muhim bir taklif – har bir oilani sigir bilan ta‘minlash masalasini kun tartibiga qo‘ydi. Ushbu tadbirni uzoqqa cho‘zmay, 1991-yilning o‘zida qishloqda yashovchi barcha oilalarni sigir bilan ta‘minlashga erishishning quyidagi yo‘llarini ko‘rsatib berdi:

- mol sotib olish uchun maxsus kredit berish;
- jamoa podalaridan har bir oilaga buzoq topshirish sharti bilan, imkoni bo‘lsa, hatto shu shartsiz ham tekinga sigir berish.

Mamlakat aholisining farovonligini oshirish va mehnatkashlarni ijtimoiy jihatdan himoya qilishning samarali kafolatlari haqida so‘z ketar ekan, quyidagilarni alohida ta‘kidlab o‘tish joiz. O‘zbekiston Prezidentining “Jumhuriyat aholisi shaxsiy xo‘jaliklaridagi mollar va parrandalarni yem-xashak bilan ta‘minlash va ularga chorva mahsulotlari yetishtirishni ko‘paytirish to‘g‘risida” 1990-yil 10-mayda imzolangan farmonini bajarishga qaratilgan qator qarorlar qabul qilindi. Shu asosda 1990-yilning 1-iyulidan boshlab jamoa va davlat xo‘jaliklari aholiga sotadigan pichan va shirali ozuqalarni yem-xashak tayyorlash rejasiga qo‘shib hisoblay boshladi. 1990-yilda shaxsiy xo‘jaliklarga sotish uchun davlat resurslaridan 400 ming tonna omuxta yem va 60 ming tonna kunjara, 75 ming tonna chigit po‘stlog‘i, 3,8 ming tonna puch chigit va 100,9 ming tonna pivo chiqitlari ajratildi. Jamoa va davlat xo‘jaliklariga ular aholiga sotadigan pichan va shirali ozuqalarni yetishtirish va tayyorlashga qilgan sarf-xarajatlarning 50 foizi to‘landi.

Shuningdek, aholining, eng avvalo nochorlar, nogironlar, o‘quvchi va talabalar, ko‘p bolali oilalar va boshqa daromadi kam odamlarni ijtimoiy himoyalash uchun respublika hukumati maxsus qaror qabul qildi. Bu qarorda aholining narx-navo oshishi munosabati bilan ko‘radigan zararini qoplash ko‘zda tutilgan edi. Bundan tashqari, milliy xususiy tlar va mintaqaning o‘ziga xos shart-sharoitlari ham hisobga olindi.

Aholini ijtimoiy himoyalash bo‘yicha barcha tadbirlarni amalga oshirish uchun 16 milliard so‘mdan ko‘proq mablag‘ ajratildi. Ishlayotganlarga bir oyda 60 so‘mdan, ishsiz nafaqa oladiganlarga 65 so‘mdan pul to‘landi. Bolali oilalar uchun mavjud nafaqalar miqdori salkam ikki barobar oshdi. Bundan tashqari, bola tug‘ilganda bir marta beriladigan nafaqa 250 so‘mga, ishlayot-

gan onalarga bolalariga qarash uchun beriladigan nafaqa esa 70 soʻmdan 110 soʻmgacha koʻpaydi. Bolalarga moʻljallangan tovarlarning narxi oshishi sababli balogʻatga yetmagan bolalari boʻlgan oilalarga ham pul yordami belgilandi. Oliy, oʻrta maxsus hunar-texnika oʻquv yurtlari talabalariga beriladigan oʻquv stipendiyalari, ularning oilaviy ahvoli va darslarni oʻzlashtirishiga qarab, 120 soʻmdan 210 soʻmgacha belgilab berildi. Shunday qilib, oʻrta hisobda uch kishidan iborat oila 250 soʻm, olti kishilik oila 400 soʻm, toʻqqiz kishilik oila esa 600 soʻmdan koʻproq qoʻshimcha mablagʻ olish imkoniga ega boʻldi.

Respublikada un, non va makaron mahsulotlarining narximi oshirmaslik, aholining ayrim tabaqalari uchun shahar transportidan bepul foydalanish kabi tadbirlar oʻz kuchida qolishi belgilab qoʻyildi. Hukumat tomonidan respublika miqyosida maxsus komissiya tuzildi. Qoplama mablagʻlar va nafaqalarni aholining turli tabaqalari oʻrtasida adolatli taqsimlash yoʻl-yoʻriqlari ishlab chiqilib, joylarga yuborildi.

Ushbu chora-tadbirlar ayniqsa respublikadagi koʻp farzandli oilalarni ijtimoiy himoya qilishda yanada koʻproq ahamiyat kasb etdi.

1989-yili Oʻzbekistonda ijtimoiy guruhlar boʻyicha oiladagi farzandlar sonining taqsimlanishi (foiz hisobida)¹

Ijtimoiy guruhlar	Jumladan, oilalar:				
	1-2 farzandli	3-4 farzandli	5-6 farzandli	7-9 farzandli	10 va undan koʻp farzandli
Xizmatchi	39,0	44,2	11,3	5,5	–
Ishchi	30,7	34,2	25,0	7,9	2,2
Kolxozchi	28,0	37,3	19,0	10,3	5,4
Uy bekasi	29,1	34,1	22,0	9,2	5,6

Bu davrda ayollarni ogʻir mehnatdan xoli qilish, ularga qisqartirilgan ish kuni belgilash, kundalik turmush uchun bekam-u koʻst madaniy-maishiy sharoitlar yaratib, bu boradagi kamchiliklarga barham berish masalalari ham Prezidentning diqqat markazida boʻldi.

Hozirgi kunda Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat qilayot-

¹Демографический ежегодник СССР 1990. – М.: Финансы и статистика, 1990. – С. 41.

gani Prezidentning mustaqillikka erishish ostonasida turgan kezlaridayoq bunday siyosatning tamal toshi qo'ygani natijasi ekanini chuqur anglab yetmoq lozim.

3. O'ZBEKISTONNING IQTISODIY MUSTAQILLIGINI TA'MINLASH VA BOZOR MUNOSABATLARIGA O'TISH MASALALARINING HAL ETILISHI

O'zbekiston va o'zbek xalqi uchun qiyin bo'lgan mana shu tahlikali yillarda ham davlat rahbari O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash va ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan rejalashtirish yo'lidan qutulib, bozor iqtisodiyotiga o'tish masalalari yechimini topish bilan band bo'ldi hamda bu yechimlarni topa oldi ham.

I.A.Karimov tomonidan iqtisodiy mustaqillikni ta'minlashda quyidagi strategik yondashuvlar:

– mintaqa taraqqiyotining tarixiy asoslari, oqilona mantiq e'tiborga olinmay, ma'muriy-buyruqbozlik usullari tazyiqi ostida shakllangan qarashlarning hammasiga barham berilishi kerak;

– mintaqa taraqqiyotining istiqbolloriga avvalo respublika aholisining manfaati nuqtayi nazaridan qaramoq kerakligi belgilab berildi.

Respublikani iqtisodiy mustaqillik yo'lga olib chiqish, uni inqiroz girdobidan chiqarish vazifalarini hal etishda O'zbekiston resurslari va imkoniyatlariga baho berishga mutlaqo yangicha yondashish zarurligi, mavjud imkoniyatlarni Ittifoq va jahon bozori uchun qanchalik jozibali ekani nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish kerakligi ta'kidlandi.

Birinchidan, respublikaning ajoyib tabiiy iqlim sharoitlaridan samarali foydalanish, yetishtirilishi lozim bo'lgan eng foydali va daromadli ekinlarni aniqlab olish;

ikkinchidan, mavjud 500 ming gektar juda sho'rxok va o'rtacha sho'rxok yerlarning irrigatsion va meliorativ holatini yaxshilash masalalariga e'tiborni kuchaytirish;

uchinchidan, O'zbekistonning gaz kondensati, ko'mirga bo'lgan talab-ehtiyojini to'la-to'kis ta'minlash, yaqin vaqt ichida neft qazib olishni 3-4 barobar ko'paytirish, Qizilqumda fosforitlarning juda katta konini o'zlashtirish, rangli va qimmatbaho metallarning juda katta resurslaridan respublika manfaatlari yo'lida samarali foydalanish;

to'rtinchidan, respublikaning eng katta boyligi bo'lgan uning mehnatsevar xalqi uchun keng imkoniyatlar yaratish singari bu boradagi muhim vazifalarga alohida e'tibor qaralilib, ularni amalga oshirish yo'llari ko'rsatib berildi.

Shuningdek, xalq hayotini munosib darajaga ko'tarish uchun mavjud resurs va boyliklardan foydalanish yo'llariga alohida e'tibor qaratildi.

O'sha davrda O'zbekistonda iste'mol qilinayotgan kiyim-kechaklarning 25 foizi, trikotaj buyumlar va ip gazlamaning 30 foizdan ko'prog'i, poyabzalning deyarli 50 foizi chetdan keltirilardi. Prezident o'z faoliyati boshidanoq respublikaning xalq iste'moli mollari jihatidan bunday qaramligini tugatish uchun sharoitlarni yaratishga katta e'tibor qaratdi. Jumladan:

- yengil va mahalliy sanoatni rivojlantirishning tashib kelish va chetga chiqarish balanslariga asoslangan konkret dasturlarini ishlab chiqish;

- zamonaviy fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini egallash, ishlab chiqarishning fan yutuqlari va intellektual mehnat ko'p sarflanadigan tarmoqlarini jadal rivojlantirishga keskin burilish;

- mashinasozlik, radioelektronika, asbobsozlik korxonalarini tubdan yangilash va yangilarini qurish hamda chiqarilayotgan mahsulotlarni yangilash;

- fan-texnika taraqqiyotining oldingi marrasiga chiqish uchun mavjud barcha resurs va shart-sharoitlar, ilmiy texnikaviy va loyiha-konstruktorlik bazasi imkoniyatlaridan foydalanish;

- shu asosda boshqa mintaqalar va chet ellar bilan teng huquqli sheriklar sifatida aloqalarni yo'lga qo'yish.

Prezident iqtisodiy suverenitetga erishishning amaliy masalalariga batafsil to'xtaldi:

- iqtisodiyotning hayotiy qobiliyatini ta'minlab turgan Ittifoq qaramog'idagi barcha korxonalar va tashkilotlarni respublika tasarrufiga o'tkazish;

- Ittifoq qaramog'ida qoldirish maqsadga muvofiq bo'lgan tarmoq va korxonalar, jumladan, yopiq turdagi korxonalar to'g'risidagi masalani ana shu korxonalarining respublika bilan o'zaro iqtisodiy munosabatlarini tubdan o'zgartirish asosida alohida hal etish. Zamindan qazib olinadigan oltin, mineral xomashyo, foydalaniladigan yer, suv, ishchi kuchi uchun respublikaga muayyan miqdorda pul to'lanadigan, shuningdek, mahsulotning ma'lum qismi respublika korxonalariga topshiriladigan va foydaning ma'lum qismi respublika budjetiga o'tkaziladigan shartnoma munosabatlarini o'rnatish maqsadga muvofiq;

- konvertatsiya qilinadigan valyutada yetkazib beriladigan oltinning uchdan bir qismi qiymatini O'zbekistonga qaytarish;

- xalq iste'moli mollari ishlab chiqaradigan deyarli barcha korxonalar, jumladan, "O'zmaishiykimyo" tashkilotiga qarashli korxonalar, Toshkent zargarlik buyumlari zavodi, mashinasozlik, elektrotexnika, kimyo korxonalarining ancha qismi, gaz kompleksining yirik bo'linmalari respublika qaramog'iga o'tkazilishi kerak;

– kichik korxonalar va tashkilotlarni, ayniqsa, aholiga xizmat ko'rsatish, odamlarning kundalik ehtiyojlarini ta'minlash bilan bog'liq shunday korxonalar va tashkilotlarni mehnat jamoalariga va alohida kishilarga topshirish.

80-yillar oxirida ham O'zbekistonda iqtisodiy adolatsizliklar hukm surayotgan edi. Oltita Ittifoq va respublika tashkiloti mavjud bo'lishiga qaramay, yengil sanoat xomashyosini taqsimlash va realizatsiya qilishni muvofiqlashtirishga erishilmadi, qimmatbaho xomashyolarning harakati nazorat qilinmadi. Buning oqibatida paxta tolasi va qorako'lning 90 foizi, tabiiy junning 71 foizi, sintetik tolaning 93 foizi, pilla va chirmaning anchagina qismi arzimmas narxlarda respublikadan olib ketilaverdi. Ichki bozorda ham, jahon bozorida ham ko'plab talab qilinayotgan mana shu g'oyat qimmatli xomashyoning ko'pchilik qismi Sharqiy Yevropa mamlakatlariga eksport qilinadi, ular esa bu mahsulotlarni jahon narxlarida sotmoqda edi. Holbuki, mamlakatdagi aksariyat korxonalarga xomashyo yetishmas, bu yerdan olib ketilgan resurslardan tayyorlangan mollarni esa respublika boshqa mintaqalardan va chet ellardan uch hissa ortiq narx bilan sotib olishga majbur edi.

Bunday adolatsizliklarga chek qo'yish maqsadida Prezident Farmoniga binoan, O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti huzurida xomashyo va yengil sanoat mahsulotlari ta'minoti hamda ularni sotish bosh boshqarmasi va Tashqi savdo va xorijiy mamlakatlar bilan aloqa qiluvchi davlat komiteti ham tashkil etildi.

Paxta yakkahokimligi respublika iqtisodiyotining biryozlama rivojlanib, Ittifoqning xomashyo bazasiga aylanib qolishiga olib kelgan edi. Natijada O'zbekiston eng oddiy sanoat mahsulotlariga bo'lgan o'z ehtiyojining yarmini ham qondirishga qodir bo'lmay qoldi. Yetishtirilgan paxtaning atigi 7 foizi respublikada qayta ishlandi. Bir qancha viloyat va tumanlarda ekin maydonlari nisbatida paxtazorlar 75 – 80 foizni tashkil qildi. Oqibatda asrlar davomida chetga don, meva va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari chiqargan mintaqalar bunday mahsulotlarning yirik iste'mol qiluvchisiga aylanib qolgan edi.

Respublika aholisi salmoqli qismining qishloq joylarda istiqomat qilishi, iqtisodiyot tarkibida qishloq xo'jaligining yetakchi o'rin tutishi mazkur tarmoqni rivojlantirish, undagi uzoq yillar davomida vujudga kelgan muammolarni hal qilish zaruratini keltirib chiqardi. Shunga ko'ra, mamlakat rahbari o'sha dolg'ali va notinch davrda respublika qishloq xo'jaligini rivojlantirish borasidagi yangi tashabbuslarni ilgari surib, amalga oshirilishi zarur bo'lgan bir qator vazifalarni belgilab berdi. Jumladan:

– respublika agrar sektori iqtisodiyotning shunday bo'g'iniki, O'zbekistondagi muammolarning aksariyatini ana shu bo'g'inga tayanibgina hal etish mumkinligi;

- respublikaga Markaz tomonidan zo‘rlab qabul qildirilgan paxta yakkahokimligiga qarshi izchillik bilan kurash olib borish zarurligi;
 - paxta xomashyosini respublika ichida qayta ishlashni yo‘lga qo‘yish. Bunga erishilgan holda dehqonlar tomonidan gektar boshiga olinayotgan 2200 so‘m daromad paxtani to‘liq qayta ishlash natijasida 18 – 20 ming so‘mga yetishi, ya‘ni o‘n barobar ko‘p daromad hamda qariyb yuz xilga yaqin mahsulot olinishi mumkin;
 - paxta xomashyosidan samarali foydalanish, ayni paytda bozorga faol ta‘sir ko‘rsatish yo‘llarini o‘rganish lozim. Hatto, g‘o‘zapoya, shrot, lintdan to‘g‘ri foydalanib, amaldagi daromad hajmini 3–5 barobar ko‘paytirish mumkin;
 - paxtachilikda almashlab ekishni joriy etishga asoslangan ilmiy yo‘ldan borish. 1991-yilda paxta tolasi uchun davlat buyurtmasi darajasida yetishtirilgan mahsulotning yarmidan oshirmaslik hisobidan rejani 100 ming tonna kamaytirish vazifasining qo‘yilishi paxtadan bo‘shagan yerlardan odamlarning dolzarb ehtiyojlarini qondirish, shu jumladan, chorvachilik mahsuloti yetishtirishni kengaytirish uchun foydalanish imkonini yaratish;
 - aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash uchun oziq-ovqat kompleksini ustun darajada rivojlantirish. 1995-yilgacha meva, sabzavot mahsulotlari yetishtirishni 2 barobardan ziyodroq ko‘paytirishni ko‘zda tutuvchi asosli dastur ishlab chiqildi;
 - qayta ishlash sanoati korxonalari qurilishini jadallashtirish. 1995-yilgacha O‘zbekistonda 300 ta mo‘jaz sex qurish ko‘zda tutildi. Bu esa oziq-ovqat mollari resurslarini ancha ko‘paytiradi hamda aholini bu mollar bilan ta‘minlashni yaxshilaydi;
 - qishloqning ijtimoiy hayotini qayta qurish, qishloqni qashshoqlikdan qutqarish, qishloq xonadonini badavlat qilish yo‘lida ish olib borish.
- Ayniqsa, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda yer va suv masalasiga alohida e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Jumladan, bunda quyidagi jihatlarni diqqat markazida tutish hamda har tomonlarni inobatga olish muhimdir:
- respublikada sug‘oriladigan yerlar qishloq xo‘jalik mahsulotining 95 foizini berishini hisobga olib, yer va suv muammosini birgalikda hal etish;
 - yangi yerlarni o‘zlashtirish amalda to‘xtatilganidan keyin vujudga kelgan jiddiy vaziyatni hisobga olish. O‘sha pallada qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan har bir kishiga to‘g‘ri keladigan 1,2 gektardan 0,8 gektargacha, aholi jon boshiga hisoblaganda esa 0,4, Farg‘ona vodiysida esa 0,2 gektardan kam yer maydoni kelgusida yanada qisqarib boradi;

– aholi sonining tez sur’atlarda o’sishi munosabati bilan avvalo mintaqadagi imkoniyatlarni o’zlashtirish, xususan, O’zbekistonning o’zida sug’oriladigan yerlarni 4 million gektardan 10 million gektarga yetkazish.

Islom Karimov rahbarligida boshlangan islohotlar tufayli bir-ikki yilda ahvol asta-sekin o’nglandi, paxta maydonlari qisqardi. Sug’oriladigan yerlarni paxtadan bo’shatib olish jamoa va davlat xo’jaligi hududlarida tomorqa uchastkalarini kengaytirish va yakka tartibda uy-joy qurish uchun yer ajratib berish kabi katta ijtimoiy masalani qisman hal etish imkonini berdi. Shunisi diqqatga sazovorki, paxta hosildorligining ortishi tufayli yalpi paxta yetishtirish kamaymadi.

Qishloq xo’jaligisohasi, uning tarmoqlarini yangi ish uslubiga o’tkazayotgan islohotning asosiy maqsadi – avvalambor, dehqonlarning ishdan manfaatdorligini tubdan o’zgartirish, o’z mehnatining hosili, pirovard natijasini birinchi navbatda ularning o’ziga qaytarish, turmush darajasini, saviyasini ko’tarishdan iborat edi. Shunga asoslanib, jamoa va davlat xo’jaliklarini tubdan o’zgartirib, shaxsiy, kooperativ va dehqon-fermer xo’jaliklariga keng ko’lamda yo’l ochib berish masalasi kun tartibiga qo’yildi.

O’zbekiston SSR Prezidentining **“Shaxsiy tomorqa xo’jaliklarining egalari bo’lmish dehqonlarga moliyaviy yordam berish va ularning uyushmasi moddiy-texnik bazasini mustahkamlash to’g’risida”**gi Farmoniga binoan, dehqonlarga, shaxsiy yordamchi xo’jalik egalariга moliyaviy yordam tariqasida 1 milliard so’m ajratilishi ularning ijtimoiy ahvolini yaxshilashda katta omil bo’ldi. Qo’shimcha ajratilayotgan moliyaviy yordam asosan iqtisodiy jihatdan zaif xo’jaliklarni qo’llab-quvvatlashga, ularning moddiy-texnik bazasini kengaytirish va mustahkamlashga, mahsulotni qayta ishlaydigan kichik korxonalar qurish, transport vositalari, kichik mexanizatsiya texnikasi va chorva mollari sotib olishga sarflandi.

Davlat rahbari o’sha davrda qishloq xo’jaligini inqirozdan olib chiqadigan yo’l – dehqon-fermer xo’jaligini tashkil etishdan iborat ekanligini ta’kidlagan edi. Bu borada quyidagilarni:

- qisqa vaqt ichida kerakli texnika vositalari bilan ta’minlash;
- talab qilinayotgan kichik traktorlar, boshqa qulay va ixcham texnika vositalarini ishlab chiqarishni milliy sanoat hali to’la qondira olmayotgan edi;
- chorvachilik mahsuloti yetishtirishga ixtisoslashgan xo’jaliklarni yem-xashak bilan yetarli ta’minlash, mollarning zotini yaxshilash, ularning mahsuldorligini oshirish kabi masalalarga e’tibor qaratish lozimligini alohida uqtirgan edi.

Prezident o'z rahbarlik faoliyatini boshlagan paytda respublikadagi ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning negizida uzoq yillar davomida hukm surib kelgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimining asoratli ta'siri yotishini, shunga ko'ra ularni hal etishning yagona to'g'ri yo'li – bu iqtisodiyotda bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich shakllantirib va rivojlantirib borish ekanini qat'iy belgilab berdi. Jumladan, ushbu jarayonning maqsadga muvofiq tarzda, samarali va eng muhimi, aholi turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatmagan holda amalga oshishi uchun quyidagi tadbirlarga alohida e'tibor qaratdi:

– O'zbekiston sharoitida bozor mexanizmining mohiyati va mazmuniga sergaklik bilan va har tomonlama real baho berish, uning joriy etilishida vujudga kelishi mumkin bo'lgan murakkabliklar va noxush oqibatlarini ko'zda tutish, o'tish davri keskinliklarini yumshatishga yordam beradigan zarur mexanizmlarni oldindan yaratib qo'yish kerak;

– nonning chakana narxi, boshqa narxlardan ayri holda bir tomonlama oshirilishi g'alla bilan paxta, ulardan olinadigan mahsulotlar narxlarining ekvivalentligiga erishish yo'lidagi sa'y-harakatlarni, ko'zda tutilayotgan yoqilg'i, metall va texnika narxlarining oshirilishi esa paxtaga haq to'lashni ko'paytirish tartiblarini tamomila yo'qqa chiqaradi;

– respublika uchun katta ahamiyat kasb etuvchi boshlang'ich sharoitlarni hisobga olish va barobarlashtirish masalasiga chuqur e'tibor qaratish lozim;

– bozor iqtisodiyotiga o'tish konsepsiyasi haqidagi Sovet ittifoqi hukumatining ma'ruzasida investitsiyalarni qisqartirish masalasining qo'yilishi xato yondashuvdir, chunki ishlab chiqarishning mavjud texnikaviy va strukturaviy darajasida bunday siyosat battar qoloqlikka olib boradi;

– maqsadli, tarkibiy siyosatni, kapital qurilishdagi ustun yo'nalishlarni, avvalo, tugallanmagan qurilishlarni keskin qisqartirish maqsadida tubdan qayta ko'rib chiqish zarur;

– aholi ijtimoiy himoyasining aniq va ta'sirchan mexanizmlari zarur;

– uy-joy qurilishiga alohida e'tibor berish lozim. Bunda yaqin besh yil ichida 67-68 million kvadrat metr uy-joyni foydalanishga topshirish, 6 milliondan ziyodroq kishining uy-joy sharoitini yaxshilash vazifasi qo'yilishi muhim ahamiyat kasb etadi;

– aholiga kommunal xizmatni keskin yaxshilash, jumladan, aholining markazlashtirilgan suv ta'minoti darajasini 52 foizdan 67 foizga yetkazish, Orolbo'yi zonasida esa 1995-yilgacha butun aholini markazlashtirilgan suv ta'minotiga o'tkazish, qishloq aholi punktlarini gazlashtirish sur'atlarining ikki barobar ortishi ahamiyatlidir;

– respublikadagi ijtimoiy o‘zgarishlarni hal etishga byudjet mablag‘laridan tashqari, vazirliklar, idoralar, korxonalar va tashkilotlarning o‘z hissasini qo‘shishini ta‘minlash kerak;

– respublikada o‘tish davridagi resurs va imkoniyatlardan samarali foydalanish, aholining ijtimoiy himoyasi, ayniqsa, kam ta‘minlangan aholining ijtimoiy himoyasining ishonchli mexanizmi ishlab chiqilishi;

– respublikada mulkchilikning qanday shakllari bo‘lishini aniqlab olish;

– ayrim davlat mulkidagi ishlab chiqarish obyektlarini mulkchilik va xo‘jalik yuritishning boshqa shakllariga aylantirishni belgilab olish;

– iste‘mol mollari, xalq hunarmandchiligi, xalq ijodiyoti mahsulotlari ishlab chiqaradigan, umumiy ovqatlanish va maishiy xizmat sohasidagi yoki yordamchi korxonalar, ikkilamchi resurslarni va ishlab chiqarish chiqindilarini qayta ishlaydigan katta birlashmalarning ayrim buyurtmalarini bajaradigan korxonalarini kichik xususiy korxonalar ko‘rinishida tashkil etishning qonuniy tartibini aniq belgilab qo‘yish;

– yirik ishlab chiqarish komplekslari, shu jumladan, mamlakatning boshqa mintaqalaridagi komplekslar tomonidan mayda va o‘rtacha korxonalar, filiallar va sexlar tashkil etilishini rag‘batlantirish;

– yordamchi ishlab chiqarish bo‘linmalari tuzilishida ularning mehnat jamoalarini uy-joy va ijtimoiy, madaniy-maishiy obyektlar bilan to‘la ta‘minlash;

– qo‘shma korxonalar tashkil etish ishini faollashtirish;

– mulkni isloh qilish va mulkchilikning turli shakllariga o‘tish va boshqalar.

Ma‘muriy-buyruqbozlik tizimi o‘z umrini o‘tab, bozor munosabatlari-ga o‘tish harakatlari endigina ro‘y berayotgan bir davrda, respublika Oliy Kengashining sessiyasida tasdiqlangan bozor munosabatlariga o‘tishning dasturi O‘zbekistonni konservatorlar respublikasi deb noo‘rin tanqid qilinishiga sabab bo‘ldi. Bunga javoban, respublika rahbari jamiyat taraqqiyotidagi “sakrash”larning salbiy jihatlari, xususan, O‘zbekistondagi og‘ir ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda inqilobiy o‘zgarishlar turli xavf-xatarlar bilan bog‘liqligi, umuman “sakrab o‘tish” g‘oyasi esa respublika uchun og‘ir, halokatli oqibat-larga sabab bo‘lishini asoslab berdi. Shu bilan birga, boshqa respublikalarda xususiylashtirish to‘g‘risida gap sotilayotganda, aynan muxoliflar tomonidan o‘rinsiz tanqid qilinayotgan “konservatorlar respublikasi”da birinchilardan bo‘lib xususiy korxonalar paydo bo‘ldi. Respublikada do‘konlarni va maishiy xizmat ko‘rsatish sohasini xususiylashtirish boshlanib, 1990-yilning o‘zida 170 ming gektar yer oilalarga meros qoldirish huquqi bilan ijaraga berildi. Bu raqamni yarim million gektargacha yetkazish belgilab olindi. So‘nggi paytlargacha yerlarning bor-yo‘g‘i 4,5 foizida dehqonchilik qilgan shaxsiy

xo'jaliklar respublikadagi oziq-ovqat resurslarining 40 foiziga qadar bergani hisobga olinadigan bo'lsa, yerlarning umumiy salmog'ida bunday uchastkalar hajmi ikki barobardan ziyod oshganda oziq-ovqat mahsulotlari hajmi sezilarli darajada oshishi muqarrar edi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, Prezident Islom Karimovning respublika rahbari sifatidagi faoliyati hayotning boshqa ko'plab jabhalari qatorida ijtimoiy va iqtisodiy ahvolni tubdan o'zgartirish, bunda eng avvalo barcha muammo va masalalar yechimiga xalq manfaati orqali yondashish, sobiq ma'muriy-buyruqbozlik tizimi amal qilishi natijasida vujudga kelgan salbiy holatlarni tezlik bilan bartaraf etish, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti munosabatlarini bosqichma-bosqich shakllantirib va rivojlantirib borish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va izchil amalga oshirish bilan uzviy bog'liqdir.

Yurtboshining o'sha og'ir vaziyatlarda ham o'n yillar oldingi istiqbolni ko'zlab, oqilona siyosat olib borganini yanada kengroq tasavvur etish uchun Siz aziz talabalarga I.A.Karimovning "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" kitobini chuqurroq o'rganishni tavsiya etamiz.

4. MUSTAQILLIK SARI DADIL QADAMLAR

80-yillar o'rtalariga kelib Sovet ittifoqida kuchaygan tanglik holati mamlakat hayotining barcha sohalarini qamrab oldi. KPSSning kutilayotgan natijalarni bermayotgan iqtisodiy siyosati butun ijtimoiy-siyosiy tizimning inqiroziga sabab bo'ldi. Xalq xo'jaligidagi tanglik holatlarining keskin suratda va shitob bilan kuchayib borishi sotsialistik tuzumning tayanch negizlariga tahdid soluvchi xatarli siyosiy tanglikka o'sib o'tdi. Butun jamiyatda keskin, tub o'zgarishlar qilish zarurati paydo bo'ldi. Kirib qolingan boshi berk ko'chadan chiqib ketish yo'llari izlandi.

Hukmron partiyaning qayta qurish siyosati ham quruq ritorika va deklaratsiya asosida bo'lib, hech qanday amaliy natija bermadi. Aksincha, ular sovet jamiyatining tub asoslari adolatsizlik negiziga qurilganini, rivojlantirishga noqobil ekanini oshkor etib qo'ydi.

Ittifoq tarkibiga kirgan respublikalarda o'zlikni anglash, til, madaniyat, tarix va kelajakka teran nazar solish, inson huquq va erkinliklarini har narsadan ustun qo'yishga bo'lgan intilish kuchayib bordi. Xususan, O'zbekistonda keng munozaralarga sabab bo'lgan muammolardan biri – o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish masalasi edi. Bu muammo yuzasidan boshlangan harakat qudratli tus oldi, unda ziyolilar, talabalar va yoshlar faol ishtirok etdi. I.A.Karimov boshchiligidagi yangi rahbariyat bu masalani amaliy hal qilishga jasorat bilan kirishdi. Natijada

o‘n birinchi chaqiriq O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining o‘n birinchi sessiyasida (1989-yil 21-oktabr) “O‘zbekiston SSRning Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilindi¹. Qonunning 1-moddasi, 1-qismida “*O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir*”,² deb yozib qo‘yildi. Shunday qilib, o‘zbek tili davlat tili maqomini oldi.

“O‘zbekiston SSRning Davlat tili haqida”gi Qonunning 4-moddasining 1-qismida: “O‘zbekiston SSRda ishlovchi davlat hokimiyati va boshqaruv organlari rahbarlari o‘z xizmat vazifalarini bajarish uchun respublika davlat tilini yetarli darajada bilishlari shart”, deb belgilandi. Qonunning 5-moddasi (1-qism)da quyidagi huquqiy norma mustahkamlab qo‘yildi: “O‘zbekiston SSR davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatida syezd, plenum, qurultoy, sessiya, konferensiya, majlis va kengashlar respublikaning davlat tilida olib boriladi va aynan tarjimasi ta’minlanadi”³. Qonundan keltirilgan ana shu moddalar (ularning qismlari) da O‘zbekistonda davlat hokimiyati organlari o‘z faoliyatini davlat tilida yuritishlari lozimligi ko‘rsatilgan.

“Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinganidan so‘ng, milliy o‘zlikni anglash, milliy davlatchilikni tiklash yo‘lida respublikada yana bir tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan muhim siyosiy qadam qo‘yildi. O‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining birinchi sessiyasi muhim siyosiy-huquqiy hujjatni – O‘zbekistonda prezidentlik boshqaruvini ta’ sis etish to‘g‘risidagi qarorni qabul qildi. Shunday qilib, O‘zbekistonda Prezident lavozimi 1990-yil 24-martda Oliy Kengashning birinchi sessiyasida ta’ sis etildi. O‘sha kuni O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining deputatlari respublika Kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasining Birinchi kotibi Islom Abdug‘aniyevich Karimovni O‘zbekiston SSRning birinchi Prezidenti etib sayladi. Sovet ittifoqi respublikalari ichida birinchi bo‘lib O‘zbekistonda prezidentlik boshqaruvi joriy etildi. Bu vaqtda ittifoq hududida faqat SSSR Prezidenti lavozimi mavjud edi⁴.

¹ O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi 1995-yilning 21-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Qonuni asosida “Davlat tili haqida”gi Qonunning yangi tahriri tasdiqlandi.

² Qonunning matni bo‘yicha qarang: Ona tili – Davlat tili: (O‘quv qo‘llanma – majmua) O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuniga oid hujjatlar //Tuzuvchilar: N.Jumaxo‘ja, R.Jomonov. – T.: “Adolat”, 2004. – 80-bet. – (Davlat va millat ramzlari).

³ O‘sha manba. – 6-7-betlar.

⁴ 1990- yilning 14- martida SSSR xalq deputatlarining navbatdan tashqari uchinchi syezdida SSSR Prezidenti lavozimini ta’ sis etish to‘g‘risidagi Qonun qabul qilindi. Bu lavozimga Mixail Sergeyevich Gorbachyov saylandi.

O‘zbekiston Prezidenti I.A.Karimov KPSS Markaziy Komitetining 1990-yil fevral va mart plenumlarining yakunlari hamda KPSS XXVIII syezdiga va O‘zbekiston Kompartiyasi XXII syezdiga tayyorgarlik ko‘rish yuzasidan respublika partiya tashkilotlarining vazifalari to‘g‘risida qilgan ma‘ruzasida **“eng muhimi shundan iboratki, Prezident institutining joriy etilishi – respublikamiz uchun suverenitet va davlatchilikda prinsip jihatdan yangi bosqichga o‘tilishini bildiradi”**¹, deb ta’kidladi. Islom Karimov o‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining 1990-yil 24-martda bo‘lib o‘tgan birinchi sessiyasida so‘zlagan nutqida ham **Prezident boshqaruvinin joriy etilishi hayot taqozosi ekanini uqtirib: “Prezident boshqaruvinin hayotning o‘zi, qayta qurishning mantiqi, mohiyati, uning murakkab va ziddiyatli jarayonlari taqozo etyapti”**², degan edi.

O‘zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, mamlakatda davlatni idora etishning zamonaviy va samarali shakli – prezidentlik tizimi qaror topa boshladi. Dunyo davlatchiligi taraqqiyotida davlat boshqaruvinin asosan ikki shakli – monarxiya va respublika shakllari mavjud. Respublika, o‘z navbatida, parlamentar respublika va prezidentlik respublikasi ko‘rinishlariga ega. Prezidentlik respublikasi hozirgi kunda eng ko‘p tarqalgan davlat boshqaruvi shaklidir. BMTga a‘zo 192 davlatdan 142 tasida Prezident³ lavozimi mavjud bo‘lib, ularning aksariyati prezidentlik respublikasidir⁴.

Mustaqillik yo‘lidagi uchinchi muhim qadam, mamlakat va xalq tarixiy taqdirida ulkan ahamiyatga ega bo‘lgan hujjat – “O‘zbekiston Respublikasi davlat suvereniteti to‘g‘risida Deklaratsiya” (Mustaqillik deklaratsiyasi)ning qabul qilinishi bo‘ldi. Ushbu Deklaratsiya O‘zbekiston SSR Oliy Kengashining XII chaqiriq ikkinchi sessiyasi (1990-yil 20-iyun)da qabul qilindi. Bu hujjatda har bir millat o‘z taqdirini o‘zi belgilashi, Deklaratsiya qoidasi bilan kafolatlanishi ta’kidlandi. Deklaratsiyaning kirish qismida o‘zbek xalqining asrlar davomida qo‘lga kiritgan davlat qurilishi va madaniy taraqqiyot borasidagi boy tarixiy tajribasi va an‘analari hisobga olindi. Deklaratsiya 12 moddadan iborat bo‘lib, uning 1-moddasida “O‘zbekiston SSRning demokratik davlat mustaqilligi respublikaning o‘z hududida barcha tarkibiy qismlarini

¹ Karimov I.A. “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”. – T.: “O‘zbekiston”, 2011. – 147-b.

² O‘sha manba. –149-b.

³ “Prezident” so‘zi lotincha praesidens (praesidentis) so‘zidan olingan bo‘lib, “oldinda o‘tiruvchi” ma’nosini bildiradi.

⁴ Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug‘at // Mualliflar: M.Abdullayev, M.Abdullayeva, F.Abdullayeva, G.Abdurazzoqova va b.; R.Ro‘ziyev va Q.Xonazarov umumiy tahririda. To‘ldirilgan uchinchi nashri // – T.: “Sharq”, 2006. – 75-b.

belgilashda tashqi munosabatlardagi tanho hokimligidir”, deb yozib qo‘yilgan. Sessiya qabul qilgan bu “Mustaqillik Deklaratsiyasi” o‘zbek xalqi tomonidan katta mamnuniyat bilan kutib olindi.

Aynan shu kundan boshlab respublikaning iqtisodiy va siyosiy hayotiga doir masalalar mustaqil tarzda hal qilina boshlandi.

Davlat rahbari “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” nomli asarida buyuk Amir Temurga o‘z hurmatini bildirib, quyidagi ibratli rivoyatni o‘qiganini eslaydi:

“Emishki, Amir Temur yarim jahonni zabt etib, olis o‘rmon qabilalariga borib yetibdi, xullas, ularni ham o‘ziga bo‘ysundiribdi. Qaysar va jangari, ozod va samimiy bu qabila boshlig‘i chorasizlik tufayli, Temurga quollarini topshirar ekan, quyidagi gaplarni aytibdi: “Ey, Amir! Sen bizni qurol kuchi bilan yenga olding. Biroq, senga aytadigan shartlarimiz bor. Agar sen qassob bo‘lsang, bizni so‘yib tashla, agar sen savdogar bo‘lsang, sotib yubor, agar podsho bo‘lib kelgan bo‘lsang – bizga baxt ato et!”

I.Karimov bu hikoyatda ajoyib bir hikmat barq urib turganligini ta’kidlab, quyidagicha xulosa qiladi: “Ya’ni, elga peshvoman, deb o‘rta qad chiqdingmi, uning ishonchini qozondingmi – bu ishonchni endi asl vijdon bilan, pokiza faoliyat bilan oqlamoq kerak bo‘ladi. Bu talabni eskichasiga aytsami, yangichasigami – baribir, mohiyati bir xil bo‘lib qolaveradi. Ya’ni, xalq vakili xalqning posboni, xalq rahbari bo‘lib, xalqning issiq-suvug‘idan xabardor bo‘lg‘uvchi sirdoshiga aylanishi shart”¹.

Yurtboshining bu rivoyatga amal qilgan holda xalq posboni bo‘lishga chin mardlik bilan faoliyat yuritganini o‘sha tahlikali davrda O‘zbekiston mudofaasi va ichki tartibini tashkil etish borasida ko‘rgan tadbirlaridan ham ko‘rish o‘rinli hisoblanadi.

XX asrning 80-yillar oxiri 90-yillarning boshlarida hali Sovet Ittifoqi mavjud bo‘lgan va Markazda qanday bo‘lmasin ittifoqni saqlab qolishga harakat ketayotgan bir vaqtda buning eng kuchli vositalaridan biri – sovet harbiy kuchlari hisoblanar edi. O‘sha davrlarda 1990-yilda mahalliy zobitlar harbiy kadrlarning bor-yo‘g‘i 0,6 foizini tashkil qilgan bo‘lsa, ittifoq bo‘yicha eng ko‘p harbiyga chaqiriladigan yigitlar ayni O‘zbekistondan. har yili 320 ming nafarga yaqin yigitlar sovet qurolli kuchlariga xizmatga chaqirililar edi. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish zarurki, o‘sha davrlarda o‘zbek yigitlari nafaqat hayotning boshqa jabhalarida, balki qurolli kuchlar safida ham kamsitilar edi. Ya’ni, o‘zbek yigitlarining aksariyat qismi harbiy xizmatga chaqirilish bahonasida qurilish batalyonlariga jalb etilardi. Ular ikki yil davomida harbiy

¹ Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – 127- b.

texnikani koʻrmay, qurolni bir marta boʻlsa-da qoʻlida tutmay, mardikorlik bilan shugʻullanib qaytar edi.

Bu siyosat aslida Birinchi jahon urushi davridagi chor Rossiyasi qoʻllagan mardikor olish siyosatining davomi edi. Chor Rossiyasi faqat urush vaqtida mardikorlikka safarbar etgan boʻlsa, shoʻrolar davlati tinch davrda ham harbiy xizmat bahonasida yigitlardan tekin ishchi kuchi sifatida foydalanib keldi.

Afgʻonistondagi urushga safarbar qilingan askarlarning koʻpchiligini oʻzbek yigitlari tashkil etgan.

Taniqli olim A. Azizxoʻjayevning yozishicha “Afgʻon urushi davrida eng koʻp temir tobutlar Oʻzbekistonga kelgan edi. Urush, tabiiyki, qurbon-siz boʻlmaydi. Lekin, achinarlisi shundaki, afgʻon urushi tamom boʻlsa-da, tinch davrda ham Oʻzbekistonga kelayotgan temir tobutlarning oqimi toʻxtamadi. Faqat 1989-yilning oʻzida Oʻzbekistonga 430 ta tobutning kelgani fikrimizning dalilidir. 1990-yillarda ham bu dahshatli jarayon davom etdi. Bu haqda Oʻzbekiston xalq yozuvchisi Oʻtkir Hoshimov hukmron partiyaning katta yigʻilishi (1990-yil iyunda) minbaridan turib, soʻnggi yarim yilning oʻzida 300 ga yaqin oʻzbek xonadoniga harbiydan tobutlar kelganini oshkora aytganida, uning gaplari boʻhtonga chiqarilgan edi. Buni isbotlash maqsadida tuzilgan maxsus komissiya “masalani oʻrganib”, Oʻzbekiston vakilining 40 kishiga yanglishganini ayta oldi, xolos. Mayli, shunday ham boʻlsin. Ammo oʻylab koʻring, tinch davrda 300 ga yaqin oʻzbek xonadoni “oʻgʻlim er yigit boʻldi”, deb endi kuchga toʻlgan, orzu-umidlari bisyor oʻgʻlonlarini orzu-havas bilan harbiyga yuborib, koʻp oʻtmay ularning jasadini olgani oʻsha davrning eng dahshatli haqiqati emasmi?.. Hatto, Kosovo urushida ham qurbonlarning soni bunchalik koʻp boʻlmagan edi.

Ustiga ustak, oʻzlarini “demokratiya himoyachilari” deb atagan “Erk” va “Birlik”dagi dohiychalar qurbonlardan soxta obroʻ orttirish yoʻlida foydalanib, ularni musulmon odatlariga binoan tezda qabrga qoʻyish oʻrniga koʻchama-koʻcha koʻtarib, odamlarni xayrsiz kurashga chorlagani dard ustiga chipqon boʻldi... Gʻarazli maqsadlarda har qanday fitna va nayranglardan tap tortmaydigan bunday kimsalar uchun begunoh qonlarning toʻkilishi arziyas narsa edi. Hali Ittifoq tarqalib ulgurmagani bu tahlikali davrda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti qatʼiyat bilan masalani qon toʻkmasdan, tinchlik bilan hal qilish yoʻlini tutdi”¹.

Oʻzbekistonlik harbiylar (sobiq ittifoqning boshqa hududlarida xizmat qilayotganlar)ning mamlakatda xizmatni davom ettirishi masalalari bosqichma-bosqich amalga oshirildi. 1990-yil 20-iyunda boʻlib oʻtgan Oʻzbekiston SSR

¹ Azizxoʻjayev A. Chin oʻzbek ishi. – T.: “Oʻzbekiston”, 2011. – 155-156-betlar.

Oliy Sovetining 2-sessiyasida qabul qilingan “Mustaqillik deklaratsiyasi”da milliy armiyani shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lgan ayrim bandlar quyidagilardan iborat edi:

1. O‘zbekiston SSRning demokratik davlat mustaqilligi respublikaning o‘z hududida barcha tarkibiy qismlarida va barcha tashqi munosabatlardagi tanho hokimligidir.

2. O‘zbekiston SSRning davlat hududi chegarasi daxlsiz va bu hudud xalqning muhokamasiga qo‘yilmay turib, o‘zgartirilishi mumkin emas.

3. O‘zbekiston SSRda davlat hokimiyati uning hududiga kiradigan barcha tarkibiy va bo‘linmas qismlari ustidan amalga oshiriladi va shu hududda yashaydigan aholiga taalluqlidir va h.k.

1991-yil 25-avgustdagi O‘zbekiston SSR Prezidentining Farmoniga ko‘ra:

– Respublika hududida joylashgan SSSR IIV va Davlat Xavfsizligi komiteti O‘zbekiston SSRning qonuniy tasarrufiga olindi;

– Respublika va uning fuqarolari xavfsizligini, manfaatlarini muhofaza qilishni nazarda tutadi;

– Respublika hududida joylashgan SSSR IIVning ichki qo‘shinlari bevosita O‘zbekiston SSR Prezidentiga bo‘ysundirildi;

– O‘zbekiston SSR IIV, DXQ, prokuraturasi va adliya organlari, shuningdek, respublika hududida joylashgan ichki qo‘shinlar, Turkiston harbiy okrugi qismlari va qo‘shilmalari partiyadan xoli qilindi va h.k.

Prezidentning bevosita ko‘rsatmasi bilan respublika IIVning mas‘ul lavozimlariga malakali mahalliy kadrlar qo‘yildi. Tizim rahbarligi xalq taqdiriga befarq bo‘lmagan, uning orzu-armonlari bilan yashaydigan kishilar qo‘liga o‘tgach, ishda jiddiy ijobiy o‘zgarishlar yuzaga keldi. Uyushgan jinoyatchilik, bosqinchilik, avtomashinalarni olib qochish singari o‘nlab jinoyatlarning payi qirqildi. Sobiq Ittifoq hududida avj olib ketgan avtomashina o‘g‘irligini oladigan bo‘lsak agar, 1990-1991-yillarda bir kunda o‘rtacha 154 jinoyat rasmiy ro‘yxatga olingan bo‘lsa, ayni masalada Prezident ko‘rsatgan qat‘iyat tufayli 1992-yilga kelib bir yilning ichida bunday qonunbuzarliklarga chek qo‘yildi.

Mustaqillikka erishgan kunda esa bu boraclagi vazifalar qonun bilan mustahkamlandi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 31-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi” bayonotida “Davlat mustaqilligini, hududiy yaxlitligini, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqi va erkinligini himoya qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasida Mudofaa ishlari vazirligi va Milliy gvardiya tuziladi. Respublika hududida joylashgan sobiq SSSR IIV, SSSR DXQ hamda Ichki qo‘shinlari O‘zbekiston Respublikasi yuris-

¹ Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – 370-371-betlar.

diksiyasiga olinadi”, deb ko‘rsatilgan edi. Bu qoidalar 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to‘g‘risida”gi qonunda mustahkamlandi va “O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligini tuzish, Milliy gvardiya va muqobil xizmatni tashkil etish huquqiga ega” deb huquqiy jihatdan mustahkamlandi. Bu amalda yosh respublika uchun harbiy siyosatni amalga oshirish huquqini berdi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, I.A.Karimovning siyosat maydoniga kirib kelgan birinchi kunlardan o‘z faoliyatini O‘zbekiston fuqarolarining huquqlarini himoya qilish, toptalgan huquqlarini tiklashdek oliyjanob va xayrli ishdan boshlagan edi.

“Paxta ishlari”ni ko‘rib chiqish uchun maxsus komissiya tuzilib, komissiya a’zolariga 40 ming tomdan iborat ishni ko‘rib chiqish topshirilgan edi.

1990-yil 13-iyun kuni SSSR Bosh prokurori, SSSR Oliy sudining raisi va Adliya vaziri nomiga yozilgan xatda komissiya xulosalari yozilgan bo‘lib, unda “Paxta ishlari” chuqur tahlil qilinib, sudlanganlarni oqlash masalasi qo‘yildi.

Respublika rahbarining qat’iyatli harakati bilan nohaqlik barham topdi. Komissiya ikki yildan ko‘proq vaqt orasida 40 ming tomlik ishni ko‘rib chiqdi. 3,5 mingdan ko‘proq kishi oqlandi. Qolganlarning jazo muddatlari kamaytirildi.

Jazolanganlarning ma’lum bir qismi esa Prezident tomonidan xalqning bag‘rikengligi, kechirimliligi xislatlarini qo‘llab afv etildi.

Islom Karimovning qat’iyatligi, prinsipial pozitsiyada turishi natijasida paxta ishlari bo‘yicha sudlanganlarning ko‘pchiligi hayotligida oqlandi, yuzlari yorug‘ bo‘ldi, toptalgan huquqlari tiklandi, o‘z ish joylariga qaytishdi, musodara qilingan mulki qaytarilib, boshqa yetkazilgan moddiy zararlar qoplandi. O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligiga erishgach, respublika rahbariyatining qat’iyatli harakati bilan nohaqlik barham topdi. Minglab begunoh fuqarolarning nomlari oqlandi.

5. PREZIDENT I.A.KARIMOVNING O‘ZBEKISTON MUSTAQILLIGI OSTONASIDAGI DAVR TARIXINI YORITIB BERISHDAGI MUHIM XIZMATI

Sovetlar istibdodining so‘nggi yillarida O‘zbekistondagi ayanchli ahvol, undagi tarixiy jarayonlar shu paytgacha aniq, ilmiy-tarixiy yo‘sinda yoritilmagan edi. Bu esa mustaqillik ostonasidagi holatni, yurt va xalq chekkan zulmlar asoratlarini, ularga chek qo‘yib, mardlik va jasorat ko‘rsatib, xalq dardi bilan hamdard bo‘lgan davlat rahbarining tinim bilmas faoliyatini, uning mardona harakatlari-yu qabul qilgan qarorlarini to‘liq bilish imkonini bermas edi.

1991-yilda chop etilib keng kitobxonlar ommasiga havola etilgan O‘zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” nomli asari aynan yuqoridagi jarayonlar va harakatlarni to‘liq o‘rganish va ulardan xulosa chiqarish, saboq olishga keng imkon berdi.

Prezident Islom Karimovning mazkur kitobi O‘zbekiston mustaqilligi bo‘sh joydan o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolgan narsa, qandaydir taqdir ehsoni emas, balki real tarixiy zaminda, real tarixiy shart-sharoitda xalq va unga yetakchi bo‘lib maydonga chiqqan jasur yurt rahbarining tinimsiz kurashlari asosida amalga oshirilgan, el-yurtning tub manfaatlaridan o‘sib chiqqan, ne-ne ajdodlarning asriy orzu-intilishlarini ifoda etadigan konkret tarixiy jarayon, amaliy voqealik ekanini hayotiy misollar, aniq dalillar bilan ko‘rsatib beradi. Bir so‘z bilan aytganda, kitobga kiritilgan har bir chiqish yurtni milliy istiqloлга olib kelgan mashaqqatli va sharaflı kurashlar tarixining yorqin sahifasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Bugun oradan vaqt o‘tib, o‘sha davr voqealariga bevosita guvoh bo‘lgan odamlarning soni tobora kamayib borayotgani, suronli voqealarni aks ettirgan fotosuratlar, videotasvirlar, yozma manbalar deyarli saqlanib qolmagani bu kitobda bayon qilingan boy faktik va analitik materiallarning qadr-qimmatı nihoyatda beqiyos ekanidan dalolat beradi. Shuningdek, kitobdagi har bir hujjatning so‘ngida uning asl manbasi ko‘rsatilgani uning ilmiy va tarixiy qimmatini yanada oshiradi.

Kitobda yurtdagi g‘oyat qaltis va nosog‘lom vaziyat, ozgina uchqun chiqsa, butun respublika lovullab yonib ketadigan, to‘g‘ri yo‘lni topish o‘ta murakkab va xatarli bo‘lgan bir sharoitda inqirozdan chiqish, O‘zbekistonning taqdiri va kelajagini hal etadigan eng muhim masalalar bo‘yicha ulkan donishmandlik va jasorat bilan bayon etilgan konseptual yondashuvlar, amaliy fikr-mulohazalar, xulosa va takliflarga alohida e‘tibor qaratilganki, ular na faqat kelajak avlodga yaqin tarixni xolis o‘rgatish, ayni paytda ularni hayot sinovlariga chidamli, mustahkam irodali, o‘z yurti va xalqi manfaatlarini himoya qilish yo‘lida har qanday sinovlarga tayyor bo‘lgan yuksak vatanparvar insonlar etib tarbiyalashda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Yana bir muhim jihati shundaki, nazariy va amaliy jihatdan katta tayyorgarlikni, ulkan siyosiy tafakkur va donishmandlikni, boy hayotiy bilim va tajribalarni talab qiladigan bunday murakkab mavzuning aynan istiqlol me‘mori, mustaqil davlat asoschisi, o‘sha paytda yuz bergan ijtimoiy jarayonlarning asosiy markazida turgan, ularning barchasini o‘z qalbi va yuragidan o‘tkazgan inson – Yurtboshi tomonidan noyob tarixiy hujjatlar va teran tahlil asosida yoritib berilishi mamlakat jamoatchiligining ushbu kitobga bo‘lgan qiziqish va e‘tiborini yanada oshirmoqda.

Respublikada 80-yillarning oxiri 90-yillarning boshida vujudga kelgan haqiqiy ahvol aniq tasavvur qilinadigan bo'lsa, "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" kitobi istiqlol tarixining hozirga qadar atroflicha yoritilmagan sahifalarini har tomonlama chuqur isbotlangan, rad etib bo'lmaydigan aniq tarixiy hujjatlar asosida to'ldirishi bilan ayniqsa e'tiborlidir. Chunki, hozirgi vaqtda turli uydirmalarni ustalik bilan ishlatib, bu bo'shliqni g'arazli maqsadda to'ldirishga, shu masalada kimlarningdir reja va buyurtmalarini bajarishga, xalq boshidan kechirgan tarixiy voqealarni buzib talqin etishga qaratilgan urinishlarga bu kitob hech qanday imkon qoldirmaydi.

Bu to'plamning eng muhim jihati va ahamiyati avvalo ana shunda – yaqin tarixdagi suronli va to'fonli voqea-hodisalarni faqat haqiqat va yana bir bor haqiqatga asoslanib, o'z ong-u shuuridan, qalbidan kechirgan muallifning teran nigoh, ulkan donishmandlik, o'z xalqi va yurtiga cheksiz muhabbat va sadoqat hissi bilan yoritib berganida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Shuni unutmashlik kerakki, bugun sobiq ittifoqning ayrim hududlarida SSSR degan imperiyani qandaydir yangi shaklda tiklashni xayol qilib yurgan, yaqin o'tmishda sodir bo'lgan tarixiy jarayonlarni butunlay o'zgartirib, kerak bo'lsa, soxtalashtirib, odamlarni, ayniqsa, u zamonlarni ko'rmagan-bilmagan yoshlarni aldab, to'g'ri yo'ldan chalg'itishga urinayotgan kuchlar, afsuski, hali ham yo'q emas. Eng yomoni, ular o'z qabih niyatlari yo'lida hech narsadan qaytmaydi.

Shu ma'noda, Prezident Islom Karimovning xalqning siyosiy tafakkur xazinasiga bebaho hissa bo'lib qo'shiladigan "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" kitobi barchani hozirgi o'ta notinch va tahlikali zamonda doimo hushyor, ogoh va sergak bo'lib yashashga da'vat etadi. Shu asosda Vatanning yangi tarixini chuqur anglab, undan zarur saboq va xulosalar chiqarib, yurtning qadimiy shuhrati, bugungi qudrati va salohiyati, jahon maydonidagi obro'-e'tiboriga har tomonlama munosib bo'lib yashashga o'rgatadi.

Albatta, fursat o'tgani, unda yoritib berilgan haqqoniy tarix, ilgari surilgan g'oya va qarashlar, muallif tomonidan o'z vaqtida ulkan jasorat va donishmandlik bilan kelajak o'n yillarini oldindan ko'rib qabul qilingan qarorlarning ahamiyati yanada teran tushunib yetilgani sari bu kitobning yangi-yangi mazmunlari kashf etiladi. Chunki bu kitob faqat bugungi kunga emas, kelajakka qaratilgan ibrat kitobidir. Bu asardan mustaqillik ne'matidan bahramand bo'lgan, ozod va erkin hayot qadrini biladigan har bir avlod o'zi uchun kerakli saboq va xulosalarni chiqarib oladi. Bir so'z bilan aytganda, bu kitob o'zining mana shu O'zbekiston zaminining farzandi deb biladigan bironta insonni beparvo qoldirmaydi.

Tayanch soʻz va iboralar:

Sobiq ittifoqni saqlab qolish maqsadidagi urinishlar. Fargʻona voqealari va uning oqibatlari. Buyuk yoʻlboshchilarning maydonga kelishi. I.A.Karimovning siyosat maydoniga chiqishi. Dastlabki kunlardagi matonat va jasorat. Namangan voqealari. Oʻzbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy muammolar. Xalq turmush sharoitini yaxshilash borasida koʻrilgan choralar. Iqtisodiy mustaqillikni taʼminlash va bozor munosabatlariga oʻtish masalalarining hal etilishi. Mustaqillik sari dadil qadamlar. “Davlat tili haqida”gi Qonun. Prezidentlik lavozimining joriy etilishi. “Mustaqillik deklaratsiyasi”. I.A.Karimovning “Oʻzbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” kitobi. Yangi davr tarixini yoritishda muhim hissa.

Bilimingizni sinab koʻring

1. Prezident I.A.Karimovning “Oʻzbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” kitobida jamiyat hayotida tub burilishlar davrida ijtimoiy-siyosiy vaziyatning oʻzi buyuk yoʻlboshchilarni maydonga chiqarishi aytilib, oʻzbek yurti tarixida ham ana shunday ulugʻ yoʻlboshchilar tarixiy vaziyat taqozosi bilan maydonga chiqib, xalqning shaʼni va gʻururi, insoniy huquqlarini qayta tiklagani taʼkidlanib, buyuk bir ajdodning nomi alohida tilga olinadi. Asarda alohida tilga olingan bu buyuk shaxsning nomini toping.

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

2. XX asrning 80-yillari oxirida yurt va xalqning oʻta ogʻir masʼuliyatli vazifasini I.A.Karimov oʻz zimmasiga oldi. U kishi respublika rahbarligi lavozimiga tayinlanishlari bilanoq yurtning bir hududida boʻlib oʻtgan fojialarga, uning sabablari va oqibatlariga muhim eʼtibor qaratdi.

Bu Oʻzbekistonning qaysi hududi edi?

													t	i
--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	---	---

3. XX asrning 80-yillari oxirida respublikada ijtimoiy ahvol qoniqarsiz edi. Aynan shu davrda aholi turmush darajasining yomonligi odamlar jon boshiga toʻgʻri keladigan daromadning pastligida, tomorqa yerlarining qisqarishida, millat salomatligi, uning genofondiga salbiy taʼsirning kuchayishida, bola va onalar oʻlimining avj olishida va yana tabiat bilan bogʻliq bir nochor holatda koʻrinayotgan edi. Tabiat bilan bogʻliq nochor holatning nomi katakchalarda yashiringan, uni toping.

		o				i			h	o	l	a	t
--	--	---	--	--	--	---	--	--	---	---	---	---	---

4. Davlat rahbari 1991 -yilda qishloq joylarida istiqomat qilayotgan aholi-ning turmush darajasi pastligi, yashash sharoitining og'irligi, oziq-ovqat mahsulotlari ta'minotidagi qiyinchiliklarni hisobga olgan holda har bir oilani jonli bir narsa bilan ta'minlash masalasini kun tartibiga qo'ydi. Aytingchi, davlat odamlarga tekinga bergan jonliq nima edi?

				a			
--	--	--	--	---	--	--	--

5. 80-yillar oxirida ham O'zbekistonda iqtisodiy adolatsizliklar hukm surayotgan edi. Shu davrda O'zbekiston Prezidenti Farmoniga binoan, O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti huzurida xomashyo va yengil sanoat mahsulotlari ta'minoti hamda ularni sotish bosh boshqarmasi bilan birgalikda Tashqi savdo va xorijiy mamlakatlar bilan aloqa qiluvchi davlat komiteti tashkil etildi.

Bu davlat komiteti (qo'mita) nomini toping.

		q			a			o		v	a			o			i	
	a		a		a						l						o	a
d	a	v	l	a	t			k	o	m	i	t	e	t	i			

6. Islom Karimov rahbarligida boshlangan islohotlar tufayli bir-ikki yilda ahvol asta-sekin o'nglandi, paxta maydonlari qisqardi. Qishloq xo'jaligi sohasi, uning tarmoqlarini yangi ish uslubiga o'tkazayotgan islohotning asosiy maqsadi – avvalambor, dehqonlarning ishdan manfaatdorligini tubdan o'zgartirish, o'z mehnatining hosili, pirovard natijasini birinchi navbatda ularning o'ziga qaytarish, turmush darajasini, saviyasini ko'tarishdan iborat edi.

Davlatimiz rahbari o'sha davrda qishloq xo'jaligini inqirozdan olib chiqadigan yo'lning nomlanishi katakchalarda yashiringan, uni toping.

	y								r			
h	o	j	a	l	i	k	l	a	r	i		

7. O'zbekiston rahbari ma'muriy-buyruqbozlik tizimining asoratli ta'siridan qutulishning yagona yo'li – bu iqtisodiyotda bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich shakllantirib va rivojlantirib borish ekanini qat'iy belgilab berdi. Shu asosda O'zbekistonda birinchilardan bo'lib xususiy korxonalar paydo

bo'ldi. O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tish borasidagi bu yo'lini ayrimlar O'zbekistonni "...lar respublikasi" deb noo'rin tanqid qilishdi.

Bu noo'rin tanqid qanday nomlangan?

				y					o				r
--	--	--	--	---	--	--	--	--	---	--	--	--	---

r	y	s	p	u	b	l	i	k	a	s	i
---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---

8. XX asrning 80-yillari oxiri 90-yillari boshlarida hali Sovet Ittifoqi mavjud bo'lgan va Markazda qanday bo'lmasin ittifoqni saqlab qolishga harakat ketayotgan bir vaqtda buning eng kuchli vositalaridan biri sovet harbiy kuchlari hisoblanar edi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish zarurki, o'sha davrlarda o'zbek yigitlari nafaqat hayotning boshqa jabhalarida, balki qurolli kuchlar safida ham kamsitilar edi. Aytingchi, o'zbek yigitlarining aksariyati qaysi batalyonlarga harbiy xizmatga jalb etigan?

XVI BOB. O‘ZBEKISTONDA DAVLAT MUSTAQILLIGINING QO‘LGA KIRITILISHI. HUQUQIY DEMOKRATIK DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYATI ASOSLARINING BARPO ETILISHI

Mavzu rejasi:

1. O‘zbekistonda davlat mustaqilligining e‘lon qilinishi va uning tarixiy ahamiyati.
2. O‘zbekiston Respublikasi davlat ramzlari va Konstitutsiyasining qabul qilinishi.
3. Siyosiy islohotlar. Huquqiy demokratik davlat asoslarining barpo etilishi.
4. Fuqarolik jamiyati negizlarining yaratilishi.
5. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda yangi bosqich.

1. O‘ZBEKISTONDA DAVLAT MUSTAQILLIGINING E‘LON QILINISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI

70 yildan ortiqroq hukm surgan sobiq ittifoq oxir-oqibat o‘zining qurama va mo‘rtligini ko‘rsatdi. Itti foqdosh respublikalar aholisi o‘z xalqi, milliy davlatchiligi, qadriyatleri, xohish-irodasi inobatga olinmagan bu ittifoqdan butunlay norozi bo‘lsalar-da, undan osonlikcha chiqishning iloji yo‘q edi. Garchi sobiq ittifoq Konstitutsiyasi da bunday qoida mavjud bo‘lsa-da, kuchli markaz, armiya, davlat xavfsizligi qo‘mitasi kabi asosiy kuchlari respublikalarning ajralib ketishiga yo‘l qo‘ymas edi.

Bolsheviklar va uning rahbari bu zo‘ravon davlatni tuzish oldidan “inqilobni amalga oshirish uchun inqilobiy vaziyat zarur, bu vaziyat yetilganda ezilgan xalq eskichasiga yashay olmay qoladi, hukmron sinflar esa davlatni eskichasiga idora eta olmay qoladi”, deb yozib qoldirgan edi. Ular aynan shu vaziyatdan foydalanib, o‘zlarining zo‘ravon davlatlarini tashkil etib, bu davlatga sobiq mustamlakalarni majburan birlashtirgan edilar.

XX asr 80-yillarining ikkinchi yarmida bolsheviklar foydalangan bunday vaziyat ular tashkil etgan zo‘ravon davlatda ham yetilayotgan edi. Butun sobiq ittifoqda yetilgan bunday vaziyat boshqa respublikalar qatori O‘zbekistonga ham daxldor edi. Bu paytga kelib sovet davlatining yemirilishi jarayoni tezlashdi. Litva o‘z mustaqilligini e‘lon qilib, Latviya va Estoniya ittifoq tarkibidan chiqish uchun faollikni kuchaytirib yubordi. O‘sha vaqtda

Markaz rahbarlari respublikalar ittifoqini qanchalik saqlab qolishga urinmasin, buning ilojisi topilmadi. Chunki endi eskicha tartib bilan mamlakatni idora etib bo'lmay, o'z navbatida ittifoqdosh respublikalarning mustaqillikka bo'lgan intilishi tobora kuchayib borardi. Biroq, Markazni kuchaytirish tarafdorlari boshqa usullar – namoyishlar o'tkazish, mitinglar tashkil qilish, hatto g'ayrikonstitutsion yo'llar bilan davlat to'ntarishi o'tkazish asosida bo'lsa-da, oldingi buyruqbozlik tizimini saqlashga va uni mustahkamlashga harakat qildilar. Buning aksi sifatida O'zbekiston hukumati o'zbek xalqi manfaatlarini hisobga olgan holda o'zining faol siyosatini davom ettirardi. 1991-yil 11-yanvarida mamlakat Prezidenti qishloq aholisiga bevosita amaliy yordam berish uchun navbatdagi Farmonga imzo chekdi. Mazkur Farmon 1989-yilda boshlangan haqiqiy yangilanishlarning mantiqiy davomi edi.

Ushbu hujjatda respublikada paxta maydonlarini qisqartirish evaziga tomorqa maydonlariga 108,5 ming gektar yer ajratish ko'rsatilgan edi. Markazdagi kuchlar qanday bo'lmay sobiq ittifoqni saqlab qolishga urinib, "Ittifoq shartnomasi" loyihasini ishlab chiqdi (1990-yil noyabr). Ammo bu shartnomada ham respublikalarning asosiy huquqlari yana markaz ixtiyorida qolayotgan edi. Shu sabab, bu loyiha qo'llab-quvvatlanmadi.

1991-yil 14-fevralda O'zbekiston Oliy Kengashining navbatdan tashqari to'rtinchi sessiyasi bo'lib o'tdi. Sessiyada mamlakat Prezidenti I.Karimov nutq so'zlab, Ittifoq shartnomasiga o'z munosabatini bildirdi va O'zbekistonning bu shartnomaga kirmasligini qayd etdi. 1991-yil Navro'z bayrami arafasida Prezident afv etish to'g'risidagi Farmonga imzo chekdi. Ushbu Farmon ham xalq tomonidan zo'r quvonch bilan kutib olindi. Qolaversa, amnistiyani o'sha davrda faqat ittifoq Prezidenti e'lon qilar edi.

1991-yilning 22-iyulida O'zSSR Oliy Soveti "O'zbekiston hududida joylashgan ittifoqqa bo'ysunuvchi davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarini O'zbekiston SSR huquqiy tobeligiga o'tkazish to'g'risida" qaror qabul qildi. 1991-yil 19 – 21 avgust kunlari sobiq ittifoqni saqlab qolishga tish-tirnog'i bilan harakat qilgan qora kuchlar¹ Moskvada harbiy to'ntarish qilib, hokimiyatni qo'lga olish maqsadida GKChP – favqulodda holat davlat qo'mitasini tuzib, amalda o'zlarining demokratiya, oshkoralik, jamiyatni yangilash, islohotlarga, umuman xalqqa qarshi ekanliklarini ko'rsatdi. Ular ittifoqda yashovchi barcha xalqlarga mustaqillik bermaslikka, mamlakatdagi parokandalikdan foydalanib qolishga urinishdi. 1991-yil avgust voqealari

¹ Bular: SSSR vitse-prezidenti G.Yanayev, Ministrlar soveti raisi V.Pavlov, KGB rahbari V.Kryuchkov, mudofaa vaziri D.Yazov, ichki ishlar vaziri B.Pugo va boshqa yuqori lavozimdagi mas'ul partiya va davlat arboblari edi.

amalda SSSRning chuqur tanazzuli edi. Mamlakatdagi demokratik kuchlar GKChP faoliyatiga chek qo'yib, hukmron partiya – KPSS faoliyati to'xtatildi.

O'zbekiston rahbariyati mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyatni saqlash, respublika hududida favqulodda holat joriy etilishiga, Konstitutsiyaga qarshi davlat to'ntarilishini qo'llab-quvvatlash yo'lidagi ig'vokorona harakatlarga uchmaslik uchun o'zlarining butun imkoniyatlaridan foydalandilar.

O'sha paytda O'zbekiston rahbari davlat tashrifi bilan Hindiston safarida edi. Safardan qaytgach, Prezident 19-avgust kuni kechqurun Toshkent shahri faollari bilan uchrashib, qat'iy tarzda O'zbekiston nuqtayi nazarini ma'lum qildi. 20-avgustda O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri rahbarlari ishtirokida qo'shma majlisi bo'ldi. Unda O'zbekistonning mustaqillikka erishish yo'li o'zgarasligi haqida Bayonot qabul qilindi. Prezident I.A.Karimov respublika aholisiga murojaat bilan chiqdi va O'zbekistonning o'z mustaqilligiga erishish yo'li qat'iy ekanligini ta'kidladi. O'zbekiston Prezidenti Farmoni bilan Favqulodda holat davlat qo'mitasining g'ayrikonstitutsiyaviy, huquqqa qarshi qarorlari va boshqa ko'rsatmalari noqonuniy, deb e'lon qilindi. Shunday murakkab sharoitda, ya'ni markaz va respublikalar o'rtasidagi munosabatlar tobora taranglashib, Markaz boshqaruv qobiliyatini yo'qotgan, har bir respublika o'z holiga tashlab qo'yilgan bir sharoitda tarixiy vaziyatni to'g'ri baholagan O'zbekiston Prezidenti I.Karimov Oliy Kengash sessiyasini chaqirish va unda O'zbekiston Mustaqilligi haqida Qonun qabul qilishni talab qildi.

1991-yil 31-avgustda chaqirilgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII chaqiriq navbatdan tashqari VI sessiyasi O'zbekistonning Mustaqil Davlat, deb e'lon qilinishida katta tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Unda "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risida" hamda "O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i to'g'risida"gi masalalar kun tartibiga qo'yilib, qizg'in muhokama qilindi. Oliy Kengash deputatlari moddama-modda muhokamadan so'ng O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Qonunni, so'ngra respublika Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Bayonot qabul qilindi.

Mazkur sessiyada O'zbekiston SSRning nomi ham o'zgartirilib, O'zbekiston bundan buyon O'zbekiston Respublikasi nomi bilan ataladigan bo'ldi.

Sessiyada "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida" qabul qilingan qarorda 1-sentabr O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni va 1991-yildan boshlab bu kun bayram va dam olish kuni deb e'lon qilindi. Sessiyada qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Qonun 17 moddadan iborat bo'lib, uning birinchi mod-

dasida “O‘zbekiston Respublikasi o‘z tarkibidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi bilan birga mustaqil, demokratik davlatdir”, – deb qonunlashtirib qo‘yildi.

O‘zbek xalqining muqaddas, tarixiy orzusi ushaldi. U siyosiy mutelik va asoratdan qutuldi. Dunyo xaritasida yana bir mustaqil, ozod, suveren davlat – O‘zbekiston Respublikasi paydo bo‘ldi.

O‘zbekistonning davlat mustaqilligi xalqning uzoq yillar davomida olib borgan og‘ir va mashaqqatli kurashining qonuniy natijasi bo‘ldi. O‘zbekiston xalqi o‘z mustaqilligini quvonch bilan kutib oldi va ma’qulladi. Bunga 1991-yil 29-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan e’lon qilingan “O‘zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligini ma’qullaysizmi?” mavzuida o‘tkazilgan referendum natijalari yaqqol misol bo‘la oldi. Umum-xalq referendumida saylov ro‘yxatiga kiritilganlarning 94,1 foizi yoki 9 mln 898 ming 707 kishi qatnashdi. O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini yoqlab 9 mln 718 ming 555 kishi yoki referendumda qatnashganlarning 98,2 foizi ovoz berdi.

Prezident I.A.Karimov ta’kidlaganidek: “Istiqlol biz uchun taraqqiyotning butunlay yangi, keng ufqlarini ochdi. O‘z kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan yaratadigan bo‘ldik. Hayotimiz va umumiy xonadonimizni milliy manfaat va qadriyatlarimizga, umume’tirof etilgan demokratik mezonlarga monand, qilib qurishdek noyob tarixiy imkoniyatga ega bo‘ldik”¹.

Mustaqillik bizga quyidagi imkoniyatlarni berdi:

– o‘z taqdirini o‘zi belgilash, davlat va jamiyatning siyosiy tizimini mustaqil yaratish, demokratik yo‘l bilan saylangan organlar orqali hokimiyatni butun to‘laligi bilan boshqarish;

– ishlab chiqarish va ilmiy texnik imkoniyatlarga, tabiiy va xomashyo resurslariga to‘la egalik qilish va ulardan mamlakat manfaatlari yo‘lida foydalanish;

– taraqqiyot yo‘lini jahon tajribalari, tarixiy an’analar va xalqning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda mustaqil tanlash;

– milliy davlatchilik an’analariga asoslangan holda huquqiy demokratik davlat tuzish;

– ochiq fuqarolik jamiyati qurish;

– tarixni xolisona yoritish, milliy va diniy qadriyatlarni qaytadan tiklash, hayotni eski hukmron mafkura va mustabid tuzum asoratidan xalos etish;

– yosh avlodni haqiqiy vatanparvar va yurtparvar etib tarbiyalash, ularga zamon talablari darajasida bilim va kasb-hunar berish;

¹ Karimov I.A. “Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi”. – T.: “O‘zbekiston”, 1997. – 105-b.

– ijodning barcha turlarini rivojlantirish, odamlarning iste’dod va qobiliyatlarini to‘la namoyon etish;

– yurt xavfsizligi, fuqarolar tinchligi va millatlararo totuvlikni ta’minlash;

– xalqaro munosabatlarda mustaqil subyekt sifatida ishtirok etish, boshqa mamlakatlar bilan o‘zaro manfaatli shartnoma va bitimlar tuzish;

Shuningdek, mustaqillik O‘zbekistonning barcha xalqaro nufuzli tashkilotlarga teng huquqlilik asosida a‘zo bo‘lib kirish imkonini ham berdi.

2. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT RAMZLARI VA KONSTITUTSIYASINING QABUL QILINISHI

Erishgan istiqloq zudlik bilan uni mustahkamlashning zaruriy choralarini ko‘rishni talab etar edi. 1991-yil 14-sentabrida O‘zbekiston Kompartiyasining Favqulodda XXIII syezdida I.A.Karimov taklifi bilan O‘zbekiston Kompartiyasi KPSS tarkibidan chiqqanligi, partiyaning bundan buyon faoliyat ko‘rsatmasligi va ushbu partiya o‘rnida Xalq Demokratik partiyasi tuzilganligi e‘lon qilindi. O‘zbekiston mustaqil davlat, deb e‘lon qilingan kunining o‘zidayoq mustaqil davlat ramzlarini joriy qilish yuzasidan amaliy choralari ko‘rildi. O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida, respublika gerbining nusxasi va Davlat madhiyasining musiqiy bayoni haqida maxsus qaror qabul qilindi. Unda Konstitutsiya komissiyasining ekspert guruhiga Davlat bayrog‘ining variantlari ustida ishlashni davom ettirish, Oliy Kengashning tegishli qo‘mitalariga Konstitutsiya komissiyasi ijodiy guruhi bilan hamkorlikda Davlat bayrog‘i, madhiyasi haqida qonun loyihalarini ishlab chiqib, navbatdagi sessiyaga taqdim etish topshirildi.

1991-yil 18-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi o‘zining VIII sessiyasida “O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qildi. Bayroq yurtning o‘tmishi, bugungi kuni va kelajagining yorqin ramzidir. Unda timsollar tilida yaxshilikni, donishmandlikni, shonshuhrat va sadoqatni bildiradigan moviy rang berilgan.

1992-yil 2-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasi “O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qildi. Davlat gerbidagi har bir belgi chuqur ma’noga ega. U rangli tasvirda bo‘lib, humo qushi kumush rangda, quyosh, boshhoqlar, paxta chanog‘i va “O‘zbekiston” degan yozuvlar tilla rangda, g‘o‘za shoxlari, barglari va vodiylar yashil rangda, tog‘lar havo rangida, chanoqdagi paxta, daryolar, yarim oy va yulduz oq rangdadir. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 10-dekabrida bo‘lib o‘tgan XI sessiyasida “O‘zbekiston Respublikasining

Davlat madhiyasi to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Sessiyada shoir Abdulla Oripov va bastakor Mutal Burhonovlar tomonidan tayyorlangan madhiya nusxasi tasdiqlandi. Davlat madhiyasida xalqning iymoni hech qachon o'chmasligi alohida ta'kidlangan.

Mustaqil O'zbekistonda bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyati qurilishining konstitutsiyaviy va huquqiy asoslarini yaratish lozim edi. Bo'lajak suveren respublika Konstitutsiyasini tayyorlash g'oyasi 1990-yil mart oyida I.Karimov tomonidan ilgari surilib, shu yil iyun oyida uning rahbarligida 64 kishidan iborat Konstitutsiyaviy Komissiya ham tuzilgan edi.

Komissiya Konstitutsiya loyihasini tayyorlash jarayonida xalqaro huquq qoidalariga, Birlashgan millatlar tashkilotining hujjatlariga, Butunjahon inson huquqlari Deklaratsiyasiga amal qildi. Dunyoning ko'pgina taraqqiy etgan va rivojlanayotgan mamlakatlarining konstitutsiyaviy hujjatlari o'rganib chiqildi. Shu bilan birga boy tarixdagi davlat boshqaruv tizimi va adolatli qonunshunoslik an'analari ham chuqur o'rganildi.

Yangi mustaqillik Konstitutsiyasi loyihasida O'zbekistonda yuz bergan tarixiy o'zgarishlar hisobga olindi. Xususan, O'zbekiston mustaqilligini qonunlashtirish, iqtisodiyotda bozor munosabatlariga o'tishning shartlari, davlat va jamiyat qurilishida demokratik tizimning tamoyillari, inson huquqining ustuvorligi o'z ifodasini topdi. Konstitutsiyada bayon etiladigan masalalarni birma-bir o'rganib chiqish uchun 35 kishidan iborat ishchi guruh va har bir bo'limini alohida tayyorlaydigan kichik guruhlardan iborat komissiyalar tashkil etildi.

Ishchi guruh va komissiyalar 1991-yilning oktabrida Konstitutsiyaning birinchi, 1992-yil bahorida ikkinchi nusxasini tayyorladi.

Yangi Konstitutsiyaning komissiya tomonidan yaratilgan nusxalari 1992-yil 26-sentabrda, joylardan tushgan minglab takliflar o'rganib chiqilib, noyabr oyida ikkinchi marta umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilingan edi. Tuzatish va to'ldirishlardan keyin mustaqil O'zbekiston Respublikasining Asosiy Qonuni 1992-yil 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII chaqiriq XI sessiyasida qabul qilindi.

Qabul qilingan yangi Konstitutsiya olti bo'lim, 26 bob, 128 moddadan iborat bo'ldi.

Konstitutsiya muqaddimasida O'zbekiston xalqi:

– inson xuquqlariga va davlat suvereniteti g'oyalari sodiqligini tantanali ravishda e'lon qilib;

– hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatini anglagan holda;

– o'zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanib;

– demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqatini namoyon qilib;
– xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda;

– respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga intilib;
– insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko'zlab;
– fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash maqsadida;
– o'zining muxtor vakillari siymosida O'zbekiston Respublikasining mazkur Konstitutsiyasini qabul qiladi, deb yozib qo'yildi. Undagi "muxtor vakillari siymosida" deganda xalq deputatlari nazarda tutilgan edi.

Konstitutsiyaning birinchi bo'limida asosiy prinsiplar bayon etilib, unda Davlat suvereniteti, xalq hokimiyatchiligi, Konstitutsiya va qonunning ustunligi, tashqi siyosatning bosh yo'nalishlari o'z ifodasini topdi. Asosiy Qonunning ikkinchi bo'limi 35 moddadan iborat bo'lib, inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlariga bag'ishlangan. Bunda O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari bir xil huquq va erkinliklarga ega ekanligi, O'zbekistonning butun hududida yagona fuqarolik o'rnatilganligi, fuqarolarning shaxsiy huquqlari va erkinliklari, vijdon erkinligi va uning kafolatlanishi yoritilgan. Insonning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishga bevosita hamda o'z vakillari orqali qatnashishlari ko'rsatilgan.

Shuningdek, ana shu ikkinchi bo'limda siyosiy partiyalar va harakatlarga munosabat masalasida qo'shilish huquqlari ham berilgan.

Konstitutsiyada fuqarolarning mulkdor bo'lish, mehnat qilish, nafaqa olish, o'z vaqtida dam olish, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish, bilim olish huquqlariga ega ekanligi aniq qilib bayon etilgan va bu huquqlari va erkinliklari davlat tomonidan ta'minlanadi, deb ta'kidlab qo'yilgan. Barcha fuqarolar uchun Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan burchlar, chunonchi, qonunlarga rioya qilish, xalqning tarixiy, ma'naviy meroslarini avaylab saqlash, atrof tabiiy muhitni asrash, soliqlar va mahalliy yig'imlarni o'z vaqtida to'lash, Vatanni himoya qilish kabi burchlar majburiy ekanligi ta'kidlangan.

Konstitutsiyaning "Jamiyat va shaxs" bo'limida O'zbekiston iqtisodiyoti bozor munosabatlariga asoslanishi, uning negizini xilma-xil mulk shakllarining teng huquqqa ega ekanligiga kafolat, ishbilarmonlik, tadbirkorlik va tashabbuskorlik harakatiga keng yo'l ochib berildi.

Asosiy Qonunda aynan shu maqsadda mamlakatda mulkdorlar tabaqasini vujudga keltirish tamoyillari ham ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi, O'zbekiston Respublikasi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasining o'zaro munosabatlari-ga maxsus to'rtinchi bo'lim ajratilgan.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatining tashkil etilishi beshinchi bo‘limda (50-modda) o‘z ifodasini topgan. Davlat va hokimiyat organlari, Prezident, Vazirlar Mahkamasining vakolatlari, ularni shakllantirish yo‘llari aniq va ravshan bayon etilgan. Shu bilan birga bu bo‘limda mahalliy hokimiyat organlari, sud va prokuratura, davlat mudofaasi masalalari ham o‘z ifodasini topgan.

Prezident I.A.Karimov qabul qilingan yangi Konstitutsiyaning ahamiyati haqida: “Hur O‘zbekistonimizning tarixida birinchi Konstitutsiyani qabul qilish – jumhuriyatimizning yangidan tug‘ilishidir, haqiqiy mustaqilligimizga mustahkam poydevor qurishdir. Qabul qilingan Konstitutsiyamiz asosiy qonunimiz sifatida davlatni davlat qiladigan, millatni millat qiladigan qonunlarga asos bo‘lishi muqarrar... Bu Konstitutsiya o‘zining tub mohiyati, falsafiy g‘oyasiga ko‘ra yangi hujjatdir. Unda kommunistik mafkura, sinfiylik, partiyaviylikdan asar ham yo‘q. Jarniki dunyoviy ne‘matlar orasida eng ulug‘i – inson degan fikrni ilgari surdik va shu asosida “fuqaro-jamiyat-davlat” o‘rtasidagi o‘zaro munosabatning oqilona huquqiy yechimini topishga intildik”, deb ta’kidlagan edi.

Darhaqiqat, Mustaqillik Konstitutsiyasining qabul qilinishi g‘oyat katta siyosiy, huquqiy va xalqaro ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu asosiy qonun mamlakatda demokratik tamoyillarni amalga oshirishda, xalqni huquqiy, ma’naviy va siyosiy jihatdan tarbiyalashda muhim o‘rin tutmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 16-iyundagi Farmoniga muvofiq, 1994-yilning 1-iyulidan boshlab mamlakatning milliy valyutasi – so‘m muomalaga kiritildi. Ushbu milliy valyuta bugungi kunda ham o‘z qadriga ega bo‘lib, barqarorligini saqlab kelmoqda.

3. SIYOSIY ISLOHOTLAR. HUQUQIY DEMOKRATIK DAVLAT ASOSLARINING BARPO ETILISHI

O‘zbekistonda endi davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimining bosh bo‘g‘ini – Prezidentlik boshqaruvi mustahkamlandi. 1991-yil 29-dekabrda o‘zbek xalqi o‘z xohish-irodasi bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini sayladi. Saylovga jiddiy tayyorgarlik ko‘rib, u muqobillik asosida o‘tdi. Oliy lavozimga ikki nomzod – O‘zbekiston XDP va O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi nomzodi I.A.Karimov va respublikadagi “Erk” demokratik partiyasining vakili Saloy Madaminov (Muhammad Solih) nomzodi qo‘yildi.

Saylovlar yakuniga ko‘ra, 8 million 514 ming 136 ovoz yoki ovoz berishda qatnashganlarning 86 foizi Islom Karimov nomzodini, 1 million 220 ming 474

saylovchi (12,3%) Saloy Madaminov nomzodini yoqlab ovoz berdi. Markaziy saylov komissiyasi okrug komissiyalari majlis bayonlarini ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risidagi Qonunning 35-moddasiga asosan Islom Abdug'aniyevich Karimovni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylangan, deb hisoblashga qaror qildi.

Ana shu tariqa erishgan istiqlolning dastlabki oylaridanoq davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimining bosh bo'g'ini bo'lgan prezidentlik boshqaruvi qonuniy mustahkamlandi. O'zbekiston mustaqillik tomon yo'l tutar ekan, birinchi kunlardan boshlab uning boshida Islom Abdug'aniyevich Karimov turibdi.

Mamlakatda barcha sohani qamrab olgan keng miqyosli islohotlarni uzluksiz davom ettirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1995-yil 26-martda Prezident I.Karimovning vakolatini 1997-yildan 2000-yilgacha uzaytirish yuzasidan umumxalq referendumini o'tkazishga qaror qildi. 2000-yil 11-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining navbatdagi majlisida 2000-yil 9-yanvar kuni bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi natijalari tasdiqlandi. Shu kuni "Fidokorlar" milliy demokratik partiyasidan nomzodi ko'rsatilgan Islom Karimov uchun 11 million 147 ming 621 saylovchi yoki saylovchilarning 91,90 foizi ovoz berdi.

Prezidentlikka ikkinchi nomzod O'zbekiston Xalq Demokratik partiyasidan Abdulhafiz Jalolov uchun 505 ming 161 saylovchi yoki 4,17 foiz saylovchi ovoz berdi.

2001-yil 6-dekabrda ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VII sessiyasida referendum o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilinib, 2002-yil 27-yanvarda O'zbekistonda umumxalq referendumini o'tkazildi. Referendumga quyidagi savollar kiritildi:

1) Siz kelgusi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi parlamentining ikki palatali qilib saylanishiga rozimisiz?

2) Siz O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy vakolat muddatini besh yildan yetti yillik qilib o'zgartirishga rozimisiz?

Umumxalq referendumini natijalariga binoan, Oliy Majlisning VIII sessiyasida, 2003- yil 24-aprelda "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonun qabul qilindi. Mazkur konstitutsiyaviy qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining beshinchi bo'limi XVIII, XIX, XX va XXIII boblariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Prezident vakolatlarining bir qismi, birinchi navbatda, davlat, sud tizimi va maxsus xizmatlarning rahbar-

larini, chet ellar va xalqaro tashkilotlardagi diplomatik vakillarni tayinlash va tasdiqlash masalalari, amnistiya eʼlon qilish vakolati Oliy Majlisning Senatiga oʻtkazildi. 89-moddaning quyidagi: “Oʻzbekiston Respublikasining Prezidenti ayni vaqtda Vazirlar Mahkamasining Raisi hisoblanadi”, degan 2-xatboshisi olib tashlandi.

2002-yil 27-yanvarda oʻtkazilgan referendum yakunlariga koʻra, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining vakolat muddati 5 yildan 7 yil qilib oʻzgartirildi.

Oʻzbekiston Respublikasining “Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari toʻgʻrisida”gi konstitutsiyaviy qonuni Oʻzbekiston Prezidentining vakolat muddatini yetti yillik qilib belgilash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati poydevorini shakllantirish boʻyicha qonunchilikni takomillashtirishning asosiy yoʻnalishlarini belgilab berdi.

Mustaqillikdan keyingi Oʻzbekistonda yuzaga kelgan murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyatga toʻgʻri baho berish, ogʻir iqtisodiy tanglik, aholining nochor ijtimoiy ahvoli keltirib chiqarishi mumkin boʻlgan ayanchli oqibatlarning oldini olish yosh davlat, ayniqsa, Prezident Islom Karimov zimmasiga juda katta masʼuliyat yukladi.

Oʻtgan asr 80-yillar oxiri va 90-yillarining boshlarida sobiq sovet tuzumni qoralab chiqqan “Birlik” xalq harakati va “Erk” demokratik partiyasi erishgan istiqlolni mustahkamlash zaruriyati sharoitida konstruktiv sogʻlom oppozitsiyaning demokratik tamoyillarini oyoq osti qilib, mamlakatda vujudga kelgan qiyinchiliklarni roʻkach etgan holda turli yoʻllar bilan hokimiyatni qoʻlga olishga harakat qildi. Ularning soxta shiorlari, chaqiriqlari ayrim hududlarda bir qator tartibsizlik, fojiali voqealarni ham sodir boʻlishiga olib keldi.

Bunday kurashda Prezident I.Karimovning metin irodasi, oʻz ishiga va xalqiga ishonchi jamiyatni barqarorlik, iqtisodiy taraqqiyot, maʼnaviy ravnaq yoʻlidan olib borishda hal qiluvchi rol oʻynadi.

Prezident I.Karimov mamlakatni har jihatdan taraqqiy ettiruvchi yoʻlini ishlab chiqdi. Nazariy va amaliy jihatdan puxta ishlab chiqilgan bu dastur yashab turgan fuqarolarning taqdirinigina emas, balki kelajak avlodlarning taqdirini ham oʻylab tuzilgan boʻlib, oʻsha davrda hukmron yakkahokimlik tizimining illatlarini tezroq bartaraf etish, mamlakatni rivojlangan madaniyatli davlatlar darajasiga chiqib olishini taʼminlashni koʻzda tutar edi.

Bu, haqiqatan ham Prezident I.A.Karimov nomi bilan jahonga tanilgan va bugungi kunda ham dunyo tan berayotgan taraqqiyot dasturi edi. Bu taraqqiyot dasturi jahon miqyosida “Oʻzbek modeli” nomi bilan tan olindi.

Yurtboshining “O‘zbekistonning o‘z mustaqil va taraqqiyot yo‘li”, “O‘zbekiston – bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li” va boshqa bir qancha asar va nutqlarida bayon etilgan O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining birinchi navbatdagi vazifalari keyinchalik g‘oyat muhim ahamiyat kasb etgan “O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida”, “Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish vazifalari” va boshqa asarlarida o‘z rivojini topdi.

O‘zbekistonning yaqin o‘tmishida va XX asrning so‘nggi o‘n yilida bosib o‘tgan yo‘llari, ularning saboqlari, XXI asrda respublika istiqbolini mustahkamlashning strategik vazifalarining asosiy yo‘nalishlari I.A.Karimovning bir qancha xorijiy mamlakatlarda bosilib chiqqan “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”, “O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda” asarlarida va ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning birinchi sessiyasida (22-yanvar 2000-yil) nutqida bayon etib berildi.

Davlat rahbarining har bir asari, maqola va nutqlari bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurishning g‘oyaviy-nazariy asoslarini, amaliy ishlarining kundalik dasturini tashkil etadi.

Prezident tomonidan ishlab chiqilgan taraqqiyotning “o‘zbek modeli” bozor iqtisodiyoti va demokratiya tamoyillariga asoslanadigan jamiyatni barpo etishga, sobiq ittifoq parchalanganidan keyingi O‘zbekiston iqtisodiyotining haqiqiy holatiga, mavjud shart-sharoit va imkoniyatlarga, xalqning mentaliteti va tarixiy an‘analariga, islohotlarni amalga oshirishning u yoki bu sur‘atlariga aholining tayyorgarlik darajasiga asoslangan edi.

O‘zbekiston milliy huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati qurilishida xalqaro tan olingan demokratik tamoyillarga, rivojlangan demokratik davlatlar tajribasiga hamda ko‘p ming yillik o‘zbek davlatchiligi tarixi va o‘ziga xos milliy, ma‘naviy, axloqiy qadriyatlarga tayandi.

Vakillik hokimiyatini vujudga keltirishning eng demokratik tizimi – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati barpo etildi.

Davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy, samarali, eng maqbul tizimi – Prezidentlik respublika boshqaruvi amal qilmoqda.

Parlamentchilikda demokratik asoslar yaratildi, demokratik davlatlarga xos parlamentarizm shakllandi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining huquqiy holati Konstitutsiyaning V bo‘lim XVIII bobida va 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to‘g‘risida”gi Qonunda belgilangan.

Sobiq ittifoqdan qolgan huquqiy meroslarni o‘zgartirish, mamlakat hayoti uchun zarur o‘zgartirishlarni amalga oshirish, demokratik tamoyillar asosida Oliy Majlisni shakllantirish maqsadida 1994-yil 25-dekabrda saylovlar belgilandi.

1993-yilning 28-dekabrida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to‘g‘risida”gi Qonunga ko‘ra, respublika parlamentiga saylovlar umumiy, teng, to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan o‘tkazildi. O‘zbekiston Respublikasi I chaqiriq Oliy Majlisiga saylov respublika siyosiy hayotida ulkan yutuq bo‘lib, bunda 250 deputatdan iborat Oliy Majlis – yangi Parlament demokratik va ko‘ppartiyaviylik asosida tuzildi.

Respublika parlamenti – Oliy majlis o‘tgan davr mobaynida davlatning asosiy qomusi bo‘lgan Konstitutsiyaga muvofiq 500 dan ortiq qonun, 10 kodeks, 2 milliy dastur va mingdan ortiq qarorlar qabul qildi. O‘tgan 13 yil davomida Oliy Majlis bir palatali parlament sifatida faoliyat yuritib, katta tajriba to‘pladi. Uning faoliyati uchun eng zarur omil – yuqori malakali siyosatshunoslar, yuristlar, iqtisodchilar korpusi shakllandi. Oliy Majlisning 2001-yil dekabrda bo‘lgan yettinchi sessiyasida ikki palatali parlament tuzish zarur, degan xulosaga kelindi. 2002-yil 27-yanvarda ikki palatali parlament tuzish masalasida referendum o‘tkazildi. Referendumda ishtirok etgan fuqarolarning 93,65 foizi bunday parlament tuzishni yoqlab ovoz berishdi. 2002-yil aprelda bo‘lgan Oliy Majlisning sakkizinchi sessiyasida “Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to‘g‘risida” Konstitutsiyaviy Qonun qabul qilindi va ikki palatali parlament tuzishga tayyorgarlik boshlab yuborildi.


2002-yil dekabrda Oliy Majlisning X sessiyasida “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida”gi va “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilinib, 2004-yil oxiri va 2005-yil boshidagi saylovlarda respublikada ikki palatali parlament shakllandi. Quyi palataga 120 deputat, Senatga esa 84 nafar senator saylandi, 16 nafar senator esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlandi. Ikkala palataning vakolat muddati – 5 yil etib belgilandi.

Bunday o‘zgarishlar avvalambor Prezidentning ba‘zi vakolatlarini parlamentning yuqori palatasi – Senatga va hukumatga o‘tkazish, professional, doimiy asosda ishlaydigan quyi – Qonunchilik palatasini shakllantirish, uning vakolat va huquqlarini kengaytirish ko‘zda tutilgan va bu boradagi sa’y-harakatlarining amaliy samarasi ko‘rinib turibdi.

Qonunchilik palatasining ko‘ppartiyaviylik, muqobillik asosida shakllantirilishi demokratiyaning yorqin ifodasi bo‘ldi. 2004-2005-yillar saylovlarida quyi palataga 4 ta siyosiy partiya va tashabbuskor guruhlardan 489 ta nomzod qo‘yilib, ular o‘rtasida halol kurash olib borildi. Saylovlar ikki turda o‘tkazildi. Birinchi turda 62 ta, ikkinchi turda esa 58 ta deputat saylandi.

Navbatdagi 2009-yil 27-dekabrda bo‘lib o‘tadigan saylovlarga qisman o‘zgartishlar kiritildi. Masalan, 2009-yilda qabul qilingan O‘zbekiston

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISINING QONUNCHILIK PALATASIGA SAYLOV O'TKAZISHNING ASOSIY PRINSIPLARI



Respublikasining “Saylov to‘g‘risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qonun asosida Qonunchilik palatasidagi deputatlik o‘rinlari soni 120 dan 150 taga ko‘paytirildi (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 77-moddasining birinchi qismi).

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisiga Saylovlar to‘g‘risida”gi Qonunga ham, xususan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi (quyi palata)ning 135 ta deputati umumiy, teng va bevosita saylov huquqi asosida hududiy bir mandatli saylov okruglaridan ko‘ppartiyaviylik asosida va 15 tasi O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan Ekologiya harakatining oliy organi (Konferensiya) tomonidan saylanishi to‘g‘risidagi o‘zgartirishlar kiritildi.

2009-yil 27-dekabr, 2010-yil 10-yanvarda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga saylovlarda 150 deputat saylandi. Ularning 135 tasi ko‘ppartiyaviylik asosida saylangan bo‘lsa, 15 tasi respublikada faoliyat yuritayotgan O‘zbekiston Ekologik harakati oliy organi – konferensiyasida saylangan deputatlar edi.

Bu demokratik o‘zgarishlar fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligining, o‘z taqdirini o‘zi belgilashga bo‘lgan intilishi va ishonchining ortib borayotgani, shuningdek, davlat ishlarida qatnashish hayotiy zaruratga aylanib borayotganini ko‘rsatadi.

Qonunchilik palatasida barcha siyosiy partiya va tashabbuskor guruh va-killarining bo‘lishi, ular o‘z fraksiya va guruhini tuzish imkoniyatiga ega ekani turli fikrlilik, bahs-munozara asosida faoliyat yuritish, ishchanlik muhiti shakllanayotganidan dalolat beradi. Oldingi saylovda deputatlarning 18,3 foizini yuristlar, 21,7 foizini iqtisodchilar tashkil etishi, so‘nggi saylovda ularning yanada ko‘payganligi, parlamentda sanoat, qurilish, transport, aloqa, qishloq xo‘jaligi, fan, ta‘lim, madaniyat, sog‘liqni saqlash sohalari vakillari va tadbirkorlarning bo‘lishi aholi keng manfaatlarini teng ifoda etishini ko‘rsatadi va qonunlarni puxta-pishiq tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Deputatlar milliy tarkibining rang-barangligi mamlakatda aholi turli guruh va qatlamlari manfaatlarining Qonuniy tarzda ro‘yobga chiqishiga imkon yaratadi.

2004-2005-yildagi Qonunchilik palatasi saylovlarida saylangan deputatlar tarkibining 18 foizini, 2009-2010-yilda o‘tkazilgan saylovlarda esa 22 foizini xotin-qizlar tashkil etdi. Bu esa xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini yanada o‘sib borayotganligini ko‘rsatdi.

2003-yil 23-avgustda Oliy Majlis tomonidan O‘zbekiston Respublikasining “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to‘g‘risida”gi Qonunga o‘zgartish va to‘g‘rilashlar kiritilib, O‘zbekistonda Senatni shakllan-tirishda mahalliy vakillik organlariga Senat a‘zoligiga nomzodlar ko‘rsatish

vakolatlarini berilishi – hududiy manfaatlarining qonunlarda ifodalanishi uchun shart-sharoitlar, shu bilan birga, mahalliy xalq deputatlarining Senat aʼzolarini saylashda bevosita ishtirok etishi vakillik demokratiyasining shakllanishiga, shuningdek, ularning umummilliy davlat boshqaruvi faoliyatida bevosita ishtirok etishlari uchun huquqiy imkoniyatlar ham yaratdi.

Oʻzbekiston Respublikasining “Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov toʻgʻrisida”gi Qonunning 58-moddasiga muvofiq 2005-yil 17–20-yanvarda Oliy Majlis Senatiga vakillik organlari – Qoraqalpogʻiston Joʻqorgʻi Kengesi, viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari ishtirokida yashirin ovoz berish yoʻli bilan saylovlar boʻlib oʻtdi. Bu saylovlar kampaniyasida mahalliy deputatlar orasida Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati aʼzolari – 84 ta senator saylandi.

Senatorlar 100 nafar boʻlishi lozim edi. Oliy Majlis Senatining qolgan 16 nafar aʼzolari esa Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlandi.

1997-yil aprelda Oliy Majlis tarkibida Inson huquqlari boʻyicha vakil (ombudsman) tashkil qilinganligi haqida qaror qabul qilindi. Ombudsman jahondagi 85 dan ortiq mamlakatda boʻlib, uning huquqiy holatini aniq, ravshan belgilab beruvchi konstitutsiyaviy qonun Markaziy Osiyo davlatlarida birinchi huquqiy hujjatdir. Ushbu qonunda “Oliy Majlisning inson huquqlari boʻyicha vakili (ombudsman) mansabdor shaxslar, tashkilotlar va davlat organlarining inson huquqi, erki va qonuniy manfaatlarini davlat tomonidan himoya qilinishini taʼminlashga koʻmaklashish maqsadida faoliyat koʻrsatadi”, deb taʼkidlangan.

Ombudsman fuqarolarning ariza va murojaatlarini koʻrib chiqishda, zarur axborotni talab qilib olishda mansabdor shaxslar va davlat organlari bilan hamkorlik qilib kelmoqda.

Qonun qabul qilingunga qadar ham Inson huquqlari boʻyicha vakil mamlakat Konstitutsiyasi doirasida faoliyat koʻrsatib keldi. Jumladan, birgina 1996-yilda Inson huquqlari boʻyicha vakil hamda Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi boʻyicha komissiya aʼzolari 700 dan ortiq murojaatni koʻrib chiqdi. Ana shunday arizalarning tegishli qismidagi dalillar oʻz tasdigʻini topgan va zarur choralar koʻrilgan.

Inson huquqlari boʻyicha vakil BMTning Inson huquqlari boʻyicha komissiyasining Jenevada boʻlib oʻtgan 52-sessiyasining majlisida qatnashdi va chet ellarga xizmat safari davomida Inson huquqlari boʻyicha vakil BMT seminarida, BMTning Sharqiy Yevropa va MDH mamlakatlaridagi vakillarining mintaqaviy uchrashuvida soʻzga chiqdi. Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlarning bir qator kengashlari hamda seminarlari ishida qatnashdi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda – olti kishidan saylanadi. Senatga saylov Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi

Senatning o'n olti nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlandi

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati (yuqori palata) hududiy vakillik palatasi bo'lib, Senat a'zolaridan (senatorlardan) tarkib topadi. Senatning vakolat muddati – 5 yil

Senatga saylov Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari saylanganidan keyin I OYDAN KECHIKTIRMAY o'tkaziladi

Davlat hokimiyati vakillik organlarining qo'shma majlisi, agar unda deputatlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lsa, vakolatli hisoblanadi

SENAT

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida Senat a'zolarini saylash tartibi to'g'risidagi nizom Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi

Senat a'zolariga saylanadigan nomzodlarga qo'yiladigan talablar

Saylov kuni
25 YOSHGA
to'lgan

5 YIL
O'zbekiston Respublikasi
hududida muqim
yashayotgan

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Jo'qorg'i Kengesining, viloyat,
tuman, shahar davlat hokimiyati
vakillik organining deputati ekani

O‘zbekistonda demokratik tamoyillar asosida ishlar amalga oshirilayotganligi xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlarda ham to‘liq ko‘rinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to‘g‘risida”gi Qonunning (1994-yil 5-may) 1-moddasida O‘zbekiston mahalliy vakillik organlariga saylov o‘tkazishning asosiy tamoyillari demokratik qadriyatlar talablari darajasida belgilab qo‘yildi: “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov hududiy bir mandatli saylov okruglari bo‘yicha ko‘ppartiyaviylik asosida besh yil muddatga o‘tkaziladi. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlari umumiy, teng va to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylanadilar”¹.

O‘zbekistonda davlat boshqaruvi tizimi tubdan isloh qilinib, milliy davlatchilik an‘analarini o‘zida mujassamlashtirgan kuchli ijroiya hokimiyati – Vazirlar Mahkamasi tuzildi. Amaldagi Konstitutsiyada Prezident davlat va ijro etuvchi hokimiyatning boshlig‘i qilib belgilinishi ijro etuvchi hokimiyatni kuchaytirishga qaratilgan yo‘l edi.

O‘zbekistonda prezidentlik instituti o‘rnatilgan dastlabki davrda vazirlar kengashi hukumat sifatidagi huquqiy maqomini va vakolatlarini saqlab qolgan edi. Uning 1990-yil 30-martida Oliy Kengash tasdiqlagan yangi tarkibi 41 kishi edi. Respublikada demokratik jamiyat qurish borasida boshqaruv idoralari faoliyati takomillashtirib borildi. 1995-yil 5-mayda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining II sessiyasi bo‘lib, unda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 35 kishidan iborat yangi tarkibi tasdiqlandi.

Vazirlar Mahkamasining asosiy huquqiy maqomi – uning mustaqil O‘zbekiston hukumati ekanidadir. Unga, o‘z vakolati doirasida, qonunlarni va Prezident farmonlarini ijro etish mas‘uliyati yuklangan. U iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma‘naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni ta‘minlaydi, davlat boshqaruv idoralari tizimiga va o‘zi tashkil etadigan xo‘jalik boshqaruvi muassasalariga boshchilik qiladi.

2007-yilda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan mamlakat Prezidenti bir vaqtning o‘zida ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘i, ya‘ni Vazirlar Mahkamasining raisi ekanini belgilaydigan norma chiqarib, Vazirlar Mahkamasining raisi lavozimi tugatildi. Bu esa liberallashtirish va demokratlashtirish yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi. Qabul qilingan qonunlarga muvofiq endilikda

¹ O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi (yangi tahrir) Qonuni // O‘zbekiston Respublikasining saylovga oid qonunlar to‘plami. – T.: TDYI, 2004. – 38-b.


Bosh vazir nafaqat Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi, balki unga rahbarlik qiladi va uning ishi samaradorligi uchun shaxsan javobgar, Vazirlar Mahkamasi majlislariga raislik qiladi, hukumat hujjatlarini imzolaydi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasi davlat va xo‘jalik masalalari yuzasidan qarorlar ham qabul qiladi.

Respublika boshqaruv tizimining boshqa bo‘g‘inlari ham bozor iqtisodining O‘zbekistonga xos yo‘liga moslashtirildi.

1991-yil 6-sentabrda respublika mustaqilligi hamda hududiy yaxlitligini himoya qilish maqsadida Mudofaa ishlari vazirligi tuzildi. Shu maqsadlarni ko‘zlab, uning tarkibida 1992-yil yanvar oyida O‘zbekiston Respublikasi milliy gvardiya brigadasi barpo etish lozim, deb topildi. 1992-yil iyulida u Mudofaa Vazirligiga bo‘ysundirildi.

Mustaqil O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bilan shug‘ullanuvchi davlat idoralari tizimida tubdan o‘zgarishlar amalga oshirildi. 1990-yil dekabrda Davlat reja qo‘mitasi Iqtisod komissiyasiga aylantirildi. 1992-yil 5-avgustida esa ushbu qo‘mita va statistika davlat qo‘mitasi negizida Vazirlar Mahkamasining Istiqbolni belgilash va statistika davlat qo‘mitasi hamda joylarda uning tegishli idoralari barpo etildi. 1997-yilda bu qo‘mita makroiqtisodiyot vazirligiga aylantirildi.



Iqtisodiy mustaqillik va bozor iqtisodiga o'tish xalq xo'jaligini boshqarishning yangi usuli sifatida konsernlarni vujudga keltirdi. "O'zdonmahsulot", "O'zbekneftgaz" kabi bir qator konsernlar tashkil etildi. 1991-yil 7-sentabridan O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki faoliyat ko'rsata boshladi.

O'zbekiston davlat boshqaruvini to'liq monopoliya qilishdan cheklanish va fuqarolik jamiyatini vujudga keltirish, aholi turli tabaqalarining hokimiyat tizimida ishtirok etishini ta'minlashda mahalliy davlat hokimiyatlarini shakllantirishi lozim edi. 1992-yil 4-yanvarda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida mahalliy hokimiyat organlarini qayta tuzish to'g'risida"gi va 1993-yil sentabrdagi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunlar asosida mahalliy hokimiyat organlari tizimida butunlay yangi organ – hokimlik va hokim lavozimi ta'sis etildi hamda uning vakillik organlariga boshchilik qilishi tamoyillari belgilab qo'yildi.

Ijro etuvchi hokimiyat organlarida bog'liqlikni kuchaytirish maqsadida, viloyat hokimlari O'zbekiston Prezidenti tomonidan, tuman va shahar hokimlari viloyat hokimi tomonidan lavozimiga tayinlanishi va lavozimidan ozod qilinishi hamda bu masalalar tegishli xalq deputatlari Kengashlari tomonidan tasdiqlanishi tartiblari belgilandi. Shuningdek, tuman va viloyatlarda sobiq tuzum davridan qolgan va partiya organlari qaramligiga tushib qolgan ijro organlari (ispolkomlar)butunlay tugatildi.

Jamiyat hayotida qonuniylik mezonlari to'liq joriy etib borilishi davlatning faoliyatida o'z aksini topishi va doimo mustahkamlanib borilishini taqozo etadi. Aynan shu maqsadlarga mos holda O'zbekistonda islohotlarni muhim yo'nalishlari etib hokimiyatni bo'linish tamoyilini amalga oshirishni ta'minlash, jamiyatni siyosiy tizimida parlamentni rivojlantirish, sud hokimiyati rolini oshirish kabi masalalar belgilab olingan.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda sud-huquq tizimini isloh qilish va liberallashtirish, sudlarning haqiqiy mustaqilligi va erkinligini ta'minlash borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasida besh yil muddatga saylanadigan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasining Oliy sudi, shu muddatga tayinlanadigan viloyat sudlari, Toshkent shahar sudi, tuman, shahar sudlari, viloyat xo'jalik sudlari, harbiy sudlar faoliyat yuritmoqda.

Mazkur sudlarning huquqiy holati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan "Sudlar to'g'risida"gi Qonunida bayon etilgan.

Qonunda respublikadagi fuqarolik, jinoiy va ma'muriy sudlov sohasida sud hokimiyatining oliy organi qilib oliy sud ko'rsatilgan.

O'zbekistonda sud tuzilishi va sudlov ishlarini yurgizishga oid barcha demokratik konstitutsiyaviy tamoyillar rivojlantirildi. 1995-yil 30-avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustida sudga shikoyat qilish to'g'risida"gi Qonuni fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini sud orqali himoya qilishning huquqiy asoslarini yaratdi.

Sud tizimi

Saylanadigan sudlar (5 yil muddatga)

- O'zbekiston Konstitutsiyaviy sudi
- O'zbekiston Oliy sudi
- O'zbekiston Oliy xo'jalik sudi
- Qoraqalpog'iston fuqarolik ishlari bo'yicha oliy sudi
- Qoraqalpog'iston jinoiyat ishlari bo'yicha oliy sudi
- Qoraqalpog'iston xo'jalik sudi

Tayinlanadigan sudlar (5 yil muddatga)

- Fuqarolik va jinoiyat bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari
- Fuqarolik va jinoiyat bo'yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari
- Harbiy va xo'jalik sudlari

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq VI sessiyasida (2001-yil 29-avgust) "Adolat qonun ustuvorligida" nomli ma'ruzasida sog'lom jamiyat uchun jinoyatchini jazolashdan ko'ra jinoyatning oldini olish muhim ekanligini uqtirib o'tdi. Ma'ruzada O'zbekistonni demokratiya va taraqqiyot yo'lidan mustaqil rivojlantirishning o'tgan o'n yil ichida ijtimoiy turmushning barcha sohalarida sodir etilgan tub o'zgartirishlarning muhimligi ta'kidlanib, sud-huquq tizimini takomillashtirish, jinoiyat to'g'risidagi qonun hujjatlarini insonparvarlik, adolat huquqiy fuqarolik jamiyati prinsiplariga muvofiq ravishda erkinlashtirish masalasiga alohida e'tibor berildi. Davlat rahbari sudlar faoliyatiga ijobiy baho berish bilan birgalikda sud hokimiyati tizimidagi kamchiliklarga ham to'xtalib o'tdi. Bu borada I.A.Karimov sudyalari, prokuratura va tergov organlari xodimlari, bir so'z bilan aytganda, qabul qilingan yangi qonunlarni hayotga tatbiq etish lozim bo'lgan kishilarning dunyoqarashi va tafakkuri ancha qiyinchilik bilan o'zgarayotganligini uqtirib o'tdi.

Yurtboshi o'z ma'ruzalarida eng avvalo jamiyatning repressiv, ozodlikdan mahrum qilish hollarini qisqartirish hisobiga qonunchilikning adolat va insoniylik tamoyilini kuchaytirish va ularni amalda qo'llash zarurligini alohida uqtirib, Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslariga kiritilayotgan qo'shimcha va o'zgartirishlar jinoiy ishlarga taalluqli qonunlarni erkinlashtirish va demokratlashtirish sari tanlangan muhim hamda mas'uliyatli qadam ekanligini ta'kidlab o'tdi.

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning VI sessiyasidagi ma'ruzasi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qabul qilgan qarorining 2-bandida shunday deyiladi:

“Ma'ruzaning jinoiy jazolarni liberallashtirish, qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolar huquq va erkinliklarini, jamiyat hamda davlat manfaatlarini himoya qilish sari qaratilgan yo'lni hayotga tatbiq etishga doir dasturiy xulosalari prokuratura, boshqa huquqni muhofaza qilish organlari, sudlar faoliyati uchun asos qilib olinsin”.

Sessiyada qonunchilikda butun jahonda muhokama etilayotgan eng muhim o'lim jazosini qo'llashni o'zgartirish masalasi ham muhokama qilingan edi.

O'zbekiston Respublikasi va davlat rahbari inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga muhim e'tibor qaratib, o'z ma'ruzalarida quyidagi besh strategik yo'nalishni belgilab berdi. Bular:

1) Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning samarali mexanizmini ta'minlash;

2) Inson huquqlari bo'yicha Xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillari va normalari asosida milliy qonunchilikni takomillashtirish;

3) Qabul qilingan qonunlarga og'ishmay amal qilish mexanizmini ishlab chiqish va ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida qonun ustuvorligini ta'minlash;

4) Sudlov islohotini amalga oshirish yo'li bilan sud tizimini demokratlashtirish;

5) Aholi, ayniqsa, yoshlar va mansabdor shaxslar, huquq-tartibot idoralari xodimlari o'rtasida huquqiy tarbiya ishlarini tubdan yaxshilash, ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish yo'nalishlari edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 31-oktabrdagi Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasining inson huquqlari bo'yicha milliy markazi tuzildi.

1997-yil 27-iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni e'lon qilinib, unda aholining huquqiy madaniyatini oshirish va huquqiy tarbiyasini yaxshilash yuzasidan olib borilayotgan ishlar davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri qilib belgilandi.

1997-yil 27-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi jamiyat huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha milliy dastur ham qabul qildi. Dasturda: “Jamiyat va davlat taraqqiyotini hozirgi holati huquqiy munosabatlar barcha imkoniyatlarini huquqiy madaniyatini, huquqiy savodxonligini har tomonlama oshirishni talab qilmoqda. Huquqiy madaniyat huquqiy bilim, huquqiy e‘tiqod va izchil amaliy faoliyat majmuyi sifatida jamiyat va davlat oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal etilishini ta‘minlaydi.

Milliy dasturning maqsad ahamiyati aholining barcha qatlamlarini huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo‘lishlari hamda huquqiy bilimlarni kundalik hayotda qo‘llay olishlari uchun huquqiy madaniyatni shakllantirishning keng qamrovli muntazam tizimini yaratishdir”, deb ta‘kidlangan.

Keyingi yillarda mamlakatda sud-huquq tizimini isloh qilish va yanada liberallashtirish, sudlarning huquqiy mustaqilligi va erkinligini ta‘minlash borasida ham ulkan ishlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta‘kidlaganidek, “sud hokimiyatining mustaqilligi va erkinligini mustahkamlashga qaratilgan aniq, qonuniy chora-tadbirlarni amalga oshirish” lozim bo‘ladi.

Keyingi yillarda huquqiy islohotlar Yurtboshi ma‘ruza va nutqlarida sudlarning haqiqiy mustaqilligi va erkinligini ta‘minlash bilan bog‘liq bo‘lgan, hali yechimini kutib turgan jiddiy muammolarni hal etish borasida olib borildi. Bular: prokuratura organlarining ayrim vakolatlarini, shu jumladan, shaxsni ushlab turish, hibsga olish, shuningdek, boshqa protsessual majburlov choralari qo‘llash huquqini sudlarga o‘tkazish; jinoyat va jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining dastlabki tergov va sudgacha bo‘lgan jarayon ustida sud nazoratini kuchaytirish bilan bog‘liq bo‘lgan ayrim qoidalarni qaytadan ko‘rib chiqish; jinoiy jazo tizimidan o‘lim jazosini chiqarib tashlash; sud va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining mas‘uliyatini kuchaytirish; huquq-tartibot organlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish vazifalari edi.

Bu vazifalar orasida mamlakatda tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoyasini to‘la ta‘minlash vazifasi ham belgilab qo‘yildi.

4. FUQAROLIK JAMIYATI NEGIZLARINING YARATILISHI

O‘zbekiston demokratik huquqiy davlatni barpo etish bilan birgalikda fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo‘lidan dadil qadamlar tashladi. Shu maqsadlar yo‘lida o‘zlikni anglash, yurt ravnaqi, inson manfaati, erkinligi va farovonligini ta‘minlash talabi aniq va ravshan belgilab olindi. Ushbu vazifalarni bajarish

avvalo islohotlar jarayonini izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirilishiga bog'liq edi. Prezident I. Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida ta'kidlanganidek, "Jamiyat hayotida shunday davrlar bo'ladiki, ...barcha sohalarda keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish zarurati eng muhim ehtiyoj, kerak bo'lsa, hayot-mamot masalasi sifatida kun tartibiga chiqadi".

O'tgan davrni tahlil qilish uni ikki davrga bo'lish mumkinligidan dalolat beradi. O'tish davri va davlatchilik asoslarini shakllantirish bilan bog'liq birinchi galdagi islohot va o'zgarishlarni o'z ichiga olgan dastlabki bosqich – 1991–2000-yillar mamlakat va xalq hayotida ulkan iz qoldirgan o'tish davri tom ma'noda tarixiy ahamiyatga ega davr bo'ldi.

2001-yildan bugungacha bo'lgan muddatni o'z ichiga olgan ikkinchi bosqich – sud-huquq tizimi va ijtimoiy-gumanitar sohalarni izchil isloh qilishni ta'minlashda g'oyat muhim davr bo'lishi bilan birgalikda, faol demokratik o'zgarishlar davri ham bo'ldi. Mamlakatda barpo etilayotgan demokratik jamiyat tarixiy asoslarga ega bo'lgan kuchli islohotchilik orqali yuksaldi. Bir davrdan ikkinchi davrga o'tayotgan jamiyat kuchli islohotchilik orqaligina yangilana oldi. Buning uchun esa yangicha tafakkur, yangicha tafakkurning yuzaga kelishi uchun muayyan ijtimoiy muhit lozim edi. O'zbekistonda bunday muhit osongina yaratilgani yo'q, albatta. Yangi taraqqiyot yo'liga qadam qo'ygandan so'ng xalqning xohish-irodasi, asriy orzu-intilishlariga tayangan holda sho'ro davridan og'ir meros bo'lib qolgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimini tubdan isloh qilish, uning o'rnida mohiyat-e'tibori bilan butunlay yangi – erkin bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy davlat, demokratik jamiyat barpo etish yo'li belgilab olindi. Tabiiyki, bu maqsadga erishish uchun qanday strategik yo'l, islohotlarning qanday shakl va usuli ma'qul ekani haqida olim va mutaxassislar, keng jamoatchilik, el-yurt vakillari bosh qotirdi. Bu borada taraqqiy topgan davlatlar misolida o'zini oqlagan ilg'or tajribalar ham chuqur o'rganildi. Shuningdek, islohotlarda xalqning hayot tarzi, milliy an'ana va qadriyatlari bilan birga aholining ruhi va kayfiyati ham har tomonlama hisobga olindi.

Har qanday islohotning pirovard natijasi avvalo uning zaruratini, aholining keng qatlamlari qay darajada tushunishi va qo'llab-quvvatlashi, bu o'zgarishlarning inson hayotiga, uning farovonligini oshirishga ko'rsatadigan amaliy ta'siri bilan o'lchanadi. Ana shu haqiqatdan kelib chiqqan holda, odamlarga islohotlarning ma'no-mohiyatini aniq-ravshan tushuntirib berish, shu asosda jamiyat a'zolarida ishonch uyg'otish, ularni bunyodkorlik sari safarbar etish muhim ahamiyatga ega edi.

Aslida, har qanday islohotlarning samarasi avvalo xalqning ma'naviy-ruhiy yangilanishi, tafakkurining yuksalishi, yuz berayotgan o'zgarishlar uning hayotiga va taqdiriga daxldor bo'lganini chuqur his qilishi va shundan

xulosa chiqarishi bilan belgilanadi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida avval-boshdan ana shu nozik jihatga alohida e'tibor qaratildi. Barcha o'zgarish va yangilanishlarning markaziga inson va uning manfaatlari qo'yildi.

Umuman olganda, mamlakatdagi o'zgarishlar jarayonining mohiyatida "Islohot islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning farovon hayoti uchun" tamoyili mujassam etildi.

O'zbekiston jamiyatida siyosiy, demokratik islohotlarni chuqurlashtirishda Prezident I.A.Karimovning birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIV sessiyasi (1999-yil 14-aprel)dagi nutqida qo'yilgan vazifalar muhim rol o'ynadi. Unda respublikaning XXI asrdagi taraqqiyot strategiyasining asosiy yo'nalishlarining **birinchi ustuvor yo'nalishi qilib mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish vazifasi qo'yildi.**

Siyosiy sohani erkinlashtirish borasida:

– avvalambor, aholining siyosiy faolligini kuchaytirish, jamiyatda manfaatlar va qarama-qarshi kuchlar o'rtasida muvozanatni ta'minlaydigan kuchli mexanizmlarni shakllantirish zarur;

– demokratiyaning eng muhim tamoyili – odamlarning saylov huquqini, o'z xohish-irodasini erkin ifodalash, o'z manfaatlarini ro'yobga chiqarish va himoya qilish uchun haqiqiy shart-sharoit, qonuniy-huquqiy zamin yaratib berish lozim edi.

Davlat qurilishi va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlarini erkinlashtirish masalasi ham katta ahamiyat kasb etdi. Bu boradagi vazifalar hokimiyat barcha tarmoqlarining bir-biridan mustaqil holda ish yuritish tamoyillarini mustahkamlash, hokimiyat vakolatlarini nodavlat va jamoat tashkilotlariga, fuqarolarni o'z-o'zini boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borish, ularning haq-huquqlari va erkinliklarini muhofaza etishni kuchaytirishdan iborat edi.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurishda fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlariga katta umid bog'landi. Bu haqda Prezident I.Karimov: "Biz fuqarolik jamiyati qurishga intilmoqdamiz. Buning ma'nosi shuki, davlatchiligimiz rivojlana borgan sari boshqaruvning turli xil vazifalarini bevosita xalqqa topshirish, ya'ni o'z-o'zini boshqarish organlarini yanada rivojlantirish demakdir", degan edi.

O'z-o'zini boshqarish organlarini tashkil qilishda, shakllantirishda O'zbekistonning o'ziga xos xususiyati shundaki, ushbu masalani hal qilishga milliy an'analarni, tarixiy qadriyatlarini tiklash, aholining tub manfaatlariga mos keluvchi yo'lni tanlash nuqtayi nazaridan yondashish bo'ldi. Xususan, o'z-o'zini

boshqarishda asosiy tayanch qilib mahallalar belgilandi. Ular inson qalbida Vatan tuyg'usining shakllanishiga, milliy g'urning vujudga kelishida, millatchilik il-latlaridan xoli bo'lishida katta ta'sir ko'rsatib kelgan edi.

O'z-o'zini boshqarish organlari yoki mahallalarning vazifasi aholining davlat va jamiyat ishlarida ishtirokini ta'minlash, kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishda ishtirok etish bilan cheklanib qolmaydi. Ularning muhim vazifasi har bir shaxsning ongini, ma'naviy kamolotini oshirish uchun, millatchilik, mahalliychilik kabi salbiy jihatlarni yo'qotish uchun ish olib borish va milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analarga, Vatanga, davlatga va boshqa fuqarolarning manfaatiga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalashdan iboratdir.


Faqat O'zbekistonga xos va aynan mahalla bilan bog'liq "Korxonama-halla" iqtisodiy hududni tashkil qilish masalasi ham katta umid uyg'ota boshladi. Birgina 1995-yil davomida respublika bo'yicha shu turdagi 204 ta kichik va xususiy korxonani tashkil qilinib, ularning faoliyati orqali 3300 kishi ish bilan ta'minlangan edi.

Respublikada mahallalardagi yordamga muhtoj oilalarga yordam ko'rsatish borasida "Mahalla" xayriya jamg'armasi tashkil etilib, uning faoliyatini rivojlantirishga muhim e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Prezidentining 1999-yil 13-yanvardagi "Aholini aniq yo'naltirilgan ijtimoiy madad bilan ta'minlashda fuqarolarni o'z-o'zini boshqarish organlari rolini oshirish to'g'risida"gi Farmoni, 1999-yil aprelida qabul qilingan "Fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari to'g'risida"gi yangi tahrirdagi Qonunning qabul qilinishi o'z-o'zini boshqarish organlariga ijtimoiy himoya sohasida yangi vakolatlar beribgina qolmay, bu tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish, ulardagi jamoa ruhi va tabiatini mustahkamlashdagi samaradorlikni oshirishga xizmat qila boshladi.

Bugungi kunda ham O'zbekistonda kuchli jamiyatga o'tish davrida o'zini o'zi boshqarish organlariga, ayniqsa, mahalla institutining rivojiga katta ahamiyat berilmoqda. Shu bilan birga, davlat va uning organlari tomonidan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishning huquqiy maqomini mustahkamlash, mahalla, qishloq, ovul va shaharcha fuqarolar yig'inlarini fuqarolik jamiyatini asosiy institutiga aylantirishga doir chuqur islohotlar ham amalga oshirildi. Mustaqillik davrida 10 mingga yaqin mahalla, qishloq, ovul va shaharcha fuqarolar yig'inlari – o'zini o'zi boshqarish organlari tashkil etilib, shundan 8142 tasini mahalla fuqarolar yig'inlari tashkil etadi.

Respublikada o'z-o'zini boshqaruvning moliyaviy faoliyatini mustahkamlovchi chora-tadbirlar ko'rildi. Bu borada aholiga kompleks tarzda savdo, maishiy va madaniy xizmatlar ko'rsatadigan gularlar faoliyat boshladi.



O‘zbekistonda kuchli fuqarolik jamiyati qurishda, fuqarolar huquq va manfaatlarini himoya qilishda, aholining ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda nodavlat, notijorat tashkilotlari ham muhim omil bo‘lib xizmat qildi.

Respublikadagi nodavlat, notijorat tashkilotlar va siyosiy partiyalar faoliyati 1991-yil 14-fevralda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonuni (1997-yil aprelida qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilgan), O‘zbekiston Respublikasining “Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni (1992-yil iyul), O‘zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi Qonuni (1996-yil dekabr), O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida” yangi tahrirdagi Qonuni (1998 yil, may), O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida” yangi tahrirdagi Qonuni (1999-yil aprel), O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat, notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi (1999-yil aprel) kabi qonunlar vositasida muvofiqlashdi.

Mamlakatda nodavlat, tashkilotlar tizimini yanada mustahkamlash, mazkur tashkilotlarning jamiyatdagi barcha ijtimoiy qatlam va guruhlar manfaatlarini ifoda etish maqsadida 2003-yil 29-avgustda Oliy Majlis tomonidan O‘zbekiston Respublikasining “Jamoat jamg‘armalari to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi.

O‘zbekistonda nodavlat, notijorat tashkilotlarini fuqarolik jamiyati instituti sifatida rivojlantirishda 2005-yilning 10-iyunida tashkil topgan “O‘zbekiston nodavlat, notijorat tashkilotlari milliy Assotsiatsiyasi” muhim ahamiyat kasb etdi. Mamlakatda mustaqil, barqaror, aholining turli qatlamlari qo‘llab-quvvatlaydigan fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirishga, ijtimoiy ahamiyatli muammo-

lami hal etishdagi, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy va ish faolligini oshirishdagi rolini kuchaytirish maqsadlarida 2005-yil 26-iyulda “O‘zbekiston – nodavlat, notijorat tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash fondi” tashkil topdi.

Bugungi kunda mamlakatda faoliyat yuritayotgan 402 ta respublika ahamiyatiga molik nodavlat, jamoat birlashmalarining 81 tasi xalqaro tashkilotlar maqomiga ega. Nodavlat tashkilotlarining 48 tasi assotsiatsiya, 20 tasi uyushma, 5 tasi qo‘mita, yana 37 tasi boshqa normalarda ro‘yxatdan o‘tgan.

Islohotlar natijasida mamlakatda nodavlat, notijorat tashkilotlarning demokratik tamoyillar asosida mustaqil faoliyat yuritishi, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Demokratiyaning eng muhim tamoyili odamlarning saylov huquqlarini amalga oshirish, o‘z xohish-irodasini erkin ifodalash uchun zarur huquqiy shart-sharoit, qonuniy asos yaratishdir. Shu bois mamlakatda mustaqillik yillarida xalqning o‘z xohish-irodasini erkin ifoda etishini ta‘minlovchi saylov tizimini shakllantirish va uni qonun bilan mustahkamlash borasida talay ishlar qilindi.

1991-yil noyabrda Parlament “O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti saylovi to‘g‘risida”gi Qonunni, Oliy Kengash 1991-yilda “O‘zbekiston Respublikasi referendumini to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qildi.

1991-yil 29-dekabrda mamlakat tarixida birinchi marta muqobillik asosida Prezident saylovi o‘tkazildiki, unda xalqning o‘z xohish-irodasini ifoda etishi ta‘minlandi.

O‘zbek saylov qonunchiligi tizimi huquqiy asoslarini yaratishda Konstitutsiya asosidagi 1993-yil 28-dekabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi, 1994-yil 5-mayda qabul qilingan “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to‘g‘risida”gi, “Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi va nihoyat “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to‘g‘risida”gi Qonunlari muhim o‘rinni egalladi.

Markaziy saylov komissiyasi to‘g‘risida alohida qonun qabul qilinganligi saylovlarni to‘g‘ri tashkil qilishga, saylov qonunlarining to‘la ishlashiga va qonunlarni nazorat qilishni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Saylov tizimini isloh qilishda O‘zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning “O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat” degan siyosiy dasturida asoslab berilgan vazifalar muhim bosqich bo‘lib xizmat qildi.

Bizning saylov qonunchiligimiz ko‘pgina xalqaro tashkilotlar, xorijiy davlatlar tomonidan o‘rganilmoqda. Xususan, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining tegishli ekspertlari ham O‘zbekiston saylov qonunchiligi mohiyati demokratik ekanligini, uning saylovlarni tashkil etish sohasi xalqaro huquqning tan olingan tamoyillariga mos kelishini ta‘kidlaydi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda barpo etilayotgan demokratik, insonparvar fuqarolik jamiyatida fuqarolar o‘zlarining siyosiy huquqlari va erkinliklarini davlat va jamiyat ishlarini bajarish bilan birgalikda ularni idora etishda faol qatnashish orqali amalga oshirishmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ko‘ppartiyaviylik tizimining vujudga kelishi davlat hokimiyati oliy va mahalliy organlarining takomillashishida katta ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatda vujudga kelgan siyosiy partiyalar o‘z faoliyatida o‘zbek xalqining eng yaxshi demokratik an‘analariga, adolat, ezigulik, tenglik va inson erkinligi kabi umuminsoniy qadriyatlar hamda g‘oyalarga, axloqiylik va odamiylik qoidalarga suyanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 60-moddasida siyosiy partiyalarning huquqiy maqomi belgilab berilgan.

O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik muhitining qaror topganligi qanday ahamiyat kasb etadi?

Birinchidan, demokratik fuqarolik jamiyati qurilishida siyosiy partiyaning o‘rni va roli muntazam ravishda ortib boradi; ikkinchidan, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish jarayonida O‘zbekiston aholisi turli qatlamlarining manfaatlarini ifoda etishda ko‘ppartiyaviylik tizimi muhim demokratik institut hisoblanadi; uchinchidan, davlat bosh islohotchi sifatida siyosiy partiyalarning faoliyatini takomillashtirishi muhim ahamiyatga ega; to‘rtinchidan, siyosiy partiyalarsiz vakillik demokratiyasini tasavvur etib bo‘lmaydi; beshinchidan, siyosiy partiyalarning o‘rni va mavqeyi ularning soni yoki vaqt bilan belgilanmaydi; oltinchidan, mamlakatdagi ko‘ppartiyaviylik muhitida partiyalar o‘zlarining yangi g‘oyalari va muqobil takliflari bilan demokratik jamiyat qurilishiga xizmat qiladi.

Respublikada siyosiy partiya sifatida birinchilardan bo‘lib, 1991-yil 1-noyabrda Xalq demokratik partiya (XDP)si tashkil topdi. 1992-yil 24-mayda “Vatan taraqqiyoti” partiyasi, 1995-yil 18-fevralda “Adolat” sotsial-demokratik partiya (SDP)si, 1995-yil 3-iyunda Milliy tiklanish demokratik partiya (MTDP)si, 1998-yil 28-dekabrda “Fidokorlar” milliy demokratik partiya (FMDP)lari tashkil topib, faoliyat ko‘rsata boshladi. Shuningdek, O‘zbekistonda 1995-yil iyunidan boshlab “Xalq birligi” va 2009-yildan esa “Ekologiya” harakatlari vujudga kelib, faoliyat yuritmoqda.

Bugungi kunga kelib O‘zbekistonda siyosiy partiyalarning jamiyat instituti sifatidagi huquqiy maqomi shakllandi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida siyosiy partiyalar jamoat birlashmalari kabi jamiyatning instituti ekanligi e’tirof etilishi bilan birga, ularning davlat hokimiyati organlari faoliyatiga aralashishga yo‘l qo‘yilmasligi konstitutsiyaviy me‘yorlar bilan belgilab

qo'yildi. Umuman, O'zbekiston qonunchiligida demokratik prinsiplar asosida faoliyat yuritadigan siyosiy partiyalarning o'z faoliyatlarini amalga oshirishlari uchun huquqiy asoslar yaratib berildi.

O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimini qaror topishi, siyosiy partiyalarning demokratik qoidalar asosida erkin faoliyat yuritishlari, o'zaro teng huquqlarga ega bo'lishlari, ularning jamiyat oldidagi vazifalari va mas'uliyatlarini qonunlashtirishda 1996-yilning 25-dekabrida Oliy Majlis qabul qilgan va 17 ta moddadan iborat bo'lgan "Siyosiy partiyalar to'g'risidagi" Qonun muhim o'rin tutgan edi.

Siyosiy partiyalar faoliyatining faqat huquqiy jihatdangina kafolatlashning o'zi ularning keng qirrali faoliyatlari yo'nalishlarini amalga oshirish uchun yetarli emasligini hayotning o'zi ko'rsatdi. Siyosiy partiyalarning jamiyatdagi va siyosiy munosabatlardagi funksiyalarini to'la bajara olish qobiliyatini oshirish uchun ularning faoliyatlarini moliyaviy jihatdan ham kafolatlash tajribasi joriy etilib, 2004-yil 30-aprelda Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning XIV sessiyasi "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi Qonunni qabul qildi.

Bugungi kunda mamlakatda jamiyat siyosiy sohasini erkinlashtirish, ko'ppartiyaviylik tizimini yanada demokratlashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar mamlakatda kechayotgan siyosiy islohotlarning muhim jihatlarini tashkil etmoqda.

Saylov to'g'risidagi qonun hujjatlariga o'zgartirish kiritilishi munosabati bilan 2010-yildan boshlab Oliy Majlis Qonunchilik palatasining siyosiy partiyalar va O'zbekiston ekologik harakati tomonidan ko'rsatilgan nomzodlari asosida shakllanishi mazkur palatani fuqarolik jamiyati bilan bevosita aloqadorlikda bo'lishini ta'minlaydi. Jamiyatdagi turli ijtimoiy qatlamlar va guruhlar siyosiy partiyalar vositasida o'z manfaatlarini parlamentga yetkazish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Fuqarolarning davlat va jamiyatni boshqarishdagi ishtiroklari saylovlar davrida aniq va ravshan namoyon bo'ladi. O'zbekistonda saylovlardagi tenglik huquqi tamoyili Konstitutsiyaning 117-moddasida quyidagicha mustahkamlangan: "O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. Ovoz berish huquqi, o'z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi". Shuningdek, ushbu moddada "saylovlar umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi", deb ko'rsatilgan.

O'zbekiston parlamentiga demokratik tamoyillar asosidagi saylovlar ilk bor 1994-yil 25-dekabrda o'tkazilib, Oliy Majlisga o'tkazilgan birinchi saylov

mamlakatda tobora taraqqiy topayotgan demokratik jarayonlarning amaldagi ifodasi bo'ldi. Ko'ppartiyaviylik va muqobilik asosida o'tgan saylovlarda fuqarolarning huquqlari har jihatdan qadrlandi.

O'zbekistonda saylov qonunchiligining rivojlanishiga uyg'un ravishda fuqarolarning siyosiy va huquqiy madaniyati ham yuksalib bordi. Fuqarolarning saylovlardagi ishtirokining faolligi, ularning saylovlarga nisbatan munosabatlarining o'zgarib borishi va xalqning demokratik qadriyatlarni o'z turmush tarziga singdirib borayotganligi aniq sezilgan edi.

Shu tariqa O'zbekistonda demokratik saylovlar instituti davlat organlarini shakllantirishning muhim vositasi sifatida fuqarolik jamiyati a'zolarining manfaatlari va irodasini siyosiy qarorlarga aylanish jarayonlarini ta'minlab bera olish darajasiga ko'tarildi. Ular oliy va mahalliy davlat hokimiyati organlarini xalq tomonidan nazorat qilinishi uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

Bu davrda jamoat tashkilotlari ham vujudga kelib, ularning saflari oshib bordi va imkoniyatlari kengaydi. Ular inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashda, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda muhim o'rin tutmoqda. Hozirgi davrda O'zbekiston jamiyatida 7 mln ga yaqin fuqarolar kasaba uyushmalari a'zolari, 1 mln dan ortiq fuqarolar esa siyosiy partiyalar a'zolari sifatida jamoatchilik ishlarida ishtirok etadi.

1991-yil 1-martda O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi tashkil etilib, mamlakatda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik jarayonlarda ayollarning faol ishtirok etishi, xotin-qizlarni ma'naviy-ma'rifiy tarbiyalashda muhim rol o'ynamoqda.

Shuningdek, "Nuroni", "Ustoz", "Ulug'bek", "Umid", "Xotira" va shu kabi jamg'armalar nodavlat tashkilotlar sifatida respublikada fuqarolik jamiyatini shakllantirishda katta hissalarini qo'shmoqda.

Mamlakat yoshlarini istiqlolni mustahkamlashda faol bo'lishi zaruriyatini taqozo etadi. Yoshlarni faollikka boshlovchi, yetakchi tashkilot zaruriyati tug'ildi va 2001-yilning 24-yanvarida O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov "Kamolot" jamg'armasi faollarini qabul qildi va ularning bu tashkilotining rolini oshirish vazifasini qo'ydi va "Kamolot" jamg'armasini yoshlarning haqiqiy yetakchisi, uyushtiruvchisi va boshqaruvchi ommaviy tashkilotga aylantirish zarur, deb topdi.

Yurtboshi tashabbusi bilan 2001-yil 25-aprelida bo'lib o'tgan Respublika yoshlari vakillarining I quriltoyida mamlakat yoshlarining "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati tuzilib, uning nizomi va dasturi qabul qilindi. Bugungi kunda bu harakat kechayotgan islohotlarda yurt yoshlarining daxldorlik hissinu kuchaytirishda muhim hissa qo'shmoqda.

Bugungi kunda dunyodagi barcha mamlakatlarda ommaviy axborot vositalari (OAV) yetakchi o'rin tutadi. Gazeta-jurnallar, radio-televideniye vositalari har bir davlatda omma bilan hokimiyat o'rtasida o'ziga xos aloqa vositasi, oshkoralik ko'zgusi, haqiqat jarchisi bo'lib xizmat qiladi. Mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida yetakchi rol o'ynaganligi uchun ham ularga to'rtinchi hokimiyat tusini berish ommalashgan. Davlat boshqaruv organlari demokratiyaning muhim tayanchi bo'lganligi uchun ommaviy axborot vositalari bilan maslahatlashishga, takliflarini e'tiborga olishga majbur. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 67-moddasida "Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar", deyilgan. Shuningdek, ushbu moddada Ommaviy axborot vositalari (OAV) da "senzuraga yo'l qo'yilmaydi", deb yozib qo'yilgan.

O'zbekiston respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonuni mamlakatdagi barcha gazeta-jurnallar, radio-televideniye vositalarini dunyo miqyosiga olib chiqish uchun xizmat qiluvchi asosiy dastur bo'ldi.

Prezident I. Karimovning shaxsan tashabbusi va sa'y-harakatlari bilan yana ikki Qonun: O'zbekiston Respublikasining "Jurnalistika kasbini himoya qilish to'g'risida" hamda "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi Qonunlar qabul qilindi. Bu qonunlar tom ma'noda ko'plab taraqqiy etgan mamlakatlarda mavjud bo'lmagan qonunlardir. Ushbu qonunlar fuqarolarning axborot qidirib topish, olish, uzatish va tarqatish huquqini to'la miqyosda ta'minlaydigan huquqiy qurol bo'lib, aholi uchun axborot olish va yetkazishning bosh vositachisi, deb qaraluvchi jurnalistning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun huquqiy asosni vujudga keltirdi.

Istiqlolyillarida ommaviy axborot vositalari mansabdorlarning to'rachiligi, korrupsiya, mustabidlik va boqimandalik psixologiyasi yo'lida mustahkam g'ov bo'lishi bilan birgalikda, qonunchilikni ro'yobga chiqarish, islohotlarning borishi va inson huquqlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilishning ta'sirchan vositasi bo'lib qolmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonda 609 ta (1990-yilda 331 ta edi) gazeta, 162 ta (1990-yilda 65 ta edi) jurnal nashr etilib, 3 ta axborot agentligi, 50 dan ortiq teleradiokompaniya va studiyalar ishlab turibdi. O'zbekiston teleradiokompaniyasining kundalik ko'rsatuvlari 51,5 soatni tashkil etsa, respublika radiosi 100 soatlik eshittirishlar olib bormoqda.

Matbuot, radio va televideniye siyosatga ta'sir ko'rsatish, siyosiy jarayonlarning tarkibiy qismiga hamda milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasini keng xalq ommasiga yetkazishning, jamiyatni demokratiyalashtirishning o'tkir

quroliga aylantirishi lozim. Shundagina to'la ma'nodagi to'rtinchi hokimiyat – ommaviy axborot vositalari tizimi vujudga keladi.

O'zbekiston Prezidentining 1997-yil 7-maydagi Farmoni yuqorida ko'rsatilgan masalalarni me'yoriy tartibga solishda ko'riladigan chora-tadbirlarning ommaviy ifodasi bo'ldi.

O'zbekistonda demokratik yangilanishlar jarayonini chuqurlashtirish va fuqarolarning erkinliklarini ta'minlashning g'oyat muhim sharti – bu ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish uchun demokratik andozalarni joriy etish bo'yicha aniq va izchil choralar amalga oshirilmoqda. Prezidentning Parlamentning ikki palatasi qo'shma yig'ilishlari (2005-yil 28-yanvar, 2010-yil 12-noyabr)da so'zlagan nutqlarida bu amalga oshirilayotgan choralar ustuvor vazifa va yo'nalishlardan biri qilib qo'yilganligi ham mustaqillikni mustahkamlashda ommaviy axborot vositalarining rolini naqadar kuchli ekanligini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston rahbariyati aholining ko'pmillatliligini hisobga olib, millatlararo totuvlik va hamjihatlikni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratdi. Davlat milliy siyosatining asosiy yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bayon etilgan.

Milliy siyosat quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

– O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analarni hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi;

– millatidan qat'i nazar fuqarolarning qonun oldida tengligi;

– davlat va jamiyat boshqaruvining barcha bo'g'inlarida etnik o'ziga xoslikni hisobga olish;

– millatchilikning har qanday ko'rinishlariga nisbatan murossasizlik;

– ijtimoiy va siyosiy hayotda barcha millat va elat vakillarining har tomonlama ishtirokini ta'minlash;

– Respublikada ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiladigan partiyalar va jamoat birlashmalari tuzilishi hamda ularning faoliyati taqiqlangan.

Respublikada hozirgi paytda 27-millat vakillari tomonidan tuzilgan 150 ga yaqin Milliy madaniy markazlar (MMM) faoliyat olib bormoqda. Respublika baynalmilal madaniyat markazi va MMM faollaridan 71 kishi yuksak davlat mukofotlari bilan taqdirlangan. Shu jumladan, 32 kishi "Do'stlik" ordeni, 2 kishi "Mehnat shuhrati" ordeni, 13 kishi "Shuhrat" medali bilan mukofotlangan, 7 kishiga faxriy unvonlar, 17 kishiga O'zbekiston Respublikasining Faxriy yorliqlari berilgan. Mukofotlanganlar orasida 24 millat vakillari bor.

Televideniye va radioda 10 tilda (o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman, tatar, uyg'ur, ozarbayjon) ko'rsatuv va eshittirishlar olib boriladi.

Gazetalar 10 tilda (o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, koreys, tojik, turkman, ukrain, ingliz), jurnallar esa 8 tilda (o'zbek, qoraqalpoq, rus, ingliz, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman) bosiladi.

Respublikada o'rta va oliy ta'lim 7 tilda amalga oshiriladi. Ular o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, tojik va turkman tillaridir.

O'zbekiston diyorida qadimdan turli sivilizatsiya vakillari, madaniy qatlamlar, xilma-xil e'tiqod va dunyoqarashlar yonma-yon yashab kelgan. Bu yerda yashovchi xalq, Yurtboshi ta'kidlaganidek, boshqa joydan ko'chib kelib, o'mashib qolgan emas. Bu zamin ota-bobolar yashab o'tgan azaliy va muqaddas makondir. Bu zamin Sharq va G'arbning, Shimol va Janubning, qadim o'tmish va buyuk kelajakning tutashgan joyi, Markaziy Osiyoning yuragi, insoniyat tafakkuri, fan va madaniyatining eng ko'hna o'choqlaridan biri. Bu tuproqda jahonni hayratga solgan sivilizatsiyaning ildizlari vujudga kelgan, insoniyat tarixining eng qadimgi davrlariga mansub diniy va falsafiy an'analar shakllangan. Qadimgi yunon faylasufi Geraklit bu yurtni "falsafiy tafakkur beshigi", deb bekorga ta'riflamagan. Shuni ta'kidlash joizki, bu yerdagi sivilizatsiya o'ziga xos tolerant tafakkur uslubiga tayanadi. Bunday tafakkur uslubiga ushbu zaminda uzoq vaqt ham otashparastlik, ham buddaviylik, ham yahudiylik, ham xristianlik, ham islom dinlari bo'lganini misol keltirish mumkin.

Ana shunday an'analar O'zbekistonda yashovchi barcha millat va elat va-killarining tub manfaatlarini, xalqning asrlar mobaynida intilib kelgan orzu-umidlari, oliyjanob maqsad-muddaolarini o'zida mujassam etadi.

Ushbu an'ana va tafakkur tizimining tarkibiy qismi bo'lgan millatlararo totuvlik g'oyasi yurtda tinchlik va barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qilmoqda.

5. DEMOKRATIK ISLOHOTLARNI YANADA CHUQUR-LASHTIRISH VA FUQAROLIK JAMIYATINI RIVOJLANTIRISHDA YANGI BOSQICH

Ulkan qiyinchiliklarga, ayniqsa, mustaqil taraqqiyotning dastlabki yillarida muammolar, tahdid va sinovlarga qaramasdan, O'zbekiston iqtisodiyoti o'tgan 23 yil mobaynida qariyb 3,7 barobar o'sdi, yalpi ichki mahsulot aholi jon boshiga 2,6 barobar, o'rtacha ish haqi 15 barobar oshdi. Aholining yalpi daromadlari amaldagi hisob-kitoblar bo'yicha 8,8 barobar o'sdi. Ushbu daromadlarning 50 foizi biz uchun mutlaqo yangi bo'lgan mulk shakllaridan va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olingan daromadlardir.

Davlatning ijtimoiy himoya sohasi uchun sarflangan xarajatlari, aholi jon boshiga hisoblaganda, 5 martadan ko'proq oshdi, har yili Davlat budjetining qariyb 60 foizi sog'liqni saqlash, ta'lim, kommunal xo'jalik va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bilan bog'liq boshqa sohalarni rivojlantirish uchun yo'naltirildi. Shu davrda odamlarning o'rtacha umr ko'rish darajasi 67 yoshdan 74 yoshga yetdi, onalar o'limi 2 barobardan ziyod, bolalar o'limi esa 3 barobar kamaydi.

Bugungi globallashuv asrida, taraqqiyot qonuniyatlari, erishilgan marra-lar, maqsadlar jamiyatning izchil rivojlanishiga, mamlakatning nufuziga tu-zatib bo'lmaydigan ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan havolanishga, qo'lga kiritilgan yutuqlarga mahliyo bo'lib, xotirjamlik kayfiyatiga berilmasdan, demokratik islohotlarni davom ettirishni talab qilmoqda.

Faqat keng miqyosdagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy islohot va o'zgarishlarni "o'zbek modeli"ga muvofiq ravishda davom ettirish davlat va jamiyatning barqarorligi va zarur rivojlanish sur'atlarini ta'minlash, hayot sifatini oshirish, xalqaro maydonda munosib o'rin egallash imkonini berdi.

O'zbekiston Prezidentining 2010-yil 12-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" mavzusida qilgan ma'ruzasi va ushbu konsepsiyaning qabul qilinishi aynan shu talab bilan bog'liq bo'lib, bu konsepsiya, o'z mohiyatiga ko'ra, davlat va jamiyat rivojining prinsipial jihatdan yangi bosqichida mamlakatni modernizatsiya qilish bo'yicha boshlangan keng ko'lamli ishlarni yanada izchil davom ettirish uchun dastur hisoblanadi va bu konsepsiyadagi islohotlarning quyidagi yo'nalishlari prinsipial ahamiyatga ega hamda mamlakatda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashti-rish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda yangi bosqichni boshlab berdi.

I. Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasidagi vazifalar:

– hokimiyatlar bo'linishi konstitutsiyaviy prinsipini izchil va tizimli ra-vishda amalga oshirish, hokimiyat tarmoqlari o'rtasida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining, davlat va jamiyat oldida turgan vazifalarni hal etishda o'zaro kelishilgan holda faoliyat yuritish va hamkorlik qilishning samarali mexanizmlarini yaratishga qaratilgan islohotlarni davom ettirish;

– konsepsiyaga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga Oliy Majlis Qonunchilik palatasida eng ko'p deputatlik o'rnini egallagan siyosiy partiyalarning Bosh vazir nomzodi bo'yicha taklif kiritish huquqini, Bosh vazirga ishonchsizlik votumi institutini joriy etishni nazarda tutadigan o'zgartishlar kiritish;

– parlamentga mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning dolzarb masalalari bo‘yicha hukumat rahbari hisobotlarini eshitish huquqi berilgan va boshqa qator prinsiplial yangiliklarni kiritish;

– shu tariqa ijro etuvchi, qonun chiqaruvchi va sud hokimiyatlarini yanada chuqur isloh qilish, ularning mustaqilligini, mustaqil ish yuritish qobiliyatini kuchaytirish;

– davlat va siyosiy qurilish tizimida parlamentning roli va ahamiyatini oshirish borasida qonunchilik asoslari yaratilmoqda. Konstitutsiyaning mazkur yangi qonunlarini bosqichma-bosqich joriy etish, ijro hokimiyati organlarini shakllantirish, ularning faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish.

Shuningdek, bu sohada demokratik jamiyatning eng muhim tarkibiy qismi bo‘lgan siyosiy, parlamentlararo raqobatni sezilarli darajada kuchaytirishda ma‘lum siyosiy partiyalarning rolini tubdan oshirish uchun sharoit yaratish vazifasi ham qo‘yilgan.

II. Sud-huquq tizimidagi demokratik islohotlarni chuqurlashtirish sohasidagi vazifalar:

– sudning mustaqilligini ta‘minlash, qonunchilikka sudga qadar bo‘lgan ish yuritish bosqichida sud nazoratini mustahkamlash, “Xabeas korpus” institutini qo‘llash sohaslarini kengaytirishga qaratilgan tegishli o‘zgartishlar kiritish bo‘yicha ishlarni davom ettirish;

– huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari tizimida ularning faoliyatida qonuniylik va qonun ustuvorligini ta‘minlaydigan o‘zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmini yaratish;

– ayrim huquqbuzarliklarni jinoiy yurisdiksiyadan ma‘muriy yurisdiksiyaga o‘tkazish yo‘li bilan jinoyat qonunchiligini yanada liberallashtirish, sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirish bo‘yicha boshqa qator chora-tadbirlarni amalga oshirish;

– sudning oliy maqsadi bo‘lgan odil sudlovni amalga oshirish tamoyiliga mos kelmaydigan O‘zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual kodeksining 321-moddasidan sudning jinoyat ishi qo‘zg‘atishga doir vakolatini chiqarib tashlash.

Shuningdek, ushbu sohada tezkor qidiruv faoliyatini amalga oshirish prinsiplari, asoslari, shakl va uslublari, uni olib boradigan organlar tizimini belgilab beradigan “Tezkor faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qilish taklifi ham berildi.

Konsepsiyada sud tizimi islohoti sohasida yana quyidagi:

– faol rivojlanib borayotgan demokratlashtirish jarayonlarini inobatga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksini har tomonlama qayta ishlash va yangi tahrirda qabul qilish;

– ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rishning protsessual mexanizmlarini takomillashtirish, demokratlashtirish, bu sohada qonuniylikni ta'minlash va fuqarolarning huquqlarini ishonchli himoyalash bo'yicha choralarini ham mazkur kodeksda ko'zda tutish;

– davlat hokimiyati idoralari, huquqni muhofaza qiluvchi tizimlar, shu jumladan, prokuratura faoliyatida qonunchilik talablariga rioya qilish va qonun ustuvorligini ta'minlash bo'yicha adliya organlarining rolini yanada kuchaytirishga qaratilgan yangi huquqiy mexanizmlarni o'rnatadigan hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish vazifalari ham belgilab berildi.

Konsepsiyada, ayniqsa, yuksak huquqiy madaniyat – demokratik jamiyat poydevori ekanligi inobatga olinib, bugungi siyosiy-huquqiy voqelikni hisobga olgan holda, mamlakatda huquqiy ta'lim va ma'rifatni, jamiyatda huquqiy bilimlar targ'ibotini tubdan yaxshilashga yo'naltirilgan maqsadli va keng ko'lamli chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish taklif etildi.

III. Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash sohasidagi vazifalar:

Konsepsiyada bu borada quyidagi vazifalar:

– fuqarolarning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqini yanada kengroq amalga oshirish imkoniyatini yaratib berish bilan birga, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining qabul qilinayotgan qarorlar sifatini oshirish borasidagi mas'uliyatini ham ko'p jihatdan kuchaytirish maqsadida “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida” Qonun qabul qilish;

– demokratlashtirish jarayonlarida ahamiyati tobora ortib borayotgan axborot-kommunikatsiyalari sohasining eng muhim tarmog'i – teleradio tizimini rivojlantirishga qaratilgan “Teleradioeshittirishlar to'g'risida” Qonun qabul qilish;

– Ommaviy axborot vositalarining erkinligi va mustaqilligini yanada mustahkamlash, mualliflik huquqlari va intellektual mulkni ishonchli himoya qilishning huquqiy kafolatlari va mexanizmlarini kuchaytirish, axborot sohasiga bozor mexanizmlarini joriy qilish;

– “Ommaviy axborot vositalari faoliyatining iqtisodiy asoslari to'g'risida”, “Ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash kafolatlari to'g'risida”gi qonunlarni qabul qilish taklif etildi.

Shuningdek, konsepsiyada ommaviy axborot vositalarining fuqarolik jamiyati institutlari tizimidagi o'rni va rolini yanada mustahkamlashga, fuqarolarning so'z erkinligi va tanlash erkinligini ta'minlashga qaratilgan konstitutsiyaviy huquqlarini yanada to'liq ro'yobga chiqarishga yordam berish maqsadida “Ommaviy axborot vositalari to'g'risida”, “Axborot erkinligi

prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi va boshqa bir qator qonun hujjatlariga tegishli o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish, “Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida”gi Qonun normalarini yanada takomillashtirish vazifalari belgilab berilib, bu borada samarali tizimni yaratishga qaratilgan Davlat dasturini ishlab chiqib, amalga oshirish vazifasi ham qo‘yildi.

IV. O‘zbekistonda saylov huquqi erkinligini ta‘minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish sohasidagi vazifalar:

Konsepsiyada bu masalada “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi Qonunning 27-moddasi hamda “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to‘g‘risida”gi Qonunning 25-moddasiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish taklif etilib, saylov qonunchiligida saylov kampaniyasining ushbu muhim bosqichini amalga oshirish jarayonida deputatlikka nomzodlar va siyosiy partiyalarga teng sharoitlar yaratish mexanizmlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan normalarni nazarda tutish lozimligi, “Saylovoldi tashviqoti” tushunchasining o‘ziga aniq ta‘rif berish, bunday tashviqotni olib borish shartlari, turlari, ruxsat etilgan shakl hamda usullarini qonunchilik yo‘li bilan belgilab qo‘yish zarurligi ta‘kidlandi.

Konsepsiyada “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi Qonunning 41-moddasi hamda “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to‘g‘risida”gi Qonunning 38-moddasiga qo‘shimchalar kiritish taklif etilib, **muddatidan oldin ovoz berish tartib-qoidasi bilan bog‘liq muammoning** yechimi masalasiga to‘xtaladi. Shuningdek, konsepsiyada “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi, “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to‘g‘risida”gi qonunlarga “ovoz berish kuniga qadar qolgan besh kun ichida, shuningdek, ovoz berish kuni jamoat fikri so‘rovlari natijalarini, saylov natijalari prognozlarini va o‘tkazilayotgan saylov bilan bog‘liq boshqa tadqiqotlarni nashr etish (e‘lon qilish), shuningdek, ularni umumiy foydalanishdagi axborot-telekommunikatsiya tarmoqlariga (shu jumladan, Internet tarmog‘iga) joylashtirish taqiqlanadi” degan normani kiritish, O‘zbekiston Ekologik harakatidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga deputatlar saylovining ochiqligi va oshkoraligini ta‘minlash maqsadida “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga O‘zbekiston Ekologik harakatining Qonunchilik palatasi deputatlarini saylash bo‘yicha konferensiyalarida kuzatuvchilarning ishtirok etish huquqini belgilab beradigan qo‘shimcha kiritishning tavsiya etilishi ham saylov tizimining yanada demokratlashuviga xizmat qiladi.

V. Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish sohasidagi vazifalar:

Bu borada konsepsiyada bugungi kunda fuqarolik institutlari, nodavlat, notijorat tashkilotlari demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanayotganligini, fuqarolarning o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashayotganligini inobatga olib, fuqarolik jamiyati institutlari tizimida nodavlat, notijorat tashkilotlarini tobora rivojlantirish, ularning mustaqil ish yuritishi va chinakam mustaqilligini ta'minlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, faoliyatini tashkiliy-huquqiy, moddiy-texnikaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga qaratilgan "Nodavlat, notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida" gi Qonunni qabul qilish taklifi kiritildi.

Shuningdek, konsepsiyada fuqarolik jamiyati institutlarining yanada rivojlanishiga erishish, amalga oshirilayotgan islohotlarning ochiq-oshkoraligi va samaradorligini ta'minlashda, ularning rolini kuchaytirish maqsadida "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida" gi Qonunning qabul qilinishi ham maqsadga muvofiq deb topildi.

Mahallani aniq yo'naltirilgan asosda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirish, shuningdek, uni davlat boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati olib borish tizimidagi vazifalarini yanada kengaytirishga jiddiy e'tibor qaratish maqsadida "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga va "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, "O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to'g'risida" gi Qonunni qabul qilish taklif qilindi.

Konsepsiyada O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga jamiyat va davlat qurilishi, hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning turli sohalarida nodavlat, notijorat tashkilotlari huquqlarini belgilab bergan qonun hujjatlari talablarini buzganlik uchun davlat organlari mansabdor shaxslarining javobgarligini kuchaytirishni nazarda tutadigan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish lozimligi ta'kidlanib, shular qatorida sog'liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, aholini, ayniqsa, yoshlarni ish bilan ta'minlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash va shu kabi katta sotsial ahamiyatga molik boshqa masalalar bo'yicha muhim davlat dasturlarini amalga oshirishda nodavlat, notijorat tashkilotlari ishtirokining huquqiy asosini yaratib beradigan qonun hujjatlari majmuasini ishlab chiqish vazifalari ham belgilab berildi.

Konsepsiyada atrof-muhitni himoya qilishni ta'minlash tizimida nodavlat, notijorat tashkilotlarining roli va o'rnini belgilashga qaratilgan "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonun loyihasini ishlab chiqish va boshqa qator qonun hujjatlarini qabul qilish vaqti kelganligi ham ta'kidlandi.

VI. Demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish sohasidagi vazifalar:

Prezident I.A.Karimov mazkur konsepsiya bo'yicha qilgan ma'ruzasida o'tgan davrning "xolisona tahlili, islohotlarimizning mantiqi va izchilligi, ularning eng zamonaviy bozor normalariga muvofiqqligini baholash iqtisodiyotni boshqarish tizimini yanada chuqurlashtirish, takomillashtirish va liberallashtirish bo'yicha jiddiy ehtiyoj mavjudligini ko'rsatmoqda", deb ta'kidlagan edi.

Konsepsiyada bu ehtiyojlardan kelib chiqib, xususiy mulkning huquq va himoyasini mustahkamlash, har qaysi xususiy mulkdor qonuniy yo'l bilan qo'lga kiritgan yoki yaratgan o'z mulkining daxlsizligiga aslo shubha qilmasligini ta'minlaydigan ishonchli kafolatlar tizimini yaratish, bozor iqtisodiyotining negizi hisoblangan xususiy mulkka nisbatan davlat tomonidan berilayotgan asosiy kafolatlarni mustahkamlashga qaratilgan "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi, "Tadbirkorlik faoliyati sohasida ruxsat berish tartib-qoidalari to'g'risida"gi Qonunni ishlab chiqish va qabul qilish muhim ahamiyat kasb etishi ham ta'kidlab o'tildi.

Konsepsiyada milliy an'analarga, xo'jalik yuritish faoliyatining mavjud holatiga to'la mos keladigan oilaviy biznesni qonuniy belgilab qo'yish vazifasi ilgari surildi. Shuningdek, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunni tanqidiy qayta ko'rib, yangi tahrirda ishlab chiqish va qabul qilish hamda unda korporativ boshqaruv va nazorat organlarining vakolatlari, huquqlari va javobgarligini yanada aniq belgilash, "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning yangi tahririni ishlab chiqish, bugungi kunda eskirib qolgan "Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida"gi Qonunini e'tiborga olgan holda, "Raqobat to'g'risida"gi yangi qonunni ishlab chiqish va qabul qilish, 1991-yilda qabul qilingan "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida"gi Qonunini qayta ko'rib chiqishni va yangi tahrirda qabul qilishni hamda "Kredit byurolari faoliyati va kredit axboroti almashuvi to'g'risida", "Garov reyestri to'g'risida", "Riyeltorlik faoliyati to'g'risida", "Investitsiya va pay fondlari to'g'risida", "Innovatsiyalar va iqtisodiyotni modernizatsiya qilish to'g'risida"gi va boshqa yangi qonunlarni qabul qilish lozimligi uqtirildi.

Mazkur konsepsiya O‘zbekistonni isloh etish va modernizatsiya qilish borasida mamlakatda 23 yil oldin boshlangan jarayonni davom ettirish bo‘yicha Oliy Majlis tomonidan uzoq muddatli harakat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishga asos bo‘lib xizmat qila boshladi.

2011-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining beshinchi yalpi majlisida davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimini yanada demokratlashtirish, davlat hokimiyatining uchta subyekti: davlat boshlig‘i – Prezident, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar o‘rtasida vakolatlarning yanada mutanosib taqsimlanishini ta‘minlash, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy islohotlarni amalga oshirishda, mamlakatni yangilash va modernizatsiya qilishda parlamentning, siyosiy partiyalarning roli hamda ta‘sirini kuchaytirish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida (78, 80, 96 va 98-moddalariga)”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni ko‘rib chiqildi.

Qonunga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga Bosh vazir nomzodini ko‘rsatish va tasdiqlashning yangi, demokratik prinsiplariga javob beradigan konstitutsiyaviy tartibi kiritildi. Bosh vazir nomzodi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida eng ko‘p deputatlik o‘rinlarini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi eng ko‘p deputatlik o‘rinlarini qo‘lga kiritgan bir necha siyosiy partiyalar tomonidan ko‘rsatiladigan bo‘ldi.

Konstitutsiyaga kiritilgan boshqa tuzatishlar ham muhim prinsiplar ahamiyatga ega. Chunonchi, mamlakatning huquqiy tizimiga ishonchsizlik votumi instituti kiritildi. Bunda Bosh vazir va Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi o‘rtasida doimiy ziddiyatlar kelib chiqqan taqdirda, tegishlicha Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a‘zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ovozlari olinganida parlament Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumini chiqarishi mumkin. Bu holda mamlakat Prezidenti Bosh vazirni lavozimidan ozod etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Ishonchsizlik votumining qabul qilinishi butun hukumatning iste‘foga chiqishiga olib boradi. Ushbu institut qonunlar ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda parlamentning vakolatlarni kengaytirish maqsadida kiritilgan bo‘lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatning mamlakat siyosiy tizimidagi rolini oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilayotgan o‘zgartish va qo‘shimchalarga muvofiq belgilangan tartibga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Hisob palatasining raisini tayinlash va lavozimidan ozod qilish to‘g‘risidagi farmonlari Senat tomonidan tasdiqlanadi, Prezidentning O‘zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolatiga kiritilgan masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilishi mumkinligi haqidagi norma chiqarib tashlandi.

Shuningdek, Oliy Majlis Senatining yalpi majlisida “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida (78, 80, 93, 96 va 98-moddalariga)”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni ma’qullandi. Ushbu Qonunga muvofiq amaldagi qonun hujjatlarining normalari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga kiritilgan tuzatishlarga muvofiqlashtirildi.

Bir so‘z bilan aytganda, 3 yil davomida konsepsiyada ko‘zda tutilgan 50 dan ziyod qonun va huquqiy-me‘yoriy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish dasturi bo‘yicha mamlakat Parlamenti tomonidan 10 dan ortiq qonun qabul qilindi, 30 dan ortiq qonun loyihasi esa keng jamoatchilik, jumladan, xorijiy ekspert tashkilotlarini jalb etgan holda ko‘rib chiqish va muhkama etishga taqdim etildi.

Milliy taraqqiyotning hozirgi pallasida mamlakatni isloh etish va modernizatsiya qilish jarayonlari yanada kuchaytirilib, pirovard strategik maqsad – ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo‘lidagi harakatlar o‘z samarasini bermoqda.

Tayanch so‘z va iboralar:

Sobiq ittifoqning yemirilish jarayoni. “Ittifoq shartnomasi”. 1991-yil 19 – 21-avgust voqealari. GKCHP (FHDQ). KPSS faoliyatining to‘xtatilishi. 1991-yil 31-avgust O‘zbekiston Oliy Kengashi VI sessiyasi. O‘zbekiston Respublikasi “Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida” gi Qonun. O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining tarixiy ahamiyati. 1991-yil 29-dekabr-dagi referendum. Mustaqillik bergan imkoniyatlar. O‘zbekiston Respublikasi Davlat ramzlari va Konstitutsiyasi. Siyosiy islohotlar. Huquqiy demokratik davlat. Fuqarolik jamiyati. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi yangi bosqich.

Bilimingizni sinab ko‘ring

1. Sobiq ittifoqning parchalanishi arafasida markazdagi kuchlar qanday bo‘lmasin ittifoqni saqlab qolishga urinib, 1990-yil noyabrda maxsus

shartnoma loyihasini ishlab chiqdilar. Bu shartnomada respublikalarning huquqlari markaz ixtiyorida qolayotganligi sababli, bu shartnoma loyihasi O‘zbekiston tomonidan qo‘llab-quvvatlanmadi.

Bu shartnoma qanday nomlangan?

			i		o				
sh	a	r	t	n	o	m	a	s	i

2. 1991-yil 31-avgustda chaqirilgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashaning VI sessiyasida qonun qabul qilinib, bu qonun O‘zbekistonni mustaqil deb e‘lon qilinishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Chunki, O‘zbekistonning davlat mustaqilligi xalqning uzoq yillar davomida olib borgan og‘ir va mashaqqatli kurashining qonuniy natijasi bo‘ldi.

Katakchalarda ushbu Qonun nomi yashiringan. Uni toping.

			a			a					
				a		i					
t	o‘	g‘	r	i	s	i	d	a	g	i	

3. Mustaqillikdan keyin O‘zbekiston xalqaro munosabatlarda mustaqil subekt sifatida ishtirok etish, boshqa mamlakatlar bilan o‘zaro manfaatli shartnoma va bitimlar tuzish, shuningdek, xalqaro nufuzli tashkilotlarga tenglik asosida a‘zo bo‘lib kirish imkoniga ega bo‘ldi.

Bu tenglik bilan bog‘liq qanday asos edi?

t	e	n	g				u			i		i
			o				d					

4. O‘zbekiston bayrog‘i yurtning o‘tmishi, buguni va kelajagining yorqin ramzidir. Unda timsollar tilida yaxshilikni, donishmandlikni, shon-shuhrat va sadoqatni bildiradigan bir rang berilgan. Ushbu rang nomi katakchalarda yashiringan. Uni toping.

			i		r	a	n	g
--	--	--	---	--	---	---	---	---

5. 2003-yil 24-apreldagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VIII sessiyasida “Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining prinsiplari to‘g‘risida” Konstitutsiyaviy Qonun qabul qilindi. Mazkur Qonunga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining V bo‘limining bir qator boblariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi.

89-moddaning “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ayni vaqtda ... raisi hisoblanadi”, degan 2-xatboshisi olib tashlandi.

89-moddaning 2-xatboshisida nuqtalar o‘rniga nima yozilgan edi?

			i			a			
a			a		a		n		n
	r		a		n		s		i

6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining huquqiy holati Konstitutsiyaning V bo‘lim XVIII bobida va 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to‘g‘risida”gi Qonunda belgilangan.

Bu qonunlarga ko‘ra, Oliy Majlis Oliy davlat vakillik organi hisoblanib, qanday hokimiyatni amalga oshiradi?

			u				a				i
--	--	--	---	--	--	--	---	--	--	--	---

7. Mustaqillik yillarida o‘tkazilgan barcha xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylovlarda respublikada faoliyat olib borayotgan siyosiy partiyalar, hokimiyat vakillik organlari va saylovchilarning bir nomdagi guruhlaridan ham nomzodlar ko‘rsatilib, unda partiyalar va guruhlar o‘z nomzodlarini deputat bo‘lib saylanishlari uchun kurashdilar.

Yuqorida zikr etilgan saylovchilarning guruhlari qanday nomlanadi?

s	a	y	l	o	v	ch	i	l	a	r	n	i	n	g
	a		a						s					

g	u	r	u	h	l	a	r	i
---	---	---	---	---	---	---	---	---

8. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida 10 mingga yaqin mahalla, qishloq, ovul va shaharcha fuqarolar yig‘inlari – o‘zini o‘zi boshqarish organlari tashkil etilib, o‘z-o‘zini boshqaruvning moliyaviy faoliyatini mustahkamlovchi chora-tadbirlar ham ko‘rilgan. Bu borada aholiga kompleks tarzdagi savdo, maishiy va madaniy xizmatlar ko‘rsatadigan maskanlar o‘z faoliyatini boshlagan.

Katakchalardan bu maskanlarning nomini toping.

			a		l	a	r
--	--	--	---	--	---	---	---

9. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 67-moddasida “Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to‘g‘riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar”, deyilgan.

Shuningdek, ushbu moddada Ommaviy axborot vositalari (OAV) da “taqiqga o‘xshash bir narsaga yo‘l qo‘yilmaydi”, deb yozib qo‘yilgan. Xo‘sh, OAVlarda nimaga yo‘l qo‘yilmasligi yozib qo‘yilgan?

	y			u		g	a
--	---	--	--	---	--	---	---

10. Davlat rahbarining 2010-yil 12-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisida qilgan ma‘ruzasi o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra, davlat va jamiyat rivojining prinsipial jihatdan yangi bosqichida mamlakatni modernizatsiya qilish bo‘yicha boshlangan keng ko‘lamli ishlarni yanada izchil davom ettirish uchun yo‘nalish beruvchi hujjat hisoblanadi.

Yo‘nalish beruvchi bu hujjatning nomini toping.

	a			u	
--	---	--	--	---	--

XVII BOB. MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONNING IQTISODIY TARAQQIYOTI

Mavzu rejasi:

1. O‘zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi, uning strategiyasi, ustuvor yo‘nalishlari va bosqichlari.
2. Tarkibiy o‘zgarishlar. Ko‘p tarmoqli iqtisodiyotning yaratilishi. Qishloq xo‘jaligidagi islohotlar.
3. Qulay investitsiya muhitining yaratilishi. Bank-moliya va soliq tizimi-ning takomillashtirilishi.
4. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mamlakat iqtisodiy o‘sish sur‘atlarining ta‘minlanishi. Modernizatsiya jarayonlarining chuqurlashuvi va bundan kutilayotgan natijalar.
5. Xalq farovonligini yuksaltirish. Ijtimoiy dasturlar va milliy taraqqiyot.
6. Taraqqiyotning o‘zbek modeliga xos ustuvor tamoyillarning e‘tirofi.

1. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BOZOR MUNOSABAT- LARINING SHAKLLANISHI, UNING STRATEGIYASI, USTUVOR YO‘NALISHLARI VA BOSQICHLARI

O‘zbek xalqining demokratik jamiyat qurishdan ko‘zlagan maqsadi, shu yurtda yashaydigan barcha insonlar uchun millati, tili va dinidan qat’i nazar, munosib hayot sharoiti yaratib berish, rivojlangan demokratik mamlakatlardagi kabi kafolatlangan yuqori va yangi sifatdagi turmush darajasi hamda erkinliklarni ta‘minlashdan iboratdir. Bunday strategik maqsadni amalga oshirishning iqtisodiy asosi ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti hisoblanadi.

Ming yillar davomida ajdodlarning ishlab chiqargan mahsulotlarini, tabiiy boyliklarini dunyo bozorlariga chiqargani, mol almashganliklari bozor munosabatlari o‘zbek xalqi uchun yangilik emasligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, bozor munosabatlariga o‘tish uchun imkoniyatlar eshigi ochildi. Bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurishning asosiy yo‘nalishlari O‘zbekiston Prezidenti I.Karimov tomonidan ishlab chiqilib, dunyodagi rivojlangan mamlakatlarning yirik mutaxassislari, davlat arboblari tomonidan tan olindi.

Mazkur taraqqiyot modelini ishlab chiqishda aynan Prezident tomonidan milliy davlatchilik asoslarini qayta tiklash va yangicha asosda shakllantirish,

mamlakatni iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, milliy qadriyatlar va g'urur-iftixor tuyg'usini yuksaltirish, jamiyatni tubdan yangilash, zamonaviy dunyo-qarashga, yuksak ma'naviyatga ega shaxsni tarbiyalash kabi dolzarb masalalarga alohida e'tibor qaratildi. Buning natijasida faqat iqtisodiy sohani emas, balki davlat qurilishi, ijtimoiy va ma'naviy jabhalari qatori jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olgani bilan jahondagi boshqa milliy modellardan farq qiladigan taraqqiyotning o'zbek modeliga asos solindi.

Yurtboshi Islom Karimovning mustaqillikning dastlabki yillarda nashr etilgan asarlari va ma'ruzalaridayoq bozor iqtisodiyotiga o'tishdan ko'zlangan maqsadni aniq belgilab berdi. Xususan, 1992-yil 2-3-iyulda XII chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida qilgan nutqida Prezident "Bozor munosabatlariga o'tish – ko'r-ko'rona maqsad emas, balki iqtisodni o'nglash, jamiyatni yangilash yo'li. Demokratik davlat qurmoqchi ekanmiz, eng avval, ijtimoiy adolat prinsiplariga sodiq bo'lib qolishimiz kerak"... "Agar bozor yetim-yesirlarning, qariyalar va kambag'al-nochor odamlarning ko'z yoshi evaziga quriladigan bo'lsa, bunaqa bozorning uyi kuysin"¹ degan edi.

Prezident tomonidan ishlab chiqilgan "O'zbek modeli" tamoyillarining asosiy mazmuni quyidagilardan iborat:

- iqtisodning siyosatdan ustuvorligi, uning har qanday mafkuraviy tazyiqlardan xoli bo'lishi va u o'ziga xos ichki qonunlarga muvofiq rivojlanmog'i kerak;

- davlat bosh islohotchi bo'lib, u islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishi va ularni izchillik bilan amalga oshirishi lozim;

- bozor munosabatlariga o'tishda qonun ustuvorligi, qabul qilingan Konstitutsiya va qonunlarga hamma amal qilishi shart;

- bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda aholini himoya qilishning kuchli ijtimoiy siyosatini o'tkazish;

- bozor iqtisodiyotiga o'tish hech qanday sakrashsiz, evolyutsion yo'l bilan bosqichma-bosqich amalga oshirilishi zarur.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida o'tmish madaniyati va qadriyatlarini tiklash, yetim-yesir, qariya va kambag'al, kam ta'minlangan aholi qatlamlarini himoya qilish, qo'llab-quvvatlash, kishilarni ruhiy va ma'naviy jihatdan yuksaltirish kabi vazifalar bosh maqsad qilib qo'yildi.

Yurtboshining O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi X sessiyasi (1992) da qilgan nutqida "Bozor iqtisodiyoti deb inson ma'naviyatini unutish gunoh

¹ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. – T.: "O'zbekiston", 1996. – 26-b.

bo'ladi. Nuqul pul va foyda ketidan quvsak-da, ammo odamlarimiz ruhan qashshoq bo'lib qolishsa – bunday jamiyatning hech kimga keragi yo'q"¹, deb qayd etgan edi.

Shu tariqa hayotga joriy etila boshlagan "O'zbek modeli" mamlakatda jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlarini o'zida aks ettirdi.

Jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat qilib belgilandi:

– iqtisodiy siyosatda dehqonchilik, umuman, qishloq xo'jaligi yetakchi tarmoq hisoblanadi;

– rubl amal qiladigan sharoitda iste'mol bozorini himoya etish, davlat mustaqilligining asosiy belgisi hisoblanadigan milliy valyutaga o'tish;

– bozor infrastrukturasi shakllantirish, avvalo, maishiy va boshqa turdagi xizmat ko'rsatish hamda savdo sohasidan boshlanib, asta-sekin banklarni, birjalarni, auditorlik firmalari, sug'urta kompaniyalarini qamrab olishi;

– iqtisodni jonlantirish uchun korxonalarni xususiylashtirish ishiga jiddiy kirishish;

– iqtisodni to'g'ri yo'lga solishda ishlab chiqaruvchining iste'molchiga nisbatan zo'ravonligini tugatish uchun monopolizmga qarshi choralar belgilash, erkin raqobatni vujudga keltirish uchun shart-sharoitlarni yaratish.

Bozor islohotlarini amalga oshirish dasturiga ko'ra, ustuvor vazifalar bosqichma-bosqich hal qilinadi.

Birinchi bosqichda totalitar tuzumdan hozirgi zamon bozor munosabatlariga o'tish davridagi bir-biriga bog'liq ikki vazifani bir vaqtda hal qilishga to'g'ri keldi: ma'muriy buyruqbozlik tizimining og'ir oqibatlarini tugatib, iqtisodni barqarorlashtirish va bozor munosabatlarining negizini shakllantirish. Bu bosqichda iqtisodiy islohotning g'oyat muhim yo'nalishlari O'zbekiston Prezidenti tomonidan belgilab berildi. Bular quyidagilar:

– o'tish jarayonining huquqiy asoslarini shakllantirish, islohotlarning qonuniy-huquqiy bazasini mustahkamlash va rivojlantirish;

– qishloq xo'jaligida mulkchilikning yangi shakllarini vujudga keltirish;

– ishlab chiqarishning pasayib borishiga barham berish.

Iqtisodiy islohotlarni huquqiy asoslovchi qonun-qoidalar yuridik tashkilotlar va yetuk olimlar tomonidan tayyorlandi va jahonning yirik mutaxassislari tomonidan quvvatlanib tan olindi.

Dastlabki vaqtning o'zida iqtisodiy munosabatlarning huquqiy negizini barpo etadigan 100 ga yaqin asosiy qonun hujjatlari qabul qilindi. Iqtisodiy islohot, tadbirkorlik va chet el investitsiyalari bo'yicha esa Prezident huzurida maxsus idoralararo kengash tuzildi.

¹ O'sha yerda.

Prezident Oliy Kengashning X sessiyasi (1992)da qilgan ma’ruzasida ol-
dinda turgan vazifalarni amalga oshirish uchun davlatning xo’jalik ishlariga
aralashuvini kamaytirish lozimligi xususida “Yana takror aytaman: odamlar-
ga, xo’jaliklarga iqtisodiy erkinlik berish kerak. Iqtisodiy erkinlik diyorimiz-
da tezroq qaror topsin”, – deb bozor munosabatlariga o’tishdan ko’zlangan
maqsadning mohiyatini ochib berdi.

Ushbu nutqda iqtisodiy islohotlarning butun dasturida aytib o’tilgan eng
asosiy ustuvor vazifalar bilan bir qatorda quyidagi:

- ta’lim va madaniyatni rivojlantirish hamda isloh qilish;
- aqliy va ma’naviy salohiyatni mustahkamlash;
- aholini ijtimoiy himoya qilish kabi ustuvor yo’nalishlar ham aniq-ravshan
ko’rsatib berildi.

Prezident I.A.Karimovning “O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqur-
lashtirish yo‘lida” nomli asarida O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga
oshirishning strategik maqsadlari, ustuvor vazifalari ishlab chiqilib, strategik
maqsadlar mohiyati ochib berildi:

1. Ijtimoiy yo’naltirilgan bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich shakl-
lantirish, qudratli va tinimsiz rivojlanib boradigan, milliy boylikning ortishini,
kishilar hayoti va faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni ta’minlaydigan iqtis-
odiy tizimni barpo etish.

2. Ko’p tarmoqli iqtisodiyotni yaratish, insonning mulkdan mahrum
bo’lishiga barham berish, tashabbuskorlik va uddaburonlikni butun choralar
bilan rivojlantirish negizi bo’lgan xususiy mulkning davlat tomonidan himoya
qilinishini ta’minlash.

3. Korxonalar va fuqarolarga keng iqtisodiy erkinliklar berish, ularning
xo’jalik faoliyatiga davlatning bevosita aralashuvidan voz kechish, iqtisodi-
yotni boshqarishning ma’muriy-buyruqbozlik usullarini bartaraf etish, iqtis-
odiy omillar va rag’batlantirish vositalaridan keng foydalanish.

4. Iqtisodiyotda moddiy, tabiiy va mehnat resurslaridan samarali foydala-
nishni ta’minlaydigan chuqur strukturaviy o’zgarishlar qilish, raqobatbardosh
mahsulotlarni ishlab chiqarish, jahon iqtisodiy tizimiga qo’shilib borish.

5. Odamlarning har biriga o’z mehnatini sarflash sohasi va shakllarini
mustaqil belgilash imkonini berish, kishilarda yangicha iqtisodiy fikrlashni
shakllantirish, ularning dunyoqarashini o’zgartirish¹ lozim edi. Shuningdek,
mazkur asarda mamlakatning bozor islohotlarini amalga oshirish dasturi
to’g’risida fikr yuritilib, dastur ustuvor vazifalarni bosqichma-bosqich hal
qilinishiga asoslanishini alohida qayd etib o’tildi.

¹ *Karimov I.A.* O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. – T.:
“O‘zbekiston”, 1995. – 18-b.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishdagi birinchi bosqichda ikki muhim vazifa: ma'muriy-buyruqbozlik tizimining og'ir oqibatlarini yengish, tanglikka barham berish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish va respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda bozor munosabatlarining negizlarini shakllantirishni hal etishga to'g'ri keldi.

Mamlakat taraqqiyot yo'lining afzalliklari o'zbek modelida har tomonlama o'z aksini topgan quyidagi omillar: ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlariga o'tish borasida jahondagi rivojlangan mamlakatlarning O'zbekiston uchun maqbul bo'lgan tomonlari, ilg'or tajribalari, usul va vositalarining samarali yo'llari belgilanib olingani; xalqning o'ziga xos milliy mentaliteti, milliy urf-odatlarini, an'ana va qadriyatlarini, madaniy merosi to'liq e'tiborga olingani; mamlakatda vujudga kelgan siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy shart-sharoitlar, aholining turmush darajasi hisobga olingani islohotlarni amalga oshirishda xalqning bunyodkorlik va yaratuvchanlik kuchiga tayanildi. Shuningdek, o'zbek modelining amaldagi muvafaqqiyatini ta'minlashda xalqning vatanparvarlik va fidoiylilik fazilatlariga ham muhim e'tibor qaratildi.

Bozor munosabatlariga o'tishning asosiy shartlaridan biri mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishni amalga oshirish edi. Bu davlat monopoliyasi tugatilishiga, ma'muriy buyruqbozlik tizimining buzilishiga va bozor iqtisodiyotiga asos solinishiga, xususiy mulkdorlar keng qatlamining shakllanishiga va xorijiy sarmoyadan foydalanib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali aholining turmush darajasi yaxshilanishiga xizmat qilar edi.

Mulkni xususiylashtirish va ko'p tarmoqli iqtisodni shakllantirish O'zbekistonda o'ziga xos yo'l bilan amalga oshirildi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishdan maqsad: 1) Davlat monopoliyasini tugatib, ma'muriy buyruqbozlik tizimiga barham berish va bozor iqtisodiyotiga asos solish; 2) Xususiy mulkdorlikning keng qatlamini shakllantirish; 3) Xorijiy sarmoyadorlarga keng yo'l ochish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan birgalikda aholining turmush tarzini yuksaltirishdan iborat edi.

Xususiylashtirishning birinchi bosqichida (1992-1993-yillar) "kichik xususiylashtirish" amalga oshirildi. Buning oqibatida asosan maishiy xizmat va savdo korxonalari, transport va qurilishning kichik korxonalari, davlat sanoat va mahsulotlarni qayta ishlash korxonalarining mulk shaklini o'zgartirdi. Bular mulkning ijara, jamoa va aksiyadorlik shakliga aylantirildi. Uy-joylar keng miqyosda xususiylashtirilib, aholining ayrim qismiga tekin, boshqa qismiga esa arzon narxda xususiy mulk etib berildi.

Qishloq xo'jaligida 770 kolxoz va davlat xo'jaliklari xususiylashtirilib, jamoa va ijara xo'jaliklariga aylantirildi. Lekin qishloqda bu jarayon sekin

kechdi va qiyinchiliklarni bartaraf etishga to‘g‘ri keldi. Mamlakatda mulkdorlar sinfi kichik korxonalar va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish, pul mablag‘larini omonat kassalari yoki banklarga qo‘yish, qimmatbaho qog‘ozlarga aylantirish yo‘li bilan shakllana boshladi. Mulknı davlat tasarrufidan chiqarish jarayonining birinchi bosqichidagi eng muhim xulosa mulkdorlar sinfining shakllana boshlagani, xususiylashtirish mexanizmining ishlab chiqilishi, iqtisodiy islohotlarga nisbatan odamlar ruhiyati va munosabatini o‘zgarishi bo‘ldi.

Davlat mulkini xususiylashtirishning ikkinchi bosqichi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 21-yanvardagi “Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirishning chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida olib borildi. Bu davrda ochiq shakldagi aksiyadorlik jamiyati qurish, korxonalar aksiyasini chiqarish, kim oshdi savdosi orqali davlat mulkini shaxslarga sotish, qimmatbaho qog‘ozlarni chiqarish va xususiylashtirishni yoppasiga olib borish uchun sharoit yaratish ishlari amalga oshirildi.

1994-yil oxirigacha 54 000 korxonalar mulk shaklini o‘zgartirdi. Xususan, 34 % xususiy, 48 % aksiyadorlik, 16 % jamoa, 1 % ijara xo‘jaligiga aylandi. Iqtisodiy islohotlarning borishi, uning muvaffaqiyatlari va muammolari respublika Oliy Majlisining IV sessiyasi (1995-yil dekabr)da va Vazirlar Mahkamasining majlisida (1996-yil fevral), Prezident I.A.Karimovning nutqlarida keng yoritildi.

Shu bois, 1995-yil mamlakatning barcha sohalarini isloh qilishda tub buri-lish yili deb e‘tirof etildi.

Ikkinchi bosqichda Prezident I.A.Karimovning “O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida” (1995-yil) asarida qo‘yilgan masalalar, xususan, xususiylashtirish va raqobatchilik muhitini shakllantirish jarayonlarini chuqurlashtirish, makroiqtisodiy barqarorlikka erishish, milliy valyutani mustahkamlash, iqtisodiyot tarkibiy strukturasi- ni tubdan o‘zgartirish chora-tadbirlari amalga oshirildi. 2000-yilda xususiylashtirish davlat dasturi bo‘yicha ko‘zda tutilgan 167 obyekt o‘rniga 374 ta obyekt xususiylashtirildi. Ularning negizida 152 ta hissadorlik jamiyati, 103 ta xususiy korxonalar tashkil etildi. Shu yili davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishdan 14,3 milliard so‘m mablag‘ tushdi. Bu 1999-yilgi ko‘rsatkichdan 1,6 barobar ko‘pdir.

2000-yilning boshlariga kelib 87,4 foiz mulk nodavlat, 12,6 foizi davlat mulki ko‘rinishida ish yuritmoqda edi. Respublikadagi jami 60 mingga yaqin korxonadan 50,5 mingga yaqini xususiylashtirilgan korxonalar edi.

Bugungi kunda erishilgan muvaffaqiyat va natijalarning bahosini anglab yetish, olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning naqadar to‘g‘ri va asosli ekani-

ni tushunish uchun mustaqil taraqqiyotning dastlabki pallasidagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni yana bir bor esga olish o‘rinli bo‘lur edi. Bu haqda Prezident Islom Karimovning “O‘zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo‘li” risolasida batafsil bayon qilingan. Bu kitobda, jumladan, o‘tgan asrning 90-yillari boshida mamlakatda bor-yo‘g‘i o‘n-o‘n besh kunga yetadigan bug‘doy va un zaxirasi qolgan paytlar ham bo‘lib, yurt amalda ocharchilik ostonasiga kelib qolgani, iqtisodiyotning asosan xomashyo tayyorlashga yo‘naltirilib, bir yoqlama rivojlanish hisobidan mo‘rt va nochor holga tushib qolgani; hali yangi milliy valyuta joriy etilmagan sharoitda iqtisodiyotning fojiali ravishda inqirozga yuz tutishi va inflyatsiyaning keskin o‘shib ketishi; paxta yakkahokimligining ekologik va ijtimoiy vaziyatni jar yoqasiga olib kelib qo‘ygani; ommaviy ishsizlikning kuchayib, aholi turmush darajasining haddan tashqari pasayib ketgani kabi holatlar zudlik bilan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda iqtisodiyotni tubdan o‘zgartirish zarurligini ko‘rsatgani bayon etilgan.

Shu bois, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasini tubdan o‘zgartirishga qaratilgan tarkibiy islohotlar markaziga mamlakat aholisi farovonligini ta‘minlash va eng avvalo aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish masalasi asosiy vazifa qilib qo‘yildi.

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, 1990-yili O‘zbekistonga 454,8 ming tonna un, 183,9 ming tonna kartoshka, 1401 ming tonna sut mahsulotlari va shu kabi hayotiy zarur tovarlarni qo‘shni respublikalardan olib kelishga majbur bo‘lingan. Bunday holat sobiq sovet davrida yuritilgan bir yoqlama iqtisodiy siyosatning natijasi edi. Ana shunday mahsulotlar evaziga O‘zbekiston asosan paxta xomashyosini yetkazib berishi talab qilinar edi. Bunday siyosat, hech shubhasiz, mamlakat iqtisodiy xavfsizligi, uning mustaqilligiga juda katta tahdid solar, milliy manfaatlarga mutlaqo javob bermas edi.


Bunday o‘ta qaltis vaziyatni bartaraf etish maqsadida mamlakat rahbari tomonidan aholini eng avvalo oziq-ovqat, xususan, un mahsulotlari bilan ta‘minlash vazifasi qo‘yildi. Qishloq xo‘jaligida davom etib kelgan paxta yakkahokimligiga barham berilib, ekin maydonlarining katta qismi don mahsulotlariga ajratildi. Agar mustaqillikka erishilgan yillarda paxta maydonlari umumiy ekin maydonlarining 75 foizidan ko‘proq qismini tashkil etgan bo‘lsa, keyingi davrda paxta yakkahokimligini tugatish va qishloq xo‘jalik ekinlari tarkibini optimallashtirish chora-tadbirlari olib borilishi natijasida 2008-yilda paxta maydonlari deyarli 39,5 foizga qadar qisqartirildi. Natijada mamlakatda g‘alla importiga qaramlik barham topib, tez orada g‘alla mustaqilligiga erishildi.

Agar 1991-yilda 4003 ming tonna miqdordagi don mahsulotini chetdan olib kelingan bo‘lsa, mustaqillikning dastlabki olti yili ichida bu ehtiyojni keskin

ravishda 5,4 barobar qisqartirishiga erishildi. Keyinchalik esa g'allachilik sohasini jadal rivojlantirish hisobidan bu mahsulotga bo'lgan ichki ehtiyojni to'la qondirishga muvaffaq bo'lindi. Shu tariqa mamlakatda g'alla ishlab chiqarish hajmi 1990-yildan 2012-yilgacha deyarli 3,5 baravardan ko'proq o'sdi.

Mamlakatda 2000-2011-yillarda g'allachilik bilan birga qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlarida ham tub sifat o'zgarishlari yuz berdi. Jumladan, shu davrda don ishlab chiqarish hajmi 3929,4 ming tonnadan 7747,1 tonnaga yoki 197,1 foizga, sabzavotlar 2644,7 ming tonnadan 6218,2 tonnaga yoki 253,1 foizga, poliz mahsulotlari 451,1 ming tonnadan 1246,8 ming tonnaga yoki 276,4 foizga, meva 790,9 ming tonnadan 1696,4 ming tonnaga yoki 214,5 foizga, chorvachilik mahsulotlaridan go'sht ishlab chiqarish 501,8 ming tonnadan 1461,4 tonnaga yoki 291,2 foizga, sut 3632,5 ming tonnadan 6169,0 ming tonnaga yoki 169,8 foizga va tuxum 1254,4 million donadan 3058,8 million donaga yoki 243,8 foizga oshdi.

O'zbekistonda g'alla yetishtirish hajmining o'sib borishi



Bu davrda mamlakatda oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish va tayyorlashdek g'oyat muhim strategik vazifaning muvaffaqiyatli hal etilganini umumiy hajmi 706 million dollardan ortiq bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarining eksport qilingani ham isbotlab turibdi.

2. TARKIBIY O‘ZGARISHLAR. KO‘P TARMOQLI IQTISODIYOTNING YARATILISHI. QISHLOQ XO‘JALIGIDAGI ISLOHOTLAR

Sobiq ittifoqning tarqalishi bilan respublikalar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar uzildi, oqibatda Respublikaning aksariyat korxonalari to‘xtab qoldi va mahsulot ishlab chiqarish kamaydi. Shu bois iqtisodning tarkibiy tuzilishini yangidan qurish lozim edi. Jahon bozorida raqobatga bardosh bera oladigan va aholining iste‘mol talablarini qondiradigan mahsulot ishlab chiqarishni tashkil qilish zarur bo‘ldi.

Prezident Islom Karimov iqtisodiyotdagi tarkibiy tuzilishni tubdan o‘zgartirish to‘g‘risida: “Iqtisodiy islohotlarning ikkinchi bosqichida iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishida tub o‘zgarishlarga asos solishdan iborat g‘oyat muhim vazifani hal etish kerak bo‘ladi. Bu Respublika uchun strategik ahamiyatga egadir. Tarkibiy tuzilishda chuqur o‘zgarishlarni amalga oshirish makroiqtisodiy barqarorlikka erishishning, istiqbolda O‘zbekistonning barqaror iqtisodiy o‘sishini va aholi farovonligini ta‘minlashning, jahon iqtisodiy tizimiga qo‘shilishning eng asosiy shartlaridan biridir”, deb yozgan edi. Bu ko‘rsatmalardan kelib chiqib, iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlar qilishning aniq vazifalari: iqtisodiyotning bir tomonlama rivojlanishiga chek qo‘yish, importga qaramlikni tugatish, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish va xalq iste‘moli mollariga aholining talabini qondirishdan iborat edi.

Iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun respublikada g‘oyat yirik qurilishlar qad rostladi. Mamlakatning yoqilg‘i mustaqilligiga erishish siyosati izchillik bilan rivojlantirildi. Istiqloqlga erishgan O‘zbekiston tarixda ilk bor 1995-yilda neft mustaqilligiga erishdi va neft mahsulotlariga bo‘lgan o‘z ichki ehtiyojlarini to‘la qondiribgina qolmay, istiqbolli va ishonchli eksportyor sifatida jahon bozoriga yo‘l oldi.

Ko‘rsatkich	1991-yil	2012-yil
Iqtisodiyotning milliy yoqilg‘i-energetika resurslari bilan ta‘minlanishi	70–75	100
Jumladan, neft mahsulotlari bilan ta‘minlanishi	30–35	100
Iqtisodiyotning mamlakatda yetishtirilgan g‘alla resurslari bilan ta‘minlanishi	15–18	100
Mustaqil qayta ishlanayotgan oltin rudasi	0	100

O'zbekistonda neft va gaz kondensatini ishlab chiqarish 1990-yili 2,8 mln tonnani tashkil qilgan bo'lsa, 1997-yili bu ko'rsatkich 7,9 mln tonnaga yetdi va chetga neft mahsulotlarini sotish qobiliyatiga ega bo'ldi. Jumladan, 1997-yili 250 ming tonna benzin, 600 ming tonna dizel yoqilg'isi, 450 ming tonna mazut, 100 ming tonna aviatsiya kerosini eksport qilindi. Tabiiy gaz ishlab chiqarish 1990-yilgi 40,8 mlrd kubometrda 1998-yil salkam 54,0 mlrd kubometrga ko'paydi. Aholini tabiiy gaz bilan ta'minlash yuzasidan katta yutuqlarga erishildi. Xususan, mustaqillik arafasida shahar aholisining 43 foizi, qishloqlarda esa 17 foiz aholi tabiiy gaz bilan ta'minlangan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1997-yili 64 va 48 foizni tashkil qildi. Mamlakatni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish dasturini amalga oshirish uchun ishonchli energetik baza yaratildi.

Istiqloq davrida chuqur tarkibiy o'zgarishlarning amalga oshirilishi natijasida mamlakatning yonilg'i-energetika resurslariga bo'lgan ehtiyoji o'z ichki mahsulotlari hisobidan to'la ta'minlandi. Agar 1990-yilda mamlakatda 2810 ming tonna neft va gaz kondensati ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2010-yilda bu ko'rsatkich 3700 ming tonnani tashkil etdi. Tabiiy gaz ishlab chiqarish hajmi sezilarli ravishda o'sib, 1990-yildagi 40761 mln kub metrdan 2010-yilda 60111,5 mln kub metr hajmiga yetdi.

Bunday ijobiy natijalar muqarrar ravishda mazkur mahsulotlarni chetga eksport qilish hamda eksportdan tushgan valyuta mablag'lari evaziga ishlab chiqarishni kengaytirish va modernizatsiya qilish hamda chetdan ilg'or xorijiy texnologiyalarni olib kelish imkonini berdi.

Istiqloq davrida iqtisodiyotda biz uchun mutlaqo yangi ishlab chiqarish tarmoqlari – avtomobilsozlik, sellyloza-qog'oz, qand-shakar, farmatsevtika va boshqa sohalar vujudga keldi. Respublika sanoatida yuksak texnologiyaga asoslangan va istiqbolli tarmoqlarning, ya'ni mashinasozlik, yoqilg'i-energetika, kimyo va yengil sanoat kabi sohalarining hissasi ortib bordi. O'zbekiston iqtisodiyotining tarmoq tuzilishini o'zgartirishda yangi neft konlari, Mingbuloq va Ko'kdumaloq konlarining ishga tushirilishi, Buxoro neftni qayta ishlash zavodining barpo etilishi, Yangi Angren va Tolimarjon GRESlari qurilishining jadallashtirilishi, metall ishlab chiqarishning ko'payishi muhim ahamiyat kasb etdi.

Mamlakat yalpi ichki mahsuloti tarkibida sezilarli ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Agar, 2000-yilda mamlakat yalpi ichki mahsulotida sanoatning hissasi atigi 14,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2011-yilda bu ko'rsatkich 24,1 foizni, transport va aloqaning ulushi tegishli ravishda 7,7 va 12,4 foizni tashkil etdi, xizmatlar bo'yicha bu raqam 50,5 foizga o'sdi. Qishloq xo'jaligining ulushi esa 30,1 foizdan 17,1 foizga tushdi.


Yana bir quvonarli tomoni shundaki, bu davrda mamlakat iqtisodiyoti uchun tamomila yangi bo'lgan avtomobilsozlik sanoatiga asos solindiki, bu

tufayli O‘zbekiston avtomobil ishlab chiqaruvchi davlatlar xalqaro tashkilotining 33-to‘laqonli a‘zosiga aylandi. Olib borilgan iqtisodiy islohotlar, ayniqsa, tarkibiy o‘zgarishlar tez orada o‘z samarasini berdi. Eng avvalo, xalq xo‘jaligi iqtisodiy jihatdan mustahkamlanib, ma‘muriy-buyruqbozlik tizimdan meros bo‘lib qolgan bir tomonlama ishlab chiqarishga barham berildi va milliy iqtisodiyot inqiroz holatidan chiqarildi, uning barqaror o‘shishi ta‘minlandi; makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlik mustahkamlandi. Iqtisodiyot va uning ayrim sohalaridagi mutanosiblik kuchaydi, bozor mexanizmining tarkibiy qismlari qaror topdi va uning infratuzilmalari shakllanib, rivojlandi.

O‘zbekiston yalpi ichki mahsuloti tarkibidagi o‘zgarishlar


Biz tanlagan islohotlar modelining to‘g‘ri ekani va xalqning manfaatlariga to‘liq javob berayotganini keyingi yillarda iqtisodiyotning barqaror sur‘atlar bilan o‘shib, yangi marralarga ko‘tarilib borayotgani yaqqol isbotlab bermoqda. O‘zbekistonda 1996-yildan boshlab iqtisodiy o‘shish ta‘minlanib, uning sur‘atlari 2001–2003-yillarda o‘rtacha 4 % dan, 2004–2006-yillarda 7 % dan, 2007-yildan buyon o‘rtacha 8-9 % dan yuqori bo‘lib kelmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiy o‘shish sur‘atlarining yuqoriligi va barqarorligi borasida MDH mamlakatlari orasida yetakchi o‘rinlardan birini egallab kelmoqda. Holbuki, Hamdo‘stlikdagi ayrim davlatlar hali yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish hajmining 1991-yildagi darajasiga yetgani yo‘q.



Eng muhimi, Prezident I.Karimov o'zining nutq va ma'ruzalarida qayta-qayta ta'kidlaganidek, mamlakatdagi yalpi ichki mahsulotning yuqori sur'atlar bilan o'sib borishi an'anaviy xomashyo tarmoqlari yoki jahon bozorida qulay konyunktura va ayrim xomashyo turlari hamda materiallar narxining oshib ketishi hisobidan emas, balki, birinchi navbatda, raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hamda zamonaviy xizmat ko'rsatish sohaslarini jadal rivojlantirishni belgilab beradigan jiddiy tarkibiy o'zgarishlar va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish evaziga ta'minlanmoqda.

O'zbekistonda iqtisodiy o'sish sur'atlari
(foiz hisobida)



Mamlakat ijtimoiy hayotida, jumladan, iqtisodiyot sohasida erkinlashtirish, ya'ni xo'jalik yurituvchi subyektlarning erkinligi va iqtisodiy mustaqilligini, iqtisodiy faoliyatning bozorga xos mexanizmlarining samarali amal qilishini ta'minlashga qaratilgan jarayonlarning keng amalga oshirilishi taraqqiyot va o'zgarishlarga yangi kuch baxsh etdi. Davlatning nazoratchilik va boshqaruvchilik vazifalari qisqartirilib, uning korxonalar xo'jalik faoliyatiga, birinchi galda, xususiy biznes faoliyatiga aralashuvi cheklandi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini rag'batlantirish, ularga qulay iqtisodiy sharoit yaratish maqsadida iqtisodiyotdagi soliq yuki sezilarli darajada pasaytirildi. Xususan, 2011-yilda soliq yuki 1991-yil bilan solishtirilganda, YAIMga nisbatan qariyb 2 barobar kamayib, 41,2 foizdan 22 foizga tushdi.

Iqtisodiy islohotlar orqali, eng avvalo, iqtisodiy manfaatlarni ro'yobga chiqarishning muhim vositasi hisoblangan mulkchilik munosabatlarini tubdan o'zgartirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Sobiq tuzum davridagi rejali iqtisodiyot sharoitida asosan davlat mulkining yakkahukmronligi va bu muno-

sabatlarga o‘ta rasmiyatchilik bilan yondashuv mulkchilik munosabatlarining samaradorligini deyarli yo‘qqa chiqargan edi. Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab ko‘p tarmoqli iqtisodiyotni yaratish, o‘rta mulkdorlar sinfini shakllantirish vazifasi mamlakatda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarning bosh vazifasi qilib qo‘yildi.


Mamlakatda haqiqiy mulkdorlar sinfining qaror topishi jadal sur‘atlarda amalga oshib, tez orada ijobiy natijalar bera boshladi va iqtisodiyot nodavlat sektorining ulushi sezilarli ravishda ortib bordi. Agar 1990-yilda respublika YAIM umumiy hajmining atigi 38,1 foizi iqtisodiyotning nodavlat sektorida ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 2012-yilga kelib bu ko‘rsatkich 82,5 foizni tashkil etdi.

Ayniqsa, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va chakana savdo aylanmasida bu ko‘rsatkich eng yuqori daraja – 99,9 foizga yetdi.

Respublikada kichik va xususiy tadbirkorlikni shakllantirish va rivojlantirishni ta‘minlovchi zaruriy huquqiy asos yaratildi. Amaldagi qonunchilik hujjatlarida, Respublika Prezidentining farmonlarida xususiy tadbirkorlikdan soliq olish, unga moliyaviy yordam ko‘rsatish borasida imtiyozlar berish, imtiyozli kreditlar ajratish, moddiy texnika va xomashyo resurslari bilan ta‘minlash borasida ko‘maklashish nazarda tutildi. Bu sa‘y-harakatlarning natijasida 1995-yil o‘rtasida respublika xalq xo‘jaligida 30770 ta kichik korxonalar va kooperativ, 20115 ta xususiy korxonalar ishlab turdi. 15600 ta fermer xo‘jaligi tashkil etildi, ularga 200 ming gektarga yaqin yer biriktirib berilgan bo‘lib, 67,5 ming kishi mehnat qilayotgan, fermer xo‘jaliklarining tasarrufida 190 mingga yaqin qoramol va boshqa hayvonlar bor edi.

Mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga bo‘lgan alohida e‘tibor ham o‘z natijalarini berdi. Ma‘lumki, kichik biznesning ixchamligi, harakatchanligi, iqtisodiy manfaatlarni nisbatan to‘laroq namoyon etib, bozor konyunkturasi o‘zgarishlariga tez moslasha olishi kabi xususiyatlari uni iqtisodiyotni tubdan o‘zgartirishda eng samarali va qulay vositalardan biriga aylantirdi. Mazkur soha taraqqiyoti uchun alohida shart-sharoitlarning yaratilishi, soliq, bojxona va boshqa to‘lov imtiyozlarining belgilanishi, nisbatan arzon kredit resurslarining taqdim etilishi natijasida qisqa davr ichida kichik biznes korxonalarini soni sezilarli ravishda oshib bordi. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, 1992-yilda ro‘yxatga olingan kichik biznes korxonalarining soni atigi 16,5 mingtani tashkil etgan bo‘lsa, 2010-yilga kelib bu ko‘rsatkich (fermer xo‘jaliklaridan tashqari) 224,2 mingtaga yetdi, ya‘ni deyarli 14 barobar o‘sd. Amalga oshirilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar natijasida kichik biznes subyektlarining YAIMdagi ulushi 2012-yilda 54 foizdan oshib ketdi. Holbuki, bu ko‘rsatkich mustaqillikning dastlabki yillarida 1,5 foizni, 2000-yilda esa 31 foizni tashkil etgan edi.

O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAIMdagi ulushi dinamikasi (foizda)



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning aholi bandligi darajasini oshirishdagi roli ham muhim ahamiyat kasb etishi sir emas. Darhaqiqat, tadbirkor o‘z mablag‘larini ishlab chiqarish sohasiga kiritar ekan, ayni paytda daromadni oshirish bilan birga jamiyat boshqa a‘zolarining ish bilan birga, daromad bilan ta‘minlanishi uchun moddiy poydevor yaratadi. Mamlakatda bu boradagi faoliyat ham kengayib bordi: 2000–2012-yillar davomida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida band bo‘lgan aholi soni 2 barobar oshdi. 2012-yilga kelib iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat bilan band bo‘lganlarning 75,1 foizidan ko‘prog‘i uning ulushiga to‘g‘ri kelmoqda. Bugungi kunda yangi yaratilayotgan ish o‘rinlarning o‘rta hisobda 85 foizi aynan kichik biznes hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning bu qadar jadal rivojlanishida, eng avvalo, mazkur soha uchun belgilanayotgan soliq imtiyozlarining yetarli darajadagi rag‘batlantiruvchi rol o‘ynayotgani muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, bu borada 2010-yilda kichik sanoat korxonalarini uchun yagona soliq to‘lovi 8 foizdan 7 foizga, 2011 yilda esa 7 foizdan 6 foizga, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun esa qayd etilgan soliq miqdori o‘rtacha 1,3 barobar kamaytirildi. 1996–2011-yillar mobaynida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun belgilangan soliq stavkalari 38 foizdan 6 foizgacha, ya‘ni 5,4 marta qisqartirildi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga yo‘naltirilayotgan kreditlar miqdori 2001–2012-yillar mobaynida deyarli 11 barobar o‘tdi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish iqtisodiy o‘shini ta‘minlash, yangi

ish o‘rinlarini tashkil qilish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishning muhim omili sifatida amal qilmoqda.

O‘zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik rivojida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 15-mayda qabul qilgan “Tadbirkorlik faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ham muhim o‘rin tutdi. Qarorga asosan tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun boj haqi eng kam ish haqi miqdorining 5 barobaridan 2 barobari miqdorigacha, tadbirkorlik subyektlarining banklarda hisob raqamlarini ochish uchun to‘lovlarini eng kam ish haqi miqdorining 1 barobardan 0,5 barobari miqdorigacha, qishloq joylarida esa eng kam ish haqining 0,1 barobari miqdorigacha pasaytirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Islom Karimovning 2010-yil 14-dekabrda “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik Davlat Dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishning tashkiliy choralari haqida”gi F-3539-sonli farmoyishidagi: kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyati uchun yanada qulay muhit yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining huquq va manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirishga yo‘naltirilgan normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo‘jalik faoliyatiga davlat va nazorat tuzilmalarining aralashuvini keskin kamaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish tartibini soddalashtirish va faoliyat yuritish, moddiy-texnik shartnomalarini ta‘minlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga soliq va boshqa to‘lovlar borasida yengilliklar yaratish borasida ustuvor yo‘nalishlar belgilab berildi.

Davlat rahbari tomonidan 2011-yilni “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” deb e‘lon qilinishi va bu borada Davlat dasturi asosida vazifalarning bajarilishi mamlakatda bu soha vakillari faoliyatida yirik, ijtimoiy o‘zgarishlar yasadi.

Qishloq xo‘jaligida islohotlarni amalga oshirishda eng ustuvor masala sifatida yerga mulkchilik masalasi hal qilindi. Sug‘oriladigan yerlarning kamligini hisobga olib, yer xususiy mulk qilib sotilishi mumkin emasligi, balki uni uzoq muddatli ijara shartlari bilan topshirish mumkinligi huquqiy hujjatlarda qayd etildi.

Mustaqillikning dastlabki qadamlaridan boshlab qabul qilingan me‘yoriy hujjatlarda, xususan “Yer to‘g‘risida”gi (20-iyun 1990-yil) va boshqa qonunlarda, Prezident farmonlarida qishloq xo‘jaligidagi tub islohotlarning huquqiy asoslari yaratildi. Qishloqda bozor munosabatlarini rivojlantirish, dehqonning

yerga egalik hissasini qayta tiklash, yerni sotish-olishga yo‘l qo‘ymasdan, balki uni uzoq muddatlarga (50 yilgacha) meros qilish huquqi bilan vaqtincha yoki umrbod foydalanishga berish masalalari hal qilindi. 1992-yildan boshlab atigi uch yil ichida mavjud 1137 davlat xo‘jaligidan 1066 tasi mulkchilikning aksiyadorlik, jamoa yoki ijaradagi xo‘jalikka aylantirildi, 1516 tasi qoramolchilik fermasi mehnat jamoalarining mulki qilib berildi.

Shu tariqa qishloq xo‘jaligida ko‘p tarmoqli iqtisod vujudga keldi. Qishloqlarda 1997-yili shaxsiy tomorqa xo‘jaligi 3 mln gektarni tashkil qildi. Tomorqa xo‘jaligining ekin maydoni 1989-yili 257 ming gektar bo‘lsa, 1997-yil 599,7 ming gektarga ko‘paydi. G‘allachilikning texnika bazasi mustahkamlandi, 8159 ta “Niva”, “Don”, “Sibiryak” kombaynlari bilan bir qatorda Amerikaning “Keys” firmasidan keltirilgan 637 kombayn g‘alla o‘rim-yig‘imida qatnashdi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining I chaqiriq X sessiyasi (dekabr, 1997-yil)da agrar va iqtisodiy munosabatlarni tubdan o‘zgartirish yuzasidan qator qonunlar qabul qilindi. “Yer kodeksi”, “Qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi) to‘g‘risida”, “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”, “Yer kadastr to‘g‘risida”gi Qonunlar qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning huquqiy asoslarini mustahkamladi. 2000-yilga kelib respublikada davlatga qarashli bo‘lmagan sektor yetakchi o‘rin egallab, 1991-yil 63 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2000-yil sentabriga kelib qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish hajmining 98,4 foizini egalladi.

Qishloq xo‘jaligidagi islohotlar asosan yerning haqiqiy egasi, omilkor va tadbirkor mulkdorlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bo‘lib, bu asosan fermerchilikni jadal rivojlantirish orqali amalga oshirildi. Bunda zarar ko‘rib ishlovchi va istiqbolsiz shirkat xo‘jaliklarini fermer xo‘jaliklariga aylantirish o‘z samarasini berdi. Fermer xo‘jaliklari faoliyati samaradorligini yanada oshirish maqsadida ularning yer maydonlari miqdorini optimallashtirish choralari amalga oshirildi. Buning natijasida 2008-yilning 1-oktabriga qadar mamlakatda faoliyat yuritayotgan 219976 ta fermer xo‘jaligining yer maydonlari yiriklashtirilib, ular asosida 105033 ta xo‘jalik tashkil etildi. Natijada bitta fermer xo‘jaligiga o‘rta hisobda ilgari 27 gektar o‘miga 56 gektar yer maydoni to‘g‘ri keldi. Shundan paxtachilik va g‘allachilik yo‘nalishiga ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari soni 47,6 mingta bo‘lib, bitta fermer xo‘jaligiga o‘rtacha 92 gektar yer maydoni uzoq muddatga ijaraga berildi. Bu esa fermer xo‘jaliklarining samarali faoliyati uchun yangi rag‘batlantiruvchi omillarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Islohotlar davrida fermer xo‘jaliklari sonining o‘rtacha yillik o‘sishi 173,6 foizni tashkil etdi. Agar islohotlarning dastlabki davri – 1993 yilda faoliyat ko‘rsatayotgan dehqon va fermer xo‘jaliklarining

soni 7630 ta bo'lgan bo'lsa, 2012-yilga kelib fermer xo'jaliklarining soni 66 mingtadan oshib ketdi. Fermer xo'jaliklarida 1,5 million kishi mehnat qilib, iste'mol bozorida oziq-ovqat mahsulotlarining 90 foizi ayni shu soha hissasiga to'g'ri keladi.

2000-2011-yillar mobaynida fermer xo'jaliklari tomonidan don yetishtirish qariyb 10 baravar, kartoshka 13, sabzavot 19, meva 26, uzum 20, go'sht (tirik vaznda) 4, sut 4,3 va tuxum ishlab chiqarish 31 barobardan oshdi.

2012-yilning o'zida O'zbekistonda deyarli barcha qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori hosil olindi. Mamlakat dehqonlari tomonidan 3 million 460 ming tonnadan ortiq paxta, 7 million 500 ming tonna g'alla, 2 million tonnadan ziyod kartoshka va 9 million tonnadan ortiq sabzavot hamda poliz mahsulotlari yetishtirildi.

Davlat rahbarining "Fermer boy bo'lsa – mamlakat obod bo'ladi" degan purma'no so'zlari asosida fermer xo'jaliklarining iqtisodiy va moliyaviy mustaqilligini mustahkamlash, sohaning huquqiy asos va kafolatlarini yaratish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yer maydonlarini maqbullashtirish borasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida odamlarning yerga, mulkka egalik hissi oshib, qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligi ko'tarilishi barobarida, yetishtirilgan mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlari tubdan yaxshilanmoqda.

3. QULAY INVESTITSIYA MUHITINING YARATILISHI. BANK-MOLIYA VA SOLIQ TIZIMINING TAKOMILLASHTIRILISHI

O'zbekistonning jahondagi ko'plab mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalari kengayib mustahkamlanib bormoqda. Ular bilan savdo-iqtisodiy hamkorlik to'g'risida bitim tuzilganligi va bir qancha jahon banklari bilan shartnomalarning imzolanishi mamlakatning xalqaro savdo va xorijiy investitsiyalardan unumli foydalanish uchun shart-sharoitlarni yaxshiladi.

Hozirgi kunda rivojlangan davlatlarning hech qaysisi xorij mamlakatlari rining sarmoyasisiz, investitsiyasisiz taraqqiy etmaydi. O'zbekiston ham o'zining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy barqarorligi bilan chet davlatlarning investitsiyasini o'ziga jalb etmoqda. 1999-yili O'zbekistonda 3592-qo'shma korxonalar ro'yxatga olingan bo'lib, shundan 1917 tasi faoliyat ko'rsata boshladi. Ishlab turgan qo'shma korxonalarining asosiy qismi Toshkent shahrida, qolganlari Toshkent, Samarqand, Andijon, Farg'ona va Namangan kabi viloyatlarda joylashgan. Shulardan biri O'zbekiston-Germaniya "Kaolin" qo'shma

korxonasi 1999-yil 17-aprelda ishga tushirildi. Chet el sarmoyalari, ayniqsa, neft va gaz tarmog'ida katta o'rin tutdi. Bu sohalarga 1994-yil atigi 10 mln dollar xorijiy sarmoya jalb qilingan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1995-yil – 395, 1996-yil – 546, 1997-yil – 845, 1998-yili deyarli 1145 mln dollardan oshdi.

90-yillar oxiridagi ayrim rivojlangan mamlakatlardagi moliyaviy inqiroz mamlakatning iqtisodiy va moliyaviy ahvoriga ta'sir qilmay qolmadi, albatta. Jahon iqtisodiy inqirozi sharoitida respublika rahbari qayd etganidek, muhim strategik vazifani hal qilishga muvaffaq bo'lindi. Jahon bozorida oltin, paxta, mis narxining tushib ketishiga qaramasdan mamlakatning oltin valyutasi zaxirasi o'tgan yilgi darajasida saqlanib qoldi. Bu borada Navoiy, Olmaliq tog'-kon metallurgiya kombinatlari, "Zarafshon-Nyumont" qo'shma korxonasi-ning hal qiluvchi rolini ko'rsatish o'rindir.

Endilikda jahondagi eng yirik konlardan hisoblangan Qizilqumning oltin va uran boyliklari mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. Sobiq ittifoqning parchalanib ketishi oqibatida Rossiya korxonalari hamda O'zbekiston uran va oltin qazib olish sanoati o'rtasidagi kooperativ aloqalarning uzilishi natijasida harbiy sanoat kompleksining Navoiy viloyatidagi 50 ming nafar muhandis va malakali ishchilari qiyin ahvolda qoldi. O'zbekiston Prezidenti, yirik iqtisodchi mutaxassis I.A.Karimov vaziyatni har tomonlama o'ylagan holda Navoiy tog'-kon metallurgiya kombinatini tiklash va rivojlantirish ishlarini davlat zimmasiga o'tkazdi. Kombinatni qayta qurish maqsadida xorijdan olingan qarzdan tushgan foydani besh yil davomida korxonaga ixtiyorida qoldirildi. Xorijiy davlatlar korxonalari bilan bitim tuzish, qarz olish, investitsiyalardan foydalanishda kombinatga to'la mustaqillik berildi. Hisob-kitoblar, katta jamoaning mehnati o'z natijalarini berdi. Besh yildan keyin Muruntovdan tonnalab olingan oltinlar davlatning valyuta zaxirasini to'ldirdi. Bu yerda arzon va sifatli uran olish ham yo'lga qo'yildi.

Amerikaning Kolorado shtatidagi "Nyumont" firmasi bilan Muruntovda qo'shma korxonaga qurilishi bilan ishlar yana qizib ketdi. "Zarafshon-Nyumont" qo'shma korxonasiga firma tomonidan ajratilgan 200 mln dollar investitsiya yordamida oddiy sharoitdagi yarim asrlik ishlar ikki yilda o'z natijalarini berdi. Navoiy tog'-kon metallurgiya kombinati oltin rudasini qazib olishdan to'z zargarlik bezaklarini tayyorlaydigan siklda ishlaydigan jahonda yagona korxonaga aylandi.

O'zbekiston bugungi kunda o'zining mashinasozlik sanoati bilan ham ajralib turadi. 1992-yilning avgust oyida Janubiy Koreya Respublikasi bilan O'zbekiston o'rtasida tuzilgan bitim asosida "O'zDEU avto" qo'shma korxonasi tashkil etildi va Asaka shahrida yengil avtomashinalar ishlab chiqa-

rishga kirishildi. 1996-yilning mart-iyul oylarida bu korxonada "Neksiya", "Tiko", "Damas" rusumli yengil avtomashinalarini chiqara boshladi. 1999-yilning 1-iyuniga qadar, uch yil davomida 87 mingdan ko'proq "Neksiya", 51 mingdan ko'proq "Tiko", 40 mingdan ortiq "Damas" avtomashinalari ishlab chiqarilib, ular jahon bozoriga chiqarib boshladi. Faqat Rossiyaning o'zida 18 mingdan ortiq mashinalar sotildi. Moskva, Sankt-Peterburg, Novosibirsk, Saratov, Tyumen va boshqa shaharlarda O'zbekiston avtomashinalariga servis xizmatini ko'rsatuvchi tarmoqlar qurila boshlandi. So'nggi yillarda Rossiyada xorijiy avtomashinalar o'rtasida "Neksiya" mashinasi yetakchi o'rinni egallab turibdi. Endilikda "DEU" korxonasi bilan shartnomaga ko'ra bu mashinalarning yangi modellarini ishlab chiqish boshlandi.

1993-yilda GFRdagi "Mercedes-Bens AG" korporatsiyasi bilan Xorazmda yuk avtomashinasini ishlab chiqarish uchun shartnoma tuzilib, 1994-yili "Do'stlik" avtomobil zavodida dastlabki yuk avtomobili ishlab chiqildi. 1995-yili "O'zavtosanoat" uyushmasi bilan Turkiyaning mashhur "Kocholding" kompaniyasi o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida Samarqandning Sug'diyona mavzesida qad ko'targan avtobus zavodi 1999-yil mart oyida o'z mahsulotini bera boshladi.

Prezidentning 1992-yil 28-yanvardagi Farmoniga muvofiq respublikada "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi tuzilib, 1993-yildan kompaniya zamonaviy A-310, Boing-767, Boing-757, RL-85 samolyotlariga ega bo'ldi. Bu esa Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva va Navoiy shahrida aeroportlar qurishni taqozo qildi.

Mamlakatda bugun ham tarkibiy o'zgarishlarni izchil amalga oshirishda qulay investitsiya muhitining yaratilgani asosiy omil bo'lib kelmoqda. Investitsiya jarayonlarini kuchaytirishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar natijasida mamlakatda investitsiya hajmi yildan yilga sezilarli darajada ortib bormoqda. 2012-yildagi jami investitsiyalarning qariyb 74 foizi ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilashga qaratilgan dastur va loyihalarni amalga oshirishga yo'naltirildi. Birgina shu yilning o'zida umumiy qiymati 1 milliard 600 million dollardan ortiq bo'lgan kapital qo'yilmalar o'zlashtirilib, 205 ta yirik investitsiya obyekti qurib bitkazildi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mamlakatning iqtisodiy qudratini yanada oshirish maqsadida 2009–2014-yillarga mo'ljallangan iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, uning raqobatdoshligini kuchaytirish, eksport salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan muhim ustuvor loyihalarni amalga oshirish bo'yicha dastur ishlab chiqilgan. Unda umumiy qiymati 42,5 milliard dollardan iborat 852 ta loyihani amalga

oshirish koʻzda tutilgan. Eng eʼtiborli jihati shundaki, mazkur dasturdan oʻrin olgan barcha loyihalardan umumiy qiymati 19,3 milliard dollar hajmidagi 138 ta loyiha innovatsion loyihadir. Bu esa mamlakat iqtisodiyotining yaqin kelajakda zamonaviy texnika va texnologiyalarga, ishlab chiqarishning ilgʻor usullariga, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlariga asoslangan, raqobatdosh iqtisodiyotga aylanishidan darak beradi.

1996-yildan boshlab mamlakatda iqtisodiy oʻsish yuz berdi. Aholi daromadining yillik oʻsishi 14 foizni tashkil qildi. 1997-yili yalpi mahsulotning oʻsishi 4,5 foizdan kam boʻlmadi. 1991–1996-yillar davomida hukumat milliy bank va moliya tizimi yuzasidan bir qancha qarorlar qabul qildi. 1995-yil dekabrda Oliy Majlisning navbatdagi sessiyasining Markaziy bank va banklar toʻgʻrisidagi qonunlari katta ahamiyatga ega boʻldi. Markaziy bankdan tashqari, Toshkent shahri va viloyatlarda ham 30 ta aksiyador-tijorat, shirkat va xususiy banklar faoliyat koʻrsata boshladi.

Bank tizimini takomillashtirish borasida olib borilgan islohotlar natijasida, jahonda moliyaviy inqiroz koʻlami kengayayotganiga qaramay, Oʻzbekiston bank tizimi ishonchiligi va barqaror rivojlanayotgani, xorijiy moliyalashtirish manbalariga qaram boʻlmaslik va tashqi inqiroz holatlarining salbiy taʼsiriga berilmaslik xususiyatlari bilan ajralib turdi. 2010-yilda mamlakatning atigi 13 ta tijorat banki ijobiy xalqaro reytingga ega boʻlgan boʻlsa, 2012-yilda ularning soni 28 taga yetdi.

Keyingi yillarda bank tizimini yanada takomillashtirish, tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirish, barqarorligini taʼminlash, ularning erkinligini mustahkamlash va investitsiya jarayonlaridagi ishtirokini kengaytirishga alohida eʼtibor qaratilmoqda va bu borada koʻrilgan chora-tadbirlar natijasida bank aktivlari 12 trillion 65 milliard soʻmni, tijorat banklarining jami kapitali esa 2 trillion 104 milliard soʻmni tashkil etdi. Fuqarolarning bank tizimiga boʻlgan ishonchi tobora oshib borayotgani, aholining banklardagi omonatlarining davlat tomonidan kafolatlangani, eng muhimi, banklardan omonatlarini oʻz vaqtida olayotgani, kredit tashkilotlari tomonidan aholiga 400 dan ortiq qulay omonat turlarining taklif etilishi mamlakatda bank tizimini barqaror va ishonchli faoliyat yuritayotganining tasdigʻidir.

2008-yilda “Yoshlar yili” munosabati bilan yosh oilalar uchun imtiyozli shartlar asosida ajratilgan ipoteka, isteʼmol va mikro kreditlar miqdori esa 135,7 milliard soʻmga yetgan edi. 2011-yilda mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq toʻlovi stavkasining 7 foizdan 6 foizga kamaytirilishi xoʻjalik yurituvchi subyektlar investitsiya faoliyatining kengayishiga xizmat qildi. Buning natijasida boʻshab qolgan qariyb 80 milliard 300 million soʻm

mablagʻni birinchi navbatda ishlab chiqarishni texnologik yangilash va zamonaviy texnikani joriy etishga yoʻnaltirish imkoni paydo boʻldi.

Davlat xazinasini toʻldiruvchi, iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli oʻtkazishning asosiy manbai soliqdir. Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 12-avgustdagi “Oʻzbekiston Respublikasida davlat soliq organlari haqida”gi qarori asosida davlat soliq tizimi shakllana boshladi. Soliq toʻlovchilar soni yildan-yilga koʻpayib bordi. Agar 1994-yilda 91 mingdan ortiq soliq toʻlovchi yuridik shaxs roʻyxatdan oʻtgan boʻlsa, 1997-yili ularning soni 148 mingtaga yetdi.

Bugungi kunda inqirozga qarshi choralar dasturi doirasida soliq yukini yengillashtirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va unifikatsiya qilish boʻyicha xoʻjalik tuzilmalarini qoʻllab-quvvatlash maqsadida qoʻshimcha choralar koʻrilmoqda. Xususan, keyingi yillarda mamlakatdagi bir qator soliq stavkalari sezilarli darajada pasaytirilib borilmoqda.

Oʻzbekistonda soliq stavkalarining pasaytirilishi

Soliq va boshqa majburiy toʻlovlar turi	2000-yil	2012-yil
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda soligʻi	31	9
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi	15 %, 25 %, 36 %, 40 %	9 %, 16 %, 22 %
Mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq toʻlovi	15	6
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4,0	3,5
Yagona ijtimoiy toʻlov	40	25

Mamlakatda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish orqali ham namoyon boʻladi. Aytish mumkinki, mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati yangicha mazmun va yoʻnalishlarda deyarli qaytadan tashkil etildi. Maʼlumotlarga koʻra, Oʻzbekistonda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni 1991-yilda atigi 30 tani tashkil etgan boʻlsa, 2011-yilga kelib bunday korxonalar soni 4575 taga yetdi. Agar tashqi savdo aylanmasi 1995-yilda 6.6 milliard AQSH dollarini tashkil etgan boʻlsa, 2011-yilda bu koʻrsatkich 25,5 million AQSH dollariga etdi.

Oʻzbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi toʻgʻrisida soʻz yuritilar ekan, shu oʻrinda BMTning jahon mamlakatlarida roʻy berayotgan holatlar toʻgʻrisida quyidagi maʼlumotlari mazkur natijalarga yanada realroq qarash, ularni munosib baholash imkonini beradi.

BMTning jahon mamlakatlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar to'g'risidagi ma'lumoti

Ko'rsatkich	Soni
Aholisi 1990-yilga nisbatan kambag'allashgan mamlakatlar	54
Aholisining ko'pchiligi ochlikdan aziyat chekayotgan mamlakatlar	21
Aholisining o'rtacha umr ko'rish darajasi pasaygan mamlakatlar	34
Bolalarning boshlang'ich umumta'lim maktablariga qatnashish ko'rsatkichi kamaygan mamlakatlar	12
Maktabga bormaydigan bolalar	100 mln

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan ayon bo'ladiki, mamlakatning o'tgan yillar davomida qo'lga kiritgan yutuqlari asosini to'g'ri tanlangan va bosqichma-bosqich, izchil amalga oshirilayotgan mustaqil taraqqiyot yo'li, oqilona va samarali iqtisodiy siyosat, mamlakatning boy iqtisodiy resurs va imkoniyatlari hamda xalqning bunyodkorlik, yaratuvchilik yo'lidagi fidokorona mehnati, shuningdek, har fuqaroning ertangi kunga, kelajakka bo'lgan qat'iy ishonchi tashkil etmoqda.

4. JAHON MOLIVAVIY-IQTISODIY INQIROZI SHAROITIDA MAMLAKAT IQTISODIY O'SISH SUR'ATLARINING TA'MINLANISHI. MODERNIZATSIYA JARAYONLARINING CHUQURLASHUVI VA BUNDAN KUTILAYOTGAN NATIJALAR

Ma'lumki, 2008-yilda AQSH ipoteka kreditlash tizimidan boshlanib, ko'plab rivojlangan mamlakatlarning moliya tizimini ishdan chiqargan, keyinchalik iqtisodiyotning real sektori va ijtimoiy sohaga sezilarli ta'sir ko'rsatib, katta talafotlar yetkazgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi vujudga kelishining dastlabki pallasidayoq O'zbekistonda Inqirozga qarshi choralar dasturi ishlab chiqilgan va izchillik bilan amalga oshirish boshlab yuborilgan edi. O'zbekiston Prezidentining "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari" nomli asarida mazkur dasturda belgilangan quyidagi beshta kompleks chora-tadbirlar ko'rsatib o'tilgan edi:

Birinchidan, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish;

Ikkinchidan, joriy konyunktura keskin yomonlashib borayotgan hozirgi sharoitda eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarining tashqi bozorlarda raqobatdosh bo'lishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha konkret chora-tadbirlarni amalga oshirish va eksportni rag'batlantirish uchun qo'shimcha omillar yaratish;

Uchinchidan, qat'iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag'batlantirish hisobidan korxonalarining raqobatdoshligini oshirish;

To'rtinchidan, elektr energetika tizimini modernizatsiya qilish, energiya iste'molini kamaytirish va energiya tejashning samarali tizimini joriy etish choralari amalga oshirish;

Beshinchidan, jahon bozorida talab pasayib borayotgan bir sharoitda, ichki bozorda talabni rag'batlantirish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash¹.

Inqirozga qarshi choralar dasturidan o'rin olgan va o'z vaqtida qabul qilingan hujjatlarda, avvalo, mamlakat moliyaviy-iqtisodiy, byudjet, bank-kredit tizimining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta'minlash, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalariga yordam ko'rsatish, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarning puxta ishlab chiqilgani o'zining amaliy samarasini berdi.

Mamlakat iqtisodiyotini mutanosib rivojlantirish, uning samarali tarkibiy tuzilmaga ega bo'lishini ta'minlash va shu orqali barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishish mamlakat taraqqiyoti va xalq farovonligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Bu maqsadga erishish uchun esa, eng avvalo, iqtisodiyotning real sektorini jadal rivojlantirish zarur bo'ladi.

Shunga ko'ra, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash dolzarb ahamiyat kasb etib, mamlakatda ushbu jarayon bir qator asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirildi. Birgina 2012-yilda iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kreditlar hajmi 2011-yilga nisbatan 1,3 barobar oshdi.


Ayniqsa, real sektor korxonalarini qo'llab-quvvatlashda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yish, mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga ichki talabni rag'batlantirish masalalari alohida o'rin tutdi.

Bugungi kunda mamlakatni jadal isloh etish va modernizatsiya qilishning yangi davri – milliy taraqqiyotning yuksalish bosqichi izchil ravishda davom etmoqda. O'zbekiston jahon xaritasidan mustaqil davlat sifatida joy olgan-

¹ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bar-taraf etishning yo'llari va choralari. – T.: "O'zbekiston", 2009. – 31–34-betlar.

dan keyingi tarixan qisqa davr ichida demokratik jamiyat hamda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin iqtisodiyotni shakllantirish yo‘lida ulkan ishlar amalga oshirildi va salmoqli natijalar qo‘lga kiritildi. Bunda mamlakat rahbari tomonidan milliy taraqqiyot strategiyasining puxta ishlab chiqilgani, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning maqsad va vazifalari, amalga oshirish yo‘llarining aniq-ravshan ko‘rsatib berilgani barcha yutuq va maralarning salmoqli bo‘lishiga imkon yaratdi.

Prezident O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi (2010-yil 27-yanvar) ma‘ruzasida Oliy Majlisning qonun ijodkorligi faoliyatida mamlakatda iqtisodiy sohada amalga oshirilayotgan tarkibiy o‘zgarishlarni, qulay investitsion muhitni shakllantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlash, bank-



moliya tizimini rivojlantirishni normativ-huquqiy jihatdan ta‘minlash masalalari alohida o‘rin egallaganligini ta‘kidlab o‘tdi.

Bu davrda xususiy mulkni huquqiy jihatdan himoya qilishni kuchaytirish, mamlakatda har tomonlama baquvvat mulk egalari sinfini shakllantirish, fermerlik harakatini mustahkamlash, iqtisodiyotni yanada liberallashtirishni ta‘minlash, tadbirkorlik, avvalo, kichik biznes faoliyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish, shuningdek, keng tarmoqli bozorning infratuzilmasini barpo etishni ko‘zda tutadigan qonun hujjatlarining butun bir majmuasi qabul qilindi.

Aholi daromadlari va xalq farovonligini uzluksiz oshirib borish, keng miqyosdagi ijtimoiy dasturlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish masalalari parlamentning e‘tibor markazida bo‘ldi.

Bugungi kunda modernizatsiya jarayonlari mamlakat hayotining deyarli barcha jabhalarini qamrab olgan. Ayniqsa, mazkur yo‘nalishlar orasida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish muhim o‘rin tutadi. Chunki, milliy iqtisodiyotning barqaror va samarali amal qilishini ta‘minlash, uni jahonning rivojlangan mamlakatlari taraqqiyoti darajasiga olib chiqish, uning turli siyosiy

va iqtisodiy o'zgarishlar, jahon bozori konyunkturasidagi tebranishlar, inqiroz holatlariga nisbatan "chidamliligi", mustaqil rivojlana olish imkoniyatlari va salohiyatlari aynan ishlab chiqarish jarayonlaridagi tub islohotlar va ularning natijalariga bog'liq. Biroq, shu bilan birga, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish ijtimoiy-iqtisodiy hayotning boshqa sohalaridagi o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq. Ya'ni, barcha soha va jabhalarni jadal isloh etish va modernizatsiya qilish jarayonlarining amalga oshirilishida izchillik va mantiqiy muvozanatni ta'minlashga harakat qilish lozim.

Prezident tomonidan ilgari surilgan tayyor raqobatdosh mahsulotlar eksportini faol oshirish va bu mahsulotlar yetkazib beriladigan mamlakatlar geografiasini yanada kengaytirish vazifasini amalga oshirish eksport hajmini barqaror o'stirish, tashqi bozordagi o'zgarishlar ta'sirida uning hajmi keskin kamayishi xavfini bartaraf etish imkonini beradi.

Eksport qilinayotgan tovarlarni diversifikatsiya qilish, ularni import qiluvchi mamlakatlar geografiasini kengaytirish bu mamlakatlardan biri yoki bir guruhining iqtisodiyotida muammolar ro'y berganda ham eksport hajmining keskin pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslik imkonini beradi.

O'tgan yillar mobaynida eksport qiluvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar iqtisodiyotning eksport salohiyatini yuksaltirish, tashqi savdo tarkibida ijobiy siljishlarga erishish, uning hajmini barqaror o'stirish imkonini ham bermoqda.

O'zbekistonda oxirgi yillarda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha erishilgan natijalar sifatida quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

- inflyatsiya darajasi yiliga 7-8 foizdan oshmagan holda saqlanib qolmoqda;
- oltin-valyuta zaxiralari oxirgi 5 yil mobaynida 6 barobar o'sib, hozirgi kunda deyarli 1,5 yillik import hajmini qoplaydi;
- jami davlat tashqi qarzi YAIMning 9,5 foizini tashkil qilib, eksport hajmiga nisbatan 26 foizdan oshmaydi.

Bu erishilgan natijalar (ko'rsatkichlar) Jahon banki mezonlari bo'yicha ijobiy baholandi.

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash o'z-o'zidan mamlakatda tovarlar ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan barcha turdagi iqtisodiy resurslarni oqilona ishlatishga asos bo'ladi. Jahon-moliyaviy iqtisodiy inqirozi turli mamlakatlar iqtisodiga o'z ta'sirini ko'rsatishni davom etayotgan bir paytda fan va texnologiyani jadal rivojlantirish, uning yutuqlaridan samarali foydalanishga bo'lgan talab tobora ortib bermoqda.

Prezident Islom Karimovning 2013-yil 18-yanvardagi 2012-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013-yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida qayd etilgan muhim ustuvor vazifalardan biri – ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini jadal yangilashdan iborat ekani belgilab berildi. Ma'ruzada 2012-yilda iqtisodiyotga jalb etilgan barcha investitsiyalarning 74 foizdan ortig'ini sanoatni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash dasturlarini amalga oshirishga yo'naltirilgani, umumiy qiymati 1 milliard 600 million dollardan ortiq bo'lgan kapital qo'yilmalar o'zlashtirilib, 205 ta yirik investitsiya obyekti qurib bitkazilganligi qayd etildi.

Bunday faol investitsion siyosat natijasida o'nlab zamonaviy korxonalar ishga tushirildi. Jumladan, 2011-yilda "Jeneral Motors Povertreyn O'zbekiston" qo'shma korxonasida avtomobil dvigatellari, "Zenit elektroniks" qo'shma korxonasida "Samsung" kir yuvish mashinalari ishlab chiqarila boshlagani, Navoiy shahridagi erkin industrial-iqtisodiy zonaning muvaffaqiyatli faoliyat yurita boshlagani, 2012-yilda Germaniyaning "MAN" kompaniyasi bilan hamkorlikda Samarqand viloyatida yiliga 3 mingta yuk avtomobili ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan yangi kompleksni bunyod etishning ikkinchi bosqichi yakunlangani, Muborak gazni qayta ishlash zavodida 258 ming tonna suyultirilgan gaz va 125 ming tonna kondensat ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan zavodning birinchi navbati foydalanishga topshirilgani, "Sho'rtanneftgaz" korxonasida propan-butan qorishmasi asosida 50 ming tonna suyultirilgan gaz ishlab chiqaradigan qurilma o'rnatilgani, umumiy qiymati 250 million dollardan ortiq bo'lgan Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodining ikkinchi navbatini qurish ishlarining davom ettirilayotgani va hokazolar mamlakat rivojiga xizmat qila boshladi.

5. XALQ FAROVONLIGINI YUKSALTIRISH. IJTIMOIY DASTURLAR VA MILLIY TARAQQIYOT

Bozor munosabatlari sharoitida aholining ish bilan bandligini ta'minlash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Chunki, ishsizlik muammosining mavjudligi bozor iqtisodiyotining ajralmas xususiyatidir. Shunday ekan, ishsizlik muammosini o'rganishdan asosiy maqsad – aholining ish bilan bandligini oshirish orqali mamlakat ishlab chiqarishini kengaytirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga aloqador tadbirlar ishlab chiqishdan iborat.

Jahonda ro'yi berayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz ta'sirida dunyo bo'yicha 56 million kishidan ortiq ishsizlar armiyasi vujudga kelgan bir sharoitda O'zbekistonda yuz minglab yangidan-yangi ish o'rinlari tashkil etilmoqda. Buning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, bu yerda yangi ish o'rinlarini yaratishning o'ziga xos mexanizmlari tarkib topib, bir qator yo'nalishlar bo'yicha izchil amal qilib kelmoqda.


Mamlakatda aholini samarali muhofaza qilishga yo'naltirilgan maqsadli chora-tadbirlar hamda yuqori iqtisodiy o'sish va bandlik sur'atlari aholi farovonligini oshirishni ta'minlamoqda. Aholi real daromadlarining oshishida respublikada makroiqtisodiy sharoitning qulayligi, iqtisodiy o'sishning tez sur'atlarda oshishi, inflyatsiyaning sezilarli darajada pasaygani, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar va aholini aniq ijtimoiy himoya qilishning kuchaygani ham asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda.

So'nggi yillarda ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar miqdorini oshirish, jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq miqdorlarini kamaytirish, inflyatsiya darajasini pasaytirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida aholining yalpi va real daromadlari sezilarli ravishda oshdi, uning xarid qobiliyati barqaror sur'atda o'sib bormoqda. Jumladan, 2009-yilda 2000-yilga nisbatan o'rtacha ish haqi 28,5 barobar; pensiyalarning o'rtacha miqdori qariyb 18 barobar; aholi jon boshiga nisbatan pul daromadlari esa 12 barobar oshgan bo'lsa, birgina 2012-yilning o'zida byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, nafaqa va stipendiyalar miqdori esa 26,5 foizga, aholining real daromadlari yil mobaynida 17,5 foizga ortdi. Umuman, aholi jon boshiga real daromadlar 2000-yilga nisbatan 8,6 marta, o'rtacha ish haqi esa iste'mol savatchasi qiymatidan 4 martadan ko'proq oshdi.

Aholining o'sib borayotgan to'lov qobiliyati bilan mamlakat korxonalarida ishlab chiqarilayotgan iste'mol tovarlari hajmi o'rtasida ichki bozorda mutanosiblikni ta'minlash, bunday mahsulotlar turini kengaytirish, bozorlarni ular bilan ishonchli tarzda to'ldirib borish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, aholining turmush farovonligi ko'p jihatdan uning oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq. Mazkur masalani hal etishda ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratish, dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatlaridan yanada samarali foydalanish zarur bo'ladi.

Aholi turmush darajasini yaxshilash va ularga qulayliklar yaratish jaryonida xonadonlarni gazlashtirish va aholi uchun yetkazib beriladigan tabiiy gaz narxini belgilash masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakat aholisiga tabiiy gaz qo'shni davlatlardagiga nisbatan arzon narxlarda yetkazib beriladi. Masalan, aholiga 1 ming m³ hajmdagi tabiiy gazni sotish uchun

Qirg'izistonda 309 dollar, Tojikistonda 303,5 dollar, Qozog'istonda 100–140 dollar, O'zbekistonda esa 30 dollar narx belgilangan.



Shuningdek, mamlakat mustaqillikka erishgach, aholi uy-joylari va xonadonlarni gazlashtirishga katta e'tibor qaratildi. Ayniqsa, bu borada shahar va qishloqlarning gaz bilan ta'minlanish darajasi o'rtasidagi tafovutni keskin qisqartirishga ahamiyat berildi. Buning natijasida 2010-yilda mamlakatdagi xonadonlarning gaz bilan ta'minlanish darajasi shahar joylarda 85 foizni, qishloq joylarda esa 78.7 foizni tashkil etdi. Shu kunga qadar jami gazlashtirilgan xonadonlar soni 4270,6 mingtani tashkil etib, shundan 2419,8 mingtasi shaharda, 1850,8 mingtasi esa qishloqda joylashgan.

Mamlakat tarixida ulkan tadbirlarni amalga oshirish bilan bir qatorda, juda muhim ijtimoiy dasturlar ham qabul qilinib, ularning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi yurtning gullab-yashnashida, yoshlar tarbiyasida o'zining ijobiy samarasini bermogda.

Mamlakat jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallaganidan keyin, 1996-yilga kelib dastlabki ijtimoiy dasturlar qabul qilindi. Bu, avvalambor, har qaysi yilga alohida nom berish va shu asosda Davlat dasturlarini qabul qilish bilan bog‘liqdir.

Yillarga alohida nom berishning mazmun-mohiyati yagona maqsadga, shu muazzam o‘lkada yashayotgan har bir insonning hayoti yanada mazmunli, zavqli, to‘laqonli bo‘lishiga yetarli sharoit va imkoniyatlarni yaratish bo‘lib, uning asosiy g‘oyasi “Bu muqaddas vatanda azizdir inson” degan so‘zlarda o‘z mujassamini topgan.

Har bir yilda inson hayotining qaysidir jabhasini o‘rganishga, takomillashtirishga zamin yaratuvchi dasturlar ishlab chiqildi va rejalashtirilgan vazifalar amalga oshirildi. Jumladan, mamlakatda 1997-yil **“Inson manfaatlari yili”** deb e‘lon qilinib, hur o‘lkada yashayotgan har bir inson manfaatiga e‘tibor berish, jamiyat manfaatlari bilan har bir shaxs manfaati uyg‘unligini ta‘minlash va komil insonni tarbiyalash uchun qulay tarbiyaviy muhitni vujudga keltirish bosh maqsad qilib belgilandi.

“Inson manfaatlari yili” Davlat dasturi doirasida davlat byudjetidan 123 milliard so‘m yoki barcha byudjet xarajatlarining qariyb 40 foizi ajratildi. Shu jumladan, aholini ijtimoiy muhofaza qilish bo‘yicha tadbirlarning amalga oshirilishi uchun 30 milliard so‘m, sog‘liqni saqlash, gazlashtirish, suv ta‘minoti va ijtimoiy sohaning boshqa obyektlari qurilishi uchun 34 milliard so‘m miqdorida mablag‘ ajratildi.

Shu yili 6,7 million kvadrat metr uy-joy foydalanishga topshirildi, shundan 5,4 million kvadrat metr uy-joy qishloq joylarda barpo etildi. 64 ming o‘quvchiga mo‘ljallangan maktablar, 1,5 ming bemorga mo‘ljallagan shifoxonalar, bir smenada 12 ming kishini qabul qiladigan poliklinikalar qurildi. Yangi ishga tushirilgan ijtimoiy soha obyektlarining uchdan ikki qismi qishloqlarda barpo etildi.

Toshkentda “Yunusobod” yopiq tennis korti va “Jar” sport-sog‘lomlashtirish majmuasi qurib tugallandi.

“Inson manfaatlari yili” dasturining mantiqiy davomi sifatida 1998-yil **“Oila yili”** deb e‘lon qilindi.

Ma‘lumki, har bir inson oilada tavallud topadi va ilk tarbiyani shu makonda oladi. Oiladagi sog‘lom muhit farzandning sog‘lom bo‘lishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Oilada shaxsning ma‘naviy dunyosini takomillashtirish uchun unda zarur ruhiy-ma‘naviy, axloqiy muhit yaratilgan bo‘lishi kerak. Ana shunday namunalı oilani shakllantirish maqsadida “Oila yili” Davlat dasturi ishlab chiqildi. Dasturda belgilangan chora-tadbirlarning ijrosi orqali oilani ijtimoiy

himoya qilish ko'lamlarini yanada kengaytirish va kuchaytirishga alohida e'tibor qaratildi.

Oila jamiyatning kichik bo'g'ini sifatida sog'lom va barqaror bo'lsa, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Prezident iborasi bilan aytganda: "Hammamizga ayon bo'lishi tabiiyki, oila sog'lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqarordir".

Oila manfaatlarini ta'minlash borasidagi davlat dasturi kompleks mazmunga ega bo'lib, u bir yuz ellikdan ortiq tadbirni o'z ichiga oladi. 1998-yilda ushbu tadbirlarni bajarish uchun davlat byudjetidan 144,8 milliard so'm mablag' ajratildi. Ushbu yilda Prezident Islom Karimovning tashabbusi bilan Oila kodeksi qabul qilinib, "Oila" Respublika ilmiy-amaliy markazi ham tashkil etildi.

Ma'lumki, oilaning mehr sarchashmasi, bekasi va farishtasi ayoldir. Farzandning barkamol shaxs sifatida kamol topishida va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi insonni yetishtirishda onaning roli beqiyos. Shu sababli 1999-yil "*Ayollar yili*" deb e'lon qilindi. "Ayollar yili" Davlat dasturi ishlab chiqildi, oila, onalik, bolalik masalalarining jamiyat miqyosida ustuvor ahamiyatga ega ekanidan kelib chiqqan holda, davlat dasturida belgilangan vazifalarning ijrosi orqali ayollarni ijtimoiy himoya qilish, ijtimoiy faolligini oshirish, mehnat faoliyatini tashkil etish uchun shart-sharoitlar yaratish kabi ishlar amalga oshirildi. Ayollar sog'ligi, xususan, onalar salomatligini yaxshilash, ularning ijtimoiy boshqaruv faoliyatidagi ishtiroklarini ta'minlash va kengaytirishga xizmat qiluvchi huquqiy asos yaratildi. Dasturda aholining eng go'zal va nozik qatlami bo'lmish ayollar ma'naviyatini yuksaltirish asosida ijtimoiy taraqqiyotni yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgan ko'plab amaliy chora-tadbirlar ham o'z aksini topdi.

2000-yilga "*Sog'lom avlod yili*" deb nom berildi. Har qanday davlatning mustahkam bo'lishi va taraqqiy etishining birinchi sharti – aql-idroki mukammal, ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, ruhi tetik, o'zining fuqarolik burchi va mas'uliyatini to'la anglab yetgan sog'lom avlodni shakllantirish bilan bog'liqdir.

Sog'lom avlod deganda, eng avvalo, sog'lom nasl, nafaqat jismonan baquvvat, shu bilan birga, ruhan, fikran sog'lom, iymon-e'tiqodi butun, bilimli, ma'naviyati yuksak, mard va jasur, vatanparvar avlod ko'z oldimizga keladi. Buyuk davlatni faqat sog'lom millat, sog'lom avlodgina qura oladi.

Xalqi azaldan bo'y-basti kelishgan, botir va polvon o'g'lonlarni "qilichdek yigit" deb e'zozlagan, ular bilan g'ururlangan. Sohibqiron Amir Temur: "Askarlari baquvvat el qudratli bo'lur, qudratli elning askarlari baquvvat bo'lur" deb ta'kidlagan edi. Prezident shu fikrni davom ettirib, "Farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'ladi, qudratli yurtning farzandlari sog'lom bo'ladi", deb aytgan edi.

2001-yil mamlakatda **“Onalar va bolalar yili”** deb e’lon qilindi. O‘zbekistondagi ayollarning 90 foizi tibbiy profilaktik ko‘rikdan o‘tkazildi. Shuningdek, barcha mintaqalarda “Ona va bola skriningi” tizimi joriy etilganini ham alohida ta’kidlash lozim. Bu markazlarda 580 mingdan ortiq ayol profilaktik ko‘rikdan o‘tib, malakali tibbiy maslahatlar oldi va ularning salomatligi mustahkamlandi.

Orolbo‘yi mintaqasidagi murakkab ekologik sharoitda yashayotgan xotin-qizlar va bolalarning yoz mavsumida yaxshi dam olishini tashkil etish va salomatligini tiklashga alohida e’tibor berildi. Toshkent, Samarqand viloyatlari va Farg‘ona vodiysining sog‘lomlashtirish oromgohlarida 4 ming 500 nafar xotin-qizlar, 20 mingdan ortiq bolalar hordiq chiqarib, malakali tibbiy yordam oldi. Bu maqsadlar uchun jami 560 million so‘m mablag‘ sarflandi.

2002-yil mamlakatda **“Qariyalarni qadrlash yili”**, deb e’lon qilindi. Bunday nom berishdan maqsad – mamlakatda olib borilayotgan davlat siyosati, qurilayotgan davlat tizimi, barpo etilayotgan yangi jamiyat, hayotda qaror topayotgan ezgu qadriyatlar zahirida, avvalo, O‘zbekistonning buyuk kelajagini o‘ylab, yillar davomida shu oliyjanob ishga o‘z hissasini qo‘shgan, ana shu poydevorning tamal toshini qo‘ygan insonlarni ulug‘lash, ularni rozi qilish edi.

Qariyalarni moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2002-yilda pensiya miqdori 1,3 marta ko‘paytirildi, ularga qo‘shimcha imtiyozlar berish uchun birgina “Pensiya jamg‘armasi” tomonidan 39 milliard 600 million so‘m mablag‘ ajratildi, ikki millionga yaqin qariyalar dispanser nazorati va tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi, 30 mingdan ziyod ota-onaxonlar sanatoriyalarda va tibbiyot maskanlarida bepul davolandilar. “Ortopedik reabilitatsiya” ilmiy-ishlab chiqarish korxonasi barcha viloyatlarda filiallari tashkil etilib, yordamga muhtoj va nogiron keksalarni maxsus aravachalar, eshitish moslamalari va boshqa zarur vositalar bilan ta’minlash ishlari izchil davom ettirildi.

2002-yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasida “Taxiyatosh” sanatoriy-profilaktoriyasi, Namangan viloyatida urush va mehnat faxriylariga mo‘ljallangan “Kosonsoy” sihatgohi va, shuningdek, yolg‘iz qariyalar uchun Sirdaryo viloyatining Yangiyer shahrida yirik saxovat uyi barpo etildi.

2003-yil **“Obod mahalla yili”** deb nomlandi. Shu maqsadlarda tuzilgan maxsus dastur va uni amalga oshirish bo‘yicha erishilgan pirovard natijalari hisob-kitob qilinadigan bo‘lsa, bu dastur avvalo har qaysi inson va oilaning hayot tarzi, sharoitini yaxshilash, imkon boricha ularga erkinlik va qulaylik yaratib berishga xizmat qilganini ko‘rish mumkin.

2003-yil davomida mahallalarni yanada obod qilish maqsadida keng ko‘lamdagi bunyodkorlik, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ish-

lari amalga oshirildi. Bunga 1 milliard 745 million so‘m miqdorida mablag‘ sarflanib, 310 ta mahalla guzari bunyod qilindi. Mahalla va mavzelar hududidagi ming kilometrdan ortiq yo‘llar qayta ta‘mirlanib, obodonlashtirildi. “Obod mahalla yili” davomida 5 ming 630 ta mahalla hududida ko‘plab kichik va xususiy tadbirkorlik korxonalarini tashkil etish hisobidan qariyb 155 mingta yangi ish o‘rni yaratildi va buning natijasida kam ta‘minlangan fuqarolardan 110 ming nafari ish o‘rniga ega bo‘ldi. Bu muhim ishga tijorat banklari tomonidan 36 milliard 155 million so‘mlik kredit mablag‘lari ajratildi.

Dastur doirasida 1 milliard 200 million so‘mlik xayriya yordami ko‘rsatildi. Ikki yoshgacha bo‘lgan bolalar tarbiyasi bilan shug‘ullanayotgan 400 mingdan ziyod ayolga davlat tomonidan nafaqa puli tayinlandi, shuningdek, 180 mingta kam ta‘minlangan oilaga qariyb 4 milliard so‘m miqdorida ko‘mak berildi.

2004-yil *“Mehr va muruvvat yili”* deb nomlandi. Mazkur nom bilan atalgan Dasturda belgilangan tadbirlar ijrosi uchun qariyb 365 milliard so‘m, shu jumladan, 250 milliard so‘m byudjet, 115 milliard so‘m homiylar mablag‘i sarflandi. Ikki yoshgacha bo‘lgan farzandini tarbiyalayotgan onalar va kam ta‘minlangan oilalarga beriladigan moddiy yordam hajmi 1,3 marta ko‘payib, 140 milliard so‘mni tashkil etdi. Umumta‘lim maktablarining 1-sinf o‘quvchilari, “Mehribonlik” uylari tarbiyalanuvchilarini bepul darslik va o‘quv qurollari, kam ta‘minlangan oilalarga mansub o‘quvchilarni qishki kiyim-bosh bilan ta‘minlash uchun 25 milliard so‘m mablag‘ sarflandi.

Mamlakatdagi mavjud 93 ta “Mehribonlik uyi” va maxsus maktab-internat binolari to‘liq kapital ta‘mirdan chiqarildi va rekonstruksiya qilindi. Bunda, faqatgina “Mehribonlik” uylarining o‘ziga 24 milliard so‘m mablag‘ sarflanib, ishlarning 85 foizi homiylar tomonidan bajarildi.

Bunday xayrli ishlarga nafaqat mamlakatdagi, ayni paytda xalqaro miqyosdagi tashkilotlar ham o‘z hissasini qo‘shayotgani diqqatga sazovordir. Chunonchi, “YUNISEF”, “Vorld konsern”, “Yengrag”, “Amerikers” va boshqa tashkilotlar tomonidan 6 milliard 500 million so‘mlik insonparvarlik yordami ko‘rsatildi. Shular qatorida “Fridensdorf interneyshtl” xalqaro tashkiloti ko‘magida Toshkent shahri hamda Buxoro, Qashqadaryo, Xorazm, Farg‘ona viloyatlaridagi 156 nafar bolaning Germaniyada jarrohlik usuli bilan davolanishi tashkil etildi.

Dastur doirasida umumta‘lim va sog‘liqni saqlash muassasalari hamda boshqa ijtimoiy obyektlarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni kapital ta‘mirlash va jihozlashga qaratilgan hududiy dasturlar ishlab chiqildi va izchil amalga oshirildi. Bu maqsadlar uchun 40 milliard 500 million so‘m byudjet mablag‘i, 23 milliard so‘m homiylar mablag‘i jalb qilingani bu sohada ham salmoqli ishlar bajarilganini ko‘rsatadi.

Maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi qabul qilinib, unda 2004–2009-yillarda eski umumta'lim maktablari o'rniga yangi maktablar qurish, ularni kapital rekonstruksiya qilish, kapital va joriy ta'mirlashning asosiy prinsiplari belgilandi. Shuningdek, dasturda umumta'lim maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va rivojlantirish, maktablarni zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalari va kompyuter texnikasi bilan jihozlash, darsliklar va o'quv-uslubiy materiallar, pedagog kadrlar bilan ta'minlash, o'qituvchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, ularning mehnatini rag'batlantirishni kuchaytirish tadbirlari aniq belgilab berildi. Ushbu tadbirlar uchun mablag'larni jamlash, ulardan maqsadli foydalanish uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida byudjetdan tashqari maxsus "Maktab ta'limi jamg'armasi" tashkil etildi.

"Sihat-salomatlik yili" deb nomlangan 2005-yilda respublikadagi 38 ta shifoxona va sihatgoh yangitdan barpo etilib, 93 ta davolash-profilaktika muassasasi zamonaviy tibbiy uskunalalar bilan jihozlandi. Shuningdek, bir smenada 10 ming 500 bemorni qabul qila oladigan ambulatoriya-poliklinika muassasalari, jumladan, 210 ta qishloq vrachlik manzili ishga tushirilib, qancha-qancha odamlarning shifo topishiga, kasalliklarning oldini olishga xizmat qilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bunday ibratli ishlar nafaqat poytaxtda, balki barcha viloyat va tumanlarda ham amalga oshirildi. 2005-yilda 3 ta yangi tibbiyot kolleji barpo etilib, ularda ming nafar talaba tahsil oldi va tibbiy kadrlar tayyorlash ishini yaxshilashga xizmat qildi. Shuningdek, zamon talablariga javob beradigan malakali tibbiyot kadrlarini tayyorlash maqsadida Toshkentdagi ikki tibbiyot oliy o'quv yurti qo'shilib, yagona Toshkent Tibbiyot Akademiyasi nomi bilan faoliyat yurita boshladi.

2006-yil Prezident tashabbusi bilan **"Homiylar va shifokorlar yili"** deb nomlandi va shu nomdagi Davlat dasturi doirasida aholi uchun yangi ish o'rinlari tashkil etish, jumladan, qishloq joylarida kasanachilik harakatiga keng yo'l ochib berish, uy sharoitida chorva mahsulotlari yetishtirish bilan shug'ullanayotgan kishilarga mehnat daftarchasi ochish va pensiya badallarini jamg'arib borish imkoniyati yaratilgani, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etdi.

Davlat va nodavlat tashkilotlar hamda homiylar ko'magida ko'p bolali, kam ta'minlangan oilalarga 10 milliard so'mlikdan ziyod qoramol olib berilgani mamlakatda saxovat va himmatlilikning yana bir yorqin namunasi bo'ldi. Millionlab fuqarolar ishtirok etgan umumxalq xayriya hasharlaridan tushgan mablag'lar hisobidan 2 ming nafar yolg'iz keksa va 66 ming kam ta'minlangan oilaning 3 million 570 ming kvadrat metr uy-joyi ta'mirlab

berildi. Shuningdek, kam ta'minlangan oilalarga mansub salkam 725 ming nafar boshlang'ich sinf o'quvchisi 16 milliard so'mlikdan ziyod kiyim-bosh bilan ta'minlandi. Maktabga ilk bor qadam qo'ygan bolajonlarni darslik va o'quv qurollari bilan bepul ta'minlash ishlari davom ettirilib, 521 ming nafar o'quvchiga qariyb 15 milliard so'mlik darslik va o'quv qurollari sovg'a sifatida berildi. Yil davomida jami 161 ta bolalar sport majmuasi foydalanishga topshirilib, shulardan 18 tasi yangitdan barpo etilgani, 108 ta maktab sport zali hamda 35 ta sport majmuasi esa rekonstruksiya qilingani dastur doirasida yana bir muhim masala – yosh avlodni jismoniy sog'lom va barkamol tarbiyalash bo'yicha qilingan ishlarning dalilidir.

2007-yil **“Ijtimoiy himoya yili”** deb nomlanishi, aholini ijtimoiy himoya qilish ko'lamini yanada kengaytirish va kuchaytirishga omil bo'ldi. 2007-yilda qishloq joylarda 1,6 ming kilometrdan ortiq suv quvurlari va 710 kilometrlik gaz tarmoqlari foydalanishga topshirildi. Shu yili barcha turdagi ta'lim muassasalarida yangi zamonaviy o'quv-laboratoriya va ishlab chiqarish asbob-uskunalari bilan jihozlangan 169 ta kasb-hunar kolleji, 18 ta akademik litsey hamda 336 ming nafar o'quvchiga mo'ljallangan 558 ta umumta'lim maktabi ishga tushirildi.

2008-yilga **“Yoshlar yili”** deb nom berildi va bu borada maxsus Davlat dasturi qabul qilindi. Shu yilning 18-mayida yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan Prezident qarori qabul qilindi. Natijada yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlash ishiga davlat tomonidan ipoteka kreditlarini ajratishning huquqiy me'yorlari ishlab chiqildi. Jumladan, hududlarda yosh oilalar uchun uy-joy qurish ishlariga 46 milliard so'mlik kredit ajratilib, 15 ta ko'p qavatli uy foydalanishga topshirildi va 530 ta yosh oila alohida kvartiraga ega bo'ldi. “Mehribonlik” uylari bitiruvchilarini oilaviy turar-joy bilan ta'minlash tizimi yaratilib, ulardan 90 nafariga yangi kvartiralar berildiki, bu o'z navbatida xayrli ishlardan biri bo'ldi.

“Yoshlar yili” Davlat dasturi doirasida belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun 1 trillion 248 milliard so'mdan ortiq, jumladan, 1 trillion 96 milliard so'mlik byudjet mablag'i, 151 milliard so'mdan ziyod homiylar mablag'i sarflangani. bu borada bajarilgan ishlarning ko'lemi va miqyosini yaqqol namoyon etadi. Ushbu yilda Saudiya Taraqqiyot jamg'armasi va OPEK jamg'armasi tomonidan mamlakatdagi 28 ta yangi maktab qurilishiga 21 million, Islom taraqqiyot banki tomonidan 5 ta kasb-hunar kolleji qurilishi uchun 10 million dollar, Birlashgan Arab Amirliklari tomonidan yangi maktablarni jihozlash, kompyuterlar bilan ta'minlash uchun 16 million dollar miqdorida mablag' ajratildi.

Yoshlarni sog'lom turmush tarzi asosida tarbiyalash, ommaviy sportni rivojlantirish uchun yil davomida 186 ta sport inshootida katta hajmdagi quri-

lish-ta'mirlash ishlari yakuniga yetkazilib, millionlab bolalarning sport bilan shug'ullanishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Natijada, Pekinda bo'lib o'tgan XXIX yozgi olimpiada o'yinlarida o'zbek sportchi yoshlari faol qatnashib, keskin kurashlarda 1 ta oltin, 2 ta kumush, 3 ta bronza medalini qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldilar.

2009-yili "*Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili*"da qishloqlar qiyofasini o'zgartirish, agrosanoat majmuida olib borilayotgan islohotlarni chuqurlashtirish, qishloq aholisining hayot darajasi, ijtimoiy-siyosiy va madaniy saviyasini oshirish maqsadida qator ishlar amalga oshirildi. 2009-yil 13-apreldagi "Ona va bola salomatligini muhofaza qilish, sog'lom avlodni shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1096-sonli hamda 2009-yil 1-iyulda "2009–2013-yillarda aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog'lom bola tug'ilishi, jismoniy va ma'naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish va samardorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi" haqidagi PQ-1144-sonli Prezident qarorlari va ularning ahamiyati qishloqda onalar va bolalar salomatligini mustahkamlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratishda muhim ahamiyat kasb etdi.

O'zbekiston Respublikasi aholisi 2009-yil 1-yanvarigacha 27 million kishidan ziyodni tashkil etgan bo'lsa, shulardan 15 yoshgacha bo'lgan bolalar 38,5 foizni, fertil yoshidagi onalar 28,4 foizni tashkil etgan. Bundan ko'rinadiki, O'zbekiston tarkibi nisbatan aholisi yosh bo'lgan davlatlar qatoriga kiradi.

O'zbekiston barcha rivojlangan davlatlar qatori Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida birinchilardan bo'lib onalikni muhofaza qilishga doir o'nlab xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan davlatdir.

Prezident Islom Karimov 2010-yilga "*Barkamol avlod yili*" deb nom berayotib: "Yangi yilga "Barkamol avlod yili" deb nom berishning sabablari xalqimiz va davlatimiz, har qaysi inson nimaniki o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan bo'lmasin, qanday buyuk ishlarni amalga oshirishga intilmasin, barcha harakatlar, ezgu niyatlar markazida, tabiiyki, farzandlarimizni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan sog'lom qilib o'stirish, ularning baxt-u saodati, farovon kelajagini ko'rish, dunyoda hech kimdan kam bo'lmaydigan avlodni tarbiyalash orzusi turadi", deb ta'kidlagan edi.

O'zbekiston hukumati tomonidan "Barkamol avlod yili" Davlat dasturida belgilangan kompleks chora-tadbirlarni bajarishga 8 trillion so'm va 165 million dollar mablag', jumladan, 1,8 trillion so'm davlat mablag'lari, tijorat banklarining 3,3 trillion so'mlik kreditlari va mas'ul ijrochilarning 2,7 trillion so'mdan ortiq mablag'lari yo'naltirildi. Aytish kerakki, jahondagi hech bir davlat yosh avlod kamoloti uchun bunchalik katta e'tibor va mablag' ajratmagan. Davlat dasturi 11 ta yo'nalish 102 banddan iborat bo'lib, yo'naltirilgan

mablag'lar bolalar va yoshlarning barkamol rivojlanishi, ularning haq-huquqlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy-normativ bazasini takomillashtirish, onalar va bolalarning reproduktiv salomatligi muhofazasini, sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, uning moddiy-texnik bazasini kuchaytirish asosida yosh avlodning har tomonlama kamol topishi uchun shart-sharoitlar yaratish imkonini berdi.

Shuni mamnuniyat bilan qayd etish lozimki, bugun mamlakat yoshlarining o'z istak-xohishlariga ko'ra o'qishi, bilim olishi, kasb-hunar egallashi uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan. Prezidentning beqiyos g'amxo'rliklari bois, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini bitirgan kichik mutaxassis kadrlarni ish bilan ta'minlash ham ustuvor vazifa sifatida belgilanib, yuz minglab yoshlarning jamiyatda o'z o'rnini topishiga yaqindan ko'mak berilmoqda.

“Barkamol avlod yili” Davlat dasturida navqiron avlodni jismoniy tarbiya va bolalar sporti sohasida hamda yoshlarni sport bilan doimiy shug'ullanishlari borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish, yangi sport komplekslarini qurish hamda jihozlash, yuqori malakali trener kadrlar va murabbiylar bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi. 2009–2010-yillarda umumta'lim muassasalarida sport zallari yangidan qurildi va mavjudlari ta'mirlandi. Buning natijasida jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanuvchilar soni 34,8 foizga yetdi.

Yaratilgan ana shunday imkoniyatlar tufayli o'zbek yoshlari jahon miqyosidagi sport musobaqalari, fan olimpiyadalarida muvaffaqiyatli ishtirok etib, yuqori natijalarga erishdilar. So'nggi besh yil davomida birgina umumta'lim fanlari bo'yicha 100 ga yaqin o'zbekistonlik maktab o'quvchilari Yaponiya, Germaniya, Ispaniya, Rossiya, Gretsiya mamlakatlarida turli fanlardan o'tkazilgan nufuzli fan olimpiyadalarida ishtirok etib, 3 ta oltin, 8 ta kumush, 36 ta bronza medallarini qo'lga kiritishdi.

Prezidentning “Yurtimizda yashayotgan har bir bolaning o'ziga xos qobiliyati va iste'dodini o'z vaqtida payqash, tarbiyalash va ro'yobga chiqarish – bu o'ta muhim vazifani nafaqat ota-onalarning ezgu maqsadi, balki jamiyatimizning burchi sifatida o'rta qo'yish kerak” degan fikrlari ushbu dasturni muvaffaqiyatli amalga oshirilishida alohida ahamiyat kasb etdi.

“*Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili*” deb nom berilgan 2011-yilda qabul qilingan umumdavlat dasturida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning tez o'zgarib turadigan bozor talablariga javob berishini ta'minlaydigan zamonaviy tuzilmalarini shakllantirishda, yangi ish o'rinlarini

tashkil qilishda va aholi daromadlarini oshirishda qanchalik oʻta muhim rol oʻynashi alohida eʼtiborga olindi. Shuningdek, bu sohaning mamlakatni modernizatsiya qilish va yangilashning ishonchli tayanchi boʻlgan mulkdorlar sinfini, yaʼni oʻrta sinfni shakllantirishdagi ulkan ahamiyatiga ham eʼtibor qaratildi. 2011-yilda mazkur sohaning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 54 foizga yetdi.

Dastur asosida belgilangan vazifalardan biri – yangi ish oʻrinlarini yaratish edi. Amalga oshirilgan ishlar natijasida 1 millionga yaqin ish oʻrinlari yaratildi. Ularning 65 foizdan koʻprogʻi qishloq joylarida tashkil etildi. Bular kichik biznes, xususiy tadbirkorlik va fermerlik rivojini ragʻbatlantirishni yanada kuchaytirish, xususan, ularga yangi imtiyoz va preferensiyalar berish, yangi korxonalar tashkil etish, kasanachilikning turli shakllarini kengaytirish hisobidan yaratildi. Mazkur yilda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari uchun yagona soliq toʻlovi stavkasi 7 foizdan 6 foizga tushirildi. Bu subyektlar ishlab chiqarayotgan mahsulotlarni sotish hajmi oʻtgan davr mobaynida qariyb 2 barobar koʻpayib, 600 milliard soʻmni tashkil etdi. Ushbu yoʻnalishda qariyb 100 million AQSH dollari miqdorida mablagʻ oʻzlashtirildi.

Mamlakatda 2012-yil **“Mustahkam oila yili”** deb eʼlon qilinishi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 27-fevraldagi qarori bilan **“Mustahkam oila yili”** Davlat dasturi qabul qilindi va bu dasturidagi vazifalar nafaqat oila, u bilan bogʻliq barcha sohada mustahkamlik va takomillashuvni kuchaytirish yoʻnalishlarini belgilab berdi.

Davlat dasturi doirasida yosh oilalarga eʼtibor va gʻamxoʻrlikni kuchaytirish, ularni huquqiy va ijtimoiy himoya qilish, moddiy va maʼnaviy jihatdan keng miyosida qoʻllab-quvvatlash kabi oʻta muhim masalalar davlatning diqqat markazida boʻldi. Shu asosda yosh oilalar uchun 2 ming 400 ta xonadon foydalanishga topshirildi. Minglab yosh oilalarga 15 yil muddatga moʻljallangan 210 milliard soʻmga yaqin imtiyozli ipoteka kreditlari berildi. Yordamga muhtoj oilalarga 8 ming 600 dan ziyod qoramol hamda 1 million 900 mingta uy parrandasi tarqatildi. Kam taʼminlangan oilalarga mansub oʻquvchilarga qiymati qariyb 28 milliard soʻmdan iborat boʻlgan qishki kiyim-kechak berildi.

Yil davomida mingga yaqin umumtaʼlim maktabi zamonaviy kompyuter xonalari, 1 ming 150 ta dan ziyod kollejlardagi oʻquv ustaxonalari amaliy mashgʻulotlar uchun zarur boʻlgan jihozlar, xomashyo mahsulotlari bilan taʼminlandi. Bir soʻz bilan aytganda, Davlat dasturidagi vazifalarni amalga oshirish uchun barcha moliyaviy manbalar hisobidan 2 trillion soʻmdan ortiq hamda 100 million AQSH dollaridan ziyod mablagʻ sarflandi.

Davlat rahbari tomonidan 2013-yil **“Obod turmush yili”** deb nomlanishi xalq turmushi yanada obod boʻlishi uchun omil boʻldi va shu nomdagi Davlat dasturida mamlakatda tinchlik-osoyishtalik va xavfsizlikni, fuqarolar va mil-

latlararo ahillik hamda hamjihatlikni saqlash, mustahkamlash, aholi farovonligini, uning real daromadlarini oshirish, bandlik masalasini yechish, inson salomatligini mustahkamlash, xalqning hayot sifati va darajasini yuksaltirish, ijtimoiy himoyalash tizimini yanada takomillashtirish, ayollarning jamiyatdagi oʻrni va nufuzini, ijtimoiy faolligini yanada oshirish borasidagi qoʻyilgan vazifalar oʻz yechimini topdi.

“Sogʻlom bola yili” deb nomlangan 2014-yilda qabul qilingan Davlat dasturi asosida oʻsib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama qoʻllab-quvvatlashini taʼminlash, sogʻliqni saqlash tizimini takomillashtirish, taʼlim va sportni rivojlantirish vazifalari qoʻyilib, ularni bajarilishi uchun barcha manbalar hisobidan 4 trillion 795 milliard soʻm va 260 million AQSH dollaridan ziyod mablagʻ sarflandi.

Mamlakatda 2015-yil “Keksalarni eʼzozlash yili” deb nomlandi va mazkur yilda amalga oshiriladigan ishlar ham mustaqillik yillarida olib borilayotgan siyosatning asosiy, bosh maqsadi boʻlmish inson manfaati, inson huquqlari va erkinliklarini taʼminlashga, ertangi kunni yanada yorugʻ boʻlishiga xizmat qiladi.

6. TARAQQIYOTNING OʻZBEK MODELIGA XOS USTUVOR TAMOYILLARNING EʼTIROFI

Yurtboshimiz tomonidan ishlab chiqilgan va hayotga izchil joriy etilayotgan, oʻtgan 23 yildan ortiqroq davr davomida jamiyatning qiyofasini butunlay oʻzgartirib yuborgan taraqqiyotning oʻzbek modeli bugungi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida oʻzining naqadar toʻgʻri ekanini amalda yana bir bor isbotladi. Buni jahondagi taniqli iqtisodchilar, davlat arboblari va mohir siyosatchilar, nufuzli ekspert va tahlilchilar ham eʼtirof etishmoqda. Ular tomonidan Oʻzbekistonning iqtisodiy taraqqiyoti hamda inqirozni bartaraf etish borasida olib borayotgan izchil chora-tadbirlarni har tomonlama teran tahlillar orqali oʻrganib chiqilmoqda. Shuningdek, ular moliyaviy inqirozni boshidan kechirayotgan davlatlar uchun mazkur model qaysidir jihatdan tatbiq etilishi mumkinligini taʼkidlashmoqda.

2009-yilning oktabrida yurtimizga tashrif buyurgan Xalqaro valyuta jamgʻarmasi ijrochi direktorlari missiyasining bayonotida: “Oʻzbekiston hukumati jahon iqtisodiy inqirozi sharoitida iqtisodiy oʻsishni taʼminlash uchun zarur boʻlgan koʻplab resurslarni jamlagan holda, jahon moliya bozorlarida oqilona siyosat olib bordi. Bunday puxta oʻylangan siyosat mamlakatning global iqtisodiy inqiroz taʼsiriga samarali qarshi tura olishida muhim omil boʻldi”, deb yoziladi.

Jahonning koʻzga koʻringan siyosatdonlari, iqtisodchi olimlarining Oʻzbekistonda olib borilayotgan izchil islohotlarning yuksak samaralar berayotgani toʻgʻrisidagi ommaviy axborot vositalari va matbuot sahifalarida eʼlon qilinganeʼtiroflari ham haqiqatdir. Jumladan, “Gulf University” oliy oʻquv yurti Sanʼat va fan fakultetining ommaviy kommunikatsiya departamenti rahbari, siyosatshunoslik fanlari doktori Masʼud ASAD (Quvayt), Rossiya Tashqi ishlar vazirligi Diplomatika akademiyasining xalqaro dolzarb muammolar instituti katta ilmiy xodimi, professor B.ASHAVSKIY, Italiyaning Osiyo va Oʻrta Yer dengizi instituti bosh kotibi, “Italiya – Oʻzbekiston” doʻstlik va hamkorlik uyushmasi kotibi A.LOKE, Islomobod siyosiy tadqiqotlar instituti yetakchi eksperti Ahmad Rashid MALIK (Pokiston) Milliy demokratiya instituti vakili Klark PLEKSIKO (AQSH), Ruan universitetining huquqshunos professori Jerom de Iya PORT (Fransiya), Rossiya Siyosiy konyunktura markazining tashqi siyosat boʻyicha yetakchi eksperti Yevgeniy Voykolar oʻz fikrlarida Oʻzbekiston Prezidenti Islom Karimov tomonidan tanlangan, birinchi galda, bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich oʻtish uchun dastlabki shart-sharoitlarni shakllantirish, barcha sohalarni isloh qilish va rivojlantirish yoʻli oʻzining hayotiyligini namoyon etgani hech kimda shubha uygʻotmasligini, mamlakatda belgilangan barcha rejalarni muvaffaqiyat bilan hayotga tatbiq etish uchun mustahkam qonunchilik bazasining yaratilgani va iqtisodiy taraqqiyot jarayonining davlat tomonidan tartibga solinishi, dunyoda sodir boʻlayotgan hozirgi ahvol, shu jumladan, kechayotgan global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz Oʻzbekiston rahbarining bu borada olib borayotgan ichki siyosati toʻgʻri ekanligini koʻrsatayotganligini bildiradilar.

Shuning bilan birga, 2010-yilning 1-4-may kunlari Toshkentda oʻtkazilgan Osiyo taraqqiyot banki (OTB) Boshqaruvchilar kengashining 43 yillik majlisida ishtirok etgan Jahon bankining Markaziy Osiyo mamlakatlari boʻyicha mintaqaviy direktori Moto Koneshining ham samimiy soʻzlarini keltirish mumkin. “Menga, ayniqsa, davlatingiz rahbarining istiqbol yillarida “Yangi uy qurmasdan turib, eskisini buzmagʻ” degan hayotiy tamoyilga amal qilib ish tutgani juda maʼqul boʻldi. Ushbu tamoyilga asoslanib yuritilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat samarasi oʻlaroq, bugun Oʻzbekistonning jahon miqyosidagi nufuzi tobora yuksalib bormoqda” (“Oʻzbekiston ovozi”, 2010-yil 6-may, 53-son).

Davlatimiz rahbarining 2009-yilda chop etilgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarining oldini olish va respublikamiz iqtisodiyotiga taʼsirini kamaytirishning asosiy yoʻnalishlarini belgilab beruvchi “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, Oʻzbekiston sharoitida uni bartaraf etishning

yo'llari va choralari" nomli asari bugun butun dunyoda katta qiziqishga sabab bo'ldi. Ushbu risolada jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining kelib chiqish sabablari, oqibatlarini, uning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri va ushbu salbiy ta'sirni mamlakat sharoitida bartaraf etishning yo'llari va choralari aniq belgilab berilgan.

Dunyoning ko'zga ko'ringan siyosatchi, iqtisodchi olimlari I.A.Karimovning bu asarida global iqtisodiy inqiroz dunyoning biron bir davlatini chetlab o'tmayotgan davrda mamlakatni yanada ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yo'lini topish borasida hukumat oldida turgan ko'plab vazifalar aniq va ravshan bayon etilgani, Islom Karimov O'zbekistonda qisqa muddatlarda amalga oshirilishi mo'ljallangan inqiroz oqibatlariga ta'sir ko'rsatuvchi amaliy tashabbuslarni taklif etgani, Prezidentning xulosa va takliflari boshqa mintaqalarda joylashgan mamlakatlarda ham muvaffaqiyat qozonishi mumkinligi, bu asarni mutolaa qilganda jahon moliyaviy inqirozi bilan bog'liq muammolar, xususan, global inqirozning O'zbekiston iqtisodiyotiga jiddiy ta'sirini kamaytirish mumkin bo'lgan yo'llarni izlash masalalari naqadar teran hal qilinganligi, dunyodagi aksariyat hukumatlarning kun tartibiga endigina kiritilgan, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish haqidagi mavzu Prezident kitobida keng muhokama qilinib, muhim ahamiyat kasb etganini haqqoniy e'tirof etmoqdalar.

Shuningdek, ularning fikrlarida uch yo'nalishdagi, davlat tomonidan samarali olib borilgan siyosat, kreditlarni qo'llab-quvvatlash va tadbirkorlik faoliyati uchun ko'mak berish siyosati, O'zbekiston sharoitida moliyaviy-iqtisodiy inqirozning ta'sirini kamaytirish borasida tanlangan yo'lning to'g'ri ekanligi alohida ta'kidlanadi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqil O'zbekistonda qisqa davr mobaynida katta muammolarning yechimini topib, o'z taraqqiyotini belgilab ulkan natijalarga, iqtisodiyotning jadval o'sishiga erishildi. Bugungi global moliyaviy inqirozga qarshi samarali choralar ko'rilishi tufayli keyingi 5 yilning o'zida o'sish sur'atlari o'rtacha 8,5 foizni tashkil etdi va bu Markaziy Osiyodagi o'rtacha o'sish ko'rsatkichidan yuqoridir.

Davlatimizning oqilona to'g'ri iqtisodiy siyosati, tanlangan va amalga oshirilayotgan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti, Yurtboshimiz tomonidan ishlab chiqilgan taraqqiyotimizning "O'zbek modeli" amaliyoti va eng asosiysi, xalqning tanlangan yo'limizga ishonchi barcha muvaffaqiyatlarning muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

Tayanch soʻz va iboralar:

Bozor munosabatlariga oʻtish. Strategiya va yoʻnalishlar. “Oʻzbek modeli”. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish. Barqaror oʻsish surʼatlari. Koʻp tarmoqli iqtisodiyot. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. Fermer xoʻjaliklari. Qulay investitsiya muhiti. Avtomobilsozlik. Bank, moliya va soliq tizimi. Tashqi iqtisodiy faoliyat. Modernizatsiya jarayonlari. Xalq farovonligi. Ijtimoiy dasturlar. Dunyo jamoatchiligi eʼtirofi.

Bilimingizni sinab koʻring

1. Oʻzbekistonda bozor islohotlarini amalga oshirish dasturiga koʻra, ustuvor vazifalar bosqichma-bosqich hal qilina boshlandi. Davlat rahbari tomonidan har bir bosqichning muhim yoʻnalishlari belgilab berildi.

Iqtisodiy islohotlarni huquqiy asoslovchi qonun-qoidalar yuridik tashkilotlar, yetuk olimlar tomonidan tayyorlandi va jahonning yirik mutaxassislari tomonidan tan olindi. Iqtisodiy islohot, tadbirkorlik va chet el investitsiyalari boʻyicha Prezident huzurida bir kengash tuzildi. Bu kengash qanday nomlanar edi? Kengash nomini toping.

				u	
--	--	--	--	---	--

		o							o
--	--	---	--	--	--	--	--	--	---

k	e	n	g	a	sh
---	---	---	---	---	----

2. Ijtimoiy yoʻnaltirilgan bozor munosabatlariga oʻtish borasida tashqi omillardan tashqari xalqning oʻziga xos milliy mentaliteti, milliy urf-odatlari, anʼana va qadriyatlari, madaniy merosi toʻliq eʼtiborga olingani, mamlakatda vujudga kelgan siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy shart-sharoitlar, aholining turmush darajasi hisobga olindi. Islohotlarni amalga oshirishda xalqning bunyodkorlik va yaratuvchanlik kuchiga tayanildi.

Shuningdek, oʻzbek modelining amaldagi muvafaqqiyatini taʼminlashda xalqning ikki muhim fazilatiga ham muhim eʼtibor qaratildi. Bular xalqning qaysi ikki fazilati edi?

										l	i	k		v	a
--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	---	---	---	--	---	---

						l	i	k
--	--	--	--	--	--	---	---	---

3. Bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiy o‘shish sur‘atlarining yuqoriligi va barqarorligi bo‘yicha bir turkum mamlakatlar orasida yetakchi o‘rinlardan birini egallab kelmoqda. Holbuki, bu turkumdagi ayrim davlatlar hali yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish hajmining 1991-yildagi darajasiga ham yetgani yo‘q.

Bu yerda qaysi turkum (guruh)dagi davlatlar haqida gap ketmoqda? Bu turkum davlatlarining umumiy nomini toping.

				a		i				a			a			a	
--	--	--	--	---	--	---	--	--	--	---	--	--	---	--	--	---	--

	a			o‘								i
--	---	--	--	----	--	--	--	--	--	--	--	---

4. Qishloq xo‘jaligidagi islohotlar asosan yerning haqiqiy egasi, omilkor va tadbirkor mulkdorlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bo‘lib, bu asosan fermerchilikni jadal rivojlantirish orqali amalga oshirildi. 2010-yilga kelib fermer xo‘jaliklarining soni 80 mingdan oshib ketdi. Fermer yer maydoni kengayib, oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishga yo‘naltirildi. Fermer xo‘jaliklari faoliyati samaradorligini yanada oshirish maqsadida ularning yer maydonlari miqdorini bir narsa qilish choralari amalga oshirildi.

Fermer xo‘jaliklari faoliyati samaradorligini yanada oshirish maqsadida ularning yer maydonlarini nima qilish choralari amalga oshirilgan edi?

		t			a			a					i	
--	--	---	--	--	---	--	--	---	--	--	--	--	---	--

5. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mamlakatning iqtisodiy qudratini yanada oshirish maqsadida 2009–2014-yillarga mo‘ljallangan dastur ishlab chiqilgan. Bu dasturdan 19.3 milliard dollar hajmidagi 138 ta loyiha o‘rin olgan. Bu esa mamlakat iqtisodiyotining yaqin kelajakda zamonaviy texnika va texnologiyalarga, ishlab chiqarishning ilg‘or usullariga, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlariga asoslangan bir nomdagi iqtisodiyotga aylanishini ko‘rsatdi.

Bu iqtisodiyot nomini toping.

					a				o	
i	q	t	i	s	o	d	i	y	o	t

6. Aholi real daromadlarining oshishida respublikada makroiqtisodiy sharoitning qulayligi, iqtisodiy o'sishning tez sur'atlarda oshishi, inflyatsiyaning sezilarli darajada pasayishi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar va aholiga aniq yordam qilishning kuchaygani ham asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda. Bu yerda aholiga aniq yordam qilish deganda nima nazarda tutilmoqda?

			i						
			o		q	i	l	i	sh

7. Ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish jarayoni aholi hayot faoliyati uchun sharoitlar yaratadi. Bu sharoitlar ikki so'zdan iborat bir tushuncha bilan tavsiflanadi va bu tushuncha qanday nomlanadi?

			m		
			a		

8. Mamlakatda 2008-yil – “Yoshlar yili”da kam ta'minlangan va yosh oilalarga shaxsiy chorvachilik bilan shug'ullanish uchun 6,5 milliard so'mlik imtiyozli kreditlar ajratildi va 15 mingdan ziyod oilaga 14 milliard so'mdan ortiq homiylik mablag'i hisobidan bir narsa berildi. Oilalarga homiylik tomonidan nima berilgan edi?

	o				o	
--	---	--	--	--	---	--

9. O'zbekiston barcha rivojlangan davlatlar qatori Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida birinchilardan bo'lib aholining bir qatlamini muhofaza qilishga doir o'nlab xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan davlatdir. Bu ratifikatsiya qilingan hujjatlar aholining qaysi qatlamini muhofaza etishga doir edi?

			l			n	i
--	--	--	---	--	--	---	---

10. Mamlakatning qisqa davrda erishgan ulkan yutuqlarida jahon moliyaviy tashkilotlarining ham katta hissasi bor. Ulardan biri Osiyo taraqqiyot banki (OTB)dir. Bu tashkilot 2010-yil mayda o'z boshqaruvchilar kengashining 43-yillik majlisini Toshkentda o'tkazdi. Tashkilotning Markaziy Osiyo mamlakatlari bo'yicha mintaqaviy direktori Toshkentdagi yig'ilishda “Menga, ayniqsa, davlatingiz rahbarining istiqloq yillarida “Yangi uy qurmasdan turib,

eskisini buzmag'' degan hayotiy tamoyilga amal qilib ish tutgani juda ma'qul bo'ldi'', degan edi.

Xo'sh, OTBning Markaziy Osiyo mamlakatlari bo'yicha mintaqaviy direktori kim? Uning ism-sharifini toping.

	o		
--	---	--	--

o				i
---	--	--	--	---

XVIII BOB. MUSTAQIL O‘ZBEKISTONNING MA’NAVIY VA MADANIY RIVOJI

Mavzu rejasi:

1. Ma’naviy va ma’rifiy taraqqiyot.
2. Ta’lim islohotlari.
3. Ilm-fan, adabiyot va san’at rivoji.
4. Diniy bag’rikenglik – ijtimoiy barqarorlik omili.
5. Xalqning tinch va osuda hayoti – barqaror taraqqiyot garovi.

1. MA’NAVIY VA MA’RIFIY TARAQQIYOT

O‘tgan yigirma uch yildan ortiqroq davr davomida mustaqillik o‘zbek xalqi uchun eng ulug‘, eng aziz qadriyat bo‘lib, milliy o‘zligi, or-nomusi, g‘urur-iftixori timsoli, ezgu orzu-intilishlari, yutuq va marralarining hayot-baxsh manbayi sifatida barcha vatandoshlar qalbidan mustahkam o‘rin egaladi. Xalqning mamlakat o‘tmishiga, boy tarixiy merosiga, ma’naviy qadriyatlar va an‘analarga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi. Davlat rahbarining “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” kitobida ta’riflanganidek, insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch – ma’naviyatga eng ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e’tibor qaratildi. Mustaqillik tufayli tarixiy haqiqatlar tiklandi, milliy bayramlar va urf-odatlar asl holiga qaytdi, aziz avliyolarning qarovsizlikdan nurab, deyarli yo‘q bo‘lib ketish arafasiga kelib qolgan maqbaralari, masjid va madrasalar tubdan ta’mirlandi, milliy madaniyat tarixini o‘rganish, u haqda xolisona fikr bildirish borasida, osori-atiqalarni asrash, milliy qadriyatlarni tiklash, qadimiy va o‘zlikni to‘liq anglash uchun qadimiy boy tarixni to‘laqonli yoritish imkoniyati tug‘ildi.

Jahon madaniyatiga o‘zining munosib hissasini qo‘shgan ajdodlar tavaludlarini nishonlash izchil an‘anaga aylandi. Prezident tashabbusi bilan buyuk allomalar tavallud sanalari nishonlandi. Jumladan, 1991-yili Alisher Navoiy, 1993-yili Ahmad Yassaviy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Bahouddin NAQSHband, 1994-yili Mirzo Ulug‘bek, 1995-yili Feruz, Najmiddin Kubro, 1996-yili Amir Temur, 1998-yili Imom al-Buxoriy, Ahmad al-Farg‘oniy, 1999-yili Jaloliddin Manguberdi, 2000-yili Burhonuddin al-Marg‘inoniy,

Kamoliddin Behzod, Imom Abu Mansur al-Moturudiy kabi mutafakkirlarga bag'ishlangan tantanalari o'tkazildi. Shu o'rinda davlat rahbarining: "Bu kabi tantanalarni o'tkazishdan ko'zlangan niyat va maqsadlarimiz... muqaddas qadamjolarini obod qilishimiz sabablari... eng avvalo, bu ishlarni amalga oshirish zahirida savob degan oliyjanob tushuncha yotadi. Savob – ulug' insoniy fazilat, yuksak islomiy qadriyatlardan biridir"¹, degan so'zlari yodga keladi.

Prezident ushbu so'zlarining davomida "Mening komil ishonchim shuki savob ishni har kim qilishi kerak, savob ishni har kun qilish kerak", degan jummalarni keltiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Amir Temur taval-ludining 660 yilligini nishonlash to'g'risida"gi qaroriga asosan, 1996-yilda sohibqiron Amir Temurning 660 yilligi tantanalari o'tkazildi. Ushbu tadbir-lar kengayib, butun jahon hamjamiyati tomonidan yuqori darajada o'tkazildi. Madaniyat, san'at, maorif, matbuot, sport sohalarida ulug' sarkardaga bag'ishlab, turli yo'nalishdagi kitob, maqola, risolalar chop etildi, turli film va spektakllar namoyish etildi. Sport sohasida esa uluq, ko'pkari, kurash o'yinlari qayta tiklanib, keng miqyosda ommalashtirildi.

Ajdodlar merosini o'rganish, xususan, jadidchilik namoyandalari Munav-varqori, Ubaydulla Xo'jayev, M.Behbudiy, A.Avloniy, A.Fitrat, Cho'lpon, Ishoqxon Ibrat, A.Qodiriy merosini tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ajdodlar merosini o'rganishning ma'naviy va huquqiy asoslari ishlab chiqildi va hayotga tatbiq etila boshlandi. 1998-yilda Ahmad al-Farg'oniyni 1200 yilligini nishonlash o'zlikni, qadriyatlarni anglash yo'lidagi yana bir voqea bo'ldi. Ulug' ajdodlar tavallud sanalarini o'tkazish bo'yicha ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy tajribalar vujudga keldi.

Shuningdek, qadimgi ajdodlarning ezgu g'oyalari, milliy davlatchilik an'analari, turmush tarzi va mentalitetini aks ettirgan "Avesto" kitobi o'zining haqiqiy qadr-qimmatini topdi. Prezident Islom Karimov rahbarligida amalga oshirilgan ma'naviy merosni tiklash, har tomonlama o'rganish va targ'ib etish borasidagi keng ko'lamlil ishlar doirasida ushbu kitob ham xalqning ma'naviy mulkiga aylantirildi. Kitobning xalq va milliy davlatchilik tarixi, umum-bashariy sivilizatsiya rivojidagi ulkan ahamiyatini hisobga olgan holda, 2001-yili "Avesto" yaratilganligining 2700 yilligi respublika va xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Shu munosabat bilan "Avesto"ning to'liq matni o'zbek ti-liga tarjima qilinib, chop etildi.

¹Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. – T.: "O'zbekiston", 1999. – 183-b.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda buyuk allomalarning tavallud sanalarini nishonlash

Tavallud sanasi nishonlangan yil	Allomalar	Tavallud yoshi
1991-yil	Alisher Navoiy	550 yil
1993-yil	Ahmad Yassaviy	950 yil
	Zahiriddin Muhammad Bobur	510 yil
	Bahouddin Naqshband	675 yil
1994-yil	Mirzo Ulug‘bek	600 yil
1995-yil	Feruz	150 yil
	Najmiddin Kubro	850 yil
	Mahmud az-Zamaxshariy	920 yil
1996-yil	Amir Temur	660 yil
1998-yil	Imom al-Buxoriy	1225 yil
	Ahmad al-Farg‘oniy	1200 yil
1999-yil	Jaloliddin Manguberdi	800 yil
2000-yil	Burhonuddin al-Marg‘inoniy	910 yil
	Kamoliddin Behzod	545 yil
	Imom Abu Mansur al-Moturudiy	1130 yil
2003-yil	Abduholiq G‘ijduvoni	900 yil
2004-yil	Hoja Ahror Valiy	600 yil

Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarning yangi, davr talabi va manfaatlariga mos takomillashgan tizimi shakllantirildi. Yuzlab muzeylar, madaniyat uylari va saroylari, axborot resurs markazlari, madaniyat va istirohat bog‘lari om-maviy muassasalar sifatida xalqqa ma‘naviy-ma‘rifiy xizmat ko‘rsata bosh-ladi. Respublika “Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi” tashkil etildi (1994) va uning viloyat, tuman va shaharlardagi bo‘limlari ishga tushirildi. Markaz-ga Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashi rahbarlik qila boshladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 25-avgustdagi “Milliy g‘oya targ‘iboti va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi qaroriga binoan Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashi faoliyati va tarkibiy tuzilishi qayta ko‘rib chiqildi. Shuningdek, Respublikadagi mahal-la oqsoqollari va fuqarolar yig‘inlari raislarining ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha maslahatchilari tizimi shakllantirildi.

Birgina Toshkent shahrida “Turkiston” saroyi, Alisher Navoiy nomidagi Milliy bog‘, Temuriylar tarixi Davlat muzeyi, Milliy akademik teatr binosi va g‘oyat go‘zal, mahobatli koshona – O‘zbekiston Davlat konservatoriyasining yangi binosi va boshqa ko‘plab inshootlar barpo etildi.

2000-yili poytaxtning Yunusobod tumanida qatag‘on yillarida xalqning minglab asl farzandlari qatl etilib, nom-nishonsiz ko‘mib tashlangan, necha yillar davomida qarovsiz qolib ketgan Bo‘zsuv kanali sohilidagi Alvastiko‘prik deb nom olgan jarlik o‘rnida “Shahidlar xotirasi xiyoboni” va keyinchalik shu nomda muzey va jamg‘arma tashkil qilindi va 2001-yildan e‘tiboran 31-avgust kuni mamlakatda qatag‘on qurbonlarini yod etish kuni sifatida nishonlanadigan bo‘ldi. Har yili 31 avgust tongida bu maskanda xalqning qadimiy urf-odatlariga ko‘ra osh tortilib, Qur‘on tilovat qilish, davlat va hukumat rahbarlari, keng jamoatchilik vakillarining bu yerga kelib, marhumlarni yod etishi, ularning ruhiga hurmat bajo keltirishi ibratli an‘anaga aylandi.

Ko‘plab Sharq allomalarining nodir asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etildi. Vatan ozodligi yo‘lida shahid ketgan yurtdoshlarning nomi abadiylashtirildi. Diniy bayramlar – Ramazon hayiti, Qurbon hayiti, xalqning qadimiy bayrami – Navro‘z tiklandi.

Shu yo‘sin mamlakatda ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarning o‘ziga xos samarali tizimi yuzaga keldi. Respublikaning barcha viloyat, yirik shahar va tumanlarida faoliyat yuritayotgan ma‘naviy-ma‘rifiy muassasalar ishtirokida katta xalq sayillari, hosil, “Mustaqillik”, “Navro‘z”, “Mehrjon” bayramlari, “Sharq taronalari” xalqaro festivali, xonandalar, raqqosalar, eng yaxshi kasb ustalarining ko‘rik tanlovlari. “O‘zbekiston Vatanim manim”, “Eng ulug‘, eng aziz”, “Kelajak ovozi”, “Yagonasan, muqaddas Vatan” kabi ko‘rik-tanlovlar ham o‘tkazib kelinmoqda.

Asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlar, urf-odat va an‘analarning xalqning betimsol boyligi, istiqbolning mustahkam poydevori va porloq istiqbol kafolatidir. Bugungi globallashuv davrida inson ongi va tafakkurini egallash yo‘lidagi kurash keskinlashayotgan, yoshlarni yot g‘oya va mafkura, salbiy illatlar ta‘siriga tortishga urinishlar tobora kuchayayotgan bir sharoitda ajdodlarning orzu-umidlari, intilishlari va boy tafakkurini o‘zida mujassam etgan bunday bebaho boyligni ko‘z qorachig‘iday asrash va uni ulg‘ayib kelayotgan avlodning ong-u shuuriga chuqur singdirish vazifasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Tarixiy an‘analarga sadoqat, ajdodlardan faxrlanish, ijtimoiy hayotning eng muhim yo‘nalishlariga alohida e‘tibor qaratish mustaqil siyosat va milliy g‘oyaning eng muhim hayotbaxsh omillariga aylandi. Tarix va madaniy meros millatning asosiy boyligi. Shu bois, madaniy merosga mu-

nosib voris bo'lish uchun urf-odat va an'analarni asrab-avaylabgina qolmay, ularni yanada takomillashtirish lozim.

Prezident Islom Karimov rahnamoligida barcha jabhalar singari milliy madaniyat, san'atni izchil rivojlantirish, bu boradagi an'analarni davom ettirish, uning eng yaxshi namunalaridan xalqni bahramand etish, ijodkorlarning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlarni yaratish yuzasidan keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda turli vazirlik va idoralar, muassasalar, ijodiy birlashmalar bilan birgalikda jamoat tashkilotlari ham faol ishtirok etmoqda. "O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi" jamg'armasining faoliyati buning dalilidir.

Oxirgi yillarda O'zbekistonda madaniyat, fan va ta'lim sohasida avvalgi davr bilan taqqoslab bo'lmaydigan darajada yutuqlarga erishildi. Chunonchi, mamlakatning barcha viloyatlari uchun an'anaviy bo'lgan hunarmandchilikka e'tibor kuchaytirilib, bu soha davlat va jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanib kelinmoqda. Milliy hunarmandchilik sohasi an'ana va udumlarini tiklashga o'z hissasini qo'shayotgan kishilarni rag'batlantirish maqsadida Prezident va hukumatning milliy hunarmandchilik va kasanachilik bilan shug'ullanuvchilarni qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi bir qator farmon va qarorlari qabul qilingani bunga misol bo'la oladi.

Musiqqa, amaliy va tasviriy san'at kabi yo'nalishlar rivojiga katta e'tibor berilmoqda. O'zbekiston hatto nufuzli xalqaro musiqa va teatr festivallariga, iste'dodli ijrochilar tanlovlari va ko'rgazmalarga ham mezbonlik qilmoqda.

Yosh avlodni har tomonl ama barkamol tarbiyalash ma'naviy-ma'rifiy ishlar markazida turgan eng buyuk vazifaga aylangani quvonchlidir. Shu maqsadda hukumatga qarashli bo'lmagan "Sog'lom avlod uchun" jamg'armasi tashkil qilinib, shu nomdagi dastlabki orden ta'sis etildi. Mamlakatda "Ona va bola" ijtimoiy dasturi qabul qilini b, onalik va bolalikni muhofaza qilish yo'lida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi, yangi-yangi skrining va perinatal markazlar, zamonaviy shifoxonalar barpo etildi. Bundan tashqari, mamlakatda "Umid nihollari", "Barkamol avlod" va "Universiada" sport o'yinlarini o'z ichiga olgan uch bosqichli yagona uzluksiz tizimning shakllanib, samarali faoliyat ko'rsatib kelayotgani ham sog'lom avlod tarbiyasida katta rol o'ynaydi. Nogiron bolalar uchun "Mehribonlik" saxovat festivali muntazam o'tkazib kelinmoqda. O'zbekiston ma'naviy hayotining ajralmas qismi bo'lgan xalqaro kino, teatr va musiqaviy festivallar o'tkazish yaxshi an'anaga aylanib qoldi. Xalq baxshichilik san'atiga e'tibor kuchayib, respublika tanlovlari o'tkazilmoqda. Xususan, yil sayin ishtirokchilari soni ko'payib borayotgan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali butun jahon madaniy jamoatchiligi orasida keng shuhrat

qozonib ulgurdi. Shuningdek, milliy kurash sport turiz xalqaro maqomga ega bo‘lib, bu borada muntazam ravishda jahon chempionatlari o‘tkazilmoqda.

Toshkent miniatyurachi rassomlarining monumental san‘at sohasidagi ijodiy ishlari ham muvaffaqiyatli bormoqda. “Sanoi nafis” guruhi tomonidan 1996-yil Toshkentdagi Temuriylar tarixi davlat muzeyi zallarida bajarilgan miniatyura uslubidagi naqshlar mutaxassis va tomoshabinlarning yuqori bahosini oldi. 90-yillarda kinematografiyada repertuarining yangi kino talqinlariga mos ravishda janrlarning o‘ziga xos va uslubiy hamda texnik yangilanishi kuzatildi. Tarixga, milliy an‘analarga, xalq og‘zaki ijodi motivlariga ko‘proq murojaat qilib, xalq ruhiga yaqin asarlar yaratildi.

2004-yil kinematografiyani moliyalashtirish bilan bog‘liq muhim qaror qabul qilindi. Milliy tarix, an‘analar va madaniyatni yoritishdagi yutuqlar rag‘batlantirib borilmoqda. Toshkentda 2009-yil oxirida bo‘lib o‘tgan “Art Week Style.uz – 2009” va 2012-yil oktyabrdagi san‘at haftaligi yuqoridagi fikrlarga yaqqol dalil bo‘la oladi.

O‘tkazilayotgan nufuzli tadbirlar orqali milliy merosni asrab-avaylash, amaliy san‘at va hunarmandchilik yo‘nalishidagi qadimiy an‘analarni tiklash, bu borada ijodkorlarga har tomonlama ko‘maklashish, yosh iste‘dodlarning faoliyati uchun zarur sharoit yaratish, ularning ijodini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, respublika va xalqaro miqyosda ommalashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. “Asrlar sadosi”, “Yangi avlod”, “Navqiron O‘zbekiston”, “Bazar Art” kabi festivallar, ko‘rik-tanlovlar, milliy hunarmandchilik yarmarkalari, turli ko‘rgazmalar, kontsertlar buga misol bo‘la oladi. Ayni paytda ushbu ijodiy loyihalar ijtimoiy yo‘naltirilgani, katta madaniy-ma‘rifiy ahamiyati bilan nafaqat respublikada, balki xorijda ham tobora e‘tibor qozonmoqda.

2010-yili Xiva shahrida, 2012-yili Tuproqqal‘ada, 2013-yili esa Navoiy viloyatida Sarmishsoy dasarida, xuddi shunday tadbirlardan biri – “Asrlar sadosi – 2010”, “Asrlar sadosi – 2012”, “Asrlar sadosi – 2013” madaniyat festivallari tashkil etildi. Mazkur festivallar o‘tmish merosi va an‘analarni avlodlarga yetkazishda muhim o‘rin tutadi. Ayni paytda bu navqiron avlodni milliy madaniyat, umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, yoshlarda Vatanga, milliy qadriyatlarga hurmat-ehtiromni shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Milliy madaniyat, san‘atning o‘ziga xos bayrami sifatida tashkil etilgan ushbu tadbirda folklor va teatr guruhlari, xonandalar, musiqachilar, raqqosalar, qiziqchilar, rassomlar, hunarmandlar bilan birgalikda respublika miqyosida o‘tkaziladigan “Yangi avlod” festivali ko‘rik-tanloving g‘olib va sovrindorlari ishtirok etmoqda.

Mustabid tuzum davrida toptalib kelingan milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlar qayta tiklanib, bugungi milliy-ma'naviy taraqqiyotga xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida ta'kidlanganidek: "Ayni paytda yurtimizda milliy tiklanish jarayoni qariyb bir yarim asr davom etgan ijtimoiy-siyosiy qaramlikdan keyin dastlabki paytlarda mutlaqo tabiiy ravishda o'ziga xos "inkorni inkor" qonuniyati asosida kechganini aytish lozim. Lekin biz, sobiq tuzumning mafkuraviy qarashlarini umuman inkor etishning o'zi hech qanday bunyodkorlik dasturiga ega bo'lmagan siyosiy va madaniy ekstremizm xavfini tug'dirishi ehtimolini yaxshi anglar edik. Shu bilan birga, tarixiy qadriyatlar, urf-odat va an'analar, turmush tarziga orqa-oidini o'ylamasdan yoppasiga betartib qaytish boshqa bir keskinlik, deylik bugungi davr hayotini qabul qilmaslik, jamiyatni yangilash zaruratini inkor etish kabi nomaqbul holatlarga olib kelishi mumkinligini ham unutmash zarur edi". Ushbu kitobda ma'naviyatning milliy taraqqiyotdagi o'rni va ahamiyati, uni o'zlashtirish zarurligiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi. Bu konseptual g'oya bugungi kunda milliy ma'naviyatni rivojlantirishda davlat siyosatining ustuvor tamoyillaridan biri sifatida ijobiy natijalarni bermoqda.

Bugungi kunda OAV, xususan, televideniye madaniyatni ommalashtirishning asosiy vositasi va manbai bo'lib kelmoqda. Ammo jahon miqyosidagi globallashuv jarayonlari va uning yo'nalishlaridan biri bo'lgan "ommaviy madaniyat" ekspansiyasi ta'sirida qadriyatlar tizimida sodir bo'ladigan buzilishlar insonda muayyan o'zgarishlarni keltirib chiqarishi, inson va jamiyat o'z ma'naviy-axloqiy tayanchlaridan mahrum etilishi mumkin. Shu ma'noda, Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, "... kommunistik mafkura va axloq normalaridan voz kechilganidan so'ng jamiyatda paydo bo'lgan g'oyaviy bo'shliqdan foydalanib, chetdan biz uchun mutlaqo yot bo'lgan, ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan "ommaviy madaniyat" yopirilib kirib kelishi mumkinligini unutmash kerak... Ayniqsa, hozirgi vaqtda dunyoda kuchayib borayotgan turli ma'naviy tahdidlarning oldini olish, "ommaviy madaniyat"ning zararli ta'siridan farzandlarimizning ong-u tafakkurini himoya qilishda ilm-u fan va madaniyat jamoatchiligi, ijod ahlining o'rni va roli tobora ortib bormoqda. Nega deganda, bizning milliy ruhimiz va tabiatimizga yot va begona bo'lgan... "ommaviy madaniyat" namunalari faqat tanqid va inkor qilish yoki ularni taqiqlash bilan biron natijaga erishib bo'lmaydi. Bunday xatarlardan hayotimizni asrash, ma'naviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslik uchun, avvalambor, ezgu insoniy g'oyalar va yuksak mahorat bilan yaratilgan

asarlar orqali xalqning madaniy saviyasini yuksaltirish, boshqacha aytganda, bugun jahon maydonida yuz berayotgan keskin aql-zakovat va iste'dod musobaqasida bellashuvga qodir bo'lishimiz shart"¹. Davlat rahbarining ushbu fikr-mulohazalarida "ommaviy madaniyat"ning mazmun-mohiyati, oqibatlari hamda unga qarshi kurashishning izchil vosita va omillari aniq bayon etilgan.

2. TA'LIM ISLOHOTLARI

Ma'lumki, madaniy-ma'naviy rivojlanishning eng muhim poydevori – ta'lim tizimidir. Chunki zamon talablariga javob beradigan, ilg'or fan-texnika, texnologiya yutuqlarini egallab olgan kadrlarni yetishtirmasdan turib jamiyatni yuksaltirib bo'lmaydi. Mustaqillik yillarida ta'lim-tarbiya sohasidagi eski tuzumdan meros bo'lib qolgan noxush holatlarni bartaraf etishga, uni tubdan isloh qilishga, xalqaro talablarga javob beradigan kadrlar tayyorlashga qat'iyat bilan kirishildi.

"Ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib, ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa, biz ko'zlagan oliy maqsad – ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi", – deb ta'kidlagan edi I.A.Karimov.

Respublikada ta'limning yangi tizimini amalga oshirishda O'zbekiston hukumati tarixdagi ta'lim jarayonlarini o'rganib chiqib, ta'limni isloh qilish dasturini tayyorladi. Barcha e'tibor ta'lim tizimlarini demokratik va insonparvarlik tamoyillari asosida takomillashtirib, uning moddiy-texnika bazasini zamon va davr talablari darajasiga ko'tarish va O'zbekistonning ma'rifiy salohiyatini kuchaytirishga qaratildi. Shu maqsadda 1992-yil 2-iyulda respublikada "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.

Ta'limni isloh qilish quyidagi tamoyillar asosida olib boriladigan bo'ldi:

- ta'lim-tarbiyaning insonparvarligi va demokrataviyligi;
- ta'lim tizimining uzluksizligi, izchilligi, ilmiyligi va dunyoviyligi;
- ta'limda umuminsoniy va milliy-madaniy, ma'naviy qadriyatlarning ustuvorligi;
- e'tiqodi, dinidan qat'i nazar, barcha fuqarolar uchun ta'lim olish imkoniyatlari yaratilganligi;
- ta'lim muassasalarining siyosiy partiyalar va harakatlar ta'siridan xoliligi.

1993-yil O'zbekiston Prezidenti tomonidan "O'zbekistonda o'quvchi-yoshlarni rag'batlantirish choralari to'g'risida"gi Farmoniga binoan talaba va aspirantlar uchun maxsus stipendiyalar belgilanib, ular uchun rivojlangan,

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: "Ma'naviyat", 2009. – 117, 133-134-betlar.

davlatlardagi universitetlarda ta'lim olish, ulardagi ilmiy markazlarda ishlash, malakalarini oshirish uchun sharoitlar yaratib berildi.

Bozor munosabatlariga asoslangan yangi jamiyatda rahbar kadrlarni tayyorlash maqsadida Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti, ayrim vazirliklar qoshida esa akademiyalar tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasining tashkil etilishi esa respublikada rahbar kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

O'zbekistonning kelajagi yuqori malakali, ma'rifatli, el-yurtiga sadoqatli mutaxassislarni tayyorlashga bevosita bog'liq. I.A.Karimov muxbirlarning "Sizning siyosatingizda ta'lim-tarbiya masalasiga katta e'tibor berishning sabablari nimada?" -- deb so'ragan savoliga, "ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib yangi jamiyat qurib bo'lmaydi. ong, g'oya, tafakkur ta'lim-tarbiya bilan uzviy bog'liq, bir-birini to'ldiradi". deb javob bergan edi.

1992-yildagi qonun tufayli respublikada umumiy ta'lim quyidagi bosqichlar bo'yicha amalga oshirila boshlandi:

I bosqich – boshlang'ich ta'lim (I–IV sinf);

II bosqich – asosiy (tayanch) maktab (V–IX sinf);

III bosqich – yuqori o'rta maktab (X–XI sinf).

Yuqori o'rta maktab (X–XI sinflar) ixtisoslashgan bo'lib, o'quvchilarni oliy o'quv yurtlariga tayyorlashga xizmat qila boshladi.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun asosida "Maktabgacha tarbiya", "Umumiy o'rta ta'lim", "Maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar", "Yoshlar siyosatiga oid" qator konsepsiya va dasturlar yaratildi, Davlat ta'limi tizimi jahon amaliyoti talablariga muvofiq kelishi uchun xorijiy mamlakatlardagi ilg'or tajribalar o'rganildi, Qonun va ta'lim-tarbiya borasida yangi konsepsiyalar asosida o'quv muassasalari va ular faoliyatida yangilanish jarayonlari kuchaydi.

Xorijiy davlatlar bilan aloqalarning kuchayishi, ta'lim sohasidagi hamkorliklar, davlat ta'lim siyosatining yangicha yo'nalishlari mamlakatda yangi turdagi o'quv muassasalarining vujudga kelishi va ular safining kengayishiga olib keldi. Agar 1991-1992- o'quv yilida yangi turdagi o'quv muassasalarining soni 16 ta bo'lgan bo'lsa, 1995-1996 o'quv yilida 283 taga yetdi. Ularning 78 tasi akademik litseylar, 105 tasi esa gimnaziyalar edi. Biroq, ta'limida islohotlar amalga oshayotgani bilan uning chuqurlashuvi qiyin kechayotgan, ayrim umumta'lim va hunar maktablarida hali ham eski qolipdagi ta'lim-tarbiya uslublari saqlanayotgan, qishloq joylaridagi maktab va hunar bilim yurtlarining 50% dan ortig'i tezlik bilan ta'mirlanishga muhtoj, ayrim fanlar bo'yicha o'qituvchilar yetishmasligi davom etayotgan edi.

Maktablarning 9-sinfini tugatgan iqtidorli o'quvchilarigina 10-11 sinflarda o'qishni davom ettirishi, qolgan o'quvchilarning maktab quchog'idan chetlashtirilishi, yoshlarni ko'chada maqsadsiz yurishi, ishsizlik, bozorda chayqovchilik qilishi, mayda bezorilik va jinoyatga qo'l urishi kabi muammolarni keltirib chiqarayotgan, ta'lim-tarbiya jarayonidagi ayrim jihatlar hamon eskicha davom etayotgan, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi fanlar, estetik yo'nalishdagi predmetlarni o'qitish, tarbiyaviy-ma'rifiy faoliyat mazmunida o'zgarishlar sust edi. Buning ustiga bu Qonun ta'lim tizimini isloh qilishning amaliy chora-tadbirlari, ta'lim-tarbiya va o'quv jarayonlarining tarkibini, bosqichlarini bir-biri bilan uzviy bog'lash, ya'ni uzluksizlikni ta'minlash muammolarini yecha olmadi. Ta'lim-tarbiyaning eng muhim bo'g'ini bo'lgan 11 yillik umumiy o'rta ta'limning uch bosqichga bo'linishi ta'lim tizimi mazmunining izchilligini, uzluksizligini, uzviyligini, didaktik tamoyillarini, o'quvchilarning xususiyatlarini hisobga olish holatlarini ham buzayogan, umumiy o'rta ta'limda majburiy o'quv fanlari soni ko'payib, bu fanlar mazmuni demokratik va iqtisodiy o'zgarishlar talablariga javob bermayotgan, o'quv rejalarida yoshlarga axloq va odob, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy bilimlar asoslarini o'rgatadigan fanlarga, xorijiy tillarni o'rganishga yetarli o'rin berilmagan edi.

Kamchiliklarning eng muhimi esa, yoshlarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, ularni milliy istiqolol ruhida tarbiyalash va mehnat faoliyatiga tayyorlash masalalariga kam e'tibor qaratilayotganini ham aytib o'tish kerak. Ayniqsa, ta'lim mazmunining izchilligi, uzluksizligining buzilganligi boshlangan ta'lim islohotlarining chuqurlashishiga salbiy ta'sir etayotgan edi.

Bunday muammolarning yechimi faqat umummilliy, davlat miqyosidagi dastur asosidagina amalga oshishi mumkin. Ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimidagi muammolar boshqa soha islohotlarining borishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Shu bois ham ta'lim islohotlarini chuqurlashtirishning yo'llari izlana boshlandi va bu borada davlat rahbarining oldindan ko'ra bilish qobiliyati ish berdi.

Prezident I.A.Karimov bu va shu kabi boshqa muammolarni ko'ra oldigina emas, ularni yechimini topish yo'llarini izlab topa oldi. "Kimki bu achinarli holatni chuqur tahlil qilsa, yuragidan o'tkazib, o'zining shaxsiy dardiday anglassa, albatta, bunday vaziyatga beparvo bo'lib qolishiga ishonmayman. Shuning uchun ham bugungi zamon talabi, ertangi kelajagimizning tashvishlari bizdan xalq ta'limi tizimini isloh qilish zarurligini taqozo etmoqda",¹ – deb uqtir-

¹ Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: "Sharq", 1997. – 10-bet.

gan edi I.A Karimov. Sakkiz oylik tinimsiz izlanishlar natijasi o'laroq, 1997-yil avgustida bo'lib o'tgan Oliy Majlis IX sessiyasi yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini qabul qildi.

Qonun orqali fuqarolarga ta'lim-tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslari belgilanib, har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqlari ta'minlandi.

Ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor yo'nalish deb e'lon qilindi va ta'lim sohasidagi davlat siyosatining quyidagi:

- ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishi; akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- Davlat ta'limi standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
- bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;
- ta'lim tizimida davlat va jamiyat boshqaruvini uyg'unlashtirishdan iborat asosiy tamoyillari belgilab berildi.

Dastur O'zbekistonning xalqaro andozalardagi zamonaviy taraqqiyotini ta'minlay oladigan dadil, mustaqil tafakkurli, malakali, bilimli mutaxassis, ayni paytda ichki insoniy sifatlari barq urib kamolotga yetgan kadrlarni tayyorlash maqsadini ko'zlaydi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining bosh muddaosi ham shundan iboratdir.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli, shu tariqa, faqat ta'lim-tarbiyadagina iborat emas, balki bir-biriga bog'liq ko'pgina hayot bosqichlarini o'z ichiga oladi. Milliy model, bu – shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan hamda ishlab chiqarish jarayonining uzviy birligi hamkorligini, ularning o'zaro bir-biriga aloqasini aks ettiradi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining O'zbekistonga xos eng muhim xususiyati – yangi turdagi 3 yillik o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimini yaratishdan iborat vazifa sobitqadamlik bilan amalga oshirildi. Zamonaviy o'quv va ishlab chiqarish uskunalar bilan jihozlangan kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar barpo etildi, yangi ta'lim standartlari, darsliklar, qo'llanmalar yaratildi va o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik, axborot texnologiyalari, interaktiv usullar tatbiq etildi.

Oliy ta'limda bakalavriat va magistratura tizimi joriy qilindi. Jahon standartlariga mos bu tizim oliy ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov shunday degan edi: "Bilimdon, professional jihatdan savodli hamda g'ayrat-shijoatli shaxslarni, o'z mamlakatining chinakam vatanparvarlarini tarbiyalay oladigan, ularni buyuk milliy madaniyatning ulkan ma'naviy merosi bilan boyita oladigan, jahon fani va madaniyati durdonalaridan bahramand eta oladigan mamlakatgina, millatgina buyuk kelajakka erishishi mumkin".

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi Yurtboshining bevosita rahbarligida ishlab chiqilib, amaliyotga izchil joriy etildi. Mazkur dastur 3 bosqichdagi islohotlar asosida amalga oshirildi.

1-bosqich 1997–2001-yillarda dasturni amalga oshirish uchun huquqiy-me'yoriy, ilmiy-metodik, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratildi. Bu davrda davlat tomonidan qo'shimcha ravishda 65 milliard so'm mablag' sarf qilindi. Bu bosqich Kadrlar tayyorlash milliy dasturining moddiy-texnik bazasini yaratish davri deb nomlandi.

2-bosqich 2001–2005-yillarni o'z ichiga olib, milliy dastur keng miqyosda joriy etildi. Bu bosqich Kadrlar tayyorlash milliy dasturining sifat bosqichi deb nom oldi.

3-bosqich 2005-yildan boshlanib, undan keyingi yillarni o'z ichiga oladi. Bunda mamlakatda shakllangan yangi ta'lim tizimi yanada takomillashayotgani bois bu bosqich ta'lim tizimining modernizatsiya davri deb atalmoqda.

Prezident O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17 yilligiga bag'ishlangan marosimdagi (2009-yil 5-dekabr) ma'ruzasida bundan 12 yil oldin boshlangan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va 2004-yilda uning tarkibiy qismi sifatida qabul qilingan Maktab ta'limini rivojlantirishning Umummilliy davlat dasturi ijtimoiy hayotda tub burilish yasaganligini alohida ta'kidlab o'tgan edi.

Haqiqatan ham milliy dastur qabul qilingandan bugungi kungacha mamlakatda 9+3 tamoyili asosidagi 12 yillik umumiy majburiy bepul ta'lim tizimi joriy etilib, minglab maktab, litsey, kollejlari qurildi va rekonstruksiya qilindi. Birgina 2004–2009-yillarga mo'ljallangan Umummilliy Davlat dasturi asosida 1 ming 957 ta maktab, 214 ta akademik litsey va kasb-hunar kolleji qurilgan (ularning 170 tasi qishloq tumanlarida) bo'lsa, 2011-yilda eng zamonaviy o'quv va laboratoriya jihozlari bilan ta'minlangan, 46 ming 300 dan ortiq o'quvchiga mo'ljallangan 166 ta yangi maktab qurildi va rekonstruksiya qilindi, 151 ta maktab kapital ta'mirlandi. Mamlakatdagi 852 ta maktabda zamonaviy o'quv kompyuter sinflari tashkil etildi. Bugungi kunda 9 ming 400

dan ziyod umumta'lim maktabi yoki jami maktab (9779 ta)larning 96 foizi Ziyonet elektron axborot tarmog'iga ulangan.

2011-yilda faoliyat yuritayotgan 1500 dan ortiq akademik litsey va kasb-hunar kollejlari qoshida 18 ta talabalar turar-joylari qad rostlab, olis va chekka hududlarda litsey va kollejlarning 24 ta filiali tashkil etildi.

Ta'limga muhim e'tiborning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, undagi uzluksizlik va uzviylik jamiyatning ma'naviy va intellektual salohiyatini kengaytirib, davlatning ijtimoiy va ilmiy texnik taraqqiyotini takomillashtirish omili sifatida ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta'minlamoqda. Shu bois ham, O'zbekistonda har yili ta'lim uchun sarflanayotgan xarajatlar yalpi ichki mahsulotning 10–12 foizini tashkil etadi. Holbuki, jahon tajribasida bu ko'rsatkich 3–5 foizdan oshmaydi.

Shuningdek, ta'lim tizimida xizmat qilayotgan pedagog xodimlarning ish haqi so'nggi 10 yil ichida iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi mehnatga haq to'lash miqdoridan bir yarim baravar ko'paydi.

Mamlakatda hozirgi vaqtda 76 ta oliy o'quv yurti, jumladan, 19 ta universitet, 36 ta institut, 2 ta akademiya, 1 ta konservatoriya, 1 ta raqs va xoreografiya oliy maktabi, 11 ta OTMlar filiallari, 6 ta xorijiy davlatlar OTMlarining filiallari faoliyat ko'rsatib, ularda 230 mingdan ziyod talaba yuksak zamonaviy talabalar asosida tahsil olmoqda.

Aytish joizki, Prezidentning doimiy e'tibori natijasida o'tgan yillar davomida mamlakatda jahondagi nufuzli universitetlar bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatildi. I.M.Gubkin nomidagi Rossiya neft va gaz davlat universiteti, Italiyaning Turin politexnika universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot akademiyasi, M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent shahridagi filiallari tashkil etildi. Shuningdek, Toshkentda Buyuk Britaniyaning Xalqaro Vestminster universiteti ham ish boshladi.

Mamlakatning nufuzli mutaxassisliklarga bo'lgan ehtiyojlari asosida yangi zamonaviy yo'nalishlar bo'yicha kadrlar tayyorlash ishlari boshlangani ham e'tiborga sazovordir. Respublika va xorijdagi o'quv maskanlarida yuzlab iqtidorli yoshlar ta'lim olib, malakalarini oshirmoqda. Bunda xorijiy ta'lim muassasalari bilan ikki tomonlama tajriba almashish yo'lga qo'yilgani muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatda ta'lim tizimini rivojlantirish yo'lida qilinayotgan g'amxo'rlik tufayli o'tgan qisqa davrda o'quvchi o'g'il-qizlar bir qator xorijiy mamlakatlarda matematika, kimyo, biologiya, fizika, informatika kabi fanlar bo'yicha o'tkazilgan nufuzli olimpiada, ijodiy bellashuvlarda ishtirok etib, yuqori natijalarni qayd etib kelmoqdalar.

Ta'lim sohasidagi yutuqlarni, bu boradagi tajribalarni endi boshqa davlatlar o'rganmoqda. Bu borada 2012-yilning 17-fevralida Toshkent shahrida ochilgan "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzuidaga xalqaro konferensiyani misol qilib ko'rsatish o'rinli. Unda BMT, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Islom taraqqiyoti banki vakillari, dunyoning 48 davlatidan ta'lim tizimi rahbarlari, olimlar hamda mutaxassislar ishtirok etdi.

Mazkur xalqaro konferentsiya Prezident I.A.Karimov tashabbusi bilan tashkil etilib, u uzluksiz ta'lim va yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashning milliy modelini yaratishda O'zbekiston tajribasini o'rganishga bag'ishlandi. Konferentsiya qatnashchilarining yakuniy hujjat-rezolyutsiyasida "XXI asr – intellektual tafakkur asrida inson kapitaliga investitsiya yo'naltirishni ustuvor vazifa sifatida tanlagan mamlakatlarga yuksak taraqqiyotga erishishi mumkin. Faqat shunday jamiyatgina zamonaviy tahdid va muammolarni yengib o'tishga qodir bo'ladi", "Uzluksiz ta'lim tizimini joriy etish munosabati bilan "Bilim – butun hayot davomida har bir inson uchun" konsepsiyasiga asoslangan Kadrlar tayyorlash milliy dasturini joriy etish borasida O'zbekiston tajribasini o'rganish" lozimligi qayd etilgani O'zbekiston ta'limi sohasi yutuqlarining jahonda e'tirof etilayotganligidan darak beradi.

O'zbekiston ta'limi rivojida "O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi" jamg'armasi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar ham ibratli bo'lmoqda. Bu jamg'arma ilk faoliyatini yo'lga qo'ygan davrda faqat milliy madaniyat va san'at yo'nalishida ish olib borgan bo'lsa, endilikda ijtimoiy yo'naltirilgan loyihalarni ham amalga oshirmoqda. O'tgan yillar mobaynida ushbu nodavlat birlashma tomonidan ta'lim sohasida ko'plab dasturlar amalga joriy etildi. 2005-yildan jamg'armaning ta'lim grantlari dasturi amalga oshirilib, 2006-yildan "O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi" ta'lim loyihalariga Iqtidorli talabalar uchun stipendiyalar dasturi va Pedagogik grantlar dasturi ham qo'shildi. Oliy o'quv yurtlari talabalari orasida yuksak iste'dodli talabalarni saralab olish maqsadida nufuzli stipendiyalarning joriy qilinishi, yoshlarning izlanishlari, o'z ustida ishlashlari uchun turtki bermoqda. Shuningdek, mamlakatda yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida ko'rik-tanlovlar o'tkazilib, ularga "Nihol" va "Zulfiya" Davlat mukofotlarining berilishi an'anaga aylandi. Bu ham davlatning yoshlarga bo'lgan g'amxo'rliqi nishonasidir.

Ta'lim islohotlari natijasida erishgan yutuqlarni dunyoning 141 mamlakati orasida inson kapitalini rivojlantirish darajasi bo'yicha O'zbekiston 35-o'rinni egallayotganligidan, ta'lim tizimini rivojlantirish darajasi bo'yicha esa 2-o'rinda turganligidan ham ko'rish mumkin.

Qo‘yilayotgan vazifalar, ularning amalga oshirilishi o‘zbek yoshlarini barkamol qilib tarbiyalash bilan chambarchas bog‘liq. Barkamollik esa bir emas, bir necha yo‘nalishdan ozuqa oladi. Ana shu yo‘nalishlardan biri jismoniy tarbiya va sport orqali sog‘lom va baquvvatlikka erishishdir.

Respublika hukumati barkamol avlod tarbiyasida jismoniy tarbiya va sportning o‘mi beqiyosligini inobatga olgan holda bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirishga erishdi.

Hukumatning 1999-yil 27-maydagi “O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori yoshlar o‘rtasida olib borilayotgan ommaviy sport ishlarining yanada takomillashuviga turtki bo‘ldi. Amalga oshirilgan tadbirlar natijasida bolalar sporti rivojlandi. 545 ta sport seksiyalari tashkil etilib, ularga 224965 nafar o‘quvchi yoshlar jalb etilib, sog‘lom lashtirish guruhlariga esa 13760 ta o‘quvchilar qatnasha boshladi.

Respublika yoshlarining sport bilan shug‘ullanishlari uchun yanada keng imkoniyatlar ochib berishda O‘zbekiston Prezidentining 2002-yil 24-oktabrdagi “O‘zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasini tuzish to‘g‘risida”gi farmoni ham muhim rol o‘ynadi.

Davlat va davlat rahbari rahnamoligida o‘tgan davr mobaynida O‘zbekistonda sport sohalarini rivojlantirishda ajoyib yutuqlarga erishildi. Bu muvaffaqiyatlar, ayniqsa, boks, tennis, o‘zbek kurashi va jahon miqyosida o‘tkazilgan shaxmat musobaqalarida yaqqol ko‘zga tashlandi.

1998-yil may oyida mamlakat alpinistlari jahon miqyosida katta yutuqqa erishdi. Ular Himolay tog‘ tizimidagi dunyoning eng baland “Everest” cho‘qqisiga chiqib, mamlakat dovrug‘ini yana bir marta dunyoga tarannum etishdi.

Mamlakatda tennis eng ommaviy sport turiga aylandi. Toshkent shahri-ning “Yunusobod” tennis majmuasida bir necha marta xalqaro Prezident kubogi turniri bo‘lib o‘tdi. 1999-yilning iyul oyida Londonda yoshlar o‘rtasidagi xalqaro musobaqada toshkentlik sportchi Iroda To‘laganova Uimblon uchrashuvining g‘olibiga aylandi.

2000-yil O‘zbekiston Respublikasi sporti tarixida, umuman olganda, muvaffaqiyatli yil bo‘ldi. Saralash musobaqalarida g‘olib chiqqan 77 sportchimiz 13 sport turi bo‘yicha Avstraliyaning Sidney shahrida bo‘lib o‘tgan XXVII Olimpiyada o‘yinlarida qatnashishga muyassar bo‘lib, 1 ta oltin, 1 ta kumush va 2 ta bronza medallarini qo‘lga kiritib, 200 mamlakat o‘rtasida 41-o‘rinni egallashdi.

Sobiq sovetlar davrida shaxmat bo‘yicha bitta grossmeyster tayyorlangan bo‘lsa, endilikda ularning soni 11 nafarga etdi. Shu yili Turkiyada bo‘lib o‘tgan

Jahon shaxmat olimpiyadasida O‘zbekiston vakillari 120 dan ortiq mamlakatlar ichida faxrli 11-o‘rinni egalladi. Respublikaning shaxmat bo‘yicha chempioni Rustam Qosimjonov esa o‘z taxtasida bronza medaliga sazovor bo‘ldi.

Bokschilardan Artur Grigoryan, Muhammadqodir Abdullayev, O‘tkirbek Haydarov, To‘lqinboy Turg‘unovning nomlari jahon bo‘ylab yangradi. 2000-yildagi Avstraliyaning Sidney shahrida o‘tkazilgan XXVII yozgi Olimpiyada o‘yinlarida Muhammadqodir Abdullayev oltin, Artur Taymazov kumush, Sergey Mixaylov va Rustam Saidov bronza medaliga sazovor bo‘lishdi.

O‘zbek kurashi bo‘yicha jahon chempionati o‘tkazish an‘anaga aylanib, bu musobaqalarda Akobir polvon, Kamol polvon, Toshtemir polvon kabi sportchilarning nomlari butun jahonga taraldi.

2008-yildagi Pekin olimpiyadasida Abdulla Tangriyev kumush medali sohibi bo‘ldi.

O‘zbekistonda tuzilgan karate federatsiyasi yosh iste‘dodlarni jahonga tanitmoqda. Masalan, bekobodlik Farrux, A‘zam va Parviz Abdumavlonovlarning erishgan yutuqlari bilan xalq faxrlanadi.

2009-yilda nogironlar o‘rtasida o‘tkazilgan futbol bo‘yicha jahon chempionatida o‘zbekistonliklar faxrli birinchi o‘rinni egalladi.

Ayniqsa, 2010-yilning iyun-iyul oylarida Janubiy Afrika Respublikasida futbol bo‘yicha o‘tkazilgan XIX jahon chempionatida o‘zbek o‘g‘loni Ravshan Ermatov va Rafael Ilyasovlar chempionatning haqiqiy hakamlari bo‘ldilar.

Toshkent shahrida xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy “Bunyodkor” va “Lokomotiv”, Bekobod shahrida “Metallurg” futbol stadionlari bunyod etildi. Sport kurashi bo‘yicha ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari maktabi tashkil qilindi. 2012-yilda o‘smirlar o‘rtasida o‘tkazilgan Osiyo chempionatida o‘zbek vakillari bosh sovrinni qo‘lga kiritgani, nogironlar o‘rtasida kechgan jahon chempionatida ketma-ket uchinchi marta jahon chempioni unvoniga sazovor bo‘lishi, yoshlar o‘rtasidagi qit‘a birinchiligida terma jamoaning kuchli to‘rtlikdan joy olib, navbatdagi jahon chempionatida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘lishi mamlakatda sport sohasida amalga oshirilgan ulkan ishlarning samarasidir.

Jamiyat taraqqiyotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni tushunish, hur fikrlikka intilish, kishilarni istiqolol yo‘lidan olib boruvchi g‘oyaviy qarashlar hozirgi kunning asosiy vazifalaridan biri bo‘lib qoldi. Iqtisodiy, madaniy-ma‘rifiy ishlar amalga oshirilayotgan bir vaqtda milliy istiqolol g‘oyasi va mafkurasi, Yurtboshi aytganidek, suv bilan havodek zarurdir. Busiz, ya‘ni fikrlash, e‘tiqod o‘zgarimasdan bozor munosabatlariga o‘tish davrida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy barqarorlikka erishish murakkab vazifa. I.A.Karimov milliy mustaqillik

g'oyasining zarurligi to'g'risida gapirar ekan, "o'zining kelajagini qurmoqchi bo'lgan har qanday davlat yohud jamiyat, albatta, o'z milliy g'oyasiga suyanishi va tayanishi kerak", deb ta'kidlaydi va milliy istiqlol mafkurasining vazifasini ko'rsatib, uning "...asl ma'nosi eskicha aqidalardan xoli bo'lgan, mustaqil va yangicha fikrlovchi kishilarni tarbiyalashdan iborat" ekanligini ta'kidlaydi.

Mustaqillik g'oyasi va mafkurasining xalqimizga to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi, uni birlashtiruvchi, buyuk maqsadlar uchun butun kuchlarni uyg'unlashtiruvchi ahamiyatini nazarda tutib, Prezident I.A.Karimov 1993-yil 6-mayda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining II chaqiriq XII sessiyasida "Oldimizda turgan eng muhim masala bu milliy istiqlol mafkurasini yaratish va hayotimizga tatbiq etishdir", degan edi. Kishilarni qaysi toifa va guruhda bo'lishidan qat'i nazar ma'naviy inqirozdan chiqaradigan yagona milliy g'oya atrofida birlashtiradigan birdan-bir qudratli kuch ana shu milliy mustaqillik mafkurasi hisoblanadi.

Milliy istiqlol g'oyasi O'zbekiston Respublikasining ko'p millatli omilini saqlab qolishi va uni rivojlantirishdek buyuk maqsadni o'zining adolatli, insonparvar huquqiy jamiyat qurish yo'lidagi ustuvor yo'nalish, deb qaraydi. O'zbekistonda bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurish yo'lida iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy ishlardagi barqarorlik mafkuraviy tahdidlarning oldini olishni muhim vazifa qilib qo'yadi. Shu maqsadda xalqning an'analariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma'rifat tuyg'ularini kishilar ongiga singdirish lozim bo'ladi.

Milliy mustaqillik g'oyasining eng muhim vazifalaridan biri mustaqillik tayanchi va kelajagi bo'lgan yosh avlodni milliy g'urur, Vatanga sadoqat ruhi-da tarbiyalashdan iborat. Mustaqillik g'oyalariga e'tiborsizlik og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin. Birgina 1999-yil 16-fevral "qonli seshanba" kuni voqealari milliy mustaqillik g'oyasini yoshlar diliga yetkazish zarurligini, buning uchun g'oyaviy, mafkuraviy ishlarni kuchaytirish lozimligini ko'rsatdi. Bu borada Prezident I.A.Karimovning 2000-yil aprelida Oqsaroy qarorgohida ziyolilar bilan o'tkazilgan muloqotida, o'sha yilning iyun oyida "Fidokor" gazetasi muxbiri savollariga bergan javoblaridagi milliy istiqlol mafkurasining mohiyati, zarurati, ahamiyati, uning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy asoslari to'g'risidagi ta'limoti istiqlolning buyuk g'oyalarini kishilar tafakkuriga singdirish borasidagi ishlarning dasturidir.

Milliy istiqlol g'oyasini, uning tushuncha va tamoyillarini xalq, birinchi navbatda, yoshlar o'rtasida targ'ib va tashviq etishning usul-uslublarini shakl-

lantirish yoʻlida dastlabki qadamlar qoʻyildi. “Maʼnaviyat va maʼrifat” markazi qoshida targʻibot-tashviqot markazining tuzilgani, jamoatchi maʼruzachilar ishining yoʻlga qoʻyilgani, ular uchun “Voizga yordam” ruknida risolalar chop etilgani, shuningdek, Prezident farmoni bilan “Milliy istiqlol gʻoyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” nomli maxsus fanning taʼlim tizimining barcha bosqichlariga kiritilishi shular jumlasidandir.

3. ILM-FAN, ADABIYOT VA SANʼAT RIVOJI

Oʻzbekiston mustaqillikka erishgandan soʻng ilm-fanga alohida eʼtibor berildi. Xalq xoʻjaligi va madaniy hayotning tobora ortib borayotgan talablari-dan orqada qolayotgan ilmiy-tadqiqot institutlari tugatilib, turmush taqozo etgan yangi institutlar ochildi. Respublika Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 3-aprelidagi qarori bilan Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangi Nizomi tasdiqlandi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 8-aprelidagi Farmoni hamda uni amalga oshirish yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Fanlar rivojlanishini davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash tadbirlari va innovatsiya faoliyati haqida”gi qarori mamlakatda fanni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega boʻlib, Respublika olimlarini xorijiy mamlakatlarga malaka oshirishga yuborishga alohida eʼtibor berildi. Ilmiy yechimlarni ichki-tashqi bozorda targʻib etish va tarqatish maqsadida Respublika ilmiy ishlanmalari innovatsiya tijorat markazi tashkil etildi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan Respublika Vazirlar Mahkamasi huzurida Oliy Attestatsiya Komissiya (OAK)ning tashkil etilishi bilan FANing mavqeyi yanada ortdi.

Oʻzbek olimlarining fan-texnika sohasidagi yutuqlari nafaqat Oʻzbekiston, balki jahon hamjamiyatida ham tan olina boshlandi, koʻpchilik olimlar davlat mukofotlariga sazovor boʻldi va xorijiy davlatlar akademiyalariga haqiqiy va faxriy aʼzolikka saylandi. Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining al-Xorazmiy nomidagi, Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi oltin medallari taʼsis etilib, 1993-yilda Oʻzbekiston Respublikasi FANing akademigi H.F.Fozilov tabiiy va texnikaviy sohada katta yutuqlarga erishgani uchun al-Xorazmiy nomidagi Oltin medalning birinchi sohibi boʻldi. Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi birinchi Oltin medal ijtimoiy va gumanitar fanlar sohasida katta yutuqlarga erishgani uchun filologiya fanlari doktori, Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining aʼzosi U.I.Karimovga nasib etdi.

1992-yil oktabr oyida esa geologiya-mineralogiya fanlari doktori, Oʻzbekiston Respublikasi FANing akademigi I.H.Yamroboev geologiya va

geofizika sohasida erishgan muvaffaqiyatlari uchun Habib Abdullayev nomidagi Oltin medalning birinchi sohibiga aylandi va u AQSHda chiqadigan "Global tektonika va metallogeniya" xalqaro ilmiy jurnali tahririyatiga a'zo etib saylandi.

O'zbekiston Respublikasi FANing akademigi P.Q.Habibullayev "Fan va texnikada kim haqiqatan kim?" deb nomlangan jahon fan va texnikasining rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan eng buyuk olimlarning hayoti va ilmiy faoliyati to'g'risidagi asosiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan qomusga kiritildi. O'zbek olimi bu sharafiga o'zining qattiq va yumshoq jismlar issiqlik fizikasining katta muammolarini, energetikaning fizika-texnikaviy muammolarini ishlab chiqqanligi uchun muyassar bo'ldi.

Mustaqillik yillarida FANing 40 ga yaqin ilmiy markazi va tadqiqot laboratoriyalarida yirik olimlar faol mehnat qilib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi FA institutlari olimlari xorijiy davlat olimlari bilan hamkorlikda ilmiy aloqalarni kengaytirib borishmoqda. Natijada, 1992-yil dekabr oyida texnika fanlari doktori G'.G'.Umarov K.E.Siolkovskiy nomidagi Kosmonavtika xalqaro akademiasining a'zosi bo'ldi. U mazkur Xalqaro akademianing a'zosi bo'lgan birinchi o'zbek olimi. Shuningdek, o'zbekistonlik M.S.Bulatoʻv, S.M.Sutyagin, I.I.Notkinlar 1993-yilda Iordaniya Islom Fanlar akademiyasi a'ziligiga, M.S.Salohiddinov YUNESKO Informatsiya xalqaro akademiasining haqiqiy a'ziligiga, 1994-yil oktabr oyida Xudoyor Oloyorov, 1995-yil fevral oyida Azamat Shamsiyev Nyu-York FANing faxriy a'ziligiga, Z.S.Salimov, A.A.A'zamxo'jayev, 1997-yil oktabrida U.Tojixonov va Z.Zaripovlar Tabiat va jamiyat fanlari xalqaro akademiasining a'ziligiga, akademik E.Yusupov esa Turkiya Fanlar akademiasining haqiqiy a'ziligiga saylandi.

Bular O'zbekiston fanining xalqaro miqyosda tan olinishining yaqqol misolidir. Yurtboshi aytganidek. XXI asrda qurolli qo'shini bo'lgan davlat emas, balki turli sohalar bo'yicha kuchli mutaxassislari bo'lgan davlatgina qudratli davlat hisoblanadi. Zeroki, har bir xalq fan sohasida katta yutuqlarni qo'lga kiritgan mashhur farzandlari bilan buyukdir.

Yuksak bilimli va intellektual salohiyatli farzandlarni tarbiyalash O'zbekiston davlati uchun bugun ham e'tiborli.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 24-iyuldagi "Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni va unda xalqaro standartlarni hisobga olgan holda oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, dissertatsiya tadqiqotlarining sifatini, ilmiy va amaliy

ahamiyatini oshirish, yoshlarning ijodiy va intellektual salohiyatini namoyon etishiga sharoitlar yaratish maqsad qilib qo'yilganligi mustaqil taraqqiyot uchun ilm-fanning ahamiyati naqadar kuchli ekanligini ko'rsatmoqda.

Ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy qayta qurishlar qatorida madaniyat sohasida ham tubdan o'zgarishlar ro'y berdi. Bu avvalo, teatr san'ati, milliy musiqa, me'morchilik, adabiyot sohalarida yaqqol ko'zga tashlandi. Madaniyat mutaxassislarining ijodiy faoliyati, ularning moddiy va texnikaviy uskunalari, zamonaviy binolar bilan ta'minlanishi Yurtboshi Islom Karimovning bevosita g'amxo'rligida bo'ldi.

Mustaqillik yillarida respublikada yangi teatr jamoalari tashkil etilib, 1991–1994-yillarda bir qator viloyat markazlarida yangi teatrlar ishga tushirildi. 1993-yil avgust oyida Toshkent shahrida ish boshlagan "Turkiston" saroyi nafaqat me'morchilikning yorqin namunasi, balki sahna guruhlari va atoqli sana'tkorlarning chiqishlari bo'ladigan dargohga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov "Turkiston" saroyi ochilishi marosimida nutq so'zlab, "Ushbu saroyda xalqning, shuningdek, jahon xalqlarining, Markaziy Osiyo xalqlarining an'anaviy anjumanlarini, san'at bayramlarini o'tkazishni niyat qilganmiz. Bu koshona, inshollo, millatlar, el-elatlarning do'stlik, birdamlik qal'asiga aylandi", degan edi.

1998-yil 26-martda Prezidentning "O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi. Bu farmonga muvofiq O'zbekiston tomosha san'atining ko'p asrlik an'alarini o'rganish, boyitish va targ'ib qilish, teatr san'atini har tomonlama rivojlantirish, uning moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash, mamlakatda ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni amalga oshirishda teatr arboblarning faol qatnashishini ta'minlash maqsadida "O'zbekteatr" ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi.

Teatrlarning mustaqillik davri repertuarlaridan tarixiy pyesalar keng o'rin ola boshladi. Sohibqiron obrazini ifodalovchi 14 ta spektakl namoyish etildi. 1998-yili al-Farg'oniy, al-Buxoriylar yubileylariga bag'ishlangan pyesalar yaratildi. Mamlakatning boy tarixini namoyish etuvchi spektakllar Toshkentning yetakchi teatrlaridagina emas, barcha viloyatlar teatr sahnalarida qo'yildi.

O'zbekiston musiqa va raqs san'atini rivojlantirish maqsadida "O'zbeknavo" kontsert birlashmasi tashkil etilib, unda musiqa-raqs san'atini rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash masalalari ko'zda tutildi. San'atning barcha sohalari, madaniy-ma'rifiy muassasalar uchun malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash Respublika Prezidentining doimo diqqat markazida bo'lib keldi. Mavjud madaniyat o'quv yurtlari qayta tuzilib, ko'plab yangi o'quv maskanlari tashkil etildi. 2010-yilga kelib mamlakatda 30 dan ortiq

maxsus o'quv yurtlari faoliyat ko'rsata boshladi. Shundan uchta oliy o'quv yurtlari, qolganlari o'rta maxsus o'quv yurtlari va maktab-internatlardir.

O'zbek adabiyoti, adabiyotshunoslik fani taraqqiyotida ham yangi sahifalar ochildi. Asarlari zararli, o'zlari millatchi, deb nohaq qoralangan Cho'lpon, Otajon Hoshim, Vadud Mahmud, Munavvarqori singari millatparvar yozuvchi, ma'rifatparvarlar ijodi xolisona o'rganilib, ularning asarlari chop etildi, teatr sahnalaridan o'z o'rnini egalladi. Mo'tabar kitoblar chop etildi. Bunday kitoblarning xalq qo'liga yetib borishi butunlay yangi, sog'lom, sof milliy g'oyalarning maqsad va intilishlarning sifat darajasini belgilaydi. Adabiyot sohasidagi va ko'plab nashr etilgan boshqa asarlar milliy g'oyaning buyuk hayotbaxsh kuchini ko'rsatdi.

Mustaqillik davri adabiyoti namoyandalari "O'zbekiston Qahramoni" Said Ahmad, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, "O'zbekiston xalq shoiri" Muhammad Yusuf, Habib Sa'dullalar ijodiy faoliyati bilan butun xalq faxrlanadi.

Milliy o'zbek adabiyotshunosligi oldida turgan muhim vazifalarni hal etishda Ozod Sharafiddinov, Begali Qosimov, Naim Karimov, Erkin Karimov, Ahmad Aliyev, Najmiddin Komilovlarning asarlari alohida o'rin egallaydi. T.Malikning romanlari, O.Matjon, O.Hojiyeva, X.Sultonov, A.Suyun, Y.Eshbek, X.Do'stmuhammad, Sh.Salimova singari shoir va adiblarning badiiy barkamol, g'oyaviy yetuk asarlari o'zbek milliy istiqlol adabiyotiga katta hissa bo'lib qo'shildi.

Prezident I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida yuqorida nomlari zikr etilgan adabiyotshunos olimlardan biri – Ozod Sharafiddinovning hayoti va ijodiy faoliyatini "ma'naviy jasorat" deb baholagan edi.

Bu davrda madaniy-ma'rifiy muassasalar ishida ham keskin o'zgarishlar ro'y berdi. Hozirgi kunda mamlakatda aholi o'rtasida targ'ibot va tashviqot ishlari bilan bevosita shug'ullanadigan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tizimida 2143 ta klub, 87 ta muzey, jumladan, 18 ta tarixiy, 25 ta o'lkashunoslik, 10 ta badiiy, 16 ta memorial va 18 ta boshqa yo'nalishdagi muzeylar va 60 dan ortiq madaniyat va istirohat bog'lari hamda 37 ta professional teatr jamoalari faoliyat ko'rsatib, mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy islohotlarni aholi o'rtasida tushuntirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Millatning o'zini anglashda, milliy, tarixiy qadriyatlarni tiklashda muzeylar alohida o'rin tutadi. Shu jihatdan, Prezident I.A.Karimovning 1998-yil 12-yanvardagi "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni muzeylar ishlarini rivojlantirishda dasturilamal rolini bajarmoqda. "Temuriylar tarixi davlat muzeyi"ning qurilib, ishga tushirilishi,

“O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyi”, “Xalq amaliy san’ati muzeyi”ning qayta jihozlanishi buning dalilidir. Hozirgi kunda davlat qaramog‘ida muzeylar 81 tani tashkil qilib, shulardan 15 tasi tarix, 23 ta o‘lkashunoslik, 10 ta badiiy san’at, 20 ta memorial, 8 ta adabiyot, 4 ta tibbiyot muzeylaridir. Shuningdek, mamlakatning shahar va tumanlarida 510 ta muzey xalqning boy tarixiy-madaniy xazinalarini namoyish etib, ular kishilarni, yosh avlodni ma’naviy-ma’rifiy jihatdan tarbiyalashga o‘zlarining hissalarini qo‘shib kelmoqda.

Toshkentning 2200 yillik yubileyi Vatan mustaqilligi bayrami bilan birgalikda nishonlanishida o‘ziga xos ramziy ma’no bor edi. Chunki, Toshkentning tarixi va bugungi hayoti yurt tarixi va kelajagi bilan chambarchas bog‘liq.

YUNESKO Bosh konferensiyasining Toshkent shahrining 2200 yilligini nishonlash to‘g‘risidagi 2007-yil 2-noyabrdagi 34-sessiyasida qabul qilingan qarori jahon hamjamiyati tomonidan O‘zbekiston tarixining, qadimiy shaharning dunyo tamadduniga qo‘shgan hissasining o‘ziga xos e’tirofi bo‘ldi. Prezident I.Karimovning 2008-yil 2-apreldagi “Toshkent shahrining 2200 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qaroriga binoan amalga oshirilgan ishlar, yubileyi munosabati bilan Toshkent shahri hukumatning yuksak mukofoti – “Mustaqillik ordeni” bilan mukofotlanishi poytaxt shaharning ijtimoiy-siyosiy mavqeyi va salohiyatini yanada yuksaltirish, uning xalqaro miqyosda yanada ulug‘vorlik kasb etishiga xizmat qildi.

4. DINIY BAG‘RIKENGLIK – IJTIMOIIY BARQARORLIK OMILI

Xalq, millat ozodligi yo‘lida kurashgan va shu yo‘lda jon fido qilgan o‘zbek xalqining asl o‘g‘lonlari nomini hamisha, har doim eslab, yod etib turmoq istiqbol nashidasini surayotgan bugungi kun kishilari uchun, ayniqsa, yoshlar uchun ham qarz, ham farzdir.

Mana shunday tinch hayot, musaffo osmon, to‘kinlik va farovonlikka qanday og‘ir yo‘qotish, sinov va mashaqqatlar evaziga erishilganini yosh avlodga anglatadigan, ularning qalbi va ongiga milliy mustaqillik g‘oyasini yanada chuqurroq singdirishga xizmat qiladigan ma’naviy va ma’rifiy tadbirlarni yanada kuchaytirishni zamonning o‘zi taqozo qilmoqda. Bugungi tahlikali va murakkab zamonda dunyoda yuz berayotgan keskin ziddiyatlar, to‘qnashuvlar, turli qarama-qarshiliklar, millat va dinlar o‘rtasidagi har xil mojarolarni hamma ko‘rib, bilib turibdi.

O‘zbekistonda yashab faoliyat ko‘rsatayotgan turli konfessiya vakillarining ma’naviy dunyosi, e’tiqod erkinligi uchun istiqbolning dastlabki kunlaridan boshlab keng yo‘l ochildi. Din davlatning ma’naviy-madaniy hayotining

uzviy qismi ekanidan kelib chiqib, unga boʻlgan munosabat tubdan oʻzgardi. Dinga boʻlgan yangicha munosabat mamlakat rahbari tomonidan koʻrsatilgan “Dunyoviylik – dahriylik emas” tamoyili asosida belgilab berildi. Bugungi kunda mamlakatda turli eʼtiqodga mansub diniy tashkilotlar oʻrtasida oʻzaro hurmat va bagʻrikenglik muhiti oʻrnatilishi uchun, koʻp konfessiyalikning real ijtimoiy holat ekani va uning kelajakda ham saqlanib qolishini hisobga olgan holda, diniy bagʻrikenglik uchun toʻla sharoitlar yaratilmoqda.

Oʻzbekiston Konstitutsiyasining davlat va din munosabatlari masalasiga taalluqli asosiy bandlari rivojlangan jamiyatlarning huquqiy meʼyorlariga mos keladi. Konstitutsiyaning 18, 31 va 61-moddalari hamda “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar toʻgʻrisida”gi Qonunning (yangi tahriri 1998-yil 1-mayda qabul qilingan) har bir insonning xohlagan dinga eʼtiqod qilish yoki hech qaysi dinga eʼtiqod qilmaslik huquqini taʼminlovchi, diniy qarashlarni majburan singdirishni taʼqiqlovchi bandlari milliy, irqiy va diniy kelib chiqishidan qatʼi nazar, jamiyatning barcha aʼzolari oʻrtasidagi totuvlikni hayotga tatbiq etish uchun ishonchli asos boʻlib xizmat qilmoqda.

Din davlat siyosatiga aralashmaydi. shu bilan birga har qanday din, avvalo, maʼnaviy-axloqiy hodisa boʻlib, u muayyan bir xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotini toʻlaligicha oʻzida majassamlashtirishga daʼvo qilolmaydi. Aks holda, din oʻz maqsad va vazifalaridan chetlashib ketadi. Ana shulardan kelib chiqib, mamlakatda diniy siyosiy partiyalar tuzish taqiqlanadi.

Dunyoviy davlat tuzumi amal qilayotgan Oʻzbekistonda barcha dinlarga bir xil va teng munosabatda boʻlish bugun hayotiy voqelikka aylandi. Din va davlat munosabatlarini muvofiqlashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi huzurida Din ishlari boʻyicha qoʻmita faoliyat koʻrsatmoqda. Uning asosiy vazifalari: vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar toʻgʻrisidagi qonun hujjatlariga muvofiq diniy masalalarni hal qilishda yagona siyosatni amalga oshirish, davlat organlarining mamlakat hududida joylashgan diniy tashkilotlar bilan aloqasini amalga oshirish, diniy tashkilotlar va ularning aʼzolari oʻrtasida oʻzaro bir-birini tushunish va sabr-toqatlilikni mustahkamlash siyosatini oʻtkazish, mamlakatda va chet ellarda diniy tashkilotlar oʻrtasida aloqalar oʻrnatilishini tashkil etish, fuqarolarning mamlakatdan tashqaridagi muqaddas joylarga ziyoratga borishi, xalqaro anjumanlar oʻtkazilishini uyushtirishdan iborat.

Oʻtgan davr mobaynida bu yoʻnalishda muayyan natijalarga erishildi. Eng asosiysi – bagʻrikenglikning muhim omillaridan biri boʻlgan millatlararo va dinlararo totuvlik taʼminlandi. Bugun Oʻzbekiston Respublikasida 17 konfessiyaga mansub 3000 dan ortiq diniy tashkilot bilan birga Imom Buxoriy nomidagi Islom universiteti, 9 ta oʻrta-maxsus islom bilim yurtlari hamda pravoslav va protestant seminariyalari ishlab turibdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning 1991-yil 11-aprel va 20-iyundagi Farmoniga binoan “Iyd al-Fitr” (Ro‘za) va “Iyd al-Adho” (qurbon) hayit bayramlari dam olish kuni deb e‘lon qilindi. Istiqloq davrida 90 mingdan ortiq o‘zbek fuqarolari haj ibodatini ado etishga muvassar bo‘ldi. Har yili boshqa diniy jamoalarning yuzlab vakillari Isroil va Rossiyadagi muqaddas ziyoratgohlarga tashrif buyurmoqda.

2004-yil aprelda respublikadagi turli konfessiyalar o‘rtasida totuvlik va bag‘rikenglik tamoyillarini yanada mustahkamlash, millatlararo va dinlararo hamjihatlik yuzasidan takliflar va chora-tadbirlarni birgalikda ishlab chiqish maqsadida Din ishlari bo‘yicha qo‘mita qoshida konfessiyalar ishlari bo‘yicha jamoatchilik kengashi tashkil etildi.

Ajdodlarning bebaho merosini mukammal o‘rganish va oliy ma‘lumotli kadrlar tayyorlash maqsadida Prezidentning farmoni bilan 1999-yilda Toshkent islom universiteti ochildi. Bu ta‘lim maskanida bugungi yosh avlodga ulkan va boy madaniyatning uzviy masalalari – islom nazariyasi, tarixi, falsafasi, huquqshunosligi, madaniyati va axloqi, tabiiy fanlar chuqur o‘rgatilmogda. Universitet xalq ma‘naviyatini yuksaltirishga, tarixi ming yildan ko‘hna islomiy merosni yanada teranroq o‘rganish, din ravnaqi, uning taraqqiyotiga xizmat qiladigan, diniy va dunyoviy-zamonaviy bilimlarni puxta egallagan mutaxassislarni tayyorlab kelmoqda.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng miqyosdagi bunyodkorlik ishlariga misol tariqasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 20-fevralda imzolagan “Hazrati Imom” jamoatchilik jamg‘armasini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi qarorining e‘lon qilinishi mamlakatda bunyodkorlik ishlari rivojiga yana bir turtki bo‘ldi. Ushbu qarorda Hazrati imom majmuasining tarix, mamlakat ma‘naviy hayotidagi o‘mi va ahamiyati inobatga olinib, uning asl tarixiy qiyofasini tiklash, bu yerda keng ko‘lamli qurilish-ta‘mirlash va obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish, majmuaning infratuzilmasini har tomonlama rivojlantirish kun tartibiga qo‘yildi, bu savobli ishga tezkorlik, kuch-g‘ayrat bilan kirishildi va qisqa muddatlarda mahobatli majmua barpo etildi. Bu jarayonda obidalami nafaqat qayta tiklash va ta‘mirlash, ayni vaqtda ularning yon atrofidagi o‘ziga xos tabiiy muhitni asl holida saqlab qolish kabi masalalarga ham jiddiy e‘tibor qaratildi.

Islom konferensiyasi tashkiloti qoshidagi Ta‘lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha muassasasi AYSESKO tomonidan 2007-yilda Toshkent shahrini “Islom madaniyati poytaxti” deb e‘tirof etilishi mamlakat hayotidagi ulkan madaniy-ma‘naviy voqea bo‘lib, xalq tomonidan katta quvonch bilan kutib olindi. Sharq darvozasi deb nom olgan azim Toshkentning ana shunday yuksak maqomga erishgani nafaqat xalqqa, ayni vaqtda yaqin va uzoqdagi do‘stlarga ham g‘urur va iftixor bag‘ishladi.

O‘zbekistondan yetishib chiqib, islom olamida shuhrat qozongan allomalar – Bahouddin Naqshbandning 675 (1993-yil sentabr), Xoja Ahror Valiyning 590 (1995-yil noyabr), Mahmud az-Zamaxshariyning 920 va Najmiddin Kubroning 850. Imom Buxoriyning 1225 va Ahmad Farg‘oniyning 1200 (1998-yil oktabr). Imom Motirudiyning 1130 va Burhoniddin Marg‘inoniyning 910 (2000-yil noyabr) yillik yubileylari keng nishonlandi, ularning nomi bilan bog‘liq qadimiy yodgorlik majmualari obod qilindi.

1995-yilda “Bir samo ostida” shiori bilan tashkil etilgan xalqaro xristian-musulmon konferensiyasi bo‘lib o‘tdi, uning ishida Jahon cherkovlari kengashi, turli xorijiy cherkov vakillari ishtirok etdi. 1996-yilda Rus Provaslav cherkovi Toshkent va O‘rta Osiyo eparxiyasining 125 yilligi nishonlandi. Tantanalarda cherkov tarixida ilk bor Moskva va Butun Rus Patriarxi Aleksey Ikkinchi Markaziy Osiyo hududiga tashrif buyurdi.

2001-yilda Toshkent va O‘rta Osiyo yeparxiyasi o‘zining 130 yilligini nishonladi. 2002-yilda Rim-katolik cherkovi katolikning Markaziy Osiyoda qayta tiklanganligiga 100 yil to‘lishi munosabati bilan bayram tadbirlarini tashkil etdi. 2003-yilda Samarqand shahrida Arman Apostollik cherkovining 100 yilligi nishonlandi. “Qur‘oni Karim”, Hadislar to‘plami, “Injil” (Yangi ahd) o‘zbek tiliga tarjima qilinib, chop etildi. Shuningdek, O‘zbekiston “Qur‘oni Karim”ni ko‘zi ojizlar uchun maxsus brayl yozuvida nashr qilgan dunyoning uchinchi mamlakatiga aylandi.

O‘zbekiston musulmonlari idorasining “Hidoyat” oylik jurnali, “Islom nuri” gazetasi, Toshkent va O‘rta Osiyo eparxiyasining “Восток свыше кипил” jurnali chop etilib, mamlakatda diniy aqidaparastlik, ekstremistik harakatlarning oldini olish bo‘yicha izchil va tizimli ishlar amalga oshirilmogda. Jumladan, mamlakatga suqulib kirishga harakat qilgan, xalq orasida mutaassiblik urug‘ini sochishga uringan va bu bilan o‘zining g‘arazli maqsadini amalga oshirmoqchi bo‘lgan turli guruhlar faoliyati fosh etildi.

Hozirgi kunning eng asosiy vazifalaridan biri – xalqning diniy e‘tiqodiga zid bo‘lgan zararli oqimlarning mamlakat hududiga kirib kelishining oldini olish, an’anaviy, ma’rifiy, mo‘tadil islomni yot g‘oyalar ta’siridan saqlashdan iboratdir.

5. XALQNING TINCH VA OSUDA HAYOTI – BARQAROR TARAQQIYOT GAROVI

O‘zbekistondagi barqarorlikni, xalqning tinch-osuda hayotini ta’minlash borasida to‘g‘ri va odilona olib borilgan siyosat tufayli barcha jabhalarda salmoqli natijalarga erishilmogda. O‘zbekiston Prezidenti istiqloqlning birin-

chi kunlaridanoq bu borada zarur chora-tadbirlarini koʻrdi, barcha ijtimoiy kuchlarni yagona maqsad sari birlashtirib, safarbar etdi. Bugungi kunda ana shu barqarorlik tufayli mamlakatning ulkan ijobiy natijalarga erishayotganini dunyo jamoatchiligi eʼtirof etmoqda, eng muhimi, xalq bu siyosatni toʻla qoʻllab-quvvatlamogʻda.

Bu natijalar milliy taraqqiyot modelining maʼno-mazmuniga singib ketgan quyidagi qoidalar asosida amalga oshdi:

– millati, tili va dinidan qatʼi nazar, davlatimizda yashovchi barcha kishilar uchun munosib tinch-osuda hayot sharoitini yaratib berish;

– har bir inson uchun ijtimoiy kafolatlangan turmush darajasini va erkinliklarini taʼminlash;

– xalqning qadriyatlarini va mentalitetiga, milliy davlatchilik anʼanalariga tayanish;

– dunyo tajribasining ilgʻor yutuqlariga asoslanish, umuminsoniy qadriyatlar uygʻunligiga erishish.

Maʼlumki, jahon tarixida oʻz siyosiy mustaqilligini qoʻlga kiritgandan keyin uni ichki va tashqi dushmanlardan saqlab qolish, xalqni bu masʼuliyatli ishga safarbar etishga jiddiy yondasha olmaslik sababli yana boshqalarga qaram boʻlib qolish holatlari ham kam emas. Bu esa kishilardan doimo ogoh boʻlishni, mustaqillikni har qanday yovuz kuchlardan, jumladan, diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm balosidan koʻz qorachigʻiday asrab himoya qilib yashashni talab etadi.

Dunyodagi turli terroristik va ekstremistik kuchlar, mafkuraviy markazlar tomonidan xalqning tinch va osuda hayotini buzishga qaratilgan harakatlar ham boʻlib turadi. Albatta, bu qabih kuchlar oʻz oldilariga qoʻygan gʻarazli niyatlarini turli daʼvolar, “oliyjanob”, “ezgu” gʻoyalar bilan qanchalik niqoblamasin, ularning pinhoni maqsadi – mustaqil Oʻzbekistonni erkin va ozod taraqqiyot yoʻlidan qaytarish, xalqni yana boshqa koʻrinishidagi qaramlik sirtmogʻiga solishdan iboratdir. Hozirda ham jahonning ayrim mintaqalarida bunday razil kuchlar va markazlar puxta oʻylangan reja asosida, katta mablagʻ bilan taʼminlangan, eng zamonaviy vosita va imkoniyatlarga ega boʻlgan tarzda harakat qilmoqda. Ulardan biri “Hizbut-tahrir” diniy-ekstremistik oqimi boʻlib, uning tarafdorlari hech qanday aqlga sigʻmaydigan afsonaviy gʻoyani oldinga surdi. Yaʼni, goʻyo dunyodagi barcha musulmonlar xalifalik deb ataluvchi diniy davlatga birlashishlari kerak va uni bitta xalifa boshqarishi zarur emish.

Tarixni opqaga qaytarib boʻlmaydi. “Hizbut-tahrir” diniy oqimi, uning aqidaparast “dohiy”lari jahon xaritasini oʻzgartirishga, xalqlarni oʻrta asrlarda hukm surgan jaholat davriga qaytarishga qanchalik urinmasin, ular oʻz yovuz

niyatlariga erisha olmaydi. O‘zbekiston xalqi, Prezident ta’kidlaganidek, “qandaydir bechora, kimningdir yetaklashiga muhtoj bo‘lgan davlat yoki xalq emasmiz”¹.

Mustaqil va erkin hayotga qarshi qaratilgan harakatlarning ildizi mamlakat tashqarisida joylashgan xalqaro terrorchilik va ekstremistik markazlarga bevosita bog‘liq ekaniga hech qanday shak-shubha yo‘q. Prezident Islom Karimov bu masalani o‘z asarlarida, turli darajadagi minbarlardan so‘zlayotgan nutq va ma‘ruzalarida yetarlicha dalillar bilan isbotlab kelmoqda.

Shu o‘rinda afsus bilan ta’kidlash kerakki, ba’zi kishilar ongida tinchlikni ta’minlash – bu davlatning, uning huquq-tartibot idoralarining ishi, degan noto‘g‘ri tushuncha o‘rnashib qolgan. To‘g‘ri, bu masalaga avvalambor mana shu tashkilotlar javobgar. Lekin, tinchlik va osoyishtalik har bir insonga daxldor bo‘lgan hayotiy zaruratki, uni saqlash shu yurtda yashaydigan har bir fuqaroning muqaddas burchi bo‘lmog‘i kerak.

Prezident Islom Karimov ta’kidlab o‘tganidek, “mana shunday tinch, osuda va mazmunli hayotimizning qadriga etish, mamlakatni har tomonlama ravnaq toptirish uchun, farzandlarimizning baxtli kelajagi uchun belimizni mahkam bog‘lab mehnat qilish barchamizning insoniy burchimizdir”².

Shuning uchun ham bugun o‘zini o‘zbek deb bilgan hap bir kishi “tinchlik-osoyishtalikni, shu tinch va osuda hayotni, musaffo osmonni asrash uchun shaxsan men nima qilayapman, bu yo‘lda o‘z huzur-halovatimdan voz kechishga tayyormanmi?” degan savolni o‘ziga berishi, kundalik faoliyatini shu nuqtayi nazardan baholashi zarur.

“O‘z uyingni o‘zing asra” degan shiorni Prezident ko‘p marta takrorlaydi. Bugungi kunda mana shu dolzarb vazifaga barcha yetarli ahamiyat berayaptimi? Afsuski, ba’zi joylarda bu borada hanuz beg‘amlilik, loqaydlik, o‘zibo‘larchilik holatlariga yo‘l qo‘yilmoqda. Holbukni, hushyorlik, ogoh bo‘lib yashash – bu bir kunlik yoki bir oylik mavsumiy masala emas, balki kundalik ish, kundalik amaliy harakat bo‘lishi lozim.

Yurtboshi Islom Karimovning “Tinchlik uchun kurashmoq kerak” risolasida ta’kidlanganidek, “Tinchlik – Ollohning buyuk ne‘mati, hammamiz uchun ham hayotimiz asosi, barcha orzu-umidlarimiz manbayidir. Lekin “tinchlik bo‘lsin”. degan mazmundagi so‘zlarni qayta-qayta tilga olar ekan-

¹ *Karimov I.A.* Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar, deb hisoblashar edi. – T.: «O‘zbekiston», 2005. – 6-b.

² *Karimov I.A.* Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma‘naviyatimizni yuksaltirish va xalqning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. 15-jild. – T.: «O‘zbekiston», 2007.– 37-b.

miz, ko‘pincha uning ma‘no-mazmuni nechog‘lik teranligi haqida o‘ylab ko‘rmaymiz. Ma‘no-mazmuni anglanmagan so‘zning esa ta‘siri ham, qadri ham bo‘lmaydi... Bunday ezgu da‘vatlar zamirida aniq ma‘no, amaliy harakat bo‘lishi kerak”.

2010-yilning 11–15-iyun kunlari Qirg‘iziston Respublikasining janubidagi O‘sh va Jalolobod viloyatlarida sodir etilgan qonli fojialar oqibatida jabr ko‘rib, O‘zbekistondan panohtopgan qochoqlarga zarur shart-sharoitlarni yaratib berish, beminnat yordam ko‘rsatishda xalqning yuksak fazilatlarini yana bir bor yaqqol namoyon bo‘ldi. Mana shunday o‘ta qaltis vaziyatda aynan Prezident, xalq tomonidan og‘ir-vazminlik bilan ish tutib, ko‘rsatilgan yuksak insonparvarlik tufayli bu fojining yanada keng tus olib, uning butun mintaqaga bo‘ylab alanga olib ketishiga yo‘l qo‘yilmadi.

2010-yil 18-iyun kuni Prezident Buxoro viloyatining Vobkent tumanida qishloq mehnatkashlari bilan bo‘lgan suhbatida bu voqealar haqida atroflicha fikr bildirib, “Biz har doim vazmin, oriyatli, or-nomusli xalq bo‘lib kelganmiz. Har doim o‘z salohiyatimizga, o‘z kuchimizga suyanib yashaganmiz. Shu bilan birga, doimo yetti marta o‘lchab, bir marta kesganmiz. Men shu yo‘ldan hech qachon qaytmaslikka da‘vat yetib, xalqqa faqat omonlik, tinchlik tilayman”, deb ta‘kidladi.

Mamlakat fuqarolari va jahon jamoatchiligi bu voqealarga o‘z vaqtida xolis baho berdi. Davlat rahbarining “Jaholat hech qachon yaxshilikka olib kelmagan. Qiziqqonlik, johillik oqibatida bu go‘zal hayotni bir lahzada yo‘qotish mumkinligini sira unutmazlik lozim. Bugungi murakkab davrda ogohlik, sezgirlik, hushyorlik har qachongidan muhim”, degan fikrlari hammani yana bir karra ogoh bo‘lishga, birdamlik va hamjihatlikka, go‘zal hayotning qadriga yetishga da‘vat etadi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik davrida O‘zbekistonda amalga oshirilgan keng ko‘lamli ma‘naviy-ma‘rifiy islohotlar tufayli kelajak taqdiri faqat o‘zbek xalqining o‘z faoliyatiga, o‘zining kuchi va salohiyatiga bog‘liq. Mamlakatda huquqiy demokratik davlat qurish, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishdek maqsad sari qadam tashlamoqda. Bunday dadil qadamlarda ma‘naviyatga e‘tibor va unga intilish asosiy rolni o‘ynamoqda. Shu bois ham mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida ma‘naviyatga muhim ahamiyat qaratilmoqda.

Mustaqillikning uch tayanchi – mustaqil milliy siyosat, iqtisodiy qudrat va xalq ma‘naviyati bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Agar siyosiy mustaqillik bo‘lmasa, millat asta-sekin o‘zligini yo‘qota boradi, iqtisodiy mustaqillik bo‘lmasa, siyosiy mustaqillikning zamini mo‘rt bo‘ladi. Ammo ma‘naviy

mustaqillik bo'lmasa, millatning o'zi bo'lmaydi. Yurtda ana shu uch tayanch o'zaro uyg'unligi ta'minlangani O'zbekistonning ulug' yurt sifatida jahon hamjamiyatida o'z munosib o'rnini egallashiga xizmat qilmoqda.

Xalq o'z kuchiga, aql-u zakovatiga ishonib, inqilobiy bo'hronlarsiz, bosqichma-bosqich ozod va obod Vatan. erkin va farovon hayot qurishga kirishdi. Kishilarda o'zining aqlu idrokiga, intellektual salohiyatiga, yaratuvchilik kuchiga, ma'naviyatiga ishonch uyg'ondi. Bu borada hali bartaraf etilishi zarur bo'lgan to'siqlar mavjud. Ammo xalqda, fuqarolarda milliy o'zligini anglash va namoyon etish istagi barqaror qadriyatlarga aylanib borayotganini sezmaslik mumkin emas. Aynan ushbu istak mamlakatda kechayotgan demokratik jarayonlarga va chuqurlashayotgan islohotlarga ma'no berib, yo'naltiruvchilik ruhiyatini baxsh etmoqda.

Tayanch so'z va iboralar:

Ma'naviy va ma'rifiy islohotlar. Milliy meros. Milliy qadriyatlar. Boy va haqqoniy tarix. Buyuk ajdodlar nomining oqlanishi va poklanishi. Ta'lim islohotlari. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Milliy model. Mustaqillik mafkurasi. Milliy istiqlol g'oyasi. Ilm-fan. San'at. Diniy bag'rikenglik va barqarorlik. Tinchlik va osoyishtalik.

Bilimingizni sinab ko'ring

1. Mustaqillik tufayli milliy bayramlar va urf-odatlar asl holiga qaytdi. Aziz avliyolarning qarovsizlikdan nurab, deyarli yo'q bo'lib ketish arafasiga kelib qolgan maqbaralari, masjid va madrasalar tubdan ta'mirlandi.

O'zbekistondagi osori-atiqalarni asrash, milliy qadriyatlarni tiklash, o'zligini to'liq anglash uchun qadimiy ... ma'naviy merosni to'laqonli yoritish imkoniyati tug'ildi.

Bu qadimiy boy meros nima edi?

	o	
--	---	--

		i			m	i	z
--	--	---	--	--	---	---	---

2. Mustaqillik yillarida qadimgi ajdodlarimizning ezgu g'oyalari, milliy davlatchilik an'analari, turmush tarzi va mentalitetini aks ettirgan bir kitob o'zining haqiqiy qadr-qimmatini topdi. Kitobning xalq va milliy davlatchilik tarixi, umumbashariy sivilizatsiya rivojidadagi ulkan ahamiyatini hisobga olgan holda, 2001-yili bu kitob yaratilganligining 2700 yilligi xalqaro miqyosda

keng nishonlandi. Shu munosabat bilan kitobning to‘liq matni o‘zbek tiliga tarjima qilinib, chop etildi.

Bu kitobning nomini toping.

--	--	--	--	--	--	--	--

3. O‘zbekistonning barcha viloyat, yirik shahar va tumanlarida faoliyat yuritayotgan ma’naviy-ma’rifiy muassasalar ishtirokida katta xalq sayilari, hosil, “Mustaqillik”, “Navro‘z”, “Mehrjon” bayramlari, “Sharq taronalari” xalqaro festivali, xonandalar, raqqosalar, eng yaxshi kasb ustalarining ko‘rik tanlovlari, “O‘zbekiston – Vatanim manim”, “Eng ulug‘, eng aziz”, shuningdek, “Yagonasan...” so‘zi bilan boshlanuvchi yirik bir ko‘rik-tanlov ham o‘tkazib kelinadi.

Bu ko‘rik-tanlov nomini toping.

y	g	o	n	a	s	a	n
---	---	---	---	---	---	---	---

--	--	--	--	--	--	--	--

--	--	--	--	--	--	--	--

4. 1997-yil avgust oyida yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi qabul qilindi. Qonun orqali fuqarolarga ta’lim-tarbiya berish, kasb-hunar o‘rgatishning huquqiy asoslari belgilanib, har kimning bilim olishdan iborat ... huquqlari ta’minlandi.

Bu qanday huquqlar edi?

				t		t			i		v	i	y
--	--	--	--	---	--	---	--	--	---	--	---	---	---

h	u	q	u	q	l	a	r	i
---	---	---	---	---	---	---	---	---

5. Prezident O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17 yilligiga bag‘ishlangan marosimdagi (2009-yil 5-dekabr) ma’ruzasida bundan 12 yil oldin boshlangan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va 2004-yilda uning tarkibiy qismi sifatida qabul qilingan Maktab ta’limini rivojlantirishning yana bir dasturi ijtimoiy hayotda tub burilish yasaganligini alohida ta’kidlab o‘tgan edi.

Prezident I.A.Karimov o‘z ta’kidida milliy dastur bilan birga maktab ta’limini rivojlantirishning 2004–2009-yillarga mo‘ljallangan qaysi dasturini nazarda tutgan edi?

			m	m				
--	--	--	---	---	--	--	--	--

			l			
--	--	--	---	--	--	--

d	a	s	t	u	r	i
---	---	---	---	---	---	---

6. Yagona maqsad bo'lmasa jamiyat inqirozga uchraydi, halok bo'ladi. Shu bois, milliy istiqlol g'oyasi kelajak maqsadni ifodalaydigan, xalqning ming yillik tarixini buyuk kelajak bilan bog'laydigan, ana shu maqsad yo'lida 120 dan ortiq millat va elatlarni, barcha kishilarni birlashtiruvchi bir ramziy narsa mavjud. Ushbu ramziy narsaning nomini toping.

		y			
--	--	---	--	--	--

7. 1998-yil 26-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi. Bu farmonga muvofiq O'zbekiston tomosha san'atining ko'p asrlik an'analarini o'rganish, boyitish va targ'ib qilish, teatr san'atini har tomonlama rivojlantirish, uning moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash, mamlakatda ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni amalga oshirishda teatr arboblarning faol qatnashishini ta'minlash maqsadida ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi.

Bu ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi qanday nomlanadi?

			y			y			
--	--	--	---	--	--	---	--	--	--

8. Bugungi tahlikali va murakkab zamonda dunyoda yuz berayotgan keskin ziddiyatlar, to'qnashuvlar va qarama-qarshiliklar, millatlar va dinlar o'rtasidagi turli mojarolarni hamma ko'rib, bilib turibdi.

O'zbekistonda yashab faoliyat ko'rsatayotgan turli konfessiyalar vakillarining ma'naviy dunyosi, e'tiqod erkinligi uchun keng yo'l ochilgan. Dinga bo'lgan yangicha munosabat mamlakat rahbari tomonidan ko'rsatilgan tamoyil asosida belgilab berilgan. Bu tamoyil so'zlari katakchalarda yashiringan.

«					v			l	i	k
---	--	--	--	--	---	--	--	---	---	---

			r		l	i	k
--	--	--	---	--	---	---	---

			»
--	--	--	---

9. Islom konferensiyasi tashkiloti qoshidagi Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha muassasasi tomonidan Toshkent shahri 2007-yilda "Islom madaniyati poytaxti" deb e'tirof etilishi mamlakat hayotidagi ulkan madaniy-ma'naviy voqea bo'ldi.

Toshkent shahriga bunday yuksak maqomning berilishini e'tirof etgan Islom konferensiyasi tashkiloti qoshidagi Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha muassasaning qisqartirilgan nomini toping.

(y)
---	--	--	---	--	--	---

XIX BOB. O‘ZBEKISTONNING JAHON HAMJAMIYATIGA INTEGRATSIYALASHUVI

Mavzu rejasi:

1. O‘zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati va uning jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi.
2. O‘zbekiston va BMT.
3. O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy-siyosiy aloqalarining o‘rnatilishi va rivojlanishi.
4. O‘zbekiston va MDH davlatlari. O‘zbekistonning O‘rta Osiyo respublikalari bilan o‘zaro hamkorligi.

1. O‘ZBEKISTONNING TINCHLIKSEVAR TASHQI SIYOSATI VA UNING JAHON HAMJAMIYATI TOMONIDAN TAN OLINISHI

Tarixga buyuk o‘zgarishlar davri bo‘lib kirgan XX asrning so‘nggi o‘n yilida yer yuzidagi kuchlar nisbati tubdan o‘zgarib, dunyodagi qarama-qarshi bo‘lgan ikki tuzum (sotsialistik va kapitalistik) barham topdi. Yer yuzidagi bunday keskin o‘zgarishlar har bir mustaqil taraqqiyot yo‘lini tanlagan davlatlar uchun jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin egallashga harakat qilish imkoniyatini yaratdi.

Bu imkoniyat O‘zbekistonning mustaqil tashqi siyosat yuritish, jahon hamjamiyatidan o‘zining munosib o‘rnini topishiga keng yo‘l ochib berdi. O‘zbekistonning qadimdan dunyo xalqlari bilan aloqalari, “Buyuk Ipak yo‘li”ning asosiy yo‘nalishlari shu mamlakat orqali o‘tganligi, Markaziy Osiyo mintaqasidagi qadimiy savdo va madaniy aloqalarda mamlakatning hissasi yirik bo‘lganligi qo‘l kelgan bo‘lsa, qisqa fursatda tashqi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarning kengayishida, mamlakatning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvida Prezident I.A. Karimovning o‘rni va roli beqiyosligini alohida ta’kidlab o‘tmoq joiz.

Sobiq ittifoqning boshqa respublikalari qatori O‘zbekiston ham zohiran xorijiy davlatlar bilan mustaqil munosabatlar o‘rnatish, jumladan, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish huquqiga ega suveren respublika hisoblanar edi. Ammo haqiqatda hammasi aksincha bo‘lib, suveren respublikalarning

Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan xalqaro huquqlari shunchaki quruq gap – targ'ibotchilik xususiyatiga ega edi, xolos. Bunday holat O'zbekiston hayotiga halokatli ta'sir ko'rsatayotgan edi.

O'zbekiston to'g'ridan-to'g'ri xalqaro maydonga chiqish huquqidan mahrum, nafaqat tashqi siyosiy, balki tashqi iqtisodiy davlat muassasalariga ham ega emas edi. Unda mustaqil ravishda tashqi aloqalarni o'rnatish huquqi mutlaqo bo'lmagan. Xalqaro munosabatlar faqat markazning ruxsati va qattiq nazorati ostida amalga oshirilgan. Natijada respublikaning tashqi aloqalari chegaralangan doiralarda namoyon bo'lib, avvalboshdan o'zining notabiiyligi va sinfiy-mafkuraviy yo'nalishi bilan ajralib turgan.

O'zbekistonning sobiq ittifoqning tashqi iqtisodiy aloqalaridagi ishtiroki respublikani faqat tovar eksport qiluvchi darajasiga tushirib qo'ygan imperiyaviy mafkura asosida amalga oshirilgan. Buning ustiga, iqtisodning ekstensiv rivojlanishi sharoitida sanoat jihozlarining alohida turlarini hisobga olmaganida, eksportning asosiy manbasi shafqatsiz ravishda qurilayotgan tabiiy xomashyo resurslari edi. O'zbekistondan paxta, ipak, qorako'l, oltin, rangli metallar, hunarmandchilik buyumlari va boshqa mahsulotlar olib ketilardi. Bularning barchasi qat'iy valyutada o'nlab million rublni tashkil etishiga qaramay, respublika eksport daromadlaridan xalq farovonligini oshirish, milliy iqtisodni mustahkamlash, uni o'z manfaatlaridan kelib chiqib rivojlantirish yo'lida foydalana olmasdi.

Boshqacha aytganda, xalqaro hamkorlikning "qizil imperiya"ning kommunistik dunyoqarashdagi mafkurasiga asoslangan mustamlakacha-mustabidcha tabiatiga mos andozasi avvalboshdan tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish vazifasi faqat markaz ixtiyoriga berilganligidan kelib chiqar edi. Respublikalar, jumladan, O'zbekistondan "yuqori"dan majburan qabul qildirilgan strategik siyosatni so'zsiz bajarish talab qilinar edi.

1991-yilda O'zbekiston siyosiy suverenitetini e'lon qilib, mustaqil rivojlanishning dastlabki kunlaridan boshlab boshqaruvning mustahkam o'rnashib qolgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan voz kechish yo'lini tutdi. Yosh davlat ijtimoiy himoyalangan bozor iqtisodiyoti va ochiq tashqi siyosatga asoslangan huquqiy-demokratik jamiyatning asoslarini qurishga kirishdi.

Bu harakatlar butun xalqning kuch-qudrati bilan eng mohir siyosiy namoyandalarning qat'iy harakatini yalpi safarbar etishni taqozo qildi. Ana shunday sharoitda O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov o'zbek xalqining milliy uyg'onishi manfaatlariga sodiqligi, dadil va qat'iyatli faoliyat hamda uzoqni ko'ra oladigan siyosatchiligi bilan alohida ajralib turdi.

Islom Karimovning mamlakat rahbari sifatidagi siyosiy faoliyatini kuzatganda hali sobiq mustabid davlat tarkibida bo'lgan ittifoqdosh respublikalar

orasida O‘zbekistonning birinchi Prezidenti bo‘lishi bilanoq o‘zbek xalqining sodiq farzandi sifatida mustaqil davlat taraqqiyotining g‘oyaviy asoslarini ishlab chiqqanligini yaqqol ko‘rish mumkin. Shu bilan birga, M.Gorbachyovning qayta qurish siyosati o‘zining so‘nggi damlarini kechirayotganini tushunib, o‘sha paytdayoq u O‘zbekistonning markazga bo‘ysunmagan holda mustaqil tashqi siyosat va tashqi iqtisodiy faoliyat olib borishi uchun zamin tayyorlash zarurligini ko‘ra oldi. Jumladan, tashqi faoliyat sohasida Islom Karimov tomonidan hammadan avval respublikani xomashyo yetkazib beruvchi mamlakatdan iqtisodiy jihatdan yuqori darajada rivojlangan, jahon andozalariga javob beradigan va kelgusida dunyo iqtisodiy maydonida integratsiyalashuv bilan keng ko‘lamli iqtisodiy hamkorlik qilishga qobil davlatga aylantirishga asosiy e‘tibor qaratish zarurligi to‘g‘risidagi g‘oya ilgari surildi. Hali to‘la mustaqillikka erishmay turib, mustabid tuzum sharoitida I.A.Karimov tashabbusi bilan 1991-yilning iyunida “O‘zbekiston SSRning tashqi iqtisodiy faoliyati to‘g‘risida”gi va “O‘zbekiston SSRning chet el investitsiyalari to‘g‘risida”gi muhim Qonunlarning qabul qilinishi respublika rahbari ko‘tarib chiqqan bu g‘oyalarni hayotga tatbiq etish yo‘lidagi dastlabki qadamlar bo‘ldi.

Ittifoq davlat birlashmasi ham mavjud bo‘lishiga qaramay, mazkur hujjatlarda O‘zbekiston iqtisodiga chet el investitsiyalarini kiritishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslari, shuningdek, uni amalga oshirish tartibi belgilab berildi, Respublika hududidagi xorijiy sarmoyalarning davlat tomonidan kafolatlanishi qonun yo‘li bilan rasmiylashtirildi. Keyinchalik ular boshqaruvning ma‘muriy-buyruqbozlik usulidan sekin-asta bozor usuliga, jumladan, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishga o‘tishni amalga oshirishdan iborat iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichida muhim rol o‘ynadi.

Haqiqiy mustaqillik sharoitida, rivojlanishning boshlanish holatida esa respublikaning ichki qurilishi murakkab masalalarini hal qilish va tashqi siyosatning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash davrini boshidan kechirishiga to‘g‘ri keldi. Sobiq ittifoqning tashqi savdoga va tashqi aloqalarni boshqarishning butun huquqiy me‘yorlar tizimiga bo‘lgan davlat monopoliyasining tugatilishi bilan birga kechgan mustabid tuzumning halokati oqibatlari buning obyektiv sababi bo‘ldi.

Umumittifoq tashqi savdo va tashqi iqtisodiy tuzilmalar faoliyatining to‘xtashi, bunday idoralarning O‘zbekistonda bo‘lmaganligi mustaqillikning dastlabki bosqichida tashqi siyosatni amalga oshirishda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. O‘sha davrda vujudga kelgan bunday vaziyat O‘zbekistonga tashqi iqtisodiy majmuaning boshqaruv tizimi bilan birga, tashqi siyosat bo‘yicha o‘zining modelini jadal suratda shakllantirish,

shuningdek, tashqi aloqalarni yoʻlga qoʻyish prinsiplarini ishlab chiqish va Oʻzbekistonning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuv yoʻlini mustaqil belgilashni zarur qilib qoʻydi.

Istiqlolning dastlabki kunlaridan boshlab Oʻzbekistonda xalqaro tashkilotlarning faoliyatini oʻrganish, xorijiy davlatlar bilan diplomatik, turistik aloqalarni yoʻlga qoʻyish va bu ishlarda faoliyat yuritish uchun yuqori malakali milliy kadrlar yetishtirish ehtiyoji kelib chiqdi. Shuni taʼkidlash kerakki, Oʻzbekiston bu ishlarni rejali tarzda amalga oshirdi.

1991-yil 31-avgustda Oliy Kengashning VI sessiyasida qabul qilingan “Mustaqillik haqidagi Bayonot”da “Xalqaro hamjamiyatning toʻla huquqli aʼzosi boʻlgan Oʻzbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarda mustaqil davlat, xalqaro huquq subyekti sifatida qatnashadi, uning maqsadlari mustahkam tinchlik, qurolsizlanish, oʻz hududini qurol-yarogʻlardan xoli qilish, yadroviy qurolni va boshqa ommaviy qirgʻin qurollarini yoʻqotish, suveren davlatlar oʻrtasidagi nizo va ziddiyatlarni hal etishda kuch ishlatish va tazyiqqa yoʻl qoʻymaslikdan iborat”, deb yozib qoʻyildi. Oʻz tashqi siyosatining asosiy yoʻlini belgilab olgan Oʻzbekiston Respublikasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyaning XVII moddasida bu yoʻlni qonun bilan mustahkamladi.

Prezident I.A.Karimov oʻzining asarlari, maqola va nutqlarida Oʻzbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy ustuvor tamoyillarini nazariy va amaliy jihatdan asoslab, “...davlatimiz tashqi siyosatining maʼno-mazmuni va maqsadi bitta – u ham boʻlsa, Oʻzbekiston manfaatidir”¹, deb alohida uqtirdi.

Davlatning tashqi siyosat bobidagi tamoyillari quyidagilar etib belgilandi:

- mafkuraviy qarashlardan qatʼi nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;
- davlatlarning suveren tengligi va chegaralar daxlsizligini hurmat qilish;
- boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- nizolarni tinch yoʻl bilan hal etish;
- kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik;
- inson huquqlari va erkinliklarini hurmatlash;
- ichki milliy qonunlar va huquqiy normalardan xalqaro huquqning umum-eʼtirof etilgan qoidalari va normalarining ustuvorligi;
- davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini taʼminlash maqsadida ittifoqlar tuzish, hamdoʻstliklarga kirish va ulardan ajralib chiqish;

¹ *Karimov I.A.* Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T.: “Oʻzbekiston”, 2005. – 58-b.

– tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirmaslik;
– davlatlararo aloqalarda teng huquqlilik va o‘zaro manfaatdorlik, davlat milliy manfaatlarining ustunligi:

– tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko‘p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish, bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslik.

Mustaqil davlat xalqaro huquqning umumjahon e’tirof etgan normalariga sodiqligini bildirib, uni o‘z Konstitutsiyasida ham mustahkamladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Xalqaro huquq tamoyillari va normalarining butun bir majmui – BMT Ustaviga, Inson huquqlari Deklaratsiyasiga va inson huquqlariga oid boshqa xalqaro huquq bitimlaridan – Xelsinki bitimi, Parij va Madrid xartiyalariga asoslandi. Shuningdek, Asosiy Qonunga kiritilgan qonunlarni rivojlantirish maqsadida “Diplomatik munosabatlarni o‘rganish tartibi”, “O‘zbekistonda xalqaro shartnomalarni tuzish, ijro etish va bekor qilish” haqida aktlar ham qabul qilindi. Ularda tashqi siyosatning har tomonlama asoslangan tamoyillari o‘z aksini topdi.

Bu tamoyillar yosh suveren davlatning asosiy tashqi siyosiy doktrinasini ifoda etish bilan birga davlatlararo munosabatlar yo‘nalishlarining rivojlanishi va keng doiradagi tashqi muammolarni hal qilish imkonini berdi.

Bugun O‘zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining yangi marralarga chiqishi, mamlakatning hozirgi zamon xalqaro munosabatlar tizimidagi o‘rni va rolini yanada mustahkamlash hamda jahon siyosati va iqtisodiyotida yuz berayotgan chuqur, shiddatli o‘zgarishlar davlat tashqi siyosatining konseptual asoslarini takomillashtirishni taqozo eta boshladi. Shu bois, 2012-yilda Prezident I.A.Karimov tashabbusi bilan “O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi” ishlab chiqilib, qonun asosida qabul qilindi. Bu hujjat ham xalqaro huquqning umume’tirof etilgan norma va prinsiplariga to‘liq mos keladi.

Shu tariqa, mamlakatning jahon xalqlari tinchligi va xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosati uning jahon miqyosida mustaqil davlat sifatida tan olinishini ta’minladi.

Davlatning tashqi siyosatdagi demokratik prinsiplarga to‘liq amal qilishi bois 1991-1992-yillarda O‘zbekistonni 111 davlat tan olgan bo‘lsa, bugungi kunda ularning soni 143 taga yetdi.

Jahonning 120 dan ortiq mamlakati bilan diplomatik aloqalar o‘rnatildi. Toshkentda 40 dan ortiq mamlakatning elchixonalari ochildi. Respublikada 88 ta xorijiy mamlakat vakolatxonalari akkreditatsiya qilingan, 24 hukumatlararo va 13 ta nohukumat tashkilotlari faoliyat ko‘rsatmoqda. Dunyodagi 30 dan ortiq davlatda O‘zbekistonning elchixonalari va konsullari ishlab turibdi.

2. O‘ZBEKISTON VA BMT

Ma'lumki, bugungi kunda insoniyat yuksak taraqqiyot yo'lidan jadal rivojlanib, ulkan natijalarni qo'lga kiritmoqda. Ayni vaqtda umumiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonida turli muammo va ziddiyatlar vujudga kelib, global miqyosda kuchayib, keskin tus olayotgani ham sir emas. Bu esa o'z navbatida Yer yuzidagi barcha davlat va xalqlarning o'zaro hamkorligi, hamjihatligi asosida ularni bor kuch-imkoniyatlarini ana shu g'oyat dolzarb masalalar yechimi yo'lida birlashtirish, safarbar etishni zaruratga aylantirgani ham rost. Bu borada, hech shubhasiz, jahondagi turli xalqaro tashkilotlar, birinchi galda eng nufuzli, yetakchi xalqaro tashkilot – BMTning o'rni hamda ahamiyati har qachongidan ko'ra ortib bormoqda.

O'zbekiston 1992-yilning 2-martidan boshlab bu nufuzli tashkilotga a'zo bo'ldi va ushbu tashkilot bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ydi. Bu tashkilotning yuksak minbaridan turib ilgari surilayotgan, insoniyatning bugungi va ertangi taraqqiyoti uchun o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan dasturlar ijrosini ta'minlashda mamlakat faol ishtirok etib, ana shu dasturlar doirasida dunyodagi turli davlatlar, xalqaro tashkilotlar bilan izchil samarali hamkorlik qilib kelmoqda.

1992-yil 2-martdan boshlab BMTning Nyu-Yorkdagi Bosh Assambleya bosh qarorgohida mamlakatning davlat bayrog'i hilpiradi. Ushbu kundan e'tiboran O'zbekiston global va mintaqaviy muammolarning muhokamasida hamda muhim xalqaro qarorlar qabul qilish jarayonida bevosita qatnashish imkoniyatiga ega bo'ldi. 1993-yil 24-avgustda Toshkentda BMT vakolatxonasi ish boshladi. O'zbekiston o'sha kundan boshlab BMT bilan hamkorlik qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab oldi. Bular, jumladan, bugungi kundagi xavfsizlik va barqarorlikka nisbatan tahdidlarga qarshi kurashish, shuningdek, Afg'onistonni qayta tiklash, mintaqada ommaviy qirg'in qurollarining tarqalishiga yo'l qo'ymaslik, ekologik muammolarni hal etish, Orol dengizi fojiasining og'ir oqibatlarini yumshatish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, inson huquqlarini himoya qilish kabi masalalardir.

BMT bilan O'zbekiston hamkorligining asosiy yo'nalishi o'zaro faol siyosiy muloqotni yo'lga qo'yish hisoblanadi va u o'z ovozi, mavqeyiga ega bo'lgan a'zo davlat sifatida BMT oldiga muhim, dolzarb masalalarni qo'yib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida (1993-yil 28-sentabr) ishtirok etib, uning yuksak minbaridan turib nutq so'zlagi va mamlakat tarixida ilk bor O'zbekistonning mustaqil davlat sifatidagi ulkan salohiyati hamda imkoniyatlari haqida xalqaro hamjamiyatni atroflicha xabardor qildi.

BMT Bosh Assambleyasining tashkil etilganligining 50 yilligiga bag'ishlangan sessiyasida (1995-yil 24-oktabr) so'zlagan nutqida esa o'tgan davr mobaynida BMT faoliyatida muhim o'zgarishlar yuz berganini ta'kidlab, uning ishini takomillashtirish yuzasidan amaliy takliflar bildirdi. Ma'lumki, o'tgan asrning 90-yillari boshida sobiq ittifoq parchalanib, uning o'rnida yangi mustaqil davlatlar tashkil topdi va ular BMTning to'laqonli a'zolariga aylandi. 50 – 60-yillarda esa Yaponiya, Germaniya, Italiya kabi ilgari tajovuzkor rejalar ostida bo'lgan davlatlar demokratik rivojlanish yo'lidan borib, jahon mamlakatlari o'rtasida katta mavqega ega bo'ldi. Prezident I.A.Karimov sessiyada BMTning Xavfsizlik kengashi hamda uning tarkibidagi ixtisoslashgan muassasalar faoliyatini tubdan qayta qurish zaruratini keltirib chiqarganini bayon etib, Xavfsizlik kengashi faoliyatini va BMT Bosh kotibi vakolatlarini kengaytirishni taklif qilgan edi. U muayyan "olovli nuqtalar" joylashgan mintaqalarda birgalashib harakat qilish, tinchlik va barqarorlikka erishish haqida aniq takliflar kiritdi. Shuningdek, Prezident O'zbekiston "omnaviy qirg'in qurollari"ni tarqatmaslikni ta'minlash bo'yicha kerakli xalqaro kafolatlarni qabul qilish va dunyoda yadro sinovlarini butunlay to'xtatish haqidagi shartnomaning tezda tuzilishi tarafdori ekanligini ham ta'kidlab o'tdi.

Ana shu sessiyada O'zbekiston Prezidenti "Orol dengizining qurishi bilan bog'liq ekologik fojia, butun yer yuzini qamrab oladigan biosfera, o'nlab million kishilarning hayot sharoitlari, salomatligi, nasliga halokatli ta'sir ko'rsatuvchi global muammo" ekanligini ko'rsatib, bugungi kunda BMTning tashkilotchilik faoliyatisiz bu muammoni hal etish mumkin emasligini ham asoslab berdi. Bunday muammolar Prezidentning fundamental asari "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" kitobida batafsil nazariy va amaliy jihatdan asoslab berildi. Asarda dunyoda barqarorlik va jug'rofiy siyosiy muvozanat saqlanib qolgan sharoitdagina har qanday mintaqada rivojlanish kuchli bo'lishi asoslab o'tildi.

O'zbekiston rahbarining xalqaro miqyosda manfaatli bo'lgan takliflari jahon hamjamiyati tomonidan qo'llab-quvvatlandi va shunga asoslanib, 1995-yil 16-sentabrda Toshkentda BMTning Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalariga bag'ishlangan seminar-kengashi ish boshladi. Dunyoning ko'p davlatlari ishtirok etgan bu seminarda O'zbekiston rahbarining so'zlagan nutqi bosh hujjat sifatida qabul qilindi.

Seminar yig'ilishi "Tinchlik, barqarorlik va hamkorlik" shiori ostida o'tdi.

O'zbekiston Prezidenti I. Karimovning BMT Bosh Assambleyasining Mingyillik sammiti (2000-yil sentabr)dagi nutqi ham dunyo jamoatchiligida katta qiziqish uyg'otdi. Davlat rahbari xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm

va narkobiznesga qarshi bir yoqadan bosh chiqarib, samarali kurash olib boshish, mintaqaviy xavfsizlik, jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash, jahon xavfsizligi tizimini takomillashtirish, BMT faoliyati va tarkibiy tuzilishini isloh qilishga oid takliflar bilan chiqdi. Narkobiznes va ekstremizmning har qanday ko'rinishiga qarshi kurashda barcha BMTga a'zo davlatlar xatti-harakatlarini muvofiqlashtirish, Markaziy Osiyoda ekologik vaziyatni (ayniqsa, Orol muammosini) sog'lomlashtirish maqsadlarini ilgari surdi.

Mazkur anjumanda umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy, ekologiya va xavfsizlikka doir muammolar muhokama qilinib, yangi yuz yillikning dastlabki yillarida amalga oshirilishi mo'ljallanayotgan tadbirlar belgilandi. Sammit ishtirokchilari yakdillik bilan qabul qilgan deklaratsiyada 2015-yilgacha o'ta qashshoqlikda yashayotgan odamlar sonini yarmiga kamaytirish, orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi – OITS (SPID) kasalligining tarqalishini to'xtatish va barcha bolalar uchun boshlang'ich ta'limni ta'minlash majburiyatini o'z zimmlariga olishdi.

BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha konvensiyasida va BMT tomonidan 2000-yilning 15-dekabrida qabul qilingan "Odamlar, ayniqsa, ayollar va bolalar savdosini to'xtatish, oldini olish va uning uchun jazo to'g'risida"gi bayonnomada odam savdosining oldini olish va unga qarshi kurashishning samarali choralarini ko'rish belgilab berilgan edi. Bunday jinoyatning oldini olish, bu faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslarni jazolash va odam savdosi qurbonlarining xalqaro e'tirof etilgan huquqlarini himoya qilishga qaratilgan choralarni o'z ichiga olgan keng qamrovli xalqaro yondashuv zarurligi ushbu hujjatda mustahkamlab qo'yildi.

Odam savdosiga qarshi kurashni kuchaytirish hamda mazkur bayon-noma qoidalarini milliy qonunchilikka singdirish maqsadida 2008-yil 17-aprelda O'zbekiston Respublikasining "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Bu qonunda "odam savdosi" va "odamlardan foydalanish" tushunchalariga aniq ta'rif berilgan, odam savdosiga qarshi kurashish tizimining tashkil etilish tartibi, bu sohadagi vakolatli organlar va ularning vazifalari ko'rsatildi. Shuningdek, unda odam savdosi qurbonlarining himoyasi va ijtimoiy-huquqiy reabilitatsiyasi masalalari ham yoritilgan.

O'zbekiston Prezidenti BMT minbaridan butun Afg'onistonda, Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, Markaziy Osiyoda yadroviy quroldan xoli hududni tashkil etish tashabbusini ilgari surganidan so'ng bu haqda shartnoma 2006-yil sentabr oyida Semipalatinsk shahrida imzolandi. BMT Bosh Assambleyasining 61 va 63-sessiyalarida ushbu

tashkilotga a'zo davlatlarning ko'pchilik ovozi bilan "Markaziy Osiyo yadro qurolidan xoli hudud" rezolutsiyasi qabul qilindi, 2009-yilning mart oyidan boshlab esa, bu haqdagi shartnoma kuchga kirdi.

Bugungi kunda yadrodan xoli hududlar butun yer sharining 70 foizini tashkil etadi.

O'zbekistonning Markaziy Osiyoda yadrosiz hudud barpo etish haqidagi tashabbusi BMT va jahon jamoatchiligi tomonidan to'la qo'llab-quvvatlandi. Bu taklif BMT Bosh Assambleyasining sessiyalarida muhokama qilindi va u bo'yicha maxsus rezolutsiya qabul qilindi.

Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli hudud barpo etish faqat mintaqada emas, balki butun jahonda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov BMT Bosh kotibi Pan Gi Munning taklifiga ko'ra, 2010-yil 20-21-sentabr kunlari Nyu-York shahrida BMT Bosh Assambleyasining Ming yillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan oliy darajadagi yalpi majlisida ishtirok etdi va nutq so'zladi. Yurtboshining nutqi dunyo jamoatchiligida ulkan qiziqish va e'tibor uyg'otdi. U o'z nutqida jahonning turli nuqtalarida hamon davom etayotgan urushlar va qarama-qarshiliklar, saqlanib qolayotgan davlatlararo, millatlararo va dinlararo ziddiyatlar, qashshoqlik, ochlik, onalar va bolalar o'limi, epidemiyalar va boshqa muammolar insoniyatning umumiy taraqqiyot yo'lida eng jiddiy to'siqlar bo'lib qolayotganini alohida ta'kidlab o'tdi.

Haqiqatan ham, jafokash Afg'oniston misolida 30 yildan ortiq davom etayotgan fuqarolar urushining ayanchli oqibatlarini ko'rish mumkin. Bugungi kunda afg'on muammosini harbiy yo'l bilan hal etib bo'lmazligi yanada ayon bo'lmoqda. Shu boisdan Prezident o'z nutqida Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikka erishishning muqobil yo'llarini yana bir bor atroflicha asoslab berdi.

Ma'lumki, 1997–2001-yillar davomida faoliyat olib borgan "6+2" guruhi 1997-yili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan BMT kotibiyatida tashkil topgan edi. Bu guruh Afg'onistonda o'sha paytda hukmron bo'lgan ikki asosiy harbiy kuch – Ahmadshoh Ma'sud boshchiligidagi shimoliy kuchlar qo'shinlari va Mulla Umar boshchiligidagi Tolibon harakati qo'shinlari o'rtasidagi qurolli to'qnashuv-u mojarolarni siyosiy yo'l bilan hal etish va bu mamlakatda tinchlik o'rnatishga qaratilgan edi. Muloqot guruhi-ning birinchi uchrashuvi 1997-yil 16-oktabrda Nyu-Yorkda bo'ldi. Mazkur anjuman O'zbekiston rahbariyatining ko'p yillik sa'y-harakatlari natijasi edi.

Mazkur muloqot guruhiga Afg'onistonga chegaradosh bo'lgan 6 mamlakat: Xitoy Xalq Respublikasi, Pokiston Islom Respublikasi, Eron Islom

Respublikasi, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston va AQSH hamda Rossiya kiritilgan edi.

1999-yil 19-20-iyulda "6+2" muloqot guruhining navbatdagi Toshkent anjumanida "Afg'onistondagi mojaroni tinch yo'l bilan bartaraf etish tamoyillari to'g'risida"gi Toshkent deklaratsiyasi imzolandi. Bu hujjatda Afg'onistonda yangi hukumat tuzish, mojaroni tinch yo'l bilan hal etish, qochoqlarni o'z yashash joylariga qaytarish, mamlakat hududini minalardan tozalash, umumiy bitim imzolash, moliyaviy yordam kabi mintaqaviy dolzarb masala ko'tarilgan edi. Lekin 2001-yil 11-sentabrdagi AQSHga terroristik hujumdan so'ng NATO blokiga a'zo davlatlarning harbiy kuchlari Afg'onistonga kiritilib, Tolibon qo'shinlari tor-mor etilgach, "6+2" guruhi faoliyati o'z-o'zidan to'xtab qoldi. 2005-yildan keyingi davrda Tolibon harakati yashirin faoliyat yuritib, yana jonlana boshladi. Afg'oniston yana harbiy to'qnashuvlar girdobida qoldi. Shu boisdan ham O'zbekiston Prezidenti 2008-yil 3-aprelda Buxarestda NATOSEAP (Yevroatlantika hamkorlik kengashi) sammitida ishtirok etib, 30 yildan buyon davom etib kelayotgan Afg'oniston mojarosini hal etish yuzasidan bir qator amaliy takliflarni ilgari surdi. Uning 2008-yil avgustida Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT) sammiti doirasidagi ma'ruzasida esa bu masala yana bir bor ta'kidlab o'tildi. Shuningdek, "6+3" guruhini tuzish g'oyasi I.Karimov tomonidan 2009-yil 15-16-iyunda Rossiya Federatsiyasining Yekaterinburg shahrida bo'lib o'tgan SHHT anjumanida ham ilgari surildi.

Prezident I.Karimovning BMT sammitida so'zlagan nutqida 2010-yilning iyunida Qirg'izistonda ro'y bergan fojiali voqealarning sabab va oqibatlariga ham alohida e'tibor qaratildi. Bu mamlakatda yuzaga kelgan keskinlik va qarama-qarshiliklar, shuningdek, qonuniy hokimiyatning zaifligi Qirg'iziston janubida millatlararo qonli va shafqatsiz voqealarning ro'y berishiga sabab bo'ldi. Natijada yuzlab begunoh odamlar qurbon bo'ldi, minglab tinch aholi jabr ko'rdi. Qirg'izlarning o'zi ham, respublika janubida yashayotgan ko'p sonli o'zbeklar ham uchinchi kuchlar tomonidan puxta o'ylangan va uyushtirilgan aksiyaning qurboniga aylandi.

Mamlakat Prezidenti haqqoniy ravishda ta'kidlab o'tganidek, uzoqni ko'zlab amalga oshirilgan bu aksiyadan maqsad – mamlakatda nafaqat tartibsizlik, parokandalikni yuzaga keltirish, balki O'zbekistonni ham ushbu vahshiyona xunrezlikka tortish, pirovard natijada millatlararo qarama-qarshilikni ikki qo'shni mamlakat – Qirg'iziston hamda O'zbekiston o'rtasidagi davlatlararo qarama-qarshilikka aylantirishdan iborat edi.

O'ta murakkab va o't olib ketish xavfi muqarrar bo'lgan mazkur vaziyatda qabih niyat bilan tashkil etilgan qonli voqealarning keng yoyilib ketishiga

yo'l qo'ymaslik O'zbekiston uchun nihoyatda og'ir muammoga aylandi. O'z hududida ming-minglab qochqinlar, bolalar, xotin-qizlar, qariyalarni qabul qilish, ularni joylashtirish va barcha zarur narsalar bilan ta'minlash juda katta kuch, mehnat va resurslarni talab qildi.

O'zbekiston BMTning Taraqqiyot dasturi, YUNISEF, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, BMTning qochoqlar ishlari bo'yicha agentligi va boshqa xalqaro institutlari bilan O'zbekiston hududidagi qirg'izistonlik qochoqlarga yordam ko'rsatish borasida yaqindan hamkorlikni yo'lga qo'ydi.

O'zbekistonning Qirg'iziston janubidagi zo'ravonlik qurbonlariga yordam ko'rsatish borasidagi tadbirlari hamda bu masala bo'yicha oqilona va vazmin siyosati jahon hamjamiyati tomonidan yuqori baholandi. Bir qator davlatlar rahbarlari, BMT Bosh kotibi janob Pan Gi Mun va boshqa xalqaro tashkilotlar vakillari, shuningdek, Qirg'iziston Prezidenti O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovga 2010-yil iyun oyida Qirg'iziston janubidagi fojiali voqealar oqibatida yuzaga kelgan vaziyatni bartaraf etish borasidagi O'zbekistonning konstruktiv sa'y-harakatlari uchun minnatdorlik bildirishdi.

Davlat rahbari BMT Bosh Assambleyasi minbaridan turib, 2010-yil 11-14-iyun kunlari Qirg'iziston janubida sodir etilgan talon-tarojliklar, xunrezlik va zo'ravonliklar bo'yicha mustaqil xalqaro tekshiruv o'tkazish, ushbu qonli vahshiyliklarning barcha buyurtmachilari, tashkilotchilari va ijrochilarini jinoiy javobgarlikka tortishni muhim vazifa sifatida yana bir bor qat'iy ta'kidladi. Bu sa'y-harakatlar, albatta, qo'shni Qirg'izistonda mamlakatlararo qonli voqealarning yana avj olishini oldini olish imkonini berdi.

O'zbekiston BMT va uning narkoagressiyaga qarshi ixtisoslashtirilgan muassasalari bilan ham yaqindan hamkorlik qilib kelmoqda. 2002-yilning oktabrida BMT Bosh kotibi Kofi Anandning O'zbekistonga rasmiy tashrifi amalga oshirildi. Tashrif chog'ida O'zbekiston Prezidenti BMTning giyohvand moddalarni nazorat qilish markazini tashkil etish tashabbusini ilgari surdi va ushbu markaz Almati shahrida ochilishi haqida kelishib olindi.

Ekologiyani muhofaza qilish va atrof-muhitni asrab-avaylash hozirgi anomal tabiiy o'zgarishlar sharoitida Ming yillik deklaratsiyasida belgilangan maqsadlarga erishishda katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston va BMTning ekologiya sohasidagi hamkorligi doirasida Orol bo'yidagi vaziyatning oldini olish va Orol fojiasi oqibatlarini yengillashtirish bo'yicha qabul qilingan tezkor choralar ustuvor ahamiyatga ega. Ushbu masalani hal etish borasida BMTning O'zbekistonga ko'mak berishga tayyorligi bayon etildi.

Orol dengizi ekologik fojiasining jiddiyligini inobatga olgan holda, 2008-yilning 11-12-mart kunlari Toshkent shahrida O'zbekiston va BMT va-

killarining faol ishtirokida “Orol muammosi, uning aholi genofondi, o‘simlik va hayvonot dunyosiga ta’siri, oqibatlarini yengillashtirish borasida xalqaro hamkorlik choralari” mavzusidagi xalqaro konferensiya o‘tkazildi.

Aslida Orol fojiasi ekologiya muammolariga mas’uliyatsiz munosabatda bo‘lishning yaqqol misoli hamdir. Bir paytlar noyob va go‘zal dengizlardan biri bo‘lgan Orol bir avlod hayoti davomida deyarli qurib va yo‘qolib borayotgan suv havzasiga aylanmoqda. Qirq yil mobaynida Orol dengizi akvatoriyasi 7 barobar qisqardi, suv hajmi 13 marta kamaydi, uning minerallashuvi esa o‘nlab barobar oshib, dengizni tirik organizmlar yashashi uchun yaroqsiz ahvolga keltirdi. Natijada bu yerdagi qariyb barcha hayvonot va nabotot olami tanazzulga uchradi va yo‘qoldi.

2010-yil aprel oyida BMT Bosh kotibi Pan Gi Mun Orolbo‘yi mintaqasiga tashrif buyurdi. Uning so‘zlariga ko‘ra, ko‘rgan manzaralari unda o‘chmas taassurot qoldirgan. Pan Gi Mun Orol muammosini hal etishga ko‘maklashishga, ushbu ekologik fojia oqibatlarini bartaraf qilish uchun BMTning ekspert salohiyati, moliyaviy va boshqa resurslarini jalb etish borasida barcha sa’y-harakatlarni safarbar qilishga tayyor ekanini bildirdi.

Prezident I. Karimov Orol dengizining qurishi davom etayotganini va uning atrofida gumanitar falokat sodir bo‘layotgani sababli Orol tabiiy dengizi inqirozining atrof-muhitga, minglab va millionlab odamlar hayotiga halokatli ta’sirini kamaytirish va Orolning biologik fondini asrab-avaylash ham bugungi kunning muhim, dolzarb vazifasi ekanligini ta’kidlab o‘tdi.

Yurtboshi o‘z nutqida Orolbo‘yi hududi ikkita asosiy manba – Amudaryo va Sirdaryo hisobidan suv bilan ta‘minlanishi, ushbu daryolar oqimining kamayishi mazkur keng mintaqaning shundoq ham zaif ekologik muvozanatini butunlay o‘zgartirib yuborishi mumkinligini hisobga olish zarur ekanini bayon etdi. Qurib borayotgan Orol dengizi muammosi – ushbu mintaqada yashayotgan, BMTdek nufuzli tashkilotga umid bilan yordam so‘rab murojaat qilayotgan millionlab odamlarning muammosidir.

O‘zbekiston hammuallifligida ishlab chiqilgan “Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasiga BMT Bosh Assambleyasida kuzatuvchilik maqomini berish” to‘g‘risidagi rezolutsiya BMT Bosh Assambleyasi 63-sessiyasida barcha a‘zo davlatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlangan muhim hujjatlardan biri bo‘ldi.

O‘zbekiston xalqaro huquq me‘yorlariga ko‘ra, Markaziy Osiyoning suv-energetika muammolariga uchinchi davlatlarning aralashuvini ma’qul ko‘rmaydi. O‘zbekiston BMT konvensiyalariga binoan transchegaraviy daryolardagi barcha gidroenergetika loyihalarini (Qirg‘izistondagi Qambar-


ota-1, Qambarota-2, Tojikistondagi Rog'un va hokazo) BMT shafeligi ostida xalqaro ekspertizadan o'tkazish nuqtayi nazarini qat'iy ilgari suradi.

Shu jihatdan yurtboshining nutqida Amudaryo va Sirdaryolaridan energetika quvvatlarini olish uchun nisbatan xavfsiz, ammo tejamkor kichik bir GESlar qurilishiga o'tish oqilona yo'l ekani ham alohida ta'kidlandi.

O'zbekiston BMTning teng huquqli a'zosi bo'lgach, bu tashkilot doirasidagi ixtisoslashgan muassasalar – Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon intellektual mulk tashkiloti, BMTning bolalar fondi, Xalqaro pochta ittifoqi, Elektr aloqasi bo'yicha xalqaro ittifoq, Jahon meteorologiya tashkiloti, Xalqaro olimpiada qo'mitasi, Xalqaro avtomobilchilar ittifoqi va boshqa tashkilotlar bilan ham o'zaro aloqalarni o'rnatdi, respublikada ularning vakolatxonalari ochildi va faoliyat ko'rsatmoqda.

Ayniqsa, BMTning ta'lim, ilm-fan va madaniyat masalalariga ixtisoslashgan YUNESKO tashkiloti bilan respublika o'rtasidagi hamkorlik munosabatlari mamlakatni dunyoga tanitishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston 1993-yilda bu tashkilotga a'zo bo'lib kirgan edi.

1995-yil avgustida YUNESKO bosh direktori F.Mayorning O'zbekistonga tashrifi, 1996-yilda O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning YUNESKO qarorgohiga rasmiy tashrifi va bu tashkilot ijroiya kengashining 149-sessiyasida nutq so'zlashi aloqalarning yanada mustahkamlanishiga xizmat qildi. 1994-yilda O'zbekiston Respublikasining YUNESKO ishlari bo'yicha Milliy komissiyasi tashkil etilgan bo'lsa, 1996-yilda Toshkentda bu tashkilotning vakolatxonasi ochildi.



O'zbekistonda Mingyillik rivojlanish maqsadlari

Maqsad	Milliy vazifalar
1. Kam ta'minlanganlikni kamaytirish, ovqatlanish sifati va madaniyatini oshirish	2015-yilga borib kam ta'minlanganlar darajasini ikki barobar kamaytirish
2. Boshlang'ich va o'rta maktablarda ta'lim sifati oshirish	2015-yilga borib boshlang'ich va asosiy o'rta ta'lim sifati oshirish va shu bilan birga, ta'limdan umumiy bahramand bo'lish darajasini saqlab turish
3. Gender tengligini rag'batlantirish va xotin-qizlarga vakolat berish	2015-yilga borib boshlang'ich, umumiy, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimida gender tenglikka erishish 2015-yilga borib oliy ta'lim tizimida gender balansini yaxshilash
4. Bolalar o'limini yanada kamaytirish	2015-yilga borib bolalar o'limini uchdan ikki qismga kamaytirish
5. Onalar sog'lig'ini yanada yaxshilash	2015-yilga borib onalar o'limini uchdan bir qismga kamaytirish
6. OITS/OIV(SPID), bezgak va boshqa kasalliklarga qarshi kurashish	OITS/OIV(SPID) OITS/OIV kasalliklari tarqalishini kamaytirish va 2015-yilga borib uning tarqalishini butunlay to'xtatish Sil Silning tarqalishini kamaytirish va 2015-yilga borib uning tarqalishini butunlay to'xtatish
7. Ekologik barqarorlikni ta'minlash	Barqaror rivojlanish prinsiplarini davlat siyosati doirasiga va mamlakatda qabul qilingan dasturlariga kiritish hamda nobud bo'lgan atrof-muhit zaxiralarini tiklash 2015-yilga qadar yaxshilangan suv manbalaridan va sanitariya xizmatlaridan bahramand bo'ladigan shahar va qishloq aholisining ulushini ko'paytirish
8. Rivojlanish maqsadlarida global hamkorlikni kuchaytirish	Dastlabki va joriy vazifalar: Mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, savdoni, shu jumladan, mintaqaviy va chegaralararo savdo hamda transport aloqalarini kengaytirish, to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarini jalb etish hamda suv va energetika zaxiralaridan foydalanishni oqilona yo'lga qo'yish bo'yicha sa'y-harakatlarni birlashtirish yo'li bilan mintaqadagi qo'shni mamlakatlar va boshqa davlatlar bilan hamkorlikni ta'minlash

O'zbekistonning YUNESKO bilan o'zaro hamkorligining kengayishi natijasida YUNESKO ishtirokida Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti ochildi, 2000-yil 28- dekabrda esa Shahrisabz bu ro'yxatga kiritilgan respublikadagi uchinchi shahar bo'ldi. Bunday aloqalar o'z navbatida munosabatlarni yanada yuqori pog'onaga ko'tarib, hamkorlik sohalarini kengaytirdi. Mustaqillik yillari respublikada o'tkazilgan barcha tadbirlarda YUNESKO ishtirok etdi.

Bu tashkilot homiyligida 2009-yilda Toshkent shahrining 2200-yilligi tantanalarining o'tkazilishi O'zbekistonning jahondagi mustahkam o'rni va uning bugun ham keng e'tirof etilayotganligidan dalolatdir.

3. O'ZBEKISTONNING XALQARO TASHKILOTLAR VA XORIJIY MAMLAKATLAR BILAN IQTISODIY-SIYOSIY ALOQALARINING O'RNATILISHI VA RIVOJLANISHI

Hozirgi paytda butun jahonda globallashuv jarayonlarining kuchayib borishi bilan Yer yuzida tinchlik-barqarorlikni saqlash, aholi farovonligi, uning munosib turmush darajasi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash, ta'lim, tibbiyot va atrof-muhitni muhofaza qilish kabi umumbashariy vazifalar tobora muhim ahamiyat kasb etib, ularni amalga oshirishda xalqaro tashkilotlarning roli kuchayib bormoqda.

Xalqaro tashkilotlar deb butun insoniyat uchun umumiy bo'lgan maqsadlarga erishish yo'lida davlatlar, milliy jamiyat uyushmalarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ilmiy-texnik asoslarda birlashuvidan tashkil topgan tashkilotlarga aytiladi. Xalqaro tashkilotlarning umumiy xususiyati shundan iboratki, ularning faoliyati aniq bir milliy davlat chegarasidan chetga chiqib, davlatlararo vazifalar va muammolarni hal etishga qaratilgan bo'ladi. Bunday tuzilmalar bugungi kunda davlatlar o'rtasidagi ko'p tomonlama munosabatlarning eng muhim va samarali shakllaridan biri bo'lib qolmoqda.

Xalqaro tashkilotlarni tashkil etish borasidagi harakatlar nisbatan qadimiy davrlardan ma'lum bo'lsa-da, zamonaviy tushunchadagi hozirgi xalqaro tashkilotlar asosan XIX asrning 2-yarmidan e'tiboran tashkil topa boshlagan.

Xalqaro tashkilotlar odatda davlatlararo va jamoat birlashmalariga bo'linadi. Davlatlararo birlashmalar bevosita xalqaro munosabat va faoliyat me'yorlarini yaratish funksiyasiga ega. Chunki ular davlatlar – xalqaro huquqning asosiy subyektlari tomonidan tashkil etiladi. Ular o'z o'rnida turli tashkilot va harakatlarga bo'linishi mumkin (masalan, "Qo'shilmaslik" harakati yoki "77 lar" guruhi).

Birlashgan Millatlar Tashkiloti faoliyatida qoʻllanadigan atamalarda davlatlararo tashkilotlar “Xalqaro hukumatlararo tashkilotlar” deb yuritiladi. Xalqaro hukumatlararo tashkilotlarning davlatlararo tashkilotlardan farqi shundan iboratki, ular doimiy qarorgohiga, xalqaro fuqaroviy xizmatiga, oʻz byudjetiga ega boʻlib, unga aʼzo davlatlar xalqaro huquq subyektlari hisoblanadi. Shuningdek, ushbu tashkilotlar oʻz vakolatlari doirasida xalqaro shartnomalar tuzishi, turli majburiyatlarni oʻz zimmasiga olishi mumkin.

Hozirgi kunda dunyoda har xil mazmun va maqsadga boʻysundirilgan 2,5 mingdan ortiq xalqaro tashkilot mavjud. Jahonda 350 dan ortiq hukumatlararo tashkilot faoliyat koʻrsatmoqda.

Xalqaro tashkilotlar davlatlar oʻrtasidagi munosabatlarda maqsad va manfaatlari, harakat yoʻnalishlariga, jahon siyosatida tutgan oʻrni va rolga qarab turlicha ahamiyat kasb etadi. Ular turli tarixiy sharoitlarda vujudga kelgan boʻlib, siyosiy faoliyat subyektlari sifatida bir-biridan farq qiladi va xalqaro siyosatda turlicha mavqeni egallaydi.

Xalqaro tashkilotlar maqsad-vazifalariga, ularning xalqaro munosabatlarda va jahon siyosatidagi tutgan oʻrniga qarab bir necha guruhlariga boʻlinadi.

Oʻzbekiston mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq oʻz xalqi manfaatlarini koʻzlab, dunyodagi deyarlik barcha tashkilotlar bilan hamkorlik qilishga kirishdi. Uning tashqi siyosatda mintaqalararo xavfsizlikni taʼminlashda xalqaro tashkilotlar faoliyatidan, ularning dasturlaridan ham keng foydalanishi istiqbolli natijalarni koʻrsatadi. Koʻpgina mintaqaviy tashkilotlar, chunonchi, NATO, EKO, Islom konferensiyasi, Qoʻshilmaslik harakati va boshqalar bilan ham samarali hamkorliklar yoʻlga qoʻyildi. 1994-yil iyul oyida Oʻzbekiston NATOning “Tinchlik yoʻlidagi hamkorlik” dasturiga qoʻshildi. Bu dasturga koʻra, Oʻzbekiston harbiy qismlari Shimoliy Karolina (AQSH) dagi Kemp Lejyup dengiz piyodalari poligonida oʻtkazilgan harbiy mashqlarda, Oʻzbekiston hududida amerikaliklar bilan oʻtkazilgan desantchilarning “Ultrabalans-96” harbiy mashqlarida qatnashdilar. Shuningdek, Respublika harbiy bilim yurti talabalari 1997-yil Norvegiyada oʻtkazilgan “Koooperativ bankers-97” mashqlarida ham qatnashdilar. Bu kabi hamkorliklar oʻzbek askarlari uchun oʻziga xos mahorat maktabi boʻlib, ularning jangovarlik qobiliyatini oshirishlariga yordam berdi. 1999-yil aprelda I.A.Karimovning NATO (Shimoliy Atlantika Ittifoqi) qoshidagi “Tinchlik yoʻlidagi hamkorlik” dasturida ishtiroki Markaziy Osiyo mintaqasida kollektiv xavfsizlik va barqarorlikning keng tizimini vujudga keltirishni rejalashtirishda Oʻzbekistonning ishtirokini kafolatladi. Aynan shu jarayonlardan soʻng NATO Bosh kotibi X.Solananing Oʻzbekistonga tashrifi ikki oʻrtadagi tinchlik yoʻlidagi siyosatning birdamligini koʻrsatdi.

O'zbekistonning NATO bilan tinchlik yo'lidagi hamkorligi bugungi kunda ham izchil davom etmoqda. Prezident I.A.Karimov 2011-yil yanvar oyida Brusselga qilgan tashrifida NATO Bosh kotibi Anders Fog Rasmussen bilan uchrashib, O'zbekiston va NATO ko'p tomonlama munosabatlariga oid masalalar yuzasidan ochiq va konstruktiv tarzda fikrlar almashildi. Bu uchrashuv O'zbekiston bilan NATO o'rtasidagi o'zaro anglashuvni mustahkamlash va samarali hamkorlikni yanada rivojlantirishga xizmat qildi.

O'zbekiston bilan YEXHT (Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti) bilan hamkorligi ham o'z samarasini bera boshladi. 1992-yil 26-fevralda O'zbekiston YEXHT kengashining yakunlovchi hujjatiga imzo chekib, ikki o'rtadagi hamkorliklar boshlandi. Mazkur hujjat imzolangan vaqtdan beri O'zbekistonning Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti bo'linmalaridagi ishtiroki tobora kengayib bormoqda. YEXHTning Markaziy Osiyo bilan aloqalari bo'yicha Byurosi mintaqada barqarorlikni ta'minlash maqsadida mintaqadagi respublikalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yib olgani quvonarli holdir. Ushbu byuroning tashabbusi bilan Toshkentda YEXHTning "Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar", "Ommaviy axborot vositalari demokratlashtirish sharoitida" mavzusidagi bir qator anjumanlari o'tkazildi. Seminarlar Markaziy va Sharqiy Yevropada inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatini rivojlantirish, xalq ta'limi va ommaviy axborot vositalarining inson huquqlari sohasidagi roli masalasini ko'rib chiqdi. Bunday yig'ilishlarda O'zbekistonning ishtiroki tinchlikparvar tashqi siyosat yuritishida asosiy omil bo'lib qoldi.

1996-yilda Lissabon shahrida YEXHTning sammiti bo'lib, O'zbekiston rahbariyati xavfsizlik doirasiga kiruvchi qarashlarini bayon etdi. Mazkur anjumanda O'zbekiston Prezidenti yig'ilish ishtirokchilariga Markaziy Osiyo mintaqasini yadrosiz zona, deb yana bir bor e'lon qildi. O'zbekiston rahbariyatining mojarolar kuchayib borayotgan yerlarga qurol-yarog' yetkazib berishni to'xtatish haqidagi fikri Lissabon uchrashuvining yakunlovchi hujjatiga kiritildi.

1999-yil 18-19-noyabr kunlari mazkur tashkilotga a'zo 54 ta mamlakat rahbarlarining Turkiyaning Istanbul shahrida oliy darajadagi uchrashuvi bo'lib, mazkur anjumanda ancha dolzarb muammolar, jumladan, Yevropada xavfsizlik va hamkorlikni mustahkamlashning asosiy tamoyillari ishlab chiqilgan edi. Yig'ilishda O'zbekiston rahbarining ma'ruzasi dunyo mamlakatlari iqtisodiy taraqqiyotini, fuqarolarning ijtimoiy turmush tarzini faqatgina xavfsizlik ta'minlagandagi na amalga oshirish mumkinligiga qaratildi. O'zbekiston Prezidenti yig'ilishda global ahamiyatga ega bo'lgan terrorizmga qarshi

markaz tuzish haqidagi taklifini kiritdi va turli qabih niyatdagilarga yordam berayotgan tashkilotlarni ildizi bilan yo'qotish orqaligina mamlakatlar va xalqlarning xavfsizligini ta'minlash mumkinligini alohida ta'kidladi.

O'zbekiston bilan YEXHT o'rtasidagi munosabatlarda millatlararo munosabatlarga oid masalalar ham muhim o'rin tutmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 29-martda Oqsaroyda YEXHTning kamsonli millatlar masalalari bo'yicha Oliy komissari Knut Vollebekni qabul qilishi va u bilan maslahatlashuvlar ham ikki o'rtadagi hamkorliklar rivojiga xizmat qildi. Uchrashuvda O'zbekiston bilan YEXHTning kamsonli millatlar masalalari bo'yicha Oliy komissari idorasi o'rtasidagi hamkorlikning bugungi holati va istiqbollariga oid, shuningdek, tomonlarni qiziqtirgan boshqa masalalar ham ko'rib chiqildi.

K.Vollebek 2010-yilning iyunida Qirg'izistonning janubiy hududlarida yuz bergan fojiali voqealar paytida O'zbekiston tutgan pozitsiyaga yuksak baho berib, bunday har tomonlama puxta o'ylangan og'ir-vazmin yondashuv mojaroning avj olishi va davlatlararo qarama-qarshilikka aylanib ketishining oldini olish imkonini berganini alohida qayd etdi.

XX asr oxiri XXI asr boshlari xalqaro terrorizmga qarshi keskin kurash davri bo'ldi. Bu kurashga O'zbekiston o'zining katta hissasini qo'shmoqda. Buni AQSH senatorlaridan Liberman tasdiqlab: "O'zbekistonsiz bizning Afg'onistondagi aksilterrochilarga qarshi kurashimiz muvaffaqiyatli bo'lmas edi", degan edi.

O'zbekistonning ichki rivoji va jahonda o'zining munosib o'rnini topishida Yevropa Ittifoqi (YEI) bilan hamkorliklar ham o'z hissasini qo'shmoqda.

O'zbekiston bilan YEI o'rtasidagi bitim 1996-yil 21-22-iyun kunlari Italiyaning Florensiya shahrida YEI davlatlari rahbarlarining yig'ilishida O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov tomonidan imzolandi. Florensiyaning "Fortezza de basso" qal'asida Yevropa Ittifoqiga kiruvchi davlatlar va hukumat boshliqlarining navbatdagi uchrashuvi – sammitida imzolangan sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bu hujjat O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga dadil kirib borishida, o'z o'rnini va ovozigina ega bo'lishida katta ahamiyat kasb etdi.

Prezident I.A.Karimov ushbu bitimni "O'zbekiston bilan YEI o'rtasidagi munosabatlarda "Yangi turmush nuqtasi", deb atagan edi.

Mazkur bitim O'zbekistonni Yevropaning rivojlangan davlatlari bilan har tomonlama aloqalari respublika salohiyatini yuzaga chiqarishda, demokratiya va bozor islohotlarini amalga oshirish yo'lida muvaffaqiyatli harakat qilish uchun katta imkoniyat yaratdi. Xususan, Italiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya kabi ilg'or davlatlar bilan bo'layotgan hamkorliklar davlatlarning

iqtisodiy, madaniy aloqalarida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ilm-fan, madaniyat, san'at, ta'lim sohasidagi o'zaro hamkorlikning keng ko'lamda olib borilishi ham respublika taraqqiyoti uchun muhim omil bo'lib xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 24-yanvarda Brusselga amalga oshirgan tashrifi Yevropa va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlikda yana bir yangi davr ochdi. Yevropa Ittifoqi Komissiyasi Prezidenti Joze Manuel Barozzo bilan uchrashuv va ikki o'rtada moliyaviy va texnikaviy hamkorlik loyihalarini amalga oshirish to'g'risidagi memorandumning imzolanishi muhim ahamiyat kasb etdi. J.M.Barozzo Yevropa Ittifoqining 2007-yilda qabul qilingan "Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha strategiyasi"ni amalga oshirilishida O'zbekiston hissasini yuqori baholadi. Shuningdek, tashrif jarayonida O'zbekistonda Yevropa Ittifoqi diplomatik vakolatxonasini ta'sis etishga kelishildi. Bu bundan buyongi ikki tomonlama muloqotning samaradorligi va sifatini oshirishga imkon berdi.

Tashrif chog'ida amalga oshirilgan ishlar O'zbekiston va YEI o'rtasidagi aloqalarning ulkan salohiyatini ochishda keng imkoniyat yaratib, ustuvor loyihalarni amalga oshirish uchun yuqori texnologiyalarni yetkazib berish, infratuzilmani rivojlantirish, kadrlar tayyorlash va ilmiy-texnikaviy aloqalarni kengaytirish orqali YEIning mamlakatdagi iqtisodiy islohotlar va tizimli o'zgarishlar jarayonida ishtirok etishga tayyor ekanini ko'rsatdi.

O'zbekiston YEI bilan ikki tomonlama hujjatlar bilan bir qatorda Sherikchilik va hamkorlik to'g'risidagi hamda Atom energiyasidan tinch maqsadda foydalanish sohasida hamkorlik to'g'risidagi bitimlarni ham tuzdi.

Sherikchilik va hamkorlik to'g'risidagi bitim doirasida hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasi va YEI munosabatlarini muvofiqlashtiruvchi beshta qo'shma muassasa: Hamkorlik kengashi, Hamkorlik qo'mitasi, Parlamentlararo hamkorlik qo'mitasi, Savdo va investitsiyalar bo'yicha yordamchi qo'mita, Adliya, ichki ishlar, inson huquqlari va boshqa masalalar bo'yicha yordamchi qo'mitalar faoliyat yuritmoqda.

Mazkur muassasalar tegishli sohalar bo'yicha munosabatlarning amaldagi holatini muntazam muhokama etib, ularni yanada rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqdi. Shuningdek, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, YEIdagi ichki siyosiy vaziyat bilan bog'liq masalalar, O'rta Osiyoda mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash va hamkorlik qilish, har ikkala tomonning manfaatlariga mos keladigan xalqaro masalalar bo'yicha fikr almashildi.

2011-yilning 7-aprelida Toshkentda tashqi ishlar vazirlari darajasida "Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo" shiori ostida uchrashuv o'tkazildi. Bu uchrashuv ham YEI va O'rta Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi mintaqalararo siyosiy muloqotni yanada jadallashtirish va mustahkamlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston o‘z tashqi siyosatida mamlakatning barqarorligi, jadal taraqqiyoti va milliy xavfsizligini, uning jahon xo‘jalik aloqalarga kirishuvini ta‘minlashga imkon beruvchi davlatlararo tashkilotlarning tuzilishiga va bu tashkilotlarda faol ishtirok etishga ustuvor ahamiyat qaratdi. Ana shunday tuzilmalardan biri SHHT (Shanxay hamkorlik tashkiloti)dir.

1996-yilda Shanxayda, 1997-yilda Moskvada bo‘lib o‘tgan Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston davlat rahbarlarining sammitida harbiy sohada hamda chegara hududlarida o‘zaro ishonchni mustahkamlash, qurolli kuchlarni qisqartirish to‘g‘risida shartnoma imzolanib, shu tariqa “Shanxay forumi” yoki “Shanxay beshligi” tashkiloti tuzilgan edi.

2001-yil 14-15-iyun kunlari Xitoyda navbatdagi Shanxay sammiti bo‘lib o‘tdi. Uning ishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qatnashdi va O‘zbekistonning “Shanxay forumi”ga to‘la huquqli a‘zo bo‘lishi to‘g‘risida bayonot imzolandi. O‘zbekiston Prezidentining taklifi bilan “Shanxay forumi” nomi “Shanxay hamkorlik tashkiloti” – SHHT deb o‘zgartirildi. O‘zbekiston uning asoschilaridan biri bo‘ldi.

Ushbu sammit yakunida Shanxay hamkorlik tashkilotini tuzish to‘g‘risida Deklaratsiya qabul qilindi. Shuningdek, terrorchilik, ayirmachilik va ekstremizmga qarshi kurash borasida “Shanxay konvensiya”si ham imzolandi.

Sammit qabul qilgan Deklaratsiyada Shanxay hamkorlik tashkilotining maqsadi, a‘zo mamlakatlarning bir-biriga o‘zaro ishonchi, do‘stlik va qo‘shnichilikni mustahkamlash, ular o‘rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy, ta‘lim, energetika, transport, ekologiya va boshqa sohalaridagi samarali hamkorlikni rag‘batlantirishdan iborat ekanligi belgilab qo‘yilgan.

Hindiston, Eron, Mo‘g‘uliston, Pokiston – tashkilotning kuzatuvchi maqomidagi, Belarus Respublikasi va Shri-Lanka muloqotlar bo‘yicha hamkor davlatlar sanaladi.

SHHT doirasida a‘zo mamlakatlar Tashqi ishlar vazirliklari kengashi, Mudofaa vazirliklari kengashi tuzilgan va faoliyat yuritmoqda. Davlat va hukumat, tashqi ishlar va mudofaa vazirliklari, huquq tartibot, xavfsizlik organlari rahbarlari va ekspertlarning uchrashuvlari va maslahatlashuvlari muntazam o‘tkazilmoqda.

2002-yil 6-7-iyun kunlari SHHTga a‘zo mamlakatlar davlat boshliqlarining Sankt-Peterburg shahrida navbatdagi sammiti bo‘lib o‘tdi. Muzokaralar yakunida SHHTga a‘zo davlatlar rahbarlarining Deklaratsiyasi, Tashkilotning ta‘sis hujjati – SHHT Xartiyasi, SHHTga a‘zo davlatlar o‘rtasida Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi haqidagi bitim imzolandi. 2003-yil 29-may kuni

Moskvada bo‘lib o‘tgan sammitda SHHTning doimiy amal qiluvchi idoralari – Pekinda, Toshkentda kotibiyat Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi (MATT) ijroiya qo‘mitasini ishga tushirishga qaror qilindi.

2003-yil sentabrda Pekinda SHHT davlatlari hukumat boshliqlari (bosh vazirlar) Kengashi bo‘lib o‘tdi, uning qarori bilan ko‘p tomonlama hamkorlikning uzoq muddatli dasturi ishlab chiqildi va tasdiqlandi. SHHT doirasida a‘zo mamlakatlarning tashqi ishlar vazirliklari, iqtisodiy va savdo vazirliklari, xavfsizlik kengashlari o‘rtasida muntazam aloqalar yo‘lga qo‘yildi.

2004-yilning 17-iyunida Toshkentda SHHTga a‘zo davlatlar rahbarlarining sammiti bo‘lib o‘tdi. Unda ikki asosiy masala xavfsizlik va savdo-iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha muzokaralar olib borildi. Sammitda 2004-yil mart oyida O‘zbekistonda sodir etilgan terrorchilik harakati nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida vaziyatni izdan chiqarishga qaratilganligi qayd etildi. Butun dunyoda terrorchilik kuchayib, yadroviy, kimyoviy, biologik, elektron terrorchilik xavfi paydo bo‘lganligi, terrorchilarning bazalarini yo‘qotish, odamlarning ongini zaharlaydigan, terrorchilikni moliyalashtiradigan markazlarga qarshi keskin kurash olib borish zarurligi ta‘kidlandi.

SHHTning ushbu sammitida savdo iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish masalasiga alohida e‘tibor qaratildi va shu sabab, SHHTni xavfsizlik orqali hamkorlik sari boshlaydigan tashkilotdir, deb ta‘kidlandi. Sammit yakunida Toshkent Deklaratsiyasi, SHHTning vakolatlari to‘g‘risidagi konvensiya, Narkotik vositalar va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashda hamkorlik to‘g‘risidagi bitim, tashkilot va uning organlari faoliyatiga doir hujjatlar imzolandi.

2003-yil sentabr oyida SHHTga a‘zo davlatlar hukumat rahbarlari 20 yilga mo‘ljallangan ko‘p tomonlama savdo-iqtisodiy hamkorlik dasturini imzolashdi. Uzoq muddatli maqsad sifatida SHHT makonida erkin savdo hududini tashkil etish, qisqa muddatli istiqbolga – savdo va investitsiya sohasida qulay sharoit yaratish jarayonini faollashtirish masalasi qo‘yildi.

Bugungi kunda SHHT doirasi energetika, transport, qishloq xo‘jaligi, telekommunikatsiya va ilmiy-taxnikaviy, madaniy, ta‘lim, sayyohlik va gumanitar sohalarni qamrab olmoqda. A‘zo davlatlar Tashkilotga navbat bilan bir yil muddatga raislik qiladi, muddatning tugatilishi sammit vakolatiga kiradi.

SHHTga a‘zo davlat rahbarlarining 2009-yil 15-16-iyun kunlari Yekaterinburg shahrida bo‘lib o‘tgan uchrashuvi yakunlariga ko‘ra, Tashkilotga raislik qilish navbati O‘zbekiston Respublikasiga keldi. O‘zbekiston raisligi doirasida SHHTning shartnomaviy-huquqiy bazasini tashkilot faoliyati va boshqa xalqaro tashkilotlar tajribasi asosida yanada takomillashtirish hamda mustahkamlashga yo‘naltirilgan faol tadbirlar amalga oshirildi.

Xususan, SHHT tadbirlarini o'tkazish jarayonini tashkil etishning aniq tizimini yaratish, shuningdek, tayyorlanayotgan hujjatlarning samaradorligi va sifatini oshirish muhim sanaladi. Shu o'rinda O'zbekiston tashabbusi bilan tashkilot doirasida me'yoriy-huquqiy hujjat bo'yicha tashabbus ko'rsatish, ishlab chiqish, kelishuv olib borish va qabul qilish tartibini qat'iy belgilab beradigan SHHT ish tartibi qoidalari loyihasi ustida ish olib borildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining tashabbusiga ko'ra, SHHT bilan BMT kotibiyatlari o'rtasidagi hamkorlik to'g'risidagi memorandum ham ishlab chiqildi va kelishib olindi.

2012-yil 6-iyunda Pekinda bo'lib o'tgan SHHT Davlat rahbarlari kengashining o'n ikkinchi majlisida ham tashkilot oldida turgan dolzarb vazifalarni hal qilish borasida hamkorlikda sa'y-harakatlar samaradorligini oshirishga qaratilgan masalalar muhokama etildi.

O'zbekiston Respublikasi Islom konferensiyasi tashkiloti, Qo'shilmaslik harakati kabi mintaqaviy tashkilotlar bilan ham samarali aloqalar o'rnatdi. Bular orasida, ayniqsa, yuzdan ortiq a'zoga ega, 1985-yilda tuzilgan Qo'shilmaslik harakati tomonidan olib borilayotgan siyosat O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillariga, xalqaro kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan hal qilish, turli harbiy-siyosiy bloklar faoliyatida qatnashmaslik, tinchliksevarlik kabi yo'nalishlarga to'la mos keladi. O'zbekiston bu tashkilotga 105-a'zo bo'lib kirdi.

O'zbekiston 1996-yilda Islom konferensiyasi tashkilotiga a'zo bo'lib, ikki o'rtadagi aloqalarning samaradorligi keyingi yillarda yanada oshdi. 1969-yilda tuzilib, Osiyo va Afrika qit'alaridagi 57 mamlakatni o'ziga a'zo qilgan bu tashkilotning ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha muassasasi (AYSESKO) tomonidan mamlakatning bosh shahri Toshkentni 2007-yilda Islom madaniyatining poytaxti deb e'lon qilindi.

Bu yuksak maqomning berilishi zamirida mamlakatda "Vijdon erkinligi diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunning (1991) qabul qilinishi, har bir musulmon uchun muqaddas Ro'za va Qurbon hayitlarining umumxalq bayrami sifatida dam olish kuni deb e'lon qilinganligi, islom madaniyati va me'morchiligini o'zida mujassam etgan qadimiy shaharlarning bir necha ming yillik yubileylarini xalqaro YUNESKO tashkiloti bilan hamkorlikda dunyo miqyosida nishonlanishi, bu shaharlarda islom tarixi, madaniyati va san'atiga oid mavjud inshootlarni ta'mirlanishi, qaytadan qurish kabi obodonchilik ishlarining amalga oshirilishi, islomiy ishlar va islom falsafasi rivojiga o'zlarining o'lmas asarlari va ta'limotlari bilan salmoqli hissa qo'shgan buyuk allomalarning tava'llud sanalarini nishonlanishi, bu shaharlarda va, ayniqsa, Toshkentda islom tarixi, madaniyati va san'ati, me'morchiligiga mansub

ko'plab bebaho boyliklar davlat muhofazasida bo'lib, ularni asrab-avaylab saqlanishi va kelgusi avlodga yetkazilishi va hokazolar yotadi.

Markaziy Osiyo davlatlari uchun dini. urf-odatlari va an'analari yaqin bo'lgan Sharq mamlakatlari bilan o'zaro aloqalar ham kengaydi. Bu borada Quvayt, Qatar, Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) davlatlari bilan yaqin aloqalarni aytib o'tish joiz. Masalan, Quvayt O'zbekistonning arab dunyosidagi muhim iqtisodiy va sarmoyaviy sheriklaridan biridir. Yurtboshining 2004-yil yanvarida Quvayt davlatiga, Quvayt Amiri shayx Saboh al-Ahmad al-Jobir as-Sabohning 2008-yil iyulida mamlakatga rasmiy tashriflari o'zaro munosabatlarni rivojlantirish yo'lidagi yangi qadam bo'ldi. Shuningdek, O'zbekistonning arab dunyosida jadal rivojlanayotgan, jahonda salmoqli nufuzga ega mamlakatlardan biri – Qatar davlati bilan do'stlik va hamkorlik munosabatlari ham kengaymoqda. 2010-yilning noyabrida O'zbekiston Prezidentining Qatar davlatiga tashrifi ikki mamlakat siyosiy va iqtisodiy hamkorligini yanada mustahkamlashga xizmat qildi.

Tashrif chog'ida I.A.Karimovning O'zbekiston – Turkmaniston – Eron – Ummon – Qatar yo'nalishidagi transport kommunikatsiyalari tarmog'ini shakllantirish borasidagi tashabbusini hayotga joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Mamlakat rahbari bu tashrif chog'ida Qatardagi Islom san'ati muzeyi bilan Doxa markazidagi yuz gekardan ziyod maydonni egallagan, bir necha universitet va ilmiy markazlarni o'z ichiga olgan, dunyodagi ko'plab yirik universitetlarning filiallari joylashgan, nafaqat Qatar, balki butun Fors ko'rfazi mintaqasining eng nufuzli ilm-fan va ta'lim majmuasi hisoblangan "Ta'lim shaharchasi"ga ham tashrif buyurdi.

O'zbekistonning Turkiya, Pokiston, Eron davlatlari bilan hamkorlik aloqalari ham yildan-yilga kengayib bormoqda. 1992-yil 6-fevralida O'zbekiston bu davlatlar tomonidan tuzilgan Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a'zo bo'lib kirdi va 1992-yil Eron, Turkiya, Pokiston, Turkmaniston, Qozog'iston davlat va hukumat rahbarlari bilan imzolangan "Trans-Osiyo" temir yo'l aloqasini tiklash maqsadida Tajan-Seraxs-Mashhad yo'li qurilishi haqidagi bitimda faol ishtirok etdi. Bu O'zbekiston uchun dengiz yo'llariga, xalqaro transport tarmog'iga, tovar va kapital xalqaro bozoriga chiqish imkoniyatini berdi.

Bu mamlakatlar orasidan O'zbekistonning Pokiston bilan har tomonlama aloqalari yanada kengayib bormoqda. Chunki, mamlakatlarning mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikka tahdidlarini bartaraf etish bilan bog'liq masalalarga yondashuvlari o'xshashdir. Ikki mamlakat ham Afg'onistonda tinch hayot qaror topishi va ushbu davlatning ijtimoiy-iqtisodiy tiklanishidan manfaatdordir.

Pokistonda Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodiy faoliyatiga bag'ishlab o'tkazilayotgan ilmiy-amaliy anjumanlar va boshqa madaniy tadbirlar ikki o'rtadagi madaniy aloqalarning mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

2011-yil mart oyida Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Yusuf Rizo G'iloniyning O'zbekistonga tashrifi va ikki davlat o'rtasidagi Veterinariya, Transport va tovarlar tranziti sohasida hamkorlik to'g'risida bitimlarning ratifikatsiya yorliqlarini almashish haqidagi bayonnomaning imzolanishi O'zbekiston va Pokiston hamkorligi aloqalarini yanada mustahkamladi.

Mustaqil O'zbekiston davlatining Osiyoning yirik rivojlangan Xitoy, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi davlatlari bilan mustahkam aloqalari ham o'z samarasini bermoqda. Bu borada Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) bilan aloqalarni alohida qayd etmoq lozim. XXR O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini 1991-yil 27-dekabrda e'tirof etgan, mamlakatlar o'rtasidagi diplomatik aloqalar 1992-yil 2-yanvarda o'rnatilgan.

Prezident Islom Karimovning 1992-yil martda Xitoyga amalga oshirgan ilk rasmiy tashrifi o'zaro ishonchga asoslangan do'stona aloqalarga mustahkam poydevor qo'ydi. Natijada o'tgan yillar davomida O'zbekiston-Xitoy munosabatlari ko'p qirrali ko'rinish kasb etdi va jo'shqin rivojlandi.

Terrorizmga, ekstremizm, separatizm, giyohvand moddalar savdosi, noqonuniy qurol savdosi va xavfsizlikka tahdid soladigan boshqa noqonuniy harakatlarga qarshi kurashish singari dolzarb masalalar bo'yicha ikki davlat nuqtayi nazarining yaqinligi o'zaro manfaatli hamkorlikka imkon yaratmoqda. Prezident I. Karimovning Xitoyga 2005-yil 25–27-may kunlarida amalga oshirgan davlat tashrifi ikki tomonlama aloqalarda muhim bosqich bo'ldi. Ushbu tashrif doirasida Sheriklik aloqalari bo'yicha do'stlik va hamkorlik shartnomasi imzolandi.

XXR raisi Xu Szintaoning 2010-yil 9-10-iyun kunlari O'zbekistonga amalga oshirgan tashrifi O'zbekiston-Xitoy o'rtasidagi munosabatlarning yangi davrini boshlab berdi. Mazkur tashrif yakuniga ko'ra, texnik-iqtisodiy, xomashyo va yuqori texnologiyalar, neft-gaz sohalarida hamkorlikka oid qator hujjatlar, shuningdek, Do'stlik, hamkorlik va sheriklik munosabatlarini har tomonlama rivojlantirish va kengaytirish to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya qabul qilindi. Unda O'zbekiston-Xitoy o'rtasida do'stlik va hamkorlikning sheriklik aloqalari o'rnatilishi va rivojlantirilishi ikki mamlakat xalqlarining asosiy manfaatlariga to'la mos kelishi hamda mintaqada va butun dunyoda tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Umuman, O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi ikki tomonlama aloqalarining

salmoqli qismini bu ikki davlatning Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasidagi munosabatlari tashkil etmoqda.

O‘zbekiston va XXR o‘rtasidagi aloqalarda harbiy sohadagi hamkorliklar ham muhim rol o‘ynamoqda. 2011-yil 18-mart kuni XXR Davlat kengashi va Markaziy harbiy kengashi a‘zosi, mudofaa vaziri Lyan Guanle boshliq delegatsiyaning mamlakatga tashrifi va ularning O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligidagi uchrashuvlar ikki mamlakat o‘rtasida harbiy sohadagi aloqalarni yanada rivojlantirishga, mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashga qaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 19-20-aprel kunlari XXR Raisi Xu Szintaoning taklifiga binoan Xitoy Xalq Respublikasiga tashrifi va bu tashrif jarayonidagi yangi kelishuvlar ikki mamlakat o‘rtasidagi hamkorlik rivojida yana bir yangi qadam bo‘ldi. Tashrifning muhim natijasi O‘zbekiston bilan XXR o‘rtasida oliy darajadagi hamkorlik qo‘mitasi tuzish to‘g‘risidagi kelishuv bo‘ldi. Bu bilan ikki mamlakat o‘rtasida o‘zaro munosabatlarning barcha yo‘nalishlari bo‘yicha hamkorlikni tizimli rivojlantirish uchun ishonchli institutsional asos yaratildi. Eng muhim hujjat – ikki davlat o‘rtasidagi Qo‘shma deklaratsiya imzolandi.

Ikki davlat rahbarlari dunyodagi “uch yovuz kuch” – terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi prinsipial pozitsiyada turishlarini alohida ta’kidladilar.

2012-yil 6-iyunda I.A.Karimovning XXR raisi Xu Szintaoning taklifiga binoan XXRga rasmiy tashrifi ikki davlatning yanada yaqin hamkor bo‘lishiga keng yo‘l ochdi. Tashrif chog‘ida ikki davlat o‘rtasida Strategik sheriklik o‘rnatish to‘g‘risida qo‘shma deklaratsiyani hamda tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida 2012–2015-yillarga mo‘ljallangan hamkorlik dasturi va boshqa hujjatlarining imzolanishi bunga yaqqol misoldir.

2010-yilda Toshkentda SHHT mamlakatlari rassomlarining “Buyuk Ipak yo‘li – tanchlik uchun sayohat” xalqaro ko‘rgazmasi o‘tkazilib, unga tashrif buyurgan san‘at ixlosmandlari SHHTga a‘zo mamlakatlar xalqlarining an‘analari, madaniyati, noyob tarixiy-madaniy merosi va o‘ziga xos zamonaviy tasviriy san‘ati haqida yetarlicha ma’lumotga ega bo‘lishdi. Shuningdek, ta’lim sohasidagi hamkorlik ham jadal sur‘atlarda rivojlanib borayapti. O‘zbekistonda yoshlar orasida xitoy tilini o‘rganishga va xitoyda turli sohalar bo‘yicha ta’lim olishga bo‘lgan qiziqish yil sayin ortib bormoqda. Bu borada 2005-yilda Toshkentda tashkil etilgan Konfutsiy institutining xizmati beqiyos bo‘lib, ushbu ilm maskani xitoy tili asoslarini o‘rganishga, Xitoyning tarixi, madaniyati va bugungi kuni bilan yaqindan tanishishni istovchilarga keng imkoniyatlar eshigini ochib berdi.

2005-yilning sentabr oyidan boshlab XXRning Millatlar markaziy universitetida o'zbek tili kafedrasi faoliyat yuritib kelmoqda. 2007-yilda Toshkentdagi Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida Xitoy tili markazi ochilib, u Xitoy tomonining beg'araz ko'magida to'liq jihozlangan edi.

O'zbek va yapon xalqlari o'rtasidagi yaqin aloqalar ham O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi samarali hamkorlikning muhim omili bo'lib xizmat qilmoqda. Yaponiya O'zbekiston mustaqilligini 1991-yil 28-dekabrda e'tirof etdi va 1992-yil 26-yanvardan boshlab mamlakatlar o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatildi.

Mustaqillik e'lon qilingandan so'ng O'zbekiston-Yaponiya munosabatlari sifat jihatdan yangi pog'onaga ko'tarildi. 1994-yilning may oyida O'zbekiston Prezidentining Yaponiyaga uyushtirgan dastlabki rasmiy tashrifi o'zaro ishonch va ikki mamlakat xalqlarining ma'naviy qadriyatlariga nisbatan hurmatga asoslangan do'stona aloqalarni rivojlantirish uchun mustahkam poydevor yaratdi. Mamlakat Prezidentining 2002-yil iyul oyida Yaponiyaga uyushtirgan navbatdagi tashrifi chog'ida O'zbekiston Respublikasi va Yaponiya o'rtasida Do'stlik, strategik sheriklik va hamkorlik to'g'risida qo'shma bayonot imzolandi.

Yaponiya bosh vaziri Jyun'itiro Koidzumining 2006-yil avgust oyida mamlakatga uyushtirgan rasmiy tashrifi O'zbekiston bilan Yaponiya o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga turtki bo'ldi.

Mamlakatlarning siyosiy sohadagi aloqalari haqida gap ketganda, Yaponiyaning O'rta Osiyo mamlakatlari bilan ko'p qirrali hamkorlikni rivojlantirishga doir tashabbuslarini aytib o'tish joiz. O'zbekistonning mintaqadagi geosiyosiy ahamiyati e'tirofi o'laroq, mamlakat bilan hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar doirasida Yaponiya 2004-yilda "Markaziy Osiyo + Yaponiya" muloqot shaklidagi hamkorlikning yangi bosqichini ilgari surdi. U quyidagi beshta yo'nalishni: siyosiy muloqot, mintaqada ichidagi hamkorlik, savdo va sarmoyaviy hamkorlikni rag'batlantirish, intellektual muloqot, madaniy aloqalar va inson resurslari almashinuvi kabi sohalarni o'z ichiga oladi.

2010-yil 7-avgustda Toshkentda mazkur muloqotning Yaponiya tashqi ishlar vaziri Katsuya Okada ishtirokidagi Tashqi ishlar vazirlarining uchinchi yig'ilishi muvaffaqiyatli o'tdi.

O'zbekiston Prezidentining Bosh vazir Naoto Kanning taklifiga binoan 2011-yil fevralidagi Yaponiyaga rasmiy tashrifi esa ikki o'rtadagi munosabatlarni yanada mustahkamlanib borishiga xizmat qildi. Tashrif muzokaralari yakunida ikki davlat o'rtasida Qo'shma bayonot, ikki mamlakat Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida "Taraqqiyotga rasmiy yordam" dasturi loyihalarini

amalga oshirish bo'yicha iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi memorandum va boshqa hujjatlar imzolandi. Bu ikki davlat aloqalarini kengaytirishda iqtisodiy hamkorlik bo'yicha ikki davlatda ham faoliyat ko'rsatayotgan "O'zbekiston-Yaponiya" va "Yaponiya-O'zbekiston" qo'mitalari muhim o'rin tutadi.

Prezident I.A.Karimovning dunyoning turli mamlakatlariga tashrifi davlatning xalqaro maydondagi mavqeyini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bu tashriflar davomida O'zbekistonning ushbu davlatlar bilan o'zaro hamkorlik masalalari hal etiladi. Bu o'rinda O'zbekiston va AQSH o'rtasidagi bo'layotgan o'zaro aloqalar ham muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonning AQSH bilan o'zaro manfaatli aloqalari 1991-yildayoq boshlangan edi. Keyingi hamkorlik aloqalari ikki o'rtadagi munosabatlarni yanada mustahkamladi.

O'zbekiston rahbarining AQSHga bir necha tashriflari amalga oshirildi. Ushbu tashrifning siyosiy ahamiyati shunda ediki, Yurtboshi AQSHda kam qo'llaniladigan udum – mukammal askariy tashrifot bilan kutib olindi.

O'zbekiston rahbariyatining 1995-yil AQSH vitse-prezidenti Alberg Gor bilan uchrashuvi davomida O'zbekiston va AQSH o'rtasida teng huquqli va o'zaro manfaatli aloqalar rivojiga hamda MDHdagi xavfsizlikka daxldor masalalar hal etildi. Ayni paytda AQSH O'zbekistonning Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashdagi yetakchilik rolini tan olib, respublika bilan terrorizm, narkobiznesga qarshi kurash, mintaqaviy xavfsizlik va I.Karimovning AQSHga tashrifi chog'ida muhokama etilgan boshqa masalalar sohasida teng huquqli hamkorlikni rivojlantirish niyatida ekanligini ma'lum qildi.

O'zbekiston rahbarining 1996-yil AQSHga qilgan yetti kunlik tashrifi O'zbekiston tashqi siyosatida o'ziga xos o'rin tutadi. Mazkur tashrif davomida O'zbekiston va AQSH o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish, hamkorlikning huquqiy asoslarini kengaytirish, Markaziy Osiyoda barqarorlik va xavfsizlik masalalarida fikr yuritildi.

2001-yil 11-sentabr kuni xalqaro terroristlarning AQSHda sodir etgan fojiali voqealar paytida O'zbekiston birinchilardan bo'lib AQSH hukumatining xalqaro terrorizmga qarshi aksilterror komissiya tuzish haqidagi taklifi tarafdori bo'lib chiqdi. O'zbekiston AQSH bilan birgalikda xalqaro aksilterror koalitsiyada faol qatnashmoqda.

2002-yil 11–14-mart kunlari O'zbekiston Prezidenti boshliq davlat delegatsiyasi Prezident Jorj Bush (kichik) taklifiga binoan rasmiy davlat tashrifi bilan AQSHda bo'ldi. Tomonlar xalqaro ahvol, Markaziy Osiyodagi jarayonlar, xalqaro terrorizmga qarshi kurash, harbiy va harbiy-texnikaviy,

iqtisodiy hamkorlik masalalarida fikr almashdilar. Tashrif yakunida “O‘zbekiston bilan AQSH o‘rtasida o‘zaro sheriklik va hamkorlik asoslari to‘g‘risida deklaratsiya”. ilmiy texnikaviy tadqiqotlar, yadroviy materiallar va texnologiyalar tarqalishining oldini olishda hamkorlik. moliya, qishloq xo‘jaligiga oid qator hujjatlar imzolandi.

AQSHni sinovli damlarda qo‘llab-quvvatlagani uchun O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov Amerika jamoatchiligi tomonidan Xalqaro miqyosdagi “lider” mukofotiga sazovor bo‘ldi.

O‘zbekiston va AQSH hamkorlik aloqalari rivojida I.A.Karimov boshchiligidagi davlat delegatsiyasining 2010-yil sentabrda AQSHga tashrifi ham muhim ahamiyat kasb etdi.

Umuman, O‘zbekistonning AQSH bilan hamkorlik munosabatlari yildan-yilga kengayib, mustahkamlanib bormoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston bilan AQSH o‘rtasidagi ilmiy-texnik sohadagi hamkorliklar jadal rivojlanmoqda. Bunda ikki o‘rtada 2010-yilning dekabrda imzolangan Ilmiy-texnik hamkorlik to‘g‘risidagi hukumatlararo bitim ushbu sohadagi munosabatlar samarasiga muhim yo‘l ochdi. Bugungi kunda mamlakat ilmiy-tadqiqot muassasalari AQSHning ko‘plab yetakchi ilmiy-texnik tashkilotlari, universitetlari, jamg‘arma va kompaniyalari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini o‘rnatgan. Ulardan biri Amerika fuqarolar tadqiqotlari va rivojlanish jamg‘armasi – CRDFdir. O‘zbekistonning CRDF bilan hamkorligi 2006-yil 15-noyabrda imzolangan Hamkorlik to‘g‘risidagi bitim asosida rivojlanib bormoqda. Mamlakat ilmiy tashkilotlari va olimlarining bu jamg‘arma dasturlaridagi ishtiroki davomida 1996-yildan buyon umumiy qiymati 8,1 million AQSH dollariga teng miqdorda 154 ta grant ajratilgan.

Ikki davlat o‘rtasidagi ilmiy-texnik hamkorlik rivojida AQSH xalqaro rivojlanish dasturi (YUSAID)ning ham hissasi katta bo‘lmoqda. Uning “Global” rivojlanish uchun xalqaro ta‘lim loyihasi” dasturi doirasida 2000-yilning aprelida ushbu tashkilotning O‘zbekistondagi vakolatxonasi va O‘zbekiston Respublikasi Fan va texnika davlat qo‘mitasi hamkorligida “Intellectual mulk” mavzusida xalqaro seminar ham o‘tkazilgan edi. O‘zbekiston ilmiy tashkilotlari, olimlari bilan YUSAID o‘rtasidagi ilmiy-texnik hamkorlik bugun ham izchil davom etmoqda.

O‘zaro iqtisodiy hamkorliksiz biron-bir mamlakatning rivojlanib ketganligi hali tarixda uchramagan. O‘zbekiston 130 yillik o‘tgan davr mobaynida markazsiz bunday aloqalardan mahrum ham edi. Shunga binoan, Islom Karimovning bu sohadagi g‘oyalari islohotlarning o‘tish davrida O‘zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash bilan o‘zaro chambarchas bog‘landi.

Bu g'oyalarni hayotga tatbiq etish uchun mamlakat rahbarining ilhomlantiruvchi madadiga tayangan xalqning ulkan sa'y-harakati talab qilindi. Lekin, shunga qaramay, islohotlarni amalga oshirishning dastlabki bosqichida respublikaning hozirgi tashqi iqtisodiy majmuini amalda yo'q yerdan shakllantirishga, tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarishning aslida yangi mexanizmini yaratishga to'g'ri keldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 21-fevraldagi maxsus Farmoni asosida O'zbekiston Respublikasi Tashqi savdo va chet ellar bilan aloqalar bo'yicha Davlat qo'mitasi negizida O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi tashkil etildi.

Mustaqillik esa mamlakat uchun ishonchli hamkorlar topish, ular bilan o'zaro manfaatli hamkorlik qilish imkoniyatini yaratdi. Zudlik bilan tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish taqozo etildi.

O'zbekiston rahbariyati bu dolzarb vazifani ham o'z vaqtida yecha oldi. Prezident I.A.Karimov o'zining "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" asarida respublika tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishning g'oyaviy asoslarini ishlab chiqib, "Iqtisodiy omillar O'zbekistonning tashqi siyosatida muhim o'rin tutadi"¹, deb alohida qayd etdi.

Shuningdek, xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasida mustaqil siyosat yuritish, tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish va respublika valuta zaxiralari-dan maqsadga muvofiq foydalanishni ta'minlash uchun moliyaviy institutni vujudga keltirishga katta ehtiyoj paydo bo'ldi. Shu maqsadda mamlakat Prezidentining 1991-yil 7-sentabridagi Farmoni bilan hozirgi kunda Markaziy Osiyodagi yirik tijorat bankiga aylangan O'zbekiston Respublikasining Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki tashkil etildi. Bank faoliyati xorijiy kreditlar va to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etishga yo'naltirilgan. Hozirgi kunda Milliy bank banklar, sug'urta kompaniyalari va jahonning xalqaro moliya institutlari tomonidan berilgan 25 ta kredit tizimiga xizmat ko'rsatadi.

Respublikaning tashqi iqtisodiy faoliyatini tashkil etishni isloh qilishga kirishar ekan, Prezident I.A.Karimov uni erkinlashtirish zarurligiga e'tibor qaratdi.

Shularni e'tiborda tutib, tashqi iqtisodiy faoliyatning boshqarma maqomidagi muassasaviy bo'linmalarini tashkil qilish maqsadga muvofiqligi e'tirof etildi. Shu munosabat bilan Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar va idoralar, korporatsiyalar, konsernlar, assotsiatsiyalar hamda boshqaruvning mahalliy tashkilotlari huzurida ham tegishli tashqi iqtisodiy bo'linmalar tashkil etildi.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. Asarlar, 1-jild. – T.: "O'zbekiston", 1996. – 59 – 61-betlar.

Xorijiy mamlakatlarning qo'llab-quvvatlashi bilan tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish borasida muhim muvaffaqiyatlar qo'lga kiritildi. Jumladan, iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichida xorijiy hamkorlar ishtirokida respublika xalqaro savdo markazi tashkil qilindi. Dunyoning bir qator mamlakatlarida O'zbekiston tomonidan savdo uylari ochildi. Ikki tomonlama manfaatdorlik asosida yaqin hamkorlik qilishga intilgan AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya va boshqa mamlakatlar bilan O'zbekiston o'rtasida savdo-sanoat palatalari barpo etildi.

O'zbekiston jahon iqtisodiyoti tomon integratsiyalashuv yo'lidan borib, Jahon banki, Xalqaro Valyuta fondi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Iqtisodiy taraqqiyotga ko'maklashuvchi tashkilot va boshqa xalqaro moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'lib kirdi va ular bilan hamkorlik qilishni boshladi. Jumladan, Xalqaro Valyuta fondi mutaxassislari ishtirokida O'zbekiston iqtisodiyotini chuqur isloh qilish maqsadida muntazam tarkibiy o'zgarishlar dasturi ishlab chiqildi va uni amalga oshirish uchun 74 million AQSH dollari miqdorida dastlabki mablag' ajratildi. Jahon banki bilan O'zbekistonda islohotlarni yanada chuqurlashtirish, milliy valyutani mustahkamlash uchun 160 million AQSH dollari miqdorida tiklanish qarzi berish to'g'risida bitim imzolandi.

O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan aloqalari tashqi savdoning tez o'sishini ta'minlay boshladi. Islohotlarning birinchi bosqichida bu soha rivoji ikki yo'nalishda bo'lib, birinchidan, MDH davlatlari bilan hukumatlararo bitimlar asosida, ikkinchidan, xorijiy mamlakatlar bilan erkin muomaladagi valyuta hisob-kitob qilish asosida amalga oshirildi. Ana shu yo'nalish aylanishi 1994-yilda 5 milliard AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 1998-yilda qariyb 9 milliard AQSH dollariga yetdi. O'zbekiston o'sha yilning boshlarida dunyoning 120 dan ortiq mamlakatlari bilan ana shu yo'nalishda aloqalar o'rnatgan edi.

Ma'lumki, xorijiy investitsiyalar natsionalizatsiya va rekvizitsiya qilinmaydi. Shu bois respublikada tavakkalchilik ishlari yo'lida siyosiy va tijorat xatarlari keltiradigan zararni qoplaydigan milliy sug'urta – "O'zbekinvest" kompaniyasi tuzildi.

O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish bo'yicha "O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risida"gi hamda "O'zbekiston Respublikasida chet el investitsiyalari to'g'risida"gi Qonunlar mavjud bo'lib, ular amal qilar edi. Bu hujjatlar, garchand, respublika tashqi iqtisodiy faoliyatini qayta tashkil etishning ilk bosqichida asosiy negiz sifatida xizmat qilgan bo'lsa-da, shunga qaramay, mamlakatning haqiqiy suvereniteti sharoitida Prezident tomonidan ishlab chiqilgan g'oyaviy asoslardan kelib chiqadigan

yangi ehtiyojlarga to'la javob bermas edi. Shu munosabat bilan 1992-yil 2-iyulda "O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasida chet el investitsiyalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Bu qonunlarda endi O'zbekistonning xalqaro aloqalarning mustaqil subyekti sifatida tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida keng ko'lamli harakatlarni amalga oshirish borasida huquqlari va vakolatlari aniq belgilab berilgan edi. Mazkur qonunlarga qo'shimcha ravishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 1992-yil 24-iyulda "O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish, xorijiy sarmoyalarni jalb etish va himoya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonga imzo chekdi. Unda davlat organlarining ichki bozorni birlamchi ehtiyoj mahsulotlari bilan to'ldirish borasidagi birinchi navbatdagi choralari belgilab berildi.

Islom Karimov davlat rahbari sifatida chet el investitsiyalarining respublikaga keng ko'lamda oqib kelishi uchun qulay shart-sharoit zarurligini teran angladi va 1994-yil 5-mayda O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari va chet ellik investorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida" gi Qonun qabul qilindi.

Iqtisodiy islohotlarning ikkinchi bosqichiga qadam qo'yar ekan, mamlakat rahbari sifatida Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida (1995-yil, fevral) qilgan ma'ruzasida uning asosiy vazifalarini belgilab berdi.

Asosiy vazifalarning biri sifatida ishlab chiqarishni kengaytirish, jahon andozalari darajasidagi mahsulotlar ishlab chiqarish, ularning raqobatbardoshligini oshirish belgilandi.

Bu vazifalarni hal etish qo'shimcha kapital mablag'larni, birinchi navbatda, chet ellik investorlarni jalb qilishni talab etar edi. Shu munosabat bilan 1998-yil aprelda mamlakat parlamenti tomonidan yangi hujjatlar – "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi hamda "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonunlari qabul qilindi. Bu hujjatlar O'zbekiston iqtisodini rivojlantirish va chet el investitsiyalari oqimini rag'batlantirish yo'li bilan uning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuviga ko'maklashish, shuningdek, xorijning moliyaviy, moddiy, intellektual va boshqa resurslaridan, zamonaviy chet el texnologiyasi va boshqaruv tajribalaridan oqilona foydalanishga qaratilgan edi. Bu hujjatlar va amalga oshirilgan ishlar islohotlarga ijobiy natijalar berdi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, davlat rahbarining xorijiy davlatlarga qilgan tashriflarida, xorijiy davlatlar rahbarlarining mamlakatga qilgan tashrif-

lari chogʻida imzolangan hujjatlar va kelishuvlarda oʻzaro iqtisodiy hamkorlik hamda jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv masalalari muhim oʻrinni egalladi.

Oʻzbekiston Prezidenti 1993-yilning aprelida jahonning rivojlangan davlati Germaniyaga tashrif buyurgan edi. Jahon siyosatdonlari, jurnalistlar I. Karimov bunday boy mamlakatga moddiy yordam soʻrab keladi, deb faraz qilishayotganda, Prezident samolyot pillapoyalaridayoq savollarga: “Men Oʻzbekistonni (bu xalqqa) tanitgani keldim, Oʻzbekiston hech kimdan sadaqa soʻramaydi, faqat tengma-teng hamkorlikka tayyor”, deb javob berganida jurnalistlar hayratda qolgan edi.

Oʻzbekiston Prezidentining Yevropaning Davos shahrida har yili oʻtadigan jahon iqtisodiy anjumanida ishtirok etishi va anjumanda soʻzlagan nutqlari uning ishtirokchilarini, davlat va hukumat boshliqlarini, xalqaro moliya tashkilotlari, yirik banklar va kompaniyalarning rahbarlarini, qolaversa, jahon biznesmenlarini Oʻzbekiston bilan, uning salohiyati bilan tanishtirib borishi ham mamlakatning Yevropa mamlakatlari bilan hamkorligini yangi bosqichga koʻtardi. 1996-yildagi Yevropa Ittifoqi Kengashi bilan Oʻzbekiston oʻrtasida sheriklik va hamkorlik bitimining imzolanishi Oʻzbekistonning savdo tashkilotiga qoʻshilishiga yoʻl ochib berdi.

Mamlakat uchun imkon bergan bu yoʻl Prezidentning Davosda har yili oʻtadigan iqtisodiy anjumanida ishtirokidan boshlangan edi.

Oʻzbekiston davlati va uning rahbarining amalga oshirgan ishlari tufayli mustaqillikning birinchi 10 yilligidayoq mamlakatning eksport, import imkoniyatlari, tashqi savdosi, moliyaviy, iqtisodiy imkoniyatlari sezilarli darajada jonlandi. Agar 1994-yilda Oʻzbekistonning tashqi savdo oboroti 5053,3 million AQSH dollarini tashkil etgan boʻlsa, 1999-yilda bu koʻrsatkich 6346,5 mln. Amerika dollariga yetdi. Bunda Oʻzbekistondan eksport qilinadigan tovarlar orasida paxta tolasi, rangli metallar va ulardan tayyorlangan buyumlar, neft va neft mahsulotlari, qora metallar, toʻqimachilik mahsulotlari salmoqli oʻrinni egallagan boʻlsa, xorijiy mamlakatlardan import qilingan tovarlarning asosiy qismini texnologiya va uskunalar, asboblardan va optik apparatlar, asl metallardan tayyorlangan buyumlar, elektrotexnika jihozlari va texnik ishlab chiqarishga moʻljallangan mahsulotlar tashkil etdi.

Oʻzbekistonda koʻp tarmoqli infrastrukturaga ega qudratli iqtisodiy salohiyatning, xalqaro meʼyorlarga muvofiq keluvchi ishonchli huquqiy asos va ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning mavjudligi respublikada dunyoning mashhur chet el kompaniya va firmalari oʻz vakolatxonalarining ochishlariga ham imkoniyat yaratdi.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, bu yillarda O'zbekistonda 360 dan ortiq xorijiy firma va kompaniyalarning vakolatxonolari ro'yxatga olindi. Ular – "Mercedes-Bens", "Tissen", "Simmens", "Salamandr" (Germaniya); "Teknip", "Tomson", "Buig", "Alkatel" (Fransiya); "Svedala Industri AB" (Shvetsiya); "Nyumont Mayning", "Boing", "Keys", "Koka-kola" (AQSH); "Mitsubisi", "Mitsui", "Sumitomo", "Toyota" (Yaponiya); "DEU", "Samsung" (Janubiy Koreya) va boshqalar.

Respublikada xorijiy mamlakatlarning bu kabi dunyoga mashhur kompaniyalarning faoliyat ko'rsatishi ilg'or texnologiyalarni joriy etish va qo'shma korxonalarni tashkil qilish yo'li bilan O'zbekiston iqtisodining ustuvor yo'nalishlarini shakllantirish va rivojlantirish vazifalarini muvaffaqiyatli hal etish imkonini berdi. Misol uchun, ularning qo'llab-quvvatlashi tufayli respublikada qo'shma korxonalarining soni 1991-yilda 200 tani tashkil etgan bo'lsa, 1999-yilga kelib 3554 taga yetdi. Ular orasida "O'zplastital" o'zbek-italyan, "O'zbat" o'zbek-britan, "O'zsalamandr" o'zbek-german, "Teknip" o'zbek-fransuz, "O'zkeys traktor", "O'z Koming Motor", "O'z Eksayd" o'zbek-amerika, "Agama" o'zbek-yapon korxonolari bor.

1994-yilda respublikaga 640 million AQSH dollari miqdorida investitsiya kreditlar berish to'g'risida xalqaro moliya muassasalari va xorijiy sarmoyadorlar bilan tuzilgan bitimlar asosida Amerikaning "Nyumont-Mayning" kompaniyasi bilan hamkorlikda oltin qazib oladigan "Zarafshon-Nyumont-Mayning" qo'shma korxonasi qurilib ishga tushirilgan edi.

Shu joyda zamonaviy o'ta qulay yengil avtomashinalar va radioelektron apparaturalar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan va respublikada sanoatning yangi tarmog'i paydo bo'lishiga imkon yaratgan "O'z DEU Avto" va "O'zDEU elektronika" o'zbek-koreya qo'shma korxonolari mamlakatda alohida o'rin tutishini ham aytib o'tmoq lozim.

Moliyaviy siyosat sohasi da ham sezilarli yutuqlarga erishildi. O'zbekistonning Xalqaro valyuta fondi (XVF). Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB), Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YETTB), Osiyo taraqqiyot banki (OTB) va boshqa chet el moliyaviy institutlarining teng huquqli a'zosi bo'lganligi, ularning qarz va kreditlari O'zbekiston iqtisodini yetakchi tarmoqlarini tiklash va yuksaltirishga muhim hissa qo'shdi. Jumladan, O'zbekiston 1992-yilda a'zo bo'lgan Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki umumiy qiymati milliard dollardan ortiqni tashkil etgan 14 ta loyihani amalga oshirish uchun mamalakat iqtisodiga 578,6 mln AQSH dollari miqdorida sarmoya ajratdi. 1999- yilning oxirida esa YETTB mamlakatga 15 mln va 40 mln AQSH dollaridan iborat ikkita kredit ajratish haqi-

da qaror qabul qildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan ularning birinchisi – kichik va o‘rta korxonalarni moliyalashtirish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirishni jadallashtirish uchun “O‘zsanoatqurilish” bankiga berilgan bo‘lsa, ikkinchisi esa “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksionerlik kompaniyasiga berildi.

O‘zbekiston iqtisodiyoti rivojida Osiyo taraqqiyot banki (OTB)ning yordami ham muhim o‘rin tutmoqda. Mamlakat 1995-yildan OTBning teng huquqli a‘zosi. O‘zbekiston Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining ma‘lumotlariga ko‘ra, o‘tgan davrda O‘zbekistonga ajratilgan jami kreditlar soni 1,3 milliard AQSH dollari, xususan, texnik ko‘maklashish doirasida ajratilgan kreditlar jami 60 million AQSH dollaridan oshgan.

Investitsiya sohasidagi mazkur olg‘a siljishlarga qaramay, O‘zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatida hali o‘z yechimini topmagan bir qator muammolar mavjud edi. Bularning barchasini e‘tiborga olgan holda, Islom Karimov islohotlarning navbatdagi bosqichi uchun respublika tashqi iqtisodiy faoliyatining g‘oyaviy asoslarini ishlab chiqdi. Bu g‘oyalar Prezidentning ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida va Idoralararo muvofiqlashtiruvchi kengash majlislarida islohotlarning borishi va investitsiyalar bo‘yicha qilgan ma‘ruzalarida o‘z aksini topdi.

Shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyatdagi respublikaning muhim vazifalari Yurtboshining “O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda” asarida aniq ko‘rsatib berildi.

I.A.Karimov asarlari va nutqlarida yangi bosqichda quyidagi vazifalar va tamoyillar belgilab berildi:

– olg‘a siljishimizning asosi va kafolati sifatida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va liberallashtirish;

– O‘zbekiston iqtisodining jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, mamlakat iqtisodiga chet el investitsiyalarini faol jalb etish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratish.

Yangi davr kun tartibiga qo‘yilayotgan vazifalardan ko‘rinib turibdiki, respublikaning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvisiz, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirmay turib va eng muhim i. chet el kapitalining ishtirokisiz O‘zbekiston iqtisodining istiqboldagi barqaror rivojlanishini ta‘minlash mumkin emas edi. Shuning uchun ham Islom Karimov: “Biz tashqi iqtisodiy faoliyatning jahonda qabul qilingan ma‘rifiy shakllariga tezroq o‘tishimiz lozim...”¹ deb aniq-ravshan ta‘kidlagan edi.

¹ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. Asarlar, 7-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 1999. – 395-b.

Prezident tomonidan o‘ylangan g‘oyalarni amalga oshirish maqsadida qisqa fursatda yangi tahrirdagi “O‘zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni ishlab chiqildi va ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi sessiyasida (2000-yil. may) qabul qilindi. Unga tashqi iqtisodiy faoliyatni liberallashtirish jarayonlarini o‘zida aks ettiruvchi yangi qoidalar kiritildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning xorijiy hamkorlar bilan o‘zaro manfaatli iqtisodiy hamkorlik o‘rnatish va uni rivojlantirishga yo‘naltirilgan harakat ekanligidan kelib chiqib, yangi qonunda tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishning asosiy shakllari aniq ko‘rsatilgan. Ular – xalqaro iqtisodiy va moliyaviy hamkorlik; tashqi savdo faoliyati, chet el investitsiyalarini jalb etish va tashqi investitsion faoliyat edi.

Bu borada O‘zbekiston Koreya Respublikasi bilan turli sohalardagi hamkorliklarini ibratli misol sifatida ko‘rish mumkin. O‘zbekiston va Janubiy Koreyaning savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy va moliyaviy-texnikaviy hamkorligi ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlashda muhim omil sanaldi va ulkan istiqbollarga ega bo‘ldi. Tomonlar tog‘-kon sanoati, neft va gaz, neft va kimyo, qurilish, avtomobilsozlik, to‘qimachilik, qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida, shuningdek, yuqori texnologiyalar sohasida sarmoyaviy hamkorlikni yanada kengaytirishdan manfaatdordirlar.

1992-yilda imzolangan Savdo bitimiga ko‘ra, mamlakat o‘rtasida mumkin qadar qulaylik berish rejimi o‘rnatildi. Koreya Respublikasi O‘zbekistonning tashqi savdo bo‘yicha sheriklari orasida yetakchi o‘rinlardan birini egalladi. 2010-yilda ikki tomonlama tovar aylanmasi hajmi 2009-yildagiga nisbatan 31,5 foizga o‘sib, 1 milliard 614 million 700 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

1994-yildan buyon savdo-iqtisodiy sohada hamkorlik qilish bo‘yicha O‘zbekiston-Janubiy Koreya qo‘shma qo‘mitasi faoliyat yuritib kelmoqda. Koreya Respublikasi tomonidan O‘zbekiston iqtisodiyotiga kiritilayotgan sarmoyalar hajmi 5 milliard AQSH dollariga yetdi. Ikki tomonlama hamkorlikning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri “Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zonasi doirasidagi loyihalarni amalga oshirish hisoblanadi. Erkin industrial-iqtisodiy zona va yuk tashish bo‘yicha dunyoda yetakchi kompaniyalardan biri – “Korean Eyr” tomonidan boshqarilayotgan Navoiy shahar aeroportidagi logistika markazi imkoniyatlarining birlashtirilishi yuqori daromadli mahsulotlar ishlab chiqarilishining rivojlanishiga hamda aviatsiya, avtomobil va temir yo‘ldan foydalangan holda amalga oshiriladigan yuk tashishning multimodal tizimi orqali tayyor mahsulotning dunyo bozoriga tez yetkazib berilishiga alohida imkoniyat yaratdi.

Ikki tomonlama hamkorlikni faollashtirishda Surgil koni negizida Janubiy Koreyaning yetakchi kompaniyalari bilan birgalikdagi konsorsium asosida Ustyurt gaz va kimyo majmuasini qurish bo'yicha qo'shma loyihani amalga oshirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida Koreya Respublikasining mablag'i ishtirokida 360 ta korxonalar faoliyat yuritmoqda, ularning 59 tasi yuz foiz Janubiy Koreya mablag'i asosida ish olib bormoqda. O'zbekiston Janubiy Koreya bilan hamkorlik qilish doirasida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan eng ilg'or ilmiy yutuqlarni o'zida mujassam etgan texnologiyalar asosida mahsulot ishlab chiqarishni o'zlashtirdi va avtomobil ishlab chiqaruvchi davlatlar safiga kirdi.

Koreya Respublikasi hukumatining texnik yordami doirasidagi hamkorlik Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOIKA) orqali faol rivojlanmoqda. Bugungi kunda KOIKA dasturi bo'yicha O'zbekiston vazirlik va idoralari 1240 nafardan ziyod vakillari Koreya Respublikasida amaliyot o'tab qaytishdi.

Ikki mamlakat o'rtasidagi madaniy-gumanitar sohadagi hamkorlik ham muvaffaqiyatli tarzda rivojlanmoqda. Xususan, o'zaro hamjihatlikni mustahkamlash maqsadida gumanitar, ta'lim, sayyohlik va sport sohasidagi hamkorlikni kengaytirish, shuningdek, Toshkent shahrida Seul bog'i (park)ni tashkil etish to'g'risidagi kelishuvga erishilgan.

Keyingi yillarda O'zbekistonning Yaponiya bilan iqtisodiy hamkorliklari ham yanada kengaymoqda. O'zbekiston va Yaponiya mashinasozlik, neft-kimyo, to'qimachilik, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, turizm, transport va qurilish mollarini ishlab chiqarish sohalarida ulkan salohiyatga ega. O'zbekiston va Yaponiya hamkorligining yanada mustahkamlanishida O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning 2011-yil fevral oyida Yaponiyaga rasmiy tashrifi muhim ahamiyat kasb etdi. Tashrif chog'ida imzolangan qo'shma bayonot ikki o'rtadagi hamkorlikni yanada kengayishiga imkon yaratdi.

1994-yilda tuzilgan iqtisodiy hamkorlik bo'yicha O'zbekiston – Yaponiya va Yaponiya – O'zbekiston qo'mitalari, 2004-yilda tuzilgan "Markaziy Osiyo va Yaponiya" ko'p tomonlama muloqoti kabi hamkorliklar ham samarali davom etmoqda. O'zbekiston kompaniyalarining "Mitsui", "Mitsubishi", "Itochu", "Marubeni" va boshqa ko'plab korporatsiyalar bilan faol hamkorligi natijasida mamlakatda bir qator yirik infratuzilmaviy loyihalar amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonning Xitoy bilan iqtisodiy hamkorliklari ham yanada kengaymoqda. Ayni paytda moliyaviy hamkorlik doirasida Xitoy hukumatining foizsiz va uzoq muddatli imtiyozli kreditlari. Eksimbankning eksport kreditlari hisobidan ko'plab loyihalar amalga oshirilmoqda. Xitoy hukuma-

ting SHHTga a'zo mamlakatlar uchun ajratgan kredit liniyasi doirasida O'zbekistonda infratuzilmani rivojlantirishga doir yigirmaga yaqin loyiha ko'rib chiqilgan bo'lib, ularning umumiy qiymati 600 million AQSH dollaridan oshadi. Umuman, XXRning imtiyozli kreditlari hisobiga O'zbekistonda amalga oshirilgan loyihalar qiymati 127 million AQSH dollariga, hozirgi kunda o'zlashtirilayotgan kreditlar hajmi esa 547 million dollarga teng.

Sarmoyaviy hamkorlik doirasida erishilgan kelishuvlar Xitoydan 2 milliard dollarlik sarmoya jalb etishni nazarda tutadi. Shunday bo'lsa-da, bu ko'rsatkichlar ikki mamlakatning imkoniyatlarini to'la ifodalay olmaydi. Transport, logistika, qurilish, telekommunikatsiyalar, yuqori texnologiyalar kabi ko'plab sohalarda samarali hamkorlik uchun keng faoliyat maydoni mavjud. Xususan, ikki mamlakat "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasida katta resurslarni ishga solishi mumkin.

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan Xitoy kompaniyalari soni ham tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda xitoylik sarmoyadorlar ishtirokidagi, jumladan, yuz foizli Xitoy sarmoyasi asosidagi 400 dan ziyod korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Shu o'rinda "SITIK", "CNPC", "CGNPC". "Chayna mashineri korporeyshn", "Xuavey", "ZTE", "Shanxay Bell" singari mashhur korporatsiyalarning O'zbekiston bozorida faoliyat olib borayotganini qayd etib o'tish lozim.

Xitoylik mutaxassislar ishtirokida barpo etilgan Qo'ng'iroq soda zavodi. Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodi muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. O'zbekiston va XXR o'rtasida energetika sohasidagi hamkorlik ham sarmahsul rivojlanmoqda. Xitoylik sheriklar bilan amalga oshirilayotgan "O'zbekiston – Xitoy" gaz quvurini qurish bo'yicha qo'shma sarmoyaviy loyiha bu fikrning tasdig'i bo'la oladi. Mamlakatlarimiz tomonidan gaz quvurining uchinchi tarmog'i barpo etilmoqda, uning mahsulot o'tkazish imkoniyati yiliga 25 milliard kubmetrga teng.

Ikki mamlakat yaqinlashuviga ko'maklashayotgan yana bir omil madaniy-gumanitar aloqalar hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi Xitoy Xalq Respublikasi Madaniyat vazirligi o'rtasida imzolangan va 2010 – 2013-yillarga mo'ljallangan Madaniy almashinuvlar dasturi doirasida tom onlar muntazam ravishda san'at va suratlar ko'rgazmalarini o'tkazmoqda, konsertlar tashkil etilayotir, ikki mamlakat folklor jamoalari O'zbekiston va Xitoyda tashkil etiladigan turli tadbirlarda ishtirok etishmoqda. 2011-yil iyul oyida Pekin va Sian shaharlarida "O'zbekiston madaniyati haftaligi" tadbirlari muvaffaqiyatli o'tkazildi.

Hozirgi kunda gumanitar hamkorlikni rivojlantirishga 1998-yilda tuzilgan "O'zbekiston-Xitoy" do'stlik jamiyati faol hissa qo'shmoqda. Ikki tomonlama

kelishuv va SHHT doirasida Xitoy hukumati o'zbekistonlik 40 nafar talabaga 2009-2010-o'quv yili uchun davlat granti ajratdi.

Ikki o'rtadagi aloqalar natijasida "Markaziy Osiyo – Xitoy" gaz quvuri ishga tushirildi. Endilikda esa "Navoiy erkin-iqtisodiy zonasi"dagi katta imkoniyatlarni hisobga olib, yuqori texnologiyalar sohasidagi hamkorlikni kengaytirish nazarda tutilmoqda.

Mustaqillikning ikkinchi o'n yilligida mamlakatni modernizatsiyalash vazifalari va ularni amalga oshirish xorijiy davlatlar bilan ilmiy-texnikaviy sohadagi hamkorliklarni kuchaytirishni taqozo etdi. Bu borada O'zbekistonning AQSH bilan ilmiy-texnik hamkorliklarini alohida qayd etmoq lozim. Bu hamkorlik 2006-yildan buyon O'zbekiston bilan Amerika fuqarolar tadqiqotlari va rivojlanish Jamg'armasi (CRDF) o'rtasida olib borilmoqda.

Ilg'or ilmiy pedagogik texnologiyalar bilan tanishish, tajriba almashish, qo'shma ilmiy tadqiqotlar o'tkazish borasida AQSHning Folbrayt uyushmasi bilan hamkorliklar ham o'z samarasini bermoqda. Bu hamkorlik tufayli 2007–2010-yillarda O'zbekiston ilmiy tashkilotlaridan 74 nafar xodim AQSHda o'tkazilgan turli ilmiy tadbirlarda, qo'shma ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashdi.

AQSH olim va mutaxassislari ham O'zbekistonda o'tkaziladigan xalqaro anjumanlar, seminar va ilmiy tadbirlarda ishtirok etib kelmoqda.

4. O'ZBEKISTON VA MDH DAVLATLARI. O'ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYO RESPUBLIKALARI BILAN O'ZARO HAMKORLIGI

Mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashda, mintaqa ko'lamida integratsiyani rivojlantirishda sobiq ittifoq tarkibida bo'lib, endi mustaqil taraqqiyot yo'liga kirgan davlatlar o'rtasidagi munosabatlar ham alohida o'rin tutadi.

1991-yil 8-dekabrda Minsk shahrida Rossiya federatsiyasi, Ukraina va Belorusiya davlatlari tomonidan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)ga asos solindi. 21 dekabrda Almatida o'tgan uchrashuvda MDH bitimini jami 11 davlat imzolab, MDHga a'zo bo'lib kirdi. Ular bu bitimda davlatlarning hududiy butunligini tan olish, amaldagi chegaralar, ularning ochiqligi, fuqarolarning harakat erkinligiga, xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, harbiy harakat va qurol-yarog' tarqatishning oldini olishda birgalikda harakat qilishga kelishib oldilar.

MDH a'zolarining birgalikdagi harakatlariga quyidagi vazifalar kiritildi:

– tashqi siyosiy faoliyatlarni muvofiqlashtirish, mudofaa siyosati va tashqi chegarani muhofaza qilish;

- umumiy iqtisodiy muhitni rivojlantirish va Umumyevropa, Yevroosiyo bozorini shakllantirish;
- iqtisodiy islohot o'tkazish;
- bojxona siyosatini birga olib borish;
- transport, aloqa, energetika tizimlarini rivojlantirish;
- ekologik, atrof-muhit xavfsizligini ta'minlash.
- uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish.

O'tgan yillar MDH mamlakatlari ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnoma munosabatlari doirasida teng huquqli sherikchilik asosida o'zaro foydali hamkorlik ishlari uchun keng imkoniyatlar mavjudligini tasdiqladi. Bunday hamkorlik hamdo'stlik mamlakatlarining hududiy yaqinligi va iqtisodiy jihatdan bog'langanligina emas, balki chuqur tarixiy ildizlar va mintaqaviy aloqalar, katta tarixiy davr mobaynida xalqlarning taqdiri mushtarakligi ham asos bo'ldi.

Mintaqa xalqlarining yaqinlashuvi – tabiiy kechayotgan jarayon. Bu yaqinlik sobiq Ittifoq mavjud bo'lganligidan qat'i nazar hamma vaqt bo'lib kelgan. Bu haqiqiy integratsiya sun'iy ravishda joriy etiladigan integratsiyadan farq qiladi. Unga sovetlardan keyingi davlatlarning birortasi qarshi emas, ayni chog'da ularning birortasi ham o'z mustaqilligidan voz kechmoqchi emas. O'zbekiston uchun masalaning mohiyati mustaqillik yoki integratsiyani tanlash emas, balki bu ikki yo'nalishni uyg'unlashtirishdan iborat.

O'zbekiston rahbariyati MDHni haqiqiy mustaqil, suveren davlatlar integratsiyasi sifatida ko'rishni istadi. Biroq, dastlabki yillarda MDH a'zo davlatlari munosabatlarida bir qator muammolar ham bo'lib turdi. Jumladan, bu tashkilot o'z kengashlarida barcha a'zo davlatlar taraqqiyoti uchun muhim hujjatlar qabul qilar, biroq, ularning bajarilishi sekin kechar edi. Ayrim kelishuvlar esa barbod bo'lar edi. O'zbekiston davlati doimo bu tashkilotning muntazam ishlab turishi, uning qabul qilgan qarorlarining bajarilishi tarafdori bo'lib keldi. Prezident I.Karimovning bu tashkilot kengashlariga qatnashuv oldidan ommaviy axborot vositalariga bergan intervyularida aynan shu muammolar o'z ifodasini topdi.

O'zbekiston Respublikasi MDH davlatlari bilan iqtisodiy hamkorlikka kirishar ekan, doimo ularning mustaqilligiga daxl qilmaslikka intildi va bunga amal qildi. 1992-yil may oyida MDH davlat rahbarlarining Toshkent uchrashuvida O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan boshlangan kollektiv xavfsizlik to'g'risidagi shartnomaning imzolanishi MDH doirasidagi davlatlar o'rtasidagi aloqalarning yangi bosqichiga ko'tarilishiga sabab bo'ldi. 1993-yil MDH davlatlari bilan imzolangan "Iqtisodiy ittifoq" haqidagi

shartnoma ham bu davlatlarning iqtisodiy taraqqiyoti va o‘zaro hamkorliklarining yanada mustahkamlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatdi.

1994-yil 21-oktabrda Moskvada bo‘lib o‘tgan MDH davlat boshliqlarining kengashida 10 ga yaqin masalalar muhokama qililib, asosiy e‘tibor MDH mamlakatlarining iqtisodiy integratsiyasiga doir masalalarga qaratildi. MDH davlatlari o‘rtasidagi integratsiyani rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari haqida memorandum imzolandi. Unda iqtisodiy hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari, integratsiyaviy taraqqiyotning istiqbol rejaları belgilab berilib, iqtisodiy ittifoqning davlatlararo iqtisodiy qo‘mitasi tuzildi. Mazkur kengashda fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaning 50 yilligini tantanali nishonlash haqida kelishib olindi.

1995-yil 10-fevralda Almatida MDH mamlakatlari davlat va hukumat boshliqlarining uchrashuvlari bo‘lib, MDH davlatlari a‘zolari bo‘lgan mamlakatlar chegaralarini qo‘riqlashda hamkorlik qilish konsepsiyasi muhokama qilindi. Ammo masalaning xarakteri va mazmuni haqida bir-biriga mos bo‘lmagan turli fikrlar bildirildi.

Mustaqillikning birinchi o‘n yilligi davrida MDH davlatlari boshliqlarining 30 ga yaqin kengashlari bo‘lib o‘tdi va muhim hujjatlar imzolandi. Ular orasida xavfsizlik masalalari, tinchlikni saqlash, iqtisodiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yib olish uchun davlatlararo iqtisodiy qo‘mita tuzish, iqtisodiy integratsiyani to‘laqonli amalga oshirish, bojxona va ittifoq to‘lovi masalalarini izga solib olish kabilar muhim o‘rin egalladi. O‘zbekiston MDH doirasida siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalar bo‘yicha shartnoma hamda kelishuvlarni Rossiya, Ukraina, Belorusiya, Moldaviya va boshqa mamlakatlar bilan imzolab, o‘zaro manfaatli hamdo‘stlik aloqalari uchun mustahkam asos yaratdi.

2001-yil MDH tashkil topganligining 10-yilligi munosabati bilan Moskvada MDH davlatlari rahbarlari ishtirokida sammit bo‘lib, unda o‘tgan vaqt mobaynida qilingan ishlar sarhisob qilindi va o‘zaro savdodagi cheklashlarni bartaraf etish, tovarlar va xizmatlar oqimini ko‘paytirish uchun axborot-marketing markazlarini tuzish, ta‘lim, madaniyat, soliq, bojxona sohalarida faoliyat ko‘rsatuvchi muassasalar, xo‘jalik sudlari hamkorligini kengaytirish masalalari muhokama etildi. Sammit ishtirokchilari MDH tuzilganligining o‘n yilligi munosabati bilan hamda Afg‘onistondagi vaziyatga doir “Bayonot”ga imzo chekdilar.

Bugungi kunda ham O‘zbekiston Respublikasi MDHga ko‘p tomonlama hamkorlik uchun shart-sharoit yaratishdan manfaatdor suveren mamlakatlar birlashmasi sifatida qaraydi.

2002-yildan buyon MDH doirasida tuzilgan Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti (ODKB) ham o‘z faoliyatini olib bormoqda. O‘zbekiston bu

tashkilotning ODKB davlatlari o'rtasidagi va MDH makonidagi turli qarama-qarshiliklar va mojarolarni hal etishda qatnashish emas, balki, avvalo Tashkilotlarga a'zo mamlakatlarni tashqi tahdidlardan himoya qilishdan iborat, deb hisoblaydi. Shuningdek. O'zbekiston ODKBga a'zo u yoki bu davlatlar ichida "zo'ravonlik xatti-harakatlari" yuzaga kelgan hollarda unga Tashkilotning aralashuvi yoxud ta'sir ko'rsatishiga aslo yo'l qo'ymaslik zarur, deb hisoblaydi. Prezident I.A.Karimov 2010-yil 10-dekabrda Moskvada bo'lib o'tgan ODKB Kollektiv xavfsizlik kengashi majlisida ham "u yoki bu mamlakat ichidagi "zo'ravonlik xatti-harakatlari" turli ssenariylar bo'yicha, tashqi kuchlarning bevosita aralashuvi va moliyalashtiruvi orqali yuzaga kelishi mumkinligini e'tiborga olish darkor", deb ta'kidlagan edi. Bu pozitsiyaning to'g'ri va hayotiyligini 2010-yil 10 -14-iyun kunlari Qirg'iziston janubida ro'y bergan voqealar ham tasdiqladi. I.A.Karimov Kengash yig'ilishida Qirg'iziston voqealarida O'zbekiston tutgan yo'lning to'g'riligini izohlab, agar aholimiz o'rtasida osoyishtaligimizni saqlay olmaganimizda O'zbekistonning qariyb 300 ming qirg'iz millatiga mansub aholi yashaydigan Farg'ona vodiysi hududida qanday fojiali voqealar ro'y berishi mumkinligini ham isbotlab berdi. Shu bois ham, O'zbekiston davlati ODKBning tezkor harakatlanuvchi kollektiv kuchlar to'g'risidagi bitimni va ODKBning Tinchliksevar kuchlari to'g'risidagi bayonotini imzolamadi.

2012-yil 15-may kuni Moskva shahrida Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti (ODKB) Kollektiv xavfsizlik kengashining yubiley (10 yillik) sessiyasida ham Prezident I.A.Karimov ishtirok etib, yana bir bor O'zbekiston ODKBning asosiy maqsadi, avvalo a'zo davlatlarning tashqi tahdidlardan himoya qilishdan iborat, deb bilishini ta'kidladi. Sessiyada ODKB faoliyatining samaradorligi va uning yanada rivojlanishini ko'p jihatdan barcha a'zo davlatlarning hamjihatlik tamoyiliga amal qilishi hamda manfaatlar uyg'unligiga bog'liq ekani bayon etildi.

O'zbekiston Respublikasi MDH doirasida sun'iy ravishda joriy etiladigan integratsiyaga hamda davlatlardan yuqori turuvchi tuzilmalarini parlament, ko'plab amaldorlar ishlaydigan ma'muriy idoralar, harbiy siyosiy organlarni tashkil etishga qarshi. O'zbekiston mustaqillik va integratsiyani uyg'unlashtirish tarafdori, MDHni haqiqiy mustaqil suveren davlatlar integratsiyasi sifatida ko'rishni xohlaydi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida hamdo'stlik mamlakatlari bilan ikki tomonlama hamkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirish alohida o'rin tutadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasining Rossiya Federatsiyasi (RF) bilan davlatlararo teng huquqli munosabatlar o'rnatish va rivojlantirishga alohida aha-

miyat berayotganligi muhimdir. 1991-yil 26-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Moskvaga tashrif buyurib, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti B.Yelsin bilan ikki davlat o‘rtasida muxtor vakolatxonalar ochish, bir-birlarining suverenitetini va hududiy yaxlitligini hurmat qilish, tashqi siyosat va iqtisodiy masalalarida hamkorlik qilishiga kelishib oldilar.

1992-yil may oyida B.Yelsin O‘zbekistonga tashrifi paytida ikki davlat o‘rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlash choralari ko‘rishga ahdlashdi. 30-mayda O‘zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o‘rtasida davlatlararo munosabatlarning asoslari, do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risida shartnoma imzolandi. Shartnoma ikki davlat o‘rtasida har tomonlama hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishga huquqiy asos soldi. Ikki davlat o‘rtasida diplomatik aloqalar o‘rnatilgach, elchixonalar ochildi.

Islom Karimov 1994-yil mart oyidagi Rossiya Federatsiyasiga qilgan rasmiy davlat tashrifi yakunida O‘zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o‘rtasida har tomonlama hamkorlikni rivojlantirish va chuqurlashtirish to‘g‘risida deklaratsiyani imzoladi. Shuningdek, 1998-yil 12-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o‘rtasida 1998–2007-yillarda iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish to‘g‘risida shartnoma ham imzolandi.

1990-yillarning oxiri 2000-yilning boshlarida Rossiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi hamkorlik yangi bosqichga ko‘tarildi. RF Prezidenti V.Putin qisqa muddatda O‘zbekistonga ikki marta – 1999-yil 10-11 dekabrda va 2000-yil 18-19-may kunlarida davlat tashrifi bilan keldi. Tashrif davomida ikki mamlakat Prezidentlari va rasmiy delegatsiyalari o‘rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, harbiy va harbiy-texnikaviy hamkorlik, xavfsizlik, jumladan, Afg‘onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish, xalqaro terrorchilikka qarshi kurashish va boshqa masalalar muhokama etildi. O‘zbekiston bilan Rossiya o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli aloqalar yangicha mazmun kasb etib, ikki mamlakat o‘rtasida turli maqsadlarga yo‘naltirilgan 150 ta hujjatlar imzolandi.

2004-yil 16-iyunda O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasida strategik sherikchilik to‘g‘risida bitim imzolandi. Uchrashuv davomida O‘zbekiston Respublikasi bilan “Lukoil” neft kompaniyasi, OAJ hamda “O‘zbekneftgaz” milliy xolding kompaniyasi bilan, “Gazprom” ochiq aksiyadorlik jamiyati o‘rtasida mahsulot taqsimotiga oid bitimlar imzolandi. Bu hujjatlar asosida Rossiya tomonidan O‘zbekiston yoqilg‘i-energetikasi sohasiga qariyb 1 mlrd AQSH dollari miqdorida investitsiya kiritildi. Ikki mamlakat o‘rtasidagi savdo yo‘nalishidagi hamkorlik hajmi 2003-yilda 1 mlrd 149 mln AQSH dollarini tashkil etdi.

O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi munosabatlar tom ma'nodagi teng huquqlilik, o'zaro manfaatdorlik, bir-birlarining suvereniteti, hududiy yaxlitligi va manfaatlarini hurmat qilish tamoyillari asosida chuqurlashib bordi.

O'zbekistonning RF bilan har tomonlama hamkorligi bugungi kunda yana ham kengaymoqda. 2010-yil 31-mart kuni Toshkentda Iqtisodiy hamkorlik bo'yicha O'zbekiston-Rossiya hukumatlararo komissiyasining o'n ikkinchi majlisi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi hamkorlik aloqalari izchil rivojlanib borayotgani, bunda ikki davlat rahbarlarining uchrashuvlarida erishilgan kelishuvlar muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilayotgani alohida ta'kidlandi.

Bugungi kunda tashqi siyosat, tashqi savdo, mudofaa mahkamalari o'rtasidagi muloqot va maslahatlashuvlar ham izchil davom etmoqda. O'zbekiston va Rossiya BMT, SHHT, MDH kabi xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar doirasida ham faol hamkorlik qilmoqda. Bu aloqalar mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, integratsiya jarayonlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Mamlakatlar Afg'oniston hududidagi vaziyatni barqarorlashtirish ishlariga yordam ko'rsatish borasida ham hamkorlik qilib kelmoqda. 2010-yil 19-20-aprel kunlari O'zbekiston Prezidenti I. Karimovning RF Prezidenti D. Medvedyev taklifiga binoan RFga tashrifi va tashrif chog'idagi kelishuvlar ikki o'rtadagi munosabatlarning yanada chuqurlashuviga sabab bo'ldi. Ikki davlat rahbarlari uchrashuvida Markaziy Osiyodagi suv-energetika zaxiralari-dan oqilona foydalanish masalalari ham ko'rib chiqildi.

Umuman aytganda, davlat rahbarlarining o'zaro munosabatlarini rivojlantirishga doir masalalar, mintaqaviy va xalqaro muammolar yuzasidan nuqtayi nazar va qarashlari o'xshash va yaqinligi, xalqlarning do'stligi hamkorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zaro munosabatlar turli darajalarda imzolangan 276 hujjatga asoslanadi.

Rossiyadan O'zbekistonga rangli va qora metallar, mexanik va elektr uskunalari, yog'och va undan ishlangan buyumlar kabi mahsulotlar keltiriladi. Sarmoyaviy hamkorlik rivoji qo'shma korxonalar sonining oshganida yaqqol ko'zga tashlanadi. Hozirgi kunda mamlakatda 944 ta O'zbekiston-Rossiya qo'shma korxonasi faoliyat yuritmoqda. Rossiyaning 135 ta firma va kompaniyasi mamlakatda o'z vakolatxonasini ochgan. Rossiyada esa o'zbekistonlik sheriklar ishtirokida tuzilgan 458 ta qo'shma korxonalar faoliyat yuritmoqda.

Ikki mamlakat hukumatlari o'rtasida Harbiy-texnika sohasidagi hamkorlik bo'yicha 2010–2012-yillarga mo'ljallangan tadbirlar rejasini amalga oshirishga ko'maklashish masalalariga oid o'zaro anglashuv memorandumini, O'zbekiston

Respublikasi Davlat bojxona qoʻmitasi bilan Rossiya Federatsiyasi Federal bojxona xizmati oʻrtasida Oldindan xabardor etish boʻyicha eksperiment oʻtkazish toʻgʻrisidagi protokol. Madaniy-gumanitar sohada 2010–2012-yillarga moʻljallangan hamkorlik dasturi imzolandi.

2012-yilning 4-iyulida Prezident I.A.Karimov taklifiga binoan RF Prezidenti V. Putinning rasmiy tashrifi ikki oʻrtadagi munosabatlar rivojida yana bir bosqichni boshlab berdi. Muzokaralar yakuni boʻyicha qabul qilingan “Strategik sheriklikni chuqurlashtirish toʻgʻrisida”gi deklaratsiyada hamkorlikni yangi bosqichidagi istiqbolli yoʻnalishlari belgilab berildi.

Oʻzbekiston Respublikasi Rossiya bilan munosabatlarni yuksak qadrlab kelmoqda. Bu munosabatlar ikki mamlakat manfaatlarigagina emas, ayni bir paytda Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlashga ham xizmat qilmoqda.

Oʻzbekistonning MDH davlatlaridan – Ukraina bilan oʻzaro munosabat va hamkorliklari ham kengayib bordi. Oʻzbekiston-Ukraina munosabatlari mustahkam huquqiy asosga ega boʻlib, turli sohalardagi hamkorlikni qamrab oluvchi qariyb 150 hujjat bilan tartibga solinadi. Prezident Islom Karimovning 1998-yil fevral oyida Ukrainaga rasmiy tashrifi asnosida ikki mamlakat oʻrtasida imzolangan Doʻstlik va har tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish toʻgʻrisidagi shartnoma oʻzaro aloqalarni izchil taraqqiy ettirishda muhim omil boʻlib xizmat qildi.

Oʻzbekistonning Ukraina va bir qator Kavkazorti davlatlari bilan aloqalarining mustahkamlanishiga 1996-yili Venada tuzilgan GUUAM tashkiloti ham muhim oʻrin tutdi. Oʻzbekiston ittifoqdosh davlatlar Gruziya, Ukraina, Ozarbayjon, Moldova davlatlari asos solgan bu tuzilmaga 1999-yil aprel oyida aʼzo boʻldi. Natijada, bu tuzilma unga uyushgan davlatlarning nomidan olingan bosh harflar asosida GUUAM, deb yuritila boshlandi. Mazkur tuzilma mintaqaviy hamkorlik doirasidagi Osiyo-Kavkaz-Yevropa transport yoʻlagini rivojlantirish, iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishni maqsad qilib oldi. 2001-yil iyun oyida ana shu tashkilotga aʼzo davlatlarning Yaltada uchrashuvi boʻlib, unda Oʻzbekiston ham ishtirok etdi. Boʻlib oʻtgan sammitda hamkorlikni mustahkamlashga doir ayrim masalalar koʻrib chiqildi.

Oʻzbekistonning Kavkazorti respublikalari bilan bugungi aloqalari ham qadimiy aloqalar bilan mushtarakdir. 1995-yil 5-sentabrda Gruziya davlat rahbari, respublika parlamenti raisi E.Shevarnadzening Oʻzbekistonga rasmiy tashrifi Oʻzbekiston bilan Gruziya oʻrtasidagi qadimiy aloqalarni tiklashda muhim ahamiyatga ega boʻlib, ikki tomonlama munosabatlarga doir masalalar boʻyicha bir qancha shartnomalar imzolandi. Ikki mamlakat rahbarlari

tomonidan imzolangan O'zbekiston-Gruziya qo'shma axboroti asosida ikki tomonlama aloqalar chuqurlashib, Markaziy Osiyo va Kavkazorti mintaqalari xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan ishlar olib borilmoqda.

O'zbekiston bilan Ozarbayjon o'rtasida davlatlararo aloqalar ham yo'lga qo'yilib, rivojlanib bormoqda. 1996-yilning mayida I. Karimov boshliq O'zbekiston davlat delegatsiyasining Ozarbayjonda bo'lib, ikki davlat rahbarlari kelishuvi asosida xalqaro "Trans Kavkaz yo'li" barpo etildi, uning Ozarbayjondan o'tadigan qismi shakllantirilib, O'zbekiston yuklarini Ozarbayjon hududi orqali Yevropa tomon chiqarishga yo'l ochildi.

Shu bilan birga Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston bilan qardoshlarcha do'stlik aloqalarini mustahkamlash O'zbekiston tashqi siyosatining muhim yo'nalishiga aylandi. Din, e'tiqod, til birligi, azaliy qardoshlik munosabatlari bu davlatlar iqtisodiy taraqqiyotida shubhasiz katta ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda o'ziga ruhan, urf-odatlar va an'analari bilan yaqin mamlakatlar bilan mustahkam munosabatlar o'rnatish suveren O'zbekistonning tashqi siyosatdagi muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu ishlar Turkiston xalqlarining asosiy manfaatlarini ifodalagani uchun, ular orasida qadimiy do'stlik va barqarorlikni mustahkamlash, o'zaro iqtisodiy muammolarni yechish, milliy-madaniy aloqalarni tiklash uchun juda qulay sharoit yaratib, kishilar qalbida mehr-oqibat, birodarlik tuyg'ularini uyg'otib kelmoqda.

Markaziy Osiyo davlat boshliqlarining birinchi uchrashuvi 1990-yil iyunda Almati shahrida bo'lib, unda besh davlatning iqtisodiy tanglikdan chiqishi uchun resurslarni birlashtirish zarur degan xulosaga kelingan. O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlariga murojaatnoma hamda respublika rahbarlarining Bayonotini imzolagan edilar. Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining navbatdagi uchrashuvi 1991-yil 13-15-avgustda Toshkent shahrida bo'lib, uchrashuv yakunlari xususida Axborot qabul qilindi.

1994-yil 10-yanvarda Qozog'iston Prezidenti N. Nazarboyevning O'zbekistonga tashrifi Markaziy Osiyo hamdo'stligiga amaliy poydevor qo'ydi. Unda ikkala mamlakat rahbari "Yagona iqtisodiy hudud" barpo etish to'g'risidagi shartnomani imzoladi. Bu shartnomada O'zbekiston bilan Qozog'iston o'rtasida tovarlar, xizmatlar, sarmoyalar va ishchi kuchlarining erkin o'tib turishini nazarda tutuvchi hamda o'zaro kredit, hisob-kitob, byudjet, soliq, narx, boj va valuta siyosatini ta'minlovchi yagona iqtisodiy makonni tashkil etish ko'zda tutildi. Fan, maorif, sog'liqni saqlash yo'lida imzolangan hujjatlar o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi omil bo'lib qoldi. Bu shartnomaga Qirg'iziston, keyinchalik Tojikistonning ham qo'shilishi

Markaziy Osiyo mintaqasida iqtisodiy integratsiya jarayonining chuqurlashuviga katta imkoniyat yaratdi. O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston Prezidentlarining bu oliy darajadagi uchrashuvining yangi nuqtasi 1994-yil Almati shahrida bo'lib o'tdi. Tomonlar Davlatlararo kengash hamda uning doimiy ijroiya tashkiloti, Bosh vazirlar kengashi, Tashqi ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi kengashini ta'asis etdilar.

Kengashda qatnashgan mamlakat vakillarining Davlatlararo ijroiya qo'mitasi Almati shahrida joylashdi. 1995-yilning 15-dekabrida Qozog'iston va O'zbekiston Respublikalari Davlatlararo kengashining Jambul shahrida navbatdagi kengashi bo'ldi. Mazkur kengashda Prezidentlar 2000-yilgacha bo'lgan iqtisodiy integratsiya va birinchi navbatda sarmoya sarflanishi lozim bo'lgan loyihalar dasturlarini hayotga joriy etish, kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish masalalarini muhokama etdilar. Integratsiya dasturida 53 ta loyiha ishlab chiqildi.

1997-yil yanvarida Bishkekda, O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston davlat boshliqlarining kengashi bo'lib, unda uch qardosh davlat o'rtasida shartnoma imzolandi. Mazkur shartnoma uch qardosh davlat xalqlarining iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy hamkorligini yangi asoslarda rivojlantirishga yo'naltirilgan edi. Ulardan birining hududiy xavfsizligiga biror mamlakat xavf solsa, birgalikda xalqaro hamjamiyatni bundan ogoh etib, mudofaa uchun chora-tadbirlar ko'radi.

1997-yil 12-dekabrda Oqmola shahrida uch respublika Prezidentlarining Kengashi bo'lib, unda uch mamlakat o'rtasida energetika, suv zaxiralardan oqilona foydalanish, oziq-ovqat ta'minoti, kommunikatsiya hamda mineral xomashyo zaxiralari o'zlashtirish va qayta ishlash sohalari bo'yicha xalqaro birlashmalar tuzish to'g'risida muzokara olib borildi. Prezidentlar xalqaro bu birlashmalarni tuzish bo'yicha uch mamlakat hamkorligi tamoyillari konsepsiyasini ma'qulladilar. Bunday Xalqaro birlashmalar tuzishdan maqsad mamlakatlararo iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, birgalikda amalga oshiriladigan tadbirlar orqali Markaziy Osiyoning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash, mintaqadagi energetika, yer, suv, mineral xomashyo, mehnat va boshqa zaxiralardan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yishdan iborat edi.

O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston davlatlari o'rtasida 1994-yilning 30-aprelida iqtisodiy sohada bir-birlarini qo'llab-quvvatlab turuvchi, yagona iqtisodiy makonda hamkorlik qilish to'g'risida shartnoma imzolangan edi. Bu shartnomaning ahamiyati shunda ediki, uch mamlakat uchun erkin savdo tamoyillari jahon bozorida vujudga kelayotgan narx-navo, xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun teng iqtisodiy va huquqiy shart-sharoit, choralari, xizmatlar.

kapital va ishchi kuchining umumiy bozorini barpo etish, ilmiy-texnika, ishlab chiqarish, sarmoya, moliya, transport va ijtimoiy sohalarda birgalikda ish yuritish asosida hamkorlik qilishni amalga oshirishga imkoniyat ochib bera boshladi. 1998-yil 26- martda o'tkazilgan Kengashda bu shartnomaga Tojikiston Respublikasi ham qo'shildi.

O'zbekiston Prezidenti I. Karimov o'zbek, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, tojik, turkman va mintaqada yashovchi barcha xalqlar o'rtasidagi qadimiy do'stlik aloqalarini yangi sharoitda mustahkamlashni nazarda tutib, "Turkiston umumiy uyimiz" g'oyasini ilgari surdi. Mintaqa ziyolilari, Turkiston zaminida yashovchi barcha xalqlarni yaqinlashtirish maqsadida yurgan sog'lom kuchlar bu g'oyani qo'llab-quvvatladi. Aynan "Turkiston umumiy uyimiz" g'oyasi nomi bilan jamoatchilik harakati boshlandi. Bu g'oya ta'sirida "Turkiston xalqlari madaniyati Assambleyasi" tashkil etilib, bir necha ilmiy-nazariy anjumanlar, simpoziumlar o'tkazildi.

Markaziy Osiyo davlatlari hamkorligida iqtisodiy masalalar bilan bir vaqtda Afg'oniston masalasi, xalqaro terrorizm xavfining oldini olish masalalari ham muhim o'rin tutdi. 1999-yil aprelida Cho'lpon-Otada bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo respublikalari Prezidentlari uchrashuvida I.Karimov yig'ilish qatnashchilari hamda BMTni butun xalqaro hamjamiyatga tahdid solayotgan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashni kuchaytirishga chaqirdi. Uchrashuvda Tojikiston Respublikasi rahbariyati va jamoatchiligi I.Karimovni tojik xalqining og'ir kunlarida yordam beruvchi va qo'llab-quvvatlovchi haqiqiy birodari va do'sti sifatida qabul qildi.

Kengashda mintaqaning suv resurslaridan samarali foydalanish, Sarazko'li toshish xavfining oldini olishda Tojikistonga yordam berishga e'tibor qaratildi. Bu hamdo'stlik davlatchiligini qaror toptirish, O'zbekiston Prezidenti ta'biri bilan aytganda, "bozor munosabatlariga o'tishning murakkab davrida mintaqadagi mamlakatlarning kuch-g'ayratlari va sa'y-harakatlarini jipslashtirishga qaratilgandir".

O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi tinch hamkorlik aloqalariga Afg'on mojarosi doimo tahdid solib turdi. Bu mojaro tufayli diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm, korrupsiya va jinoyatchilik, narkotik moddalarni tarqatish, qurol-yarog', odam savdosi kabi muammolar tahdidi kuchaydi. Prezident I.Karimov bu haqda: "Boshqacha aytganda, yuqorida sanab o'tilgan tahdidlar, garchi turli mintaqalarda turli kuch bilan namoyon bo'lsa-da, insoniyatda bir xil tashvish tug'dirmog'i darkor", deb ta'kidlagan edi.

Markaziy Osiyo davlatlarini birlashib harakat qilishlarida Orol dengizi muammosi muhim o'rin tutadi. Bu muammo bo'yicha Markaziy Osiyo dav-

latlari rahbarlarining Qizil O`rda (1993), Nukus (1994), Toshhovuz (1995) uchrashuvlari bo`lib, ushbu uchrashuvlarda asosan bu muhim muammoga bag`ishlangan chora-tadbirlarni ko`rish belgilab olindi.

Respublika rahbariyati Orol muammosini hal etishda nafaqat Markaziy Osiyo, balki Osiyodagi bir qancha tashkilotlar bilan hamkorlikni yo`lga qo`ydi. Jumladan, 2001-yil Osiyo taraqqiyot banki Prezidenti Tadao Chino O`zbekistonga tashrif buyurib, O`zbekiston hukumatining bu muammoni tugatishga qaratilgan sa`y-harakatlarini qo`llab-quvvatlab, Yaponiyaning maxsus jamg`armasidan beg`araz grant ajratishni jadallashtirishini ta`kidlab o`tdi.

2002-yil 28-fevral – 1-mart kunlari Almati shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining uchrashuvida “Markaziy Osiyo hamkorligi” tashkilotini tuzish to`g`risidagi shartnomaga imzo chekildi va mazkur tashkilotning raisi etib O`zbekiston Prezidenti I.Karimov saylandi.

Markaziy Osiyo davlatlarini asrlar davomida yaqin ma`naviy qadriyatlar, til, din, tarix, urf-odat va an`analarga asoslangan mustahkam do`stlik rishtalari va qo`shnichilik bog`lab turadi. Qardosh o`zbek, qozoq, qirg`iz, turkman va tojik xalqlari bir-birining adabiyoti, madaniyati, san`atini yaqindan biladi va hurmat qiladi. Ajdodlarning boy merosi bu mintaqa xalqlarining umumiy boyligidir. Bu omillar turli sohalardagi ikki tomonlama hamkorlikni jadal rivojlantirishdan mintaqa xalqlari birdek manfaatdor ekanligini tasdiqlaydi.

Bugungi kunda O`zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari o`rtasidagi munosabatlar yangi davr talablaridan kelib chiqib, ham ikki tomonlama, ham ko`p tomonlama rivoj topib borayotganini ta`kidlamoq lozim. Masalan, dunyoda moliyaviy-iqtisodiy inqiroz hukmronlik qilayotganiga qaramay, O`zbekiston bilan Qozog`iston o`rtasidagi o`zaro tovar ayirboshlash ko`rsatkichi izchil o`sib bordi. 2007-yildan buyon bu boradagi ko`rsatkich 1 milliard AQSH dollaridan ziyod raqamni tashkil qiladi. E`tiborli jihati shundaki, bunda xomashyoning ulushi pasayib, yuqori qo`shimcha qiymatga ega sanoat mahsulotlarining salmog`i ortib bormoqda.

Mamlakatlar o`rtasida 2006–2010-yillarga mo`ljallangan Iqtisodiy hamkorlik strategiyasi qabul qilingan va bunda savdo, suv-energetika majmui, sarmoya, moliya, transport, kommunikatsiya, bojxona va innovatsiya borasida ikki tomonlama hamkorlikning istiqbolli yo`nalishlarini o`zida mujassam etgan hujjatlar qabul qilingan. Ularni hayotga to`la tatbiq etilishi tovar ayirboshlash ko`rsatkichini bir necha hissaga orttirdi.

O`zbekistonda samolyot, avtomobil, avtobus, yuk tashish mashinalari, qishloq xo`jaligi texnikasi, kabel, qurilish materiallari ishlab chiqariladi, paxta, pilla, meva va poliz mahsulotlari yetishtiriladi. Qozog`istonda bular-

ning barchasiga talab bor. Ayni paytda O‘zbekiston bozorida ham Qozog‘iston eksportchilari uchun keng faoliyat maydoni mavjud.

Energiya manbalarini qazib olish, uzatish, tranzit qilish ham hamkorlik uchun yaxshi sohadir. 2009-yilda Turkmaniston, O‘zbekiston, Qozog‘iston orqali Xitoyga tabiiy gaz yetkazib beradigan quvur ishga tushdi. Bu ko‘p tomonlama hamkorlik muvaffaqiyatiga yorqin misol. Mamlakatlar yoqilg‘i manbalarining yirik zaxiralariga ega va bu sohadagi aloqalarni rivojlantirish uchun ikki tomonda ham imkoniyat yetarli.

O‘zbekiston va Qozog‘istonning ilmiy va iqtisodiy salohiyati, suv zaxiralaridan unumli foydalanish borasida ham yaxshi imkoniyatlar ochdi. Xususan, melioratsiya va irrigatsiya yo‘nalishidagi aloqalar muhim. Suv tejaydigan texnologiyalarni ishlab chiqish, o‘zlashtirish bu borada tajriba va axborot almashish dolzarb masala. Bu bilan qator ekologik va ijtimoiy muammolarga barham berish mumkin.

Ikki davlat rahbarlarining 2010-yil martida Toshkentdagi uchrashuvda Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida 2010–2012-yillarga mo‘ljallangan madaniy-gumanitar sohadagi qabul qilingan hamkorlik dasturlari va ularning hayotga tatbiq etilishi ikki davlat o‘rtasidagi aloqalarni yanada kengaytirishga xizmat qilmoqda.

So‘nggi yillarda Qirg‘izistonda davlat rahbarlarining o‘zgarib turishi, amalga oshirilishi lozim bo‘lgan islohotlarda davlatning bosh islohotchi rolini o‘ynay olmayotganligi, bu holatlar mamlakatda millatlararo nizolarni keltirib chiqarayotganligi o‘zbek xalqining tinch yashashiga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazmoqda. Ana shunday vaziyatda ham O‘zbekiston davlat rahbarining oqil va odil siyosati bu ikki xalq o‘rtasidagi do‘stlik rishtalarini saqlab qolishga qilinayotgan harakatlarning ifodasidir.

Qo‘shni mamlakatlar Qirg‘iziston va Tojikiston respublikalari rahbarlarining Amudaryo va Sirdaryo Markaziy Osiyo xalqlari uchun farovonlik, suv bilan ta‘minlaydigan yaxlit manba ekanligini bila turib, atayin daryolarning quyi qismida joylashgan O‘zbekiston, Qozog‘iston va Turkmaniston manfaatlariga zid muammolar paydo qilayotganliklarini ham ta‘kidlab o‘tmoq lozim. Bu ikki respublika rahbarlari qo‘shni respublikalar roziligisiz Amudaryo va Sirdaryo oqimlarida mega-GESlar qurishga kirishmoqda. Bunday obyektlarni qurishni tartibga soladigan qat‘iy xalqaro normalar mavjud bo‘lsa-da, ular ushbu daryolar yuqori qismida joylashgan mamlakatlar tomonidan inkor etilmoqda. Biroq, Qirg‘iziston ham, Tojikiston ham ushbu sohaga oid biron bir xalqaro konvensiyani imzolamagan. Ammo o‘z milliy manfaatlarini xudbinlarcha himoya qilishdan boshqa narsani tushunishni istamayotgan va o‘z

iqtisodiyotini qutqarishning birdan-bir chorasi sifatida GES loyihalariga yopishib olgan mazkur ikki respublika bu loyihalarni ko'proq qarz olish hamda tashqi investorlar yordamiga tinimsiz ko'z tikkan holda, yarim qo'lbola usulda amalga oshirishni o'jarlik bilan talab qilmoqda.

Norin-Sirdaryo va Amudaryodan Vaxshni ajratib bo'lmashligi va ular aynan transchegara suv oqimlari ekanini hisobga oladigan bo'lsak (buning uchun xaritaga qarashning o'zi kifoya), Qirg'iziston Qambarota GESini O'zbekiston va Qozog'istonning roziligisiz qurishga mutlaqo haqli emas. Tojikistonning esa transchegara daryo oqimi bo'ylab joylashgan nafaqat O'zbekiston va Qozog'iston, balki uning quyi qismidagi Turkmanistonning ham roziligisiz GES qurishga hech qanday haqqi yo'q. Vaxsh ichki daryo ekani haqida qanchalik ko'p gapirilmasin, u Amudaryoning asosiy irmoqlaridan biri va shu bois mazkur holatda transchegara daryolardan foydalanish bo'yicha barcha xalqaro prinsiplarga rioya etilishi shart.

Bugungi kunda bu ikki davlat uchun tez-tez yer qimirlash sodir bo'lishi mumkin bo'lgan zonalarda yangi GESlar qurish emas, balki, sobiq ittifoqdan meros bo'lib qolgan Nurek (Tojikiston), To'xtag'ul (Qirg'iziston) va ularning suv omborlarini tartibga solish dolzarb masala bo'lishi lozim.

Qirg'iziston va Tojikiston bunday ishlarni boshlashdan avval qo'shni mamlakatlar bilan kelishmog'i lozim. Aks holda, O'zbekistonning Rog'un va Qambarota GESlarining ishini, agar ulardan birortasi qurilsa ham, hatto harbiy yo'l bilan bo'lsa-da, to'xtatib qo'yishga hech narsa monelik qila olmaydi. O'zbekiston rahbariyati bunday harakatlar bilan nafaqat o'zining o'n millionlab aholisini, balki Qambarota loyihalari ta'sir doirasida joylashgan Qirg'izistonning Farg'ona vodiysidagi uch viloyati (O'sh, Jalolobod va Botkent) va Tojikistonning bir viloyati (So'g'd) aholisining ham xavfsizligini ta'minlasa, u har tomonlama haq bo'lib chiqadi.

Suv miqdori kamayib, taqchilligi ortib borayotgan bir paytda yangi to'g'onlarni qurish, jiddiy o'rganib chiqmasdan turib, ulardan energetika maqsadlarida foydalanish suv balansi hamda barqaror rivojlanish borasida o'ta salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Mamlakat manfaatlariga va aholisi xavfsizligiga rioya qilish bo'yicha O'zbekiston ilgari surayotgan talablar to'g'ri va haqlidir. Har bir mamlakat, albatta, o'z milliy manfaatlarini ko'zlaydi, shu sababli bu boradagi birdan-bir to'g'ri yo'l – tomonlarning murosaga kelishi, biri-biriga yon berishidir. O'zbekistonning bu boradagi pozitsiyasini do'q-po'pisa, deb qabul qilmaslik kerak, balki uning yuzaga kelgan holatdan jiddiy tashvishlanayotganini to'g'ri tushunish lozim. O'zbekiston rahbariyati qayd etilgan har ikki loyihada

O‘zbekiston Respublikasi manfaatlari hisobga olinmas ekan, ham Tojikiston, ham Qirg‘izistonga qarshi hozirdanoq eng qat’iy choralarni qo‘llash haqida o‘ylashga mutlaqo haqli hisoblanadi.

Darhaqiqat BMT Bosh kotibi Pan Gi Mun ham eslatib o‘tganidek, jahondagi hech bir mamlakat tabiatning balo va ofatlaridan to‘liq himoyalangan. Birgina 2010-yilda tabiiy ofatlar oqibatida dunyoda 20 ming kishi halok bo‘lgan.

O‘zbekistonning bunday oqilona yondashuvini qo‘llab-quvvatlash lozim, chunki faqat shu yo‘l orqali tabiiy sharoitlar bilan bog‘liq xavf-xatar va tahdidlarni bartaraf etish mumkin.

Sovet davrida bundan 40 yil muqaddam ishlab chiqilgan Rog‘un GESi loyihasi darhaqiqat, katta xavf tug‘diradi. Avvalo, bu loyihaning amalga oshirilishi Amudaryo suv oqimiga, shundoq ham yondosh hududlarning qishloq xo‘jaligi suv tanqisligi va kontinental iqlimidan katta zarar ko‘rayotgan bir sharoitda, ularga yanada fojiali ta’sir ko‘rsatadi. Oqibatda mintaqaning Orol dengizi qurishi ta’sirida kuchli inqirozga uchragan va zaiflashgan butun ekologik muvozanat yanada katta halokatlarga duchor bo‘lishi mumkin.

Bir so‘z bilan aytganda, ayrim davlatlarning, qanday bo‘lmasin o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun o‘n millionlab odamlarning hayotini xavf ostida qoldirishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.

O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari orasida Turkmaniston bilan mustahkam do‘stlik aloqalarini alohida ta’kidlamoq lozim. O‘zbekiston va Turkmanistonni asrlar davomida yaqin ma’naviy qadriyatlar, til, din, tarix, urf-odat va an’analarga asoslangan mustahkam do‘stlik rishtalari va yaxshi qo‘shnichilik bog‘lab turadi. Qardosh o‘zbek va turkman xalqlari bir-birining adabiyoti, madaniyati va san’atini yaqindan biladi va hurmat qiladi. Ajdodlarning boy merosi o‘zbek va turkman xalqlarining umumiy boyligidir. Bu omillar turli sohalardagi ikki tomonlama hamkorlikni jadal rivojlantirishdan O‘zbekiston ham, Turkmaniston ham birdek manfaatdor ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

1991-yildan 2013-yilga qadar ikki mamlakat rahbarlarining 11 marta oliy darajadagi tashriflari amalga oshirildi. Turkmaniston Prezidenti O‘zbekistonga 6 marta kelgan bo‘lsa, O‘zbekiston Prezidenti 5 bor Turkmanistonga tashrif buyurgan. Mazkur tashriflar chog‘ida ikki mamlakat o‘rtasida turli sohalardagi ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan mustahkam shartnomaviy-huquqiy asos yaratildi. 2010-yilning oktabr oyida navbatdagi oliy darajadagi tashrif amalga oshirildi – O‘zbekiston Prezidenti I.Karimov Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov taklifiga binoan, rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi.

Ikki mamlakat rahbarlarining muzokaralari yakunida tomonlar siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlikni yanada kengaytirishga bo'lgan intilishlarini tasdiqladilar va ikki do'st davlatning erishilgan kelishuvlari samarali amalga oshishiga qaratilgan davlatlararo va hukumatlararo munosabatlar mexanizmlarini rivojlantirishga intilishini ta'kidladilar. O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi keng ko'lami hamkorlikka oid dolzarb yo'nalishlarni qamrab olgan davlatlararo, hukumatlararo va idoralararo darajada imzolangan 150 dan ortiq xalqaro shartnomalar ikki mamlakat munosabatlarining mustahkam huquqiy asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Rasmiy Toshkent va Ashxobodning mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash, Afg'oniston muammosini xalqaro tuzilmalar va ushbu mamlakat bilan qo'shni davlatlar ishtirokida hal etish bo'yicha muzokaralar jarayonini jadal-lashtirish, xalqaro terrorizm va ekstremizm, narkotrafik, uyushgan transmilliy jinoyatchilik kabi tahdidlarga qarshi hamkorlikda kurashish masalalarida qarashlari bir-biriga yaqin va o'xshashdir. Xalqaro tashkilotlar doirasidagi va, ayniqsa, BMT doirasidagi hamkorlik mamlakatlarning xalqaro maydondagi amaliy va samarali hamkorligiga misol bo'la oladi.

O'zbekiston va Turkmaniston O'rta Osiyodagi suv-energetika sohasidagi muammolarga oid masalalar bo'yicha ushbu muammolarni xalqaro huquqning umumiy turof etilgan norma va prinsiplari asosida, mintaqaning barcha mamlakatlari manfaatlari va roziligini inobatga olgan holda muhokama etish lozim, degan qat'iy umumiy pozitsiyani namoyon etmoqda.

Ikki tomonlama savdo-iqtisodiy hamkorlik ko'lami ham keng. Joriy yilning fevral oyida navbatdagi, oltinchi majlisi o'tkazilgan O'zbekiston-Turkmaniston Hukumatlararo qo'shma komissiyasining samarali faoliyati ushbu sohadagi hamkorlikni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

O'zaro tovar aylanmasi hajmi izchil o'sib bormoqda va 2010-yil yakunlari bo'yicha qariyb 200 million AQSH dollarini tashkil etdi. Lekin bu hali O'zbekiston va Turkmaniston imkoniyatlariga to'la mos ko'rsatkich emas.

O'zbekiston va Turkmaniston tabiiy gaz qazib olish va uzatish borasida dunyodagi yetakchi mamlakatlar sirasiga kiradi. Energiya manbalariga talab yil sayin oshib borayotgan hozirgi sharoitda mamlakatning neft va gaz sohasida yaqindan hamkorlik qilishi g'oyat muhim ahamiyatga ega. Muhim strategik xomashyoni eksport qilish yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish imkonini bergan va "Turkmaniston – O'zbekiston – Qozog'iston – Xitoy" transmilliy gaz quvurining qurilishi bo'yicha yirik loyihaning amalga oshirilishi ikki mamlakatning ushbu sohadagi samarali hamkorligiga yaqqol misol bo'la oladi.

Transport kommunikatsiyalari iqtisodiy hamkorlik borasidagi yana bir muhim yo'nalish. Mamlakatlar muntazam yuk tashishda uchinchi davlatlar

uchun tranzit vazifasini o'tayotgani O'zbekiston va Turkmanistonning katta transport salohiyatidan dalolatdir. Bu haqda so'z ketganda, Ashxobodda "O'zbekiston – Turkmaniston – Eron – Ummon – Qatar" yangi xalqaro transport-kommunikatsiya yo'nalishini tashkil etish bo'yicha imzolangan bitimning tarixiy ahamiyatini alohida qayd etish joiz. Ushbu transport-kommunikatsiya yo'lagini tashkil etish bo'yicha kelishuvga O'zbekiston Prezidenti I. Karimovning 2010-yilning oktabr oyida Turkmanistonga rasmiy tashrifi chog'ida erishilgan edi. Mazkur ko'p tomonlama loyihaning hayotga tatbiq etilishi savdo-iqtisodiy aloqalarni yanada mustahkamlash uchun qulay sharoit yaratadi, tranzit yuklar oqimini ko'paytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan O'rta Osiyo va Fors ko'rfazining barcha mamlakatlari foyda topadi.

Madaniy-gumanitar hamkorlik ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishning muhim omili. Ushbu sohadagi hamkorlik haqida so'z borganda, Prezident I. Karimovning 2010-yil oktabr oyida Turkmanistonga rasmiy tashrifi asnosida imzolangan Madaniy-gumanitar sohada 2011–2013-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturini ta'kidlash lozim. Shuningdek, O'zbekiston va Turkmanistonning madaniyat hamda san'at namoyandalari ikki mamlakatda tashkil etiladigan festival, ko'rgazma va forumlarda muntazam ishtirok etib kelmoqda. Xususan, turkmanistonlik san'atkorlar Samarqandda o'tadigan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivalining doimiy ishtirokchilaridandir.

Toshhovuzda 2010-yil oktabr oyida bo'lib o'tgan yorqin va unutilmas voqealarga boy bo'lgan O'zbekiston va Turkmaniston xalqlarining do'stlik festivali xalqlarning boy va o'ziga xos madaniyati namoyishiga aylandi. Ushbu forum mamlakatlarning o'zaro hamkorlikni yanada mustahkamlashdagi mushtarak intilishlarining ifodasi, o'zbek va turkman xalqlari azaliy do'stligining yorqin ramzi bo'ldi.

O'zbekiston Prezidentining taklifiga binoan Turkmaniston Prezidenti G. Berdimuhamedovning 2011-yil 5-may kuni rasmiy tashrif bilan mamlakatda bo'lishi ikki davlat, ikki xalq o'rtasidagi do'stona aloqalarining yanada kengayishiga va mustahkamlanishiga hissa qo'shdi.

Turkmaniston rahbarining ushbu tashrifi o'zaro ishonch, hurmat va manfaatdorlik, yaxshi qo'shnichilik tamoyillari asosidagi ikki tomonlama hamkorlikka yangi sur'at baxsh etish borasida tomonlarning sa'y-harakat va intilishlari mushtarak ekanining tasdig'i bo'lgani ta'kidlandi.

Suhbat chog'ida Islom Karimov va Gurbanguli Berdimuhamedov terrorizm, ekstremizm, uyushgan jinoyatchilik, narkotrafik kabi tahdidlarga qarshi kurashish borasidagi hamkorlikka doir masalalarni ham muhokama etdilar.

Afg'onistondagi vaziyat yuzasidan fikr almashilar ekan, bu mamlakatda faqat harbiy kuch ishlatish yo'li bilan tinchlik o'rnatib bo'lmashligi yana bir bor qayd etildi.

Muzokara yakunida ikki davlat rahbarlari ikki mamlakat va ikki xalq manfaatlarini ifodalashga xizmat qiluvchi O'zbekiston – Turkmaniston qo'shma bayonotiga imzo chekdilar va bu hujjat ikki o'rtadagi munosabatlar istiqbolini ham o'zida aks ettirdi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekiston qisqa fursatda xalqaro hamkorlik va aloqalarda, jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvda muhim yutuqlarga erishdi va bu borada katta tajriba to'pladi.

Respublikaning turli xalqaro iqtisodiy va ijtimoiy komissiyalarga a'zo bo'lib kirishi mamlakat taraqqiyoti ufqlarini ochdi. Respublikaning nufuzli davlatlar: Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Turkiya, Eron va Pokiston kabi davlatlar bilan hamkorlik aloqalari jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvini kengaytirdi.

O'zbekiston qisqa davr, yigirma uch yillik mustaqil taraqqiyot yillarida mustaqillik g'oyalarini hayotga tatbiq etish asosida milliy davlatchilikni tiklashda quyidagi ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi:

– istiqloq va suverenitetni qo'lga kiritib, O'zbekiston o'z taqdirini o'zi mustaqil belgilash, barcha tabiiy, mineral xomashyo boyliklari, o'z mamlakatining butun salohiyatidan xalqning manfaatlari va uning istiqboli yo'lida foydalanish huquqiga ega bo'ldi;

– sobiq Ittifoqning ilgari mafkuralashtirilgan, mustabid, ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga barham berib, erkin bozor iqtisodi prinsiplariga asoslanuvchi demokratik davlatning konstitutsiyaviy va huquqiy negizlarini yaratishga muvaffaq bo'ldi;

– mamlakatning jahon hamjamiyatidagi manfaatlari, nufuzi va mavqeyining ortishiga muvofiq keluvchi tashqi siyosat va tashqi iqtisodiy aloqalarning mustaqil yo'lini shakllantirishga erishdi;

– jahon hamjamiyatining to'laqonli a'zosi bo'lib, ko'p qirrali tashqi iqtisodiy faoliyat yuritib. O'zbekiston dunyo integratsion jarayoniga ishonch bilan kirib bordi.

Bu yutuqlar xususida so'z yuritganda, qayta tiklanayotgan o'zbek davlatchiligining milliy rahnamosi O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning chuqur o'ylangan, ilmiy asoslangan g'oyalari yotishini va u kishi ishlab chiqib, amalga oshirgan O'zbekiston yo'lining dunyo miqyosida tan olinganini ochiq-oydin e'tirof etmoq kerak.

Tayanch soʻz va iboralar:

Mustaqil Oʻzbekistonning oʻz tashqi siyosati va tamoyillari. Oʻzbekiston va BMT. YUNESKO. Tashabbuslar va takliflar. Oʻzbekiston va boshqa xalqaro tashkilotlar. Xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy-siyosiy aloqalar. EI, EXHT, NATO. Sharq mamlakatlari. Osiyo davlatlari. AQSH bilan aloqalar. Oʻzaro iqtisodiy hamkorliklar. Jahon banki. Xalqaro valuta fondi. OTB. Xalqaro moliya korporatsiyasi. Investitsiyalar. Savdo-iqtisodiy hamkorliklar. Jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuv. MDH davlatlari va Markaziy Osiyo respublikalari bilan oʻzaro hamkorliklar.

Bilimingizni sinab koʻring

1. 1991-yilda Oʻzbekiston siyosiy suverenitetini eʼlon qilgach, boshqaruvning maʼmuriy-buyruqbozlik tizimidan voz kechib, yosh davlat ijtimoiy hi-moyalangan bozor iqtisodiyoti va ochiq tashqi siyosatga asoslangan huquqiy-demokratik jamiyatning asoslarini qurishga kirishdi.

Bu harakatlar xalqning bir jihati bilan eng mohir siyosiy namoyandalari-ning bir jihatini yalpi safarbar etishni taqozo qildi. Yalpi safarbar etilgan xalq va davlat arbobining jihatlari katakchalarda yashiringan. Ularni toping.

--	--	--

							i
--	--	--	--	--	--	--	---

(xalqning jihati)

--	--	--	--	--	--

								i
--	--	--	--	--	--	--	--	---

(davlat arbobi jihati)

2. Oʻzbekiston rahbarining xalqaro miqyosda manfaatli boʻlgan takliflari jahon hamjamiyati tomonidan qoʻllab-quvvatlandi va shunga asoslanib, 1995-yil 16-sentabrda Toshkentda BMTning Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalariga bagʻishlangan seminar-kengashi ish boshladi. Dunyoning koʻp davlatlari ishtirok etgan bu seminar Oʻzbekiston rahbarining soʻzlagan nutqi bosh hujjat sifatida qabul qilindi.

1995-yil 16-sentabrda Toshkentda boʻlib oʻtgan bu seminar yigʻilishi qan-day shior ostida oʻtgan edi?

	i				i	
--	---	--	--	--	---	--

									i			
									i			

3. I.A.Karimovning NATO (Shimoliy Atlantika Ittifoqi)ning "Tinchlik yo'lidagi hamkorlik" dasturida ishtiroki Markaziy Osiyo mintaqasida jamoaviy xavfsizlik va barqarorlikning keng tizimini vujudga keltirishni rejalashtirishda O'zbekistonning ishtirokini kafolatladi.

Aynan shu jarayonlardan so'ng NATO Bosh kotibining O'zbekistonga tashrifi ikki o'rtadagi tinchlik yo'lidagi siyosatning birdamligini ko'rsatdi. Katakchalarda NATO Bosh kotibining ismi yashiringan. Uni toping.

	n
(bosh harfi)	(ismi)

4. 2011-yil mart oyida Pokiston Islom Respublikasi Bosh vazirining O'zbekistonga tashrifi va ikki davlat o'rtasidagi Veterinariya, Transport va tovarlar tranziti sohasida hamkorlik to'g'risida bitimlarning ratifikatsiya yorliqlarini almashish haqida bayonnomaning imzolanishi O'zbekiston va Pokiston hamkorligi aloqalarini yanada mustahkamladi.

Katakchalarda O'zbekistonga tashrif buyurgan Pokiston hukumati Bosh vazirining ismi-sharifi yashiringan. Uni toping.

Y								z	
								y	

5. Yaponiya O'zbekiston mustaqilligini 1991-yil 28-dekabrda e'tirof etdi va 1992-yil 26-yanvardan boshlab mamlakatlar o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatildi. Yaponiya birinchilardan bo'lib Prezident I.A.Karimovning O'rta Osiyoda bir holi hududni tashkil etishga oid taklifini ma'qullagan edi. Bu yerda qanday hududni tashkil etish haqida so'z bormoqda?

									i			
h	o	l	i		h	u	d	u	d			

6. O'zbekistonning AQSH bilan o'zaro manfaatli aloqalari 1991-yildayoq boshlangan edi. Keyingi hamkorlik aloqalari ikki o'rtadagi munosabatlarni

yanada mustahkamladi. O‘zbekiston rahbarining AQSHga bir necha tashriflari amalga oshirildi. Ushbu tashrifning siyosiy ahamiyati shunda ediki, O‘zbekiston Prezidenti AQSHda kam qo‘llaniladigan udum – bir tashrifot bilan kutib olindi.

AQSHda kam qo‘llaniladigan bu udum qanday udum edi?

		k					l
--	--	---	--	--	--	--	---

		k				y
--	--	---	--	--	--	---

t	a	sh	r	i	f	o	t
---	---	----	---	---	---	---	---

7. AQSHni sinovli damlarda qo‘llab-quvvatlagani uchun O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov Amerika jamoatchiligi tomonidan Xalqaro miqyosdagi mukofotga sazovor bo‘ldi.

Bu qanday xalqaro mukofot edi, nomini toping.

«			d			»
---	--	--	---	--	--	---

8. O‘zbekiston – Janubiy Koreya hamkorligi har ikki davlat uchun ham yuqori samaralar berib kelmoqda. Bu hamkorliklar doirasi Toshkent shahrida bog‘ (park) tashkil etish to‘g‘risida kelishuvga erishildi.

Ikki tomonlama kelishuv asosida Toshkentda barpo etilgan bog‘ qanday nomlangan?

--	--	--	--

p	a	r	k	i
---	---	---	---	---

9. O‘zbekiston bilan Ozarbayjon o‘rtasida davlatlararo aloqalar ham yo‘lga qo‘yilib, rivojlanib bormoqda. 1996-yilning mayida I.Karimov boshliq O‘zbekiston davlat delegatsiyasining Ozarbayjonda bo‘lishi va ikki davlat rahbarlari kelishuvi asosida xalqaro yo‘l barpo etildi, uning Ozarbayjondan o‘tadigan qismi shakllantirilib, O‘zbekiston yuklarini Ozarbayjon hududi orqali Yevropa tomon chiqarishga yo‘l ochildi.

Bu xalqaro yo‘l qanday nomlangan?

«			a		
---	--	--	---	--	--

						»
--	--	--	--	--	--	---

y	o‘	l	i
---	----	---	---

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, tojik, turkman va mintaqada yashovchi barcha xalqlar o‘rtasidagi

qadimiy do'stlik aloqalarini yangi sharoitda mustahkamlashni nazarda tutib o'z g'oyasini ilgari surdi. Aynan shu g'oya nomi bilan jamoatchilik harakati tashkil topib, "Turkiston xalqlari madaniyati Assambleyasi" vujudga keldi.

Prezident Islom Karimov ilgari surgan bu g'oya qanday nomlangan?

«						s									i	
---	--	--	--	--	--	---	--	--	--	--	--	--	--	--	---	--

			i		i			»
--	--	--	---	--	---	--	--	---

XULOSA

Aziz talabalar! Siz mazkur o'quv qo'llanmani diqqat bilan o'qib chiqib, "O'zbekiston tarixi" fani darslariga ushbu kitob orqali tayyorgarlik ko'rgan bo'lsangiz, bu O'zbekiston tarixining naqadar boy va qiziqarli ekanligini, bunday tarixga dunyodagi hamma xalqlar ham ega bo'lolmaganligini o'zingizcha xulosa qilib olgan bo'lsangiz kerak.

Dunyo tarixida ajdodlari qariyb uch ming yil muqaddam "Avesto"dek yirik bir asar yaratib, undagi g'oyalar asosida katta hududlar aholisini bir ta'limot orqasidan ergashtira olgan, bir necha yuzlab buyuk allomalarni kamol toptirib, bu buyuk farzandlari tufayli olam ilm-u fani xazinasiga munosib hissasini qo'shgan, sarkardalari nafaqat o'z yurti, balki boshqa xalqlarni ham bosqinchilardan ozod qilishda buyuk xizmat qilgan, islomning soflanib, yirik ta'limot darajasiga erishuvida munosib hissa qo'shgan diniy allomalarni yetishtirib bergan xalq kamdan-kam topiladi.

To'g'ri, bu kitobdagi tarixga sinchiklab nazar tashlagan bo'lsangiz, uning og'ir, mashaqqatli, mudhish davrlari ham ko'p. Chunki, tabiat in'om etgan ne'matlarga boy, to'rt faslda ham quyosh o'z nurini darig' tutmagan, qimmatbaho qazilma boyliklarga ega, insonlari mehnatkash, saxiy, yaratuvchi, bunyodkor bunday o'lka g'animlar nigohini doimo o'ziga qaratgan. Tarix o'zi muhrlagan misollari orqali buni tasdiqlaydi.

Siz, agar, ushbu o'quv qo'llanmani sinchiklab o'qigan bo'lsangiz, ajdodlarning ozodlikda yashagan davridan ko'ra bosqinchilar zulmi ostida yashagan davri ko'proqqa o'xshaydi va bunday zulmlar ostida ham xalqning tinimsiz ozodlik kurashlarini, ajdodlarning doimo ozodlikka intilib yashaganini bilib olasiz. Bu bilan siz bugungi mustaqillikka ne-ne mashaqqatlar evaziga erishilganini his etib, uning qadriga yeta olasiz va butun dilingiz bilan anglaysiz.

Moziyga qaytib ish ko'rish xayrli, deydilar. Bu fikr bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Biz "O'zbekiston kelajagi buyuk davlat" deb baralla va viqor bilan aytmoqdamiz. Chunki, o'tmishi buyuk bo'lgan xalqgina buyuk kelajagini ham qura oladi. Buni qisqa 23 yildan ortiqroq davr mobaynida xalq, davlat erishgan ijobiy natijalar ham, bu yutuqlarni ko'rayotgan jahon ahlining o'tgan qisqa davrni asrlarga tatigulik yillar deb e'tirof etayotganligi ham isbotlab turibdi.

Tarix – oʻzlikni anglatadigan, saboq berib, xulosa qilishga oʻrgatadigan fan deydilar. Shu bois, oʻz tarixingizni chuqur oʻrgansangiz, uni toʻliq bilsangiz, Davlat rahbari aytganidek, irodali inson boʻlib kamol topasiz. Irodali inson esa har qanday qiyinchilik, mashaqqatlarga va eng asosiysi oʻzga gʻoyalar taʼsiriga bardoshli boʻladi, oʻz xalqi va vatanini sevadi. Xalqparvar, vatanparvar inson esa bugungi kechayotgan tarixiy jarayonlarga oʻzini ham daxldor ekanini his etadi va oʻz xalqining munosib farzandi boʻlib qoladi.

OʻZBEKISTON TARIXINING MUHIM SANALARI

Mil. avv. 1,2-1 mln yil avval – hozirgi Oʻzbekiston hududida ilk paleolit (qadimgi tosh) davri. Selungʻur gʻori (Fargʻona vodiysi)dan oʻsha davr tosh qurollari va ibtidoiy odam qoldiqlari topilgan.

Mil. avv. 100–40 ming yilliklar – oʻrta paleolit – mustye davri. Neandertal odami toʻdalari yashagan davr.

Mil. avv. 40–12 ming yilliklar – soʻnggi paleolit. Hozirgi koʻrinishdagi odamning shakllanishi (kromanon).

Mil. avv. 35–30 ming yilliklar – urugʻchilikning boshlanishi. Matriarxat (ona urugʻi) ning vujudga kelishi.

Mil. avv. 12 – 7 ming yilliklar – mezolit (oʻrta tosh) davri.

Mil. avv. 6–3 ming yilliklar – neolit davri. Dehqonchilik va chorvachilikning vujudga kelishi.

Mil. avv. 4 – 3 ming yillikning oʻrtalari – eneolit (mis-tosh) davri.

Mil. avv. 3 – 2 ming yilliklar – bronza davri.

Mil. avv. IX – VIII asrlar – temir davriga oʻtildi.

Mil. avv. VIII–VI asrlar – dastlabki davlat uyushmalari (Sugʻdiyona, Baqtriya, Xorazm). Dastlabki shaharlarning vujudga kelishi.

Mil. avv. 545 – 330-yillar – Oʻrta Osiyoda Eron ahamoniylari hukmronligi.

Mil. avv. 530-yil, iyul – massagetlar malikasi Toʻmarisning Turonga bostirib kirgan ahamoniylar podshohi Kir II ga qarshi kurashi va gʻalabasi.

Mil. avv. 522-yil, 29-sentabr – ahamoniylarga qarshi Frada boshchiligida Margʻiyonada qoʻzgʻalon koʻtarildi.

Mil. avv. 519-yil – Doro I ning saklar ustiga yurishi. Shiroq jasorati.

Mil. avv. 329-yil – Makedoniyalik Aleksandr (Makedoniyalik Iskandar) ning Oʻrta Osiyoga bostirib kirishi.

Mil. avv. 329–328-yillar – Oʻrta Osiyo xalqlarining Spitamen boshchiligida makedoniyalik Aleksandrga qarshi kurashi.

Mil. avv. 312 – 250-yillar – Oʻrta Osiyoda Salavqiylar hukmronligi.

- Mil. avv. taxminan 250-yil** – Salavqiylarning Baqtriyadagi satrapi Diodot tomonidan Yunon-Baqtriya davlatiga asos solindi.
- Mil. avv. 250 – 140-yillar** – Yunon-Baqtriya davlati faoliyat koʻrsatdi.
- Mil. avv. III – milodiy V asr oʻrtalari** – Sirdaryoning oʻrta havzasida mavjud boʻlgan Qangʻha (Qangʻ) davlati.
- Mil. avv. 140 – 135-yillar** – sak va yuechji qabilalari tomonidan Yunon-Baqtriya podshohligining tugatilishi.
- Mil. avv. II asr** – Buyuk Ipak yoʻlining tashkil topishi.
- Mil. avv. II asr – milodiy III asr** – Fargʻona vodiysidagi Davan davlati faoliyati.
- Milodiy I – III asrlar** – Kushon podshohligi davri.
- 305 – 995-yillar** – Xorazmda afrigʻiylar sulolasining hukmronlik davri.
- Taxminan 370-yillar** – Oʻrta Osiyoda xioniyar hukmronligining oʻrnatilishi.
- V asr oʻrtalari – VI asr oʻrtalari** – Oʻrta Osiyoda Eftaliylar davlati hukmronlik qilgan davr.
- 551-yil** – Bumin boshchiligida Turk xoqonligining tashkil topishi.
- 565-yil** – eftaliylarga turkiylar tomonidan zarba berilishi.
- 585 – 586-yillar** – Abruy boshchiligida Buxoroda koʻtarilgan xalq qoʻzgʻoloni.
- 603-yil** – Turk xoqonligining ikkiga: Sharqiy Turk xoqonligi va Gʻarbiy Turk xoqonligiga boʻlinib ketishi.
- 632-yil** – Arab xali faligining tashkil topishi.
- 704-yil** – Gʻarbiy Turk xoqonligining tugatilishi.
- 705-yil** – Movarounnahrning Arab xalifaligi (Qutayba ibn Muslim) tomonidan istilo qilinishining boshlanishi.
- 720–722-yillar** – sugʻdiylar, fargʻonaliklar va turklarning arablarga qarshi kurashi.
- 720 – 723-yillar** – Sugʻd ixshidi Gʻurak boshchiligidagi qoʻzgʻolon.
- 721–722-yillar** – Panjikentda arablar zulmiga qarshi Panjikent hokimi Devashtich boshchiligidagi qoʻzgʻolon.
- 747 – 750-yillar** – Movarounnahr va Xurosonda ummaviylarga qarshi Abu Muslim (“Qora kiyimlilar”) harakati.
- Taxminan 750 – 869-yillar** – mashhur mutasavvuf Hakim Termiziy yashagan va faoliyat koʻrsatgan davr.
- 776–784-yillar** – Movarounnahrda Arab xalifaligiga qarshi Muqanna (“Oq kiyimlilar”) qoʻzgʻoloni.
- 783–850-yillar** – buyuk matematik olim, astronom va geograf Muhammad Xorazmiy (Abu Jaʼfar Muhammad ibn Muso Xorazmiy) yashagan davr.

Taxminan **797 – 865-yillar** – buyuk astronom, matematik va geograf Ahmad Fargʻoniy yashagan davr.

810 – 870-yillar – islom olamining yirik mutafakkiri, buyuk muhaddis Imom Buxoriy (Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriy) yashagan davr.

819 – 1005-yillar – Movarounnahr va Xurosonda somoniylar sulolasi va davlati hukmronligi.

821-yil – Tohir ibn Xusayn tomonidan Tohiriylar davlatiga asos solinishi.

824 – 892-yillar – buyuk muhaddis Imom Termiziy yashagan davr.

Taxminan **840 – 1212-yillar** – Qoraxoniylar sulolasi va davlati hukmronligi.

873-yil – Tohiriylar davlatining parchalanib ketishi natijasida Xurosonda Safforiylar davlatining tashkil topishi.

873 – 950-yillar – ulugʻ mutafakkir va qomusiy olim Abu Nasr Forobiy yashagan davr.

899 – 959-yillar – mashhur tarixchi olim Narshaxiy (Abu Bakr Muhammad ibn Jaʼfar Narshaxiy) yashagan davr.

IX asr oxiri – X asr boshlari – Buxoroda Ismoil Somoniy maqbarasining qurilishi.

903 – 976-yillar – Shofiʼiylik mazhabining yetakchi olimlaridan biri, muhaddis Qaffol Shoshiy (Hazrati Imom; qisqacha Hastimom) yashagan davr.

962 – 1186-yillar – Gʻaznaviylar sulolasi hukmronligi davri.

973 – 1048-yillar – oʻrta asrning buyuk daholaridan, mutafakkir olim Abu Rayhon Beruniy yashagan davr.

980 – 1037-yillar – buyuk mutafakkir olim, tabib, faylasuf va shoir Abu Ali ibn Sino yashagan davr.

995 – 1017-yillar – Xorazmda maʼmuniylar sulolasining hukmronlik davri.

999-yil – Somoniylar davlati hukmronligining barham topishi, Movarounnahrning Qoraxoniylar davlatiga qoʻshib olinishi.

X–XII asr oʻrtalari – oʻzbek xalqi tashkil topishi jarayonining asosan tugallanishi.

1004-yil – Gurganch (Koʻhna Urganch)da Xorazmshoh Maʼmun ibn Maʼmun tomonidan akademiya (Xorazm Maʼmun akademiyasi) ning tashkil topishi.

1017-yil – Mahmud Gʻaznaviy tomonidan Xorazmning Gʻaznaviylar davlatiga qoʻshib olinishi.

1017–1041-yillar – Xorazmda gʻaznaviylarga qaram oltintoshlar sulolasining hukmronlik davri.

1038 – 1308-yillar – Saljuqiylar davlatining hukmronlik davri.

1040-yil 23-may – Saljuqiylar bilan gʻaznaviylar oʻrtasidagi Dandanakon jangi va saljuqiylar gʻalabasi.

1048 – 1131-yillar – mashhur matematik, astronom, faylasuf va shoir Umar Hayyom yashab oʻtgan davr.

1048 – 1141-yillar – tasavvufning mashhur namoyondasi Yusuf Hamadoniy yashagan davr.

Taxminan XI asrning ikkinchi yarmi – 1167-yil – tasavvufning mashhur namoyondasi, yassaviylik tariqatining asoschisi Ahmad Yassaviy yashab oʻtgan davr.

1069 – 1070-yillar – Yusuf Xos Hojib “Qutadgʻu bilig” asarini yozdi.

1071 – 1072-yillar – Mahmud Koshgʻariy turkiy tillar haqidagi “Devonu lugʻotit turk” nomli qomusiy asarini yozdi.

1074 – 1144-yillar – mashhur tilshunos olim va adib Mahmud Zamaxshariy yashagan davr.

1077 – 1231-yillar – Xorazmda anushteginiylar sulolasining hukmronlik davri.

1103 – 1178-yillar – xojagon tasavvuf tariqatining asoschisi Abduxoliq Gʻijduvoni yashab oʻtgan davr.

1123 – 1197-yillar – buyuk faqih, imom Burhonuddin Margʻinoniy yashab oʻtgan davr.

1145 – 1221-yillar – kubroviylik oqimining asoschisi Shayx Najmiddin Kubro yashagan davr.

1198 – 1231-yillar – mashhur sarkarda va davlat arbobi Jaloliddin Manguberdi yashagan va faoliyat koʻrsatgan davr.

1200 – 1220-yillar – Xorazmshoh Alouddin Muhammadning hukmronlik davri.

1206-yil – Temuchinning Chingizxon (Ulugʻxon) nomi bilan taxtga oʻtirishi va Moʻgʻullar davlatiga asos solishi.

1215 – 1217-yillar – Muhammad Xorazmshoh bilan Chingizxon oʻrtasida elchilar ayirboshlash.

1219-yil – moʻgʻullarning Movarounnahrda hujum boshlashi.

1219-yil sentabr – 1220-yil mart – Oʻtrokning moʻgʻullar tomonidan qamal qilinishi va vayron etilishi; Oʻror fojiasi.

1219 – 1221-yillar – Chingizxonning Oʻrta Osiyoni bosib olishi.

1220 – 1231-yillar – Xorazmshohlar davlatining soʻnggi hukmdori Jaloliddin Manguberding hukmronlik davri va moʻgʻullarga qarshi kurashi.

1221 – 1121-yil 24 – 26-noyabr – Jaloliddin Manguberdi va Chingizxon qoʻshinlari oʻrtasida Sind daryosi boʻyidagi jang.

- 1224 – 1370-yillar** – Movarounnahr (Chigʻatoy ulusi)da chigʻatoylar sulolasi hukmronlik qilgan davr.
- 1231-yil 20-avgust** – Jaloliddin Manguberdining vafoti.
- 1238-yil** – Buxoroda moʻgʻullar zulmiga qarshi Mahmud Torobiy boshchiligida koʻtarilgan xalq qoʻzgʻoloni.
- 1318 – 1389-yillar** – naqshbandiya tariqatining asoschisi, buyuk mutasavvuf Bahouddin Naqshband yashagan davr.
- 1336-yil 9 aprel – 1405-yil 18-fevral** – mashhur davlat arbobi va harbiy sarkarda Amir Temur yashagan hamda faoliyat koʻrsatgan davr.
- 1361-yil** – Amir Temur bilan Amir Husaynning moʻgʻul xoni Toʻgʻluq Temurga qarshi ittifoqi.
- 1365-yil 22-may** – Amir Temur va Amir Husaynning Moʻgʻul xoni Ilyosxoʻja bilan Chinoz atrofida toʻqnashuvi (“Jangi loy”).
- 1365-yil** – Samarqandda sarbadorlar qoʻzgʻoloni.
- 1366 – 1465-yillar** – mashhur oʻzbek shoiri Lutfiy yashagan davr.
- 1370 yil 10-11-aprel** – Amir Temurning Movarounnahr taxtiga chiqishi va Temuriylar davlatiga asos solinishi.
- 1370 – 1405-yillar** – Amir Temur ibn Taragʻay Bahodirning hukmronlik davri.
- 1377 – 1447-yillar** – temuriylardan Shohruh Mirzo yashagan davr.
- 1380 – 1404-yillar** – Shahrisabzda Amir Temur tomonidan Oqsaroy qurdirildi.
- 1386 – 1388-yillar** – Amir Temurning “uch yillik” harbiy yurishlari.
- 1389 – 1395-yillar** – Turkistonda Amir Temur tomonidan Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasi qurdirildi.
- 1392 – 1396-yillar** – Amir Temurning “besh yillik” harbiy yurishlari.
- 1394-yil 22-mart – 1449-yil 27-oktabr** – Amir Temurning nevarasi Mirzo Ulugʻbek yashagan va faoliyat koʻrsatgan davr.
- 1399 – 1404-yillar** – Amir Temurning “yetti yillik” harbiy yurishlari.
- XIV asr oxiri – Toshkent yaqinida Zangiota maqbarasining qurilishi.
- 1402-yil 20-iyul** – Anqara jangi. Amir Temur bilan Usmonli turk sultoni Boyazid I Yildirim qoʻshinlari oʻrtasida boʻlib oʻtgan ulkan jangda Amir Temur qoʻshinining gʻalabasi.
- 1403 – 1474-yillar** – mashhur astronom, matematik Ali Qushchi yashagan davr.
- 1404 – 1490-yillar** – naqshbandiya tariqati rahnamolaridan mashhur mutasavvuf Xoja Ahror Valiy yashagan davr.
- 1405-yil 18-fevral** – Amir Temur Oʻtrorda Xitoy yurishi chogʻida vafot etdi.

- 1405-yil 18-mart** – Xalil Sultonning Samarqand taxtini egallashi.
- 1409-yil may** – Shohruhning Samarqandni olishi, Ulugʻbekning Movarounnahr taxtiga oʻtirishi.
- 1409 – 1447-yillar** – Temuriylar davlatida Shohruh hukmronligi.
- 1409 – 1449-yillar** – Samarqandda Ulugʻbek hukmronligi.
- 1417-yil** – Buxoroda Ulugʻbek madrasasi qurildi.
- 1417 – 1422-yillar** – Samarqandda Ulugʻbek madrasasi qurildi.
- 1424 – 1428-yillar** – Samarqandning Koʻhak (Choʻpon ota) tepaligida Ulugʻbek rasadxonasi qurildi.
- 1429-yil** – Samarqandda Ulugʻbek tomonidan “Dorul ilm” — Samarqand akademiyasiga asos solinishi.
- 1433- yil** – Gʻijduvonda Ulugʻbek madrasasi qurildi.
- 1441-yil 9-fevral – 1501-yil 3-yanvar** – buyuk oʻzbek shoiri, mutafakkir, davlat arbobi Alisher Navoiy yashagan va faoliyat koʻrsatgan davr.
- 1449-yil 27-oktabr** – Ulugʻbekning Samarqand yaqinida fojiali oʻldirilishi.
- 1451–1510-yillar** – shayboniylar sulolasining asoschisi Muhammad Shayboniyxon yashagan davr.
- 1455–1536-yillar** – buyuk miniaturachi musavvir, Sharq uygʻonish davri-ning yetuk ijodkori Kamoliddin Behzod yashagan va faoliyat koʻrsatgan davr.
- 1466–1469-yillar** – Alisher Navoiyning Samarqandda oʻqigan yillari.
- 1469–1506-yillar** – Husayn Boyqaroning Xuroson taxtida hukmronlik davri.
- 1475 – 1535-yillar** – tarixchi Xondamir yashagan va faoliyat koʻrsatgan davr.
- 1483 – yil 14-fevral – 1530-yil 26-dekabr** – buyuk shoir, tarixchi, davlat arbobi, boburiylar sulolasining asoschisi Zahiriddin Muhammad Bobur yashagan va faoliyat koʻrsatgan davr.
- 1500-yil yozi** – Muhammad Shayboniyxonning Samarqandni olishi va Shayboniylar davlatiga asos solishi.
- 1500–1601-yillar** – Movarounnahrda shayboniylar sulolasi hukmronligi.
- 1504-yil** – Bobur Kobulni egalladi.
- 1507-yil** – Muhammad Shayboniyxonning Xirotni egallashi.
- 1510-yil 28-dekabr** – Muhammad Shayboniyxonning Ismoil I Safaviy bilan Marv yaqinida boʻlgan jangda halok boʻlishi.
- 1511-yil** – Boburning Ismoil I Safaviy bilan ittifoqi va Hisor, Buxoro va Samarqandni ishgʻol qilishi.
- 1512-yil** – Elbarsxon tomonidan mustaqil Xiva xonligining tashkil qilinishi.
- 1525-yil** – Boburning Hindistonga yurishi.

1526-yil 21-aprel – Dehli yaqinidagi Panipat yalangligida Bobur qo‘shini bilan Dehli sultoni Ibrohim Lo‘diy qo‘shini o‘rtasidagi jang (Panipat jangi).

1526 – 1530-yillar – Boburning Shimoliy Hindistonda Boburiylar davlatiga asos solishi.

1526 – 1858-yillar – Boburiylar sulolasi Hindistonda hukmronlik qilgan davr.

1533-yil – Shayboniy Ubaydullaxon davrida davlat poytaxtining Samarqanddan Buxoroga ko‘chirilishi.

1540 – 1589-yillar – mashhur tarixchi olim Hofiz Tanish Buxoriy yashagan davr.

1570-yil – Amudaryo o‘z o‘zanini o‘zgartirib, Kaspiy dengizi o‘rniga Orol dengiziga quyila boshladi.

1601 – 1605-yillar – Buxoro xonligida ashtarxoniylar sulolasining birinchi vakili Boqimuhadmmad hukmronlik qilgan davr.

1601 – 1756-yillar – ashtarxoniylar (joniylar) sulolasi hukmronligi davri.

1603 – 1664-yillar – xorazmlik tarixchi olim, davlat arbobi Abulg‘ozi Bahodirxon yashagan davr.

1619 – 1636-yillar – Samarqandda Sherdor madrasasi qurildi.

1641 – 1646-yillar – Samarqand hokimi Yalangto‘shbiy Bahodir tomonidan Registon maydonida Tillakori madrasasi va Jome masjidi qurildi.

1643 – 1721-yillar – taniqli shoira Zebunniso begim (boburiylar sulolasidan Avrangzebning qizi) yashagan va faoliyat ko‘rsatgan davr.

1646-yil – Yangi Urganch (hozirgi Urganch) shahriga asos solinishi va Ko‘hna Urganch shahri aholisining bu shaharga ko‘chirilishi.

1663-yil – Abulg‘ozi Bahodirxon tomonidan “Shajarai Turk” asarining yozilishi.

1709-yil – Qo‘qon xonligining tashkil topishi.

Taxminan **1709–1721-yillar** – Qo‘qon xonligi asoschisi va birinchi xoni Shohruhbiyning hukmronlik davri. Minglar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi.

1709 – 1876-yillar – Qo‘qon xonligida minglar sulolasi hukmronlik qilgan davr.

1714 – 1716-yillar – Pyotr I ning farmoni bilan Turkistonga josuslik maqsadida harbiy Buxgols ekspeditsiyasi yuborildi.

1714 – 1717-yillar – Pyotr I tomonidan Amudaryoning quyi oqimi sohiliga A.Bekovich-Cherkasskiy boshliq harbiy ekspeditsiyaning yuborilishi.

1732-yil – qozoqlarning Kichik Juzi Rossiya imperiyasi panohiga o‘tdi.

1740-yil – Eron shohi Nodirshohning Buxoroni va Xiva xonligini zabt etishi.

1747 – 1751-yillar – Abdulmo‘minxonning nomigagina Buxoro xonligini idora etishi. Amalda hokimiyat mang‘itlardan Muhammad Rahim otaliq qo‘lida bo‘ldi.

1751 – 1754-yillar – Ubaydullaxon III – Buxoroning “qo‘g‘irchoq” xoni.

1756-yil – Buxoro xonligi Buxoro amirligiga aylantirildi. Mang‘itlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi.

1756 – 1920-yillar – Buxoro amirligida mang‘itlar sulolasi hukmronlik qilgan davr.

1779 – 1845-yillar – o‘zbek shoirasi, ma‘rifatparvar Uvaysiy (Jahon otin) yashagan va faoliyat ko‘rsatgan davr.

1792 – 1842-yillar – shoira, ma‘rifatparvar va davlat arbobi Nodirabegim (Mohlaroyim) yashagan va faoliyat ko‘rsatgan davr.

1804-yil – Xiva xonligida qo‘ng‘irotlar sulolasining rasman taxtga chiqishi.

1804 – 1920-yillar – Xiva xonligida qo‘ng‘irotlar sulolasining hukmronlik davri.

1809 – 1874-yillar – shoir va tarjimon Ogahiy yashagan davr.

1810-yil – Toshkent hokimligining Qo‘qon xonligiga qo‘shib olinishi. Toshkent shahrining Qo‘qon xoni noibi (beklarbegi) tomonidan boshqarilishi.

1811-yil – qoraqalpoqlarning Xiva xonligiga tobe bo‘lishi.

1811 – 1878-yillar – Qoraqalpoq shoiri Ajiniyoz Qo‘suboy o‘g‘li (Zivar) yashagan davr.

1827 – 1897-yillar – buyuk mutafakkir, adib va tarixchi olim, davlat arbobi Ahmad Donish yashagan davr.

1827 – 1900-yillar – qoraqalpoq adabiyoti asoschisi, shoir Berdaq yashagan davr.

1839 – 1840-yillar – Rossiya tomonidan Xiva xonligini bosib olish maqsadida uyushtirilgan Perovskiy ekspeditsiyasining Xivaga qarshi yurishi va barbod bo‘lishi.

1842-yil – Xiva xoni Olloqulixon Xivani tashqi hujumdan saqlash uchun devor bilan o‘ralgan Dishan qal‘a (Tashqi qal‘a) ni qurdirdi.

1864 – 1910-yillar – shoir va bastakor, Xiva xoni Feruz (Muhammad Rahimxon II) yashagan davr.

1850 – 1903-yillar – mashhur o‘zbek shoiri Muqimiy yashagan va faoliyat ko‘rsatgan davr.

1852-yil 9-oktabr – Qo‘qon va Toshkentda qipchoqlar qirg‘ini va mingboshi Musulmonqulning qatl etilishi.

1853-yil – Rossiya imperiyasining Qo‘qon xonligi tasarrufidagi yerlarga bostirib kirishi. Oqmasjid qal‘asining ruslar tomonidan bosib olinishi.

1858 – 1909-yillar – mashhur o‘zbek shoiri Furqat yashagan va faoliyat ko‘rsatgan davr.

1863 – 1936-yillar – Xorazmdagi jadidchilik harakati asoschilaridan biri Polvonniyoz hoji Yusupov yashagan va faoliyat ko‘rsatgan davr.

1864-yil 4-aprel – Rossiya imperiyasi qo‘shinlari tomonidan Turkiston shahrining bosib olinishi.

1864-yil 4-iyun – Rossiya imperiyasi tomonidan Avliyootaning bosib olinishi.

1864-yil 22-sentabr – Rossiya imperiyasi tomonidan Chimkentning bosib olinishi.

1865-yil bahori – general M.Chernyayev qo‘shini Niyozbek qal‘asini bosib oldi. Bo‘zsuv to‘g‘oni buzib tashlanib, Toshkent shahri suvsiz qoldi.

1865-yil 8-may – Rossiya qo‘shinlari bilan Toshkent mudofachilari o‘rtasida Darxon jangi bo‘lib o‘tdi.

1865-yil 14 – 17-iyun – Toshkent shahrining Rossiya imperiyasi qo‘shinlari tomonidan bosib olinishi.

1865-yil 12-fevral – Orenburg general-gubernatorligi tarkibida Turkiston oblastining tuzilishi. “Turkiston oblastini boshqarish haqida muvaqqat nizom”ning qabul qilinishi.

1866-yil – Rossiya qo‘shinlarining Buxoro amirligi chegaralariga bostirib kirishi. O‘ratepa. Jizzax va Yangiqo‘rg‘onning bosib olinishi.

1866-yil 24-may – Rossiya imperiyasi tomonidan Xo‘jandning bosib olinishi.

1867-yil 11-iyul – Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi.

1868-yil 13-fevral – Qo‘qon xoni Xudoyorxon Rossiya imperiyasi bilan sharmandali shartnoma tuzdi.

1868-yil 2-may – Samarqandning rus qo‘shinlari tomonidan bosib olinishi.

1868-yil 2 – 3-iyun – Buxoro amiri qo‘shinlarining Zirabuloq jangidagi talofoti.

1868-yil 23-iyun – Samarqandda imzolangan Buxoro-Rossiya shartnomasi va amirlikning Rossiyaga tobe bo‘lishi.

1870-yil 14-avgust – Kitob va Shahrizabz bekkliklaridagi qo‘zg‘olon (ularning rahbarlari Jo‘rabek va Bobobek) ning rus qo‘shinlari tomonidan bostirilishi.

1870-yil – Toshkent shahrida rus istilochilari tomonidan tashkil etilgan Turkistondagi ilk davriy matbuot “Туркестанские ведомости” (“Turkiston viloyatining gazetasi”) gazetasi chop etildi.

1870-yil – Samarqandda Turkiston o‘lkasidagi dastlabki rus-tuzem maktabi ochildi.

1870-yil – Toshkent ommaviy kutubxonasi (hozirgi Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi) tashkil etildi.

1871-yil – Toshkentda o‘zbek tilidagi dastlabki bosma kitob nashr etildi.

1871-yil – Mingtepada Yetimxon boshchiligidagi g‘alayon ko‘tarildi.

1872 – 1955-yillar – o‘zbek dostonchilaridan biri. baxshi Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li yashagan va faoliyat ko‘rsatgan davr.

1873-yil – Toshkentda dastlabki telegraf aloqasi Toshkent – Orenburg o‘rtasida o‘rnatildi.

1873-yil – O‘zbekistonda birinchi ilmiy-tadqiqot muassasasi – Toshkent astronomiya va fizika observatoriyasi (hozirgi Astronomiya instituti) tashkil etildi.

1873-yil 29-may – Rossiya tomonidan Xiva xonligining tobe qilinishi.

1873-yil 12-avgust – Rossiya bilan Xiva xonligi o‘rtasidagi Gandimiyon shartnomasining imzolanishi va Amudaryoning o‘ng sohili xonlikdan ajratilib. Turkiston general-gubernatorligi tarkibida Amudaryo okrugi (1883-yildan Amudaryo bo‘limi)ning tuzilishi.

1873-yil 28-sentabr – Buxoro amirligi Rossiyaning protektorati deb e‘lon qilingan shartnoma imzolandi.

1873–1876 yillar – “Po‘latxon” qo‘zg‘oloni (Qo‘qon xonligida xon va uning amaldorlari zulmiga va Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosatiga qarshi ko‘tarilgan xalq qo‘zg‘oloni).

1874-yil – Toshkentda birinchi dorixona va dastlabki paxta tozalash zavodi qurildi.

1874 – 1929-yillar – Xorazmdagi jadidchilik harakatining mashhur namoyandalaridan biri Boboovun Salimov yashagan va faoliyat ko‘rsatgan davr.

1875-yil – Xudoyorxonning Toshkentga qochishi va Mulla Isxoqning “Po‘latxon” nomi bilan taxtni egallashi.

1875 – 1919-yillar – Turkistondagi jadidchilik harakati yetakchilaridan biri, ulamo va jamoat arbobi Mahmudxo‘ja Behbudiy yashagan va faoliyat ko‘rsatgan davr.

1875–1876-yillar – mustamlakachilik zulmiga qarshi Oloy vohasida Qurbonjon dodxoh (“Oloy malikasi”) boshchiligidagi qo‘zg‘olon bo‘lib o‘tdi.

1875–1890-yillar – Rossiya hukumatining Turkistondagi ko‘chirish siyosati; rus mujiklarining o‘lkaga oqib kelishi.

1875 – 1934-yillar – Buxorodagi jadidchilik harakatining asoschilaridan biri Abdulvohid Burhonov (Munzim) yashagan va faoliyat ko‘rsatgan davr.

1876-yil – Toshkent muzeyi (1992-yil 21-apreldan O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi) tashkil etildi.

1876-yil 19-fevral – “Po‘latxon” qo‘zg‘olonining bostirilishi va Qo‘qon xonligi tugatilib, Turkiston general-gubernatorligi tarkibida Farg‘ona Viloyati general – gubernatorligining tashkil etilishi.

1877-yil – Yangi Marg‘ilon (1907 – 1924-yillarda Skobelev – Iskobil, 1924-yildan Farg‘ona) shahrining barpo qilinishi.

1877-yil – Toshkent shahrida birinchi tamaki fabrikasi qurildi.

1878-yil 14-aprel – 1954-yil 15-iyul – buxorolik taniqli yozuvchi, jadidchilik harakatining mashhur namoyandasi va jamoat arbobi Sadridin Ayniy yashagan va faoliyat ko‘rsatgan davr.

1878-yil 12-iyul – 1934-yil 24-avgust – ma‘rifatparvar, jurnalist, davlat va jamoat arbobi Abdulla Avloniy yashagan va faoliyat ko‘rsatgan davr.

1878-yil – 1931-yil 23-aprel – Toshkentdagi jadidchilik harakati yo‘lboshchisi, ma‘rifatparvar adib Munavvarqori Abdurashidxonov yashagan va faoliyat ko‘rsatgan davr.

1878-yil–1938-yil 4-oktabr – birinchi o‘zbek fotosuratchisi va kinochisi Xudoybergan Devonov yashagan va faoliyat ko‘rsatgan davr.

1879-yil – Toshkentda Turkiston o‘qituvchilar seminariyasi ochildi.

1880 – 1899-yillar – O‘rta Osiyo temir yo‘li (Samarqand – Andijon temir yo‘li 1880–1898-yilda, Samarqand – Toshkent temir yo‘li tarmog‘i 1899-yili) qurildi.

1881-yil mart – Qrimning Boqchasaroy shahrida Ismoilbek Gasprinskiy tomonidan ilk marta yangi usul (jadid) maktabi tashkil qilindi.

1884-yil 19-dekabr – Toshkentda dastlabki rus-tuzem maktabining ochilishi.

1885-yil 21-mart – 1976-yil 28-fevral – yirik ulamo va jamoat arbobi Alixonto‘ra Cog‘uniy yashagan hamda faoliyat ko‘rsatgan davr.

1885-yil – Buxoroda Rossiya imperatorlik siyosiy agentligining ta‘sis etilishi.

1885-yil – Farg‘onada Darvishxon to‘ra qo‘zg‘oloni.

1886-yil – 1938-yil 4-oktabr – jadidchilik harakatining yirik namoyandalardan, yozuvchi, olim, davlat va jamoat arbobi Fitrat yashagan hamda faoliyat ko‘rsatgan davr.

1886-yil – 1941-yil 27-dekabr – Turkistondagi milliy ozodlik harakatining rahbarlaridan biri Mustaf Cho‘qay yashagan va faoliyat ko‘rsatgan davr.

1887-yil – Toshkentda telefon aloqasi o‘rnatildi.

1890-yil 10-dekabr – 1970-yil 26-iyul – Turkistondagi milliy ozodlik harakatining rahbarlaridan biri Ahmad Zakiy Validiy (To‘g‘on) yashagan va faoliyat ko‘rsatgan davr.

1892-yil 24-iyun – Rossiya imperiyasi siyosatiga qarshi Toshkentdagi “Vabo isyoni”.

1892 – 1934-yillar – Buxorodagi jadidchilik harakatining mashhur namoyandasi Abdulqodir Muhitdinov yashagan va faoliyat ko‘rsatgan davr.

XIX asr oxiri – Turkistonda jadidchilik harakati shakllandi.

1893-yil – Mo‘minxo‘ja Vobkandiy va g‘ijduvonlik Domla Fozil Turkistondagi dastlabki jadid maktabini Buxoroda ochishdi. Bu maktab Amir Abdulahadxonning otasi sha‘niga “Muzaffariya” maktabi deb ataldi.

1904–1907-yillar – Samarqand viloyatida Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati va mahalliy amaldorlar zulmiga qarshi Namoz Pirmqulov (Namoz botir) boshchiligidagi dehqonlar isyoni.

1908 –1914-yillar – Buxoro jadidlari tashkil etgan “Tarbiyai atfol” (“Bolalar tarbiyasi”) ma‘rifiy jamiyatining faoliyat davri.

1910-yil – Toshkentda birinchi kinoteatr – “Xiva” ishga tushirildi.

1910 – 1920-yillar – Buxoro amirligida Yosh buxoroliklar partiyasining faoliyati.

1910-yil 11-mart – 1913-yil 12-yanvar – Buxoro jadidlari tomonidan Yangi Buxoro (hozirgi Kogon) shahrida jadidlar gazetasi – “Buxoroyi sharif” nashr etildi.

1912-yil – Toshkent shahrini elektr bilan yoritish boshlandi.

1913-yil 20-avgust – 1915-yil 15-iyun – Turkiston jadidlarining dastlabki jurnali – “Oyina” Samarqandda nashr etilgan bo‘lib, unga Behbudiy muharrirlik qildi.

1913-yil – Toshkent shahrida o‘zbek ziyolilarining “Turon” teatr truppasi tashkil topdi (hozirgi O‘zbek milliy akademik drama teatri).

1914-yil 3-aprel – 1915-yil 26-may – jadidlarning ijtimoiy-siyosiy, adabiy-badiiy “Sadoi Farg‘ona” (“Farg‘ona ovozi”) gazetasi Qo‘qonda nashr qilindi.

1914-yil 4-aprel – 1915-yil 10-aprel – jadidlarning ijtimoiy-siyosiy, adabiy-badiiy “Sadoi Turkiston” (“Turkiston ovozi”) gazetasi Toshkentda nashr qilindi.

1914-yil 15-iyul – 1918-yil 11-noyabr – Birinchi jahon urushi davri.

1914 – 1921-yillar – Xiva xonligida Yosh xivaliklar partiyasining faoliyati davri.

1916-yil 25-iyun – podsho Nikolay II ning “Imperiyadagi rus bo‘lmagan erkak aholini harakatdagi armiya rayonida mudofaa inshootlari va harbiy aloqa yo‘llari qurish uchun olib boriladigan ishlarga, shuningdek, davlat mudofaasi uchun zarur bo‘lgan boshqa har qanday ishlarga jalb qilish haqida” farmoni e‘lon qilindi. Bu farmon “mardikorlikka olish” nomi bilan tarixga kirdi.

1916-yil 3 – 21-iyul – mardikorlikka qarshi Jizzax qo‘zg‘oloni.

1916-yil iyul – O‘rta Osiyoda mardikorlikka qarshi milliy ozodlik qo‘zg‘oloni.

1916-yil 11-iyul – Toshkentda mardikorlikka qarshi xalq qo‘zg‘oloni.

1916-yil 17-iyul – Rossiya imperatori Nikolay II farmoni bilan Turkiston harbiy okrugida harbiy holat joriy qilindi.

1916-yil 29-iyul – Amudaryo bo‘limining Saribiy bo‘lisi aholisi qo‘zg‘oloni. Chimboyda g‘alayon.

1917-yil 28-fevral – Rossiyada Fevral demokratik inqilobi g‘alaba qozondi.

1917-yil 14-mart – Toshkentda “Sho‘roi Islomiya” tashkiloti tuzildi.

1917-yil 5-aprel – Yosh xivaliklarning islohot to‘g‘risidagi manifestiga Xiva xoni Asfandiyorxonning imzo chekishi va Xiva xonligida konstitutsion monarxiyaning o‘rnatilishi. Keyinchalik xon huzurida Majlis tashkil etildi.

1917-yil 7-aprel – Buxoro amiri Sayyid Olimxonning islohotlar joriy etish bo‘yicha manifesti.

1917-yil 16 – 23-aprel – Butunturkiston musulmonlarining I qurultoyi bo‘lib o‘tdi.

1917-yil iyun – “Sho‘roi Ulamo” tashkiloti tuzildi.

1917-yil 10 – 11-sentabr – Butunturkiston musulmonlarining II qurultoyi bo‘ldi.

1917-yil 25-oktabr (7-noyabr) – Petrogradga V.I.Lenin boshchiligidagi bolsheviklar tomonidan Oktabr to‘ntarishi amalga oshirilib, hokimiyat zo‘ravonlik bilan egallandi.

1917-yil 1(14)-noyabr – Toshkentda bolsheviklar tomonidan zo‘ravonlik bilan Sovet hokimiyatining o‘rnatilishi.

1917-yil 6-noyabr – 1983-yil 31-oktabr – davlat va jamoat arbobi, yozuvchi Sharof Rashidovich Rashidov yashagan va faoliyat ko‘rsatgan davr.

1917-yil 15-noyabr – Turkiston Sovetlarining 3-o‘lka syezdida Turkiston o‘lkasi Xalq Komissarlari Soveti (Sovnarkom raisi: F.Kolesov) tuzildi.

1917-yil 26 – 28-noyabr (9 – 11-dekabr) – Qo‘qonda Butunturkiston musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi bo‘lib, unda Turkiston Muxtoriyati hukumati tuzildi.

1918-yil 22-fevral – Turkiston Muxtoriyati hukumati qizil askarlar va dashnoqlar tomonidan tor-mor qilindi. Turkiston Muxtoriyatining tugatilishi.

1918-yil fevral oxiri – Turkiston mintaqasida bosqinchi qizil armiya va sovet rejimiga qarshi istiqlolechilik harakati boshlandi.

1918-yil 20-aprel – 1-may – Turkiston Sovetlarining V syezdi bo‘lib, unda RSFSR tarkibida Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi (TASSR) tuzildi.

1918-yil 21-aprel – Toshkentning yangi shahar qismida Turkiston xalq universiteti ochildi.

1918-yil 12-may – Munavvarqori Abdurashidxonov tashabbusi bilan o‘lkada dastlabki oliy o‘quv yurti – Musulmon xalq dorilfununi ochildi.

1918-yil – Turkiston Sharq instituti tashkil qilindi.

1919-yil 30-mart – 1920-yil 27-yanvar – Turor Risqulov raisligida RKP(b) Turkiston oʻlkasi Musulmonlar byurosi faoliyat koʻrsatdi.

1919-yil 9-aprel – Junaidxon bilan sovet Rossiyasi oʻrtasida Taxta bitimi imzolaniib, Xiva xonligining mustaqilligi tan olindi.

1919-yil 14-avgust – Turkiston ozodligi uchun kurashayotgan istiqloql-chilarga qarshi bolsheviklar tomonidan Turkiston fronti (qoʻmondon – M.V.Frunze) ning tuzilishi.

1919-yil 22-oktabr – 1920-yil 6-mart – Fargʻona vodiysida Madaminbek boshchiligidagi Fargʻona Muvaqqat hukumati tuzildi va faoliyat koʻrsatdi.

1919-yil 4-noyabr – Butunrossiya MIQ va RSFSR XKsning Turkiston ishlari boʻyicha komissiyasi (Turkkomissiya) tashkil qilindi.

1920-yil 2-fevral – qizil armiya qoʻshinlari Xiva shahrini bosib oldi va Xiva xonligi tugatildi.

1920-yil 26-aprel – Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (XXSR) tuzilganligi (hukumat raisi Polvonniyoz Yusupov) eʼlon qilindi.

1920-yil 3-may – 1922-yil dekabr – Fargʻona vodiysi qoʻrboshilarining qurultoyida Shermuhammadbek boshchiligida Turkiston-turk mustaqil islom jumhuriyati, yaʼni Turkiston muvaqqat hukumati tuzildi va faoliyat koʻrsatdi.

1920-yil iyul – RKP(b) MQning Turkiston byurosi (Turkbyuro) tuzildi.

1920-yil 2-sentabr – Turkiston fronti qoʻmondoni M.V.Frunze boshchiligidagi qizil armiya Buxoro shahrini bosib oldi, amir Sayyid Olimxon boshchiligidagi Buxoro amirligi agʻdarildi.

1920-yil 6-oktabr – Buxoro amirining yozgi saroyi Sitorai Mohi Xosada xalq vakillarining I Butunbuxoro qurultoyi boʻldi. Unda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuzilganligi (hukumat raisi – Fayzulla Xoʻjayev) qonuniy tasdiqlandi.

1919 – 1925-yillar – Turkiston jadidlari tomonidan tashkil etilgan “Milliy ittihad” yashirin tashkiloti faoliyat koʻrsatdi.

1921 – 1922 va 1925 – 1929-yillar – Yer-suv islohoti (Turkistonda sovet hokimiyati tomonidan boylarning yerlarini tortib olib, kam yerli va yersiz dehqonlarga taqsimlab berilishi) ning oʻtkazilishi.

1922-yil 30-dekabr – SSSR (Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi) tashkil topdi.

1924-yil oxiri – Markaz tomonidan Oʻrta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish oʻtkazilib, yagona Turkiston mintaqasi sovet respublikalariga parchalab tashlandi.

1925-yil 6 – 12-fevral – Buxoroda boʻlib oʻtgan Oʻzbekiston Qoʻmitasining 1-taʼsis syezdida Oʻzbekiston Kompartiyasi Markaziy Qoʻmitasining masʼul kotiblari qilib Vladimir Ivanov va Akmal Ikromovlar saylandi.

1925-yil 13 – 17-fevral – Buxoroda bo‘lib o‘tgan Umumo‘zbek sovetlarining 1-qurultoyida O‘zbekiston SSR (O‘z SSR) tuzilganligi e‘lon qilindi.

1925-yil fevral – Qoraqalpoq muxtor viloyati tashkil etildi (Qozog‘iston ASSR tarkibida).

1925-yil aprel – O‘zbekiston SSR poytaxti Buxorodan Samarqandga ko‘chirildi.

1925-yil 13-may – SSSR Sovetlari 3-syezding qarori bilan O‘zbekiston SSR SSSR tarkibiga qabul qilindi.

1927-yil 22-yanvar – Samarqandda Oliy pedagogika instituti (hozirgi Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat universiteti) tashkil etildi.

1927-yil mart – O‘zbekiston SSRning birinchi Konstitutsiyasi qabul qilindi.

1927 – 1930-yillar – o‘zbek ayollarini paranjidan chiqarish uchun “Hujum” kampaniyasi o‘tkazildi.

1928-yil 19-noyabr – O‘zbekistonda eski usul maktablari va qorixonalarni tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilindi.

1929-yil 1-dekabr – arab alifbosidan lotin yozuviga o‘tilishi.

1929-yil oxiri – Munavvarqori boshchiligidagi o‘zbek ziyolilari qamoqqa olindi va qatag‘on qilindi.

1930-yil 20-sentabr – O‘zbekiston SSRning poytaxti Samarqanddan Toshkentga ko‘chirildi.

1930 – 1932-yillar – O‘zbekistonda o‘ziga to‘q dehqon xo‘jaliklari “quloq” sifatida tugatilib, qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish amalga oshirildi.

1931-yil – Toshkent qishloq xo‘jalik mashinasozlik zavodi ishga tushdi.

1932-yil 20-mart – Qoraqalpog‘iston ASSRning tashkil etilishi (RSFSR tarkibida).

1932 – 1935-yillar – O‘rta Osiyoda eng yirik Toshkent to‘qimachilik kombinati qurildi.

1936-yil 5-dekabr – Qoraqalpog‘iston ASSR O‘zbekiston SSR tarkibiga kirdi.

1937-yil 12-fevral – O‘zbekiston SSR Sovetlari favqulodda 6-syezdidagi O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasining tasdiqlanishi.

1937-yil 23-mart – Qoraqalpog‘iston ASSR Konstitutsiyasi qabul qilindi.

1937-1938-yillar – mustabid sovet rejimi O‘zbekistonda ommaviy ravishda qatag‘onlar o‘tkazdi. Katta terror davri.

1937-1938-yillar – mustabid tuzum Rossiyaning Uzoq Sharq o‘lkasidan 74500 koreys aholisini O‘zbekistonga majburiy ravishda ko‘chirib olib keldi.

1938-yil 15-yanvar – O‘zbekiston SSR tarkibida Buxoro, Samarqand, Toshkent, Farg‘ona va Xorazm viloyatlari tuzildi.

1938-yil – Teshiktosh gʻoridan neandertal odam suyagi topilgan (arxeologlar A.P.Okladnikov va M.Gerasimov oʻrgangan).

1939-yil 1-avgust – 17-sentabr – Katta Fargʻona kanali hashar yoʻli bilan qazib bitqazildi.

1939-yil 1-sentabr – 1945-yil 2-sentabr – Ikkinchi jahon urushi davri.

1940-yil 9-yanvar – Oʻzbekiston SSR Fan komiteti (OʻzFAN) SSSR Fanlar Akademiyasining Oʻzbekiston filialiga aylantirildi.

1943-yil 4-noyabr – Oʻzbekiston SSR Fanlar Akademiyasi tashkil etildi.

1943-1944-yillar – sovet hokimiyati tomonidan Oʻzbekistonga qrim tatarlari, chechenlar, ingushlar, bolqorlar, pontiya greklari va mesxeti turklari zoʻravonlik bilan koʻchirildi.

1944-yil 5-mart – Bekobodda Oʻzbekiston metallurgiya zavodining birinchi navbati ishga tushirildi.

1947-yil – Toshkent mashinasozlik zavodi qurildi.

1956-yil fevral – I.V.Stalin shaxsiga sigʻinishning qoralanishi va qatagʻon qilingan kishilarni oqlash jarayonining boshlanishi.

1956-yil 5-noyabr – Toshkent televideniyesining tajriba-sinov koʻrsatuvlari boshlandi.

1956-yil – Mirzachoʻlni keng miqyosda oʻzlashtirishning boshlanishi.

1957-yil – Yangiyer shahriga asos solindi.

1958-yil 3-sentabr – Navoiy shahriga asos solindi.

1958-yil – dunyodagi eng yirik sanoat korxonalaridan biri – Navoiy kon-metallurgiya kombinati tashkil topdi.

1959-yil – Oʻzbekiston FA Qoraqalpogʻiston filiali tashkil etildi.

XX asr 60-yillaridan – Orol dengizi quriy boshladi (“Orol fojiasi”). Min-taqada ekologik vaziyat keskinlashdi.

1961-yil – Guliston shahriga asos solindi.

1962-yil – Toshkent yaqinida mustye madaniyatiga oid Obirahmat gʻori topildi.

1969-yil – “Tashavtomash” zavodi bazasida Toshkent traktor zavodi barpo etildi.

1970-yil – Samarqand shahrida Oʻzbekiston FA Arxeologiya instituti (Oʻzbekiston FA Tarix va arxeologiya instituti negizida) tashkil etildi.

1971-yil – Sirdaryo shahriga asos solindi.

1972-yil – Zarafshon shahriga asos solindi.

1972-yil – V.P.Chkalov nomidagi Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi (hozirgi “Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi” davlat ak-siyadorlik jamiyati) tashkil etildi.

1976-yil sentabr – Qoraqalpoq Davlat universiteti tashkil topdi.

1977-yil 6-noyabr – Toshkent metropolitenining birinchi navbati (9 ta bekat) foydalanishga topshirildi.

1978-yil 10 – 16-yanvar – o‘zbekistonlik kosmonavt-uchuvchi Vladimir Jonibekov kosmosga birinchi marta parvoz qildi (u kosmosga jami 5 marta parvoz qildi).

1980-yil 18-avgust – Toshkent metropoliteni birinchi yo‘lining 2-liniyasi (3 ta bekat) foydalanishga topshirildi.

1981-yil – Toshkentda “Xalqlar do‘stligi” (hozirgi “Istiqlol”) saroyi qurildi.

1984-yil – Toshkent metropoliteni ikkinchi yo‘lining 1-liniyasi (5 ta bekat) foydalanishga topshirildi.

1984 – 1989-yillar – O‘zbekistonda “paxta ishi” natijasida o‘n minglab kishilar qatag‘on qilindi.

1985-yil – Toshkentda ikkinchi televizion minora (balandligi 375 metr) qurib bitkazildi.

1989-yil 23-iyun – O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasining birinchi kotibi etib Islom Abdug‘aniyevich Karimov saylandi.

1989-yil 21-oktabr – “O‘zbekiston SSRning Davlat tili haqida” Qonun qabul qilinib, o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berildi.

1989-yil – Toshkent shahriga BMT qarori bilan “Tinchlik elchisi” faxriy unvoni berildi.

1990-yil 24-mart – O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining 12-chaqiriq 1-sessiyasida O‘zbekistonda prezidentlik boshqaruvi ta‘sis etildi va O‘zbekiston Kompartiyasi MQ birinchi kotibi Islom Abdug‘aniyevich Karimov O‘zbekiston SSR Prezidenti etib saylandi.

1990-yil 20-iyun – O‘zbekiston SSR Oliy Soveti 12-chaqiriq 2-sessiyasida “Mustaqillik Deklaratsiyasi” qabul qilindi.

1990-yil 31-oktabr – “O‘zbekistonda mulkchilik to‘g‘risida” Qonun qabul qilindi.

1990-yil 14-dekabr – Qoraqalpog‘iston ASSR Oliy Soveti 4-sessiyasida “O‘zbekiston SSR tarkibida Qoraqalpog‘iston ASSR suvereniteti to‘g‘risida Deklaratsiya” qabul qilindi.

1991-yil 19 – 21-avgust – SSSR hududida Favqulodda holat Davlat Komiteti (GKChP)ning faoliyati.

1991-yil 31-avgust – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 12-chaqiriq navbatdan tashqari 6-sessiyasida O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risida Oliy Kengash bayonoti va “O‘zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligi asoslari to‘g‘risida” Qonun qabul qilindi.

1991-yil 1-sentabr – O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni.

1991-yil 6-sentabr – O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligi tashkil etildi.

1991-yil 7-sentabr – O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki tashkil etildi.

1991-yil 14-sentabr – Toshkentda O‘zbekiston Kommunistik partiyasi-ning so‘nggi favqulodda XXIII syezdi bo‘lib, unda KPSS tarkibidan chiqish va sifat jihatidan yangi siyosiy tashkilot – O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi (O‘zbekiston XDP)ni tuzish haqidagi Bayonot qabul qilindi.

1991-yil 26-sentabr – O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati tuzildi.

1991-yil 1-noyabr – Toshkentda O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi-ning birinchi ta‘sis qurultoyi bo‘lib o‘tdi.

1991-yil 18-noyabr – O‘zbekiston Respublikasi Oliy kengashining 8-sessiyasida “O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi.

1991-yil 21-dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi tashkilotiga a‘zo bo‘ldi.

1991-yil 29-dekabr – O‘zbekistonda mustaqillikka bag‘ishlangan umum-xalq referendumi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylov o‘tkazildi.

1992-yil 8-yanvar – O‘zbekiston Respublikasi Prokuraturasi tuzildi.

1992-yil 14-yanvar – O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etildi.

1992-yil 30-yanvar – O‘zbekiston Respublikasi Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (HXHT) ga qabul qilindi.

1992-yil 10-fevral – O‘zbekiston Respublikasi davlat mulkini boshqarish va xususiylashtirish qo‘mitasi (Davlat mulk qo‘mitasi) tashkil etildi.

1992-yil 21-fevral – O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi tashkil etildi.

1992-yil 2-mart – O‘zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ga qabul qilindi.

1992-yil 24-mart – O‘zbekiston Respublikasi Chegara qo‘shinlari tuzildi.

1992-yil 27-mart – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Ro‘za hayiti va Qurbon hayitining birinchi kunlarini dam olish kuni deb e‘lon qilish to‘g‘risidagi Farmonni imzoladi.

1992-yil 30-aprel – O‘zbekiston Respublikasi Yevropa Tiklanish va taraqqiyot bankiga a‘zo bo‘ldi.

1992-yil 2-3-iyul – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 10-sessiyasida “O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi.

1992-yil 10-avgust – O‘zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona qo‘mitasi tashkil etildi.

1992-yil 8-dekabr – o‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o‘n birinchi sessiyasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi.

1992-yil 10-dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasini tasdiqladi.

1993-yil 2 – 3-sentabr – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 13-sessiyasida “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida” Qonun qabul qilindi (1995-yil may oyidagi Oliy Majlisning 2-sessiyasida mazkur Qonunga o‘zgartirishlar kiritildi).

1993-yil 26-oktabr – YUNESKOning Parijdagi qarorgohida O‘zbekistonni YUNESKOga a‘zolikka qabul qilish marosimi bo‘lib o‘tdi.

1994-yil 23-aprel – Respublika “Ma‘naviyat va ma‘rifat” jamoatchilik markazi tashkil etildi.

1994-yil 5-may – O‘zbekistonning oliy darajadagi unvoni – O‘zbekiston Qahramoni ta‘sis etildi.

1994-yil 1-iyul – O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so‘m muomalaga kiritildi.

1995-yil 18-fevral – Toshkentda “Adolat” O‘zbekiston sotsial-demokratik partiyasining birinchi ta‘sis syezdi bo‘lib o‘tdi. Partiyaning Nizom va dasturi tasdiqlandi.

1995-yil 26-mart – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimovning vakolat muddatini 1997–2000-yillarga uzaytirishga bag‘ishlangan umumxalq referendumini o‘tkazildi.

1995-yil 3-iyun – O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining ta‘sis qurultoyi bo‘lib o‘tdi.

1996-yil 4-mart – O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tashkil etildi.

1996-yil 17-aprel – “Kamolot” jamg‘armasi ta‘sis etildi.

1996-yil 19-iyul – Andijon viloyatining Asaka shahrida yengil avtomobillar ishlab chiqarish bo‘yicha “O‘zDEU avto” O‘zbekiston – Janubiy Koreya qo‘shma korxonasining xalqaro taqdimot marosimi bo‘lib o‘tdi.

1997-yil 18-iyun – Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi tuzildi.

1997-yil 22-avgust – Qorovulbozorda Buxoro neftni qayta ishlash zavodining birinchi navbati ishga tushirildi.

1997-yil 26-avgust – 1-sentabr – Samarqandda xalqaro “Sharq taronalari” I-festivali bo‘lib o‘tdi.

1997-yil 29 – 30-avgust – Toshkentda birinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 9-sessiyasida “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun (yangi tahrirda) va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi.

1998-yil – Prezident I.A.Karimovning “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” nomli risolasi nashr etilib, kitobxonlarga havola etildi.

1999-yil 16-fevral – Toshkent shahrida terroristik qo‘poruvchilik hodisalari sodir etildi.

1999-yil 7-aprel – Toshkent islom universiteti tashkil etildi.

1999-yil 9-may – O‘zbekiston Respublikasida birinchi bor 9-may Xotira va qadrlash kuni sifatida nishonlandi. Toshkentda fashizmga qarshi kurashda jon fido etgan xalqning farzandlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida “Xotira maydoni” barpo etildi.

1999-yil 10-iyun – Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti ta‘sis etildi.

1999-yil 19-20-iyul – Toshkentda Afg‘oniston muammosini hal etish bo‘yicha “6+2” guruhining BMT homiyligidagi uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Unda tarixiy Toshkent deklaratsiyasi qabul qilindi.

1999-yil 1-dekabr – Toshkentda “Kobul – O‘zbek K” O‘zbekiston – Koreya to‘qimachilik qo‘shma korxonasi ishlab chiqarish majmuining rasmiy ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.

2000-yil 9-yanvar – O‘zbekistonda bo‘lib o‘tgan prezidentlik saylovi-da Islom Abdug‘aniyevich Karimov yana 5 yil muddatga ikkinchi marta O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi.

2000-yil 12-may – Toshkentning Yunusobod tumanidagi Bo‘zsuv bo‘yida “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuining tantanali ochilish marosimi bo‘ldi.

2000-yil 25-iyul – Toshkentda “Fidokorlar” milliy-demokratik partiyasining birinchi qurultoyi bo‘lib o‘tdi.

2001-yil 25-aprel – O‘zbekiston Respublikasi “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining ta‘sis qurultoyi bo‘lib o‘tdi. Qurultoyda “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati tashkil topdi.

2001-yil 15-iyun – Xitoyning Shanxay shahrida O‘zbekistonning “Shanxay forumi”ga to‘la huquqli a‘zo bo‘lishi to‘g‘risidagi bayonot imzolandi. “Shanxay forumi” nomi “Shanxay hamkorlik tashkiloti” deb o‘zgartirildi.

2001-yil 3-noyabr – Urganchda “Avesto” kitobining 2700 yillik yubileyiga bag‘ishlab tantanali marosim o‘tkazildi va yodgorlik majmui bunyod etildi.

2002-yil 16-yanvar – Toshkent shahrida Xalqaro Vestminster universitetini tashkil etish to‘g‘risida farmon e‘lon qilindi.

2002-yil 27-yanvar – O‘zbekiston Respublikasida kelgusida ikki palatali parlament tuzish va Prezident Islom Abdug‘aniyevich Karimovning vakolat muddatini 5 yildan 7 yilga – 2007-yilning yanvarigacha uzaytirish masalalari bo‘yicha umumxalq referendumini o‘tkazildi.

2002-yil 31-avgust – Toshkentning “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuidida “Qatog‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi ochildi (2008-yil 31-avgustda muzeyning qo‘shimcha binosi va yangi ekspozitsiyasi ham ochildi).

2002-yil sentabr – Toshkent metrosining “Yunusobod” liniyasidagi 6 ta bekati foydalanishga topshirildi.

2003-yil 15-noyabr – Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati-O‘zbekiston liberal-demokratik partiyasining ta‘sis syezdi bo‘lib o‘tdi. Unda partiya nizomi va dasturi tasdiqlandi.

2005-yil 27-yanvar – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 2 palata: Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senat (yuqori palata)dan iborat qilib shakllantirildi.

2005-yil 12-13-may – Andijon shahrida bir guruh aqidaparast va ekstremistlar tomonidan qurolli ekstremistik xurujlar sodir etildi va tinch aholi o‘qqa tutildi.

2005-yil 28-dekabr – Toshkentning Mustaqillik maydonida “Baxtiyor ona” haykali ochildi.

2006-yil 25-yanvar – Sankt-Peterburg sammitida O‘zbekiston Respublikasi Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyatiga rasman a‘zo bo‘ldi.

2006-yil 25-avgust – Respublika “Ma‘naviyat va ma‘rifat” markazi Respublika Ma‘naviyat targ‘ibot markazi hamda Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markaziga aylantirildi.

2006-yil 27-oktabr – Qarshi shahrining 2700-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosim bo‘ldi.

2007-yil – Islom konferensiyasi tashkilotining Ta‘lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha muassasasi – ISESCO (AYSESKO) tomonidan Toshkent shahri Tripoli (Liviya), Fes (Marokash), Dakar (Senegal) shaharlari qatorida Islom madaniyatining 2007-yildagi poytaxti deb e‘lon qilindi.

2007-yil 24-avgust – O‘zbekistonning janubiy mintaqasini bir-biriga bog‘lovchi Toshguzar – Boysun – Qumqo‘rg‘on temir yo‘li (uzunligi 223 km) foydalanishga topshirildi. Bu temir yo‘l 33 oy mobaynida qurib bitkazildi.

2007-yil 25-avgust – Samarqand shahrining 2750 yillik yubileyiga bag‘ishlangan tantanali marosim o‘tkazildi.

2007-yil 7-sentabr – Marg‘ilon shahrining 2000 yillik yubileyi munosabati bilan tantanali marosim o‘tkazildi.

2007-yil 23-dekabr – O‘zbekistonda bo‘lib o‘tgan prezidentlik saylovida Islom Abdug‘aniyevich Karimov yana 7 yil muddatga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi.

2008-yil 1-yanvar – O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosi bekor qilindi.

2008-yil – Prezident I.A.Karimovning “Yuksak ma‘naviyat-yengilmas kuch” nomli risolasi nashr etilib, kitobxonlarga havola etildi.

2008-yil sentabr – AQSHda ipotekali kreditlash tizimida ro‘y bergan tanglikdan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi boshlandi.

2008-yil 2-dekabr – Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etildi.

2009-yil 28-avgust – Toshkent shahri markazida “O‘zbekiston” xalqaro anjumanlar saroyi ochildi.

2009-yil 1-sentabr – O‘zbekiston Respublikasi poytaxti Toshkent shahri-ning 2200 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosim o‘tkazildi.

2009-yil – nogironlar o‘rtasida o‘tkazilgan futbol bo‘yicha jahon chempionatida hamyurtlarimiz faxrli birinchi o‘rinni egalladi.

2009-yil 27-dekabr – 2010-yil 10-yanvar – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga saylovlar bo‘lib, 150 deputat saylandi.

2010-yil iyun-iyul – Janubiy Afrika Respublikasida futbol bo‘yicha o‘tkazilgan XIX jahon chempionatida hamyurtlarimiz Ravshan Ermatov va Rafael Ilyasovlar chempionatning haqiqiy hakamlari bo‘ldilar.

2010-yil 20-21-sentabr – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov BMT bosh kotibi Pan Gi Munning taklifiga binoan Nyu-York shahrida BMT bosh assambleyasining Ming yillik rivojlanish maqsadlariga bag‘ishlangan oliy darajadagi yalpi majlisida ishtrok etdi va nutq so‘zladi.

2010-yil 12-noyabr – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatning qo‘shma majlisida davlat va jamiyat rivojining prinsipial jihatdan yangi bosqichida mamlakatni modernizatsiya qilish bo‘yicha boshlangan keng ko‘lamli ishlarni yanada izchil davom ettirish dasturi hisoblangan Prezident I.A.Karimovning “Mamlakatda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” mavzuidagi nutqi tinglandi.

2010-yil – O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda band bo‘lganlar soni 8402.3 ming kishini tashkil etdi. Ushbu sohada 2002-yilda 369,3 ming ishchi o‘rni bo‘lgan bo‘lsa, 2010-yilda 950 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratildi.

2010-yil – fermer xo‘jaliklar soni 80 mingdan oshdi (1993-yilda ularning soni 7630 ta edi).

2011-yil 25-mart – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining beshinchi yalpi majlisida “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o‘zgartish va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida (78, 80, 96 va 98-moddalari)” gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni ko‘rib chiqildi. Unga muvofiq Bosh vazir nomzodi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida eng ko‘p deputatlik o‘rinlarini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi eng ko‘p deputatlik o‘rinlarini qo‘lga kiritgan bir necha siyosiy partiyalar tomonidan ko‘rsatiladigan bo‘ldi.

2011-yil – “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili”da bir millionga yaqin yangi ish o‘rinlari yaratildi. Ularning 65 foizdan ko‘prog‘i qishloq joylarida tashkil etildi.

2011-yil 26-noyabr – Toshkentda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan O‘zbekistonda ona va bola salomatligini muhofaza qilishning milliy modeli “Sog‘lom ona – sog‘lom bola” mavzuidagi xalqaro simpozium bo‘lib o‘tdi. Unda jahonning 40 ga yaqin mamlakatlaridan soha rahbarlari, olimlar va mutaxassislar ishtirok etdi.

2011-yil – Prezident I.A.Karimovning “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” nomli asari nashr etilib kitobxonlarga havola etildi.

2012-yil – Mamlakatda “Mustahkam oila yili” deb e‘lon qilindi.

2012-yil 17-fevral – Prezident I.A.Karimov tashabbusi bilan Toshkent shahrida “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzuida xalqaro konferensiya ochildi. Unda BMT, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki vakillari, dunyoning 48 davlatining ta‘lim tizimi rahbarlari, olimlar hamda mutaxassislar ishtirok etdi.

2012-yil 23 – 30-aprel – Qozog‘istonning Ostona shahrida kimyo fanidan bo‘lib o‘tgan 46-xalqaro Mendeleev olimpiadasida O‘zbekiston akademik litseylarining 9 nafar o‘quvchilaridan 5 tasi 1 ta oltin, 2 ta kumush va 2 ta bronza medallarini qo‘lga kiritdilar.

2012-yil 24-iyul – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy makolali ilmiy va ilmiy – pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o‘tkazish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni e‘lon qilindi.

2012-yil 18-iyul – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni e‘lon qilindi.

2012-yil 14-sentabr – Prezident I.A.Karimov tashabbusi bilan Toshkent shahrida “O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va ahamiyati” mavzuida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi.

2012-yil 14-sentabr – Prezident I.A.Karimov tashabbusi bilan Toshkent shahrida “O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va ahamiyati” mavzuida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi.

2012-yil davomida – mingga yaqin umumta‘lim maktablari zamonaviy kompyuter xonalari, 1150 dan ziyod kasb-hunar kollejlari o‘quv ustaxonalari jihozlari va xomashyo mahsulotlari bilan ta‘minlandi. 168 ta bolalar sporti obyekti foydalanishga topshirildi.

2013-yil – Mamlakatda “Obod turmush yili” deb e‘lon qilindi.

2013-yil 16-17-aprel – Prezident I.A.Karimov tashabbusi bilan mamlakatda “Zamonaviy uy-joy qurilishi – qishloq joylarini kompleks rivojlantirish va qiyofasini o‘zgartirish hamda aholi hayotining sifatini yaxshilash omili” mavzuida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi.

2014-yil – Mamlakatda “Sog‘lom bola yili” deb e‘lon qilindi.

2014-yil 15-16-may – Samarqand shahrida “O‘rta asrlar Sharq allomalari va muta‘fakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidadagi roli va ahamiyati” mavzusida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi.

2015-yil – Mamlakatda “Keksalarni e‘zozlash yili” deb e‘lon qilindi.

GLOSSARIY

“**Avesto**” – oʻrta fors tilidan “Apastak” yoki “Asos” deb tarjima qilinadi. Oʻrta Osiyoning ajralmas qismi hisoblangan Turonzamin hududlarida shakllangan qadimiy din – zardushtiylikning muqaddas kitobidir. Unda oʻzbek, tojik, turkman, ozarbayjon, fors, afgʻon va boshqa xalqlarning ibtidoiy va qadimiy axloqiy tasavvurlari, koinot va yerdagi dunyoning yaratilishi bilan bogʻliq tushunchalar, afsona va rivoyatlar, falsafiy-axloqiy qarashlar oʻz ifodasini topgan.

Allof – un va gʻalla mahsulotlari bilan savdo qiluvchi savdogar.

Alufa (Ulufa) (*ar.* – xashak, yem) – 1) Oʻrta Osiyoda harbiy qoʻshin va lashkar ixtiyoridagi ot-ulov uchun aholidan toʻplanadigan natural soliq. Jangchilarga beriladigan maosh ham ulufa deb atalgan. Ulufa atamasi tarixiy manbalarda XII asrdan maʼlum; 2) XVIII asrda Buxoro xonligida gʻoziylarni natura (bugʻdoy va b.) hamda pul bilan taqdirlash.

Alternativ saylov (*lot.* alternare – ikkitasidan bittasi) – muqobil saylov. Bir-biriga qarama-qarshi boʻlgan ikkita nomzoddan birini tanlash.

Alternativlik hamma sohalarda – siyosatda, iqtisodiyotda, ijtimoiy hayotda va boshqa tarmoqlarda uchraydi.

Bir-birini inkor qiluvchi ikki imkoniyatdan birining tanlanishi, ayniqsa, siyosatda yaqqol koʻrinadi. Oʻzbekiston izchil demokratik qoidalarga sodiq davlat sifatida oʻz siyosiy hayotida barcha saylovlar alternativ (muqobillik) asosida oʻtish tarafdori ekanini namoyish qilmoqda. Bu demokratik qoida birinchi marotaba, keng miqyosda 1991-yil 29-dekabrda buyon Oʻzbekiston Respublikasining Prezidentini va Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga deputatlarni saylash jarayonlarida amalga oshirilib kelinmoqda.

Amin (*ar.* – ishonchli, halol) – 1) Muhammadalayhissalomga paygʻambarlik vahiy kelmasidan avval u zotning nihoyatda halol, rostgoʻy boʻlganliklari uchun xalq tomonidan berilgan laqab; 2) Amir Temur va Temuriylar davrida asosan moliya va qishloq xoʻjaligi ishlarini boshqarish bilan shugʻullanuvchi amaldor boʻlib, davlat devoni tomonidan tayinlangan; 3) Buxoro amirligida aminlar amloqdorlarga, Turkiston General gubernatorligida esa, boʻlis (volost) boshligʻiga boʻysungan. Aminning asosiy vazifasi aholidan oʻlpon va

soliq yig'ish, aholi ustidan nazorat qilish, suv taqsimlash bo'lgan. Bozorlarda mahsulot sotuvchilardan bozor haqi yig'uvchi amaldor ham amin deyilgan.

Amir (*ar.* – amir, ya'ni hokim, amir) – VII asrgacha arablarda qabila boshlig'i va harbiy boshliqlar. Arab xalifaligi tashkil topgach, xalifalikka bo'ysundirilgan mamlakatlarni boshqarish uchun tayinlangan hokim, qo'shin qo'mondoni va yirik lashkarboshilar amir deb atala boshlangan. Oltin O'rda davlatida, keyin O'rta Osiyo va Eronda mo'g'ul va turk qabilalari birlashmasi – ulus boshlig'ining unvoni ham amir deb yuritilgan. Sohibqiron Amir Temurning unvoni ham amir bo'lib, bu tushuncha hukmdor ma'nosida ishlatilgan. Buxoro xonligida 1753–1920-yillarda hukmronlik qilgan Mang'itlar sulolasining vakillari Chingiziylardan bo'lmaganliklari sababli xon emas, “amir” unvoni bilan yuritilgan.

Amir al-mo'minin (*ar.* – mo'minlar amiri) – ilk Islom davridagi xalifalarning unvoni. O'sha davrda diniy na dunyoviy hokimiyat xalifalarning qo'llarida jamlangan. Bu vazifalarni bajaruvchilar “xalifa”, “imom”, “amir” unvonlari bilan birga, har uchala mazmuni ifodalovchi amir al-mo'minin unvoni bilan atashgan.

Amiri lashkar – Temuriylar, Shayboniylar va xonliklar davrida keng tarqalgan eng yuqori harbiy unvon, bosh qo'mondon. Masalan, Qo'qon xonligida amiri lashkar lavozimi yirik harbiy harakatlar davrida mavjud bo'lib, unga odatda mingboshi, otaliq yohud shahzodalar belgilangan.

Amiri shikor – bu lavozim egasi xon va sultonlarning ovlarini uyushtirib turishgan. Shikorgoh atrofidagi qishloqlar aholisining o'z ot-ulovi, qurol-aslahasi bilan kelib xon va sultonlarning ov o'tkazishida ularga yordam berishi, ular qo'nib qolganlarida qo'noq hamda oziq-ovqat bilan ta'minlash ishlari ham amiri shikorning vazifasi hisoblanar edi.

Amir ul-umaro (*ar.* – amirlar amiri, oliy amir) – o'rta asrlarda Movarounnahrda keng tarqalgan eng yuqori harbiy unvonli amaldor. U oliy bosh qo'mondon hisoblanib, butun harbiy ishlar uning qo'lida bo'lgan. Chig'atoy ulusi davrida hukmdorning barcha bosh ijro idoralari (devonlar) ham amir ul-umaro qo'lida bo'lgan.

Animizm – ruhga sig'inish.

Aryanam veja – (Aryonam vayjo) – “Avesto” kitobiga ko'ra Zardushtiylikning muqaddas olovi – “Azarxo'rro” birinchi marta yoqilgan yurt, Zardushtning vatani. “Avesto”da Axura Mazda tomonidan yaratilgan o'lkalar orasida birinchi bo'lib, Aryanam veja keltiriladi va bu yerda yilning to'qqiz oyida qish bo'lishi ta'kidlanadi. “Avesto” geografiyasi bilan shug'ullangan ba'zi tadqiqotchilar Aryanam vejani hozirgi Amudaryoning quyi havzalari

(Xorazm)ga to'g'ri keladi deb hisoblasalar, boshqalari O'rta Osiyoning shimoliy hududlari deb tushunadilar.

Ark – davlatchilikning ilk bosqichlaridan boshlab, to so'nggi o'rta asrlargacha bo'lgan davrlarda O'rta Osiyo hududlarida vujudga kelgan davlat hukmdorlarining qarorgohi. Tarixiy yozma manbalarda kuxandiz, diz, koh, qasr, qal'a, hisor, Arki a'lo, o'rda deb ham yuritiladi. Arkda, asosan, hukumat idoralari, amaldorlarning uylari, devonxona, tanga zarb qilinadigan zarbxonalar joylashgan. Odatda ichki shahar – ark ham mudofaa devorlari bilan o'rab olingan.

Arkon (*ar.* – ustun.) – islomning beshta asosiy talabi: iymon, namoz, ro'za, zakot, haj.

Arlot, arlat, allot – o'zbek urug'laridan biri. Manbalarga ko'ra, Chingizxon tomonidan Chig'atoy ulusini boshqarish uchun ajratilgan 4 ming kishilik qo'shin boshliqlaridan biri ham arlot urug'idan bo'lgan. Arlotlar Amudaryodan janubda, Shimoliy Afg'oniston hududlarida o'rtnashganlar. Keyingi asrlarda hozirgi O'zbekistonning janubiy viloyatlari, shuningdek Xorazmga ko'chib o'tganlar. Buxoro viloyatidagi Olot shahrining nomi ham "arlot" so'zining fonetik o'zgarganidir.

Arna (*qad. er.* – suv, sanskritcha *arnas* – suv oqimi) – O'rta Osiyoda keng tarqalgan tarixiy termin. Forishda bosh kanalni, Zomin, Jizzax, G'allaorol tumanlarida kichik jarni, Qozog'istonda daryo o'zanini, Zarafshon etaklarida quruq o'zanni, boshqa joylarda daryo irmoqlarini arna deb atashadi.

Arxaizm (*yun.* – qadimgi) – biron-bir narsa-hukm, yozuv, ibora yoki ijtimoiy hodisaning qadimgi davrga oidligini bildiruvchi tushuncha.

Arxantrop (*yun.* – qadimgi odam) ibtidoiy odamning dastlabki vakillari. Arxantropilar ilk paleolit davrida yashaganlar. (Avstralopitek, zinjanthrop, Pitekantrop, Sinantrop, Fergantrop).

Arxeologik madaniyat – o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan muayyan davrga va hududga doir arxeologik yodgorliklar birligi. Ayrim yoki bir qancha belgilarga, sopol buyumlarining shakli, naqishni, marhumlarni ko'mish tartibi, mehnat qurollari, uy-ro'zg'or anjomlari va boshqalarga ko'ra belgilanadi. Odatda, yodgorlik qayerdan topilsa, shu joyning nomi bilan yuritiladi (masalan: Qovunchi madaniyati, Zamonbobo madaniyati).

Arxeologiya (*yun.* – qadimgi fan) – insoniyat o'tmish tarixini moddiy madaniyat yodgorliklari mehnat qurollari, asbob-anjomlari, qurol-yarog'lari, turar joylari, qurilishlari, qabrlari)ni qazishmalar yordamida o'rganuvchi fan. Bu so'z melodiy V-VI asrlarda grek adabiyotida paydo bo'lib, "Archios" – ya'ni "qadimiy" va "Logos" – ya'ni "bilish" so'zlaridan tarkib topgan. O'rta asrlarda "arxeologiya" termini o'rniga "osori-atiq" yoki lotincha "antjqui-

ors” soʻzi ishlatila boshlagan. XIII asrga kelib yana “arxeologiya” terminining oʻzi tiklangan.

“**Afrosiyob**” – Qadimgi Sugʻd poytaxti. Qadimgi Samarqand shahri hozirgi Samarqand shimolrogʻida joylashgan. Burungi shoirlar uni “yer yuzining nuri” deb atashgan.

Arshakiylar – hozirgi Turkmanistonning janubi va Eron hududlarida mil. avv. 250-yildan milodiy 11-yilga qadar hukmronlik qilgan Parfiya davlatidagi sulola. Sulolaga dax qabilasining boshligʻi Arshak asos solganligi uchun shunday nomlangan. Arshakiylar davlatining ilk poytaxti Ashxabod yaqinidagi Niso shahri boʻlgan. Keyinchalik u Erondagi Ktesifonga koʻchirilgan. Parfiya davlati Mitridat II (123 – 87) davrida juda kuchayib, Sharqning qudratli davlatiga aylanadi. Salavqiylar qoʻshini tor-mor etilib, Eron va Mesopotamiya hududlari podsholikka qoʻshib olinadi.

Axriman – zardushtiylik dinining zulmat, ochlik, oʻlim va barcha yovuzliklar xudosi.

Axura Mazda – zardushtiylik dinining bosh tangrisi. Ezguliklar xudosi.

Bantak – qul.

Barzikor – qoʻshchi. ziroatkor, qishloq mehnatkash aholisi.

Barid – kirim.

Baqtriya – tarixiy-geografik hudud. Qadimgi Baqtriyaga hozirgi Janubiy Oʻzbekiston (Surxondaryo), Janubiy-Gʻarbiy Tojikiston va Shimoliy Afgʻoniston yerlari kirgan, Baqtriya eroncha “boxtar” soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, “quyosh chiqadigan oʻlka” demakdir. Mazkur hudud qadimgi yunon muarrixlari asarlarida Baqtriana, Baqtriya deb atalgan. Ilk oʻrta asrlar davriga kelib, qadimgi Baqtriya yerlarida turkiy qabila – toharlar keng yoyilishi munosabati bilan Tohariston deb yuritilgan.

Baqtriya yozuvi – mil.avv. IV asr oxirigacha qadimgi Baqtriya hududlarida oromiy yozuvi ishlatib kelingan, keyin Baqtriyada mahkama tili va yozuvi yunoncha boʻlgan. Soʻng mil.avv. III-II asrlar chegarasida oromiy va qadimgi yunon alifbosiga asoslani b. Baqtriya yozuvi ishlab chiqiladi. Bizgacha yuzdan ortiq baqtriya yozuvi namunalari va soʻzlari yetib kelgan. Baqtriya yozuvi topilmalari, asosan mil.avv. I asr va milodiy I asrlarga taalluqli boʻlib baqtriya tili va yozuvi yaxshi oʻrganilmagan.

Baqqol (*ar.* – oziq-ovqat mollari, sabzavot sotuvchi) – oʻrta asrlarda bozor, gular va mahallalardagi doʻkonchalarda mayda-chuyda roʻzgʻor mollari, kundalik yegulik oziq-ovqat mahsulotlarini sotuvchi mayda savdogar.

Begor (*f.* – majburiy va bepul xizmat) – oʻrta asrlarda Oʻrta Osiyoda mavjud boʻlgan majburiy ishlab berish majburiyati boʻlib, xalqning xon va ma-

halliy hukmdorlar tarafidan belgilangan turli qurilishlarida 12 kunlik, tekinga ishlab berish majburiyati (hashar). Begor O'rta Osiyo va Eronda VIII asrdan, Hindiston va Afg'onistonda esa X asrdan mavjud. Begor majburiyati XIII-XIX asrlarda ham bo'lgan.

Beklarbegi – yuqori ma'muriy unvon va lavozim, viloyat va katta shahar hokimlari. Bu lavozim O'rta Osiyo, Kichik Osiyo va Kavkazorti turkiy xalqlarida XIX asr oxirigacha saqlangan. Beklarbегining asosiy vazifasi soliq va majburiyatlarni o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash, hukmdor farmonlarini amalga oshirish edi. Beklarbegi qo'l ostidagi viloyat (beklarbegilik)larda o'ziga bo'ysinuvchi alohida vazir, shayxulislom, sadr kabi mansabdorlarga ega bo'lgan.

Beruniy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti – fan va texnika sohasidagi mukofot. Ayrim olim yoki olimlar guruhiga ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shganligi, yuksak amaliy ahamiyatga molik bo'lgan ilm-fanning turli sohalarida erishgan muvaffaqiyatlar va ixtirolar uchun beriladi. Dastlab O'zSSR Davlat mukofoti sifatida 1967-yil 6-sentabrda ta'sis etilgan. 1991-yil 5-martdan O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti. O'zR Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 13-fevraldagi qarori bilan ta'sis qaroriga o'zgartirishlar kiritilgan. Mukofot O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan har 3 yilda Mustaqillik bayrami arafasida beriladi.

Bibliya (*yun.* – kitoblar) – yahudiylik va xristianlikda muqaddas hisoblangan diniy kitoblar va risolalar majmui. Bibliya ikki qismga – Qadimgi Ahd va Yangi Ahdga bo'linadi. Qadimgi ahd yahudiylikda ham, xristianlikda ham muqaddas sanalgan va eng qadimgi asrlarda yaratilgan diniy adabiyotlardan, Yangi ahd esa, faqat xristianlar muqaddas deb hisoblaydigan diniy asarlardan iborat.

Biy (Bek) – urug', qabila oqsoqoli.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (*ing.* United Nation Organization, UNO, UN) – davlatlar va xalqlar orasida hamkorlikni rivojlantirish hamda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha davlatlarning xalqaro uyushmasi 1945-yilda tuzilgan.

Bihistun bitiklari – Shimoliy Eronda. Kirmonshoh shahri yaqinida, tog' oralig'idan o'tgan qadimgi savdo yo'li yoqasidagi qoyaga ahamoniylar hukmdori Doro I (522 – 486) ning toshga qadimgi fors, elam va akkad tillarida yozdirgan zafarnomasi. Unda qadimgi Sharq va O'rta Osiyoning qadimgi xalqlari (xorazmlıklar, baqtriyaliklar, marg'iyonalıklar, saklar) haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Bozor iqtisodiyoti – ko'pchilik xalqlarga manzur bo'lgan va ular kelajagini ta'minlovchi iqtisodiyot hisoblanadi. U hozirgi davrga xos umuminsoniy iqtisodiyotdir.

Bozor iqtisodiyoti iqtisodiy faoliyatda erkinlikka, xo'jalik yuritishda oqionalik tamoyillariga asoslangan demokratik iqtisodiyotdir. Bozor iqtisodiyotining tamoyillari, qonun-qoidalari umumiy, uning yo'llari har xil. Mustaqillikning dastlabki yillarida bozor iqtisodiyotiga o'tishda O'zbekiston oldida ikki strategik vazifa mavjud edi. Biri – mustaqillik uchun iqtisodiy poydevor yaratish. Ikkinchisi – bozor iqtisodiyotiga o'tish. Iqtisodiy mustaqillikka faqat bozor mexanizmi orqali erishiladi. Uning O'zbekistonda shakllanishi bozor iqtisodiyotining umumiyligini e'tirof etgan holda mamlakatning milliy xususiyatlarini hisobga olganligi bilan bog'liq.

O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tishdagi o'ziga xos yo'li Prezident Islom Karimov ishlab chiqib, olg'a surgan besh tamoyilda ifodalab berildi va bu iqtisodiy tafakkur xazinasiga katta hissa bo'lib qo'shildi.

Buxoroi sharif (Sharofatli Buxoro) – qadimgi Buxoroning keng tarqalgan nomlaridan biri. O'rta asrlarda jahondagi 7 shahar: Makka, Madina, Quddus, Buxoro, Bag'dod, Damashq, Mozori Sharifga diniy markaz sifatida shuhrat qozonganligi uchun "Sharif" unvoni berilgan. Buxoro islom dini, musulmon axloqi, madaniyati va huquqshunosligi bo'yicha sharqdagi eng kuchli markazlardan biriga aylanishi tufayli unga IX asr boshlaridayoq "Qubbat ul-islom" – "Islom dinining gumbazi" degan sifat ham berilgan.

Buxoro xalq sovet respublikasi (BXSR) – Buxoro amirligida amir hokimiyati ag'darilgach, 1920-yil 2-sentabrda bolsheviklar andozasida tashkil etilgan Respublika. 1921-yil sentabr oyida BXSR Konstitutsiyasi qabul qilindi. BXSRda keng ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlar amalga oshirila boshlandi. Lekin bu islohotlar mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyatdan kelib chiqib emas, balki Markaz-bolsheviklari andozasi va ko'rsatmasi asosida ko'r-korona amalga oshirilgani bois, aksariyat hollarda teskari natijalarni berdi. BXSR 1924-25-yillarda Turkistonda o'tkazilgan ma'muriy-hududiy davlat chegaralanishi munosabati bilan tugatilib, yangi tashkil etilgan O'zbekiston Sovet sotsialistik Respublikasi tarkibiga kiritildi.

Buxoro xonligi – Temuriylar davlatining inqirozidan boshlab, Vatanimiz tarixining Xonliklar davri boshlandi. Buxoro xonligi rasman 1510-yildan 1920-yilgacha mavjud bo'ldi. Buxoro xonligida uchta sulola: Shayboniylar sulolasi (1510 – 1601), Ashtarxoniylar sulolasi (1601 – 1753) va Mang'itlar sulolasi (1753 – 1920) hukmronlik qildi. Shayboniylar va Ashtarxoniylar sulolasidan chiqqan hukmdorlar nasl-nasabi jihatidan Chingizxon (1151 – 1227)ning uzoq avlodlari hisoblanardilar. Shuning uchun ham ular "xon" unvoni bilan atalganlar.

Vag'n, fat, bat – "Avesto"da ibodatxona nomi. X-XI asrlardagi ko'pgina tarixchilarning asarlarida So'g'ddagi qishloqlar nomida "fag'n" ("bag'n",

“vag‘n”) qo‘shimchasi borligi kuzatiladi. Ibodatxona rahbari (kohini) – “vag‘npat” deb atalgan.

Vadoriy – o‘rta asrlarda Samarqand yaqinidagi Vad qishlog‘ida to‘qilgan pishiq, sariq rangdagi mashhur mato. Vadoriy qimmatbaho va ko‘rkam bo‘lganligi sababli undan tikilgan kiyimlarni Xuroson noiblari, oliy martabali vazirlar va qozilar kiyib yurishgan.

Vazir (*ar.* – yuk ko‘taruvchi) – o‘rta asrlarda Yaqin Sharq va O‘rta Sharq davlatlarida, shu jumladan O‘rta Osiyo davlatlarida hukumat idorasi yoki kengashi (*devon*) boshlig‘i. Arab xalifaligida birinchi bo‘lib vazir lavozimini xalifa al Mansur (754–775) joriy etgan. Somoniy davrida 10 ta *devon* bo‘lib, ularning har birini maxsus vazirlar boshqargan. Amir Temur va temuriylar davrida ham saltanatning markaziy ma‘muriyatini bosh vazir – *devonbegi* boshliq yettita vazirdan iborat *arkoni* davlat boshqargan.

Sovetlar davrida xo‘jalik yoki boshqaruvning alohida bir sohasiga rahbarlik qilgan amaldorlarni komissar, ministr (*komissarlik*, *ministrluk*) deb atashgan. Bu atamalar O‘zbekistonda ham mustaqillik yillarigacha qo‘llanilib kelinib, mustaqillikdan so‘ng vazir, vazirlik atamalari joriy etildi.

Vazir – Xorazm vohasining o‘rta asr shahar-qal‘alaridan biri. Shayboniy-lardan Mustafaxon tomonidan XV asr o‘rtalarida asos solingan, Ko‘hna Urganchdan 60 km masofada joylashgan. Shayboniy ko‘chmanchi o‘zbeklarining Xorazmdagi mulki markazi bo‘lgan. XVI asr boshlarida Xorazmni Eron qizil-boshlaridan ozod qilish uchun kurashning markaziga aylangan va shu asrda Xorazmning eng katta shaharlaridan biri bo‘lgan. Buxoro shayboniylari Xorazmga yurish qilganlarida shahar bir necha marotaba talangan (1537, 1593 yy). Abulg‘ozi Bahodirxon (1643–1663) xonlik markazini yangi Urganchga o‘tkazib, Vazir aholisini ham ko‘chirib keltiradi. Anushaxon davrida, taxminan 1681-yilga kelib, Vazir shahri kimsasiz huvillab qoladi.

Vazirlar Mahkamasi – O‘zbekiston Respublikasi hukumatining nomi. Vazirlar Mahkamasi davlat boshqaruv idoralariga va o‘zi tashkil qilgan qo‘mitalarga rahbarlik qiladi hamda, ularning hamjihatlik bilan faoliyat yuritishini, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan qonunlarning ijrosini ta‘minlaydi.

Vaysa – “Avesto” da biron-bir urug‘ xizmatkori, huquqi chegaralangan urug‘ a‘zosiga nisbatan ishlatilgan tushuncha.

Vag‘nze – ibodatxona yer va mulklari.

“**Vis**” – qabila jamoasi, katta qishloq degani.

“**Vispati**” – oliy kengash boshlig‘i, qabila oqsoqoli, katta qishloq boshlig‘i.

Dinor – bir misqol (4.8 gr.) og‘irlikda zarb etilgan oltin yoki kumush tanga.

Dorug‘a – harbiy ma‘mur.

Jadidchilik (ar. “jadid” – yangi) – yangilanish, yangi zamonaviy maktab, matbaa, milliy taraqqiyot usullari, yo‘llari tarafdorlarining umumiy nomi. Jadidchilik XIX asr oxiri va XX asrning birinchi choragida turkiy musulmon o‘lkalarida (Qrim, Kavkaz, Volgabo‘yi-Bulg‘or va Janubiy Ural xavzasi, Turkiston) shakllanib kelayotgan milliy burjuaziya muhitida vujudga kelgan.

Turkistonda bu harakatga Mahmudxo‘ja Behbudiy va Munavvarqori Abdurashidxonovlar, Buxoroda jadidchilik harakatiga Abdurauf Fitrat va Usmonxo‘jayevlar, Xiva jadidlariga esa Polvonniyoz xoji Yusupov va Boboxon Salimovlar yetakchilik qilganlar.

“Joytun madaniyati” – Ashhabotdan 40 km lar chamasi shimoli-g‘arbda joylashgan, turkmanlar “Chaqmoqli” deb atagan joy. Chaqmoqtoshlar sochilib yotgan joy keng taqir joy bo‘lib, unda bahorgi yomg‘irdan so‘ng ko‘lmak suvi to‘plangan. Oydin kechada ko‘lmak suvi qop-qora bo‘lib ko‘ringani uchun turkman cho‘ponlari bu joyni “Joyi tun”, ya‘ni qorong‘i joy deb nomlaganlar. Bu yerdan neolit jamoalarining qarorgohlari topilgan.

Juz‘ya – islom diniga o‘tmaganlardan olinadigan jonboshi solig‘i.

Joriya – cho‘ri.

Juybon – suv taqsimlovchi mirob.

Zakot – chorvadan olinadigan soliq; to‘plangan boylikdan daromad solig‘i.

“Zinjantrop” – Sharqiy Afrikaning Olduviy daryosidan topilgan qadimiy odam suyaklari. Ular 1,5-2 million yil oldin yashagan deb taxmin qilingan.

Ilmi aruz – poetika.

Ilm hay‘at – astronomiya.

“Imanapati” – “Avesto”da aytilishicha, katta oila boshlig‘i.

Imana – katta oila jamoasi demakdir.

Investitsiya (nem. investition – kiyintirmoq, yasantirmoq) – mablag‘ni, ma‘lum boylikni, qo‘shimcha daromad olish maqsadida ishlab chiqarish yoki boshqa sohaga joylashtirish, mablag‘ sarflash. Investitsiya birona ishga mablag‘ qo‘yishni, sarflashni bildiradi. Investitsiya qilishdan maqsad foyda ko‘rishdir.

Ixshid – ilk o‘rta asr viloyat hokimi, xon yoki amir avlodlari.

Iqto‘, iqta‘ – yirik mansabdorga hadya etilgan yer va mulk.

Kadivar – ilk o‘rta asrlarda yirik yer egalari qaram bo‘lgan ziroatkor qishloq aholisi; chorikor.

Kalavachi – ip yigiruvchi.

Kalon – XIII asrdagi yer solig‘i.

“Kaltaminor madaniyati” – Xorazm yerlarida, Amudaryoning quyi havzasida Jonbosqal’ a nomi bilan ma’lum bo’lgan, mil.avv. IV–III ming yillikda yashagan ovchilar va baliqchilar jamoasi madaniyati.

Kazovarz – ilk o’rta asrlardagi ozod qo’shchi, ziroatkor.

Korikor – xizmatkor.

Konstitutsiya – davlatning bosh qomusi.

Ko’ragon – mo’g’ulchada “kuyov” ma’nosida. Amir Temur va Mirzo Ulug’beklar mo’g’ul xonlari avlodlariga uylanganliklari sababli ular nomiga qo’shib ishlatilgan nom.

Lavh – yozuv taxtasi, yozuv kursichasi.

Lahm – yer osti yo’li.

Madrasa – oliy diniy ilmgoh.

Massagetlar – Kaspiy dengizining sharqiy sohili, Orol dengizi atroflari, Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimida mil.avv. VIII–IV asrlarda yashagan ko’chmanchi qabilalarning yunon adabiyotlarida uchraydigan umumiy nomi.

Matriarxat – ona urug’i davri. Urug’chilik tuzumining birinchi bosqichi. Matriarxat davri paleolit davrining so’nggi bosqichida paydo bo’lib, u neolit va eneolit davrigacha davom etgan.

Mezolit (*yun.* mesos – o’rta litos – tosh) – o’rta tosh davri. Muzliklarning chekinishidan mezolit davri boshlanib, u 12–7 ming yilliklarni o’z ichiga oladi. Mezolit davriga kelib, yer iqlimi isiy boshlagan. Bu davr yodgorliklari Respublikamizda yuzdan ortiq bo’lib, ulardan eng yaxshi o’rganilganlari Obishir (Farg’ona), qo’shilish (Toshkent viloyati), Machay va Zarautsoy (Surxondaryo) yodgorliklaridir.

Milliy g’oya – muayyan millat hayotiga mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmui. U millatning o’tmishi, buguni va kelajagini o’zida mujassamlashtiradi, uning tub manfaatlari va maqsadlarini o’zida ifodalaydi.

Ming, minglar – o’zbek xalqi tarkibiga kirgan qabilalardan biri. Hozirgi O’zbekiston va Tojikistonda keng tarqalganlar. Qo’qon xonlari minglardan bo’lgan.

Movarounnahr (*ar.* daryoning narigi tomoni) – o’rta asrlarda islom mamlakatlarida keng tarqalgan geografik atama. Arablar O’rta Osiyoni bosib olgandan keyin Amudaryodan shimolga qarab cho’ziigan yerlarni Movarounnahr deb ataganlar. XI asrda Yevropa tarixshunosligida Movarounnahr atamasi lotinchaga o’girilib, “Transoksiana” yoki “Transoksaniya” shaklida muomalaga kiritilgan.

Moddiy manbalar – insonning mehnat faoliyati natijasida yaratilgan turli davrlarga oid tosh, metall (mis, jez, temir), sopoldan yasalgan mehnat qu-

rollari, xo'jalik buyumlari va hunarmandchilik mahsulotlari majmuasi. Tarix fanining birlamchi manbasi.

Modernizatsiya (*fr.* modern – eng yangi, zamonaviy) – biror narsani yangilash, unga zamonaviy tus berish, uni zamonaviy talablarga muvofiq o'zgartirish. Modernizatsiyada mashina, apparat, turli texnologik qurilmalar, muhim kashfiyotlar texnika taraqqiyoti talablariga muvofiq qayta ishlanadi.

Monogamiya (*yun.* monos – bir, gamos – nikoh) – yakka nikohlilik, ya'ni bir erkakning bir ayol bilan yakka nikoh asosida yashashi. Monogam oila ibtidoiy jamiyatning poligamiya (ko'p nikohlilik) bosqichining qarama-qarshisidir. Monogamiya urug'chilikning patriarxat davrida shakllana boshlagan.

Monoteizm (*yun.* mono – yakka, theos – xudo) – yakka xudolik dini. Faqat bitta xudoga sig'inuvchi, birgina xudoni e'tirof etuvchi e'tiqod shakli. Ko'p xudolik (politeizm)ning aksi. Zardushtiylik, Xristianlik, Islom dinlari monoteistik dinlar hisoblanadi.

Mulki Devon – Somoniylar davrida hosilning 33 % miqdorida soliq undiriladigan davlat yerlari.

Mulki Xos – o'rta asrlarda oliynasab ruhoniylar (sayyidlar va shayxlar)ga qarashli yerlar. Somoniylar davrida bunday yerlarning egalari davlatga xiroj o'rniga hosilning 10% miqdorida ushr to'lash imtiyoziga ega bo'lganlar.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi – sobiq ittifoqning uchta respublikasi RSFSR, Belarus va Ukraina vakillari tomonidan 1991-yil 8-dekabrda Minskda imzolangan MDHni tashkil etish haqidagi bitim, 1991-yil 21-dekabrda (Boltiq bo'yi respublikalari va Gruziyadan tashqari) 11 sobiq Ittifoq respublikalari tomonidan Almatida imzolangan Bitimga Protokol va shu sanada imzolangan Almati Deklaratsiyasi asosida tashkil qilingan davlatlararo ixtiyoriy birlashma. 1993-yil 22-yanvarda Minskda qabul qilingan MDH Ustavi O'zbekiston Oliy Kengashi tomonidan o'sha yili ratifikatsiya qilingan. Ustavga binoan, hamdo'stlik maqsadi xalqlar va davlatlarning siyosat, iqtisodiyot, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, fan, texnika, savdo-sotiq, insonparvarlik va boshqa sohalardagi teng huquqli va o'zaro foydali hamkorlik qilish, keng axborot almashinuvi, o'zaro majburiyatlarni vijdonan va so'zsiz bajarishdan iborat.

Mustaqillik va ezgulik monumenti – Toshkent shahridagi Mustaqillik maydonida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov g'oyasi bilan bunyod etilgan me'moriy-badiiy majmua. 1992-yilda o'rnatilgan Mustaqillik monumenti oldiga 2005-yil 28-dekabrda farzandini bag'riga bosib turgan munis o'zbek ayoli siymosi – Baxtiyor ona haykali o'rnatildi (haykaltarosh I.Jabborov). Mustaqillik monumenti va baxtiyor ona haykali, Ezgulik arkasi,

oq poyondozi shaklidagi keng yo‘lak bilan birga yaxlit ansamblni tashkil qiladi. Mustaqillik va ezgulik tushunchalarini ramziy tarzda uyg‘un ifodalagan ushbu yodgorlik Mustaqillik va ezgulik monumenti deb ataladi.

“Mustaqillik deklaratsiyasi” – O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi haqidagi dastlabki huquqiy hujjatlardan biri. “Mustaqillik deklaratsiyasi” 1990-yil 20-iyunda O‘zbekiston Oliy Kengashining II sessiyasida qabul qilingan bo‘lib, 12 banddan iborat ushbu tarixiy hujjatda o‘zbek xalqining davlat qurilishi tarixi, tajribasi, har bir millatning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqi asosida davlat mustaqilligi ilk bor e‘lon qilingan edi.

Mustye – qadimgi tosh davri paleolitning o‘rta bosqichi – o‘rta paleolit (mil. avv. 100 – 40 minginchi yilliklar) davri madaniyati. Fransiyadagi shu nomdagi manzilgoh nomidan olingan. Mustye madaniyati neandertal tipidagi odamlar madaniyatidir.

Mug‘ – zardushtiylikka e‘tiqod qilgan kishilarning musulmonlarda atalishi. Mug‘xona – otashparastlar qarorgohi. Mumtoz she‘riyatda “mug‘” so‘zi mayxona egasi, soqiy ma‘nolarida ham ishlatiladi.

Natural xo‘jalik (*lot.* natura – tabiat) – o‘z ehtiyojlarini o‘zi yaratgan mahsulot va xizmatlar bilan qondiradigan xo‘jalik. Natural xo‘jalik qo‘l mehnatiga asoslanadi, mehnat unumdorligi past bo‘lgan ko‘hna mehnat qurollari ishlatiladi.

Neandertal – o‘rta paleolit davrida (100 – 40 ming yil avval) yashagan ibtidoiy odam turi. Bu davr odamlarining suyak qoldiqlari birinchi marta 1856–yil Germaniyaning Nendertal vodiysidan topilganligi uchun shunday nomlangan. Ushbu odam turiga tegishli suyak qoldiqlari va mehnat qurollari O‘zbekiston (Surxondaryoning Teshiktosh g‘ori)dan ham topilgan.

Neolit (*yun.* neos – yangi, litos – tosh) – yangi tosh davri. Mil. avv. 6 – 4 ming yilliklarni o‘z ichiga oladi. Neolit davriga kelib insoniyat dehqonchilik, chorvachilik, kulolchilik, to‘qimachilik va boshqa hunarmandchilik sohalarini o‘rgandi. Insoniyat tarixida ishlab chiqaruvchi xo‘jalik tarixi boshlandi. Bu davrda O‘rta Osiyoning janubiy mintaqalarida ilk dehqonchilik madaniyati (Joytun madaniyati), shimoliy mintaqalarida esa ovchi baliqchilar madaniyati (Kaltaminor) shakllandi.

Neontroplar (*yun.* neos – yangi, anthropos – odam) – yangi odamlar. Zamonaviy qiyofadagi Kromanon odamlari fan tilida shunday yuritiladi.

Nishopur – Mashhaddan g‘arbda, shimoliy-sharqiy Eronning yirik shaharlaridan biri. Tohiriylar davlatining (821 – 873) poytaxti.

Numizmatika (*lot.* numisma – tanga) – tangashunoslik fani. Qadimiy tangadagi belgi-rasmlar, tasvirlar, tamg‘alar va yozuvlar orqali ijtimoiy-siyosiy tarixning ayrim jihatlarini o‘rganuvchi tarixning yordamchi fan sohasi.

“Oyna” – o‘zbek tilida nashr etilgan ilk jurnallardan biri. Turkiston jadidlarining rahnamosi Mahmudxo‘ja Behbudiy tomonidan asos solingan va uning muharrirligida faoliyat yuritgan. 1-soni 1913-yilning 20-avgustida Samarqandda nashr etilgan.

Oks, Araks, Akes – Amudaryoning yunon manbalaridagi nomi. Qadimda Oksning bir tarmog‘i Kaspiy dengiziga, o‘rta asrlardan boshlab esa to‘liq Orol dengiziga quyila boshlagan. Uning eni 6 stadiy (taxminan 1100 metr) bo‘lgan. Iskandar bu daryodan besh kunda kechib o‘tgan. Osiyoliklar bu daryoni Omul. Jayxun, turkiylar O‘kuz deb atashgan.

Oltin o‘rda – Jo‘ji ulusi. XIII asrning 40-yillarida Jo‘jining o‘g‘li Botuxon (1208 – 1255) tomonidan bosib olingan Sharqiy Yevropa hududlari Jo‘ji ulusiga qo‘shilgach, tashkil topgan davlat. Oltin O‘rdaning poytaxti dastlab Astraxan yaqinidagi Saroy Botu, keyinchalik esa Volga bo‘yidagi Saroy Berka shaharlari bo‘lgan.

Oriylar, ariylar – “erkin” degan ma‘noda tarjima qilinadi. “Avesto”ga ko‘ra, ariylar ijtimoiy hayotda jamoaning erkin, ozod, jangovar mulkdorlar tabaqasi bo‘lib, mana shu tabaqa va uning oila a‘zolari o‘z urug‘-aymoqlaridan farqli o‘laroq “ozodlar” ya‘ni “oriylar” deb yuritilgan. Ular yashagan yurt oriylar vatani, oriylar kengligi, ya‘ni “Aryanam Vaychah” deb nomlangan.

Oromiy yozuvi – oromiylar mil. avv. II ming yillikning oxiri I ming yillikning boshlarida G‘arbiy Osiyoda (Suriya, Falastin, Mesopotamiyaning shimoli-g‘arbida) yashagan xalqlar bo‘lib, ular finikiya alifbosi asosida o‘z alifbolarini yaratganlar. Harfli yozuv o‘zlashtirilishi oson bo‘lganligi sababli bu yozuv boshqa hududlarga ham tarqala boshlagan. Ana shu oromiy yozuvi asosida Sharq xalqlari alifbosi shakllangan. Oromiy yozuvlaridan qadimgi fors yozuvi, undan esa qadimgi baqtriya, xorazm va so‘g‘d yozuvlari kelib chiqqan. Oromiy yozuvi va unga asoslangan boshqa yozuvlar alfaviti 22 ta undosh harf asosida qurilgan.

Ostodon, assuariy – zardushtiylarning dafn marosimiga tegishli odam suyaklari saqlanadigan sopol idish.

Otaliq – otasining o‘rnini bosmoq mazmunini beruvchi mansab. Dastlab Saljuqiylar sulolasi davrida (1038 – 1194) hukumdor e‘tiborini qozongan kishilarga berilgan. Otaliqning vazifasi shahzoda yoki xonzodalarni tarbiyalash va ular ixtiyoridagi ulusni balog‘atga yetganlariga qadar boshqarishdan iborat bo‘lgan.

Otin – eski diniy maktablarda qizlar o‘qituvchisi. Otinlar ayollar o‘rtasidagi diniy marosimlarni o‘tkazishda boshchilik qilib, ularga diniy ta‘limot berib, ulardan tushadigan daromad hisobiga yashaganlar.

Oqmachit – Qo‘qon xonligining eng shimolidagi chegara qal‘asi. Hozirgi Qozog‘istonning Qizil-O‘rda shahriga to‘g‘ri keladi. Chor qo‘shinlari 1853-yilda Oqmachitni egallashlaridan O‘rta Osiyo xonliklarini istilo qilish jarayoni boshlangan.

Oq Xun – G‘arbiy Xunlar. Xunlar davlatining so‘nggi davrida shimoliy xunlar xukmdori Qutush qabilasi bilan g‘arbga Qang‘ davlati (mil. avv. III – milodiy III) tomon chekingan.

Oq o‘rda (rus manbalarida Ko‘k O‘rda) – Oltin O‘rdaning bir qismi. Jo‘jixonning o‘g‘li Botu va uning avlodlari tomonidan idora qilingan. Oq O‘rda tarkibiga Sirdaryo havzasining katta qismi va Orol dengizining shimoliy-sharqidagi cho‘llardan Ishim va Sarisuv daryolarigacha bo‘lgan hududlar kirgan. Poytaxti quyi Sirdaryo bo‘yida Sig‘noq shahri bo‘lgan.

Paleoantrop (yun. palaios – qadimgi, anthropos – odam) – qadimgi davr odamlari. Paleontroplar, asosan, o‘rta paleolit davrida (100 – 40 ming y y.) yashaganlar. Neandertal odamlari paleontroplar deb ham yuritiladi.

Paleolit (yun. palaios – qadimgi, litos – tosh) – qadimgi tosh davri. Paleolit davri insoniyat tarixida eng uzoq davom etgan tarixiy davr bo‘lib taxminan 3-2,5 millioninchi yildan 12 ming yillikkacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Paleolit davri o‘z navbatida ilk paleolit (3-2,5 mln. – 100 minginchi yilliklar), O‘rta paleolit (100 – 40 ming yilliklar) va so‘nggi (yuqori) paleolit (40–12 ming yilliklar) bosqichlariga bo‘linadi.

Paleolit davri shuningdek, shel, ashel, mustye, orinyak, solyutre va madlen kabi arxeologik madaniyat bosqichlariga ham bo‘linadi.

Parlament (fr. parler – so‘zlashmoq, gapirmoq) – demokratik davlatlarda oliy vakillik va qonunchilik organining nomi. Ilk bor XIII asrda Angliyada davlat hokimiyatining vakillik organi sifatida vujudga kelib, keyingi asrlarda boshqa mamlakatlarda ham tashkil etildi.

Partiya (lot. pars, ing. party – qism, guruh) – siyosiy hokimiyat uchun kurashayotgan biron ijtimoiy guruh manfaatlarini himoya qilish uchun tuzilgan siyosiy tashkilot.

Parfiya – qadimgi tarixiy-geografik hudud. Turkmanistonning janubi va Shimoliy-Sharqiy Eron yerlariga to‘g‘ri keladi.

Patriarxat (yun. patriarches – urug‘ boshlig‘i) – ota urug‘i davri. Urug‘chilik tuzumining patriarxatdan keyingi ikkinchi bosqichi. Ibtidoiy jamoa davrida mehnat qurollarining takomillashuvi natijasida kundalik ehtiyojdan ortiqcha mahsulot ishlab chiqarishning paydo bo‘lishi bilan jamiyatda onalar o‘z o‘rnini otalarga bo‘shatib berishga majbur bo‘lgan.

Peshtoq – (*f.* “pesh” – old, + *ar.* “toq” – gumbaz, qubba, arka) – madrasa, masjid, maqbara, karvonsaroy va boshqa jamoat binolarining old tomoni – kirish qismi.

Pitekantrop (*yun.* pithekos – maymun, anthropos – odam) – maymun odam demakdir. 1890 – 1892-yillarda golland olimi E.Dyuba Indoneziyaning Yava orolidan topgan ibtidoiy odam turi. Ular 1 mln yil avval, neandertallardan oldin yashaganlar.

Plyuralizm (*lot.* pluralis – koʻpchilik, xilma-xillik) – jamiyatda va siyosiy hayotda fikrlar, qarashlar hamda gʻoyalarning xilma-xilligiga asoslanuvchi demokratik jamiyat belgilaridan biri. Plyuralizm siyosiy partiyalarning hokimiyat uchun oʻzaro raqobatida va saylovlarda muxolifatning mavjudligida koʻproq namoyon boʻladi.

Poykend, Poykand, Boykand – Buxorodan 44 km janubiy gʻarbda joylashgan, mil.avv. IV-III-milodiy XII asrlarga oid qadimiy shahar. Oʻrta asr yozma manbalarida Boykand, Xitoy salnomalarida esa Bi nomlari bilan tilga olinadi. Uning nomi “Quy shahar” maʼnosini anglatadi.

Politeizm (*yun.* poly – koʻp, theos – xudo) – koʻpxudolilik. Politeizm ibtidoiy davr odamlariga xos boʻlib, unda har bir qabila yoki urugʻning oʻz xudosi va eʼtiqod shakli mavjud boʻlgan (fetishizm, animizm, shomonlik, totemizm va boshq.).

Politimet – Zarafshon daryosining qadimgi yunon-rim tarixchilari asarlarida keltiriladigan nomi.

Prezident (*lot.* praesidens – oldinda oʻtiruvchi) – 1) Respublika boshqaruvi shaklidagi davlatlarda davlat va hukumat rahbari. Odatda Prezident ijro etuvchi hokimiyat boshligʻi hisoblanib, davlatning ichki va tashqi siyosatida xalq nomidan ish yuritadi. Oʻzbekistonda prezidentlik boshqaruvi ilk bor 1990-yil 24-martda joriy qilingan boʻlib, Oʻzbekiston Prezidenti butun Oʻzbekiston fuqarolari tomonidan umumiy, teng va toʻgʻridan-toʻgʻri saylov prinsipi asosida saylanadi.

Protektorat (*lot.* protectio – homiylik, vasiylik) – zamonaviy siyosiy adabiyotlarda mustamlaka mamlakatlar qaramligining bir shakli maʼnosida ishlatiladi. Bunday qaramlikka tushgan mamlakat garchi ichki siyosatda birmuncha mustaqilligini saqlab qolsa-da, lekin tashqi siyosati va mudofaa masalalari uning ustidan protektorat oʻrnatgan davlat ixtiyoriga oʻtadi.

Raiyat (*ar.* – qavm, fuqarolar, aholi) – biror oʻlka yoki mamlakatning soliq toʻlovchi aholisi, oddiy xalq.

Renessans (*fr.* renaissance – uygʻonish) – aynan qadimiy mumtoz yunon madaniyati, fani, falsafasining tiklanishi. Sharq renessansi va Gʻarb renessansi

mavjud. Sharq renessansi IX–XII va XIV–XV asrlarni o‘z ichiga olsa, G‘arb renessansi XIII asrdan boshlanadi. G‘arb renessansi ko‘pincha uyg‘onish davri deb ham yuritilib, uning ilk kurtaklari Italiyada paydo bo‘lgan.

Respublika (*lot.* res – ish, publicus – xalq, jamoatchilik) – davlat boshqarish usullaridan biri bo‘lib, bunda davlat hokimiyati organlari xalq tomonidan saylab qo‘yish orqali shakllantiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi – suveren demokratik respublika bo‘lib, mamlakatda prezidentlik respublikasi boshqaruvi shakli amal qiladi.

Referendum (*lot.* referendum – e‘lon qilinishi lozim bo‘lgan xabar) – jamiyatni demokratik boshqarish jarayonida qo‘llaniladigan tadbirlardan biri. Davlat va jamiyat hayotining ba‘zi muhim masalalarini umumxalq ovozig, umumxalq so‘roviga, xalq muhokamasiga qo‘yib hal etish.

Reforma (*fr.* reforme – qayta qurmoq, tubdan o‘zgartirish) – ijtimoiy-siyosiy hayotni yaxshilash maqsadida amalga oshirilgan tub islohot – qayta qurishlar.

Rum – Rim imperiyasining o‘rta asrlarda Sharqda keng tarqalgan nomi. 395-yilda Rim imperiyasi parchalangach, Sharqiy Rim imperiyasi – Vizantiyaga (395–1453) nisbatan qo‘llanilgan.

Rus-Tuzem maktablari (*rus.* tuzemets – mahalliy aholi) – Turkistonda 1917-yil oktabr to‘ntarishiga qadar mahalliy aholi bolalari uchun ochilgan boshlang‘ich rus maktablari. Uni ochishdan asosiy maqsad o‘lkani ruslashtirish edi. Birinchi rus-tuzem maktabi 1884-yil 19-dekabrda Toshkentda, 1891-yil Xivada, 1894-yil Buxoroda ochilgan.

“Sadoi Turkiston” (“Turkiston ovozi”) – jadidlarning ijtimoiy-siyosiy, adabiy-badiiy gazetasi. 1914-yil 4-apreldan 1915-yil 10-aprelga qadar Toshkentda, o‘zbek tilida Ubaydulla Asadullaxo‘jayev muharrirligida nashr etilgan.

Sayyid (*ur.* – mustaqil, hukmdor, janob) – Muhammad Payg‘ambarning avlodlariga mansub kishilarning ismlariga qo‘shib aytiladigan unvon.

Saylov tizimi – 1) davlat saylov organlarini (avvalo, vakillik organi) shakllantirish tartibi. Saylov tizimi – davlat siyosiy tizimining muhim elementi, u huquqiy normalar bilan tartibga solinadi, ularning yig‘indisi saylov huquqini tashkil etadi.

Saklar, shaklar – Osiyoning tog‘lik, cho‘l va sahrolarida yashagan ko‘chmanchi chorvador qabilalar. Ahamoniy podsholarning qoyatosh bitiklarida O‘rta Osiyoning ko‘chmanchi chorvador aholisi shunday nom bilan yuritilgan.

Umuman, O‘rta Osiyo va Qozog‘iston cho‘llarida, asosan, chorvachilik bilan shug‘ullangan dashtlilar sak etnosini tashkil etgan. O‘z davri-

da sugʻdiylarning ajdodlari Oʻrta Osiyo ikki daryo oraligʻi saklari boʻlgan. Massagetlar esa xorazmiylarning bobokalonlari edi. “Avesto”da tilga olingan turlar Turonzamin saklaridir.

Salavqiylar davlati – Mil. avv. 312 – 64-yillarda Oʻrta Osiyo, Eron, Afgʻoniston, Kavkazorti, Mesopotamiya va Yaqin Sharqda hukmronlik qilgan yirik davlat. Aleksandr Makedonskiy vafot etgach, taxt uchun boshlangan oʻzaro kurashlarda gʻolib chiqqan lashkarboshilardan biri Salavka I Nikator tomonidan asos solinadi.

Saljuqiylar – 1038 – 1194-yillarda Yaqin va Oʻrta Sharqda hukmronlik qilgan sulola. Sulola nomi koʻchmanchi turk-oʻgʻiz qabilasi boshligʻi Saljuq (922-yilda vafot etgan) nomidan olingan.

Samarqand – qadimiy shaharlardan biri. Antik mualliflarning asarlarida shahar Maroqanda deb atalgan. Abu Rayhon Beruniy va Mahmud Qoshgʻariy shahar nomining kelib chiqishini “Semizkent”, yaʼni “semiz qishloq” soʻzining buzib talafluz qilinishi deb yozadilar. Samarqand qadimiy shahar sifatida 2750 yillik tarixga ega.

Sarbadorlar (*f.* – boshini dorga tikkanlar) – XIV asrda Xuroson va Movarounnahrda moʻgʻullarga qarshi koʻtarilgan xalq ozodlik harakati qatnashchilari. Sarbadorlar harakati dastavval Xurosonda boshlanadi.

1365-yilda Samarqandda moʻgʻul bosqinchilariga qarshi sarbadorlar qoʻzgʻoloni boshlanadi. Qoʻzgʻolonga Mavlonzoda rahbarlik qiladi. Abu Bakr Quluyi (Kalaviy) Naddof, Xoʻrdaki Buxoriylar unga yordamchi boʻladilar.

Sardoba (*f.-toj.* sard – sovuq va ob – suv) – gumbaz shaklida hovuz yoki quduqlar ustida pishiq gʻishtdan qurilgan inshoot boʻlib, unga zinalar orqali tushilgan. Sardobalar asosan karvon yoʻllari yoqasida qurilgan.

Saroy Qutvoli – Buxoro xonligida (Ashtarxoniylar davrida) davlat tomonidan tayinlangan maxsus amaldor boʻlib, davlat qurilishlariga javobgar boʻlgan.

Sart (*sanskrit.* – sarthavaha karvonboshi, savdogar) – 1) VI asr oʻrtalarida Turk xoqonligi Oʻrta Osiyoni bosib olgach, shaharlarda istiqomat qilayotgan fors-tojik tilida gaplashuvchi aholini shunday atashgan; 2) XII-XIII asrlarda moʻgʻullar yurtiga savdogarchilik bilan kelgan, asosan aksariyat musulmon savdogarlariga qoʻyilgan umumiy nom; 3) XVI asrda Dashti Qipchoqdan kelib, Temuriylar davlatini egallagan koʻchmanchi oʻzbeklar mahalliy shaharlik va oʻtroq aholiga bergan umumiy nom.

Satrapiya, satraplik – qadimgi davlatlarda (Ahamoniylar, Salavqiylar, Parfiya, Sosoniylar) harbiy-maʼmuriy, birlik, viloyat. Mamlakatni satrapliklarga boʻlib idora qilish Ahamoniylar podshosi Doro I (mil.avv. 522 – 486)

davrida joriy etilgan. Satrapliklarni hukmdor tomonidan tayinlanadigan satrap (hokim) boshqargan.

Safaviylar – Temuriylar saltanatining inqirozi natijasida Eron va Xurosonda hukmronlik qilgan sulola. Asoschisi Ismoil Safaviy (1502–1524).

Safforiylar – 873–900-yillarda Eron va Xurosonda hukmronlik qilgan sulola. Sulola vakillari aka-uka Yoqub ibn Lays (873 – 879) va Amir ibn Layslar (879 – 900) kasbi misgarlik (safforiy) bo‘lgani uchun shunday nomlangan.

Sahobalar (*ar.* – hamroh, do‘st) – Muhammad Payg‘ambarning yaqin yordamchilari, safdoshlari.

Senat (*lot.* senex – keksa, oqsoqol) -- 1) Qadimgi Rim respublikasi davri (mil.avv. 509 – 49)da oliy davlat organi – oqsoqollar kengashi; 2) ikki palatali parlamentga ega bo‘lgan davlatlarda parlamentning yuqori palatasi.

Siyosiy institutlar – siyosiy hokimiyatni amalga oshirish bilan bog‘liq tashkilot va muassasalar yig‘indisi. Siyosiy institutlar o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: a) davlat va uning organlari; b) jamoat tashkilotlari; s) yuridik shaxs maqomidagi boshqa tashkilot va muassasalar. Siyosiy institutlarning xususiyati shundaki, ularning faoliyati amalda doimo qonun tomonidan, ya‘ni muayyan normativ hujjatlar orqali boshqariladi.

Sinantrop (*lot.* sina – xitoy + *yunon.* antropos – odam) – eng qadimgi odam (arxantrop)ga mansub ibtidoiy odam turi. 1927–1937-yillarda Xi-toyning Chjoukotyan g‘oridan topilgan. Sinantroplar pitekanthroplarga yaqin.

Skiflar – yunon mualliflari O‘rta Osiyo va Dashti Qipchoqda yashovchi saklarni skiflar deb atashgan. Tarixchi Gerodotning yozishicha, saklar skiflarning o‘zginasi bo‘lib, “forslar barcha skiflarni saklar deb ataydilar” deydi. Saklarni so‘g‘diylardan Sirdaryo ajratib turgan.

Sohibqiron (*ar.* – saodatli, zafarli, g‘olib) – buyuk bobokalonimiz Amir Temurga berilgan nisbat. O‘rta asr munajjmlari quyosh tizimidagi katta sayyoralardan ikkitasining bir-birini to‘shishi (qiron) paytida tug‘ilgan odamni shunday atashgan. Rivoyatlarga qaraganda, Amir Temur ikki sharofatli yulduz – Zuhro (Venera) va Mushtariy (Yupiter) sayyoralari bir-birlariga yaqinlashgan paytda tug‘ilgan.

Spitama – Payg‘ambar Zardusht urug‘ining nomi.

Sug‘d, So‘g‘d, Sug‘ud – O‘rta Osiyodagi qadimgi tarixiy-madaniy viloyat. Ilk bor ahamoniylar sulolasi vakillarining qoyatosh bitiklarida Suguda, yunon manbalarida – Sogdianoy nomi bilan qayd etilgan. Avestoning Videvdad kitobida Axura Mazda yaratgan ezgu yurtlardan biri Gava deyiladi va u yerda sug‘diylar yashaydi deb ko‘rsatiladi.

Sugʻd tarixiy-madaniy viloyati Qashqadaryo va Zarafshon daryolari havzasi, hozirgi Oʻzbekistonning Samarqand, Qashqadaryo va Buxoro viloyatlari, Tojikistonning Panjakent tumani oʻrniga toʻgʻri keladi. Sugʻdning poytaxti Samarqand shahri boʻlgan.

Tanho – XVI asrdan boshlab, xonliklarda davlat yerlarini, asosan, harbiy xizmatda boʻlgan kishilarga inʼom etish usuli. Bunday inʼomga sazovor boʻlgan kishi yerning oʻziga emas, shu yerdan olinadigan daromadning egasi boʻlgan.

“Taraqchiy” – jadidlar gazetasi. Ilk milliy nashr. 1906-yil 27-iyundan boshlab, Toshkentda Ismoil Obidiy muharrirligida nashr etilgan.

Tegin, takin (*turk.* – shahzoda) – 1) xunlar davrida yabgʻudan keyingi ikkinchi oliy darajali mansab; 2) Turk xoqonligida (VI–VIII) hukmdor – xoqon (qagʻan)dan keyingi ikkinchi oliy lavozim, yaʼni taxt vorisi. Ayni chogʻda davlat boshligʻi farzandlari ismiga qoʻshib aytiladigan sharafli unvon (mas, Qultegin, Yoʻllugʻtegin va b.).

Terrorizm (*lot.* terror – qoʻrquv, dahshat) – oʻz maqsadiga erishish yoʻlida ayrim shaxs, shaxslar guruhi yoki gʻayridemokratik hukumat organlari tomonidan muxolifat kuchlarini jismoniy kuch ishlatib, qoʻrqitishdan tortib, ommaviy jismonan yoʻq qilinishigacha boradigan umuminsoniy oʻta xavfli jinoyat turi.

Tobeʼinlar (*ar.* – qaram, izdosh) – islom tarixida sahobalardan keyin ularning ishini davom ettirgan ilohiyotchilar qatlami.

Totalitarizm (*lot.* totalis – butun, hammasi, toʻla) – bir shaxs, ijtimoiy sinf yoki guruhning (masalan, harbiylar guruhi) yakkahokimligiga soʻzsiz boʻysunishga asoslangan, vaqtincha va oʻtkinchi siyosiy tartib, davlatni boshqarish shakllaridan biri.

Tohariston – hozirgi Shimoliy Afgʻoniston, Janubiy Oʻzbekiston va Janubiy-Gʻarbiy Tojikiston hududlarining ilk oʻrta asrlardagi nomi. Qadimda Baqtriya deb yuritilgan ushbu hududlar koʻchmanchi turkiy qabila toharlar tomonidan egallanganligi tufayli oʻrta asr fors va arab manbalarida toharlar yurti – Tohariston deb yuritila boshlangan.

Traseka (Transport Corridor Europe Caucasus Asia) – Yevropani Kavkaz orqali Osiyo bilan bogʻlaydigan avtomobil va temir yoʻllari majmui. Dastlab Brusselda 1993-yil may oyida Oʻrta Osiyo respublikalari, Qozogʻiston, Ozarbayjon, Armaniston, Gruziya davlatlarining savdo va transport vazirlari ishtirokida oʻtkazilgan konferensiyada ushbu yoʻlakni qurish dasturi qabul qilingan.

TRASEKA ning umumiy uzunligi 10 ming km dan ortiq boʻlib, uning 677 km qismi Oʻzbekiston hududidan oʻtadi va shu jihatdan Oʻzbekiston iqtisodiyoti uchun istiqbolli loyiha hisoblanadi.

Turkiston – turkiy xalqlar tarixan tarkib topgan va keng yoyilgan tarixiy-geografik hudud. Baʼzilar Turkistonni Turonning islomiy vorisi, deb hisoblaydilar. 639-yilda Turfonda tuzilgan soʻgʻd hujjatida Oʻrta Osiyo mintaqasining nomi sifatida ilk bor ishlatilgan. “Turkiston” atamasi “Oʻrta Osiyo” va “Movarounnahr” nomlaridan farqli ravishda nafaqat geografik, balki etnogeografik tushunchani anglatib, shuningdek, siyosiy-huquqiy ahamiyatga ham ega.

Urugʻ – bir ajdoddan tarqalgan qon-qarindoshlarning jamoaviy birlashuvi natijasida shakllangan kishilar uyushmasi.

Urxun-Yenisey (Enasoy) yozuvlari – qadimgi turk-runiy yozuvlari, tosh, metall, yogʻoch va boshqa buyumlarga oʻyib bitilgan qadimgi turkiy yozuvlar. Bu yozuvlar V–VIII asrlarga (baʼzi manbalarda VIII–X asrlarga) mansub deb hisoblanadi. Urxun va Yenisey daryolari havzasidan topilganligi sababli shunday atalgan.

Ustrushona – Soʻgʻdning sharqiy tomonida joylashgan ilk oʻrta asrlardagi tarixiy viloyat. Ushbu viloyatning gʻarbiy qismini Oʻzbekistonning Jizzax va Sirdaryo viloyatlari tashkil etadi. Uning sharqiy qismi esa Tojikistonning Soʻgʻd viloyati hududlariga toʻgʻri keladi. Ustrushona dastlab eftaliylar, soʻngra VI asrning ikkinchi yarmidan Turk xoqonligi tasarrufiga kiritilgan.

Farsah – oʻrta asrlar davrida keng ishlatilgan masofa oʻlchov birligi. Bir farsah 9 –12 ming qadamga yoki 6 – 8 km ga teng boʻlgan.

“Fergantrop” (Fargʻona odami) – Fargʻona vodiysi, Sux tumani, Selengʻur gʻoridan topilgan qadimiy odam. Ular 1 million yil avval yashagan deb taxmin qilinadi.

Fiqh – davlat, jamiyat va ijtimoiy hayotning huquqiy masalalarini oʻrganuvchi islom huquqshunosligi.

Fuqarolik – shaxsning biron-bir davlatga huquqiy va qonuniy jihatdan tegishlilikini bildiruvchi atama.

Xalifa (ar. – oʻrinbosar, noib, muovin) – Muhammad paygʻambar vafotidan soʻng vujudga kelgan Arab xalifaligining (632 – 1258) diniy va dunyoviy boshligʻi. Birinchi toʻrt xalifa Abu Bakr (632 – 634), Umar (634 – 644), Usmon (644 – 656) va Alilar (656 – 661) “al-xulafo ar-roshidun” – toʻgʻri yoʻldan boruvchi xalifalar nomi bilan mashhur boʻlganlar.

Xattotlik – oʻrta asrlarda kitob va risolalarni, shuningdek, davlat rasmiy yozishmalarini nafis bezaklar va husnixat bilan koʻchirib yozish sanʼati.

Xiroj – oʻrta asrlarda amal qilgan yer soligʻi. Oʻrta Osiyoda dastlab VII asrda arablar tomonidan islom diniga kirmagan aholiga joriy qilingan.

Xonaqoh – oʻrta asrlarda shayx, darveshlar va ziyoratchilar uchun tunash joyi sifatida masjid, maqbaralarning bir qismi tarzida qurilgan xona, hujra.

Xoqon, qagʻan, qoon – Markaziy Osiyolik ayrim xalqlarda. shu jumladan, turkiy xalqlarda hukmdorlarning eng oliy unvoni.

Xuroson – hozirgi Afgʻonistonning shimoli, Eronning shimoli-sharqi va Janubiy Turkmanistondan to Amudaryogacha boʻlgan hududlarning oʻrta asrlardagi nomi.

“Xurshid” (“Quyosh”) – ilk oʻzbek gazetalaridan biri. 1906-yil 7-sentabrdan haftada bir marta Toshkent shahrida nashr etila boshlangan. Noshir va muharriri Munavvarqori Abdurashidxonov.

Xutba (*ar.* – targʻibot, nutq) – 1) juma namozidan avval, bayram namozidan keyin imom-xatibning minbarga chiqib, xalqqa beradigan diniy oʻgiti, oyat-u hadislar va pand-u nasihatlar; 2) oʻrta asrlarda hukmdorni hukmdor sifatida eʼtirof etish maʼnosiga ega boʻlgan unsur. Xutba hukmdorga qarashli barcha oʻlkalarning jome masjidlarida juma namozi vaqtida uning ismi, unvonlari va laqablari zikr etilishidan iborat boʻlgan.

Sivilizatsiya (*lot.* civilis – fuqaro jamiyati, harbiylarsiz va cherkovsiz hayot) – jamiyat erishgan moddiy va maʼnaviy taraqqiyot darajasi. Faqat insonga xos sunʼiy olamni moddiy va maʼnaviy jihatdan takomillashuvidagi muvaffaqiyatlari koʻrsatkichi.

Insoniyat tarixi doimo bir tekisda rivojlanmagan. Tarixda yuz bergan davriy madaniy yuksakliklar sivilizatsiyalar tarixini tashkil etgan.

Chagʻoniyon – tarixiy-madaniy viloyat. Hozirgi Surxondaryo oʻrniga toʻgʻri keladi. Dastlab Syuan Szyan tomonidan (mil. taxm. 630-y.) qayd etilgan. Chagʻoniyon fors manbalarida shunday atalgan boʻlsa, arab manbalarida Sogʻoniyon deb yuritilgan.

Chet el investitsiyalari – Oʻzbekiston Respublikasining “Chet el investitsiyalari toʻgʻrisida”gi qonunining 3-moddasiga koʻra, chet ellik investorlar asosan, daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat obyektlariga qoʻshadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan, intellektual mulkka doir huquqlar, shuningdek, chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad Oʻzbekiston Respublikasida chet el investitsiyalari deb ataladi. Oʻzbekiston oʻz hududida chet ellik investorlar investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun barcha huquqlarni kafolatlaydi va himoya qiladi.

Chinvot – zardushtiylar eʼtiqodiga koʻra narigi dunyodagi qil koʻprik.

Chingizxon Yasosi. Buyuk yasoq, Buyuk yasa (mo'g'ulcha "jasoq" – qonun, qaror, jazolash so'zining turkiy "yasog" shakli) – Chingizxon (1151–1227) tomonidan joriy qilingan qonun-qoidalar to'plami. 1206-yilda chaqirilgan qurultoyda qabul qilingan. O'rta asrlar mo'g'ul huquqi to'g'risidagi asosiy yozma yodgorlik.

Chig'atoy ulusi – Chingizxon tomonidan 1224-yilda ikkinchi o'g'li Chig'atoy va uning avlodlariga meros qilib berilgan viloyatlar. Hududi Movarounnahr, Yettisuv va Sharqiy Turkistondan iborat bo'lgan.

Chopper – ibtidoiy odamlarning tosh qurollari. Chopper qurollaridan asosan paleolit davrida keng foydalanilgan.

Chorakor (*f.* – to'rtidan biriga ishlovchi) – boylar yerini, olinadigan hosilning to'rtidan uch qismini yer egasiga berish sharti bilan ijaraga olib ekuvchi, kam yerli, yersiz yoki ot-ulovsiz dehqon.

Choch – tarixiy geografik hudud. Sirdaryoning o'rta havzasi, hozirgi Toshkent viloyati va Janubiy Qozog'iston yerlariga to'g'ri keladi. Choch atamasi qadimgi yozma manbalarda mil. av. I ming yillikning ikkinchi yarmidan boshlab uchraydi. Arablar bu hududlarni Shosh deb atashgan.

Shad, shod – Turk xoqonligi davrida harbiy-ma'muriy lavozim. Xoqonlikda bosh hukmdor – xoqondan keyingi o'rinda turuvchi yabg'udan so'ng eng yuqori unvon bo'lib, ushbu unvonga, asosan, xoqon xonadoniga mansub, biror o'lkaga ma'mur qilib tayinlangan va o'z qo'shiniga ega bo'lgan tegin va shahzodalar sazovor bo'lishgan.

Shayxulislom – musulmonlar shayxi. O'rta asr musulmon mamlakatlarida islom tashkilotlari boshlig'i – oliy din vakili unvoni. Xo'jalar avlodidan tayinlanadigan shayxulislomlar musulmon jamoasi boshlig'i sifatida mamlakatda yuksak martaba va obro'-e'tiborli shaxs hisoblangan.

"Shayx ur-ra'is" – Abu Ali ibn Sinoga Sharqda berilgan unvon.

Shanxay Hamkorlik Tashkiloti – tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, o'zaro savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish maqsadida tuzilgan mintaqaviy hukumatlararo tashkilot. 2006-yilda oltita davlat (Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston)ni o'z ichiga oladi. SHHTning shakllanishi 1992-yildan Xitoy bilan chegaradosh beshta sobiq ittifoq respublikalarining o'zaro chegaralarini aniqlash bilan bog'liq muammolarni muhokama qilishdan boshlanadi. 2001-yil 15-iyunda SHHTga oltinchi a'zo bo'lib, O'zbekiston qo'shildi.

Shell – qadimgi tosh davri (paleolit)ning birinchi ilk bosqichi. Fransiyadagi ibtidoiy manzilgoh nomidan olingan. Bu davrda pitikantrop odamlari yasaganlar.

Shovinizm (*fr.* chauvinisme – ashaddiy millatchilik) – XIX asr boshlarida Fransiyada paydo boʻlgan “shovinizm” atamasi (Napoleon Bonapart bosqinchilik urushlarining yorqin tarafdori boʻlgan askar N.Shovinning nomidan kelib chiqqan) endilikda milliy ekstremizmning namoyon boʻlishi maʼnosida ham ishlatilmoqda. Shovinizm oʻzga millatlarni kamsitish, tahqirlash, oʻz millatini boshqa millatlardan ustun qoʻyish, milliy hudbinlik kabi illatlarni oʻzida mujassam etuvchi millatchilikning agressiv shakli.

Shom – Suriya davlati va Damashq shahrining oʻrta asr Sharq qoʻlyozmalarida uchraydigan tarixiy nomi.

Shomonlik, shamanizm (*evenk* tilida shaman – jazavaga tushish) – sehrgarlik (afsun, magiya) maʼlum bir natijalar olish uchun ilohiy kuchlarga taʼsir etish maqsadida amalga oshiriladigan ritual, urf-odatlar majmuasi. Shomonlik eʼtiqod shakli ibtidoiy urugʻchilik davrida paydo boʻlgan.

Shoh yoʻli – Eron Ahamoniylari sulolasi davri (mil.avv. VI–IV asrlar)da mavjud boʻlgan muhim savdo yoʻllaridan biri boʻlib, u Eron poytaxti Suza shahrini Mesopotamiya, Yaqin Sharq va kichik Osiyo mamlakatlari bilan bogʻlagan.

Shoʻro (*ar.* – maslahat, kengash) – 1917-yil oktabr davlat toʻntarishidan keyin Turkistonda oʻrnatilgan Sovet hokimiyatining XX asr 20 – 40-yillaridagi tarixiy va ilmiy adabiyotlarda ishlatilgan nomi (Sovet hokimiyati – Shoʻro hokimiyati).

Ekzogamiya (*yun.* exo – tashqi, gamos – nikoh) – ibtidoiy jamiyatdagi oila shakllaridan biri. Bir urugʻ yoki jamoa aʼzolari orasida oila-nikoh munosabatlarining cheklanishi, urugʻ doirasidan tashqari, qoʻshni urugʻ vakillari bilan tuzilgan nikoh. Oilaning ibtidoiy koʻrinishlaridan boʻlgan poligamiya (koʻp nikohlilik), endogamiya (ichki nikoh)dan keyingi bosqichi. Ezogamiya urugʻchilik jamiyatining rivojlanishi natijasi hisoblanadi.

Ekstremizm (*lot.* extremus – oʻta, keskin) – siyosatda va mafkurada ashaddiy, favqulodda harakat va qarashlarga asoslanib faoliyat yuritish. Ekstremizmning siyosiy va diniy koʻrinishlari farqlanadi. Siyosiy ekstremizm namoyandalari oʻzlarining gʻarazli maqsadiga erishish uchun kuch ishlatish usullaridan foydalanib, mavjud siyosiy tuzumning barqaror faoliyat yuritishini buzish va yoʻqotishga harakat qilib, har qanday murosa va kelishuvlarni rad qiladilar. Millatchilik va separatizm siyosiy ekstremizmning koʻrinishlaridan hisoblanadi. Diniy ekstremizm, avvalo, boshqa din va konfessiyalarga, ularning vakillariga nisbatan toqatsiz boʻladi. Diniy tashkilotlardan dunyoviy davlatga qarshi kurashda foydalanadi.

El – bu atama eng qadimgi turkiy soʻzlardan hisoblanadi. El, avvalo, bir joyning odamlari maʼnosini bildiradi: Xorazm eli, Qoʻshqar eli. Bir qabilaga mansub kishilarga nisbatan qoʻllaniladi: qipchoq eli, mangʻit eli. El soʻzi baʼzan xalq, millat maʼnolarida ham ishlatiladi.

Elat – xalqning millat boʻlib shakllanishidan oldingi bosqichi. Kishilarning til, hudud, iqtisodiy va madaniy jihatdan tarixan tarkib topgan birligi. Elatning kelib chiqishiga bir-biriga yaqin bir necha qabilalarning uyushuvi asos boʻlgan.

Ellinlashtirish – qadimgi yunonlar oʻzlarini ellinlar, yurtini esa ellada deb atashgan. Ellinlashtirish deganda yunon-makedon istilosidan soʻng Sharqqa yunon madaniyatining yoyilishi va aralash yunon va mahalliy sharq madaniyatining tashkil topish jarayoni tushuniladi.

Eneolit (*lot.* aeneus – mis, *yun.* litos – tosh) – mis-tosh davri. Mehnat qurollari ishlab chiqarishda birinchi marta mis maʼdani qoʻllanila boshlagani uchun shunday nom berilgan. Eneolit davri 4-3 ming yilliklarni oʻz ichiga oladi.

Eneolit davridan ibtidoiy jamoa tuzumining inqirozi, sinfiy jamiyatning shakllanish jarayoni boshlangan.

Era (*lot.* aera – boshlangʻich berilgan son, sana) – yil hisobi boshlanadigan vaqt. Masalan, qadimgi rimliklarda Rim shahriga asos solingan paytdan, xristianlarda Iso paygʻambarning tugʻilishidan (milodiy era), musulmonlarda Muhammad paygʻambarning Makkadan Madinaga koʻchishidan (hijriy era) boshlangan. Hozirda Oʻzbekistonda barcha tarixiy voqealar xristian erasiga qarab sanalashtirilgan.

Ershi – mil. avv. III – milodiy II asrlarda mavjud boʻlgan Dovon (Fargʻona) davlati poytaxtining xitoy manbalaridagi nomi.

Etnik jarayon – kelib chiqishi bir-biriga yaqin boʻlgan turli qabila va elatlarning asrlar davomida qoʻshilib, aralashib borish jarayoni.

Etnogenez (*yun.* etnos – xalq, genesis – tugʻilish) – biron-bir xalqning kelib chiqish jarayoni. Tarix fanidagi mavjud ilmiy metodologik ishlanmaga koʻra, etnogenez deb ilgaridan mavjud boʻlgan bir necha etnik komponentlar asosida yangi etnos (elat)ning vujudga kelishiga aytiladi.

Etnografiya (*yun.* etnos – xalq, grapho – yozaman) – tarixning yordamchi fan sohasi boʻlib, xalqlarning urf-odatlarini, xoʻjaligi va madaniyatini, xalqlar, etnik birlikning turli tiplari, ularning kelib chiqishi (etnogenezi), turmushi, tarixiy va madaniy munosabatlarini oʻrganadigan ijtimoiy fan.

YUNESKO (United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization) – BMTning taʼlim, ilm-fan va madaniyat masalalari boʻyicha tashkiloti. YUNESKO Ikkinchi jahon urushidan soʻng, 44 davlat vakillari Londonda

konferensiyaga yig'ilib, YUNESKOni ta'sis etuvchi Ustavni qabul qilishlari bilan tashkil topgan. YUNESKOning amaliy faoliyati 1946-yil 20-noyabrdan boshlangan. Qarorgohi Parijda. O'zbekiston Respublikasi 1993-yil 29-oktabrda ushbu tashkilotga a'zo bo'lgan.

Yaksart, Tanais, Inju-o'kuz – Sirdaryoning yunon-rim tarixchilarining asarlarida va o'rta asr g'arbiy yevropa manbalarida uchraydigan qadimgi nomi.

Yasna – “Avesto” kitobining bizgacha yetib kelgan qadimgi qismlaridan biri. Yasna kitobi 72 bobdan iborat bo'lib, ulardan 17 tasi – “Gotlar”, payg'ambar Zaratushtraning “muqaddas madhiyalari”dan iborat.

Yassi – hozirgi Qozog'iston Respublikasidagi Turkiston shahrining o'rta asrlardagi nomi.

O'rda, o'rdu – turkiy va mo'g'ul xalqlarida hukmdor, xon qarorgohi, qal'a. Ushbu atama ilk marotaba O'rxun-Enasoy bitigi “Irq bitigi”da qayd etilgan.

Qabila (ar. – avlod, nasl; urug') – etnik birlik. Qabila qon-qarindosh, til-dosh va dindosh bir necha urug'ning uyushmasidir.

Qabila urug'larga bo'linishidan tashqari o'z hududiga, yagona qabilaviy (sheva) tiliga, qabila kengashiga va harbiy boshlig'iga ega bo'ladi.

Qayta qurish – XX asrning 80-yillari o'rtalarida keng iste'molga kirgan tushuncha; sobiq SSSRda totalitar tizimni isloh qilish yo'li bilan o'zgartirishga qaratilgan harakat. Qayta qurish siyosatining maqsadi va vazifasi mamlakatda to'planib qolgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va mavkuraviy muammolarni “qayta qurish” yo'li bilan hal etishdan iborat edi.

Qizilboshlar – Eron Safaviylar davlati (1502–1736) lashkarlarining nomi. Ismoil Safaviy (1502–1524) askarlari o'n ikkita qizil yo'lli salla o'rab yurishar edi. Bu 12 ta qizil yo'l shia imomlarining sharafiga chizilgan. Shu sababli bu lashkar shunday nom olgan.

Qoraxitoylar, kidanlar – XII asrning 30 – 40-yillarida Movarounnahrning o'troq dehqonchilik vohalariga bir necha marotaba bosqinchilik yurishlari uyushtirgan ko'chmanchi turkiy qabilalar. XII asr boshlarida ular Yettisuv viloyatini ishg'ol etib to Yenisey daryosigacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga olgan kattagina davlatni barpo etadilar.

Qulzum dengizi – Kaspiy dengizining o'rta asrlardagi nomi.

Quloqlar (*rus.* kulak – musht, mushtum) – qarollar, kambag'allar, umuman dehqonlarning yollanma mehnatidan foydalanuvchi katta yer egasi, qishloq boyi; boy yoki o'rtahol dehqon. Mustabid sho'ro tuzumi 1929 –1933-yillarda bunday kishilarni “quloq-mushtumzo'rlar” nomi ostida sinf sifatida tugatish siyosatini olib borgan.

Qo'rboshi – 1) o'rta asr Sharq davlatlarida tungi shahar qo'riqllovchisi, keyinchalik zindon boshlig'i, qurol-yarog ombori mutasaddisi. 2) Turkiston o'lkasida Oktabr to'ntarishigacha bo'lgan davrda mahalliy politsiya, mir-shablarning boshlig'i; 3) 1917-yil oktabrda Turkistonda sho'rolar hokimiyati o'rnatilganidan so'ng bolsheviklarga qarshi kurash olib borgan milliy-ozodlik harakati (istiqlolchilik) harbiy rahbarlarining unvoni.

Hojib (*ar.* – xizmatkor) – 1) Ummaviylar (651–750) davridan e'tiboran, ko'pgina islom davlatlarida mavjud bo'lgan lavozim. Barcha turkiy davlatlarida bu mansab amalda bo'lgan. Somoniylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar kabi o'rta asr saltanatlarida hukmdor qabulxonasi boshlig'i, eshik og'a. Saroy kotiblari, xazinachi va boshqalar unga bevosita bo'ysunganlar.

“Homo sapiens” – aql-idrokli odam. Zamonaviy qiyofadagi odam – kromanonlarning fandagi nomi.

“Homo habilis” – ishbilarmon odamlar. Ibtidoiy odamlarning eng dastlabki vakillari bo'lib, ular mehnat qurollari yasay olishlari va ularni xo'jalik hayotida foydalana bilganliklari uchun shunday nomlanganlar.

Xunlar, xunnular, gunnar – qadimda Shimoliy Xitoydan to Volgabo'yi dashtlariga qadar cho'zilgan hududlarda ko'chmanchilik bilan hayot kechirgan turkiy qabilalardan biri. II-IV asrlarda turkiy xunlarning Uraloldi va Volga bo'yidagi ugor (o'g'ur) qabilalari bilan aralashuvidan tashkil topgan.

IV asrning 70-yillaridan xunlarning g'arbga tomon ommaviy suratda ko'chishi boshlangan va bu tarixda Xalqlarning buyuk ko'chishi deb nomlanadi. Xunlar Harbiy (395 – 476) va Sharqiy Rim imperiyasiga (395 – 1453) qarshi bir necha marotaba yurishlar uyushtirganlar. Hunnlarning G'arbga qilgan yurishlari Harbiy rim imperiyasining (395 – 476) tanazzulga yuz tutishiga, eski ijtimoiy tuzum – quldorlik tuzumining o'rniga yangi ijtimoiy munosabatlar (feodal munosabatlar)ning shakllanishiga turtki bo'lgan.

Huquqiy demokratik davlat – jamiyat tariqqiyoti va davlat shakllarining rivojlanishi jarayonida yuzaga kelgan, davlatni tashkil qilishning eng muhim mukammal shakli va mazmuni.

Huquqiy davlatning belgilari quyidagilardir:

– hokimiyatning barcha organlari faqat xalq idorasini ifodalaydigan qonunga bo'ysunadi;

– barcha fuqarolar qonun oldida teng bo'ladilar;

– mamlakat qonunchiligida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlangan bo'ladi;

– fuqarolar davlat oldida javobgar bo'lganidek, davlatning ham fuqarolar oldida javobgar bo'lishi ta'minlanadi;

– huquqiy madaniyat yuqori darajada bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: "O'zbekiston". 1999.
- Karimov I.A.* O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1.– T.: "O'zbekiston", 1996.
- Karimov I.A.* Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T. 2. – T.: "O'zbekiston", 1996.
- Karimov I.A.* Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T. 3. – T.: "O'zbekiston", 1996.
- Karimov I.A.* A.Temur haqida so'z. – T.: "O'zbekiston", 1996.
- Karimov I.A.* Bunyodkorlik yo'lidan. T. 4. – T.: "O'zbekiston", 1996.
- Karimov I.A.* Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. T. 5. – T.: "O'zbekiston", 1997.
- Karimov I.A.* O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: "O'zbekiston", 1997.
- Karimov I.A.* Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T. 6. – T.: "O'zbekiston", 1998.
- Karimov I.A.* Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: "Sharq", 1998.
- Karimov I.A.* Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T. 7. – T.: "O'zbekiston", 1999.
- Karimov I.A.* Ozod va obod Vatan, erkin va farovon turmush – pirovard maqsadimiz. T. 8. – T.: "O'zbekiston", 1997.
- Karimov I.A.* Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T. 10. – T.: "O'zbekiston", 2002.
- Karimov I.A.* Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T. 11. – Toshkent: "O'zbekiston", 2003.
- Karimov I.A.* Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimizga va qat'iy irodemizga bog'liq. T.:12.–T.: "O'zbekiston". 2004.
- Karimov I.A.* O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T. 13. – T.: "O'zbekiston", 2005.
- Karimov I.A.* Inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat. T.: "O'zbekiston", 2005.
- Karimov I.A.* Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqning hayot darajasini oshirish barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. T. 15. – T.: "O'zbekiston", 2007.
- Karimov I.A.* Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: "Ma'naviyat", 2008.
- Karimov I.A.* Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish yo'lida. T. 16. – T.: "O'zbekiston", 2008.

Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash – bizning oliy maqsadimiz. T. 17. – T.: “O‘zbekiston”, 2009.

Karimov I.A. Jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko‘tarish sari. T. 18. – Toshkent: O‘zbekiston. 2010. – 160 -b.

Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakat taraqqiyotining asosiy mezonidir. T. 19. – T.: “O‘zbekiston”, 2011.

Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.-T.: “O‘zbekiston”, 2011.

Levitin L. O‘zbekiston tarixiy burilish pallasida. – T.: “O‘zbekiston”, 2001.

Abdullayev M., Abdullayeva M. va boshq. Mustaqillik (izohli ilmiy-omma-bop lug‘at).-T.: “Sharq”, 1998.

Abdullayev O‘. O‘rta Osiyoda qadimgi boshqaruv va ilk davlatchilik tarixshunosligi. – T.: “Akademiya”, 2009.

Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimai – T.: “Sharq”, 2001.

Azizxo‘jayev A. Mustaqillik: kurashlar, iztiroblar, quvonchlar. – T.: “Sharq”, 2001.

Azimov H.I. O‘zbekiston tarixi (1917–1945-yillar). – T.: 2011.

Shamsutdinov R. Istiqloq yo‘lida shahid ketganlar. – T.: Sharq. 2001.

Asqarov A. O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. – T.: “Universitet”, 2007.

Aminjonova M.Ye. Qadimiy yodgorliklar qissasi. – T.: “O‘qituvchi”. 1967.

Anorboyev A. va boshq. O‘zbekiston tarixida qadimgi Farg‘ona. – T.: “Fan”, 2001.

Ahmedov B. O‘zbekiston tarixi manbalari. – T.: “O‘qituvchi”, 1991.

Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – T.: “O‘qituvchi”, 1993.

Ahmedov B. Sohibqiron Temur (hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati). – T.: 1996.

Ahmedov S. Tarixiy haqiqat // Ismoil Gaspirinskiy va Turkiston. – T.: Sharq. 2005.

O‘zbekiston tarixi. Mualliflar jamoasi. – T.: “Akademiya”, 2011.

Bunyodov Z. Anushtegin Xorazmshohlar davlati (1097 – 1231). – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va San‘at nashriyoti. 1998.

Buyuk siymolar, allomalar (uch kitob). – T.: “Meros”, 1995. 1996. 1998.

Bu muqaddas Vatanda azizdir inson. (nashr uchun mas‘ul A.Bekmurodov va boshq.) – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va San‘at nashriyoti, 2010.

- Buyuk va muqaddassan, mustaqil Vatan (mualliflar jamoasi). – T.: “O‘qituvchi”, 2011.
- Vamberi Xerman.* Buxoro yoki Movarounnahr tarixi. – T.: 1990.
- Gumilyev L.N.* Qadimgi turklar. – T.: “Fan”, 2007.
- Davlatov P.* Qizil saltanat iskanjasida. – T.: “Sharq”, 2011.
- Yormatov I.* Iloq tarixi. – T.: 2005.
- Jabborov I.* O‘zbek xalqi etnografiyasi. – T.: “O‘qituvchi”, 1994.
- Jo‘rayev N., Sodiqov H.* O‘zbekiston tarixi: (Turkiston Chorizm mustamlakachiligi davrida), 1- kitob. T.: “Sharq”, 2011.
- Jo‘rayev N., Karimov Sh.* O‘zbekiston tarixi: (O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida). 2-kitob, T.: “Sharq”, 2011.
- Jo‘rayev N.* O‘zbekiston tarixi: (Milliy istiqlol davri). 3-kitob, T.: “Sharq”, 2011.
- Zaxidov P.* Государство Кангюй. – T.: 2009.
- Zohir A‘zam.* Qadimgi tarixchilar O‘rta Osiyo haqida. –T.: “Yurist media markazi”. 2008.
- Ziyoyev X.* Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. – T.: “Sharq”, 1998.
- Ziyoyev X.* O‘zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi. – T.: 2001.
- Ibrohimov A.* Bizkim, o‘zbeklar... – T.: “Sharq”, 2001.
- Ibrohimov A. va boshq.* Vatan tuyg‘usi. – T.: “O‘zbekiston”, 1996.
- Ibrohimov A.* Yorug‘lik. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti”, 2006.
- Ismoilova J.* XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Toshkentning “yangi shahar” qismi tarixi. – T.: Fan va texnologiya. 2004.
- Istiqlol yo‘li: (to‘plam). (tuzuvchi Sh.Mansurov). – T.: “O‘zbekiston”, 1995.
- Is‘hoqov M.* Ezgu o‘y, ezgu so‘z, ezgu amal. – T.: 2000.
- Mashuripov O.* Qadimgi Xorazm. – Urganch, 2005.
- Karimov Sh., Shamsutdinov R.* Vatan tarixi. – T.: “O‘qituvchi”, 1997.
- Mavlonov O‘.* Markaziy Osiyoning qadimgi yo‘llari. – T.: Akademiya. 2008.
- Mahmudov T.* Avesto haqida. – T.: “Sharq”, 2000.
- Musayev N.* Turkistonda sanoat ishlab chiqarishining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixidan (XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari). T.: Moliya-iqtisod, 2011.
- Mustaqillik biz uchun – o‘zligimizni anglash, yurt tinchligi va barqarorligining, inson manfaati, erkinligi va farovonligining, biz ko‘zlagan demokratik jamiyat barpo etishning garovidir. – T.: “O‘zbekiston”, 2009.

- Mirzo Ulug‘bek*. To‘rt ulus tarixi. – T.: “Cho‘lpon”, 1994.
- Mo‘minov I.* Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli. T.: “Fan”, 1968.
- Nurali Qobil*. Buyuk Turon amiri yohud aql va qilich. – T.: “Sharq”, 2011.
- Sagdullayev A.S.* Qadimgi O‘rta Osiyo tarixi. – T.: Universitet, 2004.
- Tohir Qahhor* Hur Turkiston uchun.: Maqolalar. – T.: “Cho‘lpon”, 1994.
- To‘rayev X., Ergashev Q., Qodirov N.* Buyuk o‘tmish porloq kelajakni anglatadi. – T.: Iqtisodiyot, 2013.
- Tursunov I.* Istiqlolga intilgan qalblar nidosi. – T.: FPU bosmaxonasi, 1993.
- Mustabid tuzumning O‘zbekiston milliy boyliklarini talash siyosati: Tarix shohidligi va saboqlari (1865 – 1990-yillar) / Loyiha rahbari va mas‘ul muharrir D.A.Alimova / – T.: “Sharq”, 2000.
- Usmonov Q., Sodiqov M.* O‘zbekiston tarixi (1917 – 1991). – T.: “Sharq”, 2001.
- Usmonov Q.* va boshq. O‘zbekiston tarixi. (Darslik). – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2006.
- Shoniyozov K.* Qang‘ davlati va qang‘lar. – T.: “Fan”, 1995.
- Shoniyozov K.* O‘zbek xalqining shakllanishi jarayoni. – T.: “Sharq”, 2001.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” kitobini o‘rganish bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T.: “O‘qituvchi”, 2011.
- O‘zbekiston tarixi: yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar. (Davra suhbat materiallari. 1998-yil 9-oktabr). – T.: “Eldinur”, 1998.
- O‘zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. Mas‘ul muharrirlar D.A.Alimova, E.V.Rtveladze. – T.: Sharq, 2001.
- O‘zbekiston tarixi (darslik). R.H.Murtazayeva umumiy tahriri ostida. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2003.
- O‘ljayeva Sh.* Amir Temur va temuriylar davrida milliy davlatchilikning rivojlanishi. – T.: Fan, 2005.
- Qodirov N.N.* Turkiston o‘lkasidagi rus ta‘lim muassasalari tarixi (1867–1917 yy.). – T.: “Fan va texnologiya”. 2014.
- Hamidov H.* Yurtimizda XVI–XX asr boshlarida madaniy hayot tarixidan lavhalar. – T.: “Fan”, 2010.
- Hasanova M.B.* O‘zbekiston tarixi (jadval va chizmalarda). – T.: “Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti”, 2007.
- Xudoyqulov T.D.* XIX asrda Qo‘qon xonligining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti. Tar. fan. nom. diss. – T.: 2009. 172-b.

- Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydullayev O'.* Vatan tarixi. 2-kitob. – T.: Sharq. 2010. (Lotin alifbosida)
- Sheripov U.A.* Xiva xonligi tarixi (1511–1920 y.y.) Tar. fan. nom. diss. – Urganch, 2009. 174 b.
- Egamnazarov A.* Siz bilgan Dukchi Eshon. – T.: “Sharq”. 1994.
- Ergashev Q.* O‘zbekiston xalq ta’limi rivoji tarixi. – T.: “O‘qituvchi”, 1998.
- Ergashev Q.* O‘zbekiston tarixi: ta’lim va tarbiyadagi yangicha yo‘nalishlar. – T.: TDIU, 2003.
- Ergashev Q.* O‘zbekiston tarixi. (O‘quv-uslubiy qo‘llanma) – T.: TDIU, 2006.
- Ergashev Q.* O‘zbekiston ta’limi: muammolar va islohotlar. T.: “Fan va texnologiya”, 2014.
- Ergashev Q.* Amir Temur va temuriylar davridagi yuksalish. T.: TDIU. 2014.
- Eshov B.J.* O‘rta Osiyoning qadimgi shaharlari tarixi. – T.: Fan va texnologiya. 2008.
- Eshov B.J.* O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – T.: Yangi asr avlodi. 2012.
- Eshov B.J., Odilov A.A.* O‘zbekiston tarixi. I jild. (Eng qadimgi davrlardan XIX asr o‘rtalarigacha). – T.: “Yangi asr avlodi”, 2014.
- Eshmurodov M.J.* Xorazm manbalarida davlatchilik tarixi. – T.: “Fan va texnologiya”, 2011.
- Yusupov Sh.* Tarix ummoni sirlari. – T.: “Sharq”, 2007.

MUNDARIJA

KIRISH

O‘ZBEKISTON TARIXI FANINING PREDMETI, UNI O‘RGANISHNING METODOLOGIK TAMOYILLARI, MANBALARI VA AHAMIYATI

1. O‘zbekiston tarixi fanining predmeti	9
2. O‘zbekiston tarixi fanini o‘rganishning nazariy-metodologik tamoyillari....	11
3. O‘zbekiston tarixini davrlashtirilishi va manbalari.....	15
4. Barkamol avlodni shakllantirishda Vatan tarixining o‘rni	18
5. Prezident I.A.Karimov tomonidan tarixni xolisona yoritish va o‘rganish tamoyillarining asoslab berilishi.....	22

I BOB. O‘ZBEKISTON INSONIYAT SIVILIZATSIYASINING ENG QADIMIY O‘CHOQLARIDAN BIRI

1. O‘zbekiston hududi qadimdan insonlar yashab kelayotgan o‘lka. Paleolit davri. Antropogenez	31
2. Insoniyatning mezolit, neolit, eneolit, bronza davrlaridagi hayot tarzi va manzilgohlari	35
3. Mehnat taqsimotlari. Xususiy mulkning vujudga kelishi.....	41
4. Insoniyat sivilizatsiyasida muqaddas “Avesto” va zardushtiylik ta’limotining o‘rni	43

II BOB. O‘ZBEK DAVLATCHILIGINING SHAKLLANISHI VA DASTLABKI TARAQQIYOT BOSQICHLARI

1. Davlatchilik va davlatlarning vujudga kelishi xususidagi qarashlar	52
2. O‘zbek davlatchiligining tarixiy ildizlari	57
3. O‘zbekistonda ilk davlat uyushmalari.....	60
4. Qadimgi ajdodlarning chet el bosqinchilariga qarshi ozodlik kurashlari.....	64
5. Salavqiylar hukmronligi. Yunon-Baqtriya, Parfiya, Davan, Qanxa(Qang‘) davlatlari va Kushon podsholigi.....	69
6. Buyuk ipak yo‘li.....	80

III BOB. O‘ZBEK XALQINING ETNIK SHAKLLANISHI

1. Xalqning etnogenezi va etnik tarixi	93
--	----

2. O‘zbek xalqining shakllanishi va uning bosqichlari	96
3. “O‘zbek” atamasi va uning keng yoyilishi.....	101
4. O‘zbek xalqi yozuvlari va tili.....	103
5. O‘zbek millati. Mustaqil O‘zbekistonda millatlararo hamjihatlikning ta‘minlanishi	108

IV BOB. ILK O‘RTA ASRLAR O‘ZBEK DAVLATCHILIGI: IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOT

1. Ilk o‘rta asrlarda O‘rta Osiyo	113
2. Eftaliylar davlati.....	116
3. Turk xoqonligi hukmronligi davrida O‘rta Osiyo	120
4. O‘zbekistonda Arab xalifaligi hukmronligi davri	125

V BOB. IX–XII ASRLARDA O‘ZBEK DAVLATCHILIGI: SIYOSIY, IJTIMOIIY - IQTISODIY VA MADANIY HAYOT

1. Toxiriylar va Somoniylar davlati.....	146
2. Qoraxoniylar va G‘aznaviylar davlati.....	153
3. Saljuqiylar va Xorazmshohlar davlati.....	160
4. IX – XII asrlarda O‘rta Osiyo xalqlari hayotida uyg‘onish (renessans) davri. Buyuk ajdodlarning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi	166

VI BOB. MO‘G‘ULLAR ISTILOSII VA ZULMIGA QARSHI KURASH. JALOLIDDIN MANGUBERDI

1. Chingizxon (Temuchin) boshliq mo‘g‘ul davlatining tashkil topishi. Chingizxon va Xorazmshoh munosabatlari.....	178
2. Mo‘g‘ul istilochilarining Turon zaminga harbiy yurishlari.....	184
3. Jaloliddin Manguberdi – otashin vatanparvar kurashchi va xalqning jasur o‘g‘loni.....	189
4. Chig‘atoy ulusining tashkil etilishi, uning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti.....	196

VII BOB. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA O‘ZBEK DAVLATCHILIGI. IJTIMOIIY-SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOT

1. Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishi. Markazlashgan davlatning tuzilishi va uning takomillashuvi	207
2. Amir Temurning harbiy yurishlari	212

3. Amir Temur davlatining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti	214
4. Amir Temur vafotidan so'ng temuriylar davlatidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat	217
5. Amir Temur va temuriylar davrida madaniyat	220
6. "Temur tuzuklari". Amir Temur shaxsi va uning buyukligi	226

VIII BOB. O'ZBEKISTON HUDUDLARINING XONLIKLARGA BO'LINIB KETISHI, UNING SABABLARI VA OQIBATLARI

1. Shayboniylar va Ashtarxoniylar hukmronligi davrida Movarounnahr	239
2. Shayboniylar va Ashtarxoniylar hukmronligi davrida boshqaruv tizimi. Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot	248
3. Xiva xonligi	258
4. Qo'qon xonligi	261
5. Buxoro amirligi	264
6. Xonliklar va amirlikdagi boshqaruv tizimi. Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot	267

IX BOB. TURKISTONNING ROSSIYA IMPERIYASI TOMONIDAN BOSIB OLINISHI. TURKISTON XALQLARINING MUSTAMLAKACHILIK ZULMIGA QARSHI MILLIY-OZODLIK HARAKATLARI. JADIDCHILIK

1. Rossiya imperiyasi tomonidan Turkistonning bosib olinishi	278
2. Mustamlakacha idora usuli. Mustamlakachilikning siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-madaniy yo'nalishlari	287
3. Mustamlakachilik zulmiga qarshi Turkiston xalqlarining milliy ozodlik harakatlari	293
4. Turkistonda jadidchilik harakati	297

X BOB. TURKISTONDA SOVET HOKIMIYATINING O'RNATILISHI VA UNGA QARSHI QUROLI HARAKAT

1. 1917-yil fevral inqilobi va uning Turkiston o'lkasiga ta'siri. O'lka siyosiy partiyalari	303
2. Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o'rnatilishi, uning shovinistik siyosati	306
3. Turkiston muxtoriyati va uning faoliyati	308
4. Turkistonda mustabid sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat	312
5. Xorazm va Buxorodagi demokratik harakatlar. Xiva xonligi va Buxoro amirligining tugatilishi	317

XI BOB. XX ASRNING 20 – 30-YILLARIDA SOVET HOKIMIYATINING O‘ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRGAN SIYOSIY, IJTIMOIIY VA IQTISODIY TADBIRLARI, ULARNING MUSTAMLAKACHILIK MOHIYATI

1. O‘rta Osiyoda o‘tkazilgan milliy-davlat chegaralanishi. O‘zbekiston SSRning tuzilishi..... 325
2. Sovetlarning O‘zbekistonda yuritgan iqtisodiy siyosati, uning mustamlakachilik mohiyati 329
3. O‘zbekistonda yer-suv islohoti. Sovetlarning sanoatlashtirish va jamoalashtirish siyosati va ularning oqibatlari..... 333
4. Yurt va xalq dardi uchun kurashgan milliy yetakchilar..... 341

XII BOB. XX ASR 20 – 30-YILLARIDA O‘ZBEKISTONNING SOVETLARGA MA’NAVIY-MADANIY QARAMLIGI VA UNING OQIBATLARI. SIYOSIY QATAG‘ONCHILIK

1. XX asr 20 – 30-yillarida Sovetlar tomonidan O‘zbekistonda amalga oshirilgan ma’naviy-ma’rifiy va madaniy tadbirlar. unga hukmron kommunistik mafkura ta’siri 347
2. Adabiyot, san’at va fan. Mafkuraviy tazyiqlar..... 351
3. 20–30-yillarda mustabid sovet tuzumining O‘zbekistondagi qatag‘onchilik siyosati va uning asoratli oqibatlari..... 354

XIII BOB. IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEK XALQINING FASHIZM USTIDAN QOZONILGAN G‘ALABAGA QO‘SHGAN HISSASI

1. O‘zbekistonning urush girdobiga tortilishi. Respublika kuch-qudrati va iqtisodiy salohiyatining mudofaa manfaatlariga bo‘ysundirilishi..... 364
2. Urush yillarida O‘zbekiston sanoati va qishloq xo‘jaligi..... 367
3. Urush yillarida fan va madaniyat 372
4. O‘zbekistonlik jangchilarning fashizmni tor-mor etishdagi jasoratlari..... 377

XIV BOB. XX ASRNING 50 – 80-YILLARIDA O‘ZBEKISTONNING IJTIMOIIY-IQTISODIY VA MADANIY-MA’NAVIY HAYOTI

1. Urushdan keyingi yillarda O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli..... 388
2. XX asrning 50–80-yillarida respublikaning ma’naviy-madaniy hayoti va mafkuraviy tazyiqlar..... 393
3. Sovet tuzumi qatag‘onlik siyosatining 50–80-yillardagi yangi to‘liqini..... 398

XV BOB. O‘ZBEKISTON MUSTAQILLIKKA ERISHISH OSTONASIDA

1. Tinchlik va barqarorlikka rahna solinishi, uni saqlash yo‘lidagi fidoyilik.....	404
2. O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, ularni bartaraf etish hamda xalq turmush darajasini ko‘tarish choralarning ko‘rilishi	411
3. O‘zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini ta‘minlash va bozor munosabatlariga o‘tish masalalarining hal etilishi	420
4. Mustaqillik sari dadil qadamlar.....	427
5. Prezident I.A.Karimovning O‘zbekiston mustaqilligi ostonasidagi davr tarixini yoritib berishdagi muhim xizmati.....	433

XVI BOB. O‘ZBEKISTONDA DAVLAT MUSTAQILLIGINING QO‘LGA KIRITILISHI. HUQUQIY DEMOKRATIK DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYATI ASOSLARINING BARPO ETILISHI

1. O‘zbekistonda davlat mustaqilligining e‘lon qilinishi va uning tarixiy ahamiyati	439
2. O‘zbekiston Respublikasi davlat ramzlari va Konstitutsiyasining qabul qilinishi.....	443
3. Siyosiy islohotlar. Huquqiy demokratik davlat asoslarining barpo etilishi.....	446
4. Fuqarolik jamiyati negizlarining yaratilishi.....	460
5. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda yangi bosqich.....	471

XVII BOB. MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONNING IQTISODIY TARAQQIYOTI

1. O‘zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi, uning strategiyasi, ustuvor yo‘nalishlari va bosqichlari.....	483
2. Tarkibiy o‘zgarishlar. Ko‘p tarmoqli iqtisodiyotning yaratilishi. Qishloq xo‘jaligidagi islohotlar.....	491
3. Qulay investitsiya muhitining yaratilishi. Bank-moliya va soliq tizimining takomillashtirilishi	499
4. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mamlakat iqtisodiy o‘rish sur‘atlarining ta‘minlanishi. Modernizatsiya jarayonlarining chuqurlashuvi va bundan kutilayotgan natijalar.....	504
5. Xalq farovonligini yuksaltirish. Ijtimoiy dasturlar va milliy taraqqiyot.....	508
6. Taraqqiyotning o‘zbek modeliga xos ustuvor tamoyillarning e‘tirofi.....	520

XVIII BOB. MUSTAQIL O‘ZBEKISTONNING MA’NAVIY VA MADANIY RIVOJI

1. Ma’naviy va ma’rifiy taraqqiyot	527
2. Ta’lim islohotlari	534
3. Ilm-fan. adabiyot va san’at rivoji	544
4. Diniy bag’rikenglik – ijtimoiy barqarorlik omili	548
5. Xalqning tinch va osuda hayoti – barqaror taraqqiyot garovi	551

XIX BOB. O‘ZBEKISTONNING JAHON HAMJAMIYATIGA INTEGRATSIYALASHUVI

1. O‘zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati va uning jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi	558
2. O‘zbekiston va BMT	563
3. O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy-siyosiy aloqalarining o‘rnatilishi va rivojlanishi	573
4. O‘zbekiston va MDH davlatlari. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo respublikalari bilan o‘zaro hamkorligi	596
Xulosa	617
O‘zbekiston tarixining muhim sanalari	618
Glossariy	642
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	667

MUALLIFLAR



Qo'ldosh Ergashev – Qashqadaryo viloyatining Yakkabog' tumanida tug'ilgan. Tarix fanlari doktori, professor. 8 ta monografiya, 7 ta o'quv, 20 ga yaqin o'quv-uslubiy qo'llanma va majmualari chop etilgan. Bugungi kunda Toshkent Davlat Iqtisodiyot universitetining "Tarix" kafedrası professori lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda.



Hojiakbar Hamidov – Toshkent shahrida tug'ilgan. Tarix fanlari doktori, professor. "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi" faxriy unvoni sohibi. 4 ta monografiya, 1 ta tarixiy-madaniy asar, 3 ta o'quv-uslubiy, 15 dan ortiq uslubiy qo'llanma, 70 ga yaqin ilmiy maqolalari e'lon qilingan. Bugungi kunda Toshkent Davlat Iqtisodiyot universitetining "Tarix" kafedrası professori lavozimida ishlab kelmoqda.

O‘ZBEKISTON TARIXI

O‘quv qo‘llanma

Muharrir *Ilhom Zoir*

Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*

Texnik muharrir *Yekaterina Koryagina*

Musahhihlar: *Fotima Ortiqova, Dono To‘ychiyeva, Gulnora Aripova*

Kompyuterda sahifalovchi *Umida Valijonova, Akmal Sulaymonov*

Nashriyot litsenziyasi AI № 154. 14.08.09.

2015-yil 17-aprelda bosishga ruxsat etildi.

Bichimi 70x100 $\frac{1}{16}$, Times New Roman garniturasida.

Ofset bosma. 55,25 shartli bosma toboq.

48,4 nashr tobog‘i. Adadi 3000 nusxa.

214 raqamli buyurtma. Bahosi shartnoma asosida.

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.

100128. Toshkent. Labzak ko‘chasi, 86.

Telefon: (371) 241-25-24, 241-48-62, 241-83-29

Faks: (371) 241-82-69

www.gglit.uz

e-mail: info@gglit.uz

Ergashyev. Qoʻldosh

Oʻzbekiston tarixi: oʻquv qoʻllanma / Q. Ergashyev. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi 2015. – 680 b.

Mazkur oʻquv qoʻllanmada Oʻzbekiston, oʻzbek xalqining qadimdan bugungi kungacha bosib oʻtgan tarixi va undagi tarixiy jarayonlari oliy oʻquv yurtlari hamda litsey va kollej talabalari uchun tavsiya etilgan Oʻzbekiston tarixi fani oʻquv dasturi talablari asosida yoritib berishga harakat qilindi.

Ushbu oʻquv qoʻllanma Oʻzbekiston tarixini oʻrganib, undan saboq olishni istagan barcha kitobxonlar ommasiga moʻljallangan.

UOʻK:82-94 (075)

KBK: 63.3(5 Ÿ)

Э-74